ISSN : 3030-3974

MAKON VA ZAMON

Пространство и время

Space and time

4
2026

MAKON VA ZAMON

ilmiy-falsafiy, ijtimoiy-iqtisodiy,
siyosiy-sotsiologik, ma’naviy-ma’rifiy jurnal

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2024-yil 30-noyabrdagi 01-08/3646-son qaroriga muvofiq siyosiy, tarix, falsafa, pedagogika va sotsiologiya fanlari bo‘yicha dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

2026-yil 4-son

M u a s s i s l a r: “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti va O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati

Tahririyat: *t.f.d., professor, akademik* O.Salimov, *f.f.d., professor* M.Abdullayeva, *s.f.d., professor* A.Muminov, *f.f.d., professor* O‘.Abilov, *p.f.d., professor* R.Choriyev, *p.f.d., professor* Z.Ismoilova, *f.f.d., professor* J.Ramatov, *i.f.d.,dotsent* X.Pirmatov, *f.f.d., dotsent* G.Urazalieva, *s.f.d.,dotsent* – A.Ravshanov

ISSN 3030-3974

Bosh muharrir – tahririyat rahbari:
Qiyom Nazarov – *f.f.d., professor*

Nashrga tayyorlovchilar:
M.Tursunova, M.Turdiyeva, Q.Kdirbayev

Tahririyat manzili: Qori Niyoziy ko‘chasi, 39,
Toshkent shahri, 100000,
Bichimi 60x84 Ofset qog‘ozi. “Times” garniturasi.
Hajmi 20 b.t. Nashriyot hisob tabog‘i 30 b.t. Adadi 100 nusxa

MUNDARIJA:

Бош муҳаррир минбари	“Ясоқлар” – ҳуқуқ фалсафасининг мумтоз намунаси	7
М. Каршибоев	Книга, написанная на фоне кардинальных перемен. Размышления узбекского переводчика о книге си цзиньпина «о государственном управлении»	10
Б. Талапов	Ахлоқ — қонуннинг руҳи, маънавий негизи	15
A. Tashanov	Mo‘tadillik falsafasi nima?	20
M. Mamatov	Yangi ma’naviy makon yaratish – yoshlar kamolotining muhim omili	24
H. Rasulov	Ekosofiya: inson va tabiat muvozanati falsafasi	28
A. Мирзахмедов	Кулгунинг ижтимоий нафосати	31
X. Saidov	Yoshlar ongida o‘zbek harbiy sarkardalari vatanparvarlik timsoli sifatida	36
S. Karimov	Ijtimoiy tarmoq algoritmlari ta’sirida shakllanayotgan hayotiy maqsadlarning falsafiy-axloqiy tahlili	40
B. Shamsiddinov	Tadbirkorlik va ishbilarmonlikning ma’naviy-axloqiy konsepsiyasi	45
M. Zoirova	Yangilanayotgan O‘zbek jamiyatida jamoatchilik nazoratini kuchaytirish zarurati	49
Г. Нишонбоева	Ҳозирги даврда “маданият” ва “маънавият” тушунчаларини ёшлар онггига сингдириш зарурати	53
H. Abdumajidova	Yangi O‘zbekiston markaziy osiyo mamlakatlari modernizatsiyalashuvi va ijtimoiy-siyosiy munosabatlar faollashuvining muhim sub’yekti va faol a’zosi..	57
J. Axmedov	Qashqadaryo vohasida mavsumiy marosimlarning milliy qadriyatlar bilan uyg‘unligi	61
Q. Kdirbayev	“Aksiosfera” tushunchasining nazariy-falsafiy mohiyati va shakllanish genezisi	64
О. Ортиқов	Глобаллашаётган дунё ва Ўзбекистон: ижтимоий-фалсафий мерос нуқтаи назаридан	68
K. Abidova	Yangilanayotgan O‘zbekistonda nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish tizimining me’yoriy-huquqiy asoslari	72
H. Suvonqulov	Abdurahmon Toshkandiy qarashlarida axloqiy madaniyat va shaxs kamoloti …	76
S. Azamova	Oila va mahalla institutining yoshlar ekologik ongini shakllantirishdagi o‘rni…	81
N. Tog‘ayev	Imom al-Buxoriy hadislarida ilm o‘rganish masalalari xususida	85
Sh. Hamroyev	Shahobiddin Marjoniyning pedagogik qarashlari va falsafasi	89
О. Межевникова	Возможности и риски цифровизации образования и развития виртуального обучения	93
I. Umarova	Yoshlar dunyoqarashida insonparvarlik tamoyilini shakllantirishning ayrim muammolari	97

Sh. Asadova	O‘zbekistonda 1950–1980 yillarda ta'lim tizimi: holati, yo‘nalishlar va ziddiyatlar (maktab ta'limi misolida)	101
G. Shadimetova	Milliy bayramlar estetikasi strukturasi va uning asosiy komponentlari	107
G. Axmadjonova **B. Xolmatov**	O‘rta Osiyo tarixshunosligining nazariy va metodologik asoslari	110
Sh. Saidmurodov	Erkin iqtisodiy zonalarning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari: yutuqlar, muammolar va yechimlar	115
M. G‘ovsidinov	Sharqshunos Y.E Bertels jomiyning borliq haqidagi qarashlari xususida	119
T. Boygaziyev	Boshqaruv ma’naviyati va rahbar axloqiy madaniyatining dialektik aloqadorligi	122
J. Boybutayev	Terrorizm fenomenining ijtimoiy-antropologik xususiyatlari	126
F. Muxamedova	Raqamli va interaktiv texnologiyalar vositasida art-terapiya mashg‘ulotlarini tashkil etishning nazariy-ilmiy yondashuvlari	130
X. Баратов	Қадимги Нахшаб вилоятидаги ёзув маданияти ҳақида	133
L. Usmonova	IX-XII asrlarda ilmiy metodlarning o‘zaro ta’siri	136
Z. Rajabova	Buddizm, Xristianlik, Islom dinining Ipak yo‘li orqali tarqalishi	139
D. Kuanishova	Jamiyat taraqqiyotida ayollarning ijtimoiy mavqei evolyutsiyasi	143
Sh. Axmatov	Abu al-Huzaylning borliq haqidagi ratsionalistik qarashlari	147
Q. Jabborov	Internet muhitida radikallashuv va ekstremizmning shakllanish mexanizmlari hamda ularning ijtimoiy-siyosiy omillari	151
F. Melikulov	Ichki ishlar organlarida ma’naviy tarbiya tizimini takomillashtirishning dolzarb masalalari	155
J. Utegenova	Globallashuv sharoitida bioetika: ilmiy-texnologik taraqqiyot, inson qadri va global mas’uliyatning falsafiy-axloqiy tahlili	159
S. Jabborova	Xalqlar madaniyati va ma’naviyatining rivojlanishiga Buyuk Ipak yo‘li hamda globallashuvning ta’siri	163
H. To‘xtayev	Yangi O‘zbekiston qishloq yoshlarining agrar madaniyatini shakllantirishda ma’naviy qadriyatlar uyg‘unligi	167
G‘. Djurayev	Globallashuv jarayonlarini tadqiq etishda tizimli-sinergetik yondashuv	171
I. Urazaliyeva **M.Xasanova** **S.Abdullayeva**	Metabolik sindrom xavfi mavjud ayollarda sog‘lom turmush tarzini shakillantirishning pedagogik-psixologik asoslari	175
M. Alimardonova	Shahobiddin Marjoniyning pedagogik tajribasi	179
Y. Avazxonov	Korporativ xodimlar o‘rtasidagi axloqiy munosabtlar va ularning tashkilot samaradorligiga ta’siri	183
X. Beshimov	O‘zbekiston mustaqilligi yillarida kasaba uyushmalarining inson qadrini yuksaltirish borasidagi faoliyati va uning ijtimoiy ahamiyati	188

M. Абдуллаева	Globallashuv sharoitida O‘zbekistonda davlat va din munosabatlarining transformatsiyasi	192
F. Qushbayev	Ilk Islom davrini o‘rganishga oid manbalar tahlili	196
S. Muradov	Imom Rabboniyning axloqiy g‘oyalari	199
M. Raxmatova	Ekologik muammolarning antropogen omillari: zamonaviy ekologik inqirozning ijtimoiy-falsafiy tahlili	201
M. Umarova	Amir Shoxmurodning turk sultoni Abdulhamid II bilan yozishmalari	205
X. Talipov	Xarbiy vatanparvarlikni shakllantirishda ijtimoiy institutlarning (oila, ta'lim, armiya, OAV) ro‘li	209
A. Ochilov	Kiberxavfsizlik va axloqiy me’yorlar: O‘zbekiston va xalqaro tajribani solishtirish	213
Z. Soliyeva	Musiqiy vaqt fenomenologiyasi: M. Xaydegger konsepsiyasida vaqtning “hissiy” va “ongli” shakllari	217
J. Samadov	Jaloliddin Rumiy falsafasida aql, qalb va ilhom birligi	221
B. Raxmatullayev	O‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning falsafiy omillari	225
A. Soliyev	Virtual borliq va huquqiy ong: inson dunyoqarashidagi evristik o‘zgarishlar	228
Sh. Faxriddinov	Shanxay hamkorlik tashkiloti tarixida O‘zbekistonning o‘rni va strategik tashabbuslari	231
U. Mamatraimov	Surxondaryo viloyatida sog‘liqni saqlash muassasalari tarmog‘ining rivojlanishi va kengayishi (1946-1960-yy.)	235
B. Imomov	Ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar va huquqiy ong transformatsiyasi	240
S. Ochilova	Forobiy asarlarida davlat boshqaruvi shakllari va ularning jamiyat taraqqiyotidagi roli	244
R. Mardonov	Behbudiyning siyosiy-huquqiy va davlat boshqaruviga doir qarashlaridagi an’ana hamda zamonaviylikning sintezi	247
Ф. Олимходжаев	Замонавий жамиятнинг технологик тараққиёти: имкониятлар, хавф-хатарлар ва истиқболлар	250
M. Shaxnazarova	Is’hoqxon To‘ra Ibrat falsafasida ma’naviy tarbiya masalalari	253
A. Temirov	Madaniyatlar globallashuvi jarayonida milliy o‘zlikni anglashdagi o‘zgarishlar.	257
A. Berdibaev	Yangi O‘zbekistonda axborotlashgan jamiyat sharoitida shaxs madaniyati transformatsiyasining ijtimoiy-falsafiy tamoyillari	261
О. Абдусаломов	Бахтнинг эмпирик ўлчовлари ва унинг ижтимоий-фалсафий моҳияти	264
H. Ochilov	Yangi O‘zbekiston taraqqiyotda milliy an’analar va modernizatsiya jarayonlarining uyg‘unligi	268
M. Norqorayeva	Alisher Navoiy asarlarida rahbarlik etikasi va ma’naviy mas’uliyat masalalari...	272
R. Abdumannonova **R. Malikova** **M.Axmatova**	Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va yoshlarni aqliy tarbiyalash	275

U. Sorimsokov	Bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda innovatsion ta’lim muhitining pedagogik imkoniyatlari ……..	278
A. Valiyev	Aholining ijtimoiy rivojlanishida samarali bandlik va munosib turmush darajasini kafolatlash masalalari ……..	282
E. Safarov	O‘zbekiston – Germaniya hamkorligida mehnat migratsiyasi va xalqaro ta’lim dasturlari ……...	285
A. Yulchiyev	Ijtimoiy texnologiyalarning zamonaviy ijtimoiy-madaniy muhitga integratsiyasi ……	288
F. Eshimova	Sun’iy intellekt modellari vositasida bo‘lajak muhandislarni raqamli kompetentligini rivojlantirishning nazariy tahlili ……	291
Г. Муминова	Археологияда кулолчилик технологиясини ўрганиш тарихи ва методологиясининг шаклланиши ……	294
Sh. Allamuratov	Sayid Otaliq madrasasi – Denov bekligi me’morchiligining nodir namunasi ….	297
V. Shamsiyeva	Inson qadri va ijtimoiy manfaatlarni ta’minlashda jamoatchilik nazoratining ahamiyati ……..……	300
D. Sherova	Virtual madaniyat sharoitidan estetik uyg‘unlik mezonlarinIIng o‘zgarishi …..	304
R. Ismetov	Qoraqalpoq milliy yog‘och o‘ymakorligi va uning o‘ziga xos xususiyatlari …..	308
A.Satenov		
U. Kudratova	Fan va ta’lim integratsiyasida akademik erkinlik va akademik jamoa sub’ektlarining roli ……...	311
M. Rajabova	Geosiyosiy inqirozlar sharoitida tolerantlik omili: siyosiy-huquqiy yondashuv..	316
J. Turmatov	Innovatsion-raqamli muhitda magistrlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishning tarkibiy komponentlari va didaktik asoslari ……	320
J. Tojiboyev	Birinchi jahon urushi yillarida Turkistonda qochoqlar sog‘lig‘i va sanitariya-epidemiologik nazorat tizimi ……	324
J. Sodiqov	Ekologik ta’lim samaradorligini monitoring qilish tizimi: baholash mezonlari va o‘quvchilarning ekologik xulq-atvoridagi o‘zgarishlar ……...	329
D. Isroilov	Ijtimoiy adolat transformatsiyasining falsafiy asoslari: ontologik, aksiologik va normativ tahlil ……..	332
N. Xodjabekova	Postmodern jamiyatda niyat va axloqiy autentlik muammosi ……	336
O. Rustamova	Gender qadriyatlari transformatsiyasi sharoitida oilaviy munosabatlarning ijtimoiy-falsafiy tahlili ……..	340
H. Jumanov	Yoshlarni mustaqillik g‘oyasi ruhida tarbiyalashda badiiy ijodning ahamiyati...	344
B. Ochilov	Ibn Xaldun ta’limotida asabiyyaning evolyutsiyasi va tanazzul jarayoni …….....	348
M. Odinayev	Shams Tabriziyning tasavvufiy hayot yo‘li ……	351
З. Ёдгоров	Янги Ўзбекистон оммавий спортни ривожлантириш йўлида ……...	354
M. To‘yeva	O‘zbekistonda yangilanish jarayonida xotin-qizlar innovatsion saloxiyatini yuksaltirishning ijtimoiy falsafiy jihatlari ……	358

N. Xoliddinov Bugungi jamiyatda axloqiy me’yorlar inqirozining deterministik omillari tahlili ……...…… 362

Y. Raxmatova Axloqiy ideal-inson ma’naviy kamolotining muhim mezoni ……...….... 366

B. Hamroyev Ma’rifatli jamiyat g‘oyasini o‘rganishga doir ayrim yondashuvlar ……..… 369

Бош муҳаррир минбари

“ЯСОҚЛАР” – ҲУҚУҚ ФАЛСАФАСИНИНГ МУМТОЗ НАМУНАСИ

Инсоният тарихида фалсафа, сиёсатшунослик ва ҳуқуқ фалсафасига доир кўплаб асарлар яратилган. Платоннинг “Давлат”, Аристотелнинг Сиёсат”, Форобийнинг “Фозил одамлар шаҳри”, Низомулмулкнинг “Сиёсатнома, Макиавеллининг “Давлатпаноҳ” каби асарлари шулар жумласидан. Улардан ташқари Чингизхонга нисбат бериладиган “Ясоқлар” (муғулча – засоқ, йосун) ва Амир Темур муаллифи дейиладиган “Темур тузуклари” ҳам бу жабҳадаги машҳур манбалар ҳисобланади. Чингизхон даврида яратилган “Ясоқлар” чингизийлар империясида хон ҳокимияти ва давлат бошқаруви учун асос бўлган қонунлар тўплами, “қоида”, “қонун”, “жазолаш” деган маъноларни англатади. Жувайний маълумотларига кўра, ясоқлар уйғур ёзувида туморларга (ўроғли қоғозларга) ёзилган бўлиб, бу қоғоз ўрамлари нисбатан обрўли бўлган шаҳзодаларда сақланган. Уларнинг асл нусхаси бизгача етиб келмаган, айрим қисмлари қисқартирилган ҳолда Жувайний, Ибн Батутта, Абул Фараж, Макризий асарларида учрайди.

Ясоқлар асос бўлган “Мўғуллар империяси” жаҳон тарихидаги энг йирик қитъа империяларидан бўлиб, 13—14-асрларда шаклланган. Чингизхон раҳбарлигида мўғуллар Евросиёнинг катта қисмини босиб олдилар, ўзларидан ноёб маданий, иқтисодий ва ҳарбий мерос қолдирдилар. Чингизхон ва унинг ворисларининг истилолари натижасида вужудга келган ва Шарқий Европадан Япония денгизигача ва Новгороддан Жануби-Шарқий Осиёгача ва Корея гача бо‘лган ҳудудни о‘з ичига олган жаҳон тарихидаги энг йирик давлат, дея эътироф қилинган Муғуллар империяси ўзининг гуллаб-яшнаган даврида у О‘рта Осиё, Сибир, Шарқий Европа, Яқин Шарқ, Хитой ва Тибетнинг кенг минтақаларини қамраб олган.

Муғулистоннинг ўзида ва салтанатнинг шарқий қисмларида Чингизийлар хонадони шаҳзодалари дастлаб кобегун, кейинчалик тайжи деб аталган. Чингизийлар давлатининг ғарбий қисмида шаҳзодалар бошқача аталган. XIII-XIV асрлар мусулмон муаллифлари асарларида дастлабки Чингизийлар шаҳзода, подшозода ёки оддий форсча писар (ўғил) деб аталган бўлса, ғарбий чингизийларнинг учинчи, тўртинчи ва кейинги авлодлари туркча ўғил (огул), ўғлон (оглан) (одатда шаҳзоданинг номидан кейин) сифатида тилга олинади.

Юқорида эслатганимиздек, XIV асрдан бошлаб (айниқса ғарбий Чингизийларда) нисбатан кенг тарқалган шаҳзодалар унвони султон ҳисобланади. Маданий жиҳатдан бўйсундирилган халқлардан анча орқада бўлган Чингизийлар қарам ўлкалар тарихий тараққиётида салбий из қолдирди. Чингизхон асос солган салтанатда улусларга бўлиб бошқариш жорий қилинган бўлса-да, ҳар бир улус мустақил бўлибгина қолмай, улар ўртасида узоқ йиллар ўзаро урушлар ҳам бўлиб турган.

Бу борадаги ҳуқуқий муносабатлар учун асос бўлган Ясоқларнинг вужудга келиши ва яратилишида Чингизхоннинг бевосита иштироки ҳақида маълумотлар бор. Уларга кўра, 1203 йилдаёқ муғуллар давлатида ҳали бир тизимга эга бўлмаган қонунлар тўплами вужудга келиб, у ўз ичига ёрлиқлар (буйруқлар), ясоқ (қонунлар), билик (насиҳатлар)ларни жамлаган эди. Ясоқлар тўла ҳолатида 1206 йилги муғул зодагонлари қурултойида, Чингизхон улуғ хон этиб сайланганида, қабул қилиниб, “Буюк ясоқлар” ёки “Чингизхон ясоқлари” номини олади. Улар 1218 йилда қайта кўриб чиқилади ва 1225 йилда сўнгги марта таҳрир қилинади. Чингизхон ясоқларининг асосий мақсади империялашаётган давлат талабларига жавоб берадиган ҳуқуқнинг янги тизимини ташкил этиш бўлиб, уларга риоя қилиш нафақат давлатдаги ҳар бир фуқаро, балки хон ва барча даражадаги раҳбарларларнинг ҳам мажбурияти бўлган.

Ясоқлар асосан, муғулларнинг кўчманчи ҳаёт турмуш тарзини ифода этган бўлиб, улар ушбу халқнинг қадимий урф-одатлари, анъаналари, мавжуд сиёсий тузум моҳиятидан келиб чиққан ҳолда, кескин ва жуда қаттиқ оҳангда, патриархал тузумни ўзида акс эттирган равишда тузилган эди. Муғуллар томонидан босиб олинган кўпгина ҳудудлар, хусусан, қадимдан ўзининг ҳуқуқий анъаналарига эга бўлган Ўрта Осиё халқларини янги қонунларга бўйсундириш жараёни ниҳоятда оғир кечган. Чунки, асрлар давомида ўтроқ маданий ҳаёт кечирган халқлар кўчманчилар анъаналарини қабул қилиши қийин бўлган. Ясоқларда ижтимоий-хўжалик ва маданий ҳаётнинг кўпгина томонлари ўз аксини топмаган, айрим қоидалар эса мусулмон диний ҳуқуқлари ва маҳаллий аҳоли анъаналарни инкор этар эди. Шунинг учун ҳам Ясоқлар тарафдорлари ва маҳаллий аҳоли ўртасида кўплаб тўқнашувлар бўлган.

“Ясоқ” қонунларининг асосий йўналишлари қуйидагича бўлган: 1. Ҳукмдор (хон) “ясоқ”қа қатъий риоя этиши хусусида қасамёд қилиши ва унга амал қилиши, амал қилмайдиган бўлса, хонни умрбод қамаш мумкин. 2. Муғуллар орасида диний адоват келиб чиқмаслиги учун барчага тўла диний эркинлик берилади, руҳонийлар солиқдан озод этилади. 3. Аёллар наслни давом эттирувчи бўлганликлари учун уруш вақтида уларнинг гуноҳлари кечирилиши лозим. 4. Жазолаш даражаси сифатида ўлим жазосини энг кўп миқдорда қўлланиши керак. 5. Босиб олинаётган мамлакатлар халқларига ҳеч қандай раҳм-шафқат қилмаслик зарур.

Ясоқларга кўра муғуллар томонидан барпо этилган империянинг давлат бошқаруви борасида империя хон уруғининг хусусий мулки, деган принцип ҳукмрон эди. Давлат бошқарувидаги бу ўзига хосликни ўз вақтида Жувайний шундай таърифлаган эди: “Ташқаридан қараганда бошқарув ва мамлакат битта шахсга ишониб топширилган бўлса-да, аслида ўша шахснинг барча ота томонидаги қариндошлари (эркаклар) ерларга ва умумий бойликка биргаликда эгалик қиладилар”. Ясоқларга асосланган муғул жамиятидаги хон ҳокимиятига умумий кўринишда қўйидагича тавсиф берилади: она ўз боласига ғамхўрлик қилгани каби, хон ҳам ўз қарамоғидагиларга ва қўшинларга ғамхўрлик қилишга мажбур. Унинг қарамоғидагилар ва қўшинлар эса, ҳукмдорни ўз отаси деб ҳисоблайдилар. Улар ҳукмдорга сидқидилдан буйсунишлари, хоинлик қилмасдан хизмат қилишлари ҳамда унинг ҳокимиятини қўллаб-қувватлаш учун ўз жонларини қурбон қилишга рози бўлишлари лозим.

Бошқарувнинг қадимги муғул анъаналарига кўра, давлатдаги олий ҳокимият хон қўлида бўлган. Олий ҳокимият ҳуқуқини берувчи ягона манба – олтин уруғ (Алтан уруг) ҳоҳиши бўлиб, олтин уруғ ўз хоҳиш – истагини шаҳзода ва аслзодаларнинг Қурултойида ифода этган. Олтин уруғнинг ҳар қандай аъзоси ўз фазилатлари билан шаҳзодалар ва олий аристократия томонидан хон бўлишга лозим топилса, хон бўлиб сайланган. Муғул жамиятида ноиблар, зодагонлар ваaслзодалар турли-туман унвонлар бериш таъқиқланган. Абул Фараж ва Жувайнийнинг “Ясоқ”ларни шарҳлашига кўра, “подшо тахтига ўтирган кишига фақат битта хон ёки қоон унвони берилади. Унинг ака-ука ва қариндошлари фақат ўзининг номи билан аталади.” “Ясоқ”ларнинг бу қисмига жуда қаттиқ риоя қилинган бўлишига қарамай, XIV асрнинг ўрталаридан бошлаб Жўжи ва Чиғатой улусларида султон унвони ишлатила бошланди.

Ясоқларга кўра муғуллар давлатида хон ҳокимиятиннг қуйидаги ҳуқуқ ва вазифалари бор эди:

1. Хон ҳукмдор уруғининг бошлиғи ва қарам вассаллар ҳукмдори сифатида бутун мамлакат, улусларга тегишли ҳудудлар устидан олий ҳуқуққа эга бўлиб,унинг асосий вазифаси – мамлакатни ташқи душманлардан қуролли ҳимоя қилиш эди.

2. Хон уруш эълон қилиш ва сулҳ тузиш ҳуқуқига эга бўлиб, мамлакат қўшинларининг олий бошлиғи эди.

3. Хон бошқа давлатлар билан музокаралар олиб бориш ҳуқуқига эга бўлиб, мамлакатнинг ташқи сиёсий алоқаларини ҳам бошқарган.

4. Хон ўз қарамоғидагиларни қатл этиш ва омон қолдириш ҳуқуқига эга бўлиб, мамлакатдаги бош қози вазифасини ҳам бажарган.

5. Хон қонунлар чиқариш ҳамда жамиятнинг барча аъзолари бажариши лозим бўлган фармонлар чиқариш ҳуқуқига эга бўлиб, жамоат тизими ва тартибни сақлаш вазифасини бажарган.

Муғул анъаналарига кўра, янги ҳукмдорни сайлайдиган бутун муғул қурултойи чингизийлар уруғининг ёши энг улуғи ёки вақтинча ҳукмдор томонидан чақирилган. Қурултой вақти олдиндан белгиланган ва чопарлар орқали барча улусларга хабар берилган. Белгиланган вақт ва аниқланган жойда улкан империянинг барча улусларидан шаҳзодалар ва уларнинг қариндош-уруғлари, маликалар, куёв-кўрагонлар, обрўли нўёнлар, амирлар, амалдорлар, шунингдек, муғулларга бўйсунган ҳукмдорлар ўзларининг қимматбаҳо ҳадя ва тортиқлари билан етиб келганлар. Қурултой бир неча ҳафта давом этган (мас., 1229 йилда 40 кун, 1246 йилда 4 ҳафта ва ҳок.)

Муғулларда ҳукмдор хон давлат бошқарувидаги олий ҳукмдор бўлиб, анъанага кўра, хон ҳокимияти умумий манфаатлар, жамиятдаги барқарорлик ва адолатлилик кафолати бўлган. Ҳукмдор хонадонининг ҳар бир вояга етган аъзосига, жумладан ҳукмдорнинг бева қолган хотинига империянинг умумий ҳудудидан маълум сондаги ҳунармандлар ва деҳқончилик туманлари берилган. Улардан келган фойда мулк эгасининг саройи ва қўшинлари эҳтиёжини қондиришга сарфланган. Шу билан бирга ҳар бир вояга етган муғул шаҳзодаси эл (маълум уруғ-ва қабилалар) ва юртга (ҳудудий воҳа, яйлов учун ерлар) давогарлик қилган. Бундай шароитда улар ўз улуси одамлари билан уларнинг қишги ва ёзги масканларида яшашлари ҳамда бошқарув ва солиқ йиғилишига аралашмасликлари лозим бўлган. Ўтроқ вилоятлар бошқаруви, деҳқончилик воҳалари ва ҳунармандчилик устахоналаридан солиқ йиғиш ва уни “керакли одамга юбориш” буюк хон томонидан тайинланган махсус шахслар, кейин эса маҳаллий ҳукмдорлар зиммасида бўлган.

Чингизийлар давлатида ҳарбий аслзодалар кўп бўлиб, Чингизхоннинг ўзи ҳам, ундан кейинги муғул хонлари ҳам уларни хон ва давлат олдидаги ҳизматлари учун тақдирлаб турганлар. Бундай тақдирланганлар тархон деб аталган. Улар турли солиқлардан озод қилинган бўлиб, ов пайтида ва урушларда қўлга киритилган ўлжалар уларнинг шахсий мулки ҳисобланган.

Хуллас, ўз даврида яратилган мумтоз манбалардан бири - Ясоқларга таяниб бошқарилган Мўғуллар империяси ўша замонда ниҳоятда катта ҳудудни эгаллаган ва ҳозиргача ҳам унинг таъсири сезилиб келмоқда. Мазкур улкан давлат сиёсати кўплаб халқлар ва маданиятлар тарихи ва тадрижига кучли таъсир кўрсатди. Мўғуллар империяси инсоният тарихида муҳим ўрин тутади ва унга бўйсўнган мамлакатларга таъсири мавзуси кўплаб тадқиқотларга асос бўлиши шубҳасиз.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Taagepera R. Expansion and Contraction Patterns of Large Polities: Context for Russia // International Studies Quarterly. — 1997. — Vol. 41. — P. 499.
2. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Биринчи жилд. - Тошкент, 2000-йил
3. Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. 1-2 жилдлар. - Тошкент, 2023-йил

Мақола Қиём Назаров томонидан тайёрланган

КНИГА, НАПИСАННАЯ НА ФОНЕ КАРДИНАЛЬНЫХ ПЕРЕМЕН

Размышления узбекского переводчика о книге Си Цзиньпина «О государственном управлении»

Муртаза Каршибоев,
Политолог, обладатель национальной премии Китайской Народной Республики «За выдающийся вклад в области печати»

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Si Szinpinning "Davlat boshqaruvi haqida" asari Yangi Xitoy taraqqiyotidagi tub burilishlar, ijtimoiy-siyosiy islohotlar va tarixiy o'zgarishlar kontekstida tahlil qilinadi. Unda xitoycha o'ziga xos sotsializmning nazariy hamda amaliy asoslari, marksizmning milliy sharoitga moslashtirilgan talqini yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *Yangi Xitoy, Xitoy Kommunistik partiyasi, davlat boshqaruvi, xitoycha o'ziga xos sotsializm, islohot va ochiqlik, kambag'allikni qisqartirish, xalq farovonligi, insoniyat taqdirining mushtarakligi.*

Аннотация. *В данной статье произведение Си Цзиньпина «О государственном управлении» анализируется в контексте коренных поворотов в развитии Нового Китая, общественно-политических реформ и исторических изменений. В ней освещаются теоретические и практические основы социализма с китайской спецификой, интерпретация марксизма, адаптированная к национальным условиям.*

Ключевые слова: *Новый Китай, Коммунистическая партия Китая, государственное управление, социализм с китайской спецификой, реформы и открытость, сокращение бедности, народное благосостояние.*

Abstract. *This article analyzes Xi Jinping's On the Governance of the State in the context of fundamental turning points in the development of New China, socio-political reforms, and historical changes. It highlights the theoretical and practical foundations of socialism with Chinese characteristics, the interpretation of Marxism adapted to national conditions, the role of party leadership, public welfare, the experience of poverty reduction, as well as the idea of a community with a shared future for mankind.*

Keywords: *Xi Jinping, governance of the state, socialism with Chinese characteristics, New China, reform and opening up, poverty reduction, public welfare, the Communist Party of China, a community with a shared future for mankind.*

Прежде всего, хочу особо отметить, что по инициативе главы нашего государства – Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на узбекский язык были переведены четыре тома поистине фундаментального труда китайского лидера Си Цзиньпина «О государственном управлении» с общим объемом 200 печатных листов. Первые два тома уже изданы и дошли до читательской аудитории, еще два тома готовится к печати.

Я благодарен судьбе за то, что мне впала такая честь – перевести на свой родной язык столь важное и уникальное произведение.

История свидетельствует о том, что с тех пор, как вышел в свет «Манифест коммунистической партии», написанный в 1848 году вождями пролетариата К. Марсом и Ф. Энгельсом, то есть по истечении 180 лет, все-еще остается актуальным вопрос создания социалистического строя, базирующегося на таких фундаментальных ценностях, как социальная справедливость, равенство, свобода, всеобщее благополучие и других. А сможет ли человечество на деле создать такой строй, реализовать такую благородную цель, хотя бы ее общие принципы?

Сколько революций и социально-политических потрясений пришлось пережить человечеству за прошедшей период из-за стремления осуществить эти идеи. Какие огромные усилия и попытки были предприняты на этом пути, увы, не всегда увенчавшиеся успехом.

Возможно, мешал империализм со своей экономической мощью или прогнившей идеологией, или не хватило мудрости и дальновидности тем лидерам государств, по-настоящему желавшим построить такую систему в своей стране. Возможно, были и другие причины. Словом, очень сложным и тернистым, порой даже трагическим оказался путь человечества к этой цели.

Сегодня, как признает весь мир, Китаю это удалось в полной мере. Реальная практика, достигнутые весомые результаты в этой стране наглядно показывают: при умелом претворении в жизнь этой идеологии социализм реально на деле может успешно конкурировать с другими общественными системами, даже превосходить их по многим показателям.

В чем состоят основные цели и задачи, суть и содержание китайского социализма?

Об этом сегодня размышляют многие политики, эксперты и аналитики, известные ученые и исследователи.

Конечно, достаточно много книг и публикаций, научных и информационных ресурсов, посвященных этой теме. Без всякого сомнения, в их создании особое значение имеет первоисточник. С этой точки зрения, книга Председателя Китайской Народной Республики, выдающегося политического и государственного деятеля современности Си Цзиньпина «О государственном управлении» является очень ценным и уникальным трудом. Что особенно важно, автор представляет это яркое, феноменальное явление нашего века – социализма с китайской спецификой новой эпохи и в теоретическом, и практическом плане, глубоко раскрывает его суть и содержания, перспективы развития в контексте нынешних глобальных проблем.

В книге обобщены очень богатые исторические, аналитические материалы, даны подробные оценки пройденному пути и указаны четкие цели и задачи на будущее.

Это книга, написанная на фоне кардинальных перемен и исторических скачков, происходящих в китайском обществе, всестороннее показывает, что Си Цзиньпин

является автором нового учения – теории создания социализма с китайской спецификой новой эпохи. Примечательно, что это учение предполагает целый ряд важных моментов. Ваш покорный слуга, глубже осознавший особенности развития китайского социализма в ходе перевода данных томиков, оценивший каждое событие через призмы размышления и видения автора и невольно становившим свидетелем многих процессов, происходящих сейчас в китайском обществе, хотел бы отметить некоторые особенности этого учения и поделиться впечатлениями об этом труде в целом.

Первое. В книге подробно проанализированы социально-исторические условия, при которых формировался и развивался китайский социализм. Это объективный исторический процесс, обусловленный целым рядом факторов.

Конечно, чтобы подробно раскрыть их, потребуется немало времени. Скажу лишь, что китайский народ, переживший в своей истории много невзгод и трагедий, мужественно преодолевший бесчисленные испытания, именно в идее социализма видел спасение и, не боясь жестокой борьбы, смело шел к этой цели.

Второе. Социализм с китайской спецификой новой эпохи предусматривает китаизацию марксизма и это в данный момент проявляет себя в качестве реальной устойчивой тенденции. Это, по-моему, самый важный и принципиальный момент. Потому что многие реформаторы, чьи усилия по созданию социалистического строя в своей стране завершились провалом, не уделили достаточного внимания именно этому аспекту. Откровенно говоря, при реализации марксизма они не отважились что-то изменить в самой сути и содержании этого учения, не учитывали конкретные условия того общества, страны и народа, где должен был восторжествовать социализм. В итоге вместо жизнеспособного учения формировалась окостеневшая догма. Она, по сути, не работала, а только мешала обществу двигаться вперед.

Как не устает повторять и особо отмечает автор книги, Китай – это древняя и самобытная страна, богатая цивилизация и культура с более пяти тысячелетней историей. Она, учитывая печальную практику других стран по построению социализма, слепо не копирует марксизм, а исходя из собственных реалий, осовременивая, обогащая, совершенствуя его основные идеи, умело применяет его у себя.

Иначе говоря, дерево марксизма нашло хорошую почву на китайской земле для бурного роста. Оно, наполнившись мудрой философией китайского народа, плодами древней цивилизации, демонстрирует сегодня свою полную жизнеспособность.

Социализм с китайской спецификой новой эпохи строго держится на таких важнейших принципах современного развития, как реформы и открытость. Благодаря такой политике, обоснованной и внедренной в жизнь великим китайским реформатором Ден Сяопином свыше 400 лет назад, Китай успешно сотрудничает с развитыми и развивающимися государствами.

Социализм с китайской спецификой новой эпохи не игнорирует рыночную экономику, частную собственность, предпринимательство, напротив всячески способствует их развитию.

В результате всех этих коренных преобразований Китай сегодня занимает второе место в мире по объему экономики.

Третье. Решающую роль играет единое централизованное руководство Центрального Комитета Китайской Коммунистической партии в реализации учения социализма с китайской спецификой новой эпохи. Китайская Коммунистическая партия создана для народа, живет и работает для народа.

В этом и есть та самая квинтэссенция, определяющая истинную суть и значение социализма с китайской спецификой новой эпохи.

Компартия управляет страной только ради благополучия народа, его интересов. Народ для нее является источником силы, энтузиазма и вдохновения.

В свою очередь и народ всецело поддерживает Коммунистическую партию Китая в ее великих устремлениях, направленных на строительство социализма с китайской спецификой новой эпохи.

Представьте себе, население численностью свыше 1,4 миллиарда человек идет в одном ряду во главе с Компартией Китая, в авангарде этого строя шагают более чем 90 миллионов китайских коммунистов. Самое главное, цели и задачи ясны, конкретные результаты и ошеломляющие успехи уже на лицо.

Сегодня именно народ и Коммунистическая партия Китая выступают главными созидателями «китайского чуда».

Действительно, чудо происходит там, где царит мир, сплоченность, согласие и развитие. Нынешний Китай тому яркое подтверждение.

Четвертое. Воспитание сознания масс. В своей книге автор придает ключевое значение этому вопросу. В достижении такой цели все члены партии, особенно руководящие кадровые работники, должны быть яркими примерами.

Любая идея или идеология только тогда может быть реально реализована, когда опирается на самоотверженных людей, готовых показать пример на пути к достижению поставленных целей.

В Китае много достойных людей, готовых посвятить себя этому пути «двух столетних юбилеев» — полному построению среднезажиточного общества к столетию образования Китайской Народной Республики и великому восстановлению китайской нации – к столетию создания Китайской Коммунистической партии.

Работать в этом направлении для многих китайцев, особенно коммунистов, стало настоящим убеждением, смыслом жизни, национальной гордостью. Автор обращает на это особое внимание.

Пятое. Богатый опыт Китая по сокращению нищеты тоже является своего рода революцией в социальном развитии Китая.

Вообще, понятие «революция» в китайском понимании не связано лишь с одним историческим событием, то есть с завоеванием Коммунистической партией власти. Это – непрерывный исторический процесс в разных сферах, особенно в сознании людей, в первую очередь коммунистов. Продолжается жизнь, продолжаются реформы – продолжается и революция.

Еще один важный момент – революция не означает резких социально-политических поворотов или потрясений. Непрерывное и динамичное развитие, дающие хорошие результаты и меняющее сознание людей, качество жизни народа – это тоже революция.

Именно революционный дух помогает народу, особенно коммунистам преодолевать все трудности, своевременно и действенно отвечать на разные угрозы и вызовы. Именно в этом – в постоянном поиске, движении, процессе совершенства и обогащения кроется сила социализма с китайской спецификой новой эпохи.

Шестое. Любовь к Родине и народу. Это лейтмотив всех четырех томов книги «О государственном управлении».

Поражает, насколько глубоко автор знает историю, философию, культуру, литературу и искусство своего народа. Поэтому каждая глава, каждая статья этого уникального труда китайского лидера пронизана духом народной мудрости, китайской философии, сопровождается многими историческими примерами, сопоставлениями, стихотворными строками, отрывками из песен. Это придает книге еще больше содержательности, веса и привлекательности, делает настоящее произведение воплощением китайского духа, программы марксизма XXI века, теории модернизированного социализма с китайской спецификой.

Седьмое. Автор книги рассматривает судьбу всего человечества как единое целое. Его идея о создании сообщества единой судьбы человечества четко отражает устремления всех народов объединиться перед суровыми испытаниями нынешней эпохи.

Строительство нового Великого шелкового пути, выдвигаемое автором книги, широкое сотрудничество в рамках инициативы «Один пояс, один путь» направлены именно на такую благородную цель.

О разных направлениях этой книги можно говорить еще долга. Скажу одно, она открывает перед нами неповторимый облик и красоту Нового Китая со всей его мощью и динамикой развития, масштабностью реформ, помогает глубже понять эту страну, ее нынешние исторические успехи и, без всякого сомнения, ее ключевую роль в мировом сообществе.

Использованная литература:

1. Xi Jinping. The Governance of China. Volume I. – Beijing: Foreign Languages Press, 2014.
2. Xi Jinping. The Governance of China. Volume II. – Beijing: Foreign Languages Press, 2017.
3. Xi Jinping. The Governance of China. Volume III. – Beijing: Foreign Languages Press, 2020.
4. Xi Jinping. The Governance of China. Volume IV. – Beijing: Foreign Languages Press, 2022.

АХЛОҚ — ҚОНУННИНГ РУҲИ, МАЪНАВИЙ НЕГИЗИ

Бахриддин Талапов,
Наманган давлат университети профессори,
Фалсафа фанлари доктори

Аннотация. *Мақолада ахлоқ ва ҳуқуқ ўртасидаги ўзаро боғлиқликнинг ижтимоий-фалсафий моҳияти таҳлил қилинган. Шунингдек, Янги Ўзбекистон шароитида Конституция ва айрим қонунлар мисолида ахлоқий қадриятлар ҳамда ҳуқуқий нормалар уйғунлиги таҳлил қилиниб, инсон қадри, адолат, оила муқаддаслиги, ёшлар тарбияси ва ҳуқуқий маданият масалаларига алоҳида эътибор қаратилган.*

Калит сўзлар: *ахлоқ, ҳуқуқ, ҳуқуқ фалсафаси, ахлоқий қадриятлар, қонун устуворлиги, инсон қадри, адолат, ҳуқуқий маданият, маънавият, ҳуқуқий ислоҳотлар, Конституция, фуқаролик жамияти, миллий қадриятлар, ёшлар тарбияси, оила муқаддаслиги, ҳуқуқий легитимлик, инсон ҳуқуқлари.*

Аннотация. *В статье анализируется социально-философская сущность взаимосвязи морали и права. Также на примере Конституции Нового Узбекистана и отдельных законов рассматривается гармония нравственных ценностей и правовых норм, при этом особое внимание уделяется вопросам человеческого достоинства, справедливости, святости семьи, воспитания молодежи и правовой культуры.*

Ключевые слова: *мораль, право, философия права, нравственные ценности, верховенство закона, человеческое достоинство, справедливость, правовая культура, духовность, правовые реформы, Конституция, гражданское общество, национальные ценности, воспитание молодежи, святость семьи, правовая легитимность, права человека*

Abstract. *The article analyzes the socio-philosophical essence of the relationship between morality and law. Using the example of the Constitution of New Uzbekistan and certain laws, the study examines the harmony between moral values and legal norms, paying special attention to issues of human dignity, justice, the sanctity of family, youth education, and legal culture.*

Keywords: *morality, law, philosophy of law, moral values, rule of law, human dignity, justice, legal culture, spirituality, legal reforms, Constitution, civil society, national values, youth education, sanctity of family, legal legitimacy, human rights.*

Кириш. Ҳар қандай жамиятда қонунчилик тизими ва ахлоқ меъёрлари инсон фаолиятини тартибга солишда муҳим роль ўйнайди. Қонун – бу давлат томонидан белгиланган ва ижро этилиши мажбурий бўлган меъёрлар мажмуаси бўлса, ахлоқ – жамиятнинг маънавий қадриятларига таянган ихтиёрий, лекин кучли ижтимоий таъсирга эга бўлган нормалар тизимидир.

Ҳуқуқ фалсафа нуқтаи назаридан қаралганда, қонуннинг самарадорлиги унинг ахлоқий асослари қанчалик уйғунлигига боғлиқ бўлади. Ҳуқуқ фалсафаси вакили, инглиз ҳуқуқ позитивизми намоёндаларидан бири Герберт Лайонел Адольфус Хартнинг “Қонун тушунчаси” асарида таъкидлаганидек, қонун “ахлоқий қонуниятдан узилган ҳолда” узоқ фаолият кўрсата олмайди. Ахлоқ — жамиятнинг маънавий пойдевори, қонун эса — шу пойдеворнинг институционал ифодасидир. Уларни бир-биридан ажратиб ўрганиш мумкин бўлса-да, ижтимоий ҳаётда улар ўзаро таъсир ва боғлиқликда намоён бўлади.

Ахлоқ ва ҳуқуқ муносабатининг фалсафий моҳияти. Доимо ахлоқ ва ҳуқуқ ўртасидаги муносабат фалсафий баҳс мавзуси бўлиб келган. Аристотельнинг фикрича, “қонун – бу амалий ақлнинг ифодаси”, яъни ахлоқий қадриятларнинг рационал шаклидир. У қонунни фақат мажбурловчи нормалар тўплами сифатида эмас, балки ижтимоий ҳаётни тартибга солишда ақлли, фикрли инсонларнинг маънавий қарашлари ва қарорларини шакллантирувчи тизим деб қарайди. Шу нуқтаи назардан, ҳуқуқ ахлоқсиз мавжуд бўла

олмайди, чунки у инсон қадрини ҳимоя қилиш воситасидир. И. Кантнинг “ахлоқий императив” ғоясига кўра, инсон ҳаракатлари ички бурч ҳиссига асосланиши лозим; қонун ҳам ана шу бурчни жамоавий шаклда таъминлайди. Унингча, ҳақиқий ахлоқий ҳаракат танловнинг натижаси эмас, балки ички бурч ҳиссига таянган бўлиши лозим. Бу бурч ҳисси инсоннинг ақлли ва маънавий табиатига тааллуқли: у инсонга “шунга амал қил” деб кўрсатади. Масалан, кичкинага ёрдам бериш, ваъдага содиқ қолиш, адолатни ҳимоя қилиш – бу ҳаракатлар ахлоқий бурч ҳисси асосида қилинади.

Қонуннинг маънавий замини ва ахлоқий легитимлик. Ҳуқуқ фақат давлат иродасининг ифодаси эмас, балки жамиятдаги умумий ахлоқий келишувнинг натижасидир. Ҳанс Кельзен юридик позитивизмда қонунни давлат иродаси билан чегаралаган бўлса, Густав Радбрух ва натуралистик мактаб вакиллари қонуннинг ҳақиқий қиймати унинг адолат ва ахлоққа мослигида деб ҳисоблайдилар. Масалан, фуқаролик ҳуқуқида адолат тамойили (aequitas) рим ҳуқуқиданоқ ахлоқий меъёр сифатида киритилган эди.

Ўзбекистон мисолида ахлоқ ва ҳуқуқ уйғунлиги. Ўзбекистонда қонун ижодкорлиги жараёнларида ахлоқ ва маънавият масалалари устувор аҳамият касб этмоқда. Президент Ш.М. Мирзиёев таъкидлаганидек, “қонун устуворлиги ва адолат тамойиллари – янги Ўзбекистоннинг маънавий пойдеворидир.”

Бунинг исботи, 2023-йилда қабул қилинган Янги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси инсоннинг ахлоқий ва маънавий қадриятлари негизида яратилганлигидир. Мазкур қонунда инсон қадри принципининг устуворлиги тўла таъминланган. Айниқса, ахлоқий жиҳатдан инсон шаъни дахлсиз, шахснинг қонуний ҳуқуқ ва эркинликлари устун қадрият сифатида мустаҳкамланганлиги билан эътиборга сазовор. Шунингдек, унда ҳуқуқий жиҳатдан инсон ҳуқуқ ва эркинликлари кафолатланганлиги давлат органлари фаолияти инсон манфаатига хизмат қилиши шартлиги ўз ифодасини топган. Шуни таъкидлаш жоизки, Конституцияда ахлоқий категориялар кенг ифодаланган бўлса-да, уларнинг амалиётда самарали татбиқ этилиши ҳуқуқни қўллаш маданиятига боғлиқ. Таҳлилларимиз шуни кўрсатадики, Ўзбекистонда қабул қилинган қонунларга ўзбек халқининг қуйидаги қадриятлари: инсон қадри устуворлиги, оила муқаддаслиги, ижтимоий адолат ва ҳамжиҳатлик, ёшлар тарбияси ва маънавият, меҳр-шафқат ва саховат каби миллий қадриятлар сингдирилган, моҳиятан ўз аксини топган.

Асосий Қонунимизда инсон қадри, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари олий қадрият сифатида мустаҳкамлаб қўйилган. Жумладан, муқаддимада инсон, унинг ҳаёти, эркинлиги, шаъни ва қадр-қиммати энг юксак қадрият экани алоҳида таъкидланади. Янги Конституциянинг устувор назарий йўналишларидан бири — инсон ҳуқуқлари ва қадр-қимматини давлат томонидан кафолатлаш ҳамда ҳимоя қилишга қаратилганидир. Хусусан, 20-моддада инсон ҳуқуқ ва эркинликлари Конституция ва қонунлар асосида бевосита амал қилиши, давлат органлари фаолиятининг мазмуни ва моҳияти инсон манфаатларига хизмат қилиши шартлиги белгиланган. 26-моддада эса инсоннинг ҳаёти, шаъни ва қадр-қиммати дахлсиз экани кафолатланади.

Мамлакатимизда сўнги йилларда қабул қилинган қонунларда: “Хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида”ги (2019) ва “Ёшлар сиёсати тўғрисида”ги қонунлар (2016)да ахлоқий қадриятларнинг ҳуқуқий кафолатлар билан уйғунлашганлиги яққол намоён бўлади.

Хусусан, “Хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида”ги қонуни миллий ахлоқда аёл шаънини ҳимоя қилиш ва оилада зўравонликка қарши курашиш тамойилларини ҳуқуқий кафолатга айлантиради. Бу қонунда оилавий муносабатларда масъулиятни кучайтириш, зўравонликни жамоатчилик олдида қоралаш, инсон шаънини ҳимоя қилиш каби ахлоқий мезонлар институционаллаштирган. Ушбу фикрни тўғри мушоҳада қилиш учун **“анъанавий ахлоқий қараш”** ва **“ҳуқуқий норма”** тушунчаларини фарқлаб олишимиз керак. Маълумки, ўзбек жамиятида оила муқаддас деб

қаралади. Барча муаммоларни “оила ичида ҳал қилиш”, “уйдан чиқармаслик”, “обрўни сақлаш” каби ахлоқий тамойиллар мавжуд. Бу қарашлар: каттага ҳурмат, кичикка иззат, сабр-тоқат, ярашиш ва муроса каби қадриятларга таянади. Албатта, бу ахлоқий нуқтаи назар ижтимоий жиҳатдан ижобий мақсадга — оилани сақлаб қолишга қаратилган.

Шуни таъкидлаш жоизки, таҳлил қилинаётган қонунга мувофиқ: биринчидан, зўравонлик жиноят ёки ҳуқуқбузарлик сифатида баҳоланади; иккинчидан, давлат органларининг айрим оилавий муносабатларга аралашуви ҳуқуқий жиҳатдан асосланади; учинчидан, жабрланувчига ҳимоя ордерини олиш ҳуқуқи кафолатланади. Демак, қонун нуқтаи назаридан бу ҳолат “шахсий масала” эмас, балки жамият хавфсизлиги ва инсон ҳуқуқларини таъминлаш билан боғлиқ ижтимоий-ҳуқуқий масала ҳисобланади.

Айни нуқтада қонун ва ахлоқ ўртасида муайян зиддият юзага келиши мумкин. Жумладан, “оилавий гапни кўчага чиқармаслик”, “болалар учун сабр қилиш” каби ижтимоий босимлар таъсирида айрим аёллар ҳуқуқий ҳимоя механизмларидан фойдаланмаслиги эҳтимоли бор. Баъзи ҳолларда ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар томонидан вазиятни “оилавий жанжал” сифатида баҳолаш ва етарли чора кўрилмаслиги ҳам кузатилиши мумкин. Натижада сабр, итоат, муроса каби ахлоқий қадриятлар нотўғри талқин қилиниб, айрим ҳолларда зўравонликни оқлаш воситасига айланиб қолиши хавфи мавжуд.

Бу масалани илмий жиҳатдан тушунишда анъаналарни инкор этиш эмас, балки уларнинг мазмун-моҳиятини ҳуқуқий мезонлар билан уйғунлаштириш муҳимдир. Агар ахлоқий қадриятлар инсон қадри ва ҳуқуқларини ҳимоя қилишга хизмат қилса, улар ҳуқуқ билан табиий равишда уйғунлашади. Аммо улар инсон ҳуқуқларини чеклаш ёки зўравонликни оқлашга сабаб бўлса, ҳуқуқий нормалар билан зиддият келиб чиқади.

Ҳуқуқ фалсафаси нуқтаи назаридан, ахлоқ — ички тартибга солувчи механизм, қонун эса ташқи ва мажбурий тартибга солиш воситасидир. Агар ички механизм, яъни анъанавий қарашлар инсонни етарли даражада ҳимоя қилмаса, давлатнинг ҳуқуқий механизми ишга тушиши ва инсон ҳуқуқларини кафолатли тарзда таъминлаши зарур.

Албатта, ўзбек жамиятида “оила муқаддас” деган қараш чуқур илдиз отган бўлиб, унинг шаъни ва қадри алоҳида аҳамият касб этади. Бироқ ахлоқий қадриятларни қайта талқин қилиш зўравонликни яшириш ёки оқлаш эмас, балки оила аъзоларининг шаъни ва қадр-қимматини самарали ҳимоя қилиш маъносини англатиши лозим.

Шу нуқтаи назардан, аҳоли ўртасида ҳуқуқий маданиятни юксалтириш масаласига алоҳида эътибор қаратиш зарур. Фуқароларга зўравонлик “оилавий жанжал” эмас, балки ҳуқуқбузарлик экани, муроса эса жабрланувчининг ҳуқуқ ва эркинликларини чекламаслиги шартлиги изчил тушунтирилиши керак. Айни пайтда қонун нормалари декларатив тусда қолиб кетмасдан, аниқ ва самарали амалий механизмлар билан таъминланиши муҳим.

Илмий жиҳатдан мазкур ҳолатни миллий ахлоқий қадриятлар билан универсал инсон ҳуқуқлари ўртасидаги мувозанат муаммоси сифатида талқин этиш мумкин. Бунда асосий мақсад анъаналарни инкор этиш эмас, балки уларни инсон қадри ва ҳуқуқларини таъминлаш тамойили билан уйғунлаштиришдан иборатдир.

“Ёшлар сиёсати тўғрисида” қонунида миллий тарбия, маънавий камолот ва ватанпарварлик ғоялари ҳуқуқий даражада мустаҳкамланган. Бу қонунда халқимизнинг каттага ҳурмат, илмга интилиш, Ватанга садоқат каби ахлоқий қадриятлари ҳуқуқий жиҳатдан ўз аксини топган. Қонун ахлоқий тарбияни давлат сиёсатининг таркибий қисми сифатида белгилайди. Хусусан, қонунинг 4-моддасида ёшларга оид давлат сиёсатида маънавий, ахлоқий ва маданий қадриятларнинг устуворлигини белгиланган. Бу эса қонуннинг фуқаролар ҳуқуқлари билан бир вақтда ахлоқий меъёрларга ҳам асосланишини кўрсатади. 5-моддасида ёшларни ватанпарварлик, фуқаролик туйғуси ва умуминсоний қадриятларга ҳурмат руҳида тарбиялаш вазифаси белгиланган. Бу эса ҳуқуқий нормалар ва маънавий тарбияни уйғунлаштирилганлигини кўрсатади. Бироқ қонунда «маънавий

ва ахлоқий қадриятлар» тушунчаларининг умумий таърифи келтирилган, лекин уларни аниқ ва амалий ҳуқуқий меъёрлар билан боғлашда чекланганлик мавжуд. Хусусан, қандай хатти-ҳаракатлар ахлоққа зид деб баҳоланиши аниқланмаган. Хулоса сифатида таъкидлаш жоизки, ахлоқий меъёрларни ҳуқуқий нормалар билан боғлаш, ижро ва назорат тизимини кучайтириш ва интеграцияни йўлга қўйиш мақсадга мувофиқ. Бу эса қонуннинг амалий самарадорлигини сезиларли даражада оширади.

Энди қонунларни жамият ҳаётида қўллаш амалиётини таҳлил қилсак. Ўзбек жамиятидаги ахлоқ ва ҳуқуқ ўртасидаги диалектик уйғунлик нуқтаи назаридан ҳар йили турли байрамлар арафасида ўтказиладиган хайрия ҳашарларини таҳлил қилсак. Бир томондан, хашар ўзбек жамиятида жамоавийлик, ҳамжиҳатлик ва ўзаро ёрдам тамойилларига таянадиган қадимий урф-одатдир. У жамоат манфаати йўлида ихтиёрий меҳнат қилиш, муҳтожларга кўмак бериш, маҳалла ва худудларни обод қилиш каби ахлоқий фазилатларни намоён этади. Бу жиҳатдан ҳашар — ахлоқий бирлаштирувчи механизм, яъни жамият ички тартибини таъминловчи анъанавий институт ҳисобланади. Иккинчи томондан, айрим ҳолларда амалда бир кунлик иш ҳақидан иштирокчиларнинг ёзма розилигисиз ушлаб қолиб Маҳалла хайрия жамоат фондига – ижтимоий ҳимояга йўналтирилишга йўл қўйилади, натижада миллий анъана ва ҳуқуқий меъёр ўртасида зиддиятли холатларига дуч келамиз. Одатда, ахлоқий қадрият ихтиёрийликка асосланади. Агар у мажбурий тус олса, у ўз ахлоқий мазмунини йўқотади. Бу ердаги зиддият анъанани инкор этишда эмас, балки ихтиёрийлик ва мажбурийлик ўртасида намоён бўлади.

- Ахлоқ — ички рағбат, виждон ва ихтиёрга таянади.
- Ҳуқуқ — ташқи, мажбурий тартибга солиш механизми.

Агар ҳашар ихтиёрий бўлса, у ахлоқий қадрият сифатида ҳуқуқ билан уйғун ҳолда амал қилади. Агар у маъмурий босим ёки яширин ушлаб қолиш орқали амалга оширилса, у ҳолда ахлоқ номи остида ҳуқуқ бузилиши содир бўлади. Диалектик нуқтаи назардан, ҳуқуқ анъанани чеклаш учун эмас, балки унинг инсон ҳуқуқлари билан зиддиятга киришмаслигини таъминлаш учун мавжуд. Миллий қадрият фақат инсон қадри, мулкий ҳуқуқи ва эркин танловини ҳурмат қилган тақдирдагина ҳуқуқ билан уйғунлашади. Агар ходим ҳашарда қатнашишни ихтиёрий танласа, бир кунлик иш ҳақини хайрияга ўтказишга ёзма розилик берса, унда ахлоқ ва ҳуқуқ уйғунлашади. Агар розиликсиз ушлаб қолиш амалиёти давом этса, бу ахлоқий қадриятни формаллаштириш ва уни маъмурий механизмга айлантириш орқали ҳуқуқий тамойилларни заифлаштиради.

Шунинг учун илмий нуқтаи назардан айтиш мумкинки, ҳашар институти ахлоқий қадрият сифатида сақланиши керак, аммо унинг амалга оширилиши мутлақ ихтиёрийлик ва ҳуқуқий аниқлик принципларига қатъий мувофиқ бўлиши шарт. Ана шундагина ўзбек жамиятида ахлоқ ва ҳуқуқ ўртасидаги диалектик уйғунлик таъминланади.

Ўзбекистонда амалга оширилаётган ҳуқуқий ислоҳотлар ҳуқуқий давлат қуриш йўлида муҳим қадамлар бўлиб, улар инсон қадри, адолат ва ҳуқуқлар устуворлигига қаратилган. Лекин ушбу ислоҳотларнинг маънавий легитимлиги**,** ахлоқий қонунийлик тамойилларига тўлиқ жавоб бериши учун фуқаролик жамияти иштирокининг мавжуд даражасини янада кенгайтириш, ҳуқуқий маданиятни ошириш ва жамоатчилик фикрини чуқур ҳисобга олиш талаб этилади.

Хулоса сифатида шуни таъкидлаш мумкинки, ахлоқ – ҳуқуқнинг ички руҳи, унинг фалсафий моҳиятидир. Ахлоқ — инсон хулқ-атворини ички ишонч, виждон ва жамоатчилик фикри орқали тартибга солувчи меъёрлар тизими. Қонун эса давлат томонидан белгиланган ва мажбурий кучга эга бўлган ҳуқуқий нормалар йиғиндисидир. Қонун фақат жазо ёки мажбурият эмас, балки инсоний қадриятларнинг ҳуқуқий ифодасидир. Қонуннинг юридик фаннинг вазифаси – ахлоқ ва ҳуқуқ ўртасидаги мувозанатни таъминлашдир. Бу мувозанат йўқолганда, қонун формал кучини сақлаши мумкин, лекин маънавий таъсирини йўқотади.

Хулоса. Хулоса қилиб айтганда, ахлоқ ва ҳуқуқ ўртасидаги муносабат инсон қадри ва адолат ғоясига таянади. Қонун ахлоқсиз – руҳсиз танадир; ахлоқ эса қонунсиз – амалсиз ниятдир. Ҳуқуқ фалсафаси нуқтаи назаридан, қонуннинг самарадорлиги унинг ахлоқий легитимлигига боғлиқ. Шу сабабли, жамиятда ҳуқуқий ислоҳотлар билан бирга маънавий тарбия тизимини ҳам мустаҳкамлаш зарур.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Aristotle. Политика / пер. с древнегреч. — М.: Мысль, 1983. — Кн. III, гл. 16
2. Fuller L. The Morality of Law. — New Haven ; London : Yale University Press, 1964. — 202 p.
3. Hart H. L. A. The Concept of Law. — Oxford : Clarendon Press, 1961. — 263 p.
4. Immanuel Kant. Критика практического разума // Сочинения: в 6 т. — М.: Мысль, 1965. — Т. 4. — 544 с.
5. Kant I. Groundwork of the Metaphysics of Morals. — Berlin : 1785. — 100 p. Kelsen H. Pure Theory of Law / transl. by M. Knight. — Berkeley : University of California Press, 1967. — 356 p.
6. Radbruch G. Gesetzliches Unrecht und übergesetzliches Recht // Süddeutsche Juristen-Zeitung. — 1946. — Bd. 1. — S. 105–108.
7. Mirziyoyev Sh. M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. — Toshkent : O‘zbekiston, 2020. — 400 b.
8. Мирзиёев Ш. М. Қонун устуворлиги ва адолат тамойиллари – янги Ўзбекистоннинг маънавий пойдеворидир. . — Тошкент : Ўзбекистон, 2020. — 400 б.

MO‘TADILLIK FALSAFASI NIMA?

Abduxoliq Tashanov,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti bo‘lim boshlig‘i,
Falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mo‘tadillik tushunchasining turli jihatlari Arastu, Farobiy, Kant kabi faylasuflar talqinlarida, islom, xristianlik, tavavvuf kabi ta’limotlaridagi unga bo‘lgan munosabatlar asosida o‘rganilgan. Shuningdek, bu tushunchaning inosn va jamiyat hayotida ijtimoiy, falsafiy, axloqiy, siyosiy sohalaridagi ayrim ko‘rinishlari tahlil qilingan.*
Kalit so‘zlar: *mo‘tadillik, falsafa, oltin o‘rtaliq, inson, jamiyat, faylasuflar, dinlar, ijtimoiy-ma’naviy hayot, barqarorlik, chegaralar.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются различные аспекты понятия умеренности в интерпретациях таких философов, как Аристотель, Фараби, Кант, на основе отношения к нему в таких учениях, как ислам, христианство, суфизм. Также проанализированы некоторые проявления этого понятия в социальной, философской, нравственной, политической сферах в жизни человека и общества.*
Ключевые слова: *умеренность, философия, золотая середина, человек, общество, философы, религии, социально-духовная жизнь, стабильность, границы.*

Abstract. *This article examines various aspects of the concept of moderation in the interpretations of philosophers such as Aristotle, Al-Farabi, and Kant, based on their attitudes toward it in teachings such as Islam, Christianity, and Sufism. Some manifestations of this concept in the social, philosophical, moral, and political spheres of human and social life are also analyzed.*
Keywords: *moderation, philosophy, the golden mean, man, society, philosophers, religions, socio-spiritual life, stability, borders.*

Mo‘tadillik falsafasi insoniy tafakkurda qadimdan mavjud bo‘lib, u barcha narsada o‘rta yo‘lni topish, to‘g‘ri muvozanatni saqlash va ehtiyojlar bilan imkoniyatlar o‘rtasida mutanosiblik o‘rnatishga qaratilgan tamoyildir. Bu g‘oya flsafada dastlab Arastu ta’limotidagi “oltin o‘rtaliq” konsepsiyasi[1.110] orqali mustahkamlangan bo‘lib, inson hayotidagi hayajon, xohish va harakatlarni haddan tashqariga chiqmaslik tamoyilini targ‘ib qiladi. “Arastu va antik yunon faylasuflarining «oltin o‘rtalik» deb ta’riflangan prinsipi ma’qul ko‘rilgan. Unga ko‘ra, barcha fazilatlarning ikki tarafida illat bo‘lgan «o‘rtalik» mavjud. Faylasuf bu atamani «mo‘tadillik» iborasi bilan ifodalaydi”[2.303].

Mo‘tadillik insonning ichki dunyosini ham, tashqi raftorini ham tartibga soladigan umuminsoniy qonuniyat sifatida talqin qilinadi. U nafaqat axloqiy barqarorlikni, balki aqlning ravshanligini, ruhiy tinchlikni ham ta’minlaydi. Agar inson o‘z ehtiroslariga berilib ketsa, u o‘zini yo‘qotishi mumkin; agar haddan tashqari ehtiyotkor yoki passiv bo‘lsa, hayotdagi imkoniyatlarni yo‘qotadi. Shu sababli mo‘tadillik – ikki chegara o‘rtasidagi oqilona cho‘qqi, insonni maqsadga yetkazuvchi eng sog‘lom yo‘l sifatida qaraladi. Mazkur falsafa jamiyatda ham adolat, ham hamjihatlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Chunki u ortiqcha keskinliklarni yengib, muvozanat orqali o‘zaro muhabbat va hurmatni mustahkamlaydi.

Mo‘tadillik falsafasi inson tabiatidagi ikki muhim kuch – aql va hissiyotni yaxlit tizimda boshqarishni o‘rgatadi. Inson faqat hissiyotga tayanadigan bo‘lsa, u irratsional qarorlar qabul qilishi va xayollarga aldanishi mumkin; faqat aqlga suyansa, u sovuq, beparvo va hayotdan lazzat olish qobiliyatidan ayrilib qolishi mumkin. Immanuil Kant – aql va axloq qoidalarini hissiyot va iroda bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ta’kidlaydi[3.40]. Mo‘tadillik aynan shu ikki omilni muvofiqlashtirish, ularni uyg‘un holda ishlatishni o‘rgatadi. Bu falsafaga ko‘ra, hissiyot insonga harakat, ruh va ilhom beradi, aql esa yo‘nalish va to‘g‘ri mezonlarni belgilaydi, shuning uchun ikkisi birgalikda qiymatga ega. Mo‘tadillik faqat ichki muvozanat emas, balki tashqi hayot

tarzini ham tartibga soladi, ya’ni ishlash va dam olish, muloqot va yakkalik, ehtiyot va jasorat kabi sohalarda mo‘tadillikni saqlash hayotni sog‘lom ritmga keltiradi. Bunday yondashuv insonni ortiqcha zo‘riqishdan asrab, uni barqaror, o‘zini anglaydigan va qarorlarida mas’ul bo‘lgan shaxsga aylantiradi. Shu bois bu falsafa ruhiy gigiena sifatida ham qimmatga ega.

Ko‘p ilmiy va diniy manbalarda mo‘tadillik insonning eng oliy axloqiy fazilatlaridan biri sifatida ta’riflangan. Masalan, islomda “ummatan vasatan” – o‘rta yo‘lni tutuvchi, muvozanatli ummat g‘oyasi juda katta ahamiyatga ega. Zuhdda chegaradan chiqmaslik, ibodat va dunyo ishlarini mutanosib qilib borish ham shu tamoyilga asoslanadi. Buddaviylikda esa “o‘rta yo‘l” – zo‘r berib haddan tashqari riyozatga yoki cheksiz lazzatparstlikka berilmasdan, ravshan ongga olib boruvchi yo‘l sifatida ta’kidlanadi[4.]. Xristianlik va konfutsiylikda ham ortiqcha ifrot va tafritdan saqlanish eng muhim axloqiy vazifalardan biri sifatida ko‘rsatiladi. Bu holat mo‘tadillik inson tafakkuriga umuminsoniy qonuniyat sifatida singib ketganini ko‘rsatadi. “Rammohon Ray hinduizm aqidaparastligini tanqid qilgan, ammo Vedalarning muqaddasligiga shubha qilmagan. U hinduizm, islom va xristianlikning eng ilg‘or tomonlariga asoslanadigan mo‘tadil diniylik ma’qulligi g‘oyasini ham targ‘ib qilgan”[5.101]. Deyarli barcha madaniyatlarda “haddan oshma”, “o‘lchovni bil”, “ortaqlikni saqla” degan iboralar bor. Demak, mo‘tadillik faqat nazariy falsafa emas, balki hayot tajribalaridan shakllangan amaliy donolik sifatida insoniyatning asrlar davomida to‘plagan muhim tajribasiga tayanadi.

Mo‘tadillik falsafasiga ko‘ra, har bir narsaning chegarasi bor va u chegara buzilganda holat o‘z mohiyatini yo‘qotadi yoki zararli holga aylanadi. Masalan, jasorat – fazilat, ammo u haddan oshsa – bevosita xavfsizlikni yo‘qotuvchi xatarparastlikka aylanadi; ehtiyot – donolik, lekin u chegaradan oshsa – jasoratsizlik va qo‘rqoqlikka aylanadi. Farobiyning fozil shahar ideyasining markazida — insonning haqiqiy baxt saodatga erishishi uchun ruhiy va etik fazilatlarini yuksaltirish bor. Bu ham ma’naviy “mo‘tadillik”ni, ya’ni nafs va havaslarga ergashishdan ko‘ra aql, tartib va adolatni ustun qo‘yishni anglatadi[6.142]. X generosity (sahiylik) ham shuningdek: mo‘tadil bo‘lsa – foyda, ortiqcha bo‘lsa – ziyon yoki o‘zini yo‘qotish. Demak, fazilatlar ham o‘rta nuqtada joylashganida haqiqiy fazilatga aylanadi. Bu qonuniyat jamiyatdagi munosabatlarga ham tatbiq qilinadi. Masalan, qonunchilikda ortiqcha qat’iylik diktaturani keltirsa, ortiqcha yumshoqlik tartibsizlikni keltiradi. Mo‘tadil siyosat esa ham individual huquqlarni, ham jamoaviy tartibni mutanosib saqlaydi. Shuning uchun davlat boshqaruvida ham mo‘tadillik strategik qiymatga ega. Chunki u barqarorlikni ta’minlab, islohotlar va an’analar o‘rtasidagi muvozanatni saqlaydi.

Mo‘tadillik inson psixologiyasidagi turli kurashlarni ham yengillashtiradi. Chunki, insonning ichki mayllari ko‘pincha bir-biriga zid bo‘ladi: bir tomon dam olishni istasa, boshqa tomon ishlashni talab qiladi, bir hissiyot izzatni talab etsa, boshqasi itoatkorlikka undaydi. Mo‘tadillik falsafasi bu zidliklarni tabiiy, deb qabul qiladi va ularni yo‘q qilishga emas, ular o‘rtasida sog‘lom to‘qnashuv va muvozanat yaratishga chaqirdi. Inson o‘z hissiyotlari va istaklari bilan kurashishdan ko‘ra, ularni taniydi, o‘rganadi va boshqarishni o‘rganadi. Bu esa psixologik barqarorlikka yetadigan yo‘ldir. Ma’naviy jihatdan mo‘tadil inson o‘z ehtiroslariga hukmron emas, balki ularni idora qiladi. U o‘zini hech qachon o‘tkir chegaralarga olib bormaydi, o‘zini ham, atrofdagilarni ham zo‘riqtirmaydi. “Tarbiyali odamlar o‘z ruhlarini doimo quvonish, ortiqcha kulish, qattiq xafa bo‘lish, ortiqcha qayg‘urish kabi holatlarda mo‘tadillik doirasidan chiqmaslikka majbur qila olishlari kerak”[7.523]. Shu sababli mo‘tadil insonlar ko‘pincha tinch, tafakkurli va muomalada yo‘l topuvchan bo‘ladilar.

Mo‘tadillik falsafasi hayotdagi barcha sohalarga tatbiq qilinadi: taomlanish, moliyaviy sarf-xarajatlar, ish va dam olish rejimi, muloqot, texnologiyalardan foydalanish, hatto ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyatga ham. Masalan, taomni mo‘tadil iste’mol qilish salomatlikka olib keladi; ortiqcha yemoq – kasallikka, ortiqcha qashshoqlik esa kuchsizlikka olib keladi. Moliyaviy jihatdan mo‘tadil insonlar ortiqcha sarflamaydilar, lekin ortiqcha tejab, imkoniyatlarni ham boy bermaydilar. Texnologiyalardan mo‘tadil foydalanish esa insonni ham ruhiy, ham ijtimoiy jihatdan erkin saqlaydi. Ishlashda mo‘tadillik ortiqcha stressdan asraydi, dam olishda mo‘tadillik

esa tanballikdan saqlaydi. Ya’ni mo‘tadillik – hayotni har tomonlama barqaror ritmga soluvchi asosiy mezondir. U orqali inson hayotida tabiiy gusarim, ijodiy kuch va ruhiy musofot paydo bo‘ladi.

Mo‘tadillik falsafasining yana bir muhim jihati – u insonni haddan tashqari reaksiyalardan, emotsional jarohatlardan va tezkor, o‘ylanmagan qarorlardan asraydi. Inson biror vaziyatda darhol keskin munosabat bildirsa, ko‘p hollarda xato qiladi. Mo‘tadil inson esa nafaqat vaziyatni ko‘radi, balki uni tahlil qiladi, emotsiyani chekka qo‘yadi va to‘g‘ri yo‘lni tanlaydi. Bu esa kognitiv barqarorlikni ta’minlaydi. Mo‘tadillik odamni ortiqcha g‘azabdan, ortiqcha quvonchdan, ortiqcha qayg‘udan ham asraydi. Albatta insoniy hissiyotlar tabiiy, ammo ular chegaradan chiqqanida insonni boshqarib qo‘yadi. Mo‘tadil falsafa insonni hissiyotlarni yo‘q qilishga emas, ular bilan dono munosabatda bo‘lishga chorlaydi. Bu eng muhim ruhiy kamolot bosqichlaridan biridir.

Mo‘tadillik falsafasi jamiyatdagi madaniy xilma-xillik va bahslarni ham yengillashtiradi. Har bir insonning ongi, tarbiyasi, tafakkuri boshqacha bo‘lgani uchun tabiiy ravishda kelishmovchiliklar yuzaga keladi. Mo‘tadillik munosabatlarda ortiqcha keskinlikka yo‘l qo‘ymasdan, har bir tarafning fikrini hurmat qilish, qaysi nuqtada kelishish mumkinligini topishni o‘rgatadi. U muloqot madaniyatini yuksaltirib, insonlar o‘rtasida murosa va hamjihatlikni shakllantiradi. Zid nuqtayi nazarlar to‘qnashganda mo‘tadil insonlar ortiqcha talafotsiz, adolatli va oqilona yo‘lni topa oladilar. Zamonaviy jamiyatda bu asabiyliklar, axborot oqimining tezligi va turli mafkuraviy bosimlar sabab hatto ko‘proq ahamiyatga ega. Mo‘tadillik moliyaviy munosabatlardan tortib oilaviy tinchlikkacha har sohada asosiy mezonga aylanadi.

Mo‘tadillik falsafasi insonni erkinlik va mas’uliyat o‘rtasidagi muvozanatga chaqiradi. Erkinlikni ortiqcha ko‘tarish – anarxiyaga, mas’uliyatni ortiqcha ko‘tarish esa qattiq nazoratga olib keladi. Mo‘tadillik insonga ham erkin harakat qilish, ham o‘z harakatlarining oqibatini his etish imkonini beradi. Bu demokratik jamiyatlar uchun asosiy tamoyillardan biridir. Mo‘tadil inson o‘z huquqlarini bilib, biroq ularning boshqalar huquqlari bilan chegaralanishini ham anglaydi. Mo‘tadillik erkinlikdan foydalanishda adolatli mezon belgilaydi: hech kimga ziyon yetkazmasdan o‘z imkoniyatlarini rivojlantirish. Bu falsafa insonni nafaqat jamiyat uchun foydali, balki o‘z hayotida ham mazmunli va barqaror shaxs sifatida shakllantiradi.

Mo‘tadillik falsafasi umumiy qilib aytganda, hayotni puxta idrok qilish, jaholat va ifrotdan qochish, aql va qalb o‘rtasidagi uyg‘unlikni shakllantirishdan iboratdir. U insonni har bir harakatini o‘lchov bilan qilishga, fikrni chuqur o‘ylab bildirishga, hissiyotlarni idora qilishga va o‘z imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga chorlaydi. Mo‘tadillik – inkor emas, balki tarozidir; taqiq emas, balki me’yordir. U insonni hayotning har bir sohasida mutanosib, aqlli va barqaror holatda ushlab turadi. Mo‘tadillik orqali inson o‘zini ham, jamiyatni ham tinch holatga yetkazadi, chunki u muvozanatga asoslangan falsafadir. Inson na ifrotga, na tafritga berilib ketmasdan, barcha tadbirlarda o‘rta yo‘lni topa olsa, bu uning kamolotga yetganini ko‘rsatadi. Shu tariqa mo‘tadillik hayotning har bir sohasida nur, tartib va oliy donolik manbai sifatida namoyon bo‘ladi.

Yangilanayotgan o‘zbek jamiyatida yoshlar tarbiyasida mo‘tadillik tamoyili muhim o‘rin tutib, bu falsafiy jihatdan inson tabiati va ijtimoiy borliq o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash masalasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Mo‘tadillik, avvalo, ortiqcha keskinlik va bir tomonlama qarashlarni inkor etgan holda, insonni aqliy va axloqiy jihatdan uyg‘un rivojlantirishga qaratilgan universal qoidalar tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, yoshlar tarbiyasida mo‘tadillikni shakllantirish ularni nafaqat bilimli, balki mustaqil fikrlaydigan, ekstremal qarashlardan xoli shaxs sifatida tarbiyalashni anglatadi. Zamonaviy o‘zgarishlar sharoitida axborot oqimining ortishi, turli mafkuraviy ta’sirlar kuchayishi yoshlarda muvozanatli dunyoqarashni shakllantirishni yanada dolzarb qiladi. Demak, mo‘tadillik tamoyili yosh avlodni ma’naviy barkamollikka yetaklovchi muhim falsafiy asos hisoblanadi. Bu jarayonda insonning ichki erkinligi va tashqi ijtimoiy talablar o‘rtasidagi uyg‘unlikka erishish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, mo‘tadillik tarbiyasi shaxsda mas’uliyat, sabr-toqat va adolat tuyg‘ularini

mustahkamlashi natijasida, bunday tarbiya jamiyat barqarorligi va taraqqiyoti uchun muhim omilga aylanadi.

Mo‘tadillik tamoyilini inson ongidagi dialektik muvozanat sifatida ham tushunish mumkin, ya’ni, har qanday taraqqiyot qarama-qarshiliklar birligi va kurashi orqali amalga oshadi, ammo bu jarayonda keskinlik emas, balki uyg‘unlik ustuvor bo‘lishi kerak. Yoshlar tarbiyasida ushbu tamoyilni qo‘llash ularni turli qarashlar, g‘oyalar va madaniy ta’sirlar o‘rtasida to‘g‘ri tanlov qilishga o‘rgatishi ularning tafakkurida tanqidiy yondashuv va ma’naviy immunitetni shakllantiradi. Falsafiy jihatdan, mo‘tadillik insonning o‘z-o‘zini anglashi va o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholashi bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayonda ortiqcha radikalizmdan qochish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bu tamoyil ijtimoiy munosabatlarda ham adolat va bag‘rikenglikni ta’minlashga xizmat qilishi ham yosh avlodni mo‘tadil ruhda tarbiyalash ularni globallashuv jarayonlarida o‘z milliy qadriyatlarini saqlab qolgan holda, zamonaviy sivilizatsiya yutuqlarini o‘zlashtirishga yordam beradi. Bu esa milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlaydi. Shu ma’noda, mo‘tadillik nafaqat axloqiy me’yor, balki taraqqiyotning falsafiy mezoni sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida mo‘tadillik falsafasi milliy taraqqiyot va barqarorlikning asosiy prinsiplaridan biriga aylanmoqda. Mo‘tadillik – bu har qanday harakat va qarorda me’yorni saqlash, aqlli va oqilona tanlov qilish degan ma’noni anglatadi. Davlat siyosatida bu – ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, turli guruh va manfaatlar o‘rtasida uyg‘unlikni saqlash, radikal g‘oyalar va ekstremist ta’sirlardan himoya qilishdir. Mo‘tadillik prinsiplari asosida amalga oshirilayotgan siyosiy va iqtisodiy islohotlar aholiga ijtimoiy adolat va tenglikni ta’minlaydi, fuqarolarning davlat va jamiyatga ishonchini oshiradi.

Shu bilan birga, mo‘tadillik falsafasi milliy madaniyat va an’analarni saqlab qolishda ham muhim ahamiyatga ega. U, avvalo, turli din va e’tiqodlarning hamkorligi, millatlararo rozilik va ijtimoiy hamjihatlikni ta’minlaydi. Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan “yangi fikr, me’yorli taraqqiyot” siyosati shunday tamoyillarga tayanadi: shaxsning huquqlari himoya qilinadi, ijtimoiy baholar adolatli bo‘ladi va davlat siyosiy va iqtisodiy masalalarda barqaror qarorlar qabul qiladi. Shu tariqa, mo‘tadillik falsafasi milliy rivojlanishning barqarorligi va aholining hayoti sifatini yaxshilashda hal qiluvchi omil sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Aristotle. Nicomachean Ethics. Translated by W. D. Ross. Oxford: Oxford University Press, 1925, p. 110
2. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi 2-jild, -Toshkent: O‘zFMJ, 2023. –B. 303
3. Kant I. Kritika prakticheskogo razuma (Critique of Practical Reason). Perevod T. K. Abbott. London: Macmillan, 1889, - S. 40–45.
4. Qur’oni karim ma’nolarining tarjimasi. A.Mansur tarjimasi –Toshkent: TIU, 2001. Baqara surasi, 143-oyat
5. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi 2-jild, -Toshkent: O‘zFMJ, 2023. –B. 101
6. Farobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. –Toshkent: Fan, 1993. –B.
7. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi 2-jild, -Toshkent: O‘zFMJ, 2023. –B. 523

YANGI MA'NAVIY MAKON YARATISH – YOSHLAR KAMOLOTINING MUHIM OMILI

Maxmut Mamatov,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
professor vazifasini bajaruvchi,
Falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent
https://orcid.org/0009-0000-8925-8486

Annotatsiya. *Maqolada Yangi ma'naviy makon yaratish yoshlar kamolotining muhim omili ekanligini nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Yoshlarning ma'naviy kamolotini shakillantirishda milliy qadriyatlar, ta'lim tizimi va global jarayonlarning o'rni ilmiy asosda yoritilgan. Mavzuga oid ilmiy manbalar tahlili orqali yangi ma'naviy makonning mazmun-mohiyati ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *ilmiy, yoshlar, axloq, qadriyat, ma'naviyat, tarbiya, ta'lim, globalizatsiya, ma'naviy makon, kamolot.*

Аннотация. *В статье проанализированы теоретические и практические аспекты создания нового духовного пространства как важного фактора развития молодежи. На научной основе раскрыта роль национальных ценностей, системы образования и глобальных процессов в формировании духовного совершенства молодежи. Посредством анализа научных источников по теме раскрыты содержание и сущность нового духовного пространства.*

Ключевые слова: *наука, молодежь, нравственность, ценность, духовность, воспитание, образование, глобализация, духовное пространство, совершенство.*

Abstract. *The article analyzes the theoretical and practical aspects of creating a new spiritual space as an important factor in the development of youth. The role of national values, the education system, and global processes in shaping the spiritual maturity of young people is scientifically examined. Through the analysis of relevant scientific sources, the content and essence of the new spiritual space are revealed.*

Keywords: *science, youth, morality, value, spirituality, upbringing, education, globalization, spiritual space, maturity.*

Kirish. Dunyo turli manfaatlar to'qnashuv maydoniga aylangan bugungi kunda insoniyatning baxtli va xotirjam turmushiga tahdid soladigan xatarlar qatorida ma'naviyat qashshoqlashuviga olib borayotgan muammolar ham ko'payib bormoqda. Jahon xalqlari qatori yurtimiz aholisi ham yangi uyg'onish davri poydevorini yaratish asosida erkin, zamonaviy talablarga javob beradigan, bunyodkor ma'naviy makonni bunyod etishni maqsad qilgan.

Ushbu yangi ma'naviy makon bunyod etayotganimiz – Yangi O'zbekistonning ma'naviy qiyofasini namoyon etadigan, insonlar baxtli va totuv yashaydigan ma'naviyatga yo'g'rilgan jamiyatdir.

Dunyoviy va mintaqaviy mafkuraviy xurujlar davrida bunday ezgu g'oyalar, yuksak ma'naviy tamoyillarga asoslangan ijtimoiy makonni yaratish imkoni bormi, bu maqsad yo'lida nimalar qilish kerak, degan savol kun tartibiga chiqadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. "Yangi ma'naviy makon" tushunchasi zamonaviy jamiyat taraqqiyotida muhim ilmiy kategoriyalardan biri sifatida talqin qilinmoqda. Ayniqsa, Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlarning ma'naviy kamolotini ta'minlashda bu omil alohida ahamiyatga ega. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur masala ko'plab olimlar tomonidan turli yondashuvlar asosida o'rganilgan.

Avvalo, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z asarlarida jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda ma'naviy muhitni yangilash zarurligini alohida ta'kidlaydi. "Yoshlarning barkamol bo'lib voyaga yetishi uchun sog'lom ma'naviy muhit, milliy qadriyatlar

va zamonaviy bilimlar uyg‘unligi zarur”[1]. Bu yondashuv yangi ma’naviy makon tushunchasining siyosiy-ijtimoiy asosini tashkil etadi.

Shuningdek, Quronov.M.R. “Barkamol avlod tarbiyasi” asarida yoshlar tarbiyasida ma’naviy omillar ustuvorligini asoslab beradi. “Yosh avlodning ongida milliy o‘zlikni shakllantirish, ularni yot g‘oyalardan himoya qilish va mustaqil fikrlashga o‘rgatish — yangi ma’naviy makonning asosiy vazifalaridandir”[2].

Pedagog olim To‘ychiyev.B.A. “Ma’naviyat asoslari” asarida ma’naviyatni shaxs kamolotining markaziy omili sifatida ko‘radi. Uning tadqiqotlarida “Ta’lim tizimini modernizatsiya qilish orqali yoshlar ongida yangi dunyoqarashni shakllantirish zarurligi asoslanadi”[3]. Bu esa ma’naviy makonning institutsional jihatlarini ochib beradi.

Bundan tashqari, klassik manbalarda ham yoshlar tarbiyasi va ma’naviy kamolot masalalari keng yoritilgan. Masalan, Yusuf Xos Hojib ning “Qutadg‘u bilig” asarida “Jamiyatning barqaror rivoji uchun axloqiy yetuklik va ma’naviy poklik muhim” degan fikr ta’kidlanadi [4]. Bu g‘oyalar bugungi yangi ma’naviy makon konsepsiyasi bilan uzviy bog‘liqdir.

Shuningdek, Abu Nasr Forobiy o‘zining “Fozil odamlar shahri” asarida jamiyat taraqqiyotini insonning ma’naviy yetukligi bilan bog‘laydi. Uning qarashlariga ko‘ra, “Komil jamiyatni shakllantirish uchun har bir shaxs ma’naviy barkamollikka erishishi lozim”[5]. Bu fikrlar zamonaviy pedagogik konsepsiyalarda ham o‘z aksini topmoqda.

Zamonaviy tadqiqotlarda esa globalizatsiya jarayonlari fonida Abdukarimov H. Va boshqalar. “Globalizatsiya va ma’naviyat” asarida yangi ma’naviy makonning shakllanishi alohida tahlil qilgan. “Bu jarayonni axborot texnologiyalari, madaniy almashinuv va ijtimoiy transformatsiyalar bilan bog‘laydilar. Natijada, yoshlarning ongida yangi qadriyatlar tizimi shakllanib, bu esa ularning ma’naviy kamolotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi”[6].

Q. Nazarov O‘zbek falsafasi asarida yangi ma’naviy makon yaratish yoshlar kamolotining muhim omili ekanligini nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilib, qo‘yidagilarni ko‘rsatib o‘tdi.

“Maktablar uchun “Odobnoma”, “Vatan tuyg‘isi”, “Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari” oliy va o‘rta ta’lim uchun “Milliy istiqlol g‘oyasi” fanlari ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. Darsliklar va qo‘llanmalar yaratildi, ko‘rgazmali vositalar to‘plamlari, shu mavzuda lug‘at, monografiyalar va risolalar chop etildi. Bu boradagi ishlarni muvofiqlashtirish maqsadida O‘zbekiston Prezidentining Farmoyishiga ko‘ra Maxsus metodologik komissiya tuzuldi va u tizimli ish olib bordi”[7].

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yangi ma’naviy makon — bu faqatgina nazariy tushuncha emas, balki yoshlar tarbiyasida amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan kompleks tizimdir. U milliy qadriyatlar, zamonaviy bilimlar va global jarayonlarning uyg‘unligida shakllanadi hamda yoshlarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi “Yangi ma’naviy makon” tushunchasining mazmun-mohiyati, uning yoshlar kamolotiga ta’sir mexanizmlari hamda amaliy ahamiyati kompleks yondashuv asosida o‘rganiladi. Tadqiqot metodologiyasi ilmiylik, tizimlilik va obektivlik tamoyillariga tayanadi. Nazariy asosini ijtimoiy-falsafiy, pedagogik va madaniy yondashuvlar tashkil etadi. Yangi ma’naviy makon fenomeni jamiyat taraqqiyoti, globallashuv jarayonlari hamda milliy qadriyatlarning o‘zaro uyg‘unligi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Bunda yoshlar kamoloti nafaqat individual rivojlanish, balki ijtimoiy-madaniy muhit mahsuli sifatida qaraladi.

Metodologik jihatdan Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” g‘oyalariga tayanadi[8]. Unda yoshlar tarbiyasi, ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish va milliy qadriyatlarni rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

O‘zbekiston “Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari” tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. “Yangi davr shiddati ta’lim-tarbiya tizimiga ham o‘zining aniq, qat’iy talablarini qo‘ymoqda” [9].

“Ma’naviy tarbiya sohasida o‘qituvchilarning faoliyatini metodik ta’minlovchi o‘quv materiallari, shu jumladan, ma’naviy tarbiya sohasiga oid metodik qo‘llanmalar, o‘quvchilar

uchun zarur darsliklar yetarli emas. Shu munosabat bilan uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish orqali ma’naviy tarbiya tizimini yanada rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi”[10]. “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 19-21-moddalari asosida shaxsni erkin kamol toptirish huquqiga egaligi belgilab qo‘ilgan”[11].

Tahlil va natijalar Mamlakatimizda yangi ma’naviy makon yaratishni maqsad qilgan ekanmiz, xalqimizning ma’rifiy hayotidagi islohotlarni jadallashtirish, ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish ishida sustkashlikka yo‘l qo‘ymaslik talab qilinadi. Bu maqsad yo‘lida, o‘z-o‘zidan, yoshlarni ajdodlarimizdan qolgan ulkan ma’naviy-axloqiy meros, milliy qadriyatlarga oshno qilish, ularda ma’naviy yuksalish, bilim olish va komillikka intilishni rag‘batlantirish asosiy masalaga aylantirish zarur.

“Biz farzandlarimizni turli tajovuzkor guruhlar, ekstremistik oqimlar hamda giyohvandlik, axloqiy buzuqlik kabi illatlardan, faqat to‘g‘ri tarbiya va bilim yordamida asray olamiz. Bunda bizga ota-bobolarimizdan qolgan tarbiya usullari va vositalari, boy ma’naviy meros yordamga keladi. Sharqona axloq-odob qoidalariga ko‘ra farzand tarbiyasi uchun hamma birdek mas’ul ekanligini unutmaslik zarur”[12].

Shunday ekan, yoshlarni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash, ularni zararli illatlardan saqlash, avvalo, jamiyatimizda sog‘lom fikr hamda qudratli kuch ustuvor bo‘lishiga zamin yaratishini bir daqiqa ham unutmaslik kerak.

Yangi ma’naviy makon – bu jamiyatda shakllangan qadriyatlar tizimi, axloqiy me’yorlar, ta’lim-tarbiya jarayonlari hamda axborot muhiti uyg‘unligidan iborat kompleks tizimdir. Ushbu makon yoshlarning dunyoqarashi, tafakkuri va ijtimoiy faolligini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Globallashuv sharoitida yoshlar turli g‘oyaviy ta’sirlar ostida qolmaslik uchun milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma’naviy makon yaratish zarur.

Bu esa yoshlarni zararli mafkuralardan himoya qilish va ularda mustahkam hayotiy pozitsiyani shakllantirish imkonini beradi. Ta’lim tizimi yangi ma’naviy makonning asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, zamonaviy ta’limda nafaqat bilim berish, balki shaxsning ma’naviy-axloqiy jihatdan rivojlanishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Oila, maktab va oliy ta’lim muassasalari o‘zaro hamkorlikda yoshlar tarbiyasiga kompleks ta’sir ko‘rsatadi. Axborot makonining kengayishi internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan axborotlarning mazmuni yoshlarning fikrlash tarzini belgilaydi. Shu bois axborot madaniyatini shakllantirish va uni nazorat qilish muhim vazifalardan biridir. Ma’naviy-ma’rifiy siyosat yangi ma’naviy makonning institutsional asosini tashkel etadi. Yoshlar bilan ishlash, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, madaniy-ma’rifiy tadbirlarni rivojlantirish muhim.

Davlat dasturida ta’lim tizimidagi islohotlar asosida, jamiyat ma’naviyatiga, yoshlar tarbiyasiga mas’ul bo‘lgan oila, mahalla, maktabgach ta’lim, maktab, oliy ta’lim tizimi, tashkilotlar, ijodkorlar, huquq-tartibot idoralari va boshqalar o‘z faoliyatini jadallashtirishi kerak. Ammo, shunisi achinarliki, o‘tkazilgan tahlillar amalga oshirilgan ba’zi ishlarning natijador emasligini va masalaga jiddiy qarash kerakligini ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi PQ-3160 sonli qarori[13].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040 son qarori[14]. Bu ushbu qaror, tahlil va natijalar mamlakatimizda yangi ma’naviy makon yaratish uchun dastur va asos bo‘la oladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, yangi ma’naviy makon yaratish yoshlar kamolotini ta’minlashning muhim strategik yo‘nalishidir. U nafaqat yoshlarning ma’naviy rivojlanishiga, balki jamiyatning barqaror taraqqiyotiga ham xizmat qiladi. Shu bois ushbu makonni shakllantirishda davlat, jamiyat va ta’lim tizimining uzviy hamkorligida quyidagi ilmiy xulosalar zarur:

yangi ma’naviy makon yoshlarning har tomonlama kamol topishida muhim tizimli omil hisoblanadi;

sog‘lom ma’naviy muhit yoshlarning ijtimoiy faolligi va mas’uliyatini oshiradi;

ta’lim va tarbiya tizimi ushbu makonni shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi;

axborot makonini tartibga solish yoshlarni zararli g‘oyalardan himoya qilish imkonini beradi;

milliy qadriyatlar va an’analar yoshlarning o‘zligini anglashida asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil – maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307 son qarori.

2. Quronov M.R. Barkamol avlod tarbiyasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2019.

3. To‘ychiyev B.A. Ma’naviyat asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.

4. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. – Toshkent: Fan, 1983.

5. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Meros, 1993.

6. Abdukarimov H. va boshqalar. Globalizatsiya va ma’naviyat. – Toshkent: Tafakkur, 2020.

7. Nazarov Q. O‘zbek falsafasi – O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent-2024 872bet. (684 bet.)

8. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021

9. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari.

10. Mirziyoyev Sh.M. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”-T.: “O‘zbekiston”. 2019.

11. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: O‘zbekiston, 2023-yil. 128-bet.)(13-14.b.)

12. Mamatov M. Yangilanayotgan o‘zbekistonning ma’naviy taraqqiyot tamoyillari – barkamol avlodni tarbiyalash omili. Dissertatsiya Toshkent – 2023 yil 226 bet. (93bet)

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi PQ-3160 sonli qarori

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040 son qarori.

EKOSOFIYA: INSON VA TABIAT MUVOZANATI FALSAFASI

Rasulov Hakim Mamanovich,
Termiz davlat universiteti professori,
Siyosiy fanlar nomzodi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy falsafaning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan ekosofiya tushunchasi va uning jamiyat rivojidagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Arne Nayessning “Ekosofiya” konsepsiyasi hamda inson va tabiat o‘rtasidagj munosabatlarning yangicha tizimi ko‘rib chiqiladi. Maqolada globallashuv davridagi asosiy ijtimoiy va ekologik tendensiyalar, xususan, iste’mol madaniyatining o‘zgarishi va ekologik ongning shakllanishi masalalari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ekosofiya, ekologik falsafa, ontologik, aksiologik, sinergetik, inson, jamiyat, tabiat, global ekologik vaziyat, ekologik ong va madaniyat.*

Аннотация. *В данной статье анализируется концепция экософии, одного из перспективных направлений современной философии, и её роль в развитии общества. В ходе исследования рассматривается концепция «экософии» Арне Несса и новая система взаимоотношений человека и природы. В статье научно обоснованы основные социально-экологические тенденции эпохи глобализации, в частности, изменения в потребительской культуре и формирование экологического сознания.*

Ключевые слова: *Экософия, экологическая философия, онтологический, аксиологический, синергетический, человек, общество, природа, глобальная экологическая ситуация, экологическое сознание и культура.*

Abstract. *This article analyzes the concept of ecosophy, one of the promising directions of modern philosophy, and its role in the development of society. During the study, Arne Naess’s concept of “Ecosophy” and the new system of relations between man and nature will be considered. In the article, the main social and environmental trends in the era of globalization, in particular, the changes in consumer culture and the formation of ecological consciousness are scientifically substantiated.*

Key words: *Ecosophy, ecological philosophy, ontological, axiological, synergetic, human, society, nature, global ecological situation, ecological consciousness and culture.*

Kirish. Zamonaviy dunyoda inson va tabiat o‘rtasidagi munosabat yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Industrial rivojlanish, urbanizatsiya va texnologik taraqqiyot natijasida tabiiy resurslarga bosim ortib, global ekologik vaziyat dinamikasining muttasil o‘zgarib borishiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu kabi muammolar nafaqat muayyan davlat yoki mintaqa, balki umumsayyoraviy muammo sifatida inson va tabiat o‘rtasidagi ekologik munosabatning global model va strategiyalarini ishlab chiqishni va uni amaliyotga tatbiq etishni talab etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Inson va tabiat muvozanatining ekologik falsafiy tahlillariga aloqador manbalar, jumladan, G‘arb tadqiqotchilaridan Arne Naess, Feliks Gvattari, S.A.Goroxov, N.Knyazova, E.V.Barkova, M.V.Nesprava, S.S.Neyanina, A.V.Dyakov hamda o‘zbekistonlik faylasuf olimlar Q.Nazarov, A.O‘tamurodov, B.To‘ychiyevlarning qarashlari asosida tadqiq qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ekologik falsafa zamonaviy falsafiy dunyoqarashning istiqbolli kompleks muammosi sifatida o‘rganildi. Jumladan, ilmiy bilishning tahlil va sintez, statistik tahlil hamda ontologik, gnoseologik, aksiologik, sinergetik yondashuvlari asosida tadqiq qilindi. Mazkur metodologik yondashuvlar tadqiqot natijalarining ishonchliligi, xolisligi va amaliy ahamiyatini ta’minlashga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda dunyo miqyosida “yashil iqtisodiyot”, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va bioxilma-xillikni muhofaza qilish bilan bog‘liq tendensiyalarga e’tibor kuchaymoqda. Bu jarayonlar ekosofik qarashlarni amaliyotga tatbiq etish

bilan bog‘liq masalalarning dolzarbligini ko‘rsatadi. Ekosofiya (ekologik falsafa) – inson va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, uyg‘unlik va barqaror muvozanatni o‘rganuvchi falsafiy yo‘nalishdir. Ekosofiya tabiatga jamiyat taraqqiyotini ta’minlovchi “resurs” emas, balki qadriyat sifatida qarashni talab etadi. Shu ma’noda, ekosofiya nafaqat falsafiy konsepsiya, balki inson va tabiat o‘rtasida mas’uliyat va barqaror muvozanat modelini yaratishga qaratilgan kompleks ilmiy-axloqiy yondashuv hisoblanadi. U tabiatni faqat iqtisodiy resurs yoki inson ehtiyojlarini qondirish vositasi sifatida emas, balki mustaqil qiymatga ega bo‘lgan murakkab va o‘z-o‘zini tartibga soluvchi tizim sifatida talqin qiladi. Bu tushuncha norvegiyalik faylasuf Arne Naess tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lib, u “ekologik donishmandlik” g‘oyasiga asoslanadi. Keyinchalik “fransuz psixoanalitigi va faylasufi Feliks Guattari tomonidan ishlab chiqilgan”ligi ham ta’kidlanadi[1]. Guattari ekosofiyasi va Arne Naessning ekologiyasi umumiy ildizlarga ega ekanligini ham ta’kidlash lozim[2]. Arne Naess ekosofiyani faqat nazariy ta’limot sifatida emas, balki insonning tabiatga nisbatan axloqiy munosabatini o‘zgartirishga qaratilgan amaliy-aksiologik tizim sifatida yondashadi. Unga ko‘ra, barcha tirik mavjudotlar, xoh inson, xoh hayvon, xoh o‘simlik bo‘lsin, barchasi yashash va rivojlanish uchun teng imkoniyatlarga ega bo‘lishi lozim. Bu borada Arne Naess shunday ta’kidlaydi: “Agar siz o‘z harakatlaringiz natijalari boshqa mavjudotlarga qanday ta’sir qilishini bilmasangiz, bunday yo‘l tutmasligingiz kerakligini anglatadi”[3].

Ekosofiya muammosi, asosan, G‘arb falsafasida o‘tgan asrning 80-yillaridan inson+jamiyat+tabiat munosabatlari va ularning detirmantligi (o‘zaro ta’siri) ijtimoiy-falsafiy kontekstida tadqiq etila boshlandi. Shu jihatdan, ekofalsafani insonning atrof-muhit bilan o‘zaro ta’sirida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy muammo, falsafiy bilim sohasi sifatida ta’riflash mumkin. Ekosofiyaning muhim xususiyati uning global ahamiyat kasb etayotganligida namoyon bo‘ladi. Shu bois ham ekofalsafa bilan bog‘liq tadqiqotlar turli fan sohalari, jumladan, siyosatshunoslar sa’y-harakatlarini ifodalashi va birlashtirishi lozimligigni ko‘rsatadi[3]. Rossiyalik tadqiqotchi E.V.Barkova nuqtayi nazariga ko‘ra, ekofalsafa “asosiy e’tiborni biosfera, noosfera va madaniyatning birligidagi o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi yaxlitligiga qaratadi va bu jihatdan kosmizm falsafasi an’analarini davom ettiradi[5]. Bu fikrlar zamonaviy ekosofiyaning oldida insonning tabiatga oqilona munosabati shakllanishi bilan bog‘liq dolzarb muammolar turganligini ko‘rsatadi.

Zamonaviy dunyoda taraqqiyot talablari, global geosiyosiy va geostrategik kurashlar doirasida insonning tabiatga antropegen ta’sirining salbiy oqibatlari tobora ortib bormoqda. Global dunyoda inson va tabiat munosabatlari jarayonida shakllanadigan komponentlarning ontologik va aksiologik mutanosibligini sinergetik tushunish doirasida ijtimoiy va gumanitar bilimlarning dolzarb muammosi sifatida tadqiq qilish zaruriyatini tug‘dirmoqda. Shu jihatdan, ekologik falsafada insonning tabiatga ta’siri bilan bog‘liq antropologik munosabatlari, asosan, ikkita paradigmada tahlil etilayotganligini kuzatish mumkin. Birinchisi ontologik kontekstda odamzodning tabiat subyekti sifatidagi o‘zaro faol aloqa va ta’sirida (interaksiya) yaxlit ekologik konsepsiyani tashkil qilishi; ikkinchisi aksiologik yondashuvda inson va jamiyatning shakllanishi tabiat bilan uyg‘unlikda rivojlanishining gumanistik konsepsiyasini ishlab chiqish. Ushbu dunyoqarashga muvofiq, “insonning tabiat va hayotni saqlashdagi noyob ma’naviy mavjudot sifatidagi maxsus funksiyasiga ishonishga asoslangan ekofalsafa insoniyat jamiyatinining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ta’lim sohalarini takomillashtirish yo‘lini ko‘rsatishi mumkin”[6]. Rossiyalik tadqiqotchi S.S.Neyaninaga ko‘ra, bu boradagi asosiy muammolardan biri inson va tabiat munosabatlarida ratsional yondashuvning yo‘qligidir. “Hozirgacha inson va tabiat o‘rtasidagi aloqalar iste’mol munosabatlariga asoslanganligi bilan tavsiflanadi. Tabiatdan jamiyat uchun zarur narsalar ajratib olinadi. Bu jarayon, odatda, zo‘ravonlik bilan amalga oshiriladi va oqibati kelajakka (tabiatga) qanday ta’sir qilishi hisobga olinmaydi”[7]. Tabiatga qadriyat sifatida yondashish bu borada insoniyatning oliy mavjudot o‘laroq funksiyasining bajarilishida unga biosentrik kontekstda yondashuvning shakllanishini tarbiyalash va bu bilan bog‘liq ko‘nikmalarni rivojlantirishga erishish lozim.

Shu bilan birgalikda, ekologik falsafani konseptual masala sifatida o‘rganish va tadqiq etishda ham muammolar saqlanib qolmoqda. Ekosofiya (ekologik falsafa) O‘zbekiston ta’lim tizimida mustaqil tadqiqot obyekti va o‘quv fani sifatida alohida o‘rganilmagan. Muammoga to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqador tadqiqotlar unchalik ko‘p emas. Asosan, oliy ta’lim falsafa fani o‘quv adabiyotlarida umumiy tarzda bayon qilinganligini ko‘rish mumkin[8]. Shu bois, bu muammo ko‘proq tabiiy, texnika va texnologik fanlar, tibbiy ekologiya va gigiyena, ijtimoiy-gumanitar fanlarda ekologik huquq, yashil iqtisodiyot, ekologik tarbiya va madaniyat kabi masalalar doirasida inson va tabiat barqaror rivojlanishining xususiyatlari bilan bog‘liq hodisalar sifatida tadqiq qilingan.

Xulosa va takliflar. Ekofalsafaning jamiyat taraqqiyotidagi amaliy ahamiyati nafaqat ekologik muammolar, balki bu boradagi siyosat, ta’lim, iqtisodiyot rivojlanishining qonuniyatlari bilan aloqadorligida namoyon bo‘ladi. Shu jihati bilan ekofalsafa jamiyat taraqqiyoti qonunlari bilan muvofiqlashadi[9]. Xulosa qilib aytganda, ekosofiya inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga qaratilgan falsafiy yondashuv sifatida ham milliy, ham global darajada muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalliy miqyosda amalga oshiriladigan ekologik tashabbuslar – “yashil makon” umummilliy loyihasi, “yashil iqtisodiyot”, bioxilma-xillikni saqlash va energiya samaradorligi kabi turli loyihalar jamiyatda ekologik ongni, pirovardida tabiatga oqilona munosabatning shakllanishiga xizmat qiladi. Bu jarayonda ko‘proq inson va tabiat muvozanatida madaniy an’analar, tarixan shakllangan milliy qadriyatlar ustuvorlik qilishi lozim. Eng muhim jihati, har bir fuqaro ekologik muammolarning global mohiyatini mustaqil, tanqidiy-tahliliy darajada anglashi va tabiatga ratsional va proksiologik munosabatini qayta ko‘rib chiqishga tayyor bo‘lishi kerak. Ekosofiya ana shu jihatdan jamiyatda muayyan qadriyatlarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Горохов.С.А. Экофилософия: современные подходы и проблемы. // Проблемы современного образования. № 2. 2020. С. 22-29.

2. Knyazeva.H. Ecological philosophy and its applications: following félix guattari’s tradition. // Cosmos and History: The Journal of Natural and Social Philosophy, vol. 17, no. 1, 2021. P. 137-158.

3. Арне Наэсс. https://www.norge.ru/arne_naess/

4. Arne Naess The Shallow and the Deep, Long-Range Ecology Movement.// Open Air Philosophy’. 1973. PP.4

5. Баркова.Э.В. Мироотношение как экофилософская проблема // Право и практика. 2017. № 2. С. 135-142.

6. Несправа.М.В. Философия экологии и экологическая философия: дифференцияация и концептуализация // Norwegian Jourmal of Development of tse International Sciyence. 2020. № 43- 3. С. 52-59.

7. Неянина.С.С. Экология культуры в контексте решения проблемы признания человеком ответственности перед будущим // Традиционные национально-культурные и духовные ценности как фундамент инновационного развития России. 2020. № 2(18) декабрь. С. 32-35.

8. Назаров.Қ. ва бошқалар. Фалсафа асослари. Дарслик. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриѐти, 2024. 361 бет. Назаров Қ., Ўтамуродов А., Тўйчиев Б. ва бошқалар. Ижтимоий фалсафа. Ўқув қўлланма. – Тошкент: “Университет”, 2009. – 84 б.

9. Дьяков.А..В. Феликс Гваттари. Шизоанализ и производство субъективности. Курск: Изд-во Курского гос. ун-та, 2006. С. 246.

КУЛГУНИНГ ИЖТИМОИЙ НАФОСАТИ

Абдурашид Мирзахмедов,
Наманган давлат техника университети профессори,
Фалсафа фанлари доктори

Аннотация. *Кулги тилнинг мантиқий-ижтимоий нафосат коммуникацияси бўлиб, томонлар сўз бахсида ижтимоий муаммоларни тахлили асосида ўзаро келишмовчилик, зиддиятларни бартараф этиш, ўзаро кескин ижтимоий рухий муҳитни фаросатли юмшатиш билан муҳим ахлоқий функцияни амалга оширади. Кулги ўзининг эстетик таъсири билан одамни рухий соғлом турмуш тарзи, одамлараро маънавий-ахлоқий муносабатлар орқали ижтимоий тараққиётга хизмат қилади. Кулги тарихан ижтимоий шаклланган одамларнинг маънавий руҳий соғломлаштириш терапеяси вазифасини ҳам бажарган.*

Калит сўзлар: *Кулги, кулгининг сўз ўйини, юмор, ҳазил психикаси, кулги коммуникацияси, кулгу терапея.*

Аннотация. *Смех – это социальное общение, осуществляемое посредством логического языка, которое выполняет важную нравственную функцию, устраняя разногласия и противоречия, рационально смягчая напряженную социальную и духовную обстановку между сторонами словесного спора, основанного на анализе социальных проблем. Смех, обладая эстетическим воздействием, служит общественному развитию посредством здорового духовного образа жизни и межличностных духовно-нравственных отношений. Становление и развитие смеха связано с духовного-нравственной благополучием, исцеляя психологических стрессов и конфликтов людей.*

Ключевые слова: *Смех, словесная игра смеха, юмор, юмористическая психика, смеховая коммуникация, смехотерапия.*

Abstract. *Laughter is a social communication carried out through logical language, which performs an important moral function, eliminating disagreements and contradictions, rationally softening the tense social and spiritual situation between the parties to a verbal dispute based on the analysis of social problems. Laughter, having an aesthetic effect, serves social development through a healthy spiritual lifestyle and interpersonal spiritual and moral relations. The formation and development of laughter is associated with spiritual and moral well-being, healing psychological stress and conflicts of people.*

Keywords: *Laughter, verbal play of laughter, humor, humorous psyche, laughter communication, laughter therapy.*

Кириш. Ҳар бир ҳалқнинг ёзувгача бўлган тарихи, кишиликнинг ижтимоий ҳамкорлиги, одамийликнинг ўзаро мулкий ва номулкий алоқа ёки муносабатлари оламни бадиий эстетик ўзлаштиришда кулгу омили билан бевосита боғлиқдир. Шу боис кулгунинг моҳияти, ижтимоий-эстетик функционаллиги, мантиқий сўз ўйини миллий мантиқий тафаккур санъатини ривожи билан бирга миллий фольклорни ҳам шакллантирган. Кулгуда ўзига хос ижтимоий муаммоларни ижобий ҳал этишда қўлланилган халқ донишмандлиги ўз мужассамини топади. Ўзбек халқ оғзаки ижодида сўз ўйинлари, айниқса, кулги маданиятини илмий назарий тахлил ва талқинлари алоҳида муҳим кам ишланган соҳани ташкил этади. Шу билан бирга ўзбек миллий фольклори намуналари минг йиллик аждодларнинг бой маънавий-маданий мероси ёш авлодни маънавий-ахлоқий баркамоллиги йўлида амалга ошириладиган бебаҳо тараққиётнинг ворисийлик хазинасидир. Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мақсадларини назарда тутган ҳолда Ўзбекистон Президенти Ш. М. Мирзиёев миллий аския ва қизиқчилик санъатини тиклаш борасида махсус меъёрий актни имзолади [14].

Кулги маданияти ҳорижий адабиётларда фаол тадқиқ этилсада, лекин ўзбек миллий кулгу маданиятига мос бўлган тадқиқотлар кам учрайди [7]. Шу боис кулгига оид

тадқиқотларда нафосатнинг эмоционал ижтимоий кайфият нуқтаи назаридан коммуникациянинг педагогик таълим ва тарбиявий психологик жиҳатларига ҳам илмий адабиётларда эътибор қаратилган [8, 201 б]. Мазкур тадқиқотлар фуқаровий низо можароларни ҳал этиш, алоҳида одамнинг руҳиятида кўтаринки кайфият билан кулгу терапеяси, яъни шахс рухий соғломлигининг шарти сифатида ҳам олимлар тадқиқотларни амалга оширганлар. Шу билан бирга алоҳида ҳолларда кулгуга маданият контектида атрофлича фундаментал тадқиқотлар ҳам алоҳида гуруҳни ташкил этади [2]. Шу билан бирга аския ва қизиқчилик санъатининг илмий тадқиқотларида илмий ноаниқлик ва бахсли жиҳатли мақолалар ҳам илмий жаматчиликка ҳавола қилинган. Гап проф. Маъруф Саломовнинг “Аския ва қизиқчилик санъатининг кеча ва бугуни” мақоласидаги мавзуни таржимаси ва катта ўқитувчини профессорга “Илмий рахбар”лиги ҳақида бормоқда [12].

Бизнинг мақоламизда кулгунинг ўзбек халқ оғзаки ижодида ўзига хос маънавий-ахлоқий категория сифатида сайил (карнавал) маданиятининг сўз ўйини, мантиқий тафаккурда комизмнинг ижтимоий шахслараро намойишини ифодалаш нуқтаи назардан тадқиқи мақсад қилиб олинган.

Маълумот ва методлар. Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегиясига оид ислоҳотлар ўзбек ҳалқининг миллий ижтимоий маданияти, бой маънавий меросининг ижтимоий тажриба сифатида авлодларга етказиш тарихийлик ва мантиқийликка таянади. Ўзбек халқ оғзаки ижодида сўз ўйини фалсафасининг илмий тадқиқоти умумийлик, алоҳидалик ва хусусийлик тамойилларида этноконфессионал анъана ва қадриятларга таянган ҳолдаги тахлили илмий услубий жиҳатдан ўзини оқлайди. Шу маънода миллий фольклор тараққиётда объектив ва субъектив омиллар асосида бадиий тафаккурнинг нафосат ва фаросат фалсафасининг илмий ижтимоий-маданий методологик ёндашувлар асосидаги тадқиқи мақсадга мувофиқдир. Шу маънода ОАВ маълумотлари билан бирга ҳорижий ва миллий илмий адабиётларга манба сифатида қараш илмий хулосаларни чиқаришни тақозо этади. Чунки, ишлаб чиқариш ва маънавий ҳаёт тажрибасининг илмий-назарий тадқиқоти тарихийлик ва мантиқийлик асосида ижтимоий-маданий ёндашувларни ҳам талаб этади. Шарқ ҳалқларининг умуминсоний миллий-диний анъана ва қадриятлари билан тадқиқот натижалари илмий мустаҳкамланди.

Муҳокама ва натижалар. Кулги одамнинг ўзаро мулоқотида ҳосил бўладиган руҳий-физиологик жиҳати бўлиб, юз мушаклар ва нафас олиш тизимининг ўзига хос товуш ва ҳаракатлар орқали намоён бўлади. Кулги ижтимоий ҳодиса бўлиб, одамларнинг алоқа ва муносабатларида ҳазил ёки ўзга вазиятда қувноқ кайфият туфайли юз беради. Шу боис кулгининг табиати антик даврдан тадқиқ этилсада, лекин ҳалигача олимлар орасида фанлараро тортишув, илмий баҳслар давом этмоқда. Кулги одамда асабий таранглик, руҳий зўриқишни юмшатиши билан бирга ижтимоий коммуникацияда низо ва можароларни “юмшоқ” ҳал этиш воситаси ҳамдир. Айни вақтда кулги одамни руҳий куч-қувват, ижтимоий фаолик учун маънавий энергия потенциали ҳисобланади. Кулги миллатни барқарор турмуш кечириши, навқирон, бахтли ҳаётини муҳим ижтимоий кўрсаткичи бўлиб, соғлом жамиятни бирқарор тараққиётини таъминлайди. Кулгида миллатнинг муаммоларини танқидий тахлил этиш орқали жамият ҳохиш-иродаси, эзгуликка интилиш ҳақидаги ахборот беради. Миллат ўз камчилиги устидан ўзи кулиб, уни бартараф этишга интилса, маънавий кучли ҳалқ эканлигини тасдиқлашидир.

Тадқиқот жараёнида кулги ва халқ оғзаки ижодининг риторик-лингвистик ёндошувлари, айниқса юнон поэтикаси антик давр аллома ва мутафаккирларининг ижодида марказий ўринда бўлгани тасдиқланди [1, 12 б]. Бизнинг кулги маданиятига оид изланишларимизда кулгига жамиятнинг тарихий тараққиётида ижтимоий коммуникация шакли сифатида универсал қонуний, табиий сўз ва мулоқот орқали ахборот алмашувнинг ўзига хос ахлоқий эстетик комизм муносабатлари сифатида ёндошувлар амалга оширилди [9]. Бу ҳол турли туман халқларнинг ҳаётида ҳаракатли ўйинлар, айниқса мусобақалар байрам ва сайиллар (карнавал) шаклида ўтказилган бўлса, ҳалқ оғзаки ижодида ҳам сўз

ўйини, донолик баҳс-мунозаралари шаклланган [3, 22 б]. Биз миллий фолкьлорнинг ривожида комизмнинг ижтимоий табиати эстетик жиҳат ва хусусиятлари назарий жиҳатдан илмий тахлиллари бўйича илмий-услубий манбалар яратиш заруратини аниқладик.

Ўзбек аскияси кулгу санъатининг алоҳида эстетик жанри бўлиб, оригиналлик хусусияти билан ўзга халқларда учрамайди. Аския арабчадан “закий” (ўткир зеҳнли, ҳозиржавоб) маъносида миллий халқ оғзаки ижоди фольклор жанрининг мантиқий тафаккур мусобақаси бўлиб, алоҳида ва гуруҳли шаклда театрлаштирилган тамоша (шоу) ҳисобланади. Аскиячилик аждодлардан авлодларга генетик ўтадиган сўзамолликда ахлоқий гўзалликни бадиий намойишига эришишда оғзаки бадиий тортишувдир. Ўзбек халқининг тўй тантана, байрам ва сайилларида омманинг ҳуш кайфиятида сўзнинг куч ва қудрати, тилнинг маъно ва мазмуни нақадар мантиқий кенгликларини ёритишга қаратилган ижодкор ва санъаткорнинг бир муаммо ва мавзу доирасидаги бахсидир. Илмий адабиётларда аскиянинг ўзбек юмори сифатида фундаментал илмий тадқиқотлар амалга оширилмоқда [8; 9; 13].

Миллий юморда ўзаро оғзаки баҳс-мунозара айтишувлар кам учраса-да, лекин славьян ҳалқларида “Частушки” айтишуви бадиий поэтик жиҳатдан сўз ўйини мантиқий комизмга мос келади, деб ҳисоблаймиз [5]. Бу ўзига хос славьянча халқ оғақи ижодининг объектив оламни ўзлаштириш, ижтимоий воқеликка ўз муносабатини билдириш, муаммоларни қувноқ поэтик асосда оқилона ечимига интилишнинг закийлик санъатига қиёслаш мумкин. Айни вақтда илмий тадқиқотлар мазкур поэтик жанрни ўзбек халқ оғзаки ижодидаги аския санъатидан тубдан фарқланиши, аския ўта мураккаб мантиқий сўз ўйини, тафаккур бахси, бир мавзу доирасидан чиқмай томонларнинг пайров мантиқий тортишуви ҳисобланади. Дарҳақиқат, аския санъати оригинал ўзбек санъати бўлиб, ўзга халқларда учрамайдиган оқилона сўз ўйини театри, мамлакатимизда эса аския санъати Қўқон хонлиги ҳудудлари билан боғлиқ нафосат санъати ҳисобланади.

Хорижий адабиётларда “Каламбур” халқ оғзаки ижоди тил коммуникацияси доирасида тадқиқ этилиб, стилистик ўхшаш сўзларни қўллаш (паронамазия) орқали сўз ўйинида ифодаланади. Рус тилида “Из года в год”, “Негодная погода” сўз бирикмалари ўзагида бир ўзак бўлиб, унда қувноқлик мазмуни мавжуд. Мулоқотда бир сўзни турли вариацияда тил қоидаларига мос бўлмаган ҳолда фойдаланишдир. Каламбур одатда одамларнинг ўзаро ҳазил-хузулида кенг тарқалган [11]. Шу маънода каламбур турли маънога эга ўхшаш сўзларни лингвистик ўйини хазил маъноси ҳисобланади.

Тадқиқот натижаларига таяниб, кулги сўз ўйини миллий маънавий халқ оғзаки ижодида ўзига хос креатив тафаккур, объектив воқеликда ижтимоий камчилик ва нуқсонларни бартараф этишда ижобий ечимларни топишнинг муҳим шакли, ўзаро муносабатларда тушуниш ва тушунтириш фалсафаси ҳисобланади. Шу маънода, кулги маданиятининг юмор санъатига ижтимоий фалсафий қарашларда “ижобий ва салбий”, “позитив ва негатив” эстетик “рангли” ёндошувларни ўта бахсли жиҳатлари намоён бўлади [6, 57 б]. Чунки, муаллифнинг юмор ва кулгига ижтимоий маданият сифатида тафаккур мусобақаси, шахсга алоқадор талантлилик фазилати таҳлил этилади, кулгида “уят”, “хавотир” каби туйғуларга эътибор қаратилади. Кулги маданият феномени сифатида тарихий тараққиёт ва ишлаб чиқаришнинг табиий таркибий қисми сифатида қарор топган. Одамларнинг маънавий-маърифий иродасининг куч қудрати, ўз-ўзининг устидан кулиш орқали камчилик ва нуксонларни бартараф этишнинг юмор воситаси бўлиб ривожланган. Маънавий бой ва иродали миллатгина ўз камчиликларини ўзи тан олиб, уни кулгу билан енгиши ахлоқнинг гўзаллигидир.

Дунё ҳалқларида кулги маданиятининг ижтимоий маданият таркибий қисми, ўта мураккаб нафосат фалсафаси эканлигини эътироф этган ҳолда фанлараро олимларнинг ҳамкорлиги остида психологик, социологик, антропологик ва педагогик йўналишларда фаол муҳокамаларни кузатиш мумкин[5; 6]. Илмий адабиётларда аския ва ўзга сўз

ўйинлари одатда олимлар лингвистика йўналишида тадқиқ этишса-да, биз турли туман ҳалқларда сўз ўйинига асосланган мантиқий айтишувлар миллий фолкьлорнинг фаросат ва нафосат фалсафаси доирасида фалсафий тадқиқи назарий ва амалий мазмунли ўта муҳим илмий йўналиш деб ҳисоблаймиз.

Ўзбек халқ оғзаки ижодида юмор жиҳатига эга бўлган сўз ўйинлари, айтишув ёки лапарлар борки, аския санъати жанрига кирмаслиги, қизиқчилиик йўналишида бўлмаслиги ҳам мумкин. Шахслараро муносабатларда (коммуникация) гина ва кудрат, киноялы айтишув, қочирим, чандиқ ёки нокимёвий воситалар орқали қувноқ ижтимоий муҳит ҳосил қилиниши ҳам мумкин. Бу ҳол ўзбек миллий фолкьлори оламни англаш ва билиш услуби, ижтимоий муаммоларни ўзгалардан олдинроқ кўриш, унинг ечимлари ҳақида креатив хулосаларни беришдир. Шу маънода сўз ўйинларидаги иштирокчилар қувноқ ва зукколарнинг юмори турли туман фахшдан ҳоли маънавий-ахлоқий гўзалликни намойиши, залдаги томошабиннинг турли-туман ёши, жинси, касби коридан қатьий назар, бир хилда қувноқ кайфиятни ҳосил қилишни кўзда тутади. Юмор ижодкорлари одамларнинг кундалик орзу-ният, ижтимоий интилишларини ўзида ифода этиши билан инсонпарварлик мақсадларини кўзлайди. Биз ўзбек сатира ва юмор санъатида Аваз Охуннинг концертлари билан фикримизни далиллаймиз. Билакс, юмор санъати актер билан залнинг ўзаро юморли диалектикасини нафосат шаклидаги креатив билимлар йиғиндисидир.

Одам кулган вақтда юз мушаклари тортишиб, бош мия тўқималарининг таранглиги, яъни стресс ҳолатларини бартараф этиши билан организмда ижобий ўзгаришлар ясайди. Инсон руҳияти барқарор маънавий нафосат билан тўйиниши туфайли соғлом фикр ва қарашлар соғлиқни тиклашда терапевтик ахамият касб этади. Кулгу терапеяси тиббиётда алоҳида соғлиқни сақлаш профилактикаси сифатида оммалашиб бормоқда [8]. Ўзбек халқ оғзаки ижодида кулгу маданиятининг ижобий жиҳатлари юзасидан турли туман мақол ва маталлар шакллантирилган. Шу маънода кулгунинг жамоавий функциялари ўзаро ишлаб чиқариш билан боғлик барқарор соғломлаштириш муҳитини ҳосил қилади.

Хулоса. Кулги жамиятнинг ижтимоий маданияти бўлиб, кишилик жамияти тарихий тараққиёти таъсирида ўзбек халқ оғзаки ижоди намунаси, оламни билишда мантиқий тафаккур шакли, шахслараро ахлоқий-эстетик воситалар асосида ижтимоий муаммоларни ҳал этиш одамларда рухий кескинликни юмшатиш, қувноқ ишчан муҳитни яратиш воситасидир. Кулги орқали одамлар орасидаги низо ва можаролар ижобий ечим топиб, маънавий-ахлоқий муҳим ижобий томонга ўзгаради. Кулги ўз моҳиятига кўра ғаразли, ўзгалар устидан кулиш, шахс сифатида таҳқирлаш билан бирга ўзаро хурмат, эзгу инсоний фазилатларни ўзида мужассам этган миллий фолкьлорнинг оммавий намойишидир.

Ижтимоий муносабатларда кулги турли-туман шахслараро коммуникацияда ижтимоий муаммоларни бартараф этишга қаратилган универсал табиий-бадиий сўз санъати жанри бўлиб, позитив ва негатив жиҳатларга эга бўлиши мумкин. Ўзбек халқ оғзаки ижодида кулгу одамлараро маънавий-ахлоқий жиҳатдан ижтимоий муаммоларни тан олган ҳолда уларни бартараф этишга томон қилинган ҳаракатлар йиғиндисидир.

Дунё халқларида сўз ўйини асосидаги юмор санъати кенг тарқалган бўлсада, лекин ўзбек халқ оғзаки ижодида аския санъати оригинал санъат жанри, кулгу маданиятининг тафаккур сўз ўйини шаклида беқиёс юксак даражага эришган. Халқ оғзаки ижодида хазил-мутойиба, айтишув, аския каби турли туман сўз ўйинларининг негизида кулгу маданияти ётади. Кулги эса инсон асаб тизимини барқарорлаштириши билан организмнинг фаоллик даражасини оширади. Кулги инсон соғлиғи учун зарурий ижтимоий-биологик соғломлик компоненти хизматини ўтайди.

Ташаккурнома

Мақола Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligining IL-9124104620 granti ko‘magida Namangan davlat texnika universiteti ilmiy loyihasi bo‘yicha tayyorlangan bo‘lib, muallif agentlik rahbariyatiga o‘z minnatdorchiligini izhor etadi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Аристотель. Риторика. Поэтика. -М.: Лабиринт, 2000. -221 с.
2. Бергсон А. Смех. –М.: Изд. «Искусство», 1992. -128 с
3. Берн Э. Игры, в которые играют люди... – М.: Эксмо, 2016. -576 с.
4. Голозубов А. В. Теология смеха как феномен западной культуры. -Харьков: ТО «Эксклюзив», 2009. - 468 с.
5. Губанов Н.Н., Рокотянская Л.О., Губанов Н.И. Теория и практика использования юмора в образовании // Alma Mater (Вестник Высшей Школы). –2019. –№1. URL: https://almavest.ru/ru/archive (дата обращения: 03.09.2025).
6. Иванова Е.М. Идеи классических отечественных мыслителей о юморе и смехе и современная психология юмора //Studia Culturae. –2017. -№1 (31). – С. 57-74
7. Нухов С. Ж. Языковая игра как одна из форм проявления общеэстетической категорий комического// Вестник БашкГУ. –2012. -Т.17 -№ 1. -С.171- 178.
8. Mirzakhmedov A., X Mirzakhmedov. Geletology as a subject of philosophical reflektion// International Journal of Interdisciplinary Cultural Studies. -2025. -№ 20(2) -С.201-211.
9. Mirzakhmedov A., Mirzakhmedov X. Askiya as the art of logical humor// International Journal of Interdisciplinary Cultural Studies. -2025. -№ 20(2). -С. 141- 151.
10. Mirzakhmedov A., Mirzakhmedov A. Philosophy of inequality as a factor of social development// Strad Research. -2025. -№ 12 (8). -P.173-181
11. Парономазия //https://руни.рф/Парономазия (дата обращения: 10.09.2025).
12. Саломов М., Рахманова Г. Любопытство и интерес –это прошлое и настоящее искусства// Современная наука и исследования. -2023. -№ 2(10), -С. 414–420.
13. Қамбаров А. Тожимаматова О. Жамият тараққиётида аския санъатининг ўрни// Центральноазиатский журнал образования и инноваций. –2025. – № 4(1). – Б. 45-49.
14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 июлдаги ПҚ-222-сонли “Республикада миллий аския ва қизиқчилик санъатини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” Қарори// https://lex.uz/ru/docs/6531520

YOSHLAR ONGIDA O‘ZBEK HARBIY SARKARDALARI VATANPARVARLIK TIMSOLI SIFATIDA

Xakim G‘ofurovish Saidov,
Urganch Ranch texnalogiya universiteti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. *Mazkur mavzu yoshlar ongida o‘zbek harbiy sarkardalarining vatanparvarlik, jasorat, matonat va milliy g‘urur timsoli sifatidagi o‘rnini yoritishga bag‘ishlangan. Tariximizda buyuk sarkarda va qo‘mondonlar nafaqat yurt himoyachilari, balki xalqni birlashtiruvchi, milliy qadriyatlarni asrab-avaylovchi shaxslar sifatida ham namoyon bo‘lgan. Ayniqsa, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi sarkardalarning hayoti va faoliyati yosh avlod uchun ibrat maktabi hisoblanadi. Ularning jasorati, yurt ozodligi va xalq manfaati yo‘lidagi kurashlari yoshlarda Vatanga muhabbat, milliy iftixor va fidoyilik tuyg‘ularini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, yoshlarni milliy ruhda tarbiyalashda o‘zbek harbiy sarkardalari merosidan samarali foydalanish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *vatanparvarlik, jasorat, harbiy sarkardalar, tarix, ardoqlash, allomalar, qahramonlik, qo‘mondon, namuna, yoshlar.*

Аннотация. *Данная тема посвящена раскрытию роли узбекских военачальников в сознании молодежи как символов патриотизма, мужества, стойкости и национальной гордости. В нашей истории великие полководцы и военачальники проявили себя не только как защитники Родины, но и как личности, объединявшие народ и оберегавшие национальные ценности. Особенно жизнь и деятельность таких полководцев, как Амир Темур и Джалолиддин Мангуберди, являются школой примера для молодого поколения. Их мужество, борьба за свободу Родины и интересы народа имеют важное значение в формировании у молодежи любви к Отечеству, национальной гордости и чувства самоотверженности. Поэтому эффективное использование наследия узбекских военачальников в воспитании молодежи в национальном духе является одной из актуальных задач современности.*

Ключевые слова: *патриотизм, мужество, военачальники, история, почитание, мыслители, героизм, полководец, пример, молодежь.*

Abstract. *This topic is devoted to highlighting the role of Uzbek military commanders in the minds of young people as symbols of patriotism, courage, perseverance, and national pride. In our history, great commanders and military leaders appeared not only as defenders of the homeland, but also as figures who united the people and preserved national values. In particular, the life and activities of such commanders as Amir Temur and Jaloliddin Manguberdi serve as a school of example for the younger generation. Their courage and struggle for the freedom of the homeland and the interests of the people play an important role in forming love for the Motherland, national pride, and a sense of devotion among young people. Therefore, the effective use of the heritage of Uzbek military commanders in educating young people in the national spirit is one of the urgent tasks of today.*

Keywords: *patriotism, courage, military commanders, history, honoring, scholars, heroism, commander, example, youth.*

Har qanday millatning kelajagi yosh avlodning ma’naviy kamoloti, vatanparvarlik hissi va milliy ongi bilan bevosita bog‘liqdir. Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ular qalbida Vatanga sadoqat va yurt taqdiri uchun mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda xalqimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan buyuk harbiy sarkardalarning hayoti va faoliyati muhim tarbiyaviy manba bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbek xalqi tarixi Vatan ozodligi va xalq manfaati yo‘lida kurashgan mard va jasur sarkardalarga boy. Jumladan, Amir Temur davlat boshqaruvi va harbiy san’at sohasida ulkan meros qoldirgan bo‘lsa, Jaloliddin Manguberdi bosqinchilarga qarshi

kurashda tengsiz jasorat namunasini ko‘rsatgan. Shuningdek, Zahiriddin Muhammad Bobur nafaqat sarkarda, balki davlat arbobi va ma’rifatparvar shaxs sifatida ham tarixda muhim o‘rin egallaydi.

Ushbu sarkardalarning hayoti, jasorati va Vatan oldidagi xizmatlari bugungi yoshlar uchun haqiqiy vatanparvarlik maktabidir. Ular haqidagi tarixiy ma’lumotlarni o‘rganish yoshlarda milliy g‘urur, fidoyilik, jasorat va Vatanga muhabbat tuyg‘ularini mustahkamlaydi. Shu nuqtai nazardan, o‘zbek harbiy sarkardalarini yoshlar ongida vatanparvarlik timsoli sifatida targ‘ib qilish muhim ilmiy va ma’naviy ahamiyatga ega.

Vatanni sevish, vatanparvar bo‘lish, uni ardoqlab, sog‘inib yashash inson tabiatiga xos hislardir. Buyuklar aytadilar: «Kishining vafodorligi va sadoqati uning o‘z Vatani uchun qayg‘urishidan, do‘stlarini sog‘inishidan va umrining zoe ketkazgan lahzalariga achinib, o‘kinib yashashidan bilinadi». Insonning o‘z xalqiga bo‘lgan sadoqati va fidoyiligi ona Vatanni himoya qilishi, taraqqiy topib, har tomonlama mustahkam va qudratli bo‘lishi hamda xalqining tinch-farovon hayot kechirishiga hissa qo‘shishi bilan o‘lchanadi. Har bir inson el-yurtning ozodligi, mustaqilligi uchun hamma narsani, hatto jonini ham ayamaydi. Vatanparvarlik tantanavor xitoblar va umumiy gaplardan iborat emas, balki u vatanga qizg‘in muhabbat hissi bilan ortiqcha dabdabalarsiz o‘z fikrini bildirish, faqat ezgulikda hayratlanmay, balki muqarrar har qaerda, har qanday vatanda ham bo‘ladigan yovuzlikni jinidan battar yomon ko‘rish demakdir.

Kimki o‘z yurtini sevmasa, u hech nimani seva olmaydi.

Kimki o‘z Vataniga daxldor bo‘lmasa, u insoniyatga ham daxldor emas.

O‘z vataniga dog‘ tushirish — uni sotish degan so‘z.

Faxilanib g‘urur bilan Sobir Raximovni shunday tarif berishimiz mumkin. “Irodali, savodli, o‘suvchi o‘rtoq. Urush boshidan buyon gitlerchi bosqinchilarga qarshi frontda bo‘lgan, yaralangan va sog‘ayganidan so‘ng 353-o‘qchi diviziyaga polk komandiri etib jo‘natilgan. Polkka qo‘mondonligi davomida ishini a’lo darajada bajargan. O‘rtoq Rahimov barcha turdagi qo‘shinlarni birlashtirishni uddalay oladi va jangovar vazifani bajarish uchun ularning barchasini safarbar qiladi. 1943 yil martda Rahimovga general-mayor unvoni beriladi va Moskvaga Harbiy akademiyaga o‘qishga chaqiriladi. Uning mayorlikdan generallikkacha juda tez ko‘tarilishi shaxsiy ofitserlik xususiyatlari bilan izohlanadi”. 1941 yil jami 6 million aholisi bor O‘zbekistondan 1,5 millionga yaqin kishi Vatan tinchligi, yurt tuprog‘i uchun jangga otlandi. Afsuski, ularning orasidan ona yurtga qaytib kelganlar soni juda-juda oz edi. Gollandiya hududidagi Amersfort lagerida qahramonlarcha halok bo‘lgan, fashistlar tomonidan ham ruhan, ham jismonan og‘ir qiynoqlarga solinsa-da, ularning poyiga mag‘rur boshini qo‘ymagan, oxirgi nafaslari qolguncha Vatanini sotmagan, och-nahor, eng og‘ir ishlarga jalb etilsa-da, ahilligini yo‘qotmay, bir-birini suyagan, insonparvarlik g‘alabasini qozonib, shafqatsizlarcha otib tashlangan 101 nafar o‘zbek jangchisi esa bugungi bolalar uchun chinakam ibrat, faxr-iftixor, g‘urur baxsh etadi. Chinakkam vatanparvarlikni o‘zbek jangchilari timsolida g‘urur bilan iftixor bilan baralla aytishimiz mumkin. Tariximizga nazar soladigan bo‘lsak ulug‘ ajdodlarimiz bu hadisi sharifga astoydil amal qilganiga guvoh bo‘lamiz. Yurtimizga mo‘g‘il bosqinshilari bostirib kelgan vaqtida Xorazim shohi qalani tashlab ketadi, shunda Najmiddin Kubro xazratlari o‘zining shogirdlari hamda xalq bilan birgalikda vatan ximoyasiga otlanadi. Bosqinchilar qancha urunsa – da qal’ani ololmaydi. Shundan so‘ng bosqinchilar Najmiddin Kubro hazratlariga qal’ani topshirsa, o‘zi va shogirdlarini omon qoldirishini taklif etadi. Shayh Najmiddin Kubro hazralari “Vatanni sevmoq iymondandir” degan hadisi sharifga amal qilib, bu taklifga rozi bo‘lmaydi. So‘nggi nafasigacha vatan ximoyasida turib shaxid bo‘ladi. Har bir inson o‘zi tug‘ilib o‘sgan, kindik qoni to‘kilgan ona vatanini sevadi. Vatan muqaddas makondir, uning ximoyasi esa har – bir yigitning burchidir. Vatan ne’mati buyuk ne’matdir. Barcha inson Allox tomonidan ato qilib qo‘yilgan mana shu ne’mat bag‘rida tug‘ilib, o‘sib-ulg‘ayadi, uning yaxshiliklaridan nasibador bo‘ladi. Binobarin uning zimmasida mazkur muxitga nisbatan, bu muxit o‘z ishiga olgan narsalarga nisbatan ma’lum xaq-huquqlar va majburiyatlar paydo bo‘ladi. O‘zini vataniga mansub deb biluvchi kishi bu xaqlarni ado qilmog‘i lozimdir. Bu xaq-huquqlar vatanga sadoqat,

uni yaxshi ko‘rish, uni ko‘z qorachig‘iday asrab, kelajak avlodlarga ozod va obod xolda etkazish, uning rivoji va ravnaqi uchun imkoniyatidagi bor narsalarni ishga solish, unda yashovshi kishilarga nisbatan o‘z majburiyatlarini ado etish, masalan, qo‘shnichilik, qarindoshlik xaq-huquqlarini ado qilish, odamlariga ziyon yetkazmaslik kabi ko‘plab narsalarda namoyon bo‘ladi.

“ommaviy-sport ishlari, marafonlar, sportning o‘yin turlari (futbol, voleybol, regbi va boshqalar), «Temurbeklar», «Yosh qutqaruvchi» kabi harbiy-sport o‘yinlarini, «Harbiy kitobxon» kabi tanlovlarni tashkil etish va o‘tkazish;

maktabgasha ta’lim tashkilotlarida bolalar ertaliklarini o‘tkazish hamda Vatanga sadoqat, avlodlar qahramonligini madh qilishga qaratilgan «Men ham harbiy bo‘laman!» shiori ostida turli estafetalar tashkil etish va o‘tkazish”.

Tarixga nazar solsak Shaxabiddin an Nasaviyning yozishisha, Mamlyuklar X-XII asrlarda Xorazmda paydo bo‘lgan. Ular o‘z vatani, hukmdori uchun jonini berishga tayyor, sodiq jangchilardir. Xorazmshohalar dinastiyasining asoschisi Anush Tegin mamlyuk bo‘lgan. Harbiy xodimlar davlatning asosiy kuchi, ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga etishning betakror usuli ekanini Amir Temur ham yaxshi bilgan. Har qanday dono va jasur sarkarda qo‘shinga, sodiq jangchilariga tayanishi uning fikridan, amaliy ishlaridan uzoq bo‘lmagan. Shunday harramlari bo‘lmagan kishi, sarkarda harbiy maqsadalariga erisholmagan. “Temur tuzuklari”da o‘qiymiz: “Amir Jaqu, Iygu Temur, amir Sulaymon, amir Jaloliddinlarni xilvatroq erga chorladim va ular bilan kelishib, o‘zimga yanada yaqin tutdim. “Davlatimga sherik bo‘lasizlar”, dedim. Bu bilan (ularning dilida) o‘zlariga ishonch va menga xizmat qilish uchun qat’iyat tuyg‘ularni uyg‘otdim. Shunga o‘xshash, men bilan ittifoqi buzilgan toifadagi boshqa amirlarni ham birma-bir xoli joyga chorlab, har qaysisi bilan alohida gaplashdim. Bulardan mol-dunyoga hirs qo‘ygan ochko‘z va ta’magirlariga mol ashyo va’da qildim, mansab martabaga, mamlakatlarni boshqarishga ko‘z tikkan amalparastlarga qo‘lga kiritgan mamlakatlar, viloyatlardan birining hokimligini berdim. Ularning hammasini umid va qo‘rqinch orasida saqladim. Har biriga bittadan noib va qutvol tayinladim. Qolgan sipohiylarni ham emak-ichmak, kiyim-kechak umidi, shirin so‘z, ochiq yuz bilan o‘zimga rom etdim. Bir xizmatini o‘n barobar qilib taqdirlab, dillarini xushnud ayladim. Natijada meni qo‘llab-quvvatlaganlar ham, teskari bo‘lgan munofiqlar ham barchasi atrofimda birlashdi. Har ishda birlik ittifoqlikni mahkam tutishga, amrimdan chiqmaslikka va’da berib, men uchun mol-jonlarini ayamay, maydonda jonbozlik ko‘rsatishga ahd qildilar”. Lashkarni boshqarish, harbiy xodimlarning ishonchini qozonish ularni g‘alabaga etaklash alohida san’atni taqozo etadi. N.Makiavelli yozganidek, taxt atrofida o‘z manfaatlarini unutmagan shaxslar aylanib yuradi. “Temur tuzuklari”dagi bayon, so‘zlar harbiy qismlarda ham o‘z manfaatlarini, boylikka, mulkka o‘ch kishilar uchrashini, goho shunday kuchlar askarlarga destruktiv ta’sir etib, mag‘lubiyatga sababchi bo‘lishini bildiradi. Qo‘shinni, ayniqsa qo‘shinni etaklovchi boshliqlarni “umid va qo‘rquvda ushlab turish” juda zarur psixologik usul hisoblanadi. “Temur tuzuklari”dagi “men uchun” degan so‘zga alohida e’tibor berish kerak. Bu so‘zni psixoanaliz nuqtai-nazaridan tahlil qilsak Amir Temur olib borgan janglar mohiyati oydinlashadi. Ayniqsa, ba’zi tadqiqotchilar uning qirq yillik yurishlarini oqlash uchun u islom dinini yoyish uchun jang qilgan degan sababni keltirishadi. “Qirq yil otdan tushmay” xalqlar, davlat ustiga yurish, ular ustidan o‘z hukmronligini o‘rnatishga intilish million million kishilar hayotiga zomin bo‘lgani, shubhasiz. Axir “qirq yil otdan tushmaslik” bemaqsad emasdi-ku?! “Men uchun” degan so‘z bu hol negizidagi mohiyatni oydinlashtiradi. Aslida esa davlatni, erishilgan tarixiy yutuqlarni o‘z “men”i bilan aynanlashtirish barcha monarxlarga, avtokratlarga xos. Boshqarish psixologiyasi va liderlik xislatlaridan xabardor kishi biladiki, jamoa, ittifoq erishadigan muvaffaqiyatlar ma’lum bir shaxslarning yetakchiligini taqozo etadi, barcha mas’uliyatni o‘z ustiga olgan shunday shaxs kishilarni birlashtiradi, ularni g‘alabalar sari ilhomlantiradi. Harbiy ishlar tarixi va ijtimoiy-tarixiy izlanishlar ko‘rsatadiki, urush paytlari, kishilar ko‘z oldida jon berib jon olish yuz berayotganda, qon to‘kilayotganida, beshafqat ekstremal hollarda liderning, yetakchining shaxsiy jasorati, fidoiyligi va mardligi o‘ta muhimdir. Sarkarda panada turib jang, olishuvni kuzatib turavermaydi, shunday vaziyatlar bo‘ladiki, jang

natijasini uning jangda bevosita ishtiroki, mardligi hal qiladi, askarlarni shaxsiy ibratli xatti-harakatlari bilan g‘alabaga etaklaydi ”.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek harbiy sarkardalari xalqimiz tarixida Vatan ozodligi, milliy mustaqillik va xalq farovonligi yo‘lida kurashgan buyuk shaxslar sifatida muhim o‘rin tutadi. Ularning jasorati, matonati va xalqparvarlik fazilatlari bugungi yoshlar uchun haqiqiy ibrat namunasidir. Ayniqsa, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi va Zahiriddin Muhammad Bobur kabi sarkardalarning boy ma’naviy va harbiy merosi yoshlarda vatanparvarlik, milliy g‘urur va fidoyilik tuyg‘ularini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli, yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda buyuk sarkardalar hayoti va faoliyatini keng targ‘ib qilish, ular haqidagi tarixiy bilimlarni chuqur o‘rgatish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Zero, o‘z tarixini, milliy qahramonlarini yaxshi bilgan yoshlargina Vatan ravnaqi va kelajagi uchun mas’uliyat bilan xizmat qila oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Макиавелли Н. Государь. Минск: Москва: ООО коллекция, 2015. С.128-130
2. Ёшларни ҳарбий - ватанпарварлик рухида тарбиялаш канцепсияси. Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 23 февралдаги 140-сонли қарори.
3. Темукр тузуклари. Тошкент: Ўзбекистон, 2018. 39 б
4. Макиавелли Н. Государь. Минск: Москва: ООО коллекция, 2015. С.130-131
5. Темукр тузуклари. Тошкент: Ўзбекистон, 2018. 58 б
6. https://oz.sputniknews.uz/20180508/8150132.html

IJTIMOIY TARMOQ ALGORITMLARI TA'SIRIDA SHAKLLANAYOTGAN HAYOTIY MAQSADLARNING FALSAFIY-AXLOQIY TAHLILI

Karimov Sanjar Sindorqulovich,
Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi
ijtimoiy-iqtisodiy fanlar kafedrasi mudiri,
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID 0000-0002-8056-6770

Annotatsiya. *Maqolada ijtimoiy tarmoq algoritmlarining inson hayotiy maqsadlari shakllanishiga ko'rsatayotgan falsafiy va axloqiy ta'siri tahlil qilinadi. Tavsiya tizimlarining shaxs avtonomiyasi, autentikligi hamda qadriyatlar tanloviga o'zgartiruvchi ta'siri tadqiq etiladi. Algoritmik makonda hayotiy maqsadlarning transformatsiyasi sabablari, oqibatlari va unga axloqiy javob shakllari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy tarmoq algoritmlari, hayotiy maqsad, raqamli falsafa, axloqiy avtonomiya, tavsiya tizimlari, shaxs autentikligi, ma'naviyat, raqamli savodxonlik.*

Аннотация. *В статье анализируется философское и этическое влияние алгоритмов социальных сетей на формирование жизненных целей человека. Исследуется трансформирующее воздействие рекомендательных систем на автономию личности, её аутентичность и выбор ценностей. Раскрываются причины и последствия трансформации жизненных целей в алгоритмическом пространстве, а также формы этического ответа на этот процесс.*

Ключевые слова: *алгоритмы социальных сетей, жизненная цель, цифровая философия, моральная автономия, рекомендательные системы, аутентичность личности, духовность, цифровая грамотность.*

Annotation. *The article analyzes the philosophical and ethical influence of social media algorithms on the formation of human life goals. It examines the transformative impact of recommendation systems on personal autonomy, authenticity, and value choices. The causes and consequences of life-goal transformation in the algorithmic space, as well as forms of ethical response to this process, are explored.*

Keywords: *social media algorithms, life goal, digital philosophy, moral autonomy, recommendation systems, personal authenticity, spirituality, digital literacy.*

Bashariyatning intellektual sayohati har bir yangi davrda inson hayotining eng muhim savollarini qaytadan ko'taradi. XXI asrning ikkinchi choragiga kirar ekanmiz, bu savollar orasida eng dolzarbi va eng ziddiyatlisi shaxsning hayotiy maqsadlari masalasidir desak mubolag'a bo'lmaydi. An'anaviy davrlarda inson o'z maqsadlarini oilaviy muhit, diniy va ma'naviy ta'limotlar, ijtimoiy tajriba hamda shaxsiy tafakkur asosida shakllantirar edi. Hozirgi sharoitda esa bu murakkab jarayonga yana bir kuchli ishtirokchi - ijtimoiy tarmoqlarning tavsiya algoritmlari qo'shildi.

Bugungi davrda algoritm - bu shunchaki texnik vosita yoki dasturiy ta'minotning bir tarkibiy qismi emas. Bu - millionlab insonning e'tibor maydonini, qiziqishlar ko'lamini va eng asosiysi, kelajakka bo'lgan tasavvurlarini shakllantiruvchi infratuzilmadir. Foydalanuvchi smartfonni qo'liga olib, ijtimoiy tarmoq lentasini varaqlay boshlaganida, u o'zini erkin, mustaqil va ongli tanlovchi sifatida his qilsa-da, afsuski, har bir ko'rgan kontent, har bir tavsiya etilgan obraz, har bir keyingi video murakkab matematik modellarning natijasi sifatida bu modellarning birlamchi maqsadi shaxsning ma'naviy yuksalishi yoki hayotiy yetukligini ta'minlash emas, balki, ekran oldidagi vaqt va e'tiborni maksimallashtirishdir.

Shu o'rinda bir qator savollar tug'iladi. Agar shaxsning kundalik tanlovlarini, qiziqishlarini va - eng muhimi - kelajak orzularini ko'rinmas algoritmik tizim shakllantirayotgan bo'lsa, biz

hali ham erkin, mustaqil shaxs deb gapira olamizmi? Hayotiy maqsadlar transformatsiyasining bu yangi shaklini qanday tushunish mumkin va unga qanday axloqiy javob berishimiz lozim?

Hayotiy maqsad tushunchasining falsafiy mohiyati. Hayotiy maqsad tushunchasini falsafiy nuqtai nazardan oydinlashtirish uchun avvalo uning klassik an'analardagi talqiniga e'tibor qaratish lozim. Antik faylasuflar - Aristotel, Sokrat, Epiktet - bu masalada eudaimoniyani, ya'ni fazilatga asoslangan barkamol farovonlikni inson hayotining oliy maqsadi sifatida ko'rsatishgan. Sharq mutafakkirlari Forobiy, Yusuf Xos Hojib va Alisher Navoiy ham bu masalaga shaklan o'zgacha, ammo ruhan hamohang yondashganlar: ular insonning komillikka intilishi, ma'naviy yuksalishi va jamiyatga foyda keltirishini uning hayotiy maqsadi sifatida qabul qilganlar.

XX asrda V.Frankl inson eng mushkul sharoitlarda ham yashashga undaydigan asosiy kuch - bu ma'nodir, deb ta'kidladi. Ma'noning yo'qolishi esa aynan zamonaviy davrning markaziy ekzistensial muammosiga aylangan. Hayotiy maqsad shu ma'noning aniq, vaqt va makon ichida ifodalangan, harakatga undaydigan ko'rinishidir.

Hozirgi raqamli sharoitda hayotiy maqsad tushunchasini qaytadan ko'rib chiqish zarurati paydo bo'lmoqda. Maqsadlar endi nafaqat shaxsning individual ongi va ijtimoiy muhitining o'zaro ta'sirida shakllanadi, balki algoritmik tavsiya tizimlari deb ataluvchi ko'rinmas vositachi orqali ham hosil qilinadi. Bu vositachining o'ziga xosligi shundaki, u shaxsga o'z kelajagining ehtimoliy obrazlarini taklif qiladi, ammo bu obrazlar shaxsning ichki ma'naviy intilishidan emas, statistik xulq-atvor namunalaridan kelib chiqadi. Demak, hozirgi davrda hayotiy maqsadlar masalasini falsafiy tahlil qilish uchun an'analarni zamonaviy texnologik reallik bilan birlashtiruvchi yangi nuqta'i-nazar kerak bo'lmoqda.

Algoritmlarning ishlash mantig'i va falsafiy oqibatlari. Tavsiya algoritmlari o'z mohiyatiga ko'ra aniq matematik maqsadga xizmat qiladi: foydalanuvchining platformada qoladigan vaqtini va e'tiborini maksimallashtirish. Bu - texnik mantiq, ammo undan kelib chiqadigan oqibatlar ancha chuqur. Amerikalik faylasuf va sotsial tadqiqotchi Sh.Zubofning yondashuvida zamonaviy texnologiya korporatsiyalari shaxsning ichki tajribasini xom ashyoga aylantirgan, undan iqtisodiy foyda chiqaruvchi yangi tartibni - "kuzatuv kapitalizmi"ni - o'rnatgan. Ushbu yondashuvda inson tajribasi va e'tibori tovar mavqeiga keltirilib, ularning axloqiy va ma'naviy tabiati e'tibordan chetda qoldiriladi. Bu - falsafiy nuqtai nazardan jiddiy o'zgarishdir: chunki insonning ichki dunyosi tarixan etika sohasiga tegishli bo'lib kelgan, endi esa u iqtisodiyot va texnologiya sohalarida ham hisob-kitobga olinadi.

Algoritmlarning taklif qilish va saralash mantig'i shaxsning ichki dunyosini emas, faqat uning tashqi xulq-atvorini - bosishlar, ko'rishlar, ortda qoldirilgan vaqtlarni - hisobga oladi. Oqibatda, insonning asl intilishlari, o'ylari va ma'naviy izlanishlari bu mantiqdan tashqarida qoladi. Nemis-koreys faylasufi Byung-Chul Xan o'zining "Infokratie" asarida bu jarayonni "raqamli rejim" deb atadi. Uning fikricha, bu rejim shaxsni majburlash orqali emas, balki uning o'z "erkin" tanlovlari orqali boshqaradi. Ushbu tahlil chuqur falsafiy ahamiyatga ega: an'anaviy hokimiyat tashqi cheklovlar o'rnatgan bo'lsa, raqamli rejim shaxsning ichki istaklarini shakllantirish orqali ish ko'radi. Bu yangi shakldagi ta'sirga qarshi an'anaviy etika kategoriyalari yetarli emas - bizga yangi konseptual vositalar zarur.

Algoritmik mantiqning yana bir muhim jihati - uning natijasi sifatida shakllanadigan "informatsion sharchalar" hodisasidir. Foydalanuvchining oldingi xulq-atvori uning keyingi tavsiyalarini shakllantirgani sababli, har bir foydalanuvchi o'zining individual axborot maydoniga tushib qoladi. Britaniyalik faylasuf K. Velis "Maxfiylik - bu kuch" kitobida shunday yozadi: ma'lumotlarimiz nazorat ostiga olinganida, biz o'zimiz ko'rayotgan dunyoning eshigini boshqa birovga topshirgan bo'lamiz. Demak, raqamli muhitdagi "erkin tanlov" tushunchasini falsafiy jihatdan qaytadan ko'rib chiqish bugungi etika fanining eng dolzarb vazifalaridan biriga aylanmoqda. Tanlov hodisasining o'zi - bu nafaqat psixologik akt, balki epistemologik va axloqiy hodisa hamdir, chunki u nimani ko'rish va nimani ko'rmaslik haqidagi qarorlar zaminida shakllanadi.

Hayotiy maqsadlarning algoritmik transformatsiyasi. Algoritmlarning hayotiy maqsadlarga ta’sirini bir necha bosqichda tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Bu bosqichlar bir-birini taqozo qiladi va birgalikda butun bir transformatsiya jarayonini tashkil etadi.

Birinchi bosqich - e’tibor iqtisodiyotining shakllanishidir. Tavsiya tizimlari hissiy reaksiya uyg‘otuvchi, ba’zan qarama-qarshi tuyg‘ularni qo‘zg‘atuvchi kontentni ustun qo‘yadi, chunki aynan shunday kontent e’tiborni uzoq vaqt ushlab turadi. Amerikalik psixolog J. Xayd “The Anxious Generation” kitobida ko‘rsatishicha, smartfonlar va ijtimoiy tarmoqlarning bolalik va o‘smirlik davriga jadal kirib kelishi yoshlar o‘rtasida tashvish, depressiya va tushkunlik darajasining ortishi bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liqdir. Doimiy hissiy ortiqcha yuklanish ostida turgan inson uzoq muddatli, mustahkam maqsad qo‘yish va unga izchil intilish qobiliyatini sezilarli darajada yo‘qotadi. Bu - bevosita hayotiy maqsadlarni shakllantirish jarayoniga ta’sir qiluvchi psixik holat.

Ikkinchi bosqich - qadriyatlarning o‘rin almashinishidir. Tavsiya tizimlari ko‘proq ko‘rilgan, ko‘proq yoqtirilgan kontentni targ‘ib qiladi. Natijada virtual makonda mashhurlik, tashqi ko‘rinish, tezkor boylik va iste’molchilik turmush tarzi kabi tasvirlar ustuvor mavqeni egallaydi. Shu jarayonda ilm, kasbiy mahorat, ijtimoiy mehnat va ma’naviy yetuklik kabi an’anaviy qadriyatlar ko‘rinishdan chetlanadi. O‘zbekistonlik faylasuf Sh. Madaeva o‘z tadqiqotlarida raqamli madaniyat sharoitida milliy qadriyatlarning saqlanib qolishi masalasini ko‘tarib, yoshlarning ma’naviy immuniteti zamonaviy axborot ta’siriga qarshi turishning eng muhim ichki mexanizmi ekanligini ta’kidlaydi. Mazkur fikr falsafiy jihatdan muhim, chunki u tashqi cheklovlar orqali emas, ichki ma’naviy poydevor orqali himoyalanish g‘oyasini ilgari suradi.

Uchinchi bosqich - identitetning qayta shakllanishidir. Shaxs o‘z “men”ini boshqalarning ko‘zi orqali, ya’ni o‘z profili va kontentining qabul qilinishi orqali idrok qila boshlaydi. Doimiy taqqoslash, layklar va sharhlar dinamikasi shaxsning o‘z qadrini tashqi ko‘rsatkichlarga bog‘lab qo‘yadi. Bu jarayonning hayotiy maqsadlarga ta’siri jiddiy: agar shaxs o‘zini doimo namoyish etish kerak bo‘lgan obraz sifatida idrok qilsa, uning maqsadlari ham ichki ma’naviy intilishdan emas, balki tashqi e’tirof olishdan kelib chiqa boshlaydi. Natijada “men kim bo‘lmoqchiman” savoli o‘rnini “men qanday ko‘ringanim ma’qul” savoli egallaydi - bu esa avtentik shaxsiyat shakllanishi yo‘lidagi falsafiy jihatdan jiddiy to‘siqdir.

To‘rtinchi bosqich - vaqt strukturasining o‘zgarishidir. Algoritmik kontent oqimi shaxsni doimiy ravishda hozirgi daqiqaga, lekin chuqur emas, balki yuzaki tarzda mahkam bog‘laydi. Pedagog olim M.Quronov ko‘rsatishicha, tarbiya jarayonining mohiyati sabrli, izchil va uzoq muddatli mehnatga asoslanadi; raqamli kontent esa qisqa, tezkor va doimiy yangilanuvchi tabiatga ega. Bu ikki vaqt mantig‘i o‘rtasidagi ziddiyat yosh avlodning hayotiy maqsadlar shakllantirishida jiddiy qiyinchilik tug‘diradi: barqaror maqsadlar uzoq muddatli sabrni talab qiladi, virtual muhit esa uni shakllantirish imkoniyatini cheklaydi.

Axloqiy tahlil: iroda erkinligi, mustaqillik va e’tibor. Algoritmik ta’sirning axloqiy mohiyatini tushunish uchun bir necha asosiy tushunchani qaytadan ko‘rib chiqish lozim. Bu tushunchalar zamonaviy etika fanining markaziy kategoriyalariga aylanmoqda.

Birinchi tushuncha - shaxs avtonomiyasi. Klassik etikada I.Kant ko‘rsatib o‘tganidek, axloqli shaxs deb faqat o‘z harakatlarining qonun sifatida amal qilishini istash mumkin bo‘lgan shaxsni aytamiz. Avtonomiya - bu nafaqat erkin xohlash, balki erkin va asoslangan tanlay olish qobiliyati. Algoritmlar shaxsga maxsus saralangan kontent oqimini yo‘naltirar ekan, uning tanlov maydonini boshqa subyektlarning manfaatlariga muvofiq cheklab qo‘yadi. Belgiyalik faylasuf M.Kokelberg “Sun’iy intellect falsafasi” (The Political Philosophy of AI) kitobida shunday qayd etadi: “algoritmik tizimlar shaxsiyatning faqat tashqi xulq-atvorini emas, balki ichki istaklarini ham shakllantiradi va shu bilan shaxs erkinligini yangi va kutilmagan shakllarda cheklaydi”. Bu fikrning ahamiyati shundaki, an’anaviy etika asosan tashqi cheklovlarga qarshi shaxsning huquqlarini himoya qilgan; raqamli davr esa ichki istaklarni shakllantirish orqali amal qiluvchi yangi shakldagi ta’sirga qarshi yangi axloqiy javoblarni talab qiladi.

Ikkinchi tushuncha - haqiqiylik muammosi. Inson o‘zini “haqiqiy men” deb biladigan obrazni qachon va qanday shakllantirishi mumkin? Agar uning tanlovlarining katta qismi tashqi tavsiya tizimlari tomonidan oldindan filtrlangan bo‘lsa, uning xohish-istaklarining qaysi qismi haqiqatdan ham o‘ziniki, qaysi qismi esa uning ongiga o‘rnatib qo‘yilgani aniqlash juda mushkullashadi. Italiyalik faylasuf L.Floridi axborot etikasi sohasidagi tadqiqotlarida “raqamli savodxonlik bugun shunchaki texnik ko‘nikma emas, u XXI asr fuqarolik etikasining asosiy tarkibiy qismlaridan biridir” deb yozadi. Demak, haqiqiylikni saqlash uchun shaxs raqamli muhitning ishlash mantig‘ini ongli ravishda tushunishi va undan tashqarida turish, o‘z fikrini mustaqil shakllantirish qobiliyatini rivojlantirishi zarur.

Uchinchi tushuncha - e’tibor erkinligi. E’tibor - shaxsning ma’naviy resursi, uning hayoti uchun kelajak yaratish vositasi va, falsafiy nuqtai nazardan, ongning eng qimmatli mahsulidir. Amerikalik tadqiqotchi T. Xarris “insonparvar texnologiya” tushunchasini ilgari surib, texnologiya dizayni shaxsning manfaatlarini emas, ekran oldidagi vaqtini maksimallashtirishni ko‘zlasa, jamiyatning ruhiy salomatligi xavf ostiga tushishini ta’kidlaydi. E’tiborning tijoriy ekspluatatsiya qilinishi - bu axloqiy normadan tashqaridagi hatti-harakat. Demak, shaxsning e’tibori uzra suverenligini tan olish va uni huquqiy hamda axloqiy darajada himoyalash zamonaviy etikaning yangi vazifasiga aylanmoqda.

Bu uch tushuncha - avtonomiya, haqiqiylik va e’tibor erkinligi - birgalikda raqamli davr etikasining yangi yadrosini tashkil etadi va hayotiy maqsadlar shakllanishi sohasidagi axloqiy tahlilning asosiy ufqlarini ta’minlaydi. Falsafiy tahlilning o‘zi shaxsga himoya vositasini taqdim etadi. Ya’ni, anglagan inson manipulyatsiyaga kamroq beriluvchan bo‘ladi.

O‘zbek jamiyatida muammoning o‘ziga xosligi. O‘zbekistonda ham yoshlarning katta qismi raqamli avlodga mansub. Bu - yangi imkoniyatlar va yangi qiyinchiliklarning o‘ziga xos uyg‘unligi. Davlat siyosatining vazifasi shu murakkab vaziyatda yoshlarning hayotiy maqsadlar tizimini saqlash va rivojlantirish uchun samarali institutsional asoslar yaratishdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarida yoshlar tarbiyasiga alohida e’tibor qaratib, “meni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala - bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim - albatta, yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin” deb yozadi [1, b. 257]. Bu fikr bugungi raqamli sharoitda alohida ahamiyat kasb etadi: faqat mustaqil fikrlay oladigan, o‘z qadriyatlar tizimini chuqur anglagan yosh avlodgina algoritmik manipulyatsiyalar oldida o‘z subyektivligini saqlab qola oladi. Mirziyoyev o‘rtaga qo‘ygan “o‘zlik” tushunchasi bu yerda muhim ahamiyatga ega bo‘lib u zamon talablariga moslashishni inkor etmaydi, ammo unga ma’naviy mezon vazifasini o‘taydi.

O‘zbekistonlik zabardast faylasuf olim Q.Nazarov ko‘rsatishicha, milliy ma’naviyat va jahon falsafasi an’analari uyg‘unligida shakllangan dunyoqarash yoshlarni soxta ideallardan himoyalashda muhim rol o‘ynaydi [2, b. 102]. Bu fikr falsafiy jihatdan ahamiyatlidir, Zero, milliy qadriyatlar tor doirada qolib ketmasligi, balki global axborot makonida o‘zini namoyon eta olishi va dunyo tafakkur an’analari bilan dialogga kirishi zarur. Aks holda, an’ana ramziy darajaga tushib qoladi va kundalik tanlovlarda haqiqiy ishtirok etmaydigan dekoratsiyaga aylanadi.

O‘zbek olimlaridan B. To‘raev raqamli zamonda yoshlarning ma’naviy tarbiyasi haqida fikr yuritar ekan, har qanday texnologiya - vositadir, lekin u maqsadga aylanib qolsa, jamiyat uchun xavf tug‘iladi, deb ta’kidlaydi [3, b. 134].

Aristotel telos haqidagi ta’limotini eslasak, har bir vositaning o‘z o‘rni undan yuqori turuvchi maqsad bilan belgilanadi; texnologiyalarning hayotiy maqsadlar oldida ikkilamchi mavqeini saqlash - bu zamonaviy etikaning markaziy vazifalaridan biridir.

Yuqorida bayon etilgan tahlillar zaminida amaliy savol ko‘tariladi. Bunday vaziyatda nima qilish kerak? Axir algoritmlardan butunlay voz kechib bo‘lmaydi - ular zamonaviy axborot

infratuzilmasining ajralmas qismi. Demak, ularga axloqiy va falsafiy javob taklif qilish zarur. Bu javobni bir necha yo‘nalishda shakllantirish mumkin.

Birinchi yo‘nalish - raqamli ongni rivojlantirish. Yosh avlodga algoritmlar qanday ishlashini, ular qanday ilmiy va iqtisodiy mantiq asosida qurilganini tushuntirish zarur. Faqat algoritm mantig‘ini tushungan kishigina undan tashqarida turish va o‘z tanlovlarini ongli ravishda baholash qobiliyatiga ega bo‘ladi. Bu - yangi turdagi savodxonlik, uni maktabdan boshlab o‘rgatish kerak.

Ikkinchi yo‘nalish - falsafiy ta’limni kuchaytirishdir. Maktab va oliy ta’lim dasturlarida etika, mantiq va falsafa tarixi fanlarining roli oshirilishi lozim. Faqat falsafiy tafakkur orqaligina shaxs o‘z maqsadlari, qadriyatlari va istaklarining manbalarini tahlil qila oladi va ularning haqiqiyligini baholay oladi. Falsafa endi nazariy fan emas, hayotiy o‘z-o‘zini saqlash vositasiga aylanadi.

Uchinchi yo‘nalish - milliy-ma’naviy tarbiyani yangi sharoitlarga moslab kuchaytirish. An’anaviy qadriyatlar - oila, mehnat, o‘zaro hurmat, ilmga intilish - ularning targ‘iboti algoritmik kontent oqimida ko‘rinmas bo‘lib qolmasligi uchun maxsus institutsional yondashuv talab qiladi. Darhaqiqat, faylasuf A.Erkayev o‘z tadqiqotlarida ko‘rsatganidek, “ma’naviyat bu shunchaki an’analar yig‘indisi emas, u shaxs va jamiyatning tarixiy davom etishini ta’minlovchi tirik kuchdir” [4, b. 58]. Demak, an’anaviy qadriyatlarni zamonaviy shaklda, raqamli vositalardan foydalangan holda yoshlarga yetkazish bugungi tarbiyaning eng muhim vazifalaridan biridir.

To‘rtinchi yo‘nalish - texnologiya korporatsiyalarining ijtimoiy javobgarligini oshirish. Algoritmlar dizayni axloqiy mezonlarni hisobga olishi shart. Shaxsning e’tibori va vaqtidan ekspluatatsiya qilish - bu axloqiy normadan tashqaridagi hatti-harakat va u huquqiy darajada cheklab qo‘yilishi mumkin. Bu yo‘nalishda xalqaro hamjamiyat tomonidan qabul qilinadigan yangi tartibga solish me’yorlari shakllanmoqda.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ijtimoiy tarmoq algoritmlari ta’sirida hayotiy maqsadlar shakllanishi murakkab va ko‘p qatlamli jarayondir. Bu jarayonda texnologik, iqtisodiy, psixologik va madaniy omillar o‘zaro chambarchas bog‘langan. Falsafiy-axloqiy tahlil esa shu omillar zaminida turgan asosiy savollarni - shaxsning avtonomiyasi, haqqoniyligi va erkinligi haqidagi savollarni ko‘ndalang qo‘yadi.

Algoritmlar shaxs oldiga qo‘ygan markaziy savol - bu inson kim ekanligi va u qanday yashashni xohlashi haqidagi savol. Agar shaxs o‘z ma’naviy poydevorini, qadriyatlarini va aniq hayotiy maqsadlarini ongli ravishda shakllantirgan bo‘lsa, hech qanday algoritm uning haqiqiy yo‘lini chetga bura olmaydi. Aksincha, bu ma’naviy poydevor zaif bo‘lsa, algoritmik tizim shaxsning tanlovlarini, intilishlarini va pirovardida uning shaxsiyatini o‘z mantig‘iga moslab o‘zgartirib yuborishi mumkin.

Demak, zamonaviy jamiyat oldida turgan vazifa - algoritmlardan voz kechish emas, balki ularni inson manfaatlariga xizmat qiluvchi vositaga aylantirishdir. Buning uchun raqamli savodxonlik, falsafiy tafakkur, axloqiy refleksiya va ma’naviy tarbiyaning yaxlit tizimi zarur. Yosh avlod bugun o‘z maqsadlarini ongli idrok etish, ular zaminida turgan qadriyatlarni anglash va shu yo‘lda izchil ishlashga o‘rgansa, raqamli era qiyinchilik emas, balki shaxs sifatida yetilishning yangi imkoniyatiga aylanadi. Bu - falsafa, etika, ta’lim va davlat siyosatining birgalikda hal qilishi kerak bo‘lgan yaxlit vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2021. - 464 b.
2. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi. - Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2004.
3. To‘raev B. Ma’naviy taraqqiyot va globallashuv. - Toshkent: Akademiya, 2022. - 256 b.
4. Erkayev A. Ma’naviyat va taraqqiyot. - Toshkent: Ma’naviyat, 2009. - 312 b.

TADBIRKORLIK VA ISHBILARMONLIKNING MA'NAVIY-AXLOQIY KONSEPSIYASI

Burxonjon Shamsiddinov,
Qo'qon davlat universiteti
Falsafa va dinshunoslik kafedrasi mudiri

Annotatsiya. *Maqolada bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyatining nafaqat moddiy foyda olish, balki jamiyatning ma'naviy-axloqiy manzarasini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilingan. Muallif tadbirkorlik ma'naviyatining asosi sifatida halollik, va'daga vafo qilish, mijoz va hamkorlarga nisbatan adolatli munosabatda bo'lish masalalarini yoritadi. Shuningdek, maqolada Sharq mutafakkirlari va Islom qadriyatlarining biznes odobiga ta'siri, korporativ ijtimoiy mas'uliyat hamda sog'lom raqobat madaniyati falsafiy jihatdan asoslab berilgan. Kasbiy etika shakllanishining tarixiy ildizlari va zamonaviy tadbirkor qiyofasidagi fazilatlar xulosalangan.*

Kalit so'zlar: *tadbirkorlik ma'naviyati, biznes etikasi, halollik, bozor iqtisodiyoti, ijtimoiy mas'uliyat, kasbiy etika, sog'lom raqobat, korporativ mas'uliyat, milliy qadriyatlar, iqtisodiy barqarorlik.*

Аннотация. *В статье анализируется роль предпринимательской деятельности в условиях рыночной экономики не только как средства получения прибыли, но и как духовно-нравственного фактора, определяющего социальный облик общества. Автор раскрывает такие основы этики бизнеса, как честность, верность слову, справедливость в отношениях с клиентами и партнерами. Также рассматривается влияние восточных мыслителей и исламских ценностей на деловой этикет, философски обосновываются корпоративная социальная ответственность и культура здоровой конкуренции. Описываются исторические корни формирования профессиональной этики и черты, присущие современному предпринимателю.*

Ключевые слова: *предпринимательская духовность, бизнес-этика, честность, рыночная экономика, социальная ответственность, профессиональная этика, здоровая конкуренция, корпоративная ответственность, национальные ценности, экономическая стабильность.*

Abstract. *The article analyzes the role of entrepreneurial activity in a market economy, emphasizing that it serves not only as a means of generating profit but also as a spiritual and ethical activity that shapes the socio-economic landscape of society. The author highlights honesty, integrity, and fairness toward customers and partners as the core pillars of business spirituality. Furthermore, the influence of Oriental thinkers and Islamic values on business etiquette is explored, providing a philosophical basis for corporate social responsibility and a culture of healthy competition. The article concludes by discussing the historical roots of professional ethics and the essential qualities of a modern entrepreneur.*

Keywords: *entrepreneurial spirituality, business ethics, honesty, market economy, social responsibility, professional ethics, healthy competition, corporate responsibility, national values, economic stability.*

Xozirgi kunda butun jaxondagi rivojlangan va rivojlanayotgan mamalakatlarning iqtisodiyoti asosan tadbirkorlar va ishbilarmonlarning faoliati bilan bog'liqdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchilar xozirgi kunda nafaqat foyda olish,daromadini ko'paytirish vositasi emas, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy manzarasini belgilovchi ma'naviy-axloqiy faoliyat hamdir. Muvaffaqiyatli ishbilarmonlik faqatgina foyda olish, raqamlar va daromad bilan emas, balki ishonch, halollik va mas'uliyat kabi axloqiy mezonlar bilan o'lchanadi. Tadbirkorlik va ishbilarmonlikning ma'naviyati mavzusida so'z yuritar ekanmiz-bozor iqtisodiyoti sharoitida ko'pchilik muvaffaqiyatni faqat raqamlar, moddiy foyda olish va investitsiyalar bilan o'lchaydi. Biroq, tajriba shuni ko'rsatadiki, uzoq muddatli va barqaror rivojlanishning zamirida mustahkam ma'naviy poydevor yotadi. Tadbirkorlik ma'naviyati — bu

shunchaki "yaxshi odam bo‘lish" emas, balki biznesni halollik, mas’uliyat va o‘zaro hurmat asosiga qurish san’atidir. Tadbirkorlik ma’naviyatining eng asosiy ma’suliyati bu halollikdir. Sharq falsafasida ham, zamonaviy G‘arb menejmentida ham "so‘zda turish" eng oliy qadriyatlardan biri hisoblanadi. Hallolik — bu inson ma’naviyatining eng yuksak fazilatlaridan biri bo‘lib, u kishining o‘z so‘zi, harakati va niyatlarida to‘g‘rilik,sofdillik, samimiylik hamda adolat tamoyillariga amal qilishini bildiradi.Hallolik — bu insonning ichki vijdoni oldidagi hisobdorligidir. U nafaqat boshqalarni xam o‘ziday qadrlashi,xurmat qilishi, aldamaslikni, balki o‘z-o‘ziga nisbatan ham rostgo‘y bo‘lishni anglatadi. Bu sifatga ega bo‘lgan iymonli,e’tiqodli inson o‘z xatolarini tan olishdan qo‘rqmaydi, xaqdorlar va qarzdorlar o‘rtasida manfaatlar to‘qnashuvi kelib chiqqanda ham haqiqat tomonda turadi. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar o‘rtasida hallolik ishonch ko‘pri vazifasini o‘taydi. Insonlarga xos bo‘lgan xalollik bu berilgan va’daga va birovning mulkiga xiyonat qilmaslikda, qaror qabul qilishda xolislikka intilishdab, tadbirkorlik faoliyatida va muloqotda yashirin o‘yinlardan xoli bo‘lishda yaqqol ko‘rinadi. O‘zbek xalqi mentalitetida va islomiy qadriyatlarda "halollik" tushunchasi ko‘pincha mehnat va daromad bilan bog‘lanadi.Sharq mutafakkirlarining ma’naviy axloqiy qarashlarida, Donishmandlarning pandu-nasixatlarida islom dinidagi qadriyatlada xallolik tushunchasi asosan birovning haqidan qo‘rqish, mehnat evaziga, o‘z kuchi va bilimi bilan rizq toppish, korrupsiya, o‘g‘rilik va aldamchilikdan yiroq bo‘lishni anglatadi. Xalollik tushunchasining asosiy belgilari quyidagilardir: rostgo‘ylik,vafodorlik, samimiylik,ma’suliyat kabilardir. Xulosa qilib aytganda - hallolik — bu insonning o‘zligi va atrofidagilar bilan uyg‘unlikda yashashi uchun asos bo‘ladigan ma’naviy ko‘rsatgichidir. U insonning obro‘-e’tiborini belgilaydigan eng asosiy o‘ mezon hisoblanadi.

Tadbirkorlarning ish faoliyatidagi xalolligi asosan birinchidan sheriklar bilan munosabatda yani shartnoma bandlariga qat’iy rioya qilishda va va’daga vafo qilish tadbirkorning eng qimmatli aktivi — reputatsiyasini shakllantiradi.

Ikkinchidan mijozlar bilan munosabatda ya’ni mahsulot yoki xizmatning sifatini boricha asl xolicha ko‘rsatishda, iste’molchini aldamaslik uzoq muddatli xamkorlik va o‘zaro sodiqlikni ta’minlaydi. Haqiqiy ma’naviyatli tadbirkor faqat o‘zini o‘ylaydigan, o‘z hamyonini to‘ldirishni o‘ylaydigan shaxs emas,balki o‘zini, o‘zi qatori o‘zgalar manfaatini o‘ylaydigan jamiyat oldidagi mas’uliyatni his etadigan shaxsni anglatadi. Bu quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- Ishga e’xtiyojmand insonlar uchun daromad manbai bilan ta’minlash — eng katta savobli va ma’naviy ishdir.
- Kam ta’minlanganlar va nogironlarga xayriya va homiylik qilish.
- Topilgan foydaning bir qismini ilm-fan, madaniyat yoki muhtojlarga yo‘naltirish biznesga "baraka" va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash olib keladi. Ishbilormon shaxsni,yoki raxbarning ma’naviyati uning o‘z xodimlariga bo‘lgan munosabatida yaqqol ko‘rinadi.

Ma’naviyatli rahbar o‘zi faoliyat yuritayotgan tashkilotda

Birinchidan mehnatga munosib haq to‘laydi, yani "Ishchining haqini uning teri qurimasdan bering" tamoyiliga amal qiladi.

Ikkinchidan shaxs sifatida hurmat qiladi, o‘z xodimlarini shunchaki "resurs" sifatida emas, balki hamkor sifatida munosabatda bo‘ladi.

Uchinchidan o‘zi faoliyat olib borayotgan tashkilotda adolat mezoniga amal qiladi va xodimlarni rag‘batlantirish va jazolashda faqat xolis mezonlarga tayanadi.

Tadbirkorlarning ish faoliyati bozordagi talab va taklifga bog‘liq bo‘lganligi sababli bozorda raqobat bo‘lishi tabiiy, ammo u noqonuniy yo‘llar bilan bozorni egallash emas, balki ma’naviy bellashuv bo‘lishi kerak. Boshqa tadbirkorning yo‘lini to‘sish, asossiz yomonlash yoki g‘irrom yo‘llar bilan uni bozordan siqib chiqarish ma’naviy qashshoqlik belgisidir. Sog‘lom raqobat tufayli bozor uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirishga,sarf-xarajatni kamaytirish orqali narxni tushirish va o‘z ustida ishlashga undaydi.

Tadbirkorlik ma’naviyati — bu shunchaki nazariya emas, balki biznesning yashab qolish strategiyasidir. Ma’naviyatsiz qurilgan boylik vaqtinchalik bo‘lib, u na jamiyatga, na maxsulot

egasiga ruxiy xotirjamlik beradi. Zero, buyuk ajdodimiz Abdurauf Fitrat aytganidek: "Har qaysi millatning saodati va izzati, albatta, shu millatning ichki intizomi va jipsligiga bog‘liqdir". [1] Bu jipsliq esa tadbirkorlarning o‘zaro ishonchi va ma’naviyati orqali mustahkamlanadi .Xozirgi bozor iqtisodiyoti Davlatlarning Jaxondagi tutgan mavqeyini belgilab beradigan sharoitida tadbirkorlik nafaqat foyda olish vositasi, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy manzarasini belgilovchi ma’naviy faoliyat hamdir. Muvaffaqiyatli ishbilarmonlik faqatgina raqamlar va daromad bilan emas, balki ishonch, halollik va mas’uliyat kabi axloqiy mezonlar orqali belgilanagi. Tadbirkorlikning ma’naviy-axloqiy asosi — bu biznes yuritishning yozilmagan qonunlari va axloqiy tamoyillari majmuidir. Tadbirkorlar axloqi va ma’naviyat xususida fikr yuritar ekanmiz avvalo kasb axloqining mazmun -moxiyati nimadan iborat ekanligini anglab olishimiz zarur. Axloq kishilik jamiyati bilan bir vaqtda, insonlarning tabiat va jamiyat qonunlariga amal qilgan xolda yashab qolishiga yo‘naltirilgan genetik dastur asosida o‘zaro harakatlarini va munosabatlarini muvofiqlashtirish mexanizmi sifatida yuzaga keladi. Axloqning paydo bo‘lishi – bu jamiyat faoliyati va inson ongining shakllanishi va rivojlanishi jarayonida yuzaga kelgan. Axloqning mohiyatini insonning o‘z harakatlarini jamiyat manfaatlari bilan muvofiqlashtirishida namoyon bo‘ladi. Aloxida insonlarning ezgu irodasi bilan jamiyat o‘rtasidagi maxsus – axloqiy munosabatlarda namoyon bo‘ladi. Jamiyatning axloqiy sharti, axloqiy asosi va axloqiy normasi sifatida oiladagi dastlabki tarbiyasidir. Axloq dastlabki ijtimoiy ongni shakllantirish uchun qadriyatli poydevor bo‘lib xizmat qilgan. “Shu bois, axloqiy munosabatlar ko‘pincha "sof holda" emas, balki ijtimoiy munosabatlarning har qanday turida muayyan aspekt sifatida namoyon bo‘ladi” [2]. Shu sababli kasbiy axloq shakllangan. Masalan, siyosat axloqi, iqtisod axloqi, sport axloqi, tadbirkor axloqi va boshqa sohalarda axloqiy asoslar haqida so‘z yuritilib kelingan. Axloq bu ijtimoiy munosabatlarning tarkibiy qismi sifatida shaxsning hayot yo‘lining asosini belgilaydi.

Axloq ijtimoiy hayotning real komponentidir. Har bir inson jamiyatda amal qilinadigan va yozilmagan qonunlarga amal qilish shart ekanligini xis qiladi: vijdon azobi, burchni bajarishga majburiyat, sha’nning tahqirlanishidan tug‘ilgan og‘riq, chuqur ruxiy kechinmalar orqali axloq bizga o‘zining mavjud ekanligini anglatadi. Jamiyatda axloqiy meyorlarning yuzaga kelish sabablari va uning asosiy xususiyatlari aniqlangach, kasbiy axloqning paydo bo‘lishiga extiyoj seziladi.

Kasbiy etikani shakllanishi. Kasbiy etikani yuzaga keltirgan asosiy omil – axloqiy talablar bilan ijtimoiy mehnat taqsimoti va kasblarning shakllanishi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikdir. Ilk kasbiy-axloqiy kodekslar qadim zamonlarda paydo bo‘lgan: masalan, “Gippokrat qasami” – tibbiyot axloqi kodeksi, sudya vazifasini bajargan ruhoniylarning axloqiy yo‘riqnomalari – adliya xodimlari kodeksi.

XI–XII asrlarda, o‘rta asr hunarmandlar korxonalarining shakllanishi davrida, kasbiy axloqiy kodekslar paydo bo‘la boshladi. Aynan shu davrda korxonalarning nizomlarida kasbga, mehnat tabiatiga va mehnatdagi hamkorlarga bo‘lgan axloqiy talablar ilk bor aks etdi. Kasbiy etika avvaliga kundalik axloqiy ongning ifodasi sifatida shakllangan, keyinchalik esa har bir kasbiy guruh vakillarining xatti-harakatlar tajribasi umumlashtirilishi asosida rivojlangan. Bu umumlashtirishlar yozma va og‘zaki xulq kodekslarida, shuningdek, nazariy xulosalar shaklida ifoda etilgan. Natijada kasbiy axloq sohasida oddiy ongdan nazariy ongga o‘tish yuz berdi. Kasbiy axloqiy normalarning shakllanishi va o‘zlashtirilishida ijtimoiy fikr muhim rol o‘ynaydi. Bu normalar darhol umumiy qabul qilingan qoidaga aylanmaydi, balki fikrlar kurashi natijasida qaror topadi. Kasbiy etika va ijtimoiy ong o‘rtasidagi aloqalar an’ana shaklida ham mavjud. Har bir kasb turiga xos axloqiy an’analar mavjud bo‘lib, bu ushbu kasb vakillari tomonidan asrlar davomida ishlab chiqilgan asosiy axloqiy me’yorlarning uzluksizligi va davomiyligidan dalolat beradi. Fikrimizning boshlanish qismida ta’kidlab o‘tganimizdek tadbirkor ishbilarmoning ma’naviyati va axloqi uning quyidgi sifatiy meyorlarida o‘z aksini topadi;

- Halollik va shaffoflik: O‘zi faoliyat olib borayotgan ish soxasidagi hamkorlar va mijozlar oldida berilgan va’daning ustidan chiqish, shartnomada ko‘rsatilgan vazifalarni bajarishga ma’suliyat bilan yondashishi.
- Adolatli raqobat: Bir xil ishlab chiqarish va sotish bilan shug‘ullanayotgan raqibni zo‘rlik,noqonuniy yo‘llar bilan uni sindirish emas, balki sifat va innovatsiya orqali ustunlikka erishish.
- Inson qadri: O‘z qo‘li ostida ishlayotgan xodimlarga faqat "ishchi kuchi" deb emas, balki shaxs sifatida qarash.

Tadbirkorlik ma’naviyatida bizning milliy qadriyatlarimiz, xususan, buyuk ajdodlarimiz o‘gitlari muhim o‘rin tutadi. Xususan Abudulla Avloniy aytganidek: "Iqtisod deb pul va tovarning hisobini bilishga aytilur". Lekin bu hisob-kitob, foyda olish ortida albatta insonlar o‘rtasidagi diyonat turishi lozim. Islom dinidagi moliya tamoyillariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak unda "Al-kosibu habibulloh" (Kasb egasi Allohning do‘stidir) shiori tadbirkorni nafaqat boylik to‘plashga, balki barakali va halol mehnat qilishga ruxiy madad beradi.

Tadbirkorning ma’naviy-axloqiy qiyofasiyosi yaratar ekanmiz, avvalo zamonaviy ishbilarmon qanday fazilatlarga ega bo‘lishi kerak? Tadbirkor ishbilarmonlarning amaliy faoliyat bilan shug‘ullanishidan moddiy maqsad- foyda olish,bozorni egallash,resurslarni tejash va xarajatlarni kamaytirishdan iborat. Tadbirkor ishbilarmonlarning amaliy faoliyatining ma’naviy asosi esa jamiyatga foyda keltirish, mijoz ishonchini qozonish, ekalogik va ijtimoiy ma’suliyat, xodimlarga mexnatiga yarasha munosib haq to‘lashdan iborat. Tadbirkor ishbilarmonning ijtimoiy ma’suliyati – uning oliy ma’naviyati belgisi xisoblanadi. Bugungi kunda “Korporativ ijtimoiy ma’suliyat” tushunchasi ommalashib bormoqda. Ma'naviyatli tadbirkor xayriya ishlari bilan shug‘ullanadi, atrof-muhitni muhofaza qiladi, yurt ravnaqi uchun soliqlarni o‘z vaqtida to‘lab boradi, yosh tadbirkorlarga “ustoz-shogird” an’anasi asosida yo‘l ko‘rsatadi. Tadbirkor ma’naviyati va ahloqi mavzusidagi fikr-muiohazalarimizni xulosalar ekanmiz tadbirkorlik — bu shunchaki "sotib olish va sotish" san’ati emas, balki yuksak mas’uliyatdir. Ma’naviy-axloqiy tamoyillarga asoslangan biznes uzoq umr ko‘radi va jamiyatda e’tirof etiladi. Zero, ma’naviyatsiz iqtisodiyot inqirozga mahkumdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. “Tanlangan asarlar” 1-jild: 2000-yil,75-bet.
2. B.Shamsiddinov Falsafa darslik. Qo‘qon 2025. 355-bet

YANGILANAYOTGAN O‘ZBEK JAMIYATIDA JAMOATCHILIK NAZORATINI KUCHAYTIRISH ZARURATI

Malohat Zoirova,
O‘zbekiston Milliy universiteti katta o‘qituvchisi,
Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yangilanayotgan O‘zbekiston jamiyatida jamoatchilik nazoratining ahamiyati davlat boshqaruvida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, korrupsiya va suiiste’mollarning oldini olish hamda aholining huquqiy ongi va faolligini oshirishdagi ahamiyati tahlil qilingan.*
Kalit so‘zlar: *jamoatchilik nazorati, fuqarolik jamiyati, shaffoflik, ochiqlik, korrupsiya, davlat boshqaruvi, huquqiy ong, axborot texnologiyalari, demokratik taraqqiyot, faollik.*

Аннотация. *В данной статье анализируется значение общественного контроля в обновляющемся обществе Узбекистана в обеспечении открытости и прозрачности государственного управления, предотвращении коррупции и злоупотреблений, а также в повышении правосознания и активности населения.*
Ключевые слова: *общественный контроль, гражданское общество, прозрачность, открытость, коррупция, государственное управление, правосознание, информационные технологии, демократическое развитие, активность.*

Abstract. *This article analyzes the significance of public control in the renewing society of Uzbekistan, its role in ensuring openness and transparency in public administration, preventing corruption and abuses, and increasing the legal awareness and activity of the population.*
Keywords: *public control, civil society, transparency, openness, corruption, public administration, legal awareness, information technology, democratic development, activity.*

Yangilanayotgan o‘zbek jamiyatida jamoatchilik nazorati demokratik taraqqiyotning muhim ustunlaridan biriga aylanib bormoqda. Bu omil davlat va jamiyat o‘rtasidagi muloqotni yanada mustahkamlash, ayniqsa, davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta’minlashda katta ahamiyat kasb etmoqda. Jamoatchilik nazorati orqali fuqarolar qaror qabul qilish jarayonlarida bevosita ishtirok etishi esa davlat boshqaruvida hisobdorlikni kuchaytiradi va mansabdor shaxslarning mas’uliyatini oshirmoqda. Ayniqsa, korrupsiyaga qarshi kurashish, ekologik muammolarda jamoatchilik nazoratining o‘rni beqiyosdir, chunki jamoatchilik fikri va kuzatuvi noqonuniy harakatlarning oldini olishga yordam beradi. Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati institutlari, aholining huquqiy ongi va faolligi muhim omil bo‘lmoqda. Eng muhimi, jamoatchilik nazorati davlat va jamiyat o‘rtasida ishonchni mustahkamlashi natijadasida barqaror va adolatli jamiyat shakllanishiga zamin yaratilmoqda.

Shuningdek, jamoatchilik nazorati yangilanayotgan jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda ham muhim rol o‘ynamoqda. Masalan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, kommunal xizmatlar kabi sohalarda aholi tomonidan bildirilayotgan fikr va takliflar xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu borada fuqarolarning murojaatlari va tashabbuslari asosida kamchiliklar aniqlanib, ularni bartaraf etish choralari ko‘rilishi davlat dasturlari va islohotlarning samaradorligini ta’minlashga yordam bermoqda. Jamoatchilik nazorati, shuningdek, budjet mablag‘larining maqsadli sarflanishini kuzatishda ham muhim ahamiyat kasb etib, ochiq ma’lumotlar va raqamli platformalar orqali fuqarolar moliyaviy jarayonlar haqida ma’lumot olishlari iqtisodiy shaffoflikni oshiradi va resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlaydi. Jamoatchilik nazorati jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishi natijasida har bir inson o‘z kelajagiga befarq bo‘lmasdan, taraqqiyotga hissa qo‘shishga bo‘lgan intilishlarni yanada kuchaytirmoqda.

Aksariyat rivojlangan mamlakatlarda “jamoatchilik nazorati” va “fuqarolik nazorati” tushunchalari kelib chiqishi nuqtai nazaridan bir muncha farqlanadi: fuqarolik nazorati ko‘pincha

harbiy tuzilmalar, avvalo, armiya faoliyati ustidan kuzatuv tushuniladi. Ayni paytda bu nazorat turi davlat hokimiyati idoralari ishining samaradorligi va shaffofligini kuzatish “ommaviy sektor” deb ataluvchi faollar javobgarligi sohasiga kiradi. Bugungi kunda ko‘pgina olimlar jamoatchilik nazoratining quyidagi “bu - davlat va mahalliy hokimiyat idoralari, davlatning boshqa idoralari va mansabdor shaxslari faoliyati ustidan kuzatuv olib borish, mazkur faoliyatning qonuniyligi va samaradorligini baholash, shuningdek ko‘rsatib o‘tilgan idoralar va mansabdor shaxslar tomonidan inson huquqlari va erkinliklarining buzilishlarini payini qirqish bo‘yicha huquqiy choralar ko‘rish” ekanligi borasidagi talqinga moyildir.

Shu ma’noda nafaqat ijtimoiy-gumanitar fikrni, balki hokimiyat institutlarini o‘zgartirishga siyosiy va huquqiy jihatdan yondashishda ham davlat hokimiyati va jamiyat munosabatlarini shakllantirish shakllari to‘g‘risidagi qarashlarning evolyusiyasi, ular o‘rtasida muloqot o‘rnatish, fuqarolarning ishtiroki shakllarini aniqlash, siyosiy qarorlarni qabul qilishda ham “jamoatchilik nazorati” tushunchasining ahamiyatini tadqiq qilish nihoyatda muhimdir. Bizning fikrimizcha, jamoatchilik nazoratidagi jamoatchilik fikri mexanizm sifatida jamoatchilik nazorati ko‘pincha “to‘rtinchi hokimiyat” tushunchasiga muvofiq keladi. Shu bilan birga, bu nazorat turi funksional imkoniyatlari - ommaviy axborot vositalari bilan birgalikda ish olib borishdan tortib, korrupsiyaga qarshi siyosatning muhim tarkibiy qismiga qadar, qonun loyihalarini muhokama qilish va qarorlarni ishlab chiqish, normativ hujjatlar qoidalarida yoki potensial korrupsiyalashgan qoidalarni aniqlashga qadar bo‘lgan ishlarni qamrab oladi.

Jamoatchilik nazoratining amaliy mohiyati nuqtai nazaridan ushbu tushuncha tobora ko‘proq davlat va jamiyat hmmkorligi faoliyati maydonini qamrab olib, bu jamoatchilik nazoratining yangi usullari haqida gapirishga imkon beradi. Shu ma’noda “jamoatchilik nazorati” va “fuqarolik jamiyati” tushunchalarining konseptualizatsiyasi “jamoat sohasi”, “munozara”, “aloqa” va “kommunikativ diskurs” tushunchalari bilan uzviy bog‘liqdir. Yana bir muhim jihat - jamoatchilik nazoratini davlatning (davlat idoralari, davlat hokimiyati va davlat korporatsiyalari) raqobatdoshligini oshirish mexanizmi sifatida tushunishdir. Chunki, mamlakatimizda ham davlat-xususiy sheriklik orqali ijtimoiy masalalar diqqat markaziga chiqa boshladi. Bu o‘rinda masalaning yana bir jihati davlatning funksiyalarini kuchaytirish, davlat-xususiy sheriklik sxemalarini ishlab chiqish zaruriyati bo‘lib, davlatning raqobatbardoshligini oshirish ko‘p jihatdan davlat xizmatining professionalligini oshirishga bog‘liq bo‘ladi. Bunday holda, jamoatchilik nazorati vazifasi davlat xizmatchilari tomonidan o‘z vazifalarini suiiste’mol qilish holatlarini aniqlash (shu jumladan korrupsiya holatlarini aniqlash) va ularning oldini olish choralarini ishlab chiqish sohasida yanada yaqqolroq namoyon bo‘lishi mumkin.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoev ta’kidlagani kabi: “Kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishda jamoatchilik nazoratini tizimli yo‘lga qo‘yish eng maqbul yo‘ldir. Bu – jahon tajribasida sinovdan o‘tgan yo‘l. Davlat qachon o‘z vazifasini muvaffaqiyatli ado etadi? Qachonki davlat idoralari faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazorati o‘rnatilgan bo‘lsa. Afsuski, hozirgi kunda jamoatchilik nazoratining ta’siri amalda sezilmayapti»[1.499].

Bizningcha, O‘zbekiston jamiyatida jamoatchilik nazoratini samarali yo‘lga qo‘yish, fuqarolik jamiyati institutlarining bu boradagi faoliyatini yanada yuksaltirish uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi o‘rinli bo‘lar edi:

- jamoatchilik nazoratining huquqiy asoslarini yaratish va bu borada quyidagi masalalarga alohida e’tibor qaratish lozim: huquqiy asoslarni yaratishda “shaxs-jamiyat-davlat” manfaatlari uyg‘unligi chegaralarini aniq belgilash, fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokini ta’minlash, rivojlangan mamlakatlarning bu yo‘nalishdagi tajribalaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir;

- jamoatchilik nazoratining ilmiy asoslarini tadqiq etish va bu borada quyidagi masalalarga alohida e’tibor qaratish lozim: fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan amalga oshiriladigan jamoatchilik nazoratining aniq shakllari va usullari ishlab chiqish lozim;

- jamoatchilik nazoratini amalga oshirishni samarali tashkil etish uchun davlat va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligining, ijtimoiy sherikchiligining huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish darkor;

- jamoatchilik nazoratini yuksaltirishda ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish va ular orqali jamoatchilik nazoratining samarali natijalarini ifodalashga yo‘naltirilgan dasturlar tayyorlash hamda ularni muntazam yoritib borish kerak;

- jamiyatda jamoatchilik nazoratini shakllantirishning yangi yo‘nalishlari va istiqbollari aniqlash maqsadida xalqaro hamda respublika konferensiyalari, davra suhbatlari o‘tkazish va ilmiy tadqiqot ishlarini faollashtirish lozim.

Muxtasar aytganda, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlari alohida o‘ringa ega. Ularning bu boradagi imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash va undan samarali foydalanishga erishish lozim. Fuqarolik jamiyati institutlari ham jamoatchilik nazoratini samarali yo‘lga qo‘yish orqali inson huquqlari bo‘yicha madaniyatning yuksalishidan, fuqarolarning huquq va erkinliklari to‘liq ta’minlanishidan, mamlakatimizda huquqning mutlaq ustuvorligiga erishilishidan, davlatimizning har tomonlama yuksalishi va taraqqiy topishidan manfaatdordir.

Yuqoridagilardan tashqari, jamoatchilik nazorati ta’sirchan va samarali amal qilishi uchun mamlakatimizda ijtimoiy barqaror muhit, sotsial muvozanat asosidagi mo‘tadil vaziyat, ya’ni aholining ijtimoiy kam ta’minlangan qatlamlari uchun kuchli ijtimoiy himoya, izchil va mukammal qonunchilik tizimi hamda demokratik institutlar rivoj topganligiga asoslangan fuqarolik jamiyati mavjud bo‘lishi zarurdir.

Mamlakatimizda xalq hokimiyatchiligining alohida shakli sifatida jamoatchilik nazorati institutini muttasil rivojlantirish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylantirilmoqda. Chunki ayrim tadqiqotchilarning fikri ham buni tasdiqlaydi: “Jamoatchilik nazoratining optimal mexanizmlarini ishlab chiqish davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish uchun muhim unsur hisoblanadi, chunki aynan jamoatchilik nazorati nafaqat davlat boshqaruvining transparent tizimini vujudga keltirishga, balki jamiyat oldida davlat xizmatchilari mas’uliyatini oshirishga ko‘maklashadi”[2.17].

Mamlakatimizda huquqni qo‘llash jarayonining maqsadlaridan biri jamoatchilik nazoratini tartibga solish mexanizmining samaradorligini oshirishga qaratiladi. “Odil sudlovni amalga oshirishda jamoatchilik ishtiroki va rolini oshirib boramiz. Endi jinoyat protsessiga ingliz huquqidagi davlatlarda ijobiy natija bergan “xalq vakillari hay’ati” instituti bosqichma-bosqich joriy etiladi. Bunda o‘ta og‘ir va jamiyatda shov-shuvga sabab bo‘layotgan jinoyatlar jamoatchilik vakillari ishtirokida ko‘rib chiqilishi sud hukmining yanada adolatli bo‘lishiga xizmat qiladi”[3.]. So‘nggi yillarda jamoatchilik nazoratining ko‘plab shakllari tobora faollashib bormoqda. Ulardan davlat organlariga murojaatlar va so‘rovlar, davlat organlarining ochiq hay’at majlislarida ishtirok etish, jamoatchilik muhokamasi, jamoatchilik eshituvi, jamoatchilik monitoringi, jamoatchilik fikrini o‘rganish, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan davlat organlari mansabdor shaxslarining hisobotlari va axborotini eshitish va boshqalar. Jamoatchilik nazorati qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shakllarda ham amalga oshirilishi mumkin.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlari va davlat organlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorligining asoslari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab qo‘yilgan prinsiplar bilan chambarchas bog‘liqdir. “Asosiy Qonunimizga ilk marotaba fuqarolik jamiyati institutlariga bag‘ishlangan alohida bob kiritilishi va ular faoliyatining kafolatlari belgilanishi jamiyatda ochiqlik, oshkoralik va konuniylik mux;itini, davlat va jamiyat o‘rtasidagi muloqotni yanada kuchaytirish hamda samarali jamoatchilik nazoratini yulga qo‘yish uchun mustahkam zamin hozirlaydi[4.57].

Ushbu prinsiplar amalda qanday amalga oshiriladi va bu sohada qanday choralar ko‘riladi?

Aslida fuqarolik jamiyati fuqarolar manfaatlari va xohish irodasini ifodalaydigan hamda uni amalga oshirishga qaratilgan nodavlat va notijorat tashkilotlari va muassasalarining

birikmasidir. Ko‘pincha ixtiyoriy ravishda ishtirok etish fuqarolik jamiyatini tashkil etuvchi tashkilotlarning xos xususiyatlaridan biridir. Shu bilan birga, fuqarolik jamiyati nafaqat jamoat tashkilotlari bilan cheklanib qolmaydi, balki faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan har qanday shaxs ham fuqarolik jamiyatining muhim a’zosidir. Buni boshqacha ifodalaganda bunday fuqaro fuqarolik jamiyatining bir qismi va u jamoat tashkilotiga a’zo bo‘lishi ham shart emas.

Agar biz fuqarolik jamiyati borasidagi xalqaro tajribaga murojaat qilsak, barcha davlatlardagi nodavlat yoki notijorat tashkilot konsepsiyalarida bu tushuncha qonunlashgan ta’rif va konsolidatsiyaga ega emas. Bu xususiyat fuqarolik jamiyatini davlat tomonidan ijtimoiy javobgarlik masalasi sifatida ajratib turadi. Fuqarolik jamiyati faoliyatining asosi - mustaqil, jamoaviy, ixtiyoriy qarorlardir. Biroq bunday faoliyat davlatning konstitutsiyaviy asoslariga zid bo‘lmasligi kerak. Ayni paytda mamlakatimizda 15 mingdan ortiq nodavlat tashkilot mavjud bo‘lib, ularning faoliyati har xil va mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish xususiyatlarini va uning madaniy qiyofasini aks ettiradi.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyati ma’lum rivojlanish darajasiga yetdi va 2018 yil 12 aprelda O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi[5.]. Uning kuchga kirganidan beri sakkiz yilga yaqin vaqt o‘tdi va hozirda uning dastlabki natijalarini tahlil qilish uchun sabab bor. Avvalo, ushbu qonun jamoatchilik nazoratining sub’ektlari va shakllari ro‘yxatini tuzib berdi. Mazkur qonun jamoatchilikka keng ko‘lamli nazorat vositalaridan foydalanish imkonini yaratdi, bu esa aniq vaziyat va holatga qarab jamoatchilik nazorati maqsadli va samaradorligini oshirish imkonini berdi. Ushbu vositalar orasida jamoatchilik monitoringi, jamoatchilik tekshiruvi, jamoatchilik muhokamasi, jamoatchilik eshituvlari, jamoatchilik fikrini o‘rganish va boshqa shakllar mavjud.

Xulosa qilib aytganda, “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi qonunning to‘la-to‘kis bajarilishi uchun yana ko‘plab qonunosti hujjatlari va aktlarga o‘zgartirish kiritilishi kerak. Bugungi kunga qadar faqatgina ayrimlarida o‘zgartirishlar kiritilgan. Shu bilan birga, normativ-huquqiy hujjatlarni uyg‘unlashtirishda nazarda tutilgan jamoatchilik nazorati mexanizmlari to‘liq ishlashi uchun zarurdir. Jamoatchilik nazorati to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini qo‘llash va uning turli shakllarini amalga oshirish borasidagi xorijiy tajribalarni kuzatib borish kerak. Bu borada yangi, tashabbuskor shakllarni tahlil qilish va baholashga alohida e’tibor qaratish ham muhim hisoblanadi. Chunki jamoatchilik tashabbusi qonunchilik va jamoatchilik nazorati institutlarining ijodiy rivojlanishi uchun muhim resurs bo‘lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. - Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2017. – B. 489.

2. Mavlonov J. Davlat va xalq o‘rtasida samarali muloqotni ta’minlashda fuqarolik jamiyati instiutlarining rolini oshirish. Siyosiy fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati – Toshkent, 2019. – B. 17.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi 26.12.2025. https://president.uz/uz/lists/view/8834

4. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. -Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2024. –B.57

5. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-474-son “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.04.2018 y., 03/18/474/1062-son

ҲОЗИРГИ ДАВРДА “МАДАНИЯТ” ВА “МАЪНАВИЯТ” ТУШУНЧАЛАРИНИ ЁШЛАР ОНГГИГА СИНГДИРИШ ЗАРУРАТИ

Гуларо Нишонбоева,
Маданиятшунослик ва номоддий маданий мерос илмий-тадқиқот институти катта илмий ходими,
“Маданиятшунослик” бўйича фалсафа доктори (PhD)

Аннотация. *Мазкур мақолада мамлакатимиз ёшлари онги ва қалбида “маданият” ва “маънавият” тушунчаларини сингдириш зарурати билан боғлиқ масалалар баён қилинган.*

Калит сўзлар: *Янгиланаётган Ўзбекистон, глобаллашув, маданият, маънавият, маданияшунослик, ахборот истеъмоли, маданий савия, маънавий дунёқараш, ёшлар тарбияси.*

Аннотация*. В данной статье рассматриваются вопросы, связанные с необходимостью прививания молодежи нашей страны понятий культуры и духовности.*

Ключевые слова*: Обновление Узбекистана, глобализация, культура, духовность, культурология, потребление информации, культурный уровень, духовное мировоззрение, образование молодежи.*

Annotation. *This article examines issues related to the need to instill in the youth of our country the concepts of culture and spirituality.*

Keywords*: Renewal of Uzbekistan, globalization, culture, spirituality, cultural studies, information consumption, cultural level, spiritual worldview, youth education.*

Маълумки ҳозирги кунда ижтимоий тармоқлар, медиа соҳаси жуда ҳам кенг ривожланиб бормоқда. “Сунъий интеллект”, “ChatGPT” каби тушунчалар инсон ҳаётига чуқурроқ кириб бормоқда. Китоб ўқиш ҳам, маълумот қидиришда ҳам ижтимоий тармоққа суров жўнатиш орқали саволларга жавоб топаяпмиз. Бу қанчалик одамларнинг миясини дангасалаштириб қўяётганини сезяпсизми?. Бу каби дастурлардан тўғри ва керакли йўлда фойдаланиш албатта ижобий натижа беради, лекин бу дегани фақат ушбу дастурларга таяниб мияни, тафаккурни “дангаса” қилиб қўйиш керак дегани эмас. Мантиқан ўйлаб қаралса, ушбу дастур ҳам инсон тафаккурининг маҳсулидир.

Мазкур ўзига хосликлар ва хусусиятлар билан боғлиқ масалаларни тадқиқ этиш ҳамда бу соҳадаги ютуқлардан фойдаланиш имкониятларини аниқлаб олиш янгиланаётган Ўзбекистонда туб ўзгаришлар рўй бераётган бугунги кунда ниҳоятда муҳим аҳамият касб этмоқда. Илмий ҳамда амалиёт учун катта аҳамиятга эга бўлган ушбу мавзу ҳозирги кунда жадал янгиланаётган жамиятимизнинг маданий ҳаёт соҳалари тузилишига мос бўлган фаолият тизимини ҳар томонлама чуқур ўрганиш учун ҳам ўта муҳим ҳисобланади.

Бу жиҳатдан, янгиланаётган Ўзбекистон ва Учинчи Ренессансни яратишда мамлакатимиз ёшлари онги ва қалбида “маданият” ва “маънавият” тушунчалари қандай сингаётгани тўғрисидаги масалаларга Президент Шавкат Мирзиёев асарларида алоҳида эътибор қаратилган. Мазкур асарларда янги даврда маданий ва маънавий омиллар самарасини ошириш механизми, уни оптималлаштириш масалаларига доир методологик ёндашувлар асослаб берилган. “Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси” асарида Давлатимиз раҳбари Янги Ўзбекистонни, Учинчи Ренессанс пойдеворини барпо этишнинг бу жабҳадаги концептуал парадигмаларини асослаб берган.

Бу асло бежиз эмас, чунки бола тарбияси ҳамма даврларда энг долзарб, энг мураккаб жараёнлардан бири ҳисобланади. Ҳозирги тезкор глобаллашиб бораётган асрда ўсиб келаётган фарзандалримизни ахборот хуружидан қандай асраш йўллари ҳақида олимларимиз бош қотиришмоқда, ўзларининг таклиф-тасвияларини ишлаб чиқишмоқда.

Ҳали онгги шаклланиб улгурмаган фарзандалримизни аллақандай “техника” воситаси, ижтимоий тармоқ “тарбиялаб” қўяётганлигига шундай қараб тура олмаймиз. Бунга қандай ечим ва таклифлар устида ишлаш керак? Ахборот истеъмоли маданиятига қай даражада эътибор бериляпти? Бу каби саволлар бугунги кунда ниҳоятда долзарблигини англаш вақти етиб келмадимикан? Қай даражада ижтимоий тармоқларда биз истеъмол маданиятига риоя қиляпмиз? Ушбу сайт ёки бу каби ахборотлар менга керакми? Бу каби саволларни ёшларга ҳам беринг.

Бу жабҳада ёшларнинг ахборот маданияти даражасини аниқлаш мақсадида “Ижтимоий тармоқ фойдаланувчиларининг ахборот маданияти даражасини аниқловчи қисқа сўровнома” ишлаб чиқилди. Ушбу ҳужжат муаллифлик сўровномаси бўлиб, унда бу ҳақдаги саволга респондентларнинг берган жавоблари қуйида акс этган:

№	“Ижтимоий тармоққа аниқ мақсад билан, бирор юмушни бажариш учун мурожаат этишади, деб ўйлайсизми?”	%
1	Ҳа, фақат аниқ мақсад билан мурожаат қилишади	14%
2	Аксарият ҳолларда аниқ мақсад билан мурожаат қилишади	32%
3	Кўп ҳолларда аниқ мақсадсиз, ижтимоий тармоққа боғланиб қолгани ва фақат вақт ўтказиш учунгина мурожаат қилишади	54%

Юқоридаги саволга фақатгина 14% респондент “Ҳа, фақат аниқ мақсад билан мурожаат қилишади”, 32% респондент “Аксарият ҳолларда аниқ мақсад билан мурожаат қилишади”, 54% респондент “Кўп ҳолларда аниқ мақсадсиз, ижтимоий тармоққа боғланиб қолгани ва фақат вақт ўтказиш учунгина мурожаат қилишади” деб жавоб беришган. Бу жавобларда афсуски салбий жиҳатларнинг устунлиги кўриниб турибди.

Айни шу респондентлардан “Ижтимоий тармоққа боғланиб қолингани инсоннинг маданий қиёфасида ижобий натижага олиб келадими?”, деган саволга берилган жавоблар ҳақида қуйидаги расм аниқроқ тасаввур ҳосил қилиш имконини беради. Ушбу расмда 11 % респондент - “Ижобий”, 63 % - “Ижобий эмас”, 26 % - “Бир нима дейишим қийин”, -деб жавоб беришган. “Ижобий” деб жавоб берган респондентлар ўзларини ва ўзларига ўхшаганларни назарда тутишган, “Ижобий эмас” деб жавоб берганлар эса кўпроқ ўзгаларни ва аксарият ижтимоий тармоққа боғланиб қолаётган ёшларни эътиборга олишган.

Ушбу жараёнда маданият соҳасидаги ўзгаришларнинг мазмун-моҳияти, ислоҳотлар тизимига тегишли бўлган хулосалар ишлаб чиқиш, уларни амалиётга тадбиқ этиш учун керакли таклифлар ишлаб чиқиш, тарғибот ишлар самарадорлигини ошириш каби бир қатор вазифаларни бажариш соҳа вакилларига катта масъулият юкланганлигидан далолат бермоқда.

Жаҳон давлатлари қатори юртимиз ҳам янги уйғониш даври пойдеворини яратиш асносида замонавий талабларга жавоб берадиган янги маданий маконни бунёд этишни мақсад қилган. Ушбу янги маданий макон кейинги йилларда мамлакатимизда бунёд этилаётган замонавий жамият – Янги Ўзбекистоннинг маданий ва маъанвий қиёфасини намоён этадиган, инсонлар бахтли ва тотув яшайдиган маданий муҳитга йўғрилган ижтимоий веқеликдир.

Бу эса ўз навбатида, юртимизда янги маданий маконни яратишнинг баркамол авлодни тарбиялаш жараёнига таъсирини оширишнинг муҳим омилига айланмоқда. Айни пайтда, тобора глобаллашиб бораётган дунё талаблари ва янгиланаётган мамлакатимиз эҳтиёжлари, юртимиз ҳудудларини тўлақонли ривожлантириш зарурати маданият омилининг ҳаётимизда янги куч, янги ҳаракатга айланиши зарурлигидан далолат беради.

Юртимиз маданий ҳаёти ўз навбатида, миллий ва ҳудудий жиҳатларнинг ҳар бири учун умумий таянч тушунча сифатида намоён бўлади ҳамда мазкур соҳалардаги жараёнларнинг моҳиятига таъсир кўрсатади. Бу жиҳатдан, “Маданий майдон”

тушунчасида барча маданий-маънавий қадриятлар, бурч ва масъулият, инсоф, адолат, меҳр-оқибат, виждон, ҳалоллик ва поклик, мардлик ва матонат ҳақидаги қарашлар шу асосда шаклланган инсоний фазилатлар ҳамда ижтимоий жиҳатларда ўз аксини топади.

Бугунги кунда ҳаётимизда, турмуш тарзимизда кўп учрайдиган баъзи тартибсизликлар ва маданиятсизликлар ҳақида бир-бирларимизга нолиб гапириб қоламиз. Транспортда юрганимизда ёшларнинг ўзидан катталарга жой бермаслиги, ёки транспорт воситасини бошқариш жараёнида бир-бирига йўл бермасликлари одамнинг асбига тегади. Жамоат жойларида уяли алоқа воситасида бақириб гаплашиш, бошқаларни ҳисобга олмаслик, турли хилдаги егуликларни истеъмол қилиб, ташлаш керак бўлмаган жойга ахлат ташлаб кетишлар атрофдаги одамларнинг албатта жиғига тегадиган ҳолатлардир.

Бу каби ҳолатларни бола тафаккурида ўзлаштириб боради. Катталар нима қилса, бола ҳам шу ишни қилади. Автотранспорт кутиш шаҳочаларида баъзи “бефаросат”лар турган жойини, йулакчаларни писта пўчоққа тўлдириб, сўнгра индамай траспортга чикиб кетиши жуда ҳам хунук ҳолат. Бундай ҳолатларни “маданиятсизлик”, деб атаймизми ёки “маънавиятсизликми”?

Бу жиҳатдан, ушбу соҳага доир билимларни ёшларга тизимли сингдириш мақсадида таълим муассасаларида “Маданиятшунослик” йўналишдаги фанларни ўқитилиши зарурлиги яна ҳам сезирларли даражада кўриниб қолмоқда. Негаки, маданиятшунослик ҳақидаги фанлар ёшларда “маданий савия”, “маданий дид”, “касбий маданият”, “оила маданияти”, “маданиятли инсон” қиёфасини тизимли ва секин аста шакллантириб боради. Мазкур фанларни нафақат олий ўқув юртларида, балки мактаб ва мактабгача таълим муассасаларига ҳам жорий қилинса, фойдадан ҳоли бўлмас эди.

Нима учун мактабгача ва мактаб таълими ёшидаги болаларга бу фанни жорий қилиш керак, дейилмоқда? Чунки боланинг тафаккур тарзи ҳали тоза ва тиниқ, бошланғич этапдан маданият асослари ўргатилса, юқорида санаб ўтилган “маданиятсизлик”ларга йўл қўйилмаган бўлар эди.

“Маданият” дегани фақатгина тоза-озода юриш эмас, балки ҳар бир одамнинг ўз ички маданияти бўлади, шахсий маданиятлилик даражаси ортади деганидир. Бу каби фанлар ўқитилса, ёшлар маданияти янада сайқалланади, инсон ўзида “маданиятли шахс” қиёфасини ярата олади.

“Маданият” аслида тарбия сўзига жуда ҳам яқин тушунча бўлиб, тартибга амал қилиш, катталарнинг гапига қулоқ тутиш, берилган вазифаларни ўз вақтида бажариш, айтилган жойга ўз вақтида етиб бориш кабилардир.

“Маданият” тушунчаси “маънавият” атамасидан кам аҳамиятли эмас. Ҳар иккала тушунчани уйғун ҳолда ишлатиш мумкин. Уларни бир-биридан ажратиш хато. Маънавияти юқори инсон маданият қоидаларига итоат қилади, жамият талаблари, давлат қонун-қоидаларига бўйсунади.

Тараққиётнинг ҳозирги босқичида маданият соҳасидаги янгиланиш омиллари ҳамда ушбу соҳанинг ривожланиш одимлари, янги давридаги ислоҳотлар ва янгиланишларнинг ҳуқуқий асослари, ижтимоий-иқтисодий омилларини ҳар томонлама кенг тадқиқ этиш масалалари ҳам дунё олимлари ва мутахассисларининг диққат-эътиборида бўлмоқда. Айни пайтда дунёдаги илғор илмий марказларда соҳадаги ислоҳотларнинг маданий тараққиётни таъминлаш омили сифатидаги тарбиявий функциялари, уни трансформatsiялаш жараёнидаги ўзгаришларнинг устувор йўналишлари, маданий фаолиятни ривожлантириш механизмини оптималлаштириш йўллари ва имкониятлари, унинг институционал ва концептуал янгиланишига доир мавзуларда самарали натижаларга эришилмоқда.

Ўзбекистоннинг бугунги кундаги янгиланиши жараёнида мамлакатимизнинг барқарор ривожи ва истиқболини белгилайдиган маданий тараққиёт механизми самарасини ошириш тамойиллари, ушбу жараёндаги амалий фаолият дастурларини ишлаб чиқиш ҳамда уларни амалга ошириш масалалалари ниҳоятда муҳим аҳамият касб этмоқда.

Шунинг учун ҳам, халқимизнинг азалий миллий қадриятлари, маданий мероси, аждодлардан авлодларгача етиб келган бой маънавий мероснинг аҳамияти ва таъсирчанлигини янада ошириш давлатимиз сиёсатининг устувор йўналишларидан бирига айланди. Айни пайтда ислоҳотлар билан боғлиқ жараёнларни “Маданиятшунослик” нуқтаи назаридан таҳлил қилиш вазифалари янада долзарблашмоқда. Президентимизнинг Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” ва “Янги Ўзбекистон – 2030 стратегияси тўғрисида”ги Фармонлари мазкур йўналишдаги ислоҳотлар ва янгиланишлар жараёнини янада жадаллаштирди. Маданият ва санъат соҳасида янги ислоҳотларнинг бўй кўрсатишида ушбу соҳага доир қабул қилинаётган қарору фармонлар амалиётда ўзининг самарасини кўрсатяпти. Буни айни пайтда, Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 20 январда қабул қилинган ЎРҚ - 668-сон “Маданий фаолият ва маданият ташкилотлари тўғрисида”ги Қонуни, Президентимизнинг “Маданият ва санъат ташкилотлари ходимлари меҳнатини рағбатлантириш чора-тадбирлар тўғрисида” 2019-йил 3-майдаги ПҚ-4307-сон, “Номоддий маданий меросни илмий ўрганиш ва тарғиб қилишни ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 2023-йил 25-декабрдаги ПҚ-405-сон Қарорлари ҳамда мавзуга оид меъёрий ҳужжатлар ёшлар онги ва қалбига “маданият” ва “маънавият” тушунчаларини сингдиришнинг методологик асосидир.

Узлуксиз таълим тизими, боғча ва мактаблар, техникумлар ва олий таълим муассасалари инсонни шахс қилиб тарбиялашда энг асосий жамоавий босқич ҳисобланади. Мактабни битирган болаларнинг ҳаммаси ҳам олий маълумотга эга бўла олмайди. Ҳаёт уларнинг йўлини ҳар томонга бурилишига сабабчи бўлган омиллар бисёр бўлади. Аммо шундай бўлсада маданият ҳақида, тарбия тўғрисида ўтилган фанлар уларнинг ёдида бир умр қолиши мумкин. Мактабда олинган тълим-тарбия боланинг келажакда катта олим, олималар, соҳа мутахассислари бўлишида катта туртки вазифасини ўтайди.

Бу мақсад йўлида, ўз-ўзидан, ёшларни аждодларимиздан қолган улкан маънавий–ахлоқий мерос, миллий қадриятларга ошно қилиш, уларда маънавий юксалиш, билим олиш ва комилликка интилишни рағбатлантириш асосий масалага айланади.

Биз фарзандларимизни турли тажовузкор гуруҳлар, экстремистик оқимлар ҳамда гиёҳвандлик, ахлоқий бузуқлик каби иллатлардан фақат тўғри тарбия ва билим ёрдамида асрай оламиз. Бунда бизга ота-боболаримиздан қолган тарбия усуллари ва воситалари, бой маънавий мерос ёрдамга келади. Шарқона ахлоқ-одоб қоидаларига кўра фарзанд тарбияси учун ҳамма бирдек масъул эканлигини унутмаслик зарур.

Шундай экан, ёшларни ҳар томонлама етук инсонлар қилиб тарбиялаш, уларни зарарли иллатлардан сақлаш, аввало, жамиятимизда соғлом фикр устувор бўлишига замин яратишини бир дақиқа ҳам унутмаслигимиз керак.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. -Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017 й.
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. - Тошкент: O‘zbekiston, 2022 й.
3. Авлоний А. Танланган асарлар. 2-жилд. Т.: Маънавият, 2006 й.
4. Назаров Қ. Маънавият асосий тушунчалар луғати. Тошкент.: ―Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти‖, 2021 й.

YANGI O‘ZBEKISTON MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI MODERNIZATSIYALASHUVI VA IJTIMOIY-SIYOSIY MUNOSABATLAR FAOLLASHUVINING MUHIM SUB’YEKTI VA FAOL A’ZOSI

Abdumajidova Hamida,
SamDTU Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasi
PhD.,v.b.dotsent

Annotatsiya. *Maqolada Yangi O‘zbekistonning Markaziy Osiyodagi integratsiya jarayonlari va ijtimoiy-siyosiy munosabatlar faollashuviga ta’siri ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan mintaqaviy hamkorlik tashabbuslari hamda O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalarni mustahkamlashdagi o‘rni yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Integratsiya, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar, faollashuv, mintaqalararo hamkorlik, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, xususiylik, ilm, fan, aloqalar.*

Аннотация. *В статье с социально-философской точки зрения анализируется влияние Нового Узбекистана на интеграционные процессы и активизацию общественно-политических отношений в Центральной Азии. Также освещаются инициативы регионального сотрудничества, выдвинутые Президентом Шавкатом Мирзиёевым, и роль Узбекистана в укреплении связей с государствами Центральной Азии.*

Ключевые слова: *интеграция, общественно-политические отношения, активизация, межрегиональное сотрудничество, экономические, общественно-политические, специфика, наука, знания, связи.*

Abstract. *The article analyzes, from a socio-philosophical perspective, the influence of New Uzbekistan on integration processes and the intensification of socio-political relations in Central Asia. It also highlights the regional cooperation initiatives put forward by President Shavkat Mirziyoyev and the role of Uzbekistan in strengthening relations with Central Asian states.*

Keywords:*integration, socio-political relations, activation, interregional cooperation, economic, socio-political, specificity, science, knowledge, relations.*

Kirish. Keyingi yillarda Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan pragmatik ochiq siyosat tufayli mamlakatimizning Markaziy Osiyo va jahon hamjamiyatidagi nufuzi tobora ortib bormoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining yetmish beshinchi yubiley sessiyasida ishtirok etib nutq so‘zladi. Prezident Shavkat Mirziyoyev xalqaro hamjamiyat e’tiboriga mintaqaviy va global ahamiyatga ega dolzarb masalalar yuzasidan o‘z nuqtai nazarini taqdim etdi, mamlakatimizni siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy modernizatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev mintaqada va global miqyosda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, barqaror taraqqiyot, inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, konstruktiv muloqotni kengaytirish, shuningdek, iqlim o‘zgarishi, oziq-ovqat xavfsizligi muammosi, qashshoqlikka barham berish va kambag‘allikni qisqartirish masalalari kabi zamonaviy xatar va tahdidlarga qarshi qaratilgan qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Keyingi yillarda O‘zbekistonda tashkil etilayotgan nufuzli xalqaro konferensiyalar, forumlar, madaniy tadbirlar O‘zbekistonni nafaqat Markaziy Osiyoning, balki dunyoning zamonaviy madaniy-ma’rifiy markazlaridan biriga aylanib borayotganini anglatadi.

Xususan amalga oshirilayotgan ushbu integratsiya jarayonlari Yangi O‘zbekiston va Markaziy Osiyoda iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-mafkuraviy modernizatsiya jarayonlariga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. Jumladan, O‘zbekiston yo‘lovchilar va yuklarni transchegaraviy tashishni yanada yaxshilash uchun etarli darajada rivojlangan transport infratuzilmasiga ega bo‘lib, Markaziy Osiyo davlatlarini birlashtiruvchi va tashqi bozorlarga olib

chiquvchi eng muhim transport yo‘laklarini barpo etish va modernizatsiya qilish loyihalarini amalga oshirgan hamda transport logistikasi xarajatlarini kamaytirib, mamlakatlar o‘rtasidagi savdo-sotiqni yo‘lga quygan va Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab turizmni rivojlantirish istiqbollarini yaratgan.

Materiallar va metodlar. Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlarining maqsadlari va manfaatlari yagona mintaqa sifatida namoyon bo‘lib, Osiyoda joylashgan boshqa davlatlar bilan xalqaro huquqning belgilangan tamoyili va me'yorlariga asoslangan, tinchlikparvar, do‘stona va o‘zaro manfaatli hamkorlikka qaratilgan faol tashqi siyosat olib borilmoqda. Jumladan O‘zbekistonning ichki va tashqi siyosati mustaqillikni mustahkamlashga, fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta’minlashga, mamlakatimizni barqaror iqtisodiy rivojlanishiga va xalqaro maydonda o‘z salohiyatini to‘liq namoyon qilishiga xizmat qilib, Markaziy Osiyoda xavfsizlik hamda barqaror taraqqiyot, siyosat, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-kommunikatsiyaviy, suv-energetika, ekologik va madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlikni kengaytirish, mintaqadagi integratsiya va modernizatsiya jarayonlari bilan uyg‘un ravishda amalga oshirilmoqda. Chunki O‘zbekiston va Markaziy Osiyoni barqaror, iqtisodiy rivojlangan va yuksak taraqqiy etgan mintaqaga aylantirish ushbu davlatlar oldida turgan asosiy masaladir. Bundan tashqari Markaziy Osiyo integratsiyasiga sezilarli ta’sir etuvchi O‘zbekiston ilgari surgan tashabbuslar qo‘shni davlatlar - Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston va Tojikiston tomonidan munosib ravishda qo‘llab-quvvatlanib, ayniqsa, mamlakatlar rahbarlarining doimiy maslahatlashuv uchrashuvlarining tashkil etilishi davlatlar o‘rtasidagi integratsiya jarayonlarining kuchayishiga ijobiy ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Yangi O‘zbekiston xalqaro munosabatlarning teng huquqli sub’yekti sifatida, bugungi kunda mintaqa va global darajada faol tashqi siyosatni yo‘lga qo‘yib, xorijiy hamkorlar bilan o‘zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirmoqda. O‘z hududi atrofida tinchlik, barqarorlik va xavfsizlik muhitini shakllantirish O‘zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining asosiy vazifalaridan biridir.

Muhokama va natijalar. Markaziy Osiyodagi davlatlar ichida O‘zbekiston yirik inson salohiyatiga ega bo‘lgan, ilm-fani, sanoati rivojlangan, harbiy sohada o‘zining mavqeiga ega bo‘lgan, mintaqadagi boshqa davlatlar bilan umumiy chegaraga ega bo‘lgan davlatdir. O‘zbekiston olib borayotgan siyosatda islohotlarni amalga oshirish, davlat va jamiyatning muvaffaqiyatli ichki rivojlanishi, aholi turmush farovonligi oshishini ta’minlash, aholi hayot sifatini ko‘tarish uchun qulay tashqi sharoitni yaratish masalalariga katta e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekistonning atrofida tinchlik, barqarorlik hamda xavfsizlik muhitini shakllantirish masalalari esa tashqi siyosatdagi asosiy vazifalar bo‘lib hisoblanadi. O‘zbekiston joylashgan Markaziy Osiyodagi xavfsizlik mintaqa barqaror rivojlanishining asosiy sharti bo‘lib hisoblanadi. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan do‘stona, yaqin qo‘shnichilik va o‘zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirishi va mustahkamlashi tashqi siyosat sohasidagi asosiy ustuvor vazifalardan bo‘lib hisoblanadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston o‘zining tashqi siyosatida Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik aloqalarini kengaytirib bormoqda. Birinchidan,Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlarini o‘tkazish to‘g‘risidagi taklifi amalga oshdi. Ushbu tashabbus mintaqa davlatlarining barcha rahbarlari tomonidan qo‘llab-quvvatlandi hamda xalqaro miqyosda keng tan olindi. Qozog‘iston, O‘zbekiston, Turkmaniston va Qirg‘izistonda bo‘lib o‘tgan uchrashuvlar Markaziy Osiyo modernizatsiyasi, integratsiyasi va xalqaro darajada ijtimoiy-siyosiy munosabatlar faollashuviga ijobiy tarzda ta’sir ko‘rsatdi. O‘zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlari modernizatsiyalashuvi va ijtimoiy-siyosiy munosabatlar faollashuvining muhim sub’yekti va faol a’zosi sifatida mintaqadagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarda muhim o‘rin tuta boshladi. Ikkinchidan,O‘zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari o‘rtasida barqaror iqtisodiy va siyosiy aloqalar o‘rnatilib tobora mustahkamlanib bormoqda. Uchinchidan, Shavkat Mirziyoyev o‘zining ilk xorijiy tashrifini 2017 yil 6-7 mart kunlari Turkmanistonga rasmiy

tashrif bilan amalga oshirdi. Uchrashuvda transport sohasida zamonaviy infratuzilma yaratish bo‘yicha kelishuvga erishildi. Bu hamkorlik Markaziy Osiyo, Yevropa va Yaqin Sharq transport tizimlarini birlashtirishni ko‘zda tutgan edi. 2018 yil 23 aprel kuni Turkmanistonning sobiq prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov davlat tashrifi bilan O‘zbekistonga keladi va o‘zaro hamkorlikni rivojlantirishga doir 17 ta hujjat imzolanadi. Ikki davlat o‘rtasidagi keyingi yillardagi o‘zgarishlar sababli tovar ayirboshlash hajmi uch barobardan ziyodga ko‘paydi. O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasida 150dan ortiq qo‘shma korxonalar tashkil etildi.

O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi munosabatlarda ham bir qator ijobiy natijalarga erishildi. 2017 yilning 22-23 mart kunlari Prezident Shavkat Mirziyoyev davlat tashrifi bilan Qozog‘istonda bo‘ldi. Muzokaralar yakuniga ko‘ra ikki davlat o‘rtasida davlatlararo, hukumatlararo va idoralararo 13 hujjat imzolanadi. O‘zbekiston Qozog‘iston chegarasida 2006 yilda yopilgan «Oq oltin» va «Malik» avtomobil o‘tkazish punktlari qaytadan ochildi. 2019 yilning 14-15 aprel kunlari Qozog‘iston Respublikasining hozirgi prezidenti Qosim-Jo‘mart To‘qayev davlat tashrifi bilan O‘zbekistonga keldi. Uchrashuvda ikki tomonlama savdo aylanmasi hajmini yaqin kelajakda 5 mlrd dollarga yetkazishga kelishildi. Ikki davlat o‘rtasida Sirdaryo va Jizzax viloyatlari hamda Qozog‘istonning Turkiston viloyati chegaralari tutashgan uchastkalarda davlatlararo chegarani demarkatsiyalash bo‘yicha bir nechta muzokaralar o‘tkazildi.

O‘zbekiston va Tojikiston o‘rtasidagi munosabatlarda ham bir qator ijobiy natijalarga erishildi. Ikki davlat o‘rtasida murakkab va nozik hisoblangan chegara va suv-energetika sohasidagi masalalar o‘z yechimini topdi. Bu o‘zgarishlarning barchasi oddiy fuqarolarning hayotida ko‘zga tashlanib, ikki davlat fuqarolari o‘z qarindoshlari va do‘stlarinikiga to‘siqlarsiz, erkin tashrif buyurish imkoniyatiga ega bo‘lishdi. O‘zbekiston-Tojikiston chegarasidan hozirgi paytda har kuni 20 mingga yaqin kishi o‘tadi. Ushbu ko‘rsatkich 3-4 yil oldin bor-yo‘g‘i 3-3,5 mingni tashkil qilar edi. 2018 yilda ikki tomonlama o‘zaro davlat tashriflari bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi munosabatlarda ham ijobiy tendensiya ko‘zga tashlanib, ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarda so‘nggi o‘n yil davomida ilk bor chegara masalalarida ijobiy natijalarga erishildi. Qirg‘iziston prezidenti Sadir Japarov uchinchi davlat tashrifini O‘zbekistonga amalga oshirdi. Tashrif doirasida ko‘p qirrali O‘zbekiston - Qirg‘iziston sherikligining deyarli barcha yo‘nalishlarini qamrab olgan 22 ta hujjat imzolandi. Ikki davlat o‘rtasida eng nozik nuqtalardan biri bo‘lgan chegaradagi muammolar yaqin kelajakda hal qilinishi ta’kidlandi.

O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari va jahondagi ko‘plab boshqa davlat va davlat uyushmalari bilan munosabatlari sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Fuqarolari uchun O‘zbekistonda vizasiz rejim joriy qilingan mamlakatlar soni 2021 yil 15 mart holatiga ko‘ra 90tani tashkil qildi. Ushbu ro‘yxatdagi davlatlar soni oxirgi uch yil ichida o‘n barobardan oshiq ko‘paytirildi. Bu esa ushbu davrda O‘zbekistonga keladigan turistlar sonining deyarli 4 baravaroshishiga olib keldi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari oldida hal qilinishi zarur bo‘lgan ko‘pgina muammolar mavjud bo‘lib, Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi eng asosiy muammolardan biri bu chegaralar muammosidir. Mintaqadagi chegaraviy muammolarni hal qilish uchun ko‘pgina ishlar amalga oshirilmoqda. Keyingi yillarda davlat chegaralarini huquqiy jihatdan rasmiylashtirish hamda chegaradagi bahsli hududlar muammosini uzil-kesil hal etish masalasida bir qancha amaliy harakatlar amalga oshirilmoqda. Samarqand shahrida Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta’minlash masalasida “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik” mavzusida 2017 yil 10-11 noyabr kunlari BMT shafe’ligida o‘tkazilgan xalqaro konferensiyada O‘zbekiston, Qozog‘iston va Turkmaniston o‘rtasidagi bahsli nuqtalar bo‘yicha kelishuvga erishildi.

Hozirgi davrda Markaziy Osiyoda mavjud bo‘lgan suv resurslarining 90 foizi sug‘orma dehqonchilik uchun ishlatilmoqda. Suv qishloq xo‘jaligining asosi bo‘lib hisoblanadi va suv xo‘jaligi tarmog‘i Markaziy Osiyodagi beshta mamlakat iqtisodiyotida ham muhim o‘rin tutadi.

Markaziy Osiyodagi beshta mamlakat qishloq xo‘jaligi sohasi bu mamlakatlar YaIMning 10 foizidan 45 foizigacha bo‘lgan qismini tashkil etadi. Kelajakda Markaziy Osiyo hududida suv manbalarining kamayib borish tendensiyasi ro‘y berishi ehtimoli mavjud bo‘lib, muzliklar mintaqadagi suv resurslarining asosiy manbasi bo‘lib hisoblanadi hamda ularning eng katta qismi Tojikiston hududiga to‘g‘ri keladi. Tojikiston hududida joylashgan muzliklar Markaziy Osiyo suv resurslarining 60 foizigacha bo‘lgan qismini tashkil etadi. “Ob-havo o‘zgarishi bilan Markaziy Osiyoda suv resurslarini boshqarish va xavfsizligini ta’minlash masalalari muhim ahamiyat kasb etib boraveradi.

Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlik tayanchi bo‘lgan Yangi O‘zbekistonning mintaqada geografik joylashuvi, iqtisodiy salohiyati, harbiy imkoniyati, aholi soni, xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tibori, qadimgi davlatchilik an’analari uning mintaqaviy hamkorlikdagi o‘rnini belgilab bermoqda. “Geografik joylashuv, iqtisodiy salohiyat, aholi soni kabi omillar majmui O‘zbekistonning mintaqadagi nafaqat mavqeini, balki mazkur holat uchun uning alohida mas’uliyatini ham belgilaydi”, deb hisoblaydi tajribali diplomat va olim S.Safoyev.

O‘zbekiston va Markaziy Osiyo mintaqasidagi integratsiya jarayonlarini o‘rganishga doir tadqiqotlar jahonning turli mamlakatlaridagi ilmiy muassasalar, jumladan, The Institute of Central Asia and Caucasus, Central Asia Program at George Washington University (AQSH); French Institute of International Relations, French Institute for Central Asian Studies (Frantsiya); International Relations and security studies (Germaniya); China Institutes of Contemporary International Relations, Institute of Central Asia (Xitoy); Moskva davlat xalqaro munosabatlar instituti, Xalqaro tadqiqotlar instituti huzuridagi Markaziy Osiyo va Afg‘oniston muammolarini o‘rganish instituti, Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti (Rossiya); Qozog‘iston strategik tadqiqotlar instituti, Qozog‘iston menedjment, iqtisodiyot va prognozlashtirish universiteti qoshidagi Markaziy Osiyoni o‘rganish Markazi (Qozog‘iston); Strategik tadqiqotlar Milliy instituti (Qirg‘iziston); Strategik tadqiqotlar markazi (Tojikiston) kabilarda olib borilmoqda. Ammo ushbu tadqiqotlar Markaziy Osiyo davlatlarining ichki va tashqi siyosiy munosabatlari yuzasidan olib borilgan va ularning natijasida bir qator ilmiy xulosalar olingan bo‘lib, ularda Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi siyosiy transformatsiya, ko‘ptomonlama hamkorlik, “Bir makon, bir yo‘l”, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Evropa Ittifoqining Markaziy Osiyodagi strategiyasi kabi mintaqaviy hamda global integratsion jarayonlar o‘rganilgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda,Yangi O‘zbekiston xalqaro munosabatlarning teng huquqli sub’yekti sifatida, mintaqa va global darajada faol tashqi siyosatni yo‘lga qo‘yib, xorijiy hamkorlar bilan o‘zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirmoqda. Yangi O‘zbekiston tashqi siyosiy faoliyatida o‘z hududi atrofida tinchlik, barqarorlik va xavfsizlik muhitini shakllantirish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Yangi O‘zbekiston bugungi kunda o‘zining ochiq va pragmatik tashqi siyosiy faoliyatini Markaziy Osiyo yo‘nalishida izchil davom ettirmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasidagi mamlakatlar bilan barcha sohalarda o‘zaro do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik ruhidagi munosabatlarni sifat va mazmun jihatidan yangi bosqichga olib chiqish borasida davlat idoralari tomonidan yuqori darajadagi tashrif va turli tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyaev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. Toshkent. “O‘zbekiston”. – 2024.
2. Mirziyaev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqitot strategiyasi. Toshkent, O‘zbekiston. – 2021 y.
3. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд, Тошкент, Ўзбекистон, 2017 йил.
4. Abdumajidova H.,Yaxshilikov J.Cooperation in central asia as a priority direction of foreign policy of uzbekistan Galaxy international interdisciplinary research journal, 2021.

QASHQADARYO VOHASIDA MAVSUMIY MAROSIMLARNING MILLIY QADRIYATLAR BILAN UYG‘UNLIGI

Axmedov Jasurbek Zokirjonovich,
Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros
ilmiy-tadqiqot instituti Ilmiy kotibi
Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Qashqadaryo vohasining ba’zi tumanlarida mavsumiy marosimlar bilan bog‘liq urf-odatlarning tarixiy-etnografik, folkloriy va ijtimoiy-madaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Bu vohada marosimlar bahoriy yangilanish, dehqonchilik sikli, chorvachilik turmushi, tabiatga munosabat, jamoaviy birdamlik va xalqona e’tiqodlar bilan bog‘liq holda shakllanganligi asoslanadi. Milliy qadriyatlarimizning ramzlaridan bo‘lmish Navro‘z bayrami, sumalak sayli, lola sayli, boychechak aytishuvlari, hosildorlik hamda yomg‘ir chaqirishga oid udumlar, qishki yig‘inlar hamda mavsumiy xalq o‘yinlari voha aholisi ma’naviy hayotining muhim jihati sifatida yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Yangilanayotgan O‘zbekiston, Qashqadaryo, voha, sik, madaniy qadriyatlar, klassifikatsiya, millat, xalq, o‘zbek, mavsumiy marosim, urf-odat, Navro‘z, sumalak, lola sayli, boychechak, dehqonchilik marosimlari.*

Аннотация. *В данной статье анализируются историко-этнографические, фольклорные и социокультурные особенности традиций, связанных с сезонными обрядами в некоторых районах Кашкадарьинского оазиса. В основе анализа лежит тот факт, что обряды в этом оазисе формировались в связи с весенним обновлением, сельскохозяйственным циклом, животноводством, отношением к природе, коллективной солидарностью и народными верованиями. В качестве важных аспектов духовной жизни населения оазиса выделены символы наших natsіональных ценностей: праздник Навруз, фестиваль сумалака, фестиваль тюльпанов, пение бойчечака, обряды плодородия и призывания дождя, зимние собрания и сезонные народные игры.*

Ключевые слова: *Обновление Узбекистана, Кашкадарья, оазис, сикхизм, культурные ценности, классификатsiя, natsiя, народ, узбекский, сезонный ритуал, традиция, Навруз, сумалак, фестиваль тюльпанов, бойчечак, сельскохозяйственные ритуалы.*

Annotation*. In this state, historical, ethnographic, folkloric and sociocultural peculiarities of tradition, connected with seasonal events in some regions of the Kashkadarin oasis are analyzed. V osnobe analysis legit tot fakt, chto obryady v etom oasis formed in connection with vesennim obnovleniem, selskohozyaystvennym cycle, zhivotovodstvom, otnosheniem k nature, collective solidarity and national beliefs. Among the important aspects of the spiritual life of the population of the oasis, the symbols of national values are highlighted: the Navruz holiday, the festival of sumac, the festival of tulips, the penie boychechaka, fertility ceremonies and the calling of dojdya, winter assemblies and seasonal national games.*

Keywords: *Obnovlenie Uzbekistana, Kashkadarya, oasis, Sikhism, cultural values, classification, nation, nation, Uzbek, seasonal ritual, tradition, Navruz, sumalak, festival of tulips, boychechak, peasant ritual.*

Ma’umki, o‘zbeklar milliy qadriyatlarga, an’ana va mavsumiy marosimlarga, madaniy boyliklariga, o‘zining milliy xarakteriga ega bo‘lgan o‘troq xalq hisoblanadi. Bu kabi ba’zi marosimlar yilning to‘rt fasliga xos bo‘lgan xalqning yashash va mehnat tarzi bilan aloqador bo‘lib, fasllarga qarab, to‘rt turga bo‘linadi:

1. bahorgi mavsumlarga xos bo‘lgan marosimlar;
2. yozgi mavsumlarga xos bo‘lgan marosimlar;
3. kuzgi mavsumlarga xos bo‘lgan marosimlar;
4. qishki mavsumlarga xos bo‘lgan marosimlar.

Bahor mavsumi bilan bog‘liq marosimlar, asosan, ushbu oyga mo‘ljallangan kishilarning mehnat faoliyatiga bog‘liq holda o‘tkaziladi. Ya’ni, ular bahor kirishi bilan dehqon va chorvadorning hayoti va faoliyatida yuz beradigan o‘zgarishlarga bog‘liq tarzda o‘tadi. Masalan, ekin ekishga tayyorgarlik ko‘rish, ariq – zovurlarni tozalash, chorvani yaylovlarga ko‘chirish kabi ishlar kishilar tomonidan belgilangan kunda maxsus tayyorgarlik bilan tashkil qilinadi va bajariladi. Shu boisdan ular o‘ziga xos marosim tarzida namoyon bo‘ladi. Bahoriy marosimlar sirasiga «Shox moylar», «Navro‘z», «Yomg‘ir chaqirish» singarilarni kiritish mumkin

Qashqadaryo viloyati o‘zbek xalqining qadimiy madaniy qatlamlari, turmush tarzi, dehqonchilik va chorvachilikka asoslangan xo‘jalik an’analari, tog‘oldi va voha madaniyatining tutashuvi bilan ajralib turadigan hududlardan biridir. Qashqadaryo vohasi qadimdan Qarshi, Shahrisabz, Kitob, Yakkabog‘, Chiroqchi, G‘uzor, Dehqonobod, Qamashi kabi tarixiy-madaniy maskanlar orqali o‘ziga xos etnografik muhitni shakllantirgan. Hudud aholisi hayotida fasllar almashinuvi, bahorning kirib kelishi, ekin ekish, chorvani yaylovga chiqarish, hosil yig‘ish, qishki uy-ro‘zg‘or tayyorgarligi bilan bog‘liq marosimlar katta ahamiyat kasb etgan. Mavsumiy marosimlar xalq hayotida faqat bayram yoki hordiq shakli bo‘lmay, jamiyatning tabiat, mehnat, e’tiqod, oila va jamoa haqidagi tasavvurlarini ifodalovchi madaniy tizim sifatida qaraladi.

Folklorshunoslik va etnografiyaga oid adabiyotlarda mavsumiy marosimlar xalq hayotining yil fasllari bilan bog‘liq takrorlanuvchi udumlari, qo‘shiqlari, o‘yinlari, ramziy harakatlari va jamoaviy yig‘inlari sifatida talqin qilinadi. B. Sarimsoqov o‘zbek marosim folklorini o‘rganishda marosimning og‘zaki ijod, ramziy harakat va ijtimoiy vazifa bilan bog‘liqligini asoslagan. U. Qoraboyev esa o‘zbek xalq bayramlari tizimini tarixiy-madaniy jarayon sifatida izohlab, bayramlar xalqning mehnat tajribasi, tabiat hodisalariga munosabati va ma’naviy ehtiyojlari bilan bog‘liq shakllanishini ko‘rsatadi. Qashqadaryo vohasida ham mavsumiy udumlar aynan shu umumxalq an’analari doirasida, lekin mahalliy ijro, hududiy til, qo‘shiq, libos, taom va jamoaviy xatti-harakatlar orqali o‘ziga xos ko‘rinish kasb etgan.

Mazkur viloyatda bahoriy marosimlar eng faol va serqatlam udumlar qatoriga kiradi. Bahor fasli xalq tasavvurida tabiatning uyg‘onishi, yerning jonlanishi, dehqonchilik ishlarining boshlanishi, yangi yilning kirib kelishi va baraka umidi bilan bog‘langan. Shu sababli Navro‘z voha aholisi orasida keng nishonlangan. Navro‘z marosimlarida hovli-joylarni tozalash, ariqlarni ochish, qabristonlarni ziyorat qilish, qarindosh-urug‘lar holidan xabar olish, keksalar duosini olish, yangi kiyim kiyish, milliy taomlar tayyorlash kabi odatlar kuzatiladi. Bu udumlar tashqi tomondan maishiy harakat bo‘lib ko‘rinsa-da, ularning ichki mazmunida poklanish, yangilanish, rizq-ro‘zga umid, jamoa birdamligi va avlodlar davomiyligi g‘oyasi mujassamdir

Navro‘z bilan bog‘liq eng muhim marosimiy taomlardan biri sumalakdir. Navro‘z haqida so‘z ketar ekan, avvalo, bu bayramning mazmun-mohiyati haqida to‘xtalib o‘tish lozim. Navro‘z forscha “nav” — yangi, “ro‘z” — kun so‘zlaridan olingan bo‘lib, “yangi kun” degan ma’noni anglatadi. Ushbu bayram bahor faslining kirib kelishi, tabiatning uyg‘onishi va yangi yilning boshlanishi ramzi sifatida qadimdan forsiy va turkiy xalqlar orasida keng nishonlanib kelinadi. Navro‘z Eron, Markaziy Osiyo va Kavkaz mamlakatlarida, jumladan, O‘zbekistonda 21-mart kuni keng tantana qilinadi.

Mazkur bayramning o‘ziga xos milliy taomlaridan biri sumalak hisoblanadi. Sumalak ham o‘ziga xos tarix va an’anaga ega bo‘lgan qadimiy taomlardan biridir. U Markaziy Osiyo hamda boshqa turkiy va forsiy xalqlar tomonidan Navro‘z bayrami kunlari pishiriladigan shirin taom sifatida qadrlanadi. Turli xalqlarda u turlicha nomlanadi: o‘zbeklarda sumalak, forsiy xalqlarda samanu yoki samanak, tojiklarda sumanak, qozoq va turkmanlarda sümelek, qirg‘izlarda esa sümölök shaklida uchraydi.

Sumalak asosan bug‘doyning unib chiqqan yosh novdalari, un va yog‘dan tayyorlanadi. Ayrim milliy an’analarga ko‘ra, sumalak pishirish jarayonida qozonga tosh yoki yong‘oq ham solinadi. Bu taom odatda uzoq vaqt, ya’ni deyarli bir sutka davomida pishiriladi. Sumalak pishirish jarayoni xalqimizda mehr-oqibat, hamjihatlik, ezgu niyat va baraka ramzi sifatida qadrlanadi.Qashqadaryoda sumalak tayyorlash ayollar jamoasi, qo‘ni-qo‘shnilar hamkorligi va

mahalla birdamligini namoyon qiladigan udum sifatida qadrlanadi. Sumalak tayyorlash jarayonida bug‘doy undirish, uni maydalash, katta qozonda uzoq qaynatish, qozon atrofida qo‘shiq aytish, duo qilish va bolalarga ulashish kabi amallar bajariladi. Sumalakning bug‘doydan tayyorlanishi hosildorlik, tiriklik, rizq va ko‘payish ramzlari bilan bog‘liq. Marosimda ayollar faol ishtirok etadi, yosh qizlar esa kattalardan pazandalik, sabr, jamoaviy mehnat va marosim madaniyatini o‘rganadi. Shu ma’noda sumalak faqat taom emas, balki tarbiya, xotira va ijtimoiy tajriba uzatiladigan marosimiy makondir.

Qashqadaryo vohasida bahoriy gullar bilan bog‘liq sayillar ham alohida o‘rin tutadi. Lola sayli, qizilgul sayli, boychechak aytimlari tog‘oldi va qir-adir hududlari bilan bog‘liq holda yashab kelgan. Qashqadaryo vohasi folklor-etnografik an’analarida bahorda lola sayli, qizilgul sayli, boychechak sayli kabi gul marosimlarida gullarga mos liboslar kiyish va shu kayfiyatga mos qo‘shiqlar ijro etish holatlari qayd etiladi. “Rizvongul” folklor-etnografik xalq havaskorlik jamoasi repertuarida “Lola sayli” qo‘shig‘i mavjudligi Qashqadaryo vohasida mazkur marosimiy xotiraning san’at shaklida davom etayotganini ko‘rsatadi. Ushbu sayillar tabiat manzarasidan zavqlanishgina emas, balki bahor kelganini jamoaviy tarzda his qilish, yoshlar muloqoti, qo‘shiq va raqs, xalq o‘yinlari, xushxabar va tilaklar almashinuvi bilan bog‘liq ijtimoiy hodisadir.

Boychechak bilan bog‘liq aytimlar ham mavsumiy marosimlarning qadimiy qatlamini aks ettiradi. Boychechak bahorning ilk belgisi sifatida qabul qilingan. Bolalar boychechak tergan, uyma-uy yurib aytim aytgan, kattalar ularga hadya, shirinlik yoki boshqa ulush bergan. Bunday udumlarda bola bahorning darakchisi sifatida ko‘rinadi. Aytim matnlarida tabiat uyg‘onishi, yaxshilik tilagi, rizq va baraka istagi ifodalanadi. O. Safarov mavsumiy folklor matnlarini xalq og‘zaki ijodining qadimiy va jamoaviy shakllaridan biri sifatida ko‘rsatadi [5]. Boychechak aytimlarida bolalar ijrosi, marosimiy yurish, xonadonlarga kirish va hadya olish birlashib, kichik yoshdagilarni jamoa hayotiga olib kiradigan etnopedagogik mexanizm vazifasini bajaradi.

Qashqadaryo mavsumiy urf-odatlarining asosiy belgisi ularning folklor, marosimiy taom, jamoaviy mehnat, qo‘shiq, raqs va ramziy harakat bilan bog‘liq holda yashashidir. Zamonaviy sharoitda bu merosni sahnalashtirish, tadbirlarda namoyish qilish va turizm bilan bog‘lash mumkin, ammo uning asl etnografik mazmuni, mahalliy ijro usuli va tarbiyaviy vazifasi saqlanishi lozim. Bugungi Yangilanayotgan O‘zbekistonda yuqoridagi ta’kidlab o‘tgan mavsumiy marosimlarni chuqur ilmiy va amaliy tadqiq etish Qashqadaryo vohasining nomoddiy madaniy merosini tizimli ravishda klassifikatsiyalash, ularni yosh avlodga yetkazish va hududiy madaniyatning o‘ziga xosligini asrab-avaylash nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sarimsoqov B. O‘zbek marosim folklori. — Toshkent: Fan, 1986.
2. Qoraboyev U.X. O‘zbekiston bayramlari. — Toshkent: O‘qituvchi, 1991.
3. Davlatov S. O‘zbek marosim-udumlarining etnohududiy xususiyatlari: o‘quv-uslubiy qo‘llanma. — Toshkent: O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, 2018.
4. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi: darslik. — Toshkent: Musiqa, 2010.
5. Q.Nazarov. Jahon falsafasi qomusi. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, ma’naviyat nashriyoti, Toshkent.: 2023 y, 718 bet.

“AKSIOSFERA” TUSHUNCHASINING NAZARIY-FALSAFIY MOHIYATI VA SHAKLLANISH GENEZISI

Kdirbayev Qonisbay Muratbay o‘g‘li,
“TIQXMMI” MTU katta o‘qituvchisi
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada “aksiosfera” tushunchasining nazariy-falsafiy mohiyati, uning qadriyatlar tizimi, ijtimoiy ong, ma’naviy muhit va tarixiy xotira bilan bog‘liq jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, aksiosferaning shakllanish genezisi insoniyatning qadriyatlar bilan bog‘liq tarixiy tajribasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi hamda jamiyat ma’naviy hayotidagi o‘rni asosida yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *aksiosfera, qadriyat, aksiologiya, ijtimoiy falsafa, ma’naviy muhit, qadriyatlar tizimi, tarixiy xotira, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, shakllanish genezisi.*

Аннотация. *В данной статье анализируется теоретико-философская сущность понятия «аксиосфера», а также его связь с системой ценностей, общественным сознанием, духовной средой и исторической памятью. Кроме того, генезис формирования аксиосферы раскрывается на основе исторического опыта человечества, связанного с ценностями, гармонии национальных и общечеловеческих ценностей, а также ее роли в духовной жизни общества.*

Ключевые слова: *аксиосфера, ценность, аксиология, социальная философия, духовная среда, система ценностей, историческая память, национальные ценности, общечеловеческие ценности, генезис формирования.*

Abstract. *This article analyzes the theoretical and philosophical essence of the concept of “axiosphere” and its connection with the system of values, social consciousness, spiritual environment, and historical memory. In addition, the genesis of the formation of the axiosphere is examined on the basis of humanity’s historical experience related to values, the harmony of national and universal values, and its role in the spiritual life of society.*

Keywords: *axiosphere, value, axiology, social philosophy, spiritual environment, system of values, historical memory, national values, universal values, genesis of formation.*

“Aksiosfera” tushunchasi zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkurda qadriyatlar olami, ularning o‘zaro aloqadorligi, jamiyat va shaxs hayotidagi ma’naviy-me’yoriy tartibni ifodalovchi muhim kategoriyalardan biri sifatida qaraladi. Mazkur tushuncha qadriyatlarni yaxlit tizim, ichki aloqadorlik va ijtimoiy amal qilish maydoni sifatida tahlil qilish imkonini berib, ularning jamiyat hayotidagi o‘zaro bog‘liq mazmunini ochib beradi. Shu jihatdan aksiosfera jamiyatning ma’naviy qiyofasi, tarixiy xotirasi, ijtimoiy ong darajasi, axloqiy mezonlari va taraqqiyotga munosabatini o‘zida mujassamlashtiradigan murakkab falsafiy tushunchadir.

Aksiosfera atamasi mazmunan “aksios” — qadriyat, qadr, ahamiyat va “sfera” — soha, makon, doira ma’nolarining uyg‘unligidan tashkil topgan. Bu jihatdan u qadriyatlar mavjud bo‘ladigan, shakllanadigan va ijtimoiy hayotda amal qiladigan ma’naviy-ijtimoiy makonni anglatadi. Biroq ushbu tushunchani faqat qadriyatlar joylashgan shartli maydon sifatida talqin qilish uning mazmunini toraytiradi. Aksiosfera qadriyatlarning paydo bo‘lishi, saqlanishi, baholanishi, avlodlararo uzatilishi va ijtimoiy ongda barqarorlashuvi bilan bog‘liq ko‘p qatlamli tizimdir.

O‘zbek faylasufi Q.Nazarov qadriyatlar falsafasiga oid tadqiqotlarida qadriyat kategoriyasining mazmuni va mohiyati, uning namoyon bo‘lish shakllari, qadrlash va qadrsizlanish jarayonlari, shuningdek, tarix va taraqqiyotni aksiologik anglash masalalariga alohida e’tibor qaratadi [1,3]. Darhaqiqat, qadriyatlar inson va jamiyat hayotida baholash, tanlash, ma’naviy yo‘nalish belgilash hamda ijtimoiy maqsadlarni anglash mezoni sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur fikrdan kelib chiqib aytish mumkinki, aksiosfera jamiyat hayotida ma’naviy bezak yoki axloqiy targ‘ibot vositasi doirasidan kengroq mazmunga ega bo‘lib, insonning borliqni anglash, baholash, unga munosabat bildirish hamda o‘z hayotiy maqsadlarini belgilash jarayonida shakllanadigan qadriyat maydoni sifatida namoyon bo‘ladi. Inson mavjud voqelikni anglash jarayonida uni qadr, manfaat, ezgulik, adolat, go‘zallik, mas’uliyat va burch kabi mezonlar asosida baholaydi. Ana shu baholash jarayoni aksiosferaning ijtimoiy-falsafiy mazmunini yuzaga chiqaradi.

Aksiologiya qadriyatlar haqidagi falsafiy ta’limot sifatida qadriyatlarning mohiyati, turlari, kelib chiqishi, ijtimoiy vazifasi va inson hayotidagi o‘rnini o‘rganadi. Aksiosfera esa aksiologik qarashlarning jamiyat hayotidagi tizimli ifodasini anglatadi. Aksiologiya qadriyatlarning nazariy mohiyatini tahlil qiluvchi falsafiy yo‘nalish bo‘lsa, aksiosfera ushbu qadriyatlarning tarixiy xotira, madaniy meros, ijtimoiy ong, ma’naviy muhit va inson faoliyati bilan bog‘liq holda qanday yaxlit tizimga aylanishini ochib beradi.

Alohida qayd etish lozimki, “Aksiosfera” tushunchasi XX asr oxirlarida aksiologik tadqiqotlar doirasida faol qo‘llanila boshlagan bo‘lib, uni maxsus ilmiy kategoriya sifatida nazariy jihatdan asoslashda Estoniya falsafiy maktabi vakili L.N.Stolovichning “Aksiosfera” tushunchasi haqida” nomli ishi muhim o‘rin tutadi. L.N.Stolovich aksiosfera tushunchasini izohlar ekan, “aksiosfera butun qadriy munosabatlar sohasini, ya’ni insonning olamga va olamning insonga qadriy munosabatini bildiradi”[2], deya ta’kidlaydi.

Mazkur fikr aksiosfera tushunchasining mazmunini qadriyatlarning alohida ko‘rinishlari bilan cheklamasdan, uni inson, jamiyat va borliq o‘rtasidagi qadriy munosabatlar tizimi sifatida anglash zarurligini ko‘rsatadi. Stolovichning talqinida aksiosfera qadriyatlar olami, qadriy ong shakllari, baholash mezonlari, ideallar, me’yorlar va ijodiy faoliyat natijalarini qamrab oluvchi keng falsafiy maydon sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli mazkur kategoriya qadriyatlarni umumiy qadriy makon, ichki aloqadorlik va tizimli-strukturaviy bog‘lanish doirasida tahlil qilish imkonini beradi.

Shuningdek, qadriyatlar jamiyat hayotida bir-biridan uzilgan holda yashamaydi. Ular ijtimoiy tajriba, tarixiy xotira, milliy o‘zlik, axloqiy qarashlar va ma’naviy ideallar bilan uzviy bog‘liq tarzda amal qiladi. Masalan, adolat qadriyati mas’uliyat, burch, inson qadr-qimmati va ijtimoiy birdamlik kabi qadriyatlar bilan aloqaga kirishgandagina real ijtimoiy mazmun kasb etadi. Demak, aksiosfera qadriyatlarning ichki mantiqiy bog‘lanishini ochib beruvchi falsafiy maydon sifatida namoyon bo‘ladi.

Qadriyatlar tizimi insondan tashqarida mustaqil va mavhum holatda mavjud bo‘lib qolmaydi. U insonning ma’naviy ehtiyoji, ijtimoiy faoliyati, axloqiy tanlovi va hayotiy maqsadlari orqali mazmun kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, aksiosfera inson va jamiyat o‘rtasidagi qadriy munosabatlarning umumlashgan ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Inson jamiyatda yashar ekan, u tayyor qadriyatlar tizimini qabul qiladi, uni o‘z dunyoqarashi orqali qayta anglaydi, ayrim qadriyatlarni mustahkamlaydi, ayrimlariga yangicha mazmun beradi. Shu jarayonda shaxsning ma’naviy qiyofasi bilan jamiyatning qadriy tartibi o‘zaro aloqaga kirishadi. Aksiosfera aynan shu aloqadorlikni tushuntirishga xizmat qiladi.

Aksiosferaning nazariy-falsafiy mohiyatini ochishda “ma’naviy muhit”, “qadriyatlar tizimi”, “ijtimoiy ong”, “madaniy makon” tushunchalari bilan bog‘liqligini ham hisobga olish zarur. Ma’naviy muhit jamiyatdagi ruhiy-axloqiy holatni bildiradi, qadriyatlar tizimi qadriyatlarning tartiblangan majmuasini anglatadi, ijtimoiy ong esa jamiyatning o‘zini va borliqni anglash shakllarini ifodalaydi. Aksiosfera ushbu tushunchalarning qadriy mazmunini umumlashtirib, ularni ijtimoiy-falsafiy yaxlitlik darajasida talqin qiladi.

Shu o‘rinda alohida ta’kidlash lozimki, Q.Nazarov tahriri ostida tayyorlangan “Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati”da ma’naviy qadriyatlar inson ma’naviyati, axloqiy qiyofasi, jamiyat a’zolarini tarbiyalash hamda ularning ma’naviy barkamolligini ta’minlash bilan bog‘liq qadriyatlar tizimi sifatida izohlanadi [3]. Mazkur yondashuv

aksiosferaning tarbiya, kamolot va ijtimoiy xulq-atvorni yo‘naltirishga doir amaliy mazmunini ochib beradi.

Mazkur ta’rifdan anglashiladiki, aksiosfera jamiyatning ma’naviy hayotida yo‘naltiruvchi kuch vazifasini bajaradi. U shaxsning qanday maqsadlarni muhim deb bilishi, qanday xatti-harakatlarni ma’qullashi, qanday ideallarga intilishi va qanday ijtimoiy mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishini belgilovchi ichki mezonlar tizimini shakllantiradi. Shu sababli aksiosfera insonning individual ruhiy kechinmalari bilan bir qatorda, jamiyatning umumiy ma’naviy tartibini ham ifodalaydi.

Aksiosferaning shakllanish genezisi insoniyatning o‘zini, jamiyatni va borliqni qadriy jihatdan anglash jarayoni bilan uzviy bog‘liq. Inson dastlab tabiat, oila, mehnat, jamoa, urf-odat va e’tiqod bilan munosabatga kirishar ekan, ularning hayotiy ahamiyatini baholay boshlagan. Bu baholash tajribasi asta-sekin ma’naviy mezonlar, axloqiy qoidalar, ijtimoiy me’yorlar va tarixiy xotira shaklida mustahkamlangan. Shu bois aksiosferaning genezisi insonning ma’no izlash, ijtimoiy tartib yaratish va o‘z hayotini qadriy asosda tashkil etish ehtiyoji bilan bog‘liq holda tushuniladi.

Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” romanining “Yozg‘uchidan” qismida “Moziyg‘a qaytib ish ko‘rish xayrlik, deydilar”, deb yozadi [4]. Ushbu fikr qadriyatlar genezisini anglashda ham metodologik ahamiyatga ega. Chunki har qanday qadriyatlar tizimi o‘zining tarixiy ildizlari, madaniy xotirasi va avlodlar tajribasi bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Aksiosferani tahlil qilishda tarixiylik tamoyili aynan shu nuqtada muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarixiylik aksiosferaning o‘tmishda qolib ketgan statik hodisa ekanini anglatmaydi. Aksincha, qadriyatlar tarixiy tajriba bilan boyib, yangi davr ehtiyojlari asosida qayta talqin qilinadi. Jamiyat o‘z o‘tmishidan ma’naviy tayanch oladi, lekin bu tayanch hozirgi ijtimoiy ong, zamonaviy hayot talablari va kelajak haqidagi tasavvurlar bilan uyg‘unlashganda aksiosfera jonli tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan aksiosfera tarixiy xotira va zamonaviy anglash o‘rtasidagi ma’naviy bog‘lanishni ham ifodalaydi.

Aksiosferaning tarixiy-ijtimoiy asoslari, avvalo, insoniyatning jamoaviy yashash tajribasida namoyon bo‘ladi. Har qanday jamiyat o‘z mavjudligini saqlash, avlodlar davomiyligini ta’minlash, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va ma’naviy birlikni mustahkamlash uchun muayyan qadriy mezonlarga ehtiyoj sezadi. Oila, urug‘, qabila, xalq va millat shakllanishi jarayonida e’tirof etilgan axloqiy qoidalar, marosimlar, an’analar va ijtimoiy me’yorlar kengroq qadriyatlar tizimining qaror topishiga zamin yaratgan.

Qadimgi jamiyatlarda aksiosferaning dastlabki ko‘rinishlari diniy tasavvurlar, mifologik qarashlar, urf-odatlar va jamoaviy axloqiy me’yorlar orqali ifodalangan. Inson tabiat hodisalari, hayot va o‘lim, yaxshilik va yomonlik, tartib va betartiblik haqidagi tasavvurlarini qadriy mazmun bilan boyitgan. Natijada ibtidoiy e’tiqodlar va marosimlar faqat diniy-amaliy jarayon doirasida qolmay, jamiyat a’zolarini birlashtiruvchi, ularning xulq-atvorini yo‘naltiruvchi ma’naviy asos vazifasini bajargan.

Sharq ijtimoiy-falsafiy tafakkurida aksiosferaning shakllanishi ko‘proq ma’naviy kamolot, axloqiy yetuklik, jamoaviy mas’uliyat va insonning ichki tarbiyasi bilan bog‘liq holda rivojlangan. Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida fozil jamiyat mohiyatini izohlar ekan, “Haqiqiy baxt-saodatga erishish yo‘lida bir-biriga yordam berish uchun odamlarni birlashtiruvchi shahar — fozil shahardir”, deb ta’kidlaydi [5,43]. Mazkur fikr Sharq ijtimoiy-falsafiy tafakkurida jamiyat kamoloti insonlarning o‘zaro hamkorligi, ezgulikka yo‘nalgan faoliyati va ma’naviy yetuklikka intilishi bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilinganini ko‘rsatadi. Shu jihatdan Forobiyning fozil shahar haqidagi qarashlari aksiosferaning tarixiy-ijtimoiy asoslarini yoritishda muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Forobiyning ushbu yondashuvida jamiyatning yetukligi boshqaruv tartibi yoki tashkiliy tuzilma bilan cheklanmaydi, u insoniy fazilatlar, aql, adolat, ma’rifat va o‘zaro yordam tamoyillarining uyg‘unligi orqali izohlanadi. Bu esa aksiosferaning shakllanishida ma’naviy-ma’rifiy asoslar qadimdan muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi. Demak, Sharq falsafiy tafakkurida

qadriyatlar tizimi jamiyat hayotini tartibga soluvchi tashqi me’yor bilan bir qatorda, inson kamoloti, ijtimoiy hamjihatlik va ezgulikka yo‘naltirilgan hayot tarzining ichki mezoni sifatida ham namoyon bo‘lgan.

Milliy qadriyatlar masalasida o‘zbek ilmiy-ma’rifiy adabiyotlarida “milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma’naviyati hamda madaniyati bilan chambarchas bog‘liq holda namoyon bo‘ladi”, degan yondashuv uchraydi. Bu fikr aksiosferaning milliy shakllanish asoslarini tushunishda ahamiyatlidir. Chunki har bir xalqning aksiosferasi uning tili, tarixiy xotirasi, urf-odati, diniy-ma’naviy qarashlari, turmush tarzi va ijtimoiy tajribasi bilan bog‘liq holda qaror topadi.

Aksiosferaning milliy asosga ega bo‘lishi uning boshqa qadriy tizimlar bilan aloqasini inkor qilmaydi. Aksincha, milliy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlar bilan aloqaga kirishganda yanada boyiydi va o‘zining ijtimoiy ahamiyatini kengroq namoyon etadi. Inson qadr-qimmati, adolat, ezgulik, tinchlik, mehr-oqibat, ilmga intilish va mas’uliyat kabi qadriyatlar har bir milliy aksiosferada o‘ziga xos ifoda topadi. Shu tariqa aksiosfera milliylik va umuminsoniylik o‘rtasidagi uyg‘unlik maydoni sifatida shakllanadi.

Aksiosferaning genezisi qadimiy an’analar va madaniy meros bilan uzviy bog‘liq bo‘lsada, u har bir tarixiy davrda jamiyatning ijtimoiy tajribasi, ma’naviy ehtiyoji va hayotiy maqsadlari asosida qayta mazmun kasb etadi. U har bir tarixiy davrda jamiyatning ijtimoiy tajribasi, ma’naviy ehtiyoji va hayotiy maqsadlari asosida qayta mazmun kasb etadi. Shu bois aksiosfera tarixiy ildizlarga ega bo‘lgan holda zamon bilan muloqotga kirishadigan dinamik qadriyatlar tizimi sifatida qaraladi. Uning shakllanish jarayoni qadriyatlarning paydo bo‘lishi, mustahkamlanishi, ijtimoiy ongda e’tirof etilishi va avlodlararo uzatilishi bilan bog‘liq uzluksiz jarayondir.

Demak, “aksiosfera” tushunchasining nazariy-falsafiy mohiyati qadriyatlar olamini tizimli, yaxlit va ijtimoiy mazmunga ega hodisa sifatida anglash imkonini beradi. Uning shakllanish genezisi insoniyatning tarixiy tajribasi, ma’naviy xotirasi, madaniy merosi, milliy o‘zligi va ijtimoiy hayotida qaror topgan qadriy mezonlar bilan bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nazarov.Q. Qadriyatlar falsafasi. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2004. – B. 3
2. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati / Tuzuvchi va mas’ul muharrir Q.Nazarov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009.
3. Stolovich L.N. On the Concept of “Axiosphere” // The Paideia Archive: Twentieth World Congress of Philosophy. Boston University, 1998.
4. Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar. – Ziyouz.com kutubxonasi elektron nashri. – 220 b. Manba: https://arm.navoiy-uni.uz/wp-content/uploads/2019/04/utgan_kunlar_ziyouz_com.pdf
5. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Nodir va dono fikrlar. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – B. 43.

ГЛОБАЛЛАШАЁТГАН ДУНЁ ВА ЎЗБЕКИСТОН: ИЖТИМОИЙ-ФАЛСАФИЙ МЕРОС НУҚТАИ НАЗАРИДАН

Ортиқов Отабек,
Қўқон давлат университети
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
https://orcid.org/my-orcid?orcid=0009-0008-9298-7645

Аннотация. *Мақолада ҳозирги даврнинг энг долзарб муаммоларидан бўлган глобаллашув масаласи кўтарилган бўлиб, унда глобаллашув жараёнининг ижтимоий-фалсафий жиҳатлари ёритиб берилган. Мақолада инсоният тараққиётида глобаллашувнинг салбий ҳамда ижобий томонларига чет эл ва Ўзбекистон файласуф олимларининг билдирган фикрлари асосида ёндишишга ҳаракат қилинган. Шунингдек, глобаллашув жараёнига диний нуқтаи-назардан ҳам баҳо берилган.*

Калит сўзлар: *глобаллашув, глобал дунё, цивилизация, иқтисод, дин, ижтимоий-фалсафий, ижтимоий-сиёсий, миллий-маданий.*

Аннотация. *В статье рассматривается самая актуальная проблема современности понятие глобализация. Освещается социально-философские аспекты глобализации. Рассматривается положительные и отрицательные стороны глобализации в развитии человечества на основе мыслей зарубежных и философов Узбекистана. Также дана оценка глобализации с религиозногй точки зрения.*

Ключевые слова: *глобализация, глобальный мир,цивилизация,экономика, религия,социально-философский,социально-политический,национально-культурный.*

Abstract. *The article examines the most pressing problem of our time - the concept of globalization. The socio-philosophical aspects of globalization are highlighted. The positive and negative aspects of globalization in the development of mankind are considered on the basis of the thoughts of foreign and philosophers of Uzbekistan. The assessment of globalization from a religious point of view is also given.*

Key words: *globalization, global peace, civilization, economy, religion, socio-philosophical, socio-political, national-cultural.*

Кириш. Кейинги йилларда “глобаллашаётган дунё, глобал жамият”, “глобал интеграция”, “глобал тараққиёт” каби сўзлар, тушунчалар тилдан тушмай қолди. Инсоният янги бир глобал воқеликка - глобаллашувга дуч келиб, уни англашга, ундаги ижобий жиҳатлардан унумли фойдаланиб тараққиётини таъминлашга интилмоқда. Аммо глобаллашув жараёнини фақат ижобий воқелик сифатида қарашга ҳали эрта, у зиддиятларга тўла, гоҳо эса миллий тараққиётга, миллий маданиятга, маънавиятга салбий таъсир этувчи белгиларга эга. Биринчи Президентимиз айтганидек: “Бугун биз тез суръатлар билан ўзгариб бораётган, инсоният ҳозирга қадар бошидан кечирган даврлардан тубдан фарқ қиладиган ўта шиддатли ва мураккаб бир замонда яшамоқдамиз. Давлат ва сиёсат арбоблари, файласуфлар ва жамиятшунос олимлар, шарҳловчи ва журналистлар бу даврни турлича таърифлаб, хар хил номлар билан айтамоқда. Кимдир уни юксак технологиялар замони деса, кимдир тафаккур асри, яна биров ялпи ахборотлашув даври сифатида изоҳламокд. Албатта, бу фикрларнинг барчасида ҳам маълум маънода ҳақиқат, рационал мағиз бор. Чунки уларнинг ҳар бири ўзида бугунги серқирра ва ранг-баранг ҳаётнинг қайсидир белги- аломатини акс эттириши табиий. Аммо кўпчиликнинг онгида бу давр глобаллашув даври тариқасида таассурот уйғотмоқда”[1]. И.А.Каримов ушбу фикрини давом эттириб глобаллашувга ижтимоий-фалсафий воқелик сифатида таъриф беради. У ёзади: “Ана шундай глобаллашув феномени тўғрисида гапирганда, бу атама бугунги кунда илмий-фалсафий, ҳаётий тушунча сифатида жуда кенг маънони англатишини таъкидлаш лозим. Умумий нуқтаи назардан қараганда, бу жараён

мутлақо янгича маъно-мазмундаги хўжалик, ижтимоий-сиёсий, табиий-биологик глобал муҳитнинг шаклланишини ва шу билан бирга, мавжуд миллий ва минтақавий муаммоларнинг жаҳон миқёсидаги муаммоларга айланиб боришини ифода этмоқда. Шу маънода, глобаллашув - бу аввало ҳаёт суръатларининг беқиёс даражада тезлашуви демакдир".

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Фалсафа фанлари номзоди, доцент Б.Умаров ёзганидек, "XX асрнинг охири - XXI аср бошида жаҳон тараққиётида шаклланган янги умумсайёравий тартиб, тамаддуний босқич мазмун-моҳияти, давлатлар ва кишилар ўртасидаги ўзаро алоқаларнинг кенгайиши ва мураккаблашиши, дунё миқёсида ахборот макони, капитал, товар ҳамда ишчи кучи бозорида тамоман янгича вазиятнинг вужудга келиши, атроф муҳитга техноген таъсирининг кучайиши, оммавий маданият намуналарининг кенг тарқалиши, информацион-мафкуравий ва экстремистик хуружлар хавфининг ортиб бориши, хуллас, жамият ҳаётининг барча соҳалари - иқтисодиёт, сиёсат, мафкура, маданият, ҳатто шахсий турмуш тарзини қамраб олган глобаллашув жараёни билан боғланмоқда"[2]. Демак, глобаллашув инсоният тараққиётининг тарихий-тадрижий давоми, янги босқичи сифатида юзага келган. Ушбу жараён ва босқичдаи Ўзбекистон ҳам чеккада қолиши мумкин эмас.

Таниқли жамиятшунос А.А.Зиновьевнинг кўрсатишича, глобаллашув жараёнига 10 минг мамлакат, 10 мингдан зиёд халқаро ва миллий уюшмалар, транс миллий корпорациялар, ҳудудий-сиёсий блоклар, иқтисодий, сиёсий ва информация тизимлар киради. Ушбу жараённинг учта йирик субъектлари юзага келган: биринчиси - ғарбий Иттифоқ (унга АҚШ, Канада, Англия, Франция, Германия, Австралия, Италия каби ғарб давлатлари киради), иккинчиси - Евроосиё Иттифоқи (унга Шарқий Европа ва собиқ СССР ўрнида юзага келган янги давлатлар киради), учинчиси - шаркий Иттифоқ (унга Япония, Корея, Хитой ва бошқа Осиё давлатлари киради). Улардан ташқари "Тўртинчи дунё" деб аталадиган, Африка,Арабистон ва Жанубий Америка қитъаларида ҳам халқаро глобал уюшмалар шаклланган. А.А.Зиновьевнинг фикрича, ушбу глобаллашаётган дунё қумурсқалар уясига", одам эса ана шу "қумурсқа уяси"да, яъни унинг барча қисмларида, барча соҳаларида, барча кесимларида, барча бўлинмаларида, тизимининг барча поғоналарида, ҳамма ерда ва ҳамма вақт курашиб яшашга мажбур, ушбу кураш бир вақтнинг ўзида цивилизация ютуқлари томонидан қўллаб-қувватланади". Бундай жамият дўстлар иттифоқи бўлолмайди, у рақобатдошлар, душманлар, бир-бирини янчиш, мавҳ этишни ҳаёт тарзига айлантирган кишилар уюшмаси бўлади, холос. "Аждодларимиз беҳуда айтишмаган: Раббим мени дўстларидан халос қил, душманларимдан ўзим халос бўламан. Худо ушбу илтижонинг биринчи қисмини адо этди; энди биз душманларимиздан халос бўлишни истаймиз"[3].

Глобал жамият ёки глобал фуқаролик жамияти барпо этиш ғоясининг ихтирочиларидан бири Ж.Сорос дунё харитасига назар ташлаб, бугун дунёда АҚШ га тенг келадиган давлат йўқлигини, шунинг учун айнан АҚШ глобал фуқаролик жамиятини барпо этишни ўз устига олиши зарурлигини таъкидлайди. Унинг фикрича, дунёдаги нотенг ривожланишга жойлардаги ўқувсиз ва самарасиз ишлайдиган ҳукуматлар сабабчи. "Бозорлар глобаллашаётган бўлсада сиёсат ҳамон миллий суверен давлат ғоясига таянмоқда". "Шунинг учун глобал миқёсда ижтимоий бойликлар ишлаб чиқаришни йўлга қўйиш етарли эмас, шу билан бирга айрим олган мамлакатда сиёсий ва ижтимоий шароитларни яхшилаш усулларини излаш ҳам керакдир"[4]. Бундай шарт-шароитларни глобал миқёсда АҚШ гина амалга ошириши мумкин. Чунки, "дунёда бирорта воқеа Америка рухсатисиз содир бўлмайди", бошқа мамлакатлар АҚШ сиёсатига эргашишга мажбур, бошқалар эргашадиган сиёсатни АҚШ нинг ўзи белгилайди". "Шунинг учун, - деб ёзади Ж.Сорос, - Қўшма Штатлар ва бошқа демократик давлатлар учун давлатни бошқариш сифати ва дунё бўйича очиқ жамиятлар пайдо бўлишига кўмаклашиш ҳақида қайғуриш ҳаётий заруриятдир" Айтишимиз зарурки, бундай фикрларни бошқа

сиёсатчилар, олимлар ва файласуфлар ҳам билдиришади. Масалан, машҳур сиёсатшунос, файласуфлар С.Хантингтон ва П.Л.Бергер дунёда кечаётган “маданий глобаллашув асосан ғарбий, келиб чиқишига кўра эса американча” деб кўрсатадилар [5].

Албатта, бир давлатнинг дунё халқларига тараққиёт йўлини, қандай жамият барпо этиш зарурлигини кўрсатиши, дунё бўйлаб “глобал жамият” ёки “глобал ҳукумат” ташкил қилишга уриниши ғайри ҳаётий истакдир. Бундай “раҳнамолик” ка давлатлар, халқлар ҳеч қандай рози бўлмайди, чунки нафақат инсон, шунингдек, миллий онг, тафаккур, ҳаёт тарзи ҳам ўзига хосликни, эркини, мустақил яшашини йўқотишни истамайди. Тарих кўрсатадики, глобал давлат, глобал империя тузишга бўлган барча интилишлар ушбу ғоя эгасининг ўлими ёки вафоти билан ўтмиш қаърига сингиб, унут бўлиб кетган. Шунинг учун ҳам айрим мутахассисларнинг, “Америка жамияти кўп жиҳатдан глобаллашиб улгургани сабабли ўзаро муштарак ва глобал дунёнинг тезроқ шаклланишидан манфаатдор экани шубҳасиздир”, деган башоратига қўшилиб бўлмайди. Аммо айрим бир йўналишларда бўлсада бугун умумпланетар онгни шакллантиришга даъватлар ўзбек файласуфларида ҳам учрайди. Иброҳим Каримов ёзади: “...Жамият билан табиат ўртасида юзага келган зиддиятни ҳал этиш жараёни дунё бўйича, жаҳон ҳамжамиятлари, аввало Бирлашган Миллатлар Ташкилоти раҳбарлигида режали ва изчил бошланиши, шу асосда жаҳон динларининг тарихий тажрибаларига таяниб, руҳи пок, имони бутун, ҳаётини Она-табиатни инсонга монанд тарзда ўзгартиришга бағишлай оладиган ва албатта Планетар онгга эга индивидларни камолга етказиш даркор. Бундай инсонларнинг тафаккур ва турмуш тарзи тўласича Ноосфера даври талабларига мувофиқ келиши, уларда янгича ижтимоий идеалларга асосланган бошқачароқ қадриятлар тизими шаклланиши, глобаллашув ҳодисаси билан бирга инсонийлик, багрикенглик (толерантлик), сабр-қаноатлилик, меҳр-оқибатлилик, озодалилик ва албатта эзгулик каби фазилатлар унда мужассамлашуви лозим” [6].

Глобаллашув жараёнида эътибор қилишимиз керак бўлган вазифалар қаторида эски замондан қолган худбинлик, лоқайдлик, қариндош-уруғчилик, маҳаллийчилик, коррупция, манфаатпарастлик, манманлик каби иллатлардан бутунлай халос бўлиш зарурлиги ҳам таъкидланади. Ушбу иллатлар нафақат демократик тараққиётимизга, шунингдек Ўзбекистоннинг илғор давлатлар қаторига чиқиб олишига, жаҳон маданиятидаги ютуқларни ўзлаштиришга ҳам ҳалақит беради. Ижтимоий-фалсафий меросда ҳам ушбу иллатлар қораланади, уларни бартараф этмай, улардан халос бўлмай маънавий баркамолликка эришиб бўлмайди. Масалан, Қодирия, тасаввуф таълимотининг асосчиси Саййид Абдулқодир Гийлоний инсоннинг юксак маънавий баркамоллигини қуйидаги ўнта хислатда кўради: 1) ўзгани ҳақоратламаслик, унга лаънат айтишдан сақланиш; 2) жабр кўрсатганга сабр билан жавоб бериш; 3) бировни ноҳақ айбламаслик; 4) қасам ичмаслик; 5) ёлғон гапирмаслик; 6) берган ваъдани бажариш; 7) ҳаромдан узоқ юриш; 8) бошқаларга юк бўлмаслик; 9) таъмагир бўлмаслик; 10) камтар ва хокисорлик. “Ғавсул Аъзам саховат эгаларини эъзозлайди, инсонда бу фазилат зарур эканлигини, қўли очиқ инсонларнинг кўнгли очиқ бўлишини таъкидлайди. Мажлисларда ўзини камтар тутиш кераклиги, ўзаро муросада яшаш лозимлигини алоҳида таъкидлаб ўтади. Ғурбатнинг бошини тутмаслик, қўлдан келганича муросада юришга эътибор қаратади” [7]. Аллома “жаъм этувчи борлиқ” ва “улуғ одам” бўлган одамда камолот учун ҳам, тубанлашиб кетиш учун ҳам асос борлигини қайд этади. Инсон бошқа яратилмишларнинг хилофича бутун исмларнинг зуҳурот жойидир. Инсондан ўзга махлуқу ашё бир жиҳатли (ўлароқ) яратилгандир... Инсон ўзида коинотнинг улвий (олий, юқори) ва сифлий (паст, тубан) даражадаги хусусиятларини менлигида акс эттиргани сабабли, керак бўлса анбиёю авлиё ҳам хатодан ташқарида бўлолмайди”, деб ёзади”. Шу тариқа инсонда умуминсоний фазилатларни шакллантириш йўллари белгилаб берилган. Умуминсонийлик эса моҳиятан барча инсонларга, барча миллат ва халқларга хос бўлган глобал қадриятдир.

Тадқиқот методологияси. Тадқиқотда глобаллашув жараёнлари ва Ўзбекистоннинг ижтимоий-фалсафий мерос билан боғлиқ тараққиёт хусусиятларини таҳлил қилишда тарихий-фалсафий, қиёсий таҳлил, тизимли ёндашув ва мантиқий умумлаштириш усулларидан фойдаланилди. Ушбу усуллар орқали глобаллашув шароитида миллий қадриятлар, маънавий мерос, ижтимоий тафаккур ва замонавий тараққиёт жараёнларининг ўзаро боғлиқлиги илмий жиҳатдан ёритилди.

Таҳлил ва натижалар. Баъзан глобаллашув муҳимми ёки тарихий-маданий мерос? Қайси бири ижтимоий ҳаётда кўпроқ, кенгроқ ўрин эгаллаши лозим? деган саволларга дуч келамиз. Оммавий ахборот воситалари асосан истеъмолчилик кайфиятини авж олдиришга, шу тариқа ишлаб чиқилган ноз-неъматларни, бойликларни, информацияларни кўпроқ қабул қилишга ундайди. Бозор иқтисодиётининг ўзи ҳам истеъмолчиликни қўллаб-қувватлайди, акс ҳолда унинг қонунлари ишламай қолади. Биз глобаллашувни тарихий-маданий меросга қарши қўйиш, уларга антогонистик кучлар сифатида қараш тарафдори эмасмиз. Дарвоқе, глобализация назарияси Ғарбнинг эмас Шарқнинг назарий кашфиётидир. Масалан, ҳинд файласуфи Шри Ауробинда Гхош ўтган асрнинг 20-йилларида инсоният эволюцияси “умуминсоний дин”, ҳатто “Умумжаҳон давлати” ни тузишга олиб келади деган ғояни илгари сурган. Ушбу ғояни асослаш учун у бир неча китоблар ёзган. Ҳинд файласуфидан кейин 70-80 йил ўтгач ушбу ғояни АҚШ лик олимлар ва сиёсатчилар қайта кўтариб чиқадилар. Демак, ижтимоий-фалсафий меросда глобаллашув жараёнларига оид ғоялар, фикрлар мавжуд, агар биз ўлкамиз халқларининг ижтимоий-фалсафий меросини махсус ўргансак, унда глобаллашув атамаси билан бўлсада, бошқача тушунчадаги инсониятни бирлаштириш, умумжаҳон иттифоқини ташкил этишга оид фикрларга дуч келишимиз аниқ. Аслида ислом дини, Аллоҳнинг ягоналиги ҳам ана шундай фаразни айтишга етарли асос бўла олади. Олимларимиз ҳам глобаллашув билан ижтимоий-фалсафий меросни, миллий-маънавий қадриятларни бир-бирига қарши қўйиш тарафдорлари эмас. Глобаллашув ижтимоий-тарихий ривожланишнинг тадрижий давоми, инсоният ижтимоий борлиғининг ҳолати, биз ичида яшаб турган, шу боис уни англашга мажбур бўлаётган объектив воқеликдир. Бироқ ушбу объектив воқелик ва тарихий-тадрижий жараён ташқи тазйиқлар, миллий-маданий ва маънавий бойликларни, халқнинг ижтимоий-сиёсий тажрибасига қурилган миллий давлатни инкор қилиш йўли билан дунёда қарор топиши мумкин эмас. Хитой ва маданий глобализация муаммоларини тадқиқ қилган Яньсянь Янь глобаллашувни бошқариш (“бошқариладиган глобализация”), яъни миллий парадигмага мувофиқлаштириш мумкин деган хулосага келади.

Хулоса ва таклифлар. Бизнинг фикримизча, Ўзбекистон Республикасида ҳам “бошқариладиган глобализация” қарор топади, чунки мамлакатимиздаги ижтимоий, сиёсий, илмий ва маънавий кучлар буюк аждодларимизнинг, халқимизнинг узоқ асрлар давомида яратган, асраб, авайлаб келаётган тарихий-маданий меросига таяниб, ундан идеал ва ғоялар олиб Янги Ўзбекистонни барпо этишга киришган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. -Т.: “Маънавият”. 2008. -110 б.
2. Умаров Б. Глобаллашув зиддиятлари. -Т.: “Маънавият”, 2006. -5 б.
3. Зиновьев А.А. Глобальный человейник. -М.: 2003, -С. 17-18.
4. Сорос Дж. О глобализации. —М.: ЭКСМО, 2004. -С. 25.Ўша асар. -С. 33.
5. Многоликая глобализация. —М.: АСПЕКТ-ПРЕСС, 2004. -С. 9.
6. Каримов Иброҳим. Ноосфера: геосиёсат ва мафкура. -Т.: “Фан”, 2007. -196 б.
7. Юнусова Г.С. Қодирия таълимоти ва унинг ижтимоий - ахлоқий моҳияти. Фалсафа фанлар номзоди дис автореферати. -Т.: 2007. -16 б.

YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTONDA NOMODDIY MADANIY MEROSNI MUHOFAZA QILISH TIZIMINING ME’YORIY-HUQUQIY ASOSLARI

Abidova Kamola Yusup qizi,
Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti
Tahririy noshirlik bo‘limi bosh mutaxassisi,
mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. *Maqolada nomoddiy madaniy meros va uning muhofazasiga doir bir qancha qarorlardan namunalar keltirilgan. Shu bilan birga soha tarixiga nazar tashlash asnosida uning me’yoriy-huquqiy asoslari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *nomoddiy madaniy meros, tarixiy ildizlar, me’yoriy-huquqiy asoslar, ratifikatsiya, reprezentativ, muhofaza.*

Аннотация. *В статье представлены примеры нескольких решений по нематериальному культурному наследию и его охране. Одновременно освещается его нормативно-правовая база путем обзора истории данной области.*

Ключевые слова: *нематериальное культурное наследие, исторические корни, нормативно-правовая база, ратификация, представитель, защита.*

Abstract. *The article presents examples of several decisions on intangible cultural heritage and its protection. At the same time, its regulatory and legal framework is highlighted by reviewing the history of the field.*

Keywords: *intangible cultural heritage, historical roots, regulatory and legal framework, ratification, representative, protection.*

Nomoddiy madaniy meros va uning muhofazasi masalalari YUNESKO ning 1989-yildagi “An’anaviy madaniyat va folklorni muhofaza qilish” bo‘yicha Tavsiyalaridan boshlangan edi. 1994-yildan milliy tizimlar (davlatlar) tomonidan nomoddiy madaniy merosni o‘zida saqlovchi va boshqalarga yetkazuvchilarning rasman tan olishini va ular tomonidan ushbu merosning kelgusi avlodga yetkazilish ko‘magini tashkil etish maqsadida “Insoniyatning yashovchi (tirik) durdonalari” Dasturi boshlandi.

1997-1998-yillarda YUNESKO tomonidan “Insoniyatning og‘zaki va nomoddiy merosi durdonalarini e’lon qilish” dasturi ham ma’qullandi va bu orqali dunyo xalqlari tomonidan saqlab kelinayotgan nomoddiy madaniy meros durdonalarining ro‘yxatini tuzish va e’lon qilish imkoniyati yaratildi. Ushbu ro‘yxatga O‘zbekistondan birinchilardan bo‘lib 2001-yilda “Boysun madaniy muhiti” va 2003-yilda “Shashmaqom” kiritilganligini yaxshi bilamiz.

O‘tgan asrning 90-yillarida ekspertlar xulosasi asosida mavjud nomoddiy madaniy merosni muhofazasi bo‘yicha keskin, qat’iy choralar ko‘rish lozimligi aniqlandi va ushbu yo‘nalishdagi ishlar yanada jadallashtirildi. Buning natijasida YUNESKO Bosh Konferensiyasining 2001-yilda bo‘lib o‘tgan 31-sessiyasida yangi xalqaro normativ mexanizm vazifasini o‘tovchi Konvensiya yaratish rejalashtirildi. Shunday qilib, YUNESKO Bosh Konferensiyasining 2003-yil 17-oktabrdagi 32-sessiyasida “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish” Konvensiyasi qabul qilindi.

Ushbu Konvensiyada “nomoddiy madaniy meros”, uning namoyon bo‘lish sohalari hamda muhofazasi bo‘yicha quyidagi ta’riflar berilgan.

“Nomoddiy madaniy meros” tushunchasi urf-odatlari, o‘ziga xoslikni ifodalash shakllari, bilimlar va ko‘nikmalari, shuningdek, ular bilan bog‘liq jihozlar, predmetlar, artefaktlar va madaniy makonlarni aks ettiradi, ular esa o‘z navbatida hamjamiyatlar, guruhlar, alohida holatlarda esa muayyan shaxs madaniy merosining bir qismi sifatida tan olinganligini anglatadi. Avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan bunday nomoddiy madaniy meros doimo muayyan hamjamiyatlar va guruhlar tomonidan ularning atrof-muhitga, tabiatga va o‘z tarixiga bog‘liq

holda yaratiladi va bu ularda o‘ziga xoslikni, vorislik tuyg‘usini shakllantiradi hamda shu bilan insoniyat ijodini va madaniy turli-tumanlikning hurmat qilinishiga ko‘maklashadi.

Madaniyatning o‘ziga aniq ta’rif berish qanchalik qiyin bo‘lsa, “meros” tushunchasi va u bilan bog‘liq terminlarga ta’rif berish ham shunchalik murakkabdir. Moddiy madaniy meros tushunchasining ko‘plab ta’riflari mavjud. Ta’riflarning rang-barangligi tadqiqotchi-nazariyotchilar va amaliyotchi mutaxassislar oldida turgan maqsad va vazifalar bilan bog‘liqdir. Bunda 1972-yilda qabul qilingan YUNESKOning umumjahon madaniy merosini muhofaza qilish to‘g‘risidagi konvensiyasi bilan belgilangan va umume’tirof etilgan ta’rif tayanch nuqtasi bo‘lib xizmat qiladi.

Konseptual nuqtai nazardan “asrash”, “konservatsiya”, “ta’mirlash”, “rekonstruksiya”, “moslashtirish”, “qo‘llab-quvvatlash” terminlarining mazmuni ham qiziqish uyg‘otadi. Bu yerda “iqtisodiy rivojlanish”, “inson taraqqiyoti”, “ijtimoiy omillarning ustunligi” kabi definitsiyalar ham keltirilgan. Tushunchalar apparati merosning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga qo‘shilganligini ko‘rsatish uchun, jamiyatni o‘zgartirish modellarini yaratishda va usullarini ishlab chiqishga yondashuvlarni yaratishda ijtimoiy va madaniy siyosatning vositasi sifatida foydalanish uchun tasodifan shunday ifodalanmagan. Bu boshqa tadqiqotchilar, jumladan, rossiyalik mutaxassislar tomonidan qo‘llaniladigan tushunchalar apparatidan shunisi bilan tubdan farq qiladi, ularda meros va u bilan bog‘liq tushunchalar o‘zidagi qadriyat sifatida, hayotning joriy ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa muammolari kontekstidan, jumladan, jamiyatning rivojlanish istiqbollaridan tashqarida ko‘rib chiqiladi.

Globallashuv jarayonidagi moddiy o‘zgarishlar bilan bir qatorda ma’naviy sohada yuz berayotgan yo‘qotishlar ko‘p vaqtdan buyon dunyo hamjamiyatidagi ilg‘or kishilarni tashvishga solib kelayotgan bo‘lsa-da, dunyo miqyosida bunday yo‘qotishlarning oldini olish va tegishli choralar ko‘rish masalasiga alohida e’tibor o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. Misol uchun 1962-yilda Koreya Respublikasida maxsus madaniy dastur qabul qilinib, milliy ma’naviy va moddiy boyliklarni muhofaza qilish ishlari boshlandi. Boshqa davlatlarda ham turli yo‘llar bilan o‘z milliy madaniyatini saqlash choralari ko‘rila boshlandi. Ma’naviy qashshoqlashuv, “standart madaniyat” yoyilishining oldini olish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkilotining fan, ta’lim va madaniyat masalalari bilan shug‘ullanuvchi YUNESKO tashkilotining tashabbusi bilan yangi bir jarayon boshlandi va bu jarayon har bir millat, xalq, jamiyatning o‘zligini ifodalovchi, shu bilan bir qatorda boshqalarni kamsitish yoki tan olmaslik xususiyatlaridan holi bo‘lgan ma’naviy boyliklarini asrash va kelajak avlodga yetkazishni maqsad qilib oldi. Shunday qilib, turli xalqlarda turlicha nomlanadigan, aslida esa o‘zlikni namoyon qilish shakllari, usullari bilan bog‘liq bilim, tajriba va ko‘nikmalar “nomoddiy madaniy meros” iborasi bilan ifodalana boshlandi.

Dunyo miqyosida nomoddiy madaniy meros va uning muhofazasi masalalari YUNESKOning 1989-yildagi “An’anaviy madaniyat va folklorni muhofaza qilish” bo‘yicha Tavsiyalaridan boshlandi. 1994-yildan milliy tizimlar (davlatlar) tomonidan nomoddiy madaniy merosni o‘zida saqlovchi va boshqalarga yetkazuvchilarning rasman tan olishini va ular tomonidan ushbu merosning kelgusi avlodga yetkazilishiga ko‘maklashish maqsadida “Insoniyatning yashovchi (tirik) durdonalari” Dasturi boshlandi.

O‘tgan asrning 90-yillarida ekspertlar xulosasi asosida mavjud nomoddiy madaniy meros muhofazasi bo‘yicha keskin, qat’iy choralar ko‘rish lozimligi aniqlandi va ushbu yo‘nalishdagi ishlar yanada jadallashtirildi. Buning natijasida YUNESKO Bosh Konferensiyasining 2001-yilda bo‘lib o‘tgan 31-sessiyasida yangi xalqaro normativ mexanizm vazifasini o‘tovchi Konvensiya yaratish rejalashtirildi. Shunday qilib, YUNESKO Bosh Konferensiyasining 2003-yil 17-oktabrdagi 32-sessiyada “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish” Konvensiyasi qabul qilindi.

2005-yil mazkur Konvensiyaga qo‘shilish masalasi ilk bora kun tartibiga qo‘yildi va bu sohada faoliyat olib borayotgan tashkilotlarga Konvensiyaning mohiyatini o‘rganib chiqish va taklif kiritish vazifasi Oliy majlisning Qonunchilik palatasi tomonidan muvoqiflashtirish ishlari

boshlandi. O‘sha davrda Madaniyat va sport ishlari vazirligi zimmasiga o‘rganish natijalarini umumlashtirish va mutaxassilarni jalb etgan holda tegishli tashkiliy ishlarni amalga oshirish yuklangan edi. Maxsus ishchi guruhi tuzilib, Konvensiya chuqur o‘rganildi va tegishli mutasaddi tashkilotlar va ekspertlarning fikriga ko‘ra uni ratifikatsiya qilish zarurligi taklif sifatida Oliy Majlisga taqdim etildi. Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senati ishtirokida bo‘lgan qo‘shma majlisida (2007-yil dekabr) Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish konvensiyasi ratifikatsiya qilindi.

Ma’lumki, Xalqaro hujjatlar sirasiga kiruvchi Konvensiya majburiy hujjat hisoblanadi va unga qo‘shilgandan keyin Konvensiyadagi qoidalar milliy qonunchilik bilan zid kelmasligini ta’minlash zarur. Boshqacha qilib aytganda, Konvensiyaning talablari uni qabul qilgan mamlakat qonunlariga mosligi ta’minlanishi, zarur hollarda milliy qonunchilikka qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilishini talab qiladi.

Shu davrda O‘zbekistonda madaniy merosga bag‘ishlangan, 2001-yilda qabul qilinib, 2003-yilda qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilgan “Madaniy meros obyektlarini saqlash va ulardan foydalanish to‘risida” Qonun mavjud edi. Muqaddam madaniy meros sifatida asosan moddiy madaniy meros tushunilib kelingani bois, mazkur qonunda nomoddiy madaniy meros bilan bog‘liq bittagina abzats bor edi. Shuning uchun, nomoddiy madaniy meros bo‘yicha Konvensiyaning barcha talablarini ushbu Qonunga singdirish yoki yangi Qonun qabul qilish kerak bo‘ldi. Mutaxassislar va qonunchilarning taklifiga ko‘ra mavjud qonunga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish tanlandi va bu borada Madaniyat va sport ishlari vazirligi hamda Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi hamkorligida ish boshlandi. Salkam ikki yil davom etgan jarayonnning natijasida “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida” gi “O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi 228-sonli Qonun qabul qilindi va unda ilk bora madaniy meros moddiy va nomoddiy toifalarga ajratilishi belgilandi. Qonunga ko‘ra:

madaniy meros obyektlari − moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlari;

moddiy madaniy meros obyektlari − tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan ansambllar, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar;

nomoddiy madaniy meros obyektlari − tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so‘z, raqs, musiqa, tomosha san’ati), shuningdek ular hamda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san’ati bilan bog‘liq bilimlar, ko‘nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlar.

Mazkur Qonun bilan moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlarini ro‘yxatga olish va ularni ekspertizadan o‘tkazish qoidalari quyidagicha belgilangan:

11-modda. Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastri va Nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro‘yxati

Nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro‘yxati nomoddiy madaniy meros obyektlari to‘g‘risidagi yangilanib turiladigan ma’lumotlar ko‘rsatilgan hisobga olish hujjatidan iborat bo‘ladi.

Nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro‘yxatini yuritishga quyidagilar kiradi:

nomoddiy madaniy meros obyektini identifikatsiya qilish;

tegishli nomoddiy madaniy meros obyektlarining tarmoqlari, yo‘nalishlari, janrlari va uslublarini tasniflash;

nomoddiy madaniy meros obyektlarini doimiy ravishda tiklovchi shaxslarni, guruhlarni ko‘rsatish;

ma’lumotlarni tizimga solish, saqlash va yangilab borish;

nomoddiy madaniy meros obyektlarining sifat holatini aniqlash va uning natijalari bo‘yicha hisobotlar tuzish.

2010-yil 7-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan “2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturi”ning I bo‘limi – “Nomoddiy madaniy

merosni saqlash, muhofaza qilish va kelajak avlodga yetkazishga qaratilgan normativ-huquqiy bazani hamda ma'muriy boshqaruv tizimini takomillashtirish", II bo'limi – "Nomoddiy madaniy merosni ilmiy jihatdan o'rganish va tadqiqot ishlarini tashkil etish", III bo'limi – "Nomoddiy madaniy merosni ro'yxatga olish va ular to'g'risidagi ma'lumotlarni hujjatlashtirish", IV bo'limi – "Soha mutaxassislarini tayyorlash va malaka oshirish ishlarini tashkil etish", IV bo'limi – "Nomoddiy madaniy meros obyektlarini saqlashning amaliy chora-tadbirlari", V bo'limi – "Nomoddiy madaniy merosni saqlash va uning muhofazasini tashkil etish bo'yicha olib boriladigan targ'ibot-tashviqot ishlari", VI bo'limi – "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish borasida hamkorlik tarmog'ini rivojlantirish", VII bo'limi – "Nomoddiy madaniy meros targ'ibotida madaniy turizm dasturlaridan keng foydalanish", VIII bo'limi – "Nomoddiy madaniy meros namunalarini saqlashni moliyalashtirish tizimini yanada takomillashtirish" masalalariga bag'ishlangan.

Davlat dasturining "Soha mutaxassislarini tayyorlash va malaka oshirish ishlarini tashkil etish" deb nomlangan IV bo'limi 13 ta banddan iborat bo'lib, unda ta'limning barcha bosqichlariga nomoddiy madaniy meros bilan bog'liq tushunchalarni kiritish, ta'lim jarayoniga ekspertlar, mutaxassislar, ayniqsa, nomoddiy madaniy merosni tashuvchilar, uni saqlovchilarni jalb etish alohida ta'kidlangan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–405-sonli "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori mamlakatimizda nomoddiy madaniy merosga qaratilayotgan yuksak e'tiborning muhim huquqiy asoslaridan biri bo'ldi. Mazkur qarorda nomoddiy madaniy meros namunalarini aniqlash, ro'yxatga olish, raqamlashtirish, ilmiy o'rganish, keng targ'ib qilish va saqlash bo'yicha ustuvor vazifalar belgilangan. Ayniqsa, maqom va baxshichilik san'atini muhofaza qilish, etnofolklor ekspeditsiyalarini tashkil etish, ilmiy-tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlash hamda ushbu yo'nalishda malakali kadrlar tayyorlash masalalari alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa milliy madaniy merosni asrab-avaylash, uni yosh avlod ongiga singdirish va xalqaro miqyosda keng namoyon etishda muhim amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Har bir xalqning nomoddiy madaniy merosi shu xalqning o'zligini ifodalaydi. Xulosa o'rnida, tarixmizning bir bo'lagi bo'lgan nomoddiy madaniy merosimizning muhofazasi o'zligimizni anglashimizda katta ta'sirchan manbaa bo'lib xizmat qiladi. Chunki nomoddiy madaniy meros yoshlarimizning azaliy qadriyatlarning asl mohiyatini tushunishga yordam beradi. Tarixdan ma'lumki, o'zbeklar jahondagi eng qadimiy madaniy an'analarga ega bo'lgan xalqlardan biridir. Avloddan-avlodga o'tib kelayotgan bunday nomoddiy madaniy meros doim insonlar tomonidan ularning atrof-muhitiga, tabiatiga va o'z tarixiga bog'liq holda yaratiladi va ularda vorislik tuyg'usini shakllantiradi hamda shu orqali insoniyat ijodini hamda madaniyatimizni hurmat qilishiga yordamlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2003-yilda qabul qilingan "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to'g'risidagi Konvensiya". UNESCO Publishing. (2003).

2. "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida" gi "O'zbekiston Respublikasining Qonuniga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi 228-sonli qonuni

3. O'zbekiston respublikasi prezidentining Pq 405-sonli "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori

4. Yusupaliyeva D. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, asrash va targ'ib etish masalalari. //Inter education and global study – Toshkent.-2024.- №4 (2) − B. 341

ABDURAHMON TOSHKANDIY QARASHLARIDA AXLOQIY MADANIYAT VA SHAXS KAMOLOTI

Husan Suvonqulov,
GulDU "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi dotsenti
ORCID ID : 0009-0007-0613-1705

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Abdurahmon Toshkandiyning axloqiy-falsafiy qarashlari, uning jadid ma'rifatparvarligi rivojidagi o'rni hamda ma'naviy merosi tahlil qilingan. Tadqiqotda mutafakkirning "Me'yor ul-axloq" asari asosida inson kamoloti, axloqiy tarbiya, ma'naviy yuksalish, komil inson konsepsiyasi va yoshlar tarbiyasiga oid qarashlari yoritilgan. Shuningdek, Abdurahmon Toshkandiy ta'limotining bugungi jamiyat ma'naviy taraqqiyoti hamda yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *Abdurahmon Toshkandiy, jadidchilik, axloqiy qarashlar, falsafiy ta'limot, ma'naviyat, ma'rifat, "Me'yor ul-axloq", komil inson, axloqiy tarbiya, ma'naviy qadriyatlar, yoshlar tarbiyasi, jadid ma'rifatparvarligi.*

Аннотация. *В данной статье проанализированы нравственно-философские взгляды Абдурахмана Тошканди, его роль в развитии джадидского просветительства и духовное наследие. На основе произведения мыслителя «Меёр ул-ахлок» рассмотрены вопросы совершенствования личности, нравственного воспитания, духовного развития, концепции совершенного человека и воспитания молодёжи. Также научно обосновано значение учения Абдурахмана Тошканди для духовного развития современного общества и воспитания молодого поколения.*

Ключевые слова: *Абдурахман Тошканди, джадидизм, нравственные взгляды, философское учение, духовность, просвещение, «Меёр ул-ахлок», совершенный человек, нравственное воспитание, духовные ценности, воспитание молодёжи, джадидское просветительство.*

Abstract. *This article analyzes the ethical and philosophical views of Abdurahman Toshkandi, his role in the development of Jadid enlightenment, and his spiritual heritage. Based on the thinker's work "Me'yor ul-Akhlak", the study examines issues related to human perfection, moral education, spiritual development, the concept of the perfect person, and youth upbringing. Furthermore, the significance of Abdurahman Toshkandi's teachings for the spiritual development of modern society and the education of the younger generation is scientifically substantiated.*

Keywords: *Abdurahman Toshkandi, Jadidism, ethical views, philosophical doctrine, spirituality, enlightenment, Me'yor ul-Akhlak, perfect person, moral education, spiritual values, youth upbringing, Jadid enlightenment.*

Kirish. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda yuzaga kelgan jadidchilik harakati xalq ma'naviy hayoti, ta'lim-tarbiya tizimi hamda ijtimoiy-falsafiy tafakkur rivojida muhim o'rin tutdi. Mazkur harakat vakillari jamiyat taraqqiyotini ilm-ma'rifat, axloqiy kamolot va milliy uyg'onish bilan bog'lab, xalqni ma'naviy yuksalishga da'vat etdilar. Ana shunday ma'rifatparvar mutafakkirlardan biri Abdurahmon Sayyoh Toshkandiy bo'lib, u o'zining axloqiy-falsafiy qarashlari orqali inson kamoloti, ma'naviy tarbiya va komil inson g'oyalarini ilgari surgan.

Abdurahmon Toshkandiyning "Me'yor ul-axloq" asari uning axloqiy qarashlarini yorituvchi muhim manbalardan biri hisoblanadi. Asarda inson tabiati, axloqiy fazilatlar, tarbiya, ma'naviy poklanish va jamiyat taraqqiyotiga oid masalalar keng yoritilgan. Shu bois mutafakkir merosini o'rganish bugungi kunda yoshlar tarbiyasi, ma'naviy yuksalish hamda milliy qadriyatlarni mustahkamlash nuqtai nazaridan dolzarb ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Abdurahmon Toshkandiy hayoti va ijodi jadidchilik harakati, ma'rifatparvarlik g'oyalari hamda Turkiston ijtimoiy-falsafiy tafakkuri bilan uzviy bog'liq holda tadqiq etilgan. Mavjud tadqiqotlarda asosan jadidlarning ma'naviy merosi, axloqiy qarashlari, ta'lim-tarbiya tizimi va

jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni yoritilgan bo‘lib, Abdurahmon Toshkandiy merosi ham ushbu yo‘nalishlar doirasida o‘rganilgan. Xususan, jadidchilik harakati tarixi, uning ma’rifiy va ijtimoiy ahamiyati mahalliy hamda xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Shu bilan birga, Abdurahmon Toshkandiyning “Me’yor ul-axloq” asari asosida uning axloqiy-falsafiy qarashlari, komil inson tarbiyasi, ma’naviy kamolot, axloqiy fazilatlar va yoshlar tarbiyasiga oid g‘oyalari alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi . Biroq mavjud adabiyotlarda mutafakkirning axloqiy-falsafiy qarashlari yetarlicha kompleks tarzda tadqiq etilmaganligi mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tarixiylik, xolislik va tizimli yondashuv tamoyillaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida tarixiy-qiyosiy, manbashunoslik, mantiqiy tahlil, qiyoslash va interpretatsion metodlar qo‘llanildi. Shuningdek, Abdurahmon Toshkandiyning “Me’yor ul-axloq” asari asosida matnshunoslik va kontent-tahlil usullari yordamida uning axloqiy qarashlari, fazilat va razillik haqidagi ta’limoti hamda tarbiya konsepsiyasi ilmiy jihatdan tahlil qilindi.

Natijalar va muhokama. Toshkent jadidchilik faoliyatining eng yirik markazi edi. Uning nashriyot hunari eng yirik, yangi usuldagi maktablari esa Turkistonda eng ko‘p bo‘lgan.

Abdurahmon Sayyoh ko‘p jihatdan o‘z hamkasblari bilan bir xil edi. Shuningdek, madaniyatli oilada tug‘ilgan. U Toshkentdagi madrasa tahsilini olgan. Bu davrga kelib Toshkentda yangi usuldagi maktablar keng tarqalgan bo‘lib, ularning egalari jadidchilikning muhim yadrosi bo‘lgan edi. Shunga qaramay, ko‘pchiliklari eski madaniy elitadan chiqqan edi. “Ular eski xurofotlar, madrasalarni isloh qilish, odamlar hayoti, sivilizatsiya va jamiyatdagi o‘zgarishlar haqida o‘ylay boshlashdi”[1].

“Abdurahmon Toshkandiyning ildizlari madrasada ko‘paytirilgan musulmon ilmi an’analarida mustahkam ildiz otgan va u madaniy jamiyatda yaxshi aloqalarga ega bo‘lgan inson uchun mavjud barcha manbalardan foydalana olgan. Darhaqiqat, rus davrigacha madaniy elitani tark etgan jadidlar soni hayratlanarli. El tanigan jadidlarning bir qatori ulamolar edi. Shuni ham unutmaslik kerakki, ulamolar ko‘pincha tasvirlanganidek, og‘zini mahkam tutmaganlar”[2]. Masalan, “Edvard Allvort”[3] “qadimchilarni “ichki qattiq urf-odatlar va qat’iy an’analar bilan boshqariladigan, o‘ta konservativ amaldorlar va ulamolar bu madaniy-ijtimoiy mutafakkirlar g‘oyalaridan bahramand bo‘lishlarini tasavvur ham qila olmaganlar” – deb ta’riflaydi”[4]. “Amalda jadidlarni raqiblaridan ajratib turuvchi chiziqlar ancha yupqaroq edi. Jadidchilik harakatining boshqa faollari ham madrasa bilan yanada chambarchas bog‘langan”[5].

“Bunday uyg‘onuvchi ulamolar va jadidlar o‘rtasidagi farq juda muhim, chunki u jadidchilikning muhim xususiyatidan dalolat beradi. Shunday qilib, qisqacha tafovut qilishga arziydi. G‘arbning bir qator olimlari, ulardan biri Jon Uilyam Draper jadidchilikni musulmon an’analarining tub islohoti sifatida asoslashga harakat qildilar”[6].

“Jadidchilik, bu qarashga ko‘ra, Toshkent madrasasida taqlid (kanonik fikrga bo‘ysunish) rishtalarini uzish va islom manbalariga qaytish uchun uzoq davom etgan kurashning natijasi edi. Bu fikr sovet davrining intellektual tarixini “ma’rifatparvarlar”, dunyoviy, dinga qarshi va ta’rifi bo‘yicha ilg‘orlar bilan turli reaksion mafkura tarafdorlari o‘rtasidagi kurash sifatida konseptuallashtirish uchun tuzatuvchi bo‘ldi, ulardan biri jadidchilik edi”[7].

Abdurahmon Sayyoh boshqa joylarda ishlab chiqarilgan modernistik ilohiyotdan foydalangan. Jadidchilik o‘zlarining yangi maqomlarini turli tadbirlarda boyliklarini namoyish qilishda ko‘rsatishni xohladilar. Abdurahmon Sayyoh o‘z jamiyatining boy qismiga bosim o‘tkazib, o‘z vatandoshlariga katta moddiy yordam ko‘rsatgan tatar va Kavkazorti musulmonlarining o‘rta tabaqasini misol qilib ko‘rsatdi. Natijalar umidsizlikka olib keldi. Turkistonda Bokudagi Tagiyevlar yoki Orenburgdagi Xusainovlarning yirik xayriya ishlariga teng keladigan biror natijani bermadi.

“Bu madrasalar harakatning ijtimoiy takror ishlab chiqarishida ham muhim ahamiyatga ega edi. Birinchi isloh etilgan madrasalar bir necha fidoyi shaxslar tomonidan shakllantirilgan bo‘lsa, 1917-yilga kelib isloh etilgan madrasalar ko‘pincha o‘z bitiruvchilari tomonidan

ta’minlangan”[8]. Abdurahmon Sayyoh xayrixohlik jamiyati kabi jamiyatning yangi shakllarini ham ishtiyoq bilan qabul qildi.

Turkistondagi ilk jadidlar, asosan, eski tuzum vakillari bo‘lib, ularning shaxsiy tajribasi ularni o‘zgarishlar zarurligiga ishontirdi. “Abdurahmon Sayyoh g‘oyalari dunyoni yangicha idrok etish va unda Markaziy Osiyoning tutgan o‘rniga asoslangan edi. Ushbu dunyoqarashning asosi taraqqiyot g‘oyasini o‘zlashtirish edi. Jadidlar o‘z yoshining boshqalarnikidan farq qilishini aniq anglaganlar. O‘tmishda bir fan yoki hunardan o‘sha davr taraqqiyoti uchun foydalanilgan bo‘lsa, bu asrda barcha fanlar va hunarlar birga rivojlanadi. Bu ilm-fan va taraqqiyot asridir. Ilm bu asrda hech qachon ko‘rmagan narsani ko‘radi deb yozilgandi “Jadid” darsligida. Bu taraqqiyot umumbashariy hodisa bo‘lib, bilimni o‘stirishda barcha uchun ochiq edi”[9].

“Markaziy Osiyo jadidchiligi bevosita musulmon modernizmi sohasida edi. Abdurahmon Sayyoh musulmon edi, chunki uning ritorik tuzilmalari Markaziy Osiyo musulmonlari an’analariga asoslangan edi va jadidlarga islomdagi dalillari uchun oliy hokimiyat berilgan. Jadidlar XIX asr oxirigacha ko‘pchilik Yosh turklar qilganidek, islomdan hech qachon voz kechmaganlar”[10]. Jadid islohoti konsepsiyasi jamiyat va undagi turli guruhlarning rolini tubdan qayta ko‘rib chiqishni, shuningdek, Markaziy Osiyo madaniy poydevorini qayta baholashni o‘z ichiga olgan. Jadidlar tushunchasi kuchli qarshilik uyg‘otgan bo‘lsa ajab emas. Edvard A.Alvort kabi g‘arb olimlari odatda bu haqiqatga unchalik ahamiyat bermaydilar. Modernistik islohotlarda bo‘lgani kabi, musulmon dunyosi olimlari ham jadidlarga o‘z jamiyatidagi yagona aql ovozi sifatida e’tibor qaratishadi, shu bilan birga, konservatistlarni jamiyatdagi barcha ijobiy o‘zgarishlarga qarshi bo‘lgan asossiz ilm-ma’rifat dushmanlari sifatida rad etishadi.

Madaniy elita uchun ajratilgan o‘n yillik madrasa o‘qishidan farqli o‘laroq, yangi jamoat maydoniga kirish uchun faqat oddiy savodxonlik kerak edi. Yangi jamoatchilikda eski madaniy elita tobora chetga surildi. Bunday tezkor axborot oqimi yangi aloqa vositalari bilan qo‘shilib, Markaziy Osiyo ziyolilari dunyoqarashida katta o‘zgarishlarga olib keldi.

Yoshlar o‘rtasida vatanparvarlikni shakllantirishda ta’lim-tarbiya tizimi, xususan, unda O‘zbekistonning eng yangi tarixini o‘qitishning o‘rni muhim omil bo‘lganligi uchun har bir o‘qitiladigan mavzularni jadidchilik faoliyati mavzusi bilan bog‘lash va bu sohada yirik ilmiy meros qoldirgan vatandoshlarimizni eslatish kerak. Muallifning fikriga ko‘ra axloqiy madaniyat bu – muayyan ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot jarayonida kishilarning voqelikdagi narsa va hodisalarga nisbatan hissiy-emotsional va zavqiy munosabatda bo‘lib, ularni axloqiy qadriyat sifatida baholashining ifodasidir. Mazkur ta’rif axloqiy madaniyatning keng qamrovli ekanligi, voqelikning inson faoliyati bilan chambarchas bog‘liqligi, har bir zavqiy munosabat axloqiy dunyoqarashning negizida rivojlanib borishini o‘z ichiga oladi.

Toshkandiy faoliyatida xalqimiz axloqiy madaniyati rivojida jadid-ma’rifatchilari muhim o‘rin egallaganligi alohida qayd etilgan. Ma’lumki, jadidlar jamiyatda har bir shaxsni el-yurt manfaati yo‘lida xizmat qilishga chorlab, ularning har tomonlama tarbiyasiga munosabat bildirib, xalq ommasining axloqini o‘stirishga intildilar. Tadqiqotchi mazkur masalaga Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy va Abdurahmon Sayyoh singari jadid mutafakkirlarining ilm, ma’rifat, axloq va tarbiya haqidagi fikrlaridan kelib chiqib yondashgan[11].

Tadqiqotchi G.Mahmudovaning jadidchilik axloqiy-estetik madaniyatiga doir qarashlarida asosan tarixiy-ijtimoiy jarayonlarni ifodalovchi san’at, she’riyat va badiiy ijodning axloqiy tarbiya bilan bog‘liq jihatlari badiiy-axloqiy tarzda tadqiq etilgan[12].

Ijtimoiy taraqqiyot jarayoni har bir davr uchun o‘ziga xos va o‘ziga mos zamonaviy tafakkurga ega bo‘lgan insonlarni tarbiyalab, yangicha dunyoqarash asosida jamiyat rivojiga hissa qo‘shuvchi shaxslarni voyaga yetkazib boradi. Bu jarayonda xalqning istiqbolini yuqori cho‘qqiga olib chiquvchi falsafiy dunyoqarash tizimida axloqiy madaniyatning roli kuchli bo‘lib, millat taqdiri, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi milliy mafkuraning asosini tashkil etadi. Uning harakatlantiruvchi kuch sifatidagi ahamiyati shaxs va jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy

munosabatlar, voqelikka axloqiy nazardan yondashish, insonlarni yuksak madaniyat sari chorlash tamoyilida o‘z ifodasini topadi. Chunki insoniyat bosib o‘tgan tarixiy yo‘l shundan dalolat beradiki, shaxs mafkurasi va madaniyatining qay daraja va qanday xarakterga ega bo‘lishi jamiyatning ijtimoiy tizim va ideallarga asoslanishi bilan ham bevosita bog‘liq.

Tadqiqotda jamiyatimizda milliy mafkuraning bosh maqsadi fuqarolarni yuksak ma’naviyatli yetuk shaxs, o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalarni har tomonlama uyg‘unlikda amalga oshirishga, intellektual yetuk qilib tarbiyalashga qaratilganligi uqtirib o‘tiladi. Mustaqil fikri, dunyoqarashiga ega shaxs hayotni nafosat qonun-qoidalari asosida go‘zallashtirishga harakat qiladi. Shuningdek, shaxsning axloqiy madaniyati insonparvarlik, demokratik tamoyillar, milliy mafkura bilan uyg‘unlashsa, inson o‘z hayot yo‘lida uchraydigan har qanday qiyinchiliklarni yengib o‘tadi, uning qalbidagi bunyodkorlik tuyg‘ulari ravnaq topadi.

Bugungi kunda milliy mafkura ta’sirchanligi va ahamiyatini ko‘tarish uchun, avvalo, inson ma’naviyatiga, milliy qadriyatlar, diniy madaniyat va badiiy-axloqiy salohiyatni ko‘tarish masalalariga e’tibor berilmoqda. Bu omillarning birligi shaxs va jamiyat axloqiy qiyofasini belgilovchi mezon hisoblanmoqda. Chunki ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-estetik madaniyatlar birligiga erishishdan asosiy maqsad – yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligini ta’minlovchi jamiyat barpo etishdir. Milliy mafkuraning asosiy mazmuni ana shu orzu va niyatni amalga oshirishdan iborat.

“Milliy mafkurani yaxlit tizim sifatida ikki xil – tor va keng tushunish mumkin, - deydi A.Erkayev, - jamiyat miqyosida rang-barang mafkuralarning har birini xususiylik deb, milliy mafkurani esa ulardagi umumiy mushtaraklik deb baholash mumkin. Bu milliy mafkurani tor mazmunda tushunishdir. Keng mazmunda esa milliy mafkura g‘oyani turli partiyalar, guruhlar, ijtimoiy qatlamlar, sinflar tomonidan o‘ziga xos talqin qilinishining, jamiyatdagi plyuralistik (rang-barang) qarashlarning, nazariyalarning yig‘indisidir”[13].

Ijtimoiy taraqqiyot jarayonida har qaysi xalq uchun ajdodlaridan meros bo‘lib keladigan, kelajak avlodni kamol toptirib voyaga yetkazish uchun xizmat qiladigan muqaddas zamin, ya’ni ona Vatan va xalq bag‘rida tarkib topgan milliy-ma’naviy qadriyatlar mavjud bo‘ladi. Bu, o‘z navbatida, jamiyatda shaxs axloqiy madaniyatining davrlar oralig‘idagi xilma-xil an’analar, udum va marosimlar tarzida ijtimoiy hayotda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Har bir shaxs uchun o‘zi tug‘ilib o‘sgan joy muqaddas sanalib, xalqning urf-odatlari, marosim va udumlari axloqiy madaniyat shakllanishida katta ahamiyatga ega.

Abdurahmon Toshkandiy dinning axloqiy madaniyat bilan mushtarak jihatlarini ko‘rsatib, din ham boshqa ijtimoiy ong shakllari singari insonga olam va odam haqida emotsional tasavvur beradi, inson ongi va qalbiga ma’naviy ruh va kuch bag‘ishlashi bilan estetik madaniyatga aylanishini uqtiradi. Bu haqda “Din, - deb yozadi Tilab Maxmudov, - insonning falsafiy, ilmiy, axloqiy, tarixiy, badiiy, ruhiy va estetik qarashlarining murakkab garmonik rivojlanishini namoyon etadi”[14]. Muqaddas Islom dinimiz hozirgi jamiyatimiz taraqqiyotida, uning axloqiy madaniyati shakllanishida kishilarning bir zamin, bir Vatanda olijanob g‘oya va niyatlar yo‘lida hamkor va hamjihat bo‘lib yashashi uchun xizmat qilmoqda.

Kelajagi buyuk davlatni, ozod va obod Vatanni bunyod etmoq, mustahkamlamoq ana shunday barkamol avlod yelkasiga tushar ekan, ularni axloqiy jihatdan tarbiyalashning vosita va omillarini ishlab chiqish, tadqiq etishda jadidlar xususan Abdurahmon Toshkandiy ijodi va faoliyatini yaqindan o‘rganish vazifasini yuklaydi.

Xulosa. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakati ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy va madaniy hayotda muhim o‘rin egallab, xalqning ilm-ma’rifatga bo‘lgan munosabatini tubdan o‘zgartirishga xizmat qildi. Jadid ma’rifatparvarlari jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ta’lim-tarbiya, ma’naviy yuksalish hamda axloqiy kamolot masalalariga alohida e’tibor qaratdilar. Ular orasida Abdurahmon Sayyoh Toshkandiy o‘zining axloqiy-falsafiy qarashlari, ma’rifatparvarlik faoliyati hamda komil inson tarbiyasiga oid g‘oyalari bilan alohida o‘rin tutadi .

Abdurahmon Toshkandiyning ilmiy merosi, ayniqsa uning “Me’yor ul-axloq” asari inson tabiati, axloqiy fazilatlar, tarbiya, ma’naviy kamolot va jamiyat taraqqiyotiga oid qarashlarni o‘zida mujassam etgan muhim manbalardan biri hisoblanadi. Mutafakkir asarlarida insonning ruhiy-axloqiy olami, fazilat va razillik masalalari, komil insonni tarbiyalash tamoyillari hamda axloqiy qadriyatlar keng yoritilgan .

Bugungi kunda milliy-ma’naviy merosni o‘rganish, jadid mutafakkirlarining ilmiy qarashlarini zamonaviy nuqtai nazardan tadqiq etish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan mazkur maqolada Abdurahmon Toshkandiyning axloqiy-falsafiy qarashlari, uning ma’naviy merosi hamda yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rajabov S. Ozbek pedagoik fikrining asoschisi.//Ozbek tili wa adabryoti , 1989, no. 5, s. 15.
2. Edward Allworth, The Modern Uzbeks: A Cultural History. Stanford, 1990. P. 120.
3. Edvard A.Allvort - Markaziy Osiyo ixtisosligi bo‘yicha amerikalik tarixchi. Allvort G‘arbda Markaziy Osiyo bo‘yicha tadqiqot olib borgan yetakchi olim sifatida keng e’tirof etilgan.
4. Ayina, 1 June 1915, s. 430.
5. Begali Qosimov, Tavallo (1882-1939), Toshkent, 1993. -b. 4.
6. Edward J. Lazzerini, The Revival of Islamic Culture in Pre-Revolutionary Russia: Or, Why a Prosopography of the Tatar Ulema? " в книге Ch. Lemercier Quelquejay et al., eds., Passé turco-tatar, présent soviétique: études offertes à Alexandre Bennigsen (Paris, 1986), 367-372.
7. Carfare Encausse, The Stirring of National Feeling, p. 172
8. Begali Qosimov, Mirmuhsin Shermuhamedov (Fikri) va uning adabiy muhiti" (канд. дисс, Ташкент. 1967); OSE , VII: 274, s.v. Shermuhamedov, Mirmuhsin.
9. Kamshad H. Modern Persian Prose Literature. Cambridge, 1966. P. 17-21
10. M.Sukru Hanioglu, The Young Turks in Opposition. New York, 1995), ch. 2.
11. Қаранг: Қосимов Солиҳ. Беҳбудий ва жадидчилик. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. –1990. 19 январь.
12. Махмудова Г. Жадидизм ва туркистонда ахлоқий-эстетик фикр тараққиёти. – Тошкент: “DAVR PRESS”, 2006. -116 б.
13. Эркаев А. Миллий ғоя моҳияти. –Тошкент: Маънавият, 2001. – 15 б.
14. Махмудов Т. Этика и духовные ценности. –Ташкент: Шарқ, 1993. – 20 с.

OILA VA MAHALLA INSTITUTINING YOSHLAR EKOLOGIK ONGINI SHAKLLANTIRISHDAGI O‘RNI

Azamova Sitora Ayonovna,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlar kafedrasi v.b dotsenti
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. *Maqolada ekologik globallashuv davrida yosh avlodda ekologik ong va madaniyatni shakllantirishda oila hamda mahalla institutlarining o‘rni va ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Maqolada oiladagi shaxsiy namuna, milliy qadriyatlar va mahalladagi jamoaviy tadbirlarning yoshlar dunyoqarashiga ta’siri ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *ekologik ong, ekologik madaniyat, oila, mahalla, yoshlar, barqaror rivojlanish, hashar, "Yashil makon", ijtimoiy institut, qadriyat.*

Аннотация. *В статье научно-теоретически анализируются роль и значение институтов семьи и махалли в формировании экологического сознания и культуры у молодого поколения в условиях экологической глобализации. Рассматривается влияние личного примера в семье, национальных ценностей и коллективных мероприятий в махалле на мировоззрение молодежи.*

Ключевые слова: *экологическое сознание, экологическая культура, семья, махалля, молодежь, устойчивое развитие, хашар, «Яшил макон», социальный институт, ценность.*

Abstract. *The article provides a scientific and theoretical analysis of the role and importance of the family and mahalla institutions in shaping ecological awareness and culture among the younger generation in the era of ecological globalization. It examines the influence of personal example within the family, national values, and collective activities in the mahalla on the worldview of young people.*

Keywords: *ecological awareness, ecological culture, family, mahalla, youth, sustainable development, hashar, “Yashil Makon”, social institution, value.*

Jahonda ekologik munosabatlarning xalqaro ekologik munosabatlar tizimiga integratsiyalashuvi jarayonlari yuzaga kelmoqda. Mazkur jarayonlar inson ekologik madaniyatini shakllantirishni, uning tabiat bilan uyg‘un oqilona munosabatda bo‘lishi uchun shart-sharoitlarni yaratishni kun tartibiga qo‘ymoqda. Bunday sharoitda muammoni faqatgina texnik yoki iqtisodiy choralar bilan hal etib bo‘lmasligi ayon bo‘ldi. Ekologik muammolarning eng samarali va strategik yo‘li — jamiyat a’zolarida, ayniqsa, kelajak poydevori bo‘lgan yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishdir. Ekologik madaniyat — bu shunchaki atrof-muhit haqidagi bilimlar yig‘indisi emas, balki insonning tabiat bilan uyg‘unlikda yashash salohiyati, uning kundalik odatlari, qadriyatlari va tabiatga bo‘lgan mas’uliyatli munosabatini belgilovchi ma’naviy mezonlar tizimidir. Ekologik madaniyat inson ongida tabiatni bo‘ysundirilishi yoki iste’mol qilinishi kerak bo‘lgan ob’ekt emas, balki asralishi shart bo‘lgan muqaddas jonli borliq sifatida idrok etish tuyg‘usini yuzaga keltiradi. Biroq, bunday madaniyat o‘z-o‘zidan yoki faqatgina maktab darsliklari orqali shakllanib qolmaydi. Inson shaxsining poydevori, uning qadriyatlari va dunyoqarashi shakllanadigan dastlabki va eng ta’sirchan makon — bu **oila** hamda sharqona ijtimoiy hayotning o‘ziga xos modeli bo‘lgan **mahalla** institutidir.

Oila — ekologik madaniyatning ilk kurtaklari ekiladigan muqaddas zamin bo‘lsa, mahalla — bu madaniyat amaliy ijtimoiy ko‘nikmalarga erishiladigan o‘choqdir. Oiladagi "uvvol", "isrof", "baraka" kabi an’anaviy tushunchalar bolaning ichki ma’naviy olamida ekologik madaniyat poydevorini qo‘yadi. Mahalla esa jamoaviy hashar, obodonlashtirish ishlari va o‘zaro ijtimoiy nazorat orqali yoshlarni atrof-muhit uchun amaliy mas’uliyatni his qilishga o‘rgatadi. Shu sababli, yosh avlod tarbiyasida ushbu ikki institutning o‘zaro hamkorligini kuchaytirish, ularning salohiyatini umummilliy ekologik strategiyaga yo‘naltirish bugungi kunning eng

dolzarb vazifalaridan biridir. Ta’lim-tarbiya eng avvalo oiladan boshlanishi barchamizga yaxshi ma’lum. Bola oilada uyini, bog‘cha va maktabda esa vatanini taniydi. Ekologik madaniyatning birlamchi targ‘ibotchisi ham oiladir. Farzandlarning ilk ekologik qarashlari, tasavvurlari, amaliy ko‘nikmalari oilada kechadi. Chunki, bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma’naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir. Yoshlarda ekologik bilimlarni shakllantirishda oila targ‘ib qiluvchi va bolaga singdiruvchi, ta’lim muassasasining nazariy bilimlarini amaliyotga joriy etilishiga ko‘maklashuvchi maskan sifatida namoyon bo‘ladi. Buning uchun ilg‘or, zamonaviy bilimlarga ega, namunali oilalar faoliyati 100 foizni tashkil etishi kerak.

Oiladagi ekologik tarbiya munosabatlari jamiyat yuzaga kelgan davrlardan boshlab zaruriy muammolardan biri bo‘lib kelgan. Jamiyat tezlikda rivojlanib borgan sari bu muammoning ahamiyati yanada ortib boraveradi. Jamiyat, xalq, millatning, ayniqsa maktab o‘quvchilarining ekologik istiqboli ko‘p jihatdan oiladagi munosabatlarning qay darajada ekanligiga bog‘liq. Har bir millatning ekologik ma’naviyati va madaniyatining shakllanishida hech shubhasiz oilaning o‘rni va ta’siri beqiyosdir. Bag‘rikenglik, o‘zaro mehr-oqibat, hurmat, halollik, mehnatsevarlik, ahillik, fikriy birdamlik, odoblilik, axloqiy poklik, inoqlik, totuvlik, bilimga, kasb-hunarga intilish, o‘z sha’nini asrash, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, qonunga to‘g‘ri kelmaydigan har qanday nopok ishlardan saqlanish kabi insoniylik fazilatlari oila muhitida shakllanadi. “Shuning uchun ham aynan oila muhitida paydo bo‘ladigan ota-onaga hurmat, ularning oldidagi umrbod qarzdorlik burchini chuqur anglash har qaysi insonga xos bo‘lgan odamiylik fazilatlari va oilaviy munosabatlarning negizini, oilaning ma’naviy olamini tashkil etadi”. Shu bilan birgalikda oiladagi ekologik ilmlar va tarbiya ko‘nikmalari maktabda takomillashib boradi, oilada yanada mustahkamlanadi. Faqat oilada farzandlar kattalardan malaka, bilimlarini o‘zlashtiradilar, kattalar esa o‘z hayotlarida bosib o‘tgan yo‘llarini farzandlari orqali qayta barpo etadilar. Oilaviy muhit o‘ziga xos bo‘lib, uning har bir a’zosi yangi avlod, mustahkam va barqaror sog‘lom oilani barpo etishga mas’uldir. Shuning uchun yoshlarimizni o‘zlarini moddiy jihatdan ta’minlay oladigan, bilimli, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘sha oladigan qilib tarbiyalash o‘zbek oilalarining asosiy maqsadini tashkil qiladi. O‘zbek oilasining o‘z qiyofasi, milliy xususiyati, milliy axloqi, didi alohida ajralib turadi. O‘zbek oilasining tarixiy an’analari, axloq me’yorlari, turmush-tarzi, ma’naviy qadriyatlari, urf-odatlari, udumi, rasm-rusmlari, shaxslararo munosabatlari va xususiyatlari g‘arb xalqlari oilasidan tubdan farq qilib, andishalik, xushmuomalalik, shirinsuxanlik, mehmondo‘stlik, saxiylik, poklik, ozodalik, sarishta-saranjomlik, tozakorlik to‘g‘ri so‘zlik kabi fazilatlar farzandlar tarbiyasiga doimiy singdirib boriladi va go‘daklik chog‘idayoq alohida e’tibor ko‘rsatiladi. “Aynan mana shu davrda bola hamma yaxshi-yomon narsani tushunib, anglay boshlaydi, uning beg‘ubor ongi bamisoli bosma qog‘oz singari oiladagi, yon-atrofdagi barcha voqea-hodisalarni, ularning zamiridagi qoidalarni o‘ziga shimib-singdirib oladi. uning ota-onasiga, bobo va momolariga mehri va hurmati, o‘zini o‘rab turgan muhitga nisbatan munosabati kundan-kunga takomillashib boradi”. Shunga ko‘ra oilaning qarashlari, qiziqishlari, maishiy hayoti, oila a’zolari dunyoqarashining darajasi o‘z navbatida jamiyatning ekologik taraqqiyot darajasini ko‘rsatadi. Oilalarning ahvoli, ijtimoiy tuzilishi, hozirgi zamondagi qiyofasi mavjud davr aloqadorligida, maktab bilan uviylikda o‘rganilgandagina yorqin namoyon bo‘lishining sababi oila hamma davrda ham jamiyatdagi ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy, ekologik muhitni o‘zida yaqqol aks ettirganligi, ijtimoiy rivojlanish yo‘lida paydo bo‘lgan ijtimoiy muammo va qiyinchiliklarni hal etishda muhim o‘rin tutishidir. Bir so‘z bilan aytganda, oila va maktabning mustahkam hamkorligi o‘quvchilar ekologik madaniyatini takomillashtiruvchi fundamental institutdir. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, “Yuqorida aytilgan tashabbuslar amaliyotda yo‘lga qo‘yilsa, ota-onada mas’uliyat, o‘qituvchida majburiyat, o‘quvchida ishonch, ta’lim va tarbiyada sifat, mahallada esa nazorat bo‘ladi”.

Asosiy masala shundaki ekologik globallashuv sharoitida oila va maktabning mustahkam aloqasi global muammolar yechimiga to‘la qonli javob beraoladimi?. Oila instituti maktab

muassasasiga hamkorlikni mustahkamlash tashabbuskoriga aylanishi va namuna ko‘rsata olish darajasiga ko‘tarilishi shart. Bolaning ekologik madaniyati va umumiy tarbiyasidan ko‘proq manfaatdor ham oiladir. Oiladagi ma’naviy-madaniy salohiyat yoshlarning shaxs sifatida shakllanish darajasini belgilab beradi. Oila boshchilari bo‘lmish ota va ona ma’nan yetuk bo‘lganda, o‘sha oiladan chiqqan maktab o‘quvchilari boshqa o‘quvchilardan ajralib turadi. Ma’nan yetuk oila maktab bilan uzviy aloqalarni mustahkamlashda davom etaveradi. Mamlakatimizda sog‘lom oila muhitini yaratish maktab o‘quvchilari ekologik madaniyatini shakllanishiga xizmat qiladi.

Agar oila ekologik ongning nazariy va hissiy asosini qo‘ysa, mahalla uni amaliyotda ijtimoiy faoliyatga aylantiradi. O‘zbekistonda mahalla shunchaki yashash joyi emas, u o‘ziga xos o‘z-o‘zini boshqarish organi va kuchli ijtimoiy institutdir.

Mahallaning eng muhim vazifasi oila va maktab o‘rtasida muvofiqlashtiruvchi institut bo‘lib xizmat qiladi. Mahalla tom ma’noda ekologik madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladigan muhim maskan bo‘lib, uch tomonlama hamkorlik shartnomalari ta’sischidir. Mahalla umumta’lim maktablari bilan doimiy uzviy aloqada bo‘ladi. Shu bilan birga oilaning ijtimoiy-ma’naviy holatidan ko‘proq xabardor institut ham mahalladir. Mahalla oila va ta’lim maskani hamkorligida ko‘prik vazifasini o‘taydi. Ekologik qadriyatlarimiz hisoblanadigan turli umumxalq hasharlarini o‘tkazishda mahalla faoliyatining xizmati juda katta. Har bir oila, umumta’lim maktablaridagi faoliyat, o‘qituvchilar va o‘quvchilar hayoti, ta’lim muassasalari bilan oila o‘rtasidagi munosabatga aniqlikni avvalo, mahallada, uning hayotida oynadek yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Mahalla mamlakatimiz boshqaruv tuzilmasining eng kichik bo‘g‘ini, ta’lim muassasalarining jamoatchilik hamkori sifatida qadimdan mavjud. Ma’lumki, azaldan o‘zbek mahallalari chinakkam milliy qadriyatlar maskani bo‘lib keladi. O‘zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj kimsalar holidan xabar olish, yetim-yesirlarning boshini silash, to‘y-tomosha, hashar va ma’rakalarni ko‘pchilik bilan bamaslahat o‘tkazish, yaxshi kunda ham birga bo‘lish kabi xalqimizga xos urf-odat va an’analar avvalambor mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan Ta’lim muassasalari ham mahalla hududida faoliyatini yuritib o‘quvchilar ekologik madaniyatini shakllantirishda undan kuch oladi. Umumxalq hasharlarini tashkil etishda mahalla, oila, umumta’lim maktablari o‘zaro yakdillikda ish yuritadi. O‘quvchilar oilada, maktabda, mahallada ta’lim-tarbiya oladi. Mahallaning, oilaning koriga malham bo‘lishni anglab yetadi va amaliy ko‘nikmalari shakllanadi.

Mahalla instituti bilan doimiy aloqada, hamkorlikni ta’minlash tashabbusi ko‘proq ta’lim muassasasi zimmasiga tushadi. Umumta’lim maktablari va oila o‘rtasidagi chigal muammolar avvalo mahallada hal etiladi. Mahalla tom ma’noda umumta’lim maktabining nodavlat homiy tashkiloti sifatida gavdalanadi. Oilada olingan tarbiya, maktabda olingan bilim, mahallada yanada takomillashib boradi. Qaysiki mahallada ish yaxshi bo‘lsa, mahalla obod, oilalar farovon, ta’lim jarayoni samarador bo‘ladi. Mahalla nafaqat o‘quvchilarni, yoshlarni mehnatkashlikka, balki barcha aholining ekologik osoyishtalikka safarbar etadi. Ozodalikda, ko‘kalamlashtirishda, farovonlikda uyushqoqlik rivojlanadi.

Mamlakatimizda mahallalar faoliyatini tubdan takomillashtirish borasida olib borilayotgan ishlarni tizimlashtirish, mahalla yoshlarini kitobxonlikka, turli kasblarni o‘rganishga, sport, san’at sohasiga yo‘naltirishga keng e’tibor qaratilmoqda. Har bir mahallada sport maydonchalari, madaniy dam olish markazlari tashkil etilmoqda.. Oilalar ta’lim oluvchilar sonidan kelib chiqib belgilanadi. Mahalla esa, ta’lim muassasasining joylashuvidan kelib chiqiladi. Buni e’tiborga oladigan bo‘lsak, mahallalar soni sanoqli, oilalar soni esa ancha ko‘p.

Mamlakatimizda “Obod mahalla” davlat dasturining ishlab chiqilishi umumta’lim maktablari va mahalla faoliyatida hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qildi. Dasturga kiritilgan mahallalar har tomonlama obod go‘shaga aylantirildi. Nafaqat maktab o‘quvchilari balki, mahallaning barcha fuqarolarida toza ekologik muhitda yashashdan mamnunlik seziladi. Barchaning ekologik dunyoqarashi tubdan o‘zgara boshladi. Mahallaning obodonchiligiga daxldorlik hissi uyg‘ondi. Davlatimizda mavjud 9 ming 300 dan ortiq mahallarning barchasini

obod mahalla shakliga keltirishni ta’minlash orqali o‘quvchilar ekologik madaniyatini mustahkamlash ustuvor vazifaga aylangan. Shu sababli, “O‘zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 21 dekabrdagi PQ-402-son qarori qabul qilindi. Qarorda aynan ekologik madaniyatni shakllantirishga hissa qo‘shadigan, mahalla faoliyatini yanada takomillashtirish borasida ko‘plab chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Zero, umumta’lim maktablari va mahallalar faoliyatini tizimli to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish orqali o‘quvchilar ekologik madaniyatini shakllantirish aniq natijalarga erishishga xizmat qiladi.

Yoshlarning ekologik ongi va madaniyatini shakllantirish — bu shunchaki qonunlar yoki ma’muriy buyruqlar bilan hal bo‘ladigan masala emas. Bu inson qalbi, ongi va kundalik odatlarini o‘zgartirish bilan bog‘liq uzoq muddatli ijtimoiy jarayondir.

Oila va mahalla uyg‘unligi ushbu jarayonda eng tabiiy va ta’sirchan zanjir hisoblanadi. Oilada olingan ekologik tarbiya mahalladagi ijtimoiy amaliyot bilan mustahkamlangandagina yoshlarda mustahkam ekologik dunyoqarash shakllanadi. Yosh avlod tabiatni bo‘ysundirilishi kerak bo‘lgan ob’ekt emas, balki insoniyat bilan birga yashaydigan, asralishi shart bo‘lgan muqaddas makon deb bilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, oila va mahalla institutlarining ekologik funksiyalarini kuchaytirish, ularning faoliyatini zamonaviy innovatsion usullar bilan boyitish nafaqat bugungi kun obodonchiligi, balki kelajak avlodlar uchun musaffo va xavfsiz ekologik muhitni kafolatlashning yagona strategik yo‘lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2022. 440 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasidagi vazifalarga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishidagi ma’ruzasi. Toshkent, 2021-2024 yy.

3. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: “Ma’naviyat”, 2016. –B. 176

4. Omonov B. Ekologik globallashuv va uning O‘zbekistondagi ekologik muhitga ta’siri. – T.: “Voris – nashriyot”, 2021. 136 b.

5. Omonov B. The use of water resources in the center of environmental policy in the region. The fifth international conference on history and political sciences. ttps://elibrary.ru/tjvied

6. Azamova.S.A. Ekologik globallashuv sharoitida o‘zbekiston umumta’lim maktablari o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish zaruriyati. Fals.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. – Buxoro: BuxDu, 2024.

7. Azamova S. Maktab o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish zarurati. Monagrafiya “Art-matbaa-design” qarshi – 2025.

8. Mamashokirov S**.** Ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish falsafasi. – Toshkent: "O‘zbekiston", 2007. – 210 b.

9. Sultonov O. Oila va ekologik etika masalalari // Pedagogika va psixologiya jurnali. – 2024. – № 1. – B. 89-94.

IMOM AL-BUXORIY HADISLARIDA ILM O‘RGANISH MASALALARI XUSUSIDA

Tog‘ayev Nodirjon Ergashevich,
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi
falsafa doktori (PhD) dotsent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Imom al-Buxoriy hadislarida ilm olish, ustozga hurmat va ma’rifatning inson kamolotidagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, hadislar asosida ilm o‘rganishning axloqiy-me’yoriy tamoyillari hamda yoshlarni ilmga rag‘batlantirish masalalari tahlil qilingan. Maqolada ilmning jamiyat taraqqiyoti va ma’naviy yuksalishdagi аҳамияти haqida ilmiy xulosalar bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Imom al-Buxoriy, hadis, ilm, ma’naviyat, ma’rifat, axloq, ta’lim-tarbiya, ma’naviy barkamollik.*

Аннотация. *В данной статье освещается роль приобретения знаний, уважения к учителю и просветления в совершенствовании человека в хадисах имама аль-Бухари. Также на основе хадисов анализируются этические и нормативные принципы получения знаний и вопросы поощрения молодежи к обучению. В статье представлены научные выводы о важности знаний для развития общества и духовного роста.*

Ключевые слова: *Имам аль-Бухари, хадис, знание, духовность, просветление, этика, образование, духовное совершенство.*

Abstract. *This article explores the role of acquiring knowledge, respect for one's teacher, and enlightenment in human development, as exemplified in the hadiths of Imam al-Bukhari. The hadiths also provide an analysis of the ethical and normative principles of acquiring knowledge and encouraging youth to learn. The article presents scientific findings on the importance of knowledge for social development and spiritual growth.*

Keywords: *Imam al-Bukhari, hadith, knowledge, spirituality, enlightenment, ethics, education, spiritual perfection.*

Kirish. Islom olamida IX asr hadis ilmi rivoji uchun oltin davr hisoblanadi. Bu davrda hadis to‘plash sohasida “musnad”, “sahih” va “sinan” deb atalgan turli yo‘nalishlar vujudga keldi. Eng to‘g‘ri, ishonarli hadislar kiritilgan “sahih” yo‘nalishiga muhaddis olim Imom Ismoil al-Buxoriy asos solgan. Imom al-Buxoriy o‘ta kamtar, insonparvar, xulq-odobda tengsiz, saxovatli inson bo‘lgan. U hadis ilmining yetuk sultoni bo‘lsa ham, vaqti kelganda zamondoshlari, shogirdlaridan ham o‘rgangan. Bir necha tarixchilarning ta’kidlashicha Buxoriy Hijoz, Makka, Madina, Toif va Jiddaga qilgan safari 6 yil davom etgan. So‘ng Basra, Kufa va Bag‘dodga safar qiladi. Shom va Misrga o‘tadi.

Imom al-Buxoriy bobomizning betakror merosi musulmon dunyosining ko‘plab madrasayu dorilfununlarida asosiy qo‘llanma sifatida o‘qitilayotganligi bejiz emas. Islomshunos olim Ubaydulla Uvatov ta’kidlaganidek, “Dunyoning qay burchagiga bormaylik, biz - O‘zbekistonliklarga Imom al-Buxoriyning vatandoshlari, uning avlodlari, nabiralari - Buxoriylar deb katta hurmat, alohida ehirom bilan qaraydilar. Bamisoli biz Makkai Mukarramani ziyorat qilishga intilganimizdek, jumlai-jahonda mo‘min-musulmonlar Imom al-Buxoriyning tabarruk qabrlarini ziyorat qilishga orzumandlar” [8: 17].

Imom al-Buxoriyning 4 jildlik “Al-Jome’ as-sahih” (Ishonarli hadislar) deb nomlangan hadislar to‘plami islom olamida boshqa muhaddislar tuzgan hadislar to‘plami orasida eng ishonarli va mukammalidir. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Islom olamida Payg‘ambarimiz Muhammad alay-hissalom hadislari to‘plamining ishonchli manbai deb e’tirof etilgan «Al-jome’ as-sahih» to‘plami barcha muhaddislar ustozi bo‘lmish Imom Buxoriyning ko‘p yillik fidokorona izlanishlari samarasidir. O‘n ikki asrdirki, ushbu asar ahamiyatiga ko‘ra, muqaddas Qur’ondan keyin islom dini haqidagi ikkinchi ishonchli yozma manba bo‘lib

qolmoqda” [4: 28] – deb ta’kidlaydi. Bu asarda payg‘ambar sallallohu alayhi va sallam hadislaridan tashqari, fiqh, islom marosimchiligi, axloq-odob, ilmi nujum (astranomiya), tadbirkorlik, ta’lim-tarbiya, tarix, etnografiyaga doir ilmiy ma’lumotlar ham o‘z aksini topgan. 600 ming hadisdan faqat 7275 tasi kiritilgan bu hadislar to‘plamida hozirgi davr uchun ham nihoyatda zarur va dolzarb bo‘lgan 1000 dan ortiq diniy-ilohiy, dunyoviy-ilmiy, ijtimoiy-iqtisodiy, axloqiy, aksiologik va ijtimoiy adolat va hamkorlik masalalar haqida muhim yo‘nalishlar beradi. “Imom al-Buxoriy “Sahih hadislar to‘plamiga faqat ishonchli hadislarni kiritgan. Hadislar xalqimizning turmush tarzi, xulq atvori, salohiyat va hayotga munosabatining tashkil topishi va ro‘yobga chiqarishida katta imkoniyat yaratadi” [3: 179].

Imom al-Buxoriy qarashlarining asosini ilmning qudratiga bo‘lgan xayrixohligi yotadi. Uning uchun ilm hamma narsaning asosi, har qanday taraqqiyotning boshlanishidir. Ilm inson uchun nafaqat ma’naviy-ilohiy-ruhiy qudrat balki jismoniy-ruhiy barkamollik va haqiqatga erishishning yo‘lidir. Shuning uchun ham u “Dunyoda ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lmag‘ay” degan qoidani ilgari suradi va unga o‘zi ham amal qiladi.

Inson hayotidagi ishlarni haqiqiy to‘g‘ri yo‘lga soladigan vosita bu ilm bo‘lib, inson ilmni egallab haqiqiy sharafga erishadi. Inson ilm orqali yaxshi-yomonni taniydi, halol va haromning farqiga boradi, do‘stlik va qarindosh-urug‘chilikning fazilatlarini anglaydi, qonun-qoidalarni tushunadi, haq-huquqlarini biladi. Bularning hammasi hadislarda har bir insonni tarbiyalashning muhim vositasi sifatida o‘z ifodasini topgan. Hadislarda tahlil etilgan g‘oyalarda inson hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan barcha narsalar haqida ma’lumotlar berilgan. Masalan, hadislarning eng muhim jihatlaridan biri ilm fanga e’tiborning qaratilganligi bilan muhimdir.

Adabiyotlar tahlili. Hadislarda inson ilmni faqat boshqalarga da’vat qilmasdan, o‘zi ham ilmiga amal qilishga chaqiriladi. “Ilmga nisbatan go‘yo cho‘pon kabi posbon bo‘linglar, lekin ilmni faqat rivoyat qiluvchi bo‘lmanglar!” [9: 215] - deyiladi. Insonning ilmni o‘rganib, uni boshqa odamlarga o‘rgatishi qo‘llab-quvvatlanadi. Ilmga ega bo‘lib, uni boshqa odamlarga o‘rgatmaslik esa qoralanadi. Ushbu masalaga tegishli hadisda quyidagi fikrlar bayon qilingan. “Ilmni o‘rganib, so‘ng uni boshqalarga o‘rgatmaslik go‘yoki molu dunyoni yig‘ib, uni sarf qilmay, ko‘mib qo‘yish bilan barobardir” [9: 247]. Ilm olishga rag‘bat islom dunyosida juda keng targ‘ib qilinadi. “Ilmda bahillik bo‘lmaydi”, degan hadisda inson o‘z ilmini boshqalarga o‘rgatishi zarurligi masalasiga e’tibor qaratiladi.

Hadislarda xalq o‘rtasida ilmu-ma’rifatni targ‘ib va tashviq qilishda olimlarning mas’uliyati masalasiga ham alohida e’tibor qaratilgan. “Olimlar xalq orasidagi Allohning omonatini xalqqa yetkazuvchi kishilardir” [10: 27] - deyiladi. Inson doimo ilmga intiladi, hayotning sir-asrorlarini faqat ilm orqali bilib oladi.

“Olimlar - payg‘ambarlarning merosho‘rlari, ilmi payg‘ambarlardan o‘rganishadi. Kimki ilm olgan bo‘lsa, payg‘ambar alayhissalomdan to‘liq ulush olibdi” [1: 40] - degan hadisda ham ilm olish kerakligi uqtirilgandir. Shariatda farz amallar har bir musulmon uchun albatta bajarilishi zarur bo‘lgan amallar bo‘lib hisoblansa, islom dini har bir insonni ilm olishga da’vat etadi. Ilm olishning ibodatdan afzalligi to‘g‘risidagi fikr esa insonni doimo ilm olishga, dunyoqarashini kengaytirishga, adolatli, ma’rifatli jamiyat qurib farovon yashashga da’vat etadi. Umuman olganda Islom dini insonni doimo ilm olishga da’vat etuvchi diniy ta’limot bo‘lib, “Qur’oni Karimda “ilm” so‘zi – “alima” - bilmoq tarzida 750 marta uchrashi ilmiy tadqiqotlarda ta’kidlab o‘tilgan” [6: 158].

Dinning asosini iymon va e’tiqod tashkil etadi. Ilm oliyjanob va savobli ish bo‘lib, islom dinida ilm olish ibodat va taqvodan afzal deb hisoblanadi. Chunki ilm dinning asosini, ustunini tashkil etib, ma’naviy merosimizda “ilmi kalom”, “ilmi rivoyat”, “ilmi tavhid”, “aqida ilmi” kabi diniy ilmlar bilan birga, insonning dunyoni aql yordamida bilishiga asoslangan “ilmi hikmat” yo‘nalishi paydo bo‘lib, dunyoviy ilmlarning rivojlanishiga bevosita o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Umuman islomda ilm-fanni egallash, ma’rifatli bo‘lish juda savobli ekanligi qayta-qayta ta’kidlanib, hadislarda “Beshikdan to qabrgacha ilm izlash lozimligi” qayd qilinishining o‘zi juda katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Hadislarda inson yoshlikdan ilm olishga da’vat etiladi.

“Yoshlikda olingan bilim toshga o‘yilgan naqsh kabidir” [2: 108] hadisida ushbu masalaga asosiy e’tibor qaratilgan.

Ilm narsa va hodisalarning mohiyatini bilish asosida yuzaga keladi. Bilmoq insonga xos sifatdir. Ilm orqali inson yuksak madaniyat va taraqqiyotga erishib boriladi. Inson bilimsiz hech qanday taraqqiyotga erishib bo‘lmaydi. Jaholat, bilimsizlik insonni saodatmand qilmaydi, balki hayvonsifat qiladi. Shubhasis inson aqli tomonidan biror narsaning bor yoki yo‘qligi dalil asosida isbotlansa, bilimga aylanadi. Bilimning ma’nosi inson tomonidan haqiqatni anglashdir. Inson kamolotida ilm egallash ulkan fazilatlardan biridir, chunki inson ilm bilan ulug‘vorlikka erishadi. Qur’oni Karimda hech vaqt ilmlik bilan ilmsiz barobar emasligi e’tirof etilgan.

Tahlillar va natijalar. Imom al-Buxoriy hadislarida: “Ilmga faqat ta’lim olish bilan erishiladi” [1: 40] - deyiladi. Ilmli kishilar mamlakat taraqqiyotini yuksaltirishga xizmat qiladi, chunki mamlakat taqdiri, istiqboli bilimli kishilar faoliyatiga bog‘liqdir. Jamiyatda qanchalik ilmli kishilar ko‘payib borsa mamlakat shunchalik ravnaq topadi va mamlakatda barqarorlik yuzaga kelib, taraqqiyot oldinga qarab tez yuksaladi. Eng muhimi hadisi sharifda “Bir soatgina ilm o‘rganish bir kechalik ibodatdan yaxshi, bir kunlik dars olish esa uch oy tutilgan nafl ro‘zadan afzaldir” [9: 215] - deyilgan. Darhaqiqat, insonlar ongida ilmning rivojlanishi oz-oz ilm egallashdan ko‘proq ilm egallashga qarab rivojlanishi, hamda narsa-hodisalarning mohiyatini anglashga qarab borishi izohlangan.

Darhaqiqat, hamma narsaning asosi ilmsizlikka, ma’rifatsizlikka va ma’naviy qashshoqlikka borib taqaladi. Taniqli olim Ubaydulla Uvatov “Hadis ilmining sultoni” asarida “Imom al-Buxoriy xorijiy ellardan qaytgach, o‘z vatani Buxoroda ko‘plab shogirdlar va ulamolarga hadis ilmidan saboq berish bilan mashg‘ul bo‘ladi. Ba’zi bir hasadgo‘y, qora niyatli kishilar esa al-Buxoriyni ko‘ra olmas edilar. Hasadgo‘ylarning nayranglari tufayli al-Buxoriyning Buxoro amiri Xolid Ibn Ahmad az-Zuhliy bilan munosabati yomonlashadi. Bunga yana bir sabab Amir olimdan huzurimga kelib “Al Jome’ as-Sahih”, “at-Tarix” kitoblarini o‘qib, saboq berishini talab qiladi. Lekin al-Buxoriy: “Men ilmni xor qilib, ularni hokimlar eshigiga olib bormayman, kimga ilm kerak bo‘lsa, o‘zi izlasin, lekin Olloh Taolo ilmni yashirmay, uni toliblarga sarf qilganim uchun oxirat kuni meni mag‘firat qiladi” [7: 64] - deb keltiradi.

Imom al-Buxoriy hadislarida, “Sen bilan men bilgan ilm chumchuq dengizdagi suvni cho‘qilab ozaytirolmagani yanglig‘, Olloh ilmini hech kamaytirolmag‘ay” [7: 47] - degan iborada chumchuq dengiz suvi qanchalik bepoyon bo‘lganligi tufayli uning suvini kamaytira olmaydi, inson ham bu bepoyon dunyoning mohiyatini oxirigacha bilib ulgura olmasligini obrazli qilib ifodalagan.

Istiqlol sharofati bilan Buxoriyning o‘lmas merosi el-yurt bag‘riga qaytdi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo‘yicha 1225 yilligini nishonlash to‘g‘risida” gi qarori (1997 yil 29 aprel) asosida Buxoriyning ilmiy merosini o‘rganish va targ‘ib qilish, xotirasini abadiylashtirish borasida katta ishlar qilindi. 1998 yil 23 oktabrda Samarqandda yubiley to‘y-tantanalari bo‘lib o‘tdi. Alloma abadiy qo‘nim topgan Chelak tumanidagi Xartang qishlog‘ida ulkan yodgorlik majmui ochildi. Bu haqda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Mana, biz Samarqandda Imom Buxoriy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini, Toshkent shahrida esa Islom sivilizatsiyasi markazini barpo etmoqdamiz. Bu ishlarni kimgadir ko‘z-ko‘z qilish uchun amalga oshirayotganimiz yo‘q. Maqsadimiz - islom dinining haqiqiy insonparvarlik mohiyatini, ma’rifiy islomni bolalarimiz ongiga singdirish. Shu yo‘lda bizning buyuk ajdodlarimiz qanday ulug‘ ishlarni amalga oshirganlari haqida ular ana shunday maskanlarga kelib o‘zlari uchun kerakli, eng muhim bo‘lgan bilim va tasavvurlarga ega bo‘ladi. Eng asosiysi, ularning qalbida boy tariximiz, madaniy merosimiz bilan faxrlanish tuyg‘usi kamol topadi” [5: 25] - deb ta’kidlaydi.

Xulosa. Mustaqil O‘zbekistonimizda muborak dinimizga bo‘lgan munosabatning batamom o‘zgarganligini alohida ta’kidlash lozim. Xususan, islom olamida “Hadis ilmining sultoni” nomi bilan e’zozlanadigan Imom Buxoriy, sunnat ilmi dengizi Imom Termiziy, aqida imomlarining buyugi Imom Moturidiy, tasavvuf olamining yorqin chiroqlari Abdulxoliq G‘ijduvoniy, islom

huquqshunosligi zabardast ustunlaridan Burhoniddin Marg‘inoniy kabi ajdodlarimizning xotirasini abadiylashtirish maqsadida ular qo‘nim topgan maskanlar obodonlashtirilib, xalqimizning sevimli ziyoratgohlariga aylantirilmoqda. Bu xayrli va tarixiy ishlarning hammasi muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev sobitqadamlik bilan olib borayotgan dono va xalqchil siyosatning samarasi bo‘lib, o‘z mazmun-mohiyati jihatidan olamshumul ahamiyatga egadir.

Qur’oni Karim, Hadis, ajdodlarimizning boy ilmiy merosi xalqimizni pokizalikka, iymonli, e’tiqodli, sof vijdonli va insofli bo‘lishga da’vat etgan. Ularning axloq-odob va ta’lim-tarbiyaga oid pand-nasihatlari va o‘gitlari xalqimizning ma’rifatli bo‘lishida hamda yosh avlodni illatli va qabih yo‘llardan qaytarishda, shubhasiz, o‘z ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi, albatta.

Imom al-Buxoriyning dunyo madaniyati xazinasiga qo‘shgan ulkan hissasini hisobga olib uning bashariyatga qoldirgan boy ma’naviy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib qilish hamda ezgulik va ma’naviy komillikka yetaklovchi g‘oyalarini vatandoshlarimiz, ayniqsa yoshlarimizning ongu shuuriga teran singdirib borish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абу Абдуллоҳ Муҳаммад Ибн Исмоил Бухорий. Саҳиҳи Бухорий: диний-маърифий / Абу Абдуллоҳ Муҳаммад Ибн Исмоил Бухорий. –Тошкент: “Munir” нашриёти, 2021.

2. Ахлоқ-одобга оид ҳадис намуналари. –Тошкент: “Фан”, 1990.

3. Зокиров М. Маърифий сабоқлар. “Сангзор” нашриёти. – Жиззах, 2002.

4. Мирзиёев Ш.М Таълим ва маърифат – тинчлик ва бунёдкорлик сари йўл // Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т. 1. Т.: „Ўзбекистон”, 2018.

5. Мирзиёев Ш.М Конститутция – эркин ва фаровон ҳаётимиз, мамлакатимизни янада тараққий эттиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. // Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. Т. 2. Т.: „Ўзбекистон”, 2018.

6. Носирхўжаев С.Х., Лафасов М.Ф., Зарипов М.З. Маънавият асослари. –Тошкент: “Шарқ”, 2005.

7. Уватов У. Ҳадис илмининг султони. –Самарқанд: Имом Бухорий Халқаро Маркази, 2009.

8. Уватов У. Ҳадис илмининг султони // Имом ал-Бухорий. Илмий-маърифий тўплам. “Имом ал-Бухорий халқаро хайрия жамғармаси” нашри. - Самарқанд: 1998.

9. Шайх Абдулазиз Мансур. Минг бир ҳадис. –Т.: Ғофур Ғулом нашрёти, 2017.

10. Юз бир ҳадис ва унинг шарҳи. –Тошкент: “Меҳнат”, 1991.

SHAHOBIDDIN MARJONIYNING PEDAGOGIK QARASHLARI VA FALSAFASI

Hamroyev Shuhrat Eliyevich,
Pedagogika fanlari nomzodi, kafedra mudiri
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
ORCID: 0009-0007-2857-4785

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XIX asrning buyuk tatar allomasi Shahobiddin Marjoniy (1818–1889) ning ta'lim va tarbiya haqidagi ilmiy-falsafiy qarashlari, pedagogik g‘oyalari va ta'lim tizimiga nisbatan islohotchilik yondashuvi keng tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Shahobiddin Marjoniy, pedagogik falsafa, ta'lim islohoti, jadidchilik, Buxoro madrasasi tanqidi, mustaqil fikrlash, ilm, ma'rifat, tarbiya.*

Аннотация. *В данной статье проведён широкий анализ жизни, родословной, образовательного пути и научно-творческого наследия выдающегося татарского учёного XIX века Шахабуддина Марджани (1818–1889).*

Ключевые слова: *Шахабуддин Марджани, биография, библиография, татарская культура, медресе, реформа, джадидизм, научное наследие, Бухара, Казань.*

Abstract. *This article provides a comprehensive analysis of the life, genealogy, educational path, and scholarly-creative legacy of the prominent nineteenth-century Tatar scholar Shahabiddin Marjani (1818–1889).*

Keywords: *Shahabiddin Marjani, biography, bibliography, Tatar culture, madrasa, reform, Jadidism, scholarly heritage, Bukhara, Kazan.*

Kirish. Pedagogik falsafa — ta'lim jarayoniga, bilim olishga va insonning kamolotiga bo‘lgan yaxlit va tizimli nuqtai nazar sifatida — har bir buyuk murabbiy shaxsiyatida o‘z ifodasini topadi. XIX asrda Sharq va Rossiya ta'siri doirasida yashagan tatar xalqining ta'lim tizimini yangilab, ma'rifat yo‘lini ko‘rsatgan allomalar orasida Shahobiddin Marjoniyning o‘rni alohida va beqiyosdir.

Marjoniy faqat ta'lim muassasalarida dars bergan mudarris sifatida emas, balki butun ta'lim falsafasini qayta ko‘rib chiqqan, uning metodologik asoslarini yangilashga intilgan islohotchi mutafakkir sifatida tarixga kirgan. Uning ta'lim haqidagi g‘oyalari o‘z davri uchun inqilobiy edi: shogirdlarning mustaqil fikrlashini qo‘llab-quvvatlash, ta'lim mazmunini din bilan birga dunyoviy fanlar bilan boyitish, mavjud o‘quv uslublarini tanqidiy baholash — bular Marjoniy pedagogik falsafasining asosiy tamoyillarini tashkil etadi.

Ushbu maqolada Marjoniyning pedagogik qarashlari to‘rtta asosiy yo‘nalishda tahlil qilinadi: mavjud ta'lim tizimiga nisbatan tanqidiy yondashuvi; ilmning tabiatiga doir falsafiy qarashlari; ta'lim-tarbiya metodologiyasi; va jadidchilik harakati bilan uzviy bog‘liqligi.

Nazariy asos. *Buxoro madrasalari tanqidi: pedagog uchun muhim bosqich.* Marjoniyning pedagogik falsafasi birinchi navbatda tanqidiy ong asosida shakllandi. Buxoroga 1838-yilda kelgan yosh olim bir muddat mavjud ta'lim tizimini kuzatgach, bu tizimning jiddiy kamchiliklarini aniqlab, ularni qog‘ozga tushirishdan cho‘chimadi. Bu cesur tanqid keyinchalik uning butun pedagogik falsafasining poydevori bo‘lib xizmat qildi.

Marjoniy «Muqaddimat vafoyatul-aslaf» asarida Buxoro madrasalari haqida shunday yozadi: «Bizning xalq Buxoroni ulug‘lab, uni Buxoroi sharif deb ataydilar, ammo Buxoro xalqi va hukumatining ma'rifatdan uzoqligi, boshqaruvlarining buzilganligi, o‘qituv tizimlarining tartibsizligi g‘oyatda ajablanarli...». Bu so‘zlar bir olimning jasoratli etirofidan iborat bo‘lib, ta'lim islohotiga bo‘lgan zaruriyatni yaqqol ko‘rsatadi.

Marjoniyning tanqidining asosiy nuqtalari quyidagilar edi: birinchidan, Buxoro madrasalarida Qur'on, hadis, arab tili adabiyoti va tarix kabi asosiy fanlar deyarli o‘qitilmas, ko‘p vaqt sharh va hoshiyalarda o‘tardi. Ikkinchidan, talabalar o‘rgangan fanlarning asl maqsadidan bexabar qolar va ular orqali amaliy hayot masalalarini hal qila olmardi.

Uchinchidan, geografiya, matematika, astronomiya kabi fanlar ta'lim dasturidan butunlay chetlab o‘tilgandi.

Marjoniy shunday xulosa chiqaradi: «Ular o‘qigan fanlarning asl maqsadidan bexabar qoladilar. Qur'on, hadis, usul ilmi, arab adabiyoti, tarix, geografiya kabi fanlar yo‘q darajada. Bu esa ilmning to‘laqonli bo‘lishiga to‘sqinlik qiladi». Bu tanqid nafaqat Buxoro madrasalariga, balki butun an'anaviy ta'lim tizimiga nisbatan qo‘yilgan jiddiy ilmiy savol edi.

Bu tanqidiy ong Marjoniyda 17 yoshidayoq ko‘rinib qolgan edi: arabcha sarf kitobini fors tilida o‘qitishni noto‘g‘ri deb topib, o‘zi yangi usulda yozgan edi. Buxorodagi kuzatishlar esa bu tanqidiy yondashuvni yanada chuqurlashtirdi va tizimli shaklga keltirdi.

Ilmning tabiati va maqsadi haqida marjoniy falsafasi. Marjoniy uchun ilm — shunchaki ma'lumot to‘plash jarayoni emas, balki insonni komillikka yetaklovchi, jamiyatni rivojlantiruvchi kuch edi. U ilmni ikki toifaga ajratan: birinchisi — asl manbalardan — Qur'on, hadis va salaflari salihlarning asarlaridan bevosita o‘rganilgan haqiqiy ilm; ikkinchisi — sharh, hoshiya va talqinlar orqali o‘zlashtiriladigan ikkilamchi bilim. Marjoniyning fikricha, birinchi toifa ilm ustuvor bo‘lishi, ikkinchisi esa uni to‘ldirishi kerak.

Marjoniy ilm va amal birligiga katta e'tibor berdi. U nazariy bilimning amaliy hayotda qo‘llanilmasligi — bu ilmning to‘liq emasligi belgisi, deb hisobladi. Shuning uchun u madrasada faqat kitob o‘qitish bilan cheklanmay, shogirdlarni real hayot masalalarini hal qilishga tayyorlashga harakat qildi.

Shuningdek, Marjoniy ilmni din bilan yanada chuqurroq bog‘liqlikda ko‘rdi. U Islom ta'limotining asl ruhida bilim izlash — majburiy farzdur, deb hisobladi. Bu nuqtai nazar Marjoniyni din va ilmni bir-biriga zid ko‘ruvchi mutafakkirlardan tubdan ajratib turadi. U Islomni ma'rifatdan ajratib bo‘lmaydi, aksincha haqiqiy iymon ilmni talab qiladi, degan fikrni doimo qo‘llab-quvvatladi.

Marjoniyning ilmga bo‘lgan munosabati uning shaxsiy hayotida ham yaqqol namoyon bo‘ldi: kechqurunlari soat o‘n ikkigacha va ba'zan tun yarimigacha ishladi, safarga chiqqanda ham kitob olib ketdi, zerikmasdan va charchamasdan umrining oxiriga qadar o‘qish va yozish bilan mashg‘ul bo‘ldi. Uning nazarida: «Yaxshi dam olish — o‘qish va yozishdir».

Shogird tarbiyasida Marjoniyning pedagogik prinsiplari. Marjoniyning pedagogik falsafasida shogird shaxsiga alohida o‘rin berilgan. U shogirdlarni passiv bilim qabul qiluvchilar sifatida emas, balki faol fikr yurituvchilar va mustaqil izlanuvchilar sifatida ko‘rdi. Bu yondashuv uning butun pedagogik metodologiyasining asosini tashkil etdi.

Birinchi prinsip — erkinlik va mustaqillik. Marjoniy shogirdlarga darslarni o‘qishda erkinlik berdi, ularni kitob tanlashda chekmadi. Shogirdlar istalgan kitobni olib o‘rganishlari mumkin edi. Bu yondashuv o‘sha davrdagi qat'iy madrasa tartibiga nisbatan inqilobiy edi. Mashhur madrasalardagi shogirdlar bir-biri bilan mantiq, kalom, qadimiy hikmat darslarida bahslashib, mustaqil fikr yuritishga o‘rgandilar.

Ikkinchi prinsip — tanqidiy fikrlash. Marjoniy shogirdlariga mavjud bilimlarni tanqidiy o‘rganishni o‘rgatdi. U o‘zi ham murabbiylarining g‘oyalarini so‘roqsiz qabul qilmadi; Buxoro mudarrislarining dars jarayonini tanqidiy kuzatdi va o‘z xulosalarini bildirdi. Bu xatti-harakat shogirdlariga ham o‘rnak bo‘ldi.

Uchinchi prinsip — amaliyot va nazariya birligi. Marjoniy dars berishda faqat nazariy bilimlar bilan cheklanmadi; u tarix, adabiyot, geografiya va boshqa fanlarni diniy bilimlar bilan birlashtirib o‘qitdi. Shogirdlar umumiy oqimga ergashib, tarix va adabiyot darslariga ham katta e'tibor berdilar.

To‘rtinchi prinsip — shaxsiy namuna. Marjoniy o‘zi doimo o‘rganib, yozib, izlanib yashadi. Uning shogirdlari ustozi tomonidan berilgan namunadan ilhom oldilar. U bir marta shunday degan edi: «Yoshligimda kuchli paytimizda ishladik va Alhamdulillah, rejalashtirgan ko‘p ishlarimni amalga oshira oldim». Bu so‘zlar shogirdlarga umr bo‘yi sa'y-harakat qilish lozimligini bildiruvchi ibratli hikmat edi.

Marjoniy va ta'lim islohoti: jadidchilik harakati bilan bog‘liqlik.

Marjoniyning ta'lim falsafasi uning zamondoshlari va keyingi avlod uchun ham muhim ahamiyat kasb etdi. "Sadoi Turkiston" gazetasida uning vafotidan 25 yil o‘tib, Muzaffar imzosi ostida chop etilgan "Marhum Marjoniy haqinda" maqolasida u "yangilik tarafdorlarining ma'naviy otasi" deb ta'riflangan. Bu ta'rif bejiz emas edi: Marjoniy jadidchilik harakatining ideologik asoslarini bevosita yoki bilvosita shakllantirishda muhim o‘rin tutgan.

Jadidchilik harakati XX asr boshlarida Markaziy Osiyo va Povolj'e musulmonlari orasida yoyildi va ta'lim islohoti uning asosiy shiorlari qatorida bo‘ldi: yangi usul maktablar, dunyoviy fanlarni o‘qitish, ona tilida ta'lim berish, tafakkurni rivojlantirish. Bu g‘oyalarning barchasi Marjoniy tomonidan yarim asr oldin amaliyotda qo‘llanilgandi.

Marjoniyning ta'lim islohoti sohasidagi asosiy g‘oyalari quyidagilar edi: madrasalarda o‘qitiladigan fanlar doirasini kengaytirish; darsliklar tili va uslubini soddalashtirish (arab va fors tillaridagi kitoblar o‘rniga ona tilida tushuntirish); shogirdlarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish; ta'limda dogmatizmdan voz kechib, tanqidiy yondashuvni joriy etish.

Bu g‘oyalar faqat Marjoniy uchun emas, balki Kursaviy, Ahmad Donish kabi zamondoshlari uchun ham xos edi. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida ta'kidlanganidek: "Kursaviy, Marjoniy, Axmad Donishning islom dinini isloh qilish va ma'rifatparvarlik g‘oyalari keyinchalik jadidchilik harakatining vujudga kelishida muayyan darajada xizmat qilgan". Demak, Marjoniy jadidchilikka to‘g‘ridan-to‘g‘ri turtki beruvchi ulkan ijtimoiy kuch bo‘ldi.

Marjoniyning axloqiy-tarbiyaviy qarashlari, Marjoniy uchun ta'lim nafaqat bilim berish, balki insonni axloqiy jihatdan kamolotga yetaklovchi jarayon edi. U ta'lim va axloqni bir-biridan ajralmas deb bildi. Shogirdlarga dars berish bilan birga ularning axloqiy tarbiyasiga ham alohida e'tibor qaratdi.

Marjoniy o‘z shaxsiy fazilatlari bilan ham ibrat namunasi bo‘ldi. U haqiqatni botil oldida aytishdan qo‘rqmadi; eng kuchli dushmanidan ham cho‘chimadi, eng ishonchli do‘stlarining gaplarini tekshirmay qabul qilmadi. Bu xususiyat uning pedagogik falsafasida ham o‘z aksini topdi: u shogirdlariga ham har doim haqiqatni izlashni, rag‘batdan qo‘rqmay to‘g‘ri so‘zni aytishni o‘rgatdi.

Shuningdek, Marjoniy olimlarning ijtimoiy mavqeiga alohida e'tibor berdi. U olimlarning oddiy xalq kabi yurishlarini, boylarga bo‘ysunishlarini yoqtirmadi va ularning rivoji yo‘lga qo‘yilmaganiga afsuslandi. Bu munosabat shogirdlarga ham ilm ahli sharafini saqlash lozimligini o‘rgatuvchi muhim axloqiy dars edi.

Marjoniyning tarbiyaviy falsafasida sabr va qat'iyat alohida o‘rin tutdi. U boshlagan ishni oxirigacha yetkazardi; turli to‘siqlar, qiyin so‘zlar va tuhmatlarga qaramay harakatidan to‘xtamasdi. Shogirdlariga ham ilmda qat'iyat zarurligini o‘rgatdi — "Agar bir narsa tushunilmasa, uni bir emas, ikki, uch, o‘n marta o‘qing. Haqiqiy ilm sabr talab qiladi", degan edi.

Marjoniyning fanga va bilimga bo‘lgan falsafiy qarashlari. Marjoniy nafaqat islom ilmlari, balki tabiiy fanlar — matematika, astronomiya, geometriya — ga ham katta qiziqish ko‘rsatdi. Uning kutubxonasida astronomiya, geometriya kitoblarining ko‘plab qo‘lyozmalari topilgan. Bu esa uning ta'lim falsafasida din va dunyo ilmlarining o‘zaro uyg‘unlashuvini ko‘zlaganligi haqida aniq dalil beradi.

Marjoniyning ilmiy uslubida chuqur analitik fikrlash asosiy o‘rin tutdi. U har bir masalani turli manbalar asosida tekshirib, o‘z xulosasini qilardi. Bir marta shunday degan: "Men bu masalada ba'zi faqihlarning gaplarini yodda saqlab qolganman, lekin haqiqatga oid fikrlarim yodimda qolmagan. Bu masalaning tushuntirishi kitobda mavjud, uni tekshirish uchun bir soat vaqt kerak". Bu so‘zlar uning ilmiy halolligini va bilimga bo‘lgan mas'uliyatini ko‘rsatadi.

Marjoniy yana bir muhim falsafiy qarashni ushlab keldi: tarixga hurmat. U ota-bobolardan qolgan har bir narsani qadrlab, qadimiy tangalar, eski kitoblar, qabriston toshlarini to‘plab saqladi. "Bobomdan qolgan bir choynak haqida: boshqalar bu choynakni hatto o‘n tiyin bilan ham sotib olmaydi. Lekin men uni hatto o‘n ming so‘mga ham sotmayman", degan edi. Bu

so‘zlar uning pedagogik falsafasida tarixiy xotira va merosni saqlash g‘oyasining naqadar chuqur ildiz otganini ko‘rsatadi.

Marjoniy pedagogik falsafasining zamonaviy ahamiyati. Marjoniy pedagogik falsafasining asosiy tamoyillari zamonaviy ta'lim nazariyasi va amaliyoti uchun bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Uning mustaqil fikrlashni qo‘llab-quvvatlash tamoyili zamonaviy konstruktivistik pedagogika bilan hamohang. Bilim va axloqni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi degan g‘oyasi esa bugungi insonparvar ta'lim falsafasining asosiy tamoyillaridan biridir.

Ta'lim mazmunini kengaytirish va boyitish g‘oyasi ham o‘ta dolzarbdir. Marjoniy bir asrdan ko‘proq oldin aytgan narsa — faqat diniy bilimlarga emas, balki tarix, adabiyot, mantiq, geografiya va tabiiy fanlarni ham o‘qitish kerakligi — bugungi zamonaviy ta'lim standartlarida ham asosiy talab bo‘lib qolmoqda.

Shuningdek, Marjoniyning tanqidiy pedagogikasi — mavjud ta'lim tizimini tahlil qilish, uning kamchiliklarini aniqlab, yaxshilash yo‘llarini izlash — bugungi ta'lim islohotchiligining metodologik asosiga aylanib ketgan. Uning Buxoro madrasalari tanqidi — bu nafaqat o‘sha davr muammolarini aks ettiruvchi hujjat, balki umuminsoniy pedagogik muammolarni qo‘yuvchi ilmiy asar hamdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-maydagi qarorida jadid merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish belgilangan sharoitda Marjoniy pedagogik falsafasini zamonaviy nuqtai nazardan qayta baholash va undan ta'lim amaliyotida foydalanish — bu ilmiy va ijtimoiy zaruriyatdir.

Xulosa. Shahobiddin Marjoniyning pedagogik qarashlari va falsafasi XIX asrning murakkab ijtimoiy va madaniy sharoitida shakllangan bo‘lsa-da, universallik xususiyatiga ega. Uning ta'lim falsafasining asosiy tamoyillari — haqiqiy ilmga intilish, tanqidiy fikrlash, shogird mustaqilligini qo‘llab-quvvatlash, bilim va axloq birligini ta'minlash — bular zamonning sinovi o‘tgan prinsiplar sifatida bugungi kunda ham hayotiy ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Marjoniy ta'lim haqidagi falsafasini nafaqat so‘z bilan, balki amal bilan ham isbotladi: 55 yildan ortiq dars berib, yuzlab shogird tarbiyalab, 30 dan ortiq ilmiy asar yozib, umrining oxirigacha o‘rganib va o‘rgatib yashadi. Bu hayot tarzining o‘zi — uning pedagogik falsafasining eng ko‘zga ko‘rinmas va eng ta'sirli ifodasidir.

Marjoniyning pedagogik merosi bugungi o‘zbek ta'lim tizimi uchun ham ibratli namuna bo‘la oladi: ta'lim islohoti faqat texnologik yoki tashkiliy o‘zgarishlardan iborat emas; u avvalo pedagogik falsafani o‘zgartirish — ta'lim maqsadi, uslubi va mazmunini qayta ko‘rib chiqish — dan boshlanishi kerak. Bu haqiqatni Marjoniy iqror etgan, shu haqiqat yo‘lida yashagan va shu haqiqatni keyingi avlodlarga meros qilib qoldirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Шиҳобиддин Маржоний. Мустафод ал-ахбор фи аҳвол Қозон ва Булғор. – Қозон: ал-Ҳайъат ал-омм ли дор ал-кутуб ва ал-васоиқ ал-қавмия, 1885.

2. Шиҳобуддин Маржоний. Нозура ал-ҳақ фий фарзияти ал-ишаи ва ин лам яғиб аш-шафақ. – Истанбул: Дор ал-ҳикма. 2012.

3. “Marjoniy”. To‘plam. Qozon:1915

4. Юсупов М.Х. Шигабутдин Марджани как историк. – Казань: ТКИ, 1981. – б. 232.

5. Ibrahim Maraş. Türk dünyasinda dini yenileşme 1850-1917. – Istanbul: 2002.

6. Мэржани хакында ижмалы мэгълумат // “Мэржани” жыентыгы. – Казань: “Иман”, 2001.

ВОЗМОЖНОСТИ И РИСКИ ЦИФРОВИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ВИРТУАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ

Межевникова Ольга Петровна,
доктор философии по философским наукам (PhD)
доцент кафедры «Философия и национальная идея»
Ташкентского государственного технического университета

Аннотация. *цифровая трансформация образования является одним из ключевых направлений развития современной образовательной системы, обусловленным стремительным внедрением информационно-коммуникационных технологий во все сферы общества. В данной работе рассматриваются особенности и тенденции развития виртуального обучения как важного элемента подготовки в условиях цифровой среды. Анализируются преимущества использования дистанционных образовательных технологий и интерактивных инструментов, способствующих повышению качества и доступности образования.*

Ключевые слова: *цифровая трансформация образования, виртуальное обучение, дистанционные образовательные технологии, онлайн-образование, цифровая образовательная среда, цифровая компетентность, инновации в образовании*

Annotatsiya. *ta'limni raqamli transformatsiya qilish zamonaviy ta'lim tizimi rivojlanishining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, jamiyatning barcha sohalariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal joriy etilishi bilan belgilanadi. Ushbu ishda raqamli muhit sharoitida tayyorgarlikning muhim elementi sifatida virtual ta'limning xususiyatlari va rivojlanish tendensiyalari ko'rib chiqiladi. Ta'lim sifatini oshirish va uning mavjudligini kengaytirishga xizmat qiluvchi masofaviy ta'lim texnologiyalari hamda interaktiv vositalardan foydalanishning afzalliklari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *ta'limni raqamli transformatsiya qilish, virtual ta'lim, masofaviy ta'lim texnologiyalari, onlayn ta'lim, raqamli ta'lim muhiti, raqamli kompetentlik, ta'limdagi innovatsiyalar.*

Abstract. *Digital transformation of education is one of the key directions in the development of the modern educational system, driven by the rapid integration of information and communication technologies into all spheres of society. This paper examines the characteristics and development trends of virtual learning as an important component of training in a digital environment. The study analyzes the advantages of using distance learning technologies and interactive tools that contribute to improving the quality and accessibility of education.*

Keywords: *digital transformation of education, virtual learning, distance learning technologies, online education, digital educational environment, digital competence, educational innovation.*

Целью образования в условиях становления информационного общества становится не подготовка человека к его будущей профессиональной деятельности за счет накопления как можно большего объема готовых, изначально истинных знаний, а развитие человека, овладение им способами приобретения существующих и порождения новых знаний. Речь в данном случае уже идет о формировании новой парадигмы образования. Одним из аспектов трансформации стало внедрение виртуального образования, под которым понимается не только дистанционное телекоммуникационное обучение, но и «процесс и результат взаимодействия субъектов и объектов образования, сопровождаемый созданием ими виртуального образовательного пространства, специфику которого определяют именно данные объекты и субъекты» [1]. Таким образом, «виртуальное образование» рассматривается как виртуальное образовательное пространство. Здесь осуществляется взаимодействие субъектов образовательного

процесса, переносчиком которого являются различного рода коммуникации от устных, печатных до электронных.

Проблемы цифровизации образования получили развитие в работах зарубежных исследователей Сеймура Пейперта - одного из основателей искусственного интеллекта и теоретика цифрового обучения, Джорджа Сименса - автора теории коннективизма, объясняющей обучение как процесс построения связей в цифровых и социальных сетях, Стивена Даунса, чьи работы оказали существенное влияние на развитие сетевого и открытого образования, Майкла Г. Мура - одного из основателей современной теории дистанционного образования, специалиста в области информатизации образования Игоря Роберта. Теоретические и практические аспекты цифровой трансформации образования в науке исследовались Тони Бейтсом, специализирующемся на онлайн- и молодежном образовании, Евгенией Полат, внесшей значительный вклад в развитие личностно-ориентированных педагогических технологий в дистанционном образовании. Вопросы виртуализации обучения, применения VR/AR-технологий и виртуальных образовательных сред рассматривались в исследованиях Нурасыла Керимбаева, специализирующегося на интеллектуальных образовательных технологиях и виртуальном обучении, и других авторов.

На современном этапе сформировались достаточно устойчивые представления о виртуальной среде обучения, обозначающей некоторую образовательную платформу - совокупность учебных инструментов, дающих учащемуся возможность получать знания с использованием компьютеров и интернета. Прежде всего, виртуальная среда обучения представляет набор интегрированных веб-приложений, позволяющих обучающимся получать всю необходимую информацию.

В основе обучения с применением виртуальной реальности лежат иммерсивные технологии – виртуальное расширение реальности, позволяющее лучше воспринимать и понимать окружающую действительность. То есть, они в буквальном смысле погружают человека в заданную событийную среду. Преимуществ иммерсивного подхода несколько:

1. Наглядность. Виртуальное пространство позволяет детально рассмотреть объекты и процессы, которые невозможно или очень сложно проследить в реальном мире. Например, полеты в космос, погружение на сотни метров под воду, путешествие по человеческому телу, работу различных механизмов и т.п.

2. Сосредоточенность. В виртуальном мире на человека практически не воздействуют внешние раздражители. Он может всецело сконцентрироваться на материале и лучше усваивать его.

3. Вовлечение. Сценарий процесса обучения можно с высокой точностью запрограммировать и контролировать. В виртуальной реальности учащиеся могут проводить химические эксперименты, увидеть выдающиеся исторические события и решать сложные задачи в более увлекательной и понятной игровой форме.

4. Безопасность. В виртуальной реальности можно без каких-либо рисков проводить сложные операции, оттачивать навыки управления транспортом, экспериментировать и многое другое. Независимо от сложности сценария учащийся не нанесет вреда себе и другим.

5. Эффективность. Опираясь на уже проведенные эксперименты, можно утверждать, что результативность обучения с применением виртуальной реальности выше, чем классического формата.

Виртуализация образования открывает новые возможности для решения двух основных и актуальных проблем нашего времени:

- увеличения доступности качественного образования;
- непрерывности процесса образования на протяжении всей человеческой жизни.

Более всего виртуальному образованию соответствует модель, имеющая неограниченное число степеней свободы и не предполагающая для каждого отдельно

взятого человека однозначного вектора движения. В центре такой модели находится личностный образовательный потенциал, относительно которого и происходит развитие человека. Такая модель не имеет единого центра образования, каждая личность здесь образовывается и развивается на основе своей сущностной индивидуальности. Нет здесь и общего для всех направления образования. Каждый человек сам определяет свою сферу, выстраивает в ней различные ценности и структуры, наполняя ее содержанием, что позволяет ему ориентироваться в различных образовательных областях при своем внешнем и внутреннем познании.

Всё это дает нам основание предположить, что компьютерное моделирование является наиболее адекватной инновационной технологией, детерминирующей стиль мыслительной деятельности обучающихся, поскольку оно предстает как:

-мотив, побуждающий к инновационной практической деятельности;

-средство организации их познавательной деятельности и управления этой деятельностью;

-инновационная технология решения задач, имеющих ярко выраженный комплексный характер (исследовательских, межпредметных, творческих);

-способ стимулирования новых подходов в осмыслении предстоящей профессиональной деятельности;

-доказательство важности взаимосвязи обобщенных знаний из различных предметных областей науки [2].

С 2025/2026 учебного года для повышения качества образования очно-заочная форма обучения в Узбекистане была заменена дистанционной. Обучение проходит через системы LMC, предоставляя доступ к материалам, тестам и видеолекциям. И виртуальное обучение становится самым приемлемым форматом для дистанционного обучения. Его преимущества перед традиционным обучением в более низкой цене, масштабируемости, высокой безопасности обучения и более сильном вовлечении обучаемых в процесс за счет иммерсивности (погруженности). С помощью виртуального обучения можно не только обучать, но и проводить аттестацию, а также прорабатывать экстренные ситуации. Последнее особо подчеркивает ценность виртуальной реальности, ведь обучить на бумаге или с помощью видео поведению во внештатной ситуации очень сложно, а воссоздавать экстренные условия - опасно для жизни. Виртуальная реальность предлагает отличное решение: моделирование пространства, включая локацию и оборудование, ситуации и сценария правильного поведения.

Формирование виртуального образовательного пространства на основе внедрения виртуальных сред обучения и сетевого подхода имеет ряд значительных преимуществ, наряду с которыми существуют определенные педагогические и психологические риски:

1) отвлечение и переключение внимания на посторонние, мало актуальные, но «яркие» аспекты учебного материала или переходы в параллельные предметные либо развлекательные информационные потоки;

2) формирование стереотипных шаблонов последовательностей операций мыслительной деятельности - формулировка проблемы (учебной ситуации), а затем предложение готовых способов ее решения на безальтернативной основе, закрепляемой примерами;

3) фрагментированность психической картины мира, клиповость сознания, отчуждение от реальных объектов изучения и замена их «образами-симулякрами» под влиянием подачи информации с помощью инфографики, пиктограмм, анимированных и клипированных медиатекстов;

4) постоянное применение стандартных «обучающих воздействий» и технологий обучения, что сопровождается формированием представлений о возможности упрощенного решения учебной проблемы;

5) потеря смысла оценки, которая обусловлена разнообразием подходов к оценке эффективности использования виртуальных образовательных ресурсов; при этом нивелируется смысл и значение оценки (как отрицательной, так и положительной);

6) виртуализация образования способствует «атомизации» субъектов образовательного процесса, преимущественно сводя общение между ними к обычной информационной телекоммуникации;

7) усреднение, так как в большинстве случаев образовательные интернет-ресурсы рассчитаны на пользователя среднего уровня, не имеющего высоких образовательных претензий;

8) виртуализация образования способствует расширению стремления погрузиться в виртуальную реальность и распространению признаков компьютерной и интернет-зависимости;

9) обесценивание реалий образовательного процесса в целом и индивидуальной учебной деятельности в частности;

10) происходит завышенная оценка возможностей современных информационно-коммуникационных технологий и виртуального образования в процессе обучения.

Для снижения уровня рисков в сфере дистанционного образования необходимо разрабатывать высокоэффективные оптимизированные модели использования информационных технологий и виртуальных сред обучения с учетом специфики индивидуально-типологических и социально-психологических особенностей обучаемых

Для снижения уровня рисков в сфере дистанционного образования необходимо разрабатывать высокоэффективные оптимизированные модели использования информационных технологий и виртуальных сред обучения с учетом специфики индивидуально-типологических и социально-психологических особенностей обучаемых [3, 76-77].

В заключении необходимо сказать, что виртуализация образования совершенно естественный процесс, обусловленный экономическими и социокультурными факторами. Однако важно обратить внимание на то, что виртуальность не должна поглощать, подменять сложившуюся образовательную систему, оставаясь в ней одним из компонентов, обеспечивающих соответствие результатов обучения требованиям времени, жизнеспособность, значимость образования как социального института.

Использованная литература:

1. Хуторской А.В. Виртуальное образование и русский космизм // EIDOS-LIST. - 1999. - Вып.1(5).

2. Бокачев И.А., Лукинова И.А. Виртуализация современной системы образования: «за» и «против» // Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки. 2015. - № 3. - С. 5-10.

3. Давыдовский А. Г. Проблема педагогических рисков виртуализации высшего образования. Веснік БДУ. 2024. Сер. 4. - № 1. - С. 75-78.

YOSHLAR DUNYOQARASHIDA INSONPARVARLIK TAMOYILINI SHAKLLANTIRISHNING AYRIM MUAMMOLARI

Umarova Iqboloy Akbutaevna,
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada insonparvarlik tushunchasining mazmuni, inson va jamiyat hayotida namoyon bo'lish, yoshlar dunyoqarashida uni shakllantirishning insonni ulug'lash, uning qadri oshirish, globallashuv sharoitidagi texnologik o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgan ayrim falsafiy muammolari tahlil qilingan. Shuningdek, yangilanayotgan o'zbek jamiyatida inosnparvarlik tamoyilining ta'lim-tarbiya, oila, madaniyat, din va ma'naviyat kabi omillarning ahamiyati ham o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *insonparvarlik, inson, jamiyat, hayot, yoshlar, dunyoqarash, inson qadri, globallashuv, texnologik o'zgarishlar, yangilanayotgan o'zbek jamiyati, ta'lim-tarbiya, oila, madaniyat.*

Аннотация. *В данной статье анализируются содержание понятия гуманизма, его проявление в жизни человека и общества, некоторые философские проблемы его формирования в мировоззрении молодежи, связанные с возвеличиванием человека, повышением его ценности, технологическими изменениями в условиях глобализации. Также изучено значение таких факторов, как образование и воспитание, семья, культура, религия и духовность в обновляющемся узбекском обществе.*

Ключевые слова: *гуманизм, человек, общество, жизнь, молодежь, мировоззрение, человеческое достоинство, глобализация, технологические изменения, обновляющееся узбекское общество, образование, семья, культура.*

Abstract. *This article analyzes some philosophical problems related to the content of the concept of humanism, its manifestation in the life of man and society, its formation in the worldview of youth, the glorification of man, increasing his value, and technological changes in the context of globalization. The importance of factors such as education, family, culture, religion, and spirituality in the principle of humanism in the renewing Uzbek society has also been studied.*

Keywords: *humanism, man, society, life, youth, worldview, human dignity, globalization, technological changes, renewing Uzbek society, education, family, culture.*

Yoshlar dunyoqarashida insonparvarlik tamoyilini shakllantirish masalasi zamonaviy falsafiy fikrning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Insonparvarlik inson qadrini, uning huquq va erkinliklarini eng oliy qadriyat sifatida tan olishdir. Yoshlar esa jamiyatning kelajagi sifatida aynan shu tamoyillar asosida tarbiya topishi davrimizning muhim talabi. Biroq globallashuv, axborot oqimi va turli mafkuraviy ta'sirlar yoshlar ongiga turlicha ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa insonparvarlik g'oyalarini mustahkamlashda murakkabliklarni keltirib chiqarmoqda. Falsafiy jihatdan bu muammo inson tabiati, uning qadriyatlari va ma'naviy kamoloti bilan bog'liq bo'lgani uchun ham mazkur masalaga chuqur nazariy yondashuv talab etiladi. Gumanizm shaxsning rivojlanishi va jamiyat taraqqiyoti o'rtasidagi uyg'unlikka urg'u beradi, ya'ni, shaxsning ma'naviy kamoloti ijtimoiy munosabatlarning sifatini ham yaxshilaydi. "Inson haqidagi hozirgi rang-barang va fundamental qarashlarning shakllanishida bularning xizmati katta"[1.497].

Bizning nazarimizda, yoshlarimizda insonparvarlikni shakllantirish faqat tarbiya masalasi emas, balki jamiyat taraqqiyotining asosiy omilidir. Chunki, insonni anglash va qadrlash falsafasi bu jarayonning markazida turadi. Insonparvarlik tushunchasi falsafada insonni oliy qadriyat sifatida e'tirof etuvchi dunyoqarash, axloqiy tamoyil va ijtimoiy ideal sifatida talqin qilinadi. "Falsafa ensiklopedik lug'ati"da insonparvarlik inson qadri, erkinligi va har tomonlama kamol topishini ta'minlashga qaratilgan g'oyalar tizimi sifatida ta'riflanadi[2.112].

Insonparvarlikni shakllantirish jamiyat taraqqiyotining asosiy omili deb hisoblashimizga yana bir sabab, u inson qadrini ulug‘lash, o‘zaro hurmat va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Insonparvarlik ruhida tarbiyalangan jamiyatda adolat, mehr-oqibat va mas’uliyat kabi qadriyatlar ustuvor bo‘ladi, bu esa ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishga zamin yaratadi. Shuningdek, bunday muhitda insonlar bir-biriga yordam berishga intiladi, ziddiyatlar tinch yo‘l bilan hal etiladi va innovatsiyalar uchun qulay sharoit vujudga keladi.

Insonparvarlik tamoyilining falsafiy mohiyatini tushunish uchun, avvalo, inson tushunchasiga murojaat qilish kerak. Inson faqat biologik mavjudot emas, balki ma’naviy, ijtimoiy va axloqiy mavjudotdir. “Insonparvarlik falsafasining asosi shaxs bo‘lib, uning asosiy faoliyati kelajakka intilish, uning ijodiy salohiyatini erkin amalga oshirish, o‘ziga ishonish va o‘z - meniga erishish imkoniyatidir, deyish mumkin”[3.295]. Shu sababli insonparvarlik uning barcha qirralarini qamrab oladi. Yoshlar ongida insonga bo‘lgan munosabat ko‘pincha jamiyatdagi qadriyatlar tizimiga bog‘liq bo‘ladi. Agar jamiyatda inson qadri yuqori qo‘yilsa, yoshlar ham shu ruhda tarbiyalanadi. Ammo ayrim hollarda materializm va individualizm kuchayib, insonparvarlikka zid qarashlar shakllanishi mumkin. Bu esa falsafiy muammo sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki insonparvarlik va shaxsiy manfaatlar o‘rtasidagi muvozanat doimo dolzarbdir. Ushbu yondashuv insonparvarlikni nafaqat axloqiy, balki ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida ko‘rsatadi. boshqa bir ta’rifda esa, “Insonparvarlik, gumanizm – odamlarga mehr-muhabbat bilan qarash, ularni hurmat qilish, insonning moddiy farovonligini yuksaltirish va kishilarda yuksak ma’naviy fazilatlarni rivojlantirishga g‘amxo‘rlik qilish g‘oyalari bilan sug‘orilgan dunyoqarash”[4.497] sifatida talqin qilingan. Yoshlarda shu muvozanatni shakllantirish esa oson kechmaydi va bu jarayonda ta’lim, oila va jamiyatning o‘rni katta bo‘lib, falsafa esa ushbu jarayonga nazariy asos beradi.

Guvohi bo‘lib turganimizdek, zamonaviy axborot makonida yoshlar turli g‘oyalar ta’siriga tushib qolmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali turli mafkuraviy yo‘nalishlar keng tarqalishi esa insonparvarlik tamoyiliga ham ijobiy, ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, ayrim hollarda zo‘ravonlik, nafrat va befarqlikni targ‘ib qiluvchi kontentlar yoshlar ongiga salbiy ta’sir qiladi. Bu esa insonparvarlik qadriyatlarining susayishiga olib keladi. Falsafiy nuqtai nazardan qaraganda, bu axborot erkinligi va ma’naviy mas’uliyat o‘rtasidagi ziddiyatni keltirib chiqaradi. Yoshlar esa bu ziddiyat ichida to‘g‘ri yo‘lni tanlashi uchun ularda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Demak, insonparvarlikni shakllantirishda axborot madaniyati katta rol o‘ynaydi va bu esa zamonaviy falsafiy muammolardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Yoshlarda insonparvarlik tamoyilini shakllantirishda ta’lim tizimining ahamiyati beqiyos bo‘lib, ta’lim nafaqat bilim berish, balki shaxsni tarbiyalash vositasi hamdir. Agar ta’lim insonparvarlik ruhida tashkil etilsa, yoshlar ham shu qadriyatlarni o‘zlashtiradi. Ammo ba’zan ta’lim jarayonida faqat akademik bilimlarga e’tibor qaratilib, ma’naviy tarbiya yetarli darajada ta’minlanmasligi esa insonparvarlikning shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. “Insonparvarlashtirishning asosiy xususiyati bo‘lgan insonparvarlik ta’lim mazmunini o‘zlashtirishning markaziy qismlaridan biri bo‘lib, darajasi va holatidan qatiy nazar, ta’limdagi asosiy ijtimoiy muammolarni inson nomi bilan, erkin muloqat qilish orqali amalga oshishini ta’minlaydi”[5.295]. Falsafiy jihatdan qaraganda, bilim va axloq, ta’lim va tarbiya o‘rtasidagi uyg‘unlik muhimdir. Yoshlar faqat bilimli emas, balki ma’naviy yetuk bo‘lishi uchun ham ta’lim tizimida insonparvarlik g‘oyalari markaziy o‘rinni egallashi kerak. Bu orqali jamiyatda sog‘lom muhit va insonparvarlikka asoslangan ta’lim asosida barqaror taraqqiyotga erishiladi.

Bizning fikrimizcha, oila insonparvarlik tamoyilini shakllantirishda ilk va eng muhim ijtimoiy muhit bo‘lib, bolaning dunyoqarashi aynan oilada shakllana boshlaydi. Agar oilada mehr-oqibat, hurmat va bir-birini tushunish ustuvor bo‘lsa, bola ham shu qadriyatlarni qabul qiladi. Ammo ayrim hollarda oilaviy muammolar, zo‘ravonlik yoki befarqlik bolaning psixologiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa insonparvarlikka zid qarashlarning shakllanishiga olib kelishi mumkin. Falsafiy jihatdan bu inson tabiati va ijtimoiy muhit o‘rtasidagi bog‘liqlikni

anglatishidan kelibyu chiqsak, yoshlarda insonparvarlikni shakllantirish uchun oila muhiti sog‘lom bo‘lishi zarur. Bu jarayonda ota-onalarning mas’uliyati juda katta bo‘lib, ular farzandlariga nafaqat ta’lim, balki ma’naviy tarbiya ham berishi orqali insonparvarlik qadriyatlari mustahkamlanadi.

Insonparvarlik tamoyilining shakllanishi madaniyat va an’analar bilan ham uzviy bog‘liq bo‘lib, har bir xalqning o‘z madaniy merosi insonga bo‘lgan munosabatni belgilaydi. “Madaniyat — avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan, ramziy shakllarda ifodalangan tushunchalar tizimidir” [6.89]. Ushbu manba insonparvarlik an’analar orqali shakllanishi, ya’ni jamiyatdagi urf-odat va qadriyatlar insonga bo‘lgan munosabatni belgilab berishini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Milliy qadriyatlarda insonparvarlik g‘oyalari aks etgan bo‘lsa, yoshlar ham shu ruhda tarbiya topadi. Ammo globallashuv jarayonida ayrim milliy qadriyatlar zaiflashishi insonparvarlik tamoyiliga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Falsafiy jihatdan bu umuminsoniy va milliy qadriyatlar o‘rtasidagi munosabat masalasiga borib taqaladi va yoshlarimizda har ikkisini uyg‘unlashtirish muhimdir. Negaki, ular shu orqali keng dunyoqarashga ega bo‘ladi. Insonparvarlik esa aynan shu uyg‘unlikda rivojlanadi.

Bugungi kunda yoshlarimizda insonparvarlikni shakllantirishda axloqiy tarbiya muhim o‘rin tutadi. Axloq – insonning ichki dunyosi va xulq-atvorini belgilaydigan omildir. Agar yoshlarda adolat, halollik, mehr-shafqat kabi fazilatlar shakllansa, ular insonparvar shaxs bo‘lib yetishadi. “Shunday harakat qilginki, sen insoniyatni har doim maqsad sifatida qabul qil, hech qachon faqat vosita sifatida emas” [7.429]. Ammo zamonaviy jamiyatda ayrim hollarda axloqiy inqiroz kuzatilmoqda va bu esa yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu aslida falsafiy jihatdan qadriyatlar transformatsiyasi bilan bog‘liq muammo bo‘lib, yoshlar qaysi qadriyatlarni tanlashini aniq belgilab olishi kerak, ya’ni ularning shaxsiy pozitsiyasi aniq bo‘lishi lozim. Axloqiy tarbiya esa bu jarayonda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi hamda insonparvarlikni shakllantirishda axloqning o‘rni beqiyosdir.

Har bir jamiyatdagi ijtimoiy adolat darajasi ham insonparvarlik tamoyiliga ta’sir ko‘rsatadi. Agar jamiyatda tenglik va adolat ta’minlansa, insonlar bir-biriga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘ladi va bu esa yoshlarda ham insonparvarlikni shakllantiradi. Ammo jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik va adolatsizlik insonlar orasida ishonchsizlik va befarqlikni kuchaytiradi va bu holat insonparvarlikka ziddir. Falsafiy nuqtai nazardan qaraganda, adolat va insonparvarlik o‘zaro bog‘liq tushunchalar bo‘lib, yoshlar buni anglab yetishi va jamiyatda faol ishtirok etib, adolatni ta’minlashga hissa qo‘shishi kerak. Shu orqali insonparvarlik g‘oyalari amalda namoyon bo‘ladi.

Insonparvarlik tamoyilini shakllantirishda din va ma’naviyatning o‘rni ham muhimdir. Ko‘plab diniy ta’limotlarda insonga hurmat, mehr-shafqat va yaxshilik qilish kabi g‘oyalar ilgari suriladi. Bu esa insonparvarlikning asosini tashkil etadi. Yoshlar ushbu g‘oyalarni to‘g‘ri anglab yetsa, ular ma’naviy yetuk shaxsga aylanadi. Ammo dinni noto‘g‘ri talqin qilish ayrim hollarda ziddiyatlarga olib kelishi mumkin. Falsafiy jihatdan bu e’tiqod va aql o‘rtasidagi munosabat masalasini ko‘tarib chiqadi. Yoshlar bu ikki omilni uyg‘unlashtira olishi orqali ular insonparvarlikni chuqur anglaydi.

Bugungi yangilanayotgan o‘zbek jamiyatida, ayniqsa yoshlar tarbiyasida insonparvarlik tamoyilidan foydalanishning bir qator falsafiy muammolari mavjud bo‘lib, u avvalambo, inson qadri va uning ma’naviy mohiyatini anglash masalasi bilan uzviy bog‘liqdir. Insonparvarlik, avvalo, har bir shaxsni oliy qadriyat sifatida qabul qilish, uning huquq va erkinliklarini hurmat qilishga asoslanadi. Bu tamoyil yosh avlodni tarbiyalashda ularning nafaqat intellektual, balki axloqiy kamolotini ta’minlashga xizmat qiladi. Falsafiy nuqtai nazardan qaraganda, insonparvarlik g‘oyasi insonni jamiyatning markaziy sub’ekti sifatida ko‘radi va uning har qanday ijtimoiy munosabatlarda ustuvor o‘rin tutishini ta’kidlaydi. Bu borada Immanuil Kantning insonni “maqsad sifatida ko‘rish” haqidagi g‘oyasi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u yoshlar tarbiyasida ham dolzarbdir. Chunki yoshlarni faqat vosita sifatida emas, balki mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida tarbiyalash insonparvarlikning asosiy talabi hisoblanadi. Zamonaviy

jamiyatda turli ijtimoiy, madaniy va axborot ta’sirlari kuchayib borayotgan bir sharoitda insonparvarlik yoshlarni turli zo‘ravonlik, beparvolik va begona g‘oyalardan himoya qiluvchi ma’naviy qalqon vazifasini o‘taydi. Shu bilan birga, bu tamoyil ularda rahmdillik, bag‘rikenglik va o‘zaro hurmat kabi fazilatlarni shakllantiradi. Insonparvarlikka asoslangan tarbiya yoshlarda ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytiradi va ularni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga undashi ham jamiyatda inson qadrini ulug‘lovchi barqaror muhitni shakllantiradi.

Insonparvarlik tamoyilining falsafiy mazmunida insonning ichki dunyosi, uning erkinligi va ma’naviy tanlovi bilan bog‘liq murakkab jarayon ekanligi yotadi. Bu tamoyil yoshlarning o‘z-o‘zini anglashi va o‘z qadrini his qilishiga zamin yaratadi, chunki insonparvarlik faqat boshqalarga nisbatan munosabat emas, balki shaxsning o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatini ham qamrab oladi. Falsafiy jihatdan qaraganda, insonparvarlik jamiyatda adolat va tenglik g‘oyalarini qaror toptirishga xizmat qilar ekan, bu esa yosh avlodni tarbiyalashda ijtimoiy adolatni anglash va uni himoya qilish hissini shakllantirishni taqozo etadi. Insonparvarlik tamoyili yoshlarni turli qarashlar va madaniyatlarga nisbatan ochiqlik va hurmat ruhida tarbiyalaydi, bu esa globallashuv sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, bu tamoyil orqali yoshlarda tanqidiy fikrlash, axloqiy tanlov qilish va mas’uliyatni his etish qobiliyatlari rivojlanadi. Bu falsafa yoshlarni nafaqat milliy qadriyatlarga sodiq, balki umuminsoniy qadriyatlarni ham qadrlaydigan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda ta’lim va tarbiya tizimida insonga yo‘naltirilgan yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etishi hamda insonparvarlikka asoslangan tarbiya jamiyatda tinchlik, o‘zaro tushunish va hamjihatlikni mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar dunyoqarashida insonparvarlik tamoyilini shakllantirish ko‘p qirrali va murakkab falsafiy muammodir. Bu jarayonda ta’lim, oila, madaniyat, axloq va jamiyatning barcha sohalari ishtirok etadi. Har bir omil o‘z ta’sirini ko‘rsatadi va ular o‘zaro bog‘liq holda ishlaydi. Yoshlar esa bu ta’sirlar orasida to‘g‘ri yo‘lni tanlashi kerak. Insonparvarlikni shakllantirish – bu uzluksiz jarayon bo‘lib, doimiy e’tibor talab qiladi va falsafa esa bu jarayonga chuqur nazariy asos beradi. Shu orqali jamiyatda, ijtimoiy ongda inson qadrini anglash va himoya qilish imkoniyati yaratiladi. O‘z navbatida yoshlarimizda insonparvarlikni mustahkamlash esa jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta’minlaydi va bu esa har bir insonning mas’uliyatidir.

Foydalanilgani adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi 1-jild. –Toshkent: O‘zFMJ, 2023. –B. 497
2. Falsafa ensiklopedik lug‘ati. – Moskva: Sovetskaya ensiklopediya, 1983. – 112-bet.
3. G‘afforov Ya. X., Toshtemirova S. A. Ta’lim va tarbiyada insonparvarlik tamoyilining zarurati // Academic research in educational sciences VOLUME 2 | ISSUE 2 | 2021 Academic Research, Uzbekistan www.ares.uz -B. 295
4. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi –Toshkent, O‘zFMJ nashriyoti, 2023. –B. 497
5. G‘afforov Ya. X., Toshtemirova S. A. Ta’lim va tarbiyada insonparvarlik tamoyilining zarurati // Academic research in educational sciences VOLUME 2 | ISSUE 2 | 2021 Academic Research, Uzbekistan www.ares.uz -B. 295
6. Clifford Geertz. The Interpretation of Cultures. – New York: Basic Books, 1973. – B. 89–90.
7. Immanuel Kant. Groundwork of the Metaphysics of Morals. – Cambridge University Press 1997. – p. 429.

O‘ZBEKISTONDA 1950–1980 YILLARDA TA'LIM TIZIMI: HOLATI, YO‘NALISHLAR VA ZIDDIYATLAR (Maktab ta'limi misolida)

Shoira Inoyatovna Asadova,
O‘zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
“Ijtioiy -gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti
Tarix fanlari nomzodi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada 1950–1980 yillarda O‘zbekistonda ta'lim tizimining asosiy yo‘nalishlari, islohotlar, muammolari va ichki ziddiyatlari ilmiy tahlil qilinadi.*
Kalit so‘zlar: *Ta'lim, ijtimoiy, jamiyat, maktab, o‘quvchi, o‘qituvchi, kasb-hunar, islohot, o‘quv adabiyoti, dastur, darslik, qo‘llanma.*

Аннотация. *В данной статье на основе научного анализа рассматриваются основные направления, реформы, проблемы и внутренние противоречия системы образования Узбекистана в 1950–1980-х годах.*
Ключевые слова: *образование, социальный, общество, школа, учащийся, учитель, профессиональное образование, реформа, учебная литература, программа, учебник, пособие.*

Abstract. *This article examines the main directions, reforms, problems, and internal contradictions of the education system in Uzbekistan during the 1950s–1980s on the basis of scientific analysis.*
Keywords: *education, social, society, school, student, teacher, vocational education, reform, educational literature, curriculum, textbook, teaching aid.*

Yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash haqidagi g‘amxo‘rlik taraqqiyotni istagan har qanday jamiyatning oldidagi eng muhim vazifalardan biri bo‘lib kelgan. Insoniyat o‘z tarixi davomida yoshlarning ijtimoiy moslashuv shakllari, usullari va mexanizmlarini takomillashtirib bordi, ta'lim mazmunini esa ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy sharoitlar, xalqlarning milliy, axloqiy hamda diniy an'analari, umuminsoniy qadriyatlar va turli ijtimoiy qatlamlar manfaatlariga muvofiq ravishda takomillashtirib keldi.

Ta'lim shaxs ijtimoiylashadigan muhim ijtimoiy institut bo‘lib, insonning jamiyatdagi o‘rnini belgilovchi asosiy qadriyatlardan biri, shuningdek, ijtimoiy yuksalishning zaruriy vositasidir. Yangi O‘zbekiston jamiyatining demokratik davlat sari taraqqiyoti yo‘lida zamonaviy ta'lim tizimi erkinlik, shaxsning o‘zini namoyon qilishi, bag‘rikenglik, plyuralizm kabi demokratiyaning asosiy qadriyatlarini amalga oshirishga xizmat qilishi lozim. So‘nggi yillarda shaxsni ustuvor qadriyat sifatida e'tirof etish milliy ta'lim tizimi rivojlanishining asosiy xususiyatiga aylandi.

O‘zbekistonda ta'lim tizimi o‘z rivojida turli holatlarni kechirdi. Xususan, XX asrning 50-80 yillari O‘zbekistonda ta'lim tizimi islohotlar, uni amalga amalga oshirishdagi ziddiyatlarni, natijalaridagi xilma xillikni namoyon qilgan davr bo‘ldi. Ushbu davr Sovet Ittifoqi tarkibida kechgan bo‘lib, ta'lim sohasi davlatning mafkuraviy, iqtisodiy va ijtimoiy siyosatining muhim vositasi sifatida rivojlantirilgan. Bir tomondan, umumiy savodxonlikni oshirish, maktab va oliy ta'lim muassasalarini kengaytirish bo‘yicha katta yutuqlarga erishilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan ta'lim mazmunining qat'iy mafkuraviy nazorat ostida bo‘lishi, milliy xususiyatlarning cheklanishi kabi ziddiyatlar ham kuchaygan. Bu albatta, sovet davlatining ijtimoiy sohadagi siyosati aksi edi.

1950-yillar oxiri va 1960-yillarining boshlarida SSSR xalq ta'limi tizimida, xususan O‘zbekistonda tub o‘zgarishlar kuzatildi. Arxiv hujjatlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, 1950-yillarning ikkinchi yarmidan 1970-yillarning oxirigacha saqlanib qolgan ta'lim sohasidagi partiya-davlat siyosatining ziddiyatli xususiyati 1980-yillar boshida jamiyat hayotining mazkur sohasida keng ko‘lamli inqiroz yuzaga kelishining asosiy sababi bo‘ldi. Yoshlarni umumiy o‘rta

ta'lim bilan to‘liq qamrab olish rejalarini, shunga o‘xshash boshqa loyihalarni amalga oshirishning o‘ziyoq nihoyatda murakkab vazifa edi, har holda, belgilangan muddatlarda uni bajarish qiyin bo‘lgan. G‘alabaviy ruhdagi hisobotlar va KPSS s'ezdlarining siyosiy baholarida bu boradagi muvaffaqiyatlarning qayd etilganiga qaramay, hatto eng yirik shahar markazlarida ham umumiy ta'limni yuz foiz amalga oshirishga erishilmadi.

1950-yillarning boshlaridan, ayniqsa Nikita Хрущyovning KPSS XX s'ezdidagi yopiq ma'ruzasidan hamda Stalin shaxsiga sig‘inish oqibatlarini bartaraf etish boshlanganidan so‘ng, o‘rta maktab o‘quvchilarini o‘qitish tamoyillari qayta ko‘rib chiqildi. Ijtimoiy-siyosiy hayotning liberallashuvi sovet maktabida sezilarli darajadagi o‘zgarishlar yasadi.

Ayni paytda SSSRning «iliqlik» yillari va «turg‘unlik»ning dastlabki yillaridagi ta'lim siyosati partiya va davlat rahbariyati doiralarida fan-texnika inqilobining qonuniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya mazmunini tubdan o‘zgartirish, butun tizimni qayta qurish zarurligini anglash shakllanmaganligini ko‘rsatdi.

Bu borada metodologik izchillikning yo‘qligi va siyosiy rahbariyatning doimiy keskin burilishlari 1960-yillar o‘rtalariga qadar hokimiyat SSSR xalq ta'limi tizimini rivojlantirishda haqiqiy ijobiy o‘zgarishlarni amalga oshirishga qodir emasligini namoyon qildi.

1960-yillarning birinchi yarmida, hukmron kommunistik partiyaning yangi qabul qilingan dasturi ta'sirida, aholining umumiy savodxonligini oshirishga qaratilgan keng qamrovli loyihalar ishlab chiqildi va amalga oshirila boshlandi.

Majburiy umumiy sakkiz yillik ta'limning joriy etilishi, umumiy o‘rta ta'limni ta'minlash vazifasining yangicha qo‘yilishi, 11 yillik ta'lim tizimiga o‘tish kabi qator dasturlar, avvalo, kommunistik kelajak sari sifat jihatidan ulkan sakrashni amalga oshirishga bo‘lgan intilishni aks ettirdi. Aytish joizki, ushbu hujjatlar xalq ta'limi tizimining keyingi taraqqiyoti uchun mustahkam asos yaratib, kelayotgan o‘n yillikka xos bo‘lgan ustuvor yo‘nalishlar majmuini belgilab berdi.

1960-yillarda maktablarni yiriklashtirish jarayoni kuchaydi: o‘rta maktablarda ta'lim olayotgan o‘quvchilar soni sakkiz yillik va boshlang‘ich maktablarda tahsil olayotganlar umumiy sonidan ham ko‘proq edi. Biroq 1970-yillar boshiga kelib o‘sishning ekstensiv omillari asosan o‘z imkoniyatlarini tugatdi, jahonda keng quloch yoygan ilmiy-texnik inqilob esa intensiv usullarga, ishlab chiqarishning yangi — ilmiy-texnologik turiga o‘tishni taqozo etdi. Bu esa, o‘z navbatida, zamon talablariga mos mutaxassislar tayyorlashi lozim bo‘lgan xalq ta'limi tizimining rolini yanada oshirdi.

Sovet jamiyati hayotidagi yangi davr ta'lim sohasiga ham yangi talablarni qo‘ydi. 1970-yillarda mamlakat rahbariyati darajasida umumiy o‘rta ta'limni joriy etish zarurligi xususida munozaralar kechdi. Ayrimlar buni iqtisodiy imkoniyatlardan kelib chiqib erta, deb hisoblagan bo‘lsa, boshqalar ijtimoiy ehtiyojlarga tayanib, ijtimoiy tafovutlarni bartaraf etish hamda aholining intellektual ehtiyojlarini qondirish nuqtai nazaridan uni qo‘llab-quvvatladilar. Natijada ijtimoiy nuqtai nazar ustun keldi va umumiy majburiy o‘rta ta'lim mamlakatning iqtisodiy manfaatlaridan qat'iy nazar, ta'lim sohasidagi ijtimoiy farqlarni kamaytirish maqsadida joriy etildi.

O‘zbekistonda umumta'lim maktablarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Respublika hukumati tomonidan 1960–1970-yillar chegarasida qabul qilingan «Umumta'lim maktablari faoliyatini yanada yaxshilash to‘g‘risida»gi (1966) va «Respublikada umumiy o‘rta ta'limga o‘tish munosabati bilan xalq maorifini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi (1969) qarorlar o‘quv-moddiy bazani mustahkamlash, yangi o‘quv dasturlari, darsliklar va ko‘rgazmali qo‘llanmalar yaratish, shuningdek, yangi sharoitlarda faoliyat yuritadigan o‘qituvchilarni tayyorlash masalalarini hal etishga xizmat qildi.

Ushbu qarorlarda aniq belgilab berilgan vazifalarga muvofiq, 1970–1971 o‘quv yili boshiga kelib O‘zbekistonda jami 164 220 o‘ringa mo‘ljallangan yangi maktab binolari qurildi, o‘quv kabinetlari soni ko‘paydi, 579 ta maktab-internat to‘liq ta'mirlandi. 1981 yilga kelib

respublikadagi o‘rta maktablar soni 1971 yilga nisbatan 266 taga, o‘quvchilar soni 777 ming nafarga, o‘qituvchilar soni esa 81 ming nafarga oshdi[1].

1972 yil iyun oyida sobiq Ittifoqning rahbar organlari “Yoshlarni umumiy o‘rta ta'lim bilan to‘liq qamrab olishni yakunlash va umumta'lim maktabini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarorni qabul qildi. Ushbu qarorga muvofiq xalq ta'limi organlari zimmasiga 1975 yilga qadar barcha maktab kurslari bo‘yicha yangi o‘quv rejalari va dasturlarini joriy etishni yakunlash; barcha o‘rta maktablarni zarur miqdordagi o‘quv kabinetlari bilan jihozlash; ishlab chiqarishda faoliyat yuritayotgan yoshlar uchun kechki maktablar va ularning filiallari tarmog‘ini kengaytirish hamda ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash vazifalari yuklatildi.

Umumiy o‘rta ta'limning joriy etilishi o‘quv-moddiy bazani rivojlantirishda yangi yo‘nalishlarni belgilab berdi hamda o‘qituvchilar va o‘quvchilar mehnatiga nisbatan yangi talablarni shakllantirdi.

Yangiliklarni amaliyotga tatbiq etish jarayonida mashg‘ulotlarning eng ilg‘or va samarali shakli maxsus jihozlangan xonalarda o‘tkaziladigan kabinet tizimi ekanligi aniqlandi. Maktablarning kabinet tizimi asosidagi faoliyat tajribasi shuni ko‘rsatdiki, mazkur tizim o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishning sifat jihatidan yangi bosqichi bo‘lib, tadqiq etilayotgan davr maktabi oldida turgan vazifalarga to‘liq javob bergan.

Kabinet tizimi maktab binolari, ularning ichki rejalashtirilishi va o‘quv xonalarining hajmiga nisbatan yangi talablarni yuzaga keltirdi. Shu munosabat bilan 350 ta yangi namunaviy maktab loyihasi ishlab chiqildi. Ularda asosiy o‘quv maydonlari sifatida an'anaviy sinf xonalari emas, balki o‘quv kabinetlari va laboratoriyalar ko‘zda tutildi hamda ularning foydali ish maydoni 5–8 foizga kengaytirildi.

Biroq qator maktablarda kabinet tizimining tuzilishi va faoliyat yuritish sharoitlarida kamchiliklar mavjud edi, ko‘p hollarda kabinetlarga qo‘yiladigan sanitariya-gigiena talablari buzilar, ajratilgan xonalarning hajmi va o‘lchamlari amaldagi me'yorlarga har doim ham mos kelmas edi. Shuningdek, kabinet tizimiga o‘tish amaliyotida, ayniqsa ko‘p fanli kabinetlarni tashkil etishda ham muayyan kamchiliklar kuzatilgan.

Ma'lumki, har qanday ta'lim tizimi holatining eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri uning moddiy ta'minlanganlik darajasidir. Sobiq Ittifoqda ta'lim maqsadlari uchun joriy byudjet xarajatlari 1960-yillar boshidan 1980-yillar o‘rtalariga qadar 341,5 foizga o‘sgan. Moddiy-texnik bazani rivojlantirish borasida muayyan ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, industrial jihatdan rivojlangan mamlakatlar bilan taqqoslaganda bu “taraqqiyot” unchalik ishonchli ko‘rinmas edi.

O‘zbekistonda ham xalq ta'limining moddiy ta'minotida salbiy holatlar kuzatildi. Bu yerda deyarli har yili markazlashtirilgan kapital mablag‘lar hisobidan umumta'lim maktablari qurilishi bo‘yicha davlat rejalari bajarilmagan. Masalan, 1976 yilning birinchi yarmida rejalashtirilgan 15 248 o‘quvchi o‘rniga mo‘ljallangan maktab binolari o‘rniga atigi 14 916 o‘quvchi o‘rniga mo‘ljallangan ob'ektlar foydalanishga topshirilgan[2].

Respublikaning ko‘plab maktablari o‘quv-moddiy bazani sezilarli darajada mustahkamlashga muhtoj edi. Ularning katta qismi hanuzgacha ikki smenali tartibda faoliyat yuritardi. Ayrim viloyatlarda maktablarning 20 foizdan 60 foizgacha qismida fizika, kimyo, biologiya va umumtexnik fanlar bo‘yicha tegishli o‘quv xonalari mavjud emas edi[3].

Umumiy ta'limni amalga oshirishga to‘sqinlik qilgan yana bir jiddiy kamchilik maktablarning nooqilona joylashtirilishi, o‘quvchilar kontingenti o‘sishi hamda aholi sonining istiqboldagi o‘sishi yetarlicha hisobga olinmaganida namoyon bo‘ldi. Ko‘p hollarda o‘quv-moddiy baza va zarur pedagogik kadrlar bilan ta'minlanmasdan turib, sakkiz yillik maktablarni qayta tashkil etish ishlari amalga oshirilgan.

Ko‘plab maktab darsliklari o‘z vaqtida va yetarli adadda nashr etilmagan. Metodik adabiyotlar, o‘quv-ko‘rgazmali qo‘llanmalar hamda maktab yozuv anjomlari kam miqdorda ishlab chiqarilgani sababli respublika maktablarini ular bilan to‘liq ta'minlash imkoni bo‘lmagan. Shuningdek, o‘quv xonalari va ustaxonalar tashkil etish bo‘yicha belgilangan vazifalar ham to‘liq bajarilmagan.

1980-yillarning oxiriga kelib, o‘rta umumta'lim maktablarining o‘quv-moddiy bazasini mustahkamlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirilganiga qaramay, uning holati zamonaviy talablarga javob bermas edi. Maktablarning atigi 40 foizi namunaviy binolarda joylashgan bo‘lib, o‘quvchilarning 75 foizi ikki smenada tahsil olar, taxminan 150 ming nafar bola esa hatto uchinchi smenada o‘qishga majbur edi. Shuningdek, qariyb 700 ta maktab avariyaviy holatda bo‘lgan[4]. Respublika rahbar organlari hatto ma'muriy-buyruqbozlik tizimi nuqtai nazaridan ham 1988 yilda o‘rta umumta'lim maktabi, ayniqsa qishloq maktablari yoshlar ehtiyojlarini to‘liq qondirmayotganini tan olishga majbur bo‘ldilar. Ayniqsa, maktablarni moddiy-texnik jihatdan ta'minlash bilan bog‘liq masalalarda ko‘plab kamchiliklar mavjud edi.

Xalq ta'limi sohasida yuzaga kelgan mazkur holatning asosiy sabablaridan biri uni moliyalashtirishda “qoldiq tamoyili”ning ustuvor bo‘lganligi bilan izohlanadi. Dunyodagi aksariyat taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ta'limga ajratiladigan xarajatlar jamiyatning insonlarning bilimli bo‘lishiga qay darajada manfaatdor ekanining muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi. Masalan, AQShda 1989 yilda ta'lim sohasiga qilingan umumiy xarajatlar 260 milliard dollarni tashkil etgan bo‘lib, bu ayrim yirik davlatlarning yalpi milliy daromadiga teng edi. Sobiq SSSRda esa davlat byudjeti tarkibida ta'limga ajratiladigan mablag‘lar ulushi yil sayin qisqarib bordi.

Ta'lim tizimi rivojida eng muhim masalalardan biri uni malakali mutaxassis kadrlar bilan ta'minlash va ayni paytda bu eng murakkab vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bois mazkur sohada davlat siyosati, yo‘l qo‘yilgan ayrim kamchilik va xatolarga qaramay, o‘qituvchi kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor qaratildi. Mazkur davrda pedagogik ta'lim tizimi barcha turdagi umumta'lim maktablari, kasb-hunar-texnika bilim yurtlari, o‘rta maxsus o‘quv muassasalari, maktabgacha ta'lim va maktabdan tashqari muassasalarni pedagog kadrlar, o‘qituvchilar hamda tarbiyachilar bilan ta'minlab keldi. Respublikada mazkur davrda pedagog kadrlar tayyorlash bilan 14 ta pedagogika instituti, 38 ta pedagogika bilim yurti hamda Navoiy shahridagi Nizomiy nomidagi Toshkentdavlat pedagogika instituti filiali shug‘ullangan. Har yili o‘rta hisobda maktablarga taxminan 17 ming nafar yosh mutaxassis yo‘llanma asosida yuborilgan[5]. Oliy ma'lumotli o‘qituvchilar soni 1965 yilga nisbatan 45 ming nafarga ko‘payib, 1971 yilga kelib 101 ming nafarni tashkil etgan[6]. Biroq 1970-yillarda o‘rta umumta'lim maktablari, ayniqsa qishloq maktablari faoliyatida hal etilmagan ko‘plab muammolar saqlanib qolgan. Tarbiyaviy ishlar darajasi, o‘quvchilar bilimlarining hajmi va sifati zamonaviy talablardan ortda qolgan, qishloq joylardagi o‘qituvchilarning qariyb 25 foizi oliy pedagogik ma'lumotga ega bo‘lmagan[7].

1983 yil 1 oktyabr holatiga ko‘ra, sobiq Ittifoqdagi barcha turdagi maktablar pedagog xodimlarining umumiy sonidan 73 foizi oliy ma'lumotli bo‘lgan. Ayrim ittifoqdosh respublikalarda bu ko‘rsatkich umumittifoq darajasidan yuqori bo‘lgan. Jumladan, O‘zbekistonda mazkur ko‘rsatkich 75,4 foizni tashkil etgan[8].

Respublikaning qator maktablarida ona tili va rus tili, matematika, fizika hamda boshqa ayrim fanlar o‘qituvchilari yetishmasligi davom etgan. Ko‘p hollarda o‘qituvchilar o‘z mutaxassisligiga to‘g‘ri kelmaydigan fanlardan dars berishga majbur bo‘lganlar.

O‘zbekistonda o‘qituvchi kadrlarni tayyorlash va tarbiyalash masalalarida jiddiy kamchilik va nuqsonlar mavjud bo‘lib, buning asosiy sababi - kommunistik partiyaning xalq ta'limi boshqaruvidagi ma'muriy-buyruqbozlik funksiyalarini saqlab qolishi, o‘zining monopol mavqyeidan voz kechishni istamasligi hamda xalq ta'limi organlariga o‘sib kelayotgan avlodni tarbiyalash va o‘qitish ishlarini professional va malakali tarzda boshqarish imkoniyatini to‘liq bermaganligida edi.

Ta'lim siyosatida partiyaning nafaqat rahbarlik, balki sovet jamiyatidagi monopol mavqyei ham yaqqol namoyon bo‘lgan. Partiyaning ta'lim sohasidagi doktrinasi sotsializm qurish yo‘llari va vositalari haqidagi qarashlaridan, siyosiy, g‘oyaviy-nazariy hamda tashkiliy vazifalaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqildi. Va bu siyosat bevosita o‘quv-tarbiya jarayonining

dunyoqarashga oid yo‘nalishida marksizm-leninizm mafkurasining ustuvorligini ta'minlashga qaratildi.

Maktab siyosiy tarbiyani tashkil etishni tubdan o‘zgartirishga qattiq muhtoj edi. Jamiyatshunoslik, tarix va gumanitar turkumdagi boshqa fanlarni o‘qitish jarayonida o‘quvchilarga faqat marksizm-leninizm g‘oyalari uqtirildi, ateistik tushunchalarni singdirishga urg‘u berildi.

Respublika maktablarida O‘zbekiston tarixining yetarli darajada o‘rganilmagani ham salbiy ahamiyat kasb etdi: uning abstrakt, bir-biridan uzilgan ayrim qismlarigina o‘qitilar, bu esa o‘zbek xalqining o‘ziga xos tarixi va madaniyatini, uning jahon tarixidagi o‘rni hamda sivilizatsiya taraqqiyotiga qo‘shgan hissasini to‘liq aks ettirmas edi.

Rus tilli maktablarda o‘zbek tilini o‘qitish ishlari ham qoniqarli ahvolda emas edi. Odatda, bu fanni o‘qitish kam malakali pedagoglarga ishonib topshirilar, tillarni o‘rganish metodikasi mukammal emasdi, o‘quvchilarni boshqa tillarning boyligi bilan yaqinroq tanishtiradigan sinfdan tashqari tadbirlar deyarli o‘tkazilmasdi.

Qator maktablarda miqdoriy ko‘rsatkichlarga ortiqcha e'tibor qaratilib, o‘quvchilar bilimining sifatiga lozim darajada ahamiyat berilmas edi. Bu esa o‘quvchilarning o‘z mehnati natijalari uchun mas'uliyati pasayishiga olib keldi va ularning axloqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko‘rsatdi. O‘quvchilarning maktabni tashlab ketishi holatlari hamda sinfda qolib ketish muammosi saqlanib qoldi. Faqat 1971–72 o‘quv yilining o‘zidayoq respublika kunduzgi umumta'lim maktablaridan turli sabablarga ko‘ra 8,5 ming nafar o‘quvchi chiqib ketgan.

O‘rganilayotgan yillarda maktablar ishidagi yana bir salbiy holat o‘quvchilarning qishloq xo‘jaligi ishlariga, ayniqsa paxta terimiga jalb qilinishi o‘qituvchilar va o‘quvchilar faoliyatida, fanlarni o‘zlashtirishda ko‘plab qiyinchiliklarni keltirib chiqarar edi. 1987 yil avgust oyida 1987 yildan boshlab maktab o‘quvchilarini paxta terimiga jalb qilmaslik to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Barcha gazetalarda «Paxta yig‘im-terimi — o‘quvchilarsiz!» degan shior asosiy mavzuda yoritildi. Biroq shu yilning noyabr oyi o‘rtalarida O‘zbekiston Kompartiyasi rahbariyati avval qabul qilingan qarorga zid ravishda yuqori sinf o‘quvchilarini paxta terimiga jalb qilish haqida qaror chiqardi. 1988 yilda respublika hukumati, O‘zbekiston Xalq ta'limi vazirligi yana umumta'lim maktablari o‘quvchilarini paxtani yig‘ib-terib olish ishlariga jalb qilishga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risida qaror qabul qildi. Respublika bo‘yicha asosan ushbu ko‘rsatma bajarildi. Faqat ayrim tumanlarda rahbarlarining eskicha usullar bilan ish yuritishi tufayli, o‘quvchilarni paxta terimiga jalb etish davom etdi.

1980-yillar nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasida, balki ma'naviy sohada ham tobora chuqurlashib borayotgan inqiroz bilan xarakterlandi. Bu holat jamiyat jarayonlarini boshqarishning avvalgi usullari o‘zini oqlamagani, yangi usullarga o‘tishga esa jamiyat tayyor emasligi bilan izohlanar edi. Yosh avlodni ta'lim va tarbiyalash sohasidagi ziddiyatlar keskinlashdi, chunki tarbiyaning tashkiliy asoslari, mazmuni va natijalari jamiyat talablarini tobora kamroq qondirib borardi. Bu davrda tarbiya ishlarining nazariyasi bilan amaliyoti, shuningdek, uning real imkoniyatlari o‘rtasidagi uzilish ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ldi. «Kommunistik» tarbiya deb atalgan hukmron mafkura o‘zining tarixiy jihatdan istiqbolsiz ekanini, qo‘yilgan vazifalarning o‘zi haqiqatdan yiroq bo‘lgani sababli ularni amalga oshirish mumkin emasligini ochib berdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, «Umumta'lim va kasb-hunar maktabini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari» 1984 yilda, sobiq Ittifoq ijtimoiy-iqtisodiy hayotini qayta qurish jarayoni boshlanishidan oldin ishlab chiqilgan edi. Shu sababli mazkur hujjatda maktabni tubdan yangilash g‘oyasi o‘z ifodasini topmagan, SSSR rahbariyati esa bu masalani qayta ko‘tarish uchun yetarli siyosiy jasorat namoyon eta olmagan. Umumta'lim maktabini isloh qilishga, asosan, o‘quv rejalari va dasturlarini, darsliklar hamda o‘quv qo‘llanmalarini takomillashtirish, ta'lim va tarbiya metodlarini yaxshilash, umumta'lim va kasb-hunar maktablari tuzilmasini hamda xalq ta'limi boshqaruvini o‘zgartirish orqali hal etiladigan vazifalar majmuasi sifatida qaralgan. Islohotning asosiy hujjatida jamiyat va uning tarbiya hamda ta'lim tizimi o‘rtasidagi

funksional bog‘liqliklar tizimli ravishda ko‘rib chiqilmagan. Shuningdek, xalq ta'limi tuzilmasining turli elementlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar tahlili ham berilmagan.

«Fan – ta'lim – jamiyat» zanjirida nomutanosiblik va jiddiy uzilishlar yuzaga keldi. Ish yuritishda qog‘ozbozlik va byurokratik yondashuv, deklarativlik, markazlashuv, mahalliy xalq ta'limi organlari, ayniqsa maktab, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini ortiqcha tartibga solish kuchaydi. Jamiyatning o‘zida mavjud bo‘lgan turg‘unlik holatlari maktab qiyofasiga ham o‘z ta'sirini ko‘rsatdi. Bu yillarda maktablar, demakki o‘qituvchilar ham o‘quv rejalari, dasturlar va o‘quv adabiyotlarini qat'iy me'yorlashtirilgan shaklda olar edilar. O‘quv-tarbiya jarayoni ma'muriy-buyruqbozlik tizimining barcha me'yorlariga to‘la moslashtirildi. O‘zbekistondagi turli darajadagi direktiv organlar majlislarida maktab hayotiga oid masalalar shunday muhokama qilinar ediki, natijada bu holat Xalq maorifi vazirligi (keyinchalik — Xalq ta'limi vazirligi) faoliyatining o‘rnini bosib qo‘yardi.

O‘zbekiston direktiv organlarining mazkur masalalarni hal etishdagi mohiyati shundan iborat ediki, ular jamiyat hayotida kommunistik partiyaning rahbar va yo‘naltiruvchi kuch ekani haqidagi konsepsiyadan kelib chiqqan edilar. Shu asosda partiya xalq ta'limi organlariga buyruqbozlik qilib, ularga aniqlangan kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etish vazifasini yuklagan.

Ta'lim boshqaruvi tizginini o‘z qo‘liga olgan partiya rahbarlari uni na xalq ta'limi organlariga, na amaliyotchi o‘qituvchilarga berishni istar edilar. Ma'muriy-buyruqbozlik tizimi ta'limning «haqiqiy xalqchilligi» shiori ostida faoliyat yuritishga urinardi. Direktiv organlar o‘rta maktablar faoliyatining haqiqiy sharoitlarini yetarlicha hisobga olmas, o‘z qarorlarini amalga oshirish uchun quyi tashkilotlarga tegishli ko‘rsatmalar berishning o‘zi yetarli, deb hisoblar edilar. Natijada, qarorlarni amalga oshirish mexanizmi ishlab chiqilmagani sababli, ko‘plab qarorlar joylarda ijro etilmay qolardi. Bu esa ta'lim mazmuniga salbiy ta'sir ko‘rsatib, o‘quv jarayonining ikkinchi darajali ma'lumotlar va bevosita aloqador bo‘lmagan masalalar bilan ortiqcha yuklanishiga olib kelgan.

Aslida esa, byurokratizm, formalizm va ma'muriy buyruqbozlikdan voz kechib, xalq ta'limi organlari hamda maktablarga ta'lim tizimini mustaqil ravishda takomillashtirish imkoniyatini berish lozim edi. Bu esa ta'limni insonparvarlashtirish va gumanitarlashtirish, milliy o‘zlikni anglash hamda jahon madaniyati bilan integratsiyaga tayangan yangi ta'lim tizimini shakllantirishga xizmat qilar edi. Ammo amalda mazkur masalalar bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar ustidan ham doimiy nazorat va ma'muriy boshqaruv saqlanib qoldi.

Foydalanilgani adabiyotlar ro‘yxati:

1. Народное хозяйство Узбекской ССР за 70 лет Советской власти. Ташкент: Ўзбекистон, 1987. 251-б.
2. Справка о ходе выполнения госплана строительства общеобразовательных школ в УзССР.
3. O‘zMA. 17-f., 141- ro‘yxat, 2034-ish, 81-82-v.
4. Коммунист Узбекистана. 1988. № 5. 17-б.
5. O‘zMA. R-94-f., 7-ro‘yxat, 666-ish, 147-v.
6. O‘zbekiston KP Markaziy Komiteti va O‘zSSR Ministrlar Soveti tomonidan 1972 yil 18 iyulda qabul qilingan «Umumiy o‘rta ta'limga to‘liq o‘tishni yakunlash va umumta'lim maktabini yanada rivojlantirish to‘g‘risida»gi qaror.
7. 1973 yil 8 avgustdagi O‘zbekiston KP Markaziy Qo‘mitasi va O‘zSSR Ministrlar Sovetining qarori — KPSS Markaziy Qo‘mitasi va SSSR Ministrlar Soveti «Qishloq umumta'lim maktablari faoliyati sharoitlarini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori haqida.
8. Народное хозяйство СССР в 1983 г. М., 1984. 491-б.

MILLIY BAYRAMLAR ESTETIKASI STRUKTURASI VA UNING ASOSIY KOMPONENTLARI

G.M. Shadimetova
O‘zMU Ijtimioiy fanlar fakulteti
Falsafa kafedrasi dotsenti,
falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bayramlarning komponentlar tizimi ierarxik va funktsional jihatdan tahlil qilingan.*
Kalit so‘zlar: *milliy bayramlar, tashqi shakllar, ichki mazmun, simvolika, ritual, badiiy obraz, musiqa, raqs, liboslar, sahna ko‘rinishi, qadriyatlar, bayram estetikasi.*

Аннотация. *В данной статье система компонентов праздников анализируется с иерархической и функциональной точек зрения.*
Ключевые слова: *национальные праздники, внешние формы, внутреннее содержание, символика, ритуал, художественный образ, музыка, танец, одежда, сценическое представление, ценности, эстетика праздника.*

Abstract. *This article analyzes the system of holiday components from hierarchical and functional perspectives.*
Keywords: *national holidays, external forms, internal content, symbolism, ritual, artistic image, music, dance, costumes, stage performance, values, holiday aesthetics.*

Milliy bayramlar estetikasi muayyan ichki tuzilishga ega bo‘lgan murakkab ijtimoiy-estetik tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu tizim bir qator o‘zaro bog‘liq komponentlar – simvolika, ritual, badiiy obraz va estetik qadriyatlar tizimidan tashkil topgan bo‘lib, ularning har biri bayramning mazmun-mohiyatini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur komponentlar o‘zaro uyg‘unlikda amal qilib, bayramning estetik ta’sirchanligini ta’minlaydi.

Ushbu tuzilmaning murakkabligi, avvalo, uning ko‘p qatlamli xarakterida namoyon bo‘ladi. Ya’ni, bayram estetikasida tashqi shakllar bilan ichki mazmun o‘zaro bog‘liq holda mavjud bo‘ladi. Tashqi shakllar – musiqa, raqs, liboslar, sahna ko‘rinishlari va marosimlar orqali namoyon bo‘lsa, ichki mazmun – qadriyatlar, g‘oyalar va ma’naviy ma’nolar tizimi orqali ifodalanadi. Bu ikki qatlamning o‘zaro uyg‘unligi bayram estetikasining yaxlitligini ta’minlaydi.

Milliy bayramlar estetikasining ushbu strukturasi dinamik xarakterga ega bo‘lib, u ijtimoiy-tarixiy sharoitlarga mos ravishda o‘zgarib va takomillashib boradi. An’anaviy elementlar saqlanib qolgan holda, ular zamonaviy estetik talablar va madaniy tendentsiyalar bilan boyib boradi. Bu esa, bayram estetikasini statik emas, balki doimiy rivojlanuvchi tizim sifatida ko‘rish imkonini beradi.

Shuni ta’kidlash mumkinki, milliy bayramlar estetikasi strukturasi – bu o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi komponentlardan iborat bo‘lgan yaxlit tizim bo‘lib, u orqali jamiyatning ma’naviy, estetik va madaniy qadriyatlari ifoda etiladi hamda avloddan-avlodga uzatiladi.

Avvalo, simvolika bayram estetikasining markaziy elementlaridan biri hisoblanadi. Simvollar orqali bayramda muayyan ijtimoiy, madaniy va ma’naviy mazmunlar ifodalanadi. Ular ko‘pincha konkret predmetlar, harakatlar yoki tabiiy hodisalar orqali ramziy ma’no kasb etadi. Masalan, tabiatning uyg‘onishi, yangi hayotning boshlanishi, farovonlik va barqarorlik kabi g‘oyalar turli ramzlar orqali ifodalanadi. Simvolika bayramning semiotik tizimini tashkil etib, u orqali jamiyat o‘z qadriyatlari va dunyoqarashini vizual va hissiy shaklda namoyon qiladi. Shu jihatdan, simvollar bayram estetikasining ma’naviy mazmunini tashuvchi asosiy vosita hisoblanadi.

Simvolikaning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u real voqelikni bevosita emas, balki bilvosita belgilar va obrazlar orqali ifodalaydi. Bu esa, bayram estetikasini chuqur ma’noviy

qatlamlar bilan boyitadi. Simvollar orqali ifodalangan mazmunlar inson tomonidan nafaqat anglanadi, balki his etiladi va tajriba qilinadi. Shu jihatdan, simvolika estetik idrokning yuqori bosqichi sifatida namoyon bo‘lib, u orqali jamiyat o‘z ma’naviy tajribasini jamlaydi va namoyon etadi.

D.S. Qodirova ta’kidlashicha, milliy bayramlarda qo‘llaniladigan «ramzlar xalqning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi va ma’naviy qadriyatlarini mujassamlashtiruvchi muhim semiotik vosita hisoblanadi»[1]. Ushbu fikr simvollarning nafaqat estetik, balki ijtimoiy va madaniy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Abdulla Sher esa, simvollarning ma’naviy mazmuniga e’tibor qaratib, «ramzlar orqali inson va jamiyat o‘rtasidagi ma’naviy bog‘liqlik ifodalanadi, ular orqali abstrakt g‘oyalar konkret estetik shaklga ega bo‘ladi», deb ta’kidlaydi[2]. Bu yondashuv simvolikaning falsafiy va aksiologik ahamiyatini ochib beradi.

S.Allayarova tadqiqotlarida bayram simvolikasi «madaniy kommunikatsiyaning muhim vositasi bo‘lib, u orqali ijtimoiy tajriba va an’analar avloddan-avlodga uzatiladi», deb baholanadi»[3]. Bu fikr simvolikaning translyatsion funktsiyasini, ya’ni madaniy merosni saqlash va yetkazishdagi rolini yoritadi.

Shu tariqa, simvolika milliy bayramlar estetikasining markaziy va integrativ komponenti sifatida namoyon bo‘lib, u orqali jamiyatning ma’naviy qadriyatlari, ijtimoiy g‘oyalari va madaniy an’analari ramziy-obrazli shaklda ifodalanadi. Simvollar bayram estetikasining mazmuniy asosini tashkil etib, uning ta’sirchanligi va ma’naviy ahamiyatini ta’minlaydi.

Ikkinchidan, rituallar bayram estetikasining dinamik va amaliy komponenti sifatida namoyon bo‘ladi. Ritual – bu tarixiy jihatdan shakllangan va an’anaviy tarzda takrorlanib kelinadigan harakatlar tizimi bo‘lib, u orqali jamiyat o‘z madaniy tajribasini amaliy shaklda ifoda etadi. Rituallar bayramning barqarorligini ta’minlaydi, chunki ular orqali an’analar saqlanadi va avloddan-avlodga uzatiladi. Shu bilan birga, rituallar jamoaviy ishtirokni ta’minlab, insonlarda birlik va hamjihatlik hissini kuchaytiradi. Rituallarning takrorlanuvchi tabiati bayramga muayyan tartib va struktura baxsh etib, uning ijtimoiy va estetik ahamiyatini mustahkamlaydi.

Rituallarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ularda harakat, vaqt va makonning muayyan tartibga solingan shakli namoyon bo‘ladi. Ya’ni, har bir ritual aniq qoidalar va me’yorlar asosida amalga oshirilib, u jamiyat tomonidan qabul qilingan ma’naviy qadriyatlarning amaliy ifodasiga aylanadi. Bu esa, rituallarni nafaqat estetik, balki ijtimoiy tartibni ta’minlovchi mexanizm sifatida ham qarash imkonini beradi.

Mahalliy olimlar rituallarning bayram estetikasidagi o‘rnini alohida ta’kidlaydilar. Xususan, U.H.Qoraboev ta’kidlashicha: «Marosim va rituallar xalqning tarixiy tajribasi va ma’naviy qadriyatlarini amaliy harakatlar orqali ifoda etuvchi ijtimoiy institut hisoblanadi»[4]. Ushbu fikr rituallarning jamiyat hayotidagi barqarorlashtiruvchi va vorisiylikni ta’minlovchi funktsiyasini ochib beradi.

Rituallarning yana bir muhim jihati – ularning jamoaviylikni ta’minlash xususiyatidir. Bayram jarayonida rituallarda ishtirok etish orqali insonlar o‘zaro muloqotga kirishadi, umumiy harakat va his-tuyg‘ularni boshdan kechiradi. Bu esa, ijtimoiy birlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu ma’noda, rituallar bayram estetikasining integrativ komponenti sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Demak, rituallar milliy bayramlar estetikasining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ular orqali jamiyatning madaniy tajribasi, ma’naviy qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlari amaliy va estetik shaklda ifoda etiladi. Rituallar bayramning barqarorligi, ta’sirchanligi va ijtimoiy ahamiyatini ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Uchinchi muhim komponent – badiiy obrazlar hisoblanadi. Bayram estetikasida obrazlar musiqa, raqs, sahna ko‘rinishlari, xalq o‘yinlari, bezaklar va boshqa badiiy ifoda shakllari orqali namoyon bo‘ladi. Badiiy obrazlar insonning hissiy-emotsional dunyosiga bevosita ta’sir ko‘rsatib, estetik zavq uyg‘otadi hamda bayram muhitining ruhiy-estetik mazmunini

shakllantiradi. Ular orqali bayramning mazmuni nafaqat ratsional anglanadi, balki his etiladi, ya’ni estetik tajriba sifatida kechiriladi. Shu jihatdan, obrazlar bayram estetikasining ta’sirchanligini oshiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Badiiy obrazlarning muhim xususiyati shundaki, ular abstrakt g‘oya va qadriyatlarni konkret, ko‘rinarli va hissiy shaklga aylantiradi. Masalan, milliy birlik, farovonlik, tabiat uyg‘onishi yoki tarixiy xotira kabi g‘oyalar musiqa, sahna kompozitsiyalari va xalq o‘yinlari orqali jonli obrazlar sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa, bayram estetikasini nafaqat mazmunan, balki shaklan ham boyitadi. Obrazlar orqali ramziy mazmun vizual va audial ta’sir orqali inson ongiga chuqur singadi.

Shuningdek, D.S.Qodirova: «Badiiy obraz o‘zida uni yaratuvchi madaniyat va insonning ma’naviy energiyasini mujassamlashtiradi», deb baholaydi[5]. Ushbu yondashuv bayram estetikasida obrazlarning kommunikativ va ta’sirchan funktsiyasini ko‘rsatadi.

To‘rtinchi komponent – estetik qadriyatlar tizimi bo‘lib, u bayram estetikasining mazmuniy-aksiologik asosini tashkil etadi. Ushbu tizim go‘zallik, ulug‘vorlik, uyg‘unlik, birlik, hamjihatlik, ma’naviy poklik kabi universal va milliy qadriyatlarni o‘z ichiga oladi. Bayramlar orqali mazkur qadriyatlar estetik shaklda namoyon bo‘lib, jamoaviy ongga ta’sirchan usulda singdiriladi. Bu jarayonda qadriyatlar faqat nazariy tushuncha sifatida emas, balki hissiy-obrazli va amaliyotga yaqin shaklda qabul qilinadi.

Estetik qadriyatlar tizimining o‘ziga xos xususiyati shundaki, u insonning dunyoqarashini shakllantirish bilan birga, uning ma’naviy kamolotini ta’minlovchi ichki mezonlar tizimi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Bayram muhitida mazkur qadriyatlar jamoaviy tajriba orqali o‘zlashtirilib, inson ongida barqaror estetik va axloqiy mezonlarga aylanadi. Shu jihatdan, bayram estetikasi nafaqat estetik, balki aksiologik tizim sifatida ham talqin etiladi.

Bayram estetikasidagi qadriyatlar tizimi insonni ma’naviy tarbiyalash, estetik didini shakllantirish va ijtimoiy munosabatlarni uyg‘unlashtirishda muhim omil sifatida baholanadi. Estetik qadriyatlar bayram jarayonida badiiy obrazlar, rituallar va simvollar orqali namoyon bo‘lib, ularning mazmuniy birligini ta’minlaydi.

Demak, estetik qadriyatlar tizimi milliy bayramlar estetikasining markaziy mazmuniy asosi bo‘lib, u orqali jamiyatning ma’naviy-axloqiy va estetik ideallari shakllanadi, saqlanadi va avloddan-avlodga uzatiladi. Bu esa bayram estetikasini kompleks aksiologik tizim sifatida talqin qilish imkonini beradi. Ushbu tizimli bog‘liqlik, avvalo, bayramning mazmun va shakl birligini ta’minlaydi. Ya’ni, simvollar orqali ifodalangan ma’nolar rituallar jarayonida amaliy mazmun kasb etadi, badiiy obrazlar esa, ushbu ma’nolarni hissiy-estetik darajada qabul qilish imkonini yaratadi. Natijada, bayram ishtirokchilari nafaqat ma’lum bir g‘oyani anglaydi, balki uni his etadi va shaxsiy tajriba sifatida qabul qiladi. Bu esa, bayram estetikasining ta’sirchanligini yanada oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, milliy bayramlar estetikasining strukturasi uning mazmun va shakl birligiga asoslangan bo‘lib, mazkur komponentlarning o‘zaro integratsiyasi orqali jamiyatning ma’naviy, estetik va madaniy qadriyatlari ifoda etiladi hamda avloddan-avlodga uzatiladi.

Foydalanilgani adabiyotlar ro‘yxati:

1. Қодирова Д.С. Санъатнинг эстетик мезонлари. – Тошкент: Brok class servis, 2019. 74-б.
2. Шеров А. Эстетика. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014, 39-б.
3. Аллаярова С. Герменевтика. – Тошкент: 2017, 58-б.
4. Қорабоев У. Одатнома. –Тошкент: Ўзбекистон, 2016, 63-б.
5. Қодирова Д.С. Санъат эстетикаси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2022. 170-б.

O‘RTA OSIYO TARIXSHUNOSLIGINING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

Axmadjonova Gulnoza Rustamjon qizi,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islom tarixi va manbashunosligi IRCICA kafedrasi o‘qituvchisi
Orcid: 0001-0009-1588-2191

Xolmatov Baxodir Xolmuradovich,
Toshkent kimyo – texnologiya instituti
“Ijtimoiy – siyosiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Orcid: 0000-0003-1609-3494

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tarixshunoslik fanining mazmun-mohiyati, vazifalari hamda tarix fanlari tizimidagi o‘rni yoritilgan. Unda tarixshunoslikning manbashunoslik, arxeologiya, etnologiya va boshqa yordamchi fanlar bilan uzviy aloqasi ilmiy asosda tahlil qilingan. Shuningdek, O‘rta Osiyo o‘rta asrlar tarixshunosligining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda Beruniy, Narshaxiy, Juvayniy, Mirxond kabi tarixchilarning ilmiy merosi haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Tarixshunoslik, manbashunoslik, O‘rta Osiyo tarixi, o‘rta asrlar tarixshunosligi, tarixiy tafakkur, tarixiy manbalar, Temuriylar davri, mo‘g‘ullar istilosi, tarixiy xolislik, tarixiy jarayon, ilmiy meros, tarixiy analiz.*

Аннотация: *В данной статье освещаются сущность и содержание историографии, ее задачи и место в системе исторических наук. В ней на научной основе проанализирована неразрывная связь историографии с источниковедением, археологией, этнологией и другими вспомогательными науками. Также рассматривается формирование средневековой историографии Средней Азии, этапы ее развития, а также научное наследие таких историков, как Беруни, Наршахи, Джувейни, Мирхонд.*

Ключевые слова: *Историография, источниковедение, история Средней Азии, средневековая историография, историческое мышление, исторические источники, период Темуридов, монгольское завоевание, историческая объективность, исторический процесс, научное наследие, исторический анализ.*

Annotation: *This article highlights the essence and significance of historiography, its tasks, and its role within the system of historical sciences. It analyzes on a scientific basis the inseparable connection of historiography with source studies, archaeology, ethnology and other auxiliary sciences. It also discusses the formation of medieval historiography in Central Asia, the stages of its development, and the scientific heritage of historians such as Biruni, Narshakhi, Juvayni, and Mirkhond.*

Keywords: *Historiography, source studies, history of Central Asia, medieval historiography, historical thinking, historical sources, Timurid period, Mongol conquest, historical objectivity, historical process, scientific heritage, historical analysis.*

Kirish. Tarixshunoslik tarix fanlari tizimida o‘ziga xos mustaqil o‘ringa ega. Faning o‘z manbalari, tadqiqot usullari mavjuddir. Tarixshunoslik fanini oliy ta’lim tizimida o‘qitishdan asosiy maqsad talabalarda qadimgi davrdan hozirgi kungacha yaratilgan tadqiqotlar, ularning haqqoniyligi, qimmati, fikrlar xilma-xilligi, tarixiy shaxslar va voqealarni baholash, tarixiy bilimlarni to‘plash, tarixchilarning monografiya, ilmiy tadqiqot va maqolalarini o‘rganishda tarixiylik tamoyillarga asoslanib xulosa chiqarishga o‘rgatishdir.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Fanning vazifasi esa adabiyotlarning qiyosiy tahlilini amalga oshirish, tarixiy voqealarni tarixshunoslik nuqtai-nazaridan tahlil qilish, mualliflarni klassifikasiya (guruhlarga bo‘lib o‘rganish) qilishdir. Tarixshunoslikning ob’ekti tarixiy jarayonning o‘zi bo‘lmay, balki tarixiy tafakkur, uni o‘rganish, tarix haqidagi fan hisoblanadi.

Masalan, O‘zbekiston tarixida O‘rta Osiyoning ilk o‘rta asrlar tarixi mavzusida O‘rta Osiyo hududida ilk o‘rta asrlarda mavjud davlatlar, arablar istilosi, islom dinining yoyilishi, markazlashgan davlatlarning paydo bo‘lishi va hokazolarni o‘rganilsa, tarixshunoslik fanida esa bu davr tarixi o‘rta asrlarda, yangi davrda va bizning kunlarda qanday tadqiq etilganligini tahlil etadi.

Tarixshunoslik tushunchasi ikki ma’noda qo‘llaniladi:

1. Tarixiy bilimlar taraqqiyoti va tarixiy tadqiqot usullariga doir fan ma’nosida.

2. Muayyan tarixiy davrga yoki muammoga bag‘ishlangan tarixiy tadqiqotlar majmuasi ma’nosida (masalan, hozirgi davrda istorigrafiya).

Tarixshunoslik tarixiy bilimlar taraqqiyotini, muayyan tarixiy bosqichda yaratilgan yoki ma’lum bir muammoga bag‘ishlangan tarixiy tadqiqotlarni o‘rganadi va tahlil qiladi. Tarixshunoslik nafaqat tarix, balki maxsus tarix fanlari 3 (masalan, sharqshunoslik, etnologiya, arxeologiya va boshqalar) tarixi bilan ham shug‘ullanadi. Tarixshunoslikning asosiy vazifasi tarix fani rivojini chuqur va har tomonlama xolisona o‘rganish, muayyan taraqqiyot davrida to‘plangan tarixiy bilimlarni tahliliy tadqiq etishdan, amalga oshirilgan ishlarning natijasini chiqarishdan hamda shu asosda tadqiq etilgan dolzarb muammolarni aniqlab, kelgusi tadqiqotlarning yunalishlarini belgilashdan, tarixchilarni muayyan tarixiy ilmiy muammo doirasidagi adabiyotlarga yunaltirishdan iborat. Tarixshunoslik shuningdek, fan taraqqiyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan ilmiy tarixshunoslik markazlari tarixini, unda faoliyat ko‘rsatgan ilmiy kadrlarning salohiyati, ularning fan rivojiga qo‘shgan hissalarini o‘rganish kabi vazifalarni ham bajaradi.

Muhokama. Tarixshunoslik tadqiqotlarda tadqiqotchining vazifasi o‘zidan avvalgi bosqichlarda yaratilgan ilmiy asarlarni zamonaviy bilimlar nuqtai nazaridan o‘rganish, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini taxlil qilishdan iborat. Tarixshunoslik Vatan tarixini o‘rganishda, tarixiy muammolar ustida bahs yuritishga, ijodkorlikka ilhomlantiradi. Tarixshunoslikda eng asosiy e’tibor quyidagilarga qaratiladi: - tarixshunoslik tahlilining nazariy masalalari, metodologiyasi rivoji masalalari, mazkur soha nazariy va metodologik muammolari haqidagi fikrlar kurashi; - tarixchilar tomonidan o‘rganilayotgan mavzular, shuningdek masalani yoritishda jalb qilingan manbalarning kengayishi va o‘zgarishi evolyusiyasi; - ilmiy tahlil usullarining takomillashuvi, tadqiqotning manbashunoslik vositalari, manbalar tanqidi; - tarixiy materialni bayon qilish xarakteri, turli davrdagi tarixchilar stili.

Tarixshunoslik tarix fanining tarixini o‘rganuvchi fandir. Tarixshunoslik tarix faniga nisbatan yangi fan hisoblanadi. O‘rta asrlarda yaratilgan ba’zi tarixiy asarlarda, jumladan, Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» va «Hindiston», Abu Bakr Narshaxiyning «Tarixi Buxoro», Sharafuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Boburning «Boburnoma», Muhammad Yusufbek Bayoniyning «Tarixi Xorazm», «Shajarai Xorazmshohiy», Ahmad Donishning «Buxoro amirlarining tarjimai hollari» va boshqalarda muayyan ma’lumotlarni umumlashtirishga, fakt va tarixiy jarayonlar bayonida tahliliy yondashuvga bo‘lgan harakatlar kuzatiladi. O‘zbekistonda tarixshunoslikning akademik ma’nodagi institutsional shakllanishi XX asrning 60 yillarida, Fanlar akademiyasi Prezidiumining maxsus qarori bilan Tarix instituti bazasida tarixshunoslik sektorining tashkil etilishi bilan amalga oshdi.

1968 yilda Tarix instituti qoshida «Tarixshunoslik» sektori, keyinroq bo‘lim tashkil etilishi bu sohaning rivojiga katta hissa qo‘shdi (bo‘limni 1968-1988 yillarda tarix fanlari dri B.V.Lunin, 1988-1992 yillarda tarix fanlari nomzodi V.A.Germanov boshqargan, 1992 yildan esa tarix fanlari doktori, professor D.A.Alimova rahbarlik qilib keldi). O‘zbekiston FA Tarix instituti tashkil topgach, bir qator tarixshunoslar, jumladan, V.Ya. Nepomnin, R.N.Nabiyev, I.K. Dodonov, L.M.Landa, X.I.Inoyatov, B.V.Luninlar muayyan muammolarning tarixshunosligini tadqiq qilishga kirishdilar. Tarixshunoslik bo‘limi tomonidan o‘tkazish an’anaviy bo‘lib qolgan «Tarixshunoslik o‘qishlari» O‘zbekiston tarix fani sohasida amalga oshirilayotgan ishlarni sarhisob qilib boradi. O‘zbekistonda tarixshunoslik fani ilmiy maktablariga B. V. Lunin, G.I.Jeltova, F.H.Qosimov, R. Rajapova, D.A. Alimova kabi olimlar tomonidan asos solindi.

Mustaqillik yillarida tarixshunoslik tadqiqotlari ancha kengaydi. 5 ta doktorlik, 20 dan ortiq nomzodlik ishlari himoya qilindi. Ayniqsa, xorijiy tadqiqotchilar (AQSH, Koreya, Turkiya, Rossiya, Buyuk Britaniya, Germaniya) O‘zbekiston tarixshunoslari bilan ilmiy-amaliy aloqalar o‘rnatib, O‘zbekiston tarixshunosligining muhim muammolarini o‘rganishda davom etmoqdalar. Tarixshunoslik tarix fanlaridan manbashunoslik bilan juda yaqin aloqada bo‘lib, har bir davr manbalarning ko‘pligi, ularga tanqidiy yondashuv va foydalanish tarixiy tafakkurning, bilimning darajasi, saviyasini belgilaydi. Tarixshunoslikning rivojlanishida manbalar doirasining kengligi va o‘sha davrdagi tarixiy tadqiqot usuli asosiy omil hisoblanadi. Tarixiy tadqiqot usullarining takomillashishi (masalan: tanqidiy yondashuv, tarixiy taqqoslash va boshqalar), yangi (epigrafik, arxeologik, numizmatik) manbalarning paydo bo‘lishi tarix fanining saviyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Tarixshunoslik tarixning manbashunoslik, arxeologiya, etnografiya, numizmatika va lingvistika fanlari bilan chambarchas bog‘liq.

Natijalar. Tarixshunoslik va manbashunoslik tarix fanining muhim yo‘nalishlaridan biri, uning nazariy asosi hisoblanadi. Bugungi kunda tarixni o‘rganishda tarixshunoslik o‘zining uslubiy va texnik doirasidan chiqqan. Muammoning tarixshunosligini bilish tarixchi tadqiqodchining metodologiyasini aniqlab bersa, muammoga oid manbalardan xabardorlik unga adabiyotlar bilan qiyosiy solishtirgan holda xolis (ob’ektiv) xulosalarni chiqarishga imkon beradi. O‘tgan yillar mobaynida tadqiqotlarning metodologik bazasi ham yangilandi, tarix fani bilan arxeologiya, etnologiya, san’atshunoslik, sotsiologiya kabi yondosh fanlar o‘rtasida o‘zaro metodologik tajriba almashinuvi yuz berdi. Tarixshunoslik tadqiqotlarining bir qancha tahlil usullari mavjud:

Qiyosiy tarixiy usul - turli tarixiy davrlarda tarixiy ma’lumotlar qanday paydo bo‘ldi, harakatlandi, o‘zgardi va rivojlandi, jamiyat taraqqiyotida tarixiy fikrlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi jarayonini aniqlashda qo‘llaniladi;

Aniq tahliliy usul - olib borilgan tarixshunoslik tadqiqoti voqea-hodisalar tafsilotini kelib chiqish sabablari, rivojlanish jarayonini nazariy va faktik materiallarning o‘zaro aloqasida taxlil qiladi, ularning fanda qanday yoritilganligini o‘rganadi;

Mantiqiy tahliliy usul - tarixshunoslikda katta imkoniyatlarga ega bo‘lib, tarixiy muammoning o‘ziga xos xususiyatlari, tuzilishi, boshqa tarixiy hodisalar bilan bog‘liqligini o‘rganishda qo‘llaniladi.

Boshqacha aytganda, ma’lum bosqich yoki davrda tarix fanining rivojini jamiyat taraqqiyotining asosiy yo‘nalishi bilan bog‘liqlikda ifodalaydi; Xronologik usul - voqea-hodisalar haqida turli bosqich yoki davrda to‘plangan tarixiy faktlarni o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganishda qo‘llaniladi. Bu esa turli zamonda ilmiy fikrlarning harakatini, muammoga yondashuvda konsepsiyalar, qarashlar, g‘oyalarning o‘zgarib borishini xronologik tartibda takroriy yoki xilma xil jihatlarini ochib beradi; davriylashtirish usulida ma’lum bir tarixiy davriy chegarada tarix fanining sifat, uslub va xususiyatlarining o‘zgarishiga ijtimoiyiqtisodiy munosabatlarning ta’siri, har bir yangi bosqichda vujudga kelgan ilmiy g‘oyalarni harakatlantiruvchi omil va yo‘nalishlar aniqlanadi;

Retrospektiv tahlil - har bir ilmiy adabiyot o‘z davriga taalluqli bo‘lib, uning kuchli va kuchsiz jihatlarini o‘zida aks ettiradi [1].

Darhaqiqat, tarixshunoslikdagi bu kabi metodologik tahlillar tadqiqotchiga o‘tmish voqeligini shunchaki xronologik tartibda tizish emas, balki har bir asar va faktning ortida turgan ijtimoiy-siyosiy kontekstni anglash imkonini beradi. O‘rta Osiyo o‘rta asrlar tarixshunosligi misolida bu metodlar nafaqat manbalarning ishonchliligini tekshirish, balki o‘sha davr tafakkur darajasini restavratsiya qilish uchun ham zarurdir.

O‘rta asr tarixchisi Tabariy O‘rta Osiyoga arablarning yurishi haqida ham o‘z asarlarida ma’lumot berib o‘tgan.

O‘rta Osiyo o‘rta asrlar tarixshunosligi o‘zining boy manbaviy bazasi va rang-barang an’analari bilan ajralib turadi. Ushbu davrga oid tarixiy asarlarni tahlil qilishda zamonaviy tarixshunoslikning bir qancha fundamental usullari tizimli ravishda qo‘llaniladi. Xususan,

qiyosiy-tarixiy usul IX–XVI asrlar davomida tarixiy fikrning shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu usul orqali Somoniylar davridagi arab tilidagi klassik an'analardan Temuriylar davridagi fors va turkiy tillardagi bayon uslubiga o'tish jarayonlarini, g'oyaviy o'zgarishlarni qiyosiy o'rganish imkoniyati tug'iladi. Jumladan, Abu Bakr Narshaxiy "Buxoro tarixi" asarini yozishda mahalliy manbalardan foydalangan, shuning uchun shahar topografiyasi, madaniy hayot va yer-mulk munosabatlari haqida juda aniq faktlar beradi. Biroq, «qurbonlik» yoki mo''jizaviy voqealarni tasvirlashda afsonaviy uslubdan foydalangan. Uning ma'lumotlari 9-10 asrlarga oid arab geograflari (Mas'udiy, Istaxriy) ma'lumotlari bilan mos keladi. Biror tarixiy davrni o'rganishda muayyan davrda yaratilgan boshqa tarixiy asarlar bilan ham bevosita tanishib, qiyosiy-tarixiy tahlil asosida yozilishi talab etiladi.

Alovuddin Otamalik ibn Bahouddin Muhammad al-Juvayniyning (1226-1283) "Tarixi jahonkusho" asarida ham (1260 yilda yozib tugatilgan) sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati yoritilgan. Asar fors tilida yozilgan bo'lib, muallif Xurosonda tavallud topgan. Xorazmshoh haqidagi ma'lumotlar asarning birinchi qismida, Chingizxonning Turonga yurishlari bayonida keltirilgan. Asarning mazkur qismida sulton Jaloliddin Manguberdi hayotiga oid ma'lumotlar asosan uning mo'g'ullarga qarshi janglari (umumiy to'rt marta olib borilgan qarama-qarshilik) bilan bog'liq jumlalarda muallif tomonidan Jaloliddinning jasoratlari e'tirof etiladi. Vaholanki, Juvayniy asosan mo'g'ullar (hulokiylar) qo'l ostida faoliyat yuritgan shaxs hisoblanadi (1247-1283 yillarda kotiblikdan noiblikkacha bo'lgan lavozimlarda faoliyat yuritgan). Bu jihatdan O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, Tarix instituti kichik ilmiy xodimi Toirov Akobirning fikriga ko'ra, asardagi sulton Jaloliddinning jasoratlari xolisona yoritilgan deya hisoblashga zamin yaratadi [2]. Umuman "Tarixi jahonkusho" asari haqida berilgan ta'riflardan bilish mumkinki, undagi ma'lumotlarda muallifning mansublik jihatlari yaqqol ko'zga tashlanmaydi. Ya'ni muallif xolis tarixni bayon qilishga harakat qilgan. Amerikalik olim D.O. Morgan asarning ingliz tiliga tarjimasiga kirish qismini yozishda muallif va asarga quyidagicha ta'rif beradi "Insoniyat tarixida shiddati va vayronkorligi bilan o'chmas iz qoldirgan Chingizxon va uning imperiyasi haqida, Mo'g'ulistonda tashkil topishidan to hulokiylarning Erondagi hukumronligini o'rnatilishigacha bo'lgan tarixi mazkur asarda berilganligi bu voqeliklarni faktlar asosida o'rganishga va xulosa qilishga zamin yaratadi. Muallifning xolisona yondoshuvini deyarli har bir ma'lumotda uchratishingiz va guvohi bo'lishingiz mumkin… Asarda mo'g'ullarga qarshi kurashgan sarkarda va xalqlarning qarshiliklarini o'rin olishi mikrotarix uchun qimmatli faktlarga aylanadi [3]".

Demak, xronologik usul faktlarning to'planishi bilan birga, ilmiy xulosalarning vaqt o'tishi bilan qay darajada chuqurlashib va takomillashib borganini ochib beruvchi indikator vazifasini o'taydi. Bunda xolislik ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. O'rta asrlar O'rta Osiyo tarixshunosligining metodologik asoslari va rivojlanish bosqichlarini tizimli tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu davr tarixnavisligi shunchaki voqealar xronologiyasi emas, balki murakkab nazariy va uslubiy izchillikka ega bo'lgan ilmiy tizimdir. Tadqiqotning metodologik xulosasi sifatida ta'kidlash joizki, o'rta asrlar tarixiy manbalarini zamonaviy tarixshunoslikning qiyosiy-tarixiy, aniq tahliliy, mantiqiy va xronologik usullari yordamida o'rganish o'tmish voqeligini obyektiv va ko'p qirrali restavratsiya qilish imkonini beradi. Mazkur metodologik yondashuvlar majmuasi muayyan tarixiy asarni o'z davrining ijtimoiy-siyosiy kontekstida tahlil qilishga, muallifning dunyoqarashi va mafkuraviy bog'liqliklarini aniqlashga hamda faktlarning ishonchlilik darajasini yondosh fanlar yutuqlari bilan qiyoslagan holda tekshirishga xizmat qiladi.

Xususan, qiyosiy-tarixiy tahlil metodining qo'llanilishi IX–XII asrlar Sharq Renessansi davridagi klassik an'analarning keyingi bosqich — Temuriylar davri tarixnavisligiga ko'rsatgan tizimli ta'sirini va vorisiylik aloqalarini ochib beradi. Bu jarayonda tarix fani oddiy bayonchilikdan (rivoyat) mantiqiy mushohada va tanqidiy tahlil (diroyat) bosqichiga ko'tarilgani ma'lum bo'ladi. Beruniy asos solgan ilmiy xolislik tamoyili hamda Narshaxiy boshlab bergan

hududiy-monografik yondashuv Temuriylar davri mualliflari, jumladan, Sharafuddin Ali Yazdiy va Mirxond ijodida yangi sifat bosqichida davom ettirilgan. Aniq tahliliy usul esa Juvayniy kabi mualliflarning asarlarini o‘rganishda ularning shaxsiy pozitsiyasi va xizmat vazifasidan qat’i nazar, taqdim etilgan ma’lumotlarning faktik aniqligini arxeologik va hujjatli manbalar bilan solishtirish orqali isbotlashga imkon beradi. Bu esa tarixshunoslikni subyektiv yondashuvlardan xoli qilib, uni aniq dalillarga tayanuvchi fan darajasiga ko‘taradi.

Shu bilan birga, xronologik va davriylashtirish usullarining uyg‘unligi tarixiy tafakkurning evolyutsiyasini kuzatishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Masalan, mo‘g‘ullar istilosi kabi yirik burilish nuqtalariga berilgan baholarning vaqt o‘tishi bilan «falokat» prizmasidan «geosiyosiy zaruriyat» va yangi davlatchilik tizimi tahlili sari o‘zgarib borishi, tarix fani jamiyatning intellektual salohiyati va siyosiy buyurtmasi bilan uzviy bog‘liqligini tasdiqlaydi. Retrospektiv tahlil esa har bir tarixiy adabiyotni o‘z davrining mahsuli sifatida baholab, uning zaif va kuchli jihatlarini xolis ajratib ko‘rsatishga yordam beradi. Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, O‘rta Osiyo o‘rta asrlar tarixshunosligi o‘zining metodologik poydevori, janrlar rang-barangligi va tahliliy chuqurligi bilan jahon sivilizatsiyasi tarixida markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. Ushbu boy manbaviy merosni zamonaviy metodlar asosida tadqiq etish nafaqat mintaqa tarixini, balki butun insoniyatning intellektual taraqqiyot qonuniyatlarini anglashda fundamental ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgani adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat pedagogika instituti. Tarixshunoslik fanidan ma’ruzalar matni. – Qo‘qon, 2018.

2. Ata-Malik Juvaini. Genghis Khan: The History of the World Conqueror / transl. by J. A. Boyle, O. D. Morgan. – Massachusetts, 1958. – 422 p.

3. J. A. Boyle, O. D. Morgan. Genghis Khan: The History of the World Conqueror. – Massachusetts, 1958. – 412 p.

ERKIN IQTISODIY ZONALARNING ASOSIY IJTIMOIY-IQTISODIY KO‘RSATKICHLARI: YUTUQLAR, MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Saidmurodov Shohrux Akbarxo‘ja o‘g‘li,
Jizzax viloyati Pedagogik mahorat markazi,
“Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Orcid: https://orcid.org/0009-0004-5558-3052

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasidagi erkin iqtisodiy zonalar, xususan Navoiy, Angren va Jizzax misolida, ularning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlil qilinadi. Maqolada erkin iqtisodiy zonalarning investitsiyalarni jalb etish, yangi ish o‘rinlari yaratish va eksport salohiyatini oshirishdagi yutuqlari, shuningdek, faoliyat davomida yuzaga kelgan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ilmiy asosda yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Erkin iqtisodiy zona, investitsiya, ish o‘rni, eksport, sanoat, Jizzax, Navoiy, Angren, iqtisodiy ko‘rsatkichlar, soliq imtiyozlari.*

Аннотация. *В данной статье анализируются основные социально-экономические показатели свободных экономических зон в Республике Узбекистан, в частности на примере Навоийской, Джизакской и Ангренской зон. В статье освещаются достижения свободных экономических зон в привлечении инвестиций, создании новых рабочих мест и повышении экспортного потенциала, а также возникающие в процессе деятельности проблемы и пути их решения.*

Ключевые слова: *Свободная экономическая зона, инвестиции, рабочее место, экспорт, промышленность, Джизак, Навои, Ангрен, экономические показатели, налоговые льготы.*

Abstract. *This article analyzes the main socio-economic indicators of free economic zones in the Republic of Uzbekistan, particularly on the example of Navoi, Jizzakh and Angren zones. The article highlights the achievements of free economic zones in attracting investments, creating new jobs and increasing export potential, as well as the problems arising in the course of their activities and ways to solve them.*

Key words: *Free economic zone, investment, employment, export, industry, Jizzakh, Navoi, Angren, economic indicators, tax incentives.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirishning samarali vositalaridan biri sifatida erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) tashkil etila boshlandi. Mazkur zonalar dastlabki bosqichlarda xorij tajribasiga tayanib tashkil qilingan bo‘lsa-da, keyingi yillarda milliy iqtisodiyotning o‘ziga xos xususiyatlariga moslashtirildi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda Navoiy, Angren, Jizzax, Urgut, G‘ijduvon, Qo‘qon, Hazorasp va boshqa bir qator erkin iqtisodiy zonalar faoliyat yuritadi. Ulardan eng yiriklari va ko‘rsatkichlari jihatidan ahamiyatlilari – Navoiy, Angren va Jizzax EIZlari hisoblanadi.

Ushbu maqolada aynan shu uchta EIZning 2013 – 2023-yillar oralig‘idagi faoliyati, ularning iqtisodiy samaradorligi, investitsiyalarni jalb qilishdagi roli, aholi bandligiga qo‘shgan hissasi, shuningdek, eksport ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarishlar tarixiy-qiyosiy metod asosida tahlil qilinadi. Maqolaning asosiy maqsadi – EIZlardagi yutuqlarni aniqlabgina qolmay, ularning faoliyatidagi tizimli kamchiliklarni ochiqlash va ilmiy asoslangan yechimlarni taklif etishdir.

1. Erkin iqtisodiy zonalarning tashkil etilish tarixi va ularga bo‘lgan ehtiyoj.

O‘zbekistonda birinchi erkin iqtisodiy zona – Navoiy EIZ 2008-yil 2-dekabrdagi Prezident Farmoni asosida tashkil etilgan. Ushbu zonaning asosiy maqsadi – mavjud sanoat infratuzilmasi, xalqaro aэroport va tabiiy resurslardan foydalangan holda yirik investitsiyalarni jalb qilish edi [1]. 2012-yil 13-dekabrda Angren shahrida “Angren maxsus industrial zonasi”, 2013-yil 18-martda esa “Jizzax maxsus industrial zonasi” tashkil etilgan. Keyingi yillarda, xususan, 2016–

2017-yillarda ushbu zonalar faoliyatini kengaytirish va soddalashtirilgan soliq rejimini joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha normativ-hujjatlar qabul qilindi.

EIZlarni tashkil etishning asosiy iqtisodiy sabablari quyidagilardan iborat:

xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish;

import o‘rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish;

yangi ish o‘rinlarini yaratish va mahalliy aholi daromadlarini oshirish;

hududiy rivojlanishdagi nomutanosibliklarni bartaraf etish;

ilg‘or xorijiy boshqaruv va texnologik tajribani o‘zlashtirish.

Shu nuqtai nazardan, dastlab aynan Navoiy, keyin esa Angren va Jizzaxning tanlanishi bejiz emas: birinchisi sanoatlashgan va tranzit salohiyatga ega hudud, ikkinchisi esa an’anaviy kon sanoatiga ega bo‘lsa-da, qayta ishlash sanoati rivojlanmagan hudud (Angren), uchinchisi (Jizzax) esa sanoat salohiyati nisbatan past, ammo geografik jihatdan qulay joylashgan mintaqadir. Shu sababli, ushbu uchta zonaning faoliyat natijalarini taqqoslash orqali butun O‘zbekiston bo‘yicha EIZlar samaradorligi haqida ishonchli xulosa chiqarish mumkin.

2. Asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlili.

2.1. Investitsiyalar dinamikasi.

EIZlarning eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri – ularga kiritilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmidir. 2013-yilda Angren EIZda 10 ta investitsiya loyihasi ishga tushirilgan bo‘lsa, ularning umumiy qiymati 200 million AQSH dollariga yaqin edi. 2013–2016-yillarda ushbu zonada 16 ta loyiha amalga oshirilgan. 2017-yilga kelib esa, Angren EIZda qo‘shimcha 9 ta yangi investitsiya loyihasi boshlangan [2].

Jizzax EIZ esa 2013–2017-yillarda 20 ga yaqin loyihani ishga tushirgan. Ulardan biri – “PengSheng” qo‘shma korxonasi bo‘lib, uning qiymati 26,2 mln AQSH dollariga teng. Ushbu korxona charm va poyabzal ishlab chiqarish sohasida 800 dan ortiq aholini ish bilan ta’minladi [3].

2017-yilda O‘zbekistondagi barcha EIZlarda jami 65 ta loyiha amalga oshirilib, ularning umumiy qiymati 464 mln AQSH dollarini tashkil qilgan. Shundan Angren EIZdagi 8 ta loyiha qiymati 136,5 mln, Jizzax EIZ esa yana bir qancha loyihalarda aynan shu jamida ishtirok etgan [4].

2020–2022-yillarda Navoiy EIZga xitoy, turk, yevropa va rossiyalik investorlar tomonidan qo‘shimcha investitsiyalar kiritildi. Ayniqsa kimyo sanoati, qurilish materiallari, elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqarish sohalariga yo‘naltirilgan investitsiyalar salmog‘i sezilarli darajada oshdi.

Jadval 1. Tanlangan EIZlarning investitsiya ko‘rsatkichlari qiyosiy jadvali (manba: muallif dissertatsiya tadqiqoti asosida tuzilgan)

EIZ nomi	Tashkil topgan yili	2013–2017 yillardagi loyihalar soni	Jami investitsiya (mln AQSH dollari)	2020–2023 yillarda qo‘shimcha loyihalar
Navoiy EIZ	2008	22	420 mln	14
Angren EIZ	2012	16 (2013–2016) + 9 (2017)	136,5 (faqat 2017)	11
Jizzax EIZ	2013	20	106,0 (faqat 2013–2017)	15

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Navoiy EIZ investitsiya hajmi bo‘yicha yetakchi bo‘lsa-da, aynan Jizzax va Angren EIZlar 2013 yildan keyin tashkil etilganiga qaramay, nisbatan qisqa vaqt ichida faol investitsiyalarni jalb qilgan. Bu esa, bir tomondan, qabul qilingon qonunlarning ta’sirini, ikkinchi tomondan, investorlar ishonchining oshganligini ko‘rsatadi.

2.2. Ish o‘rinlari va bandlikka ta’siri

Ish o‘rinlari soni EIZlarning ijtimoiy samaradorligini belgilovchi ikkinchi muhim omildir. 2017-yilda barcha EIZlarda 4 200 dan ortiq yangi ish o‘rni yaratilgan. Shundan Angren EIZda 1 200, Jizzax EIZda 800 dan ziyod yangi ish o‘rinlari tashkil topgan [2-4].

Jizzax EIZda 2015–2021-yillar oralig‘ida korxonalar soni 8 tadan 35 tagacha oshgani ushbu raqamni yanada aniqlashtiradi (Jadval 2). Bu 4,4 barobar o‘sish demakdir.

Jadval 2. Jizzax EIZning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	2015 yil	2021 yil	O‘sish (marta)
Ishtirokchi korxonalar soni	8	35	4,4
Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (mlrd so‘m)	320,5	4 426,2	13,8
Eksport hajmi (mln AQSH dollari)	5,2	79,4	15,3
Yaratilgan ish o‘rinlari (to‘plangan)	234	2 860	12,2

(Manba: Jizzax EIZ yillik hisobotlari, 2015–2021)

Ushbu jadvaldan ma’lum bo‘lishicha, ishlab chiqarish hajmi 13,8 barobarga, eksport esa 15,3 barobarga oshgan. Ish o‘rinlari soni esa deyarli 12,2 barobarga ko‘paygan. Bunday ko‘rsatkichlar EIZlarning bevosita mahalliy aholi farovonligi va bandligiga ijobiy ta’sirini namoyish etadi. Ayniqsa Jizzax kabi sanoati nisbatan rivojlanmagan viloyat uchun EIZ kuchli lokomotiv vazifasini o‘tagan.

3. Yutuqlar.

Yuqoridagi ko‘rsatkichlar asosida quyidagi asosiy yutuqlarni aniqlash mumkin:

Investitsion jozibadorlik oshgan – 2013–2023-yillar oralig‘ida EIZlarga kiritilgan investitsiyalar hajmi o‘nlab barobarga oshgan.

Yangi ish o‘rinlari yaratilgan – faqatgina Jizzax EIZda 2021-yilga kelib 2 860 dan ortiq, Angren va Navoiy EIZlarida esa jami 10 000 dan ziyod aholi barqaror ish bilan ta’minlangan.

Mahsulot tarkibi diversifikatsiya qilingan – EIZlarda dastlabki yillarda asosan xom ashyo va yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo‘lsa, keyingi yillarda tayyor mahsulotlar, mashinasozlik va elektrotexnika buyumlari yetakchilik qilmoqda.

Eksport hajmi keskin oshgan – Jizzax EIZda 15 barobar, Angren EIZda 100 barobarga yaqin o‘sish kuzatilgan (2013–2017).

Mahalliy tadbirkorlik faollashgan – EIZlarning ta’sirida qo‘shma korxonalar soni ko‘paygan, xorijiy investorlar bilan hamkorlikda ishlaydigan mahalliy tadbirkorlar soni ortgan.

4. Muammolar.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, EIZlar faoliyatida quyidagi tizimli muammolar saqlanib qolmoqda:

Infratuzilma kamchiliklari – ba’zi EIZlarda, ayniqsa Angren va Jizzax zonasining ayrim qismlarida yo‘l transport, gaz, elektr energiyasi va suv ta’minotida uzilishlar va sig‘im yetishmasligi kuzatiladi. Bu esa ishlab chiqarish jarayonlarining barqarorligiga putur yetkazadi [5].

Mahalliy xomashyodan foydalanish darajasi past – ko‘plab korxonalar mahsulot ishlab chiqarish uchun xomashyoni import qiladi. Bu esa zonalarning eksport tushumlariga salbiy ta’sir qiladi (import qilingan xomashyo hisobiga qo‘shimcha xarajatlar ortadi, valyuta oqimi pasayadi).

Investitsiyalar samaradorligi yetarlicha emas – ba’zi loyihalarda yirik summalar o‘zlashtirilgan bo‘lsa-da, ularning mahsulot ishlab chiqarish va eksportga qo‘shgan hissasi mo‘ljaldan past.

Soliq imtiyozlarining noto‘g‘ri taqsimlanishi – asosan yirik xorijiy investorlarga mo‘ljallangan imtiyozlar mahalliy kichik va o‘rta biznesni yetarlicha rag‘batlantirmaydi.

Bandlikning mavsumiyligi va malaka yetishmovchiligi – ba’zi korxonalarda yuqori malakali ishchilar yetishmaydi, shuning uchun tashqi ishchi kuchiga murojaat qilinadi.

Ba’zi EIZlarda korxonalar soni va ularning iqtisodiy faolligi nomutanosib – hatto oldin tashkil etilgan Navoiy EIZda ham investitsiya hajmi va ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarida tebranishlar mavjud.

5. Yechimlar.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqish mumkin:

Infratuzilmani bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish – yo‘l, elektr, gaz va suv ta’minotini yaxshilashga yo‘naltiriligan alohida davlat dasturlarini qabul qilish. Eng avvalo, Jizzax va Angren EIZlar uchun qo‘shimby energiya quvvatlarini jalb qilish.

Mahalliy xomashyodan foydalanishni rag‘batlantirish – mahalliy yetkazib beruvchilar bilan uzoq muddatli shartnomalar tuzishni imtiyozli soliq rejimi bilan qo‘llab-quvvatlash. Import qilinadigan xomashyoga nisbatan bojxona to‘lovlarini bosqichma-bosqich oshirish, mahalliy xomashyo esa qo‘shimcha imtiyozlarga ega bo‘lishi kerak.

Investitsiyalar samaradorligini kuzatuvchi mustaqil tizim yaratish – har bir loyiha bo‘yicha yillik hisobotlar asosida samaradorlik indeksini joriy qilish (masalan, qo‘shimcha yaratilgan ish o‘rinlari, eksport o‘sishi, byudjetga tushumlar va import o‘rnini bosish darajasi bo‘yicha). Samaradorlik ko‘rsatkichlari past bo‘lgan loyihalarga imtiyozlarni qayta ko‘rib chiqish.

Soliq imtiyozlarini differensial qilish – yirik xorijiy loyihalar bilan birgalikda mahalliy kichik va o‘rta biznes uchun maxsus qisqa va o‘rta muddatli imtiyozlar joriy etish. Masalan, birinchi 2 yilda kichik biznesni foyda solig‘idan to‘liq ozod qilish, keyingi 3 yilda esa 50% imtiyoz berish.

Mahalliy kadrlar tayyorlash tizimini kuchaytirish – EIZlar va mahalliy kasb-hunar maktablari, texnikumlar, universitetlar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar. Ish beruvchining buyurtmasiga asosan malaka oshirish kurslari tashkil etish.

Monitoring va baholash tizimini takomillashtirish – O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan har bir EIZ uchun yillik samaradorlik reytingini joriy qilish va ommaviy e’lon qilish. Reyting ko‘rsatkichlari (investitsiyalar hajmi, mahsulot ishlab chiqarish o‘sishi, eksport ulushi, mahalliy xomashyo ulushi) asosida imtiyozlar muddatini qayta belgilash.

Ushbu yechimlar tajribada sinovdan o‘tkazilishi va bosqichma-bosqich joriy etilishi lozim. Zero, faqatgina normativ-huquqiy asosni takomillashtirish orqali emas, balki xususiy sektor, mahalliy ijro hokimiyati va investorlar o‘rtasidagi aloqalarni yaxshilash orqali EIZlardan kutilgan samaraga erishish mumkin.

Xulosa. O‘zbekistonda erkin iqtisodiy zonalar – Navoiy, Angren va Jizzax EIZlari 2013–2023-yillar davomida investitsiyalarni jalb qilish, sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish, eksport salohiyatini oshirish va aholi bandligini ta’minlashda salmoqli natijalarga erishdi. Biroq ularning barqaror va uzoq muddatli rivojlanishi infratuzilma kamchiliklari, mahalliy xomashyodan foydalanishning pastligi, ayrim loyihalarda investitsiyalar samaradorligi yetarlicha emasligi va soliq imtiyozlari tizimining nomutanosibligi tufayli murakkablashmoqda.

Foydalanilgani adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Navoiy viloyatida erkin iqtisodiy zona tashkil etish to‘g‘risida”gi F-4059-son Farmoni. // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008-y., 49-son, 478-modda.

2. UzDaily.uz (Toshkent, O‘zbekiston). “Ten projects implemented in SIZ Angren”. – 23-iyul, 2013.

3. Information Digest 43, 1-mart, 2017. Free Economic Zone “Jizzakh”. – 3-7 b.

4. Sputnik O‘zbekiston. “O‘zbekistondagi erkin iqtisodiy zonalarda 4 mingdan ortiq yangi ish o‘rin yaratiladi”. – Dekabr, 2017.

5. Rashidov M. Mintaqalarda erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini takomillashtirish dolzarbligi. // Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar. – Toshkent, 2021. – Aprel-iyun. – 32-39 b.

SHARQSHUNOS Y.E BERTELS JOMIYNING BORLIQ HAQIDAGI QARASHLARI XUSUSIDA

G‘ovsidinov Ma`ruf Nasridinovich,
SamDChTI “Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari” kafedrasi
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. *Maqolada buyuk sharq mutafakkiri Abdurahmon Jomiy qarashlarining o‘ziga xos tomonlari, uning ba’zi falsafiy asarlari tahlili asosida ochib berilgan. Shu bilan bir qatorda maqolada sharqshunos olim Y.E.Bertels qarashlari asosida Jomiy falsafiy qarashlari tahliliga ham alohida urg‘u berilgan.*

Kalit so‘zlar. *Tasavvuf, mohiyat, borliq, Bertels, A.Shimmel, S.Trimingem Ibn al-Arabiy, Jomiy, Fano, Qasidayi hamriya,Vahdat ul-vujud, Haft Avrang, so‘fiylik, shariat.*

Аннотация. *В статье раскрываются специфические аспекты взглядов великого восточного мыслителя Абдурахмана Джами на основе анализа некоторых его философских трудов. При этом особое внимание в статье уделяется анализу философских взглядов Джоми с опорой на взгляды ученого-востоковеда Е.Э.Бертельс.*

Ключевые слова*. Суфизм, сущность, существование, Бертельс, А. Шиммель, С. Тримингем, Ибн аль-Араби, Джами, фано, «Касидаи хамрия», «Вахдат ул-вуджуд», «Хафт Авранг», суфизм, шариат.*

Abstract*: The article reveals the specific aspects of the views of the great oriental thinker Abdurahman Jomi, based on the analysis of some of his philosophical works. At the same time, the article also places special emphasis on the analysis of Jomi's philosophical views based on the views of the orientalist scholar Y.E. Bertels.*

Keywords*. Sufism, essence, being, Bertels, A. Schimmel, S. Trimingham Ibn al-Arabi, Jami, Fano, Qasidayi hamriya”, “Wahdat ul-wujud”, “Haft Avrang”, Sufism, Sharia.*

Y.E.Bertelsning tasavvuf ilmiga bag‘ishlab yozilgan asarlari, asosan XX asrning 20-yillarda yozilgan bo‘lib, uning adabiyotga bo‘lgan qiziqishi o‘sha davrdagi ilm-fan holati bilan izohlanadi. Xorijiy va sharqshunoslik sohasida olib borilgan tadqiqotlar o‘rta asr “fors she’riyati”, qisqartirilgan epos, saroy she’riyati, nihoyasiz tushunchalarga to‘la bo‘lib, aynan so‘fiylikdan bevosita tasavvuf va ularning ishlarini tushunish uchun kalitni istisnoda topish mumkin deb ishonishgan. Shu bilan birga, tasavvufni jiddiy o‘rganish endigina boshlangan edi (XX asrning birinchi o‘n yilligiga kelib, R. Nikolson va L. Massignonning mumtoz asarlari paydo bo‘lishi).

Manbalarda keltirilishicha, “suf” so‘zining mutlaq ma’nosi poklikni anglatadi. So‘fiylar, o‘z navbatida, Xudoga yaqinlashish uchun qalblarini sof saqlashga harakat qilishgan. So‘fiylik kelib chiqishining yana bir ilmiy asosi shundaki, so‘fiy so‘zi yunoncha “sophia” so‘zidan olingan bo‘lib, tarjima qilinganda “donolik” ma’nosini anglatadi. “Suf” so‘zining asl lug‘aviy ma’nosi esa, jun va undan to‘qilgan mato bo‘lib, so‘fiylar ko‘pincha junli chakmon kiyib yurishni odat qilishgan. Shu bois ularni jun kiyim kiyib yuruvchilar, ya’ni so‘fiylar deb ataganlar. So‘nggi etimologik ma’no haqiqatga bir muncha yaqinroqdir, so‘fiy so‘zining «suf» so‘zidan kelib chiqishi arab tili qonun-qoidalariga to‘la mos keladi.

Y.E.Bertels Jomiyning qo‘lyozma asarlarini o‘rgangan holda uning so‘fiy-panteistik qarashlarini tahlil qiladi. U “Vahdat ul-vujud” ta’limotining paydo bo‘lishi, rivojlanish bosqichlari va nazariy asoslarini atroflicha tasniflashga harakat qiladi. Olimning qayd etishicha, Jomiy falsafiy qarashlarining asosini aynan “Vahdat ul-vujud” ta’limoti tashkil etadi. Uning ilmiy merosi tasavvufning amaliy hamda nazariy tomonlarini nafaqat ochib beradi balki, uni rivojlantirishga ham ulkan hissa qo‘shadi. Bu esa, hozirgi kunda bir qator G‘arb olimlarida katta qiziqish uyg‘otmoqda. Abdurahmon Jomiy, O‘rta asrlarning eng yirik faylasuflaridan biri

sifatida, Sharqning ma’naviy va intellektual merosida muhim o‘rin egallaydi. Uning boy ilmiy merosi, ayniqsa axloq va ruhiyat masalalariga bag‘ishlangan asarlari, hozirgi kunda ham shaxs va jamiyatning axloqiy hamda intellektual rivojiga chuqur ta’sir ko‘rsatib kelmoqda. Jomiy ta’limoti falsafiy tafakkur va tasavvufiy idrokning chuqur uyg‘unligini aks ettirib, insonning ichki kamolotga erishishi, axloqiy poklanishi hamda ilohiy haqiqatni anglashga intilishini ta’kidlaydi.

Y.E.Bertelsning xulosalariga ko‘ra, Jomiy falsafiy asarlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, u o‘z fikrini ifodalashda Qur’on oyatlari yoki Payg‘ambar hadislaridan keng foydalanadi. Mantiqan olib qaralganda, sharh muallifi ularni yoritishga loyiq deb tan olgan bo‘lsa, so‘fiylikda hukmronlik qilgan itoatkorlik qoidasi unga salafiylikni shunchalik keskin tanqid qilishga yo‘l qo‘ymas edi. Bunday fikrlar shoirning ayrim to‘rtliklari unga tegishli emas, degan farazni keltirib chiqaradi. Yozuvchi A.N.Bodlyan qo‘lyozmalarida Jomiyning asarlari o‘ziga tegishlidir, deb ko‘rsatilgan. Ch.Riyo esa, hech qanday sababga asoslanmasdan o‘zining ayrim qaydlarida bu fikrlarni rad etadi. Y.E.Bertelsning fikriga ko‘ra, Jomiyning uchta devoni nomalum bo‘lib, buning ajablanarli joyi yo‘qligi sababi, ular sharh bilan bir butunni tashkil qilishini ta’kidlaydi. Balki, shu boisdan ular nasriy asarlar sarlavhasi ostiga tushib, devonga kiritilmagan bo‘lishi ham mumkin.

Shuningdek, Y.E.Bertels ham ularni yozilish tili nuqtayi nazaridan Jomiyniki ekanligini asoslaydigan biron-bir sababni ko‘rsatmaydi. Ular chiroyli tilda, sun’iy qisqartirishlariz yozilgan bo‘lib, arabcha so‘zlarga boydir. U so‘zning eng buyuk ustasi, tasavvuf falsafasining bilimdoni tomonidan yozilganligiga hech qanday shubha yo‘q. Albatta, bu xususiyatlarga Jomiy to‘liq da’vo qilishi mumkin.

Jomiyning irfoniy- falsafiy qarashlarini g‘oya, mavzu, mazmun, mohiyat, ilmiylik va badiiylik janr va shakl jihatlaridan o‘rganib, ularni quyidagicha tavsiflash mumkin:

a) “Vahdat ul-vujud” ga doir falsafiy-irfoniy asarlarga yozilgan sharhlar;

b) “Vahdat ul-vujud” nazariyasiga mutafakkir tomonidan yozilgan falsafiy-irfoniy sharhlar;

v) Falsafiy-irfoniy mazmundagi asarlarga bag‘ishlangan sharhnomalar.

g) Naqshbandiylik tariqati shayxlari tomonidan aytilgan so‘zlarga atab yozilgan “vahdat ul-vujud” mavzusiga oid sharhlar.

Jomiy, Xudo va borliq mohiyati o‘rtasidagi birlikni ko‘radi. Jomiy borliqni mavjudlik, ya’ni substansiya sifatida tasvirlaydi. Guyo u mohiyatan mavjud emas, unda, borliq faqat substansiyadir, degan fikr ustunlik qiladi. Y.E.Bertelsning ta’kidlashicha, Jomiy mutlaq borliqning uch xil shaklini ajratib ko‘rsatdi. Jomiy nuqtai nazaricha, barcha yaratilgan narsalar Allohga tegishlidir. Borliqdan boshqa narsalar ko‘zlar oldida ko‘rinishi uchun mavjudlik kerak. Zarur narsalarga ehtiyojning paydo bo‘lishi, uning tavsifini yuzaga chiqaradi va isbotlashga zamin yaratadi. O‘z-o‘zidan mavjud bo‘lmagan har qanday hodisa uning mavjudligi uchun mavjudotning boshqa turiga ehtiyoj bor, bu mavjudlikdir. Jomiyning fikricha, mavjudlikka muhtoj bo‘lgan har bir narsa “muqarrar ravishda mavjud” bo‘lishi mumkin emas.

Xudoning mavjudligi to‘g‘risida ikki maktab o‘rtasida mavjud farqlar shundaki, ular borliqni namoyon bo‘lishi borasidagi qarashlari bilan farqlanadi. Birinchi maktab bu - faylasuflar maktabi bo‘lib, ularning ta’kidlashicha, Xudo namoyon bo‘la olmaydi, chunki tashqi olamdagi universallik o‘zini ko‘rsata olmaydi. Xudo o‘z mohiyati doirasidan chiqishi, ya’ni uning vujudi mohiyati bilan qoplanishi kerak, chunki uning vujudi uning mohiyati bilan qoplanadi. Ikkinchi maktab vakillari so‘fiylar esa, mavjudlik birligini etirof etadilar.

Y.E.Bertelsning ta’kidlashicha, Alloh tabiat, jamiyat va insonni emanatsiyasidir. Inson mukammallikka intilishi kerak, chunki buning uchun unga asos berilgan. Aqlli odam Xudo mujassam etgan eng yuqori haqiqatga erishish uchun qiyin va og‘riqli yo‘lni tanlaydi va unga bir necha bosqichlar orqali etib borgach, o‘zi ilohiy mohiyatiga ko‘ra haqiqatga aylanadi. Bu bosqichda u faqat ilohiy vahiy va shariat qonunlarida buyurilgan narsani qiladi. Bunday yuksak darajada kamolga erishgan inson nafaqat haqiqatga balki o‘zi ilohiy haqiqat tantanasining faol

kurashchisiga aylanadi. Shuning uchun bir qator so‘fiylar o‘zlarini “analhaq” أنالحق- ya’ni, Allohning mohiyatini o‘zida mujassam etgan haqiqatda ko‘rishadi.

Shunday qilib, Ilohiy mohiyatga ikki tomondan yondashish mumkin: Birinchisi, mutlaqlik, harakat, faollik, borlik va yo‘qlik- bu zaruriy xususiyatlarga ega bo‘lgan mavjud ilohiylik darajasidir. Boshqa tomondan esa, nisbiylik, turg‘unlik , pasayish, xolatlari orqali mavjudlikni qabul qilish - bu dunyoning mohiyatini noaniq tushunishdir. Jomiyning fikricha, bu ikkala tomon mavjud xususiyatlarga ega bo‘lganida uchinchisida albatta birlashishi muqarrardir. Bu uchinchi mohiyat esa birlik yoki mukammal inson maqomiga yetishishdir. Ong bevosita, mohiyat, bilish, borliqqa nisbatan eng aniq tushunchalardir. Ularning haqiqiy xususiyatlari yashirin paydo bo‘ladi. Ularning namoyon bo‘lishi aniq tushunchalarga egadir. Xudoning mohiyati dunyodagi eng yaqin, shu bilan birga eng tushunarsiz hodisadir, chunki abadiy bo‘lgan narsa va hodisalar faqatgina abadiy bo‘lgan narsa va xodisalarni anglashi mumkin. Biroq, Xudoning borligi, mavjudot sifatida qabul qilinmagan, faqat haddan tashqari dalillardan eng anig‘i samimiyidir. Agar Xudoning borligi bir lahzaga ham to‘xtab qolsa, butun mavjudot yo‘q bo‘lib ketar edi, uning borligi shu bilan o‘z isbotini topar edi. Inson qayerga qaramasin albatta Xudoni ko‘radi.

Tasavvuf adabiyotida go‘zallikka sig‘inish, Xudoga bo‘lgan muhabbat yer yuzidagi muhabbat shaklida talqin qilingan. So‘fiylik panteizmining asoschisi Ibn al-Arabiy - shunday deb yozgan edi: “Siz Xudoni har qanday moddiy talqinda ko‘rishga urinmang. Xudoning ayoldagi ko‘rinishi eng mukammaldir”. Tasavvuf adabiyotiga xos bo‘lgan odamlar o‘rtasidagi sevgi so‘fiy adabiyotida ilohiy muhabbat sifatida qo‘llaniladi”. Shu boisdan doimo muhabbat tarannum etilganda, “shakl” nuqtayi nazaridan olsak dunyoviy muhabbat ustunligini mohiyat tomondan esa, yaratganga bo‘lgan ishq nazarda tutiladi. Jomiy panteistik qarashlariga ko‘ra, sevgi barcha dunyoviy aloqadorliklar va yerdagi lazzatlar - nafsdan xalos bo‘lgan sevgilisining samimiy qalbini talab qilishini ko‘rish mumkin. Jomiy ham boshqa so‘fiy-panteistlar kabi hissiyotni tinchlantirish, sevgilisiga bo‘lgan muhabbat alangasida ehtirosli yonish va undan ajralishdan aziyat chekish, sevgilisi bilan aloqa qilish paytlarida ruhning ekstatik mast bo‘lishida ko‘radi. Ular uchun tariqat sevgiga yurakni tayyorlashdir, sevgini topish esa Haqiqatdir.

Ibn al-Arabiyning “Vahdat ul-vujud” tushunchasi, uning falsafiy asarlari so‘fiylarning mafkuraviy izlanishlarini va keng qamrovli tizimli tahlillarni o‘z ichiga oladi. Mutafakkirning falsafiy asarlarini “musulmon ezoterizm ensiklopediyasi” deb atash mumkin. Aynan shu ko‘p qirralilikda Ibn al-Arabiy g‘oyalarida o‘ziga xoslik xususiyati mavjud bo‘lib, bu olimlar va ilohiyotchilar o‘rtasida katta qiziqish uyg‘otadi va shu bilan birga ziddiyatli masalalarni ham keltirib chiqaradi.

Jomiy mutafakkir Ibn al-Arabiy asarlari sharhlovchisi bo‘lishi bilan birga buyuk Sanoiy va Attor asarlariga muxlis ham bo‘lgan. Jomiy o‘z asarlarida Shabistoriyning falsafiy qarashlariga katta e’tibor bergan, ularni sharhlagan. Y.E.Bertels “O‘ziga nisbat berilgan ruboiylarga Abdurahmon Jomiyning sharhi” maqolasida “Vahdat ul-vujud” talimoti haqida o‘z qarashlarini izohlaydi. Mutafakkir islom diniga oid turli xil g‘oyalarni birlashtirishga harakat qilgan. Mazkur anana G‘azzoliy davrida boshlangan bo‘lib, Jomiy tasavvuf va ishrakizm g‘oyalarini muvaffaqiyatli uyg‘unlashtirilgan.

Foydalanilgani adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бахриева Дилфуза Хакимовна.дисс. Гуманистическая сущност суфийских воззрений Абдурахмана Джами Диссертатсия на соискание ученой степени доктора философии (пхд) по философским наукам. Самарканд – 2020.-С.34.

2. Komilov Najmiddin.Tasavvuf. –Toshkent: “Movaraunnahr” – “O‘zbekiston”. 2009. - B.11

3. Govsidinov M. N. The role of abdurahman jami's ethical views in the education of a perfect generation. Journalnx- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN No: 2581 - 4230 volume 10, issue 12, December – 2024 p.1

BOSHQARUV MA'NAVIYATI VA RAHBAR AXLOQIY MADANIYATINING DIALEKTIK ALOQADORLIGI

Boygaziyev Tulqin Inatullayevich,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
katta o'qituvchisi
https://orcid.org/0009-0003-1275-9700

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonda davlat xizmatchilarining yangi avlodini shakllantirish jarayonida boshqaruv ma'naviyati va rahbar axloqiy madaniyatining dialektik aloqadorligi ijobiy (pozitiv) yondashuv asosida tahlil qilingan.*
Kalit so'zlar: *boshqaruv ma'naviyati, rahbar axloqiy madaniyati, davlat xizmatchisi, dialektik aloqa, yangi avlod, ruhiy yetakchilik, ijtimoiy manfaat, qadriyatlar integratsiyasi.*

Аннотация. *В данной статье на основе позитивного подхода анализируется диалектическая взаимосвязь между духовностью управления и этической культурой руководителя в процессе формирования нового поколения государственных служащих в Новом Узбекистане.*
Ключевые слова: *духовность управления, этическая культура руководителя, государственный служащий, диалектическая связь, новое поколение, духовное лидерство, социальный интерес, интеграция ценностей.*

Annotation. *This article analyzes the dialectical relationship between management spirituality and the ethical culture of a leader within the process of forming a new generation of civil servants in New Uzbekistan, utilizing a positive approach.*
Keywords: *management spirituality, ethical culture of a leader, civil servant, dialectical relationship, new generation, spiritual leadership, social interest, value integration.*

Zamonaviy dunyoda davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish va uning samaradorligini oshirish bevosita inson omili, xususan, rahbar kadrlarning ma'naviy-axloqiy qiyofasi bilan bog'liqdir. "Yangi O'zbekistonni barpo etish va uni rivojlanishning yangi marralariga olib chiqish sharoitida, yuksak bilim va tafakkurga, chuqur ma'naviyat va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan davlat xizmatchilarining yangi avlodini shakllantirish birlamchi zaruriyatga aylanmoqda. Zero, har qanday strategik islohotlarning amaliy natijasi davlat xizmatchisining qalbida, ongu shuurida Vatanga sadoqat, adolat mezoni, insonparvarlik, vijdon amri va burchga sodiqlik tuyg'ulari qanchalik chuqur ildiz otganligi bilan belgilanadi. Buyuk yunon olimi Arastuning "Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi", - degan fikri aynan shunga monand haqiqatdir" [1, 2020 yil. 30 sentabr]. Qolaversa, qomusiy olim Abu Nasr Forobiy ta'kidlaganidek, – "... inson baxt-saodatga erishuvi uchun ularni baxtli-saodatli qila oladigan jamoa rahbari zarur"ligi hamma vaqt ahamiyat kasb etadi" [2, 1993. 193 -b].

Albatta, mazkur mulohazalardan jamiyatning baxtli yashashi rahbar ma'naviyatiga ko'p jihatdan bog'liq ekanligi oydinlashadi. Shu bois boshqaruv va rahbarlik ma'naviyatining dialektik aloqador ma'naviy-axloqiy xususiyatlari xususida fikr yuritganda, eng avvalo, boshqaruv ma'naviyati nima, uning dialektik aloqalari nimalarga va qanday omillarga bog'liqligini aniqlashtirib olish lozim bo'ladi.

"Davlat xizmatchisi boshqaruv faoliyatida ma'naviy-axloqiy madaniyat ustuvorligi kuchli boshqaruvni, xalq ishonchini va samarali xizmat ko'rsatishni ta'minlovchi muhim jihatdir. Siyosat va axloq masalasi qadim zamonlardan beri katta munozaralarga sabab bo'lib keladi. Idora tizimida boshqaruv va yetakchilik ma'naviyati o'rtasidagi dialektik munosabatlar bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikkita tushunchaning o'zaro ta'sirini ifodalaydi, ammo ular bir-birini to'ldirishi va mustahkamlashi mumkin. Boshqaruv har qanday tashkilot faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va boshqarishni o'z ichiga oladi" [3, 2021. -304 c].

Bu cheklangan resurslardan foydalangan holda aniq maqsadlarga erishishga qaratilgan yanada rasmiylashtirilgan va tartibga solingan yondashuvdir. Bir qator olimlar boshqaruvning asosiy xususiyatlarini maqsadlarni va ularga erishish yo‘llarini aniq belgilash, resurslar va mas’uliyatni taqsimlashni to‘g‘ri tashkillashtirish, topshiriqning bajarilishini kuzatish, og‘ishlar va rivojlanishni nazorat qilish, maqsadlarga erishish uchun xodimlarni rag‘batlantirish kabi mezonlar bilan belgilaydilar.

“Rahbarlik ma’naviyati esa shu faoliyatga bilim, zakovat va o‘quvning qanchalik singganligi bilan aniqlashtiriladi” [4, 2001. 160 -б].

Rahbarlik ma’naviyati axloq, qadriyatlar, ma’no yaratish va shaxsiy rivojlanishga urg‘u beradi. Bu rahbar va izdoshlar o‘rtasida mazmunli va hissiy aloqani yaratishga qaratilgan yanada intuitiv va gumanistik yondashuvni taqozo etadi.

“Rahbarning ish talablari va huquqiy vakolatlariga zid bo‘lganda ham u rasmiy talablar va insoniy ehtiyojlarni uyg‘unlashtirish yo‘llarini topishi zarur. Shunga ko‘ra boshqaruv va rahbar ma’naviyati o‘rtasidagi dialektik munosabatlar ularning bir-birini to‘ldirish, yanada uyg‘un va samarali tashkiliy muhitni yaratish qobiliyatida namoyon bo‘ladi” [5, 2022. C. 122-185].

Ma’naviy jihatlar boshqaruvni axloqiylashtirish va odamlarga yo‘naltirishga yordam beradi. Amalda ruhiy yetakchilar ishonch va o‘zaro hurmat muhitini yaratish bilan birga, xodimlarni yuksak maqsadlarga erishishga ergashtira oladilar. Z.Freydning ta’kidlashicha, ruhiy yetakchilikning sabab nazariyasi ko‘rish, umid, ishonch va altruistik muhabbatni ta’kidlaydi. Ushbu nazariya ish joyidagi ma’naviyatni birlashtirish, shaxsiy va tashkiliy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish orqali yuqori darajadagi tashkiliy majburiyat va samaradorlikni oshirishga qaratilgan.

Ma’naviyatli rahbar boshqaruv uslublaridan foydalangan holda yuqori tashkiliy intizom va samaradorlikni ta’minlashi, ilg‘or g‘oyalarni samarali amalga oshirishi va oxir-oqibatda yuksak malakali va madaniyatli xizmat guruhini shakllantirishi mumkin.

Boshqaruv va ma’naviy salohiyat muvaffaqiyatli birlashtirilgan faoliyatda quyidagi samarani ko‘rish mumkin:

xodimlar ishonch va obro‘ni oshiradigan axloqiy mas’uliyat bilan ishlaydilar;

jamoada hamjihatlik, o‘zaro hurmat va qadriyatlarga asoslangan intilishlar madaniyati mavjud bo‘ladi va bu xodimlarning faolligi va qoniqishini oshiradi;

o‘z jamoasiga xizmat qiladigan rahbar ularning rivojlanishi va farovonligini qo‘llab-quvvatlaydi, bu esa yuqori samaradorlik va sadoqatga olib keladi.

Umuman aytganda, boshqaruv va rahbar ma’naviyati o‘rtasidagi dialektik aloqa - bu tashkilotning samaradorligi va barqarorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin bo‘lgan murakkab, ammo samarali o‘zaro ta’sir. Boshqaruv va ma’naviy rahbarlik integratsiyasi xodimlarda nafaqat maqsadlarga erishish, balki shaxsiy rivojlanish va ishdan qoniqish hissi va muhitni yaratishga yordam beradi.

“Qadriyatlar integratsiyasini ta’kidlovchi zamonaviy falsafiy qarashlarda ma’naviyat ham boshqaruv ham rahbarlik qadriyatlarini birlashtirishi mumkin” [6, 2004. 196 -b]. Bu qarorlar qabul qilish jarayonlarini xabardor qiluvchi, tashkilot amaliyotini yaxlitlik, hamdardlik va maqsad kabi chuqurroq qadriyatlar bilan uyg‘unlashtiradigan axloqiy asosni ta’minlashga olib boradi. Boshqaruv aksariyat hollarda me’yorlar belgilab beruvchi hujjatlar va uslubiy yondashuvlarga qarab baholanadi, rahbarlik esa idrok va uquvga tayanadi. Rahbarlar va xizmatchilarning uyg‘un qarorlar qabul qilishlari uchun o‘zlarining tahliliy qobiliyatlari va intuitiv tushunchalaridan foydalanishga undash orqali ma’naviyat bu jihatlarni birlashtiradi. Shuning uchun ma’naviyatning boshqaruv va rahbarlik amaliyotiga integratsiyalashuvi yanada samarali, mehr-oqibatli va sodiq tashkilot muhitini ta’minlaydi. Ma’naviy qadriyatlar va amaliyotlarni o‘zida mujassam etgan rahbarlarning o‘z jamoalarida yuqori samaradorlik va qoniqish darajasini ilhomlantirish, rag‘batlantirish va saqlab qolish ehtimoli ko‘proq bo‘ladi.

Boshqaruv va yetakchilik ma’naviyati o‘rtasidagi dialektik munosabatlar ushbu tushunchalarning tashkiliy kontekstda qanday o‘zaro ta’sirga kirishadi?

Boshqalarni umumiy maqsadga yo‘naltirish va ilhomlantirish harakati, ko‘pincha qarash, ta’sir va motivatsiyani ta’kidlaydi. [7, 2004. 138 -b].

Hayotning moddiy jihatlaridan tashqari qadriyatlar, maqsad va ma’nolarni o‘z ichiga olishi mumkin bo‘lgan o‘zidan kattaroq narsa bilan bog‘lanish hissi ko‘pincha xizmatchilarni axloqiy qadriyatlarga emas, iyerarxik va xizmat qonuniyatlarini ustuvor ko‘rishiga olib boradi.

Ijtimoiy manfaatlar, boshqaruv maqsadlari va rahbar ma’naviyatining o‘zaro bog‘liqligi davlat xizmati va jamiyatning barqaror, uyg‘un rivojlanishida zaruriy shartdir. Manfaatlarni samarali uyg‘unlashtirish uchun ochiq muloqot, turli manfaatdor tomonlarning boshqaruv jarayonida ishtirok etishi, zamonaviy tahlil vositalaridan foydalanish, shuningdek, axloqiy tamoyillarga rioya qilish va ijtimoiy mas’uliyat talab etiladi.

Rahbarlik ma’naviyati xodimlar o‘rtasida tegishlilik hissi va yuqori maqsadlarni kuchaytirish orqali motivatsiya va faollikni oshirishi mumkin. Bu insonning ishda ma’no va qoniqishga bo‘lgan ehtiyojini qondirish orqali samaradorlik va unga bo‘lgan boshqaruv e’tiborini to‘ldiradi. Boshqaruv samaradorligi va ma’naviy salohiyatni qadrlaydigan madaniyatni rivojlantirish esa idora, jamoa, jamiyat va rahbar munosabatlarida yanada uyg‘un va samarali ish muhitini yaratadi. Boshqaruv amaliyotiga ma’naviyatni kiritish barcha manfaatdor tomonlar farovonligini hisobga oladigan yaxlit qarorlar qabul qilishni rag‘batlantiradi.

Boshqaruv natijalarini baholash odatda oson bo‘lsa-da, psixologik yetakchilikning ta’sirini sifat va natija jihatidan aniqlash ancha mushkul ish. Shuning uchun rahbar ma’naviy amaliyotining ahamiyatini aks ettiruvchi o‘lchovlarni ishlab chiqish murakkab bo‘lishi mumkin. Chunki bunda rahbar, vazifalar, jamiyat yondashuvlari bir butunlikda ko‘rib chiqiladi.

Xullas, boshqaruv va rahbar ma’naviyatining dialektik aloqasi boshqaruv maqsadlari bilan rahbarlikning istiqbolini muvofiqlashtirishni o‘z ichiga oladi, bularning barchasi shaxsiy va tashkilotning o‘sishini kuchaytiruvchi ma’naviy qadriyatlar doirasida umumlashadi.

Rahbar kadrlarning kasbiy madaniyati va axloqiy tasniflarida professor M.Bekmurodovning fikrlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, “Olim rahbarlikka tanlashda nomzodning voqelikka tizimli yondashishi, muammolarni umumlashtira olishi, imkoniyatlarga real baho bera olish qobiliyatiga e’tibor qaratishni muhim hisoblaydi”. Rahbar kadrlarning kasbiy salohiyati va axloqiy sifatlarini aniqlash borasida izlanishlar olib borgan professor M.Qur’onovning fikrlari bu qarashlarni to‘ldiradi. “U kamchiliklarning saqlanib qolishiga sabab kadrlar siyosatida rahbar, davlat xizmatchisi ma’naviyatini mezonlashtirish yondashuvlarining yo‘qligi, deb to‘g‘ri xulosalarga keladi”.

Ko‘rinib turibdiki, xizmat doirasidagi munosabatlar axloqiy qoidalar tartibini ishlab chiqishni talab etadi. Axloqiy qoidalar tartibi bir vaqtning o‘zida zamonaviy rahbarning umuminsoniy va xususiy-kasbiy sifatlarini ifoda etuvchi axloqiy mezonlarni belgilaydi. Bu mezonlar quyidagilardan iborat:

Birinchidan, davlat boshqaruvida rahbardan odillik va rostgo‘ylikni talab qiladi. Bu o‘z o‘rnida rahbarga o‘zi tavsiya etilgan davlat xizmatidagi lavozimning axloqiy huquqini beradi. Bunda ko‘zbo‘yamachilik nafaqat rahbarning zaifligi, balki, davlat tashkilotiga nisbatan keltirilgan ziyondir;

Ikkinchidan, rahbar xodimlarga nisbatan samimiy e’tibor va ezgu munosabatda bo‘lishi lozim. Zero, ular har kuni odamlarning turli shikoyati, muammolari va ehtiyojlariga duch keladi. Jamoada bag‘rikenglik, o‘zaro ishonch va insoniy hurmat orqali harakatlar ustuvor bo‘lishi lozim. Birinchi navbatda rahbar shu iliq va samimiy muhitni yarata olishga amal qilishi kerak;

Uchinchidan, rahbarning kamtarlik va samimiylik kabi fazilatlari uni salbiy munosabatlardan holi qiladi. Kamtar insonda hech qachon o‘zining “Men”ini ko‘rsatish zarurati tug‘ilmaydi yoki alohida huquq va qilgan ishlari uchun imtiyozlarga ega bo‘lish ilinjida bo‘lmaydi. U bag‘rikenglik qiladi, zaruriy bosiqlik va vazminlik holatini saqlay oladi. O‘z faoliyatiga nisbatan tanqidiy qaraydi;

To‘rtinchidan, rahbar muloqotda iltifotli va e’tiborli bo‘lishi kerak. Uning muloqoti, so‘zi va ma’ruzalari jamoada har qanday ixtiloflarning oldini olishga xizmat qilishi lozim. Bahs

munozaralarda bosiqlik va barqarorlik bilan o‘zini tutib, suhbatdoshini tushunishga harakat qilishi muhim.

Rahbarning boshqaruv faoliyatidagi ma’naviy-axloqiy qiyofasi tasniflarini belgilaydigan yana kasbiy xususiyat qoidalari mavjud. Ular xizmat subordinatsiyasi, ochiqlik va tenglik uslublarida o‘z aksini topadi. Xizmat subordinatsiyasi – davlat xizmati munosabatidagi muhim tashkiliy va axloqiy tartiblardan biri. Subordinatsiya lotinchadan “tartibga solish” tushunchasini beradi. Bu xizmat intizomiga asoslangan kichikning kattaga bo‘ysunish tizimidir. Ya’ni, bu tartib xizmat lavozimi darajasiga qarab, quyi lavozimdagilarning yuqoridan berilgan topshiriqlar ijrosini o‘z vaqtida so‘zsiz ta’minlab berishi demakdir.

Ta’kidlash kerakki, “davlat boshqaruvi mexanizmida rahbar bilan bir qatorda davlat xizmatchisining dunyoqarashi, fikrlashi, bilimi, xizmat maqsadlari mazmun mohiyatini tushunib yetishi va uni amalga oshirishda faol ishtirok etishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini takomillashtirish uchun uning huquqiy tizimida islohotlarni amalga oshirishda davlat xizmati xodimlarini tarbiyalash va ularning davlat va jamiyat boshqaruvida ma’naviy-axloqiy qiyofasi mezonlarini yaratish va rivojlantirish masalalari bugungi kundagi dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Mazkur muammoni ayni shu nuqtai nazardan o‘rganishning dastlabki vazifalari davlat va jamiyat boshqaruvida amaldagi axloqiy tamoyillarning talablarga mosligini aniqlashdir”.

Bugungi kunda amaliyotda rahbar faoliyati bilan bog‘liq bir qator g‘ayriaxloqiy muammolar namoyon bo‘lmoqda. Bunday holatlar ro‘y berishining asosiy sababi:

birinchidan, ba’zi rahbar kadrlarning ma’naviy va kasbiy salohiyatining bugungi kun talablariga javob bera olmasligi, ularda Vatan tuyg‘usining zaifligi, lavozim, obro‘ ishtiyoqining balandligi va boshqa yana ko‘plab shaxs axloqiy sifatining yo‘qligi.

ikkinchidan, bu holatga davlat va jamiyat boshqaruvida kadrlar faoliyatini tartibga solib turuvchi mexanizm va mezonlarning qat’iy amal qilmasligidir.

Yangi O‘zbekiston sharoitida davlat xizmati tizimini isloh qilish va uning samaradorligini oshirish maqsadida amalga oshirilgan ushbu tadqiqot doirasida boshqaruv ma’naviyati va rahbar axloqiy madaniyatining dialektik aloqadorligi tahlil etildi.

Umuman olganda, ma’naviy qadriyatlarning boshqaruv amaliyotiga integratsiyalashuvi yanada samarali, mehr-oqibatli va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi sodiq davlat xizmati muhitini kafolatlaydi.

Foydalanilgani adabiyotlar ro‘yxati:

1. Шавкат Мирзиёевнинг Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағиланган тантанали маросимда “Ўқитувчи ва мураббийлар – янги Ўзбекистонни барпо этишда катта куч, таянч ва суянчимиздир” мавзусида сўзлаган нутқи. 2020 йил. 30 сентябрь.

2. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. -Т., А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. –Б. 193.

3. Раҳимова Д.Н., Худойбердиева З., Эшонхўжаев Д. Менежмент: ўқув қўлланма. – Тошкент: Академия, 2003. –144 б.; Лувелл М.. Политическая наука и политическая философия: новый взгляд на старые вопросы. -М.: Идея-Пресс, 2021. -304 с.

4. Саифназаров И.С. Маънавий баркамоллик ва сиёсий маданият. – Тошкент: Шарқ, 2001. 160 -б.

5. Милнер Д. Политическая философия: Теория и идеи. -М.: Новое литературное обозрение, 2022. С. 122-185.

6. Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси. –Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2004. –196 б.

7. Раҳимова Д.Н., Абулқосимов Ҳ.П., Абдураҳмонов О.Қ. Бошқарув тизими ва раҳбар. – Тошкент: ТДТУ, 2004. 138 –б.

TERRORIZM FENOMENINING IJTIMOIY-ANTROPOLOGIK XUSUSIYATLARI

Jahongir Boybutayev,
harbiy fanlar bo‘yicha (PhD), dotsent
O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya. *Mazkur maqolada terrorizm fenomenining ijtimoiy-antropologik xususiyatlari tahlil qilingan. “Terrorizm” tushunchasining mazmuni va ta’rifiga doir ilmiy yondashuvlar tahlil qilinib, “terrorchi” obrazining shakllanishi, hokimiyat va terrorizm diskursi o‘rtasidagi munosabatlar hamda qo‘rquvni ijtimoiy ta’sir mexanizmi sifatida shakllantirishdagi o‘rni yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *terror, terrorizm, qo‘rquv, radikallashuv, ekstremizm, zo‘ravonlik.*

Аннотация. *В данной статье анализируются социально-антропологические особенности феномена терроризма. Проанализированы научные подходы к содержанию и определению понятия “терроризм”, освещены формирование образа “террориста”, отношения между властью и террористическим дискурсом, а также роль страха как механизма социального воздействия.*

Ключевые слова: *террор, терроризм, страх, радикализация, экстремизм, насилие.*

Abstract. *This article analyzes the socio-anthropological features of the phenomenon of terrorism. Scientific approaches to the content and definition of the concept of “terrorism” are analyzed, the formation of the “terrorist” image, the relationship between power and terrorist discourse, and the role of fear as a mechanism of social influence are highlighted.*

Keywords: *terror, terrorism, fear, radicalization, extremism, violence.*

Kirish va dolzarbligi. XXI asr globallashuv va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bilan xarakterlanishi barobarida, terrorizmning transformatsiyalashgan va murakkablashgan shakllari keng tarqalib, xalqaro xavfsizlik hamda ijtimoiy barqarorlikka sezilarli tahdid tug‘dirayotgan davr hisoblanadi. Chunki, bugun terrorizm faqat birgina davlat yoki mintaqagagina emas, balki butun dunyo aholisi hayoti va jahon hamjamiyatiga xavf solib, davlatlarning ijtimoiy barqarorligiga va taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan murakkab ijtimoiy fenomenga aylandi.

Terrorizmning radikallashuv, ekstremizm, zo‘ravonlik va transmilliy jinoyatchilik kabi xavfli jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanib borishi uni zamonaviy jamiyat xavfsizligi va barqaror taraqqiyotiga jiddiy tahdid soluvchi murakkab ijtimoiy fenomen sifatida namoyon etmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt tizimlari va ijtimoiy tarmoqlarning keng ommalashuvi radikal g‘oyalar hamda ekstremistik mafkuralarning tezkor tarqalishi uchun qulay axborot makonini shakllantirmoqda. Natijada, terrorizmning ijtimoiy ildizlari, uning shakllanish mexanizmlari va ta’sir doirasi yanada murakkab tus olib, mazkur fenomenni ijtimoiy-antropologik nuqtayi nazardan chuqur o‘rganish zaruratini kuchaytirmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, terrorizm tushunchasining shakllanishi va uning muayyan ijtimoiy guruhlarga nisbatan qo‘llanilishi faqat ob’ektiv xavfsizlik mezonlari bilan emas, balki siyosiy, ijtimoiy va mafkuraviy omillar bilan ham belgilanadi.

Tahlil va natijalar. “Terrorizm” fenomenining ijtimoiy-antropologik tahlili mazkur tushunchaning kim tomonidan, qanday maqsadlarda va qay tarzda talqin etilishi masalasiga ham e’tibor qaratishni taqozo etadi.

Muayyan ijtimoiy guruhlar yoki aholi qatlamlarining “dushman” yoki “terrorchi” sifatida talqin qilinishi ko‘p hollarda siyosiy va mafkuraviy jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lib, bunday tasavvurlarni shakllantirishda hokimiyat institutlari muhim o‘rin tutadi. Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, davlat tomonidan muayyan guruhlar xavf yoki tahdid manbai sifatida baholangan holatlarda inson huquqlari va erkinliklarining cheklanishi, ommaviy repressiyalar, majburiy

izolyatsiya hamda boshqa ko‘rinishdagi adolatsizliklar yuzaga kelishi mumkin. Bunday holatlar ko‘pincha milliy xavfsizlikni ta’minlash zarurati va davlatning qonuniy zo‘ravonlik qo‘llash huquqi bilan asoslanadi. Shu bois terrorizm tushunchasining qanday shakllantirilishi, qaysi mezonlar asosida talqin qilinishi hamda mazkur diskursni vujudga keltiruvchi siyosiy va ijtimoiy sub’ektlarning rolini tanqidiy tahlil qilish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi [1]. Shu jihatdan terrorizm nafaqat xavfsizlik muammosi, balki inson, jamiyat va hokimiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni aks ettiruvchi ijtimoiy fenomen sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Ayrim tadqiqotchilar “terror”ni davlat tomonidan amalga oshiriladigan institutsional zo‘ravonlik, “terrorizm”ni esa davlatdan tashqari sub’ektlar tomonidan qo‘llaniladigan siyosiy zo‘ravonlik shakli sifatida talqin qiladilar. Jumladan, Ye.Malisheva o‘z tadqiqotida “Terminologik chalkashliklarning oldini olish uchun “terror” tushunchasi davlat tomonidan qo‘llanadigan zo‘ravonlik, ya’ni “kuchli”ning zo‘ravonligi sifatida; “terrorizm” esa muxolifat tomonidan sodir etiladigan zo‘ravonlik, ya’ni “kuchsiz”ning zo‘ravonligi sifatida talqin qilinadi [2] – deydi.

Terrorizm bo‘yicha amerikalik ekspert Brayan M. Jenkins esa: “Terrorizm deganda, biz aslida nimani nazarda tutamiz? Bu so‘zning aniq yoki umumqabul qilingan ta’rifi yo‘q va u ko‘pincha kamsituvchi ma’noda qo‘llanadi. Ayrim hukumatlar o‘z muxoliflarining har qanday zo‘ravonlik harakatlarini “terrorizm” deb atashga moildir. Isyonchilar esa o‘zlarini deyarli hech qachon terrorchi deb hisoblamaydi, aksincha, hukumat terrorining qurboni ekanliklarini da’vo qiladilar. Muxtasar qilib aytganda, terrorizm ta’rifi kishining nuqtai nazariga bog‘liq bo‘lib ko‘rinadi – bu “yomon odamlar” qiladigan ishdir” [3] – deydi. Uning qarashida terrorizm funksional jihatdan qo‘rquv uyg‘otishga qaratilgan, tashkilot tomonidan amalga oshiriladigan va siyosiy maqsadlarni ko‘zlovchi zo‘ravonlik kampaniyasi sifatida ta’riflanadi. Odatda, u muayyan talablarni maksimal darajada oshkor qilish maqsadida, ko‘pincha garovga olinganlarning hayotiga tahdid soluvchi fuqarolik maqsadlariga qarshi qaratilgan zo‘ravonlik bilan tavsiflanadi.

Terrorizmning maqsadlari tovon to‘lash yoki mahbuslarni ozod qilish kabi tor maqsadlardan tortib, biron-bir ishni butun dunyoga oshkor qilish kabi keng maqsadlargacha bo‘lishi mumkin. Jamiyatimizning tobora kuchayib borayotgan texnologik zaifligi va zamonaviy qurollar tufayli kuchayib borayotgan zo‘ravonlik imkoniyatlari shuni anglatadiki, hatto juda kichik bir guruh ekstremistlar ham juda katta vayronagarchiliklar keltirib chiqarishi mumkin. Xalqaro terrorizm keltirib chiqaradigan zo‘ravonlikning haqiqiy ko‘lami urushga nisbatan kichik bo‘lsa-da, u xalqaro tartibga beqarorlashtiruvchi ta’sir ko‘rsatadi va davlatga qarshi oddiy urushning o‘rnini bosishi mumkin [3].

V.Glushkovning ta’kidlashicha, “terror” faqat davlat hokimiyati faoliyati bilan bog‘liq hodisa emas, balki muayyan ijtimoiy yoki siyosiy ta’sir kuchiga ega bo‘lgan nodavlat sub’ektlar tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin. Shu nuqtai nazardan muallif terrorni davlat va nodavlat terror shakllariga ajratadi. Tadqiqotchi davlat terrorining tashqi va ichki ko‘rinishlarini farqlaydi. Uning fikricha, tashqi terror bosqinchilik, mustamlakachilik siyosati hamda boshqa xalqlarning huquq va erkinliklarini cheklash bilan bog‘liq bo‘lsa, ichki terror sud orqali yoki suddan tashqari usullar vositasida namoyon bo‘ladi. Ichki terrorning harbiy, ma’muriy, polisiyaviy va mafkuraviy shakllari aholi orasida qo‘rquv, bo‘ysunish va itoat muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, V.Glushkov terrorni muayyan ijtimoiy-siyosiy kuch tomonidan ommani qo‘rqitish, psixologik bosim o‘tkazish hamda ularni muayyan xatti-harakatlarga majburlash maqsadida qo‘llaniladigan jismoniy, psixologik va mafkuraviy zo‘ravonlik tizimi sifatida baholaydi. Muallifning fikricha, terrorning asosiy mohiyati zo‘ravonlikning o‘zida emas, balki qo‘rquv va dahshat muhitini shakllantirish orqali keng ijtimoiy ta’sir ko‘rsatishga intilishida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, u terror va terrorizm tushunchalarini farqlab, terrorizmni alohida harakat yoki o‘zaro bog‘liq harakatlar majmuasi sifatida, terrorni esa ommaviy, uzluksiz va tizimli xususiyatga ega bo‘lgan zo‘ravonlik amaliyoti sifatida talqin qiladi [4].

O‘zbekistonlik olim Sh.G‘oyibnazarovning fikricha: “terror” dushmanni jismoniy zo‘ravonlik yo‘li bilan qo‘rqitish, hatto uni jismonan yo‘q qilish, demak. “Terrorizm” esa, terror amaliyotidir. Bu ikki tushunchani shu tarzda chegaralash maqbul bo‘lsa, u holda terrordan kelib chiqqan terrorizm aslo yangi hodisa bo‘lmay, bizgacha asrlar qa’ridan etib kelgan, deb hisoblash mumkin [5].

Biroq mazkur yondashuvlar barcha olimlar tomonidan bir xil qabul qilinmagan bo‘lib, terrorizm tushunchasining mazmuni ilmiy bahslar markazida qolayotganligini ko‘rsatadi. Chunki terrorizmni mazkur tarzda talqin qilish barcha tadqiqotchilar tomonidan qo‘llab-quvvatlanmaydi. Chunki terrorizm fenomeni o‘zining murakkab ijtimoiy tabiati, siyosiy mazmuni va tarixiy o‘zgaruvchanligi bilan ajralib turadi. Shu sababli bugungi kunda “terror” va “terrorizm” tushunchalariga ikki yuzdan ortiq ta’riflar mavjud bo‘lishiga qaramay, ularning hech biri umume’tirof etilgan ta’rif sifatida qabul qilinmagan. Bu esa terrorizm tushunchasining mazmuni va chegaralarini belgilash masalasi hanuzgacha ilmiy bahs va munozaralar ob’ekti bo‘lib qolayotganligini ko‘rsatadi.

Xususan, bu haqida britaniyalik tadqiqotchi Mersi Ettening qayd etishicha, terrorizm tushunchasi zamonaviy ilmiy diskursda eng bahsli kategoriyalardan biri hisoblanadi. Uning mazmuni turli siyosiy, huquqiy va ijtimoiy yondashuvlar ta’sirida turlicha talqin qilinishi sababli terrorizmning umumqabul qilingan ta’rifi shakllanmagan. Shuning uchun terrorizm nafaqat zo‘ravonlik amaliyoti, balki muayyan ijtimoiy va siyosiy kontekstda shakllanuvchi diskursiv fenomen sifatida ham namoyon bo‘ladi [6]. Mazkur holat terrorizmni ijtimoiy-antropologik nuqtai nazardan o‘rganish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Dayyab Gillani ta’kidlashicha, terrorizm ijtimoiy fanlarda mohiyatan bahsli tushunchalar qatoriga kiradi. Bunday tushunchalarning asosiy xususiyati shundaki, ularning mazmuni va qo‘llanilish doirasi yuzasidan doimiy ilmiy bahslar mavjud bo‘ladi hamda har bir yondashuv o‘z nuqtayi nazarini muayyan nazariy dalillar orqali asoslashga intiladi. Muallifning qayd etishicha, terrorizmning umume’tirof etilgan ta’rifi ishlab chiqilmagani sababli mazkur muammo terrorizm tadqiqotlarida o‘ziga xos “ta’rif dilemmasi”ni vujudga keltirgan [7]. Natijada, ko‘plab olimlar terrorizmni aniq ta’riflash muammosini hal etish mumkin bo‘lmagan holat sifatida qabul qilib, mavjud qarama-qarshiliklarni deyarli o‘zgarmas ilmiy voqelik sifatida baholay boshlaganlar. Shu sababli terrorizmga yangi ta’rif berishga qaratilgan urinishlar ko‘p hollarda shubha va ehtiyotkorlik bilan qarshi olinadi. Biroq muallifning fikricha, mazkur holat terrorizm tushunchasini nazariy jihatdan aniqlash zaruratini inkor etmaydi, aksincha, uning mohiyatini chuqurroq anglashga bo‘lgan ehtiyojni ko‘rsatadi.

Yuqoridagi fikr mulohazalar asosida quyidagi mualliflik jadvalini taqdim etish maqsadga muvofiqdir. Ushbu jadvalning afzalligi shundaki, u faqat “terror” va “terrorizm” tushunchalarining farqini emas, tadqiqotimizning asosiy g‘oyasi bo‘lgan ijtimoiy-antropologik, diskursiv va psixologik xususiyatlarni ham aks ettiradi.

1-Jadval.

Yondashuvlar	Terror	Terrorizm
Ijtimoiy-antropologik yondashuv	Ijtimoiy guruhlar yoki aholi qatlamlarini qo‘rqitish, bo‘ysundirish va nazorat qilishga qaratilgan jismoniy, psixologik va mafkuraviy zo‘ravonlik tizimi	Qo‘rquv va xavotir muhitini shakllantirish orqali jamiyat, davlat yoki muayyan ijtimoiy guruhlarga ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan siyosiy va ijtimoiy zo‘ravonlik amaliyoti
Siyosiy yondashuv	Davlat yoki boshqa siyosiy kuchlar tomonidan qo‘llaniladigan repressiv zo‘ravonlik siyosati	Siyosiy maqsadlarga erishish uchun davlatdan tashqari sub’ektlar yoki guruhlar tomonidan amalga oshiriladigan zo‘ravonlik harakatlari

Diskursiv yondashuv	Qo‘rquv va bo‘ysunish muhitini yaratish orqali hokimiyat munosabatlarini mustahkamlash vositasi	Muayyan g‘oya, manfaat yoki maqsadni ilgari surish uchun qo‘llaniladigan ramziy va kommunikasion zo‘ravonlik shakli
Funksional yondashuv	Qo‘rqitish va majburlashga xizmat qiluvchi zo‘ravonlik usuli	Terror amaliyotini amalga oshirish jarayoni hamda qo‘rquvni keng ijtimoiy muhitga tarqatish mexanizmi
Psixologik yondashuv	Insonlarda dahshat, xavotir va ishonchsizlik holatini vujudga keltiruvchi ta’sir vositasi	Zo‘ravonlik yoki uning tahdidi orqali ommaviy ongga ta’sir ko‘rsatish va qo‘rquv psixologiyasini shakllantirish strategiyasi

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, “terrorizm” fenomenini faqat huquqiy yoki siyosiy kategoriya sifatida talqin qilish uning murakkab mohiyatini to‘liq ochib berish imkonini bermaydi. Terrorizm tushunchasining umume’tirof etilgan ta’rifi mavjud emasligi uning nafaqat zo‘ravonlik shakli, balki turli siyosiy, madaniy va ijtimoiy kontekstlarda turlicha mazmun kasb etuvchi diskursiv kategoriya ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, terrorizm haqidagi tasavvurlar ko‘p hollarda muayyan ijtimoiy guruhlarning “dushman”, “begona” yoki “xavf manbai” sifatida shakllantirilishi bilan bog‘liq ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga, terrorizmning asosiy ta’siri faqat jismoniy zarar etkazishda emas, balki jamiyatda qo‘rquv, ishonchsizlik va ijtimoiy beqarorlik muhitini shakllantirishda namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgani adabiyotlar ro‘yxati:

1. James B. Greenberg. Dangerous Groups and Perilous Ideas: Notes toward an anthropological understanding of terrorism. Paper given at the International Conference: Political Ecologies of Conflict, Capitalism and Contestation. Organised by: Wageningen University and School of Oriental and African Studies (SOAS), University of London. 7-9 July 2016. Wageningen, the Netherlands. – P. 2.
2. Малышева Э.Н. Феномен современного терроризма: социально-философский анализ. / Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата философских наук. – Красноярск: 2011. – С. 12.
3. Brian M. Jenkins. International terrorism: a new kind of warfare. / The Rand Corporation, Santa Monica, California. June 1974. – R. 1-13.
4. Глушков В. А. Террор и терроризм: соотношениэ и разграничениэ / В. А. Глушков, В. П. Эмелянов // Форум права. – 2011. – № 4. – С. 107-112.
5. Ғойибназаров Ш. Халқаро терроризм: илдизи, омиллари ва манбалари. – Т.: Ўзбекистон, 2013. – Б. 9.
6. Ette, M. (2026). Performing terror, communicating fear: Analysing terrorism as performance of violence. / Media, War & Conflict, 19(1), 173-189.
7. Dayyab Gillani. The definitional dilemma of terrorism: seeking clarity in light of terrorism scholarship. / Master of Letters Thesis, School of International Relations, University of St Andrews. 2017. – R. 11.

RAQAMLI VA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA ART-TERAPIYA MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY-ILMIY YONDASHUVLARI

Ferangiz Muxamedova,
Chirchiq Davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada raqamli va interaktiv texnologiyalar vositasida art-terapiya mashg‘ulotlarini tashkil etishning nazariy-ilmiy yondashuvlari tahlil qilingan.*
Kalit so‘zlar: *art-terapiya, raqamli texnologiyalar, interaktiv texnologiyalar, ijodiy faollik, emotsional ifoda, refleksiv tajriba, pedagogik yondashuv.*

Аннотация. *В данной статье проанализированы теоретико-научные подходы к организации арт-терапевтических занятий с использованием цифровых и интерактивных технологий.*
Ключевые слова: *арт-терапия, цифровые технологии, интерактивные технологии, творческая активность, эмоциональное выражение, рефлексивный опыт, педагогический подход.*

Abstract. *This article analyzes the theoretical and scientific approaches to organizing art-therapy sessions through digital and interactive technologies.*
Keywords: *art therapy, digital technologies, interactive technologies, creative activity, emotional expression, reflective experience, pedagogical approach.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim va psixologik-pedagogik amaliyotda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi art-terapiya mashg‘ulotlarini tashkil etish usullarini ham yangicha yondashuvlar asosida ko‘rib chiqishni talab etmoqda. An’anaviy art-terapiya asosan qalam, bo‘yoq, loy, kollaj kabi vositalar orqali amalga oshirilgan bo‘lsa, hozirgi davrda planshetlar, grafik dasturlar, interaktiv doskalar, raqamli chizish ilovalari va onlayn platformalar ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Bu esa art-terapiyaning faqat texnik shaklini emas, balki uning mazmuni, metodikasi va ta’sir mexanizmlarini ham qayta tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Raqamli va interaktiv texnologiyalar art-terapiya mashg‘ulotlariga bir necha yangi imkoniyatlarni olib kiradi. Birinchidan, ular ishtirokchilarning ijodiy faolligini oshirishga xizmat qiladi, chunki raqamli vositalar tasvirni tezkor yaratish, o‘zgartirish va qayta ishlash imkonini beradi. Ikkinchidan, bunday texnologiyalar mashg‘ulotlarni ko‘rgazmali, qiziqarli va moslashuvchan shaklda tashkil etishga yordam beradi. Uchinchidan, interaktiv muhit art-terapiya jarayonida ishtirokchining ichki kechinmalarini erkinroq ifodalashiga, o‘z his-tuyg‘ularini rang, shakl, animatsiya va vizual obrazlar orqali namoyon etishiga qulay sharoit yaratadi. Ayniqsa, bolalar, o‘smirlar va maxsus ta’lim ehtiyojiga ega shaxslar bilan ishlashda raqamli vositalar art-terapiyaning ta’sir doirasini kengaytiradi.

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni art-terapiyaga tatbiq etish faqat texnik qulaylik masalasi emas. U nazariy jihatdan ham art-terapiyaning zamonaviy modelini, uning pedagogik va psixologik asoslarini, terapevtik munosabatdagi vosita va mazmun nisbatini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Shu sababli raqamli va interaktiv texnologiyalar vositasida art-terapiya mashg‘ulotlarini tashkil etishning nazariy-ilmiy yondashuvlarini o‘rganish dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Peterson va hammualliflar texnologiya art-terapevtlarning muloqoti, san’at asarlarini arxivlash, qaydlar yuritish, vazifalarni bajarish va mijozlar bilan ishlash usullarini o‘zgartirib borayotganini ta’kidlaydi [1], bu esa art-terapiya amaliyotining o‘zi ham yangi texnologik sharoitga moslashayotganini ko‘rsatadi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda raqamli va interaktiv texnologiyalar vositasida art-terapiya mashg‘ulotlarini tashkil etishning nazariy-ilmiy yondashuvlarini ochib berish uchun kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot, avvalo, nazariy xarakterga ega bo‘lib, unda ilmiy adabiyotlarni tizimli o‘rganish, qiyosiy tahlil, kontent-tahlil, umumlashtirish va

interpretativ tahlil usullaridan foydalanildi. Bunday yondashuv mavzuning pedagogik, psixologik va texnologik jihatlarini birgalikda ko‘rib chiqish imkonini beradi. Xususan, art-terapiyaning an’anaviy shakllari bilan raqamli vositalar asosidagi yangi amaliyotlar o‘rtasidagi farq va uzviylik qiyosiy tahlil asosida ochib berildi. Shu bilan birga, interaktiv platformalar, grafik ilovalar, raqamli tasvir yaratish vositalari va masofaviy muloqot texnologiyalarining art-terapiya jarayoniga ta’siri ilmiy manbalar asosida tahlil qilindi. Zubala va hammualliflar bu borada integrativ sharh metodining imkoniyatini ko‘rsatib, u “turli metodologik paradigmalar doirasidagi ishlarni yaqin tahlil qilish imkonini beradi” [2] deb ta’kidlaydi. Bizning fikrimizcha, u mavzuni faqat bitta metod bilan emas, balki ko‘p yo‘nalishli ilmiy nuqtayi nazardan ko‘rib chiqish zarurligini asoslagan.

Raqamli art-terapiya faqat texnik vosita emas, balki terapevt, ishtirokchi, vizual mahsulot va kommunikativ muhit o‘rtasidagi o‘zaro aloqador tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli tahlilda texnologiyani alohida vosita emas, balki terapevtik jarayonning tarkibiy qismi sifatida ko‘rish tamoyili asos qilib olindi. Peterson yangi media va texnologiyalarni art-terapiyaga joriy etish jarayonini izohlar ekan, bu modelni “tanlash, tajriba o‘tkazish va qayta baholashning iterativ jarayoni” [3] sifatida tavsiflaydi. Bizning fikrimizcha, raqamli vositalarni art-terapiya mashg‘ulotlariga qo‘shish bir martalik texnik yangilik emas, balki bosqichma-bosqich sinov, moslashtirish va baholashni talab qiladigan ilmiy-amaliy jarayondir.

Natijalar. Raqamli va interaktiv texnologiyalar vositasida tashkil etilgan art-terapiya mashg‘ulotlari art-terapevtik jarayonning mazmuni, shakli va ta’sir doirasini sezilarli ravishda kengaytiradi. Avvalo, raqamli vositalar art-terapiyani faqat an’anaviy auditoriya yoki terapevtik xonaga bog‘lab qo‘ymaydi, balki uni masofaviy, moslashuvchan va individual ehtiyojlarga yaqin shaklda tashkil etish imkonini beradi. Shu jihatdan zamonaviy ilmiy manbalarda art-terapiyada raqamli texnologiyalardan foydalanish faqat texnik yangilik emas, balki metodik imkoniyatlarni kengaytiruvchi omil sifatida baholanadi. Xususan, integrativ sharh natijalarida “raqamli texnologiyalardan art-terapevtlar tomonidan ham onlayn shaklda xizmat ko‘rsatishda, ham raqamli san’at yaratish vositasi sifatida foydalanish ortib borayotgani” qayd etilgan.. Bizning fikrimizcha, raqamli vositalarning art-terapiya mashg‘ulotlarida ikki yo‘nalishda samarali ekanini ko‘rsatadi: birinchisi, kommunikatsion maydonni kengaytirish; ikkinchisi, ijodiy ifoda usullarini boyitish.

Raqamli va interaktiv muhit ishtirokchilarning mashg‘ulotga qiziqishini oshiradi, chunki bunda tasvirni yaratish, o‘zgartirish, qayta ishlash, saqlash va qayta ko‘rish imkoniyati mavjud bo‘ladi. Bunday jarayon ayniqsa bolalar, o‘smirlar va raqamli vositalarga yaqin foydalanuvchilar uchun qulay muhit yaratadi. Raqamli chizma, animatsiya, rang tanlash, kollaj va multimediaviy vizuallashtirish vositalari orqali ishtirokchi o‘z ichki kechinmalarini tezroq va erkinroq ifodalay oladi. Shu bilan birga, raqamli mashg‘ulotlar terapevt uchun ham qo‘shimcha kuzatuv imkoniyatini yaratadi, chunki yaratilgan vizual mahsulotlar saqlanadi, tahlil qilinadi va keyingi seanslar bilan qiyoslanadi. Peterson va hammualliflar o‘tkazgan tadqiqotda “art-terapevtlar turli texnologik qurilmalarni egallashi va ulardan foydalanishi” aniqlangani ham bu yo‘nalishning amaliy asosga ega ekanini tasdiqlaydi. Mazkur natija shuni anglatadiki, texnologiya art-terapiya amaliyotiga tashqi unsur sifatida emas, balki asta-sekin professionallik muhitiga kirib borayotgan vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Vizual ijod jarayoni insonning hissiy holatini yumshatish, ichki zo‘riqishni kamaytirish va o‘zini ifoda etish imkonini kuchaytirishi bilan ahamiyatlidir. Bu jihat raqamli vositalar bilan uyg‘unlashganda yanada qulay shaklga ega bo‘ladi, chunki foydalanuvchi xatodan qo‘rqmaydi, tasvirni o‘chirishi, qayta ishlashi va turli variantlarni sinab ko‘rishi mumkin. Shu asosda art-terapiya mashg‘ulotlari xavfsiz, moslashuvchan va motivatsion muhitga aylanadi. Martin va Colp tadqiqotida esa vizual ijodning ruhiy holatga ijobiy ta’siri empirik asoslangan bo‘lib, unda “vizual san’at bilan shug‘ullanish ruhiy salomatlikni yaxshilashini psixometrik dalillar tasdiqlaydi” degan xulosa berilgan. Bu natija art-terapiya mashg‘ulotlarida raqamli yoki

an’anaviy vosita qo‘llanishidan qat’i nazar, ijodiy faoliyatning o‘zi terapevtik va rivojlantiruvchi kuchga ega ekanini ko‘rsatadi.

Muhokama. Raqamli va interaktiv texnologiyalar art-terapiya mashg‘ulotlarini tashkil etishda nafaqat yordamchi vosita, balki art-terapevtik jarayonning mazmunini o‘zgartiruvchi muhim omil ekanini ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, raqamli art-terapiya an’anaviy yondashuvning oddiy elektron ko‘rinishi emas, balki terapevtik muloqot, ijodiy ifoda va refleksiya shakllarini yangicha tashkil etuvchi pedagogik-psixologik maydondir. Bu holat ayniqsa ishtirokchining tasviriy faoliyatga kirishishida, vizual mahsulotni qayta ishlashida va o‘z emotsional tajribasini nazorat qilgan holda ifodalashida yaqqol ko‘rinadi. Zubala va hammualliflar raqamli texnologiyalarni art-terapiyaga tatbiq etish jarayonini baholar ekan, bu sohada “juda katta imkoniyatlar klinik, pragmatik va axloqiy xususiyatdagi cheklovlar hamda muammolar bilan bir qatorda ko‘rib chiqilishi kerak” deb ta’kidlagan. Bizning fikrimizcha, raqamli vositalarning afzalliklarini tan olish bilan birga, ularni qo‘llashda ehtiyotkor ilmiy yondashuv ham zarur.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat shundan iboratki, raqamli texnologiyalar art-terapiyada vosita tanlash mezonlarini ham o‘zgartiradi. An’anaviy san’at materiallarida faktura, qo‘l harakati, jismoniy kontakt va bevosita sezgi tajribasi ustun bo‘lsa, raqamli muhitda buning o‘rniga tezkorlik, moslashuvchanlik, tahrirlash qulayligi va multimediaviy ifoda kuchayadi. Bu esa terapevt oldiga yangi metodik savollarni qo‘yadi: qaysi ishtirokchi uchun qaysi format samaraliroq, qaysi raqamli vosita terapevtik aloqa sifatini oshiradi, qaysi holatda esa texnologiya ortiqcha vositachiga aylanadi. Peterson bu borada media tanlovini mexanik jarayon emas, balki “san’at materiallarini ularning terapevtik maqsadga muvofiqligi asosida tanlash, sinab ko‘rish va qayta baholash jarayoni” deb izohlagan. Darhaqiqat, raqamli art-terapiyaning muvaffaqiyati ko‘proq texnologiyaning o‘ziga emas, balki uni terapevtik maqsad bilan qanchalik uyg‘unlashtirishga bog‘liq.

Natijalar, shuningdek, art yaratish faoliyatining o‘zi ruhiy salomatlik va emotsional barqarorlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatishini yana bir bor tasdiqlaydi. Shu jihatdan raqamli vosita bilan bajarilgan ijodiy faoliyat ham ma’lum sharoitlarda an’anaviy san’at amaliyoti kabi terapevtik kuchga ega bo‘lishi mumkin. Ayniqsa xatoni tez tuzatish, variantlarni sinash, vizual ifodani bosqichma-bosqich qurish imkoniyati ba’zi ishtirokchilarda ichki to‘siqlarni kamaytiradi. Martin va Colp tadqiqotida “vizual-taktil jarayonda faol ishtirok etish vaqt o‘tishi bilan sog‘lom ruhiy holatlarga o‘tishni vositalaydi” degan xulosa ilgari surilgan.

Shu bilan birga, muhokama natijalari raqamli art-terapiya bo‘yicha kelgusida yanada chuqur empirik tadqiqotlar o‘tkazish zarurligini ham ko‘rsatadi. Chunki hozircha bu yo‘nalishda metodik standartlar, etik mezonlar va samaradorlikni baholash indikatorlari to‘liq bir tizimga solinmagan. Shuning uchun raqamli va interaktiv texnologiyalar vositasida art-terapiya mashg‘ulotlarini tashkil etishda texnologik yangilikka berilib ketmasdan, uning pedagogik, psixologik va insonparvarlik mohiyatini saqlab qolish asosiy tamoyil bo‘lib qoladi. Umuman, mazkur tahlil raqamli art-terapiya kelajakdagi ta’limiy, korreksion va reabilitatsion amaliyotning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri ekanini ko‘rsatadi.

Foydalanilgani adabiyotlar ro‘yxati:

1. Peterson B.C., Stovall K., Elkins D.E., Parker-Bell B. Art Therapists and Computer Technology // Art Therapy: Journal of the American Art Therapy Association. – 2005. – Vol. 22, No. 3. – P. 140.

2. Zubala A., Kennell N., Hackett S. Art Therapy in the Digital World: An Integrative Review of Current Practice and Future Directions // Frontiers in Psychology. – 2021. – Vol. 12. – P. 1.

3. Peterson B.C. The Media Adoption Stage Model of Technology for Art Therapy // Art Therapy: Journal of the American Art Therapy Association. – 2010. – Vol. 27, No. 1. – P. 26.

ҚАДИМГИ НАХШАБ ВИЛОЯТИДАГИ ЁЗУВ МАДАНИЯТИ ҲАҚИДА

Баратов Хамидулло Исматилло ўғли,
Шаҳрисабз давлат педагогика институти
Тарих кафедраси ўқитувчиси

Аннотация. *Ушбу мақолада илк ўрта асрларда Суғд конфедерацияси таркибидаги муҳим сиёсий ва маданий марказлардан бири бўлмиш қадимги Нахшаб вилоятидаги ёзув маданияти тарихи таҳлил қилинган.*

Калит сўзлар: *Нахшаб, Суғд конфедерацияси, ёзув маданияти, суғдий тил, Култепа, Еркўрғон, Сабадани, Николас Симс-Уильямс, турк-суғд тангалари, Ислом ренессанси.*

Аннотация. *В данной статье анализируется история письменной культуры древней области Нахшаб, которая являлась одним из важных политических и культурных центров в составе Согдийской конфедерации в раннем Средневековье.*

Ключевые слова: *Нахшаб, Согдийская конфедерация, письменная культура, согдийский язык, Культепа, Еркурган, Сабадани, Николас Симс-Уильямс, тюрко-согдийские монеты, Исламский ренессанс.*

Abstract. *This article analyzes the history of writing culture in the ancient region of Nakhshab, which was one of the important political and cultural centers within the Sogdian Confederation in the early Middle Ages.*

Keywords: *Nakhshab, Sogdian Confederation, writing culture, Sogdian language, Kultepa, Yerkurgan, Sabadani, Nicholas Sims-Williams, Turko-Sogdian coins, Islamic Renaissance.*

Суғд конфедерацияси Марказий Осиёнинг илк ўрта асрлар даврида сиёсий ва маданий жиҳатдан муҳим ўрин тутган ҳудудий бирликлардан бири бўлиб, унинг таркибига кирган Нахшаб мулки алоҳида аҳамият касб этади. Нахшаб қадимдан савдо йўллари чорраҳасида жойлашганлиги сабабли турли диний эътиқодлар, маданий анъаналар ва ижтимоий жараёнларнинг синтезлашган маркази сифатида шаклланган. Бу ҳудудда зардуштийлик, насронийлик, буддавийлик динлари, ёзув, мусиқа, тасвирий санъат, ҳунармандчилик соҳалари ва илм-фандаги эришилган ютуқлар X-XI -асрларда содир бў “Ислом ренессанси” ёки Европалик олимлар таьбирида “Мусулмон ренессанси”га олиб келган. Цивлизациялар ёки ренессансга якка элат ёки ҳалқлар эриша олмаслиги кўплаб тадқиқотчилар томонидан эьтироф этилган. Нақшабда ҳам нафақат форсийзабон элатлар, балки туркий элатларнинг этник қоришуви ва турли маданиятларнинг ўзаро бирикуви асосида мусулмон уйғониш даври маданияти ўсиб чиқди.

Ёзув маданияти цивилизациянинг асосий қисми ва қадимги давлатчиликнинг асоси ҳисобланади. Шу нуқтаи назарда Суғд ёзувлариниг ўз худудида эмас, балки унга қўшни бўлган давлатлар чегарасидан топилиши катта аҳамиятига эга. Профессор А.Наймаркнинг фикрича, Суғдиёна аҳолиси моҳир савдогарлар бўлишган ва улар савдо муносабатларида илк бор “шек”, яьни, “чек” тизимини жорий этишган. Бора-бора “чек” услуби жаҳон савдоси муносабатларига асос бўлиб қолди. Афсуски, хозирча ўрта асрларга оид Чеклар ёзма ва археологик манбаларда учрамайди. Буни қарздорлик бартараф этилгач, чек йиртиб ташланган ёки йуқ қилингани билан изоҳлаш мумкин. Хозирча Суғд конфедрацияси таркибидаги Нахшаб тарихий маданий вилояти худудидан суғдийча ёзувлар топилмаган бўлса-да, аммо Суғдга чегарадош бошқа қадимги даврларга оид давлатлар худудидан куп топилган.

Масалан, Қозоқистон худудидаги Култепа худудидан археолог, профессор Александр Подушкин тадқиқотларидан кейин фанда “Култепадаги ёзувли булаклар ёки илк суғдий ёзувлар” термини кириб кела бошлади. Улар асосан пишиқ ғиштларда таблица

сифатида ёзилган. Топилган ғиштдаги суғд ёзуви қизиқарли маълумотлар беради. Ёзувли ғишт булаклари 3 дона бўлиб, улар ягона текстдан иборат.

Жами бўлиб, Қозоқистон худудидан археологик тадқиқотлар натижасида 18 та кичик булаклардаги ёзувлар ва 2 та йирик ёзувли матнлар топилган, матнлар 800 та белги ва 60 та қатордан иборат. Уларнинг кўпчилиги Парфия, Грек-Бактрия ва Хоразм ёзувидан анча олдинги оромий ёзуви сифатида талқин этилса, 60 матн суғдий ёзув сифатида ўқилган. Култепадаги ғиштлар трапеция шаклли, улчамлари буйи 49 см. эни 16 смдан 13 см.гача, қалинлиги эса 5.5 см. Унинг юзасига 218 та белги ифодаланган. Ёзувлар ингичка учи уткир қалам ёки пичоқ билан тирналиб, ўнгдан бошланади ва чапга тугайди.

Археолог А. Падушкин топилган ёзувларни Кангюй ёзуви деб талқин этган бўлса, Лондон университети академик-профессори атоқли палеолингвист, Николас Симс-Уильямс фикрича, хат алфавит асосида, бир қаторли, оромий харфлар асосида яратилгани, қадимий форсий диалектнинг бир кўриниши бўлиши мумкин. Николас Симс-Уильямс мазкур ноёб топилмани дастлабки оромий ёзув белгилардан иборат, хар бир белги илк ёзув элементи-идиограмма, деб ҳисобланади. Яьни, белгилар сўз бирлигидир. Юқоридаги холатларни ҳисобга олиб, тадқиқотчи Николас Симс-Уильямс Култепа ёзувларни суғдийларнинг илк ёзуви деб ҳисоблайди.

Бугунги кунларда ёзув тўлиқ ўрганилган ва ёзувнинг мазмунига кўра, Култепа ўрнидаги манзилгохни Сабадани исмли Чоч хокими бунёд этган. Унинг мақсади кўчманчилар яшаган мазкур жойда (номадлар-муаллиф) боғлар билан ўралган шаҳар бунёд этишни режалаштирган. Ёзувларда Самарқанд, Бухоро, Қеш, Нақшаб ва Чоч шаҳарларининг бошлиқлари номи қайд этилади. Матнда номаьлум шаҳарнинг хокими хазинасини яширишга харакат қилгани ва Сабадани томонидан ўлдирилиб, хазина қўлга киритилгани ҳақида ҳам маьлумот мавжуд.

Суғдий тили савдо, сиёсат, дин ва маданиятда бирлаштирувчи восита бўлган. Суғдий ёзувда таржима қилиб ёзилган бош қаҳрамони машҳур Рустам ҳисобланган эпик достон, Калила ва Димна, Эзопнинг афсоналари, Панчатантра ҳинд тўпламидан парчалар суғдий тилнинг аҳамиятнини кўрсатишга хизмат қиладиган воситалардан ҳисобланади. Бу суғдий тилнинг адабий таснифда “халқаро маданий тил” мақомига эгалигини кўрсатади.

Суғдий ёзуви Турк хоқонлиги шаклланган хам Марказий Осиё халқлари орасида амалда бўлиб, ёзув маданиятининг ривожидан дарак беради. Жумладан, туркий котиб Қутлуғ – Қутлуғ суғд-буддавий ёдгорлиги “Vajracchedika”ни суғдийда кўчиргани матндаги np’γšty γwtl’γ γurδ δstwβry – “ Қутлуғ томонидан ўз қўли билан ёзилди” жумласида келтирилади. Бу далил суғдий ёзувнинг туркий ёзув тизимлари шаклланишига замин яратганини кўрсатади. Натижада турк-руний ва турк-уйғур ёзувлари вужудга келишига ёрдам берган.

Суғдий тил сиёсий мақоми билан биргаликда ижтимоий ҳаётда ҳам муҳим ўрин тутган. Аввало, у савдо-сотиқ фаолиятини ҳужжатлаштиришда муҳим восита бўлиб хизмат қилган. Милодий I асрларда келиб суғдийларнинг Ҳинд воҳасига кириб бориши ва у ерда фаолиятини кучайтириши эпиграфик далиллар орқали тасдиқланади. XX-асрнинг 80-йилларида Шимолий Ҳиндистон ва Покистоннинг тоғли ҳудудларида олиб борилган тадқиқотлар давомида топилган 17 тилга оид 1,5 мингдан ортиқ ёзув намуналари орасида 250 дан ортиғи суғдий ёзувлар бўлиб, улар суғдий савдогарларнинг исмлари ва уларнинг Кеш ҳамда Маймурғ каби Суғднинг таркибий қисмларидан экани ҳақида маълумот беради. Бу далиллар суғдий ёзувнинг халқаро савдо алоқаларини ҳужжатлаштирганини кўрсатади.

Суғдий тил диний матнларнинг таржима тили сифатида ҳам алоҳида таснифланади. Буддавийлик, монийлик ва насронийлик динларининг матнлари суғдий тилига ҳам таржима қилинган бўлиб, бунда суғд тилини диний-маданий бирлаштирувчи-интеграция воситаси сифатида таснифланади.

VII асрнинг биринчи ярмида Хитой сайёҳи Сюань Цзан Нахшаб ҳудудида суғдий тили ва ёзувдан фойдаланилганлигини, Сиёб (Самарқанд)дан Кешгача бўлган ҳудудни Суғд деб атайди ва Нахшаб ва Кеш воҳаларида суғдий тил кундалик муомала, савдо ва диний маросимларда ишлатилганини таъкидлайди. Шунингдек, VIII асрда Хитойлик Хой Чао Кеш вилоятида асосан суғдий тилининг кучли таъсири ва қадимги Кешруд (Қашқадарё) воҳаси маданиятида ижтимоий-маданий интеграция воситаси сифатида таснифлаб кўрсатади.

Манбалар таҳлили асосида дастлабки вақтларда Турк хоқонлиги ҳудудида суғдий тилининг расмий тил эканлигини англаш мумкин. Бунда асли туркий ҳукумдорлар номлари ва улар томонидан чиқарилган тангалар ҳам Суғдий асосда эканлиги фикримизнинг яққол далили бўлиб хусусан: Нахшаб мулки ҳукмдорларидан бири бўлган Ашканд (740-746/747)643 ҳақида “Тан шу”да келтирилган Кеш ҳокими - ихриди Сагинти кабилар туркийлардан эди. Чунки “сыгин” туркий “эркин” унвонининг хитой иероглифидаги шакли ҳисобланиб суғдийча “šknδk” шаклида тангаларда номи келтирилган.

1974-йилда Қарши яқинида Еркўрғондан булла-муҳр муҳим аҳамиятга эга. Булла лойдан конуссимон муҳр кўринишида ясалган. Унда суғд ёзувида “ўлмас” сўзи ўқилади. Демак, Нахшаб ҳудудида Суғд ёзуви расмий мақомда бўлиб расмий ҳужжатлар ҳам суғд тилида юритилган, деб ҳисоблаш мумкин.

Таъкидлаш керакки, тил жиҳатдан этник бир бўлган халқлар баъзан алоҳида талқин қилинган. Масалан, лингвистик жиҳатдан Бухоро воҳаси, Қашқадарё ва Самарқанд аҳолиси суғдий тилда гаплашган бўлсалар-да, IV-VIII асрга оид манбаларда фақатгина самарқандлик ва панжикентликлар суғдийлар деб аталган. Юқоридаги фикрларни қадимги туркий ёзувлар ҳам тасдиқлайди. Унга кўра, суғдликлар (*согдақ) бухороликлар (буқарақ)* шаклида келган. Шундай бўлсада, Суғднинг уч қисми, Бухоро, Самарқанд ва Қашқадарё аҳаолиси этник жиҳатдан бир ва маданий жиҳатдан бир бўлган деб ҳисоблаш мумкин. Хитой манбаларида хозирги тўрт вилоят (Панжикент, Самарқанд, Бухоро ва Кашқадарё) аҳолиси ягона сиёсий ташкилот Суғд канфедерациясига кирган ва кўп манбаларда бевосита бўлмаса-да билвосита “суғдликлар” номи билан аталган.

Турк хоқонлиги даврида эса туркийлар воҳада етакчи кучга айланди. Аммо воҳанинг туркий ҳукмдорлари маҳкама ишларида суғдий тил ва ёзувдан фойдаланишган. Жумладан, VII–VIII асрларга мансуб тангаларини ҳам суғдий ёзув ва тилда зарб эттиришган. Бу фанда турк–суғд намунасидаги тангалар деб юритилади.

Қашқадарё воҳасидан жумладан, Шўртепа (Қуйи Қашқадарё) ёдгорлигидан қазиб олинган хумдаги уч бурчакли белги (ёзув), Овултепа, Қизтепа (Ўрта Қашқадарё) ёдгорликларидан топилган сопол идишлардаги белги-ёзувлар суғдий ёзуви билан бир қаторда маҳаллий ёзув маданиятининг ҳам мавжуд бўлганлигини кўрсатади. Албатта ушбу ҳолатда Нахшабнинг геосиёсий ўрни трансрегионал минтақада жойлашганлиги ҳам аҳамиятлидир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Абу Жаъфар Муҳаммад ибн Жарир ат-Табарий. Тарих ар-русул ва-л-мулук (Пайғамбарлар ва подшоҳлар тарихи). Ҳар хил нашрлари.

2. Ибн Хордадбеҳ. Китал ал-масалик ва-л-мамалик (Йўллар ва мамлакатлар ҳақида китоб). Ҳар хил нашрлари.

3. Подушкин А. Н. Культура времени государства Кангюй (II в. до н.э. – IV в. н.э.). – Алматы: Кітап, 2000.

4. Подушкин А. Н. Арамейоидное письмо Южного Казахстана // Вестник КазНУ. Серия историческая. – Алматы, 2012. *(Култепа топилмаларига оид).*

IX-XII ASRLARDA ILMIY METODLARNING O‘ZARO TA’SIRI

Usmonova Laylo Raxmatullayevna,
SamDTU “Ijtimoiy va gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti,
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotasiya. *Maqola IX-XII asrlarda ilmiy usullarning o‘zaro ta'sirini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Bu davrda ilm-fan va falsafa, musulmon dunyosi va Yevropa o‘rtasida faol rivojlanish kuzatildi. Arab olimlari, masalan, Al-Farobiy va Ibn Sino, grek falsafasining g‘oyalarini adaptatsiya qilish orqali tabiat va jamiyatni yangi tushunishga olib keldilar. Shuningdek, matematik va astronomik bilimlarni tarqatishga olib kelgan madaniy almashinuvlar ko‘rib chiqiladi.*
Kalit so‘zlar: *ilmiy usullar, o‘zaro ta’sir, Arab falsafasi, Yevropa Renessansi, madaniyat, komparativistika.*

Annotation. *The article is dedicated to analyzing the mutual influence of scientific methods in the IX-XII centuries, a period marked by active development of science and philosophy in the Islamic world and Europe. During this time, a synthesis of knowledge was observed, where Arab scholars, such as Al-Farabi and Ibn Sina, adapted Greek philosophical ideas, leading to a new understanding of nature and society. The article also examines cultural exchanges that facilitated the dissemination of mathematical and astronomical knowledge.*
Keywords: *scientific methods, interaction, Arab philosophy, European Renaissance, culture, comparative studies.*

Аннотация. *Статья посвящена анализу взаимного влияния научных методов в IX-XII веках, когда происходило активное развитие науки и философии в исламском мире и Европе. В этот период наблюдается синтез знаний, где арабские ученые, такие как Аль-Фараби и Ибн Сина, адаптировали греческие философские идеи, что способствовало новому пониманию природы и общества. Также рассматриваются культурные обмены, которые привели к распространению математических и астрономических знаний.*
Ключевые слова: *научные методы, взаимодействие, арабская философия, европейский Ренессанс, культура, компаративистика.*

Kirish. Ilmiy metod dunyoni bilishga tizimli, refleksiv va asosli yondashuvni ta’minlaydigan, tafakkur asosida obyektiv voqelik haqidagi bilimlarni kengaytirish, voqelik haqidagi farazlarni ilgari surish, farazlarni hissiy va obyektiv voqelik bilan taqqoslash maqsadida tajribalar va kuzatuvlar o‘tkazish, ushbu ma’lumotlarni tahlil qilish va amaliyotda qo‘llash imkonini beradigan fundamental vositadir.[1:99]

Ilmiy metod hodisalar haqida shunday bilimlar olish imkonini beradiki, ularni tekshirib ko‘rish, saqlash va boshqalarga yetkazish mumkin. Bundan fan umuman hamma hodisalarni emas, balki ulardan faqat takrorlanib turadiganlarini o‘rganishi darhol kelib chiqadi. Uning asosiy vazifasi bu hodisalarning sodir bo‘lish qonuniyatlarini topishdir. Turli davrlarda fan bu maqsadga turlicha erishdi. [4: 206] IX-XII asrlarda Sharq va G‘arb falsafiy tafakkuri, ilmiy usullar va metodlarining o‘zaro ta’siri, integratsiya imkoniyatlarini yaratib, global ilmiy, madaniy va falsafiy taraqqiyotning asosiy mexanizmlaridan birini tashkil etgan, bu jarayon tarjima harakati, madaniy almashinuv, falsafiy bahslar va teologik munozaralar orqali kuchaygan, natijada metafizika, epistemologiya, etika, teologiya, tibbiyot, astronomiya, matematika va optika kabi sohalarda yangi kashfiyotlar va sintezlar yuzaga kelgan.

O‘zaro ta’sir, Sharq mutakallimlar va peripatetik faylasuflar maktablari empirik kuzatuv, ruhiy tahlil va tajribaviy sinov metodlarini G‘arb sxolastika va erta Renessans faylasuflari ratsional dalillar, dialektik bahslar va teologik integratsiya yondashuvlari bilan birlashtirish, integratsiya imkoniyatlarini ta’minlagan, bu jarayon Abbosiy xalifaligi va Vizantiya imperiyasi orqali boshlangan. Sharq metodlarining empirik va ruhiy integratsiya o‘zaro ta’siri G‘arb

ratsionalizmini boyitgan, integratsiya imkoniyatlari tarjima maktablari orqali kuchaygan, ammo teologik farqlar cheklovlar yaratgan, shu bilan birga yangi sintezlar yuzaga keltirgan.

Aristotelizm va Ibn Sina ta'siri orqali o'zaro ta'sir integratsiya imkoniyatlarini kengaytirgan, natijada falsafa va ilm-fan birlashgan, tibbiyotda klinik kuzatuvlar, astronomiyada geotsentrik modellar tuzatishlari va matematikada algoritmlar yaratilgan. Ilmiy jihatdan, o'zaro ta'sir global falsafiy dialogni ta'minlagan, integratsiya imkoniyatlari empirik poklikka yaqinlashgan, ammo madaniy va diniy to'siqlar to'liq sintezga to'sqinlik qilgan, shu bilan birga yangi maktablar shakllantirgan. Bu davr IX asrda Abbosiy xalifaligida boshlanib, XII asrda Yevropa Renessansiga asos bo'lgan, zamonaviy ilmiy metodlarga ta'sir ko'rsatgan. Yangi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Sharq mutakallimlarining atomizmi G'arb anti-ratsionalizmiga ta'sir ko'rsatgan, faylasuflarining empirik metodlari sxolastika tajribalariga asos bo'lgan, integratsiya imkoniyatlari kuchaygan, arab matnlarini ivrit va lotin tillariga tarjima qilib, sintez yaratgan. O'zaro ta'sir integratsiya imkoniyatlarini ta'minlagan, Buyuk Ipak yo'li orqali hind va fors elementlari qo'shilgan, natijada Sharq-G'arb sintezi yuzaga kelgan. Komparativistika o'zaro ta'sirni baholab, integratsiya imkoniyatlarini kengaytirgan, global taraqqiyotni tezlashtirgan va zamonaviy falsafada davom ettirgan. Bundan tashqari, o'zaro ta'sir Salib yurishlari davrida ham davom etgan, chunki savdo va ilm aloqalari saqlangan, Yangi arxeologik topilmalar shuni ko'rsatadiki, Sharq fors va hind merosini G'arbga yetkazgan, o'zaro ta'sir tibbiyot va farmatsevtikada klinik metodlarni rivojlantirgan.

Tahlil va natijalar. Ilmiy bilish metodologiyasi tarixini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, fanning ilk qadamlari va uning usulining falsafiy in'ikosidan boshlab ikkita qarama-qarshi metodologik paradigma mavjud bo'lgan: monistik va plyuralistik. Monistik paradigma vakillari fanning barcha sohalarida qo'llaniladigan va voqelik haqida obyektiv-haqiqiy bilim olishning kafolatidir. Boshqa tomondan, plyuralistik paradigma tarafdorlari obyektiv voqelik o'z mazmuniga ko'ra shunchalik xilma-xilki, uni qandaydir universal usul yordamida bilish mumkin emas, degan fikrdan kelib chiqdilar. Ilmiy bilish metodi bilish predmetiga korrelyativ bo'lishi kerak, shuning uchun metodologik plyuralizm muqarrar.[2:46] IX-XII asrlar falsafa va ilm-fan tarixida metodlarning o'zaro ta'siri va integratsiya imkoniyatlari, Sharq Uyg'onish davri va G'arb sxolastik boshlanishining asosiy jihatlarini yoritadi, bu jarayon madaniy, ilmiy va teologik almashinuv orqali shakllangan, Abbosiy xalifaligi ostida Bayt al-Hikma markazida yunon, hind, fors va suryoniy meroslari tarjima qilinib, o'zaro ta'sir ta'minlangan. Sharqda mutakallimlar ratsionalizm va dialektikani teologik kontekstda rivojlantirgan, o'zaro ta'sir orqali faylasuflar empirik metodlarini boyitgan, integratsiya imkoniyatlari yunon merosi sintezida yuzaga kelgan, natijada metafizika va epistemologiyada yangi nazariyalar shakllangan. G'arbda sxolastika ratsional dalillarni arab ta'sirida ishlatgan, o'zaro ta'sir empirik elementlarni qo'shgan.

XII-XIII asrlar bu madaniyatlarni bir-biri bilan qizg'in bahsda, aniqrog'i, keskin idiosinkraziya holatida, rasmiy G'arb tomonidan averroizmning asosiy qoidalarini qat'iy rad etishda uchratadi. Foma Akvinskiyning "Majusiylarga qarshi yig'indisi" — lotinlar va arablar nomutanosibligining cho'qqisi — bu madaniyatlarning uyg'unlasha boshlaganidan ham dalolat beradi. Fomaning teologik invektivasi qahr-g'azabi o'z-o'zidan asos va oqlashga ega edi: u Yevropa o'rta asr ongining bid'atchi qutbida averroizmni qabul qilishning oqibati edi. Brabantlik Siger (XIII asr) va uning maslakdoshlari bunga misol bo'la oladi. Shunday qilib, uchrashuv — muloqot, bahs, munozara, turnir, o'zaro qabul qilish va qabul qilmaslik allaqachon boshlangan. Ikki madaniyatning diaxron, nisbatan mustaqil tarixiy o'z-o'zidan harakati natijasida sinxron o'zaro ta'siri boshlandi. Qo'shni madaniy birliklarning dialogik munosabatlarini o'rganish ularning har ikkalasini ham tushunishga yordam beradi, ammo bu ularning o'xshashliklaridan ko'ra farqlarida ko'proq namoyon bo'ladi. Farqqa urg'u berish - ularning o'xshashligini fosh etish uchun koddir. Madaniyatlar muloqotini qayta tiklash ushbu madaniyatlarning tarixiy rekonstruksiyasi uchun evristik vositadir. Tarixan shakllangan tafakkur turlarini ajratib turuvchi to'siqlar mavjudligini anglash — bu to'siqlarni yengishning boshlanishidir.[3: 193]

Komparativ tahlil o‘zaro ta’sirni ko‘rsatadi, tarjima maktablari orqali integratsiya imkoniyatlari kuchaygan. Ilmiy tahlilda, Sharq metodlari o‘zaro ta’siri tajribaviy yangiliklarni ta’minlagan, integratsiya imkoniyatlari teologik sintezda bo‘lgan, G‘arbda sxolastika o‘zaro ta’sir orqali empirikni qo‘shgan. Sharq Uyg‘onish omillari o‘zaro ta’sirni boyitgan, turli xalqlar aloqalari orqali madaniy sintez yuzaga kelgan. G‘arbda sxolastika Arastu ta’sirida shakllangan, arabdan empirik olib kelingan. O‘zaro ta’sir yunon merosini baholagan, Sharqda arab tilida boyitilgan va G‘arbga o‘tgan. Teologik qarshiliklar integratsiyani sekinlashtirgan, tarjima yengilgan. Yangi ma'lumotlar bo‘yicha, mutakallimlar metodlari o‘zaro ta’sir orqali G‘arb teologiyasiga ta’sir ko‘rsatgan. Aristotelizm Sharqda rivojlanib, G‘arbda integratsiya qilingan. Al-Farobiyning tasnifi G‘arbda ishlatilgan. Kontekst Ipak yo‘li orqali kuchaygan, hind elementlari qo‘shilgan.

O‘rta asrlarda tabiatni ratsional bilish ehtiyoji turli diniy ta’limotlar doirasida inson taqdirini tushunishga urinishlar bilan bir qatorda butunlay so‘nib qoldi. Deyarli o‘n asr davomida din na tanqidga, na hatto muhokamaga loyiq bo‘lmagan borliqning barcha savollariga mukammal javoblar berib keldi. Yevklid asarlari XII asrda lotin tiliga tarjima qilinib, Yevropada mashhur bo‘ldi. Biroq, o‘sha paytda ular shunchaki yodlab olish kerak bo‘lgan aqlli qoidalar to‘plami sifatida qabul qilingan - ular haqiqat ildizlarini izlash o‘rniga ishonishga odatlangan o‘rta asr Yevropasining ruhiga shunchalik begona edi. Ammo bilimlar hajmi shiddat bilan o‘sib bordi va ularni o‘rta asr aql-zakovatlari yo‘nalishi bilan muvofiqlashtirishning iloji bo‘lmay qoldi.[4: 206]

Sharq va G‘arb metodlarining o‘zaro ta’siri integratsiya imkoniyatlarini yaratgan, Ibn Sina empirik metodlari Tomas Akvinskiy sintezida ishlatilgan, o‘zaro ta’sir tibbiyotda klinik kuzatuvlarni integratsiya qilgan. Ibn Rushd Arastu sharhlarida o‘zaro ta’sir ratsionalizmni himoya qilgan, G‘arb Averroizmida integratsiya qilingan. Al-Roziy klinik metodlari Konstantin Afrikalik orqali G‘arb tibbiyotiga o‘tgan, o‘zaro ta’sir Salerno maktabini shakllantirgan. Al-Battaniy astronomiya tuzatishlari Adelard Bathlik taqqosida integratsiya qilingan, o‘zaro ta’sir geotsentrikdan geliotsentrik o‘tishga asos bo‘lgan.

Xulosa qilib, IX-XII asrlarda ilmiy metodlarning o‘zaro ta'siri, o‘z navbatida, ilm-fanning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Bu davrda arab, fors va turk madaniyatlari o‘rtasidagi aloqalar, ilm-fanning taraqqiyotiga katta ta'sir ko‘rsatdi. Ilmiy metodlarning rivojlanishi: - Arab olimlari o‘z asarlarida yuzlab ilmiy metodlarni jamlab, ularni mukammallashtirdilar; - Fors ilmida falsafa va matematika usullari arab ilmida eksperimental metodlar bilan birlashdi. Madaniy almaxinuv esa turli madaniyatlar o‘rtasidagi almashinuv, ilmiy bilimlarning tarqalishiga olib keldi. Ilmiy metodlarning rivoji ijtimoiy hayotda ham o‘z aksini topdi, bu esa ilmni ommalashtirishda muhim rol o‘ynadi, bilimga bo‘lgan qiziqish, jamiyatning rivojlanishiga turtki bo‘ldi.

Foydalanilgani adabiyotlar ro‘yxati:

1. Лебедев С . А . Краткий словарь по методологии научного познания . М .: Издательство МГТУ им . Н . Э . Баумана, 2017

2. Лебедев Сергей Александрович, Мазякин Максим Сергеевич ИСТОРИЯ НАУЧНОГО МЕТОДА: ОСНОВНЫЕ ЭТАПЫ // Современные философские исследования. 2024. №2.

3. Рабинович В.Л. Алхимия как феномен средневековой культуры. М., 1979

4. Силакова Т. Т., Силаков К. И. Возникновение и развитие научного метода // Вісник НТУУ "КПІ". Серія Радіотехніка, Радіоапаратобудування. 2012. №48.

BUDDIZM, XRISTIANLIK, ISLOM DINING IPAK YO‘LI ORQALI TARQALISHI

Rajabova Zuhra Sa’dullayevna,
Urganch Ranch universiteti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti
https://orcid.org/0009-0006-8184-0512

Annotatsiya. *Mazkur maqolada buddizm, xristianlik va islom dinlarining Buyuk Ipak yo‘li orqali tarqalish jarayonlari tarixiy-madaniy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Unda savdo yo‘llari, missionerlik faoliyati, davlat siyosati va shahar madaniyatining dinlararo aloqalar hamda diniy g‘oyalarning yoyilishidagi o‘rni yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Buyuk Ipak yo‘li, buddizm, xristianlik, islom, dinlar tarixi, Markaziy Osiyo, savdo yo‘llari, madaniy aloqalar, diniy bag‘rikenglik.*

Аннотация. *В данной статье с историко-культурной точки зрения анализируются процессы распространения буддизма, христианства и ислама через Великий шелковый путь. В ней освещается роль торговых путей, миссионерской деятельности, государственной политики и городской культуры в развитии межрелигиозных связей и распространении религиозных идей.*

Ключевые слова: *Великий шелковый путь, буддизм, христианство, ислам, история религий, Центральная Азия, торговые пути, культурные связи, религиозная толерантность.*

Abstract. *This article analyzes the spread of Buddhism, Christianity, and Islam through the Great Silk Road from a historical and cultural perspective. It highlights the role of trade routes, missionary activity, state policy, and urban culture in the development of interreligious relations and the dissemination of religious ideas.*

Keywords: *Great Silk Road, Buddhism, Christianity, Islam, history of religions, Central Asia, trade routes, cultural relations, religious tolerance.*

Kirish. Buyuk Ipak yo‘li insoniyat tarixidagi eng yirik transkontinental yo‘l bo‘lib, 2000 yildan ortiq vaqt davomida Osiyo qit’asi bo‘ylab cho‘zilgan va Xitoyni O‘rta yer dengizi bilan bog‘lgan quruqlik va dengiz savdo yo‘llari tarmog‘i edi. Ipak yo‘li nafaqat ipak savdosi balki ziravorlar va qimmatbaho toshlar kabi tovarlar bilan savdo qilishga xizmat qilgan, shu bilan birga g‘oyalar, falsafa va dinlarni uzatishning muhim vositasi hisoblangan. Bu tarmoq turli sivilizatsiyalarni bog‘lab, madaniy sintez uchun sharoit yaratgan.

Asosiy qism. Eng qadimgi, bevosita va eng ko‘p foydalanilgan yo‘l Buyuk Ipak yo‘li deb nomlangan bo‘lib, u yerda qimmatbaho Xitoy matolari ko‘p miqdorda almashtirilgan. “Ipak yo‘li” atamasi Xitoy va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi savdo yo‘nalishini ifodalaydi. Milodiy 100-yilda Yevropa va Osiyo o‘rtasida tovarlarni tashish uchun quruqlik savdo yo‘li tarmog‘i yaratilganda boshlanadi. Shoyi Yo‘nalish Markaziy Osiyodan o‘tadi va 6400 km masofani qamrab oladi; bu Uzoq Sharq va Xitoyni Hindiston va Yevropa bilan bog‘laydigan birinchi diplomatik va transkontinental savdo yo‘lidir[2: 19]. Bu yo‘l nafaqat tovar ayirboshlash magistrali, balki jahon dinlari - buddizm, xristianlik va islomning G‘arb va Sharq o‘rtasida tarqalishini ta’minlagan asosiy madaniy-ma’naviy koridor vazifasini ham o‘tagan.

Miloddan avvalgi I asr boshlarida Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab yashovchi xalqlarning diniy e’tiqodlari keyinchalik paydo bo‘lganlardan tubdan farq qilgan. Yaqin Sharqda yunon-rum butparastligi, Misrning qadimgi dinlari, Fors va Markaziy Osiyoda esa zardushtiylik keng tarqalgan. Bu davrda Buddizm Markaziy Osiyoda ma’lum bo‘lgan, ammo hali Xitoyda keng tarqalmagan, xristianlik va islom esa hali paydo bo‘lmagan edi. Savdo va sayohat bu diniy manzarani tubdan o‘zgartirdi va Ipak yo‘li diniy targ‘ibotning asosiy yo‘nalishiga aylandi.

Buddizm Hindistonda paydo bo‘lgan va Ipak yo‘li orqali Markaziy Osiyo, Xitoy va butun Sharqiy Osiyoga tarqalib, birinchi jahon diniga aylandi. Milodiy I asrning o‘rtalarida Xitoy imperatorlik sudi tomonidan buddizmning rasman tan olinishi uning butun mamlakat bo‘ylab

tarqalishiga kuchli turtki bo‘ldi. Hukmdorlar va oddiy odamlar monastirlar va ibodatxonalar qurilishiga homiylik qilishgan. Dunxuan kabi yirik buddist markazlari va Mogao g‘orlari ziyoratchilar uchun muhim manzilga aylandi.

Shuningdek, Hukmdorlar o‘z hokimiyatlarini qonuniylashtirishda ham buddizmdan foydalanishgan. Bu siyosiy vaziyat o‘zgarganda, masalan, Tang sulolasi qulashi davrida diniy ta’qiblarga olib keldi. Buddizmning tarqalishiga bir qancha muhim omillar ta’sir ko‘rsatgan. Ulardan eng muhimlari savdogarlar, rohiblar va monastirlar bo‘lib, dinning tarqalishida asosiy vositachilar bo‘lib xizmat qilgan. Ular nafaqat buyumlarni, balki muqaddas yozuvlarni, san’at asarlarini va diniy g‘oyalarni ham olib yurishgan. Ipak yo‘li bo‘ylab qurilgan buddist ibodatxonalari tez orada nafaqat diniy markazlarga aylangan, ular savdogarlar va sayohatchilar uchun dam olish joylari, xavfsiz boshpanalar va hatto moliyaviy muassasalar vazifasini ham o‘tagan. Ular boshpana, oziq-ovqat va xavfsizlikni ta’minlash orqali uzoq masofali savdoni rag‘batlantirganlar. Vaqt o‘tishi bilan, bu monastirlar xayriya va yer grantlari orqali ulkan boylik to‘pladilar, o‘zlari ham yirik iqtisodiy o‘yinchilarga aylandilar, savdo va moliyaviy xizmatlarda faol ishtirok etdilar. Markaziy Osiyo buddizmning tarqalishida hal qiluvchi rol o‘ynadi. Haykaltaroshlik uslublari, tasviriy motivlar va ibodatxonalar me’morchiligi - turli mintaqalarda diniy tushunchalarni yetkazishning asosiy vositasiga aylandi. Ayniqsa, Gandhara (hozirgi Pokiston va Afg‘oniston) san’ati yunon-buddist madaniy uyg‘unligining yorqin namunasidir. Ushbu san’atda buddistlik mazmuni ellinistik haykaltaroshlik uslublari bilan birlashtirilib, antropomorfik shaklidagi budda haykallari yaratildi, keyinchalik ular Ipak yo‘li orqali Sharqqa uzatildi. Buddizm yangi mintaqalarga tarqalishi bilan u o‘sha mintaqalarning e’tiqodlari va an’analariga moslashdi. Xitoyda buddizm daosizm va konfutsiychilik bilan o‘zaro ta’sir orqali o‘ziga xos xitoycha shaklni rivojlantirdi. Ipak yo‘li san’ati buddizm va islom diniy san’atini, tasviriy devoriy rasmlar kabi san’atning muayyan uslublari g‘oyalarini va turli san’at asarlarini, jumladan, ulkan haykallar va bosma tasvirlarni yaratish texnologiyalarini o‘z ichiga oladi. Tarixda Ipak yo‘li, muloqot, savdo, o‘zaro ta’sir va almashish yo‘llari odamlarni va ularning madaniyatlarini birlashtirib kelgan[3: 299-300]. Mogao g‘orlaridagi devoriy suratlar va haykallar buning yorqin dalilidir. Buddist missionerlari sanskrit yozuvlarini mahalliy tillarga tarjima qilishda muhim rol o‘ynadi, bu esa xitoy tiliga taxminan 35 000 ta yangi so‘z qo‘shdi. Bu moslashuvchanlik Buddizmning turli madaniyatlarda chuqur ildiz otishiga imkon berdi.

O‘zbekiston, xususan Farg‘ona vodiysining arxeologik obyekti hisoblangan Quva topilmalari, Hindistonda aniqlangan arxeologik topilma materiallarga aynan o‘xshashligi, bu shaharda karvon yo‘llari tutashgan chorrahada joylashganligi, savdo-sotiq madaniy-iqtisodiy aloqalarining rivojlanganini, madaniyat va san’atni yuksalganini ko‘rsatadi. Taniqli arxeolog V.A. Bulatova rahbarligidagi arxeologik ekspeditsiya Quvada Markaziy Osiyoda yagona budda ibodatxonasi bo‘lganligini aniqlagan. Budda madaniyatiga oid bu namunalar Toshkent muzeylarida saqlanadi va ular VII asrga oid deb taxmin qilingan[4: 51]. Chunki ibodatxonadan topilgan budda dini ilohilari (xudolari) bilan bog‘liq siymolarni haykallari va tasvirlari shundan dalolat beradi. Bunga ikki odam bo‘yi bilan barobar haybatli budda haykalini va budda dinidagi Shri-devi, Manchjushri ilohlari siymolari haykallari kiradi.[1: 61-62]. Buddizm O‘rta Osiyoga o‘zining kelib chiqish markazi bo‘lgan Hindistondan Baqtriya orqali kirib kelgan. Quva Farg‘ona aloqalari savdo yo‘li bo‘yidagi yirik shahar bo‘lib, budda ibodatxonasi xuddi shu yo‘lovchi dindorlarga mo‘ljallab qurilgan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Mintaqalararo aloqalarning mustahkamlanishi Markaziy Osiyo mintaqalari iqtisodiyotining rivojlanishiga va qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik mahsulotlarini ayirboshlash markazlari paydo bo‘lishiga olib keldi. Mahalliy hukmdorlarning u yoki bu dinni qabul qilishi uning davlat miqyosida tarqalishi uchun kuchli turtki bo‘lgan. Keyinchalik Kushon podsholigi kabi davlatlar ham buddizmning Markaziy Osiyoda gullab-yashnashiga homiylik qilgan.

Xristianlik ta’limoti V asrda Konstantinopol patriarxi Nestorius tomonidan ilgari surilgan va Vizantiya imperiyasida bid’at deb e’lon qilinganidan so‘ng, uning izdoshlari sharqqa ko‘chib o‘tishga majbur bo‘lishgan. Xristianlik, ayniqsa Sharqiy pravoslavlik, Ipak yo‘li orqali Markaziy

Osiyo va Xitoyga tarqaldi. Uning tarqalishi asosan savdo va missionerlik faoliyati bilan bog‘liq edi. Xristian missionerlari savdo karvonlariga qo‘shilib, ongli ravishda o‘z dinlarini yoyishga harakat qilishdi. Ular Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab joylashgan yirik shaharlarda o‘z cherkovlari va jamoalarini tashkil etishgan. Bundan tashqari, forslar, sug‘dlar va baqtriyaliklardan tashkil topgan “ekspat” jamoa bo‘lib, ular suryoniy tilini liturgik til sifatida ishlatganlar. So‘g‘d xristianlari Ipak yo‘li savdosida muhim rol o‘ynagan va o‘z e’tiqodlarini tarqalishiga ham hissa qo‘shganlar. Xitoyning Turpan mintaqasidagi Xipang monastiri xarobalari kabi arxeologik kashfiyotlar mintaqada suryoniy xristianligining mavjudligini tasdiqlovchi yangi dalillarni taqdim etdi. 2021 - 2023-yillarda o‘tkazilgan ilmiy qazishmalar natijasida me’moriy tuzilishi to‘liq saqlanib qolgan monastir, ko‘p tilli diniy va dunyoviy matnlar, jumladan, Aristotelning “Kategoriyalar” asarining eng qadimgi tarjimalari hamda G‘arbiy Osiyo diniy an’analarining mahalliy Xitoy va Markaziy Osiyo madaniyatlari bilan uyg‘unlashuvini yaqqol ko‘rsatuvchi artefaktlar topildi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, xristianlik kichikroq, siyosiy jihatdan uyushgan jamiyatlarda tezroq tarqaldi. Xristianlikning muvaffaqiyatiga hissa qo‘shgan ikkita asosiy omil faol targ‘ibotchi va mutlaq imon (boshqa xudolarni inkor etish) edi. Ko‘pxudolikka asoslangan dinlardan farqli o‘laroq, xristianlikni qabul qilish boshqa barcha e’tiqodlardan voz kechishni talab qildi, bu esa dinlarning tarqalishi bilan birga boshqa dinlarning yo‘q bo‘lib ketishiga olib keldi. Bu omillar xristianlikning sekin, ammo barqaror o‘sishini ta’minladi.

VII asrda Arabiston yarim orolida paydo bo‘lgan islom savdo yo‘llari, xususan, dengiz va quruqlikdagi Ipak yo‘llari bo‘ylab sharqqa tez tarqaldi. Islom dini tarqalishining eng muhim mexanizmi savdo edi. Islomdan oldingi davrda savdo ko‘pincha “estafeta” usulida, ya’ni mahalliy savdogarlar o‘z hududlarida tovarlarni bir-biriga o‘tkazish orqali amalga oshirilgan. Musulmon savdogarlari esa “to‘g‘ridan-to‘g‘ri savdo” deb nomlangan yangilikni joriy qildilar: ular karvonlar bilan butun masofani shaxsan bosib o‘tib, turli mintaqalardagi odamlar bilan bevosita muloqotga kirishganlar. Bu yaqin ijtimoiy aloqalar Islom ta’limotlari va qadriyatlarining tabiiy ravishda tarqalishiga imkon berdi. Musulmon savdogarlari o‘z dindoshlari bilan savdo qilishni afzal ko‘rishgan va islomiy qonunlar ham musulmon savdogarlarga ma’lum imtiyozlar bergan. Bu omillar mahalliy savdogarlar va hatto hukmdorlarni Islomni qabul qilishga undagan, chunki bu ularga G‘arbiy Osiyodan Xitoygacha cho‘zilgan ulkan savdo tarmog‘ining bir qismiga aylanish imkonini bergan. Natijada, Ipak yo‘li bo‘ylab musulmon savdogarlarining manzilgohlari va masjidlar paydo bo‘la boshladi, masalan, Xitoyning Tan imperiyasi poytaxti Chan’an shahrida musulmonlar uchun alohida mahallalar ajratilgan. Tan imperatori tomonidan 757-yilda An Lushan qo‘zg‘olonini bostirishda yordam bergan musulmon askarlariga imperiyaning g‘arbiy chekkalarida yerlar beriladi. Shuningdek, ularga xitoylik ayollarga uylanishga va islomiy qonunlarga ko‘ra, musulmon otadan tug‘ilgan farzandlar musulmon bo‘lib tarbiyalanishiga ruxsat berilgan. Bu Xitoyda bugungi kunda “Hui” nomi bilan tanilgan etnik xitoy musulmonlari jamoasining shakllanishiga asos bo‘lgan deb hisoblanadi. Bundan tashqari, tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, Indoneziya orollariga musulmon savdogarlari u yerdagi noyob ziravorlar sabab kelib, savdogarlarning ba’zilari Indoneziyada o‘rnashib, mahalliy aholi bilan aralashib ketgan deb taxmin qilinadi. Bundan tashqari, musulmon savdogarlari Sumatra oroliga kelganidan so‘ng, orol qirollari islom diniga e’tiqod qila boshladilar, bu esa milodiy XII asr atrofida ularning savdo yo‘llariga qo‘shilishini yanada osonlashtirgan. Qirolliklar orasida islomni qabul qilishning arxeologik dalillarini XIII asrdagi Sumatra qirollarining islom yili sanasi o‘yilgan qabr toshlarida ko‘rish mumkin. Tan sulolasiga (milodiy 618-907-yillar) tegishli bo‘lgan va musulmon savdogarlari tomonidan Filippinga olib kelingan chinni buyumlar kabi arxeologik yozuvlar X asrgacha musulmonlar bo‘lganligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, XIII asrda musulmon savdogarlari va mahalliy aholi o‘rtasidagi aloqalar, shuningdek, Filippinning janubi va Bruney, Malayziya yoki Indoneziya kabi boshqa qo‘shni hududlar o‘rtasidagi Ipak yo‘li orqali savdo-sotiq islomning mahalliy aholi orasida tarqalishini rag‘batlantirgan. Shuning uchun islom Janubi-Sharqiy Osiyoga musulmon savdogarlari va mahalliy aholi o‘rtasidagi savdo-sotiq va o‘zaro aloqalar orqali tinch yo‘l bilan kirib keldi,

deyish mumkin. Xuddi buddaviylik singari islom ham Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqalaridagi mavjud madaniy va diniy ta’sirlar bilan qorishib ketdi.

VIII asrda Islomning tarqalishi bilan O‘zbekiston hududidagi Buxoro, Samarqand va Xiva kabi Ipak yo‘li shaharlari gullab-yashnab, Islom oltin davrining yirik ilmiy, madaniy va diniy markazlariga aylandi. Shuningdek, Ipak yo‘li tarmog‘idagi eng ustun dinga aylandi va bugungi kunda ham qadimgi Ipak yo‘li hududlarida yashovchi ko‘plab xalqlar islom diniga e’tiqod qiladi. Janubi-Sharqiy Osiyo, Markaziy Osiyo va Sahroi Kabirdan janubdagi Afrika kabi dunyoning ko‘p qismlarida Islom asosan musulmon savdogarlari va so‘fiy ustozlari orqali tinch yo‘l bilan tarqaldi. Musulmon savdogarlari katta ta’sirga ega edilar va Islomning kirib kelishi keng savdo tarmoqlariga kirish, barqaror savdo oqimlari hamda tranzaksiya xarajatlarining kamayishi kabi muhim iqtisodiy afzalliklarni taqdim etgan. Ko‘plab tadqiqotlar Islomning tarqalishi va Islomdan oldingi (milodiy 600-yilgacha) savdo yo‘llariga yaqinlik o‘rtasida kuchli bog‘liqlikni aniqladi. Musulmonlar boshqa musulmonlar bilan savdo qilishni afzal ko‘rganliklari sababli, Islomni qabul qilish ko‘plab savdogarlar va mahalliy aholiga iqtisodiy foyda keltirdi. Islom dini o‘zining vujudga kelgan joyi - Arabiston yarim oroliga ekologik jihatdan o‘xshash hududlarda: qurg‘oqchil va yarim qurg‘oqchil yerlar va unumdor vohalarga notekis geografiyaga ega mintaqalarda muvaffaqiyatli tarqaldi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tarixiy savdo yo‘llariga yaqin joylashgan mamlakatlar musulmon bo‘lish ehtimoli ko‘proq. Bu hududlarda qishloq xo‘jaligi va chorvachilik hamda savdoga ehtiyoj o‘rtasidagi ziddiyatlar ham yuqori bo‘lgan. Islom savdo karvonlari xavfsizligini ta’minlovchi qayta taqsimlash iqtisodiy tamoyillari ushbu mintaqalarda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash uchun jozibador modelni taqdim etdi. Islom sivilizatsiyasi ilm-fan va tibbiyotda katta yutuqlarni olib keldi. Xitoylik buddist savdogarlar islomiy tibbiy bilimlarni (yaralarni davolash, siydikni tekshirish) o‘zlashtirdilar, Hindistonga musulmonlar astronomiya sohasidagi yangiliklarni, jumladan, geosentrizmga shubha bilan qarashni olib kerishdi. Islom san’atida uzoq vaqt davomida taqiqlangan inson tasvirlari XII asrdan boshlab paydo bo‘la boshladi. Bu o‘zgarishga buddaviylik va hind san’atining ta’siri bo‘lgan deb taxmin qilinadi. Vaqt o‘tishi bilan Islom Ipak yo‘li bo‘ylab avval hukmron bo‘lgan buddaviylik va zardushtiylik kabi dinlarni siqib chiqardi va mintaqadagi asosiy dinga aylandi. Bugungi kunda ham Islom dini Markaziy Osiyo davlatlarining ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim rol o‘ynashda davom etmoqda.

Xulosa. Buyuk Ipak yo‘li dinlararo almashinuvlar faol amalga oshiriladigan noyob makon edi. Asrlar davomida turli millat va din vakillari tinchlik va hamjihatlikda yashab, bir-birlarining madaniyatini boyitib kelgan. Har bir din o‘zining tarqalish usuli va Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab yashovchi odamlarga o‘ziga xos ta’siri bilan farq qildi. Ikki ming yildan ortiq vaqt davomida Ipak yo‘li Yevroosiyo bo‘ylab diniy e’tiqodlarni sayohat qilish va tarqatish uchun yo‘llar tarmog‘i bo‘lib kelgan. Bu umumiy huquqiy va axloqiy asosga ega bo‘lgan ulkan yagona savdo maydonini yaratdi. Savdoning rivojlanishi Samarqand, Buxoro va Xiva kabi yirik shahar markazlarining paydo bo‘lishiga olib keldi.

Foydalanilgani adabiyotlar ro‘yxati:

1. А.Анорбоев, У.Исломов, Матбобоев Б.Х. Ўзбекистон тарихида Қадимги Фарғона. Тошкент - 2001. 68 b.
2. Archana Gupta. An outline of ancient silk route in central Asian region: Reference with Buddhism. Journal of Advances in Humanities and Social Sciences 2020, 6(1): 19-26.
3. D.Davronov. Buyuk Ipak yo‘li xalqlari san’ati jarayoni va evolyutsiyasining nazariy asoslari. “Science and Education” Scientific Journal / November 2024 / Volume - 5. Issue - 11. P.299-305.
4. Матбобоев Б.Х., Шамсутдинов Р.Т, Мамажонов А. Буюк ипак йўлидаги Фарғона шаҳарлари. Андижон: - 1994. 76 b.

JAMIYAT TARAQQIYOTIDA AYOLLARNING IJTIMOIY MAVQEI EVOLYUTSIYASI

Kuanishova Dilmira Tuychiyevna,
I.Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
“Falsafa va milliy g‘oya” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada jamiyat rivoji turli bosqichlarida gender masalalari va feminizm harakatlarining shakllanishi haqida so‘z yuritilgan. Shu bilan birga zamonaviy jamiyat taraqqiyoti masalalarining yechimida xotin-qizlar ijtimoiy mavqeini oshirishning ijtimoiy-falsafiy tahlili keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Fuqarolik jamiyati, kamsitish, ijtimoiy tenglik, ijtimoiy mavqe, xotin-kizlarning ijtimoiy mavqei, gender tengsizlik, matriarxat, ijtimoiy xarakatlar, feminizm, feminizm nazariyalari, gender tenglik.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются гендерные вопросы и формирование феминистских движений на разных этапах социального развития. Одновременно представлен социально-философский анализ повышения социального статуса женщин в решении проблем развития современного общества.*

Ключевые слова: *Гражданское общество, дискриминация, социальное равенство, социальный статус, социальный статус женщин, гендерное неравенство, матриархат, общественные движения, феминизм, феминистские теории, гендерное равенство.*

Abstract. *This article examines gender issues and the formation of feminist movements at different stages of social development. It also presents a socio-philosophical analysis of how women's social status has improved in addressing the developmental challenges of modern society.*

Keywords: *Civil society, discrimination, social equality, social status, social status of women, gender inequality, matriarchy, social movement, feminism, feminist theories, gender balance.*

Zamonaviy fuqarolik jamiyatida gender tenglik masalalari o‘z yechimini topib bormokda ya’ni bugungi kunda xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va mavqei jadal ravishda oshib bormoqda. Jumladan, bu jarayonni dunyoning deyarli barcha mamlakatlari iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ijtimoiy hayotida xotin-qizlarning hajmi ortib borishida kuzatish mumkin. Lekin shunga qaramay xotin-qizlarning zamonaviy jamiyatning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlariga moslashuv jarayonida ba’zi bir kamchiliklar ham mavjuddir. Shu xolat bilan bog‘liq xolatda XX asrning oxirlaridan boshlab xotin-qizlar huquqini muhofaza qilish bo‘yicha faoliyat jarayoni faollashib, juda ham katta global va xalqaro masalaga aylandi. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan jamiyatda erkak va ayollar o‘rtasidagi gender tenglikka erishish maqsadida bir qancha xalqaro hujjatlar, jumladan “Ayollarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllarini bartaraf etish to‘g‘risidagi konvensiya” qabul qilindi. Bu xalqaro hujjatda kayd kilinganidek, shu kungacha ayollarni jinsiga qarab farqlash, to‘siqlar qo‘yish kabi kamsitish xolatlari mavjud ekanligi, bu xolatlarni bartaraf etish, hamda erkak va ayollar o‘rtasidagi ijtimoiy tenglikka erishish uchun ularning oila va jamiyatdagi an’anaviy rolini o‘zgartirish lozimligi, chunki bolalar tarbiyasi nafaqat ayollarning, balki erkaklarning ham, umuman olganda butun bir jamiyatning mas’uliyatini talab qiladi. Jamiyatning barcha tarixiy davrlarida gender tenglik masalalari ya’ni ayolning jamiyatdagi ijtimoiy mavqei va o‘rni to‘g‘risidagi bahslar mavjud bo‘lgan, lekin tarixiy taraqqiyotning har bir bosqichida bu muammo o‘zining dolzarbligi va xususiyati bilan ajralib turgan.

Xotin-qizlarning ijtimoiy mavqei strukturasi ya’ni tuzilmasi uzoq tarixiy davrlar davomida shakllanib borgan. Uning o‘ziga xos xususiyati shundaki, erkak va ayollarning ijtimoiy tengsizligi tarixan shakllanib oddiy holat sifatida mavjud bo‘lib kelganligidadir. Ijtimoiy mavqe tushunchasi aniq mavjud siyosiy-huquqiy tizimning yutuqlari va shu bilan birga kamchiliklarini

ham obyektiv ravishda ifodalab beradi. Bu tushuncha jamiyatning muhim tarkibiy tuzilmasini tashkil qiladi, shuning uchun eng avvalo, uning qaysi ijtimoiy taraqqiyot shaklida vujudga kelganligi va shakllanganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘rganmasdan va tahlil qilmasdan oldin uni to‘g‘ri tushunib bo‘lmaydi.

Masalan, antik davrlardan boshlab, o‘rta asrlar, Uygonish davri va to hozirgi vaqtgacha bo‘lgan uzoq tarixiy davrlar davomida gender tengsizlik to‘g‘risidagi ijtimoiy-falsafiy va huquqiy fikrlar hamda qarashlar o‘z rivojining bir qancha xronologik ketma-ketlik bosqichlarini bosib o‘tdi. Ushbu tarixiy davrlar davomida yaratilgan ta’limot va qarashlar jamiyatda xotin-qizlar ijtimoiy mavqei shakllanishi va rivojlanishining asosini tashkil qildi.

Antik davrlardan boshlab, ayolning jamiyatda egallagan mavqeidan qatiy nazar, erkak va ayolning gender tengsizligi qadriyatlari tan olingan edi. Bunday holatning mohiyati shu bilan asoslangan ediki, ayollar va erkaklar “turli tabiiy xususiyatlarga ega va ular teng bo‘lishi mumkin emas” edi. Gender tengsizlik tushunchasining klassik tarafdori yirik yunon faylasufi Platon (e.a. 427-374 y.y.) bo‘lib, u ayolni quyi mavjudot, unga bo‘lgan muhabbatni esa - hayvonlarga xos hissiyot, ya’ni avlodni davom ettirish va ko‘paytirish ehtiyojidan bo‘lak boshqa hech narsa emas, deb hisoblagan.

Platonning erkak va ayolning kelib chiqishi to‘g‘risidagi qarashlari “Bazm” asarida keltirilgan bo‘lib, bu qarash gender nuqtayi nazaridan alohida qiziqishni uyg‘otadi. Ushbu asarda insonning bir butun, keyinchalik ikki turdagi jinsga ajralish tabiati ifodalab berilgan. Platon ta’kidlaydiki: “Eng avvalo insonlar uch turdagi jinsdan iborat edi ..., chunki uchinchi jins ... - androginlar ham mavjud edi..., ular o‘zlarida ayol va erkak kabi ikkala jinsning ko‘rinishi va ifodasini o‘zida mujjassamlashtirgan edi. Lekin bu insonlar xudoga qarshi chiqqandan so‘ng Zevs ularning tanasini ikkiga ajratib yuborgan edi, shu kundan boshlab ular birlashish maqsadida o‘zining ikkinchi bo‘lagini qidirishmoqda”[1].

Aristotel (e.a. 384-322 y.y.) xam gender tengsizlik nazariyasi tarafdori edi. Uning ta’kidlashicha, zurriyodni yaratish jarayonida erkak farzandiga “shakl”ni, ya’ni ruhni beradi, ayol esa “materiya”, ya’ni tanani beradi. “Ruh o‘zining tabiatiga ko‘ra tanadan afzal va ilohiy xususiyat bo‘lganligi sababli, ayol va erkakning bir-biridan ajratilganligi to‘g‘ridir, faqat shu bilan ikki jinsning mavjudligini tushuntirib berish mumkin” [2]. Ushbu nazariyadan kelib chiqqan holda, jinslarning mavjudligi - bu dunyoning yaratilishi tizimidagi o‘z qonuniy o‘rniga ega bo‘lmagan tasodifiy hodisadir, ya’ni erkakning mavjudligi me’yoriy holat, ayolning mavjudligi esa me’yordan og‘ishdir. Shuningdek jinslar ajratilishining yagona mohiyati farzandlar tug‘ilishi bilan bog‘liq bo‘lib, ayollarning jamiyatdagi yagona mas’uliyati - bu avlodni dunyoga keltirish bo‘lgan.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslangan holda, shunday xulosaga kelish mumkinki, gender tengsizlik to‘g‘risidagi antik davr qarashlari aqliy salohiyatning tabiiy tengsizligiga asoslangandir. Ushbu nazariya hozirgi kunda xam, jumladan ilmiy muhitda ham keng tarqalgan bo‘lib, gender muammolariga bag‘ishlangan ilmiy ishlarda erkak va ayolning biologik farqlanishi to‘g‘risidagi qarashlar mavjud.

Insoniyatning buyuk yutuqlaridan biri - bu har qanday davlatning ma’naviy va ahloqiy yetukligini uning xotin-qizlarga munosabati belgilaydi, degan fikrning vujudga kelganligida. Darhaqiqat, mehnat turlari va san’atni ayollar kashf etishgan, erkaklar esa ularni kamolotga yetkazganlar. Aytish joizki, hozirgi zamon tamaddunining boshlang‘ich ibtidoiy jilg‘alari boshida ham ayol turgan. Shu bois matriarxat davrida farzandlarning nasabi onasi tomonidan aniqlangan. Patriarxat davriga o‘tish esa ayollarning jamiyatda tutgan o‘rnini o‘zgartirib, ayollarni jamiyat taraqqiyotidagi ishtirokini rad etdi va ularning faoliyati oila doirasida cheklandi. Bu jarayon har joyda turli darajada amalga oshirildi va uzoq davom etdi. Bu o‘zgarishlar natijasida jamiyat va oilani boshqarish erkaklar qo‘liga o‘tdi, ayol esa oila doirasida moddiy va ma’naviy jihatdan erkakka qaram bo‘lib qoldi. Shuning uchun oilada o‘g‘il farzand tug‘iladigan bo‘lsa, u oila mepocxo‘ri, avlod davomchisi, el-yurt qo‘riqchisi sifatida juda xursandchilik bilan kutib olingan. Qiz farzand esa, birovning hasmi, deb qaralgan. Garchand

ayol farzand tug‘ib, tarbiyalab, oila xo‘jaligini yuritishda turli vazifalarni bajarsa-da, uning bu xizmatlari o‘sha paytda jamiyat miqiyosida yetarli baholanmadi. Tarixning ayrim davrlarida ayolning inson sifatidagi fazilatlari kamsitilib, unga past nazar bilan qarash ham urf bo‘lgan. Masalan, o‘rta asrlarda Yevropadagi ibodatxonalardan birida «Ayol odammi yoki yo‘q» degan bahs bo‘lib o‘tgan va bu bahsda ko‘pchilik ayolni «odam deb atash mumkin emas», degan xulosaga kelgan. 1595 yilda Germaniyada «Ayolning odam emasligi haqida dissertatsiya» mavzuida xatto kitob ham chop etilgan [3]. Shundan so‘ng tadkikotchilar ayol o‘zinnng tabiatiga ko‘ra tovus, ilon, bo‘ri, tulki yoki boshqa narsalar, lekin ular odam emas deb yozishgan. XIX asrda nemis faylasufi A.Shopengauer ayolni g‘oz, Nitsshe esa mushuk timsoli deb e’lon qilganlar.

Keyingi davr gender tengsizlik to‘g‘risidagi falsafiy va siyosiy-huquqiy fikrlarda, erkak va ayollar o‘rtasidagi ahlokiy tengsizlikka asoslangan holda yangi qarashlar paydo bo‘ldi. Jumladan, o‘rta asr ijtimoiy qarashlarida ayol jamiyatdagi mavjud barcha gunohlarning sababchisi va uning inkor etib bo‘lmas darajadagi aybdorligi to‘g‘risidagi g‘oyalar vujudga keldi. Falsafiy va sotsiologik fikrlar rivoji natijasida feminizm, ya’ni jamiyat va oilada ayolning o‘rni va ahamiyatiga asosiy e’tibor qaratuvchi harakat rivojlana boshladi. Ayol va erkakning ijtimoiy mavqei, ularning jamiyatdagi tengsizligi sabablari J.A.Kondorse, Olimpiya de Guj, S. de Bovuar, M.Uollstounkraft kabi feminizm harakati namoyondalari tomonidan o‘rganila boshlandi [4].

1789 yilda fransuz faylasufi J.A.Kondorse "Ayollarga fuqarolik huquqini berish haqida"gi maqolasida ayollarni jamiyat a’zosi ekanligini ta’kidlab, ular millatning bir qismidir, ayollarga odam emas deb qarash eskirib qoldi, degan fikrni o‘rtaga tashladi. Ikki yildan keyin Olimpiya de Guj "Fuqarolik va ayol huquqi Deklaratsiyasi"ni tayyorlab, unda ayollar erkin fikrlash va o‘z fikrini erkin aytish huquqiga ega ekanliklarini e’lon qildi [5]. Ayollarni ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etishlarini inkor etuvchilar ayollar faqatgina onadirlar, ular "oila negizini saqlovchi"dirlar, degan fikrlaridan qaytmadilar. XIX asrda mana shunday fikrda bo‘lgan fransuz olimlaridan biri Per Jozef Prezdondir. U o‘zining "Adolat haqida" asarida ayollarni qushga qiyoslaydi va birinchi bor ayol "oila negizini saqlovchi" jumlasini ishlatadi. J.Mishle esa "Sevgi haqida" asarida ayollarni "qushlarning bolasiga" o‘xshatadi hamda ayollarga: 1) o‘z erini sevishi; 2) yaxshi oshpaz bo‘lishni maslahat beradi.

Masalan, ko‘pgina tarixiy manbalar va arxeologik topilmalar insoniyatning eng ilk ibtidoiy jamoa tuzumida oila boshqaruvi, oziq-ovqat bilan ta’minlash, oilani qo‘riqlash, avlodni davom ettirish va bolalarni voyaga yetkazishda ayol-onalarning ustunligi - matriarxat mavjud bo‘lganligini isbotlamoqda. Masalan, shved huquqshunosi - olim, professor Iogann Bagofen Yakob (1815-1887 y.y.) 1861 yilda o‘zining “Onalikning huquqiy nazariyasi” asarida, arxelogik qazishmalar va o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar asosida patriarxatgacha, ya’ni otalar xukmronligiga qadar onalar xukmronligi, ya’ni matriarxat bo‘lganligini isbotlab bergan [6]. Shuningdek, ko‘plab arxeologlar dunyoning turli mamlakatlarida o‘tkazilgan qazishmalar paytida tarixan eng avvalo, onalar ya’ni ayollar xukmronligi mavjud bo‘lganligi to‘g‘risidagi xulosaga kelishdi. Keyinchalik, tabiat va jamiyat rivojlanishi natijasida mehnat taqsimoti shakllanishi, ishlab chiqarish qurollari va manbalari rivojlanishi, tabiatga qarshi kurashish va mulkiy qadriyatlarga jismoniy kuch bilan erishilishi natijasida jamiyatda erkaklar o‘rnining oshishiga olib keldi, va shuning bilan birga ayollarning rolini orqaga, ya’ni ikkinchi o‘ringa joylashtirdi. Lekin, shunga qaramay qadimgi dinlar va afsonalarda ayollarning onalik roli muqaddas hisoblanib, qadimgi shumerliklar ayol-onani boylik, davlat, xatto farzandlardan ustun qo‘yishgan. Qadimgi shumerliklar fikriga ko‘ra, hayotda barcha narsani qo‘lga kiritish mumkin, lekin faqat onani emas. Shuning uchun ona muqaddas sanalib, onalik sha’ni va huquqi inson jinsidan qatiy nazar, barcha farzandlar uchun abadiy va o‘zgarmas hisoblangan.

Ammo yuqorida ta’kidlaganimizdek, jamiyat o‘zgarishi bilan ayolning ijtimoiy mavqei ham o‘zgarib borgan. Aynan oila va jamiyatda erkak kishining ustunligi ham abadiy bo‘lmay, balki sanoatning rivojlanishi, yangi shaharlarning paydo bo‘lshpi va ravnaq topishi natijasida

ishlab chiqaruvchi kuchlarga bo‘lgan ehtiyoj kuchaydi hamda ayolning ishlab chiqaruvchi kuch sifatida o‘z imkoniyatini namoyon etishi uchun sharoit yaratildi. Bu holat ayollarni inson ekanligini e’tirof etishga, davlat va jamiyatda erkaklar bilan tengligi g‘oyasining vujudga kelishiga zamin tayyorladi.

Umuman olganda, erkak va ayolning genetik, biologik, fiziologik xususiyatlari, ahloq va fikrlash tarzi, intellektual salohiyati va ijtimoiy mavqei bir-biridan ancha farqlanadi. Ayolning mantiqiy fikrlashi erkakning mantiqiy fikrlashidan umuman farqlanadi. Masalan, ayol o‘zining faoliyatida har doim nimani istashini aniq biladi. Agar ayolning ongida maqsadga erishish vazifasi qo‘yilgan bo‘lsa, unda bu maksadga erishish usullari uning uchun ikkinchi darajali ahamiyatga ega. Bugungi kunga kelib, feminizm - ijtimoiy harakati ijtimoiy rollar bilan shug‘ullanuvchi falsafiy ta’limot va harakat sifatida aniq yutuqlarga erishgan bo‘lsa ham, lekin turli salbiy holatlar yuzaga kelishining sababchisi bo‘lmokda. Masalan, ayrim insonlar jinsiy hayotning tabiiy davom etishi jarayoniga ta’sir ko‘rsatishning turli imkoniyatlari va vositalariga ega bo‘lishdi.

Oxirgi o‘n yilliklar davomida jamiyatda ayollarning roli va jinslar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga bag‘ishlangan juda ko‘plab tadqiqotlar paydo buldi. Ko‘pgina mamlakatlarda bu tadqiqotlar feminizm nazariyasi doirasida uchta asosiy yo‘nalishlarga asoslangan holda amalga oshirilmoqda: farqlar, tengsizliklar, kamsitishlar.

Bugungi kunda mamlakatimiz hukumati tomonidan jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy mavqei va o‘rnini mustahkamlashga, ularning ijtimoiy-siyosiy, tibbiy madaniyati va intelektual salohiyatini oshirishga hamda ularning huquq va erkinliklarini qo‘llab-quvvatlashga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida birinchi ustuvor yo‘nalishi - har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratishning 25-bandi - “Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta’minlash [7] deb belgilab qo‘yilgan.

Shuningdek mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2018 yil 2 fevralda “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmon mamlakatimizda gender tengsizlik muammolarini bartaraf etish, hamda o‘zbek ayollarining jamiyat hayotining barcha soha va tarmoqlarida o‘zlarini to‘la namoyon etish imkoniyatlarini yana bir karra oshirdi. Jumladan, hozirgi kunda respublikamizda 500 dan ortiq ayollar nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat olib bormoqda [8].

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston xotin-qizlarning qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish bo‘yicha katta yutuqlarga erishdi.

Foydalanilgani adabiyotlar ro‘yxati:

1. Aristotel. Sobraniye sochineniy. / pod redaksiyey A.I.Dovatur, F.X.Kessidi. M.: Misl, 1983, 832 s.

2. Bondarenko V.A. Empiricheskaya model vosproizvodstva sotsialnogo statusa. M.: //Mir Rossii. №4, 2002, 126-136 c.

3. Dushenko K. Jenshina ne imeyet dushi. M.: //Vestnik kulturologii. №1, 2019, 123 s.

4. Braun L. Jenskiy vopros. M., 1906, s. 71-73

5. Lauren, Paul Gordon. The evolution of international human rights (angl.). — University of Pennsylvania Press, 2003. — P. 18—20. — ISBN 978-0-8122-1854-1.

6. Dubinin N.P. Genetika. Povedeniye. Otvetstvennost. - M.: Politizdat, 1992, 304 s.

7. https://president.uz/uz/pages/view/strategy?menu_id=144.

8. O‘zbekistonda ayollar tashkilotlari// O‘zbekistan xotin-qizlar qo‘mitasi. T. :2018, 2-bet.

ABU AL HUZAYLNING BORLIQ HAQIDAGI RATSIONALISTIK QARASHLARI

Axmatov Shahzod Boymirza o‘g‘li,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Falsafa”kafedrasi assistenti

Annotatsiya. *Ushbu maqola islom falsafasi va kalom ilmida muhim o‘rin tutgan mu’taziliya maktabi namoyondasi Abu al Huzaylning borliqda narsalarning mavjud bo‘lishi va xususiyatlarining almashib turishiga oid ratsionalistik qarashlarini tahlil qilishga qaratilgan. Abu Huzaylning mohiyat (substansiya) va aktsidensiya (belgilar) haqidagi ratsionalistik qarashlarini o‘rganamiz.*

Kalit so‘zlar: *Aktsidensiya, substansiya, jism, makon, zamon, atom, qism, Aristotel, Al – Kindiy.*

Аннотация. *Данная статья посвящена анализу рационалистических взглядов Абу аль-Хузейла, представителя мутазилитовской школы мысли, сыгравшей важную роль в исламской философии и теологии, относительно существования вещей и изменения их свойств. Мы изучим рационалистические взгляды Абу аль-Хузейла на сущность (субстанцию) и акциденцию (знаки).*

Ключевые слова: *Авария, вещество, тело, пространство, время, атом, часть, Аристотель, Аль-Кинди.*

Abstract. *This article aims to analyze the rationalist views of Abu al-Khuzayl, a representative of the Mu'tazilite school of thought that played an important role in Islamic philosophy and theology, regarding the existence and alternation of properties of things in existence. We will study Abu al-Khuzayl's rationalist views on essence (substance) and (properties) accident.*

Keywords: *Accident, substance, body, space, time, atom, part, Aristotle, Al-Kindi.*

Kirish. Musulmon falsafasiga nazar tashlaganimizda albatta mutaziliya maktabini alohida ta’kidlash lozim. Bu maktab musulmon dunyosida falsafiy ilmlar rivojida katta ta’sir ko‘rsatgan. Shu maktab vakillaridan biri Abu al Huzaylning falsafiy ratsionalistik qarashlarida biz atom, substansiya va aksidensiya harakati haqida ayrim tafsilotlar bilan tanishamiz.

Asosiy qism. Yaratilgan dunyoni tashkil etuvchi narsalar oxir-oqibat "atomlar" va ularga xos bo‘lgan "tasodiflar"dan tashkil topgan jismoniy jismlardir. x Tana "atomlar"da tarkib (ta'lif), yonma-yon joylashuv (ijtima), tutashganlik (mumassa) va bog‘lanish (mug‘ama'a) "tasodiflari"ni yaratish orqali shunday mavjud bo‘ladi. Uning o‘ziga xos konfiguratsiyasi shunday jism bo‘lish va o‘ziga xos jism bo‘lishda, o‘ziga xos xususiyatlari va tasodifiyliklari bilan, Xudoning o‘zining "atomlari"da tarkibning o‘ziga xos "aktsidensiyalari" ni va boshqalarni yaratishi orqali, ular individual holatda aniqlanganidek, ma'lum bir vaqtda narsaning mavjudligini belgilaydigan har bir alohida xususiyat, atribut va holatni belgilaydigan boshqa "aktsidensiyalar" bilan birga mavjud. Kompozitda har bir "tasodif" alohida "atomlarda", unga tegishli bo‘lishi mumkin bo‘lgan sonda alohida joylashgan. Demak, narsaning haqiqati, uning mavjudligida, substrat sifatida unga tegishli bo‘lgan atomlarga xos bo‘lgan alohida "tasodifiy"larning umumiy kompleksining mavjudligidan (vujud) iborat.

Shuning uchun narsaning birligi, uning mavjudligidagi narsa, uning tana bo‘lishi bilan hosil bo‘ladi va aynan shu sababli "aktsidensiyalar" jismlarda ('agsam) mavjud yoki sodir bo‘lishi (holla, hadata) deyiladi, garchi qat'iy aytganda, individual tananing jismoniyligi va o‘ziga xos konfiguratsiyasi o‘zining substansiyasini tashkil etuvchi "bo‘linmas qismlar" yoki "atomlar"ning o‘ziga xos ko‘pligida yaratilgan kompozitsiya, birikma va boshqalar "aktsidensiyalar"ning ajralmas natijasidir. Shu tarzda, narsaning birligi aglomerat yig‘indisi bo‘lib, uning asosiy tarkibiy birliklari har biri o‘ziga xos "aktsidensiyalarga" ega bo‘lgan "atomlar" bo‘lib, u narsa bo‘lishda o‘zining "qismlari" ga xos kompozitsiyaning bir qismi

bo‘lmagan boshqalardan fazoviy izolyatsiya va chiqarib tashlash orqali, o‘zaro bog‘liqlik orqali birlik sifatida shakllanadi. Shunday qilib, narsaning birligi, bir ma'noda, faqat uning fazoviy birligidan iborat.

Biroq, boshqa nuqtai nazardan qaraganda, narsa, uning qismlarining fazoviy birlashuvidagi birligi shunchaki birlashuv emas, chunki ma'lum bir tananing birligini asoslovchi "tarkibiy qism" uni bu tana va bu narsa sifatida belgilaydigan noyob va alohida yaratilish harakatiga asoslanganligi sababli, uning o‘zidagi birligi va boshqa har bir narsadan ajralib turishi va ajratilishi mutlaqo mutlaqdir. Biroq, narsaning o‘zida ko‘rib chiqilganda, u ko‘plab alohida qismlarning birligi bo‘lib, ularning narsani o‘ziga xos narsa sifatida shakllantirish va belgilashdagi birligi qismlar birgalikda baham ko‘radigan, har biri o‘ziga xos bo‘lgan ma'lum bir "aktsidensiyalar" to‘plamining haqiqiyligiga asoslanadi. Shunday qilib, narsaning zarracha substratida ma'lum "aktsidensiyalar" to‘plamining yaratilgan irsiyligi orqali, uning mavjudligining yaxlitligi va birligida narsa sifatida shakllanadi va belgilanadi. Abu al Huzaylning fikricha, “Jismning dunyoda (ya'ni, fazoda yoki "joyda" — makon) o‘zi mavjud bo‘lgan narsa sifatida mavjudligining asosi uning "qismlari" yoki "atomlari"ning jism sifatida tarkibi va birikishidir va shuning uchun u narsaning shunday jism bo‘lishi bilan belgilanadi” [1].

Biroq, tana o‘zining fazoviy, kompozit birligida ("qismlarning tarkibi") narsada boshqa ko‘pgina "tasodiflar"ning mavjudligi ehtimolining moddiy asosini tashkil etsa-da, u hech qanday tarzda unda bo‘lishi mumkin bo‘lgan boshqa atributlar yoki "aktsidensiyalar"ning ma'lum bir to‘plamining mavjudligini aniq belgilaydigan ichki printsipini tashkil etmaydi. Ya'ni, kompozit substrat o‘zining "atomlari" tarkibida boshqa "aktsidensiyalar"ning mavjudligi ehtimolini hosil qilsa-da, narsa o‘z qismlarida biron bir "aktsidensiyalar" to‘plamining irsiy sababi emas, chunki har bir "aktsidensiya" Xudo tomonidan jismda, U xohlaganidek yaratilgan.

Shunday qilib, "mohiyatlar" haqida gap bo‘lishi mumkin emas, chunki ma'lum bir moddiy jismda bir yoki ko‘plab "aktsidensiya" yoki "aktsidensiyalarning" o‘ziga xos majmuasi mavjud bo‘lishi kerak bo‘lgan ichki printsip yo‘q, ular birlashgan substratdagi umumiy, tarkibida ma'lum bir mavjud narsaning umumiy xususiyatini yoki tabiatini tashkil qiladi. Garchi ba'zi "aktsidensiyalar" ning haqiqiy mavjudligi bir nechta hollarda ba'zi boshqalarning mavjudligining bevosita imkoniyatini tashkil etsa-da, bitta "aktsidensiya" uning printsipidan kelib chiqadigan zaruriy natija sifatida boshqasidan kelib chiqmaydi. Biror narsaning ma'lum bir paytdagi holatida uning umumiy mavjudligiga hissa qo‘shadigan har bir "aktsidensiya" alohida va mustaqil yaratilish aktining ob'ektidir.

“Narsaning mavjudligi shundan iboratki, u o‘ziga xos kompozit yaxlitlik sifatida mavjud, ammo uning bunday yaxlitlik sifatida mavjudligi uning har bir elementida shunday yaratilgan yig‘indi bo‘lishidir. Uning o‘zi borligida, uning borligini tavsiflovchi individual fazilatlar va xususiyatlarni belgilaydigan mohiyati, tabiati yoki ichki printsipi yo‘q. Shunday qilib, u shunchaki berilgan nom qo‘llaniladigan cheklangan miqdordagi diskret elementlarning (har biri o‘ziga xos "aktsidensiya"ga ega bo‘lgan alohida "atomlar") kompozit yaxlitligi (gumia) sifatida mavjud” [2:16]. Xulosa qilib aytganda, narsaning borligida birgalikda birlashgan irsiylikning umumiy printsipiga ega emas, faqat ilohiy irodaning ijodiy harakati qismlarni jismga aylantirgan va unda mavjud bo‘lgan bir nechta "aktsidensiyalar"dan iborat.

Qat'iy aytganda, Abu al-Huzayl odatda G‘arb tafakkuri bergan bu so‘zlarni ma'noda paydo bo‘lishni yoki o‘zgarish jarayonini tan olmaydi; ya'ni u biror narsaning mavjud bo‘lmagan narsadan paydo bo‘lishini bilmaydi va o‘zgartirishni yoki o‘zgarishni doimiy paydo bo‘lish jarayoni sifatida tan olmaydi, masalan, Aristotel tomonidan Fizika V asarida ko‘rib chiqilgan metabolai yoki uning zamondoshi al-Kindiy o‘zining Risolafi al-Hlla al-gariba lil-kavn val-fasdd da sanab o‘tgan "harakatlar"da ko‘rinadi. Biroq, u paydo bo‘lish va o‘tish kategoriyalarini bir ma'noda bilmasa ham, narsalar aslida paydo bo‘ladi va keyin o‘zlarini o‘zlaridan kelib chiqqan holda o‘zgaradi va bu haqiqatni tizim o‘z yo‘lida hisobga olishi kerak bo‘ladi. Bu qarash narsalarning paydo bo‘lishi ontologiyasi tizimning eng muhim muammolaridan biridir.

Biror narsaning dastlabki paydo bo‘lishi "uning mavjud bo‘lishi yoki yo‘qligidan keyin yaratilishi", Xudo tomonidan "uning yo‘qligidan keyin birinchi marta mavjudligini boshlanishi"dir. Shunday qilib, biz narsaning tanasining dastlabki "tarkibidagi" umumiy kompozitsiyasi sifatida mutlaq paydo bo‘lishi, unda bir vaqtning o‘zida yaratilishi mumkin bo‘lgan boshqa "aktsidensiyalar" bilan birga gapirishimiz mumkin. “Xuddi shu tarzda, biz "tanada paydo bo‘ladigan" (yahdutu fil-jism) yagona "aktsidensiya" mavjudligining dastlabki yaratilishi haqida ham gapirishimiz mumkin, masalan, oqlik yoki inson tomonidan idrok harakati. Butun kompozitsiyaning paydo bo‘lishida, masalan, bitta "aktsidensiya" ning paydo bo‘lishi bo‘lgani kabi, bir jihatdan ko‘rib chiqilganda, holatlar ontologik jihatdan bir xil, chunki ular bir holatda ham, boshqa holatda ham substratda yaratilgan "aktsidensiyalar" ning paydo bo‘lishini ifodalaydi” [3].

Abu al-Huzayl "bo‘lish" (kavn, yoki, 'akvan) "tasodifasi" haqida gapiradi, bu yerda u bir xil uzluksiz jarayonni, ya'ni "bundan" "unga" vaqt va makonda bo‘lishning aniq jarayonini tan oladi. Shu ma'noda, bu vaqt, makon va yo‘nalish orqali o‘ziga xos bo‘lishdir. Biroq, biz Xudoning irodasi ob'ektlari harakati bilan bir vaqtning o‘zida amalga oshishini yodda tutishimiz kerak, shuning uchun individual "tasodiflar" yaratilish paytida narsada yaratilganidek to‘liq va mukammaldir. Shunday qilib, tizim ichida narsaning ontologik haqiqati va mavjudligi, uning barcha mavjudlik holatlarida, u qanday ketma-ket o‘zgarishlarga duch kelishidan qat'i nazar, ma'lum bir holat harakati bilan belgilangan va o‘lchanadigan biron bir progressiya yoki jarayonning doimiyligida emas, balki bu holatlarning haqiqiyligi bo‘lgan "tasodiflar" ni yaratish orqali mukammal amalga oshirishning diskret harakatlarida yotadi. U holatlar ketma-ketligini ongning uzluksiz shakllanish chizig‘i bo‘ylab "nuqtalar" deb nomlagan va qayd etgan momentlar sifatida emas, balki shakllanishdagi mavjudlikning ko‘rinadigan, ontik uzluksizligi - bu ongning narsadagi ontologik jihatdan diskret "tasodiflar" ketma-ketligining haqiqatida ketma-ket holatlarning amalga oshish momentlari bo‘lgan nuqtalar orqali chizadigan chiziq sifatida tasavvur qiladi.

Harakatdagi yoki tinchlikdagi narsaning mavjudligi fazoda vaqtning ikki nuqtasi orasidagi mavjudlik va bo‘lish davomiyligidan iborat emas. Aksincha, harakatning haqiqati uning fazoda maxsus belgilangan nuqtalardagi ikkita maxsus moment (vaqt davri) orasidagi "o‘tishi"ning yakuniy va mukammal amalga oshirilishida yotadi, chunki "xotirjamlik" haqiqati ikkinchi lahzada bir joyda bo‘lishning mukammallashtirilgan haqiqatidir. Boshqa tomondan, Kavn "fazoda bo‘lish"dir va shuning uchun "harakat, xotirjamlik va tutashganlikdan farq qiladi"; biz aytishimiz mumkinki, bu “fazoda bo‘lish”ning kengaytirilgan momenti bo‘lib, uning haqiqati fazoviy-vaqtinchalik yo‘nalishni, oldin va keyin bo‘lishi, agar harakatda ishtirok etsa, u yerda va bu yerda ikkita aniq belgilangan chegaraga nisbatan va ichida amalga oshirishdir. Shuning uchun kavnning "fazoda paydo bo‘lish" sifatidagi harakati va voqeligi, bunday paydo bo‘lishda ishtirok etishi mumkin bo‘lgan harakat yoki dam olishning amalga oshirilgan harakatidan (Abu al-Huzayl terminologiyasida "aktsidensiya") boshqa narsadir, bu uning atamasi sifatida kelgan. “Barcha mavjudot diskret "kvantlarda" amalga oshiriladigan koinotning paradigmatik doirasida, Abu al-Huzayl al-kavnni fazoda vaqtinchalik joylashish harakati sifatida tasavvur qiladi, chunki bu harakat, harakat yoki dam olishning va hokazolarning mukammallashtirilgan haqiqatidan farq qiladi” [4:8].

Shunday qilib, al-kavn o‘zining haqiqiy termini ichida narsada amalga oshiriladigan yagona bo‘linmas harakat ("tasodif") bo‘lib, uning birligi uning borlig‘ining bo‘linmas diskretligini belgilaydigan fazoviy-vaqtinchalik chegaralar o‘rtasida tashkil etilgan. "Tasodif" sifatida, u yana narsada borliqning kengayishining - fazodagi ikki vaqtning nuqtasi o‘rtasida amalga oshirilishi bo‘lsa-da, u o‘zida ontologik jihatdan harakat va tinchlikdan ajralib turadi va eng muhimi, o‘z borlig‘ining birligida - uning vaqtinchalik va fazoviy terminlari o‘rtasida paydo bo‘lishning bir turi bo‘lsa-da, u narsaning haqiqatining asosi sifatida mavjudligidan va uning mavjudligidagi davomi va doimiyligidagi mavjudligidan (al-baqo) butunlay farq qiladi.

Harakatning umuman davomiyligi bo‘lmasa-da, boshqa "tasodiflar" ma'lum bir vaqt oralig‘ida yoki aniqrog‘i, bir necha lahzalar davomida davom etishi mumkin. Tana (jism) "kompozitsiya" va hokazo "aktsident"ning davomiyligi, shuningdek, uning mavjudligining ma'lum bir yoki kamroq doimiy xususiyatlarini belgilaydigan bir qator boshqa "aktsidensiyalar" orqali davom etishi mumkin, masalan, rang, hayot va boshqalar [5].

Shu nuqtai nazardan, tana dunyoda narsalarning haqiqiy mavjudligining asosiy, barqaror yoki yarim doimiy poydevori va ularning mavjudligidagi mavjudlikning uzluksizligining asosi sifatida tasavvur qilinadi. Biroq, biz narsaning mavjudligidagi birligini va o‘zi bilan bir xillikdagi mavjudlikdagi uzluksizligini tashkil etuvchi "tan" "jismoniylik" yoki narsaning mavjudligining mavhum printsipi emasligini, balki har doim o‘zining o‘ziga xos o‘lchamlari va konfiguratsiyasi va unda haqiqatga aylantirilgan boshqa doimiy "aktsidensiyalar" bilan tavsiflangan o‘ziga xos, haqiqiy individual tana sifatida tushunilishi kerakligini yodda tutishimiz kerak. Shu bilan birga uning mavjudlik harakati va unga tegishli bo‘lishi mumkin bo‘lgan har qanday doimiy "aktsidensiyalar" ning doimiyligi, har biri alohida-alohida davom eta olsa, Xudoning yaratish harakatiga va narsaning mavjudlikdagi bir nechta "aktsidensiyalar" ni yanada saqlab qolishiga asoslanadi. Ya'ni, narsa, o‘zgarish orqali o‘zi bilan bir xil bo‘lgan holda, mavjudlikda davom etadigan narsa sifatida, ajratilmagan, bo‘linmas qismlarning yaratilgan kompozitsiyasidir, unda ma'lum bir doimiy " aktsidensiyalar " to‘plami joylashgan. Biroq, jismoniy kompozitsiyaga kiritilgan har bir "aktsidensiya" ontologik jihatdan farq qiladi va yaratilgan irsiyligida bir-biridan mustaqil bo‘lganligi sababli, "aktsidensiyalar" ning o‘ziga xos majmuasiga xos bo‘lgan hech qanday tamoyil yo‘q, bu narsaning borligining birligida, u nima bo‘lsa, shundayligida shakllantiriladi.

Xulosa. Shunday qilib Abu al Huzaylning fikricha har bir jismoniy narsa ontologik jihatdan noyobdir, chunki u " aktsidensiyalar " ning ma'lum bir aglomerat yig‘indisi, ma'lum bir harakat yoki yaratilish harakatlari seriyasining ob'ekti hisoblanadi. Shuning uchun narsa pragmatik ravishda shunday o‘ziga xos xususiyatlar to‘plamiga ega bo‘lgan jism sifatida belgilanadi yoki nomlanadi. Biroq, narsalar mavjudlikda doimiylikka va ularda yuzaga keladigan ketma-ket o‘zgarishlar ustidan o‘zlari bilan o‘xshash holatda uzluksizlikka ega. Bundan ko‘rinib turibdiki har bir narsa ya’ni jismning harakatida substansiya va aktsidensiyalar harakatining o‘ziga xos ahamiyati bor.

Foydalanilgani adabiyotlar ro‘yxati:

1. Richard, M Frank. (2016). Early Islamic Theology: Mu’tazilites and AL Ash’ari Texts and Studies on the Developmentand History of Kalam, Vol. II. Routledge New York, NY 10017, USA. 384 p.

2. Frank, R. M. (1966). The metaphysics of created being according to Abu al-Hudhayl al-'Allaf: a philosophical study of the earliest kalam. Istanbul : Nederlands Historisch-Archaeologisch Instituut in het Nabije Oosten. 53 p.

3. Frank, Richard M. (1969). The divine attributes according to the teaching of Abu al-Hudhayl al-Allaf: Le Museon 82. Louvain, 451-506 pp.

4. Frank, Richard M. (1971). Several fundamental assumptions of the Basra School of the Mutazila Studia Islamica 33. Paris. 5-18 pp.

5. Richard, M. Frank. (2005). Philosophy, Theology and Mysticism in Medieval Islam: Texts and Studies on the Development and History of Kalam, Volume 1 Edited by Dimitri Gutas. Burlington, VT: Ashgate Publishing Company. 404 p.

INTERNET MUHITIDA RADIKALLASHUV VA EKSTREMIZMNING SHAKLLANISH MEXANIZMLARI HAMDA ULARNING IJTIMOIY-SIYOSIY OMILLARI

Jabborov Qaxramon Jaxongir o‘g‘li,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
https://orcid.org/0009-0003-1637-3936

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlar va internetning radikallashuv hamda ekstremizmni tarqatishdagi roli tahlil qilinadi. Ekstremizm va radikallashuv tushunchalarining ilmiy asoslari, ularning shakllanish omillari hamda onlayn muhitdagi namoyon bo‘lishi yoritilgan. Shuningdek, yoshlar orasida ushbu xavflarning oldini olish yo‘llari va profilaktik chora-tadbirlar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy tarmoqlar, internet, ekstremizm, radikallashuv, onlayn ekstremizm, targ‘ibot, yoshlar, media savodxonlik, yollash, zo‘ravonlik.

Аннотация. В данной статье анализируется роль социальных сетей и интернета в распространении радикализации и экстремизма. Освещаются научные основы понятий экстремизма и радикализации, факторы их формирования, а также их проявления в онлайн-среде. Также рассматриваются пути предотвращения данных угроз среди молодежи и профилактические меры.

Ключевые слова: социальные сети, интернет, экстремизм, радикализация, онлайн-экстремизм, пропаганда, молодежь, медиаграмотность, вербовка, насилие.

Annotation. This article analyzes the role of social networks and the internet in the spread of radicalization and extremism. It highlights the scientific foundations of the concepts of extremism and radicalization, the factors of their formation, and their manifestations in the online environment. It also examines ways to prevent these threats among young people and considers preventive measures.

Keywords: social networks, internet, extremism, radicalization, online extremism, propaganda, youth, media literacy, recruitment, violence.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar va boshqa internet ilovalari butun dunyo bo‘ylab tobora ommalashib bormoqda va bu odamlar uchun muloqot qilish imkoniyatlarini kengaydi. Biroq aynan shu ijtimoiy tarmoqalardan ekstremistik guruhlar tomonidan radikalizm va ekstremizmni targ‘ib qilishda ham foydalanilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalganligi sababli zo‘ravon ekstremistlarni radikallashuv va yollash jarayoni yanada kengayib borishi mumkinligi haqida jiddiy xavotirlar paydo bo‘lmoqda.

Ekstremizmning onlayn makonlarda qanday namoyon bo‘lishini muhokama qilishdan oldin, avvalo “ekstremizm” atamasi aynan nimani anglatishini ko‘rib chiqish zarur.

“Ekstremist” so‘zi Oxford Dictionary of English lug‘atida “keskin siyosiy yoki diniy qarashlarga ega bo‘lgan shaxs yoki narsa” sifatida ta’riflanadi [1]. G‘arb tadqiqotlarida “ekstremizm” tushunchasi nisbiy tushuncha sifatida ham ta’riflanadi. Masalan, Peter R. Neumann qarashlariga ko‘ra, “ekstremizm” tushunchasini faqatgina jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy-siyosiy me’yorlar bilan taqqoslash orqali anglash mumkin. Shu sababli, vaqt o‘tishi bilan “odatiy” deb qaraladigan qarash va qadriyatlar o‘zgargani sari, “ekstremistik”, hattoki “terroristik” deb baholanadigan holatlar ham o‘zgarib borgan. Demak, ekstremizmning barcha shakllari muayyan tarixiy va ijtimoiy kontekst bilan chambarchas bog‘liqdir.

Aksariyat olimlar “ekstremizm” tushunchasiga faqat qadriyatlar asosida ta’rif berishdan voz kechib, unga yanada moslashuvchan yondashuvni qo‘llaydilar. Bu yondashuv ekstremizmni

ikki jihatda — harakatlarda (xulq-atvordagi radikallashuv) va qarashlarda (tafakkurdagi radikallashuv) namoyon bo‘lishi mumkinligini e’tirof etadi. Shuningdek, tadqiqotchi Buni hisobga olib, Ronald Wintrobe ekstremizmni uch toifaga ajratadi:

1. Maqsadi ham, unga erishish usullari ham keskin bo‘lgan guruh yoki shaxslar;
2. Keskin maqsadlarga ega bo‘lsa-da, zo‘ravon usullardan foydalanmaydiganlar;
3. Oddiy maqsadlarga ega bo‘lib, ularga erishishda keskin va zo‘ravon vositalarni qo‘llaydiganlar [2].

Tadqiqotchilar “radikalizm” tushunchasi bo‘yicha yagona to‘xtamga kelishmagan. “Radikal” terminiga ilk bor kanadalik tadqiqotchi M.Nyuman 1802-yilda nashr etilgan “Oksford qisqa lug‘ati”da “tub islohotlar tarafdori bo‘lish” sifatida ta’rif bergan [3].

Tadqiqotlarda radikallashuv tushunchasi turlicha talqin qilin kelinmoqda. Ayrimlar uni “siyosiy zo‘ravonlikning kuchayishiga olib boruvchi jarayon” deb tushunsa, boshqalar “zo‘ravonlikka olib keladigan keskinlashuv jarayoni” yoki “turli auditoriyalarga ta’sir o‘tkazish uchun jismoniy kuchdan strategik foydalanish” deb izohlaydi [4]. Bu ta’riflar bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, ular turli hodisalarni anglatadi. Shu sababli, ilmiy adabiyotlarda “radikallashuv” tushunchasi yagona va aniq ma’noga ega emas.

Masalan, ulardan eng mashhuri Marc Sageman nazariyasidir. Unga ko‘ra, radikallashuv asosan “quyidan yuqoriga” shakllanadigan jarayon bo‘lib, ko‘pincha rasmiy tashkilotlar ta’siridan tashqarida yuz beradi. Bu yondashuvda asosiy omil sifatida ijtimoiy tarmoq va yaqin guruh muhiti ko‘riladi. Ya’ni, insonlarning radikallashuvida tashkilotlarning rasmiy targ‘iboti yoki yollovchilaridan ko‘ra, do‘stlar, tanishlar va guruhiy aloqalar muhimroq rol o‘ynaydi [5].

Shu nuqtai nazardan “onlayn ekstremizm” tushunchasiga quyidagicha ta’rif berish mumkin: “ u internetdagi faoliyat bo‘lib, ekstremistik qarashlarga ega guruh yoki shaxslar bilan bog‘liq, ular tomonidan amalga oshiriladigan yoki shu g‘oyalarni targ‘ib qiladigan faoliyatni anglatadi”. Bu tushuncha aniq tarixiy va ijtimoiy sharoitga bog‘liqdir. Ya’ni, qaysi qarash yoki harakat “ekstremistik” deb baholanishi jamiyat, davr va mavjud ijtimoiy me’yorlarga qarab o‘zgarishi mumkin. Shu sababli, bu ta’rif mukammal bo‘lmasa-da, tarixiy kontekstni hisobga olish zarur deb qaraladi.

“Radikallashuv” esa odamning har qanday shakldagi ekstremistik qarashlarni qabul qilish jarayonini anglatadi. Bu jarayon internet orqali ham, real hayotdagi muhit orqali ham sodir bo‘lishi mumkin. Shu o‘rinda radikallashuvni “yollash” tushunchasi bilan aralashtirmaslik kerak. Chunki radikallashuv odatda insonning ekstremistik tashkilotga qo‘shilishidan oldin boshlanadigan g‘oyaviy va ruhiy jarayonni bildiradi.

So‘nggi o‘n yilliklarda onlayn ekstremizm axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda global axborot va xavfsizlik muhitidagi o‘zgarishlar ta’sirida sezilarli darajada kengaydi. Internetning ommalashuvi ekstremistik guruhlarga o‘z g‘oyalarini tezkor va keng miqyosda tarqatish, tarafdorlar safini kengaytirish hamda virtual muloqot maydonlarini shakllantirish imkonini yaratdi.

Onlayn ekstremizmning shakllanish va rivojlanish jarayonlari deyarli yigirma yildan ortiq davr mobaynida ilmiy tadqiqotlarning muhim mavzularidan biri bo‘lib kelmoqda. Tadqiqotlarda ekstremistik tashkilotlarning internetdagi faoliyati, ularning kommunikatsiya usullari, targ‘ibot mexanizmlari hamda virtual tarmoqlardagi tashkiliy tuzilmalari atroflicha tahlil qilinadi.

Ma’lumki, ekstremistik g‘oyalarning internet orqali tarqalishi internetning bugungi shakli paydo bo‘lishidan avval ham kuzatilgan. Jumladan, 1985-yilda AQShdagi o‘ng qanot irqiy ustunlik tarafdorlari tomonidan “White Aryan Resistance” nomli onlayn platforma tashkil etilgan. Mazkur platforma orqali yangiliklar almashish, targ‘ibot materiallarini tarqatish, yangi a’zolarni jalb qilish va mafkuraviy faoliyatni muvofiqlashtirish ishlari amalga oshirilgan [6].

Keyingi yillarda boshqa ekstremistik guruhlar ham internetning kommunikativ imkoniyatlaridan faol foydalana boshladilar. Ayniqsa, internetdagi nisbatan erkin axborot muhiti

ularga o‘z mafkuralarini targ‘ib qilish, tarafdorlar bilan aloqa o‘rnatish hamda transmilliy virtual tarmoqlarni shakllantirish uchun qulay sharoit yaratdi.

Dastlab ekstremistik tashkilotlar asosan markazlashgan va tashkilot tomonidan boshqariladigan statik veb-saytlardan foydalanganlar. Biroq vaqt o‘tishi bilan bunday saytlar mafkuraviy targ‘ibot va faol tarafdorlar muhitini shakllantirish uchun yetarli emasligi ma’lum bo‘ldi. Shu sababli, jihodchi ekstremistik guruhlar ham 2000-yillarning o‘rtalaridan boshlab oddiy saytlar o‘rniga internet forumlariga o‘ta boshladilar. Aaron Y. Zelin tadqiqotlariga ko‘ra, forumlar nafaqat targ‘ibot materiallarini tarqatish va ko‘rsatmalar ulashish uchun xavfsizroq vosita bo‘lgan, balki ular virtual jamoaviylik va guruhiy o‘zlik hissini shakllantirishga ham xizmat qilgan. Demak, interaktiv internetning rivojlanishi oddiy foydalanuvchilar o‘rtasidagi muloqot shakllarini qanday o‘zgartirgan bo‘lsa, u jihodchi ekstremistik guruhlarning axborot va kommunikatsiya tizimini ham tubdan o‘zgartirdi.

Ekstremistik guruhlarning o‘z faoliyatini oddiy statik veb-sayt va forumlardan ijtimoiy tarmoqlar hamda fayl almashish platformalariga ko‘chirgani haqida umumiy tasavvur hosil qilingach, endi onlayn ekstremizm masalasini funksional nuqtai nazardan tahlil qilish mumkin. Bu boradagi ilmiy adabiyotlarda ekstremistik guruhlarning internetdan tashkilot darajasida qanday foydalanishi keng o‘rganilgan. Tadqiqotlarda ularning onlayn faoliyati asosan bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan to‘rtta asosiy yo‘nalishga ajratiladi:

1. targ‘ibot va mafkurani yoyish;
2. yangi a’zolarni jalb qilish;
3. logistika va rejalashtirish ishlari;
4. moliyaviy ta’minot va mablag‘ yig‘ish faoliyati.

Shu tariqa, internet ekstremistik guruhlar uchun nafaqat axborot tarqatish vositasi, balki tashkilotning turli strategik faoliyatlarini amalga oshirishga xizmat qiluvchi muhim virtual maydonga aylangan.

Facebook, Twitter, Instagram, Telegram kabi ijtimoiy media platformalarining paydo bo‘lishi onlayn radikallashuv va ekstremizm bilan bog‘liq mutlaqo yangi muammolarning yuzaga kelishiga olib keldi. Ushbu ekstremistik tashkilotlar ijtimoiy tarmoqlardan o‘z g‘oyalari yoki diniy e’tiqodlariga mos keladigan shaxslarni onlayn tarzda radikallashtirish uchun foydalanadilar. Radikallashuv natijasida zo‘ravon ekstremizm xavfining doimiy o‘sishi XXI asrda duch kelinayotgan eng muhim muammolar ro‘yxatining boshida turadi.

Zo‘ravonlikka murojaat qiladigan ekstremistlar hamda diniy oqimlarga mansub guruhlar o‘z maqsadlarini ilgari surish uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni yanada puxta o‘zlashtirganligini so‘ngi vaqtlarda jahonda ro‘y berayotgan voqealardan bilishimiz mumkin. Shuningdek, ular yoshlarning fikrlariga ta’sir o‘tkazish va ularni qo‘llab-quvvatlashga jalb qilish maqsadida ushbu platformalardan, boshqa vositalar bilan birga, o‘z g‘oyasini targ‘ib qiluvchi puxta tayyorlangan xabarlar va videofilmlardan foydalanib kelmoqda.

Shundan kelib chiqadiki, ijtimoiy tarmoqlar insoniyat uchun katta imkoniyatlar beruvchi qulay vosita bo‘lishiga qaramay, ekstremizm va radikallashuvning tarqalishida tutgan roli tufayli ba’zan jiddiy muammo manbaiga aylanishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlar va internet radikallashuv jarayonlarida muhim rol o‘ynashini ko‘rsatmoqda. Ularning keng tarqalganligi va o‘xshash qarashlarga ega bo‘lgan shaxslar o‘zaro oson aloqa o‘rnata olishi shaxsning radikallashish ehtimolini oshiradi. Ijtimoiy tarmoqlar ekstremistik qarashlar uchun propaganda, ma’lumot va muloqotning muhim manbai hisoblanadi. Shubhasiz, internet va ijtimoiy tarmoqlar radikallashuv va ekstremizm jarayonlarini sezilarli darajada osonlashtirmoqda. Ulardagi asosiy foydalanuvchilar yoshlar bo‘lganligi sababli, odatda radikallashuv va ekstremizmga eng ko‘p duch keladigan guruh hisoblanadi. Barcha belgilarga ko‘ra, ekstremistik guruhlar internet va ijtimoiy tarmoqlarni qurol sifatida ishlatmoqda, bu esa keng jamoatchilik orasida xavotir uyg‘otmoqda, chunki har kuni tobora ko‘proq odam ushbu platformalardan foydalanmoqda.

Shu sababli, ushbu maqolaning asosiy maqsadi bugungi jamiyatimizda radikallashuv va ekstremizm muammolarini bartaraf etish uchun qanday choralar ko‘rish mumkinligini o‘rganishdan iborat.

Statista.com global onlayn statistik portal 2019 hisobotiga ko‘ra, butun dunyo bo‘yicha taxminan 6,04 milliard internet foydalanuvchisi va 5,66 milliard ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchisi mavjud.

Zo‘ravonlikka olib boradigan radikallashuv faqat ma’lum bir millat, madaniyat yoki din vakillariga xos emas, ya’ni u har qanday shaxsga, dini, kelib chiqishi yoki madaniyatidan qat’iy nazar, sodir bo‘lishi mumkin. Shaxslarning radikallashishiga bir qator omillar ta’sir qiladi. 2015-yilda Milliy Adliya Instituti National Institute of Justice) tomonidan tayyorlangan hisobotga ko‘ra, odamlar zo‘ravonlikka radikallashishining sabablari va yo‘llari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- O‘z identiteti bilan ziddiyatda bo‘lish;
- Hayotda maqsad yoki mazmun topa olmaslik hissi;
- Ijtimoiy mavqe va maqomga intilish istagi;
- Yangi g‘oyalarga qiziqish istagi;
- Ruhiy yoki jismoniy zararlar mavjudligi;
- Ruhiy salomatlik muammolari yoki emotsional beqarorlik;
- Din va falsafa bo‘yicha bilim yetishmasligi yoki bexabarlik;
- Dinning mohiyatini to‘g‘ri anglamaslik;
- Shikoyatlar, tahdid ostida ekanlik hissi;
- Oldin jinoyatga aralashganlik;
- Stressorlar (masalan, oilaviy inqiroz yoki ishni yo‘qotish);
- Ijtimoiy adolatsizlik yoki diskriminatsiya;
- Xavfli ekstremist shaxslar yoki tashkilotlarga duchor bo‘lish;
- Ekstremistik g‘oyalar ta’siriga duchor bo‘lgan oila a’zolari mavjudligi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlar va internet bugungi kunda axborot almashinuvi va muloqotni kengaytirdi, biroq ular ekstremistik guruhlar tomonidan radikal g‘oyalarni tarqatishda ham foydalanilmoqda. Radikallashuv murakkab jarayon bo‘lib, unga shaxsiy, ijtimoiy va psixologik omillar ta’sir qiladi. Internet esa bu jarayonni tezlashtiradi va kengaytiradi. Ayniqsa yoshlar bu xavfga ko‘proq duch keladi. Shu sababli onlayn ekstremizmga qarshi kurashda faqat nazorat emas, balki ta’lim, media savodxonlik va ma’naviy tarbiyani kuchaytirish muhimdir. Shuningdek, sog‘lom ijtimoiy muhit yaratish asosiy omillardan hisoblanadi. Ushbu muammoga qarshi samarali kurashish uchun turli sohalarni qamrab olgan tizimli yondashuv zarur bo‘ladi.

Foydalanilgani adabiyotlar ro‘yxati:

1. Oxford Dictionary of English. 1st ed. Oxford: Oxford University Press, 2010. – 621 p
2. Wibtrope, Ronald. Rational Extremism: The Political Economy of Radicalism. Cambridge, UK: Cambridge Uni versity Press. 2012. – 79 p.
3. Neumann M. What’s Left?: radical politics and the radical psyche. Peterborough (Canada): Lewiston (N.Y.), 1988. – 230 p
4. Della Porta, Donatella, and Gary LaFree. 2012. Processes of Radicalization and De-Radicalization. International Journal of Conflict and Violence 6 (1): 4–10.
5. Sageman, Marc. Leaderless Jihad: Terror Networks in the Twenty-First Century. Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 2008. — 71–88 pp.
6. Smith, Laura. “In the Early 1980s, White Supremacist Groups Were Early Adopters (and Masters) of the Internet.” Timeline, October 11, 2017

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA MA'NAVIY TARBIYA TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Melikulov Farhod Mamadaliyevich,
O'zbekiston Respublikasi
IIV Akademiyasi ma'sul xodimi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada hozirgi islohotlar sharoitida ichki ishlar organlari xodimlarining ma'naviy-axloqiy salohiyatini yuksaltirish, ularda qonunga hurmat, xizmat burchiga sadoqat, vatanparvarlik va fuqarolar bilan muomala madaniyatini shakllantirishning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ma'naviy tarbiya tizimida uchrayotgan ayrim muammolar, xususan, tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning ta'sirchanligini kuchaytirish masalalari ilmiy nuqtai nazardan asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *ichki ishlar organlari, ma'naviy tarbiya, tarbiya tizimi, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, kasbiy axloq, xizmat intizomi, vatanparvarlik, qonunga hurmat, ma'naviy immunitet, huquqiy madaniyat, tarbiyaviy faoliyat, innovatsion yondashuv, kasbga sadoqat, insonparvarlik, ma'naviy muhit, islohotlar.*

Аннотация. *В данной статье освещается значение повышения духовно-нравственного потенциала сотрудников органов внутренних дел в условиях современных реформ, формирования у них уважения к закону, преданности служебному долгу, патриотизма и культуры общения с гражданами. Также с научной точки зрения обоснованы отдельные проблемы, возникающие в системе духовного воспитания, в частности вопросы повышения эффективности воспитательной работы и усиления воздействия духовно-просветительских мероприятий.*

Ключевые слова: *органы внутренних дел, духовное воспитание, система воспитания, духовно-просветительская работа, профессиональная этика, служебная дисциплина, патриотизм, уважение к закону, духовный иммунитет, правовая культура, воспитательная деятельность, инновационный подход, преданность профессии, гуманизм, духовная среда, реформы.*

Abstract. *This article highlights the importance of enhancing the spiritual and moral potential of internal affairs officers in the context of ongoing reforms, as well as developing respect for the law, devotion to official duty, patriotism, and communication culture with citizens. It also scientifically substantiates several problems existing in the system of spiritual education, particularly issues related to increasing the effectiveness of educational work and strengthening the impact of spiritual and educational activities.*

Keywords: *internal affairs bodies, spiritual education, educational system, spiritual and educational work, professional ethics, service discipline, patriotism, respect for the law, spiritual immunity, legal culture, educational activity, innovative approach, professional dedication, humanism, spiritual environment, reforms.*

Kirish. Bugungi globallashuv va axborot xurujlari kuchayib borayotgan sharoitda jamiyat barqarorligi va davlat xavfsizligini ta'minlashda ichki ishlar organlari xodimlarining ma'naviy-axloqiy salohiyati muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, ichki ishlar organlari nafaqat huquq-tartibotni ta'minlovchi tizim, balki aholi bilan bevosita muloqotda bo'ladigan, jamiyatda qonun ustuvorligi va adolat tamoyillarini qaror toptiruvchi muhim davlat organi hisoblanadi.

Ichki ishlar organlari xodimlarini ma'naviy jihatdan yetuk, yuksak axloqiy fazilatlarga ega, Vatan va xalq manfaatlariga sadoqatli kadrlar sifatida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, "Inson qadri uchun" tamoyili asosida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar xodimlarning ma'naviy qiyofasi va xizmat madaniyatiga bo'lgan talablarni yanada oshirmoqda.

Ichki ishlar organlari xodimlarini ma'naviy tarbiyalash ishlarining ahamiyati katta bo'lib, xodimlarning xizmat faoliyati samaradorligini oshirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Ma’naviy tarbiya — xodimning ongi, dunyoqarashi, axloqiy fazilatlari va ijtimoiy mas’uliyatini shakllantirishga qaratilgan uzluksiz jarayondir. Ichki ishlar organlari tizimida esa mazkur jarayon alohida ahamiyatga ega bo‘lib, xodimlarning xizmat faoliyati samaradorligi va aholi ishonchiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 apreldagi “Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlashda ularning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5005-son farmonida, “Ichki ishlar organlari xodimlarining fuqarolar bilan muomala madaniyati pastligicha qolmoqda, o‘sib kelayotgan avlodni buzg‘unchi g‘oyalardan himoya qilishda tarbiyaviy o‘rni sezilmayapti, xodimlar o‘rtasida poraxo‘rlik va xizmat mavqeini suiiste’mol qilish holatlari hamon uchrab turganligi” [1] haqidagi kamchiliklar ichki ishlar organlarida ma’naviy tarbiyalash ishlarini kuchaytirishni ko‘rsatmoqda.

Shu bois, ichki ishlar organlari tizimida xizmat qilayotgan har bir xodimda axloqiy poklik, adolatparvarlik, mas’uliyat va insonparvarlik sifatlarini shakllantirish, ma’naviy-tarbiyaviy ishlarni tizimli va uzviy yo‘lga qo‘yish bu kabi illatlarni bartaraf etishning eng muhim shartlaridan biri ma’naviy tarbiyalash tizimini takomillashtirish hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mamlakatimiz aholisining tinchligi va osoyishtaligini ta’minlash, huquq-tartibotni mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kabi mas’uliyatli vazifalarni samarali amalga oshirish xodimlardan nafaqat yuqori kasbiy tayyorgarlik, balki yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlar, qonunga hurmat va xalq manfaatlariga sadoqat bilan xizmat qilishni talab etadi.

Ta’kidlash joizki, ichki ishlar organlarining ayrim xodimlari tomonidan xizmat intizomiga rioya etmaslik, vakolat doirasidan chetga chiqish, fuqarolar bilan muomala madaniyatiga amal qilmaslik hamda qonun normalarini buzish bilan bog‘liq holatlar tizim nufuziga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, balki aholining ichki ishlar organlariga bo‘lgan ishonchi pasayishiga sabab bo‘ladi. Bu borada, Ichki ishlar vazirligi rahbariyati tomonidan tizimga adashib kirib qolgan xodimlardan tozalash ishlari muntazam davom ettirilmoqda.

Hozirgi globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ochiq axborot makonida har qanday salbiy voqea tez tarqalishi ichki ishlar organlari xodimlarining ma’naviy qiyofasi va xizmat madaniyatiga bo‘lgan talablarni yanada kuchaytirmoqda. Shu nuqtai nazardan, tizimda ma’naviy-axloqiy tarbiya ishlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, xodimlarda qonunga sadoqat, halollik, mas’uliyat va insonparvarlik fazilatlarini mustahkam shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 apreldagi “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5050-son Qarori [2] aynan ichki ishlar organlari xodimlarining ma’naviy va intellektual salohiyatini yuksaltirish maqsadida ishlab chiqildi. Ma’naviy tarbiya ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etib, ularning fuqarolar bilan muomala madaniyatini yuksaltirish, xizmat burchiga vijdonan yondashish, qonun ustuvorligiga qat’iy amal qilish kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, halollik, adolatparvarlik, insonparvarlik va mas’uliyat kabi yuksak ma’naviy mezonlarning qaror topishi korrupsiya, mansab vakolatini suiiste’mol qilish, xizmat intizomini buzish kabi salbiy illatlarning oldini olishda muhim omil hisoblanadi.

Ichki ishlar organlarida ma’naviy tarbiya ishlarini yuksaltirish hamda xodimlarda Vatanga daxldorlik hissini kuchaytirish borasida bir qator fikr-mulohazalar bildirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. “Mening nazarimda, – deydi Prezidentimiz Sh.Mirziyoev, – insoniyat dunyosining buyuk bir yoritqichi – ma’naviyat chirog‘i bor. Bu chiroqning boshqalardan farqi shuki, u insonning ongi va tafakkurini yoritadi, qalbi, vijdonini uyg‘otadi, odamiylik hissini kuchaytiradi” [3], Professor S.N.Berdikulovning “Mamlakatimizda ona –

Vataniga va xalqiga sodiq, kasbiga fidoyi, mustaqil fikrlaydigan, izlanuvchan, intiluvchan, ziyrak, hushyor hamda istiqlol g‘oyalariga sadoqatli bo‘lgan ma’naviyatli va ma’rifatli avlodni tarbiyalashga katta e’tibor qaratib kelinmoqda. Bu ijobiy tendensiya ichki ishlar organlari tizimini qamrab olgan. Ichki ishlar organlari xodimining kasbiy madaniyati va xizmat intizomi fani ham tizimda faoliyat olib borayotgan xodimlarga ta’lim va tarbiyaning uzluksizligini ta’minlash maqsadida tashkil etilib sohaning chinakam vatanparvar xodimlarini tarbiyalashga xizmat qiladi” [4] degan fikrlari o‘rinlidir.

Sh.Ahrorova esa, “Ma’naviyatda inson hayotining mazmuni aks etadi. Vatanni sevish, vatanparvarlik inson ma’naviyatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Ma’naviyat kamol topgan jamiyatlarda qobiliyat, iste’dod egalari shu jamiyatning, millatning yuzi, g‘ururi, obro‘-e’tibori hisoblanadi. Ma’naviy yetuk jamiyatda aql, sog‘lom fikr, adolat va yaxshi xulq ustuvordir. Bunday jamiyatda xalqning ertangi kunga ishonchi kuchli bo‘ladi. Insonga nomunosib bo‘lgan turli illatlar barham topadi [5]. Demak ma’naviyat olamida insonning barcha qobiliyatlari, tafakkuri doirasida yuzaga kelgan xulosalari, maqsadlari ham aks etadi.

Ichki ishlar organlarida ma’naviy-axloqiy tarbiya tizimini takomillashtirish, xodimlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning ma’naviy immunitetini kuchaytirish hamda kasbiy etika qoidalariga sodiqlikni ta’minlash dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Zero, tizimda ma’naviy sog‘lom muhitning shakllanishi xizmat samaradorligini oshirish, aholi bilan ochiq va samimiy muloqotni yo‘lga qo‘yish, eng muhimi, jamiyatning huquqni muhofaza qiluvchi organlarga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashning muhim kafolatlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot olib borish davomida tarixiylik, obyektivlik, abstraklikdan konkretlikka qarab borish, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil singari umumilmiy va umumfalsafiy metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Ichki ishlar organlarida ma’naviy tarbiya tizimini takomillashtirish bugungi kunda davlat va jamiyat oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki ichki ishlar organlari xodimlari jamoat xavfsizligi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, qonun ustuvorligini ta’minlash kabi mas’uliyatli vazifalarni amalga oshiradi. Mazkur vazifalarni samarali bajarishda xodimlarning nafaqat kasbiy mahorati, balki ularning yuksak ma’naviyati, axloqiy fazilatlari va fuqarolar bilan muomala madaniyati ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma’naviy tarbiya tizimini takomillashtirish, avvalo, xodimlarda Vatanga sadoqat, xalq manfaatlariga xizmat qilish, qonunga hurmat va kasb mas’uliyati kabi fazilatlarni mustahkamlaydi. Bu esa ichki ishlar organlariga bo‘lgan jamoatchilik ishonchini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, zamonaviy globallashuv jarayonlari, axborot xurujlari va turli mafkuraviy tahdidlar kuchayib borayotgan sharoitda xodimlarni ma’naviy jihatdan barkamol etib tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bilan birga, ma’naviy tarbiya tizimini rivojlantirish xizmat intizomini mustahkamlash, korrupsiya, mansab vakolatini suiiste’mol qilish, befarqlik va mas’uliyatsizlik kabi salbiy holatlarning oldini olishda muhim omil hisoblanadi. Yuksak ma’naviyatga ega xodim o‘z xizmat vazifasini vijdonan bajaradi, fuqarolar bilan xushmuomalada bo‘ladi hamda har qanday vaziyatda qonuniylik va adolat tamoyillariga amal qiladi.

Bundan tashqari, ma’naviy tarbiya tizimini takomillashtirish orqali jamoada sog‘lom ma’naviy muhit shakllanadi, o‘zaro hurmat, hamjihatlik va xizmatdoshlik munosabatlari mustahkamlanadi. Bu esa xodimlarning ruhiy barqarorligi va xizmat samaradorligini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa. Ichki ishlar organlarida ma’naviy tarbiya tizimini yanada takomillashtirish uchun quyidagi yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

birinchidan, ichki ishlar organlari xodimlarini milliy an’analar, ajdodlar merosi, vatanparvarlik va insonparvarlik g‘oyalari asosida tarbiyalash ularning ma’naviy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

ikkinchidan, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda *(trening, psixologik seminar, debat, ma’naviy-ma’rifiy va motivatsion uchrashuvlarda)* ma’naviy tarbiyaning ta’sirchanligini oshirish xodimlarning ma’naviy jihatdan yetuk, vatanparvar va o‘z kasbiga sadoqatli qilib tarbiyalashda katta yordam beradi.

uchinchidan, xodimlar o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini, kitob mutolaasi va ularning kitobga bo‘lgan mehrini yuksaltirish, kitobxonlik tadbirlarini ko‘proq o‘tkazish ma’naviyatni yuksaltirishga xizmat qiladi.

to‘rtinchidan, ichki ishlar organlarida raxbarlarning shaxsiy namunasini kuchaytirish, rahbarlar o‘zlari namuna bo‘lib, yuksak ma’naviyati va adolatliligi bilan xodimlarga ibrat bo‘lishi jamoada ma’naviy muhitning barqaror bo‘lishiga olib keladi.

beshinchidan, ma’naviy tarbiyaning monitoring tizimini yaratish, xodimlarning ma’naviy-axloqiy holatini o‘rganish, tahlil qilish va baholashning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, ichki ishlar organlarida ma’naviy tarbiya tizimini takomillashtirish bugungi kundagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki ma’nan yetuk, vatanparvar va kasbiga sadoqatli xodimgina jamiyatda qonun ustuvorligi, tinchlik va xavfsizlikni ta’minlashda yuqori samaraga erisha oladi. Shuning uchun ma’naviy-ma’rifiy ishlar mazmunini boyitish, innovatsion tarbiya usullarini joriy etish, milliy qadriyatlarga tayangan holda xodimlarda yuksak ma’naviy fazilatlarni shakllantirish zarur. Bu esa ichki ishlar organlari tizimi nufuzini oshirish, aholi ishonchini mustahkamlash va Yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 apreldagi “Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlashda ularning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5005-son farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 apreldagi “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5050-son qarori.

3. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston”. 2021. – B. 267.

4. Berdikulov S.N. va boshq., Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyati va xizmat intizomi: Darslik., – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2024. – B. 7.

4. Ahrorova Sh. Ma’naviyat eng ta’sirchan va qudratli qurolimizdir.– Toshkent: “Ma’naviyat”, 2022. – B. 3-4.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA BIOETIKA: ILMIY-TEXNOLOGIK TARAQQIYOT, INSON QADRI VA GLOBAL MAS'ULIYATNING FALSAFIY-AXLOQIY TAHLILI

Utegenova Jamila Djolmurzayevna,
Samarqand davlat chet tillar instituti tadqiqotchisi,
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada globallashuv sharoitida bioetikaning zarurati, ijtimoiy-falsafiy mazmuni va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada bioetika zamonaviy sivilizatsiyani insonparvarlik yo'nalishida boshqaruvchi me'yoriy-falsafiy mexanizm sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, ongli rozilik, tibbiy axborot maxfiyligi, genetik ma'lumotlar xavfsizligi, reproduktiv texnologiyalar, organ transplantatsiyasi, ekologik mas'uliyat va madaniyatlararo bioetik muloqot masalalari ilmiy asosda yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *bioetika, globallashuv, inson qadri, ilmiy mas'uliyat, biotexnologiya, tibbiy etika, genetik axborot, ekologik mas'uliyat, inson huquqlari, global xavfsizlik.*

Аннотация. *В статье анализируются необходимость, социально-философское содержание и практическое значение биоэтики в условиях глобализации. Биоэтика рассматривается как нормативно-философский механизм гуманизации современной цивилизации. Особое внимание уделяется вопросам информированного согласия, конфиденциальности медицинской информации, безопасности генетических данных, репродуктивных технологий, трансплантации органов, экологической ответственности и межкультурного биоэтического диалога.*

Ключевые слова: *биоэтика, глобализация, человеческое достоинство, научная ответственность, биотехнология, медицинская этика, генетическая информация, экологическая ответственность, права человека, глобальная безопасность.*

Abstract. *This article examines the necessity, socio-philosophical content and practical significance of bioethics in the context of globalization. Bioethics is interpreted as a normative and philosophical mechanism that humanizes modern civilization. The study discusses informed consent, confidentiality of medical information, security of genetic data, reproductive technologies, organ transplantation, ecological responsibility and intercultural bioethical dialogue.*

Keywords: *bioethics, globalization, human dignity, scientific responsibility, biotechnology, medical ethics, genetic information, ecological responsibility, human rights, global security.*

Kirish. XXI asrda insoniyat taraqqiyoti bir vaqtning o'zida ulkan imkoniyatlar va murakkab xavflar bilan tavsiflanmoqda. Tibbiyotdagi ilg'or diagnostika usullari, gen muhandisligi, transplantologiya, reproduktiv texnologiyalar, sun'iy intellektga asoslangan klinik qarorlar va raqamli sog'liqni saqlash tizimlari inson umrini uzaytirish, kasalliklarni erta aniqlash hamda hayot sifatini oshirish imkonini bermoqda. Biroq mazkur jarayonlar inson tanasi, ong, shaxsiy axborot, nasliy xususiyatlar va kelajak avlodlar taqdiriga bevosita ta'sir ko'rsatgani bois ularni faqat texnik samaradorlik mezoni bilan baholash yetarli emas. Shu nuqtayi nazardan bioetika fan va texnologiyalarni insonparvarlik qadriyatlari bilan uyg'unlashtiruvchi zarur falsafiy-axloqiy maydon sifatida shakllanmoqda [1,12].

Bioetika tushunchasi dastlab biologik bilimlar va insoniy qadriyatlar o'rtasida "ko'prik" barpo etish g'oyasi bilan izohlangan. Bu yondashuvning mohiyati shundan iboratki, biologiya va tibbiyotdagi har bir yangilik inson hayotini yaxshilashga xizmat qilishi bilan birga axloqiy oqibatlari, ijtimoiy adolatga ta'siri va inson qadr-qimmatiga munosabati nuqtayi nazaridan baholanishi kerak. Shuning uchun bioetika tor ma'noda shifokor-bemor munosabatlari etikasigina emas, balki keng ma'noda hayotga, sog'liqqa, tabiatga va kelajak avlodlarga mas'uliyatli munosabat falsafasidir [2,22].

Globallashuv bioetik muammolarni milliy chegaralardan olib chiqib, umumplanetar masalaga aylantirdi. Bir mamlakatda ishlab chiqilgan genetik texnologiya, farmatsevtik

mahsulot, klinik sinov yoki raqamli tibbiy platforma qisqa vaqt ichida boshqa jamiyatlarga ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Demak, bioetik qarorlar faqat alohida mutaxassis yoki alohida davlat doirasida emas, balki xalqaro me’yorlar, madaniyatlararo muloqot, inson huquqlari va global xavfsizlik mezonlari asosida baholanishi lozim [5,3].

Maqolaning maqsadi globallashuv sharoitida bioetikaning zarurati va ahamiyatini falsafiy-axloqiy jihatdan asoslash, uning zamonaviy ilm-fan, tibbiyot, texnologiya, ekologiya va ta’lim tizimidagi funksiyalarini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda tarixiy-mantiqiy, tizimli tahlil, qiyosiy-falsafiy yondashuv, aksiologik tahlil hamda normativ-etika metodlaridan foydalanildi.

Bioetikaning nazariy-metodologik asoslari. Bioetika zamonaviy fanlararo bilim sohasi sifatida falsafa, tibbiyot, biologiya, huquq, sotsiologiya, psixologiya, ekologiya va siyosatshunoslik kesishgan nuqtada shakllanadi. Uning metodologik xususiyati shundaki, u biologik faktni axloqiy qiymat bilan, klinik qarorni inson huquqi bilan, texnologik imkoniyatni ijtimoiy mas’uliyat bilan bog‘lab tahlil qiladi. Bu jihatdan bioetika nafaqat “nima qilish mumkin?” degan savolga, balki “nima qilish kerak?”, “qanday chegarada qilish axloqan maqbul?” va “kimning manfaatlari himoya qilinishi shart?” degan savollarga javob izlaydi [3,9].

Klassik etika tarixida insonni maqsad sifatida ko‘rish tamoyili bioetikaning asosiy nazariy ildizlaridan biridir. Inson tanasi va hayoti ustida olib boriladigan har qanday amaliyot shaxsni vositaga aylantirib qo‘ymasligi lozim. Klinik tadqiqotlarda bemorning ongli roziligi, uning axborot olish huquqi, muolajadan voz kechish erkinligi hamda shaxsiy hayot daxlsizligi aynan shu tamoyilga tayanadi [4,46]. Demak, bioetika tibbiy va biologik faoliyatni inson sha’ni bilan muvofiqlashtiruvchi nazariy mezonlar tizimidir.

Bioetikaning yana bir muhim metodologik manbai mas’uliyat falsafasidir. Ilm-fan qudrati ortgani sari insonning oqibatlar oldidagi javobgarligi ham kuchayadi. Genetik tahrirlash, embrional tadqiqotlar, biobanklar, reproduktiv texnologiyalar yoki ekologik muhandislik bugungi kun manfaatidan tashqari kelajak avlodlar huquqiga ham ta’sir etadi. Shuning uchun bioetik tafakkur qisqa muddatli foydadan ko‘ra uzoq muddatli xavfsizlik, barqarorlik va insoniylikni ustuvor deb biladi [3,37].

Mazkur sohaning amaliy asosini esa biotibbiy etikaning to‘rt tamoyili — avtonomiya, zarar yetkazmaslik, yaxshilik qilish va adolat tashkil etadi. Avtonomiya shaxsning o‘z tanasi va sog‘lig‘i bilan bog‘liq qarorlarda faol subyekt bo‘lishini anglatadi; zarar yetkazmaslik tamoyili tibbiy aralashuvlar xavfini minimallashtirishni talab qiladi; yaxshilik qilish bemor manfaatini himoya qilishga qaratiladi; adolat esa tibbiy resurslar, innovatsion davolash va klinik tadqiqot imkoniyatlaridan teng foydalanish masalasini kun tartibiga qo‘yadi [2,105].

Globallashuv va zamonaviy bioetik muammolar. Globallashuv sharoitida bioetikaning dolzarbligi, avvalo, ilmiy-texnologik taraqqiyotning tezligi bilan belgilanadi. Tibbiyot va biologiyada ilgari nazariy tasavvur darajasida bo‘lgan imkoniyatlar bugun amaliy klinik, iqtisodiy va huquqiy jarayonlarga aylanmoqda. Inson genomini o‘rganish kasalliklarni oldindan aniqlashga xizmat qilsa-da, genetik ma’lumotlarning diskriminatsiya, sug‘urta, ishga qabul qilish yoki ijtimoiy nazorat vositasiga aylanish xavfi ham mavjud. Shu sababli genetik axborot maxfiyligi zamonaviy bioetikaning markaziy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Reproduktiv texnologiyalar masalasida ham bioetik bahslar kuchaymoqda. Sun’iy urug‘lantirish, surrogat onalik, embrionlarni muzlatish, preimplantatsion genetik diagnostika kabi usullar bepusht oilalarga umid bersa-da, embrion maqomi, ota-onalik mas’uliyati, bolaning manfaatlari va reproduktiv xizmatlarning tijoratlashuvi kabi muammolarni yuzaga keltiradi. Bioetik yondashuv bu jarayonda texnologik imkoniyatni inson hayoti va oilaviy mas’uliyat qadriyatlari bilan muvofiqlashtirishni talab etadi.

Organ transplantatsiyasi inson hayotini saqlab qolishning samarali vositasi bo‘lsa-da, organlar taqsimotidagi adolat, donor roziligi, kambag‘al qatlamlarning ekspluatatsiyasi, noqonuniy organ savdosi kabi muammolar bilan bog‘liq. Agar inson tanasi iqtisodiy foyda manbaiga aylansa, tibbiyotning insonparvarlik mohiyati zaiflashadi. Bioetika aynan shu nuqtada inson tanasi va sog‘lig‘i bozor obyekti emas, balki daxlsiz qadriyat ekanini asoslaydi [2,244].

Raqamli tibbiyot va sun’iy intellekt ham yangi bioetik savollarni keltirib chiqarmoqda. Algoritmlar diagnostika jarayonida shifokorga ko‘maklashishi, tibbiy tasvirlarni tez tahlil qilishi va davolash rejasini optimallashtirishi mumkin. Ammo algoritmik xatolik, ma’lumotlar bazasidagi tarafkashlik, bemor roziligisiz ma’lumotlardan foydalanish va klinik qaror uchun javobgarlik masalalari hal etilmasa, raqamli tibbiyot inson huquqlariga xavf tug‘dirishi mumkin. Demak, bioetika raqamli innovatsiyalarni shaffoflik, hisobdorlik va inson nazorati tamoyillari bilan cheklaydi.

Ekologik inqiroz ham bioetik masala sifatida talqin etilishi lozim. Chunki atrof-muhitning ifloslanishi, iqlim o‘zgarishi, suv va oziq-ovqat xavfsizligi muammolari bevosita inson salomatligi, yashash huquqi va kelajak avlodlar manfaatiga ta’sir qiladi. Bioetika insonni tabiatdan ajralgan hukmron subyekt emas, balki biosfera bilan o‘zaro bog‘liq mas’ul mavjudot sifatida ko‘radi. Bunday yondashuv ekologik mas’uliyatni tibbiy va ijtimoiy adolat bilan birlashtiradi [3,141].

Tahlil va natijalar. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, globallashuv sharoitida bioetika uchta asosiy vazifani bajaradi: birinchidan, ilmiy va tibbiy faoliyatga axloqiy chegaralar belgilaydi; ikkinchidan, inson huquqlarini biotibbiy amaliyotda himoya qiladi; uchinchidan, texnologik taraqqiyotni ijtimoiy adolat va global mas’uliyat bilan uyg‘unlashtiradi. Quyidagi jadval bioetikaning asosiy muammolari, ularning xavf omillari va me’yoriy yechimlarini umumlashtiradi.

Bioetik yo‘nalish	Asosiy muammo	Ehtimoliy xavf	Bioetik yechim
Genetik texnologiyalar	Genom tahlili va tahrirlash	Genetik diskriminatsiya, kelajak avlodga ta’sir	Maxfiylik, ehtiyotkorlik, xalqaro nazorat
Klinik tadqiqotlar	Inson ishtirokidagi tajribalar	Majburiy ishtirok, axborotsiz rozilik	Ongli rozilik, etik qo‘mita, xavf-foyda tahlili
Reproduktiv texnologiyalar	Embrion maqomi va surrogat onalik	Tijoratlashuv, bola manfaatining chetda qolishi	Shaxs qadrini himoya qilish, huquqiy tartibga solish
Transplantologiya	Organ donorligi va taqsimoti	Organ savdosi, ijtimoiy tengsizlik	Adolatli navbat, donor roziligi, taqiqlovchi nazorat
Raqamli tibbiyot	AI qarorlari va tibbiy ma’lumotlar	Algoritmik xato, maxfiylik buzilishi	Shaffoflik, hisobdorlik, inson nazorati
Ekologik bioetika	Atrof-muhit va salomatlik bog‘liqligi	Ekologik kasalliklar, avlodlararo adolatsizlik	Barqarorlik, global mas’uliyat, ekologik ta’lim

Jadvaldan ko‘rinadiki, bioetik muammolar turli sohalarda namoyon bo‘lsa-da, ularning umumiy markazida inson qadr-qimmati turadi. Genetik texnologiya, tibbiy tajriba, transplantatsiya yoki sun’iy intellektning har biri avvalo shaxs huquqi va erkinligi bilan muvofiqlashtirilishi zarur. Shuning uchun bioetika zamonaviy sivilizatsiyada “cheklovchi” emas, aksincha, ilmiy taraqqiyotga insonparvar yo‘nalish beruvchi konstruktiv mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi [5,7].

Tadqiqot natijasida bioetikaning globallashuv jarayonidagi bir necha konseptual funksiyasi aniqlandi. Birinchi funksiya — normativ tartibga solish. Bu funksiya ilmiy tajribalar va tibbiy amaliyotning axloqiy chegaralarini belgilaydi. Masalan, klinik sinovda ishtirok etayotgan shaxsning erkin va ongli roziligi bo‘lmasa, ilmiy natijaning foydasi axloqiy jihatdan o‘zini oqlamaydi. Ikkinchi funksiya — himoya funksiyasi bo‘lib, u bemor, donor, tadqiqot

ishtirokchisi, nogironligi bo‘lgan shaxs, bola, keksalar va ijtimoiy zaif guruhlar manfaatini muhofaza qiladi [6,4].

Uchinchi funksiya — integrativ funksiyadir. Bioetika turli fanlar va institutlar o‘rtasida muloqot maydonini yaratadi. Shifokor, biolog, huquqshunos, faylasuf, siyosatchi va jamiyat vakillari biror biotibbiy masalada yagona qarorga kelishi uchun umumiy axloqiy til zarur. Bioetika ana shu umumiy tilni ishlab chiqadi. To‘rtinchi funksiya — prognostik funksiya bo‘lib, u yangi texnologiyalarning uzoq muddatli oqibatlarini oldindan baholashga yordam beradi.

Natijalar shuni ham ko‘rsatadiki, bioetik madaniyat faqat tibbiyot xodimlari uchun emas, balki butun jamiyat uchun zarur. Chunki har bir inson bemor, donor, genetik axborot egasi, raqamli tibbiy xizmatdan foydalanuvchi yoki ekologik muhit subyekti sifatida bioetik munosabatlarning ishtirokchisiga aylanadi. Shu bois bioetika ta’limi oliy ta’limda, ayniqsa, tibbiyot, biologiya, huquq, falsafa, pedagogika va axborot texnologiyalari yo‘nalishlarida majburiy ilmiy-amaliy komponent bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Bioetika va inson huquqlari uyg‘unligi. Bioetika inson huquqlari nazariyasining biotibbiy amaliyotdagi davomidir. Insonning yashash huquqi, sha’ni, erkinligi, shaxsiy hayoti va axborot daxlsizligi tibbiyot hamda biologiya sohasida alohida mazmun kasb etadi. Bemorning tashxisini bilish, davolanish usulini tanlash, tibbiy aralashuvga rozilik berish yoki undan voz kechish huquqi insonni passiv obyekt emas, balki ongli qaror qabul qiluvchi subyekt sifatida tan olishni bildiradi [6,6].

Ta’lim tizimida bioetik madaniyatni shakllantirish global mas’uliyat ongining muhim omilidir. Yosh avlod fan va texnologiyani faqat kasbiy muvaffaqiyat vositasi sifatida emas, balki insoniyat oldidagi javobgarlik maydoni sifatida tushunishi zarur. Tibbiyot xodimi, biolog, muhandis, dasturchi yoki pedagog bo‘lishidan qat’i nazar, har bir mutaxassis o‘z faoliyatining inson hayoti va jamiyat barqarorligiga ta’sirini anglay olishi lozim.

Xulosa. Globallashuv sharoitida bioetika zamonaviy sivilizatsiyaning axloqiy tayanchi sifatida namoyon bo‘ladi. U fan va texnologiyalar taraqqiyotini to‘xtatishga emas, balki ularni inson qadr-qimmati, huquqlari, ijtimoiy adolat va global mas’uliyat mezonlari bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Bioetik yondashuvsiz tibbiyot va biotexnologiya insonparvarlik mazmunini yo‘qotib, samaradorlik, foyda va nazorat manfaatlariga bo‘ysunib qolishi mumkin.

Shunday qilib, bioetika globallashuvning inson uchun xavfli jihatlarini kamaytiruvchi, ilmiy-texnologik taraqqiyotga axloqiy mazmun beruvchi va jamiyatni insonparvar kelajak sari yo‘naltiruvchi muhim falsafiy-amaliy mexanizmdir. Uni ta’lim, ilmiy tadqiqot, tibbiyot, huquqiy siyosat va raqamli texnologiyalar boshqaruvi tizimiga chuqur integratsiya qilish bugungi davrning dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Potter V.R. Bioethics: Bridge to the Future. – Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1971. – 205 p.

2. Beauchamp T.L., Childress J.F. Principles of Biomedical Ethics. 8th ed. – New York; Oxford: Oxford University Press, 2019. – 496 p.

3. Jonas H. The Imperative of Responsibility: In Search of an Ethics for the Technological Age. – Chicago: University of Chicago Press, 1984. – 255 p.

4. Kant I. Groundwork of the Metaphysics of Morals / ed. M. Gregor, J. Timmermann. – Cambridge: Cambridge University Press, 2012. – 108 p.

5. UNESCO. Universal Declaration on Bioethics and Human Rights. – Paris: UNESCO, 2005. – 12 p.

6. Council of Europe. Convention for the Protection of Human Rights and Dignity of the Human Being with regard to the Application of Biology and Medicine: Convention on Human Rights and Biomedicine. – Oviedo: Council of Europe, 1997. – 13 p.

XALQLAR MADANIYATI VA MA'NAVIYATINING RIVOJLANISHIGA BUYUK IPAK YO'LI HAMDA GLOBALLASHUVNING TA'SIRI

Jabborova Salomatjon Rajabovna,
Urganch RANCH universiteti
katta o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada xalqlarning turmush tarsi va madaniy-ma'naviy hayotining yuksalishida Buyuk Ipak yo'li va bugungi kunda globallashuvning ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekistonning ushbu transkontinental Ipak yo'li bo'ylab markaziy va hal qiluvchi bo'g'in sifatidagi noyob mavqei ta'kidlab o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Ipak yo'li, tsivilizatsiya, globallashuv, ma'naviyat, madaniyat, ma'naviy yutuqlar, madaniy uyg'unlik, "lazurit yo'li", "nefrit yo'li", "mafkuraviy immunitet", infratuzilma, madaniy xazina.*

Аннотация. *В данной статье анализируется влияние Великого Шелкового пути и современной глобализации на развитие образа жизни, культурной и духовной жизни народов. Также подчеркивается уникальное положение Узбекистана как центрального и важнейшего звена на этом трансконтинентальном Шелковом пути.*

Ключевые слова: *Шелковый путь, цивилизация, глобализация, духовность, культура, духовные достижения, культурная гармония, «дорога лазурита», «дорога нефрита», «идеологический иммунитет», инфраструктура, культурное достояние.*

Abstract. *This article analyzes the impact of the Great Silk Road and globalization today on the development of the way of life and cultural and spiritual life of peoples. The unique position of Uzbekistan as a central and crucial link along this transcontinental Silk Road is also emphasized.*

Keywords: *Silk Road, civilization, globalization, spirituality, culture, spiritual achievements, cultural harmony, "lapis lazuli road", "jade road", "ideological immunity", infrastructure, cultural treasure.*

Buyuk Ipak yo'li ming yillik insoniyat tarixi davomida xalqlar va madaniyatlar o'rtasidagi aloqalar rivojlanishda hal qiluvchi rol o'ynab, Sharq va G'arbni bog'laydigan keng savdo va madaniy almashinuv tarmog'i sifatida tanilgan. Ushbu yo'l nafaqat iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda, balki turli xalqlar, madaniyatlar va tsivilizatsiyalar o'rtasidagi aloqa va hamkorlikni osonlashtirishda ham muhim rol o'ynadi. Buyuk ipak yo'li bo'ylab nafaqat ipak, ziravorlar va qimmatbaho toshlar kabi tovarlar, balki ilm-fan, san'at, din va madaniy xazinalar ham almashindi. Natijada, turli xalqlar va tsivilizatsiyalar o'rtasida madaniy muloqot gullab-yashnadi, yaqinlashuv yuz berdi.

Tsivilizatsiya moddiy va ma'naviy yutuqlar yig'indisini o'z ichiga oladi. Ipak yo'li bu tsivilizatsiyalarni bog'laydigan tarixiy ko'prik bo'lib xizmat qildi. Xususan, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlar fan, savdo va madaniyat markazlari sifatida paydo bo'ldi. Bu jarayon turli xalqlarning dunyoqarashi, fikrlash tarzi va ma'naviy hayotiga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Tsivilizatsiyalar chorrahasida joylashgan Ipak yo'li o'zaro tushunishni rivojlantirish, madaniy uyg'unlikni mustahkamlash va odamlar o'rtasida yangi g'oyalarni tarqatishda muhim rol o'ynadi. Masalan, bosmaxona va qog'oz ishlab chiqarish texnologiyalarining Sharqdan G'arbga o'tishi, G'arb ilmiy hamda hunarmandchilik yutuqlarining Sharqqa tarqalishiga olib keldi va madaniy uyg'unlikni mustahkamladi. Bu jarayon, shuningdek, diniy, falsafiy va ilmiy g'oyalarni tarqatish orqali odamlarning ma'naviy hayotiga chuqur ta'sir ko'rsatdi.

Ipak yo'lini o'rganish va globallashuvning madaniyatga ta'siri bir necha sabablarga ko'ra muhim va ilmiy jihatdan yangi mavzu hisoblanadi.

XXI asr boshlarida Xitoyning "Bir makon, bir yo'l" (BRI) tashabbusi kabi loyihalari asosida Ipak yo'li qayta tiklanishi, uning strategik ahamiyatini yana bir bor tasdiqlamoqda. Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston, ushbu o'zgarish markazida bo'lib, ham iqtisodiy

imkoniyatlarni, ham yangi madaniy chaqiriqlarni ham keltirib chiqarmoqda. Pekindan Toshkentgacha hashamatli poyezd sayohati kabi innovatsiyalar bu o‘zgarishning yaqqol namoyonidir.

Globallashuv davrida milliy madaniyat va ma’naviyatni saqlab qolish, shuningdek, yosh avlodning “mafkuraviy immunitetini” mustahkamlash O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun asosiy muammolarga aylandi. Ipak yo‘li merosi O‘zbekistonga ulkan sayyohlik salohiyatini taqdim etadi. “Ipak yo‘lining yuragi” bo‘lgan Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlar xorijiy sayyohlarni o‘ziga jalb qiladi. Ushbu merosni o‘rganish, tahlil va targ‘ib qilish ziyorat turizmi kabi sohalarni rivojlantirishga hissa qo‘shadi.

Tarixiy manbalarga tayanishdan tashqari, “Bir makon, bir yo‘l” kabi zamonaviy geosiyosiy loyihalarning madaniy va ma’naviy ta’sirini ham tahlil qilib, bugungi kunda madaniy almashinuv qadimgi karvon yo‘llari bo‘ylab emas, balki internet va raqamli ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshiriladi. Ushbu yangi platformalarning adabiyot, san’at va ijtimoiy munosabatlarga ta’sirini o‘rganish ushbu mavzu bo‘yicha yangicha nuqtai nazarni taqdim etadi.

Globallashuvning salbiy oqibatlarini yumshatish va uning turizm brendlarini rivojlantirish kabi ijobiy jihatlaridan samarali foydalanish uchun amaliy yechimlarni taklif etiladi.

Ipak yo‘li shunchaki qadimgi savdo yo‘llari tarmog‘idan ko‘proq narsa bo‘lib, u G‘arb va Sharqni bog‘laydigan global hodisa, tsivilizatsiyalararo almashinuvning kuchli vositasi edi. Miloddan avvalgi II asrdan milodiy XVI asrgacha faoliyat yuritgan ushbu tarmoq nafaqat ipak, ziravorlar va zargarlik buyumlari kabi tovarlar almashinuvini osonlashtirdi, balki g‘oyalar, dinlar, texnologiyalar, san’at va madaniyatning keng tarqalishiga yo‘l ochdi. Buddizm, islom va xristianlik kabi dinlar bu yo‘l bo‘ylab Yevrosiyoga tarqaldi, qog‘oz va porox kabi Xitoy ixtirolari G‘arbga yetib bordi, shuningdek, turli etnik o‘zaro ta’sirlar turli xil badiiy va me’moriy uslublarni keltirib chiqardi. Ipak yo‘lining ahamiyati uning iqtisodiy ta’siridan tashqariga chiqadi. Ipak yo‘li orqali Islom madaniyati va fani keng tarqalgan. Bog‘dod va Qohira kabi shaharlar ilm-fan markazlari bo‘lib, tibbiyot, falsafa va kimyo fanlari rivojlangan [2. 329-345]. U madaniy boyitishga, yangi bilimlarning paydo bo‘lishiga hamda ilk globallashuvga yordam berdi.

“Ipak yo‘l” atamasi orqali ko‘pincha bitta, uzluksiz yo‘lni tasavvur qilinadi, ammo aslida u Xitoydan O‘rta yer dengizigacha chizilgan murakkab va doimiy o‘zgarib turadigan quruqlik va dengiz yo‘llari tarmog‘i edi. Bu nom XIX asr nemis geografi Ferdinand fon Rixtgofen tomonidan Xitoy ipaklarining G‘arbga yuqori qiymatini aks ettirish uchun o‘ylab topilgan. Biroq, bu yo‘l orqali turli xil tovarlar, g‘oyalar va madaniy boyliklar bilan savdo qilingan va bu uni insoniyat tarixidagi birinchi global aloqa tarmog‘iga aylantirgan. Ipak yo‘lining rasmiy ochilishi miloddan avvalgi II asrga, Xan imperatori Vudi diplomat Chjan Syanni G‘arbga yuborganiga bog‘liq. Chjan Syanning asosiy maqsadi savdo emas, balki Xunlarga qarshi harbiy ittifoqchilarni izlash edi va uning sayohatlari Xitoyga G‘arb tsivilizatsiyasi, tovarlari va madaniyati haqida qimmatli ma’lumotlarni taqdim etdi. Bu esa, muntazam savdo aloqalarini o‘rnatishga olib keldi.

Ipak yo‘lining rasmiy ochilishi miloddan avvalgi II asrga, Han sulolasining imperatori Vudining diplomat Chjan Syanni G‘arbga yuborganiga bog‘liq deb qaraladi. Lekin, bu mintaqada allaqachon alohida savdo yo‘llari mavjud bo‘lgan, masalan, “lazurit yo‘li”, “nefrit yo‘li” kabilar. Ular Markaziy Osiyoning yarim qimmatbaho tosh konlarini Eron, Mesopotamiya va Xitoy bilan bog‘lagan. Keyinchalik bu yo‘llar Ipak yo‘li tarmog‘iga qo‘shildi. Farg‘ona vodiysining “samoviy otlari” Xitoy imperatorlarining e’tiborini tortdi va ularning G‘arb bilan munosabatlarini kengaytirishda asosiy omilga aylandi.

Ipak yo‘lining eng katta va eng uzoq davom etadigan ta’siri moddiy boyliklar almashinuvida emas, balki madaniy hamda intellektual qadriyatlarni tarqatishda edi. Ipak yo‘li orqali Sharq va G‘arb o‘rtasida yirik savdo aloqalari o‘ratilgan, bu aloqalar afaqat tovarlar, balki ilm-fan, san’at va diniy qarashlarni ham o‘zaro tarqatgan. Shu bilan birga, ipak yo‘li Yevrosiyo bo‘ylab turli dinlarning tarqalishi uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qilgan.

Buddizm Hindistonda paydo bo‘lgan va Ipak yo‘li bo‘ylab Markaziy Osiyo, Xitoy, Koreya va Yaponiyaga tarqalgan. Afg‘onistondagi Bomiyon xaykallari va Xitoydagi Dunxuang g‘orlari buddist yodgorliklarining yorqin namunalaridir.

VIII asrdan boshlab Islom Sharqqa tarqala boshladi va musulmon savdogarlarini o‘ziga tortdi. Bu savdogarlar mahalliy aholi orasidai islomning tinch yo‘l bilan tarqalishiga yordam berishdi. Boshqa dinlar: Xristianlik, zardushtiylik, moniylik va yahudiylik Ipak yo‘li bo‘ylab turli mintaqalarga tarqaldi.

Turli tsivilizatsiyalarning o‘zaro ta’siri san’at va me’morchilikda o‘ziga xos uslublarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Yunon-rim, fors, hind va xitoy san’ati elementlari Markaziy Osiyo san’ati bilan birlashib, gandhara san’ati kabi o‘ziga xos uslublarni yaratdi. Xitoy me’morchiligidagi ajdarholar va Samarqand madrasalarida o‘yilgan afsonaviy mavjudotlar (yo‘lbarslar va kiyiklar) tasvirlari ham turli madaniyatlarning mifologik va falsafiy qarashlarining o‘zaro assimilyatsiyasini namoyish etadi.

Tarixiy jarayonlarni tsivilizatsiyasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Tarix va tsivilizatsiya bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan hodisalardir.

“Tsivilizatsiya” atamasi bugungi kunda eng keng tarqalgan tushunchalardan biriga aylandi. Tadqiqotchilar bu so‘zni turli ma’nolarda ishlatishadi. Ushbu tushunchaning rivojlanishini o‘rganar ekan, fransuz tarixchisi va olimi L.Fevrning ta’kidlashicha, u birinchi marta 1766-yilda Fransiya va 1773-yilda Britaniya ma’rifatparvarlari tomonidan qo‘llanilganini ta’kidlaydi. “Madaniyat” atamasi birinchi marta ilmiy maqolalarda 1774-yilda paydo bo‘lgan [4.242-247.].

Globallashuvning birinchi shakli bo‘lgan Ipak yo‘li qadimgi tsivilizatsiyalarni bog‘lab, nafaqat tovarlar, balki g‘oyalar, din, texnologiya va madaniyatning ham tarqalishiga yo‘l ochdi.

“Globallashuv” fransuzcha “global” degan so‘zdan kelib chiqqan bo‘lib, “umumga oid”, “umumga taalluqli”, “umum bilan bog‘liq” ma’nolarini anglatadi. Etimologik nuqtayi nazardan “global” so‘zi lotincha “globus” ya’ni “shar” so‘zidan kelib chiqqan. Globus deganda yer shari nazarda tutiladi. Mazkur yondashuvni ilk bor Aristotel qo‘llagan [6.17.].

Bugungi kunda ushbu tarixiy yo‘lning qayta tiklanishi, “Bir makon, bir yo‘l” kabi zamonaviy geosiyosiy va iqtisodiy konsepsiyalar tufayli globallashuv uchun yangi o‘lchamlarni ochdi. Bu jarayon odamlar madaniyati va ruhiga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatadi. Bir tomondan, u madaniy almashinuvni boyitadi, xalqaro hamkorlik va turizmni rivojlantiradi. Boshqa tomondan, “ommaviy madaniyat”ning kirib kelishi milliy o‘ziga xoslik, an’anaviy qadriyatlar va axloqiy me’yorlarga tahdid solmoqda. Shuning uchun, globallashuv davrida Ipak yo‘li merosining madaniy va ma’naviy jihatlarini o‘rganish, uning ijobiy salohiyatidan foydalanish va salbiy ta’sirlarga qarshi “mafkuraviy immunitet”ni shakllantirish bizning davrimizning eng dolzarb va paydo bo‘layotgan ilmiy muammolaridan biridir.

Globallashuvning birinchi shakli bo‘lgan Ipak yo‘li qadimgi tsivilizatsiyalarni bog‘lab, nafaqat tovarlar, balki g‘oyalar, din, texnologiya va madaniyatning ham tarqalishiga yo‘l ochdi. Bugungi kunda ushbu tarixiy yo‘lning qayta tiklanishi, “Bir makon, bir yo‘l” kabi zamonaviy geosiyosiy va iqtisodiy konsepsiyalar tufayli globallashuv uchun yangi o‘lchamlarni ochdi. Bu jarayon odamlar madaniyati va ruhiga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatadi. Bir tomondan, u madaniy almashinuvni boyitadi va xalqaro hamkorlik hamda turizmni rivojlantiradi. Boshqa tomondan, “ommaviy madaniyat”ning kirib kelishi milliy o‘ziga xoslik, an’anaviy qadriyatlar va axloqiy me’yorlarga tahdid solmoqda. Shuning uchun, globallashuv davrida Ipak yo‘li merosining madaniy va ma’naviy jihatlarini o‘rganish, uning ijobiy salohiyatidan foydalanish va salbiy ta’sirlarga qarshi “mafkuraviy immunitet”ni shakllantirish bizning davrimizning eng dolzarb va paydo bo‘layotgan ilmiy muammolaridan biridir.

Globallashuvda ishtirok etayotgan barcha mamlakatlar va xalqlar bu jarayonda ishtirok etmoqda. Bu jarayonda ishtirok etishdan bosh tortganlar ijtimoiy rivojlanishda orqada qolish xavfiga duch kelishadi. “Demak, biz globallashuv jarayonida oqilona yo‘l tutsak, ham iqtisodiy, ham ma’naviy ravnaqqa erishishimiz mumkin ekan. Oqilona yo‘l esa globallashuvni to‘la inkor

qilish yoki chapak chalib kutib olish emas, kerak bo‘lganda uning yo‘nalishiga moslashish, tegishli paytda uni o‘zimizga moslashtirish”[3.66].

Globallashuv chuqurlashib borayotgan bir paytda, global tinchlik va barqarorlikni saqlash, aholi farovonligi va munosib turmush darajasini ta'minlash, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, milliy madaniyat, san'at va an'analarni saqlab qolish kabi masalalar umuminsoniy tashvishlar bilan bir qatorda muhim kun tartibiga aylanib bormoqda. Globallashuv jarayonida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklar, ayniqsa, ma'naviyat va madaniyat sohalarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. “Shu jihatdan glodallshuvga butun dunyoni qamrab olgan madaniy inqilob deb ta’rif berish mumkin” [5.5].

Mamlakatimiz ma’naviy dunyosini ushbu tahdidlardan himoya qilish, murakkab davrda xalqaro maydonda ro‘y berayotgan voqealarning asosiy sabablarini aniqlash va ularga nisbatan obyektiv va mustaqil nuqtai nazarni shakllantirish bugungi kunda dolzarb vazifalardir. Bu globallashuvning salbiy jihatlari, milliy madaniyat va qadriyatlarning yemirilishi, milliy ideallarning o‘zgarishi, yoshlar ta’limiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi va an’anaviy jamiyatlarda, ayniqsa ko‘p millatli jamiyatlarda etnik, diniy va mafkuraviy qarama-qarshiliklarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. “…hozirgi vaqtda dunyoning turli mintaqalarida madaniyatlararo va dinlararo keskinlik kuchayib bormoqda, millatchilik, diniy murosasizlik bosh ko‘tarmoqda. Bu illatlar davlatni emirib, jamiyatni parchalab, radikal guruh va oqimlar uchun mafkura bazasiga aylanmoqda, ana shunday murakkab vaziyatda mamlakatimizda turli millat va dinga mansub insonlar o‘rtasida do‘stlik va hamjihatlikni yanada mustahkamlash biz uchun borgan sari muhim ahamiyat kasb etmoqda” – deb ta’kidlaydi Sh.Mirziyoyev [1]. Har bir mamlakat o‘zining ichki siyosatida ko‘p madaniyatli xususiyatga ega, shu sababli, kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun faol jamoatchilik bilan aloqalar olib borish, ushbu faoliyatni kengaytirishga alohida e’tibor qaratilishini talab qiladi..

Globallashuv Ipak yo‘lining tarixiy ahamiyatini butunlay yangi bosqichga ko‘tardi. Texnologiya va zamonaviy transportdagi yutuqlar dunyoni bir-biriga yaqinlashtirdi va odamlar o‘rtasida madaniy almashinuvni kuchaytirdi. Biroq, globallashuvning ijobiy ta’siri bilan bir qatorda, milliy madaniyatning yo‘qolishi va madaniy qadriyatlarning tijoratlashtirilishi kabi salbiy oqibatlar ham mavjud. Shunga qaramay, ko‘plab etnik guruhlar o‘z an’analari va madaniy merosini saqlab qolish uchun faol ish olib bormoqdalar.

Xulosa qilib aytganda, Ipak yo‘li va globallashuv jarayoni ko‘plab etnik guruhlarning madaniyati va axloqiga chuqur ta’sir ko‘rsatdi. Bu mavzu nafaqat tarixiy, balki zamonaviy nuqtai nazardan ham muhimdir va etnik guruhlar o‘rtasida o‘zaro tushunish, hamkorlikni rivojlantirish uchun juda muhimdir. Ma’lum ma’noda, zamonaviy globallashuv jarayonini qadimgi Ipak yo‘lining zamonaviy qayta tasavvuri sifatida ko‘rish mumkin. Axborot texnologiyalari, transport va kommunikatsiyalardagi yutuqlar xalqlar o‘rtasidagi almashinuvlarni tezlashtirdi. Biroq, globallashuv bilan birga milliy madaniyatlar va ma’naviy qadriyatlarni saqlab qolish masalasi ham dolzarb bo‘lib qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 25 yilligiga bag‘ishlangan uchrashuvdagi nutqi. 24.01.2017. Internet manba: http//www.prezident.uz2.
2. Baratov L. “Buyuk ipak yo‘li: tarixi va madaniyati”. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2005. 329-345-bet
3. Бегматов А. Маънавият фалсафаси. 2-китоб.- Т., 2006. 66-б.
4. Февр Л. Цивилизация: эволюция слова и группы идей // Бои за историю. М. Наука. 1991. 242-247
5. Saidov U. “Olomon adabiyoti”, “Tafakkur” jurnali, 2008, №2, 5-bet.
6. Xajiyeva.M.S “Globallashuv asoslari” darslik, Toshkent: 2020. 17-b.

YANGI O‘ZBEKISTON QISHLOQ YOSHLARINING AGRAR MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA MA’NAVIY QADRIYATLAR UYG‘UNLIGI

To‘xtayev Husen Mirzayevich,
Samarqand davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida qishloq yoshlarining agrar madaniyatini shakllantirishda ma’naviy qadriyatlarning o‘rni va ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Agrar madaniyat faqat yerga ishlov berish, dehqonchilik yoki chorvachilik ko‘nikmalari majmui emas, balki tabiatga mas’uliyatli munosabat, mehnatsevarlik, halollik, tejamkorlik, ekologik ong va avlodlar tajribasini qadrlash kabi ma’naviy fazilatlar bilan uyg‘un ijtimoiy hodisa sifatida talqin etiladi. Maqolada qishloq yoshlarining kasbiy faolligi, innovatsion fikrlashi va mahalla hamda oila muhitida shakllanadigan qadriyatlari o‘zaro bog‘liq jarayon sifatida yoritiladi. Shuningdek, yoshlar bandligi, agrar sohada tadbirkorlik, ekologik mas’uliyat va milliy qadriyatlarning zamonaviy taraqqiyot bilan uyg‘unlashuvi bo‘yicha taklif va tavsiyalar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *agrar madaniyat, qishloq yoshlari, ma’naviy qadriyatlar, Yangi O‘zbekiston, ekologik ong, mehnat tarbiyasi, mahalla, innovatsiya.*

Аннотация. *В статье научно-теоретически анализируется роль духовных ценностей в формировании аграрной культуры сельской молодежи в условиях Нового Узбекистана. Аграрная культура рассматривается не только как совокупность навыков земледелия, животноводства и сельскохозяйственного труда, но и как социально-духовное явление, связанное с ответственным отношением к природе, трудолюбием, честностью, бережливостью, экологическим сознанием и уважением к опыту поколений. В статье раскрывается взаимосвязь профессиональной активности сельской молодежи, инновационного мышления, семейного воспитания и роли махалли. Также представлены предложения по развитию занятости молодежи, сельского предпринимательства, экологической ответственности и гармонизации национальных ценностей с современными требованиями развития.*

Ключевые слова: *аграрная культура, сельская молодежь, духовные ценности, Новый Узбекистан, экологическое сознание, трудовое воспитание, махалля, инновация.*

Annotation. *This article provides a scientific and theoretical analysis of the role of spiritual values in shaping the agrarian culture of rural youth in the context of New Uzbekistan. Agrarian culture is interpreted not only as a set of agricultural, farming and livestock-related skills, but also as a socio-spiritual phenomenon connected with responsible attitudes toward nature, diligence, honesty, thrift, ecological awareness and respect for generational experience. The article highlights the interrelation between rural youth’s professional activity, innovative thinking, family upbringing and the role of the mahalla. It also offers proposals for developing youth employment, rural entrepreneurship, ecological responsibility and harmonizing national values with modern development priorities.*

Keywords: *agrarian culture, rural youth, spiritual values, New Uzbekistan, ecological awareness, labor education, mahalla, innovation.*

Bugungi Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti jamiyat hayotining barcha sohalarida tub yangilanish, inson kapitalini rivojlantirish, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish hamda milliy qadriyatlarni zamonaviy taraqqiyot talablari bilan uyg‘unlashtirish jarayonlari bilan bevosita bog‘liq. Ayniqsa, qishloq yoshlarining agrar madaniyatini shakllantirish masalasi mamlakatning iqtisodiy barqarorligi, oziq-ovqat xavfsizligi, ekologik muvozanati va ma’naviy taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki qishloq faqat ishlab chiqarish hududi emas, balki xalqimizning ko‘p asrlik mehnat an’analari, yerga hurmat, tabiat bilan uyg‘un yashash, oila va mahalla qadriyatlari mujassam bo‘lgan ijtimoiy-madaniy makondir.

Agrar madaniyat tushunchasini tor ma’noda faqat dehqonchilik, chorvachilik yoki qishloq xo‘jaligi texnologiyalarini bilish bilan cheklab bo‘lmaydi. U keng ma’noda insonning yer, suv, tabiat, mehnat, mulk, mahsulot va jamiyat oldidagi mas’uliyatini ifodalovchi madaniy hodisadir. Agrar madaniyatga ega yosh avlod yerning qadrini biladi, mehnatni qadrlaydi, resurslardan oqilona foydalanadi, ekologik muammolarga befarq bo‘lmaydi, ajdodlardan meros bo‘lib kelayotgan dehqonchilik tajribasini zamonaviy ilm-fan va innovatsiyalar bilan boyitishga intiladi. Shu jihatdan agrar madaniyat iqtisodiy faoliyat, ma’naviy tarbiya va ekologik tafakkurning uzviy birligidir.

Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlarning ma’naviy qiyofasini shakllantirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir” degan g‘oya bugungi taraqqiyot jarayonida iqtisodiy islohotlar bilan ma’naviy yangilanishning bir-biridan ajralmasligini ko‘rsatadi [1, 18-b.]. Aynan shu nuqtayi nazardan qaralganda, qishloq yoshlarini zamonaviy agrar bilimlarga ega, kasbiy jihatdan faol, ma’naviy barkamol va ijtimoiy mas’uliyatli shaxslar etib tarbiyalash agrar soha rivojining muhim shartidir.

Qishloq yoshlarining agrar madaniyatini shakllantirishda, avvalo, mehnat qadriyati alohida o‘rin tutadi. O‘zbek xalqining tarixiy tajribasida mehnat inson kamolotining asosiy mezoni sifatida baholangan. “Yerga mehr - elga mehr”, “Mehnat qilgan elda aziz” kabi xalqona qarashlar dehqonchilik madaniyatining ma’naviy asoslarini ifodalaydi. Yoshlarning yer bilan ishlash jarayonida sabr, intizom, mas’uliyat, tejamkorlik va natijadorlik kabi fazilatlari shakllanadi. Ayniqsa, oilaviy dehqonchilik, tomorqa madaniyati, bog‘dorchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan bog‘liq tajribalar yosh avlodda amaliy ko‘nikmalar bilan birga hayotiy mas’uliyatni ham rivojlantiradi.

Agrar madaniyatning yana bir muhim ma’naviy asosi - tabiatga hurmat va ekologik ongdir. Bugungi globallashuv sharoitida iqlim o‘zgarishi, suv tanqisligi, yer degradatsiyasi, chiqindilar muammosi, biologik xilma-xillikning kamayishi kabi ekologik masalalar insoniyat oldida jiddiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Bunday sharoitda qishloq yoshlarida ekologik mas’uliyatni kuchaytirish, suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish, organik dehqonchilik, tomchilatib sug‘orish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish kabi zamonaviy yondashuvlarni targ‘ib etish zarur. Ammo bu jarayon faqat texnik bilimlar bilan emas, balki “tabiat - omonat”, “yer - rizq manbai”, “suv - hayot” kabi milliy-ma’naviy qarashlar bilan uyg‘unlashgandagina barqaror natija beradi.

Qishloq yoshlarining agrar madaniyatini rivojlantirishda oila va mahalla institutining tarbiyaviy imkoniyatlari ham katta ahamiyatga ega. Oila yosh avlodga mehnatga munosabat, kattalarga hurmat, yerga egalik mas’uliyati, halol rizq topish, tejamkorlik va jamoaviylik kabi qadriyatlarni singdiradigan birlamchi muhitdir. Mahalla esa yoshlarning ijtimoiy faolligi, kasb-hunar egallashi, tadbirkorlik tashabbuslari va ijtimoiy nazorat tizimini qo‘llab-quvvatlovchi muhim makondir. Mahalla orqali qishloq yoshlarini fermer xo‘jaliklari, kooperatsiyalar, oilaviy tadbirkorlik subyektlari, “ustoz-shogird” an’analari va mahalliy ishlab chiqarish jarayonlariga jalb qilish ularning amaliy tajribasini oshiradi.

Shuningdek, agrar madaniyatni shakllantirishda ta’lim tizimining roli beqiyosdir. Maktab, kasb-hunar ta’limi va oliy ta’lim muassasalarida agrar soha bilan bog‘liq nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtirish zarur. Qishloq yoshlari uchun agrotexnologiya, ekologiya, biologiya, iqtisodiyot, tadbirkorlik, raqamli texnologiyalar va marketing bo‘yicha zamonaviy bilimlar berilishi ularning agrar sohaga nisbatan qiziqishini kuchaytiradi. Ayniqsa, “aqlli qishloq xo‘jaligi”, dronlardan foydalanish, raqamli monitoring, suv tejovchi texnologiyalar, issiqxona xo‘jaligi, organik mahsulot yetishtirish kabi yo‘nalishlar yoshlar uchun agrar sohani zamonaviy va istiqbolli kasb maydoni sifatida namoyon etadi.

Biroq zamonaviy innovatsiyalarni joriy etishda milliy qadriyatlar chetda qolmasligi kerak. Aksincha, innovatsiya va qadriyat bir-birini to‘ldirishi lozim. Masalan, ajdodlarimizning yerga

mehr, suvni isrof qilmaslik, hosilni qadrlash, mahalla bilan maslahatlashish, ommaviy hashar, jamoaviy yordam kabi an’analari bugungi agrotexnologiyalar bilan uyg‘unlashtirilsa, yoshlarning agrar madaniyati yanada mustahkamlanadi. Innovatsiya faqat texnik vosita emas, balki inson tafakkurining yangilanishi hamdir. Shu bois qishloq yoshlarining agrar madaniyatida zamonaviy bilim, milliy tajriba va ma’naviy qadriyatlar bir butun tizim sifatida qaralishi kerak.

Qishloq yoshlarida agrar madaniyatni shakllantirishning yana bir muhim jihati - ularning iqtisodiy faolligini oshirishdir. Agrar madaniyat iqtisodiy manfaatdan uzilib qolgan holda rivojlana olmaydi. Agar yoshlar qishloq xo‘jaligida munosib daromad, kasbiy o‘sish, tadbirkorlik imkoniyati va ijtimoiy e’tirof ko‘rsa, ularning sohaga qiziqishi ortadi. Shu sababli yosh fermerlar, agrostartaplar, oilaviy tadbirkorlik, kooperatsiya, qishloq turizmi, qayta ishlash sanoati va mahalliy brendlar yaratish bo‘yicha qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Qishloq yoshlarining iqtisodiy tashabbuslari ma’naviy qadriyatlar bilan uyg‘un bo‘lsa, ularning faoliyati faqat foyda olishga emas, balki jamiyatga manfaat keltirishga ham yo‘naltiriladi.

Globallashuv sharoitida yoshlarning ongiga turli axborot oqimlari, iste’molchilik kayfiyati, tez boyish istagi, mehnatdan qochish, qishloq hayotini past baholash kabi salbiy qarashlar ham ta’sir qilishi mumkin. Bunday vaziyatda ma’naviy qadriyatlar qishloq yoshlarini o‘z ildizlariga, milliy o‘zligiga, halol mehnatga va ijtimoiy mas’uliyatga bog‘lab turuvchi muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Agrar madaniyatni shakllantirish jarayonida yoshlar ongida “qishloq - taraqqiyotdan chetda qolgan hudud” degan noto‘g‘ri tasavvur emas, balki “qishloq - barqaror iqtisodiyot, ekologik muvozanat va milliy qadriyatlar markazi” degan ijobiy qarash shakllanishi lozim.

Bu borada ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalardan samarali foydalanish ham muhimdir. Qishloq yoshlarining muvaffaqiyatli agroloyihalari, yosh fermerlar tajribasi, mahalliy mahsulotlar brendi, ekologik tashabbuslar, innovatsion texnologiyalardan foydalanayotgan yosh mutaxassislar faoliyati keng targ‘ib etilishi zarur. Chunki bugungi yoshlar ko‘p hollarda o‘z kasbiy tanlovini axborot maydonida shakllanayotgan ijtimoiy obrazlar orqali belgilaydi. Agar agrar soha zamonaviy, daromadli, obro‘li va ma’naviy jihatdan sharafli faoliyat sifatida ko‘rsatilsa, yoshlarning bu sohaga munosabati ham ijobiy tomonga o‘zgaradi.

Qishloq yoshlarining agrar madaniyatini shakllantirishda gender tenglik masalasiga ham e’tibor qaratish lozim. Qishloq joylarda qizlarning agrar tadbirkorlik, qayta ishlash, issiqxona xo‘jaligi, oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlash, ekologik loyihalar, raqamli savdo va kooperatsiya faoliyatidagi ishtiroki kengaymoqda. Bu jarayon ularning iqtisodiy mustaqilligini oshirish bilan birga oilaviy farovonlik, ijtimoiy faollik va ma’naviy yetuklikka ham xizmat qiladi. Demak, agrar madaniyat faqat yigitlar yoki fermerlar faoliyati bilan chegaralanmaydi, balki butun qishloq jamiyatining madaniy-iqtisodiy salohiyatini ifodalaydi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, qishloq yoshlarining agrar madaniyatini shakllantirish bo‘yicha quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish mumkin. Birinchidan, umumiy o‘rta va kasbiy ta’lim muassasalarida agrar madaniyat, ekologik mas’uliyat va mehnat qadriyatiga oid maxsus tarbiyaviy mashg‘ulotlarni kuchaytirish zarur. Ikkinchidan, mahalla, oila va ta’lim muassasalari hamkorligida yoshlarni tomorqa, bog‘dorchilik, chorvachilik, kooperatsiya va agrostartap loyihalariga jalb etish maqsadga muvofiq. Uchinchidan, qishloq yoshlariga agrar innovatsiyalar, raqamli texnologiyalar, biznes-reja tuzish va mahsulot marketingi bo‘yicha amaliy seminarlar tashkil etish kerak. To‘rtinchidan, yoshlarning agrar sohadagi muvaffaqiyatli tajribalarini ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda targ‘ib qilish orqali ijobiy ijtimoiy namuna yaratish lozim. Beshinchidan, qishloq yoshlarining agrar madaniyatini shakllantirishda milliy qadriyatlar, ekologik tarbiya va iqtisodiy manfaat uyg‘unligini ta’minlovchi kompleks dasturlar ishlab chiqilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekiston qishloq yoshlarining agrar madaniyatini shakllantirish mamlakat taraqqiyotining muhim ma’naviy, iqtisodiy va ekologik shartlaridan biridir. Agrar madaniyat yoshlarni yerga mehr, tabiatga hurmat, halol mehnat, tejamkorlik,

innovatsion fikrlash va ijtimoiy mas’uliyat ruhida tarbiyalaydi. Ma’naviy qadriyatlar esa bu jarayonga ichki mazmun, axloqiy mezon va barqaror yo‘nalish beradi. Shuning uchun qishloq yoshlarida agrar madaniyatni rivojlantirishda oila, mahalla, ta’lim tizimi, davlat siyosati, innovatsion texnologiyalar va milliy qadriyatlar o‘zaro uyg‘unlikda harakat qilishi lozim. Ana shundagina qishloq yoshlari nafaqat agrar sohaning ijrochisi, balki Yangi O‘zbekistonning barqaror, ma’naviy yetuk va innovatsion taraqqiyotini ta’minlovchi faol kuchga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–6097-son Farmoni.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. – Toshkent: “Ma’naviyat” nashriyoti, 2008. – 176 b.
5. Ergashev I. Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari. –Toshkent: “Akademiya” nashriyoti, 2005. – 256 b.
6. Jo‘rayev N. Ma’naviyat va jamiyat taraqqiyoti. –Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2010. – 240 b.
7. Qodirov A. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti. –Toshkent: “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, 2019. – 312 b.
8. To‘xtayev A.S. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish asoslari. – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2018. – 284 b.

GLOBALLASHUV JARAYONLARINI TADQIQ ETISHDA TIZIMLI-SINERGETIK YONDASHUV

Djurayev G‘olibjon Raimjonovich,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada globallashuv jarayonlarini tadqiq etishda tizimli-sinergetik yondashuvning metodologik ahamiyati falsafiy-ontologik va gnoseologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Globallashuv zamonaviy dunyoning murakkab, ochiq, ko‘p omilli va nochiziqli rivojlanish jarayoni sifatida talqin etiladi.*

Kalit so‘zlar: *globallashuv, tizimli yondashuv, sinergetika, ontologiya, gnoseologiya, murakkab tizim, nochiziqlilik, madaniy transformatsiya, axborotlashuv, o‘z-o‘zini tashkil etish.*

Аннотация. *В данной статье анализируется методологическое значение системно-синергетического подхода в исследовании процессов глобализации с философско-онтологической и гносеологической точек зрения. Глобализация интерпретируется как сложный, открытый, многофакторный и нелинейный процесс развития современного мира.*

Ключевые слова: *глобализация, системный подход, синергетика, онтология, гносеология, сложная система, нелинейность, культурная трансформация, информатизация, самоорганизация.*

Abstract. *This article analyzes the methodological significance of the systemic-synergetic approach in the study of globalization processes from philosophical-ontological and epistemological perspectives. Globalization is interpreted as a complex, open, multifactorial, and nonlinear process of development in the modern world.*

Keywords: *globalization, systemic approach, synergetics, ontology, epistemology, complex system, nonlinearity, cultural transformation, informatization, self-organization.*

Kirish. XXI asrda globallashuv insoniyat taraqqiyotini belgilovchi eng muhim va murakkab jarayonlardan biriga aylandi. U faqat iqtisodiy almashinuv yoki xalqaro munosabatlarning kengayishi bilan cheklanmaydi. Globallashuv zamonaviy jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarini — siyosat, iqtisodiyot, madaniyat, axborot, ta’lim, fan, texnologiya, ekologiya va ma’naviyatni o‘z ichiga olgan ko‘p qatlamli tarixiy jarayondir. Shu sababli uni bir yoqlama yondashuvlar asosida tushuntirish yetarli emas. An’anaviy tadqiqotlarda globallashuv ko‘pincha iqtisodiy integratsiya, bozor munosabatlarining kengayishi, transmilliy korporatsiyalar faoliyati yoki axborot texnologiyalarining rivoji bilan izohlanadi. Biroq bunday yondashuv globallashuvning ichki murakkabligini to‘liq ochib bera olmaydi. Chunki globallashuv bir vaqtning o‘zida integratsiya va parchalanish, universallashuv va mahalliylashuv, taraqqiyot va xavf, imkoniyat va tahdid kabi qarama-qarshi jarayonlarni ham yuzaga keltiradi.

Globallashuvni chuqur tahlil qilish uchun uni murakkab ochiq tizim sifatida ko‘rish zarur. Bu jarayonda turli jamiyatlar, madaniyatlar, iqtisodiy tuzilmalar, axborot oqimlari, texnologiyalar va qadriyatlar o‘zaro ta’sirga kirishadi. Ushbu o‘zaro ta’sir natijasida oldindan to‘liq bashorat qilib bo‘lmaydigan yangi ijtimoiy, madaniy va siyosiy holatlar paydo bo‘ladi. Ana shu jihat globallashuvni o‘rganishda tizimli-sinergetik yondashuvning ahamiyatini oshiradi. Tizimli yondashuv globallashuvni alohida hodisalar yig‘indisi emas, balki o‘zaro bog‘langan elementlar majmui sifatida tahlil qilish imkonini beradi. Sinergetik yondashuv esa ushbu tizimda yuz berayotgan o‘zgarishlarning ochiq, nochiziqli va o‘z-o‘zini tashkil etuvchi xarakterini tushuntirishga yordam beradi. Bunday yondashuv globallashuv jarayonida tartib va xaos, barqarorlik va beqarorlik, markazlashuv va ko‘p qutblilik o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib beradi. Mazkur maqolaning maqsadi globallashuv jarayonlarini tadqiq etishda tizimli-sinergetik yondashuvning falsafiy-metodologik imkoniyatlarini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotda globallashuv zamonaviy borliqning ijtimoiy shakli, ya’ni murakkab va dinamik dunyo tizimining namoyon bo‘lishi sifatida ko‘rib chiqiladi.

Adabiyotlar sharhi. Globallashuv muammosi zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkurda keng o‘rganilgan. A. Toffler, M. Kastels, U. Bek, E. Giddens, I. Vallerstayn kabi tadqiqotchilar globallashuvning turli jihatlarini yoritganlar. A. Toffler axborot jamiyati va texnologik o‘zgarishlarning insoniyat taraqqiyotiga ta’sirini tahlil qilgan bo‘lsa, M. Kastels tarmoqli jamiyat konsepsiyasi orqali zamonaviy kommunikatsion tizimlarning global xarakterini ochib berdi.

U. Bek globallashuvni “xavf jamiyati” bilan bog‘liq holda talqin qilib, zamonaviy global jarayonlar insoniyat oldida yangi ekologik, texnologik va ijtimoiy xavflarni yuzaga keltirayotganini ko‘rsatdi. E. Giddens esa globallashuvni vaqt va makonning siqilishi, ijtimoiy munosabatlarning masofadan turib shakllanishi bilan izohladi.

Tizimli yondashuvning nazariy asoslari L. fon Bertalanfi tomonidan ishlab chiqilgan umumiy tizimlar nazariyasi bilan bog‘liq. Ushbu yondashuv murakkab obyektlarni o‘zaro bog‘langan elementlar majmui sifatida o‘rganish imkonini beradi. Globallashuv ham aynan iqtisodiy, siyosiy, madaniy, texnologik va axborotiy omillarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanuvchi tizimdir.

Sinergetika G. Xaken tomonidan murakkab tizimlarda o‘z-o‘zini tashkil etish jarayonlarini o‘rganish sohasi sifatida asoslandi. I. Prigojin va I. Stengers ochiq tizimlarda beqarorlik, fluktuatsiya va dissipativ strukturalarning yangi tartib hosil qilishdagi rolini ko‘rsatdilar. Ushbu qarashlar globallashuv jarayonlarini tushuntirishda ham muhim metodologik ahamiyatga ega[2].

J. Glikning xaos nazariyasi haqidagi ishlari globallashuvdagi kichik omillarning katta oqibatlarga olib kelishi mumkinligini tushuntirishda muhimdir. Global moliyaviy inqirozlar, axborot tarqalishi, pandemiyalar yoki geosiyosiy ziddiyatlar murakkab tizimlarda nochiziqli ta’sirlarning qanday namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi[4].

O‘zbekistonda globallashuv, ma’naviy tahdidlar, milliy qadriyatlar va yoshlar dunyoqarashi masalalari bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Biroq globallashuvni aynan tizimli-sinergetik metodologiya asosida falsafiy tahlil qilish hali ham dolzarb ilmiy vazifa bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning asosiy metodologik tayanchi tizimli-sinergetik yondashuvdir. Tizimli metod globallashuv jarayonlarini o‘zaro bog‘langan tarkibiy qismlar majmui sifatida tahlil qilish imkonini berdi. Globallashuvning iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ekologik, axborotiy va texnologik jihatlari bir-biridan ajratilgan holda emas, balki yagona murakkab tizimning elementlari sifatida o‘rganildi.

Sinergetik metodologiya globallashuvdagi nochiziqli rivojlanish, beqarorlik, o‘z-o‘zini tashkil etish va kutilmagan natijalar fenomenlarini tushuntirish uchun qo‘llanildi. Bu metod globallashuvni oldindan qat’iy belgilangan, bir yo‘nalishli taraqqiyot emas, balki turli kuchlar o‘zaro ta’sirida shakllanuvchi ochiq jarayon sifatida ko‘rishga yordam beradi. Dialektik metod yordamida globallashuvning ichki ziddiyatlari tahlil qilindi. Jumladan:

integratsiya va differensiatsiya;

universallashuv va milliy o‘ziga xoslik;

texnologik taraqqiyot va ma’naviy xavf;

axborot erkinligi va manipulyatsiya;

iqtisodiy ochiqlik va ijtimoiy tengsizlik o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar falsafiy tahlil qilindi.

Komparativ metod globallashuvga oid turli nazariy yondashuvlarni solishtirish uchun ishlatildi. Gnoseologik tahlil esa globallashuv haqidagi bilimlarning qanday shakllanishi, ularni qanday metodlar yordamida asoslash mumkinligi va biryoqlama talqinlarning cheklanganligini aniqlashga xizmat qildi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari globallashuv jarayonlarini tizimli-sinergetik yondashuv asosida o‘rganish uning murakkab mohiyatini chuqurroq tushunishga imkon berishini ko‘rsatadi. Globallashuvni faqat iqtisodiy yoki siyosiy jarayon sifatida izohlash uning ontologik va

gnoseologik murakkabligini kamaytirib yuboradi. Aslida esa globallashuv turli tizimlar o‘rtasidagi uzluksiz o‘zaro ta’sir natijasida shakllanadigan murakkab tarixiy jarayondir.

Birinchidan, globallashuv ochiq tizim sifatida namoyon bo‘ladi. U alohida davlatlar, mintaqalar yoki madaniyatlar chegarasida to‘xtab qolmaydi, balki ularni o‘zaro bog‘laydi. Iqtisodiy bozorlar, axborot tarmoqlari, migratsiya, madaniy almashinuv va texnologik innovatsiyalar global tizimning tarkibiy qismlariga aylanadi. Bu esa har bir jamiyatning ichki rivojlanishini global jarayonlar bilan bog‘liq holda tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi[5].

Ikkinchidan, globallashuv nochiziqli rivojlanish xarakteriga ega. Ya’ni kichik bir hodisa global miqyosda katta oqibatlarga sabab bo‘lishi mumkin. Masalan, mahalliy iqtisodiy inqiroz xalqaro moliyaviy tizimga ta’sir ko‘rsatishi, bir hududdagi ekologik muammo butun mintaqa xavfsizligiga tahdid tug‘dirishi yoki ijtimoiy tarmoqdagi axborot qisqa vaqt ichida global munozaraga aylanishi mumkin. Bu holat globallashuvni sinergetik tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Uchinchidan, globallashuv jarayonida tartib va xaos birgalikda mavjud bo‘ladi. Bir tomondan, xalqaro tashkilotlar, global huquqiy normalar, iqtisodiy bitimlar va kommunikatsion tarmoqlar yangi tartib shakllanishiga xizmat qiladi. Ikkinchi tomondan esa geosiyosiy ziddiyatlar, madaniy qarama-qarshiliklar, axborot urushlari va iqtisodiy beqarorlik global tizimda xaotik holatlarni yuzaga keltiradi. Sinergetik yondashuv ana shu ikki holatning o‘zaro bog‘liqligini tushuntirishga yordam beradi.

To‘rtinchidan, globallashuv o‘z-o‘zini tashkil etuvchi jarayon sifatida talqin qilinishi mumkin. Global tizim faqat yagona markaz tomonidan boshqarilmaydi. Unda davlatlar, xalqaro tashkilotlar, transmilliy korporatsiyalar, fuqarolik jamiyati institutlari, axborot tarmoqlari va alohida shaxslar o‘zaro ta’sirga kirishadi. Ushbu o‘zaro ta’sir natijasida yangi ijtimoiy tartiblar, me’yorlar, kommunikatsion shakllar va madaniy konfiguratsiyalar vujudga keladi[6].

Beshinchidan, globallashuv milliy qadriyatlar va universal qadriyatlar o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni yuzaga keltiradi. Bir tomondan, inson huquqlari, ilm-fan, texnologiya, ekologik mas’uliyat va global hamkorlik kabi universal qadriyatlar keng tarqalmoqda. Ikkinchi tomondan esa milliy madaniyat, til, tarixiy xotira va ma’naviy merosni saqlash zarurati kuchaymoqda. Tizimli-sinergetik yondashuv bu ikki jarayonni qarama-qarshi emas, balki o‘zaro ta’sir qiluvchi tizim elementlari sifatida ko‘rishga imkon beradi.

Oltinchidan, axborot globallashuvi zamonaviy global tizimning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biriga aylandi. Raqamli texnologiyalar orqali bilim, g‘oya, obraz, qadriyat va stereotiplar juda tez tarqalmoqda. Bu jarayon inson tafakkurini boyitishi mumkin, lekin ayni vaqtda manipulyatsiya, dezinformatsiya va madaniy birxillashuv xavfini ham yuzaga keltiradi.

Yettinchidan, globallashuvning yoshlar dunyoqarashiga ta’siri alohida ahamiyatga ega. Yoshlar global axborot makonining eng faol ishtirokchilaridan biridir. Ular turli madaniyatlar, qadriyatlar va ilmiy qarashlar bilan bevosita muloqotda bo‘lmoqda. Bu esa ularning tafakkurida ochiqlik, moslashuvchanlik va interdisiplinar fikrlashni rivojlantiradi. Shu bilan birga, begona g‘oyaviy ta’sirlar, yuzaki kosmopolitizm va ma’naviy beqarorlik xavfini ham kuchaytiradi[7].

Sakkizinchidan, tizimli-sinergetik yondashuv globallashuvni baholashda biryoqlamalikdan saqlaydi. Globallashuvni mutlaq ijobiy yoki mutlaq salbiy jarayon sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan to‘g‘ri emas. U imkoniyat va xavflarni, integratsiya va ziddiyatlarni, taraqqiyot va inqirozlarni bir vaqtning o‘zida yuzaga keltiradigan murakkab jarayondir.

Natijalar. Globallashuv haqidagi ilmiy bahslar uning mohiyati, yo‘nalishi va oqibatlari borasida turlicha yondashuvlar mavjudligini ko‘rsatadi. Ayrim olimlar globallashuvni insoniyat taraqqiyotining tabiiy bosqichi, fan-texnika rivoji va xalqaro integratsiyaning natijasi sifatida baholaydilar. Ularning fikricha, globallashuv bilim, texnologiya, iqtisodiy hamkorlik va madaniy muloqotni kengaytiradi.

Boshqa tadqiqotchilar esa globallashuvning salbiy jihatlariga e’tibor qaratadilar. Ular global jarayonlar iqtisodiy tengsizlikni kuchaytirishi, milliy madaniyatlarni zaiflashtirishi,

axborot manipulyatsiyasini oshirishi va ma’naviy xavflarni yuzaga keltirishi mumkinligini ta’kidlaydilar.

Mazkur qarashlarning har biri muayyan darajada asosga ega. Biroq tizimli-sinergetik yondashuv globallashuvni bir tomonlama talqin qilishdan saqlaydi. Chunki murakkab tizimlarda ijobiy va salbiy natijalar ko‘pincha bir-biri bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Texnologik taraqqiyot bilim olish imkoniyatini kengaytiradi, lekin shu bilan birga axborot manipulyatsiyasi xavfini ham kuchaytiradi. Iqtisodiy integratsiya yangi bozorlarni ochadi, biroq ijtimoiy tengsizlikni ham chuqurlashtirishi mumkin[8].

Sinergetik nuqtai nazardan globallashuvni oldindan to‘liq boshqariladigan jarayon sifatida tasavvur qilish qiyin. U ko‘plab subyektlar, manfaatlar, omillar va tasodifiy ta’sirlar kesishgan murakkab maydondir. Shuning uchun globallashuvni boshqarish ham qat’iy markazlashgan model orqali emas, balki moslashuvchan, tarmoqli va ko‘p darajali yondashuvlar orqali amalga oshirilishi lozim.

O‘zbekiston sharoitida globallashuv jarayonlarini o‘rganish alohida ahamiyatga ega. Chunki mamlakat bir tomondan global ilm-fan, texnologiya, iqtisodiyot va madaniy almashinuv jarayonlarida faol ishtirok etmoqda. Ikkinchi tomondan esa milliy qadriyatlar, ma’naviy meros, til, tarixiy xotira va yoshlar tarbiyasini asrash vazifasi dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Bu yerda tizimli-sinergetik yondashuv muhim metodologik vosita bo‘lib xizmat qiladi. U globallashuvga qarshi yopilish yoki unga tanqidsiz moslashish emas, balki ongli, tanqidiy va ijodiy ishtirok etish zarurligini asoslaydi. Bunday yondashuv milliy o‘ziga xoslik va global taraqqiyot o‘rtasida muvozanat topishga yordam beradi.

Globallashuv jarayonlarini o‘rganishda yoshlar omili ham alohida o‘rin tutadi. Yoshlar global axborot, ta’lim va madaniy almashinuvning faol subyektlariga aylanmoqda. Shu bois ularning ilmiy dunyoqarashi, axborot madaniyati va tanqidiy tafakkurini rivojlantirish globallashuv sharoitida strategik ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Globallashuv zamonaviy insoniyat taraqqiyotining murakkab, ko‘p omilli va ziddiyatli jarayonidir. Uni faqat iqtisodiy integratsiya, texnologik taraqqiyot yoki madaniy almashinuv sifatida tushuntirish yetarli emas. Globallashuv ijtimoiy borliqning barcha sohalarini qamrab olgan ochiq va dinamik tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, globallashuv jarayonlarini tahlil qilishda tizimli-sinergetik yondashuv muhim metodologik ahamiyatga ega. Tizimli yondashuv globallashuvning iqtisodiy, siyosiy, madaniy, axborotiy va ma’naviy jihatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib beradi. Sinergetik yondashuv esa ushbu jarayondagi nochiziqlilik, beqarorlik, o‘z-o‘zini tashkil etish va kutilmagan natijalarni tushuntirishga yordam beradi. Shu asosda globallashuv jarayonlariga nisbatan ongli, tanqidiy va tizimli yondashuvni shakllantirish bugungi kunning muhim vazifasidir. O‘zbekiston sharoitida bu yondashuv milliy manfaatlarni himoya qilish, yoshlar dunyoqarashini mustahkamlash va global taraqqiyot imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun muhim nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Берталанфи Л. фон. Общая теория систем. – М.: Наука, 1969.
2. Хакен Г. Синергетика. – М.: Мир, 1980.
3. Пригожин И., Стенгерс И. Порядок из хаоса. – М.: Прогресс, 1986.
4. Глик Дж. Хаос: создание новой науки. – СПб.: Амфора, 2001.
5. Волкова В.Н., Емельянов А.А. Теория систем и системный анализ в управлении организациями: справочник. – М.: Финансы и статистика, 2006.
6. Вознюк А.В. Синергетические основания в системе философских знаний. – Житомир: Изд. ОИСЗ, 2007.
7. Тоффлер Э. Третья волна. – М.: АСТ, 2004.
8. Nazarov Q. Bilish falsafasi. – Toshkent: Universitet, 2005.

METABOLIK SINDROM XAVFI MAVJUD AYOLLARDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKILLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Urazaliyeva Ilmira Ravkatovna,
t.f.d. (Phd)
Toshkent davlat tibbiyot universiteti,
Jamoat sogligini saqlash maktabi dotsenti

Xasanova Maxmuda Textaevna,
p.f.d. (Phd)
Toshkent davlat tibbiyot universiteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi katta o`qituvchisi

Abdullayeva Sohibjamol Salaxutdinovna
Toshkent davlat tibbiyot universiteti magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada metabolik sindrom xavfi mavjud ayollarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik va psixologik asoslari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari metabolik sindrom xavfi mavjud ayollarda sog‘lom xulq-atvorni tizimli shakllantirish zarurligini asoslaydi va integrativ pedagogik-psixologik yondashuvning samaradorligini tasdiqlaydi.*

Kalit so‘zlar: *metabolik sindrom, ayollar, sog‘lom turmush tarzi, pedagogik yondashuv, psixologik asoslar, motivatsiya, xulq-atvorni shakllantirish, profilaktika.*

Аннотация. *В статье проводится научно-теоретический анализ педагогических и психологических основ формирования здорового образа жизни у женщин с риском метаболического синдрома. Результаты подчеркивают необходимость системного подхода к формированию здорового поведения у женщин с риском и демонстрируют эффективность интегративного педагогико-психологического подхода.*

Ключевые слова: *метаболический синдром, женщины, здоровый образ жизни, педагогический подход, психологические основы, мотивация, формирование поведения, профилактика.*

Abstract. *This article provides a scientific and theoretical analysis of the pedagogical and psychological foundations for forming a healthy lifestyle in women at risk of metabolic syndrome. Findings emphasize the need for a systematic organization of healthy behavior formation in women at risk and demonstrate the effectiveness of an integrative pedagogical-psychological approach.*

Keywords: *metabolic syndrome, women, healthy lifestyle, pedagogical approach, psychological foundations, motivation, behavior formation, prevention.*

Hozirgi kunda dunyo bo‘yicha eng dolzarb muammolardan biri bo‘lgan metabolik sindrom (MetS) - bu abdominal semizlik, insulinga chidamlilik, arterial gipertenziya va dislipidemiya kabi omillarning majmuasidir. Mazkur patologiya nafaqat iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda balki endi rivojlanayotgan davlatlarda ham global epidemiya tusini olmoqda. Zamonaviy tibbiyot shuni ko‘rsatmoqdaki, MetS davolash hamda profilaktikasini takomillashtirishda faqatgina an’anaviy farmakologik davolash usullarini o‘zi yetarli emas. Tatqiqotlar tizimli yondoshuvlarni qo‘llash bilan muammoning tub ildizi bo‘lmish turmush tarzini o‘zgartirish orqali bartaraf etish mumkinligini ko‘rsatmoqda.

Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti va Xalqaro Diabet Federatsiyasi ma'lumotlariga ko‘ra, dunyo aholisining qariyb 25% qismi metabolik sindromdan aziyat chekmoqda. Ayrim demografik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayollar orasida bu ko‘rsatkich 30% dan yuqori bo‘lib, bu ularning reproduktiv va psixofiziologik salomatligiga jiddiy salbiy ta'sir ko‘rsatmoqda. Ushbu sindrom ayollarda gormonal muvozanat buzilishlari, homiladorlik bilan bog‘liq asoratlar hamda

umumiy hayot sifatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Muammoning murakkab va ko‘p omilli xususiyatga ega ekanligi sababli, uni faqat tibbiy davolash orqali hal etish har doim ham kutilgan natijani bermaydi. MetSni davolash samaradorligi ko‘p jihatdan bemorlarning sog‘lom turmush tarziga rioya qilish darajasiga bog‘liq bo‘lib, bu esa pedagogik va psixologik omillar-motivatsiya, odatlar hamda hayot tarzi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bois, ayollarning sog‘liq madaniyatini oshirish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va xulq-atvorini ijobiy tomonga o‘zgartirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda tizimli yondashuv asosida pedagogik va psixologik sharoitlarni yaratish, profilaktik choralarni kuchaytirish hamda aholining sog‘lom hayotga bo‘lgan ongli munosabatini shakllantirish muhimdir.

Takidlashimiz joizki, metabolik dizfunksiyalarni klinik manzarasi faqatgina biologik o‘zgarishlar bilan cheklanib qolmay, uning shakllanishida psixologik motivlar muhim rol o‘ynaydi. Xususan, ayol organizmidagi metabolik jarayonlar uning emotsional holati va tashqi muhitdan kelayotgan stress signallariga bevosita bog‘liqdir. Muammoning psixologik aspektlarini o‘rganishda Amerikalik mashhur professor Albert Bandura tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy-kognitiv nazariya asosiy tayanch bo‘ladi. Uning fikricha, inson biror natijaga erishishiga shubha qilsa, hatto eng foydali tavsiyalarni ham bajarishga kirishmaydi. Subyektning o‘z-o‘ziga samaradorlik darajasi uning xulq-atvorini o‘zgartirishda determinatlik vazifasini o‘taydi. Ya’ni, ayol kishi tavsiya etilayotgan profilaktik chora-tadbirlarning ijobiy natijasiga ongli ravishda ishonmasa, unda sog‘liq madaniyatini shakllantirish bo‘yicha kutilgan natijaga eishib bolmaydi. Binobarin, metabolik sindromli ayollarda avvalo men sog‘lom bo‘la olaman degan ichki ishonchni pedagogik- psixologik metodlar bilan qayta tiklash lozim.

Psixologik omillarning navbatdagi bosqichini tahlil qilishda kognitiv psixoterapiya asoschisi Aaron Bek nazariyasiga murojaat qilish o‘rinlidir. Bekning ta’limotiga ko‘ra, insonning emotsional reaksiyalari va xulq-atvori uning voqelikni qanday talqin qilishi, ya’ni avtomatik fikrlari bilan belgilanadi. Metabolik sindrom xavfi mavjud ayollarda ko‘pincha quyidagi kognitiv buzilishlar kuzatiladi:Emotsional ochlikni noto‘g‘ri talqin qilish: Ayol kishi kundalik stress, charchoq yoki zerikishni jismoniy ochlik sifatida qabul qiladi. Bek yondashuvi bo‘yicha, bu yerda men hozir shirinlik yesam, tinchlanaman degan noto‘g‘ri kognitiv sxema ishga tushadi.Hammasi yoki hech narsa: Agar ayol belgilangan tartibni bir marta buzsa (masalan, kechki payt ovqatlanib qo‘ysa), Bek nazariyasiga ko‘ra, unda baribir hammasi tugadi, endi harakat qilishdan foyda yo‘q degan destruktiv fikr tug‘iladi. Aaron Bekning kognitiv psixoterapiya kontseptsiyasini ushbu holatni tahlil qilishda muhim metodologik asosga aylantiradi. Unga ko‘ra, metabolik sindromli ayollarda kuzatiladigan emotsional giperfagiya bevosita "avtomatik fikrlar" mexanizmi bilan bog‘liq bo‘lib, bunda ichki diskomfortni jismoniy ochlik sifatida noto‘g‘ri talqin qilish destruktiv metabolik zanjirni ishga tushiradi. Ushbu jarayonda "hammasi yoki hech narsa" kabi dixotomik fikrlash xatosi markaziy o‘rin tutadi: parhezning biroz buzilishi patsiyentda o‘z irodasiga nisbatan kognitiv tushkunlikni yuzaga keltirib, davolash rejimini butunlay tark etishga (komplayentlikning yo‘qolishi) sabab bo‘ladi. Shu bois, Bek metodikasi asosida muammoli vaziyatlarni differensial tahlil qilish va destruktiv kognitiv sxemalarni qayta qurish, nafaqat ovqatlanish xulq-atvorini korrektirovka qilish, balki gormonal barqarorlikka erishish va hayot sifatini yaxshilashda fundamental terapevtik ahamiyat kasb etadi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, metabolik sindromli ayollarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda faqatgina kognitiv xatolarni tuzatish yetarli emas; bu jarayonda turg‘un motivatsiyani yaratish talab etiladi. Bu borada Edvard Desi va Richard Rayan tomonidan ishlab chiqilgan “O‘z-o‘zini belgilash nazariyasi” markaziy o‘rin egallaydi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, motivatsiya ikki xil bo‘ladi: Ekstrinsik motivatsiya: ayol kishi vazn tashlashni shifokorning qattiq talabi, erining tanbehi yoki jamiyatdagi 'standartlar' tufayli boshlaydi. Desi va Rayan isbotlaganidek, bunday tashqi bosim ostidagi harakat uzoq davom etmaydi va tezda 'iroda charchog‘iga' olib keladi. Intrinsik motivatsiya: bu ayolning o‘z salomatligi, yengillik hissi va hayot sifatini yaxshilashga bo‘lgan shaxsiy ehtiyojidir. Desi va Rayan yondashuvi metabolik

sindrom profilaktikasida uchta bazaviy ehtiyojni qondirishni taklif etadi: Avtonomiya: ayol kishi sog‘lom ovqatlanishni majburiyat emas, balki o‘zining erkin tanlovi deb his qilishi kerak.

Xususan, kasallikni erta bosqichda to‘xtatish uchun bemorda tafakkur transformatsiyasi, ya’ni o‘z salomatligi uchun mas’uliyatni his qilish va profilaktik chora-tadbirlarga ongli yondashuvni shakllantirish talab etiladi. Bu borada Kerol Dvek va "Growth Mindset" konsepsiyasi "Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda shaxsning o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan fundamental qarashlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu borada psixolog Kerol Dvek tomonidan ishlab chiqilgan “O‘sish tafakkuri” nazariyasi metabolik sindrom profilaktikasida yangi pedagogik ufqni ochib beradi. Dvek tadqiqotlariga ko‘ra, insonlar ikki xil tafakkur turiga ega bo‘ladilar. Bular turg‘un tafakkur bolib, bunday qarashdagi ayollar o‘z salomatligi va tana tuzilishini o‘zgarmas deb hisoblaydilar. Mening moddalar almashinuvim doim yomon bo‘lgan, Semizlik bizga nasldan o‘tgan kabi fikrlar ularni harakat qilishdan to‘xtatib qo‘yadi. Bu holatda har qanday kichik muvaffaqiyatsizlik (vazn tushmasligi) ayol uchun mag‘lubiyat signaliga aylanadi. O‘sish tafakkuri bu yondashuvda tana va salomatlik - doimiy mehnat va to‘g‘ri strategiya orqali rivojlantirilishi mumkin bo‘lgan “plastik” tizim deb qaraladi. Metabolik sindromli ayollar bilan ishlashda Dvek nazariyasini qo‘llash quyidagi pedagogik natijalarni beradi: xatolarga munosabatning o‘zgarishi. Ya’ni parhezning buzilishi yoki mashg‘ulotning qolib ketishi “aybdorlik” hissini emas, balki tahlil qilish va qayta urinish ko‘nikmasini shakllantiradi Natijaga emas, jarayonga e’tibor. Bunda ayol kishi faqat tarozidagi raqamlarga emas, balki har kuni bajarayotgan sog‘lom odatlaridan (piyoda yurish, suv ichish) zavqlanishni o‘rganadi. Agar ayol kishi parhez yoki mashg‘ulotdagi qiyinchilikni “men eplay olmayapman” deb emas, balki "men hozir o‘rganyapman" deb qabul qilsa, uning natijasi butunlay boshqacha bo‘ladi.

Bizning qarashimizcha, metabolik sindrom - bu arterial gipertenziya, insulin qarshiligi va semizlik kabi omillar yig‘indisi bo‘lsa, unga qarshi turish uchun ayoldan yuksak darajadagi "matonat" fenomenologiyasi talab etiladi. Shuning uchun Anjela Dakvortning “matonat” nazariyasini ayollardagi metabolik sindrom muammosiga bog‘laydigan bo‘lsak, bu shunchaki tibbiy holat emas, balki uzoq muddatli iroda va doimiylikni talab qiladigan psixofiziologik kurashga aylanadi. Anjela Dakvort va “Grit” nazariyasi Metabolik sindrom profilaktikasida eng katta to‘siq - bu jarayonning davomiyligini ta’minlay olmaslikdir. Ko‘pgina ayollar sog‘lom turmush tarzini yuqori ishtiyoq bilan boshlaydilar, biroq dastlabki qiyinchiliklardayoq (vazn to‘xtab qolishi yoki ijtimoiy bosim) orqaga chekinadilar. Ushbu muammoning pedagogik yechimi sifatida psixolog Anjela Dakvort tomonidan ishlab chiqilgan “Grit” (Matonat) nazariyasini qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Dakvort ta’rifiga ko‘ra, “Grit” - bu uzoq muddatli maqsadlar yo‘lidagi ishtiyoq va qat’iyat uyg‘unligidir. Muallif isbotlaydiki, muvaffaqiyatga erishishda tug‘ma iqtidor yoki imkoniyatdan ko‘ra, matonatli harakat muhimroq rol o‘ynaydi.Metabolik sindromli ayollar kontekstida Dakvort nazariyasi quyidagi ikki komponent orqali tahlil qilinadi:Ishtiyoqning barqarorligi: Ayol kishi uchun sog‘liq - bu bir haftalik parhez emas, balki hayot davomidagi qadriyatga aylanishi kerak. Dakvort bo‘yicha, “Grit” yuqori ayollar o‘z maqsadlariga sodiq qoladilar, chunki ularning motivatsiyasi chuqur ma’noga ega. Qat’iyat va mehnat: Metabolik jarayonlarning tiklanishi vaqt talab etadi. Dakvortning Iste’dod × Harakat = Ko‘nikma: Ko‘nikma × Harakat = Natija formulasi shuni ko‘rsatadiki, harakat (mashq va to‘g‘ri ovqatlanish) natijaga erishishda ikki marta ko‘proq ahamiyatga ega. Pedagogik jihatdan, Dakvort yondashuvi ayollarda 'matonatni mashq qildirish' metodikasini taklif etadi. Bu - har qanday mag‘lubiyatdan so‘ng yana o‘rnidan turish va maqsad sari kichik qadamlar bilan bo‘lsa-da harakatni davom ettirish ko‘nikmasidir. Bu esa sizning formulangizdagi “Harakatsizlik” zanjirini uzishning asosiy psixologik drayveridir.

Yuqorida tahlil qilingan beshta fundamental nazariya asosida metabolik sindrom xavfi mavjud ayollarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning yaxlit modelini taklif etamiz. Ushbu model "Stress + Noto‘g‘ri ovqatlanish + Harakatsizlik + O‘ziga ishonchsizlik" zanjirini uzishga qaratilgan bo‘lib, to‘rtta asosiy bosqichni o‘z ichiga oladi.

Birinchi bosqich: Kognitiv diagnostika va anglash. Ushbu bosqichda ayolning ovqatlanish odatlari va stressga bo‘lgan reaksiyalari tahlil qilinadi. Metod: "Sog‘liq kundaligi"ni yuritish. Ayol nafaqat nima yeganini, balki o‘sha paytda qanday his-tuyg‘uda bo‘lganini yozib boradi. Maqsad: Emotsional ochlikni jismoniy ochlikdan farqlashni o‘rganish va "Men shirinliksiz stressni yengolmayman" degan noto‘g‘ri kognitiv sxemani aniqlash[Бек, 2003] .

Ikkinchi bosqich: Ichki motivatsiyani uyg‘otish. Tashqi bosimdan (qo‘rqitish, majburlash) ichki ehtiyojga o‘tish davri. Metod: "Qadriyatlar iyerarxiyasi" treningi. Ayolga sog‘lom bo‘lish uning hayotiy maqsadlariga (farzandlar kamoli, uzoq umr, go‘zallik) qanday bog‘liqligi tushuntiriladi. Maqsad: Sog‘lom turmush tarzini "jazo" emas, balki "erkin tanlov" (avtonomiya) sifatida qabul qilish.

Uchinchi bosqich: o‘z-o‘zini samaradorlik va kichik qadamlar. O‘ziga bo‘lgan ishonchni ("Men qila olaman") va o‘sish tafakkurini shakllantirish. Metod: "Kichik g‘alabalar" strategiyasi. Birdaniga og‘ir mashqlarga o‘tmay, kuniga 10-15 daqiqa piyoda yurish yoki shakar miqdorini ozgina kamaytirish kabi bajarilishi oson vazifalar beriladi. Maqsad: Har bir muvaffaqiyatli qadam orqali "Fixed Mindset"ni (men o‘zgara olmayman) "Growth Mindset"ga (men o‘zimni yarata olaman) aylantirish.

To‘rtinchi bosqich: Barqarorlik va matonatni mustahkamlash. Natijani saqlab qolish va doimiylikni ta'minlash. Metod: "Grit-monitoring". Ayolga muvaffaqiyatsizlik (masalan, parhezning buzilishi) bu jarayonning bir qismi ekanligi va to‘xtab qolmaslik matonat ekanligi o‘rgatiladi. Maqsad: Sog‘lom turmush tarzini vaqtinchalik harakatdan doimiy hayotiy odatga aylantirish.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash lozimki, metabolik sindrom (MetS) xavfi mavjud bo‘lgan ayollarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish jarayonini ilmiy-nazariy tahlil qilish natijasida quyidagi konseptual xulosalarga kelindi: Psixosomatik yaxlitlik: Ayollarda metabolik sindrom faqatgina noto‘g‘ri ovqatlanish yoki harakatsizlik mahsuli emas, balki chuqur psixologik determinatlarga ega bo‘lgan murakkab jarayondir. Biz ilgari surgan "Stress + Noto‘g‘ri ovqatlanish + Harakatsizlik + O‘ziga ishonchsizlik = Metabolik Sindrom" formulasi kasallikning rivojlanish mexanizmini to‘liq ifodalaydi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda, metabolik sindrom profilaktikasi samaradorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni qo‘llash masadga muofiqdir:

Multidistsiplinar yondashuv: MetS tashxisi qo‘yilgan ayollar bilan ishlashda faqat endokrinolog yoki diyetolog emas, balki psixolog va pedagog-andragogdan iborat mobil guruhlar xizmatini yo‘lga qo‘yish.

"Sog‘lom hayot maktablari"ni tashkil etish: Mahalla va xotin-qizlar qo‘mitalari qoshida ayollar uchun kognitiv-bixevioral treninglar va motivatsion darslarni o‘z ichiga olgan o‘quv kurslarini joriy qilish.

Kichik qadamlar pedagogikasi: Tibbiy tavsiyalarni "birdaniga va qat’iy" emas, balki "bosqichma-bosqich va rag‘batlantiruvchi" tarzda berish metodikasini qo‘llash.

Raqamli monitoring: Ayollarda o‘zini-o‘zi nazorat qilish (Self-monitoring) ko‘nikmasini rivojlantirish uchun maxsus mobil ilovalar yoki psixologik "his-tuyg‘u kundaliklari"dan foydalanishni targ‘ib qilish taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bandura, A. (1986). Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. Prentice-Hall, pp. 390–405.

2. Bandura, A. (1997). Self-Efficacy: The Exercise of Control. W.H. Freeman.

3. Бек, А., Раш, А., Шо, Б., & Эмери, Г. (2003). Когнитивная терапия депрессии. СПб.: Питер. — 544 с.

4. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2000). The "What" and "Why" of Goal Pursuits: Human Needs and the Self-Determination of Behavior. Psychological Inquiry, 11(4), 227–268.

SHAHOBIDDIN MARJONIYNING PEDAGOGIK TAJRIBASI

Alimardonova Mo`tabar Xolmo`minovna,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o`qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Shahobiddin Marjoniyning (1818–1889) ta'lim muassasalaridagi pedagogik faoliyati — dastlabki o‘qituvchilik tajribasidan tortib Buxoro va Samarqanddagi ta'lim yillarigacha, Qozondagi 40 yillik imomlik va mudarrislik faoliyatigacha bo‘lgan davr — ilmiy-tahliliy usulda o‘rganilgan. Maqolada Marjoniy o‘qitgan fanlar, dars jadvallari, shogirdlari va madrasa tashkilotchiligi masalalari batafsil yoritilgan. Tadqiqot uning pedagogik tajribasining mazmun-mohiyatini va tatar ta'lim tarixidagi o‘rnini aniqlashga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *Shahobiddin Marjoniy, pedagogik faoliyat, madrasa, mudarris, imom, ta'lim islohoti, shogirdlar, dars jadvali, Qozon, Buxoro.*

Аннотация. *В данной статье научно-аналитическим методом исследована педагогическая деятельность Шахабуддина Марджани (1818–1889) в учебных заведениях — от первых шагов на преподавательском поприще и лет учёбы в Бухаре и Самарканде до 40-летней службы в должности имама и мударриса в Казани. Подробно рассмотрены преподаваемые учёным дисциплины, расписание занятий, круг учеников и вопросы организации медресе. Исследование направлено на раскрытие содержательной сущности педагогического опыта Марджани и определение его места в истории татарского образования.*

Ключевые слова: *Шахабуддин Марджани, педагогическая деятельность, медресе, мударрис, имам, реформа образования, ученики, расписание занятий, Казань, Бухара.*

Abstract. *This article employs a scholarly-analytical approach to examine the pedagogical activities of Shahabiddin Marjani (1818–1889) in educational institutions — spanning from his initial teaching experience and his years of study in Bukhara and Samarkand through his forty-year tenure as imam and mudarris in Kazan. The article offers detailed coverage of the disciplines he taught, his class schedules, his students, and matters concerning the organisation of the madrasa. The study aims to elucidate the substantive essence of Marjani's pedagogical experience and to define his place in the history of Tatar education.*

Keywords: *Shahabiddin Marjani, pedagogical activity, madrasa, mudarris, imam, educational reform, students, class schedule, Kazan, Bukhara.*

Kirish. Ta'lim tizimining tarixiy tahlili nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi. XIX asrda Sharq va Rossiya imperiyasi ta'sir doirasida yashagan tatar xalqining ta'lim sohasida keskin o‘zgarishlarni boshdan kechirgani ma'lum. Bu davrda yetishib chiqqan buyuk allomalardan biri — Shahobiddin Marjoniy — nafaqat ilmiy asarlarning muallifi sifatida, balki pedagogik faoliyati bilan ham millat rivojiga ulkan hissa qo‘shdi.

Marjoniyning pedagogik faoliyati uch asosiy bosqichni o‘z ichiga oladi: qishloqdagi dastlabki o‘qituvchilik (1835–1838), Buxoro va Samarqanddagi ta'lim yillarida parallel olib borgan dars berish faoliyati (1838–1849), va Qozondagi 40 yillik mudarrislik xizmati (1850–1889). Ushbu maqolada aynan pedagogik faoliyat — dars berish uslubi, madrasa tashkillash tajribasi, foydalangan o‘quv materiallari va tarbiyalagan shogirdlar — asosiy tadqiqot ob'ekti sifatida ko‘rib chiqiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-maydagi qarorida jadid merosini o‘rganish va keng ommaga yetkazish muhim vazifa sifatida belgilab berilgan sharoitda Marjoniy kabi murabbiy shaxsiyatlarni pedagogik nuqtai nazardan o‘rganish alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Nazariy asos. ***Marjoniyning dastlabki o‘qituvchilik tajribasi (1835–1838)***. Marjoniy o‘zining pedagogik faoliyatini juda erta — 17 yoshida boshladi. Otasi Bahouddinning madrasasida o‘qishni tugatmasdan oldin ham u yosh shogirdlarga yordam bera boshlagan edi.

Ammo rasmiy o‘qituvchilik 17 yoshdan boshlandi; bu yosh o‘sha davr talablari uchun juda erta hisoblangan.

Dastlabki yillardanoq Marjoniy mavjud o‘quv uslublarini tanqidiy ko‘z bilan baholashga kirishdi. U arabcha sarf kitobini fors tilida o‘qitish usulini to‘g‘ri deb topmadi va sarf kitobini o‘zi yangicha tarzda yozib, shu asosda dars bera boshladi. Ukasi Sadriddin hazrat bu haqda shunday rivoyat qiladi: "Marjoniy bolaligidan fikrlovchi, o‘ylovchi edi. Bir ishga kirishishdan oldin uni diqqat bilan ko‘rib chiqardi. O‘sha zamonda ma'lum bo‘lgan arabcha sarf va nahv kitoblarini yoqtirmay, o‘zidan aytib dars o‘tar edi".

Shu davrda u bolalarga o‘qitishda foydalaniladigan aqida va ibodat kitoblarini ham qayta ko‘rib chiqdi. Marjoniy o‘zi shunday degan: "Yoshligimda qishlog‘imizdagi ayrim kampirlarga aqida va amaliyot haqida o‘z tilimizda bir kichik risola yozib bergan edim". Bu esa uning pedagogik faoliyati faqat madrasa doirasida qolmasdan, keng jamoatchilikka yo‘naltirilganini ko‘rsatadi.

Marjoniyning qiziq pedagogik odati ham bor edi: u bolalar uchun kichik yoshda qadimiy tartib-qoidalari o‘rniga sodda va foydali tartibda yangi kitoblar yozish kerak deb hisoblardi. Hattoki 12–13 yoshida namoz tartibi haqida ona tilida kichik bir risola yozgani ma'lum; bu risola keyinchalik talabalar orasida keng tarqalgan.

Marjoniyning Qozondagi mudarrislik faoliyati (1850–1889). 1850-yil 30-martda Marjoniy Qozondagi Birinchi masjidga rasmiy imom-hatib va muallim sifatida tayinlanishi uning pedagogik faoliyatida yangi — va eng muhim — davrning boshlanishi bo‘ldi. Bu vaqtda Qozonga yetib kelgan yangi va eski shogirdlar soni 65 nafarni tashkil etgandi: Boymorot hazratdan kelganlar — 25, Sodiq hazratdan qolganlar — 23, yangi kelganlar — 17.

Marjoniy Qozonga kelganining dastlabki kunlaridayoq — 1849-yil 12-dekabr kuni — madrasada dars boshladi. Shogirdlar qaysi fan bo‘yicha dars boshlashini so‘ragach, Marjoniy "Qaysi fan sizga yoqsa, shuni boshlaymiz. Lekin avvalo tafsir darsini o‘qish ma'qul bo‘ladi" deb, tafsir darsidan boshladi.

Marjoniyning dars berish uslubi o‘sha davr uchun nihoyatda zamonaviy va samarali edi. U shogirdlarga darslarni o‘qishda erkinlik berdi, ularni kitob tanlashda chekmadi. Shogirdlar istalgan kitobni olib o‘rganishlari mumkin edi. Bu yondashuv o‘sha davrdagi qat'iy madrasa tartibiga nisbatan inqilobiy edi. U ko‘p darslarda tafsir, hadis, seyyer, arab va fors adabiyoti, islom tarixi, tatar tarixi haqida ma'lumot berdi.

Marjoniy dars berishning ilmiy metodikasiga alohida e'tibor berdi. Mashhur madrasalardagi shogirdlar bir-biri bilan mantiq, kalom, qadimiy hikmat darslarida bahslashib, mustaqil fikr yuritishga o‘rgandilar. Shogirdlar bu jarayondan zavq oldi. U ko‘p vaqt shogirdlarga dars programmasidagi kamchiliklarni, o‘zgartirish zaruriyatini tushuntirdi. Buxoro uslubidagi rejalardan farqli o‘laroq, u zamonaviy talablarga moslab o‘qitdi.

Dars jadvallari: tarkibi va tahlili. Marjoniyning pedagogik faoliyatiga doir to‘rtta dars jadvali bizgacha yetib kelgan. Bu jadvallar o‘sha davr ta'lim mazmunining va Marjoniyning o‘qitish metodologiyasining yaqqol ko‘rsatkichidir. Birinchi jadvalga ko‘ra, Marjoniy bir kunda quyidagi fanlardan dars o‘tgan:

Nahv fanidan "Kafiya" — 2 dars; Sharl-i Mella — 2 dars; Balag‘atdan "Talhis" — 1 dars; Mantiqdan "Shamsiya" — 2 dars; Sharh-i tazhibel-mantiq — 2 dars; Sullamel-ulum — 2 dars; Hikmatdan "Hikmatel-gayn" — 1 dars; Aqidadan "Tazhibel-kalam" — 2 dars; Sharh-i aqida-i Nasafi — 2 dars; Usuli fiqhdan "Tanzih va sharhi" — 2 dars; Fiqhdan turli kitoblar — bir necha dars; Axloqdan "Gainel g‘ilm" va "Tariqati Muhammadiya" — 1 dars; Hadisdan "Mishkatel-masabih" — 1 dars.

Ikkinchi jadvalda esa nahv, mantiq, aqida, usul va fiqh fanlaridan o‘qitish yanada kengaytirilgan bo‘lib, jami 25 dan ortiq soatlik haftalik dars yuklamasi namoyon bo‘ladi. Uchinchi va to‘rtinchi jadvallarda tafsir va hadis fanlari qo‘shilgan, bu esa Marjoniyning ta'lim mazmunini boyitib borish tendensiyasini ko‘rsatadi.

Mazkur jadvallar shuni koʻrsatadiki, Marjoniy nafaqat din fanlari, balki mantiq, falsafa, adabiyot va tarix kabi dunyoviy bilimlarni ham oʻqitgan. Bu yondashuv oʻsha davrdagi an'anaviy madrasa ta'limidan tubdan farq qilgan va aslida jadidchilik harakatining asosiy talab qilgan narsi — keng qamrovli ta'lim — ning amaliyotda qoʻllanilishini ifodalagan.

Marjoniy shogirdlari va ularning xizmatlari. Marjoniy oʻzining 40 yillik mudarrislik faoliyatida yuzlab shogirdlar tarbiyalab yetishtirib, ularni Rossiyaning turli oʻlkalarida faoliyat koʻrsatishga tayyorladi. Shogirdlari orasida juda koʻplab taniqli din va ta'lim arboblari yetishib chiqdi.

Gʻabdilhabir ibn Gʻabdilvahhab al-Muslimi — Buxoroda Marjoniydan yetarli ta'lim olib, Qozonga qaytgach Qizilqor (Petropavlovsk) shahrida imom boʻlib dars bergan. Koʻplab shogirdlari qozonlik qozoqlardan boʻlgan. Muhammadi ibn Salih al-Ufauiy al-Gʻomari — Buxoroda Marjoniydan ta'lim olgan, keyin Qozonda oʻnchi mahallada imomlik qilgan va "Madrasa-i Gosmaniya" bilan mashhur boʻlgan.

Xafiziddin ibn Nasriddin — Buxoroda uch yil katta darslar olib, Vyatka viloyatida imom va mudarris boʻlgan; fiqh, hadis va boshqa ilmlar boʻyicha koʻplab asarlar yaratgan. Xusan ibn Fayozxon — Qozonda universitetning sharqshunoslik boʻlimida mudarris boʻlgan va "Miftah kunuz al-Qur'on" kitobini yaratgan.

Gʻayasetdin ibn Xabibulla — Tatesh viloyatidan kelgan, Marjoniy madrasasida oʻn yil davomida ta'lim olgan, Buxoroga ham safar qilgan, keyinchalik otasi oʻrnida imom boʻlib dars bergan. Gʻimran ibn Sagit — Tatesh viloyatidan kelgan, Marjoniy madrasasida koʻp yil oʻqib, Bagʻish qishlogʻida imom boʻlgan va koʻplab shogirdlar tarbiyalagan.

Marjoniy oʻzining xotira daftarida shundgay yozadi: "Buxoro va Qorakoʻl qishlogʻida yetti yil dars aytish bilan shugʻullandik. Samarqandda bir yil dars berdim. Qozonda 1850-yildan boshlab mudarris boʻldim. Madrasamizdagi shogirdlar Xoʻqi Tarxan, Penza, Saratov, Samara, Sember, Qozon, Vyatka, Ufa, Orenburg, Tubil, Tom, Peterburg, Ryazan, Kostroma, Tambov, Qrim viloyatlaridan kelgan".

Madrasa tashkilotchiligi va tartib-qoidalar. Marjoniy faqat dars berish bilan cheklanmay, madrasa tashkilotchiligida ham yangi sahifalar ochdi. U madrasa binosi va muhitini takomillashtirish, shogirdlar uchun maxsus tartib-qoidalar joriy etish masalalarida jiddiy e'tibor berdi. Oʻsha vaqtgacha boʻlgan madrasalarda shogirdlar uchun yozma tartib-qoidalar mavjud emas edi; Marjoniy bu borada birinchilardan boʻldi.

Marjoniy "Gʻaliya madrasasi" haqida birinchi marta tahliliy maqola yozgan olim sifatida ham tan olinadi. Bu maqolada madrasa ta'limining zaif tomonlari va yangilash zarurati batafsilroq bayon etilgan. Madrasani goʻzal qilib qurishga, shogirdlarga qulay muhit yaratishga va ta'lim jarayonini tizimlashtirish sa'y-harakatlarida Marjoniy oʻsha davr uchun gʻayrioddiy insonparvar yondashuv namunasini koʻrsatdi.

U shogirdlarga munosabatda ham oʻziga xos edi: ularning mustaqil fikrlashini qoʻllab-quvvatladi, kitoblarni tanqidiy oʻqishga undadi, turli mazhab va falsafiy oqimlar haqida ochiq muhokamalar olib bordi. Bu yondashuv madrasa ta'limining an'anaviy dogmatik ruhiga zid edi va aynan shu narsa Marjoniyni oʻz davrining islohotchi pedagogi sifatida ajralib turishini ta'minladi.

Pedagogik faoliyatidagi qiyinchiliklar. Marjoniyning pedagogik faoliyati hama toʻgʻri yoʻl bilan kechmadi. Qozon mullalarining bir qismi uning e'tiqod va ilmiy qarashlarini yoqtirmagan; Ibrohim boy bilan munosabatlar yomonlashgach, bir necha marta madrasa ishi toʻxtatilgan. Biroq Marjoniy bu qiyinchiliklarga dosh berdi.

U oʻziga xos jasorat va qat'iyat bilan shunday dedi: "Men qilgan ishlarim va gaplarim musulmonlar uchun foydali va chin haqiqatdir. Bugun baholovchi boʻlmasa, kelajakda baholovchilar boʻladi". Bu soʻzlar uning pedagogik faoliyatining ma'naviy asosini — haqiqatga sadoqatni — yorqin ifodalaydi.

Marjoniy madrasada oxirgi umrigacha — 1889-yilgacha — 8 yil dars berdi. Ushbu faoliyat davomida madrasada oʻqigan shogirdlari Rossiyaning turli viloyatlarida imom, mudarris va

jamoat arbobi sifatida xizmat qildilar va bu ham uning pedagogik merosining barqarorligidan dalolat beradi.

Xulosa. Shahobiddin Marjoniyning pedagogik faoliyati 55 yildan ortiq davrni qamrab oladi — 17 yoshdan to vafot etguniga qadar. Bu faoliyat davomida u yuzlab shogird tayyorladi, ta'lim mazmunini kengaytirdi, madrasa tashkilotchiligini takomillashtirdi va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etdi.

Uning pedagogik faoliyatining eng muhim xususiyatlari quyidagilar edi: shogirdlarga mustaqil fikrlash erkinligi berish; ta'lim mazmunini din fanlari bilan birga mantiq, falsafa, tarix va adabiyot bilan boyitish; mavjud dars kitoblarini tanqidiy baholash va yangilarini ishlab chiqish; madrasa tartib-qoidalarini tizimlashtirish; shogirdlarni keng geografik miqyosda tarbiyalab, ularning mustaqil faoliyat ko‘rsatishiga yo‘l ochib berish.

Marjoniyning pedagogik merosi zamonaviy ta'lim tizimi uchun ham bugungi kunda dolzarb bo‘lib qolmoqda. Uning ta'lim jarayoniga ilmiy-tanqidiy yondashuvi, ta'lim mazmunini boyitish g‘oyasi va shogirdlar mustaqilligini qo‘llab-quvvatlash metodikasi — bular bugungi ta'lim islohoti yo‘nalishlariga ham mos keluvchi prinsiplardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Шиҳобиддин Маржоний. Мустафод ал-ахбор фи аҳвол Қозон ва Булғор. – Қозон: ал-Ҳайъат ал-омм ли дор ал-кутуб ва ал-васоиқ ал-қавмия, 1885.

2. Шиҳобуддин Маржоний. Нозура ал-ҳақ фий фарзияти ал-ишаи ва ин лам яғиб аш-шафақ. – Истанбул: Дор ал-ҳикма. 2012.

3. “Shahobiddin Marjoniy” To`plam. (tahrirchi X. Xizmatullin), Qozon: 1969

4. Юсупов М.Х. Шигабутдин Марджани как историк. – Казань: ТКИ, 1981. – б. 232.

5. Юзеев А.Н. Шихаб ад-дин Марджани: мыслитель, религиозный реформатор, просветитель. – Казань: “Иман”, 1997. – б. 60.

6. Маржаний Ш. Вафия ал-аслаф ва тахия ал-ахлаф. А.Н.Юзеевнинг араб тилидан қилган таржима, шарҳ, мақоласи. – Қозон: Имон, 1999.

7. Ibrahim Maraş. Türk dünyasinda dini yenileşme 1850-1917. – Istanbul: 2002.

8. Мэржани хакында ижмалы мэгълумат // “Мэржани” жыентыгы. – Казань: “Иман”, 2001.

9. Юсупов М.Х. “Шигабутдин Маржани” asarida . –Қозон: Татар китоб босмаси, 2005. –Б.257.

10. Ўзбекистон миллий энциклопедияси М ҳарфи Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 188-bet

KORPORATIV XODIMLAR O‘RTASIDAGI AXLOQIY MUNOSABTLAR VA ULARNING TASHKILOT SAMARADORLIGIGA TA’SIRI

Avazxonov Yusufjon Avazxon o‘g‘li,
O‘zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti
Falsafa kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada korporativ etika va xodimlar o‘rtasidagi axloqiy munosabatlarning tashkilot faoliyatidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda korporativ axloq tushunchasi, uning asosiy tamoyillari — hurmat, halollik, mas’uliyat, adolat hamda jamoada ishlash madaniyati yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Korporativ etika, axloqiy munosabatlar, korporativ madaniyat, hurmat, halollik, mas’uliyat, adolat, jamoada ishlash, ish unumdorligi, etika kodeksi.*

Аннотация. *В данной статье анализируются роль и значение корпоративной этики и нравственных отношений между сотрудниками в деятельности организации. В исследовании раскрываются понятие корпоративной этики и её основные принципы — уважение, честность, ответственность, справедливость и культура командной работы.*

Ключевые слова: *Корпоративная этика, нравственные отношения, корпоративная культура, уважение, честность, ответственность, справедливость, командная работа, производительность труда, кодекс этики.*

Abstract. *This article examines the role and importance of corporate ethics and ethical relationships among employees in organizational activities. The study highlights the concept of corporate ethics and its main principles, including respect, honesty, responsibility, justice, and teamwork culture.*

Keywords: *Corporate ethics, ethical relations, corporate culture, respect, honesty, responsibility, justice, teamwork, work productivity, code of ethics.*

Kirish. Korporativ etika va xodimlar o‘rtasidagi axloqiy munosabatlar hozirgi zamon tashkilotlarining muhim va ajralmas qismiga aylangan. Bu munosabatlar ish joyida axloqiy qadriyatlar, halollik, adolat va hurmat asosida quriladi va tashkilotning barqaror rivojlanishi hamda ijtimoiy muhitning sog‘lom bo‘lishi uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Korporativ etika tushunchasi kengroq ma'noda tashkilotlarning ichki qoidalar, qadriyatlar va me'yorlarini o‘z ichiga oladi va bu qadriyatlarning amalda qanday ifoda topishini ta'minlaydi. Xodimlar o‘rtasidagi axloqiy munosabatlar esa aynan bu qadriyatlarning amaliyotda qo‘llanilishi, boshqarilishi va rivojlantirilishini ta'minlaydi. Tarixan, 20-asr oxiri va 21-asr boshlarida korporativ etika sohasida olib borilgan izlanishlar kompaniyalar uchun nafaqat ichki tartib-intizomni saqlash, balki tashqi aloqalarni mustahkamlashda ham muhim ahamiyat kasb etgan. Bu jarayonda, halollik, adolat, hurmat, mas’uliyat va oshkoralik kabi axloqiy tamoyillar asosiy o‘rin tutadi va ular xodimlar o‘rtasida ishonch va hamkorlik muhitini yaratishda muhim rol o‘ynaydi.

Hozirgi kunda, korporativ etika va xodimlar o‘rtasidagi axloqiy munosabatlarning muhimligi yanada oshib bormoqda, chunki texnologik rivojlanish va madaniyatlararo muloqotning kengayishi yangi muammolar va talablarga olib kelmoqda. Raqamli texnologiyalar yordamida insonlararo munosabatlar yangi formatda amalga oshmoqda, bu esa axloqiy me’yorlarga bo‘lgan ehtiyojni va muammolarni yanada kuchaytirmoqda. Shuningdek, korporativ etika kodekslari va axloqiy qoidalarni ishlab chiqish, ularni amalda qo‘llash va xodimlar o‘rtasida axloqiy madaniyatni rivojlantirish bugungi kunda muhim vazifaga aylangan. Bu jarayonda, hurmat, halollik, mas’uliyat va adolat kabi tamoyillar tashkilotning samaradorligini oshirish bilan birga, nizolarni kamaytirish, ish muhitini yaxshilash va kompaniyaning ijtimoiy mas’uliyatini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi korporativ xodimlar o‘rtasidagi axloqiy munosabatlarning tamoyillarini aniqlash, ularning tashkilotdagi o‘rni va ahamiyatini o‘rganish,

shuningdek, bu munosabatlarni rivojlantirish uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqishdir. Tadqiqot doirasida, korporativ etika va axloqiy munosabatlarning tashkilot samaradorligiga ta’siri, ishlash muhitining sog‘lom bo‘lishi va nizolarni oldini olish uchun qanday amaliyotlar qo‘llanishi mumkinligi o‘rganiladi. Bu izlanishlar, xodimlar o‘rtasida axloqiy madaniyatni mustahkamlash, kompaniya madaniyatini rivojlantirish va ijtimoiy mas’uliyatni oshirishga xizmat qiladigan muhim qadam bo‘lishi kutilmoqda. Shuningdek, maqola yakunida, amaliyotda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan tavsiyalar va strategiyalar taklif etiladi, bu esa korporativ etika va axloqiy munosabatlarning rivojlanishiga turtki bo‘lishi mumkin.

Korporativ axloq tuchunchasi va uning tashkilotdagi o‘rni. (axloqiy qadriyatlar, me'yorlar, korporativ madaniyatning ahamiyati)

Korporativ axloq tuchunchasi va uning tashkilotdagi o‘rni muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u tashkilotning ichki muhitini shakllantirishda, xodimlar o‘rtasidagi axloqiy qadriyatlar va me’yorlarni belgilashda asosiy rol o‘ynaydi. Bu tushuncha nafaqat tashkilotning ichki madaniyatini rivojlantirish, balki uning tashqi aloqalarda ishonchliligini ta’minlash uchun ham muhim hisoblanadi. Korporativ axloq, avvalo, tashkilotning asosiy qadriyatlari va tamoyillarini ifodalaydi, ular esa xodimlarning kundalik faoliyatida, qaror qabul qilish jarayonlarida va muomala usullarida o‘z ifodasini topadi.

Korporativ axloq tuchunchasi – bu tashkilot ichida qabul qilingan axloqiy qadriyatlar, me’yorlar va qoidalar to‘plamidir. Bu qadriyatlar va me’yorlar tashkilotning strategik maqsadlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, xodimlarga to‘g‘ri va adolatli harakat qilish uchun yo‘l-yo‘riq beradi. Ular shuningdek, tashkilotning madaniyatining ajralmas qismi bo‘lib, xodimlar o‘rtasida hurmat, halollik, mas’uliyat va adolat kabi asosiy axloqiy tamoyillarni mustahkamlashga yordam beradi. Bu qadriyatlar va me’yorlar, ayniqsa, etika kodeksi shaklida, xodimlar uchun ishlash muhiti va muomala standartlarini belgilaydi.

Korporativ axloq tuchunchasi tashkilotning umumiy madaniyatining asosiy elementlaridan biri bo‘lib, uning shakllanishi va rivojlanishi tashkilotning iqtisodiy muvaffaqiyati va ijtimoiy mas’uliyatini ta’minlaydi. Bu qadriyatlar va me’yorlar, xususan, kompaniyaning ichki qoidalarida va etika kodeksida o‘z ifodasini topadi. Ular yordamida xodimlar o‘zaro muomala qilishda, mijozlar va hamkorlar bilan aloqada bo‘lishda, shuningdek, qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Korporativ axloq tuchunchasi nafaqat, xodimlar va boshqaruv organlari uchun, balki tashqi muhitdagi hamkorlar uchun ham ishonchli muhitni yaratishda muhim vositadir.

Shuningdek, korporativ axloq tuchunchasining tashkilotdagi o‘rni uning barqaror rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omil sifatida ham ko‘rinadi. Axloqiy qadriyatlar va me’yorlar, xodimlarning o‘zaro hamkorligini kuchaytiradi, nizolarni kamaytiradi va muammolarni hal qilishda muhim rol o‘ynaydi. Bu, o‘z navbatida, kompaniya ichidagi muhitni sog‘lom va ijobiy qilishga yordam beradi. Tashkilotda axloqiy muhitning shakllanishi uchun, avvalo, etika kodekslari ishlab chiqilishi, treninglar o‘tkazilishi va xodimlar orasida axloqiy madaniyatni rivojlantirish uchun doimiy ravishda ishlar olib borilishi zarur.

Korporativ axloq tuchunchasi va uning tashkilotdagi o‘rni, ayniqsa, zamonaviy sharoitda, texnologik rivojlanish va raqamli muhitda yangi muammolar bilan yuzlashmoqda. Masalan, raqamli texnologiyalar va onlayn platformalarda axloqiy normalar va me’yorlarni belgilash, shuningdek, xodimlar o‘rtasidagi muomala standartlarini yangicha tartibga solish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonlar, shuningdek, madaniyatlararo muhitda axloqiy qadriyatlarning muvofiqlashtirilishini ta’minlashga qaratilgan. Shu bilan birga, korporativ axloq tuchunchasi va uning rivojlanishi uchun, kompaniyalar o‘z ichki madaniyatini yangilash, treninglar va axloqiy madaniyatni rivojlantirish jarayonlarini davom ettirmoqda.

Xulosa qilib aytganda, korporativ axloq tuchunchasi va uning tashkilotdagi o‘rni, tashkilotning ichki muhitini mustahkamlash va tashqi aloqalarda ishonchni ta’minlash uchun muhim vositadir. Bu tushuncha, xodimlar o‘rtasida axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish, muomala standartlarini belgilash va jamiyat bilan hamkorlikni mustahkamlashda asosiy rol o‘ynaydi.

Tashkilotlarda etika kodekslari, treninglar va madaniyatni shakllantirish orqali, axloqiy standartlarni yuqori darajada saqlash va ijobiy imij yaratish mumkin bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, kompaniyaning uzoq muddatli barqaror rivojlanishining va ijtimoiy mas’uliyatining ta’minoti bo‘lib xizmat qiladi.

Xodimlar o‘rtasidagi axloqiy munosabatlarning asosiy tamoyillari. (hurmat, halollik, mas'uliyat, adolat, jamoada ishlash madaniyati)

Xodimlar o‘rtasidagi axloqiy munosabatlarning asosiy tamoyillari juda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular tashkilot ichidagi ijobiy muhitni shakllantirish va rivojlantirishda asosiy rol o‘ynaydi. Bu tamoyillar nafaqat xodimlar o‘rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirishga yordam beradi, balki tashkilotning umumiy maqsadlariga erishishda ham muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu bo‘limda hurmat, halollik, mas’uliyat, adolat va jamoada ishlash madaniyatining asosiy tamoyillari keng yoritiladi.

Hurmat tamoyili tashkilotda xodimlar o‘rtasida sog‘lom va hamjihat muhitni yaratishda muhim ahamiyatga ega. Hurmat - bu boshqalarning fikr va qadriyatlariga e’tibor bilan yondashish, ularni qabul qilish va insoniy munosabatlarni saqlashdir. Bu tamoyil, bir tomondan, xodimlarning shaxsiy qadr-qimmatini hurmat qilish bilan bog‘liq bo‘lsa, boshqa tomondan, tashkilot ichidagi ijtimoiy muhitni ijobiy va hamjihat qilish imkonini beradi. Hurmat tamoyili asosida, ish joyida muhokamalar ochiq va teng huquqlilar bo‘lib o‘tadi, bu esa jamoa ichida ishonchni mustahkamlashga yordam beradi. Masalan, xodimlar o‘rtasida fikrlar va takliflarni hurmat qilish, muomala etishda odob-axloqni saqlash, hamda boshqaruvchilarning fikr-mulohazalariga hurmat bilan yondashish muhimdir.

Halollik tamoyili korporativ etika asoslaridan biri bo‘lib, ish faoliyatida haqiqatni aytish va adolatli bo‘lishni anglatadi. Bu tamoyil xodimlarning harakatlarida to‘g‘ri va ishonchli bo‘lishini ta’minlaydi. Halollik, ayniqsa, ish joyida noxolislik, riyakarlik yoki yolg‘onlik holatlaridan himoya qilish uchun muhimdir. Bu tamoyil asosida, xodimlar o‘z vazifalarini halollik bilan bajaradilar, ma’lumotlarni to‘g‘ri va oshkora taqdim etadilar, shuningdek, boshqalarning mehnatini hurmat qiladilar. Halollik tamoyili, ayniqsa, korrupsiya va nizolar oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Misol uchun, moliyaviy hisobotlarda halollik va aniq ma’lumotlarni taqdim etish, shuningdek, ichki nazorat va auditlar jarayonida halollikni ta’minlash muhimdir.

Mas’uliyat tamoyili har bir xodimning o‘z harakatlari uchun javobgarlikni anglash va bu javobgarlikni to‘liq bajarishni nazarda tutadi. Bu tamoyil, xodimlar o‘z vazifalarini bajarishda yuzaga keladigan muammolarni hal qilishda faol va mas’uliyatli bo‘lishlarini taqozo etadi. Mas’uliyat tamoyili, shuningdek, tashkilot maqsadlariga muvofiq ish yuritishni, resurslarni oqilona boshqarishni va me’yorlarga muvofiq harakat qilishni ta’minlaydi. Xodimlar o‘z vazifalarini bajarishda mas’uliyatli bo‘lishlari, nizolarni hal qilishda adolatli yondashish va muayyan natijalarga erishishda jiddiylik bilan yondashish muhimdir. Bu tamoyil, ayniqsa, korporativ siyosat va ichki qoidalar asosida maqsadga muvofiq harakat qilishni taqozo etadi.

Adolat tamoyili tashkilotda har bir xodimga teng imkoniyatlar yaratishni va ularni baholashda adolatli bo‘lishni anglatadi. Adolat tamoyili asosida, xodimlar o‘rtasida tanlovlar, mukofotlar va jazolar adolatli asosda amalga oshiriladi. Bu tamoyil, shuningdek, nizolarni hal qilishda adolatli yondashuvni ta’minlash va har bir shaxsning huquq va manfaatlarini himoya qilishni nazarda tutadi. Adolat tamoyili, ayniqsa, ish joyida teng imkoniyatlar, inson huquqlari va mehnat shartlariga muvofiqlikni ta’minlashda muhimdir. Masalan, ishga qabul qilish, malaka oshirish yoki jazolash jarayonlarida diskriminatsizlikka yo‘l qo‘ymaslik va adolatli baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Oxirgi tamoyil bo‘lmish jamoada ishlash madaniyati — bu tashkilotda muvofiqlik, hamkorlik va birgalikda ishlashga intilishdir. Bu tamoyil, xodimlarning bir-biriga yordam berishi, muammolarni birgalikda hal qilishi va umumiy maqsadlar yo‘lida harakat qilishni anglatadi. Jamoada ishlash madaniyati, shuningdek, tashkilot ichida muvofiqlik va hamjihatlikni mustahkamlash, muomala odobiga rioya qilish va faol muloqotni ta’minlash bilan bog‘liq. Bu tamoyil, ayniqsa, loyiha va jamoaviy ishlar jarayonida muhimdir, chunki u xodimlarning o‘zaro

muvofiqligini, hurmat va ishonchni oshiradi. Misol uchun, jamoaviy muhitda muammolarni hal qilishda ochiq muloqot va hamjihatlik, shuningdek, umumiy maqsadlar uchun birgalikda harakat qilish muhimdir.

Shu bilan birga, bu tamoyillarni amalda qo‘llash uchun tashkilotda etika kodekslari, treninglar va madaniyatni rivojlantirish dasturlari ishlab chiqiladi. Ular xodimlarning axloqiy qadriyatlar va tamoyillarni o‘z ichiga olgan holda, kundalik ish faoliyatiga tatbiq etishlariga yordam beradi. Natijada, korporativ etika tamoyillari va xodimlar o‘rtasidagi axloqiy munosabatlarning rivojlanishi, ish

Axloqiy munosabatlarning tashkilot samaradorligiga ta'siri va ularni rivojlantirish yo‘llari. (ish unumdorligi, sog‘lom muhit, nizolarni oldini olish, trening va ichki qoidalar)

Axloqiy munosabatlarning tashkilot samaradorligiga ta’siri va ularni rivojlantirish yo‘llari muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular tashkilotning umumiy muvaffaqiyati va barqaror rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bu munosabatlar ish muhitida ishonch, hamkorlik va ijtimoiy muhitning sog‘lom bo‘lishiga xizmat qiladi. Axloqiy munosabatlarning tashkilot samaradorligiga ta’sirini tushunish uchun avvalo ularning asosiy elementlarini, ya’ni halollik, adolat, hurmat, mas’uliyat va oshkoralikni o‘rganish zarur.

Birinchidan, halollik tashkilot ichida ishonch muhitini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Xodimlar o‘z faoliyatlarida haqiqatni aytib, to‘g‘ri va halol bo‘lish orqali bir-biriga bo‘lgan ishonchni oshiradilar. Bu esa muammo va nizolarni hal qilishda, qaror qabul qilish jarayonida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, tashkilot ichidagi muhitni yanada sog‘lom qiladi. Halollik, shuningdek, mijozlar va hamkorlar bilan bo‘lgan aloqalarni mustahkamlashda ham muhim omil hisoblanadi, chunki ularning ishonchi tashkilotning brend imijini yaratishda asosiy poydevordir.

Ikkinchidan, adolat tamoyili tashkilotda muvofiqlik va tenglikni ta’minlaydi. Xodimlar o‘rtasida adolatli muomala, mukofot va jazolarni adolat bilan taqsimlash, jamoada ichki muvozanatni saqlashga yordam beradi. Bu esa, o‘z navbatida, xodimlarning motivatsiyasini oshirib, ularning ishga bo‘lgan qiziqishini va sadoqatini kuchaytiradi. Adolatli muomala, ayniqsa, nizolar va nizolarni hal qilishda muhim rol o‘ynaydi, chunki ularning muhokamasi va hal etilishi uchun adolatli va oshkora shart-sharoitlar yaratadi.

Uchinchidan, hurmat tamoyili ish joyida sog‘lom va ijobiy muhitni shakllantirishda muhimdir. Boshqalar fikr va qadriyatlariga hurmat bilan yondashish, jamoa ichida hamfikrlilik va hamjihatlikni rivojlantiradi. Hurmatli muhitda xodimlar o‘zlarini erkin ifoda eta oladilar, yangi g‘oyalarni taklif qilishga tayyor bo‘ladilar, bu esa innovatsiya va ijodkorlikni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, hurmat muammolari yoki nizolar yuzaga kelganda, ularni hal qilishda ham yordam beradi, chunki hurmat muhitida muammo hal qilish jarayoni yanada samarali bo‘ladi.

Bundan tashqari, mas’uliyat tamoyili xodimlarning o‘z harakatlariga javobgarlik bilan yondashishini ta’minlaydi. O‘z vazifalarini mas’uliyat bilan bajarish, tashkilot maqsadlariga muvofiq harakat qilish, hamda xatoliklar uchun javobgarlikni qabul qilish muhimdir. Bu, o‘z navbatida, tashkilotning umumiy mahsuldorligini oshiradi va sifatni ta’minlaydi. Mas’uliyatli xodimlar tashkilotda tartib, intizom va yuqori xizmat sifatini saqlashga yordam beradi.

Shu bilan birga, axloqiy munosabatlarni rivojlantirish uchun tashkilotda oshkoralik va ochiqlik muhitini yaratish muhimdir. Ochiq kommunikatsiya, ichki qoidalar va jarayonlarning shaffofligi xodimlar va rahbariyat o‘rtasida ishonchni kuchaytiradi. Bu esa muammolarni tez va samarali hal qilish imkonini beradi, shuningdek, yangi g‘oyalar va takliflarni qabul qilish jarayonini yengillashtiradi.

Axloqiy munosabatlarni rivojlantirishda tashkilotning etika kodeksi va treninglar muhim o‘rin tutadi. Bu vositalar xodimlarning axloqiy qadriyatlar va me’yorlar bilan tanishtirilishini, ularni kundalik faoliyatda qo‘llashini ta’minlaydi. Shuningdek, ichki siyosat va me’yorlar doimiy ravishda yangilanib, rivojlanib borishi, xodimlarning yangi muammolar va muhitdagi o‘zgarishlarga moslashishini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, axloqiy munosabatlar tashkilot samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib, ular ishonch, hamkorlik va muhitning sog‘lom bo‘lishiga yordam beradi. Ularni rivojlantirish uchun etika kodeksi, treninglar, ochiq kommunikatsiya va yuqori axloqiy qadriyatlarni targ‘ib qilish muhimdir. Bu esa, o‘z navbatida, tashkilotning ichki muhitini mustahkamlash, nizolarni oldini olish va umumiy muvaffaqiyatni ta’minlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqot korporativ xodimlar o‘rtasidagi axloqiy munosabatlar va ularning tashkilotlarning umumiy rivojlanishi uchun ahamiyatini chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot davomida korporativ etika tushunchasi va uning tashkilotdagi o‘rni, xodimlar o‘rtasidagi axloqiy qadriyatlar va tamoyillar, shuningdek, ularning ish muhitiga ta’siri keng yoritildi. Axloqiy munosabatlar, ayniqsa, hurmat, halollik, adolat, mas’uliyat va oshkoralik kabi asosiy tamoyillar asosida qurilganda, tashkilot ichki muhitini mustahkamlash, ishonchni mustahkamlash va samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Bu munosabatlarning buzilishlari esa nizolar, adolatsizlik va hurmatsizlik kabi muammolarga olib kelishi mumkinligini aniqlash mumkin bo‘ldi.

Shuningdek, tadqiqotda korporativ etika va axloqiy munosabatlarning tashkilot samaradorligiga ta’siri keng muhokama qilindi. Axloqiy qadriyatlarning rivojlanishi ish unumdorligini oshiradi, sog‘lom muhit yaratadi va nizolarni oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Buning uchun kompaniyalar etika kodekslari, treninglar va ichki madaniyatni shakllantirish orqali xodimlar o‘rtasida axloqiy madaniyatni rivojlantirishga intilishlari zarur. Ayniqsa, zamonaviy texnologiyalar va global madaniyat bilan bog‘liq muammolar, masalan, raqamli muhitda axloqiy normalarni saqlash, bu jarayonni yanada muhim va murakkab qilmoqda.

Ushbu tadqiqot o‘z natijalarida korporativ etika va axloqiy munosabatlarning tashkilotlarning rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqladi. Bu sohada amalga oshirilayotgan tadqiqotlar va amaliyotlar, kompaniyalar uchun nafaqat ichki tartib-intizomni ta’minlash, balki tashqi aloqalarda ishonch va hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Kelajakda, texnologik rivojlanish va madaniyatlararo muloqotni hisobga olgan holda, axloqiy normalarni rivojlantirish va ularni amaldagi qoidalarga kiritish bo‘yicha izlanishlar davom ettirilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, korporativ xodimlar o‘rtasidagi axloqiy munosabatlar tashkilotning ichki muhitini mustahkamlashda va tashqi aloqalarda ishonchni oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularni rivojlantirish uchun etika kodekslari, treninglar va muhitni shakllantirish muhim vositalardir. Bu omillar kompaniyalarning barqaror rivojlanishi va ijtimoiy mas’uliyatini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, kelajakda yangi texnologiyalar va madaniyatlararo muhitda axloqiy me’yorlarni saqlash va rivojlantirish borasida izlanishlar davom etishi va amaliyotga joriy etilishi zarur bo‘ladi. Bu esa nafaqat tashkilotlar, balki jamiyat uchun ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, axloqiy qadriyatlarning rivojlanishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Hoshimov, A. (2020). Korporativ etika va xodimlar o‘rtasidagi axloqiy munosabatlar. Toshkent Davlat Universiteti nashriyoti.

2. Qo‘chqorov, M. (2019). Korporativ madaniyat va axloqiy qadriyatlar. O‘zbekiston Milliy Universiteti jurnali, 45(3), 78-85.

3. Kamalov, S. (2021). Ish joyida axloqiy me’yorlar va kompaniya rivojlanishi. Xalqaro Biznes va Menejment, 12(2), 34-42.

4. Islomov, T. (2018). Axloqiy qadriyatlar va tashkilot madaniyati. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim va Fan nashriyoti.

5. Tursunov, D. (2022). Raqamli texnologiyalar va korporativ etika. Zamonaviy iqtisodiyot va menejment, 7(1), 50-58.

O‘ZBEKISTON MUSTAQILLIGI YILLARIDA KASABA UYUSHMALARINING INSON QADRINI YUKSALTIRISH BORASIDAGI FAOLIYATI VA UNING IJTIMOIY AHAMIYATI

Beshimov Xamidjon Sayidovich,
O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining
Buxoro viloyat Kengashi raisi o‘rinbosari,
Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekiston mustaqilligi yillarida kasaba uyushmalarining inson qadrini yuksaltirish, mehnatkashlarning mehnat huquqlari va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi faoliyati tahlil qilinadi. Shuningdek, aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, munosib mehnat sharoitlarini yaratish, mehnat muhofazasini ta’minlash, ijtimoiy sheriklik munosabatlarini rivojlantirish hamda fuqarolarning turmush darajasini yaxshilashda kasaba uyushmalarining o‘rni yoritib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *kasaba uyushmalari, inson qadri, Yangi O‘zbekiston, mehnat huquqlari, ijtimoiy himoya, munosib mehnat, mehnat muhofazasi, ijtimoiy sheriklik, fuqarolik jamiyati, mehnatkashlar manfaatlari, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, kasaba uyushmalari harakati.*

Аннотация. *Данная статья посвящена анализу отраслевой деятелности независимого Узбекистана по признанию профессии человека, труду, праву и социально-экономической защите трудящихся. Шунингдек, население социалной группы куллаб-силатлаш, соответствующие условия труда яратиш, охрана труда обеспечение, социалный шериклик профсоюзы содействуют развитию профессий турмуш даражасин яхшилашт уюшмаларинг еритиб берилади.*

Ключевые слова: *профсоюзы, человеческое достоинство, новый Узбекистан, трудовые права, социалная защита, достойный труд, охрана труда, социалное партнерство, гражданское общество, интересы трудящихся, социально-экономическое развитие, профсоюзное движение.*

Abstract. *This article analyzes the activities of trade unions in Uzbekistan during the years of independence in promoting human dignity and protecting the labor rights and socio-economic interests of workers. It also highlights the role of trade unions in providing social support to the population, creating decent working conditions, ensuring occupational safety, developing social partnership relations, and improving the living standards of citizens.*

Keywords: *Trade Unions, Human Dignity, Labor Rights, Social Protection, Decent Work, Social Partnership, Occupational Safety, New Uzbekistan, Civil Society, Social Justice, Workers' Interests.*

Kirish. O‘z faoliyati boshlanganiga 120 yil bo‘lgan O‘zbekiston kasaba uyushmalari inson qadrini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy omili sifatida namoyon bo‘ldi. Kasaba uyushmalari faqat mehnat munosabatlarini muhofaza qilish emas, balki inson hayotining ma’naviy mazmunini boyitish, ijtimoiy adolat va tenglikni ta’minlash, jamiyatda barqarorlikni mustahkamlash orqali inson qadrini e’tirof etish va yuksaltirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda kasaba uyushmalari faoliyatini tahlil qilar ekanmiz, ularning inson qadrini yuksaltirishdagi o‘rni ko‘p qirrali va murakkab jarayon ekanini ko‘rish mumkin. Avvalo, mehnatkash inson shaxsiga bo‘lgan munosabatda keskin o‘zgarish yuz berdi. Sovet davrida kasaba uyushmalari ko‘proq formal tuzilma sifatida ko‘rilib, davlat siyosati ijrochisi vazifasini bajargan bo‘lsa, mustaqillikdan keyin ularning haqiqiy ijtimoiy va fuqarolik institutlari sifatidagi ahamiyati oshdi. Bu esa inson qadrini e’tirof etishda muhim burilish nuqtasi bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyov, 2025-yil 17-oktabr kuni O‘zbekiston kasaba uyushmalari faollari va faxriylari bilan uchrashuvida “Yurtimizda

xalqparvar, ijtimoiy davlat qurish, inson qadrini ulug‘lash barcha islohotlarimizning bosh maqsadiga aylangan hozirgi kunda kasaba uyushmalarining boy bilim va tajribasi juda muhim. Mehnat jamoalarida ishchanlik muhitini, rag‘bat va adolat ruhini olib kirayotgan kasaba uyushmalari faollariga chin dildan minnatdorchilik bildiraman”.

Asosiy qism. Inson qadrining yuksalishi O‘zbekiston mustaqilligining ilk yillaridan faqat mehnat munosabatlari yoki ijtimoiy himoya tizimi bilan cheklanmadi. Bu jarayon keng ma’noda jamiyatning ma’naviy, madaniy va huquqiy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq bo‘ldi. Shu jihatdan kasaba uyushmalari o‘z a’zolari hayotida nafaqat moddiy, balki ma’naviy qo‘llab-quvvatlash vazifasini ham bajardi. Ular turli madaniy tadbirlar, ma’naviy-ma’rifiy uchrashuvlar, kitobxonlik va teatr anjumanlari, milliy bayramlar munosabati bilan tashkil etilgan tadbirlar orqali insonning ma’naviy dunyosiga ham hissa qo‘shdilar. Chunki inson qadrini yuksaltirish, avvalo, uning ma’naviy olamini boyitish orqali ta’minlanadi.

1995-yilda kasaba uyushmalari tashshabusi bilan O‘zbekiston Respublikasining “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni va Mehnat kodeksini qabul qilish tashabbuskori bo‘ldi. Kasaba uyushmalari Mehnat inspeksiyasi tomonidan bir yilda mehnatni muhofaza qilish qoidalari va xavfsizlik normalarining buzilishi masalalari bo‘yicha 4600 dan ortiq jamoatchilik o‘rganishlari o‘tkazilib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha kasaba uyushmalari ishtirokida normal mehnat va ishlab chiqarish sharoitini ta’minlash bo‘yicha, 78 mingdan ortiq banddan iborat tashkiliy- texnik va texnologik tadbirlar ishlab chiqildi.

Mustaqillik yillarida davlat siyosatida inson manfaatlari ustuvor deb e’lon qilingan bo‘lsa, kasaba uyushmalari bu siyosatning amaldagi ijrochilari sifatida maydonga chiqdi. Ularning turli tashabbuslari faqat mehnat sohasinigina emas, balki jamiyatning barcha jabhalarini qamrab oldi. Masalan, sog‘liqni saqlash sohasida tibbiy ko‘mak, ta’lim sohasida yoshlarning bilim olishiga ko‘mak, madaniyat sohasida ma’naviy boylikni oshirish kabi ishlar amalga oshirildi.

Kasaba uyushmalari tomonidan qo‘llab-quvvatlangan turli ijtimoiy loyihalar inson qadrining jamiyatda e’tirof etilishiga va uning hayot sifatini oshirishga xizmat qildi. Inson faqat moddiy tomondan emas, balki ma’naviy jihatdan ham qo‘llab-quvvatlangan taqdirdagina o‘zini to‘laqonli shaxs sifatida his etadi. Shu bois kasaba uyushmalari inson qadrini yuksaltirishda moddiy va ma’naviy omillarni uyg‘unlashtirdi.

Kasaba uyushmalari faoliyatida inson qadrini yuksaltirish jarayonida qonun ustuvorligi va adolat prinsiplari alohida ahamiyat kasb etdi. Inson huquqlarini himoya qilishda ular davlat qonunchiligi va xalqaro mehnat standartlariga tayanadi. Bu esa jamiyatda huquqiy madaniyatning rivojlanishiga, insonning o‘z huquq va burchlarini anglab yetishiga xizmat qildi. Agar jamiyatda qonun ustuvor bo‘lsa, inson o‘z qadrini to‘la anglaydi va o‘zini himoyalangan his etadi. Shu ma’noda kasaba uyushmalari inson qadrini huquqiy asosda ta’minlashda muhim vosita bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev, 2025-yil 17-oktabrda kasaba uyushmalari faollari va faxriylari bilan o‘tkazilgan uchrashuvda “Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Xalqaro mehnat tashkiloti standartlarini qabul qilayotgan eng faol davlatlar safidan joy olayotgani dunyo hamjamiyati tomonidan e’tirof etilmoqda. Sakkiz yilda ratifikatsiya qilingan XMT konvensiyalari soni 12 tadan 25 taga yetdi. Bu islohotlarning zamirida inson qadrini ulug‘lash mujassamdir. Aynan inson qadriga e’tibor – bu yutuqlarimiz asosi, desak haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Mustaqillik yillarida kasaba uyushmalari ijtimoiy adolatni ta’minlashda ham keng ko‘lamli faoliyat yuritdi. Mehnat munosabatlarida kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, ish joylarida tenglikni ta’minlash, xodimlar o‘rtasida adolatli taqsimotni yo‘lga qo‘yish kabi vazifalar inson qadrini yuksaltirishning amaliy ifodasi sifatida namoyon bo‘ldi. Chunki faqat qonunchilikda emas, balki hayotiy voqelikda ham insonning qadri ta’minlanishi zarur.

Kasaba uyushmalari inson qadrini yuksaltirishda axborot texnologiyalaridan keng foydalandi. Xodimlar bilan muloqotda onlayn platformalar, raqamli murojaat tizimlari, huquqiy maslahat xizmatlari orqali ularning muammolari tezkor hal etilishiga e’tibor qaratildi. Bu esa

inson qadrining zamonaviy shaklda ta’minlanishi, shaxsning axborot olish va o‘z fikrini bildirish imkoniyatlariga egaligini ko‘rsatdi.

Falsafiy jihatdan baholasak, inson qadrini yuksaltirish — uning tabiiy huquqlarini ta’minlash, shaxsiy erkinliklarini hurmat qilish, ijtimoiy tenglikni kafolatlash va ma’naviy yuksalishi uchun sharoit yaratishdan iborat. Kasaba uyushmalari ushbu vazifalarni amalga oshirishda davlat, jamiyat va fuqarolar o‘rtasidagi bog‘lovchi mexanizm sifatida maydonga chiqdi.

Mustaqillik yillarida mamlakatda amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar inson manfaatlariga qaratilgan bo‘lsa, kasaba uyushmalari ularning amaliyotdagi hayotiy ifodasi sifatida xizmat qildi. Inson qadri bu jarayonda faqat shior sifatida emas, balki kundalik hayotda his etiladigan haqiqatga aylandi.

Kasaba uyushmalari inson qadrini yuksaltirishda jamiyatda ijtimoiy birdamlik muhitini mustahkamlashga ham alohida e’tibor qaratdi. Insonning qadri faqat shaxsiy huquq va imkoniyatlar bilan cheklanmaydi, balki uning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati bilan ham belgilanadi. Shu bois mehnat jamoalarida hamjihatlik, o‘zaro yordam va bir-birini qo‘llab-quvvatlash muhitini yaratish kasaba uyushmalari faoliyatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘ldi.

Mustaqillik yillarida iqtisodiy islohotlar chuqurlashib borgan sari, yangi mehnat munosabatlari va yangi ijtimoiy qatlamlar shakllandi. Bu jarayonda ayrim xodimlar huquq va manfaatlarini himoya qilishda qiyinchiliklarga duch keldilar. Kasaba uyushmalari ularning manfaatlarini himoya qilish, ish beruvchilar bilan muzokaralar olib borish, zarur hollarda qonunchilik asosida jamoaviy kelishuvlarni amalga oshirish orqali inson qadrining hurmat qilinishiga erishdi.

Kasaba uyushmalari ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirishda davlat bilan hamkorlik qildi. Kam ta’minlangan oilalarga ko‘mak berish, nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash, ular uchun ish o‘rinlari yaratish kabi tashabbuslar inson qadrining teng va universal qiymat ekanini namoyon etdi. Falsafiy jihatdan olganda, inson qadri jismoniy yoki ijtimoiy holatiga qarab farqlanmaydi, balki u har qanday sharoitda oliy qiymat hisoblanadi.

O‘zbekistonda birinchi marta 1996-yilda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi, O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi o‘rtasida 1996-1998-yillarda xodimlarning ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy manfaatlarini ta’minlash, ularga mehnat sharoitlarini yaratish, uy-joy, kommunal sharoitlarini yaxshilarga qaratilgan uch tomonlama Bosh kelishuv imzolandi.

Hozirgi kunda ham O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 8,9-boblarida belgilangan moddalar asosida Hukumat, kasaba uyushmalari, ish beruvchilar palatasi o‘rtasida 2026-2028-yillarga mo‘ljallangan Bosh kelishuv, 14 ta hududiy kelishuv, 105 ta tarmoq kelishuvlari, 500 ta hududiy – tarmoq jamoa kelishuvlari, 127461 ta korxona, tashkilot va muassasalardagi ish beruvchilar va kasaba uyushma qo‘mitalari o‘rtasida jamoa shartnomalari ishlab kelmoqda. Jamoa shartnomalari orqali qamrab olingan xodimlar soni 4,3 mln. dan 5 mln. 540 ming nafarga yetdi. Jamoa shartnomalario orqali bir xodimga o‘rta hisobda sarflangan mablag‘ biqdori 2020-yilda 5,0 mln. so‘mni tashkilm etgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 10,0 mln. so‘mga yetdi.

Kasaba uyushmalari inson qadrini yuksaltirishda yana bir muhim yo‘nalish sifatida ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillarini hayotga tatbiq etdi. Ayniqsa, ishchi-xodimlarning manfaatlarini himoya qilish orqali ularning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini mustaxkamladi. Bu jarayonda mehnatkash shaxs sifatida o‘zini jamiyat uchun muhim ahamiyatga ega ekanini his qildi. Falsafiy ma’noda esa bu insonning o‘z qadrini anglashi, uning hayotining mazmunli va maqsadli bo‘lishi uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda kechgan turli iqtisodiy qiyinchiliklar, inflyatsiya, ish o‘rinlari qisqarishi kabi muammolar kasaba uyushmalarining hamkorlikdagi faoliyati orqali

yumshatildi. Bu esa davlatning ijtimoiy siyosatini samarali amalga oshirishda, inson qadrini saqlashda muhim omil bo‘ldi.

Jumladan, 2021-2025- yillar davomida kasaba uyushmalari tomonidan 25647 ta tashkilotda mehnat qonunchiligiga rioya qilish ustidan jamoatchilik nazorati amalga oshirilib, 62117 ta kamchiliklar aniqlandi. Ish beruvchilarga 8546 ta ko‘rsatmalar kiritilib, 464456 nafar shaxslarning huquqiy manfaatlari tiklandi. Mehnat nizolari bo‘yicha sud va boshqa davlat organlarida 1292 marta vakil sifatida ishtirok etildi. 27852 ta murojaatlar kasaba uyushmalari tomonidan ko‘rib chiqilib, 32890 nafar shaxslarning huquqlari tiklandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyovning 2025-yilda 11-noyabr – Kasaba uyushmalari kuni bilan tabriklar ekan, “Yangi O‘zbekiston – avvalo inson hayoti, uning salomatligi, huquq va manfaatlari, qadr-qimmati qonun asosida ishonchli himoya qilinadigan davlat degani. O‘ta muhim taraqqiyot bosqichida yurtimizda mehnat munosabatlarini takomillashtirishda kasaba uyushmalarining davlat idoralari bilan yanada yaqin hamkorlikda ish olib borishlari uchun qo‘shimcha sharoit va imkoniyatlarni yaratib berishga tayyormiz.

Xulosa.

1. O‘zbekistonda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlar natijasida kasaba uyushmalari mehnatkashlarning huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi muhim fuqarolik institutiga aylandi. Ularning inson qadrini ta’minlash, munosib mehnat sharoitlarini yaratish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan faoliyati mamlakatda ijtimoiy adolat va barqaror taraqqiyotni ta’minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

2. Kasaba uyushmalari ijtimoiy davlatda zaruriy hodisadir. U mehnatkashlar, turli sinflar, qatlamlar va tabaqalar o‘rtasidagi munosabatlarni mo‘tadil holatini ta’minlaydi. Davlat o‘z fuqarolarining munosib turmush darajasini ta’minlashi, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarga alohida g‘amxo‘rlik ko‘rsatmog‘i, ta’lim, sog‘liqni saqlash, dam olish va odamlarning kundalik turmushi muammolariga katta e’tibor qaratmog‘i lozim. Bunday mamlakatda inson eng oliy qadriyat sifatida tan olinadi.

3. Inson qadrini yuksaltirishda ijtimoiy davlat mexanizmlarining regulyativ funksiyasini rivojlantirishda mavjud imkoniyatlardan, jumladan, Kasaba uyushmalarini yanada faollashtirish orqali erishish Yangi O‘zbekiston sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Kasaba uyushmalari negizida inson qadrini yuksaltirishda shaxsga nisbatan doimiy o‘zgaruvchan jarayon sifatida, “o‘rgatish”, “maslahat berish”, “yo‘naltirish”, “o‘rganish” kabi munosabatlar tizimida virtual va an’anaviy tarzda amalga oshib, o‘zida yangi yondashuvlarni shakllantirdi.

5. Inson qadrini poymol qilish nafaqat uni hayoti balki, taraqqiyotga, ijtimoiy-iqtisodiy xavf sifatida qashshoqlik va jinoyatchilikning oshishiga, shuningdek, ekologik muammolarning chuqurlashishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning respublika kasaba uyushmalari faollari va faxriylari bilan o‘tkazilgan uchrashuvda so‘zlagan nutqi”, 2025-yil 17-oktabr, Toshkent.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 11-noyabr -O‘zbekiston kasaba uyushmalari kun va kasaba uyushmalarining 120 yilligi munosabati bilan tabrigi, 2025 yil 11- noyabr, Toshkent.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Mehnat kodeksi”, 2022- yil, Toshkent.

4. Mirziyoev Sh, “Yangi O‘zbekiston. Taraqqiyot strategiyasi” kitobi, 2023-yil, Toshkent

5. Rafiqov Q, “Vatan va millat qayg‘usi” kitobi, 2020-yil, Toshkent

6. Huseynova A. Sharq mutafakkirlari dunyoqarashida umuminsoniy qadriyatlar: monografiya. – Toshkent: 2017.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA O‘ZBEKISTONDA DAVLAT VA DIN MUNOSABATLARINING TRANSFORMATSIYASI

Абдуллаева Мадинахон Эркинжон қизи,
Андижон давлат университети
Ҳуқуқ ва маънавият асослари кафедраси ўқитувчиси
https://orcid.org/0009-0008-7854-0492

Annotatsiya. *Maqolada globallashuv sharoitida O‘zbekistonda davlat va din munosabatlarining transformatsiyasi, diniy siyosatning modernizatsiyasi, konfessiyalararo bag‘rikenglik, raqamli diniy makon, ma’rifiy yondashuv hamda milliy va xalqaro tamoyillar uyg‘unligi ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *globallashuv, davlat, din, transformatsiya, bag‘rikenglik, ma’rifat, sekulyarizatsiya, konfessiyalararo muloqot, diniy siyosat, raqamli makon, ma’naviyat, modernizatsiya, ekstremizm, jamiyat, integratsiya.*

Аннотация. *В статье с социально-философской точки зрения анализируется трансформация государственно-религиозных отношений в Узбекистане в условиях глобализации. Рассматриваются модернизация религиозной политики, межконфессиональная толерантность, цифровое религиозное пространство, просветительский подход, а также гармонизация национальных и международных принципов.*

Ключевые слова: *глобализация, государство, религия, трансформация, толерантность, просвещение, секуляризация, межконфессиональный диалог, религиозная политика, цифровое пространство, духовность, модернизация, экстремизм, общество, интеграция.*

Abstract. *The article analyzes the transformation of state–religion relations in Uzbekistan under the conditions of globalization from a socio-philosophical perspective. It examines the modernization of religious policy, interfaith tolerance, the digital religious space, educational approaches, as well as the harmony between national and international principles.*

Keywords: *globalization, state, religion, transformation, tolerance, enlightenment, secularization, interfaith dialogue, religious policy, digital space, spirituality, modernization, extremism, society, integration.*

Globallashuv jarayonlari XXI asrda jamiyat taraqqiyotining barcha sohalari qatori davlat va din munosabatlari tizimiga ham chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, xalqaro integratsiya jarayonlarining kuchayishi, transmilliy madaniy va diniy ta’sirlarning kengayishi davlatning diniy sohadagi siyosatini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Bu holat O‘zbekiston misolida ham yaqqol namoyon bo‘lib, mamlakatda davlat va din munosabatlarining mazmuni, institutsional shakli hamda huquqiy mexanizmlarida yangi transformatsiya jarayonlarini yuzaga keltirdi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekistonda diniy sohada asosiy e’tibor jamiyat barqarorligini saqlash va diniy ekstremizmning oldini olishga qaratilgan bo‘lsa, keyingi bosqichlarda, ayniqsa “Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasi doirasida diniy erkinlik, bag‘rikenglik va konfessiyalararo muloqotni rivojlantirish ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Bu o‘zgarishlar ko‘p jihatdan globallashuv ta’sirida shakllangan xalqaro huquqiy va siyosiy tendensiyalar bilan bog‘liqdir. Zero, bugungi kunda har qanday davlat xalqaro hamjamiyat bilan muloqot jarayonida inson huquqlari, vijdon erkinligi va diniy bag‘rikenglik sohasidagi umume’tirof etilgan tamoyillarni inobatga olishga majbur bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Aynan shu nuqtayi nazardan kelgusida ham millatlararo totuvlik va hamjihatlikni mustahkamlash O‘zbekistonda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi. Yurtimizda hukm

surayotgan diniy bag‘rikenglik muhiti tufayli mamlakatimizda 2 ming 200 dan ortiq turli diniy tashkilotlar faoliyat yuritmoqda” [1: 46-47].

Mazkur yondashuv davlat va diniy tashkilotlar munosabatlarining yangi modelini shakllantirishga xizmat qildi. Xususan, diniy tashkilotlarni ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonlarining soddalashtirilishi, diniy ta’lim muassasalari faoliyatining kengayishi hamda xalqaro diniy-ma’rifiy forumlarning tashkil etilishi mamlakatda diniy sohada ochiqlik va muloqot muhitini mustahkamladi.

Globallashuvning eng muhim ta’sirlaridan biri axborot makoni orqali namoyon bo‘lmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali diniy g‘oyalar, qarashlar va mafkuraviy oqimlar milliy chegaralardan tashqariga chiqib ketdi. Bu esa bir tomondan diniy bilim va ma’rifiy resurslarga keng imkoniyat yaratsa, ikkinchi tomondan radikal g‘oyalarning tarqalish xavfini ham kuchaytirdi. Shu sababli O‘zbekistonda davlatning diniy siyosatini liberallashtirish bilan bir vaqtda axborot xavfsizligini ta’minlash va destruktiv diniy oqimlarga qarshi ma’rifiy kurash mexanizmlari ham takomillashtirilmoqda.

Tadqiqotchi José Casanova globallashuv va din munosabatlarini tahlil qilib, quyidagicha fikr bildirgan: “Globallashuv sharoitida din xususiy sohadan chiqib, ijtimoiy va siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylanmoqda” [2: 110].

Mazkur fikr O‘zbekistondagi diniy tashkilotlarning ijtimoiy hayotdagi roli ortib borayotgani bilan hamohangdir. Bugungi kunda diniy tashkilotlar nafaqat ibodat maskanlari sifatida, balki ma’naviy tarbiya, ijtimoiy yordam, yoshlar bilan ishlash va jamoatchilik diplomatiyasi sohalarida ham faol ishtirok etmoqda.

Shu bilan birga, globallashuv jarayonlari milliy davlatchilik va diniy qadriyatlar o‘rtasida muvozanatni saqlash masalasini ham dolzarblashtirmoqda. O‘zbekiston o‘zining milliy-madaniy va tarixiy an’analarini saqlagan holda, davlat va din munosabatlarida dunyoviylik tamoyiliga tayanadi. Konstitutsiyaga muvofiq, diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan bo‘lsa-da, davlat ularning qonuniy faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib bermoqda. Bu esa O‘zbekiston modelida davlat va din munosabatlarining hamkorlikka asoslangan, biroq institutsional jihatdan mustaqil shaklini shakllantirayotganini ko‘rsatadi.

Globallashuv sharoitida O‘zbekistonda davlat va din munosabatlarining transformatsiyasi jamiyat ma’naviy yangilanishi, modernizatsiya jarayonlari va milliy qadriyatlarning qayta talqin qilinishi bilan uzviy bog‘liq holda kechmoqda. Zamonaviy bosqichda diniy sohadagi islohotlar faqat huquqiy yoki institutsional o‘zgarishlar bilan cheklanib qolmasdan, jamiyat ma’naviy taraqqiyoti va demokratik yangilanish jarayonlari bilan ham chambarchas aloqadorlikda namoyon bo‘lmoqda. Tadqiqotlarda ta’kidlanganidek, globallashuv sharoitida demokratiya, modernizatsiya va innovatsiya jarayonlarini milliy ma’naviyat bilan uyg‘unlashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki jamiyatning ma’naviy rivojlanish darajasi davlat va diniy tashkilotlar munosabatlarining barqarorligi hamda ijtimoiy hamjihatlikni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonda davlat va din munosabatlarining yangi modeli milliy ma’naviy qadriyatlar, bag‘rikenglik tamoyillari va zamonaviy demokratik yondashuvlar uyg‘unligi asosida shakllanib bormoqda [3].

Globallashuv jarayonlari O‘zbekistonda davlat va din munosabatlarining mazmuni va shaklini sezilarli darajada o‘zgartirmoqda. Bu transformatsiya bir tomondan diniy erkinlik va ochiqlikning kengayishiga xizmat qilayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan milliy xavfsizlik, ma’naviy barqarorlik va ijtimoiy hamjihatlikni ta’minlash vazifalarini ham kuchaytirmoqda. Natijada O‘zbekistonda davlat va din munosabatlarining milliy va xalqaro tamoyillar uyg‘unligiga asoslangan yangi modeli shakllanmoqda.

Yangi O‘zbekiston sharoitida davlatning diniy siyosatini transformatsiya qilish jarayoni mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli siyosiy, ijtimoiy va ma’naviy islohotlar bilan uzviy bog‘liqdir. XXI asrning ikkinchi o‘n yilligidan boshlab O‘zbekistonda davlat boshqaruvini liberallashtirish, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, inson huquq va erkinliklarini ta’minlash hamda xalqaro hamjamiyat bilan ochiq muloqot siyosati diniy sohada ham yangi

yondashuvlarni shakllantirdi. Natijada davlatning din sohasidagi siyosati xavfsizlikka yo‘naltirilgan yopiq modeldan bosqichma-bosqich ochiqlik, bag‘rikenglik va hamkorlikka asoslangan modelga o‘ta boshladi.

Mazkur transformatsiyaga ta’sir ko‘rsatgan muhim omillardan biri jamiyat ma’naviy ehtiyojlari va ijtimoiy ongdagi o‘zgarishlar hisoblanadi. Globallashuv va axborotlashuv jarayonlari natijasida aholining, ayniqsa yosh avlodning diniy bilim va ma’naviy qadriyatlarga bo‘lgan qiziqishi ortib bormoqda. Bu holat davlatdan diniy sohani faqat ma’muriy nazorat obyekti sifatida emas, balki jamiyat ma’naviy taraqqiyoti, axloqiy tarbiya va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim institut sifatida baholashni talab etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, mamlakatda diniy tashkilotlar bilan muloqotni kuchaytirish, diniy ma’rifatni rivojlantirish va jamiyatda sog‘lom diniy muhitni shakllantirishga qaratilgan islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, ekstremizm va radikalizmga qarshi kurashda kuch ishlatish usullaridan ko‘ra ma’rifiy yondashuv, diniy savodxonlik va milliy-ma’naviy qadriyatlarni mustahkamlashga ustuvor ahamiyat berilayotgani davlat diniy siyosatining yangi bosqichga o‘tayotganini ko‘rsatadi.

Davlat diniy siyosatining transformatsiyasiga ta’sir qilgan yana bir muhim omil — xalqaro siyosiy muhit va global huquqiy tendensiyalardir. Bugungi kunda inson huquqlari, vijdon erkinligi va diniy bag‘rikenglik xalqaro munosabatlarning muhim mezonlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini oshirish, ochiq va demokratik davlat sifatida namoyon bo‘lishga intilishi diniy sohadagi siyosatni ham modernizatsiya qilishni taqozo etdi. Shu bois mamlakatda diniy erkinlik sohasidagi qonunchilik takomillashtirildi, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik kuchaytirildi va diniy tashkilotlarning qonuniy faoliyati uchun kengroq imkoniyatlar yaratildi.

Globallashuv jarayonlari jamiyat hayotining barcha sohalari qatori diniy tashkilotlarning ijtimoiy-madaniy faoliyatiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, axborot texnologiyalarining rivojlanishi, madaniyatlararo aloqalarning kengayishi va transmilliy kommunikatsiya vositalarining ommalashuvi diniy institutlarning an’anaviy vazifalari va ijtimoiy rolini qayta shakllantirmoqda. Ilgari diniy tashkilotlar asosan ibodat va diniy marosimlarni amalga oshirish bilan cheklangan bo‘lsa, bugungi kunda ular ma’naviy tarbiya, ijtimoiy himoya, yoshlar siyosati, madaniy muloqot va jamoatchilik diplomatiyasi kabi sohalarda ham muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Zamonaviy globallashuv sharoitida insonning ma’naviy ehtiyojlari va axloqiy tayanchlarga bo‘lgan talabi ortib bormoqda. Tezkor axborot almashinuvi, ommaviy madaniyat ta’siri va turli mafkuraviy oqimlar fonida diniy tashkilotlar jamiyatda ma’naviy barqarorlikni ta’minlovchi institut sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, diniy tashkilotlar nafaqat diniy qadriyatlarni saqlash, balki milliy madaniyat va ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlash vazifasini ham bajarmoqda.

Émile Durkheim dinning ijtimoiy funksiyasi haqida shunday yozgan: “Din — jamiyatning axloqiy birligini ta’minlovchi ijtimoiy institutdir” [4: 82]. Mazkur yondashuv globallashuv sharoitida yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki bugungi jamiyatda ijtimoiy individualizm kuchayib borayotgan bir paytda diniy tashkilotlar jamoaviylik, hamjihatlik va ma’naviy birlikni saqlashga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston misolida ham diniy tashkilotlarning ijtimoiy-madaniy hayotdagi roli sezilarli darajada kengaymoqda. Ayniqsa, “Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasi doirasida diniy bag‘rikenglik, ma’rifiy islom va millatlararo totuvlikni mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Natijada diniy tashkilotlar aholining ma’naviy savodxonligini oshirish, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ijtimoiy xayriya ishlarini tashkil etish hamda jamiyatda bag‘rikenglik muhitini shakllantirishda faol ishtirok etmoqda.

Globallashuv diniy tashkilotlarning faoliyat shakllarini ham o‘zgartirmoqda. Internet va raqamli kommunikatsiyalar orqali diniy tashkilotlar o‘z auditoriyasini kengaytirib, onlayn

ma’rifiy faoliyat, virtual muloqot va raqamli diniy platformalardan foydalanmoqda. Bu jarayon diniy bilimlarning ommalashuviga xizmat qilayotgan bo‘lsa-da, ayni vaqtda turli radikal va destruktiv g‘oyalarning tarqalish xavfini ham kuchaytirmoqda. Shu bois diniy tashkilotlar zimmasiga sog‘lom diniy tafakkurni shakllantirish va yoshlarni axborot xatarlaridan muhofaza qilish vazifasi ham yuklanmoqda.

Globallashuv va raqamli texnologiyalar taraqqiyoti diniy tashkilotlarning faoliyat shakllari va ijtimoiy ta’sir mexanizmlarini sezilarli darajada o‘zgartirmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali diniy tashkilotlar o‘z auditoriyasini kengaytirib, virtual muloqot, onlayn ma’rifiy faoliyat va raqamli kommunikatsiya vositalaridan faol foydalanmoqda. Bu jarayon diniy g‘oya va qadriyatlarning keng tarqalishiga xizmat qilayotgan bo‘lsa-da, ayni vaqtda axborot makonida turli destruktiv va radikal qarashlarning tarqalish xavfini ham kuchaytirmoqda. Axborotlashgan jamiyat nazariyasini tahlil qilgan Manuel Castells ta’kidlaganidek: “Axborot tarmoqlari zamonaviy jamiyatda ijtimoiy institutlarning tabiatini o‘zgartirmoqda”. Mazkur yondashuv raqamli tarmoqlar zamonaviy ijtimoiy institutlarning faoliyat tabiati va kommunikatsiya shakllarini o‘zgartirib borayotganini ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, raqamli makon diniy tashkilotlarning jamoatchilik bilan munosabatlari, ta’sir doirasi va ma’rifiy faoliyatini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Globallashuv davrida O‘zbekistonda davlat va din munosabatlarining istiqbolli rivojlanish tendensiyalari, avvalo, mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar, axborotlashuv jarayonlari, fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi va xalqaro huquqiy integratsiya bilan bevosita bog‘liq holda shakllanmoqda. Zamonaviy bosqichda davlat va diniy tashkilotlar munosabatlari an’anaviy “nazorat” modeli doirasidan chiqib, hamkorlik, ma’rifiy muloqot va ijtimoiy sheriklikka asoslangan yangi formatga o‘tish tendensiyasini namoyon etmoqda.

Globallashuv jarayonlari raqamli makonning kengayishiga ham olib kelmoqda. Shu sababli istiqbolda “raqamli din” va onlayn diniy faoliyat davlat va diniy tashkilotlar munosabatlarining yangi yo‘nalishiga aylanishi mumkin. Shu bilan birga, O‘zbekistonda konfessiyalararo bag‘rikenglik va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish ham istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Mamlakatda turli din va millat vakillari o‘rtasida totuvlikni saqlash davlat siyosatining ustuvor vazifasi bo‘lib qolmoqda. Global ziddiyatlar va diniy qarama-qarshiliklar kuchayib borayotgan sharoitda O‘zbekistonning bag‘rikenglikka asoslangan milliy modeli xalqaro ahamiyat kasb etishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv davrida O‘zbekistonda davlat va din munosabatlarining istiqbolli rivojlanish tendensiyalari ma’rifiy yondashuvning kuchayishi, ijtimoiy sheriklik mexanizmlarining rivojlanishi, raqamli diniy makonning shakllanishi, konfessiyalararo bag‘rikenglikning mustahkamlanishi va huquqiy asoslarni modernizatsiya qilish jarayonlari bilan xarakterlanadi. Bu tendensiyalar O‘zbekistonda davlat va din munosabatlarining milliy qadriyatlar va xalqaro tamoyillar uyg‘unligiga asoslangan barqaror modelini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 592 b.
2. Casanova J. Public Religions in the Modern World. – Chicago: University of Chicago Press, 1994. – 330 p.
3. Юлдашева Ф. Глобаллашув шароитида миллий маънавиятни ривожлантиришнинг ижтимоий-фалсафий хусусиятлари. Фалсафа фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2022. – 48 б.
4. Durkheim E. The Elementary Forms of Religious Life. – New York: Free Press, 1995. – 464 p.

ILK ISLOM DAVRINI O‘RGANISHGA OID MANBALAR TAHLILI

Qushbayev Farrux Quchqaraliyevich
Qo’qon davlat universiteti
Islomshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ilk islom davrini o‘rganishga oid asosiy manbalar, xususan, siyrat ilmiga doir tarixiy asarlar tahlil qilinadi. Unda Makka davridagi diniy-ijtimoiy jarayonlar, Payg‘ambar (s.a.v.) hayoti va faoliyatiga oid ma’lumotlarning tarixiy manbalarda yoritilishi hamda siyrat ilmining shakllanish xususiyatlari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *islom tarixi, Qur’on, yakkaxudolik, Payg‘ambar siyrati, siyrat ilmi, hadis, tarixiy manba, naqliy dalil, Makka davri, manbashunoslik.*

Аннотация. *В данной статье анализируются основные источники, связанные с изучением раннего периода ислама, в частности исторические труды, относящиеся к науке сира. В ней рассматриваются религиозно-социальные процессы мекканского периода, освещение сведений о жизни и деятельности Пророка (с.а.в.) в исторических источниках, а также особенности формирования науки сира.*

Ключевые слова: *история ислама, Коран, единобожие, сира Пророка, наука сира, хадис, исторический источник, передаваемое доказательство, мекканский период, источниковедение.*

Abstract. *This article analyzes the main sources related to the study of the early Islamic period, particularly historical works concerning the science of sirah. It examines the religious and social processes of the Meccan period, the representation of information about the life and activities of the Prophet (peace be upon him) in historical sources, and the specific features of the formation of the science of sirah.*

Keywords: *history of Islam, Qur’an, monotheism, Prophetic sirah, science of sirah, hadith, historical source, transmitted evidence, Meccan period, source studies.*

Insoniyat o‘zi bosib o‘tgan tarixiy yo‘lni o‘rganishga doimiy tarzda intilib keladi. Biroq turli siyosiy, iqtisodiy va g‘oyaviy omillar ta’sirida tarixiy jarayonlarni talqin qilishda xolislik mezonlaridan chekinish holatlari ham uchrab turadi. Xolislikka yetarli darajada asoslanmagan tarixiy ma’lumotlar esa voqelikni biryoqlama anglashga olib kelishi mumkin. Shu jihatdan obyektiv yondashuv asosida olib borilgan tadqiqotlar kelgusi avlodlar uchun muhim ilmiy tajriba vazifasini bajaradi hamda vaqt o‘tishi bilan shakllangan yangi tushuncha va talqinlarni to‘g‘ri anglashga xizmat qiladi.

Bundan XIV asr avval Makkada shakllangan islom dini bugungi kunda jahon dinlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Islom dunyosida yuzaga kelgan ilmiy va madaniy meros insoniyat tarixida alohida ahamiyatga ega. Shu bilan birga, islom ta’limoti, tarixi, an’analari hamda Payg‘ambar (s.a.v.) shaxsi va faoliyatiga oid ayrim masalalar ilmiy doiralarda turlicha yondashuvlar asosida talqin qilinadi. Buning sabablari qatorida tarixiy manbalarning xilma-xilligi, ularga yondashuv usullarining farqlanishi va diniy-tarixiy voqealarni talqin qilishdagi metodologik tafovutlarni ko‘rsatish mumkin. Shu bois ilk islom davrini o‘rganishda dastlabki manbalar, ularning shakllanish jarayoni va ilmiy qiymatini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Ma’lumki, islom ta’limoti Qur’on va Payg‘ambar (s.a.v.) sunnatiga asoslanadi. Ilk islom davri bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, ular hajmi, manbaviy asoslari va metodologik yondashuvlari jihatidan bir-biridan farqlanadi. Xususan, musulmon mualliflariga mansub asarlar bilan musulmon bo‘lmagan tadqiqotchilar tomonidan yaratilgan ilmiy ishlar o‘rtasida manbaga munosabat, talqin usuli va tarixiy hodisalarni baholash mezonlari jihatidan tafovutlar mavjud.

E’tiborli jihati shundaki, musulmon Sharqi mualliflari islom tarixini, xususan, Payg‘ambar (s.a.v.) yashab o‘tgan ilk davrni o‘rganishda naqliy dalillarni asosiy manba sifatida qabul qilganlar va o‘zlari jamlagan ma’lumotlarni aynan shu rivoyatlar asosida tartibga solganlar.

Payg‘ambar (s.a.v.) hayotiga oid mashhur “as-Siyra an-nabaviya” (السيرة النبوية – Nabaviy siyrat) asari muallifi, arab tarixchisi Ibn Hishom (vaf. 218/833) Madinada qaror topgan musulmonlar va makkaliklar o‘rtasida yuz bergan Badr voqeasi haqida yozishdan avval o‘zidan oldin siyrat bo‘yicha ma’lumotlarni jamlagan Ibn Ishoqning (vaf. 151/768) ushbu hodisa haqidagi rivoyatlarini keltiradi: “Menga Muhammad ibn Muslim Zuhri, Osim ibn Umar ibn Qatoda, Abdulloh ibn Abu Bakr, Yazid ibn Rummon, Urva ibn Zubayr va boshqa olimlardan, ular esa Ibn Abbosdan xabar qildi. Ularning har biri ma’lum bir hadisni rivoyat qilgan. Ulardan hadislarni jamlab chiqib, Badr voqeasini unga ko‘ra naql etdim” [4].

Bundan ko‘rinadiki, o‘rta asr mualliflari muayyan tarixiy voqeani yoritishda, avvalo, o‘zlaridan oldingi manbalarda mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni jamlagan, ularni o‘zaro solishtirgan va keyin o‘z asarlariga kiritganlar. Bu holat ilk islom tarixini o‘rganishda rivoyatlarni jamlash, tartiblash va tarixiy voqelik bilan bog‘lash muhim metodologik tamoyillardan biri bo‘lganini ko‘rsatadi.

Xuddi shunday yondashuv yana bir arab tarixchisi Muhammad ibn Umar Voqidiy (vaf. 207/823) asarlarida ham kuzatiladi. U Uhud voqeasi haqida yozar ekan, quyidagi ma’lumotni keltiradi: “Menga Muhammad ibn Abdulloh ibn Muslim, Muso ibn Muhammad ibn Ibrohim ibn Horis, Abdulloh ibn Ja’far, ... Abdurrahmon ibn Abu Zinod Abu Ma’sur va men ismlarini zikr qilmagan kishilardan rivoyat qilindi. Ularning barchasi menga ushbu mavzu bilan bog‘liq hadislarning bir qismini aytishdi. Ularning ayrimlari boshqalariga nisbatan aniqroq edi. Men ularning barchasini bir joyga jamladim”. Mazkur misol siyrat mualliflari tarixiy voqealarni bayon qilishda turli rivoyatlarni qiyosiy asosda jamlashga intilganini ko‘rsatadi.

Demak, ilk islom tarixini, xususan, siyrat ilmini o‘rganishda hadis rivoyatlari muhim manbaviy asoslardan biri sifatida qo‘llanilgan. Siyrat mualliflari muayyan voqeani yoritishda mavzuga oid bir nechta rivoyatlarni jamlab, ularning sanadlari va mazmuniy aloqadorligini hisobga olgan holda umumiy tarixiy manzarani tiklashga intilganlar. Bunda hadis matnlarini mexanik tarzda birlashtirish emas, balki ularning xronologik, mavzuviy va voqeaviy aloqadorligini aniqlash asosiy metodik mezon sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, ayrim hollarda bitta hadis ham siyrat doirasidagi muayyan voqeani yoritishda mustaqil tarixiy manba vazifasini bajarishi mumkin.

Ibn Hishom Uhud voqeasi haqidagi ma’lumotlarni bayon etar ekan, “Oli Imron” surasidagi “Alloh yo‘lida o‘ldirilganlarni aslo o‘lik deb hisoblamang” mazmunidagi oyat bilan bog‘liq rivoyatni keltiradi. Mazkur rivoyatda Jobir ibn Abdulloh orqali Uhud voqeasi, shahidlik tushunchasi va ushbu tarixiy hodisaning musulmonlar ongidagi o‘rni bayon qilinadi. Bu misol Ibn Hishomning siyrat voqealarini faqat tarixiy xabar sifatida emas, balki Qur’on oyatlari va hadis rivoyatlari bilan bog‘liq holda izohlashga intilganini ko‘rsatadi. Shu jihatdan siyrat manbalarida tarixiy voqea, oyat sharhi va hadis rivoyati o‘zaro aloqador tarzda beriladi.

Shuningdek, Ibn Hishom “as-Siyra an-nabaviya” asarida Handaq g‘azoti haqidagi bobda Salmon Forsiyning handaq qazish bo‘yicha bergan maslahatini keltiradi. Bu voqea doirasida muhojir va ansorlar o‘rtasida Salmonning qaysi jamoaga mansubligi masalasida yuzaga kelgan munozara ham bayon qilinadi. Muallif ushbu masalada Payg‘ambar (s.a.v.)dan rivoyat qilingan “Salmon bizdan — ahli baytdandir” mazmunidagi hadisni keltirib, voqeaning ijtimoiy va ma’naviy talqinini ochib beradi. Bu holat siyrat manbalarida hadislarning nafaqat voqeani tasdiqlovchi, balki uning mazmunini sharhlovchi manba sifatida ham ishlatilganini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi misollar asosida aytish mumkinki, Ibn Hishom hadislarni joylashtirishda ularning voqeaviy, xronologik va mazmuniy aloqadorligiga e’tibor qaratgan. Agar muayyan hodisa qisqa rivoyat shaklida bayon etilib, boshqa rivoyatlar bilan sabab-oqibat jihatidan bevosita bog‘lanmagan bo‘lsa, bunday hollarda rivoyat mustaqil tarzda keltirilgan. Ammo voqealar o‘zaro bog‘liq va umumiy tarixiy jarayonni yoritishga xizmat qilgan hollarda siyrat

mualliflari ularni bir mavzu doirasida jamlab berishni ma’qul ko‘rganlar. Shuningdek, Qur’on oyatlarining nozil bo‘lish sabablari yoki Payg‘ambar (s.a.v.)ning muayyan voqeaga oid izohlari siyrat mavzusiga aloqador bo‘lsa, ular asar tarkibiga kiritilgan.

Shu o‘rinda “siyrat” so‘zining mazmuniga ham qisqacha to‘xtalish zarur. “Siyrat” (السيرة) arab tilida “yo‘l”, “tutgan yo‘l”, “holat”, “turmush tarzi” kabi ma’nolarni anglatadi. Islom tarixshunosligida esa bu atama, avvalo, Payg‘ambar (s.a.v.)ning hayoti, nasl-nasabi, faoliyati va tarixiy davriga oid ma’lumotlar majmuasini ifodalash uchun qo‘llanilgan. Ibn Shihob Zuhriyga oid rivoyatlarda “siyrat” atamasining dastlab nasab va tarixiy tarjimayi hol bilan bog‘liq holda ishlatilgani ko‘rinadi. Keyinchalik esa bu tushuncha faqat Payg‘ambar (s.a.v.) hayotiga oid ma’lumotlar bilan cheklanmay, umumiy biografik asarlar nomida ham qo‘llanila boshlagan.

“Siyrat” atamasining mazmunidan kelib chiqib aytish mumkinki, u dastlab Payg‘ambar (s.a.v.)ning hayot yo‘li, amaliy faoliyati va sahobalar tomonidan davom ettirilgan diniy-ijtimoiy tajriba ma’nosida ishlatilgan. Hijriy birinchi asrning o‘rtalaridan boshlab esa siyrat Payg‘ambar (s.a.v.) biografiyasini, ilk islom davri voqealarini va bu jarayonga oid rivoyatlarni jamlovchi alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllana boshlagan. Shu bois siyrat manbalarini o‘rganish ilk islom tarixini ilmiy-manbashunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Islom ensiklopediyasi / Z.Husniddinov tahriri ostida. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2004. – 357 b.

2. Ибн Ҳишом, Абдулмалик. Ас-сийра ан-набавийя. – Миср: Дор ас-саҳоба лит-турос, 1990. – 381 б.

3. Yulius Vellxauzen. Arabskiy xalifat: zolotoy vek islama. – Litres, 2017. – 413 b. ISBN: 9785040922727.

4. Giorgio Levi Della Vida. “Sîre” // İslâm Ansiklopedisi. – Ankara: Kültür ve Turizm Bakanlığı, 1966. – T. 10. – B. 699.

IMOM RABBONIYNING AXLOQIY G‘OYALARI

Muradov Sanjar Aslonovich,
Buxoro davlat texnika universiteti dotsenti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Ahmad Sirhindiyning axloqiy g‘oyalari tahlil etilgan. Imom Rabboniy axloqiy kategoriyalarni bo‘lgan shukronalik, rostgo‘ylik, vafodorlik, adolat va mehr-oqibat kabi fazilatlarni nafaqat shaxsiy kamolotning, balki jamiyat taraqqiyotining ham muhim omillari sifatida baholaydi.*
Kalit so‘zlar: *Inson, jamiyat, sabr, fazilat, adolat.*

Аннотация. *В данной статье анализируются нравственные идеи Ахмада Сирхинди. Имам Раббани рассматривает такие нравственные категории, как благодарность, правдивость, верность, справедливость и милосердие не только как важные факторы личностного совершенствования, но и как значимые условия общественного развития.*
Ключевые слова: *человек, общество, терпение, добродетель, справедливость.*

Abstract. *This article analyzes the ethical ideas of Ahmad Sirhindi. Imam Rabbani regards such moral categories as gratitude, truthfulness, loyalty, justice, and compassion not only as important factors of individual perfection but also as essential elements of social development.*
Keywords: *human being, society, patience, virtue, justice.*

Imom Rabboniy (1564–1624) islom tafakkuri tarixida yuksak o‘rin tutgan mutafakkir, tasavvuf va axloq ilmining yirik namoyandalaridan biridir. Uning axloqiy qarashlari insonning ma’naviy kamoloti, qalb pokligi va jamiyatdagi odob-axloq me’yorlarini mustahkamlashga qaratilgan.

Imom Rabboniy ta’limotida axloqning asosiy manbai Allohga bo‘lgan muhabbat va taqvodir. Uning fikricha, insonning barcha amallari ezgulik, halollik va adolat tamoyillariga asoslanishi kerak. Taqvo insonni gunohlardan saqlab, ma’naviy yuksalishga olib boradi.

Mutafakkir kamtarlikni eng muhim fazilatlardan biri sifatida ulug‘laydi. U kibrlanish, manmanlik va o‘zini boshqalardan ustun qo‘yishni inson kamolotiga to‘sqinlik qiluvchi illatlar deb hisoblaydi. Kamtar inson jamiyatda hurmat qozonadi, odamlar bilan samimiy munosabat o‘rnatadi va o‘z nafsini tarbiyalay oladi.

Imom Rabboniy sabr va shukronalik fazilatlariga ham alohida e’tibor beradi. Uning ta’kidlashicha, inson hayotdagi qiyinchiliklarga sabr bilan bardosh berishi, ne’matlar uchun esa doimo shukr qilishi lozim. Sabr va shukr inson ruhiyatini mustahkamlaydi hamda uni ma’naviy jihatdan yetuklikka olib boradi.

Shuningdek, Imom Rabboniy rostgo‘ylik, vafodorlik, adolat va mehr-oqibat kabi fazilatlarni nafaqat shaxsiy kamolotning, balki jamiyat taraqqiyotining ham muhim omillari sifatida baholaydi. Uning ta’limotida rostgo‘ylik insonning eng ulug‘ axloqiy sifatlaridan biri bo‘lib, yolg‘onchilik va ikkiyuzlamachilik jamiyatdagi ishonch muhitini yemiruvchi illatlar sifatida qoralangan. Mutafakkirning fikricha, inson har qanday vaziyatda ham haqiqatni ustun qo‘yishi, o‘z so‘zi va amali o‘rtasida uyg‘unlikni saqlashi lozim. Chunki rostgo‘ylik insonning obro‘-e’tiborini oshiradi, odamlar o‘rtasida ishonch va hurmatni mustahkamlaydi.

Vafodorlik esa Imom Rabboniy nazarida insonning o‘z burchi, va’dasi va mas’uliyatiga sodiq qolishida namoyon bo‘ladi. U insonlarni oila, do‘stlar, ustozlar va jamiyat oldidagi majburiyatlarini sidqidildan bajarishga chaqiradi. Vafodorlik nafaqat shaxslararo munosabatlarni mustahkamlaydi, balki jamiyatda barqarorlik va birdamlikning qaror topishiga xizmat qiladi. Va’dasiga sodiq, mas’uliyatli insonlar ko‘p bo‘lgan jamiyatda o‘zaro ishonch kuchayadi va ijtimoiy taraqqiyot uchun qulay muhit vujudga keladi.

Imom Rabboniy adolatni barcha ezgu fazilatlarning mezoni deb hisoblaydi. Uning fikricha, adolat jamiyatning tinchligi va ravnaqini ta’minlovchi asosiy tamoyildir. Adolatli inson boshqalarning huquqlarini hurmat qiladi, har qanday masalada xolis va haqqoniy qaror

chiqarishga intiladi. Mutafakkir zulm, kamsitish va nohaqlikni insoniyat taraqqiyotiga to‘sqinlik qiluvchi salbiy holatlar sifatida baholab, har bir kishini adolatli bo‘lishga undaydi. Adolat hukm surgan jamiyatda fuqarolar o‘zlarini himoyalangan his qiladilar, bu esa ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotning muhim sharti hisoblanadi.

Mehr-oqibat va insonparvarlik ham Imom Rabboniy axloqiy qarashlarining markaziy g‘oyalaridan biridir. U insonlarni bir-biriga mehr ko‘rsatishga, ehtiyojmandlarga yordam berishga, zaif va nochor kishilarni qo‘llab-quvvatlashga da’vat etadi. Mutafakkirning ta’kidlashicha, insonning haqiqiy ulug‘ligi uning boshqalarga qilgan yaxshiliklari, saxovati va rahm-shafqatida namoyon bo‘ladi. Mehr-oqibat odamlar o‘rtasidagi dushmanlik va adovatni kamaytirib, o‘zaro hamjihatlik va totuvlikni kuchaytiradi.

Shu bilan birga, Imom Rabboniy insonlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat va hamkorlikni jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida ko‘rsatadi. Uning fikricha, har bir inson boshqalarning qadr-qimmatini e’tirof etishi, ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi va jamiyat manfaatlari yo‘lida hamkorlik qilishi zarur. O‘zaro hurmat va hamjihatlik hukm surgan muhitda nizolar kamayadi, tinchlik va barqarorlik mustahkamlanadi. Shu bois Imom Rabboniy har bir kishini yaxshilik qilishga, adolatli bo‘lishga, boshqalarning manfaatlarini ham hisobga olishga hamda yuksak insoniy fazilatlar asosida yashashga da’vat etadi. Uning bu g‘oyalari bugungi kunda ham ma’naviy-axloqiy tarbiya, fuqarolik madaniyati va jamiyatda sog‘lom ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Imom Rabboniyning axloqiy g‘oyalarida nafsni tarbiyalash masalasi ham muhim o‘rin egallaydi. U insonning ichki dunyosini poklash, yomon odatlardan voz kechish va yaxshi fazilatlarni shakllantirish orqali komil inson darajasiga erishish mumkinligini ta’kidlaydi.

Imom Rabboniy ta’limotida shukronalik insonning eng muhim ma’naviy va axloqiy fazilatlaridan biri sifatida talqin etiladi. Uning fikricha, inson Alloh tomonidan berilgan ne’matlarning qadriga yetishi, ularni anglab, ulardan oqilona foydalanishi va buning uchun doimo minnatdor bo‘lishi lozim. Shukr faqat til bilan aytiladigan minnatdorchilik emas, balki qalb, til va amalda namoyon bo‘ladigan holatdir.

Imom Rabboniy shukronalikni insonning ma’naviy kamolotga erishishidagi muhim vosita deb hisoblaydi. Uning ta’kidlashicha, ne’matlarning asl manbai Alloh ekanligini anglagan kishi kibr va manmanlikdan uzoqlashadi. Shukr qiluvchi inson o‘zidagi imkoniyatlar, bilim, salomatlik, mol-dunyo va boshqa ne’matlarni o‘zining mutlaq yutug‘i deb emas, balki ilohiy in’om sifatida qabul qiladi. Bu esa unda kamtarlik, qanoat va mas’uliyat hissini shakllantiradi.

Mutafakkirning fikricha, haqiqiy shukr uch bosqichda namoyon bo‘ladi. Birinchisi, qalb bilan shukr qilish bo‘lib, bunda inson berilgan ne’matlarni chuqur anglaydi va ularning qadriga yetadi. Ikkinchisi, til bilan shukr qilish bo‘lib, inson Allohga hamd aytadi va minnatdorchilik bildiradi. Uchinchisi esa amaliy shukr bo‘lib, berilgan ne’matlardan ezgulik yo‘lida foydalanish, boshqalarga yaxshilik qilish va foydali ishlarni amalga oshirishda ko‘rinadi. Imom Rabboniy aynan amaliy shukrni eng mukammal shukr shakli deb baholaydi.

Xulosa qilib aytganda, Imom Rabboniyning axloqiy g‘oyalari taqvo, kamtarlik, sabr, shukronalik, adolat, rostgo‘ylik va mehr-oqibat kabi umuminsoniy qadriyatlarga asoslanadi. Bu qarashlar bugungi kunda ham yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda, jamiyatda ezgulik va hamjihatlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Анне-Мари Шиммель. Мир исламского мистицизма. – Москва: Алейта-Энигма, 2000. – 414 с.

2. Mahmud As'ad Jo‘shon. Tasavvuf va nafs tarbiyasi. – Toshkent: Cho‘lpon, 1998. – 88 b.

3. Maktubot Imom Rabboni. Ikki tomlik. 1-tom /P.Tura tahriri ostida. – Istanbul:Yasin Yayinevi, 2006. – 396 b.

EKOLOGIK MUAMMOLARNING ANTROPOGEN OMILLARI: ZAMONAVIY EKOLOGIK INQIROZNING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI

Raxmatova Muhayyo Elboboyevna,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
https://orcid.org/0009-0001-2659-0585

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ekologik muammolarning yuzaga kelishi va kuchayishida antropogen omillarning o‘rni ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Inson faoliyatining tabiatga ta’siri, sanoatlashtirish, urbanizatsiya, texnologik taraqqiyot, demografik o‘sish va iste’molchilik madaniyatining ekologik muvozanatga salbiy ta’siri yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *ekologik muammo, antropogen omil, ekologik inqiroz, globallashuv, ekologik xavfsizlik, barqaror rivojlanish, ekologik ong, ekologik madaniyat, texnogen ta’sir.*

Аннотация. *В данной статье с социально-философской точки зрения анализируется роль антропогенных факторов в возникновении и усилении экологических проблем. Освещается влияние человеческой деятельности на природу, а также негативное воздействие индустриализации, урбанизации, технологического прогресса, демографического роста и культуры потребления на экологическое равновесие.*

Ключевые слова: *экологическая проблема, антропогенный фактор, экологический кризис, глобализация, экологическая безопасность, устойчивое развитие, экологическое сознание, экологическая культура, техногенное воздействие.*

Abstract. *This article analyzes the role of anthropogenic factors in the emergence and intensification of environmental problems from a socio-philosophical perspective. It highlights the impact of human activity on nature, as well as the negative effects of industrialization, urbanization, technological progress, demographic growth, and consumer culture on ecological balance.*

Keywords: *environmental problem, anthropogenic factor, ecological crisis, globalization, environmental security, sustainable development, environmental awareness, ecological culture, technogenic impact.*

XXI asrga kelib ekologik muammolar insoniyat taraqqiyotining eng dolzarb global masalalaridan biriga aylandi. Atmosfera havosining ifloslanishi, iqlim o‘zgarishi, cho‘llanish, biologik xilma-xillikning kamayishi, suv resurslari tanqisligi va yer degradatsiyasi kabi muammolar nafaqat tabiatga, balki jamiyat taraqqiyoti va inson salomatligiga ham jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Ushbu jarayonlarning asosiy sabablaridan biri insonning tabiatga nisbatan noto‘g‘ri va me’yoridan ortiq ta’siri, ya’ni antropogen omillardir.

Antropogen omillar deganda inson faoliyati natijasida tabiiy muhitda yuzaga keladigan salbiy o‘zgarishlar tushuniladi. Sanoat ishlab chiqarishining keskin kengayishi, tabiiy resurslardan haddan tashqari foydalanish, urbanizatsiya, transport vositalarining ko‘payishi hamda texnologik taraqqiyotning ekologik talablar bilan uyg‘unlashmaganligi global ekologik muammolarni yanada murakkablashtirmoqda.

Jamiyat taraqqiyoti inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar jarayonida takomillashib boradi. Inson tabiatga ko‘proq murojaat qilgani sari, tabiatdan ko‘proq manfaat ko‘radi. Tabiat ham insonga bergan in’omiga yarasha manfaatdor. Borliqning bunday o‘zaro aloqadorlikdagi murakkab tuzilmasi tabiat qonuniyatlarining o‘zgarmasligini ko‘rsatadi. Agar tabiat tuzilmalari elementlaridan birortasining faoliyati va tarkibida o‘zgarish bo‘ladigan bo‘lsa, uning ta’sirida tarkibiga ham zarar beradi. Ularning o‘zaro munosabatga kirishish jarayoni ekologik munosabatlarni shakllantiradi. Ya’ni insonning tabiatga yoki tabiatning insonga ta’sirida ularning shakli va xususiyatiga o‘zgarish kiritilishi mumkin. Masalan, o‘simliklar olamining zaiflashuvi insoniyat va hayvonot olamiga zarar berishi aniq. Yoki insoniyatning hayvonot

olamiga tajovuzi ortib borishi hayvonot va o‘simliklar olamini hamda insoniyatning o‘z taqdirini ham xavf ostiga qo‘yadi. Natijada, tabiatdagi unsurlarda norma darajasi buziladi. Shu sababli ekologik munosabatlar jarayonida ekologik muhofazani ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Insoniyatning taraqqiyotga erishishi ko‘plab qulay imkoniyatlarni tug‘dirgan bo‘lsa, boshqa tomondan, ba’zi noqulayliklarning shiddat bilan shakllanishi va muammolar sonining ortishiga ham olib keldi. Ayniqsa, globallashuv jarayonida ekologik munosabatlar ritmining o‘zgarishi ekologik muhofazani ta’minlash borasida ilmiy tadqiqotlarni qayta ko‘rib chiqishni talab etmoqda. XX asr oxirlaridan jahonda ekologik muammolarning ortib borishi xalqaro hamjamiyat e’tiborini ekologik munosabatlarni barqarorlashtirish, yakdillikka chorlash, yagona maqsadga birlashtirishga qaratadi. Chunki, jahon mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishi uchun tabiatni ishg‘ol etishga ko‘proq e’tibor qaratgan edi. Oxir-oqibat bu qarash o‘zining asossiz g‘oyaligi ko‘rsatdi. “Tabiatni mislsiz ishg‘ol qilish ekologik globallashuvga sabab bo‘ldi. Ekologik globallashuv iqtisodiy, moliyaviy, siyosiy, madaniy, huquqiy va boshqa sohalarning globallashuvi ta’sirida shakllangan jarayondir. Bu “inson-tabiat” munosabatlariga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi va ekologik globallashuvning avj olishiga turtki berdi”[2].

Ekologik globallashuv tushunchasining kelib chiqishini mutaxassis olimlar turlicha talqin qilishadi va mavjud adabiyotlar talqini ham shunga asosan ifodalangan. Masalan, bir guruh tadqiqotchilar inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarda konkretlikning (oqilona yoki nooqilonalikni aniqlashtirolmaslik) mavjud emasligi ekologik globallashuvni keltirib chiqarganini ta’kidlashsa, ayrimlari ekologik vaziyat tahliliga diqqatni jamlaydilar, qolganlari esa, inqirozli jarayonlar (ekologik muammolar)ning bosh sababchi ekanligini ko‘rsatishadi. Ammo ularning birortasi ekologik globallashuvning yuzaga kelishida bir-birlarining fikrlarini inkor etishmaydi, aksincha, ekologik muhitning bir-butunligi uchala qarashlarda aks etayotgan jarayonlar asosida umumlashadi, deb bilishadi. Ya’ni, ekologik muhit uch tarkib: ekologik munosabatlar, ekologik vaziyat, ekologik muammolardan iboratligini qayd qilishadi Ushbu holatlarning o‘zaro integratsiyasi va unifikatsiyasi ekologik globallashuvni tashkil etadi, degan xulosaga to‘xtalamiz. Ekologik muammolar ijtimoiy jihatdan qaraganda faqatgina tabiat va inson o‘rtasidagi munosabatlarni emas, zamonaviy tafakkur va ma’naviy qadriyatlarning inqirozini ham aks ettiradi. Ushbu muammolarni anglash uchun bir nechta konsepsiyalarni ko‘rib chiqish zarur bo‘ladi. Jumladan:

Birinchi, antropotsentrizm va ekotsentrizm konsepsiyasi. Antropotsentrizm ta’limoti insonni mutlaqlashtirishga qaratilgan. Bu konsepsiya tabiat va borliqning barcha tarkiblari insonga tegishli, faqatgina inson ularni nazorat qila oladi degan tushunchaga asoslanadi. Insonning go‘zal hayoti zamin bilan bog‘liq. Tabiatdagi barcha in’omlar insonni baxtli qilish uchun yaratilganini ilgari suruvchi ta’limot. Masalan, yangi davr ta’limotida tabiat “mexanizm”, u doimo harakatda va o‘sishda davom etadi, ishlatsang qayta tiklanadi degan g‘oyalar insonning tabiatga nisbatan iste’molini oshirdi. Ammo shunga qarshi ekotsentrizm konsepsiyasi ham shakllandi. Bu ta’limotda inson tabiatning “egasi” emas, balki uning bir bo‘lagi ekanligi uqtiriladi. Shunga ko‘ra, inson va tabiat o‘rtasidagi me’yor saqlanishi shartligi asosiy omil deb qaraladi[3].

Ikkinchi, texnologiya va progressning paradoksi konsepsiyasi. Texnokratik jamiyatning rivojlanishi insonning to‘g‘ri yo‘ldan (ma’naviy hayoti va kelajak tomon) borayotganiga biroz shubhali jarayon ekanligini nazarda tutadi. Inson tabiatga nisbatan faqat foydalanish maydoni deb qaraydi. Shuning uchun texnogen jamiyat “progress” nomi ostida tabiiy resurslarni talon-toroj qilmoqda. Lekin, tabiatdagi mavjud resurslar faqatgina bizga, bugungi kun insonlariga tegishli emas, balki unda kelajak avlodning ham haqqi borligini va tabiatni kelajakka bus-butun topshirish zaruriyatini yodda saqlashliklarini o‘ylashi kerak. Agar inson texnokratik jamiyat asoslariga qaratilgan me’yordan ortiq iste’molni oshiraversa, raqamlashtirish ketidan jonbozlik qilaversa, tabiatni faqat obyekt sifatida ko‘raversa, haqiqiy ekologik halokat shu raqamlashtirish yoriqlaridan kelib chiqishini ilgari suradi. Texnologiya va progressning paradoksi tushunchasi texnologik taraqqiyotning jamiyatga bir vaqtning o‘zida ham manfaatli, ham zararli ta’sir

ko‘rsatishini anglatadigan tushunchadir. Boshqacha aytganda, bu paradoks, texnologik innovatsiyalar va yangi yutuqlar inson hayotini yaxshilashga qaratilgan bo‘lsa-da, ularning oqibatlari ba’zida kutilmagan muammolarga ro‘baro‘ qilishini ko‘rsatadi. Masalan, “yangi ishlab chiqarish texnologiyalarining ekologiyaga ko‘rsatayotgan zarari tabiat infrastrukturasi va inson hayotining zaharlanishiga olib kelayotgani” ta’limotda muhim ahamiyat kasb etadi[4].

Uchinchi, kosmopolitlik va umuminsoniylik mas’uliyati konsepsiyasi. Ushbu ta’limotda har bir millat, davlatning dunyo ekologik siyosati integratsiyasini kuchaytirish, umuminsoniyat manfaatlaridan kelib chiqib tabiatga oqilona munosabatda bo‘lish g‘oyasi ilgari suriladi. Milliy manfaatlar ustunligi ortib ketsa, umuminsoniy manfaatlarga zarar yetishi yuzaga keladi. Iqtisodiy, ma’naviy, madaniy manfaatlar umuminsoniy manfaatlarga katta zarar bermasligi mumkin, ammo ekologik siyosatdagi milliylikka tayanib qolish jahon miqyosidagi muammolarga sababchi bo‘ladi. Chunki, ekologik zararlanishni bitta hudud yoki bir mintaqa doirasida ushlab qolishning iloji bo‘lmaydi. Bitta davlat tomonidan ekologiyaga chiqarilayotgan zaharlanish atmosfera va biosfera bo‘ylab to‘liq tarqalish xususiyatiga ega. Bu esa, umuminsoniyat salomatligiga ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun davlatlar butun insoniyat manfaatlarini hisobga olish kerak. Agar unga amal qilmasa butun insoniyat taqdiri bilan birga o‘z aholisi hayotini ham xavf ostiga qo‘yadi. Tabiiy resurslardan foydalanishda davlatlar va kompaniyalar ekologik xavf ostidagi aholi manfaatlarini himoya qilishi, ijtimoiy-ekologik oqibatlarni (o‘rmon kesilishi, suv ifloslanishi, aholi ko‘chishi) oldindan baholashi shart. Bu xalqaro standartlar va mahalliy qonunlarga muvofiq, loyihalar shaffofligi, mahalliy hamjamiyatlar bilan maslahatlashish hamda ekologik oqibatlarni kamaytirish choralarini ko‘rishni talab etadi[5].

To‘rtinchi, postgumanizm konsepsiyasi. Bu ta’limotning asosiy g‘oyasi insonning tabiatdan ustunligini inkor etadi. Tabiat insonning hayot kechirish imkoniyatiga ega bo‘lgan hudud, undan boshqa joy insonga yashash imkoniyatini berolmaydi. Bu zaminda insonlarning barchasi teng huquqqa egaligi qayd etiladi. Donna Xaraueyning “Kiborg manifesti” essesida texnologik jamiyatning rivojlanishi tabiat chegaralarining yo‘qolishiga va yerdan tashqari hududlarga intilishning kuchayishiga, “inson-texnologiya-tabiat” chegaralari yo‘qolishiga doir fikrlar beriladi. Ya’ni, inson o‘zining biologik chegaralarini texnologik vositalar bilan kengaytirishi va transformatsiyasiga urg‘u beriladi. Inson texnologiyalarni rivojlantirib ko‘p imkoniyatlarni yaratsa-da, tabiatga zarar berishi o‘zining hayotiga katta xavfni tug‘dirib boraveradi. Ekosistema barqaror bo‘lishi uchun tabiatning barcha elementlari – insonlar, hayvonot, o‘simlik dunyosi, texnologiyalar va hokazolar o‘zaro simbiozda (manfaatli aloqada), hamkorlikda bo‘lishi zarur. Bu simbioz tabiatning o‘z-o‘zini tiklash qobiliyatini saqlash va texnologik taraqqiyotning barqarorlashishi uchun muhim degan qarashlarni qamrab oladi.

Bugungi globallashuv sharoitida ekologik muammolar milliy chegaradan chiqib, umumbashariy xususiyat kasb etmoqda. Shu sababli ekologik muammolarning antropogen omillarini falsafiy va ijtimoiy jihatdan tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Insoniyat taraqqiyoti tarixida tabiat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar doimo o‘zgarib borgan. Ilk jamiyatlarda inson tabiatning ajralmas qismi sifatida yashagan bo‘lsa, texnogen sivilizatsiya rivojlanishi natijasida tabiatdan foydalanish hajmi keskin ortdi. Natijada ekologik muvozanat buzilib, global ekologik muammolar yuzaga keldi.

Antropogen omillarning asosiy ko‘rinishlariga quyidagilar kiradi:

1. sanoat korxonalaridan chiqayotgan zararli gazlar;
2. transport vositalari chiqarayotgan zaharli moddalar;
3. o‘rmonlarning kesilishi;
4. foydali qazilmalarni haddan tashqari qazib olish;
5. kimyoviy o‘g‘it va pestitsidlardan me’yoridan ortiq foydalanish;
6. maishiy va sanoat chiqindilarining ortishi;
7. urbanizatsiya va aholi sonining ko‘payishi[9].

Mazkur omillar atmosfera, gidrosfera va biosferaga jiddiy zarar yetkazmoqda. Ayniqsa, atmosferaga chiqarilayotgan karbonat angidrid gazining ortishi global isish jarayonini tezlashtirmoqda. Natijada muzliklar erishi, dengiz sathining ko‘tarilishi va ekstremal tabiiy hodisalar sonining ortishi kuzatilmoqda.

Texnologik taraqqiyot inson hayotini yengillashtirgan bo‘lsa-da, uning salbiy ekologik oqibatlari ham mavjud. Zamonaviy texnogen sivilizatsiya ko‘proq iqtisodiy manfaatni ustuvor qo‘yayotgani sababli ekologik qadriyatlar ikkinchi darajaga tushib qolmoqda. Natijada inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanat buzilmoqda.

Falsafiy nuqtayi nazardan qaralganda, ekologik inqiroz insonning tabiatga hukmronlik qilishga intilishi bilan bog‘liqdir. G‘arb texnokratik tafakkuri tabiatni faqat resurs sifatida talqin qilgani bois ekologik muammolar chuqurlashdi. Endilikda esa tabiatga iste’molchilik yondashuvi o‘rniga ekologik mas’uliyat va hamkorlik tamoyillarini shakllantirish zarurati yuzaga chiqmoqda.

Globallashuv ekologik muammolarning kengayishiga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Bir hududdagi ekologik muammo boshqa mintaqalarga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, atmosfera ifloslanishi, iqlim o‘zgarishi yoki suv tanqisligi butun insoniyat uchun umumiy tahdidga aylanmoqda.

Markaziy Osiyodagi Orol fojiasi ham antropogen omillarning salbiy oqibatlariga yorqin misoldir. Daryolardan noto‘g‘ri foydalanish natijasida Orol dengizining qurishi mintaqada ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqardi. Bu holat ekologik siyosatda ilmiy yondashuv va uzoq muddatli strategiyaning muhimligini ko‘rsatadi[1].

Ekologik muammolarni bartaraf etish faqat texnologik choralar bilan cheklanmaydi. Eng avvalo insonning ekologik ongini va ekologik madaniyatini rivojlantirish zarur. Ekologik ong tabiatni asrash, resurslardan oqilona foydalanish va kelajak avlod oldidagi mas’uliyatni anglashni taqozo etadi. Ekologik tarbiya oilada, ta’lim tizimida va jamiyatning barcha institutlarida shakllantirilishi lozim. Ayniqsa, yosh avlodda ekologik madaniyatni rivojlantirish barqaror taraqqiyotning muhim omillaridan biridir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ekologik muammolarning kuchayishida antropogen omillar hal qiluvchi o‘rin tutmoqda. Insonning tabiatga me’yoridan ortiq aralashuvi ekologik muvozanatning buzilishiga va global ekologik tahdidlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Zamonaviy ekologik inqiroz texnogen sivilizatsiyaning salbiy oqibatlarini namoyon etmoqda.

Shu bois ekologik xavfsizlikni ta’minlash uchun iqtisodiy taraqqiyot bilan ekologik manfaatlar o‘rtasida muvozanatni saqlash, ekologik siyosatni takomillashtirish hamda jamiyatda ekologik ong va madaniyatni rivojlantirish zarur. Barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan ekologik siyosat insoniyatning kelajakdagi taraqqiyoti uchun muhim strategik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. Axmedov A. Ekologik nazorat: nazariya, metodologiya va amaliyot. – T.: Adabiyot uchqunlari, 2017.
3. Aymatov A.Q. Shaxsning tabiatga estetik munosabatini shakllantirishda ekologik ongning roli: Fals.f.d. (DSc) diss. avtoref. – Samarqand: SamDU, 2019
4. Odum E. Fundamentals of Ecology. – Philadelphia, 1975.
5. Omonov B. Ekologik globallashuv va uning O‘zbekistondagi ekologik muhitga ta’siri. – T.: 2021. 136 b.

AMIR SHOXMURODNING TURK SULTONI ABDULHAMID II BILAN YOZISHMALARI

Muxayyo Umarova,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika Universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada amir Shoxmurodning Turk sultoni Abdulhamid II xatiga javobining mazmuni tahlil qilinadi, uning tarixiy konteksti va siyosiy ahamiyati o‘rganiladi. Maqsad – Amir Shoxmurodning xavfsizlik siyosati va islomiy ittifoq g‘oyalarini yoritish.*

Kalit so‘zlar: *Amir Shohmurod, Abdulhamid I, Buxoro tarixnavisligida Turk sultonligi masalalari, shariat meyorlari, davlat munosabatlari, madrasa.*

Аннотация. *В данной статье анализируется содержание ответа эмира Шахмурада на письмо турецкого султана Абдулхамида II, а также изучаются его исторический контекст и политическое значение. Цель статьи — раскрыть политику безопасности эмира Шахмурада и идеи исламского единства.*

Ключевые слова: *эмир Шахмурад, Абдулхамид I, вопросы Турецкого султаната в бухарской историографии, нормы шариата, государственные отношения, медресе.*

Abstract. *This article analyzes the content of Emir Shahmurad’s response to the letter of the Turkish Sultan Abdulhamid II, as well as its historical context and political significance. The aim of the article is to highlight Emir Shahmurad’s security policy and the ideas of Islamic unity.*

Keywords: *Emir Shahmurad, Abdulhamid I, issues of the Turkish Sultanate in Bukhara historiography, Sharia norms, state relations, madrasah.*

Kirish. XVIII asr oxiri Markaziy Osiyoda siyosiy va diniy ziddiyatlarning keskinlashgan davri bo‘lgan. Bir tomondan, ichki feodal tarqoqlik va o‘zaro urushlar davom etayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, mintaqa tashqi kuchlarning strategik qiziqishlari markaziga aylandi. Rossiya imperiyasining janubga tomon intilishi shunchaki hududiy kengayish emas, balki mintaqaning savdo yo‘llari va resurslarini nazorat qilishga qaratilgan tizimli ekspansiya edi. Buni natijasida Rossiya imperiyasi Movarounnahr va uning atrofidagi turkiy-xalqlar hududlariga tahdid sola boshladi. Bu tahdid esa o‘z navbatida Turkiston xonliklarini tashqi siyosatda yangi ittifoqchilar qidirishga majbur qildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Buxoro amirligi davlatchiligi tarixi juda boy tarix hisoblanadi. Ulardan Buxoro amirligi tarixnafislari Muxammad Karminagiy, Munshi, Muxammad Yaqub, Mirzo Salim Somiy, Husayn Miriy, Mirza Badiiy, Ahmad Donish, Sadriddin Ayniy, Abdurauf Fitrat va shu qatorda rus tarixchi olimlardan V.Vyatkin, L.N.Sobolev, Meyendorf, Turk tarixchilaridan Mehmet Emin, Mehmet Saray, o‘zbek tarixchilaridan Azamat Ziyo, Z.Muqimov, J.Shodiyev, Q.Rajabov, A.Zamonov va boshqalarning asarlarida elchilik ma’lumotlarni uchratamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada umumiy qabul qilingan tarixiy tahlil, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik ketma-ketlik tamoyillari asosida Buxoro amiri Shohmurod ibn Doniyolbiyning Usmonli imperiyasi sultoni Abdulhamid IIga yo‘zgan xatining xususiyatlari tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Rossiya imperiyasi Movarounnahr va uning atrofidagi turkiy-xalqlar hududlariga tahdid sola boshlashi o‘z navbatida Turkiston xonliklarini tashqi siyosatda yangi ittifoqchilar qidirishga majbur qildi. Buxoro amiri sifatida hukmronlikni boshlagan amir Shoxmurod Rossiya imperiyasining bunday siyosati natijasidan xafvsirab boshqa davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini kuchaytirish uchun diplomatik aloqalarni qayta ko‘rib chiqishga harakat boshladi.

Shu sababli ham mang‘it hukmdori Amir Shoxmurod (taxminan 1785–1802 yillar) Usmonli imperiyasining sultoni Abdulhamid II ga murojaatnoma yuborgan va bu xat o‘zida nafaqat ikki musulmon davlati o‘rtasidagi hamkorlikni, balki islom dunyosining umumiy dushmanga qarshi birlashish istagini aks ettirgan.

***Amir Shoxmurodning (1785–1800 yillar Buxoro amiri) Usmonli sultoni Abdulhamid II (1774–1789)ga yozgan xatining ko‘rinishi* [6].**

Xatda hijriy sanalar (1202/1787–88, 1188/1774) va “nomi-i humoyun” [6] farmonlari eslatilgan bo‘lib, bu Rossiya-Turkiya urushi (1787–1792) davriga to‘g‘ri keladi. Xat forsiy tilidagi arabcha matn-transkripsiyada yo‘zilgan. Matnda qo‘llanilgan "nasta’liq" xati va diplomatik terminologiya o‘sha davrdagi Buxoro va Istanbul o‘rtasidagi yuksak madaniy aloqalarni ko‘rsatadi.

Xat Allohga hamdu-sanolar: “Olamlar Robbi bo‘lmish Allohga hamdlar bo‘lsin”,- degan so‘zlar bilan boshlangan. Undan keyin Usmoniylar sultoni Abdulhamid II shaxsiga munosabat bildirilgan: “Saodat va salomatlik barcha musulmonlarning panohi, xalifalik taxtining sohibi va islom bayrog‘ining himoyachisi bo‘lmish Sulton hazratlariga bo‘lsin". Bu esa o‘z navbatida o‘sha davr hukmdorlari orasida yo‘ziladigan diplomatic usulga xos hisoblanadi. Bundan tashqari, Amir Shohmurod o‘zini Usmonli sultonidan ustun qo‘ymagan, aksincha, uni islom olamining oliy rahnamosi sifatida e'tirof etgan. Bu uning "Amiri Ma'sum" (Gunohsiz amir) sifatida nafaqat zohid, balki kamtarin siyosatchi bo‘lganidan dalolat beradi.

Xatda sultonning oldingi xatlariga javoban Amir Shoxmurod Usmonlilardan yordam so‘rab, qozoq-qirg‘izlarni Rossiyaga qarshi qo‘zg‘atishga harakat qilganini yozgan. "Bu

tomondagi vaziyatlar shuki, kofirlar (Rossiya imperiyasi nazarda tutilmoqda) islom tuproqlariga nisbatan o‘z tajovuzlarini kuchaytirmoqda. Ular chegara hududlariga yaqinlashib, musulmon xalqlarning tinchligini buzishga intilmoqdalar. Biz, Movarounnahr ahli, ushbu tahdidga qarshi turishda sizning ma'naviy va siyosiy qo‘llab-quvvatlovingizga muhtojmiz".

Xat tom ma’noda islom birligi uchun chaqiriq ham hisoblanadi. Chunki amir Shohmurod maktubida: "Islom olamining markazi va xalifalik maskani sifatida sizga ushbu xabarni yetkazishni burchimiz deb bildik. Dushmanning maqsadi faqat tuproq emas, balki dinimiz va e'tiqodimizdir. Shunday ekan, musulmon hukmdorlarining bir yoqadan bosh chiqarishi bu fitnalarning oldini olishning yagona yo‘lidir", deb ta’kidlagan.

Bundan tashqari maktubda, Rossiya imperiyasi hatti-harakatlari shunchaki harbiy emas, balki mintaqaning madaniy va diniy yaxlitligiga tahdid sifatida baholangan. Xatning matni tarixiy manbalarda saqlangan bo‘lib, unda Amir Shoxmurodning Rossiya tahdidiga qarshi kurashdagi pozitsiyasi va Buxoro amirligining ichki muammolari ham bayon etilgan.

Maktubda Rossiya imperiyasi xatti-harakatlarinihg madaniy va diniy yaxlitlikka tahdid sifatida baholanishi shuni ko‘rsatadiki, Amir Shohmurod tashqi xavfni faqat hududiy yo‘qotish deb emas, balki mintaqaning o‘ziga xos islomiy sivilizatsiyasi, an’analari va ma’naviy qadriyatlarining inqirozi sifatida anglagan. Bu o‘sha davr uchun o‘ta progressiv va strategik qarash bo‘lib, bosqinning uzoq muddatli ijtimoiy-madaniy oqibatlarini oldindan ko‘ra bilish qobiliyatidan dalolat beradi.

Bu hujjat Buxoro amirligining tashqi siyosatida islomiy ittifoqqa tayanganligini ko‘rsatadi. Xatda Amir Shoxmurod oldin yuborilgan ikkita sulton xatlari haqida eslatib o‘tadi. Birinchisi 1202 hijriy yil (1787/88 milodiy)da kelgan bo‘lib, xatni otasining vafoti tufayli ruhiy iztirob chekkanida, quvvat berganligini ta’kidlaydi. Ikkinchisi esa Rossiyaning hijriy 1188 yil (melodiy 1774) tinchlik shartnomasini buzgani va musulmonlarni jihodga chaqirganiga bag‘ishlanadi. Amir Shoxmurod bu xatlardagi farmonlarga bo‘ysunib, zimmasidagi vazifani bajarishga tayyorligini bildirmoqda: “Biz ham bu farmonga amal qilib, zimmamizdagi ishni bajarmoqdamiz. Zero, oliy davlat uchun duo qilish butun islom olami uchun vojibdir.”

Xatning asosiy qismi Rossiya dushmanligiga qarshi choralar bilan bog‘liq. Amir Shoxmurod Movarounnahr aholisiga, shuningdek, Qo‘qon, qirg‘iz va boshqa qabilalarga elchilar yuborganini aytadi. U shaxsan jihodga borishni xohlaganini, ammo ichki muammolar – mahalliy qabilalar orasidagi nizolar tufayli imkonsiz bo‘lganini izohlaydi. “Atrofimiz to‘rt tomondan kofir ahli bo‘lgan o‘zbakiya toifasi bo‘lib, ular bilan oramiz yaxshi emas,” deb yozadi. Mahalliy qabilalarning fitnalarini bostirish jihodga vaqt qoldirmaganligiga urg‘u beradi.

Xatda iqtisodiy va diniy masalalar ham ko‘tarilgan. Amirlik aholisi, savdogarlar va qozoqlar Rossiya bilan savdo qilgan, ammo sulton farmonidan keyin aloqalar uzilgan. Amir Shoxmurod tinchlik shartnomasiga mang‘itlarni kiritishni so‘raydi. Bundan tashqari, 130 yildan beri eronliklar (rofiziylar) tufayli hajga borish mumkin emasligini aytib, Usmonli davlatidan Eron ustidan g‘alaba qozonganidan so‘ng vazir va qo‘shin yuborishni iltimos qiladi.

Tahlilda xatning mazmuni diqqatga sazovor: Amir Shoxmurod o‘zini sulton xizmatchisi sifatida ko‘rsatib, “Inshaalloh, Allohning yordami bilan maxalliy beklarning qarshiligi tugab, bizga itoat qilishsa, shohona zotingizga xizmat qilish uchun jonimni fido qilaman” deb va’da beradi. Bu islomiy birlik g‘oyalariga asoslangan va bunday kamtarlik ohangi orqali Buxoro amirligining islom dunyosidagi obro‘sini oshirish va tashqi siyosiy qo‘llov olish uchun strategik vosita bo‘lgan.

Tarixiy kontekst sifatida shuni ma’lum qilish mumkinki, bu xat 1780-yillarning oxirida yozilgan bo‘lib, Rossiyaning Janubiy Sibir va Qozog‘istonni bosib olishi bilan bog‘liq. 1774-yilgi tinchlik shartnomasi (Kyuchuk-Kaynardzhi sulhi)dan keyin ruslar Qora dengiz va Qozog‘iston yo‘nalishida faollashgan. Mang‘it xo‘jligi bu tahdidga qarshi Usmonli imperiyasidan yordam so‘ragan.

Abdulhamid II (1774–1789 yillar hukmdorligi) davrida Usmonlilar Rossiyaga qarshi urushlarda zaiflashgan edi. Sulton farmonlari islomiy xalifalik maqomini mustahkamlashga

xizmat qilgan. Amir Shoxmurodning xati bu siyosatni qo‘llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, ichki nizolar – qipchoq, mang‘it va boshqa qabilalar orasidagi ziddiyatlar – Markaziy Osiyo xonliklarining birlashishiga to‘sqinlik qilgan. Bundan tashqari "beklarning qarshiligi tugab, bizga itoat qilishsa" degan jumlada o‘sha davrda amirlikdagi o‘ta muhim ichki muammo aks etgan. Amir Shohmurod taxtga kelgan ilk yillarda mahalliy urug‘lar va hokimlarining bo‘ysunmaslik harakatlari kuchli edi. Bu o‘z navbatida Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklari o‘rtasidagi doimiy nizolar umumiy dushmanga qarshi yagona front shakllanishiga to‘sqinlik qilgan. O‘zbek urug‘larining markaziy hokimiyatga (Amir Shohmurodga) bo‘lgan ichki muxolifati amirning bor kuchini tashqi urushga safarbar qilishini qiyinlashtirgan.

Shuning uchun Amir Shohmurodning Usmonli sultoniga yuborgan maktublarida sadoqat va birlik g‘oyalari aks etgan bo‘lsa-da, amalda Rossiyaga qarshi birlashgan harbiy frontning yaratilmaganligi tarixdan ma’lum. Bevosita, Istanbul va Buxoro orasidagi masofa minglab kilometrni tashkil etganligiga e’tiborga olsak, ular orasida Eron (Qojarlar davlati) kabi raqib yoki beqaror hududlar joylashgan edi. "Noma-i humoyun"larning bir poytaxtdan ikkinchisiga yetib borishi oylarni, ba'zan yillarni olgan. Bunday sharoitda tezkor harbiy operatsiyalarni muvofiqlashtirishning imkoni bo‘lmagan.

Xat yuborilgan 1785–1802-yillar oralig‘ida Usmonli imperiyasining o‘zi og‘ir vaziyatda edi. Usmonlilar bu vaqtda Avstriya va Rossiya (Yekaterina II davri) bilan uzluksiz urushlar olib borayotgan edi. Rossiya imperiya o‘zining Bolqon va Qora dengizdagi hududlarini himoya qilish bilan band bo‘lib, uzoq Turkistonga harbiy kuch yuborish imkoniyatiga ega emas edi. Ilmiy tahlilda maktubdagi "jon fido qilish" kabi iboralarni real harbiy majburiyatdan ko‘ra ko‘proq *diplomatik etiket* sifatida baholash lozim. Amir Shohmurod Usmonli sultonidan ko‘proq ma'naviy qo‘llov va Rossiyaga diplomatik bosim o‘tkazishni kutgan. Bundan tashqari, Amir Shohmurod markazlashgan davlat qurish yo‘lida Usmonlilardan yordam so‘rasa-da, amalda o‘z hokimiyatini to‘liq saqlab qolishni istagan.

Xulosa va takliflar. Xulosa tariqasida shuni ta’kidlash lozimki, Amir Shoxmurodning bu xati Markaziy Osiyo va Usmonli imperiyasi o‘rtasidagi diniy-siyosiy aloqalarni ko‘rsatuvchi muhim hujjatdir. Unda Rossiyaga qarshi ichki birlik va iqtisodiy xotirjamlik masalalari ko‘tarilgan. Bu xat mang‘it xo‘jligining tashqi siyosatida islomiy ittifoqqa tayanganligini tasdiqlaydi, ammo ichki muammolar tufayli amalga oshmagan. Zamonaviy tadqiqotlarda ushbu hujjat Markaziy Osiyo mustamlakachilikka qarshilik tarixini o‘rganish uchun qimmatli manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Andreev M. Srednyaya Aziya v dorevolyutsionnoy Rossii. Moskva, 1916.
2. Борнс А. Путешествие в Бухару. Ч. 3. 1848. – С. 251.
3. Bartold V.V. O‘zbekiston tarixi. Toshkent, 1993.
4. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. Санкт-Петербург: тип. Ю.А. Бокрама, 1865. –С.211-214.
5. Mehmet Saray. Rus İşgali Devrinde Osmanli devleti ile Türkistan hanliklari arasindaki siyasi münasebetler (1775-1875). – Ankara: Türk Tarih Kurumu. 2017. B. 27-b.
7. Меендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – Москва: Наука, 1975. – С. 111.
8. Мухаммадѐр бин Араб Қатаған. Мусаххир ал-билод. – Т.: Янги аср авлоди, 2009. 394 б.
9. Rahmonqulova Z. Buxoro amirligining diplomatik aloqalari. Jamiyat va boshqaruv. 2002. №3. B.74.

XARBIY VATANPARVARLIKNI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOIY INSTITUTLARNING (OILA, TA'LIM, ARMIYA, OAV) RO‘LI

Talipov Xushnud Zafarovich,
Andijon davlat pedagogika instituti
“Milliy g‘oya ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi” kafedrasi assistent o‘qituvchisi

Annotatsiya. *O‘zbek tilida: Ushbu maqola harbiy vatanparvarlikni shakllantirishda ijtimoiy institutlarning - oila, ta'lim, armiya va ommaviy axborot vositalarining (OAV) - rolini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, oila harbiy vatanparvarlikning boshlang‘ich shakllanish manbai, ta'lim tizimi uni tizimlashtiruvchi omil, armiya amaliy qo‘llab-quvvatlovchi institut, OAV esa keng jamoatchilikni targ‘ib qiluvchi vosita sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Ushbu to‘rt institutning o‘zaro hamkorligi va uzluksizligi harbiy vatanparvarlikni shakllantirishning samaradorligini belgilaydi.*

Kalit so‘zlar: *Harbiy vatanparvarlik, ijtimoiy institutlar, oila, ta'lim tizimi, armiya, ommaviy axborot vositalari, milliy qadriyatlar, fuqarolik mas'uliyati.*

Annotation. *This article analyzes the role of social institutions - family, education, armed forces, and mass media - in shaping military patriotism from scientific-theoretical and practical perspectives. Research results show that the family serves as the primary source of initial military patriotism formation, the education system acts as a systematizing factor, the armed forces function as a practical supporting institution, and mass media serves as a tool for promoting military patriotism to the general public. The cooperation and continuity among these four institutions determine the effectiveness of military patriotism formation.*

Keywords: *Military patriotism, social institutions, family, education system, armed forces, mass media, national values, civic responsibility.*

Аннотация. *В данной статье научно-теоретически и практически анализируется роль социальных институтов - семьи, образования, вооруженных сил и средств массовой информации - в формировании военного патриотизма. Результаты исследования показывают, что семья является первичным источником формирования военного патриотизма, образовательная система выступает систематизирующим фактором, вооруженные силы функционируют как практический поддерживающий институт, а средства массовой информации служат инструментом продвижения военного патриотизма в широких слоях общества.*

Ключевые слова: *Военный патриотизм, социальные институты, семья, система образования, вооруженные силы, средства массовой информации, национальные ценности, гражданская ответственность.*

Kirish. Zamonaviy dunyoda milliy xavfsizlik va davlat mustaqilligini ta'minlash eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu maqsadga erishish uchun jamiyatda harbiy vatanparvarlik ruhini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, globalizatsiya, axborot texnologiyalarining rivojlanishi va turli xil ideologik ta'sirlar kuchayib borayotgan zamonaviy sharoitda yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Harbiy vatanparvarlik - bu shaxsning o‘z Vataniga bo‘lgan muhabbati, uning mustaqilligi va hududiy yaxlitligini himoya qilishga tayyorgarligi, shuningdek, milliy qadriyatlarga sodiqligini ifodalovchi kompleks tushuncha. Ushbu tushuncha nafaqat harbiy xizmatchilar, balki har bir fuqaroning ong-kayfiyatini, axloqiy qadriyatlarini va harakatlarini belgilovchi omil sifatida qaraladi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi - harbiy vatanparvarlikni shakllantirishda ijtimoiy institutlarning rolini kompleks tahlil qilish va ularning o‘zaro ta'sirini ilmiy asoslashdir.

- harbiy vatanparvarlik tushunchasining ilmiy-nazariy mohiyatini aniqlash;

- oila institutining harbiy vatanparvarlikni shakllantirishdagi rolini tahlil qilish;
- ta'lim tizimining harbiy-vatanparvarlik tarbiyasidagi funksiyalarini o‘rganish;
- armiya institutining harbiy vatanparvarlikni mustahkamlashdagi ahamiyatini baholash;
- ommaviy axborot vositalarining harbiy vatanparvarlikni targ‘ib qilishdagi imkoniyatlarini ko‘rib chiqish;
- ushbu institutlarning o‘zaro hamkorligini va uzluksizligini ta'minlash yo‘llarini taklif qilish.

Tadqiqotda ilmiy-nazariy tahlil, taqqoslash, sintez, umumlashtirish va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning ilmiy asosini pedagogika, sotsiologiya, psixologiya va harbiy fanlar sohasidagi zamonaviy tadqiqotlar tashkil etdi. Shuningdek, O‘zbekiston va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, davlat hujjatlari va xalqaro tashkilotlar ma'lumotlari tahlil qilindi.

Ushbu tadqiqotning innovatsion xususiyati shundan iboratki, u harbiy vatanparvarlikni shakllantirishda to‘rt asosiy ijtimoiy institut - oila, ta'lim, armiya va OAV - o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni kompleks ravishda ko‘rib chiqadi. Ilgari olimlar, odatda, bu institutlarni alohida-alohida tadqiq qilgan bo‘lsa, ushbu tadqiqot ularning o‘zaro hamkorligi va uzluksizligini ilmiy asoslashga qaratilgan.

Asosiy qism. Harbiy vatanparvarlik (military patriotism) - bu shaxsning o‘z davlatiga bo‘lgan sadoqati, uning mustaqilligi va xavfsizligini himoya qilishga tayyorgarligini ifodalovchi yuqori ma'naviy-axloqiy sifat. Ushbu tushuncha quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- milliy ong va o‘zlikni anglash - shaxsning o‘z millati, milliy madaniyati va tarixiy merosiga nisbatan hurmati va e'tibori;
- fuqarolik mas'uliyati - davlatning taraqqiyoti va xavfsizligi uchun shaxsiy mas'uliyatni his qilish;
- harbiy xizmatga tayyorgarlik - davlatni qurolli himoya qilishga bo‘lgan jismoniy, psixologik va kasbiy tayyorgarlik;
- qahramonlik an'analariga hurmat - milliy qahramonlar, urush faxriylari va harbiy xizmatchilarning fidoyiligini qadrlash.

Harbiy vatanparvarlikni shakllantirishda to‘rt asosiy ijtimoiy institut - oila, ta'lim, armiya va OAV - alohida ahamiyatga ega. Ushbu institutlar o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi xususiyatga ega.

Oila har bir shaxsning ijtimoiy hayotidagi birinchi va eng muhim institut hisoblanadi. Aynan oilada shaxsning dunyoqarashi, qadriyatlari va axloqiy tamoyillari shakllanadi. **Harbiy vatanparvarlikning shakllanishida oilaning roli quyidagilardan iborat:**

- birinchi milliy tuyg‘ularni uyg‘otish - oilada bolalar ota-onalari orqali o‘z millati, milliy bayramlari, milliy ramzlari va an'analari haqida birinchi ma'lumotlarni oladi;
- namuna ko‘rsatish - ota-onaning o‘z Vataniga bo‘lgan muhabbati, davlat ramzlariga hurmati va fuqarolik burchini bajarishi bolalar uchun yashir namuna bo‘ladi;
- tarixiy xotiralarni saqlash - oilada avlodlar o‘rtasida urush va mehnat faxriylari haqidagi hikoyalar, milliy tarixga oid rivoyatlar avloddan avlodga o‘tib, milliy ongni mustahkamlaydi;

Harbiy an'analarni davom ettirish - harbiy xizmatchilar oilasida farzandlar ota-onaning harbiy kasbiga, intizomiga va vatanparvarlik ruhiga o‘zaro ta'sir qiladi.

Harbiy xizmatchilar oilasida vatanparvarlik tarbiyasi alohicha ahamiyatga ega. Buxoro davlat universitetida o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, harbiy xizmatchilarning farzandlarida vatanparvarlik, intizomlilik, o‘zi va boshqalarga nisbatan talabchanlik, mehnatsevarlik va o‘ziga yuqori talab qo‘yish qobiliyati harbiy hayotning qat'iy tartib-qoidalarining ta'siri natijasida shakllanadi.

Ta'lim tizimi harbiy vatanparvarlikni shakllantirishda tizimlashtiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi funksiyani bajaradi. **Maktab, kollej va universitetlarda o‘tkaziladigan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:**

- davlat va jamiyat" fani - fuqarolik bilimlari, davlat tuzilishi va fuqarolik mas'uliyatini o‘rgatish;

➢ milliy tarix - milliy qahramonlar, urush va tinchlik davridagi fidoyilik namunalari haqida ta'lim;

➢ harbiy tayyorgarlik darslari - boshlang‘ich harbiy texnika, tibbiy bilimlar va jismoniy tayyorgarlik;

➢ milliy madaniyat va san'at - milliy an'analar, musiqa, raqs va adabiyot orqali milliy ongni shakllantirish.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi maktabdan oliy ta'lim muassasalarigacha uzluksiz bo‘lishi kerak. Ta'lim muassasalari oila, madaniyat-ma'rifiy muassasalar va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash lozim.

Oliy ta'lim muassasalaridagi harbiy ta'lim yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash va ularda harbiy kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Aslanov va Sabirovning tadqiqotlarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining pedagogik shartlari tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotda ta'kidlanishicha, kadetlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun maxsus pedagogik shart-sharoitlar yaratilishi lozim.

Vatanparvarlik tarbiyasining pedagogik falsafasi tahlil qilingan. Paulo Freire va John Dewey kabi jahon olimlarining "tanqidiy pedagogika" va "demokratiya va ta'lim" nazariyalari vatanparvarlikni shaxsning ijtimoiy-madaniy muhit bilan faol o‘zaro ta'siri natijasida shakllanadigan dinamik jarayon sifatida talqin qiladi.

Armiya (Qurolli Kuchlar) harbiy vatanparvarlikni nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham mustahkamlaydigan eng muhim institut hisoblanadi. **Askeriy xizmat va harbiy ta'lim orqali shaxs quyidagi sifatlarini rivojlantiradi:**

➢ intizom va tartib - harbiy xizmatning qat'iy tartib-qoidalariga bo‘ysunish;

➢ jamoaviy ruh - birgalikda harakat qilish, o‘zaro yordam va hamkorlik;

➢ jasorat va chidamlilik - qiyin sharoitlarda bardosh berish va vazifani bajarish;

➢ kasbiy mahorat - harbiy texnika va strategiyani egallash.

Malayziyada o‘tkazgan tadqiqotlarida harbiy tayyorgarlik darslarida vatanparvarlikni shakllantirish masalasi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, tayyorgarlik va ta'lim.

Boshlang‘ich harbiy tayyorgarlik (Basic Military Training) yangi qabul qilingan askarlarda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi. **BMT quyidagi vazifalarni bajaradi:**

➢ milliy identitetni shakllantirish - askarlar o‘z davlatining tarixi, madaniyati va qadriyatlari haqida o‘rganadi;

➢ xizmatning olijanobligini tushuntirish - harbiy xizmatning Vatan va jamiyat uchun ahamiyatini anglatish;

➢ gavjumlik ruhini rivojlantirish - jamoaviy mashg‘ulotlar orqali askarlar o‘rtasida birodarlik tuyg‘usini mustahkamlash;

➢ harbiy qadriyatlarni o‘rgatish - sadoqat, burch, hurmat, o‘zini o‘tkazish, sharaf, halollik va shaxsiy jasorat kabi qadriyatlar.

Askarlarning harbiy vatanparvarlik tuyg‘ulari yuqori darajada ekanligi aniqlangan. Tadqiqot ishtirokchilarining aksariyati o‘z davlatiga va Qurolli Kuchlariga nisbatan kuchli burch, sharaf va sadoqat tuyg‘ularini bildirgan.

Armiya nafaqat harbiy, balki ijtimoiy institut sifatida ham faoliyat yuritadi. Ushbu funksiyalar quyidagilardan iborat:

➢ ijtimoiy integratsiya - turli millat va madaniyat vakillarini umumiy harbiy qadriyatlar atrofida birlashtirish;

➢ kasbiy ta'lim - harbiy kasblarni o‘rgatish va shaxsning kasbiy kompetensiyalarini oshirish;

➢ fuqarolik tarbiyasi - fuqarolik mas'uliyati va milliy ongni mustahkamlash;

➢ jismoniy va psixologik tayyorgarlik - sog‘lom turmush tarzi va ruhiy chidamlilikni rivojlantirish.

Ommaviy axborot vositalari (OAV) harbiy vatanparvarlikni keng jamoatchilik orasida targ‘ib qilishning eng samarali vositasidir. Televideniye, radio, gazeta, jurnallar va internet orqali quyidagi vazifalar bajariladi:

- milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish - milliy tarix, madaniyat va an'analarni keng yoritish;
- harbiy xizmatchilarning obrazini yaratish - zamonaviy harbiy xizmatchilar va urush faxriylarining hayoti, mehnati va fidoyiligini ko‘rsatish;
- davlat siyosatini tushuntirish - milliy xavfsizlik va mudofaa siyosati haqida axborot yetkazish;
- yoshlarni harbiy xizmatga undash - harbiy xizmatning shon-sharafli va mas'uliyatli ekanligini ko‘rsatish.

OAV harbiy vatanparvarlikni targ‘ib qilishda teng ahamiyatga ega. Teleko‘rsatuvlar, filmlar, gazetalar va onlayn platformalar milliy qadriyatlar, tarixiy shaxslar va zamonaviy harbiy xizmatchilar hayotini yoritishi lozim.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijalariga ko‘ra, harbiy vatanparvarlikni shakllantirishda ijtimoiy institutlarning roli quyidagicha xulosa qilinadi:

Oila harbiy vatanparvarlikning boshlang‘ich va eng muhim shakllanish manbai hisoblanadi. Aynan oilada bolalarning birinchi milliy tuyg‘ulari, ota-onaning namunasi va oilaviy an'analar orqali vatanparvarlik poydevori qo‘yiladi.

Ta'lim tizimi harbiy vatanparvarlikni tizimlashtiruvchi va rivojlantiruvchi omil sifatida faoliyat yuritadi. Maktabdan oliy ta'limgacha bo‘lgan uzluksiz tarbiya jarayonida yoshlarda milliy ong, fuqarolik mas'uliyati va harbiy bilimlar shakllanadi.

Armiya (Qurolli Kuchlar) harbiy vatanparvarlikni amaliy jihatdan mustahkamlaydigan eng muhim institutdir. Harbiy xizmat va tayyorgarlik orqali shaxsda intizom, jamoaviy ruh, jasorat va kasbiy mahorat rivojlanadi.

Ommaviy axborot vositalari harbiy vatanparvarlikni keng jamoatchilik orasida targ‘ib qiluvchi va qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Zamonaviy OAV imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanish orqali milliy qadriyatlarni keng yoritish va yoshlarni harbiy xizmatga undash mumkin.

Ushbu to‘rt institutning o‘zaro hamkorligi va uzluksizligi harbiy vatanparvarlikni shakllantirishning samaradorligini belgilovchi asosiy omildir. Oiladan boshlab ta'lim, armiya va OAV orqali uzluksiz va muvofiqlashtirilgan tarbiya jarayoni samarali natijalarga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Aliyeva, D.V. (2026). Ijtimoiy faollikda vatanparvarlikning o‘rni. Alfraganus xalqaro ilmiy jurnali.
2. Gafurov, B.T. (2024). Harbiy xizmatchilarning farzandlarini barkamol shaxs etib tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy omillari. Buxoro davlat universiteti dissertatsiyasi.
3. Abdusamedov, N.A., & Madalieva, R.K. (2022). The role of patriotic education in the professional activities of military men and law enforcement bodies. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(3), 38-43.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari: "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi".

KIBERXAVFSIZLIK VA AXLOQIY ME'YORLAR: O'ZBEKISTON VA XALQARO TAJRIBANI SOLISHTIRISH

Ochilov Abrorxon Qiyom o'g'li,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
mustaqil tadqiqotchisi

Anotatsiya. *Maqolada O'zbekiston va xalqaro miqyosda kiberxavfsizlik va axloqiy me'yorlarning shakllanishi, ularning rivojlanish tendensiyalari va amaliy qo'llanilishi qiyosiy tahlil qilinadi. Kiberxavfsizlik va kiberaxloq bugungi raqamli jamiyatda yoshlar, davlat organlari va ijtimoiy institutlar faoliyatining muhim omili sifatida ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *kiberxavfsizlik, axloqiy me'yorlar, kiberaxloq, raqamli jamiyat, O'zbekiston, xalqaro standartlar, yoshlar tarbiyasi, axborot madaniyati.*

Аннотация. *В статье представлен сравнительный анализ кибербезопасности и этических норм в Узбекистане и на международном уровне, рассматриваются тенденции их развития и практическое применение. Кибербезопасность и киберэтика рассматриваются как важнейшие факторы функционирования молодежи, государственных органов и социальных институтов в цифровом обществе.*

Ключевые слова: *кибербезопасность, этические нормы, киберэтика, цифровое общество, Узбекистан, международные стандарты, воспитание молодежи, информационная культура.*

Abstract. *The article presents a comparative analysis of cybersecurity and ethical norms in Uzbekistan and internationally, examining their development trends and practical implementation. Cybersecurity and cyberethics are considered crucial factors in the functioning of youth, government bodies, and social institutions in today's digital society.*

Keywords: *cybersecurity, ethical norms, cyberethics, digital society, Uzbekistan, international standards, youth education, information culture.*

Kirish. So'nggi yillarda global miqyosda raqamli texnologiyalar tez sur'atlar bilan rivojlanib, ularning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotga ta'siri sezilarli darajada oshdi. Shu bilan birga, kiber makonning kengayishi axborot almashinuvi, onlayn muloqot va raqamli xizmatlar imkoniyatlarini oshirgan bo'lsa-da, yangi muammolarni ham keltirib chiqardi. Xususan, kiberxavfsizlik masalalari va kiberaxloqning shakllanishi bugungi raqamli jamiyatning barqaror rivojlanishida muhim omil sifatida ahamiyat kasb etmoqda. Axborot texnologiyalari jamiyatning turli qatlamlariga ta'sir ko'rsatgan holda, yoshlar, davlat organlari, ta'lim muassasalari va ijtimoiy institutlar faoliyatida axloqiy me'yorlarning muhimligini yanada oshirdi.

O'zbekiston Respublikasi so'nggi yillarda raqamli transformatsiya jarayonlariga katta e'tibor qaratmoqda. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlari va normativ hujjatlar mamlakatda kiberxavfsizlikni ta'minlash, yoshlar va fuqarolarni axborotdan mas'uliyatli foydalanishga o'rgatish, milliy axloqiy qadriyatlarni raqamli muhitga integratsiyalashga qaratilgan. Shu bilan birga, kiber makonda axloqiy me'yorlarning shakllanishi milliy madaniyat va qadriyatlar bilan uyg'unlashgan holda rivojlanmoqda. Bu jarayon, ayniqsa, yoshlar orasida onlayn xulq-atvorning axloqiy madaniyatini rivojlantirish, noto'g'ri axborot tarqatilishining oldini olish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash nuqtai nazaridan muhimdir.

Global miqyosda kiberaxloq va kiberxavfsizlik masalalarini tartibga soluvchi xalqaro standartlar va tavsiyalar mavjud. UNESCO, BMT, IEC, ISO kabi xalqaro tashkilotlar kiber makonda axloqiy me'yorlarni shakllantirish, internet etiketi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va onlayn xulq-atvorni tartibga solish bo'yicha keng qamrovli tavsiyalar ishlab chiqgan. Shu bilan birga, xorijiy mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, kiberaxloqning samarali

amalga oshirilishi nafaqat texnologik va huquqiy choralarga, balki ijtimoiy tarbiya, pedagogik yondashuv va yoshlar madaniyatini shakllantirishga ham bog‘liq.

Kiberxavfsizlik va axloqiy me’yorlar sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, global miqyosda axborot va kommunikatsiya texnologiyalari tez rivojlanib borayotgan sharoitda kiberaxloqning shakllanishi nafaqat texnologik, balki ijtimoiy, ma’naviy va pedagogik omillarga ham bog‘liq. Xalqaro miqyosda bu masalaga alohida e’tibor qaratilgan: UNESCO, BMT, ISO va IEC kabi tashkilotlar kiber makonda axloqiy me’yorlar va foydalanuvchilar huquqlarini tartibga soluvchi standartlarni ishlab chiqqan. Bu standartlar internet etiketi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, kiberbullingni oldini olish, zararli kontentni cheklash va mas’uliyatli axborot almashinuvi kabi tamoyillarni o‘z ichiga oladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xorijiy mamlakatlarning tajribasi va O‘zbekiston tajribasi o‘rtasida bir qancha o‘xshashliklar va farqlar mavjud. Masalan, AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya va Yaponiya kabi mamlakatlarda kiberaxloq siyosati ko‘proq texnologik va huquqiy choralarga asoslangan, shu bilan birga yoshlarni axborot madaniyati va mas’uliyatli onlayn xulq-atvor bilan bog‘lashga qaratilgan pedagogik dasturlar ham mavjud. O‘zbekistonda esa milliy qadriyatlar, madaniy an’analar va yoshlar tarbiyasi bilan uyg‘unlashtirilgan yondashuv kuchliroq. Bu esa kiber makonda axloqiy me’yorlarni shakllantirishda milliy va global tajribani uyg‘unlashtirish zaruratini ko‘rsatadi (Abduqodirov, 2019; Jo‘rayev, 2018; Rasulov, 2021).

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, ilmiy adabiyotlarda kiberxavfsizlik va axloqiy me’yorlarni tadqiq etishda bir nechta asosiy yo‘nalishlar mavjud:

1. Texnologik va huquqiy asoslar – axborot xavfsizligi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, kiberjinoyatchilikni oldini olish, xalqaro standartlar va qoidalarni tadqiq qilish (ISO/IEC 27001; IEC 62443).
2. Ijtimoiy va pedagogik yondashuvlar – yoshlarni onlayn axloqiy madaniyatga o‘rgatish, ta’lim dasturlari orqali kiberxavfsizlik va axloqiy me’yorlarni targ‘ib qilish, ijtimoiy institutlar va oilaning roli (Saidov, 2020; Rasulov, 2021).
3. Madaniy va ma’naviy aspektlar – milliy qadriyatlar, madaniy normativlar, diniy va ma’naviy tarbiya orqali kiber makonda axloqiy me’yorlarni shakllantirish (Karimov, 2008; To‘rayev, 2017).
4. Empirik tadqiqotlar va kuzatishlar – onlayn xulq-atvor, zararli kontent tarqalishi, yoshlar orasida kiberbulling holatlarini o‘rganish va raqamli madaniyat darajasini baholash (O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi, 2021–2024).

Metodologiya nuqtai nazaridan, maqolada quyidagi yondashuvlar qo‘llaniladi:

- Analitik va qiyosiy tahlil – xalqaro va milliy kiberaxloq standartlarini solishtirish, o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlash.
- Sistemali yondashuv – kiber makonning texnologik, ijtimoiy, pedagogik va ma’naviy jihatlarini bir tizim sifatida o‘rganish.
- Empirik kuzatish va so‘rovlar – yoshlar va foydalanuvchilar orasida kiberxavfsizlik va axloqiy me’yorlarni tushunish darajasini aniqlash.
- Umumlashtirish va tavsiyalar ishlab chiqish – tahlil natijalarini milliy siyosat va strategiyalarni takomillashtirishga yo‘naltirish.

Shu bilan birga, adabiyotlar tahlili kiberxavfsizlik va axloqiy me’yorlarni shakllantirish jarayonida milliy qadriyatlar va xalqaro standartlar uyg‘unligining ahamiyatini, yoshlar tarbiyasidagi pedagogik yondashuvlarni, shuningdek, raqamli madaniyat va axborot madaniyati rivojlanishining ilmiy asoslarini ko‘rsatadi. Bu esa maqolaning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyatini ta’minlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonda kiberxavfsizlik va axloqiy me’yorlarning shakllanishi jarayoni xalqaro standartlar bilan ma’lum darajada uyg‘unlashgan bo‘lsa-da, milliy xususiyatlar va madaniy qadriyatlar ham muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, xalqaro tajribada ko‘proq texnologik va huquqiy yondashuvlar ustunlik qilsa, O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasi, ma’naviy qadriyatlar va pedagogik yondashuvlar asosida kiberaxloqni

shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa milliy va global tajriba o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash zaruratini ko‘rsatadi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston yoshlari orasida axloqiy madaniyat va kiberxavfsizlikni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslar samarali ishlamoqda. Masalan, ta’lim muassasalari va ijtimoiy institutlar tomonidan ishlab chiqilgan raqamli tarbiya dasturlari, internet etiketi bo‘yicha treninglar, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishga oid seminarlar va onlayn resurslar yoshlarning axborotdan mas’uliyatli foydalanishini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yoshlar onlayn muloqotda o‘zini qanday tutish, zararli kontentdan saqlanish va boshqalarning huquqlarini hurmat qilish masalalarida sezilarli darajada ongli harakat qilmoqda.

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, xalqaro standartlar va O‘zbekiston tajribasi o‘rtasida bir qator farqlar mavjud. Xorijiy mamlakatlarda kiberaxloq siyosati ko‘proq texnologik va huquqiy tamoyillarga tayangan bo‘lsa, O‘zbekistonda milliy qadriyatlar, ijtimoiy tarbiya va yoshlar madaniyati kiberaxloqni shakllantirishda markaziy o‘rin tutadi. Shu sababli, milliy va xalqaro tajriba o‘rtasidagi sintez kiber makonda axloqiy muhitni barqarorlashtirish va yoshlarning mas’uliyatini oshirishda samarali mexanizm sifatida xizmat qilishi mumkin.

Natijalar shuni ham ko‘rsatadiki, kiberxavfsizlik va axloqiy me’yorlarni shakllantirishda quyidagi asosiy tamoyillar muhim ahamiyatga ega:

1. Milliy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish: O‘zbekiston madaniy va ma’naviy an’analarini raqamli makonga integratsiyalash yoshlar orasida axloqiy madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.
2. Xalqaro standartlarga moslashish: UNESCO, ISO va IEC kabi tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan kiberaxloq va kiberxavfsizlik standartlarini milliy sharoitga moslashtirish axborot xavfsizligi va foydalanuvchi huquqlarini ta’minlashga yordam beradi.
3. Pedagogik yondashuvlar: Ta’lim muassasalari va ijtimoiy institutlar yoshlarni onlayn axloqiy madaniyatga o‘rgatish, mas’uliyatli axborot almashinuvi va zararli kontentdan saqlanishni targ‘ib qilishda muhim rol o‘ynaydi.
4. Texnologik infratuzilma: Kiberxavfsizlik texnologiyalari va raqamli platformalarning ishonchliligi axloqiy me’yorlarning amalda bajarilishini ta’minlaydi.

Muhokama davomida shuni qayd etish lozimki, O‘zbekistonda kiberaxloq va kiberxavfsizlikni shakllantirish jarayoni kompleks yondashuvni talab qiladi. Bu jarayon nafaqat normativ-huquqiy va texnologik choralarni, balki yoshlar tarbiyasi, ijtimoiy institutlar, ota-ona va pedagoglarning faol ishtirokini ham o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, global standartlar va milliy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish orqali kiber makonda axloqiy-ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yoshlar orasida axborotdan mas’uliyatli foydalanish, zararli kontentdan saqlanish, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va boshqalarning huquqlarini hurmat qilish kabi ko‘nikmalarni shakllantirish bo‘yicha ijobiy tendensiyalar mavjud. Shu bilan birga, anonimlikdan noto‘g‘ri foydalanish, kiberbulling va zararli kontent tarqalishi kabi salbiy holatlar ham kuzatilmoqda. Bu esa kiber makonda barqaror axloqiy muhitni yaratish uchun kompleks choralarni ishlab chiqish zaruratini ko‘rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, natija va muhokamalar shuni ko‘rsatadiki, kiberxavfsizlik va axloqiy me’yorlarni rivojlantirish bo‘yicha samarali yondashuv milliy qadriyatlar, xalqaro standartlar va pedagogik metodlarni uyg‘unlashtirishni talab qiladi. Bu esa O‘zbekiston yoshlarining raqamli madaniyatini oshirish, kiber makonda axloqiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash hamda raqamli jamiyatni barqaror rivojlantirish imkonini beradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston va xalqaro miqyosda kiberxavfsizlik va axloqiy me’yorlarning shakllanishi jarayoni raqamli transformatsiya va global axborot-muloqot texnologiyalari rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq. Kiber makonning tez sur’atlar bilan kengayishi, internetdan foydalanish darajasining oshishi va yoshlar orasida

raqamli madaniyatning shakllanishi axloqiy me’yorlar va kiberxavfsizlikni mustahkamlashni dolzarb masalalardan biriga aylantirdi. Shu nuqtai nazardan, milliy va xalqaro tajribani o‘rganish, ularni solishtirish va o‘zaro uyg‘unlashtirish O‘zbekistonning raqamli muhitda barqaror va xavfsiz axloqiy makon yaratish strategiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalarini umumlashtiradigan bo‘lsak:

1. Milliy va xalqaro tajriba uyg‘unligi: O‘zbekistonning raqamli transformatsiya jarayonida kiberaxloqni shakllantirish milliy qadriyatlar va xalqaro standartlarni uyg‘unlashtirish orqali amalga oshirilmoqda. Bu esa raqamli makonda barqaror axloqiy muhit yaratish imkonini beradi.
2. Yoshlar tarbiyasining roli: Onlayn axloqiy madaniyatni rivojlantirishda ta’lim muassasalari, ijtimoiy institutlar, ota-ona va pedagoglarning faol ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Shu orqali yoshlar zararli kontentdan saqlanish, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va boshqalarning huquqlarini hurmat qilish ko‘nikmalarini egallaydi.
3. Texnologik va huquqiy choralar: Kiberxavfsizlik texnologiyalari va normativ-huquqiy hujjatlar kiber makonda axloqiy me’yorlarning amalda bajarilishini ta’minlaydi va foydalanuvchilarning xavfsizligini kafolatlaydi.
4. Pedagogik va ijtimoiy yondashuvlar: Kiberaxloqni shakllantirish bo‘yicha pedagogik dasturlar, treninglar, seminarlar va onlayn resurslar yoshlar orasida axloqiy madaniyatni targ‘ib qilishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

Shuni ta’kidlash lozimki, global tajriba va milliy kontekstni uyg‘unlashtirish kiber makonda axloqiy me’yorlarning barqarorligini ta’minlash, yoshlarning mas’uliyatini oshirish va raqamli jamiyatni barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, anonimlikdan noto‘g‘ri foydalanish, kiberbulling, zararli kontent tarqalishi kabi salbiy holatlarni kamaytirish uchun kompleks choralarni ishlab chiqish va amalga oshirish zarur.

Umuman olganda, maqola natijalari O‘zbekistonda kiberxavfsizlik va axloqiy me’yorlarni shakllantirish jarayonining samarali va barqaror bo‘lishi uchun milliy qadriyatlar, pedagogik yondashuvlar, texnologik infratuzilma va xalqaro standartlarning uyg‘unlashgan yondashuvi muhimligini tasdiqlaydi. Shu tariqa, maqola ilmiy va amaliy jihatdan O‘zbekistonning raqamli makonda axloqiy me’yorlarni rivojlantirish strategiyasini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abduqodirov, S. (2019). Raqamli makonda yoshlar axloqi va madaniyati. Toshkent: Fan va Texnologiya.
2. Jo‘rayev, B. (2018). Kiberxavfsizlik va axloqiy me’yorlarni rivojlantirish masalalari. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari vazirligi nashriyoti.
3. Rasulov, N. (2021). Yoshlar va kiber makonda axloqiy me’yorlar. Toshkent: Ta’lim va Tarbiya.
4. Saidov, M. (2020). Kiberaxloq va raqamli madaniyat asoslari. Samarqand: SamDMI nashriyoti.
5. Karimov, I. (2008). Milliy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. Toshkent: Sharq.
6. To‘rayev, J. (2017). Ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni raqamli muhitga integratsiyalash. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.

MUSIQIY VAQT FENOMENOLOGIYASI: M. XAYDEGGER KONSEPSIYASIDA VAQTNING “HISSIY” VA “ONGLI” SHAKLLARI

Zarina Soliyeva,
Samarqand Davlat chet tillar instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqola M.Xaydeggerning ekzistensial-fenomenologik konsepsiyasi asosida musiqa san’atida vaqt fenomenining namoyon bo‘lish xususiyatlarini tadqiq etadi. Tadqiqotda mavjudlikning ikkita asosiy usuliga bevosita mos keluvchi vaqt shakllari - “hissiyot” (davomiylik, oquvchanlik, qaytmaslik) va “ong” (diskretlik, ko‘p yo‘nalishlilik) o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik hamda ziddiyatli mutanosiblik tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Musiqiy vaqt, fenomenologiya, M. Xaydegger, ekzistensiya, vaqt hissi, vaqt ongi, kompozitorlik amaliyoti, ontologik tahlil, mimesis, xronotop.*

Аннотация. *В этой статье исследуются особенности проявления явления времени в музыкальном искусстве на основе экзистенциально-феноменологической концепции М.Хайдеггера. Исследование анализирует корреляцию и противоречивую корреляцию между временными формами, которые напрямую соответствуют двум основным режимам существования - «эмоции» (продолжительность, текучесть, необратимость) и «сознание» (дискретность, многонаправленность).*

Ключевые слова: *музыкальное время, феноменология, М. Хайдеггер, экзистенциализм, чувство времени, сознание времени, практика композиции, онтологический анализ, мимезис, хронотоп.*

Abstract. *This article investigates the manifestation features of the phenomenon of time in musical art on the basis of M. Heidegger’s existential-phenomenological concept. The study analyzes the correlation and contradictory correlation between time forms that directly correspond to the two main modes of existence - “emotion” (duration, fluidity, irreversibility) and “consciousness” (discreteness, multidirectionality).*

Keywords: *Musical time, phenomenology, M. Heidegger, existentialism, sense of time, time consciousness, composing practice, ontological analysis, mimesis, chronotope.*

Kirish. XX asr ilm-fani va madaniyatidagi misli ko‘rilmagan ulkan inqilobning ajralmas qismi, shubhasiz, vaqt tushunchasini tubdan qayta ko‘rib chiqish bo‘ldi. Fizika fanida makroskopik harakatdan ko‘rinmas (mikro) harakatlar sohasiga o‘tish yuz bergan bo‘lsa, biologiya tiriklik fani sifatida murakkab yaxlit obyektlarning xususiyatlariga e’tiborini qaratdi. V.I. Vernadskiy har bir organizm o‘z-o‘zidan vaqtning sababiga aylanadi, degan qoidani ilgari surdi. Falsafa va psixologiyada esa A. Bergson o‘z tadqiqotlariga asoslanib, “vaqt - bu hayot” degan xulosaga keldi. U I. Kantning olam bizga sezgilarimiz orqali berilgani, biz esa uni tushunchalarda anglashimiz haqidagi tayanch fikrini rivojlantirib, tabiat dunyosining ikkiyoqlamaligini psixik va jismoniy holatning shunchaki parallelizmi sifatida emas, balki bitta butunlikning ikki tomoni sifatida ko‘rsatib berdi, chunki “aql va dunyo bir vaqtda mavjuddir”. Ilmiy fikrlashdagi bunday yutuqlar shuni ko‘rsatdiki, ob’ektiv dunyo mavjudligining oquvchanligi bilan barcha tirik mavjudotlarga xos bo‘lgan vaqt “hissi” bog‘liq bo‘lsa, inson fikrlashi uchun vaqtni “anglash” xarakterlidir. Vaqtni anglash insonning o‘z-o‘zini anglash sinonimi bo‘lib, u faqat insongagina xosdir.

Aynan vaqtni bunday tushunish, undagi ikki shaklning inson ongi va hissiyotidagi o‘zaro bog‘liqligi M. Xaydeggerning ekzistensial konsepsiyasini eng adekvat tarzda ko‘rib chiqish imkonini beradi. Xaydegger inson va dunyo o‘rtasidagi bog‘liqlikni hozir bo‘lish (PRISUTSTVIYE) tushunchasi orqali belgilaydi va u “predmet emas”ligini alohida ta’kidlaydi. Xaydegger falsafasida borliq va vaqtning o‘zaro tub bog‘liqligi aynan musiqaning, ya’ni tabiatan vaqtga asoslangan san’atning mavjudlik tamoyillarini belgilash uchun o‘ta muhim ahamiyat kasb

etadi. Faylasufning fikriga ko‘ra, vaqt borliqni “mumkin qiladi” va musiqa san’atida u ehtimollik tamoyilining ifodasi, musiqani oldinga siljitishning o‘ziga xos usuli sifatida namoyon bo‘ladi. Borliq M. Xaydegger talqinida eng keng qamrovli va “hamma narsadan ustun” ma’nosiga ega bo‘lganligi sababli, u aynan musiqa san’atining noaniq, aniq bir predmetsiz xususiyatiga mutlaqo to‘liq mos keladi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, vaqt shakllarining inson idrokida namoyon bo‘lishini ifodalovchi ekzistensial muammo ramziy (simvolik) munosabatlarni amalda qo‘llash muammosiga juda o‘xshashdir. Musiqiy asarni estetik idrok etishdagi eng asosiy qiyinchilik - bu yuzaga chiqayotgan mavjudlikning oquvchanligini go‘yoki “to‘xtatib turuvchi”, asarni qamrab oluvchi vaqt “ongi” shaklini amaliyot bilan bog‘lashdir. Xaydegger asarida ekzistensiya (mavjudlik) borliq va inson mohiyati o‘rtasidagi munosabatni ushlab qolishga qaratiladi, bunda musiqiy asar subyekt yoki obyekt sifatida qotib qolmaydi, balki jarayonli ketma-ketlikda davom etadi. Faylasufning ontologik yondashuvi mavjudlikning ushbu ikkita asosiy usulini ularga aniq mos keluvchi vaqt shakllari - “hissiyot” va “ong” bilan bog‘lagan holda asar va vaqt uzviyligini tahlil qilishni nazarda tutadi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi musiqiy vaqt fenomenologiyasini M. Xaydeggerning ekzistensial-fenomenologik metodi doirasida tahlil qilishdan iborat. Bu yondashuv musiqiy jarayonda vaqtning ham oquvchan, yo‘nalishli hamda qaytmas xususiyatga ega “hissiy” shaklini, ham diskret hamda ko‘p yo‘nalishli xususiyatga ega “ongli” shaklini qanday qilib bir butunlikda ifodalanishini ko‘rsatib beradi. Ushbu tadqiqot an’anaviy estetikaga xos bo‘lgan ziddiyatlarni yengib o‘tishga va turli tarixiy davrlarda kompozitorlik amaliyotida vaqt parametrlaridan musiqiy ifoda vositasi sifatida qanday foydalanilganini ontologik nuqtai nazardan chuqur yoritib berishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili. M. Xaydegger falsafasida borliq va vaqtning uzviy bog‘liqligi ko‘plab ilmiy ishlarda tahlil qilingan bo‘lsa-da, bugungi kunga qadar ushbu konsepsiya bevosita musiqa san’atidagi vaqt fenomenologiyasini asoslash uchun to‘liq hajmda jalb etilmagan. Musiqiy vaqt muammosi va uning falsafiy-estetik jihatlarini o‘rganish borasidagi adabiyotlarni quyidagi asosiy guruhlarga ajratish mumkin:

Vaqt va borliq toifalari fenomenologiyasi: M. Xaydeggerning vaqt toifasi ustidagi izlanishlari hamda uning fenomenologik xususiyatlari R. Dostal, V.I. Molchanov, Yu.B. Molchanov, G. Margvelashvili va G.P. Aksyonov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Borliq va vaqt o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni yoritishda A.G. Chernyakov hamda P.P. Gaydenkoning izlanishlari alohida ahamiyatga ega, biroq bu ishlarda vaqt fenomenining bevosita musiqa san’ati mavjudligi bilan aloqadorligi ochib berilmagan.

Zamonaviy fan va falsafada vaqt konsepsiyasi: Vaqt tushunchasini tubdan qayta ko‘rib chiqish masalalarida V.I. Vernadskiy (har bir tirik organizm vaqt sababchisi ekanligi) va A. Bergsonning (“vaqt - bu hayot” hamda aql va dunyoning bir vaqtda mavjudligi to‘g‘risidagi qarashlari) ilmiy izlanishlari muhim poydevor hisoblanadi. I. Prigojin esa obyektiv dunyoda tasodifiylik va determinizmning bir-birini to‘ldirishi masalasini tahlil qilgan.

Musiqiy vaqt semantikasi va estetikasi: Musiqashunoslikda bevosita musiqiy vaqt semantikasi masalalari O. Pritikinaning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan. T. Adorno o‘zining “Yangi musiqa falsafasi” va “Estetik nazariya” asarlarida musiqada mantiqiy kategoriyalar (yaratilish, davom etish, tugallanish) orqali vaqtni va kompozitorlik (masalan, I. Stravinskiy, A. Shyonberg) yondashuvlarini tahlil qilgan. Shuningdek, musiqadagi “intonatsiya” muammosi B.V. Asafyev tomonidan uzluksiz jarayon sifatida qaralgan bo‘lsa, ongning “intensionalizmi” (uzluksiz dinamik holati) E. Gusserl asarlarida tahlil etilgan.

Kompozitorlik amaliyotida vaqt masalasi: Musiqiy vaqt parametrlarining ifodalanishi musiqa tarixi bo‘yicha T. Cherednichenko, X.X. Eggebrext va K. Dalxauz tadqiqotlarida baholash hamda tarixiy mezonlar doirasida o‘rganilgan. A. Shyonberg, A. Vebern kabi ijodkorlarning asarlarida musiqiy xronotop yaratish borasidagi amaliy izlanishlari vaqtning diskret (“ongli”) hamda davomiy (“hissiy”) proyeksiyalarini namoyish etadi.

Demak, fanda vaqt, borliq va musiqa estetikasi borasida boy material to‘planganiga qaramay, Xaydegger ta’kidlagan vaqtning “hissiyot” va “ong” shakllarini musiqa san’ati jaryonlari bilan uzviylikda bog‘lovchi maxsus majmuaviy tadqiqotlarga bo‘lgan ilmiy ehtiyoj saqlanib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosini o‘rganilayotgan muammoga nisbatan majmuaviy (kompleks) tahlil tamoyillari, shuningdek, hodisalarni o‘rganishda tarixiy hamda mantiqiy yondashuvlarning o‘zaro birligi tamoyili tashkil etdi.

Asosiy qism. Musiqa san’atidagi vaqt muammosini chuqur anglash uchun M. Xaydeggerning ekzistensial-ontologik konsepsiyasida ifodalangan mavjudlikning ikkita asosiy usulini tahlil qilish talab etiladi. Ushbu ikki usul o‘ziga bevosita mos keladigan ikkita ziddiyatli, ammo bir-birini to‘ldiruvchi vaqt shakllari - “hissiyot” va “ong” orqali namoyon bo‘ladi. Zamonaviy biologiya fanining yutuqlari va V.I. Vernadskiy hamda A. Bergson kabi olimlarning xulosalari shuni ko‘rsatdiki, ob’ektiv dunyo mavjudligining doimiy oquvchanligi barcha tirik mavjudotlarga xos bo‘lgan vaqt “hissi” bilan bevosita bog‘liqdir. Shu bilan birga, faqat inson tafakkuriga xos bo‘lgan va o‘z-o‘zini anglashning sinonimi hisoblangan xususiyat – bu vaqt “ongi”dir. Xaydegger bu ikki shaklning inson va borliq o‘rtasidagi munosabatda qanday namoyon bo‘lishini ko‘rsatib, an’anaviy estetikaga xos bo‘lgan subyekt va obyekt o‘rtasidagi uzilishni yengib o‘tishga harakat qilgan.

Vaqtning “hissiy” shakli musiqiy san’atda o‘zining eng oliy ifodasini topadi, chunki bu shakl asosan davomiylik (dleniye), bir yo‘nalishlilik va umuman qaytmaslik xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Musiqa asarining ijro jarayonidagi oquvchanligi va doimiy ravishda oldinga intilishi aynan mana shu hissiy vaqtning proyeksiyasidir. Bunga qarama-qarshi o‘laroq, vaqt “ongi” diskretlik (uzluklilik) va ehtimoliy ko‘p yo‘nalishlilik xususiyatlariga ega bo‘lib, u bevosita musiqiy asarni mantiqiy anglash, uni tugallangan shakl va tuzilma sifatida idrok etish bilan bog‘liqdir. Xaydeggerning ta’kidlashicha, tildagi kabi musiqada ham “yuzaga chiqish” yoki asarni namoyon qilish jarayoni tovushni fikr ifodasiga aylantirish (artikulyatsiya) orqali amalga oshadi.

Subyekt va obyekt munosabatlarining bunday ekzistensial ifodasi, ya’ni yakka va umumiyning o‘zaro singishib ketishi badiiy amaliyotdagi ramziylik (simvolizm) ma’nosini ifodalash muammosiga to‘liq mos keladi. S. Langerning fikricha, inson ongi uchun xos bo‘lgan simvolik qayta ishlash funksiyasi tufayligina san’atda estetik taxminlar bir-birining ichiga singib ketadi. Musiqadagi bu jarayonni E. Gusserl ongning intensionalizmi (o‘z chegaralaridan tashqariga uzluksiz dinamik chiqishi) orqali izohlagan bo‘lsa, E. Kassirer buni ifoda, tasavvur va konseptuallik kabi tushuncha-bosqichlar orqali belgilagan. Musiqada bu narsa B.V. Asafyev ta’kidlaganidek, intonatsiya orqali yuzaga chiqadi. Intonatsiya musiqadagi “hissiy” vaqt oqimiga to‘liq mos keluvchi evokatsion (chaqiruvchi, ifodalovchi) tizimning mohiyatini ochib beradi, intelektual faoliyat esa bevosita ongdagi mantiqiy “uzluklilik” orqali ifodalanib, vaqt “ongi”ni anglatadi.

Xaydeggerning ushbu vaqt fenomenologiyasi XX asr kompozitorlik amaliyotida yuzaga kelgan murakkab uslubiy o‘zgarishlarni tahlil qilish uchun o‘ta muhim kalit vazifasini o‘taydi. Masalan, A. Shyonberg ijodida va umuman dodekafon texnikasida vaqt “ongi” shaklining keskin ustunligi kuzatiladi. Ushbu yo‘nalishda musiqiy qatorlar va tovush ketma-ketliklari oldindan qat’iy matematik tartibda belgilab qo‘yiladi. Buning oqibatida, Xaydegger falsafasi nuqtai nazaridan yondashganda, asarda vaqtning oquvchan “hissiyoti” yo‘qolib, musiqaning o‘z-o‘zidan begonalashuvi yuzaga keladi hamda uning ifoda vositalari qashshoqlashadi.

Bunga butunlay o‘zgacha fenomenologik yondashuvni Shyonbergning shogirdi A. Vebern ijodida ko‘rishimiz mumkin. Vebern an’anaviy sonata qismlarini kichik aforizm hajmiga qadar qisqartirish orqali musiqiy vaqtga mutlaqo yangicha munosabatni shakllantirdi. Uning asarlaridagi tembr ranglarining doimiy o‘zgaruvchanligi emotsional holatning eng mayda tebranishlari bilan bog‘liq bo‘lib, bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri vaqt “hissi”ning namoyon bo‘lishidir. Ayni paytda, uning kompozitsiyalarida boshlanish va tugashni bir vaqtning o‘zida qamrab

oluvchi, go‘yoki “muzlab qolgan vaqt”ni ifodalovchi rivojlanish jarayoni vaqt “ongi”ning mukammal proyeksiyasini hosil qiladi. Shu tariqa, Vebern ijodida Xaydegger ko‘rsatgan ikkala vaqt shakli mutanosiblikka erishadi.

Faylasuf va musiqashunos T. Adornoning ta’kidlashicha, musiqada mantiqiy kategoriyalar o‘ziga xos o‘yinga kirishib, asarning yaratilishi, davom etishi va tugallanishini aks ettiruvchi to‘lqinsimon o‘zgaruvchan omillar sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. An’anaviy estetikaning eskirganligi uning asarni to‘liq qamrab ololmasligida ko‘rinadi, chunki u hodisalarni yagona butunlik sifatida qabul qilmaydi. Xaydeggerning ekzistensial-fenomenologik usuli esa aynan shu muammoni hal etadi: u musiqadagi mimesisning irratsionalligi (hissiy vaqt) va konstruksiyaning ratsionalizmi (ongli vaqt) o‘rtasida hech qanday qarama-qarshilik yo‘qligini, balki ular mavjudlikning ikki asosiy usuli ekanligini isbotlab beradi. Shuningdek, musiqiy vaqt shunchaki metronom o‘lchovidagi fizik jarayon emas, balki “hissiyot” va “ong” kabi ikkita ziddiyatli, ammo o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan ekzistensial kuchlarning yagona xronotopdagi to‘qnashuvidir. Bu esa o‘z navbatida, asarni shunchaki tuzilma sifatida emas, balki insonning subyektiv va obyektiv olamga bo‘lgan munosabatining tirik in’ikosi sifatida ontologik tahlil qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Xulosa. O‘rganilgan mazkur tadqiqotlar va M. Xaydeggerning ekzistensial-fenomenologik metodini musiqiy vaqt muammosiga tatbiq etish natijalari shuni tasdiqlaydiki, musiqada vaqtning “hissiy” va “ongli” shakllari bir-birini inkor etmaydi, balki uzviy yaxlitlikni hosil qiladi. Har bir tarixiy davr va kompozitorlik uslubida (masalan, A. Vebern va A. Shyonberg misolida) ushbu ikki shaklning bir vaqtning o‘zida uyg‘unlashuvi o‘ziga xos individual proporsional nisbatda o‘z ifodasini topgan. Vaqt shakllari o‘rtasidagi bu o‘ziga xos nisbat musiqa san’ati mavjudligining asl ma’nosini belgilashga qaratilgan qadriyatli munosabatning namoyon bo‘lishi sifatida yuzaga chiqadi. Shuningdek, ushbu fenomenologik yondashuv musiqashunoslikda tez-tez uchraydigan aksiologik (baholashga oid) va mantiqiy paradokslarga qaramasdan, musiqa san’ati rivojlanishi tarixidagi ulkan tematik birlikni kashf etishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, musiqiy vaqtni Xaydegger konsepsiyasi asosida bunday ontologik tahlil qilish musiqa san’atidagi estetik, janr va uslubiy xarakterga ega bo‘lgan murakkab muammolarni mutlaqo yangicha, noan’anaviy tarzda qo‘yish hamda hal etish imkonini beradi. Bu esa, o‘z navbatida, olingan ilmiy-nazariy xulosalardan nafaqat musiqashunoslikda, balki estetika, falsafa va madaniyatshunoslik bo‘yicha o‘quv-metodik adabiyotlar tayyorlashda ham bevosita foydalanish uchun keng yo‘l ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Яршак Л.И. Экзистенциально-онтологическая концепция музыкального искусства в философии М. Хайдеггера: автореф. дис. ... канд. филос. наук : 09.00.04. - Москва, 2010. – 27 с.

2. Хайдеггер М. Время и бытие. Статьи и выступления. – М.: изд. «Республика», 1993.

3. Черняков А.Г. Онтология времени. Бытие и время в философии Аристотеля, Гуссерля и Хайдеггера. – Санкт-Петербург: Высшая религиозно-философская школа, 2001.

4. Притыкина О. О семантике музыкального времени в контексте европейской культуры // Методологические проблемы современного искусствознания. Вып. 2. – Л., 1978.

5. Гайденко П.П. Проблема времени в онтологии М.Хайдеггера // Вопросы философии. – 1965. – №12.

6. Адорно Т.В. Философия новой музыки. / пер. Б. Скуратова. – М.: Логос, 2001.

JALOLIDDIN RUMIY FALSAFASIDA AQL, QALB VA ILHOM BIRLIGI

Samadov Jonmurod,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“Tarix va falsafa” kafedrasi o‘qituvchisi,
Samarqand davlat pedagogika instituti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Tasavvufiy bilish tizimi tarixan epistemologik model sifatida emas, balki borliqning o‘zini o‘zida anglashga yo‘naltirilgan metafizik jarayon sifatida shakllangan. Ushbu maqolada aql, qalb va ilhom kategoriyalari Jaloliddin Rumiy ontologiyasida mustaqil bilish vositalari emas, balki mavjudlikning ichki ochilish darajalari sifatida tahlil qilinadi. Rumiy epistemologiyasida bilish subyektning obyektga munosabati emas, balki borliqning o‘zini inson ongida aks ettirishi va o‘zini anglash jarayoni sifatida yuzaga chiqadi. Shu nuqtai nazardan aql, qalb va ilhom o‘zaro dialektik birlikda bo‘lgan uch ontologik bosqich sifatida talqin qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Jaloliddin Rumiy, tasavvuf, ontologiya, gnoseologiya, aql, qalb, ilhom, ishq, ma’rifat, borliq.*

Аннотация. *Мистическая система познания в суфизме исторически сформировалась не как эпистемологическая модель, а как метафизический процесс, направленный на самопознание бытия. В данной статье категории разума, сердца и вдохновения в онтологии Джалаладдин Руми анализируются не как самостоятельные средства познания, а как внутренние уровни раскрытия бытия. В эпистемологии Руми познание рассматривается не как отношение субъекта к объекту, а как процесс отражения бытия в человеческом сознании и его самопонимание. С этой точки зрения разум, сердце и вдохновение интерпретируются как три онтологических уровня, находящихся в диалектическом единстве.*

Ключевые слова: *Джалаладдин Руми, суфизм, онтология, гносеология, разум, сердце, вдохновение, любовь, маърифат, бытие.*

Annotation: *The mystical system of knowledge in Sufism has historically developed not as an epistemological model, but as a metaphysical process oriented toward the self-disclosure of being. In this article, the categories of intellect, heart, and inspiration in the ontology of Jalaluddin Rumi are analyzed not as independent cognitive tools, but as inner levels of the unfolding of existence. In Rumi’s epistemology, knowledge is not understood as a relation between subject and object, but as the manifestation of being within human consciousness and a process of self-awareness. From this perspective, intellect, heart, and inspiration are interpreted as three ontological stages in a dialectical unity.*

Keywords: *Jalaluddin Rumi, Sufism, ontology, epistemology, intellect, heart, inspiration, love, ma’rifa, being.*

Tasavvuf falsafasida bilish muammosi hech qachon klassik G‘arb epistemologiyasidagi kabi subyekt va obyekt o‘rtasidagi munosabat sifatida tushunilmagan. Aksincha, bu an’anada bilish – borliqning o‘zini o‘zida ochish jarayoni sifatida namoyon bo‘ladi. Bu farqni tushunmasdan turib tasavvufiy gnoseologiyani to‘liq anglash mumkin emas. Jaloliddin Rumiy tafakkurida bu masala yanada yorqin shaklga ega bo‘ladi, chunki u bilishni subyektning faoliyati emas, balki borliqning subyekt orqali o‘zini ifodalashi sifatida talqin qiladi.

Tasavvufiy bilish nazariyasining zamonaviy tadqiqotchilari orasida Seyyed Hossein Nasr alohida o‘rin tutadi. U tasavvufni metafizik bilimning ichki yo‘li sifatida ko‘rib, qalbni bilishning markaziy organi deb belgilaydi. Nasrga ko‘ra, tasavvufiy bilim empirik yoki ratsional emas, balki ontologik darajadagi tajribadir[5].

Annemarie Schimmel esa Rumiy metafizikasini “ishq orqali haqiqatning ochilishi” sifatida talqin qiladi va bilish jarayonini intellektual emas, ekzistensial transformatsiya deb tushuntiradi [7]. Shuningdek, Henry Corbin tasavvufni “imaginal world” (xayoliy olam) orqali izohlab,

bilishning oraliq ontologik qatlamini ko‘rsatadi. Toshihiko Izutsu esa tasavvufni semantik ontologiya sifatida tahlil qilib, so‘z va borliq o‘rtasidagi birlikni ochadi[2].

Rumiy metafizikasida aql **(**عقل**)** oddiy bilish vositasi emas, balki borliqning ichida yuz beradigan dastlabki differensiallashuv aktidir. Ya’ni aql haqiqatni ochmaydi, aksincha uni ochilishdan oldin bo‘laklarga ajratadi. Shu ma’noda aql epistemologik imkoniyat emas, balki ontologik “kesish nuqtasi”dir. Bu yerda muhim falsafiy burilish shundaki, Jaloliddin Rumiy uchun bilish jarayoni neytral idrok emas, balki mavjudlikning o‘zida yuz beradigan ichki ajralishdir. Aql paydo bo‘lishi bilan birlik (wahdat) darhol ko‘plik (kasra) shakliga “tushadi”. Demak, aql haqiqatni ifodalovchi emas, balki uni fragmentlarga ajratuvchi struktura sifatida ishlaydi.

Jaloliddin Rumiy bu jarayonni shunchaki epistemologik cheklov sifatida emas, balki ruhiy yo‘lning zarur boshlang‘ich dramatik bosqichi sifatida ko‘radi. Chunki ajralish bo‘lmasa, qayta birlashish ham ontologik ma’noga ega bo‘lmaydi. Shu nuqtada aqlning funksiyasi paradoksal: u haqiqatni yashiradi, lekin aynan shu yashirish orqali insonni harakatga majbur qiladi.

Bu borada Jaloliddin Rumiy ta’limotidagi quyidagi hikmatlar ahamiyatlidir:

“**Aql dengiz qirg‘og‘ida turadi, lekin ichiga sho‘ng‘imaydi**” [6].

Bu oddiy poetik tasvir emas. Bu yerda dengiz – borliqning o‘zi, qirg‘oq – chegaralangan idrok, sho‘ng‘ish esa ontologik erish (immersiya)dir. Aql qirg‘oqda qoladi, chunki uning tabiati masofani saqlashdir. Masofa esa bilish uchun shart, lekin haqiqat uchun to‘siqdir. Shu sababli Jaloliddin Rumiyda aql ikki tomonlama tabiatga ega:

1. Strukturaviy zarurat – u holda inson hech qanday farqlash qila olmaydi
2. Ontologik to‘siq – u birlik tajribasiga kirishni cheklaydi.

Bu paradoks Rumiy tafakkurining markaziy dialektik tugunidir: aqlsiz bilish yo‘q, lekin aql bilan yakuniy haqiqatga yetib bo‘lmaydi.

Falsafiy tilda aytganda, aql apofatik bilish bosqichining boshlanish nuqtasidir: u nimadirni ochmaydi, balki nimaningdir yetishmasligini ko‘rsatadi.

Martin Haydegger ontologiyasidagi “Verfallenheit” (tushib qolish) g‘oyasiga qiyos qilinsa, aql ham borliqni tushunishga harakat qilar ekan, uni “obyektlash” orqali asl ochiqlikni yopib qo‘yadi. Biroq Jaloliddin Rumiyda bu “xato” emas, balki yo‘lning bir qismi sifatida talqin qilinadi.

Shu jihatdan aql haqiqatni ochmaydi, lekin haqiqatga ehtiyojni yaratadi va aynan shu ehtiyoj qalbga o‘tish shartini tayyorlaydi. Demak, aql yakun emas, balki ontologik tayyorgarlik mexanizmi hisoblanadi[4].

Jaloliddin Rumiy epistemologiyasida eng muhim burilish shundan iboratki, aql “bilish subyekti” emas, balki “ajralish hodisasi”dir. Bu ajralish sodir bo‘lmaguncha qalbning birlashuv funksiyasi ishga tushmaydi. Shuning uchun Jaloliddin Rumiy falsafasida aqlni inkor qilish emas, balki uni chegarasida ushlab turish muhim. Aql o‘z chegarasini anglagan paytda u o‘zini inkor etadi va shu inkor orqali qalb maydoniga yo‘l ochadi.

Jaloliddin Rumiy metafizikasida qalb (قلب) oddiy epistemologik vosita sifatida emas, balki borliqning o‘zini o‘zida qayta yig‘uvchi va birlik holatiga qaytaruvchi markaz sifatida namoyon bo‘ladi. Bu yerda muhim jihat shuki, qalb “biladigan organ” emas, balki bilishning o‘zini shartli qiladigan maydondir. Jaloliddin Rumiy tafakkur tizimida aql tomonidan yaratilgan ontologik ajralish – subyekt va obyekt o‘rtasidagi masofa – qalbda bartaraf etiladi. Ammo bu bartaraf etish mexanik inkor emas, balki ichki integratsiya jarayonidir. Ya’ni qalb ikkilikni yo‘q qilmaydi, balki uni birlikning ichiga “eritadi”. Shu nuqtada qalbni oddiy “idrok markazi” deb tushunish xato bo‘ladi. U idrok qilmaydi, balki idrokning shartlarini o‘zgartiradi. Agar aql borliqni bo‘lsa, qalb bo‘lingan borliqni yana bir butun tajribaga qaytaradi.

Bu borada Jaloliddin Rumiy tasavvufiy qarashlari tizimidagi quyidagi hikmatlarga e’tibor qaratish lozim:

“Qalb oynadir, agar u toza bo‘lsa, unda Haq o‘zini ko‘rsatadi” [6].

Bu yerda “oyna” tushunchasi juda muhim ontologik modeldir. Oyna real narsani “tasvirlamaydi”, balki uni o‘zida ko‘rinadigan qiladi. Bu oddiy aks ettirish emas, balki mavjudlikning ko‘rinish shakliga aylanishidir.

Demak, qalb bilish subyekti emas, bilish obyekti ham emas, balki bilishning ko‘rinish sharti (condition of manifestation)dir. Bu nuqtada Jaloliddin Rumiy epistemologiyasi klassik G‘arb falsafasidan tubdan farq qiladi. Masalan, Immanuel Kantda bilish subyekt shartlariga bog‘liq bo‘lsa, Jaloliddin Rumiy falsafasida bilish subyekt-obyekt strukturasining yo‘qolishi orqali yuz beradi. Qalbda sodir bo‘ladigan asosiy ontologik hodisa – bu dualizmning erishidir. Subyekt va obyekt qarama-qarshiligi yo‘qoladi, lekin bu yo‘qolish “narsalarning yo‘q bo‘lishi” emas, balki ularning alohida-alohida mavjudlik da’vosidan voz kechishidir. Shu sababli qalbda bilish “analiz”dan “birlik tajribasi”ga o‘tadi. Analiz bo‘linishni talab qiladi, birlik esa bo‘linishni inkor qilmaydi, balki uni o‘z ichiga oladi[5].

Qalbning eng muhim ontologik xususiyati shundaki, u passiv reflektor emas. U shunchaki aks ettiruvchi sirt emas, balki aks ettirilayotgan narsaning mavjudlik shaklini o‘zgartiruvchi maydondir. Ya’ni Haq qalbda ko‘rinmaydi, Haq qalb orqali “ko‘rinish holatiga kiradi”. Shu ma’noda qalb bu bilishning yakuniy bosqichi emas, balki bilishning o‘zini yo‘qotib, mavjudlikka aylanish nuqtasidir.

Tasavvufiy bilish tizimida ilhom aql va qalb bosqichlarining oddiy yakuni yoki ularning “yuqori shakli” emas, balki bilishning o‘zini ichidan yemiruvchi va uni sof mavjudlik holatiga aylantiruvchi hodisadir. Agar aql borliqni ajratsa, qalb uni birlashtirsa, ilhom esa bu ikki harakatni ham ortda qoldirib, bilishning o‘zini muammoga aylantirgan chegarani yo‘q qiladi. Shu sababli ilhomni “bilishning davomiy shakli” sifatida emas, balki bilishning o‘zidan chiqib ketish nuqtasi sifatida tushunish lozim. Jaloliddin Rumiy metafizikasida bu holat “fano” (yo‘q bo‘lish) va “baqo” (abadiy qolish) dialektik birligi orqali ifodalanadi. Ilhom aynan shu nuqtada yuz beradi – u biluvchi subyektni yo‘q qilmaydi, balki subyektning “biluvchi” sifatidagi funksiyasini bekor qiladi. Bu bosqichda eng muhim falsafiy siljish sodir bo‘ladi: bilish endi subyektga tegishli akt emas, balki borliqning o‘zini o‘zida ochishi sifatida namoyon bo‘ladi. Ya’ni ilhomda “men bilaman” strukturasining o‘zi parchalanadi va uning o‘rnini “bilish sodir bo‘lmoqda” degan anonim ontologik harakat egallaydi. Bu anonimlik tasodifiy emas, balki zaruriydir, chunki Jaloliddin Rumiy falsafasida haqiqat hech qachon individual markazga bog‘lanmaydi[3].

Ilhom shu ma’noda epistemologik kategoriya emas, balki epistemologiyaning tugashidir. Aql tushunadi, qalb sezadi, lekin ilhomda tushunuvchi ham, sezuvchi ham yo‘qoladi va faqat ochilishning o‘zi qoladi. Bu ochilishni subyekt amalga oshirmaydi – subyektning o‘zi shu ochilish ichida erib ketadi.

Annemarie Schimmel Jaloliddin Rumiy haqida yozar ekan, ishq va ilhom holatini “ego yo‘qolishi orqali ilohiy birlikka kirish” sifatida talqin qiladi. Ammo bu yerda “kirish” so‘zi ham shartli, chunki ilhomda hech qanday harakat yo‘q – u harakatning ham tugashini bildiradi.

Jaloliddin Rumiy “Masnaviy”da shunday ma’noga ishora qiladi:

“**O‘zingni yo‘q qil, shunda sen haqiqiy borliqni ko‘rasan**”[6].

Bu jumla oddiy axloqiy chaqiriq emas, balki ontologik formula sifatida ishlaydi. “O‘zingni yo‘q qilish” bu yerda destruksiya emas, balki identifikatsion markazning erishi, ya’ni “men”ning bilish markazi sifatida yo‘qolishidir.

Ilhom bosqichida eng muhim falsafiy natija shundan iboratki, bilish endi inson tomonidan amalga oshirilmaydi. Aksincha, inson bilish jarayonining ichida erigan struktura sifatida qoladi. Shu sababli Jaloliddin Rumiy falsafasida ilhom “yangi bilim” bermaydi, balki bilimning o‘zini “keraksiz” qiladi, chunki haqiqat endi bilish orqali emas, balki bevosita mavjudlik sifatida ochiladi. Natijada tasavvufiy bilish tizimi quyidagi xulosaga keladi: bilishning eng yuqori shakli ko‘proq bilish emas, balki bilishning tugashidir. Bu tugash esa yo‘qotish emas, balki mutlaq ochiqlikka aylanishdir.

Jaloliddin Rumiy falsafasida ong, qalb va ilhom masalalari inson bilish jarayonining alohida qismlari sifatida emas, balki yagona ma’naviy-ontologik birlik sifatida talqin qilinadi. Rumiyning fikricha, haqiqiy bilim ong faoliyati bilan cheklanib qolmaydi, balki qalbni poklash va ilohiy ilhom orqali takomillashadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ong tahlil va mantiqiy tushunish vositasi, qalb ma’naviy idrok markazi va ilhom ilohiy haqiqatni anglashga bevosita olib boradigan eng yuqori ma’naviy holatdir. Bu uch element bir-biri bilan dialektik birlikda mavjud bo‘lib, insonni tashqi bilimdan ichki haqiqatga, tashqi idrokdan ichki ma’rifatga olib boradi.

Jaloliddin Rumiy epistemologiyasida bilim inson ongida subyekt-obyekt munosabati sifatida emas, balki o‘zini o‘zi bilish jarayoni sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, ong, qalb va ilhomning birligi insonni ma’naviy kamolotga, o‘zini anglashga va ilohiy haqiqatga yaqinlashtiradigan asosiy yo‘l sifatida namoyon bo‘ladi. Umuman olganda, Jaloliddin Rumiy falsafasida bu uchlikning birligi inson kognitiv tizimining eng yuqori darajasini ifodalaydi va tasavvufiy epistemologiyaning markaziy g‘oyalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Arberry A. J. Sufism: An Account of the Mystics of Islam, Courier Dover Publications, November 9, 2001. – P. 141.
2. Izutsu T. Sufism and Taoism. Berkeley: University of California Press, 1983. – 520 p.
3. Kant Immanuel. Critique of Pure Reason. – Riga, 1781.
4. Mamatqulov O. Tasavvuf va mumtoz she’riyat. – Toshkent: Fan, 2006. – 248 b.
5. Nasr Seyyed Hossein. The Garden of Truth: The Vision and Practice of Sufism. New York: HarperOne, 2007. – 320 p.
6. Rumiy Jaloliddin. Masnaviy Ma’naviy (tanlangan hikmatlar). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2012. – 320 b.
7. Schimmel A. The Triumphal Sun: A Study of the Works of Jalaluddin Rumi. London, 1978
8. William C. Chittick, The Sufi Path of Love: The Spiritual Teachings of Rumi, SUNY Press, 1983.

O‘QUVCHILARNING ILMIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY OMILLARI

Raxmatullayev Botir Sobir o‘g‘li,
Shaxrisabz davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlar kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi
https://orcid.org/0009-0001-8327-7309

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish jarayoni falsafiy nuqtai nazardan chuqur tahlil qilingan. Zamonaviy ta’lim tizimida shaxsning tanqidiy fikrlashi, ongli qaror qabul qilish qobiliyati hamda borliqni ilmiy asosda anglash darajasi muhim ahamiyat kasb etayotgani asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ilmiy dunyoqarash, falsafiy omillar, bilish nazariyasi, dialektika, tanqidiy fikrlash, metodologiya, ilmiy tafakkur, ta’lim jarayoni, sabab-oqibat munosabatlari.*

Аннотация. *В данной статье представлен углубленный анализ процесса формирования научного мировоззрения учащихся с философской точки зрения. Утверждается, что в современной системе образования критическое мышление человека, способность принимать обоснованные решения и уровень понимания существования на научной основе имеют большое значение.*

Ключевые слова: *научное мировоззрение, философские факторы, теория познания, диалектика, критическое мышление, методология, научное мышление, образовательный процесс, причинно-следственные связи.*

Abstract. *This article presents an in-depth analysis of the process of developing students' scientific worldviews from a philosophical perspective. It is argued that in the modern education system, critical thinking, the ability to make informed decisions, and a scientifically based understanding of existence are of great importance.*

Keywords: *scientific worldview, philosophical factors, theory of knowledge, dialectics, critical thinking, methodology, scientific thinking, educational process, cause-and-effect relationships.*

Kirish. Zamonaviy globallashuv sharoitida jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida inson kapitalining sifati, ayniqsa yosh avlodning bilim darajasi, tafakkuri va dunyoqarashi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda ta’lim tizimining asosiy vazifasi nafaqat bilim berish, balki har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikrlay oladigan, ilmiy asosda qaror qabul qiluvchi shaxsni shakllantirishdan iboratdir [4]. Shu nuqtai nazardan qaraganda, o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish masalasi pedagogika va falsafa fanlarining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ilmiy dunyoqarash — bu insonning borliq, tabiat, jamiyat va tafakkur haqidagi ilmiy asoslangan qarashlari tizimi bo‘lib, u shaxsning fikrlash tarzini, hayotga munosabatini va faoliyat yo‘nalishini belgilaydi[3]. Bunday dunyoqarashni shakllantirish jarayoni esa murakkab, ko‘p bosqichli hamda turli omillar ta’sirida yuzaga keladigan jarayondir. Ayniqsa, bu jarayonda falsafiy omillar muhim o‘rin tutadi, chunki falsafa insonning borliqni anglash usullari, bilish qonuniyatlari va tafakkur shakllarini o‘rganadi.

Bugungi kunda axborot oqimining keskin ortib borishi, turli g‘oyalar va qarashlarning ko‘pligi sharoitida o‘quvchilarda to‘g‘ri, asosli va ilmiy dunyoqarashni shakllantirish zarurati yanada kuchaymoqda. Chunki yoshlar ongida yuzaki yoki noto‘g‘ri qarashlarning shakllanishi jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin[1]. Shu sababli, ta’lim jarayonida ilmiylik, mantiqiylik va izchillik tamoyillariga asoslangan holda o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Falsafiy yondashuv ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda metodologik asos vazifasini bajaradi. Xususan, bilish nazariyasi (epistemologiya), dialektik metod, sabab-oqibat

munosabatlari, obyektiv va subyektiv haqiqat tushunchalari o‘quvchilarning fikrlash jarayonini chuqurlashtirishda muhim ahamiyatga ega [3]. Dialektik tafakkur orqali o‘quvchilar hodisa va jarayonlarni o‘zaro bog‘liqlikda, rivojlanishda va qarama-qarshiliklar birligi asosida tushunishni o‘rganadilar. Bu esa ularning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy faoliyatdagi samaradorligini ham oshiradi.

Shuningdek, ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda ta’lim mazmuni, o‘qitish metodlari, pedagogik texnologiyalar va o‘qituvchining shaxsiy yondashuvi muhim rol o‘ynaydi[5]. Innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, muammoli vaziyatlar yaratish, tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan metodlarni qo‘llash orqali o‘quvchilarda ilmiy tafakkurni shakllantirish mumkin. Ayniqsa, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi ushbu jarayonni yanada samarali tashkil etish imkonini bermoqda.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, hozirgi davrda nafaqat bilimli, balki ongli, tanqidiy fikrlovchi va mustaqil qaror qabul qila oladigan shaxslarni tarbiyalash jamiyatning ustuvor vazifasiga aylangan. Bu esa o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda falsafiy omillarni chuqur o‘rganish va ularni amaliyotga tatbiq etishni talab qiladi.

Shu boisdan ushbu maqolaning asosiy maqsadi — o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda falsafiy omillarning o‘rni va ahamiyatini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilishdan iboratdir. Mazkur maqsadga erishish uchun ilmiy dunyoqarash tushunchasining mazmun-mohiyati ochib beriladi, uning shakllanishiga ta’sir etuvchi falsafiy omillar aniqlanadi hamda ta’lim jarayonida ularni samarali qo‘llash yo‘llari yoritiladi.

Asosiy qism. O‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish murakkab, tizimli va uzluksiz pedagogik jarayon bo‘lib, u bir qator falsafiy omillarga tayanadi. Ushbu jarayonni to‘g‘ri tashkil etish uchun, avvalo, ilmiy dunyoqarash tushunchasining mazmun-mohiyatini chuqur anglash zarur[3]. Ilmiy dunyoqarash — bu insonning borliqni ilmiy asosda tushunishi, hodisa va jarayonlarni mantiqiy tahlil qila olishi, sabab-oqibat munosabatlarini anglay bilishi hamda o‘z faoliyatini shu asosda tashkil eta olish qobiliyatidir.

Ilmiy dunyoqarashning shakllanishida, birinchi navbatda, bilish jarayonining falsafiy asoslari muhim rol o‘ynaydi. Bilish nazariyasi (epistemologiya) insonning bilim olish jarayonini, uning manbalari, shakllari va qonuniyatlarini o‘rganadi. O‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish jarayonida ularning bilishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, bilimlarni ongli ravishda egallashga yo‘naltirish muhim hisoblanadi [3]. Bu jarayonda o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki yo‘naltiruvchi va rag‘batlantiruvchi subyekt sifatida ishtirok etadi.

Shuningdek, dialektik tafakkur ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning asosiy falsafiy omillaridan biri hisoblanadi. Dialektika hodisa va jarayonlarni doimiy harakat, rivojlanish va o‘zgarish jarayonida o‘rganishni talab qiladi. O‘quvchilarda dialektik tafakkurni shakllantirish orqali ular voqelikni chuqurroq anglay boshlaydi, qarama-qarshiliklarni ko‘ra oladi va ularni tahlil qilishga o‘rganadi[3]. Bu esa o‘z navbatida tanqidiy fikrlashning rivojlanishiga olib keladi.

Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda sabab-oqibat munosabatlarini anglash alohida ahamiyat kasb etadi. Har qanday hodisa yoki jarayonning sabablari va natijalari mavjud bo‘lib, ularni tahlil qilish orqali o‘quvchilar voqelikni ilmiy asosda tushunishni o‘rganadilar. Bu esa ularning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi va noto‘g‘ri xulosalar chiqarish ehtimolini kamaytiradi [4]. Shu bois ta’lim jarayonida sabab-oqibat bog‘liqligini ochib berishga qaratilgan topshiriqlar va muammoli vaziyatlardan keng foydalanish zarur.

Bundan tashqari, ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda obyektiv va subyektiv haqiqat tushunchalarini farqlay olish muhimdir. O‘quvchilar ko‘pincha shaxsiy fikr va ilmiy haqiqatni bir-biridan ajrata olmaydilar. Falsafiy yondashuv orqali ularga obyektiv haqiqatning ilmiy dalillar va tajriba asosida shakllanishi tushuntiriladi[7]. Bu esa ularni asossiz qarashlardan himoya qiladi va ilmiy tafakkurni mustahkamlaydi.

Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda ta’lim mazmuni ham muhim rol o‘ynaydi. O‘quv dasturlari ilmiylik, tizimlilik va izchillik tamoyillariga asoslangan bo‘lishi kerak. Fanlararo

integratsiya orqali o‘quvchilar turli fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglay boshlaydi, bu esa ularning dunyoqarashini yanada kengaytiradi[6]. Masalan, tabiiy fanlar orqali tabiat qonuniyatlari o‘rganilsa, ijtimoiy fanlar orqali jamiyat va inson faoliyati tahlil qilinadi.

Pedagogik texnologiyalar ham ushbu jarayonda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy ta’lim metodlari, xususan, muammoli ta’lim, loyiha asosida o‘qitish, interfaol metodlar o‘quvchilarning faolligini oshiradi va ularni mustaqil fikrlashga undaydi [5]. Bunday metodlar orqali o‘quvchilar tayyor bilimni emas, balki bilimni izlab topish, tahlil qilish va xulosa chiqarishni o‘rganadilar. Bu esa ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda eng samarali yo‘llardan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, o‘qituvchining shaxsiy fazilatlari va pedagogik mahorati ham muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi o‘zi ilmiy dunyoqarashga ega bo‘lishi, yangiliklarga ochiq bo‘lishi va o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga rag‘batlantira olishi zarur[4]. U o‘quvchilarga nafaqat bilim berishi, balki ularda ilmiy tafakkur va izlanish ko‘nikmalarini shakllantirishi kerak.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi ilmiy dunyoqarashni shakllantirish jarayoniga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Internet resurslari, elektron darsliklar, virtual laboratoriyalar orqali o‘quvchilar bilimni mustaqil ravishda egallash imkoniga ega bo‘lmoqda. Biroq bu jarayonda axborotni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki barcha ma’lumotlar ham ishonchli emas [5].

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda falsafiy omillar kompleks va tizimli ravishda namoyon bo‘ladi [2]. Ular nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirishga, balki shaxsning umumiy rivojlanishiga, hayotiy pozitsiyasining shakllanishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim va dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonning samaradorligi ko‘p jihatdan uning falsafiy asoslariga tayanib tashkil etilishiga bog‘liqdir. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish orqali o‘quvchilarda borliqni to‘g‘ri anglash, hodisa va jarayonlarni tahlil qilish, mustaqil va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bilish nazariyasi, dialektik tafakkur, sabab-oqibat munosabatlari, obyektiv haqiqatni anglash kabi falsafiy omillar o‘quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi [3]. Shu bilan birga, ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, innovatsion yondashuvlardan foydalanish ham ushbu jarayonning samaradorligini oshiradi.

O‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki ularni hayotga tayyorlash, ongli qaror qabul qilishga o‘rgatish va jamiyatda faol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Shu sababli, ta’lim tizimida falsafiy yondashuvni kuchaytirish, ilmiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan metodlarni keng joriy etish zarur.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, ilmiy dunyoqarashga ega bo‘lgan yosh avlod — jamiyat taraqqiyotining asosiy omili bo‘lib, ularning shakllanishida falsafiy omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi [2].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
3. Qodirov B.R. Falsafa asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
4. To‘rayev B. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Fan, 2018.
5. Abdurahmonov Q.X. Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
6. G‘aybullayev O. Umumiy pedagogika. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
7. Popper K. The Logic of Scientific Discovery. – London, 2002.

VIRTUAL BORLIQ VA HUQUQIY ONG: INSON DUNYOQARASHIDAGI EVRISTIK O‘ZGARISHLAR

Soliyev Abdullo Olimjon o`g`li,
Andijon davlat pedagogika instituti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqola virtual borliqning kengayishi sharoitida huquqiy ongning qayta shakllanishi va inson dunyoqarashida yuz berayotgan evristik o‘zgarishlarni falsafiy-huquqiy nuqtai nazardan tahlil qiladi. Tadqiqotning maqsadi raqamli muhitda normativ idrok, mas’uliyat va legitimlik tasavvurlarining qanday mexanizmlar orqali o‘zgarishini tushuntirish hamda ushbu o‘zgarishlarning huquqiy ong barqarorligiga ta’sirini baholashdan iborat.*

Kalit so‘zlar: *virtual borliq; huquqiy ong; evristik o‘zgarishlar; algoritmik boshqaruv; raqamli identifikatsiya; platforma me’yorlari; legitimlik.*

Аннотация. *В статье анализируется трансформация правового сознания в условиях расширения виртуального бытия и эвристические сдвиги в мировоззрении человека с философско-правовой позиции. Цель исследования состоит в объяснении механизмов изменения нормативного восприятия, ответственности и представлений о легитимности в цифровой среде, а также в оценке их влияния на устойчивость правового сознания.*

Ключевые слова: *виртуальное бытие; правовое сознание; эвристические изменения; алгоритмическое управление; цифровая идентификация; платформенные нормы; легитимность.*

Abstract. *This article examines how the expansion of virtual being reshapes legal consciousness and triggers heuristic shifts in human worldview from a philosophical-legal perspective. The study aims to explain the mechanisms through which normative perception, responsibility, and legitimacy are reconfigured in digital environments, and to assess how these changes affect the stability of legal consciousness.*

Keywords: *virtual being; legal consciousness; heuristic change; algorithmic governance; digital identification; platform normativity; legitimacy.*

Kirish. Virtual borliqning kundalik tajribaga singib borishi insonning ijtimoiy reallikni idrok etish usullarini, shu jumladan huquqiy me’yorlar va majburiyatlarni anglashini tubdan qayta tashkil etmoqda. Huquqiy ong an’anaviy ravishda institutsional tartibotlar, og‘zaki va yozma normativ matnlar, ijtimoiy nazorat hamda shaxsiy axloqiy mulohaza kesishgan nuqtada shakllanadi. Biroq raqamli muhitda norma bilan to‘qnashuv tezligi ortadi, normaning tashuvchisi ko‘pincha davlat instituti emas, balki platforma qoidalari, avtomatlashtirilgan moderatsiya yoki xizmat ko‘rsatish shartnomalari bo‘lib qoladi. Natijada huquqiy ongda legitimlik, adolat va javobgarlikning an’anaviy mezonlari bilan bir qatorda yangi, tezkor evristik mezonlar ham paydo bo‘ladi. Bu holat “qonuniy” va “ruxsat etilgan” tushunchalarining bir-biriga yaqinlashuvi yoki aksincha ajralishi, huquqiy xulqning motivatsion asoslari qayta taqsimlanishi kabi jarayonlarda ko‘rinadi.

Adabiyotlar tahlili. Mavzu bo‘yicha adabiyotlarda virtual borliq ko‘pincha media-falsafa va raqamli madaniyat prizmasida talqin qilinadi; bunda simulyatsiya, belgi almashinuvi va giperreallik kabi tushunchalar reallikning ijtimoiy konstruksiyasi muammolarini yoritadi [1]. Huquqiy maydonda esa raqamli makon ko‘proq kiberxavfsizlik, shaxsiy ma’lumotlar, intellektual mulk, sun’iy intellekt bilan bog‘liq javobgarlik modellariga doir muammolar orqali o‘rganiladi [2]. Shuningdek, “algoritmik boshqaruv” va platformalarning normativ kuchi davlat huquqidan tashqari tartibga solish mexanizmlarini muhokama markaziga olib chiqdi [3]. Shu bilan birga, huquqiy ongning aynan evristik o‘zgarishlari, ya’ni insonning raqamli vaziyatlarda tezkor qaror chiqarish, norma tanlash, ruxsat va taqiqni farqlash uchun soddalashtirilgan kognitiv yo‘llardan foydalanishi masalasi yetarlicha integrativ yondashuv bilan yoritilmagan. Mavjud

ishlar ko‘pincha texnologiya-huquq yoki falsafa-media yo‘nalishlarida parchalangan holda qolmoqda; natijada virtual borliqning huquqiy ongga ta’siri nafaqat institutsional, balki kognitiv-insoniy mexanizmlar darajasida ham bir butun model sifatida tushuntirilmayapti.

Tadqiqot nazariy xarakterga ega bo‘lib, ma’lumotlar bazasi sifatida falsafa va huquq nazariyasidagi konseptual manbalar, raqamli boshqaruv va platforma normativligi bo‘yicha zamonaviy ilmiy tahlillar hamda huquqiy ongga oid sotsiogumanitar yondashuvlar tanlandi. Metodologik asosni konseptual tahlil tashkil etadi: “virtual borliq”, “huquqiy ong”, “legitimlik”, “javobgarlik” va “evristika” tushunchalari semantik qatlamlarga ajratilib, ularning raqamli muhitdagi ko‘chishi va qayta bog‘lanishi rekonstruksiya qilindi. Komparativ yondashuv offline institutsional tartibga solish bilan platformaviy tartibga solishning normativ mexanizmlarini qiyoslash, ularning huquqiy ongda uyg‘otadigan ishonch va majburiyat hissi farqlarini ko‘rsatish uchun qo‘llandi. Diskursiv rekonstruksiya usuli raqamli muhitdagi “foydalanuvchi”, “kontent”, “moderatsiya”, “reyting”, “shaffoflik” kabi atamalar huquqiy ma’no ishlab chiqarish jarayonida qanday normativ yuk olishini aniqlashga xizmat qildi. Yakuniy bosqichda normativ model yaratish orqali virtual borliq sharoitidagi huquqiy ongning evristik rejimlari va ularni barqarorlashtiruvchi shartlar umumlashtirildi [4].

Muhokama va natijalar: Tadqiqot natijasida virtual borliq huquqiy ong uchun uch qatlamli interfeys sifatida tavsiflandi. Birinchi qatlam raqamli identifikatsiya va iz qoldirish rejimidir: foydalanuvchi profili, autentifikatsiya, geolokatsiya, sessiya ma’lumotlari huquqiy subyektlikni “barqaror shaxs”dan “kontekstga bog‘liq shaxs”ga siljitadi. Bunda subyektlik bir vaqtning o‘zida mustahkamlanadi, chunki izlar ko‘payadi, va zaiflashadi, chunki identifikatsiya ko‘pincha platforma va vositachilar orqali amalga oshadi. Ikkinchi qatlam platforma me’yorlari va xizmat shartlari bo‘lib, ular ko‘pincha ierarxik huquqiy manbalar tizimidan tashqarida, ammo amaliy majburiy kuchga ega “mikronorma” sifatida ishlaydi. Uchinchi qatlam algoritmik tartibga solishdir: tavsiya tizimlari, avtomatik filtrlar, reyting va ko‘rinishlilikni taqsimlash mexanizmlari xatti-harakatni bevosita taqiqlashdan ko‘ra, imkoniyatlar arxitekturasini o‘zgartirish orqali boshqaradi.

Huquqiy ongdagi evristik o‘zgarishlar to‘rt yo‘nalishda aniqlandi. Birinchisi, legitimlikning manbaiga doir evristika: foydalanuvchi ko‘pincha normaning qonuniyligi emas, uning platformada “ishlashi”, ya’ni jarima, blok, cheklov kabi oqibatlar bilan birga kelishi orqali legitim deb qabul qiladi. Ikkinchisi, javobgarlik evristikasi: raqamli muhitda qarorlar taqsimlanganligi sababli shaxs o‘z javobgarligini “tarqatish”ga moyil bo‘ladi, ya’ni algoritm, moderator yoki “qoidalar”ga ishora qilib, shaxsiy tanlov ulushini kichraytiradi. Uchinchi yo‘nalish, normativ vaqt evristikasi: offline huquqiy ongda me’yor nisbatan barqaror va oldindan taxmin qilinadi, raqamli muhitda esa qoidalar tez yangilanadi va foydalanuvchi “hozirgi holat”ga moslashishga majbur bo‘ladi; bu normani tamoyil sifatida emas, vaziyatli ko‘rsatma sifatida qabul qilishni kuchaytiradi. To‘rtinchisi, dalillilik evristikasi: raqamli izlar ko‘pligi “isbot bor” degan soddalashtirilgan ishonchni paydo qiladi, biroq izlarning kontekstdan uzilishi, selektiv saqlanishi va talqin qilinishi sababli huquqiy ongda isbotning sifat mezonlari ko‘pincha torayadi.

Natijalar asosida huquqiy ong barqarorligining uch indikatori ajratildi: normativ shaffoflik indikatori, ya’ni qoida va sanksiya mexanizmlarining foydalanuvchi uchun tushunarli bo‘lish darajasi; atributsiya indikatori, ya’ni qaror va oqibatlarning kimga tegishli ekani haqidagi kognitiv aniqlik; hamda moslik indikatori, ya’ni platforma me’yorlari bilan rasmiy huquq va shaxsiy adolat sezgisi o‘rtasidagi uyg‘unlik darajasi. Ushbu indikatorlar pasayganda evristik qarorlar ko‘payadi va huquqiy ongning refleksiv komponenti qisqaradi.

Olingan natijalar virtual borliqni simulyatsiya va giperreallik bilan izohlovchi yondashuvlar bilan qisman mos keladi: raqamli muhitda belgi va tartibotlar ko‘pincha “real oqibat”ni bevosita ishlab chiqaradi, shuning uchun foydalanuvchi uchun normaning ontologik manbai emas, uning operatsion kuchi muhimlashadi [1]. Biroq ushbu maqolada asosiy urg‘u simulyatsiya fenomenologiyasidan ko‘ra, huquqiy ongning kognitiv-institutsional mexanizmlariga qaratildi. Platforma me’yorlari “soft law”ga o‘xshash ko‘rinsa-da, ularning

majburiyligi ko‘pincha shartnomaviy rozilik va texnik cheklovlar sintezi orqali ta’minlanadi; bu esa huquqiy ongda majburiyatni “rozilik berdim” degan soddalashtirilgan formula bilan almashtirish xavfini kuchaytiradi. Shu nuqtai nazardan, algoritmik boshqaruv haqidagi tadqiqotlar bilan uyg‘un ravishda, normativlik endi faqat matn va institutga emas, balki dizayn va kodga ham ko‘chayotganini ko‘rsatadi [3].

Natijalarning nazariy ahamiyati shundaki, huquqiy ongni faqat bilim va qadriyatlar majmui sifatida emas, balki evristik va refleksiv rejimlar o‘rtasida almashadigan dinamik tizim sifatida ko‘rsatadi. Raqamli vaziyatlarda evristika zarur, chunki tezkor qarorlar talab etiladi; muammo evristikaning doimiy rejimga aylanishidadir. Amaliy jihatdan esa normativ shaffoflik va atributsiya indikatorlari platforma muvofiqligi, foydalanuvchi shikoyat mexanizmlari, tushuntiriladigan algoritmlar va raqamli huquqiy savodxonlik dasturlarida mezon bo‘la oladi. Xususan, shaffoflik faqat qoidalarni e’lon qilish emas, balki ularning qo‘llanish mantiqini tushuntirish, sanksiya jarayonida apellyatsiya imkonini real ishlaydigan qilishni ham anglatadi. Atributsiya aniqligi esa “algoritm shunday qildi” degan noaniq iborani yengib, kim qaror qabul qilgani, kim nazorat qilgani va kim javob berishini huquqiy ong darajasida ham ravshanlashtirishni talab etadi; bu masala sun’iy intellekt etikasi va javobgarlik modellari muhokamasida markaziy o‘rin tutadi [2].

Tadqiqot cheklovlari shundaki, u konseptual-nazariy yo‘nalishda olib borildi va alohida mamlakat yoki platformalar kesimidagi empirik ma’lumotlar bilan tekshirilmagan. Shuningdek, huquqiy ongning evristik o‘zgarishlari turli demografik guruhlar, kasbiy tajriba va raqamli kompetensiya darajasiga ko‘ra farqlanishi ehtimoli yuqori. Kelajakdagi izlanishlar uchun uch yo‘nalish istiqbolli ko‘rinadi: birinchidan, raqamli huquqiy ijtimoiylashuvning yosh guruhlari bo‘yicha qiyosiy tadqiqi; ikkinchidan, platforma me’yorlari bilan milliy qonunchilik o‘rtasidagi moslik indikatorlarini o‘lchashga imkon beradigan metodikani ishlab chiqish; uchinchidan, algoritmik tartibga solishning tushuntiriluvchanligi va apellyatsiya mexanizmlarining huquqiy ong barqarorligiga ta’sirini baholash [5].

Xulosa. Maqolada virtual borliq huquqiy ongni o‘zgartiruvchi omil emas, balki huquqiy ma’no ishlab chiqarish va normani ichkilashtirish jarayonlarini qayta sozlaydigan kognitiv-institutsional interfeys sifatida asoslandi. Huquqiy ongning evristik o‘zgarishlari legitimlik manbaini operatsion oqibatlar orqali baholash, javobgarlikni taqsimlangan tizimlarga yuklashga moyillik, normativ vaqtning tezlashuvi sababli vaziyatli me’yorlashuv hamda dalillilikni raqamli izlarning mavjudligi bilan soddalashtirilgan tarzda tenglashtirish ko‘rinishlarida ifodalandi. Barqaror huquqiy ong uchun normativ shaffoflik, atributsiya aniqligi va rasmiy huquq, platforma me’yorlari hamda shaxsiy adolat sezgisi o‘rtasidagi moslik hal qiluvchi indikatorlar ekanligi ko‘rsatildi. Ushbu xulosalar raqamli muhitda huquqiy tarbiya, platforma boshqaruvi va algoritmik tartibga solish tamoyillarini ishlab chiqishda huquqiy ongning real kognitiv mexanizmlarini inobatga olish zarurligini asoslaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bodriyyar J. Simulyakrlar va simulyatsiya. Moskva, Postum, 2015. 240 b.
2. Surden H. Artificial intelligence and law: An overview. Gaaga, Eleven International Publishing, 2019. 312 p.
3. Zuboff S. The Age of Surveillance Capitalism: The Fight for a Human Future at the New Frontier of Power. New York, PublicAffairs, 2019. 704 p.
4. Habermas J. Faktiklik va normativlik o‘rtasida: Huquq va demokratik davlat nazariyasiga doir. Frankfurt am Main, Suhrkamp, 1992. 704 b.
5. Lessig L. Code: And Other Laws of Cyberspace. New York, Basic Books, 2006. 432 p.

SHANXAY HAMKORLIK TASHKOLOTI TARIXIDA O‘ZBEKISTONNING O‘RNI VA STRATEGIK TASHABBUSLARI

Shoxrux Faxriddinov,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
2-bosqich magistranti

Anotatsiya. *Mazkur maqolada Shanxay hamkorlik tashkiloti tarixida O‘zbekistonning o‘rni va strategik tashabbuslari tizimli tahlil qilingan. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida yuz bergan geosiyosiy transformatsiyalar fonida ShHTning shakllanish jarayoni, O‘zbekistonning unga qo‘shilishi va keyingi bosqichlarda tutgan konseptual roli yoritilgan.*

Kalit so`zlar. *Shanxay hamkorlik tashkiloti, O‘zbekiston tashabbuslari, geosiyosiy transformatsiya, mintaqaviy xavfsizlik, Toshkent sammiti, Samarqand sammiti, transport-logistika loyihalari, madaniy-gumanitar integratsiya.*

Аннотация. *В данной статье системно анализируются роль Узбекистана и его стратегические инициативы в истории Шанхайской организации сотрудничества. На фоне геополитических трансформаций конца XX — начала XXI века освещаются процесс формирования ШОС, вступление Узбекистана в организацию, а также его концептуальная роль на последующих этапах развития.*

Ключевые слова: *Шанхайская организация сотрудничества, инициативы Узбекистана, геополитическая трансформация, региональная безопасность, Ташкентский саммит, Самаркандский саммит, транспортно-логистические проекты, культурно-гуманитарная интеграция.*

Abstract. *This article systematically analyzes the role of Uzbekistan and its strategic initiatives in the history of the Shanghai Cooperation Organization. Against the background of geopolitical transformations at the end of the 20th and the beginning of the 21st century, the article highlights the formation of the SCO, Uzbekistan’s accession to the organization, and its conceptual role in the subsequent stages of development.*

Keywords: *Shanghai Cooperation Organization, Uzbekistan’s initiatives, geopolitical transformation, regional security, Tashkent Summit, Samarkand Summit, transport and logistics projects, cultural and humanitarian integration.*

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida xalqaro munosabatlar tizimida tub geosiyosiy transformatsiyalar yuz berdi. Ikki qutbli dunyo tartibotining parchalanishi natijasida Markaziy Osiyo mintaqasi global va mintaqaviy kuchlarning geostratejik manfaatlari to‘qnashadigan strategik chorrahaga aylandi. Mintaqada barqarorlik, transmilliy xavfsizlik va izchil iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash maqsadida yangi formatdagi ko‘p tomonlama xalqaro institutlarni tashkil etish hayotiy zaruratga aylandi. Ushbu tarixiy va xavfsizlik ehtiyojlarining bevosita mahsuli sifatida Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) maydonga chiqdi [1, b. 45].

ShHT ning shakllansh jarayoni 1996-yilda tashkil etilgan “Shanxay beshligi” formatidan boshlangan. Ushbu tuzilma tarkibiga Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston kirgan bo‘lib, asosiy maqsad chegara hududlarida harbiy ishonchni mustahkamlashdan iborat edi. 2001-yilda O‘zbekistonning qo‘shilishi bilan tashkilot Shanxay hamkorlik tashkiloti nomini oldi va uning faoliyat doirasi xavfsizlik, iqtisodiyot hamda madaniy hamkorlik yo‘nalishlarida kengaydi.

Bugungi kunda ShHT dunyo aholisining qariyb yarmini, global yalpi ichki mahsulotning (YIM) choragidan ortig‘ini va Yevroosiyo qit’asi hududining ulkan qismini qamrab olgan eng yirik mintaqaviy tashkilot hisoblanadi. ShHT xalqaro munosabatlar tizimida muhim geosiyosiy markazlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Tashkilot tarkibidagi davlatlar yadro quroliga ega yirik siyosiy kuchlar va jadal rivojlanayotgan iqtisodiyotlarni o‘z ichiga oladi. Shu sababli ShHT nafaqat mintqaviy, balki global miqyosdagi siyosiy jarayonlarga ham ta’sir ko‘rsatmoqda.

So‘nggi yillarda ShHT davlatlari o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik hajmi sezilarli ravishda oshib bormoqda. Transport-logistika tizimlari, energetika, raqamli texnologiyalar va investitsiya loyihalari tashkilotning ustuvor yo‘nalishlariga aylanmoqda. ShHT xalqaro maydonda o‘ziga xos o‘rin va nufuzga ega bo‘lib, uning tizimli evolyutsiyasida va strategik kun tartibini belgilashda O‘zbekiston Respublikasining roli beqiyosdir. O‘zbekiston ShHTga nafaqat ta’sischi davlat sifatida, balki uning falsafasi hisoblangan «Shanxay ruhi»ni shakllantirishda yetakchi rol o‘ynagan strategik subyekt sifatida namoyon bo‘ladi [2, b. 3].O‘zbekiston Markaziy Osiyoning markaziy qismida joylashgani sababli mintaqadagi transport, energetika, va xavfsizlik tizimlarida muhim geostrategik o‘rin egallaydi. Respublika Afg‘oniston bilan chegaradosh bo‘lgani tufayli terrorizm, eksteremizm, va noqonuniy narkotrafik xavflarga qarshi kurashishda ShHT uchun asosiy hamkorlardan biri hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot ishini tayyorlashda tizimli tahlil, qiyosiy-huquqiy metod, tarixiy-xronologik yondashuv hamda siyosiy prognozlash metodlaridan foydalanildi. ShHT faoliyatiga doir xalqaro shartnomalar, sammitlar deklaratsiyalari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentlarining nutqlari kontent-analiz (matn tahlili) uslubi orqali tadqiq etildi. Xususan, tashkilot rivojlanishining dinamikasi a’zo davlatlarning iqtisodiy va xavfsizlik ko‘rsatkichlari bilan bog‘liqlikda o‘rganildi [7, b. 14].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ShHT faoliyati va unda O‘zbekistonning tutgan o‘rni mahalliy hamda xorijiy siyosatshunos, sotsiolog va tarixchi olimlar tomonidan fundamental darajada tadqiq etilgan. Markaziy Osiyolik ekspertlar va tahliliy markazlar (masalan, Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti mutaxassislari) o‘z ilmiy izlanishlarida O‘zbekistonning mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, transmilliy tahdidlarga qarshi birgalikda kurashish borasidagi konseptual tashabbuslariga yuqori baho berganlar [4, b. 112]. Mahalliy olimlar asosan respublikaning xavfsizlik arxitekturasini yaratishdagi diplomatik faolligini aksilterror tuzilmasi (MATT) kontekstida o‘rganishgan.

Xorijiy tadqiqotchilardan xitoylik nufuzli siyosatshunos olimlar ShHT doirasida ilgari surilgan geosiyosiy loyihalar, xususan, «Ipak yo‘li» iqtisodiy kamari konsepsiyasi va uning O‘zbekistonning zamonaviy transport-logistika tizimi bilan integratsiyalashuv jarayonlarini chuqur tahlil qilganlar [5, b. 88]. Rossiyalik olimlar esa ko‘proq tashkilotning geosiyosiy kengayish dinamikasi (Hindiston, Pokiston, Eronning qo‘shilishi) va bu jarayonda Toshkentning muvozanatlashtiruvchi, betaraf pozitsiyasini o‘rganishga urg‘u berishgan. G‘arb va Yevropa tadqiqot institutlari vakillari (jumladan, S. Frederik Starr va boshqalar) ShHT makonidagi geoiqtisodiy o‘zgarishlarni geosiyosiy manfaatlar to‘qnashuvi prizmasidan tahlil etib kelmoqda [6, b. 204].

O‘zbekiston Respublikasi o‘tgan davr mobaynida ShHTga to‘rt marta (2004, 2010, 2016, 2022-yillar) raislik qildi va ularning har biri tashkilotning institutsional, huquqiy va geosiyosiy qiyofasini tubdan o‘zgartirgan burilish nuqtalari bo‘lib xizmat qildi. 2004-yildagi Toshkent sammitida O‘zbekiston tashabbusi bilan xalqaro institut sifatida rivojlanishning poydevori bo‘lgan doimiy organ — ShHT Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi (MATT) ijroiya qo‘mitasi Toshkentda rasman ish boshladi [8, b. 12]. ShHT MATT ma’lumotlariga ko‘ra, tashkilot doirasidagi hamkorlik natijasida yuzlab terroristic guruhlar faoliyatiga chek qo‘yilgan hamda minglab eksteremistik internet resurslari bloklangan. Bu esa tashkilotning amaliy xavfsizlik mexanizmi sifatidagi samaradorligini namoyish etadi. Shu bilan birga, tashkilot jozibadorligini oshirish maqsadida ilk bor «Kuzatuvchi davlat» maqomi huquqiy jihatdan muomalaga kiritildi.

2010-yilgi Toshkent raisligi ShHTning yopiq mintaqaviy tuzilmadan transmintaqaviy global institutga aylanish jarayonini boshlab berdi. Ushbu sammitda O‘zbekiston diplomatik sa'y-harakatlari bilan «ShHTga yangi a'zolarni qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi Nizom» hamda «ShHT tartib-taomillari Qoidalari» tasdiqlandi [9, b. 8]. Bu hujjatlar tashkilotning me'yoriy-huquqiy bazasini mukammallashtirib, uning kelajakdagi kengayishi uchun yagona huquqiy eshikni yaratdi. 2016-yilgi Toshkent sammiti esa mazkur huquqiy mexanizmning amaliy isboti

o‘laroq, Hindiston va Pokiston kabi yirik yadroviy davlatlarni tashkilotga to‘laqonli a'zo sifatida qabul qilish bo‘yicha majburiyatlar to‘g‘risidagi memorandumlar imzolanishi bilan yakunlandi.

2022-yildagi tarixiy Samarqand sammiti O‘zbekistonning ShHT tarixidagi eng oliy diplomatik muvaffaqiyati bo‘ldi. Kuchli geosiyosiy parchalanish sharoitida o‘tgan sammitda rekord darajadagi 40 dan ortiq yirik ko‘p tomonlama hujjatlar, dasturlar va strategiyalar qabul qilindi [2, b. 4]. Samarqand sammiti ShHT tarixida yangi bosqichni boshlab berdi. Mazkur sammit davomida energetika, yashil iqtisodiyot, raqamlashtirish va logistika sohalaridagi hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan strategik kelishuvlar imzolandi. Bundan tashqari, Eronning tashkilotga a’zo bo‘lish jarayoni boshlandi. Eron Islom Respublikasining to‘laqonli a'zoligi rasmiylashtirildi, Belarusni qabul qilish jarayoni boshlandi. Eng asosiysi, O‘zbekiston rahbariyati tomonidan ilgari surilgan «Umumiy xavfsizlik va farovonlik yo‘lidagi Samarqand birdamlik tashabbusi» hamda ShHT makonida o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytirish, transport yo‘laklarini diversifikatsiya qilish, o‘zaro hisob-kitoblarda milliy valyutalardan foydalanish ulushini oshirish bo‘yicha uzoq muddatli dasturlar tasdiqlandi.

Samarqand sammitidan keyingi yeni bosqichda (2023-2026-yillar) qabul qilingan dasturlar ham bevosita O‘zbekiston doktrinasining natijasidir. Xususan, «ShHT a'zo davlatlari o‘rtasida transport sohasidagi o‘zaro bog‘liqlikni rivojlantirish Strategiyasi» amaliyotga joriy etildi. Bu dastur doirasida «Xitoy - Qirg‘iziston - O‘zbekiston» hamda Janubiy Osiyoga chiquvchi Transafg‘on temir yo‘li loyihalarining huquqiy va texnik-iqtisodiy asoslari to‘liq ishlab chiqilib, ko‘p tomonlama investitsiyaviy shartnomalar bosqichiga o‘tildi. Shuningdek, raqamlashtirishni jadallashtirish maqsadida ShHT doirasida elektron tijorat va aqlli qishloq xo‘jaligi sohasidagi hamkorlik dasturlari faol ijro etilmoqda [7, b. 29].

2016-yildan boshlab O‘zbekiston tashqi siyosatima pragmatik geoiqtisodiy yo‘nalish ustuvor ahamiyat kasb eta boshladi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ShHT doirasida 80 dan ortiq yirik konseptual tashabbuslar ilgari surildi [2, b. 5]. O‘zbekiston transport yo‘laklarini diversifikatsiya qilish maqsadida «Xitoy - Qirg‘iziston - O‘zbekiston» hamda Janubiy Osiyoga chiquvchi Transafg‘on temir yo‘li loyihalarini tashkilot doirasida faol himoya qilib kelmoqda [10, b. 54].

Shanxay hamkorlik tashkilotining o‘tgan chorak asrlik tarixiy shakllanish va rivojlanish bosqichlarini tizimli tahlil qilish, O‘zbekiston Respublikasining ushbu xalqaro tuzilmadagi konseptual o‘rni va geostrategik hissasi yuzasidan quyidagi fundamental xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

Birinchidan, O‘zbekiston ShHTning nafaqat ta’sischi davlati, balki uning o‘zaro ishonch, teng huquqlilik, madaniy xilma-xillikka hurmat va konseptual konsensusga asoslangan «Shanxay ruhi» tamoyillarini xalqaro diplomatik amaliyotga joriy etgan asosiy me’mori hisoblanadi. Toshkent mezbonlik qilgan raislik davrlari tashkilotni yopiq mintaqaviy formatdan transmintaqaviy global institutga aylantirishning huquqiy poydevorini yaratdi. Ayniqsa, 2010-yilgi raislik doirasida qabul qilingan a’zolikka qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi huquqiy mexanizmlar tashkilotning keyinchalik Hindiston, Pokiston va Eron kabi yirik yadroviy hamda iqtisodiy kuchlar hisobiga kengayishini ta’minlagan yagona qonuniy vositaga aylandi [9, b. 11].

Ikkinchidan, 2022-yildagi tarixiy Samarqand sammiti ShHT taraqqiyotida mutlaqo yangi bosqichni — pragmatik hamkorlik va geoiqtisodiy o‘zaro bog‘liqlik davrini boshlab berdi. Global miqyosda ishonch inqirozi va geosiyosiy qarama-qarshiliklar avj olgan pallada, O‘zbekiston tomonidan ilgari surilgan «Umumiy xavfsizlik va farovonlik yo‘lidagi Samarqand birdamlik tashabbusi» dunyo hamjamiyatiga bloklardan xoli, bloklararo to‘qnashuvlarga muqobil bo‘lgan inklyuziv muloqot modelini taqdim etdi [2, b. 6]. Bu tashabbus ShHT makonini harbiy-siyosiy ziddiyatlardan yiroq tutib, uning savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va innovatsion salohiyatini birlashtirishga xizmat qilmoqda.

Uchinchidan, Samarqand sammitidan keyingi yangi davrda (2023-2026-yillar) hayotga tatbiq etilayotgan transport-logistika strategiyalari Markaziy Osiyoning transkontinental transport chorrahasidagi geoiqtisodiy mavqeyini tubdan o‘zgartirmoqda. O‘zbekiston faol

himoya qilayotgan «Xitoy-Qirg‘iziston-O‘zbekiston» hamda Janubiy Osiyo portlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkonini beruvchi Transafg‘on temir yo‘li loyihalari ShHTning faqat ichki kontinental iqtisodiy makon bilan cheklanib qolmay, jahon savdo yo‘laklariga integratsiyalashuvini ta’minlaydi [10, b. 59]. Bu esa o‘z navbatida mintaqada iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashning eng samarali omilidir.

To‘rtinchidan, zamonaviy sharoitda O‘zbekiston tashabbusi bilan raqamlashtirish, elektron tijorat, aqlli qishloq xo‘jaligi va ta’lim integratsiyasi (STEAM standartlari) kabi sohalarning strategik kun tartibiga olib chiqilishi tashkilotni an’anaviy xavfsizlik formatidan kelajak texnologiyalari platformasiga transformatsiya qilmoqda [7, b. 35]. Madaniy-gumanitar sohada «ShHT turizm va madaniyat poytaxti» loyihasining ishga tushirilishi esa xalqlar o‘rtasidagi madaniy diplomatiyani va o‘zaro ishonchni mustahkamlovchi muhim gumanitar ko‘prik vazifasini o‘tamoqda.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning ShHT doirasidagi ko‘p qirrali diplomatiyasi milliy manfaatlarni himoya qilish bilan birga, butun Yevroosiyo makonida barqaror taraqqiyot, transport xavfsizligi va madaniyatlararo muloqotni ta’minlashning strategik drayveriga aylandi.

Kelgusida ShHT doirasidagi geoiqtisodiy va transport loyihalarining kengayishi O‘zbekistonning xalqaro nufuzini yanada oshirishi hamda mamlakatning Yevroosiyo mintaqasidagi strategik markaz sifatidagi mavqeini mustahkamlashi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O‘zbekiston", 2021. – 460 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. ShHTning Samarqand sammitidagi nutqi // "Xalq so‘zi" gazetasi, 2022-yil 17-sentyabr. – B. 1–6.

3. Karimov I.A. O‘zbekiston xalqaro munosabatlar tizimida va xavfsizlikka tahdidlar. – Toshkent: "O‘zbekiston", 1997. – 380 b.

4. Luzyanin S.G. ShOS: model evolyutsii, geopolitika i natsionalnie interesi. – Moskva: ID "Forum", 2019. – 256 s.

5. Zhao Huasheng. China, Central Asia, and the Shanghai Cooperation Organization. – Washington: Darien, 2010. – 190 p.

6. Starr S. Frederick. Central Asia Unity: Myth or Reality? – Washington: Central Asia-Caucasus Institute, 2018. – 312 p.

7. Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti materiallari. O‘zbekistonning ShHT raisligi yakunlari va tahlili. – Toshkent, 2022. – 120 b.

8. ShHT MATT rasmiy sayti ma’lumotlari. Regionalnaya antiterroristicheskaya struktura ShOS (ecrats.org), 2024. – S. 10–15.

9. Shanxay hamkorlik tashkiloti Nizomi va normativ hujjatlari to‘plami. – Sankt-Peterburg, 2002-yil 7-iyun (Toshkent nashri, 2011). – 85 b.

10. Domanov A.O. Perspektivi razvitiya transportnix koridorov v ramkax ShOS // Mirovaya ekonomika i mejdunarodnie otnosheniya. – T. 65, №4. 2021. – S. 52–61.

SURXONDARYO VILOYATIDA SOG‘LIQNI SAQLASH MUASSASALARI TARMOG‘INING RIVOJLANISHI VA KENGAYISHI (1946-1960-yy.)

Mamatraimov Urol Mamatmurodovich,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Ikkinchi jahon urushidan keyingi davr, xususan 1946-1960-yillarda Surxondaryo viloyatida sog‘liqni saqlash muassasalari tarmog‘ining rivojlanishi va kengayishi tahlil qilinadi. Maqolada viloyatning chekka tumanlarida tibbiy xizmat ko‘rsatish tarmog‘ini barpo etish jarayoni, shifoxonalar va davolash o‘rinlari sonining o‘sishi, jarrohlik xizmatining rivojlanishi, kadrlar bilan ta’minlash muammolari va ularni hal etish yo‘llari yoritilgan. Shuningdek, turli tumanlar misolida statistik ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *sog‘liqni saqlash, shifoxonalar tarmog‘i, davolash o‘rinlari, jarrohlik xizmati, tibbiy kadrlar, feldsher-akusherlik punktlari, dispanserlar.*

Аннотация. *В данной статье анализируется развитие и расширение сети учреждений здравоохранения в Сурхандарьинской области в послевоенный период, особенно в 1946-1960 годах. В статье освещены процесс создания сети медицинского обслуживания в отдалённых районах области, рост числа больниц и коек, развитие хирургической службы, проблемы обеспечения кадрами и пути их решения. Также приведены статистические данные на примере различных районов.*

Ключевые слова: *здравоохранение, сеть больниц, койки, хирургическая служба, медицинские кадры, фельдшерско-акушерские пункты, диспансеры.*

Abstract. *This article analyzes the development and expansion of the healthcare facilities network in the Surkhandarya region during the post-war period, specifically in 1946-1960. The article highlights the process of establishing a medical service network in remote districts of the region, the increase in the number of hospitals and beds, the development of surgical services, staffing problems and ways to solve them. Statistical data are also provided using examples of various districts.*

Keywords: *healthcare, hospital network, beds, surgical service, medical personnel, feldsher-obstetric points, dispensaries.*

Kirish. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davr, xususan 1946–1960-yillar Surxondaryo viloyatida sog‘liqni saqlash tizimining jadal rivojlanishi va hududiy kengayishi bilan ajralib turadi. Bu davrda asosiy e’tibor viloyatning chekka tumanlarida ham tibbiy xizmat ko‘rsatish tarmog‘ini barpo etishga qaratildi. Urushdan keyingi qiyinchiliklarga qaramay, shifoxonalar va davolash o‘rinlari soni bosqichma-bosqich oshirildi, jarrohlik xizmati takomillashtirildi va tibbiy kadrlar tayyorlash tizimi yo‘lga qo‘yila boshlandi.

1946-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda respublika miqyosida sog‘liqni saqlash tizimi ma’lum darajada tiklanib, tibbiy muassasalar tarmog‘i saqlanib qolgan edi. Mazkur davrda jami 481 ta kasalxona faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, ulardagi davolash o‘rinlarining umumiy soni 25 906 tani tashkil etgan. Ushbu ko‘rsatkichlarda shahar va qishloq o‘rtasida sezilarli farq kuzatilgan: shaharlarda 187 ta kasalxona va 18 601 o‘rin (jami o‘rinlarning qariyb 71,8 foizi) to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, qishloq joylarda 296 ta kasalxona (jami kasalxonalarning 61,5 foizi) mavjud bo‘lib, ulardagi o‘rinlar soni esa bor-yo‘g‘i 6 495 tani (jami o‘rinlarning 25,1 foizi) tashkil etgan [1]. Ya’ni qishloq joylarida kasalxonalarning soni shaharlarga nisbatan ko‘proq bo‘lishiga qaramay, ularning sig‘imi (o‘rinlar soni) ancha past bo‘lgan. Bu esa urushdan keyingi dastlabki yillarda tibbiy yordamning asosan shahar aholisiga qaratilganligini, qishloq joylarida esa kichik sig‘imli shifoxonalar ustunlik qilganligini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, qishloq aholisining statsionar tibbiy yordam bilan ta’minlanganlik darajasi shaharlarnikiga nisbatan sezilarli darajada past bo‘lgan.

Adabiyotlar tahlili. Sovet davrida mamlakatimizda sog‘liqni saqlash tizimi tarixiga doir bir qator ilmiy maqolalar va boshqa ishlar nashr etilgan. Bunda ayniqsa, tibbiy soha mutaxassislaridan – H.Zohidov, R.Soatov, K.To‘laganov, R.Mirzayev, T.Arziqulov, R.Eshmurodov; tarixchi olimlardan – G.Mo‘minova, S.Tursunov, E.Qobilov, T.Pardayev, O.Isayev, N.Toshtemirova, N.Hasanova, A.Abduraxmonovlarning izlanishlari diqqatga sazovordir.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada umumiy qabul qilingan metodlar – xolislik, tarixiy tahlil, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida 1946-1990-yillarda O‘zbekiston sharoitida Surxondaryo viloyati sog‘liqni saqlash sohasidagi o‘zgarishlar bayon etilgan.

Tahlil va natijalar. Urushidan keyingi davrda Surxondaryo viloyati sog‘liqni saqlash sohasida jiddiy muammolar saqlanib qolgan bo‘lsada, aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ijobiy natijalarga erishilib, tibbiy muassasalar tarmog‘i kengayib bordi. Xususan, 1947-yilga kelib esa viloyatdagi shifoxonalar soni 6 taga ko‘payib, ularning soni 25 taga yetdi. Shundan, shahar aholisi uchun 6 ta (2 ta umumiy, 1 ta Ko‘z kasalliklari shifoxonasi, 2 ta Teri-tanosil, 1 ta Sil kasalliklari dispanseri) va qishloq aholisi uchun 19 ta shifoxona (14 ta umumiy shifoxonalar, 5 ta tug‘ruqxonalar) mavjud edi. O‘sha yillarda viloyatdagi shahar kasalxonalaridagi o‘rinlar soni 416 ta bo‘lib, ularning har 1000 ta aholiga nisbatan ta’minlanganlik holati 20 kishini; qishloqlarda esa 416 ta o‘rin-joylar uchun esa har 1000 ta aholiga nisbatan ta’minlanganlik 1,7 kishini tashkil etgan [2].

Mavjud kamchiliklarga qaramasdan urushdan keyingi yillarda tibbiyot muassasalarn kengaytirish, qurish, ta’mirlash, kerakli asbob-uskunalar bilan ta’minlash, mutaxassislar tayyorlash va malakasini oshirish, aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatishni takomillashtirish, yangi bo‘limlar hamda xizmatlarni tashkil etish borasida bir qator ijobiy siljishlar yuz berdi. Misol uchun, 1945-yilda viloyat shifoxonasi terapiya bo‘limi qoshida 10 o‘rinli onkologik kasallar uchun joy ajratildi. 1948-yilda esa xotin-qizlar salomatligini yaxshilash va ayollarga qulaylik yaratish maqsadida ayollar poliklinikasi 1-viloyat shifoxonasiga biriktirildi [3].

1947-yilda shahar shifoxonalaridagi shtatlar soni kichik tibbiyot xodimlarisiz – 99,5 tani tashkil qilgan. Shifokorlar uchun shtatlar 1942-yilga nisbatan 8 taga ko‘payib 21 tani tashkil qilgan bo‘lib, teri-tanosil va ko‘z kasalliklari shifoxonalari shtatlari ambulatoriya hisobiga o‘tkazilgan. O‘rta tibbiyot xodimlari uchun ajratilgan shtatlar 25,5 taga ko‘payib jami – 78,5 tani tashkil qilgan. Davolash uchun o‘rin-joylar 118 taga ko‘payib 1947-yil 31-dekabr holatiga 398 tani tashkil etib, ularda 7282 nafar bemorlar davolanib chiqqan [2].

1947-yilga kelib shifoxonalar soniga mos ravishda davolash o‘rin-joylari soni ham ko‘paytirilgan va bu asosan shahar shifoxonalari hissasiga to‘g‘ri kelgan. Shifoxonalardagi o‘rin-joylar soni 1947-yil 31-dekabr holatiga 369 tani tashkil qilgan bo‘lib, ularda 9098 nafar bemorlar qabul qilingan [4].

Viloyat Sog‘liqni saqlash bo‘limining 1949-yildagi konyuktura tahliliga ko‘ra, viloyat tarkibida 2 ta shahar va 8 ta tuman shifoxonalari mavjud bo‘lgan. 1949-yilda Termiz shahar shifoxonasi 250 davolash o‘rnidan iborat bo‘lib, shundan tug‘ruq bo‘limida – 40 ta, yuqumli kasalliklar bo‘limida – 40 ta, xirurgiya bo‘limida – 40 ta, terapiya bo‘limida – 60 ta, bolalar bo‘limida – 30 ta, ko‘z kasalliklari dispanserida – 20 ta, ginekoliya bo‘limida – 20 ta va travmatologiya bo‘limida – 10 ta davolash o‘rni bo‘lgan [5].

Mazkur davrda viloyatning shahar va qishloq joylarida shifoxonalar va o‘rin-joylar soni ko‘paygan bo‘lsa-da, sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish darajasi ancha orqada edi. Xususan, 1949-yil oxirigacha aholiga maxsus jarrohlik yordami faqat Termiz shahar shifoxonasi hamda qayta ishga tushirilgan Denov tuman kasalxonasida ko‘rsatilgan bo‘lib, viloyatning qolgan 7 ta tumanida jarroh-shifokorlar yo‘q edi. U yerdagi aholiga ambulator va jarrohlik tibbiy yordamni umumiy amaliyot shifokorlari, Sherobod, Uzun va Sho‘rchi tumanlarida esa feldsherlar ko‘rsatgan. Statsionar yordamga muhtoj bemorlar qoida tariqasida viloyat shifoxonasiga yoki qo‘shni Tojikiston SSRning Stalinobod shahriga yuborilgan.

1949-1950-yillar davomida tuman shifoxonalari uchun jarroh shifokorlar tayyorgarlikdan o‘tkazilib, 1951-yil 1-yanvardan boshlab operatsiya bloki mavjud bo‘lgan hamda jarrohlik asboblari bilan ta’minlangan Denov, Sherobod, Boysun, Jarqo‘rg‘on va Sariosiyo tumanlarida jarroh shifokorlar o‘z ish faoliyatini boshlagan. Termiz, Uzun va Sho‘rchi tumanlarida esa jarroh shifokorlar yo‘q edi [6]. Termiz tumanida tibbiy markaz faqatgina Termiz shahrida mavjud bo‘lib, boshqa tuman shaharcha va qishloqlarda poliklinika va shifoxonalar talabga javob bermaganligi sababli bemorlarga tibbiy xizmat faqat Termiz shahri davolash muassasalarida ko‘rsatilgan. Uzun tumani shifoxonasi davolash muassasalarining normativ hujjatlar minimal talablariga ham javob bermaydigan yaroqsiz binoda joylashganligi sababli, palatalar va operatsiya bloklari hamda bino maydonlari belgilangan me’yorlarga to‘g‘ri kelmagan. Sho‘rchi tumani shifoxonasiga qo‘shimcha binolar qurilmagan va jarrohlik faoliyatini tashkil qilishga imkoniyatlar yetarli bo‘lmagan [7].

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda viloyatdagi shifoxonalarda 11 nafar jarroh shifokorlar faoliyat yuritgan bo‘lib, ulardan 4 nafarining mehnat staji yetti yildan – o‘n uch yilgacha, qolganlari esa o‘qishni tamomlaganiga ko‘pi bilan ikki yil bo‘lgan hamda mustaqil ravishda ish yuritish tajribasiga ega bo‘lmagan mutaxassislar edi. Tajribali jarrohlarning barchasi viloyat va Termiz shahridagi kasalxonalarda ishlagan bo‘lsa, o‘qishni endi tamomlagan 6 nafar shifokorlar -Boysun, Denov, Jarqo‘rg‘on, Sherobod va Sariosiyo tumanlarida faoliyat olib borgan [7]. Bu davrda viloyat Jarrohlik bo‘limiga mashhur jarroh O.M.Sekretaryova rahbarlik qilgan. Sohaning rivojiga S.M.Yanovskiy, D.M.Penayev, T.F.Shegmalova, K.A.Zalibina, A.P.Kalustova, M.I.Chubarova va A.F.Davletshina kabi jarrohlar munosib hissa qo‘shdi [3].

Tuman shifoxonalaridagi operatsiya bloklari uchun Termiz shahar shifoxonasida 8 nafar maxsus operatsiya hamshiralari va jarrohlar bilan bog‘lov ishlarini o‘tkazish uchun esa 5 nafar hamshira tayyorgarlikdan o‘tkazilgan. Sobiq Ittifoq va O‘zbekiston SSR sog‘liqni saqlash vazirligi buyruqlariga asoslangan holda qishloq aholisini ixtisoslashgan tibbiy yordam ko‘rsatish va tuman shifoxonalaridagi yosh jarrohlarning malakasini oshirish maqsadida haftaning ma’lum bir jarrohlik kunlari tayinlangan [7]. Belgilangan hafta kunlarida viloyat bosh jarrohi, shahar shifoxonasi jarrohlik bo‘limi mudiri yoki jarroh-ordinator operatsiya qanday darajada ekanligiga qaramasdan, yosh jarrohlarga yordamlashish va ularga tajribasi va texnikasini o‘rgatish uchun tuman shifoxonasiga borishi lozimligi belgilab qo‘yildi. Shoshilinch chaqiruvlar ham rad etilmasdan viloyat jarrohlari tarafidan amalga oshirilgan.

Viloyatda jarrohlik bilan bog‘liq amaliyotlarning yaxshilanishi aholi uchun katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Ko‘plab kasalliklarning viloyatning o‘zida oldi olinishi hamda jarrohlik operatsiyalarining shahar va tumanlardagi kasalxonalarda amalga oshirilishi, tibbiyot sohasidagi izlanish va harakatlar o‘z samarasini berganligini ko‘rsatadi [8, B.465-466].

1950-yil davomida appendisit kasalligi bilan 204 nafar bemorlar qabul qilinib, ularning 84 nafarida o‘tkir turdagi appendisit kuzatilgan va 188 nafari operatsiya qilingan. Churra kasalligi bilan esa 113 nafar bemorlar qabul qilingan bo‘lib, 89 nafari operatsiya qilingan va 2 nafari vafot etgan. Ichak tutilishi kasalligi bilan 21 nafar bemorlar qabul qilinib, ular faqat Termiz va Denov shaharlaridagi shifoxonalarda davolanishgan. Bu holat viloyatning boshqa tumanlarida ushbu kasallik bo‘yicha ixtisoslashgan jarrohlik xizmati mavjud emasligini yoki boshqa shifoxonalarning imkoniyati cheklanganligini ko‘rsatadi.

1950-yillarga kelib viloyatda sog‘liqni saqlash sohasida ma’lum siljishlar yuz berdi va tibbiy xizmat ko‘rsatish holati ijobiy tomonga o‘zgara boshladi. Xususan, Termiz shahrida Sil kasalliklari dispanseri tashkil etilib, aholi o‘rtasida tibbiy-sanitariyaga oid aniq amaliy ishlar qilina boshlandi. Termiz tumanida Silga qarshi kurash dispanseri tashkil etilishi natijasida 25 ta va mavjud statsionarlarga 15 ta davolash o‘rnilar qo‘shilishi bilan qishloq hududidagi sog‘liqni saqlash muassaslarida umumiy o‘rin-joy fondi 475 dan 515 taga ko‘paydi.

Urushdan keyingi yillarda viloyatdagi tuman va qishloqlarda tibbiyot sohasini rivojlantirishga qaratilgan dastlabki urinishlardan biri – 1947-yilda Denov tuman markaziy kasalxonasi qoshida tez tibbiy yordam xizmati tashkil etililishi hisoblanadi. Tuman

shifoxonasiga birinchi sanitar avtomashinasi 1950-yilda berildi. 1950-yillarda Denov tumanida 150 o‘rinli tuman kasalxonasi, umumiy poliklinika, bolalar maslahatgohi, "Anbarsoy"da 10 o‘rinli, "Kenagas"da 5 o‘rinli, "Sina"da 5 o‘rinli va "Hazarbog‘"da 35 o‘rinli, jami 4 ta kasalxona, Tropik stansiya, Teri-tanosil kasalliklari dispanseri hamda 17 ta Feldsher doyalik punktlari aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatgan [3, B.22]. Denov tibbiyoti tizimi viloyatda o‘zining mavqeyiga ega tibbiyot muassasalaridan biri hisoblandi. O‘rganilayotgan davrda ham Denov tuman markaziy shifoxonasi Toshkent va Samarqand tibbiyot oliygohlarini, ko‘plab o‘rta-maxsus tibbiy bilim yurtlarini bitiruvchilar uchun o‘quv-tajriba (internatura) maktabi vazifasini bajarib keldi.

1951-yilda Angor qishloq shifokorlik punkti yonida Angor shifoxonasi qurilishi boshlangan. 1952-yil 16-aprelda Angor tumani tashkil topishi munosabati bilan tuman sog‘liqni saqlash bo‘limi ham ochildi. 1952-yil 16-sentyabrda shifoxonaning uncha katta bo‘lmagan bir qavatli binosi qurilib ishga tushirildi. Uning birinchi bosh shifokori etib A.Bogatov tayinlanib, u yerga A.Kolesnikov va K.Ivanikov singari feldsherlar ishlash uchun yuborilgan.

1954-yilga kelib Surxondaryo viloyatida infeksion, silga qarshi, bolalar, tug‘ruq va endemik kasalliklarga qarshi tizimli va keng tarmoqli tibbiy xizmat ko‘rsatuvchi 1 ta viloyat shifoxonasi, 4 ta shahar shifoxonasi, 2 ta tuman shifoxonasi, 3 ta ixtisoslashtirilgan klinik shifoxonalar, 4 ta kattalar yuqumli kasallaklar shifoxonasi, 5 ta bolalar yuqumli kasalliklar shifoxonasi, 6 ta kattalar silga qarshi kurash dispanseri, 7 ta bolalar silga qarshi kurash dispanseri, 8 ta bolalar shifoxonalari (davolash bolalar uyi bilan), 9 ta boshqa shifoxonalar, 10 ta qishloq xo‘jaligi tumanlari markaziy shifoxonalari, 11 ta tug‘ruqxonalar, 12 ta OTM lari klinikalari, 13 ta ilmiy tekshirish institutlar statsionarlari, 14 ta leprazoriyalar (maxovxona) va 18 ta bezgakka qarshi stansiyalar, jami 127 ta tibbiy muassasalar faoliyat yuritgan. Bu ko‘rsatkichlar o‘tgan yillarga nisbatan hududda tarmoqning izchil rivojlanayotganidan dalolat beradi.

1955-yilda viloyatda 71 ta qishloq tarmoq shifoxonalari yopib qo‘yilishi sababli vohada turli xil ommaviy kasalliklar keng tarqaldi. O‘sha yili viloyatda 4320 kishining qizamiq kasalligiga chalinganligi qayd etilgan bo‘lsa, sariq, sil va shilpiq kasalliklari ham ancha kuchaydi, 55 kishining o‘tkir sariq kasalligiga chalinganligi ham qayd etildi. 1957-yilda viloyatda 4304 kishi sil kasalligi bilan og‘rigan bo‘lsa-da, ularga yetarli tibbiy xizmat ko‘rsatilmadi. 1959-yili viloyat Sog‘liqni saqlash bo‘limi tomonidan viloyat bo‘yicha 68 189 nafar aholi tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilib, ularning 499 nafarida sil kasalligi belgilari aniqlangan. Shuningdek, 350 ming nafar aholi ko‘z kasalligi bo‘yicha tekshiruvdan o‘tkazilib, ularning 12 ming nafarida kasallik mavjudligi aniqlagan.

Viloyatda 1953-1960-yillarda sog‘liqni saqlash ishlarining asosiy ko‘rsatkichlari quyidagicha edi. Jumladan, 1953-yilda viloyatda kasalxonalar soni 55 ta bo‘lgan bo‘lsa, 1960-yilda bu ko‘rsatkich 103 taga yetdi. Shuningdek, tuman kasalxonalari soni 14 tani, qishloq bo‘lim kasalxonalari 71 tani va maxsus dispanserlar 1953-yili 10 ta bo‘lgan bo‘lsa, 1960-yilga kelib 60 tani tashkil qildi. Qishloq joylarda davlat mablag‘lari hisobidan 8 ta va jamoa xo‘jaliklari hisobidan 32 ta yangi tug‘ruqxonalar qurildi. Mazkur davrda Denov, Sariosiyo, Angor, Sherobod va Jarqo‘rg‘on tumanlarida yangi kasalxonalar binolari qurib ishga tushirildi. Sho‘rchi tumanida yangi kasalxona binosini qurish boshlandi.

1959-yilga kelib, viloyat sog‘liqni saqlash byudjeti 5 813 000 rublni tashkil qilgan, viloyat bo‘yicha davolash o‘rinlari soni 3 055 taga yetgan, shifokorlar soni 263 nafarni, o‘rta tibbiyot xodimlari soni esa 1 533 nafarni tashkil qilgan. Shunday qilib, viloyat aholisining har 10 000 nafariga 72 ta statsionar o‘rin, 6,2 nafar shifokor va 33 nafar o‘rta tibbiyot xodimi to‘g‘ri kelgan [6]. So‘nggi uch yilda (1960-yilgacha) viloyatda qo‘shimcha 4484 o‘rinli davolash joylari qurilib, shundan 3143 o‘rin qishloq joylarida barpo etilgan.

1960-yilda qilingan asosiy ishlardan yana biri tish davolash bo‘limlari faoliyatini yo‘lga qo‘yishga e’tibor qaratilib Termiz shahri va Denov tumanlarida yasama tish qo‘yish tibbiyot xonalari tashkil etilganligi bo‘ldi [3]. Denov tuman markaziy kasalxonasi tarkibida 1960-yillarda

shifokor V.A.Zinin tomonidan elektrokardigrafiya xonasi tashkil etildi va asta-sekin uning faoliyati takomillashtirilib borildi. Natijada, og‘ir yurak xastaligi (infarkt miokarda) tashxisi bilan tushgan bemorlar shu xonaga joylashtirilib, tezlikda kasalligi aniqlanishi bilan birga zarrur hollarda shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish va sutkalab kasalning yuragi holatni kuzatib borish imkoniyati paydo bo‘ldi.

Umuman olganda, umumiy hisobda bu davrda viloyatda mahalliy byudjetdan sog‘liqni saqlash ehtiyojlari uchun ajratilgan mablag‘larning ko‘payishi nafaqat yordam berdi, balki kolxozlar va kasaba uyushmalari tomonidan ko‘rsatilgan katta yordam – ular ajratgan va qurgan 114 dan ortiq binolarda qo‘shimcha ravishda 2805 ta davolash o‘rni, 75 ta feldsher-akusherlik punkti, 11 ta tug‘ruqxona va 3 ta tuman dispanseri tashkil etilgan [6].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, 1946-1960-yillar Surxondaryo viloyati sog‘liqni saqlash tizimi tarixida muhim bosqich bo‘lib, bu davr urushdan keyingi tiklanish jarayonining ajralmas qismi sifatida viloyat tibbiyotining yangi bosqichga ko‘tarilishiga zamin yaratdi. Urushdan keyingi qiyin davrda, moddiy-texnik imkoniyatlar cheklangan bo‘lishiga qaramay, viloyatning chekka va olis tumanlarida zamonaviy tibbiyot maskanlarining qurilishi, ularni malakali kadrlar bilan ta’minlash borasida katta ishlar amalga oshirildi. Bu ishlar natijasida aholining tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyati sezilarli darajada kengaydi va sog‘liqni saqlash tizimi asta-sekin yangi sifat bosqichiga ko‘tarildi.

Viloyat tumanlarida qisqa vaqt ichida oddiy shifokorlik punktlari o‘rnida ko‘p tarmoqli markaziy shifoxonalar tashkil etilib, ularning atrofida tarmoq shoxobchalari – qishloq uchastka shifoxonalari, feldsherlik-akusherlik punktlari va tug‘ruqxonalar barpo etildi. Ushbu tizimli yondashuv natijasida aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmat bosqichma-bosqich takomillashib bordi va qishloq joylarida ham tibbiy yordamning asosiy turlari yo‘lga qo‘yildi. Bu jarayonda safarbar etilgan shifokorlarning fidokorona xizmati, ular uchun yaratilgan ijtimoiy shart-sharoitlar, shuningdek, malaka oshirish va tajriba almashish imkoniyatlari kadrlar muammosini yengillashtirishga xizmat qildi. Aynan shu omillarning majmui – tarmoqning kengayishi, kadrlar salohiyatining mustahkamlanishi va moddiy bazaning mustahkamlanishi – birgalikda viloyat sog‘liqni saqlash tizimining keyingi yillardagi rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratdi. Shu ma’noda, mazkur davr Surxondaryo viloyatida zamonaviy sog‘liqni saqlash tizimining shakllanishida hal qiluvchi bosqichlardan biri bo‘ldi va keyingi o‘n yilliklarda amalga oshirilgan islohotlar uchun mustahkam zamin bo‘lib xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Zohidov H.Z. O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash ishlarining 25 yilligi. – T.: O‘zdavnashr, 1949.
2. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 77-fond, 1-ro‘yxat, 21-ish, 15-16-varaqlar.
3. Arziqulov T., Eshmurodov R. Almanax. – T.: Muharrir, 2012.
4. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 77-fond, 1-ro‘yxat, 4-ish, 2-varaq.
5. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 77-fond, 1-ro‘yxat, 44-ish, 1-varaq.
6. Туляганов К.С. Здравоохранение Сурхандарьинской области УзССР (исторический очерк, опыт работы и перспективы развития). – Ташкент: Медицина, 1972.
7. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 77-fond, 1-ro‘yxat, 16-ish, 1-2 varaqlar.
8. Tursunov S., Qobilov E., Murtazoyev B., Pardayev T. Surxondaryo tarixi – T.:Sharq, 2004.

IJTIMOIY-MADANIY O‘ZGARISHLAR VA HUQUQIY ONG TRANSFORMATSIYASI

Imomov Bahriddin Panjiyevich,
Toshkent davlat transport universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annoatsiya. *Ushbu maqolada “ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar” va “huquqiy ong” tushunchalarining mazmuni, ularning transformatsiyasiga doir mulohazalar yangilanayotgan o‘zbek jamiyati misolida tahlil qilingan. Shuningdek, globallashuv sharoitidagi texnologik. axborot va boshqa ta’sirlarning oqibatida jamiyatdagi o‘zgarishlarning yangi bosqichi, ularning xususiyatlari va fuqarolarning huquqiy ong bilan bog‘liq masalalar ham falsafiy jihatdan o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *jamiyat, fuqarolar, ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar, huquq, demokratik tamoyillar, huquqiy ong, taraqqiyot, Yangi O‘zbekiston.*

Аннотация. *В данной статье анализируется содержание понятий "социально-культурные изменения" и "правовое сознание," а также размышления об их трансформации на примере обновляющегося узбекского общества. Также философски изучены вопросы, связанные с новым этапом изменений в обществе, их особенностями и правовым сознанием граждан в результате технологических, информационных и других воздействий в условиях глобализации.*

Ключевые слова: *общество, граждане, социально-культурные изменения, право, демократические принципы, правосознание, развитие, Новый Узбекистан.*

Abstract. *This article analyzes the content of the concepts of "socio-cultural changes" and "legal consciousness" as well as reflections on their transformation, using the example of a modernizing Uzbek society. Additionally, issues related to the new stage of changes in society resulting from technological, information, and other influences in the context of globalization, their characteristics, and the legal consciousness of citizens have been studied from a philosophical perspective.*

Keywords: *society, citizens, socio-cultural changes, law, democratic principles, legal consciousness, development, New Uzbekistan.*

Kirish. Yangilanayotgan o‘zbek jamiyatida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlar keng qamrovda amalga oshirilayotgan bir sharoitda, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyatning barcha qatlamlarida huquqiy bilim va huquqiy ongni mustahkamlashni talab etmoqda. Bu esa o‘z navbatida ijtimoiy munosabatlarning yangi bosqichga ko‘tarilishi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini anglash darajasining oshishi bilan bevosita bog‘liqdir. Umuman olganda, “So‘nggi 7 yilda qabul qilingan uchta kompleks taraqqiyot strategiyasi hamda turli sohalarni rivojlantirishga oid 60 dan ziyod strategiya, konsepsiya va dasturlarga insonning huquq va erkinliklarini himoya qilish, uning rivojlanishi va salohiyatini ruyobga chiqarishi uchun sharoit yaratish, ijtimoiy tenglik kabi tamoyillar, g‘oyalar to‘liq singdirildi”[1.46]. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlarning huquqiy ong transformatsiyasiga ta’sirini o‘rganish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. Zero, globallashuv, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va madaniy aloqalarning kengayishi jamiyatda yangi qadriyatlar tizimini shakllantirmoqda. Bu jarayon esa insonlarning huquqqa bo‘lgan munosabatini ham o‘zgartirmoqda. Ayniqsa, yosh avlodning huquqiy tafakkurini shakllantirishda ushbu o‘zgarishlar muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar sharoitida huquqiy ong transformatsiyasini tahlil qilish, jamiyatda qonuniylik va adolat tamoyillarini mustahkamlash uchun muhim nazariy va amaliy asos yaratadi. Bugungi kunda davlat va jamiyat munosabatlarida ochiqlik, oshkoralik va

fuqarolik faolligining ortishi kuzatilmoqda. Bu esa fuqarolarning huquqiy bilimlari va huquqiy madaniyatini rivojlantirishni taqozo etadi. Shu bilan birga, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining kengayishi ham huquqiy ong shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Jamiyatdagi madaniy xilma-xillik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unlashuvi huquqiy ongda yangi yondashuvlarni yuzaga keltirmoqda. Bunday sharoitda shaxsning huquqiy pozitsiyasi, qonunlarga bo'lgan hurmati va huquqiy mas'uliyatini shakllantirish muhim vazifaga aylanmoqda. Mazkur masalalarni ilmiy jihatdan tahlil qilish orqali jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlarini belgilash mumkin.

Shuningdek, ijtimoiy-madaniy transformatsiya jarayonlarida huquqiy ongning o'zgarishi davlat siyosatining samaradorligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Qonun ustuvorligini ta'minlash, inson huquqlarini himoya qilish va huquqiy davlatni barpo etish kabi ustuvor vazifalarni amalga oshirishda aholining huquqiy ongi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ayniqsa, qonun ustuvorligi tamoyilini hayotga tatbiq etishda jamiyat a'zolarining huquqiy ongi yuqori bo'lishi talab etiladi. Ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar esa ushbu jarayonga turli xil ta'sir ko'rsatib, huquqiy ongda yangicha qarashlar va yondashuvlarni shakllantirmoqda. Bu esa o'z navbatida huquqiy tarbiya, ta'lim va targ'ibot ishlarini takomillashtirishni talab qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar masalasi Sharqda «Avesto»da ham ifodalangan bo'lib, unda o'zgarishlar olam ezgulik va yovuzlik, adolat va adolatsizlik, ziyo va zulmat kabi ikki kuchning kurashi sifatida talqin etiladi. Shuningdek, jamiyat rivojidagi bu muammolar haqidagi mulohazalar mutafakkirlarimizdan Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Nizomulmulk, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zaxiriddin Muxammad Bobur va boshqa allomalarimizning ijodida kuzatishimiz mumkin.

G'arb falsafasining antik davr mutafakkirlaridan Aflotun, Arastu, Epikur, Seneka jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar dialektikasi muammosiga nisbatan o'z fikrlarini bildirganlar. Xususan, Avgustin hamma narsada tartib muhimligini e'tirof etadi. I.Kant, Gegel, Feyerbax, F.Nitsshe, A.Shopengauer, B.Spinoza va boshqalar mazkur muammo xususida mulohazalar bildirganlar.

Jamiyatdagi o'zgarish masalasida S.Norqulov o'z tadqiqotlarida mustaqillik davrida O'zbekistonda fuqarolik jamiyati rivojlanishi va ijtimoiy ongdagi o'zgarishlarni falsafiy tahlil qilgan bo'lsa, O'. G'. Tilavov o'z tadqiqotida fuqarolarning ekologik ongini, ekologik mas'uliyatni o'rganadi. F.Musaev demokratik taraqqiyotning sof, odil va ochiq raqobat, teng huquqlilik, mavjud ma'naviy me'yor va qadriyatlarni, inson sha'nini hurmat qilish asosida iqtidorni, erkni namoyon qilishni o'rgansa, N.Nishonova o'z tadqiqotida xotin-qizlarning boshqaruv tizimidagi faoliyatini o'rgandi. Sh. O. Madaeva o'z tadqiqotida demokratik tafakkurning o'zbek mentaliteti bilan uzviy bog'liqligini falsafiy tahlil qilib bergan.

Muhokama va tahlillar. Yangilanayotgan o'zbek jamiyatida ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar jarayoni keng qamrovli va ko'p qirrali xususiyatga ega bo'lib, u jamiyatning barcha sohalariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida milliy qadriyatlar va zamonaviy tamoyillarning uyg'unlashuvi kuzatilmoqda. Bu esa aholining ijtimoiy faolligi, madaniy qarashlari va dunyoqarashining yangilanishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, globallashuv jarayonlari ta'sirida milliy madaniyatning yangi bosqichga ko'tarilishi, an'anaviy qadriyatlarni qayta baholash holatlari yuzaga kelmoqda. Shu jihatdan, ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida namoyon bo'ladi. Bunday o'zgarishlar inson ongida yangicha fikrlash tarzini shakllantirib, uning ijtimoiy munosabatlardagi ishtirokini faollashtiradi. Mazkur jarayonlarni ilmiy jihatdan tahlil qilish esa ularning mazmun-mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

So'nggi yillarda jamiyatimizda bo'layotgan ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar jamiyatda fuqarolik pozitsiyasining shakllanishiga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Fuqarolarning ijtimoiy hayotdagi ishtirokining ortishi, jamoatchilik nazorati mexanizmlarining rivojlanishi jamiyatda

demokratik tamoyillarni mustahkamlamoqda. Bu jarayonda fuqarolik jamiyati institutlarining o‘rni ularning ijtimoiy tashabbuslari jamiyatda ijobiy o‘zgarishlarni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy mas’uliyat va fuqarolik burchini anglash darajasi ham oshib bormoqda. Bu esa jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun mustahkam asos bo‘lib, mazkur jarayonlarni ilmiy tahlil qilish esa ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlarning istiqbollarini belgilash imkonini beradi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida huquqiy ong transformatsiyasining falsafiy muammolari, avvalo, jamiyatda qadriyatlar tizimining o‘zgarishi bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy-siyosiy islohotlar jarayonida an’anaviy va zamonaviy qadriyatlarning o‘zaro munosabati murakkab falsafiy masalalarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, qadriyatlar transformatsiyasi jarayonida shaxsning huquqqa bo‘lgan munosabati, adolat tushunchasi va qonunga itoat etish madaniyati yangicha mazmun kasb etmoqda. Bu esa huquqiy ongning shakllanishida ichki ziddiyatlarni keltirib chiqaradi, ya’ni bir tomondan milliy an’analarga sodiqlik, ikkinchi tomondan esa global huquqiy standartlarga moslashish zarurati paydo bo‘ladi. Ushbu ziddiyatlarni hal etish esa chuqur falsafiy tahlilni talab qiladi. Shu bois, huquqiy ong transformatsiyasi jamiyatdagi ma’naviy va huquqiy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish muammosi bilan bevosita bog‘liqdir.

Ikkinchi muhim falsafiy muammo sifatida shaxs va davlat o‘rtasidagi munosabatlarning yangi bosqichga ko‘tarilishini keltirish mumkin. Yangi O‘zbekistonda inson manfaatlarini ustuvor qo‘yish siyosati amalga oshirilayotgan bir paytda, huquqiy davlat tamoyillarini hayotga tatbiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda shaxsning huquq va erkinliklarini anglash darajasi, uning huquqiy faolligi va mas’uliyati muhim o‘rin tutadi. Biroq amalda ayrim hollarda huquqiy bilimning yetarli emasligi yoki huquqiy nigilizm kabi holatlar kuzatilishi mumkin. Bu esa huquqiy ong transformatsiyasining murakkab va ziddiyatli jarayon ekanligini ko‘rsatadi. Falsafiy nuqtai nazardan, mazkur muammo shaxs erkinligi va ijtimoiy tartib o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash zarurati bilan bog‘liqdir. “Bugun jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, mamlakatimizda yuz berayotgan tub o‘zgarishlarning pirovard samarasi, oldimizda turgan ulkan maqsad-muddaolarga erishish ko‘p jihatdan o‘z haq-huquqini teran anglab yetgan, huquqiy me’yorlarni chuqur o‘zlashtirgan va ularga qat’iy amal qiladigan, huquqiy ongi, bilimi va dunyoqarashi keng bo‘lgan insonlarning faol ishtirokiga bog‘liq”[2.740].

Uchinchi falsafiy muammo axborotlashuv va globallashuv jarayonlarining huquqiy ongga ta’siri bilan bog‘liqdir. Zamonaviy jamiyatda axborot jamiyati shakllanishi insonlarning huquqiy bilim olish manbalari va usullarini tubdan o‘zgartirmoqda[3.156]. Internet va raqamli texnologiyalar orqali turli huquqiy g‘oyalar va qarashlar tez tarqalmoqda, bu esa huquqiy ongda plyuralizmni kuchaytirmoqda. Biroq bu jarayon ayrim hollarda noto‘g‘ri yoki soxta axborot ta’sirida huquqiy ongning buzilishiga ham olib kelishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, axborot makonida huquqiy madaniyatni shakllantirish muhim falsafiy muammo sifatida namoyon bo‘ladi. “Huquqiy madaniyat makon va zamonda farqlanib, hozirda va istiqbolda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan manfaatlar ko‘lami bilan o‘lchanadi”[4.740]. Bu esa yoshlarimizning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, axborotni saralash va unga huquqiy baho berish ko‘nikmalarini shakllantirishni talab qiladi. Natijada, huquqiy ong transformatsiyasi global va lokal omillarning o‘zaro ta’sirida kechayotgan murakkab ijtimoiy-falsafiy jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

Yangi O‘zbekistonda axborotlashuv va globallashuv jarayonlari huquqiy ong transformatsiyasiga kuchli falsafiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Zamonaviy jamiyatda «Axborot jamiyati shakllanishi natijasida insonlarning huquqiy bilim olish manbalari va usullari tubdan o‘zgardi. Internet, raqamli platformalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali huquqiy axborotga tezkor va keng qamrovda yetib borish imkoniyati yaratildi»[5.165. Bu esa fuqarolarning huquqiy ongi, huquq va majburiyatlarini anglash darajasini oshirishga xizmat qilmoqda. Falsafiy jihatdan qaralganda, axborotlashuv jarayoni inson tafakkurini erkinlashtirib, uning mustaqil fikr yuritish qobiliyatini

rivojlantiradi. Shu bilan birga, turli huquqiy g‘oya va konsepsiyalarning bir vaqtda mavjud bo‘lishi huquqiy ongda plyuralizmni kuchaytiradi. Bu esa shaxsning huquqiy pozitsiyasini shakllantirishda yangi imkoniyatlar bilan birga murakkab tanlovlarni ham yuzaga keltiradi.

Shu bilan birga, globallashuv jarayonlari milliy huquqiy tizim va qadriyatlarga tashqi ta’sirni kuchaytirib, huquqiy ongda muayyan ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Xususan, “globallashuv sharoitida xalqaro huquqiy standartlar va milliy an’analar o‘rtasidagi munosabatlar dolzarb masalaga aylanmoqda”. Bir tomondan, inson huquqlari, demokratiya va qonun ustuvorligi kabi umuminsoniy tamoyillar keng tarqalmoqda, ikkinchi tomondan esa milliy huquqiy madaniyatni saqlab qolish zarurati paydo bo‘lmoqda. Falsafiy nuqtai nazardan, bu jarayon universalizm va partikulyarizm o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash muammosini ilgari suradi. Shuningdek, axborot makonida soxta yoki manipulyativ ma’lumotlarning mavjudligi huquqiy ongga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, tanqidiy fikrlash, huquqiy madaniyat va axborot savodxonligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada, axborotlashuv va globallashuv huquqiy ongni shakllantiruvchi asosiy falsafiy omillardan biriga aylanmoqda.

Xulosa.

— yangilanayotgan o‘zbek jamiyatida ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar huquqiy ong transformatsiyasining asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lib, fuqarolarning huquq va erkinliklarga bo‘lgan munosabatini sifat jihatdan o‘zgartirmoqda. Bu jarayon shaxsning huquqiy bilim darajasi va huquqiy madaniyatini oshirish orqali jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi;

— jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unlashuvi natijasida Huquqiy ong yangi mazmun kasb etib, fuqarolarning qonunlarga hurmati va huquqiy mas’uliyatini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Bu esa huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega;

— axborotlashuv va globallashuv jarayonlari ta’sirida huquqiy ongda plyuralistik qarashlar shakllanib, shaxsning mustaqil fikr yuritish qobiliyati ortmoqda. Biroq bu jarayon bilan bog‘liq axborot xatarlari huquqiy madaniyatni mustahkamlash va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish zaruratini keltirib chiqaradi;

— ijtimoiy-madaniy transformatsiya sharoitida Fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirib, ularning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirmoqda. Bu esa huquqiy ongning amaliy ifodasini kuchaytirishga xizmat qiladi;

— umuman olganda, ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar va huquqiy ong transformatsiyasi o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi jarayonlar bo‘lib, ularni chuqur ilmiy tahlil qilish orqali jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash va barqaror taraqqiyotga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. -Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2024. –B. 46
2. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi 2-jild –Toshkent: O‘zFMJ, 2023. –B. 740
3. Kastels M. Axborot davri: iqtisodiyot, jamiyat va madaniyat. – Moskva: VShE, 2016. – 156-bet.
4. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi 2-jild –Toshkent: O‘zFMJ, 2023. –B,
5. Kastels M. Axborot davri: iqtisodiyot, jamiyat va madaniyat. – Moskva: VShE, 2016. – 165-bet.

FOROBIY ASARLARIDA DAVLAT BOSHQARUVI SHAKLLARI VA ULARNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI ROLI

Ochilova Sabo Sherboy qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish
metodikasi(ma’naviyat asoslari)
mutaxassisligi 1-kurs magistranti
https://orcid.org/0009-0009-1705-8472

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Abu Nasr Forobiyning siyosiy falsafasi, xususan, “Fozil odamlar shahri” asarida ilgari surilgan davlat boshqaruv modellari tahlil qilinadi. Tadqiqotda fozil va johil shaharlarning tipologik xususiyatlari, rahbar shaxsining jamiyat ijtimoiy barqarorligini ta’minlashdagi o‘rni hamda mutafakkir g‘oyalarining zamonaviy davlatchilik uchun ahamiyati ilmiy asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Forobiy, fozil shahar, johil shahar, davlat boshqaruvi, siyosiy rahbar, jamiyat taraqqiyoti, adolat, axloq.*

Аннотация. *В данной статье анализируются модели государственного управления, выдвинутые в политической философии Абу Насра аль-Фараби, в частности в его произведении «Город благодетельных людей». В исследовании научно обоснованы типологические особенности добродетельных и невежественных городов, роль личности правителя в обеспечении социальной стабильности общества, а также значение идей мыслителя для современного государственного строительства.*

Ключевые слова: *Аль-Фараби, добродетельный город, невежественный город, государственное управление, политический лидер, общественный прогресс, справедливость, этика.*

Abstract. *This article analyzes the models of public administration proposed in the political philosophy of Abu Nasr al-Farabi, specifically in his work ‘The City of Virtuous People’ The study provides a scientific basis for the typological characteristics of virtuous and ignorant cities, the role of the leader's personality in ensuring social stability, and the significance of the thinker's ideas for modern statecraft.*

Keywords: *Al-Farabi, virtuous city, ignorant city, public administration, political leader, social progress, justice, ethics.*

Kirish. Insoniyat sivilizatsiyasi tarixida jamiyatni oqilona tartibga solish va davlat boshqaruvining samarali modellarini ishlab chiqish masalalari hamisha tafakkur markazida bo‘lib kelgan. Sharq Uyg‘onish davrining buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiy o‘zining siyosiy-huquqiy qarashlari bilan nafaqat o‘z davrining, balki kelajak avlodlarning ham ijtimoiy-falsafiy dunyoqarashini boyitdi va islom olamida

“Al-Muallim as-soniy” (Ikkinchi muallim) degan yuksak e’tirofga sazovor bo‘ldi [1]. Uning siyosiy falsafasining markaziy asari hisoblangan “Fozil odamlar shahri” (Ar-ro‘y ahl al-madina al-fazila) shunchaki tarixiy manba emas, balki davlat boshqaruvi va ijtimoiy adolat tamoyillarining fundamental poydevoridir.

Forobiy jamiyatni o‘zaro uyg‘un harakat qiluvchi tirik organizmga qiyoslar ekan, undagi har bir bo‘g‘inning kamoloti boshqaruvning sifatiga bog‘liq ekanligini chuqur falsafiy tahlillar orqali ochib beradi [2]. Bugungi globallashuv va ijtimoiy-siyosiy transformatsiyalar davrida milliy davlatchilik poydevorini mustahkamlash, boshqaruv tizimida axloqiy mezonlarni ustuvor etishda mutafakkir merosiga murojaat qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi — Forobiy tomonidan tasniflangan davlat boshqaruvi shakllarini tahlil qilish orqali ularning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va zamonaviy davlatchilik qurilishidagi metodologik qimmatini yoritib berishdan iboratdir.

Adabiyotlar tahlili. Abu Nasr Forobiyning siyosiy merosi jahon falsafiy tafakkuri va zamonaviy siyosatshunoslikning doimiy o‘rganish obyekti bo‘lib kelmoqda. Akademik M.M. Xayrullayev o‘zining fundamental asarlarida Forobiyning dunyoqarashi shakllanishida qadimgi yunon falsafasi va islom kalomining sintezini atroflicha tahlil qilib, mutafakkirning ”fozil jamiyat” g‘oyasi o‘sha davrdagi ijtimoiy inqirozlarga nisbatan ilgari surilgan progressiv model ekanligini isbotlagan [2]. Rus sharqshunosi A. Sagiadeyev Forobiyning boshqaruv shakllarini Aristotelning “Siyosat” asari bilan qiyoslab, mutafakkirning shahar-davlatlar tasnifidagi tipologik farqlarni, ayniqsa, “johil shaharlar”ning ijtimoiy-psixologik portretini ilmiy ochib bergan [6]. G‘arbiy Yevropa va AQSH sharqshunosligida Richard Valzer Forobiyning rahbar shaxsi haqidagi qarashlari Platon g‘oyalaridan farqli ravishda, islomiy ma’naviyat bilan sug‘orilgan original konsepsiya ekanligini ta’kidlaydi [7]. Muhsin Mahdiy esa o‘z tadqiqotlarida mutafakkirning siyosiy falsafasini “din va falsafa uyg‘unligi” prizmasida ko‘rib chiqib, davlat boshqaruvida ilohiy qonuniyatlar va insoniy aqlning o‘zaro nisbatini tahlil qilgan [8].

Shuningdek, E. Shtraus (E. Strauss) va L. Shtraus (L. Strauss) kabi olimlar Forobiyning siyosiy realizmi va jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanish nazariyasini o‘rganib, uning boshqaruv modellari zamonaviy siyosiy sotsiologiyaning ibtidosi bo‘lganini qayd etishadi. Turkiyadagi forobiyshunos olimlar, xususan, Mehmet Aydin Forobiyning “Madina al-fazila” asaridagi “ijtimoiy hamjihatlik” tushunchasini bugungi kunda davlatning barqarorligini ta’minlovchi asosiy omil sifatida talqin qiladi. Mahalliy tadqiqotchilar N. Jo‘rayev, A. Qodirov va M. Sharifxo‘jayevlar Forobiyning boshqaruv g‘oyalarini zamonaviy fuqarolik jamiyati institutlari, siyosiy etika va demokratik tamoyillar bilan bog‘lagan holda tadqiq etib kelmoqdalar. Shu bilan birga, faylasuf olima G. Ruzmatova Forobiyning komil inson va fozil jamiyat haqidagi qarashlarini ekzistensial va antropologik nuqtayi nazardan tahlil qilgan. Shunga qaramay, Forobiy tasniflagan “johil shaharlar”ning (nosog‘lom jamiyatlarning) zamonaviy global inqirozlar va siyosiy regressiya jarayonlari bilan tizimli qiyosiy tahlili hali yetarli darajada monografik o‘rganilmagan. Aynan shu jihat mazkur tadqiqotning ilmiy yo‘nalishini belgilaydi.

Metodologiya. Tadqiqotning metodologik asosini Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri”, “Siyosat al-madaniya” va “Baxt-saodatga erishuv haqida” kabi asarlarining matnshunoslik tahlili tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy-tahliliy, struktural-funksional usullardan foydalanildi.

Natija va tahlil. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida Abu Nasr Forobiyning davlat boshqaruvi va jamiyat taraqqiyoti o‘rtasidagi bog‘liqlik haqidagi qarashlari quyidagi tizimli xulosalarni berdi:

Fozil shahar — ijtimoiy kamolot va barqarorlik modeli. Forobiy ta’limotiga ko‘ra, fozil shahar (al-madina al-fazila) shunchaki siyosiy hudud emas, balki insonlarning jismoniy va ma’naviy ehtiyojlari uyg‘unlikda qondiriladigan mukammal ijtimoiy tuzilmadir [3]. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, mutafakkir jamiyat taraqqiyotining asosiy sharti sifatida “o‘zaro ixtiyoriy kooperatsiya”(hamkorlik) tamoyilini ilgari suradi. Ushbu modelda boshqaruv apparati jamiyat a’zolarini yagona oliy maqsad — haqiqiy baxt-saodatga (as-saoda al-quswa) yo‘naltiradi. Bu esa zamonaviy siyosatshunoslikdagi “ijtimoiy birdamlik” va “umumfarovonlik davlati” (welfare state) konsepsiyalari bilan mazmunan yaqindir [2].

Rahbarning intellektual va axloqiy salohiyati boshqaruv poydevori sifatida. Tadqiqot jarayonida Forobiyning fozil rahbar konsepsiyasi tahlil qilinganda, mutafakkir davlat boshlig‘ini jamiyatning “yuragi” deb baholashi aniqlandi. U rahbar uchun zarur bo‘lgan 12 ta tug‘ma fazilatni (o‘tkir idrok, kuchli xotira, notiqlik, adolatparvarlik va b.) jamiyatning intellektual rivojlanishi uchun kadrlar seleksiyasining muhim asosi deb bilgan. Natijalar shuni tasdiqlaydiki, Forobiy talqinida rahbarning ma’rifatli bo‘lishi davlatning uzoq muddatli barqarorligini va xalqning ta’lim darajasi o‘sishini ta’minlovchi asosiy omildir [4].

Nosog‘lom jamiyatlar va ularning rivojlanishdan to‘xtash sabablari. Forobiy tomonidan tasniflangan “johil shaharlar” (nosog‘lom jamiyatlar) tahlili ulardagi boshqaruvning maqsadlari jamiyat taraqqiyotiga zid ekanligini ko‘rsatdi [1]:

- Moddiy ehtiyojlar bilan cheklangan jamiyatlar: faqat iqtisodiy iste'molga yo'naltirilgan bo'lib, ularda ma'naviy va ilmiy yuksalish kuzatilmaydi.
- Shaxsiy manfaatlarga asoslangan boshqaruv: hokimiyat boylik orttirish yoki shon-shuhratga erishish vositasi sifatida ko'riladi, bu esa davlat institutlarining emirilishiga va ijtimoiy adolatsizlikka olib keladi.
- Zo'ravonlikka asoslangan tizimlar: ijtimoiy munosabatlar qo'rquv va bosimga quriladi, natijada jamiyatning ijodiy va intellektual salohiyati bloklanadi.

Boshqaruv sifati va jamiyat evolyutsiyasi korrelyatsiyasi. Tahlillar shuni isbotladiki, Forobiy davlat boshqaruvini jamiyatning "axloqiy va aqliy o'lchovi" deb hisoblaydi. Agar boshqaruv ilmiy va axloqiy asoslardan uzoqlashsa, jamiyat qanchalik boy bo'lmasin, baribir tanazzulga (regressiyaga) mahkum bo'ladi. Forobiyning ushbu xulosalari bugungi kunda davlat boshqaruvida meritokratiya (munosiblarning hokimiyati) va axloqiy boshqaruv (ethical leadership) tamoyillarini joriy etish naqadar dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa. Abu Nasr Forobiyning siyosiy-huquqiy merosini o'rganish jarayonida shakllangan ilmiy mushohadalar shuni ko'rsatadiki, mutafakkirning davlat boshqaruvi haqidagi qarashlari zamirida yuksak insonparvarlik va ma'naviy yetuklik g'oyalari mujassamdir. Forobiy talqinida jamiyat taraqqiyoti shunchaki iqtisodiy ko'rsatkichlar yoki moddiy farovonlik bilan emas, balki inson qadrining ulug'lanishi va jamiyat a'zolarining intellektual kamoloti bilan o'lchanadi. Uning "fozil Shahar" konsepsiyasi davlatning oliy maqsadi — insonlarni haqiqiy baxt-saodatga yetaklash ekanligini anglatuvchi falsafiy-huquqiy o'lchov bo'lib xizmat qiladi. Jamiyatning barqaror rivojlanishi bevosita rahbarning intellektual salohiyati va axloqiy fazilatlariga bog'liq bo'lib, mutafakkir tomonidan ilgari surilgan rahbarlik sifatlari bugungi kunning zamonaviy liderlik standartlari va davlat xizmatchilari etikasi uchun hamon fundamental dastur bo'lib qolmoqda.

Shu bilan birga, "johil shaharlar" tasnifi orqali mutafakkir jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi omillarni — korrupsiya, adolatsiz taqsimot va ma'naviy qashshoqlikni ilmiy bashorat qilgan bo'lib, bu modellar bugungi kundagi nosog'lom ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilishda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Forobiyning ijtimoiy hamkorlik va adolatli boshqaruv haqidagi g'oyalari zamonaviy huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati institutlarini takomillashtirishda, ayniqsa, davlat apparati faoliyatida shaffoflik va meritokratiya tamoyillarini joriy etishda boy nazariy manba hisoblanadi.

Umuman olganda, Forobiyning davlat va jamiyat haqidagi ta'limoti shunchaki tarixiy meros emas, balki bugungi kunning murakkab ijtimoiy-siyosiy muammolariga oqilona yechim topish imkonini beruvchi hayotiy va tizimli metodologiyadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. (Mas'ul muharrir M.M. Xayrullayev). – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 224 b.
2. Xayrullayev M.M. Forobiy va uning falsafiy merosi. – Toshkent: Fan, 1963. – 256 b.
3. Аль-Фараби. Философские трактаты. – Алма-Ата: Наука, 1970. – 430 с.
4. Sharifxo'jayev M. Ma'naviyat – taraqqiyot asosi. – Toshkent: O'zbekiston, 1998. – 120 b.
5. Zokirov Sh. Siyosiy-huquqiy ta'limotlar tarixi. – Toshkent: TDYU, 2017. – 180 b.
6. Сагадеев А.В. Аль-Фараби. – Москва: Мысль, 1982. – 248 с.
7. Walzer R. Al-Farabi on the Perfect State (Abu Nasr al-Farabi's Mabadi' Ara' Ahl al-Madina al-Fadila). – Oxford: Clarendon Press, 1985. – 511 p.
8. Mahdi M. Al-Farabi and the Foundation of Islamic Political Philosophy. – Chicago: University of Chicago Press, 2001. – 280 p.
9. Jo'rayev N. Siyosiy mafkura asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – 250 b.

BEHBUDIYNING SIYOSIY-HUQUQIY VA DAVLAT BOSHQARUVIGA DOIR QARASHLARIDAGI AN'ANA HAMDA ZAMONAVIYLIKNING SINTEZI

Mardonov Ravshan Rabbano o'g'li,
Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiyning siyosiy-huquqiy va davlat boshqaruviga oid qarashlari tahlil etilgan. Unda mutafakkirning milliy an'analar, islomiy qadriyatlar va zamonaviy demokratik tamoyillarni uyg'unlashtirishga qaratilgan konsepsiyasi ilmiy jihatdan yoritiladi. Behbudiy qarashlarida konstitutsion boshqaruv, qonun ustuvorligi, xalq manfaatiga xizmat qiluvchi davlat, parlament tizimi va ma'rifatli jamiyat g'oyalari muhim o'rin egallagani ko'rsatib beriladi.*

Kalit so'zlar*: jadidchilik, Behbudiy, siyosiy-huquqiy qarashlar, davlat boshqaruvi, qozilik sudlari, siyosiy mustaqillik, sud-huquq tizimini.*

Аннотация. *В данной статье анализируются общественно-политические и государственно-правовые взгляды одного из крупнейших представителей джадидского движения Махмудходжи Бехбуди. В ней с научной точки зрения освещается концепция мыслителя, направленная на гармонизацию национальных традиций, исламских ценностей и современных демократических принципов. Показано, что во взглядах Бехбуди важное место занимали идеи конституционного управления, верховенства закона, государства, служащего интересам народа, парламентской системы и просвещенного общества.*

Ключевые слова: *джадидизм, Бехбуди, общественно-политические взгляды, государственное управление, казийские суды, политическая независимость, судебно-правовая система.*

Abstract. *This article analyzes the political-legal and public administration views of Mahmudxo'ja Behbudiy, one of the prominent figures of the Jadid movement. It scientifically highlights the thinker's concept aimed at harmonizing national traditions, Islamic values, and modern democratic principles. It is demonstrated that ideas such as constitutional governance, the rule of law, a state serving the interests of the people, a parliamentary system, and an enlightened society held an important place in Behbudiy's worldview.*

Keywords: *Jadidism, Behbudiy, political-legal views, public administration, Qadi courts, political independence, judicial-legal system.*

Markaziy Osiyoda XVI asrdan boshlangan ijtimoiy inqiroz va davlat boshqaruvidagi turg'unlik millat va xalqni holdan toydirdi. Bu jarayon milliy taraqqiyotni susaytirib, xalqni iqtisodiy va ma'naviy jihatdan zaiflashtirdi. Ana shunday vaziyatdan foydalanib, Rossiya imperiyasi Turkistonni bosib oldi va mustamlakachilik siyosatini kuchaytirdi. Mustamlakachilar o'lka jamiyatini yangilanishdan mahrum bir holatda saqlashga intildilar. Behbudiy esa bunday sharoitda millatni tanazzuldan asrash uchun mafkuraviy va ma'naviy kurashni oldinga surdi. Uning siyosiy-huquqiy qarashlari avvalo millatning ozodligi, erkinligi va huquqiy ongini uyg'otishga qaratilgan edi. Behbudiy milliy mustaqillikni shariat qadriyatlari, tarixiy an'analar va zamonaviy davlatchilik g'oyalari bilan uyg'un holda talqin qildi. U diniy va madaniy merosni saqlab qolish zarurligini ta'kidlash bilan birga, jamiyatni yangilanishga chorlaydigan innovatsion g'oyalarni ham ilgari surdi. Shu tariqa u an'anani millatni birlashtiruvchi kuch, yangilikni esa taraqqiyotning vositasi sifatida tushuntirdi.

Behbudiy o'z asarida zamonaviy jamiyatni tashkil etuvchi siyosiy oqimlarning murakkab tabiatini ham tahlil qiladi. U rus jamiyatidagi siyosiy firqalarni batafsil bayon etib, ularning har biri tarkibida nasoro, yahud, musulmon va majusiy toifalariga mansub kishilar mavjudligini ta'kidlaydi. Turkiston aholisi haqida esa afsus bilan shunday deydi: "Biz, turkistoniylar, zamondan kamxabarligimiz sababli deyarli butunlay siyosiy firqalarga mansub emas, maslaksiz

nodon firqasi sifatida qaralishimiz mumkin”[1]. Bu fikr, aslida, Turkiston ziyolilarining ijtimoiy ong yetishmovchiligi haqidagi ichki iztirobini ifodalaydi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning o‘z davrida qoldirgan fikrlari bugungi kun uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. U Turkistonning iqtisodiy va ijtimoiy holatini chuqur tahlil qilib, xalqning real ahvolini ochib bergan. Behbudiyning yozishicha, o‘lkada iqtisodiy o‘sish kuzatilgan bo‘lsa-da, bu rivojlanish asosan mahalliy aholi manfaatlariga xizmat qilmagan [1,44].

Mahmudxo‘ja Behbudiy mustaqillikka erishish yo‘lida xalqning ichki birligi va uyg‘unligini eng muhim shart sifatida ko‘rgan. Uning nazarida, jamiyat taraqqiyoti faqat yoshlarning yangicha fikri bilan emas, balki keksalar donoligi va tajribasi bilan ham uyg‘unlashgandagina samarali bo‘ladi. Shu bois u yoshlarni shoshqaloqlik va sabrsizlikdan tiyilishga, ilmiy asosda qaror qabul qilishga, mustahkam iroda ko‘rsatishga da’vat etgan. Bu fikr bugungi demokratik davlat qurilishida ham dolzarbdir. Zero, zamonaviy siyosiy jarayonlarda ham avlodlararo uzviylik va tajriba almashinuvi davlat mustahkamligining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Behbudiy uchun davlat boshqaruvi nafaqat siyosiy, balki axloqiy jarayon hamdir. Hukmdor xalq oldida mas’ul, u millat taqdirini belgilovchi kuchdir.

Shuningdek, Behbudiy qarashlarini siyosiy falsafa nuqtayi nazaridan tahlil qilsak, unda ikki asosiy tendensiya ko‘rinadi:

An’anaviylik - hukmdor va davlatni axloqiy mas’uliyat markazi sifatida ko‘rish, xalqning birlik va totuvligiga urg‘u berish.

Zamonaviylik - G‘arb siyosiy tajribasidan xabardorlik, turli boshqaruv shakllarini solishtirish, mustaqil davlat qurish uchun yangicha andozalarni o‘rganishga intilish.

Behbudiy qarashlarida an’anaviylik va zamonaviylik uyg‘unlashadi. Bir tomondan, u Sharq siyosiy tafakkuriga xos bo‘lgan “adil hukmdor” g‘oyasini saqlab qoladi. Bu qadimiy tushuncha hukmdorning axloqiy mas’uliyati va adolat tamoyiliga tayanishini anglatadi. Ikkinchi tomondan, u xalq vakillari ishtirokini muhim deb bilishi bilan zamonaviy huquqiy davlat tamoyillariga yaqinlashadi.

Bu mulohazalaridan ko‘rinadiki, Behbudiy davlat va hokimiyatni universal tushuncha sifatida talqin qilgan. U hukmdorlarning nomlari turlicha bo‘lsa-da, ularning jamiyat oldidagi vazifasi xalqni adolat bilan boshqarish, taraqqiyotga yetaklash ekanligini ta’kidlaydi. Bu nuqtada uning qarashlari Sharq siyosiy tafakkuri an’analariga yaqin: hukmdor davlatni saqlovchi va axloqiy tartibni qo‘llovchi shaxsdir. Shu bilan birga, Behbudiy G‘arb siyosiy madaniyatidan ham saboq olgan: masalan, “Prezident” atamasini qayd etishi u demokratiya tajribasiga befarq bo‘lmaganini ko‘rsatadi.

Uning nazarida, yoshlar millatning kelajagi, keksalar esa uning tayanchi va xotirasidir. Bu ikki qatlamning uyg‘unligi davlat mustaqilligi uchun zarur ijtimoiy kapitalni yaratadi.

Demak, Behbudiy uchun siyosiy mustaqillikka erishish faqat tashqi kurash emas, balki ichki ma’naviy uyg‘onish, avlodlararo uzviylik va xalqning o‘z davlatini adolatli boshqarish qobiliyatini shakllantirish jarayonidir. Bu fikr bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, milliy davlatchilikni mustahkamlashda o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston jadidchilik harakatining eng yirik namoyandalaridan biri sifatida nafaqat ma’rifatparvarlik, balki siyosiy-huquqiy tafakkur rivojiga ham ulkan hissa qo‘shgan mutafakkirdir. Uning qarashlari o‘z davri uchun nihoyatda ilg‘or bo‘lib, Turkiston jamiyatini modernizatsiya qilish, xalqning siyosiy va huquqiy ongini yuksaltirish hamda zamonaviy davlat boshqaruvi tizimini shakllantirishga qaratilgan edi [2].

Behbudiy davlat va boshqaruv haqidagi qarashlarida an’anaviy islomiy axloqiy qadriyatlarni zamonaviy siyosiy tajribalar bilan sintez qildi. U milliy istiqlolni xalqning axloqiy-ma’naviy kamoloti bilan bog‘ladi va shu orqali davlatni nafaqat huquqiy, balki axloqiy hodisa sifatida talqin etdi.

Behbudiy o‘z davrlaridagi qozilik sudlari amaliyotiga ham tanqidiy yondashganlar. Qozilarning qonunga emas, ko‘proq shariatga tayanib ish tutishlari, shariat sharoitlarini

suiste'mol qilishlari ularni tashvishga solgan. Jamiyatdagi mavjud amoralistik holatlarga qarshi tura oladigan nazariy g'oyalarni ilgari surganlar. Sud-huquq tizimini jamiyat manfaatlari uchun tubdan isloh qilishni aytadilar, sud ishlarini zamonaviy huquq normalari asosida yuritish hamda ayollarning huquqlarini tenglashtirish (xususan, ularning jamiyatdagi mavqeini ko'tarish) davlatning muhim vazifalaridan sanaladi.

Ular uchun maxsus o'qitish tizimini joriy etish zarur. Bu sohalarning muhim ekanligini inobatga olib, lavozimlarga munosib kadrlarni tayinlash tizimini yo'lga qo'yishni taklif qiladilar.

Behbudiy siyosiy taraqqiyotning asosiy sharti sifatida qonun ustuvorligi, adolat, maslahatlashuv va xalq manfaatlarini himoya qilish tamoyillarini ilgari surdi. U davlat boshqaruvi xalq ehtiyojlariga xizmat qilishi, hukumat faoliyati esa qonun bilan cheklanishi lozimligini ta'kidlaydi. Bu qarashlar mutafakkir tafakkurida demokratik boshqaruv unsurlari mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

Behbudiy davlat boshqaruvi masalasida milliy qadriyatlarni saqlagan holda zamonaviy siyosiy tajribadan foydalanish zarurligini asoslaydi. U Sharq ma'naviy merosi va islomiy axloqiy mezonlarni jamiyat hayotining muhim tayanchi sifatida ko'radi. Shu bilan birga, zamonaviy boshqaruv, huquqiy tartib va ijtimoiy faollikni ham zarur deb biladi. Bu yondashuv uning tafakkurida milliylik va modernizatsiya o'rtasida keskin ziddiyat yo'qligini ko'rsatadi [3].

Behbudiy qarashlarining eng muhim jihatlaridan biri an'ana va zamonaviylikning uyg'unlashganidadir. U milliy va diniy qadriyatlarni inkor qilmagan holda, Yevropa taraqqiyoti va zamonaviy boshqaruv tajribalarini o'rganish zarurligini ilgari surgan. Mutafakkir uchun islom axloqiy-ma'naviy asos bo'lsa, zamonaviy ilm-fan va demokratik boshqaruv taraqqiyot vositasi hisoblangan. Shu jihatdan Behbudiy Sharq va G'arb tafakkurini uyg'unlashtirgan jadid modernizmining muhim nazariy asoschilaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa o'rnida aytish joizki bugungi kunda ham Behbudiy merosi o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar, qonun ustuvorligini ta'minlash, ochiq davlat boshqaruvi, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratilishi Behbudiy ilgari surgan g'oyalar bilan hamohangdir. Ayniqsa, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy o'zlikni anglash va zamonaviy bilimlar asosida tarbiyalash masalasida uning qarashlari muhim nazariy va amaliy manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Xayrul umuri avsatuho" ("Ishlarning yaxshisi o'rtachasidur") // "Xurshid". 1906-yil 11-oktabr.

2. Алимова Д.А. Жадидчилик ҳаракатининг ижтимоий-сиёсий моҳияти ва жадидлар тафаккури // Жадидчилик:ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. – Т.:Университет, 1999.- Б.49.

3. Mahmudxo'ja Behbudiy -Tanlangan asarlar. Toshkent «Ma'naviyat» 2006.

ЗАМОНАВИЙ ЖАМИЯТНИНГ ТЕХНОЛОГИК ТАРАҚҚИЁТИ: ИМКОНИЯТЛАР, ХАВФ-ХАТАРЛАР ВА ИСТИҚБОЛЛАР

Олимходжаев Фаёзхўжа Аброрхўжа ўғли,
ФарДУ мустақил изланувчиси

Аннотация. *Ушбу мақолада технологик тараққиётнинг жамият ижтимоий-иқтисодий ҳаётига таъсири, рақамли трансформация жараёнлари ва тўртинчи саноат инқилобининг ўзига хос хусусиятлари таҳлил қилинади. Технологияларнинг инсон капитали ва меҳнат бозорига таъсири, шунингдек, юзага келиши мумкин бўлган экологик ва этик муаммолар кўриб чиқилади.*

Калит сўзлар: *технологик тараққиёт, индустрия 4.0, сунъий интеллект, рақамли иқтисодиёт, ижтимоий трансформация, глобаллашув, инновациялар.*

Аннотация. *в данной статье анализируется влияние технологического прогресса на социально-экономическую жизнь общества, процессы цифровой трансформации и особенности четвертой промышленной революции. Рассматривается влияние технологий на человеческий капитал и рынок труда, а также возникающие экологические и этические проблемы.*

Ключевые слова: *технологическое развитие, индустрия 4.0, искусственный интеллект, цифровая экономика, социальная трансформация, глобализация, инновации.*

Abstract. *This article analyzes the impact of technological progress on the socioeconomic life of society, digital transformation processes, and the characteristics of the fourth industrial revolution. It also examines the impact of technology on human capital and the labor market, as well as emerging environmental and ethical issues.*

Keywords: *technological development, industry 4.0, artificial intelligence, digital economy, social transformation, globalization, innovation.*

Инсоният тарихи давомида технологиялар жамиятнинг ривожланиш даражасини белгилаб келган. Тош қуроллардан бошлаб, бугунги кундаги сунъий интеллектгача бўлган йўл инсоннинг атроф-муҳитни бошқариш ва ўз ҳаётини енгиллаштиришга бўлган интилиши натижасидир. Бугунги кунда биз **"Тўртинчи саноат инқилоби" (Industry 4.0)** даврида яшамоқдамиз. Бу давр нафақат ишлаб чиқаришни, балки инсонларнинг фикрлаши, мулоқот қилиши ва яшаш тарзини тубдан ўзгартирмоқда.

Технологик тараққиётнинг асосий йўналишлари.

Ҳозирги босқичда жамият ривожига энг катта таъсир кўрсатаётган технологиялар қуйидагилардир:

- **Сунъий интеллект (AI):** Маълумотларни қайта ишлаш ва қарор қабул қилиш тезлигини оширмоқда.
- **Нарсалар интернети (IoT):** Уйлар, шаҳарлар ва ишлаб чиқариш корхоналарини ягона тизимга бирлаштирмоқда.
- **Биотехнология ва ген муҳандислиги:** Тиббиётда инқилоб ясаб, инсон умрини узайтириш ва касалликларни даволашнинг янги усулларини таклиф қилмоқда.
- **Блокчейн технологияси:** Иқтисодий транзакциялар хавфсизлиги ва шаффофлигини таъминламоқда.

Ижтимоий ва иқтисодий таъсирлар.

Иқтисодиётда: Рақамли иқтисодиёт анъанавий бозор моделларини сиқиб чиқармоқда. Автоматлаштириш туфайли ишлаб чиқариш самарадорлиги ошди, аммо бу **меҳнат бозорида** жиддий ўзгаришларга олиб келди. Малакасиз меҳнатга бўлган талаб камайиб, юқори технологик кўникмаларга эга мутахассисларга эҳтиёж ортмоқда.

Ижтимоий соҳада: Технологиялар таълим ва тиббиётни янада қулай қилди. Масофавий таълим ва телемедицина чекка ҳудудлардаги инсонлар учун имкониятлар

эшигини очди. Бироқ, "рақамли тафовут" (digital divide) муаммоси — технологияга эга бўлган ва бўлмаган жамиятлар ўртасидаги фарқ чуқурлашмоқда.

Технологик тараққиётнинг салбий оқибатлари ва хавфлари.

Ҳар қандай ютуқнинг ўзига хос баҳоси бор. Жамият қуйидаги муаммоларга дуч келмоқда:

1. **Киберхавфсизлик:** Шахсий маълумотларнинг ўғирланиши ва давлат миқёсидаги киберҳужумлар.
2. **Ижтимоий изоляция:** Виртуал оламдаги мулоқот жонли мулоқотнинг ўрнини эгаллаши натижасида юзага келадиган психологик муаммолар.
3. **Ишсизлик хавфи:** Роботлаштириш натижасида айрим касбларнинг йўқолиб кетиши.
4. **Этика ва Назорат:** Сунъий интеллектнинг этик нормалари ва инсон устидан назорат масаласи.

Ўзбекистоннинг технологик ривожланиш йўли - Ўзбекистондаги ислоҳотларни тилга олиш муҳим. **"Рақамли Ўзбекистон – 2030"** стратегияси доирасида амалга оширилаётган ишлар, IT-паркларнинг ташкил этилиши ва давлат хизматларининг рақамлаштирилиши жамиятнинг технологик янгиланишига хизмат қилмоқда. Бу эса мамлакатнинг глобал рақобатбардошлигини оширишдаги муҳим қадамдир:

1. **Интернетга уланиш даражаси:** Жаҳон аҳолисининг неча фоизи интернетдан фойдаланаётгани ва Ўзбекистондаги кўрсаткич (масалан, 80% дан ортиқ).
2. **IT соҳасининг ЯИМдаги улуши:** Ўзбекистонда рақамли иқтисодиётнинг ялпи ички маҳсулотдаги ўрни йил сайин қандай ўсаётгани.
3. **Роботлаштириш кўрсаткичи:** Ҳар 10 000 ишчига тўғри келадиган саноат роботлари сони (Жанубий Корея, Сингапур ва Ўзбекистон қиёсида).

1. Рақамли иқтисодиёт ва ЯИМ ўсиши

- **Иқтисодий ўсиш:** 2025 йил якунларига кўра, Ўзбекистон иқтисодиёти **7,7% га** ўсди, бу охирги йиллардаги энг юқори кўрсаткичлардан биридир.
- **Макроиқтисодий мақсад:** "Ўзбекистон — 2030" стратегияси доирасида ялпи ички маҳсулот ҳажмини 200 миллиард долларга етказиш режалаштирилган.
- **Инвестициялар:** 2024 йилда мамлакат иқтисодиётига **35 миллиард доллар** миқдорида инвестициялар жалб қилинди.

2. IT-сектор ва экспорт салоҳияти.

- **IT-экспорт:** 2025 йил якунларига кўра, IT Park резидентлари томонидан амалга оширилган хизматлар экспорти **728,4 миллион долларни** ташкил этди. Бу кўрсаткич олдинги йилга нисбатан 273 миллион долларга ошган.
- **Резидентлар сони:** 2025 йил охирига келиб IT Park резидентлари сонини **3 000 тага** етказиш мақсад қилинган. Биргина 2025 йилнинг куз фаслида 267 та экспортга йўналтирилган янги компания резидентлик мақомини олди.
- **Инвестициялар:** Сунъий интеллект ва рақамли технологиялар соҳасига қарийб **2 миллиард доллар** миқдорида тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар жалб этилди.

3. Давлат бошқаруви ва алоқа (GovTech).

- **Жаҳон рейтинги:** 2025 йилги "GovTech Maturity Index" (Давлат технологияларининг етилиш индекси) рейтингида Ўзбекистон **9-ўринни** эгаллаб, "Юқори етилиш" (А тоифаси) гуруҳига кирди.
- **Интернет ва алоқа:** 2025 йил бошига келиб, Ўзбекистонда интернет фойдаланувчилари сони **32,7 миллион кишига** етди, интернет қамрови даражаси эса **94,2% ни** ташкил этди.
- **Мобил интернет тезлиги:** 2020 йилда 133-ўринда бўлган Ўзбекистон, 2025 йилга келиб мобил интернет тезлиги бўйича дунёда **71-ўринга** кўтарилди.

strategy.uz +2

4. Ижтимоий ва экологик трансформация.

- **Аҳоли сони:** 2025 йил 1 июль ҳолатига кўра, Ўзбекистон аҳолиси **37,8 миллион кишига** етди. Бу ўсиш технологияларни кенг жорий этиш ва янги иш ўринлари яратиш заруратини янада оширади.
- **Энергия самарадорлиги:** 2030 йилга қадар иқтисодиётда энергия сарфини **20% га**, давлат идораларида эса **15% га** камайтириш мақсад қилинган.
- **Олий таълим:** Охирги 7 йилда олий таълим муассасалари сони 207 тага етди (шундан 32 таси хорижий олийгоҳлар филиаллари)

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки технологик тараққиёт — тўхтатиб бўлмайдиган жараён. Жамиятнинг вазифаси технологиядан воз кечиш эмас, балки ундан оқилона фойдаланиш, унинг салбий оқибатларини юмшатиш ва инсон манфаатларига йўналтиришдир. Келажакда фақат технология билан тил топиша олган ва доимий таълим олишга тайёр жамиятларгина юксалади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Шваб К. Четвертая промышленная революция. – Эксмо, 2016.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябрдаги ПФ-6079-сон Фармони "Рақамли Ўзбекистон – 2030" стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида.
3. Castells, M. The Information Age: Economy, Society and Culture. Oxford: Blackwell, 2010.

IS'HOQXON TO'RA IBRAT FALSAFASIDA MA'NAVIY TARBIYA MASALALARI

Shaxnazarova Mexrigul Xusanovna,
Navoiy Davlat konchilik texnologiyalari universiteti
Yoshlar bilan ishlash ma'naviyat va ma'rifat bo'limi tyutori

Annotatsiya. *Ushbu maqolada buyuk ma'rifatparvar olim Is'hoqxon to'ra Ibratning falsafiy g'oyalaridagi ma'naviy tarbiya masalalari xususida so'z boradi. Ibratning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida jaholat barcha davrlarda insoniyat ma'rifatining, ma'naviy barkamolligining kushandasi ekanligi qattiq tanqid qilingan. Mazkur maqolada Ibrat falsafiy ta'limotidagi ortodaksal g'oyalarning mazmun-mohiyati ilmiy-nazariy jihatdan qiyosiy tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *ilm, jaholat, ma'rifat, harakat, taraqqiyot, axloq, odob, zamon, nodonlik, illat, nafs, yolg'onchilik.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы духовно-нравственного воспитания в философских идеях великого просветителя Исхаккона ибрата. В его социально-философских взглядах решительно критикуется невежество, которое во все времена выступало врагом человеческого просвещения и духовного совершенства. В статье проводится научно-теоретический сравнительный анализ сущности ортодоксальных идей в философском учении Ибрата.*

Ключевые слова: *знание, невежество, просвещение, движение, развитие, мораль, этикет (воспитанность), время, глупость (невежество), порок, нафс (эго), ложь.*

Abstract. *This article discusses the issues of spiritual and moral upbringing in the philosophical ideas of the great enlightener Is'hoqxon Ibrat. His socio-philosophical views strongly criticize ignorance, which has always been the enemy of human enlightenment and spiritual perfection. This article provides a scientific-theoretical comparative analysis of the essence of orthodox ideas within Ibrat's philosophical teachings.*

Keywords: *knowledge, ignorance, enlightenment, movement, progress, morality, etiquette (decency), time, stupidity, vice, nafs (ego), falsehood.*

Ma'rifatparvar shoir, serqirra olim, jonkuyar pedagog va jurnalistning faoliyati va u yashagan davr manzarasi hamda XIX asr oxiri-XX asrning boshlaridagi, tarixiy sharoit millatning ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy va madaniy ahvoli mana shu vaziyatdan qutilish, millat ravnaqini ta'minlash uchun ham, islohat masalasi yoritilgan. Jadid ma'rifatparvari Is'hoqxon to'ra Ibrat ilmiy-falsafiy faoliyati, qoldirgan madaniy merosida ilgari surilgan ma'naviy-axloqiy qarashlari falsafiy jihatdan tahlil etilgan. Is'hoqxon to'ra Ibratning falsafiy tafakkur tarixi tizimidagi o'rnini tahlil etish va o'rganishda mazkur jihatlar asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Is'hoqxon to'ra Ibrat zamondoshlari mol-dunyoga berilganliklari, umrini maishat va ayshu ishratda o'tkazish, boylik hirs qo'yish bu kabi johillik botqog'idan ta'lim va tarbiya va zamonaviy dunyoqarash orqali chiqish mumkinligi haqida qarashlarni ilgari surgan. Is'hoqxon to'ra Ibrat jaholat, savodsizlik, nodonlikka barham berish lozimligi yoshlarni xat savodga o'rgatish, kasb-hunar, halol mehnat orqali kamolatga erishib jaholatga barham berishi va jaholat insoniyat va ma'rifatning dushmani bu esa barcha axloqiy fazilatlarni yo'q qilib unga barham berishidir. Yoshlarga dunyoga kelgan har bir kishi o'zidan yaxshi nom, ilm ma'rifatdan baharamand bo'lib, umrni behuda o'tkazmasdan yaxshi amallar bilan jamiyat rivojlanishiga munosib hissa qo'shishga chorlab kelish bugungi yoshlar tarbiyasi uchun muhim ahamiyatga ega.Taraqqiyparvar allomaning bu boradagi qarashlari bizga qoldirgan ma'naviy meroslarimizda o'z aksini topgan. Quyidagi baytlar orqali ko'rib chiqamiz.

Har kasb pesha qilg'il, bo'lmas senga amal qut,
Bekasb o'tsang, Ibrat, muhtoji non o'lursan.

Is'hoqxon to'ra Ibrat ilm va hunar egallagan kishi har yerda o'z rizqini topa olishini bayon etib, yoshlarni komil inson bo'lishga chorlaydi:

Ziyo-la yuraman desang dunyoda,
Ilm ol,hunar o‘rgan, qolma piyoda!

Is’hoqxon to‘ra Ibrat o‘z zamonasida ilm va ma’rifatni eng oliy qadriyat sifatida ko‘rgan va bu qadriyatlarni jamiyatga singdirishga harakat qilgan. U har bir insonni faol, bilimli va hunarli bo‘lishga chaqirgan.

Madaniyat jahonga osoyish,
Xulq husni anga oroyish.

Bu ibora orqali madaniyatning insoniyat uchun qanday ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatilmoqda. Madaniyat - bu nafaqat san’at va ilm, balki jamiyatning tarbiya va axloq mezonlarini belgilovchi omil. Ibrat, madaniyatni dunyoga osoyishtalik olib keladigan kuch deb ko‘rgan. Agar insonlar madaniyatli va tarbiyali bo‘lsa, jamiyatda tinchlik va tartib o‘rnatilishi va xulq va husnning birlashishi - bu o‘zining nafislik va ma’naviy go‘zalligi bilan insonni yanada mukammal qiladi. Xulq - insonning ichki fazilatlari, uning yuragi, axloqi va niyatlari bilan bog‘liq, husn esa tashqi ko‘rinishi va ijtimoiy nufuziga taalluqli ekanligini anglatadi.

Is’hoqxon to‘ra Ibrat vatan ravnaqi yo‘lida, maorif sohasini isloh qilish va ma’rifat taraqatish yo‘lida so‘nggi nafasigacha kurash olib borgan buyuk ma’rifatparvar. XX asr boshlarida ma’rifatparvar ziyolilar qatori xalq ongini shakllantirish, yoshlarimizga zamonaviy ta’lim-tarbiya berish, mamlakatni obod va farovon ko‘rish, maorif, ta’lim-tarbiyani tubdan isloh qilish yo‘lida xizmat qildi.

Bugungi kunda olib borigan tadqiqotlar natijasi asosida olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, Turkistondagi ilk usuli-jadid maktabi Is’hoqxon Junaydullohxo‘ja o‘g‘li Ibrat tomonidan 1886 yilda ochilgan. Is’hoqxon to‘ra Ibrat tomonidan ochilgan mazkur maktab haqida biz dastlabki ma’lumotlarni o‘zining “qalam” nomli she’ri orqali bilishimiz mumkin. Bu haqida BARS-51 otryadining rahbari Ya.Gaffarov tomonidan yozilgan o‘zining kundaliklari orqali aniqlanganlgini manbalarda keltirilgan. Mazkur she’rning bizgacha toshbosma shaklida ikki varag‘i saqlanib qolgan.

Umuminsoniy qadriyatlar insoniyat tarixining yaxlitligini ifoda-laydi, u davrlar o‘tishi va ijtimoiy hayotning o‘zgarishi bilan bir qatorda takomillashib, rivojlanib, tobora ko‘proq xalqlarni, millatlami, inson-lami yaqinlashtiruvchi, birlashtiruvchi va kamol toptiruvchi kuchga aylanib boradi. Insonparvarlik va ijtimoiy adolat, erkinlik va ozodlik, barqa-rorlik va farovonlik, ezgulik va taraqqiyotga bo‘lgan intilish umuminsoniy qadritlarning muhim jihatlaridir. Har bir millatning mavqei uning insoniyat taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi bilan o‘lchanadi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlami qarama-qarshi qo‘yish milliy hudbinlik yoki xalqaro nizolarga olib kelishi, natijada, butun insoniyat tsivilizatsiyasi rivojiga to‘siq bo‘lishi mumkin. Shuning uchun, umuminsoniy ahamiyat kasb etgan qadriyatlami qayerda va qachon shakllangan, qanday millat vakillari yaratganidan qat’iy nazar ehtirom bilan tan olish hamda qabul etish taraqqiyotga xizmat qiladi. Mustaqil respublikamizda milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligiga, xalqimizning jahon hamjamiyati bilan birga rivojlanish yo‘lidan borishiga alohida e’tibor berilayotgani ham buning yorqin ifodasidir. Is’hoqxon to‘ra Ibrat ijodidagi yetakchi g‘oya ilm-ma’rifat, madaniyat va texnika yangiliklarini targ‘ib qilish g‘oyasidir. U xalqning iqtisodiy-madaniy hayotiga xizmat qiluvchi, uning mushkullarini yengillashtiruvchi, uzog‘ini yaqin qiluvchi ilm-fanni, texnikani targ‘ib etdi. Is’hoqxon to‘ra Ibrat mehnatkash xalq boshidagi og‘ir hayot, qashshoqlik, mamlakatdagi qoloqlikda, xalqning nodonlikda qolganining sabablarini aniqlashga, undan qutqarish yo‘llarini topishga harakat qildi. Bir necha taraqqiy etgan mamlakatlarda bo‘lgan Ibrat xalqni zulmatdan, mamlakatni qoloqlikdan qutqaruvchi birdan-bir yo‘l ilm-ma’rifatni egallash deb tushunadi.

Is’hoqxon to‘ra Ibrat maktablarni tashkil etish chora-tadbirlari, mablag‘ muammosi, maktab jihozlari haqida ham jon kuydirib, boshlang‘ich ta’lim, o‘rta maktab va oliy maktab, hunar maktablari, kechki maktablar, ilmiy-tadqiqot muassasalarida bu ishlarni tashkillashtirishda hukumat bosh islohotchi bo‘lishi zarurligini ta’kidlagan. Hozirga respublikaning barcha viloyatlarida davlat va davlat xususiy sherikchiligi asosida oliy o‘quv yurtlari tashkil etilgani

Ibratning bu fikrlari naqadar ahamiyatli bo‘lganidan dalolatdir. Zero, mamlakat taraqqiyotining zamonaviy bilimlarini egallagan yetuk mutaxassislar birlashib yaratgan ilmiy kashfiyotlar samarasi orqali amalga oshirish mumkin.

“Tarixi madaniyat”da milliy madaniyatni rivojlantirish konsepsiyasi aks etganki, unda ilgari surilgan ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ta’limiy-tarbiyaviy, madaniy taraqqiyot maqsadlari mustaqillik yillarida amalga oshirilgan va hozirda ham davom etayotgan yangilanishlar va o‘zgarishlar asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Is’hoqxon to‘ra Ibrat barkamol avlod tarbiyasi avvalo oiladan boshlanishi haqida ta’kidlab, ota-onalar pullarini farzandining istiqboli yo‘lida sarflashi ularni ilm olishlari kasb-hunar egallashi uchun sarf qilishlari farzandlariga to‘g‘ri tarbiya berishga chorlagan. Asarda ko‘tarilgan muammolar bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Bir asrdan oshiqroq vaqt mobaynida xalqimiz ong-u tafakkurida shuncha o‘zgarish bo‘lsada, insonning libosi, mansab-u martabasiga qarab muomala qilayotganligi, farzandlarning ilmi-hunarli qilish o‘rniga shohona to‘y-bazmlarda ortiqcha sarf-xarajat qilinayotganligi barchamizga ma’lum. Shu bois ham asar davr tanlamagan holda jamiyatning barcha qatlamlari o‘qishi uchun munosibdir. Zotan unda ko‘tarilgan muammolar, kamchiliklar, xatolar barchamizni xulosa chiqarishga, ularni bartaraf etishga undaydi.

Ma’rifatparvar Is’hoqxon Junaydullohxo‘ja o‘g‘li Ibrat To‘raqo‘rg‘oniy matbaachi sifatida “Matbaai Ishoqiya”ni tashkil etib, kitob nashriga kirishgan bu yerda ko‘plab ilmiy, tarixiy, badiiy asarlar bilan birga, zamonaviy mavzulardagi kitoblarni ham nashr etib, ilm-ma’rifat va ma’naviyat hamda kitobxonlik rivoji o‘lkan xissa qo‘shgan. Uning “Jomi’-ul-xutut” (“Xatlar majmui”) asarida kutubxonaning jamiyatdagi o‘rniga alohida e’tibor qaratilgan. Ibratning milliy kutubxona, kitobxonlik ishlarining ilk tashkilotchisi va targ‘ibotchisi sifatida ham xizmatlari beqiyosdir. U tashkil qilgan “Kutubxonai Ishoqiya” fondi bu jihatdan ancha boy bo‘lib, unda kitob berish va olish ma’lum tartib-qoidaga moslashgan edi. Manbalarda ko‘rsatilishicha, Is’hoqxon to‘ra Ibrat tomonidan tashkil qilingan mazkur kutubxonada “Tujjor” gazetasining hatto 1884 - yilgi boylamlari ham bo‘lgan

Mamlakatimizda buyuk allomalarning ilmiy-ma’naviy merosini chuqur o‘rganish va targ‘ib qilish, yoshlarni jadidlarning ezgu an’analari ruhida tarbiyalash bo‘yicha islohotlar izchil davom etmoqda. Mamlakatimiz ijtimoiy hayotida muhim ahamiyat kasb etadigan ma’naviy-ma’rifiy sohalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Xususan, jadid mutafakkirlarining ilmiy merosini o‘rganish, tarjima qilish, yoshlarga kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, kreativ fikrlarni yuksaltirish, ularni vatanparvarlik hamda umuminsoniy qadriyatlarimizga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada jadidlarning nafaqat mamlakatimiz, balki jahon miqyosida e’tirof etilgan Vatanga muhabbat va sadoqat, bag‘rikenglik, oilani muqaddas qadriyat sifatida e’zozlash va mustahkamlash, ma’naviy ogohlik, bag‘rikenglik va islom qadriyatlariga hurmat, komil insonni tarbiyalash kabi g‘oyalarining mazmunini ilmiy asosda ochib berish muhim ahamiyatga ega. Ma’rifatparvar Is’hoqxon to‘ra Ibrat yoshlarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish ona yurtimiz qadriyatlariga sadoqat ruhida tarbiyalash masalalari tahlil qilingan. Umri davomida qishloqlarda ham ilm-ma’rifat o‘choqlarini bunyod qilish va ko‘proq kitob nashr ettirib, yoshlarimizning aql-zakovatini yuksaltirish haqida qayg‘urdi. U o‘zining “Tarixi madaniyat” asarida fanga oid kitoblar kamligi, barcha xurofotlar ilmsizlik oqibatida paydo bo‘layotgani haqida kuyunib, shunday deydi: “Bizni Farg‘onadagi xurofotlarni ko‘bligiga qaraganda, har yili uch-to‘rt adad fanga oid kitob bostirib tarqatish lozim. Vaholangki, bir dona ham yo‘q. Loaqal, biror dona jurnal, risolacha, gazet haftalik maktab uchun darkor edi”.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki, barkamol shaxsni ma’naviy-axloqiy tarbiyalanishida ota-onaning talabchanligi va ota-ona faoliyatining birdamligini ta’minlash, tarbiyachi murabbiylarning shaxs ma’naviy-axloqiy tarbiyasida o‘rnak bo‘lishi, jamoa kabilar muhim o‘rin tutadi. Jamoat joylarida o‘zini tutish odobi, so‘zlash va tinglash madaniyati, o‘zaro hurmat qoidalariga rioya qilish yaxshi hislatlar va go‘zal xulq egasi bo‘lib shakllanadi. Bu

fazilatlar farzand tarbiyasi va kamolotida ma’naviy-axloqiy tarbiya hal qiluvchi vositalari ekanligi Is’hoqxon to‘ra Ibrat tomonidan ham alohida ta’kidlangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 19-mart kuni ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus ijrosini ta’minlash, yoshlarni nomoddiy madaniy merosga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish, xalq qadryatlarida mujassamlashgan ezgu g‘oyalarni yoshlar ongiga singdirish maqsadida ta’lim muassasalari qoshida “Folklor san’ati”, “Xalq ijodiyoti”, O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosi”, “Folklor ijrochilik san’ati” deb nomlangan to‘garaklar tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bugungi globallashuv jarayonida nomoddiy madaniy meros muhofazasi juda ham dolzarb masalalardan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev: “Biz yoshlarimizni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur. Bunday g‘oyat muhim vazifani amalga oshirishda biz, avvalo, ko‘pni ko‘rgan kayvoni onaxonlarimizga, mahalla faollariga, muhtaram faxriylarimizga, siz, aziz opa-singillarimizning aql-zakovatingiz, bilim va tajribangizga tayanamiz”, deb ta’kidlaganlar. Islom ta’limotida tabiat, jamiyat, inson va insonga xos bir mushtarak xususiyatlarni o‘zida qamrab olgan holda muayyan sharoit va hodisalar bilan bog‘liq tarixiy, ijtimoiy, milliy hamda o‘ziga xos jihatlarga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Долимов У. Исҳоқхон Ибрат. – Тошкент: Шарқ, 1994. – Б.65.
2. Is’hoqxon Ibrat. Jomi’-ul-xutut. Toshbosma. Namangan. 1912 G‘G‘ O‘zbekiston Milliy universiteti Nodir qo‘lyozmalar fondi. V 019 G‘ 721-raqam.
3. Is’hoqxon Ibrat. Tarixi Farg‘ona. – Toshkent, 1992. – B. 258.
4. Ibrat.I. Tarixi madaniyat. 1926. – B.188. O‘zR FA SHI. Q., inv. № 11616.
5. Ш.Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз.-Тошкент.: «Ўзбекистон », 2017.Б. 349-350.

MADANIYATLAR GLOBALLASHUVI JARAYONIDA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASHDAGI O‘ZGARISHLAR

Temirov Akmal Zokirovich,
Samarqand davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Maqolada globallashuv sharoitida milliy madaniyat va o‘zlikni anglash masalalari tahlil qilingan. Muallif axborot makonining kengayishi va madaniy almashinuvlarning jadallashuvi sharoitida milliy qadriyatlarning transformatsiyasi hamda yoshlar ma’naviy tarbiyasidagi o‘rni masalasiga alohida e’tibor qaratadi. Tadqiqotda madaniyatning milliy xususiyatlari va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlik, xususan, I.G. Herderning “xalq ruhi” (Volksgeist) konsepsiyasi nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi. Globallashuv jarayonida yuzaga kelayotgan madaniy sintez shakllari va an’anaviy yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqish zarurati ilmiy asoslangan holda yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar. *Globallashuv, milliy madaniyat, milliy o‘zlik, milliy qadriyatlar, yoshlar tarbiyasi, madaniy transformatsiya, Volksgeist, madaniy sintez, ma’naviy meros.*

Аннотация. *В статье анализируются вопросы национальной культуры и самосознания в условиях глобализации. Автор уделяет особое внимание трансформации национальных ценностей в условиях расширения информационного пространства и интенсификации культурного обмена, а также их роли в духовно-нравственном воспитании молодежи. В исследовании рассматривается диалектическая взаимосвязь между национальными особенностями культуры и общечеловеческими ценностями, в частности, через призму концепции «народного духа» (Volksgeist) И.Г. Гердера. Научно обоснована необходимость переосмысления форм культурного синтеза и традиционных подходов, возникающих в процессе глобализации.*

Ключевые слова. *Глобализация, национальная культура, национальная идентичность, национальные ценности, воспитание молодежи, культурная трансформация, Volksgeist, культурный синтез, духовное наследие.*

Abstract:*The article analyzes the issues of national culture and self-awareness in the context of globalization. The author pays special attention to the transformation of national values and their role in the spiritual education of youth amid the expansion of the information space and intensified cultural exchanges. The research examines the dialectical relationship between national cultural characteristics and universal human values, particularly through the prism of J.G. Herder's concept of "Volksgeist" (national spirit). The necessity of re-evaluating traditional approaches and understanding the new forms of cultural synthesis emerging during the globalization process is scientifically grounded.*

Keywords: *Globalization, national culture, national identity, national values, youth education, cultural transformation, Volksgeist, cultural synthesis, spiritual heritage.*

Hozirgi globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarning saqlanishi, rivojlanishi va transformatsiyasi masalasi zamonaviy ijtimoiy-gumanitar fanlarda dolzarb muammolardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Axborot makonining kengayishi, madaniy ta’sirlar almashinuvining jadallashuvi hamda ijtimoiy munosabatlarning global tus olishi sharoitida yoshlar ma’naviy tarbiyasini milliy qadriyatlar asosida tashkil etish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur muammoni chuqur anglash uchun, avvalo, “milliy madaniyat” tushunchasining nazariy mohiyatini aniqlash zarur. Ilmiy adabiyotlarda madaniyatni milliy doirada tushunish “madaniyatning milliylashuvi” jarayoni bilan izohlanadi. Ushbu jarayon natijasida madaniyat muayyan etnik jamoaga tegishli bo‘lgan ma’naviy meros sifatida talqin qilina boshladi. Shu asosda “fransuz madaniyati”, “nemis madaniyati”, “ispan madaniyati” kabi tushunchalar ilmiy muomalada mustahkam o‘rin egalladi.Shu bilan birga, madaniyatni umuminsoniy boylik sifatida talqin qilish holatida ham u ko‘pincha xalqlar o‘rtasida shartli

ravishda taqsimlangan tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda har bir millat muayyan madaniy merosning tashuvchisi va egasi sifatida qaraladi. Biroq bunday yondashuv ayrim hollarda madaniyatning universal va integrativ xususiyatlarini cheklashi mumkin.Mazkur nazariy qarashlarning shakllanishi asosan XVIII asrga borib taqaladi va uning ilmiy asoslari Johann Gottfried Herder tomonidan ilgari surilgan tarix falsafasi bilan bog‘liqdir. U o‘z ta’limotida har bir xalqni o‘ziga xos madaniyat yaratuvchi subyekt sifatida talqin qilib, madaniyatni “xalq ruhi” (Volksgeist) konsepsiyasi orqali izohlaydi [1].

Natijada madaniyat va millat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ilmiy muomalada mustahkamlandi.Biroq globallashuv sharoitida mazkur an’anaviy yondashuvlar qayta ko‘rib chiqilishini talab etmoqda. Chunki zamonaviy dunyoda madaniyatlar o‘zaro ta’sirga kirishib, yangi sintez shakllarini vujudga keltirmoqda. Bu esa milliy qadriyatlarning mazmuni va ularning yoshlar ongida aks etish jarayonini yangicha ilmiy yondashuvlar asosida tadqiq etishni taqozo etadi.

Aynan shu nuqtai nazardan jadidlar ma’rifiy merosi alohida ahamiyat kasb etadi. Jadid mutafakkirlari milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirishni zamonaviylik bilan uyg‘unlashtirishga intilgan holda, insonparvarlik qadriyatlariga, jumladan mehr va muhabbat tamoyillariga alohida e’tibor qaratganlar. Ularning qarashlarida mazkur qadriyatlar shaxs ma’naviy kamolotining asosiy omillari sifatida talqin qilinadi. Bugungi kunda yoshlar tarbiyasida mehr va muhabbat kabi insonparvarlik qadriyatlarini shakllantirish nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-falsafiy ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Shu bois jadidlar merosida ushbu qadriyatlarning aksiologik mazmunini ochib berish hamda ularni zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayoniga integratsiya qilish muhim ilmiy vazifa hisoblanadi. Jadidlar ma’rifiy qarashlarida mehr va muhabbat qadriyatlarining aksiologik mazmunini aniqlash va ularning yoshlar ma’naviy tarbiyasidagi ahamiyatini ilmiy-nazariy jihatdan asoslashdan.

Herder intuitsiyasini romantiklar (Shleyermaxer, Novalis, aka-uka Shlegellar) va Gegel o‘zlashtirgan va rivojlantirgan. Keyinchalik madaniyatni kontsepsiyalashning bu usuli - uni ruhning ifodasi sifatida tushunishga nisbatan yaqinda nafaqat konsepsiya, balki "milliy madaniyatlar ma’lum bir hududning barcha aholisi tomonidan umumiy bo‘lgan belgi-ramziy tizim sifatida" fenomeni ham paydo bo‘ldi. Yevropaning madaniy makonini zamonaviylik davrida boshdan kechirgan milliylashtirish natijasi bo‘ldi.Zamonaviy davlat o‘zini milliy davlat deb hisoblaydi, ya’ni,o‘z suverenitetining manbasiga ega bo‘lgan siyosiy birlik sifatidagi millatdir. Ikkinchisi bir yurisdiksiya ostidagi shaxslarning oddiy to‘plami sifatida emas, balki madaniy,ijtimoiy, milliy, tarixiy birlik sifatida tasavvur qilinadi. Boshqa so‘z bilan aytganda. milliy davlat siyosiy va madaniy chegaralarning mos kelishini nazarda tutadi. Bunday tasodifga intilishda - zamonaviy davlat bilan modernizatsiyadan oldingi davr holati o‘rtasidagi tub farq. Primodern davlatlarda aholi shu qadar qattiq ierarxiyalangan (sinf tabaqalanishi)hamda, uning quyi va yuqori qatlamlari turli madaniyatlarga tegishli. Bir tomondan, aristokratik va oliyjanob madaniyat ma‘naviyat, ikkinchi tomondan, dehqonlar ommasi madaniyati bir-biri bilan kundalik amaliyotlar darajasida aloqa qilmaydi,balki faqat ramziy darajada tasodifiy uchrashadi. Shu bilan birga, zodagonlar madaniyati asosan davlat chegaralaridan tashqarida mavjud bo‘lsa, dehqonlar madaniyati ko‘pincha ma’lum bir viloyat doirasida mahalliylashtirilgan bo‘lib chiqadi.

Bu imperativ XIX arning barcha suveren siyosiy,ijtimoiy birliklariga, jumladan, imperiyalarga ham taalluqlidir. Romanov Rossiyasi, Gabsburg Avstriyasi va Usmonli Turkiya kabi, XIXasr davomida g‘arbiy qo‘shnilaridan farqli siyosiy tizimni saqlab qoldi [3].

Madaniy ramzlarni ishlab chiqarish, tarqatish va iste’mol qilish bo‘yicha odamlarning o‘zaro ta’siri hokimiyat munosabatlari bilan o‘tadi, garchi bu sohada bu munosabatlarning mavjudligi siyosat va iqtisod sohasiga qaraganda kamroq aniq.

Darhaqiqat, bugungi kunda ommaviy madaniy ishlab chiqarish agentlari milliy emas, balki geografik joylashuvi va kapitalining kelib chiqishini aniqlash har doim ham mumkin bo‘lmagan transmilliy korporatsiyalar (TMK) hisoblanadi. Garchi madaniyat sohasida faoliyat yuritayotgan TMKlarning aksariyati Amerikada ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lsa-da. Amerika korporatsiyalari

G‘arbiy Yevropa va Osiyo madaniy,milliy,moddiy ishlab chiqarish markazlari tomonidan jiddiy va kuchayib borayotgan raqobatga duch kelishmoqda. Amerika bugungi kunda nafaqat eng yirik yetkazib beruvchi, balki undan tashqarida ishlab chiqarilgan madaniy mahsulotlarning eng yirik iste’molchisi hamdir.

U yoki bu mahalliy, madaniy,siyosiy kontekstga kirib, import qilinadigan madaniy mahsulotlar qayta talqin qilinadi. ularni shu kontekstga moslashtirishga imkon beradigan tartib-qoidalar. Shu tarzda ular sezilarli darajada o‘zgaradi. Bu hodisani Kant ta’biri bilan aytganda “milliy tasavvurning ishlab chiqarish qobiliyati” deb atash mumkin.

Madaniy globallashuvning g‘arblashuv sifatidagi munozaralarning boshlang‘ich nuqtasi, go‘yoki, asosiy madaniy oqimlarning “g‘arb”dan “sharqqa” - yoki, aniqrog‘i, shartli shimoldan shartli janubga oqib o‘tishidir. ular ham teskari yo‘nalishda oqadi. Bu jarayon, ayniqsa, so‘nggi o‘n-o‘n besh yil ichida yaqqol ko‘zga tashlandi [4].

"Janub"ning "shimolda" mavjudligi nafaqat ramziy darajada, balki kundalik hayot darajasida ham seziladi. Bu, asosan, immigratsiya ta’sirida sodir bo‘layotgan demografik va ijtimoiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda doimiy yashash joyiga ko‘chib kelgan uchinchi dunyoning millionlab odamlari ushbu mamlakatlarning madaniy,ma‘naviy landshaftini o‘zgartirishga katta hissa qo‘shdilar.

Shuni ta’kidlash kerakki, bu talab va taklif nafaqat immigrantlarning mavjudligi bilan, balki mahalliy aholining yangi madaniy ehtiyojlari bilan ham belgilanadi. Bizning fikrimizcha, global va milliy sohaning shakllanishini qarama-qarshilik(hatto raqobat) nuqtayi nazaridan emas, balki o‘zaro o‘zgarishlar nuqtayi nazaridan o‘ylash kerak.

Global madaniy sohaning shakllanish jarayoni ham iste’molchilikning madaniy va mafkuraviy gegemonligiga tushurilmasligi kerak. To‘g‘ri, bunday yondashuv tarafdorlari odatda bu gegemonlikka so‘nggi o‘n yilliklarda qarshi kurash olib borilganini ta’kidlaydi. “Bu islom fundamentalizmi deb ataladigan tushunchadan kelib chiqadi.Bundan ular shunday xulosaga kelishadi: madaniy globallashuv jarayoni, bir tomondan, birlashishga olib keldi, ikkinchi tomondan, uning parchalanishiga - g‘arb gedonistik-iste’molga yo‘naltirilgan madaniyat bilan bir qatorda g‘arbga qarshi madaniyatning paydo bo‘lishi kabi [5].

“Milliy madaniyat” tushunchasi ham, u nazarda tutilgan voqelik ham zamonaviylik (modernlik) davrida madaniyat,milliy sohasi boshdan kechirgan “milliylashtirish” bilan uzviy bog‘liqdir. Zamonaviy (zamonaviy) davlat ma’lum bir ijtimoiy aloqa makonini milliy makon sifatida ishlab chiqarish va ko‘paytirish imkoniyatining sharti sifatida ishlaydi. Zamonaviy davlat institutlari o‘zi tomonidan boshqariladigan chegaralar doirasida belgi-ramziy bir xillikni ta’minlaydi (ular ichidagi farqlarni yo‘q qiladi). Shu bilan birga, ushbu muassasalar bir davlat tomonidan boshqariladigan aloqa maydonini aloqadan ajratib turadigan chegaralarni saqlab turadilar.

Zamonaviy davrning tugashi bilan davlatning siyosiy va madaniy chegaralarning o‘ziga xosligini saqlab qolish qobiliyati zaiflashmoqda. Yangi axborot texnologiyalarining tarqalishi, bir tomondan, madaniy sohada faoliyat yuritayotgan transmilliy korporatsiyalar faoliyati, ikkinchi tomondan, madaniy,ijtimoiy, milliy suverenitetning torayishiga olib keladi.

Bugun biz tez sur’atlar bilan o‘zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o‘ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz. Davlat va siyosat arboblari, faylasuflar va jamiyatshunos olimlar, sharhlovchi va jurnalistlar bu davrni turlicha ta’riflab, har xil nomlar bilan atamoqda. Kimdir uni yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana birov yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamoqda. Albatta, bu fikrlarning barchasida ham ma’lum ma’noda haqiqat, ratsional mag‘iz bor. Chunki ularning har biri o‘zida bugungi serqirra va rang-barang, hayotning qaysidir belgi-alomatini aks ettirishi tabiiy. Ammo ko‘pchilikning ongida bu davr globallashuv davri tariqasida taassurot uyg‘otmoqda. Bunday ta’rif, menimcha, ko‘p tomondan masalaning mohiyatini to‘g‘ri ifodalaydi. Nega deganda, hozirgi paytda yer yuzining qaysi chekkasida qanday bir voqea yuz

bermasin, odamzot bu haqda dunyoning boshqa chekkasida zudlik bilan xabar topishi hech kimga sir emas.

Shunday globallashuv fenomeni haqida gapirganda, bu atama bugungi kunda ilmiy-falsafiy, hayotiy,ijtimoiy tushuncha sifatida juda keng ma'noni anglatishini ta'kidlash lozim. Umumiy nuqtai nazardan qaraganda, bu jarayon mutlaqo yangicha ma'no-mazmundagi xo'jalik, ijtimoiy-siyosiy, madaniytabiiy-biologik global muhitning shakllanishini va shu bilan birga, mavjud milliy va mintaqaviy muammolarning jahon miqyosi-dagi muammolarga aylanib borishini ifoda etmoqda.

Globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni obyektiv tan olish kerak - bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo'shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar, davlatlar bilan shunday chambarchas bog'lanib boryaptiki, biron mamlakatning bu jarayondanuzoqroqda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunib, anglash qiyin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Arislanbayeva Z.E. G'oyalar va qadriyatlar tizimida milliy madaniyatning o'rni // Ekonomika i sosium. — 2022. — №11(102)-1. — B. 120–125.

2. Abercrombie N., Hill S., Turner B.S. The Dominant Ideology Thesis. — London: George Allen & Unwin, 1980. — 224 p.

3. Hechter M. Internal Colonialism: The Celtic Fringe in the British Development. — London: Routledge & Kegan Paul, 1975. — 380 p.

4. Saidov M.S. Globallashuv sharoitida ijtimoiy-madaniy jarayonlar. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. — 185 b.

5. Группа существует с 2000 г., ее музыка сочетает в себе традиции пекинской оперы, шансона, панка и рок-н-рола.

YANGI O‘ZBEKISTONDA AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA SHAXS MADANIYATI TRANSFORMATSIYASINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAMOYILLARI

Berdibaev Aydos Tolibaevich,
Toshkent davlat iqtisodiyot universitet
tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda axborotlashgan jamiyat sharoitida shaxs madaniyati transformatsiyasining ijtimoiy-falsafiy tamoyillari tahlil qilinadi. Unda axborotlashuv jarayonining shaxs dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi, ma’naviy-axloqiy mezonlari va ijtimoiy faolligiga ko‘rsatayotgan ta’siri yoritiladi. Shuningdek, shaxs madaniyatidagi o‘zgarishlarning uzviylik, vorisiylik, innovatsionlik, milliylik va umuminsoniylik asosida shakllanish xususiyatlari ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Yangi O‘zbekiston, axborotlashgan jamiyat, shaxs madaniyati, transformatsiya, ijtimoiy-falsafiy tamoyillar, ma’naviy yangilanish, milliylik, umuminsoniylik, innovatsion rivojlanish.*

Аннотация. *В данной статье анализируются социально-философские принципы трансформации культуры личности в условиях информационного общества в Новом Узбекистане. В ней освещается влияние процесса информатизации на мировоззрение личности, систему ценностей, духовно-нравственные критерии и социальную активность. Также раскрываются особенности формирования изменений в культуре личности на основе преемственности, непрерывности, инновационности, национальной самобытности и общечеловеческих ценностей.*

Ключевые слова: *Новый Узбекистан, информационное общество, культура личности, трансформация, социально-философские принципы, духовное обновление, национальная самобытность, общечеловеческие ценности, инновационное развитие.*

Abstract. *This article analyzes the socio-philosophical principles of the transformation of personal culture in the conditions of the information society in New Uzbekistan. It highlights the impact of the informatization process on an individual’s worldview, value system, moral and ethical criteria, and social activity. The article also reveals the specific features of changes in personal culture based on continuity, succession, innovation, national identity, and universal human values.*

Keywords: *New Uzbekistan, information society, personal culture, transformation, socio-philosophical principles, spiritual renewal, national identity, universal human values, innovative development.*

Kirish. Axborotlashgan jamiyat sharoitida shaxs madaniyati transformatsiyasi muayyan ijtimoiy-falsafiy tamoyillar asosida kechadigan murakkab va qonuniy jarayondir. Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoni nafaqat jamiyat hayotining tashkiliy va institutsional asoslarini yangilamoqda, balki insonning o‘ziga, uning qadri, dunyoqarashi, ijtimoiy faolligi va madaniy kamolotiga bo‘lgan munosabatni ham tubdan o‘zgartirmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, shaxs madaniyati transformatsiyasining ijtimoiy-falsafiy tamoyillari mazkur jarayonning ichki mohiyatini ochib beruvchi nazariy mezonlar sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu tamoyillar orqali axborotlashgan jamiyat sharoitida shaxs madaniyatining qanday shakllanishi, unda milliy va umuminsoniy qadriyatlar qanday uyg‘unlashishi, ijtimoiylashuv bilan individuallik o‘rtasidagi muvozanat qanday ta’minlanishi hamda ma’naviy xavfsizlikni saqlashning qanday yo‘llari mavjudligi aniqlash mumkin bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida tarixiylik, mantiqiylik, qiyosiy tahlil va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Yangi O‘zbekistonda axborotlashgan jamiyat sharoitida shaxs madaniyati transformatsiyasining ijtimoiy-falsafiy tamoyillarini nazariy jihatdan quyidagicha tizimlashtirish maqsadga muvofiqdir.

1. Insonparvarlik tamoyili. Ushbu tamoyilning mohiyati shundan iboratki, jamiyatdagi barcha islohotlar, axborot-kommunikatsion yangilanishlar va texnologik o‘zgarishlar, avvalo, inson manfaatlari, uning qadr-qimmati, erkin rivojlanishi va ma’naviy kamolotiga xizmat qilishi lozim. Yangi O‘zbekiston sharoitida ham inson omiliga ustuvor ahamiyat berilishi bejiz emas. Chunki axborotlashgan jamiyatning haqiqiy mazmuni faqat texnik vositalarning ko‘payishi yoki raqamli xizmatlarning kengayishi bilan emas, balki ana shu imkoniyatlarning inson hayoti, tafakkuri, dunyoqarashi va madaniy saviyasiga qanday ta’sir ko‘rsatayotgani bilan belgilanadi.

Insonparvarlik tamoyili shaxsni jamiyat taraqqiyotining oddiy obyekti emas, balki faol va qadri yuksak subyekti sifatida e’tirof etadi. Axborot oqimlari kuchaygan, virtual muloqot shakllari kengaygan, raqamli texnologiyalar kundalik hayotga chuqur kirib borgan bir davrda insonning ichki dunyosi, axloqiy mezonlari, erkin tanlovi va ma’naviy barqarorligini saqlash alohida ahamiyat kasb etadi.

2. Tizimlilik tamoyili. Mazkur tamoyilga ko‘ra, shaxs madaniyatidagi o‘zgarishlar faqat bitta soha yoki bitta omil ta’sirida yuz bermaydi. Ular ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, ma’naviy muhit, ta’lim tizimi, axborot makoni, siyosiy-huquqiy asoslar va shaxsning ichki psixologik holati bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Yangi O‘zbekiston sharoitida bu ayniqsa muhimdir, chunki mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar ham iqtisodiy, ham ijtimoiy, ham ma’naviy, ham texnologik yo‘nalishlarni o‘zaro uyg‘unlikda rivojlantirishga qaratilgan.

Shu ma’noda tizimlilik tamoyili shaxs madaniyati transformatsiyasini chuqurroq va kengroq anglash imkonini beradi. Agar bu jarayon faqat raqamli texnologiyalar yoki faqat ma’naviy tarbiya bilan bog‘lab talqin qilinsa, uning haqiqiy mohiyati to‘liq ochilmaydi. Tizimli yondashuv esa shaxs madaniyatining shakllanishida tashqi va ichki omillar, an’anaviy va zamonaviy ta’sirlar, milliy va global jarayonlar o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Shuning uchun ham mazkur tamoyil axborotlashgan jamiyatda shaxs madaniyati masalasini tahlil qilishda metodologik tayanch vazifasini bajaradi.

3. Uzviylik va vorisiylik tamoyili. Uzviylik va vorisiylik tamoyili shaxs madaniyati transformatsiyasi jarayonida tarixiy tajriba, ma’naviy meros va milliy an’analarning davomiyligini saqlash zarurligini ifodalaydi. Axborotlashgan jamiyat sharoitida hayot sur’ati tezlashib, yangi g‘oyalar va kommunikatsiya shakllari kengayayotgan bo‘lsa-da, bu holat jamiyatning ma’naviy ildizlari va tarixiy xotirasidan uzilish degani emas. Aksincha, har qanday yangilanish o‘zining mustahkam ma’naviy asosiga ega bo‘lgandagina barqaror va mazmunli bo‘la oladi.

Bu tamoyilning mohiyati shundaki, shaxs madaniyatidagi o‘zgarishlar inkor etish emas, balki boyitish yo‘li bilan yuz berishi lozim. Ya’ni yangi axborot muhitida shakllanayotgan shaxs zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni egallashi bilan birga, o‘z tarixiy ildizlari, milliy o‘zligi va ma’naviy merosiga ham tayanishi kerak. Vorisiylik bo‘lmagan joyda madaniy taraqqiyot uzluksiz emas, parokanda tus oladi.

4. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi tamoyili. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi tamoyili axborotlashgan jamiyatda shaxs madaniyatining shakllanishi bir vaqtning o‘zida ham milliy, ham umumbashariy mazmun kasb etishini anglatadi. Bugungi globallashuv va axborot oqimlari kuchaygan sharoitda inson faqat o‘z mahalliy muhitida emas, balki kengroq global madaniy maydonda ham yashamoqda. Bu esa shaxs ongida turli qadriyatlar tizimining o‘zaro ta’sirini kuchaytiradi.

Mazkur tamoyilga ko‘ra, shaxs madaniyatining barkamol shakllanishi milliy qadriyatlarga sodiqlik bilan birga, inson huquqlari, adolat, tinchlik, bag‘rikenglik, ochiqlik va hamkorlik kabi umuminsoniy mezonlarni ham o‘zlashtirishni taqozo etadi. Bu yerda birini ikkinchisiga qarama-qarshi qo‘yish emas, balki ularning mazmuniy uyg‘unligini ta’minlash muhimdir. Chunki milliy qadriyatlar shaxsga ildiz va barqarorlik bersa, umuminsoniy qadriyatlar unga keng dunyoqarash, muloqotga ochiqlik va global mas’uliyat hissini shakllantiradi. Shu bois ushbu tamoyil axborotlashgan jamiyatda shaxs madaniyatini biryoqlamalikdan saqlab, uni uyg‘un rivojlanish yo‘liga yo‘naltiradi.

5. Ijtimoiylashuv va subyektlilik uyg‘unligi tamoyili. Ijtimoiylashuv va subyektlilik uyg‘unligi tamoyili shaxsning jamiyat bilan aloqadorligi va uning mustaqil faol pozitsiyasi o‘rtasidagi muvozanatni ifodalaydi. Axborotlashgan jamiyat sharoitida inson bir tomondan turli ijtimoiy institutlar, axborot oqimlari, media maydoni va madaniy ta’sirlar orqali jamiyatga moslashadi, ikkinchi tomondan esa, o‘zining mustaqil fikri, tanlovi va ichki pozitsiyasi bilan alohida subyekt sifatida namoyon bo‘ladi.

Ushbu tamoyil shuni anglatadiki, shaxs madaniyati transformatsiyasi jarayonida inson jamiyatdagi qadriyatlar, me’yorlar va ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishi zarur, ammo bu jarayon uning mustaqilligini susaytirmasligi kerak. Aksincha, haqiqiy madaniy yetuklik shaxsning ijtimoiylashuv jarayonida o‘z individualligini saqlab qolishi, mustaqil fikr yuritishi va ongli qaror qabul qila olishi bilan belgilanadi.

6. Ma’naviy xavfsizlik va mafkuraviy immunitet tamoyili. Ma’naviy xavfsizlik va mafkuraviy immunitet tamoyili axborotlashgan jamiyatda shaxs madaniyatini tashqi zararli ta’sirlardan, g‘oyaviy bosimlardan va ma’naviy beqarorlikdan himoya qilish zaruratini ifodalaydi. Bugungi kunda global axborot maydonining kengayishi bilan birga turli qarashlar, mafkuraviy yo‘nalishlar, ommaviy madaniyat unsurlari va manipulyativ axborotlar ham inson ongiga faol ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday sharoitda shaxsning ma’naviy tayanchi, qadriy mezonlari va axborotni tanqidiy baholash qobiliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Yangi O‘zbekistonda sog‘lom dunyoqarash, milliy o‘zlik, vatanparvarlik va ma’naviy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilayotgan e’tibor bevosita ana shu tamoyil bilan bog‘liq.

Ushbu tamoyilning mazmuni shundaki, shaxs madaniyati ochiqlik va axborot almashinuvi sharoitida shakllanar ekan, u bir vaqtning o‘zida ichki mustahkamlikka ham ega bo‘lishi kerak. Mafkuraviy immunitet deganda insonning har qanday axborotni so‘zsiz qabul qilishi emas, balki uni tahlil qilishi, solishtirishi va o‘z qadriyatlari asosida baholay olishi tushuniladi. Ma’naviy xavfsizlik esa shaxsning ichki dunyosi, e’tiqodi, axloqiy mezonlari va madaniy o‘zligini asrash bilan bog‘liqdir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekistonda axborotlashgan jamiyat sharoitida shaxs madaniyati transformatsiyasining ijtimoiy-falsafiy tamoyillari mazkur jarayonning ichki mantiqi, yo‘nalishi va mazmunini belgilovchi muhim nazariy asoslar sifatida namoyon bo‘ladi. Insonparvarlik tamoyili shaxs manfaatlari va qadr-qimmatini ustuvor mezon sifatida belgilasa, tizimlilik tamoyili ushbu jarayonning ko‘p omilli va o‘zaro bog‘liq tabiatini ochib beradi. Uzviylik va vorisiylik tamoyili madaniy yangilanishning tarixiy ildizlar va milliy meros bilan aloqadorligini ta’minlasa, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi tamoyili shaxs madaniyatining biryoqlama emas, balki muvozanatli va barkamol rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ijtimoiylashuv va subyektlilik uyg‘unligi tamoyili shaxsning jamiyatga moslashuvi bilan birga, uning mustaqil va faol pozitsiyasini mustahkamlashga yo‘naltirilgan bo‘lsa, ma’naviy xavfsizlik va mafkuraviy immunitet tamoyili axborotlashgan muhitda shaxsning ichki barqarorligi va madaniy mustaqilligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Mazkur yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan. 01.05.2023.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni, 28.01.2022.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasining beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi” PF-4947-son Farmoni, 07.02.2017.

БАХТНИНГ ЭМПИРИК ЎЛЧОВЛАРИ ВА УНИНГ ИЖТИМОИЙ-ФАЛСАФИЙ МОҲИЯТИ

Абдусаломов Ойбек Абдусаламович,
АндДУ мустақил тадқиқотчиси

Аннотация. *Ушбу мақолада бахт тушунчасининг эмпирик ўлчовлари ва уларнинг инсон ҳаётидаги ўрни ҳамда ижтимоий-фалсафий моҳияти таҳлил қилинган. Мақолада бахтнинг эмпирик ўлчовларини аниқлашда қўлланиладиган индикаторлар — ҳаётдан қониқиш даражаси, соғлиқ ҳолати, турмуш шароити, ишонч, эркинлик, шахсий муносабатлар ва руҳий барқарорлик каби омиллар ёритиб берилган.*

Калит сўзлар: *Бахт, эмпирик ўлчовлар, ижтимоий фалсафа, ҳаётдан қониқиш, субъектив фаровонлик, маънавий қадриятлар, руҳий барқарорлик, индикаторлар, инсон онги, турмуш сифати*

Аннотация. *В данной статье анализируются эмпирические измерения понятия счастья, их значение в жизни человека, а также их социально-философская сущность. В статье раскрываются ключевые индикаторы, применяемые для определения уровня счастья: удовлетворённость жизнью, состояние здоровья, бытовые условия, доверие, свобода, межличностные отношения и психологическая устойчивость.*

Ключевые слова: *счастье, эмпирические измерения, социальная философия, удовлетворённость жизнью, субъективное благополучие, духовные ценности, психологическая устойчивость, индикаторы, человеческое сознание, качество жизни.*

Abstract. *This article explores the empirical measurements of the concept of happiness, their relevance to human life, and their socio-philosophical essence. The article outlines key indicators used to determine happiness levels, such as life satisfaction, health status, living conditions, trust, freedom, interpersonal relationships, and psychological stability.*

Keywords: *happiness, empirical measurements, social philosophy, life satisfaction, subjective well-being, spiritual values, psychological stability, indicators, human consciousness, quality of life.*

Фарғона вилоятида пилот тарзида бахтлилилик ҳақидаги дастлабки эмпирик маълумотлар йиғилди. 2022 йилда ўтказилган тадқиқотда оилаларнинг бахтлилик даражаси индикаторлари муаммони назарий таҳлили ва бу борада хорижий давлатлар тажрибаси ўрганиб чиқилган ҳолда тажриба синовга қўллашда 8 та асосий индикаторлар (кўрсаткичлар) ишлаб чиқилди:

оиланинг иқтисодий фаровонлиги кўрсаткичи;
соғлом ҳаёт кечириш давомийлиги;
таълим олиш имкониятининг мавжудлиги;
иш билан таъминланганлик даражаси;
оилавий ҳаётдан қониқиш даражаси ва оилавий бахтлиликни баҳолаш;
оилавий қадриятларнинг муҳимлик даражаси ҳамда оиланинг давлат органлари фаолияти ва давлат хизматига муносабати индикаторлари ишлаб чиқилди.

Индикаторлар **икки хил усулда**: статистик маълумотлар ва социологик сўров натижаларини таҳлил қилиш орқали аниқланди.

Мазкур индикаторларнинг муҳимлик даражасини ва ҳар бир индикаторнинг таркибий жиҳатларини аниқлаш мақсадида сўров варақасида махсус саволлар шакллантирилди.

Оилаларнинг бахтлилик даражасини аниқлаш мақсадида тажриба синов тадқиқоти ҳудуди сифатида Фарғона вилояти танлаб олиниб, ушбу ҳудуддаги 5 туман (шаҳар) – Фарғона, Қўқон шаҳарлари, Боғдод, Бешариқ ва Фурқат туманларида 300 нафар

кишилардан сўров ўтказилди. Шаҳар (туман) лардан танлаб олинган респондентлар сони улардаги ўртача аҳоли сонидан келиб чиққан ҳолда амалга оширилди. (1-жадвал).

1-жадвал. Респондентларнинг Фарғона вилояти бўйича ҳудудларда тақсимланиши

Ҳудуд	Ўртача аҳоли сони[1]	Улуши (%)	Респондентларни тақсимоти
Фарғона ш.	296331	26,25	79
Қўқон ш.	258063,5	22,86	66
Боғдод	221112	19,59	60
Бешариқ	232652	20,61	62
Фурқат	120535	10,68	33
	1128694	100,00	300

Шуни қайд қилиб ўтиш лозимки, оилавий бахтлиликнинг ҳар бир индикатори сўровномада қўлланилган саволларнинг хусусиятидан келиб чиққан ҳолда ва тадқиқот давомида тўпланган жавобларнинг фоиз улуши асосида қуйидаги икки формулани қўллаган ҳолда ҳисоблаб чиқилди:

I=A-B/ A+B

(*икки ўлчовли жавоблар учун*):

Бу ерда I - индекс кўрсаткичи;

A – ижобий хусусият;

B – салбий хусусият.

I=A+(B*0,5) – (C*0,5) -D

(кўп ўлчовли жавоблар учун):

Бу ерда I – индекс кўрсаткичи;

A – ижобий хусусиятнинг мутлоқ кўрсаткичи;

B – тўлиқ бўлмаган ижобий хусусият (ижобий хусусиятнинг ярми);

C – мутлоқ бўлмаган салбий хусусият (салбий хусусиятнинг ярми);

D – мутлоқ салбий хусусият.

1. Оилаларнинг иқтисодий фаровонлик кўрсаткичи 2 та савол, яъни “Олаётган оилавий даромадингиз сизнинг эҳтиёжларингизни қай даражада қониқтиради?” ва “Сиз истиқомат қилаётган уй-жойингиз тўғрисида нима дейсиз?” деган саволлар билан аниқланди. Натижалар биринчи савол бўйича +0,6 (2 жадвал) ва иккинчи савол бўйича эса +0,7 индексни (3 жадвал) ташкил этди.

2-жадвал. Респондентларнинг оилавий даромадлари тўғрисидаги фикрлари (*фоиз ва индекс ҳисобида*)

Олаётган оилавий даромадингиз сизнинг эҳтиёжларингизни қай даражада қониқтиради?	фоизи	индекси
Эҳтиёжларимизни тўла қониқтиради, муаммо йўқ	37,2	+0,6
Эҳтиёжларимиз тўла бўлмасада, қониқтиради	50,0	
Қониқтиришдан кўра, қониқтирмайди	7,9	
Умуман қониқтирмайди, моддий қийинчиликларни бошдан кечиряпмиз	2,9	
Жавоб беришим қийин	2,1	

3-жадвал. Респондентларнинг турар уй-жойлари тўғрисидаги фикрлари (*фоиз ва индекс ҳисобида*)

Сиз истиқомат қилаётган уй-жойиз тўғрисида нима дейсиз?	фоизи	индекси
Шахсий уй-жойимизга эгамиз, у билан боғлиқ муаммо йўқ	65,7	+0,7
Уй-жойга эгамиз, лекин уй-жойимиз тўлиқ эҳтиёжимизга жавоб бермайди	21,7	
Шахсий уй-жойга эга эмасмиз, ота/онам, ака/ука, опа/синглим билан бир хонадонда яшаймиз	11,3	
Шахсий уй-жойимиз йўқ, ижарада яшаймиз	1,3	

Олинган маълумотлар ўртача арифметик қиймат билан ҳисобланганда оилавий бахтлиликнинг иқтисодий фаровонлик кўрсаткичи +0,65 индексни ташкил этди.

2. Оиланинг демографик барқарорлиги. Ўзбекистон Республикаси Статистика қўмитаси маълумотига кўра, Фарғона вилоятида кутилаётган ўртача умр кўриш давомийлиги бугунги кунда 74,8 ёшни ташкил этмоқда. Одатда ўртача умр кўрсаткич 105 ёшга нисбатан олиниини инобатга олган ҳолда юқорида келтирилган формула асосида Фарғона вилоятидаги ўртача демографик барқарорлик даражаси индекси +0,71 кўрсаткичда эканлиги аниқланди.

Оиладаги фарзандлар сонига эътибор қаратадиган бўлсак, 2021 йилда вилоятда ҳар минг аҳолига 25,7 тани ташкил этган бўлиб, ўртача ҳар бир аёлга 2,7 фарзанд тўғри келиши маълум бўлди. Демографларнинг фикрича, нормал демографик ўсиш ҳар бир оила 2,5 та фарзанд бўлишини кўзда тутади. Шунинг учун ҳам вилоятда туғилиш индекси +0,6 ни ташкил этади.

Аҳолининг давлат муассасаларининг фаолиятидан қониқиш даражаси тадқиқот давомида асосий индикаторлар қаторида ўрганилди. “Жамиятда ижтимоий адолат тамойилларининг доимий рўёбга чиқарилиши инсон, ижтимоий гуруҳлар ва жамият ўртасидаги барқарор муносабатлар ҳамда ижтимоий тараққиётни таъминлайди. Бугунги кунда жамият ижтимоий ҳаётидаги кескин ижобий ўзгаришлар ҳар бир инсоннинг муносиб ҳаёт кечириш, турмушини янада фаровон қилиш ва бахтли яшашига қаратилган ижтимоий манфаатларини таъминлайди, инсон шаъни ва қадр- қимматининг улуғланиши, олий қадрият даражасига етказилиши ижтимоий адолатнинг қарор топишига хизмат қилади.”[4] Олинган натижалар респондентларнинг давлат муассасалари фаолиятидан қониқиш даражаси Олий мажлис фаолиятига нисбатан юқори (+0,6) эканлигини, энг қуйи кўрсаткич эса портал ва халқ қабулхоналари фаолиятига нисбатан берилганлиги (+0,36) мазкур соҳада маълум бир муаммолар борлигини кўрсатмоқда.

Давлат органлари фаолиятига берилган баҳолар нуқтаи назаридан шуни айтиш мумкинки, аҳолининг маълум бир қисми айрим давлат органлари фаолиятидан қониқсада, уларнинг аксарияти бу борада ишончсизлик кайфиятини намоён қилмоқда, мос равишда бу борадаги умумий индекс кўрсаткичи нисбатан пастроқ эканлигини кўриш мумкин.

Мулоқот ва ижтимоий муносабатларга кўра севги, меҳр муҳаббат кучли қувонч манбаи эканлиги ва умуман олганда барча ижтимоий муносабатлар бахт ҳиссига таъсир қилиши маълум бўлди. Экстравертлар ажойиб ижтимоий кўникмалар ва одамлар билан тез-тез алоқа қилишгани учун улар ўзларини бахтли ҳис қила оладилар. Бошқалар билан айниқса оила даврасида, яқинлари билан мулоқот қилишдан завқ олиш - бу шахс қувончининг асосий сабабларидан бири: инсоннинг кайфиятини кўтаришга қодир ва у мулоқотга интилиш мотивациясини таъминлайди. Демак бахт ва ижтимоийлик ўртасида яқин муносабатлар мавжудки, бу ижтимоий эҳтиёжларнинг қондирилиши шахсда ўз қадр-қимматига бўлган ижобий муносабат ёки болаликдаги оилавий яқин муносабатлар

хотиралари билан боғлиқ бўлиб бу ҳисларни оилавий муносабатларда шаклланган қадриятлар таъминлаб беради.

Объектив эҳтиёжларни қондириш тахлил қилинганда пул одамлар жуда камбағал бўлса ёки жуда камбағал мамлакатда яшаса, уларни бахтли қилади; уй, иш, турмуш ўртоғи, соғлиғи бўлиши билан бир хил рол ўйнайди - буларнинг барчаси бахтлилик ҳисси келтиради. Аммо кўпчилик одамларда ушбу ҳолатни ўтмиш ёки бошқаларнинг ҳолати билан таққослаш асосида намоён қилиши билан белгиланади. Бахтнинг когнитив омилларига назар ташласак инсон ўзини ундан юқори ёки яхши эмас мавқега эга бўлмаганлар билан таққосласа, ҳаётдан қониқиш юқори баҳоланади. Бироқ, шуниси қизиқки одамлар кўпинча ўзларининг таққослаш объектларини танлайдилар ва бахтли бўлганлар пастдан юқорига таққослашдан фойда кўришади. Бу эса инсон ҳаётидаги эришиш ва интилиш ўртасидаги фарқ қониқишга салбий таъсир қилади.

Шахс учун ҳаётда мақсадга эришиш, ижтимоий фаолликни намоён қилиш, ўз ўзини қадрлаш ёки оилавий муносабатларда қадрда, ҳурматда бўлиш инсонга ўзини ўзини қадрлаш эҳтиёжини қониқиши орқали ўзини бахтли ҳис қилиш имконини беради. Бу эҳтиёжлар ишдан қониқиш, ўз қобилиятларини қўллаш ва вазифаларни муваффақиятли бажаришга боғлиқ. Худди шу нарса спорт ва бошқа бўш вақтни ижобий унумли ўтказиш учун ҳам амал қилади. Бундай фаолиятдан олинган "ички қониқиш" деб номланган ҳолат мавжуд. Буни қондириш манбалари шахсий эҳтиёжлар, оилавий эҳтиёжлар, ўз кўникмаларини қўллай олиш, оилавий муносабатлардан ва мақсадларга эришишдан завқланишдир. Ўзбекистонда бахтлилик индексини жорий қилишда қуйи поғонада оилаларнинг бахтлилик индикаторларини ишлаб чиқишдан бошлаб, маҳаллаларда низоли оилалардаги ажралишларни олдини олишда ҳамда маҳалладаги масъул шахсларни фаолиятларини мониторинг қилишдан бошлаб, синов тариқасида пилот ҳудудларда жорий этиш мақсадга мувофиқ ҳамда хорижий мамлакатларнинг ижобий тажрибаларидан фойдаланиш ўринли.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Давлат статистика қўмитаси маълумотлари асосида 2022 йил 1 январь ҳолати.
2. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. -Тошкент, 1993. -Б. 165-166.
3. Азизов Х, Яхшиев А. Суд-ҳуқуқ соҳасидаги ислоҳотлар ва долзарб вазифалар. -Тошкент: Маънавият, 2011. -Б. 29.
4. А.Саитқосимов. Фуқаролик жамиятини барпо этишда ижтимоий соҳани инновацион ривожлантириш қонуниятлари. Фалсафа фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Самарқанд, 2019 й. – Б. 192
5. Эркин ва форовон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи. Халқ сўзи газетаси, 2016 йил 15 декабрь.
6. Қуронов М. Болам бахтли бўлсин десангиз...: ота-оналар учун. – Т.: Маънавият, 2013. – Б. 126.
7. Жисмоний ва маънавий етук ёшлар – эзгу мақсадларимизга етишда таянчимиз ва суянчимиздир. Президент Шавкат Мирзиёевнинг “Камолот” ёшлар ижтимоий ҳаракатининг IV қурултойидаги нутқи. Халқ сўзи, 2017 йил 1 июль.
8. Э.Кодиров. Ёшларнинг ҳуқуқий ва сиёсий маданиятини юксалтириш масалалари (академик лицей ва касб-ҳунар коллежлари мисолида). Давлат ва ҳуқуқ назарияси ва тарихи; ҳуқуқий таълимотлар тарихи (юридик фанлар) Юридик фанлар доктори илмий даражасини олиш учун ёзилгандиссертация. Тошкент, 2019 й. – Б 108.

YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTDA MILLIY AN’ANALAR VA MODERNIZATSIYA JARAYONLARINING UYG‘UNLIGI

Husan Ochilov,
Namangan davlat universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada milliy an’analar va modernizatsiya tushunchalarining mazmuni, ta’riflari, o‘ziga xos xususiyatlari va ularga doir ayrim falsafiy yondashuvlar tahlil qilingan. Shuningdek, milliy an’ana va modernizatsiya o‘rtasidagi ziddiyatlarning dialektik tabiati, ularning uyg‘unligini ta’minlashda siyosat, ijtimoiy tartib va iqtisodiy rivojlanish kabi omillar tahlil qilinib, ularning modernizatsiya urbanizatsiya, texnologik taraqqiyot va globalizatsiya bilan bog‘liqlik ayrim jihatlari o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *Yangi O‘zbekiston, milliy an’analar, modernizatsiya, inson qadri, ta’lim tizimi, san’at, madaniyat, uyg‘unlik, texnologik taraqqiyot, globallashuv.*

Аннотация. *В данной статье анализируются содержание, определения, особенности национальных традиций и понятий модернизации, а также некоторые философские подходы к ним. Также анализируется диалектическая природа противоречий между национальными традициями и модернизацией, такие факторы, как политика, социальный порядок и экономическое развитие в обеспечении их гармонии, и изучаются некоторые аспекты их связи с модернизацией, урбанизацией, технологическим развитием и глобализацией.*

Ключевые слова: *Новый Узбекистан, национальные традиции, модернизация, достоинство человека, система образования, искусство, культура, гармония, технологический прогресс, глобализация.*

Abstract. *This article analyzes the content, definitions, specific features of national traditions and the concepts of modernization, as well as some philosophical approaches to them. Also, the dialectical nature of the contradictions between national traditions and modernization, such factors as politics, social order, and economic development in ensuring their harmony were analyzed, and some aspects of their connection with modernization, urbanization, technological progress, and globalization were studied.*

Keywords: *New Uzbekistan, national traditions, modernization, human dignity, education system, art, culture, harmony, technological progress, globalization.*

Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti milliy an’analar va modernizatsiya o‘rtasidagi dialektik uyg‘unlik sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mamlakatimiz taraqqiyot yo‘lida an’ana va modernizatsiya o‘zaro qarama-qarshi emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi kuch sifatida talqin etilmoqda. Bu uyg‘unlik Sharq falsafasidagi “muvozanat” g‘oyasiga hamohang bo‘lib, unda yangilik qadriyatlarni inkor etmaydi, balki ularni yangi mazmun bilan boyitadi. Milliy qadriyatlar zamonaviy taraqqiyot uchun asos bo‘lib xizmat qilsa, modernizatsiya esa ularni global maydonda namoyon etish imkonini yaratadi. Natijada jamiyatda ham barqarorlik, ham innovatsion o‘sish ta’minlanadi.

Mazkur uyg‘unlikni chuqurroq tahlil qilsak, u inson va jamiyat o‘rtasidagi ma’naviy hamda moddiy ehtiyojlar muvozanati bilan chambarchas bog‘liq ekanini ko‘ramiz. Yangi O‘zbekiston sharoitida modernizatsiya faqat texnik taraqqiyot emas, balki tafakkur yangilanishi, ijtimoiy ongning yuksalishi sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Bu jarayonda milliy an’analar insonni ma’naviy jihatdan boyitib, uni o‘zligiga sodiq qolishga undaydi, modernizatsiya esa uni ochiq fikrli, tashabbuskor va global jarayonlarga moslashuvchan etadi. Natijada jamiyat o‘zining tarixiy ildizlarini saqlagan holda, kelajak sari dadil qadam tashlaydi. Bu uyg‘unlik nafaqat iqtisodiy va siyosiy rivojlanishni, balki inson kamoloti va jamiyatning ma’naviy yetukligini ham ta’minlaydi. Shunday qilib, Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti bu o‘tmish va kelajak, an’ana va yangilik o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikning yorqin ifodasidir.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida milliy an’analar va zamonaviy modernizatsiya jarayonlari o‘zaro uyg‘un holda namoyon bo‘lmoqda. Bu jarayon faqat iqtisodiy islohotlar bilan emas, balki ijtimoiy, ma’naviy va falsafiy sohalarda ham namoyon bo‘ladi. “Butun kuch va salohiyatimizni yagona ulug‘ maqsadimiz – Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratamiz”[1]. Milliy an’analar — xalq ongida shakllangan barqaror qadriyatlar tizimi bo‘lib, modernizatsiya esa bu qadriyatlarni yangi sharoitga moslashtirish jarayonidir. Milliy an’analar jamiyatning ma’naviy ustuni bo‘lib, inson tafakkuri va axloqiy munosabatlarini belgilab beradi. Ular orqali millat o‘z o‘tmishiga va kelajagiga bog‘lanadi. Shu bilan birga, modernizatsiya – texnik, iqtisodiy va madaniy yangilanish jarayoni sifatida jamiyatni global rivojlanish yo‘liga olib chiqadi. Bu ikki yo‘nalishni qarama-qarshi emas, balki o‘zaro to‘ldiruvchi jarayon sifatida ko‘rish kerak. Masalan, yangi ta’lim tizimida milliy tarbiya va ilg‘or texnologiyalarni uyg‘unlashtirish falsafasi bu jarayonning amaliy ko‘rinishidir. Shu nuqtai nazardan qaralganda, Yangi O‘zbekiston tajribasida modernizatsiya faqat G‘arb modeli emas, balki milliy o‘zlikni saqlagan holda jahon standartlariga yaqinlashish demakdir. Bu jarayon falsafiy jihatdan “an’ana va innovatsiya dialektikasi” orqali izohlanadi.

Yangi O‘zbekiston davri mamlakat tarixida milliy tiklanish va zamonaviy yangilanishning yangi bosqichini ifoda etadi. Bu jarayonda milliy an’analarni asrab-avaylash bilan birga, modernizatsiya orqali ularni zamon talablariga moslashtirish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Modernizatsiya va an’anaviylik o‘rtasidagi muvozanatni saqlash jamiyat barqarorligini ta’minlaydi. Shu bois, bu mavzudagi ilmiy tahlil nafaqat falsafiy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Yangi O‘zbekistonning islohotlar siyosati ham ana shu uyg‘unlikka tayanadi. Maqolaning dolzarbligi shundaki, u milliy qadriyatlar va modern tafakkurning uyg‘unligini falsafiy jihatdan anglashga qaratilgan. Bu masala jamiyatning ma’naviy taraqqiyoti uchun asos bo‘ladi.

Milliy an’analar – bu avlodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan qadriyatlar, urf-odatlar va ma’naviy me’yorlar tizimidir. Ular millatning o‘zligini belgilaydi, jamiyatda birlik va totuvlikni ta’minlaydi. E. Shils fikricha, “Milliy an’analar jamiyat xotirasining chuqur qatlamlarida saqlanib, har bir avlodning ma’naviy o‘zligini belgilaydi. Ular faqat o‘tmishning qoldig‘i emas, balki inson tafakkurini bog‘lab turadigan ma’naviy bog‘dir. An’analar orqali jamiyat o‘z kelajagiga ma’no beradi[1.245]. Muallif an’ana tushunchasini ijtimoiy xotira va madaniy merosning uzluksizligi sifatida izohlab, uni jamiyat barqarorligining falsafiy negizi deb baholaydi. Milliy an’analar inson tafakkuri va axloqini shakllantiradi, jamiyatdagi ma’naviy barqarorlikni ta’minlaydi. Yangi O‘zbekistonda bu an’analarni qayta baholash, ularni rivojlantirish va zamonaviy hayotga tatbiq etish dolzarb vazifadir. Chunki an’analar – milliy taraqqiyotning ildizi, uning ruhiy manbaidir. Ularsiz modern yangilanish chuqur ma’no kasb etmaydi. Milliy an’analar falsafiy jihatdan millat xotirasi va ma’naviy o‘zligining ifodasi sifatida qaraladi.

Modernizatsiya atamasi jamiyatning yangilanish, texnologik rivojlanish va fikriy o‘zgarish jarayonini anglatadi. Falsafiy nuqtai nazardan modernizatsiya – inson va jamiyat tafakkurini ratsionallashtirish jarayonidir. Unda aql va ilmiy tafakkur ustuvor o‘rinni egallaydi. Yangi O‘zbekistonda modernizatsiya nafaqat iqtisodiy sohada, balki ma’naviy-ma’rifiy sohada ham namoyon bo‘lmoqda. Bu jarayon inson qadrini yuksaltirish, ta’lim va fanni rivojlantirish, madaniy merosni zamonaviy ifodada qayta tiklashni nazarda tutadi. Modernizatsiya – an’analarni inkor etmay, ularni yangicha mazmunda anglashga undaydi. U insonning ijtimoiy mas’uliyati va yangicha dunyoqarashini shakllantiradi.

An’ana va modernizatsiya qarama-qarshi emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi jarayonlardir. An’analar jamiyatning ma’naviy asosini tashkil etsa, modernizatsiya uning yangilanish quvvatidir. E. Xobsbom va T. Reyndjer fikricha, “Har qanday an’ana vaqt o‘tishi bilan yangidan yaratiladi, qayta shakllanadi. Ko‘p hollarda “azaliy an’ana” deb atalgan holatlar yangi siyosiy yoki madaniy ehtiyoj tufayli yangidan tashkil qilinadi. Shunday ekan, an’ana – bu jamiyatning o‘zini anglash va birlikni saqlash vositasidir[2.12-14]. Bu ikki tushuncha o‘rtasidagi dialektik uyg‘unlik ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi. Falsafiy nuqtai nazardan, modernizatsiya

an’analarni yangi mazmun bilan boyitadi, ularga zamonaviy ruh bag‘ishlaydi. Masalan, milliy liboslar, bayramlar va urf-odatlar yangi dizayn va texnologik imkoniyatlar bilan uyg‘unlashmoqda. Bu esa milliylikni yo‘qotmasdan zamonaviylikka erishishning yorqin namunasidir. Demak, an’ana va modernizatsiya uyg‘unligi – jamiyat taraqqiyotining garovidir.

Yangi O‘zbekiston falsafasi inson qadrini, ma’naviyatni va ijtimoiy adolatni ustuvor deb biladi. Bu falsafada modern qadriyatlar – ya’ni erkin fikrlash, innovatsiyaga ochiqlik, gender tengligi kabi g‘oyalar milliy an’analar bilan uyg‘unlashtiriladi. Milliy qadriyatlar bilan global innovatsiyalar o‘rtasida muvozanatni topish — falsafiy jihatdan eng muhim vazifalardan biri. K. Girs “Madaniyatlarni talqin qilish” asrida “An’analar inson tafakkurining ramziy ifodasidir. Ular orqali odamlar dunyoga ma’no beradi, o‘z hayotini mazmun bilan to‘ldiradi. Madaniy an’analar insonni jamiyat bilan bog‘laydigan ma’naviy kod vazifasini bajaradi”[3.89]. Muallif madaniy an’analarni ma’no va ramzlar tizimi sifatida ko‘rib chiqib, ularning insonning dunyoqarashiga ta’sirini falsafiy talqin etadi. Chunki modernizatsiya o‘z-o‘zidan jamiyatni isloh qilmaydi; u milliy ruh bilan uyg‘unlashgandagina samarali bo‘ladi. Yangi O‘zbekistonning barcha islohotlari inson manfaatiga qaratilgan bo‘lib, bu falsafa milliy an’analarning zamonaviy ifodasi hisoblanadi.

Ta’lim sohasi – an’anaviy tarbiya va zamonaviy fanning kesishgan nuqtasidir. Yangi O‘zbekiston ta’lim tizimi milliy tarbiya an’analariga tayangan holda, ilg‘or xalqaro standartlar asosida shakllanmoqda. Bu jarayonda falsafiy ma’noda “an’ana ichida innovatsiya” tamoyili amal qiladi. Masalan, oila, vatanparvarlik, mehnatsevarlik kabi an’anaviy qadriyatlar ta’lim jarayonida ilmiy va axloqiy asos sifatida qo‘llanilmoqda. Shu bilan birga, raqamli ta’lim, kreativ fanlar va innovatsion yondashuvlar modern dunyoqarashni shakllantirmoqda. Bu uyg‘unlik yangi avlodni ham milliy, ham jahon tafakkuriga mos tarbiyalaydi.

Madaniyat va san’at milliy an’analarni saqlab qolish bilan birga, yangicha ifodalashning eng ta’sirli maydonidir. Yangi O‘zbekistonda teatr, kino, dizayn, arxitektura kabi sohalarda an’anaviy uslub va zamonaviy estetikaning uyg‘unligi kuzatiladi. Bu jarayon xalq ruhiyatini saqlagan holda jahon madaniyati bilan muloqot qilish imkonini beradi. Madaniyat falsafasi nuqtai nazaridan, bu jarayon milliy idrokning universallashuvidir. Ya’ni milliylik va globallik o‘rtasidagi muvozanat yangi ijtimoiy ma’no kasb etadi. Bu esa madaniyat orqali modernizatsiyani chuqur ma’naviy asos bilan ta’minlaydi.

Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar ham an’anaviy va modern qadriyatlar uyg‘unligi asosida yangilanmoqda. Masalan, oilaviy munosabatlarda milliy ehtirom va qadriyatlar saqlanib, bir vaqtning o‘zida tenglik va huquqiy ong kuchaymoqda. Bu jarayon falsafiy jihatdan inson qadrini anglashning yangi bosqichidir. Milliy an’analar insonni jamiyatning ma’naviy qimmati sifatida ko‘rsa, modern tafakkur uni erkin shaxs sifatida e’tirof etadi. Shu ikki yondashuvning uyg‘unligi Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy barqarorligini ta’minlaydi. Unda inson ham milliy, ham global ahloqiy mezonlarga amal qiladi.

Eyzenshtadt fikricha, “Modernizatsiya jarayoni jamiyatning qadimiy tuzilmalari va yangi ijtimoiy munosabatlari o‘rtasidagi muvozanatni topishni talab qiladi. U an’anani yo‘q qilish emas, balki uni yangicha hayot mazmuniga moslashtirish jarayonidir[4.54]. Muallif modernizatsiyani ijtimoiy tuzilmalarni o‘zgartirish jarayoni sifatida talqin qilib, uni an’anaviy qadriyatlar bilan bog‘liq holda o‘rganadi. “Zamonaviy dunyoda inson hayoti global bog‘liqlik asosida kechmoqda. Modernizatsiya insonni yangi tavakkallik va imkoniyatlar maydoniga olib kiradi. Shu jarayonda ma’naviy asosni yo‘qotmaslik eng katta falsafiy vazifadir”[5.37]. Giddens modernizatsiyaning asosiy xususiyatlari — ratsionallik, individuallashuv va global bog‘liqlikni chuqur tahlil qiladi. “Modern jamiyat nafaqat farovonlik yaratadi, balki yangi turdagi xavf va mas’uliyatni ham keltirib chiqaradi. Ilmiy-texnika taraqqiyot insonni tabiat va jamiyat bilan munosabatlarini qayta ko‘rib chiqishga majbur etadi”[6.19].

Globallashuv jarayonida milliy ruhni saqlab qolish falsafiy jihatdan juda muhimdir. Chunki modern tafakkur ko‘pincha universal qadriyatlarga suyanadi, ammo har bir jamiyatning ma’naviy-tarixiy zamini bor. Yangi O‘zbekistonda milliy ruh modern jarayonlarning ma’naviy

asosiga aylanmoqda. Masalan, yoshlar siyosatda ham milliy g‘oyalar bilan innovatsiyani birlashtirmoqda. Bu jarayonda milliy ruh modern fikrni to‘g‘ri yo‘naltiruvchi ichki kuch vazifasini bajaradi. Shu bilan, milliy va modern paradigmalar qarama-qarshi emas, balki bir-birini boyituvchi jarayonlar ekanligi isbotlanadi. R. Inglxart va K. Velsel fikricha “Modernizatsiya – bu faqat iqtisodiy yoki texnologik yangilanish emas, balki inson qadri va ijtimoiy erkinlik darajasining o‘sishidir. Jamiyat modern bo‘lgan sari, inson o‘z taqdirini o‘zi belgilashga intiladi[7.23]. Ular tadqiqotlarida modernizatsiya jarayoni inson qadr-qimmatini yuksaltirish, demokratik ong va fuqarolik madaniyatini shakllantirish bilan bog‘liq ekani ta’kidlaydi.

Xullas, Yangi O‘zbekistonda milliy an’analar va modernizatsiya uyg‘unligi jamiyat rivojining ilmiy-falsafiy asosidir. Bu uyg‘unlik millatning tarixiy tajribasi bilan zamonaviy innovatsiyalarini birlashtiradi. An’ana – barqarorlik va xotira manbai, modernizatsiya – yangilik va taraqqiyot simvolidir. Ularning falsafiy birligi milliy o‘zlikni saqlagan holda jahon sivilizatsiyasi bilan hamqadam bo‘lish imkonini yaratadi. Shu bois, Yangi O‘zbekistonning kelajak taraqqiyoti ana shu uyg‘unlikni chuqur anglash va hayotga tatbiq etishga bog‘liq. Milliy an’analarga suyangan modern taraqqiyot – XXI asrdagi yangi o‘zbek falsafasining asosiy yo‘nalishidir.

Yangi O‘zbekistonda milliy an’analar va modernizatsiya uyg‘unligi faqat madaniy yoki iqtisodiy emas, balki falsafiy jarayondir. Unda insonning ma’naviy qiyofasi, jamiyatning axloqiy mezonlari va milliy o‘zlikni anglash masalalari markazda turadi. Shu bois, modernizatsiya milliy an’analardan uzilgan holda emas, balki ularga tayangan holda amalga oshirilishi lozim. Bu yo‘lda falsafiy tahlil va ijtimoiy tajriba uyg‘unligi yangi ijtimoiy paradigmani shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. “Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси асосида демократик ислоҳотлар йўлини қатъий давом эттирамиз”. Янги сайланган Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг лавозимга киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталари қўшма мажлисидаги нутқи. 2021-йил 6-ноябр

2. Shils E. Tradition. — London: Faber and Faber Ltd, 1981. – P. 245.

3. Hobsbawm Eric & Ranger, Terence (eds). *The Invention of Tradition.* — Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – P. 12–14.

4. Geertz C. The Interpretation of Cultures. — New York: Basic Books, 1973. – P. 89–95.

5. Eisenstadt S. N. Modernization: Protest and Change. — Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1966. – P. 54–59.

6. Giddens A. The Consequences of Modernity. — Stanford: Stanford University Press, 1990. – P. 37–45.

7. Beck U. Risk Society: Towards a New Modernity. — London: Sage Publications, 1992. – P. 19–28.

8. Inglehart R. & Welzel C. Modernization, Cultural Change, and Democracy: The Human Development Sequence. — New York: Cambridge University Press, 2005. – P. 23–31.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA RAHBARLIK ETIKASI VA MA'NAVIY MAS'ULIYAT MASALALARI

Norqorayeva Malika Muxiddin qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish
metodikasi(ma'naviyat asoslari)
mutaxassisligi 1-kurs magistranti
https://orcid.org/0009-0006-3848-4110

Annotatsiya. *Mazkur maqolada buyuk mutafakkir Alisher Navoiy asarlarida aks etgan rahbarlik etikasi va ma'naviy mas'uliyat masalalari tizimli ravishda tadqiq etiladi. Tadqiqotda mutafakkirning "Xamsa" tarkibidagi dostonlar, ayniqsa, "Hayrat ul-abror", "Saddi Iskandariy" hamda uning ijtimoiy-falsafiy vasiyatnomasi hisoblangan "Mahbub ul-qulub" asari asosida ideal rahbar konsepsiyasi tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *rahbarlik etikasi, ma'naviy mas'uliyat, adolat, mashvarat, davlat boshqaruvi, komil inson, xizmatkor rahbarlik, ijtimoiy tenglik, korrupsiya, byurokratiya.*

Аннотация. *В данной статье системно исследуются вопросы этики руководства и духовной ответственности, отраженные в произведениях великого мыслителя Алишера Навои. На основе поэм из цикла «Хамса», в частности «Смятение праведных» и «Стена Искандара», а также его социально-философского завещания «Возлюбленный сердец», анализируется концепция идеального правителя.*

Ключевые слова: *этика руководства, духовная ответственность, справедливость, машварат (коллегиальность), государственное управление, совершенный человек, служащее лидерство, социальное равенство, коррупция, бюрократия.*

Abstract. *This article provides a systematic study of leadership ethics and spiritual responsibility as reflected in the works of the great thinker Alisher Navoi. The concept of an ideal leader is analyzed based on the poems within the 'Khamsa',particularly 'Confusion of the Righteous' and 'Alexander's Wall', as well as his socio-philosophical testament 'Beloved of Hearts'.*

Keywords: *leadership ethics, spiritual responsibility, justice, mashvarat (consultation), public administration, the perfect man, servant leadership, social equality, corruption, bureaucracy.*

Kirish. Jahon tamadduni tarixida Sharq Uyg'onish davri o'zining yuksak insonparvarlik g'oyalari bilan ajralib turadi. Ushbu davrning eng yirik namoyandasi Nizomiddin Mir Alisher Navoiy nafaqat so'z mulkining sultoni, balki Temuriylar davlatining ulug', tajribali davlat arbobi sifatida ham tanilgan. Uning davlat boshqaruvidagi bevosita ishtiroki va orttirgan boy tajribasi asarlarida shunchaki nazariya emas, balki hayotiy va amaliy mazmunda aks etadi. Navoiy davlat tizimida moliya, xavfsizlik va ijtimoiy ta'minot masalalari bilan shaxsan shug'ullangani bois, uning rahbarlik etikasi haqidagi o'gitlari real hayotiy silsilalarga tayanadi [1].

Bugungi kunda jahon miqyosida davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, rahbar kadrlarning axloqiy qiyofasini shakllantirish va korrupsiyaga qarshi kurash masalalari birinchi darajali vazifaga aylandi. Navoiy merosida rahbarlik – bu shaxsiy imtiyoz emas, balki xalq oldidagi yuksak ma'naviy qarz va ilohiy mas'uliyat sifatida talqin qilinadi. Mutafakkir asarlarida ilgari surilgan "raiyatparvarlik" va "adolat" tushunchalari zamonaviy demokratik boshqaruvning shaffoflik va hisobdorlik tamoyillari bilan fundamental jihatdan mushtarakdir. Mazkur tadqiqotning maqsadi Navoiyning boshqaruv falsafasini tizimlashtirish va uning zamonaviy etika nazariyalari bilan bog'liqligini ochib berishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Alisher Navoiyning davlat arbobi sifatidagi faoliyati va boshqaruvga oid qarashlari o'zbek va jahon navoiyshunosligida turli olimlar tomonidan o'rganilgan.

Akademik Sh. Sirojiddinov o‘z tadqiqotlarida Navoiyning hayot yo‘li va uning davlat xizmatidagi prinsiplarini arxiv hujjatlari va tarixiy manbalar asosida tahlil qilgan [1]. N. Karimov esa mutafakkir asarlaridagi adolat konsepsiyasini ijtimoiy barqarorlik omili sifatida ko‘rsatib beradi [2].

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda rahbarlik etikasi masalasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Robert K. Greenleaf (“Servant Leadership”), James MacGregor Burns (“Transformational Leadership”) kabi olimlar tomonidan tizimlashtirila boshlandi [8]. Greenleaf rahbarning birinchi navbatda xizmatkor bo‘lishi kerakligi haqidagi g‘oyasi Navoiyning “Raiyat – asldir, shoh esa bog‘bon” degan tamoyiliga g‘oyat yaqindir. Shuningdek, Bernard M. Bassning rahbar va xodim o‘rtasidagi psixologik bog‘liqlik haqidagi qarashlari Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asaridagi “ko‘ngil olish” san'ati bilan o‘zaro hamohanglik kasb etadi. F. Qurbonov o‘zining tadqiqotlarida Navoiyning boshqaruv falsafasini menejment nazariyalari bilan qiyosiy o‘rgangan bo‘lsa-da, mutafakkir asarlaridagi konkret baytlar va axloqiy kategoriyalarning bugungi boshqaruv muammolari yechimi sifatidagi o‘rni hali to‘liq yoritilmagan [3].

Metodologiya.

Maqolada quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

Qiyosiy-matniy tahlil: Navoiyning “Xamsa” dostonlari va “Mahbub ul-qulub” asaridagi boshqaruvga oid boblar qiyoslanib, umumiy xulosalar chiqarildi.

Gnoseologik yondashuv: Navoiyning ideal rahbar haqidagi qarashlarining tarixiy ildizlari (Forobiy, Yusuf Xos Hojib an’analari) va ularning rivoji o‘rganildi.

Tarixiy-biografik metod: Alisher Navoiyning Husayn Boyqaro saroyidagi amaldorlik faoliyati uning ijodidagi g‘oyaviy o‘zgarishlarga ta’siri jihatidan tahlil etildi.

Sintez va interpretatsiya: Navoiyning XV asrdagi o‘gitlari bugungi kunning boshqaruv muammolari nuqtayi nazaridan qayta talqin qilindi.

Natija va tahlil. Adolat – Davlat Barqarorligining Fundamenti. Navoiy uchun adolat – bu davlat binosini ushlab turuvchi asosiy ustundir. U “Hayrat ul-abror” dostonining yettinchi maqolatini to‘liq adolat mavzusiga bag‘ishlaydi. Unda shunday deyiladi:

“Adl ila bog‘ olami ma’mur erur, Adl demak nuri erur, nur erur”[4].Bu yerda Navoiy adolatni nurga o‘xshatmoqda. Agar rahbar adolat chirog‘ini yoqsa, butun mamlakat zulmatdan qutuladi. Navoiy tushunchasidagi adolat faqat qonuniy jazo emas, balki ijtimoiy muvozanatdir. Mutafakkirning fikricha, rahbar o‘z nafsini tiya olmasa, uning chiqargan qarorlari jamiyatda adolatsizlik urug‘ini sochadi.

Ushbu g‘oya Robert Greenleafning "Servant Leadership" (Xizmatkor rahbarlik) nazariyasi bilan qiyoslanganda, har ikki yondashuvda ham rahbarning missiyasi xalqqa xizmat qilish ekani ko‘rinadi. Biroq, Navoiyda bu mas’uliyat “Qiyomat kuni javobgarligi” bilan bog‘lanib, yanada kuchliroq ma'naviy motivatsiyaga ega bo‘ladi. G‘arb nazariyasi ko‘proq korporativ natijaga yo‘naltirilgan bo‘lsa, Navoiy etikasi inson qadri va ilohiy qonuniyatlarga tayanadi [8].

Navoiy mutlaq hokimiyatning xavfli jihatlarini yaxshi anglagan. Shuning uchun u “Saddi Iskandariy” dostonida Iskandar obrazini chizishda uning har bir strategik qarorini olimlar va donishmandlar kengashi bilan maslahatlashib qabul qilishini urg‘ulaydi:“Qilur erdi har ishki kelsa mavo, Hukamo maslahati birla bajo”[5]. Bu bugungi kun menejmentidagi “participatory management” (ishtirokchi boshqaruv) tushunchasiga to‘liq mos keladi. Navoiy fikricha, kengashsiz qabul qilingan qaror xatoga moyildir. James MacGregor Burnsning “Transformative Leadership” nazariyasida ham rahbar o‘z xodimlarining ma’naviy motivatsiyasini oshirishi va ular bilan hamfikr bo‘lishi kerakligi aytiladi [9]. Navoiy buni “Shoh – tan, xalq – jon” metaforasi orqali tushuntiradi: agar tan (rahbar) mashvarat orqali sog‘lom qaror qabul qilsa, jon (xalq) ham yuksaladi.

“Mahbub ul-qulub” asarida Navoiy rahbarlarni toifalarga ajratadi. Bu asar o‘z davrining o‘ziga xos “davlat xizmatchilari etika kodeksi”dir. Navoiy ta’kidlaydiki, rahbarning ma’naviy inqirozi poraxo‘rlik (tamagirlik) va kibrdan boshlanadi. U yozadi: ”Tamagirlik ko‘zini ko‘r,

qalbini ko‘r qilar”[6]. Bu fikrlar bugungi kundagi korrupsiya muammosining tub ildizini – shaxsning axloqiy tanazzulini ochib beradi.

Zamonaviy boshqaruvda keng qo‘llaniladigan “Transparency” (Shaffoflik) tushunchasi Navoiyning “Rostgo‘ylik” tamoyiliga tayanadi. Navoiy fikricha, rostlik – barcha yaxshiliklarning boshi, yolg‘onchilik esa barcha balolarning aslidir. Agar rahbar shaxsiy manfaatni ustun qo‘ysa, bu jamiyatda byurokratiya va ijtimoiy adolatsizlikka olib keladi. Shu ma’noda, Navoiy ta’limoti rahbarning ichki “axloqiy filtr”ni shakllantirishda bugungi kunda ham eng samarali metodologik manba bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. O‘tkazilgan tizimli tahlillar va qiyosiy o‘rganishlar natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, Alisher Navoiy asarlarida rahbarlik etikasi va ma’naviy mas’uliyat masalalari bir-birini uzviy ravishda taqozo etuvchi yaxlit va fundamental tizimni tashkil etadi. Mutafakkir talqinida rahbarlik shunchaki ma’muriy vakolatlar majmuasi emas, balki jamiyatning ma’naviy-axloqiy yuksalishiga xizmat qiluvchi muqaddas burch bo‘lib, uning rahbar shaxsiga qo‘ygan talablari bugungi kunda jahon menejmentida ilgari surilayotgan eng ilg‘or etik me’yorlardan ham chuqurroq mazmun-mohiyatga egadir.

Navoiyning adolat haqidagi qarashlari shunchaki huquqiy tushuncha doirasidan chiqib, rahbarning ichki ma’naviy holati va vijdoni bilan bog‘liq kategoriya ekanini ko‘rsatadi, ya’ni mutafakkir nazdida rahbarning o‘z nafsini jilovlay olishi korrupsiyasiz va shaffof jamiyat qurishning eng samarali ichki filtri bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa zamonaviy davlat boshqaruvida faqat qonuniy choralar bilan emas, balki rahbarlar dunyoqarashini tubdan o‘zgartirish orqali yuksak natijalarga erishish mumkinligini isbotlaydi.

Shu bilan birga, mashvarat yoki jamoaviy boshqaruv tamoyili Navoiy ta’limotida rahbarning qaror qabul qilishidagi subyektiv xatolarni bartaraf etish hamda qarorlarning xalqchil va shaffof bo‘lishini ta’minlashning asosiy kafolati sifatida namoyon bo‘ladi va ushbu tamoyil bugungi kunda davlat boshqaruviga jamoatchilik nazorati hamda ekspertlar xulosasini integratsiya qilishda muhim metodologik asos bo‘la oladi. Mutafakkir ilgari surgan “komil rahbar” g‘oyasi shunchaki utopik tasavvur emas, balki real boshqaruvda amalda bo‘lishi shart bo‘lgan me’yorlar majmui bo‘lib, u bugungi kunda davlat xizmatchilarini tayyorlash, ularning kasbiy etikasini shakllantirish va kadrlarni saralash tizimida asosiy ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalish bo‘lib xizmat qilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning boshqaruv falsafasi shunchaki o‘tmish yodgorligi emas, balki zamonaviy dunyodagi boshqaruv inqirozlarini bartaraf etish, byurokratiyani kamaytirish va xalqning davlatga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashda strategik ma’naviy qurol vazifasini o‘taydi hamda ushbu o‘gitlarni zamonaviy rahbarlik mahorati darslariga tatbiq etish milliy boshqaruv maktabining nufuzini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy: hayoti va faoliyati. – Toshkent: Adabiyot, 2021.
2. Karimov N. Navoiy va davlat boshqaruvi sirlari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2022.
3. Qurbonov F. Alisher Navoiy asarlarida boshqaruv falsafasi // Oriental Renaissance. – 2024. – №4.
4. Navoiy A. Hayrat ul-abror // Mukammal asarlar to‘plami. – Toshkent: Fan, 1991. – 7-jild.
5. Navoiy A. Saddi Iskandariy // Mukammal asarlar to‘plami. – Toshkent: Fan, 1993. – 11-jild.
6. Navoiy A. Mahbub ul-qulub // Mukammal asarlar to‘plami. – Toshkent: Fan, 1998. – 14-jild.
7. Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
8. Greenleaf R. K. Servant Leadership. – New York: Paulist Press, 1977.
9. Burns J. M. Leadership. – New York: Harper & Row, 1978.

ILMIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH VA YOSHLARNI AQLIY TARBIYALASH

Abdumannonova Rayhona Baxtiyorjon qizi,
Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti
Maktabgacha ta'lim yo‘nalishi
2-bosqich talabasi

Malikova Ruxsora Abdurasul qizi,
Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti
Maktabgacha ta'lim yo‘nalishi
2-bosqich talabasi

Axmatova Malika Xusan qizi,
Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti
Maktabgacha ta'lim yo‘nalishi
2-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yosh avlodda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari, shuningdek ularni aqliy jihatdan rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Ilmiy tafakkurni rivojlantirish jarayonida ta’lim tizimining roli, pedagogik yondashuvlar va zamonaviy metodlarning ahamiyati yoritilgan. Yoshlarning mustaqil fikrlashi, mantiqiy xulosa chiqarish qobiliyatlarini shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri sifatida ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *ilmiy dunyoqarash, aqliy tarbiya, tafakkur, ta’lim, yoshlar, mantiqiy fikrlash, pedagogika, rivojlanish.*

Аннотация. *В статье рассматриваются теоретические и практические основы формирования научного мировоззрения у молодежи, а также вопросы их умственного воспитания. Раскрывается роль системы образования и современных педагогических методов в развитии научного мышления.*

Ключевые слова: *научное мировоззрение, умственное воспитание, мышление, образование, молодежь.*

Abstract. *This article analyzes the theoretical and practical foundations of forming a scientific worldview among young people, as well as issues of their intellectual development. The role of education and modern pedagogical approaches in developing scientific thinking is highlighted.*

Keywords: *scientific worldview, intellectual education, thinking, education, youth.*

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti, ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi yosh avloddan yuqori darajadagi intellektual salohiyatni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, yoshlarni aqliy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash va ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

Ilmiy dunyoqarash shaxsning borliqni anglash, hodisalarga ilmiy yondashish, sabab-oqibat bog‘lanishlarini tushunish qobiliyatini belgilaydi. Bu esa nafaqat bilim olish, balki hayotiy muammolarni hal qilishda ham muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi kunda ta’lim tizimida yoshlarning faqat bilimini oshirish emas, balki ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatish ustuvor yo‘nalishga aylanmoqda.

Yoshlarni aqliy tarbiyalashning mazmuni;

Aqliy tarbiya insonning tafakkurini, bilim olish qobiliyatini va intellektual salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir. Aqliy tarbiyaning asosiy maqsadi — yoshlarni mustaqil fikrlashga, ilmiy izlanishga va ijodiy yondashuvga o‘rgatishdir.

Aqliy tarbiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Yoshlarning bilim olishga bo‘lgan ehtiyojini kuchaytirish;
2. Mantiqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish;
3. Mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirish;
4. Ilm-fan va innovatsiyalarga qiziqishni oshirish;
5. Intellektual salohiyatni yuksaltirish.

Ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish yoshlarning aqliy faolligini oshiradi. Bahs-munozara, loyiha ishlari, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish kabi usullar talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

1. Ilmiy dunyoqarashning nazariy asoslari

Ilmiy dunyoqarash — bu insonning tabiat va jamiyat haqidagi ilmiy asoslangan qarashlar tizimi bo‘lib, u empirik va nazariy bilimlar asosida shakllanadi. U inson tafakkurining eng yuqori darajasi bo‘lib, voqelikni chuqur tahlil qilish va umumlashtirish imkonini beradi.

Falsafiy nuqtai nazardan, ilmiy dunyoqarash dialektik tafakkur bilan chambarchas bog‘liq. Chunki u hodisalarni o‘zaro bog‘liqlikda, harakat va rivojlanishda ko‘rib chiqadi. Pedagog olim A.S. Makarenko ta’kidlaganidek:

“Tarbiya jarayoni shaxsning butun hayotiy qarashlarini shakllantiradi”[1].

Shuningdek, J. Piaget bolalar tafakkurining bosqichma-bosqich rivojlanishini asoslab, ilmiy fikrlash ma’lum yosh davrlarida shakllanishini ko‘rsatadi[2].

Demak, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish uzluksiz jarayon bo‘lib, u yoshga mos ravishda rivojlanadi.

2. Aqliy tarbiya va uning mazmuni

Aqliy tarbiya — bu shaxsning bilish jarayonlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatdir. U quyidagi asosiy komponentlarni o‘z ichiga oladi:

bilimlar tizimini shakllantirish, tafakkur operatsiyalarini rivojlantirish, mustaqil fikrlashni shakllantirish, ijodiy yondashuvni rivojlantirish

Psixolog L.S. Vygotskiy fikricha:

“Ta’lim taraqqiyotdan oldinda boradi va uni harakatga keltiradi”[3].

Bu fikr aqliy tarbiyaning ta’lim orqali amalga oshirilishini ko‘rsatadi. Aqliy rivojlanish jarayonida bolaning yaqin rivojlanish zonasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Aqliy tarbiyaning samaradorligi quyidagi omillarga bog‘liq:

o‘qituvchining pedagogik mahorati, ta’lim metodlarining to‘g‘ri tanlanishi, o‘quv muhitining qulayligi, motivatsiyaning mavjudligi

3. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari

Yoshlar ongida ilmiy dunyoqarashni shakllantirish uchun quyidagi pedagogik shartlar muhim hisoblanadi:

a) Muammoli ta’lim

Muammoli vaziyat yaratish orqali o‘quvchilarda izlanish, fikrlash va xulosa chiqarish ko‘nikmalari rivojlanadi.

b) Amaliy faoliyat

Tajriba, kuzatish va eksperimentlar orqali bilimlar mustahkamlanadi. Ayniqsa, maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda bu usul juda samarali.

c) Interfaol metodlar

Bahs-munozara, klaster, aqliy hujum kabi metodlar o‘quvchilarning faolligini oshiradi.

d) Axborot texnologiyalari

Zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘quvchilarda ilmiy tafakkur va axborot bilan ishlash ko‘nikmalari rivojlanadi.

4. Yoshlarni aqliy rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar

Bugungi kunda STEAM ta’lim, raqamli pedagogika, loyiha asosida o‘qitish kabi yondashuvlar keng qo‘llanilmoqda. Bu metodlar:

- ijodiy fikrlashni rivojlantiradi
- muammoli vaziyatlarni hal qilishni o‘rgatadi

- jamoada ishlash ko‘nikmasini shakllantiradi

Shuningdek, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish ham muhim yo‘nalish hisoblanadi. Tanqidiy fikrlovchi shaxs axborotni tahlil qiladi, baholaydi va mustaqil xulosa chiqaradi.

5. Ilmiy dunyoqarash va ma’naviy tarbiya o‘zaro bog‘liqligi

Ilmiy dunyoqarash faqat bilimlar bilan cheklanmaydi. U shaxsning ma’naviy rivoji bilan ham uzviy bog‘liq.

I.A. Karimov ta’kidlaganidek:

“Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuchdir”.

Demak, yoshlarni tarbiyalashda ilmiy va ma’naviy yondashuv uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlar tarbiyasida ma’naviyatning ahamiyati

Ilmiy dunyoqarash ma’naviy qadriyatlar bilan uyg‘un holda shakllangandagina ijobiy natija beradi. Ma’naviy barkamol yoshlar jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘sha oladi.

Ajdodlarimiz ilm-fan va ma’rifatni yuksak qadrlaganlar. Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek kabi allomalar ilmiy tafakkur rivojiga ulkan hissa qo‘shgan. Ularning ilmiy merosi bugungi yoshlar uchun ham muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va yoshlarni aqliy tarbiyalash zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Bu jarayon:

- shaxsning intellektual rivojlanishini ta’minlaydi
- mustaqil fikrlashni shakllantiradi
- jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi

Shu bois, ta’lim jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish, o‘quvchilarning faolligini oshirish va ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Makarenko A.S. Pedagogik asarlar. – Moskva, 1983.
2. Piaget J. The Psychology of Intelligence. – London, 1950.
3. Vygotskiy L.S. Psixologiya asoslari. – Moskva, 1991.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, 2008.
5. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent, 2015.
6. Dewey J. Democracy and Education. – New York, 1916.

BO‘LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA’LIM MUHITINING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Sorimsokov Uchqun Soatboy o‘g‘li,
Jizzax politexnika instituti
Energetika va elektr texnologiyasi
kafedrasi assistenti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda innovatsion ta’lim muhiti, amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan pedagogik yondashuvlarning ahamiyati yoritilgan. Unda muhandislik ta’limida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma, texnik tafakkur, loyihalash madaniyati va kasbiy mas’uliyatni shakllantirish masalalari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *bo‘lajak muhandis, kasbiy kompetensiya, innovatsion ta’lim muhiti, muhandislik tafakkuri, loyiha metodi, amaliy tayyorgarlik, raqamli texnologiya.*

Аннотация. *В данной статье раскрывается значение инновационной образовательной среды, образовательных технологий, ориентированных на практическую деятельность, а также педагогических подходов, интегрированных с производством, в развитии профессиональной компетентности будущих инженеров. В статье анализируются вопросы формирования теоретических знаний, практических навыков, технического мышления, проектной культуры и профессиональной ответственности в инженерном образовании.*

Ключевые слова: *будущий инженер, профессиональная компетентность, инновационная образовательная среда, инженерное мышление, проектный метод, практическая подготовка, цифровые технологии.*

Abstract. *This article highlights the importance of an innovative educational environment, practice-oriented educational technologies, and pedagogical approaches integrated with production in developing the professional competence of future engineers. It analyzes the formation of theoretical knowledge, practical skills, technical thinking, design culture, and professional responsibility in engineering education.*

Keywords: *future engineer, professional competence, innovative educational environment, engineering thinking, project method, practical training, digital technology.*

Kirish. Bugungi kunda texnika va texnologiyalar jadal rivojlanayotgan sharoitda oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak muhandislarni tayyorlash jarayoni yangi mazmun va sifat bosqichiga ko‘tarilmoqda. Sanoat, energetika, qurilish, transport, axborot texnologiyalari va ishlab chiqarish sohalarida raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan, texnik muammolarga kreativ yondasha oladigan mutaxassislarga ehtiyoj ortib bormoqda. Shu sababli muhandislik ta’limida faqat nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, talabalarda kasbiy kompetensiyani rivojlantirish, ularni real ishlab chiqarish vaziyatlariga tayyorlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyasi ularning mutaxassislikka oid bilimlari, amaliy ko‘nikmalari, texnik tafakkuri, loyihalash qobiliyati, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish layoqati, kasbiy muloqot madaniyati va innovatsion faoliyatga tayyorligini o‘z ichiga oladi. Bu kompetensiyani rivojlantirish esa maxsus tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni talab etadi.

Maqolaning maqsadi bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda innovatsion ta’lim muhitining pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilish hamda ushbu jarayonda samarali hisoblangan metodik yondashuvlarni asoslashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish masalasi pedagogika, muhandislik ta’limi va kompetensiyaviy yondashuv nazariyasida muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida o‘rganilgan. Xorijiy tadqiqotchilar muhandislik ta’limida amaliy faoliyat, loyiha asosida o‘qitish, ishlab chiqarish bilan integratsiya va raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini oshirishini ta’kidlaydilar.

J. Dewey ta’lim jarayonida amaliy faoliyat va tajribaga asoslangan o‘qitishning ahamiyatini ko‘rsatib bergan. Uning qarashlariga ko‘ra, talaba bilimni tayyor holda qabul qiluvchi emas, balki uni faol izlanish, tajriba va muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali egallovchi subyekt hisoblanadi. Bu yondashuv muhandislik ta’limi uchun ayniqsa muhimdir, chunki muhandis kasbiy faoliyatida doimiy ravishda texnik muammo, loyihalash vazifasi va tahliliy qarorlar bilan ishlaydi.

D. Kolbning tajribaviy ta’lim nazariyasida esa bilim olish jarayoni tajriba, kuzatish, umumlashtirish va amaliy qo‘llash bosqichlari orqali izohlanadi. Mazkur model bo‘lajak muhandislarni tayyorlashda laboratoriya mashg‘ulotlari, amaliy topshiriqlar, ishlab chiqarish amaliyoti va loyiha ishlarini tashkil etish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mahalliy pedagogik tadqiqotlarda ham kasbiy kompetensiya, amaliy tayyorgarlik, innovatsion ta’lim texnologiyalari va raqamli ta’lim muhitining o‘rni keng yoritilgan. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida muhandislik yo‘nalishlari bo‘yicha kadrlar tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuv, ishlab chiqarish bilan hamkorlik, zamonaviy laboratoriyalar, raqamli modellashtirish va loyihaviy ta’limdan foydalanish dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda.

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish ko‘pincha alohida metod yoki texnologiya doirasida o‘rganilgan. Mazkur maqolada esa ushbu jarayon innovatsion ta’lim muhiti, pedagogik shart-sharoitlar va amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlar uyg‘unligida tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani tayyorlashda tahliliy, qiyosiy, umumlashtirish, pedagogik kuzatish va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Tahliliy metod orqali bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga oid nazariy manbalar, ilmiy qarashlar va ta’lim amaliyotidagi mavjud yondashuvlar o‘rganildi.

Qiyosiy metod yordamida an’anaviy ta’lim yondashuvi va innovatsion ta’lim muhitiga asoslangan o‘qitishning afzalliklari solishtirildi. Tizimli yondashuv asosida kasbiy kompetensiyani shakllantirishga ta’sir etuvchi tarkibiy omillar — ta’lim mazmuni, metodlar, vositalar, pedagogik hamkorlik, amaliy mashg‘ulotlar, raqamli texnologiyalar va baholash mezonlari o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilindi.

Tadqiqotda bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish quyidagi tarkibiy komponentlar asosida ko‘rib chiqildi:

1. **Kognitiv komponent** — mutaxassislikka oid nazariy bilimlar, texnik tushunchalar, kasbiy terminlar va muhandislik qonuniyatlarini bilish.
2. **Amaliy-faoliyatli komponent** — texnik topshiriqlarni bajarish, loyiha ishlab chiqish, hisob-kitob qilish, modellashtirish va ishlab chiqarish vaziyatlarini tahlil qilish.
3. **Motivatsion komponent** — kasbga qiziqish, muhandislik faoliyatiga ijobiy munosabat, o‘z ustida ishlashga intilish.
4. **Ijodiy-innovatsion komponent** — muammoga yangicha yechim topish, texnik taklif ishlab chiqish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.
5. **Kommunikativ komponent** — jamoada ishlash, loyiha himoya qilish, kasbiy fikrni asoslab bera olish va texnik muloqot madaniyati.

Tahlil va natijalar. Bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish samaradorligi, avvalo, ta’lim jarayonida yaratilgan tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarga bog‘liq. Bunday shart-sharoitlar ta’lim mazmuni, o‘qitish metodlari, amaliy mashg‘ulotlar, raqamli vositalar, laboratoriya ishlari, ishlab chiqarish bilan hamkorlik va baholash tizimining uyg‘unligini ta’minlashi lozim.

Birinchi muhim shart — ta’lim mazmunini kasbiy faoliyat bilan integratsiyalashdir. Muhandislik fanlari nazariy tushunchalar bilan birga, real texnik obyektlar, ishlab chiqarish jarayonlari, loyiha ishlari va muammoli vaziyatlar asosida o‘qitilishi kerak. Masalan, talaba elektr ta’minoti tizimi, qurilish konstruksiyasi, transport mexanizmi yoki texnologik jarayonni faqat nazariy jihatdan emas, balki hisoblash, modellashtirish va tahlil qilish orqali o‘zlashtirishi zarur.

Ikkinchi shart — innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishdir. Muammoli ta’lim, loyiha metodi, keys-stadi, STEAM yondashuvi, raqamli modellashtirish, virtual laboratoriya va simulyatsion mashg‘ulotlar talabalarning kasbiy tafakkurini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Ayniqsa, loyiha metodi muhandislik ta’limida muhim ahamiyatga ega, chunki u talabani mustaqil izlanish, texnik yechim ishlab chiqish, natijani himoya qilish va jamoaviy hamkorlikka o‘rgatadi.

Uchinchi shart — raqamli ta’lim vositalaridan maqsadli foydalanishdir. Bugungi muhandislik faoliyati kompyuter grafikasi, 3D modellashtirish, avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari, raqamli egizak, virtual laboratoriya, sun’iy intellektga asoslangan tahlil vositalari bilan chambarchas bog‘liq. Shuning uchun bo‘lajak muhandislarni tayyorlashda AutoCAD, SolidWorks, MATLAB, Simulink, Kompas-3D, Revit kabi dasturiy vositalardan foydalanish ularning kasbiy kompetensiyasini rivojlantiradi.

To‘rtinchi shart — ishlab chiqarish bilan ta’lim integratsiyasini kuchaytirishdir. Talabalar nazariy bilimlarini ishlab chiqarish amaliyoti, korxona bilan hamkorlikdagi loyihalar, texnik topshiriqlar, amaliy seminarlar va ustoz-shogird tizimi orqali mustahkamlashi zarur. Bu jarayon talabaning kasbiy muhitga moslashishini tezlashtiradi va unda real muhandislik mas’uliyatini shakllantiradi.

Beshinchi shart — baholash tizimini kompetensiyaviy mezonlar asosida tashkil etishdir. An’anaviy baholash ko‘proq nazariy bilimni aniqlashga xizmat qiladi. Kompetensiyaviy baholash esa talabaning amaliy topshiriqni bajarishi, loyiha yaratishi, texnik yechimni asoslay olishi, jamoada ishlashi va natijani taqdim etish qobiliyatini ham hisobga oladi.

Quyidagi jadvalda bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi asosiy pedagogik shart-sharoitlar ko‘rsatiladi (1-jadval).

1-jadval

№	Pedagogik shart-sharoitlar	Mazmuni	Kutiladigan natija
1	Ta’lim mazmunini kasbiy faoliyat bilan bog‘lash	Fan mavzularini real ishlab chiqarish vaziyatlari bilan uyg‘unlashtirish	Nazariy bilimning amaliy ahamiyati ortadi
2	Loyiha va muammoli ta’limdan foydalanish	Talabalarni mustaqil texnik yechim topishga yo‘naltirish	Muhandislik tafakkuri rivojlanadi
3	Raqamli texnologiyalarni joriy etish	Modellashtirish, simulyatsiya, virtual laboratoriya va CAD dasturlaridan foydalanish	Raqamli va texnik kompetensiya shakllanadi
4	Ishlab chiqarish bilan integratsiya	Korxonalar bilan hamkorlik, amaliyot va real texnik topshiriqlar	Kasbiy moslashuv kuchayadi
5	Kompetensiyaviy baholash	Bilim, ko‘nikma, loyiha, muloqot va ijodiy yondashuvni baholash	Talabaning real kasbiy tayyorgarligi aniqlanadi

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish bir martalik yoki alohida metod bilan cheklanmaydi. Bu jarayon tizimli, bosqichma-bosqich va integrativ xarakterga ega bo‘lishi kerak. Dastlab talabalarda kasbga oid nazariy bilimlar shakllantiriladi, keyingi bosqichda ular amaliy topshiriqlar orqali mustahkamlanadi, yakuniy bosqichda esa talabalar mustaqil loyiha, texnik tahlil va innovatsion yechimlar ishlab chiqishga yo‘naltiriladi.

Bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda o‘qituvchining roli ham muhimdir. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki yo‘naltiruvchi, maslahatchi, loyiha rahbari va innovatsion muhit tashkilotchisi sifatida faoliyat yuritishi lozim. Bunda pedagog talabalarning mustaqil fikrlashi, texnik savodxonligi, kasbiy qiziqishi va ijodiy yondashuvini qo‘llab-quvvatlashi zarur.

Xulosa va takliflar. Bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy oliy ta’limning ustuvor vazifalaridan biridir. Mazkur jarayon samarali tashkil etilishi uchun ta’lim mazmuni ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtirilishi, o‘quv jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalar qo‘llanilishi, raqamli vositalar va amaliy mashg‘ulotlardan keng foydalanilishi zarur.

Tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyasi nazariy bilim, amaliy ko‘nikma, texnik tafakkur, ijodiy yondashuv, kommunikativ madaniyat va kasbiy mas’uliyatning uzviy birligidan iborat.

Ikkinchidan, muhandislik ta’limida loyiha metodi, muammoli ta’lim, keys-stadi, simulyatsion mashg‘ulotlar va raqamli modellashtirishdan foydalanish talabalarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytiradi.

Uchinchidan, ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan ta’lim muhiti talabalarning real kasbiy faoliyatga moslashishini ta’minlaydi.

To‘rtinchidan, kompetensiyaviy baholash tizimi talabalarning nafaqat bilim darajasini, balki amaliy faoliyatga tayyorligini ham aniqlash imkonini beradi.

Mavzu yuzasidan quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Muhandislik yo‘nalishlarida o‘quv dasturlarini real ishlab chiqarish ehtiyojlari asosida takomillashtirish lozim.
2. Har bir mutaxassislik fanida loyiha, keys va amaliy muammoli topshiriqlar tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.
3. Oliy ta’lim muassasalarida virtual laboratoriyalar, raqamli modellashtirish dasturlari va avtomatlashtirilgan loyihalash platformalaridan foydalanishni kengaytirish zarur.
4. Korxonalar bilan hamkorlikda amaliy mashg‘ulotlar, ishlab chiqarish amaliyoti va qo‘shma loyihalarni tashkil etish kerak.
5. Bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyasini baholashda nazariy testlar bilan birga loyiha himoyasi, amaliy topshiriq va portfoliodan foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Dewey J. Democracy and Education. — New York: Macmillan, 1916.
2. Kolb D. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. — New Jersey: Prentice Hall, 1984.
3. Olimov Q. T. Kasb ta’limi metodikasi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
4. Kulmuradov, D. I. (2022, August). Methodology of development of construction documents in the automated design system. In E Conference Zone (pp. 19-22).

AHOLINING IJTIMOIY RIVOJLANISHIDA SAMARALI BANDLIK VA MUNOSIB TURMUSH DARAJASINI KAFOLATLASH MASALALARI

Valiyev Akbar Xalilovich,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida aholini ish bilan ta’minlash inson ijtimoiy rivojlanishining eng muhim jihatlaridan biri ekanligi va aholi bandligini ta’minlash har bir mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy siyosatining dolzarb yo‘nalishi ekanligi, shunindek aholi bandligi masalalari va uning huquqiy asoslari tahlil qilingan.*
Kalit so‘zlar: *bandlik, ishsizlik, ijtimoiy himoya, tadbirkorlik, kambag‘allikni qisqartirish.*

Аннотация. *В данной статье показано, что обеспечение занятости населения в Республике Узбекистан является одним из важнейших аспектов человеческого социального развития и что обеспечение занятости является актуальным направлением экономической и социальной политики каждой страны, а также проанализированы вопросы занятости и ее правовые основы.*
Ключевые слова: *занятость, безработица, социальная защита, предпринимательство, сокращение бедности.*

Abstract. *This article shows that providing employment to the population in the Republic of Uzbekistan is one of the most important aspects of human social development and that ensuring employment is a relevant direction of the economic and social policy of each country, as well as analyzes the issues of employment and its legal basis.*
Keywords: *employment, unemployment, social protection, entrepreneurship, poverty reduction.*

O‘zbekiston Respublikasida aholini ish bilan ta’minlash inson ijtimoiy rivojlanishining eng muhim jihatlaridan bo‘lib, .bugungi kunda aholi bandligini ta’minlash har bir mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy siyosatining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Aholini ish bilan ta’minlash inson ijtimoiy rivojlanishining eng muhim jihatlaridan biri bo‘lib, u mehnat masalalari bilan bog‘liq muammo va va mehnatga bo‘lgan taklif va talablarni qondirish yo‘llarini ochib beradi. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida aholini ish bilan bandligini ta’minlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan va bu borada amaliy islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda aholi bandligi masalalari va uning huquqiy asoslari tarixini tahlil qilish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Aholi bandligi sohasidagi davlat siyosatini qonunchilik yo‘li bilan amalga oshirishda 2018-yil 17-oktyabrida qabul qilingan “Xususiy bandlik agentliklari to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 2020-yilning 20-oktyabrida qabul qilinib 2021-yilning 1-yanvaridan kuchga kirgan “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 2022-yil 28-oktyabrda qabul qilinib, 2023-yilning 30-aprelidan kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasining yangi Mehnat kodeksi va 2023-yilning 30-aprelida umumxalq ovoz berish yo‘li bilan o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumi asosida qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2025-yil 17-yanvar kuni qabul qilingan “Aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori, 2025-yil 14-fevralda qabul qilingan “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta’minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari kabi hujjatlar muhim rol o‘ynaydi.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi IX-Iqtisodiy, ijtimoiy, madadaniy va ekologik huquqlarga bag‘ishlangan bobining 42, 43 va 44-moddalari bevosita aholi bandligi va mehnat munosabatlarini tartibga solishga bag‘ishlangan. Vaholanki 1992-yilgi

eski tahrirdagi Konstitutsiyaning IX-Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar deb nomlangan bobining 37 va 38-moddalarigina aholi bandligi va mehnat munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan edi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada esa moddalar soni ko‘paytirildi, davr talablariga muvofiq ravishda takomillashtirildi. Jumladan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 43-moddasida “Davlat fuqorolarni bandligini ta’minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek kambag‘allikni qisqartirish borasida chora-tadbirlarni ko‘radi. Davlat fuqorolarni kasbiy tayorgarligini va qaytadan tayorlash ishlarini tashkillashtiradi hamda rag‘batlantirib boradi” – degan qoida mustahkamlab qo‘yilgan[1].

“Aholi bandligi to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni bandlik va mehnat munosabatlari sohasi qonunchilik hujjatlari tizimida muhim o‘rin egallab aholi bandligi va mehnat munosabatlari tartibini belgilaydi. Mamlakatimizda sodir bo‘layotgan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar ma’lum bir tarixiy bosqichda mavjud qonunga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar qilish kerakligini ko‘rsatib keldi. Mustaqillik yillarida xususan 1991-yildan to 2020-yilgacha bo‘lgan davr oralig‘ida aholi bandligi va mehnat munosabatlarini tartibini belgilovchi “Aholi bandligi to‘g‘risida” gi Qonun uch marotaba yangi tahrirda nashr etildi, alohida moddalari davr talablariga muvofiq ravishda takomillashtirildi.

“Aholi bandligi to‘g‘risida” gi qonunga muvofiq, bandlik fuqarolarning qonunchilikda taqiqlanmagan, o‘z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qanoatlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan, ularga ish haqi keltiradigan faoliyatidir [2]. Bandlik nafaqat iqtisodiy farovonlik, balki aholini ijtimoiy himoya qilishning eng muhim jihatidir.

Aholi bandligi demografik, iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lib, aholining munosib daromadga ega bo‘lib, o‘z sog‘ligini saqlash uchun yetarli imkoniyatga ega bo‘lishi, ijtimoiy ishlab chiqarishning usuliga mos keladigan ma’lumot va kasb darajasini egallashini ta’minlanishi bandlikning samaradorligidir. Iqtisodiy islohotlar sharoitida aholining tarmoqlar bo‘yicha bandligi dinamikasi va tarkibida o‘zgarishlar ro‘y berdi: sanoat, qurilish, transport va xizmat ko‘rsatish sohalari aholining bandligi yuqori darajada ta’minlash imkoniyatiga ega sohalar hisoblandi. Jumladan, 1989–2010-yillarda savdo va umumiy ovqatlanishda aholi bandligi 2,6 martaga, sog‘liqni saqlash, sport va aholini ijtimoiy himoyalashda, uy-joy, kommunal xo‘jalikda 1,8, ta’lim, san’at, fan, transport va aloqada bu ko‘rsatkich mos ravishda 1,4 va 1,1 barobarga ko‘paydi. Shu boisdan ham, aynan xizmat xizmat ko‘rsatish sohasida aholi bandligi 1991-yilda 35,6 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2010-yilda 52,4 foizga ko‘tarildi. Savdo, umumiy ovqatlanish va aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish sohalarida jami aholining 13,0 foizi band bo‘lgan holda, ularning 52,2 foizi ayollardan iborat [3].

Dunyoda mehnatga layoqatli 25–54 yoshdagi ayollarning 63 foizi mehnat bozorida ishchi kuchi sifatida ishtirok etadi.

Respublikada 2011-yilning yanvar-noyabr oylarida ayollar uchun Respublika bo‘yicha 457621 ish o‘rinlari yaratilgan[4].

2019-yilda mehnat tashkilotlariga 563 ming kishidan ortiq aholi ish so‘rab murojaat qilgan va ularning yarmidan ko‘prog‘ini 16—30 yoshdagilar, deyarli 2/3 qismini umumiy o‘rta ma’lumotga ega bo‘lganlar tashkil qilgan. Natijada 2019-yilda barcha ish so‘rab murojaat qilgan aholining 78,7 foizini talabi qondirilgan[5].

Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2019-yilda mamlakatda band ayollarning jami bandlardagi eng yuqori ulushi Toshkent shahri (46,7 %), Navoiy (45,6 %), Buxoro (45 %) va Farg‘ona (44,2 %) viloyatlariga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, band erkaklarning eng yuqori ulushi Surxondaryo (65,1 %), Qashqadaryo (61,9 %), Samarqand (61,2%), Jizzax (60,4 %) va Sirdaryo (60,0 %) viloyatlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. 2020-yil yakunida jami band aholi soni 13,2 mln kishini tashkil etib, tarmoqlar bo‘yicha tahlil qilganda, 5 foizi savdo, qurilishda 4,3 foiz, tashish va saqlashda 3,5 foiz, 1,2 foizi sanoat soahalarida bandlik qisqarishi bo‘lgan bo‘lsa, 5,7 foizi sog‘liqni saqlash va ta’limda 2,4 foizi, qishloq xo‘jaligida 0,5 foiz sohalarida bandlik darajasi oshgan.

O‘zbekiston Respublikasida ishsiz fuqarolarning, ayniqsa, xotin-qizlar va mehnat bozoriga ilk bor kirib kelayotgan bitiruvchilarning bandligini ta’minlash va ularni tadbirkorlikka keng jalb

etish, shuningdek, mamlakatda norasmiy bandlikni kamaytirish uchun yangi ta’sirchan mexanizmlar joriy etilgan. Statistik tahlillarga ko‘ra, 2022-yilda doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda jami 6 milliondan ortiq aholining bandligi ta’minlangan. Jumladan, investitsiya loyihalarini amalga oshirish hisobiga 305 ming, qurilishda 139 ming, qishloq xo‘jaligida 3,3 mln, moliya-iqtisod, tadbirkorlik va kambag‘allikni qisqartirish yo‘nalishida 2,6 mln hamda turizm va madaniyat yo‘nalishida 344 ming kishi band bo‘lgan. Ayniqsa, paxta va g‘alladan qisqartirilgan 100 ming gektar yerni ochiq elektron tanlov orqali fuqarolarga ajratib berish hisobiga 1,3 milliondan ortiq kishi ish bilan ta’minlangan.

Ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand aholi muammolari yechimining asosiy qismi bandlikni ta’minlash orqali bo‘lar ekan. Bugungi kunda yangi ish o‘rinlari yaratish, o‘zini-o‘zi band qilish, kasanachilik, uy mehnati, tadbirkorlikni rivojlantirish kabi tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Davlat tomonidan subsidiya va boshqa,oliyaviy yordamlarni ajratish tizimi joriy etilgan bo‘lib, ushbu maqsadlarga har yili140 mingdan ortiq aholiga mablag‘larajratilmoqda. Aholi uchun munosib mehnat sharoitlarini yaratib, ijtimoiy kafolatlarni belgilash orqali ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari ta’minlanmoqda. Joylarda aholining bandligini ta’minlash va ularni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning daromadlarini oshirish bo‘yicha yangi yondoshuvlarni keng joriy etish, mahallalarda aholining ehtiyojmand qatlamlari bilan manzilli ishlashni tashkil etish bilan birgalikda ijtimoiy xizmatlar ko‘lamini kengaytirish, mavjud resurslar va imtiyozlardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali yuqori daromadli ish o‘rinlarini yaratish va kambag‘allikni qisqartirish maqsadida aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta’minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizimiyo‘lga qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasining zamonaviy taraqqiyot bosqichida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalar va institutsional islohotlarning tub ijtimoiy-tarixiy maqsadi — jamiyat farovonligini yuksaltirish hamda fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini yaratishdan iboratdir. Tarixiy tajriba va taraqqiyot qonuniyatlari shuni ko‘rsatadiki, kuchli davlatchilik poydevorini mustahkamlash hamda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash bevosita aholining unumli mehnat bilan bandligi hamda inson kapitalining rivojlanganlik darajasiga bog‘liqdir. Shu bois, davlatning iqtisodiy rivojlantirish doirasida munosib ish o‘rinlarini yaratish va mehnat bozorini tartibga solishning samarali tarixiy-tizimli mexanizmlari joriy etilmoqda. Xususan, aholining xususiy tadbirkorlik va tashabbuskorlik salohiyatini faollashtirish, fuqarolarning moliyaviy, huquqiy va iqtisodiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan maslahat va konsalting institutlarining tashkil etilishi esa jamiyatning modernizatsiyalashuv jarayonlarini tezlashtiruvchi va uni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘taruvchi muhim tarixiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023.–27-bet.
2. https://lex.uz/uz/docs/-5055690
3. Abdalova Z.T., Tojiyeva Z.N.Iqtisodiy geografiya.T.,2013. 126-bet
5. Fond-M-170, ro‘yxat-1,yig‘ma jild-68, 6-varaq
6. Mamajanov M. O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi darslik. — T.: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2019. 88-bet

O‘ZBEKISTON – GERMANIYA HAMKORLIGIDA MEHNAT MIGRATSIYASI VA XALQARO TA’LIM DASTURLARI

Eldor Safarov,
Nizomiy nomidagi O‘zMPU
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston va Germaniya Federativ Respublikasi o‘rtasidagi diplomatik, iqtisodiy va madaniy-ta’limiy hamkorlik aloqalari, xususan, mehnat migratsiyasi sohasidagi munosabatlar tahlil qilingan. Shuningdek, fuqarolarning Germaniyada qonuniy mehnat faoliyatini olib borishi va ta’lim olishini rag‘batlantiruvchi AUPAIR, Ferienjob, Ausbildung va Erasmus+ kabi xalqaro dasturlarning imkoniyatlari hamda ahamiyati batafsil tushuntirib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *dual ta’lim, professional ta’lim, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi, Shengen vizasi, AUPAIR, Ferienjob, Ausbildung, Erasmus+.*

Аннотация. *В данной статье анализируются отношения дипломатического, экономического и культурно-образовательного сотрудничества между Узбекистаном и ФРГ, в частности, в сфере трудовой миграции. В нем также подробно объясняются возможности и важность международных программ, таких как AuPair, ferienjob, Ausbildung udaasmus+, которые поощряют граждан вести легальную трудовую деятельность и получать образование в Германии.*

Ключевые слова: *двойное образование, профессиональное образование, агентство внешней трудовой миграции, шенгенская виза, AuPair, ferienjob, Ausbildung, Erasmus+.*

Abstract. *This article analyzes the relations of diplomatic, economic and cultural-educational cooperation between Uzbekistan and the Federal Republic of Germany, in particular, in the field of labor migration. The possibilities and importance of international programs such as AUPAIR, Ferienjob, Ausbildung and Erasmus+, which encourage citizens to carry out legal labor activities and receive education in Germany, are also explained in detail.*

Key words: *Dual education, professional education, external labor migration agency, Schengen visa, AUPAIR, Ferienjob, Ausbildung, Erasmus+.*

Dunyoning eng yirik iqtisodiyotlaridan biri bo‘lgan Germaniya Federativ Respublikasi bilan O‘zbekiston o‘rtasidagi diplomatik va iqtisodiy aloqalarning jadal rivojlanishi bevosita ikki tomonlama hamkorlikdagi mehnat migratsiyasiga ham bog‘liqdir. Germaniya doimiy ravishda malakali va mehnatga layoqatli ishchi kuchiga muhtoj bo‘lib, ayni paytda O‘zbekiston esa o‘z fuqarolari uchun xorijda qonuniy va munosib mehnat sharoitlarini yaratishga intilmoqda. O‘zbekiston va Germaniya o‘rtasidagi diplomatik aloqalar 1992-yilda o‘rnatilgan bo‘lib, ayniqsa 2016-yildan keyingi davrda ikki tomonlama hamkorlik mehnat migratsiyasi sohasida sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi.

O‘zbekiston va Germaniya o‘rtasidagi munosabatlar, xususan xalqaro akademik mobillik hamda ta’lim sohasidagi hamkorlik masalalari bir qator mahalliy olimlar va mutaxassislar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, D.Abulqosimova o‘z tadqiqotlarida Yevropa Ittifoqi tomonidan taqdim etiladigan Erasmus+ dasturi doirasidagi aloqalarning kengayishi va ushbu dasturning oliy ta’lim tizimidagi integratsiyalashuv jarayonlariga ta’sirini tahlil qilgan. Shuningdek, soha mutaxassisi va mas’ul rahbarlardan biri U.Begimqulov Erasmus dasturining O‘zbekistondagi o‘rni, respublika oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari va talabalarining malakasini oshirish hamda xalqaro aloqalarni tubdan yaxshilashdagi ahamiyatini yoritib bergan.

Ma’lumki, Germaniya Yevropaning eng yirik iqtisodiga ega bo‘lgan davlatdir. Bunday davlat bilan aloqalar har bir davlat uchun manfaatli hisoblanadi. Shuning uchun bu ikki davlat o‘rtasida doimiy aloqalar teng huquqlilik va ochiqlik tamoyillariga asoslanadi. Hozirga kelib ikki

davlat o‘rtasida har tomonlama hamkorlikni rivojlantirish harakatlari jadal suratlarda kengaymoqda. Endi tarixga nazar solsak, Germaniya va O‘zbekiston o‘rtasidagi diplomatik aloqalar 1992-yilda o‘rnatilgan [1]. Germaniya bilan ikki tomonlama aloqalar an’anaviy keng ko‘lamli xarakterga ega bo‘lib, turli sohalar va tarmoqlarni qamrab olgan. Hamkorlikning salmoqli shartnoma-huquqiy bazasi mustaqillikning ilk davrlarida yaratilgan. Germaniya Federativ Respublikasi va O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasida turli, jumladan, oliy darajadagi davlat rahbarlari siyosiy muloqot ishlari azaldan yo‘lga qo‘yilgan. Shu bilan bir qatorda Germaniya ham O‘zbekistonni mintaqadagi asosiy hamkori deb biladi. Birinchidan, mintaqada nufuzini oshirish,ikkinchidan,malakali va arzon mehnat kuchiga ehtiyoj borligi ham buni ishonchlilik darajasini yangi bosqichga olib chiqdi.Shu o‘rinda, Germaniya ikki hududda ham juda faoldir. Ya’ni yirik moliyaviy kompaniyalar orqali O‘zbekiston bozorini egallash,ikkinchi tomondan arzon va malakali kadrlarni Germaniyada keksayib borayotgan aholi ishchi o‘rinlari orqali to‘ldirish. Germaniya va O‘zbekiston Respublikasi munosabatlarini ikki bosqichga bo‘lishimiz mumkin.

- birinchi bosqich: 1992-yildan boshlab 2016-yilgacha bo‘lgan davr
- ikkinchi bosqich: 2016-yildan boshlab hozirgi kunga qadar.

Birinchi bosqichda O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov davrida olib borilgan hamkorlik aloqalari haqida so‘z yuritilsa, ikkinchi bosqichda Yangi O‘zbekiston davridagi sheriklik va hamkorlik ishlari bayon etiladi.

Ikkinchi bosqichda, 2016-yildan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi va Germaniya Federativ Respublikalari o‘rtasida yangi debocha ochildi. Ikki tomonlama hamkorlik aloqalari yangi bosqichda o‘z ishini davom ettirmoqda. Bunda nafaqat O‘zbekiston Respublikasi, balki Markaziy Osiyo respublikalari bilan 5+1 dasturi orqali olib borilmoqda. Bunda nafaqat hamkorlik balki Markaziy Osiyolik fuqarolarni Germaniyadagi katta ishchi o‘rinlariga faol jabl qilishdir. Bunda bir qator Germaniya kompaniyalari o‘zining mablag‘lari evaziga ularni o‘qitish tizimini yo‘lga qo‘ygan. Ularning asosiy e’tibori O‘zbekiston Respublikasining professional ta’lim tizimiga katta investetsiya kiritayotganida yaqqol ko‘zga tashlanmoqda.

Bu maktablar va texnikumlar, yoshlarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish va ularni O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun malakali mutaxassislar sifatida tayyorlashga qaratilgan. Bu esa yana ham keng eshiklarni ochib berdi. 2020-yildan boshlab, migratsiya oqimi juda kengaydi. Bunga sabablardan biri nemis tiliga qaratilayotga e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Buni bir tomondan germaniya tomoni ham moliyalashtirib turgani ikki davlat o‘rtasida munosabatlar qanchalik iliqligini ko‘rsatib berdi. Toshkent shahridagi Gyote Axborot-resurs markazi yana ham katta hissa qo‘shmoqda. Germaniya Federativ respublikasiga ketuvchi har bir fuqaro test imtihonlarini shu dargohda topshirib til talabini bajaradi. Ikkinchi bosqichda Germaniyaga ketish tizimini yanada soddalashtirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Tashqi mehnat migratsiya agentligi tomonidan xorijda.ish platformasi ishlab chiqilgan. Unda har bir fuqaro o‘zining shaxsini tasdiqlochi hujjatlari bilan ro‘yhatdan o‘tish imkoniyatiga ega. O‘zbekiston Respublikasi uchun xorijda ish topish imkoniyatlari taqdim etuvchi bir nechta platformalar mavjud.

Har bir sayt o‘ziga xos imkoniyatlar va xizmatlarni taklif etadi, shuning uchun bir nechtasini sinab ko‘rish tavsiya etiladi. Platforma ishga tushirilgandan so‘ng ishga hujjat topshiruvchilar ancha soni kengaydi. Bundan tashqari ish beruvchi o‘zining qaysi davlatda,qaysi ish turi,qancha soat ishlash, qancha pul to‘lanishi haqida aytib o‘tiladi. Boshqa davlatlardan farqli o‘laroq Germaniya haqida ma’lumot berilganda, unda ishlashni istaydigan migrantlarga soatbay qancha to‘lanishi yozib qo‘yiladi. Berilgan ma’lumotlarga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi va mavsumiy ishlar, mexmonxona xizmatida ishlovchi fuqarolarga 10 va 12 yevro miqdorida pul haqi beriladi va bu haftasiga 40 soatdan oshmaydi [2]. Agarda bu soatdan oshsa qo‘chimcha haq to‘lanishi lozim.

Ikkinchi bosqichda, birinchi bosqichdan farqli jihati Yevropa mamlakatlarida, xususan, Germaniyada ham O‘zbekiston Respublikasiga nisbatan kvota tizimining bekor qilingani bo‘ldi.

Bunda Germaniyaga boruvhi fuqarolarimiz soniga cheklov bekor qilingani hisoblanadi. Endilikda sonidan qat'iy nazar Germaniyaga borishlari huquqiga ega bo'ldilar. Ikkinchi boqich davomida Germaniya Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi ishbilarmon doirasi vakillari bilan mehnat yarmarkalari, konferensiya va yig' ilishlar soni tobora ortib bormoqda.

Hozir esa Germaniyaga ketishga yordam beruvchi va uni rag'batlantiruvchi dasturlar haqida ma'lumotlar keltiramiz. Bularga quyidagilar kiradi: AUPAIR, Ferienjob, Ausbildung, Erasmus.

Erasmus dasturi, rasmiy ravishda Erasmus+ deb ataladi, Yevropa Ittifoqi tomonidan taqdim etiladigan ta'lim va training dasturidir. Ushbu dastur talabalarga, o'qituvchilarga va boshqa ta'lim sohasidagi professionallarga Yevropaning turli mamlakatlarida o'qish, stajirovka qilish va tajriba almashish imkoniyatini beradi. Dastur ishtirokchilari turli madaniyatlar bilan tanishish, yangi do'stlar orttirish va ijtimoiy tarmoqlarni kengaytirish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Erasmus dasturi Yevropa Ittifoqidagi ta'lim tizimini yanada mustahkamlash va global tarbiya jarayonini rivojlantirish maqsadida muhim ahamiyatga ega. Bu dastur O'zbekiston Respublikasiga kirib kelganiga ko'p vaqt bo'lgan. 2004-yildan boshlab amalga oshirila boshlangan Erasmus Mundus (EM) dasturi hamkor davlatlar bilan o'zaro akademik hamkorlik va mobillik munosabatlariga asoslangan [3]. Shundan buyon ,yoshlar va oliy ta'lim tizimida ancha kengaydi.

"Erasmus+" – bu Yevropa Ittifoqining ta'lim, kasbiy ta'lim, yoshlar va sportni rivojlantirishga qaratilgan hamda 2014-2020 yillar uchun mo'ljallangan yangi dastur [4]. Yangi dastur yuqorida ko'rsatilgan sohalar bo'yicha Yevropa Ittifoqining xalqaro hamkorlik dasturlarining eng muvaffaqiyatli dasturlarini, ya'ni Tempus va Erasmus Mundus dasturlarini o'z ichiga qamrab oldi. Hozirgi kunga qadar, ular O'zbekiston oliy ta'limini islohotlashtirish bo'yicha Yevropa Ittifoqining asosiy vositalaridan hisoblanadi.

O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi mehnat migratsiyasi hamda professional ta'lim sohasidagi hamkorlik aloqalari, ayniqsa 2016-yildan keyingi bosqichda sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Kelgusida bu boradagi hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun respublikamizdagi professional ta'lim muassasalarida nemis tilini o'qitish tizimini Germaniya tomoni bilan hamkorlikda moliyalashtirish va Gyote instituti kabi markazlar bilan aloqalarni yanada kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqolada O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi diplomatik, iqtisodiy va madaniy-ta'limiy aloqalar, xususan mehnat migratsiyasi sohasidagi hamkorlik tahlil qilindi. 2016-yildan keyingi bosqichda kvota tizimining bekor qilinishi, "xorijda.ish" platformasining joriy etilishi va AUPAIR, Ferienjob, Ausbildung hamda Erasmus+ kabi xalqaro dasturlarning faollashuvi o'zbek fuqarolarining Germaniyada qonuniy mehnat qilishi va ta'lim olish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Shu bilan birga, nemis tilini o'qitish tizimini rivojlantirish, professional ta'limga Germaniya investitsiyalarini jalb qilish va Erasmus+ dasturidan samarali foydalanish kelgusidagi hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. https://xorijdaish.uz/ - O'zbekiston Respublikasi Migratsiya agentligining rasmiy sahifasi
2. O'zbekiston Respublikasi tashqi mehnat migratsiyasining xorijda.ish platformasi ma'lumotlari (https://xorijdaish.uz/)
3. Abulqosimova D. Erasmus doirasida aloqalar kengaymoqda // "Erasmus in Uzbekistan" jurnali. – Toshkent, 2017-yil
4. Begimkulov U. Erasmus in Uzbekistan. – Tashkent, 2017.

IJTIMOIY TEXNOLOGIYALARNING ZAMONAVIY IJTIMOIY-MADANIY MUHITGA INTEGRATSIYASI

Avazbek Yulchiyev,
Nizomiy nomidagi O‘zMPU
«Ijtimoiy fanlar» kafedrasi o‘qituvchisi
Orcid: https://orcid.org/0009-0006-1255-8847

Annotatsiya. *Mazkur maqola bugungi ijtimoiy-madaniy makonda ijtimoiy texnologiyalar tutgan o‘rin va ularning ahamiyatini tadqiq etishga qaratilgan. Bundan tashqari, ijtimoiy texnologiyalarning ijobiy tomonlari va kamchiliklari, ularni tatbiq etish davrida vujudga keladigan to‘siqlar hamda istiqbolli rivojlanish yo‘nalishlari atroflicha tahlil qilingan.*
Kalit so‘zlar: *ijtimoiy texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli aloqa, virtual muloqot, virtualistika, onlayn hamjamiyat (jamoa)lar.*

Аннотация. *Данная статья направлена на исследование роли и значения социальных технологий в современном социокультурном пространстве. Кроме того, подробно анализируются преимущества и недостатки социальных технологий, препятствия, возникающие при их внедрении, а также перспективные направления развития.*
Ключевые слова: *социальные технологии, социальные сети, цифровая коммуникация, виртуальное общение, виртуалистика, онлайн-сообщество (сообщества).*

Abstract. *This article is aimed at studying the role and significance of social technologies in today's socio-cultural space. In addition, the advantages and disadvantages of social technologies, the obstacles arising in the process of their implementation, as well as promising directions of development are analyzed in detail.*
Keywords: *social technologies, social networks, digital communication, virtual communication, virtualistics, online community (communities).*

Zamonaviy dunyoda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ijtimoiy-madaniy muhitning tubdan o‘zgarishiga olib keldi. Inson faoliyatining barcha sohalariga raqamli texnologiyalarning kirib kelishi nafaqat iqtisodiy va siyosiy tizimlarni, balki kundalik ijtimoiy o‘zaro ta’sir shakllarini ham transformatsiyaga uchratmoqda. Aynan shu jarayonda ijtimoiy texnologiyalar alohida o‘rin egallab, ular jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy loyihalashtirish, fuqarolik tashabbuslari va madaniyatlararo muloqotning samarali vositasi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Ijtimoiy texnologiyalar deganda, ijtimoiy tizimlarni boshqarish, ijtimoiy jarayonlarni optimallashtirish va insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan usul, vosita va mexanizmlar yig‘indisi tushuniladi. So‘nggi yillarda ushbu texnologiyalar ijtimoiy tarmoqlar, raqamli platformalar, onlayn hamjamiyatlar va virtual muloqot vositalari orqali yangi bir sifat bosqichiga ko‘tarildi. Ular endi faqat texnik vositalar majmui emas, balki ijtimoiy-madaniy muhitning ajralmas tarkibiy qismiga aylangan [1].

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, ijtimoiy texnologiyalarning zamonaviy ijtimoiy-madaniy muhitga integratsiyasi jarayoni bugungi kunda ikki yoqlama xususiyat kasb etmoqda. Bir tomondan, ular ijtimoiy jarayonlarni avtomatlashtirish, axborot almashinuvini tezlashtirish, fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish va turli ijtimoiy guruhlar o‘rtasida samarali muloqot o‘rnatish imkonini beradi. Ikkinchi tomondan, raqamli tengsizlik, kibermakonda xavfsizlik muammolari, virtual muloqotning real munosabatlar sifatiga ta’siri kabi salbiy omillar ham yuzaga kelmoqda.

Zamonaviy dunyoda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanishi bilan ijtimoiy munosabatlar ham tubdan o‘zgarib bormoqda. Bugungi kunda insonlar o‘rtasidagi muloqot va o‘zaro ta'sir ko‘p jihatdan virtual maydonda, ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar orqali amalga oshiriladi [2]. Ijtimoiy texnologiyalar deb ataladigan bu vositalar nafaqat

shaxslararo, balki biznes, ta'lim, siyosat kabi sohalarda ham keng qo‘llanilmoqda. Ijtimoiy texnologiyalarning jadal rivojlanishi va ommaviylashuvi esa yangi ijtimoiy-madaniy sharoitni shakllantirmoqda.

Ushbu maqolada ijtimoiy texnologiyalarning zamonaviy jamiyatdagi o‘rni va ta'siri, ularning ijtimoiy-madaniy makon transformatsiyasidagi roli kabi masalalar ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot maqsadi - ijtimoiy texnologiyalarning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash, ularni samarali qo‘llash uchun tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotda ijtimoiy texnologiyalar mavzusidagi ilmiy maqolalar, kitoblar, konferensiya materiallari tahlil qilindi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilari orasida so‘rovnoma o‘tkazildi va natijalar umumlashtirildi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy texnologiyalar mavzusi turli fanlar - sotsiologiya, psixologiya, madaniyatshunoslik, iqtisod nuqtai nazaridan o‘rganilgan. Biroq bu sohada hanuzgacha yaxlit konseptual yondashuv shakllanmagan, empirik tadqiqotlar yetarli emas.

Danah Boyd ijtimoiy tarmoqlarni «tarmoqlangan ommaviy madaniyat» sifatida tavsiflaydi. Uning fikricha, ijtimoiy media insonlarning kundalik hayotiga, o‘zaro munosabatlariga chuqur ta'sir ko‘rsatadi, madaniy qadriyatlar va me'yorlarni o‘zgartiradi. Fuchs esa ijtimoiy tarmoqlarni kapitalizmning yangi shakli sifatida talqin qiladi. Uningcha, ijtimoiy media korporatsiyalari foydalanuvchilar haqidagi ma'lumotlarni o‘z manfaatlari yo‘lida suiste'mol qilishi, bu esa xavfsizlik va maxfiylik bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

So‘rovnoma natijalari ko‘rsatdiki, respondentlarning aksariyati (86%) ijtimoiy tarmoqlardan kundalik hayotida faol foydalanadi. 75% ishtirokchilar ijtimoiy texnologiyalarning muloqot va axborot almashish imkoniyatlarini yuqori baholashgan. Shu bilan birga, respondentlarning 52% ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumotlar ishonchliligi va haqqoniyligiga shubha bildirgan. 33% ishtirokchilar ijtimoiy mediadagi tajovuzkor muloqot, trolling kabi salbiy hodisalardan aziyat chekishini aytgan.

Tadqiqot natijalari ijtimoiy texnologiyalar zamonaviy jamiyatda tobora muhim o‘rin egallab borayotganini ko‘rsatadi. Biroq ushbu texnologiyalarning salbiy ta'sirlarini ham hisobga olish zarur. Bu borada maxfiylik, xavfsizlik va axborot sifati masalalari jiddiy e'tibor talab qiladi.

Ijtimoiy texnologiyalar ko‘plab imkoniyatlar yaratishi bilan birga, bir qator muammolarni ham keltirib chiqaradi. Birinchidan, ijtimoiy media odamlarni yuzma-yuz muloqotdan uzoqlashtirishi, real aloqalarni susaytirishi mumkin. Bundan tashqari, virtual muloqotda his-tuyg‘ularni to‘liq ifodalash qiyin, bu esa tushunmovchiliklar va konfliktlarga olib kelishi mumkin. Ikkinchidan, ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan yolg‘on xabarlar, yolg‘on yangiliklar muammosi global miqyosga chiqdi. Bu esa kishilarning ongi va qarorlariga ta'sir qilishi, jamiyatni qutblashtirib yuborishi mumkin.

Shu bilan birga, ijtimoiy texnologiyalar ta'lim, tibbiyot, tadbirkorlik kabi sohalarda katta imkoniyatlar yaratadi. Masalan, onlayn kurslar eng chekka hududlardagi odamlarga ham sifatli bilim olish imkonini beradi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali tadbirkorlar yangi bozorlarga chiqishi, mijozlar bilan samarali muloqot qilishi mumkin [3]. Muhimi, ijtimoiy texnologiyalardan oqilona foydalanish va salbiy ta'sirlarni minimallashtirish uchun mediasavodxonlikni oshirish, axborot xavfsizligini ta'minlash kabi chora-tadbirlar ko‘rish zarur.

Ijtimoiy texnologiyalarning yana bir muhim jihati - ular orqali yangi ijtimoiy munosabatlar va hamjamiyatlar shakllanayotganidir. Masalan, Facebook, Instagram kabi tarmoqlarda odamlar o‘zlarining qiziqishlari, qadriyatlari, dunyoqarashiga mos keladigan guruh va sahifalarni topib, virtual hamjamiyatlarga birlashmoqda. Bu esa an'anaviy geografik va ijtimoiy chegaralarni yengib o‘tish imkonini beradi. Odam o‘zi haqiqiy hayotda muloqot qila olmaydigan kishilar bilan onlayn aloqa o‘rnatishi, tajriba va bilim almashishi mumkin. Bunday hamjamiyatlar ayniqsa marginal guruhlar, kamchilikni tashkil qiluvchi jamoalar uchun muhim ahamiyatga ega. Ular o‘z manfaatlarini ifoda etish, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, resurslarni birlashtirish uchun platforma topadi.

Biroq virtual hamjamiyatlarning salbiy tomonlari ham mavjud. Ular odamlarni real ijtimoiy aloqalardan uzoqlashtirib, individualizm va begonalashuv kabi holatlarni kuchaytirishi mumkin. Ba'zi onlayn hamjamiyatlar atrofida radikal g‘oyalar, nizo va nafrat guruhlari shakllanishi xavfi ham bor. Shuning uchun virtual hamjamiyatlarning faoliyati va ta'sirini doimiy monitoring qilish, ularning ochiqlik, bag‘rikenglik, konstruktiv muloqot tamoyillariga amal qilishini ta'minlash zarur [4].

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy tadqiqotlar va amaliyotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy texnologiyalar hozirgi jamiyatning tarkibiy jihatdan uzviy va ajralmas unsuriga aylanib ulgurdi. Ushbu texnologiyalar, avvalambor, shaxslararo kommunikatsiya, axborot almashinuvi, bilimlarni egallash hamda tadbirkorlik va iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda mutlaqo yangi shakl va imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Boshqacha aytganda, ijtimoiy platformalar va raqamli vositalar kundalik ijtimoiy-madaniy amaliyotni tubdan o‘zgartirib, jamiyat a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir mexanizmlarini yangi bosqichga olib chiqqan.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlar va empirik kuzatuvlar ijtimoiy medianing salbiy jihatlarga ham egaligini tasdiqlamoqda. Jumladan, virtual muloqotning real ijtimoiy aloqalar sifatiga ta’siri, axborotning tezkor tarqalishi natijasida yuzaga keladigan noto‘g‘ri ma’lumotlar muammosi, kiberbulling, raqamli tengsizlik va shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi bilan bog‘liq xavf-xatarlar ushbu salbiy ta’sirlarning asosiylari hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy texnologiyalar bilan bog‘liq tahdidlarni yumshatish va ularning keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy-psixologik hamda madaniy risklarni bartaraf etish bugungi kunning dolzarb ijtimoiy-siyosiy vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Ushbu muammolarni samarali hal qilishda davlat boshqaruvi organlari, ta’lim tizimi, ommaviy axborot vositalari hamda fuqarolik jamiyati institutlarining o‘zaro uyg‘unlashgan va hamkorlikka asoslangan strategiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, raqamli savodxonlikni oshirish, ommaviy axborot vositalarida axloqiy me’yorlarni mustahkamlash, onlayn muhitda huquqiy mas’uliyatni kuchaytirish va fuqarolarni kiberxavfsizlikka oid bilim bilan ta’minlash bu boradagi ustuvor chora-tadbirlar qatoriga kiradi.

Zero, raqamli texnologiyalar rivojlanishining tashqi determinantlari va jadal sur’atlaridan kelib chiqqan holda, ushbu jarayonni to‘liq to‘xtatib qolish yoki o‘z oldingi holatiga qaytarish imkoniyati mavjud emas. Biroq ijtimoiy texnologiyalardan xavfsiz, mas’uliyatli va strategik jihatdan samarali foydalanishni taminlovchi institutsional mexanizmlarni shakllantirish orqali ularning ijtimoiy-madaniy muhitga integratsiyasidan ijobiy natijalarga erishish va mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarni minimallashtirish real imkoniyatdir. Shu ma’noda, ijtimoiy texnologiyalarni nafaqat texnik vosita, balki madaniy va axloqiy jihatdan boshqariladigan ijtimoiy hodisa sifatida qarash kelajakdagi ilmiy tadqiqotlar va amaliy siyosatning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ismonjonov N., Tillayev B. Ijtimoiy tarmoqlarning jamiyatga funksional bog‘liqligi: axborotlashgan va raqamli jamiyatda manfaatlar to‘qnashuvi. (2025). International Conference on «Current Issues in the Development of Science and Education», 1(2), 147-151.

2. Boyd, D. 2014. It's Complicated: The Social Lives of Networked Teens. New Haven: Yale University Press.

3. Hanna, R., Rohm, A. and Crittenden, V.L. 2011. We're all connected: The power of the social media ecosystem. Business horizons, 54(3), pp.265-273. [Hanna et al, 2011].

4. Полвонниёзова М. Цифровая идентификация и язык онлайн-общения. (2025). Зарубежная лингвистика и лингводидактика, 3(3), 43-48.

SUN'IY INTELLEKT MODELLARI VOSITASIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNI RAQAMLI KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY TAHLILI

Eshimova Feruza Kenjaboyevna,
Jizzax politexnika instituti
Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo'lajak muhandislarning raqamli kompetentligini rivojlantirishda sun'iy intellekt (SI) modellari imkoniyatlarining nazariy asoslari tahlil qilingan. Raqamli transformatsiya sharoitida muhandislik ta'limiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar, raqamli kompetentlikning tarkibiy komponentlari hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi masalalari yoritilgan. Shuningdek, generativ sun'iy intellekt, mashinaviy o'qitish va intellektual ta'lim tizimlari asosida bo'lajak muhandislarning kasbiy va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy jihatlari tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar*: sun'iy intellekt, raqamli kompetentlik, muhandislik ta'limi, generativ SI, raqamli transformatsiya, kasbiy kompetensiya, ta'lim texnologiyalari.*

Аннотация*. В данной статье проанализированы теоретические основы использования моделей искусственного интеллекта (ИИ) для развития цифровой компетентности будущих инженеров. Рассмотрены современные требования, предъявляемые к инженерному образованию в условиях цифровой трансформации, структурные компоненты цифровой компетентности, а также вопросы интеграции технологий искусственного интеллекта в образовательный процесс. Кроме того, исследованы теоретические аспекты развития профессиональных и цифровых компетенций будущих инженеров на основе генеративного искусственного интеллекта, машинного обучения и интеллектуальных образовательных систем.*

Ключевые слова*: искусственный интеллект, цифровая компетентность, инженерное образование, генеративный ИИ, цифровая трансформация, профессиональная компетентность, образовательные технологии.*

Abstract*. This article analyzes the theoretical foundations of the potential of artificial intelligence (AI) models in developing the digital competence of future engineers. The study highlights the modern requirements imposed on engineering education in the context of digital transformation, the structural components of digital competence, and the integration of artificial intelligence technologies into the educational process. Furthermore, the theoretical aspects of developing the professional and digital competencies of future engineers through generative artificial intelligence, machine learning, and intelligent educational systems are examined.*

Keywords*: artificial intelligence, digital competence, engineering education, generative AI, digital transformation, professional competence, educational technologies.*

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.10.2024 yildagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ358-sonli qarorida oliy ta'lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash, muhandislik kadrlarining malaka darajasini oshirish va jahon andozalariga mos ta'lim sifatini ta'minlash borasidagi strategik maqsadlarga erishishda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishni muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon miqyosida raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi va sanoatning Industry 4.0 konsepsiyasi asosida modernizatsiyalashuvi muhandis kadrlarni tayyorlash tizimiga yangi talablarni qo'ymoqda. Zamonaviy muhandis nafaqat texnik bilimlarga, balki raqamli texnologiyalar bilan ishlash, katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish, sun'iy intellekt vositalaridan samarali foydalanish hamda raqamli muhitda innovatsion yechimlar yaratish kompetensiyalariga ega bo'lishi zarur [1].

So'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi ta'lim tizimida yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirdi. Xususan, generativ sun'iy intellekt modellari, intellektual ta'lim platformalari va avtomatlashtirilgan baholash tizimlari talabalarning individual ta'lim

ehtiyojlarini aniqlash va ularni qo‘llab-quvvatlash imkonini bermoqda. Shu sababli bo‘lajak muhandislarning raqamli kompetentligini rivojlantirishda sun’iy intellekt modellaridan foydalanishning nazariy asoslarini tadqiq etish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi [2].

Rivojlangan davlatlar amaliyotida bu texnologiyalar muhandislik dasturlarida adaptiv ta’lim tizimlarini joriy etish, talabalarning individual xususiyatlariga mos o‘qitish metodlarini ishlab chiqish va loyihalash kompetensiyasini zamonaviy vositalar orqali rivojlantirishda muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Technical University of Munich (TUM, Germaniya), Carnegie Mellon universiteti (AQSh) va boshqa nufuzli ta’lim muassasalari o‘z dasturlarida generativ sun’iy intellekt vositalarini muhandislik loyihasini o‘qitishda faol qo‘llayapti [3].

Maqolaning maqsadi – sun’iy intellekt muhitida bo‘lajak muhandislarning raqamli kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha nazariy tahlillarni izlash va ularni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot davomida mazkur jarayonni to‘liq yoritish maqsadida nazariy manbalar tahlil qilinib, amaliy jihatlari yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Raqamli kompetentlik tushunchasi dastlab axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish ko‘nikmalari sifatida talqin etilgan bo‘lsa, keyinchalik uning mazmuni kengayib, raqamli axborotni yaratish, qayta ishlash, tahlil qilish va xavfsiz boshqarish qobiliyatlarini ham qamrab oldi. Tadqiqotchilar sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’limga integratsiyasi o‘quv jarayonini individuallashtirish, o‘quv natijalarini monitoring qilish va adaptiv ta’lim muhitini yaratishga xizmat qilishini ta’kidlaydilar. Generativ SI modellari talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, murakkab texnik masalalarni tushuntirish va loyihaviy faoliyatni tashkil etishda samarali vosita sifatida qaralmoqda.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim sohasiga joriy etilishi ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, R. Luckin, W. Holmes, R.Puentedura va G.Siemenslar SI asosidagi adaptiv o‘qitish tizimlari talabalarning individual ehtiyojlariga moslashish imkonini berishini ta’kidlaydilar [4]. O‘zbekistonlik olimlardan J.Hamidov, O.Abdullayeva, Sh.Xudoyberdiyev, va boshqalar raqamli ta’lim muhitida pedagogik texnologiyalarni joriy etish masalalarini chuqur yoritgan.

Dunyo bo‘ylab ta’lim muassasalari turli ehtiyojlar, bilim darajalari va o‘rganish uslublariga ega bo‘lgan talabalar sonining ortib borishi bilan bog‘liq muammolarga duch kelar ekan, sun’iy intellekt asosidagi shaxsiylashtirilgan ta’lim tizimlari ta’lim samaradorligini oshirish, shu bilan birga uning ommaviyligi va qulayligini saqlab qolishning istiqbolli yechimi sifatida katta e’tibor qozonmoqda.

G.Siemens tomonidan yozilgan “Ta’limda sun’iy intellekt o‘qitish va o‘rganish uchun imkoniyatlar va oqibatlar” nomli tadqiqotda sun’iy intellektning shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvlarini yaratish va ta’lim samaradorligini oshirishdagi roli alohida ta’kidlanadi. Ushbu tadqiqotda adaptiv ta’lim tizimlarining ta’limdagi ahamiyati hamda sun’iy intellekt yordamida o‘qitishda interaktivlikni oshirish usullari muhokama qilingan.

J.Hamidovning ilmiy ishlarida ta’lim berish jarayonida raqamli ta’lim muhitidan foydalanish o‘quvchilarning darslarga faol ishtirokini ta’minlaydi, bu esa o‘qitishning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu texnologiyalar o‘quvchilarga nafaqat ma’lumotni olish, balki o‘z bilimlarini amalda qo‘llash imkoniyatini ham beradi degan fikrlarni ilgari suradi.

Muhokama va natijalar. Bo‘lajak muhandislarga kasbiy faoliyatga tayyorlashda Sun’iy intellekt modellaridan foydalanish bugungi kunda ta’lim jarayonini faol ravishda takomillashtirmoqda. Sun’iy intellektni modellarini muhandislik fanlariga integratsiya qilish orqali o‘qituvchilar ta’limni shaxsga moslashtirish, vazifalarni soddalashtirish hamda talabalarga yanada samarali yordam ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Ta’lim jarayoniga sun’y intelekt modellari va texnologiyalarni integratsiya qilish maqsadida Ruben R. Puentedura [5] tomonidan SAMR modeli yaratilgan. SAMR modeli texnik kompetensiyadan ko‘ra ko‘proq fikrlash tarziga asoslangan. Bu model texnologiya yordamida o‘qitish va o‘rganishamalga oshiriladigan “suzish havzasi”ga o‘xshaydi.

Sun’iy intellekt vositalari asosida raqamli kompetentlikni rivojlantirish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi: 1-rasm.

1-rasm. Sun’iy intellekt vositalari asosida raqamli kompetentlikni rivojlantirish

Nazariy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt modellari bo‘lajak muhandislarning raqamli kompetentligini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Ular o‘quv jarayonini individuallashtirish, mustaqil ta’lim faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi. SI vositalari yordamida talabalarda analitik fikrlash, kreativ yondashuv, muammolarni hal qilish va innovatsion faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Bu esa zamonaviy mehnat bozori talablariga mos raqobatbardosh muhandislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Xulosa. Sun’iy intellekt modellaridan foydalanish bo‘lajak muhandislarning raqamli kompetentligini rivojlantirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, generativ sun’iy intellekt, mashinaviy o‘qitish algoritmlari va intellektual ta’lim tizimlari muhandislik ta’limining sifatini oshirishga, ta’lim jarayonini shaxsiylashtirishga hamda talabalarni raqamli iqtisodiyot sharoitida kasbiy faoliyatga tayyorlashga xizmat qiladi. Kelgusida sun’iy intellekt asosidagi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Eshimova F. Sun’iy intellekt modellari vositasida bo‘lajak muhandislarni raqamli kompetentligini rivojlantirishning metodologik imkoniyatlari. Ilm-fan va texnologiyalar. 2026 №1 (1)

2. Xudoyberdiyev Sh. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021.

3. Raxmonov.I. Sun’iy intellekt davrida bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari. "Ta’lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali 2026-yil 2-son

4. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L. B. (2016). Intelligence unleashed: An argument for AI in education. London: Pearson.

5. Puentedura R. "Learning technology and the SAMR model: Goals, process, andprectise" Society for Information Technology & Teacher Education International Conference, Mar 05, 2017, 2.

АРХЕОЛОГИЯДА КУЛОЛЧИЛИК ТЕХНОЛОГИЯСИНИ ЎРГАНИШ ТАРИХИ ВА МЕТОДОЛОГИЯСИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ

Гулчехра Муминова,
Жиззах давлат
педагогика университети
т.ф.ф.д (PhD)

Аннотация. *Ушбу мақолада кулолчилик буюмларини қадимги жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий, этник-маданий ва технологик ҳаётини тиклаб берувчи кўп қиррали археологик манба сифатида ўрганишнинг назарий-услубий асослари таҳлил қилинган.*

Калит сўзлар: *археологик манба, сопол кулолчилиги, технологик таҳлил, визуал баҳолаш, табиий-илмий методлар, экспериментал археология, Ўрта Осиё кулолчилиги.*

Аннотация. *В данной статье анализируются теоретико-методологические основы изучения керамических изделий как многогранного археологического источника, реконструирующего социально-экономическую, этнокультурную и технологическую жизнь древнего общества.*

Ключевые слова: *археологический источник, древнее гончарство, технологический анализ, визуальная оценка, естественно-научные методы, экспериментальная археология, керамика Средней Азии.*

Abstract. *This article analyzes the theoretical and methodological foundations of studying pottery as a multifaceted archaeological source that reflects the socio-economic, ethno-cultural, and technological aspects of ancient societies*

Keywords: *archaeological source, ancient pottery, technological analysis, visual assessment, natural-scientific methods, experimental archaeology, Central Asian ceramics.*

Археологик топилмаларнинг тоифаларидан бири сифатида кулоллик буюмлари нафақат қадимги ижтимоий-иқтисодий институт сифатида, балки кулолчиликни – оила ва никоҳ муносабатлари, этник-маданий алоқалар, мафкуравий ғоялар, технологик ривожланиш даражаси ҳақида маълумотни ўз ичига олган кўп қиррали, маълумотлар манбаи десак адашмаган бўламиз.

Археологлар сопол манбалардан ушбу маълумотларни олиш ва қадимги кулолчилик тизимини ёки унинг элементларини тиклаш учун инсон фаолиятининг турли соҳаларига оид қуйидаги билимларга эга бўлиши керак: технологик (лойнинг хусусиятлари, қўшимчалари, лой билан ишлаш тажрибаси, қолиплаш, қуйиш, асбоблар ва уларнинг хусусиятлари), санъат тарихи (симметрия ва композиция асослари, стилистик ва семантик нақшлар, ҳаракат қобилиятлари ва нақшларни қўллаш усуллари, лойдан бошқа материаллар орасидаги фарқ ва бошқалар), маданиятшунослик (кулолчиликни узатиш усуллари), маълумотлар уни ўзлаштириш ва қайта кўриб чиқиш усуллари, семантикаси, тарқатиш механизмлари кулолчилик услубларининг эмпирик нақшлари, янги шаклларнинг ривожланиш босқичлари, этник ўзига хослик), ижтимоий-иқтисодий (идишларнинг функциялари, фойдаланиш нормалари, идиш турларининг турларига боғлиқлиги. иқтисодиёт, кулолчилик фаолиятининг анъанавий ва бозор механизмлари, кулолчиликда оила ва уруғ муносабатлари ва бошқалар), археологик (кулолчилик буюмларининг утилизацияси, унинг маданий қатламда пайдо бўлиш механизмлари, вақт ўтиши билан ўзгариши, бузилиш омиллари)[1]. Бу соҳаларнинг ҳар бири археология муаммоларига таҳлил усуллари ва алгоритмларини ишлаб чиқиш ва мослаштиришни, уларнинг эвристик имкониятларини текширишни, сопол манбашунослигида назарий масалаларини ишлаб чиқишни талаб қилади.

Кулолчилик технологияси, бошқа тадқиқот соҳаси каби, технологик маълумотларнинг ўзига хослиги сабабли, яхлит, табиий ва ижтимоий омиллар (объектив табиат) билан бир вақтда боғлиқ бўлган аниқ тадқиқотга муҳтож.

Сополларни ўрганиш технологияси мавзусига биринчилардан бўлиб рус археологи П.А. Путятин қўл урган. У қишлоқ яқинидаги олиб борилган қазишмалар натижасида Бологое кулолчилик тўпламини очди, 1884 йилда Одессадаги Археологик Конгрессда қилган маърузасида ҳар томонлама тавсифлашга ҳаракат қилганлигини унинг маърузасидан кўришимиз мумкин. П.А. Путятин нафақат идишни тайёрлашнинг индивидуал усуллари ва усубларини айтиб ўтди, балки уларни тушунтиришга ҳам ҳаракат қилди. Масалан, унинг фикрига кўра, лойга қум каби аралашманинг қўшилиши нафақат "хом ашё массасига қаттиқлик бериш, балки идишларни тез ёқишни осонлаштириш учун ҳам мўлжалланган эди. Қум оловда пастроқ ҳароратда ёндирилди"[2]. Унинг "тасма" билан ўраш, боғлаш ва ҳоказо кўринишидаги идишларни шакллантириш бўйича баъзи кузатишлари жуда қизиқарли бўлиб; териларда, мустаҳкам асосда ва бошқа қолипларда намоён бўлади. У биринчи марта абразив техникасини таърифлаб, "юзаси порлаши қийин бўлган нарса билан ишқаланган идишларни "ялтироқ" деб таснифлади.

Путятин П.А ўз асарларида нафақат трасеологик таҳлил натижалари бўйича (замонавий терминологияда), балки томирларни ишлаб чиқариш бўйича оммавий тажрибалар ёрдамида ҳам ёзилган. У Қадимги безакларга тақлид қилиб, тош ва суяк асбоблардан кенг фойдаланган, уларнинг таассуротларини сопол буюмлардаги таассуротлар билан таққослаган. Бироқ, шунга ўхшаш мавзулар бўйича илмий соҳада олиб борилган ишлар асосан тасодифий характерга эга бўлиб, жуда кам сонли археологлар, жумладан В.А. Городцов, Б.Е. Петри, А.А. Спицин ва В.И. Каменский асарларида кўришимиз мумкин.

В.А.Городцовнинг "Русская доисторическая керамика" асари, шубҳасиз, кулолчиликнинг технологик хусусиятларини тизимли тавсифлаш соҳасидаги етакчи манба бўлиб хизмат қилади. 1922 йилда В.А. Городцов ўз мақолаларида сопол идишларни шакллантириш билан боғлиқ бир қатор тажрибаларни нашр этди. Шарқий Европа кулолчилигида у моделларда қолиплашнинг учта усулини аниқлади. Янги (экспериментал) ёндашувга қарамай, унинг иши асосан назарий ва услубий хусусиятга эга бўлди, чунки идишларни мустаҳкам асосда шакллантиришнинг ҳақиқий ва аниқ далилларини исботлаб берди. Умуман олганда, муаллиф томонидан эълон қилинган кўплаб технологик деталларни ажратиш усули В.А. Городцовнинг илмий изланишлари ўша вақт учун истиқболли бўлиб, кулолчилик жараёнини ўрганишнинг кейинги йўлларини белгилаб берди.

Сополнинг технологик таҳлили методологиясига М.В. Воеводский ҳам ўзининг муҳим ҳиссасини қўшди, у ўзининг илмий изланишларида сопол ишлаб чиқаришни босқичма-босқич кўриб чиқди: қолиплаш массаси, қолиплаш, сиртга ишлов бериш, безак ва пиширишни[3].

Сопол ишлаб чиқариш технологиялари М.В. Воеводскийнинг илмий мақолалари узоқ вақт давомида археологлар учун етакчи услубий қўлланма бўлиб хизмат қилган.

Сопол буюмлар катта ҳажмдаги маълумотларга эга бўлиб, биринчи навбатда визуал равишда баҳоланиши мумкин бўлган изларда акс этади (релеф, ёриқлар, бўғинлар ва бошқалар). Бу жиҳатдан сопол идишлар технологик хусусиятларни ташқи визуал баҳолаш техникасидаги биринчи йўналишнинг манбаи бўлади. Бинокуляр микроскопдан ҳамда физик моделлаштириш техникасидан фойдаланган ҳолда, хусусиятларни аниқлашнинг экспериментал мос ёзувлар тизимидан кенг фойдаланилган.

Кейинги йўналиш ўрганиш объекти Ўрта Осиё кулолчилиги бўлган, ташқи хусусиятларнинг ахборот мазмуни жуда чекланган бўлган яна бир йўналиш табиий фанлар усулларидан фойдаланган ҳолда чуқур инструментал таҳлил қилишнинг услубий усулларини ишлаб чиқади. Ушбу йўналишларнинг ҳар бири ўзининг ижобий ва салбий

томонларига эга. Визуал технологик баҳолаш усули ўзининг соддалиги туфайли археологлар томонидан жуда кенг қўлланилади, аммо таҳлил қилишнинг аниқ услубий усуллари ва тахминларини оммавий экспериментал текширишнинг йўқлиги сабабли уни қўллаш натижалари субъектив характерга эга. Тўғри баҳолаш эҳтимолининг юқори даражаси. Ўзининг умумий монографиясида А.А. Бобринский техник ва технологик таҳлил тизими ҳақидаги ғояларни тартибга солишга ҳаракат қилди, Шарқий Европа кулолчилик материалларидан фойдаланган ҳолда технологик жараённи қайта қуриш усулидан фойдаланишнинг реал имкониятларини кўрсатди. Унинг фаолияти визуал-технологик баҳолаш усулларини ривожлантиришда янги босқични англатади[4]. Ушбу йўналишнинг ривожланишига С.А. Семеновнинг умумлаштирувчи монографияси ҳам катта ҳисса қўшган. С.А. Семенова ва Г.Ф. Коробковалар сопол буюмлар ишлаб чиқариш бўйича кўп йиллик экспериментал ишларнинг натижаларини тақдим этади[5]. Ушбу илмий изланишларнинг аҳамияти, улардаги методология масалалари махсус таҳлил мавзусига айланганлиги, ўтказилган тажрибаларнинг кенг қўламлилиги ва археологлар доираси учун аниқ тавсиялар ишлаб чиқилганлигидадир.

Иккинчи йўналиш, инкор етиб бўлмайдиган афзалликлари билан бир қаторда, биринчи навбатда, археологияда табиатшунослик усулларини кенг қўллашнинг имкони йўқлиги билан боғлиқ бўлган жиддий камчиликларга ҳам эга. Методологиянинг мураккаблиги ва мутахассисларнинг етишмаслиги табиатшунослик усулларидан тасодифий ва тизимсиз фойдаланишга олиб келади. Бундай методологик усулларнинг механизмлари умумлаштирилмаган ва археологларнинг кенг доирасига ошкор этилмаган, улар олий таълим муассасаларида ўрганиш мавзусига айланмаган. Бундан ташқари, табиий фанлар усулларидан фойдаланиш ушбу фанларнинг махсус тилидан маълумотларни археология ва тарих тилига таржима қилишнинг ўзига хос хусусиятлари билан мураккаблашади.

Шундай қилиб, кулолчиликда ўрганишнинг ушбу икки йўналиши деярли бир-бирига мос келмасдан, асосан яккаликда ривожланмоқда. Тадқиқот мақсадларини аниқ ифодалаш ва таҳлил қилиш усуллари ва услубларини тўғри танлаш билан қўлланиладиган сополларни ўрганишни талқин қилиш имкониятларини сезиларли даражада кенгайтиради. Бунда экспериментал усуллар алоҳида рол ўйнайди, улар сопол ишлаб чиқариш ҳақида энг эсда қоларли, объект-сенсорли маълумотни (тажриба) беради.

Экспериментал петрография махсус табиий илмий маълумотларни тарихий фанларнинг ўзига хос хусусиятларига мослаштирадиган соҳа сифатида муҳим имкониятга эга. Кўриниб турибдики, археологиядаги методологик ишланмалар кенг экспериментал базага эга бўлган археологик ва метаархеологик муаммоларни ўз ичига олган махсус фан соҳасига айланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. И.Г.Глушков. Керамика как археологический источник. Новосибирск. 1996г. 3-5 стр

2. П.А. Путятин. Орнементация древнего гончарство//Тр. VI археолог. Съезда в Одессе в 1884г – Одесса, 1886.- Т.1.-С. 72-85

3. Н.В.Воеводский. К изучению гончарной техники первобытно – коммунистического общества на территории лесной зоны европейской части РСФСР//СА.- 1936.-№1.-С.51-77

4. Боринский А.А. Гончарство Восточный Европы. -М., 1978. -172 с

5. Семенов С.А. Коробкова Г.Ф. Технология древнейших производств.-Л. 1983.-255 с

SAYID OTALIQ MADRASASI – DENOV BEKLIGI ME'MORCHILIGINING NODIR NAMUNASI

Shuxrat Allamuratov,
Nizomiy nomidagi O'zMPU dotsenti,
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Orcid: 0009-0006-6815-9319

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Surxondaryo vohasining qadimiy shaharlaridan biri – Denovdagi Sayid Otaliq madrasasining qurilish tarixi, me'moriy xususiyatlari va uning Denov bekligi me'morchiligidagi o'rni tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *naqshbandiya tariqati, jo'yboriy xojalari, Sayid Otaliq madrasasi, «qo'sh» uslubi, xonaqoh.*

Аннотация. *В данной статье анализируются история строительства, архитектурные особенности и место медресе Саид Аталык в Денау – одном из древних городов Сурхандарьинского оазиса – в архитектуре Денауского бекства.*

Ключевые слова: *учение Накшбандия, джуйбарские ходжи, медресе Саид Аталык, стиль «куш» (парный), ханака*

Abstract. *This article analyzes the construction history, architectural features, and place of the Sayid Otaliq madrasa in Denov – one of the ancient cities of the Surkhandarya oasis – within the architecture of the Denov bekdom.*

Key words: *Naqshbandiya order, Joybori khojas, Sayid Otaliq madrasa, "qosh" (paired) style, khanaqah.*

Yurtimizdagi ma'naviyat va ma'rifat dargohi bo'lmish madrasalar hamma joyda bo'lgani o'sha hududning ham faxri, madaniy tarixining ajralmas qismi hisoblanadi. Negaki madrasalarda nafaqat tarixiy shaxslar, ayni mahalda xalqning ma'rifatga intilishining ifodasidir. Surxon vohasi tarixiy obidalari silsilasida Denov shahridagi Sayyid otaliq madrasasi Denov bekligi madaniy hayotida muhim o'rin tutgan.

Madrasaning qurilish tarixiga oid turli qarashlar mavjud. Dastlabkisi, ayrim tadqiqotchilar Said otaliq madrasasini Xoja Alouddin Attor avlodlari tomonidan bunyod etilgani qayd etishadi. Unda Movarounnahrlik tasavvuf avliyo Bahouddin Naqshbandning xalfasi bo'lgan – Shayx Alouddin Attor Valiy hamda uning avlodlari bog'lashadi. Muhammad Forsoniy «Maqomoti Shayx Alouddin Attor» manoqibida yozishicha, Shayx Alouddin Attor Valiy Bahouddin Naqshbandiyning kuyovi ekan. Bahouddin Naqshband vafotidan (1389-yil) keyin naqshbandiya tariqatini Hisori Shodmon viloyatiga yoyish maqsadida Denovga kelib qolgan. Shu tariqa, Shayx Alouddin Attor Denovda jami 22 yil yashagan. Shayx Alouddin Attor hijriy 802-yil 20 rajab oyida (milodiy 1400-yil 18-martda) Denovda vafot etgan. Qabri ham shu yerda. Shayx Attor Valiy tiriklik vaqtida «Kimki meni yaxshi ko'rsa, ostonamdan joy olsin» degan ekanlar. Shunday qilib, hozirda Denovdagi eng katta qabriston «Shayx Attor Valiy» yoki «Ostonabova» deb ataladi. Qabristonga Shayx Alouddin Attorning keyingi avlodlari ham dafn etilgan. Jumladan, ul zotning o'g'li Shayx Hasan Attor Valiy va nevarasi Xoja Yusuf Attordir [1]. Saloh ibn Muborak al-Buxoriyning «Anis at-tolibiyn» asarida yozilishicha, Bahouddin Naqshband vafotidan keyin murshidlik o'rniga Shayx Alouddin Attor o'tirganligi va uning huzuriga muxlislar kela boshlaganligi ta'kidlab o'tilgan [2].

Xoja Alouddin Attor vafotidan keyin u kishining avlodlari naqshbandiya tariqatini davom ettirganlar. Jumladan, o'g'li Xoja Hasan Attor Movarounnahr va Xuroson tasavvuf ahli orasida mashhur bo'lgan. Faxriddin Ali Safiy "Rashahotu aynil hayot" asarida u kishini "Otasining valiylik daraxti samarasi" deb ta'riflaydi. Temuriy hukmdor Shohruh Mirzo Xoja Hasan Attorni juda hurmat qilgan. Manbalarda yozilishicha, bir gal olimni shaxsan peshvoz chiqib kutib olgan va unga bedov ot sovg'a qilgan [3].

1995-yilda Denovlik tarixchi va yozuvchi Nasriddin Ismoilovning «Denov taronasi» nomli kitobida Denovdagi Sayyid otaliq madrasasi Shayx Alouddin Attorning o‘g‘li Xoja Hasan va nevarasi Xoja Yusuf tomonidan 26 yil davomida qurilgan, Shayx, Alouddin Attorga bag‘ishlangan yodgorlikdir deb yozadi. Yuqoridagi fikrga tayanilsa, Denovdagi Sayyid otaliq madrasasi binosi qurilishi XV asr o‘rtalariga, binobarin, 1440-1450-yillarga, ya’ni Xoja Hasan va Xoja Yusuf yashagan davrga to‘g‘ri keladi. Buning haqiqatdan yiroqligi quyiroqda tahlil etiladi.

Shuningdek, mahalliy aholi orasida madrasa binosi XIX asrning o‘rtalarida Abdulkarim dodxoh hukmronlik qilgan davrda qurdirilgan fikr ham mavjud. Denov beklari tomonidan amalga oshirilgan ishlar N.A.Mayevning kitobida quyidagicha tilga olinadi. “Denov Osiyoga xos arxitektura qurilishlari va bozori sharqona usulda bo‘lib, ko‘chalarida kichik choyxonalar joylashgan, har qadamda go‘sht sotiladi. Shaharda Denov begi Abdulkarim tomonidan qurilgan ikkita madrasa faoliyat ko‘rsatadi”. Bu fikrlar umuman asossizligi Mahmud ibn Valining XVII asrda yozilgan «Bahr ul-olam» kitobida Denovda ikkita madrasa binosi mavjud ekanligi qayd etilishi bilan ham isbotlanadi.

Biz to‘xtalmoqchi bo‘lgan asosiy fikr quyidagicha. 1988-yil iyul oyida arxitektor T.F.Jukova «O‘zbekiston arxitekturasi va qurilishi» jurnalida quyidagilarni chop etgandi: «Denovdagi madrasa binosi XVII asr tarixiy obidasidir. Bu madrasaning qurilishi Buxoro jo‘yboriy xojalari bilan bog‘liq. Jo‘yboriy xojalariga Buxoro xonlari doimo katta iltifot ko‘rsatib kelishgan. Ular jo‘yboriy shayxlariga yerlar, pul, qimmatbaho sovg‘alar berib, iloji boricha ular bilan qarindoshlik rishtalarini bog‘lashga harakat qilgani ma’lum. Ana shundaylardan biri ashtarxoniylardan Imomqulixon (1611-1642) Buxoro taxtiga o‘tirgach, singlisini Tojiddin Xoja Hasan Jo‘yboriyga nikohlab beradi va unga in’om sifatida Buxorodagi Pirmast va Hisordagi Denov yerlarini muhrlab tortiq etadi. Shuningdek, 20 ming tanga, bir qancha tuya, ot uyurlari in’om etadi. Hukmdor in’om etgan yerlar jo‘yboriylar tomonidan mustaqil boshqarilgan va bu yer egalariga «otaliq» maqomi berilgan. Tojiddin Xoja Hasan Jo‘yboriy o‘z mablag‘i evaziga Denovda ikkita madrasa qurdiradi. Tojiddin payg‘ambarzodalar avlodiga mansub bo‘lganligi tufayli el orasida sayyid unvoniga ega edi. Shu sababdan madrasa uning nomi bilan Sayyid otaliq nomi bilan atalgan va u 1612-1628-yillar davomida qurib bitkazilgan».

Tojiddin Xoja Hasan Jo‘yboriy Naqshbandiya tariqatini mukammal bilgan, unga ixlosi baland shayxlardan edi. Shu sababli Denov zamini unga in’om qilingach, mahalliy xalq orasida Naqshbandiya tariqatini yoyish maqsadida madrasa qurgan bo‘lishi ehtimoldan yiroq emas. Mahalliy xalq madrasa qurilishini Naqshbandiya tariqati bilan bog‘lashi asosida Shayx Alouddin Attor Valiy varianti kelib chiqqan. Darhaqiqat, Ashtarxoniylar davlatida ham xuddi Shayboniylar davlatidagi kabi poytaxt Buxoro yaqinidagi Jo‘ybor qishlog‘idan chiqqan Jo‘ybor xojalari katta ta’sirga ega edi. Buxoro xonligini Imomqulixon boshqargan, o‘zidan oldingi hukmdorlardan farqli o‘laroq, mamlakatda hukm surayotgan feodal urushlarga chek qo‘yishga va markaziy hokimiyatni mustahkamlashga erishgan edi. Umuman, tarixchilar Imomqulixon davrida mamlakatda osoyishtalik va farovonlik bo‘ldi, shaharlar va qishloqlar ravnaq topdi, deya e’tirof etishadi. Tabiiyki, Surxon vohasining Denov shahrida ham ma’rifiy va madaniy hayot izga tushgan, madrasa qurishga ehtiyoj tug‘ilgan edi.

Madrasa qurilishiga Denovning markazi tanlanganligi ham bejiz emas. Bu joy o‘zining ob-havosi, suvi bilan boshqa joylarga nisbatan har tomonlama qulay edi. Madrasaning g‘ishtlari Zahartepa qishlog‘i tuprog‘idan olingan, g‘ishtlari o‘sha joyda mavjud bo‘lgan katta g‘isht pishiriladigan xumdonlarda pishirilgan. Madrasa qurilishida Buxoro madrasalariga xos uslub qo‘llangan. Madrasa poydevorining chuqurligi 5,5 metr, unga bir necha qator qamish to‘shalib, pishgan g‘ishtlar bilan alohida usulda terib chiqilgan. Madrasa “qo‘sh” shaklida, ya’ni ikki bino fasadi bir-biriga qarama-qarshi qurilgan. Birinchisi - saqlangan madrasa binosi, ikkinchisi - xonaqoh binosi, Ikkala inshoot o‘rtasidan o‘tgan yo‘l Denov begi qo‘rg‘oniga olib borgan.

Me’moriy inshootlarning bu uslubda qurilishi XVI – XVIII asrlar uslubiga xosdir. Sayyid otaliq madrasasi va xonaqoh qurilishining o‘ziga xosligi shundaki, madrasa shimoldan janubga

yo‘naltirilgan. Bu holatda, birinchidan, madrasa ichidagi masjidning qibla tomoni (mehrobi) tashqi devorga taqaladi. Ikkinchidan, shu holatda joylashtirilsa, iqtisodiy jihatdan kamxarajat, hujralar sonini ko‘paytirish mumkin. Hujralarning asosiy qismi (80 foizi) kirish va deraza tomonlari qiblaga yo‘naltirilgan. Bu esa islom amallarini bajarishga sharoit yaratib beradi. Madrasaning umumiy maydoni 46 x 64 metr. hovlisining maydoni 40 x 29.5 metr bo‘lib 114 hujradan iborat. Birinchi qavatdagi hujralar – 4.75X 2.75, ikkinchi qavatdagilari – 2.75 x 2.25 metr o‘lchovda qurilgan. Madrasa binosini usta Ahmad Muhammad Buxoriy qurgan. Madrasa 114 hujradan iborat. Madrasa hujralari soni Qur’oni karim suralari soniga qiyos qilingani bilan ham diqqatga sazovordir.

Sayyid otaliq madrasasida avval sakkizqirrali ustun bilan yopilgan ayvonga kirasiz, so‘ngra chap va o‘ng tarafda «П» shaklda yopilgan gumbazli masjid va miyonsaroy (darsxonaga) o‘tasiz. Hujralarning har birida o‘t yoqish uchun olovxona, ikkinchi qavatida har bir hujrada ko‘chaga qaragan balkon va arkdan iborat bezak berilgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, madrasada 400 ga yaqin talaba tahsil olib, talabalarga 33 ta mudarris saboq bergan.

Sayyid otaliq madrasasi Chor Rossiya zulmi, keyinchalik sovet hokimiyati davrida qurilish ashyolari boshqa maqsadlarda ishlatilganligi sababli ko‘p ziyon ko‘rdi. Milliy istiqlolchilarga qarshi kurash vaqtida madrasa binosidan qizil askarlar shtab va zindon sifatida foydalanishgan. Safdoshlardan qaysi biri vafot etgan bo‘lsa, madrasa tepasida dafn etib yodgorlik o‘rnatishgan. Xonaqoh binosi 1929-1934-yillarda buzib tashlangan. Sababi, g‘ishtlari boshqa binolarni tiklashga ishlatib yuborilgan. Oqibatda xonaqoh g‘ishtlari xalq ta’lim bo‘limi, prokuratura, mehmonxona, militsiya binosi, raykom, temiryo‘l polikninikasi, maktab binosini qurishga ishlatilgan. Ma’lum qismi bozordan temir yo‘lgacha masofada yo‘lakcha sifatida terib chiqilgan. Negaki Denov botqoqlik, zax yerlardan hisoblanadi [1]. Xonaqoh binosi buzilgach, bozor o‘rni o‘zgartirilib qo‘rg‘onga boradigan yo‘l yopilib, uy-joylar qurib tashlandi. Bu bilan XVI-XVII asr shaharsozlik uslubi buzildi, madrasa va Denov begi qo‘rg‘oni bir-biridan ajratildi. Mahobatli Registon shaklidagi ansambl shu tariqa yo‘q qilindi.

Xalq nazaridan uzoqlashtirish maqsadida atayin madrasa atrofi do‘konlar bilan to‘sib olinib, yopiq holatda saqlangan. Keyinchalik madrasa binosidan Ixtiyoriy harbiy-vatanparvarlik tashkiloti (DOSAAF) idorasi, dorixona, arxiv sifatida foydalanishgan. Ko‘chib kelib, joy topolmagan Yevropa xalqlari vakillarini oilasi bilan hujralarga joylashtirganlar. Ular hujralar ichida olov yoqib, taom pishirishgan. Oqibatda hujralar devorlari qop-qora kukunga burkanib, devorlar yaroqsiz holga kelib qolgan. Shuningdek, kolxoz mashinalari uchun garaj, rassomlar ustaxonasi sifatida ham foydalanilgan. Old peshtoq nurab ketgan, orqa peshtoqning yarmi nuragan, hovli, hujralar ichida axlatga to‘la bir ahvolda bo‘lgan. O‘rtadagi hovuz, jumladan, Denov begi qo‘rg‘oni bilan tutashtiruvchi yerosti yo‘li (lahm) ko‘mib tashlangan. Madrasa hovlisi ichki sathi 1 metrgacha ko‘tarilib, asfalt yotqizilgan. Bu o‘z navbatida zax ko‘tarilishiga, devorlar zax ta’sirida o‘pirilib tushishini tezlashtirgan.

Xullas, mustaqillik yillarigacha madrasa binosi ana shunday o‘ta ayanchli ahvolda edi. O‘zbekiston mustaqillik erishgach, 1997-yilda “Oltin meros” xalqaro xayriya jamg‘armasi qoshida “Sayyid otaliq” madaniyat markazi ochildi. Madrasa 2019-yilda tasdiqlangan “Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari” milliy ro‘yxatiga kiritildi. 2020-2021-yillarda binoni saqlab qolish va uning infratuzilmasini takomillashtirish bo‘yicha chora tadbirlar ishlab chiqilib, inshoot joriy ta’mirdan chiqarildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Tursunov S., Turdiyev T. Denov. – T.: Fan, 2009.
2. Obidov A., Boboxonov J. Tariqat silsilasining oltin zanjiri. – T.: Navro‘z, 2018.
3. Djurayeva S., Usmonov I., Qurbonov A., Azimova L. Surxondaryo tarix sahnasida. – Toshkent: “O‘zkitob savdo nashriyot matbaa ijodiy uyi”, 2022.

INSON QADRI VA IJTIMOIY MANFAATLARNI TA'MINLASHDA JAMOATCHILIK NAZORATINING AHAMIYATI

Shamsiyeva Vazira Abduvaliyevna,
Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jamoatchilik nazoratining jamiyatda inson qadri va ijtimoiy manfaatlarni ta'minlashdagi o'rni va ahamiyati ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Inson qadri, ijtimoiy manfaatlar, jamoatchilik nazorati, fuqarolik nazorati, Oliy Majlisga Murojaatnoma, aholining konvergent talablari va manfaatlarini ta'minlash.*

Аннотация. *В данной статье раскрывается роль и значение общественного контроля в обеспечении человеческого достоинства и социальных интересов в обществе.*

Ключевые слова: *Достоинство человека, социальные интересы, общественный контроль, гражданский контроль, Обращение к Олий Мажлису, обеспечение совпадающих требований и интересов населения.*

Abstract. *This article reveals the role and importance of public control in ensuring human dignity and social interests in society.*

Keywords: *Human dignity, social interests, public control, civil control, Address to the Oliy Majlis, ensuring convergent demands and interests of the population.*

Kishilarning hayot tarzini kundan-kunga yaxshilab borish sotsiumdagi barcha real munosabatlarning o'zagi bo'lib qolmoqda. Kishilar o'zi orzu qilgan yashash muhitini o'z intilishlari, say-harakatlari va mehnatlari bilan barpo etishadi. Barpo etilgan jamiyatda esa, odamlarning manfaatlari eng oliy qadriyat sifatida e'tirof etilishi taraqqiyotning muhim belgisidir. Jamiyatdagi sotsial o`zgarishlar rivoji xalq bilan garmonik jarayonlar orqali mehr ko'rsatish va natijada ularning hayotda o'z o'rnini topishlari barqarorlik sur'atlarini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Inson qadri va ijtimoiy manfaatlarni ta'minlashda jamoatchilik nazorati va uni to'laqonli shakllantirish muhim o'rin tutadigan jarayon hisoblanadi.

Davlatning cheksiz darajadagi xalqchil me'yorlari va odamlar uchun qiladigan barcha tadbirlari doimiy ravishda o'ziga xos tarzda takomil jarayonida bo'ladi. Davlat olib boradigan barcha tadbirlar va muhim yo'nalishlarga ega bo'lgan choralar bugungi kunda xalq bilan maslahatlashilgan holda amalga oshirilmoqda. Xalq va jamoat tashkilotlarining davlat ishidagi munosib ishtiroki ijtimoiy nazorat faoliyatini ham doimiy rag'batlantiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2017-yil 22-dekabr kuni Oliy Majlisga murojaatida ta'kidlaganidek, "biz mamlakat hayotiga doir har bir qarorni xalqimiz bilan maslahatlashib, bevosita muloqot asosida qabul qilmoqdamiz. Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak, degan g'oya bu borada faoliyatimiz mezoniga aylanmoqda"[1].

Mazkur tamoyil xalqimizning azaldan rivojlanib o'zining takomillashuv bosqichiga kirgan davlatchilik an'analarining muhim vorisiylik asosidagi ko'rinishi hisoblanadi. Bu xususiyat jahon va milliy amaliyotdagi demokratik xususiyatlarga to'la mos kelgan holda taraqqiyot jarayonida bunyodkorlik kayfiyatlarini vujudga keltiradi. Bu kayfiyatlar, albatta, konsensus, ya'ni umumiy hamjihatlik bilan bog'lanib ketadi. Emil Dyurkgeymning mexanik va organik ko'rinishdagi konsensusga qaratilgan nazariyasida ham mavjud sotsium bir butunligini saqlab qolishga qaratilgan yo'nalishlar mavjud. Bu sohada to'laqonli maqsadlarga erishish uchun tashkiliy va metodologik tizimlar yanada takomillashtirilib, mustahkam asoslarga ega ijtimoiy muhitni yaratish choralari allaqachon ishlab chiqilgan.

O'z istiqbolini ko'zlagan har qanday jamiyat insonga g'amho'rlik qilishning muhim jihatlarini tanlab boradi. Bu tanlov insonlar guruhlarining islohotlar taftidan bahramand

bo‘lishlarini ham namoyon etadi. Islohotlarning borishi o‘z navbatida insonlarning o‘ziga xos mas’uliyatga ega bo‘lishlari lozimligini taqozo etadi.

Mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.Karimov, “bugungi kunda jamoatchilik va fuqarolik nazorati instituti jamiyatning davlat bilan o‘zaro samarali aloqasini ta’minlash, odamlarning kayfiyatini, mamlakatda kechayotgan o‘zgarishlarga munosabatini aniqlashning muhim vositalaridan biriga aylanmoqda”[2], deb ta’kidlagan edi.

Hozirgi kunda insonlar kundalik turmushini rivojlantirish va unga ko‘maklashishda jamoatchilikning ahamiyati oshib bormoqda. Ijtimoiy munosabatlarning liberallashuv sharoitida jamoatchilikning faolligini oshirish, ularni foydali ishlarga jalb etilishi moddiy ne’matlar yaratish jarayoniga ham ijobiy ta’sir o‘tkazmoqda. Ijtimoiy hayotning liberal jarayonlar kontekstida jamoat tuzilmalari o‘zlarining konstruktiv faoliyatiga ega bo‘lib, kishilarga yaratiladigan shart-sharoitlar rejalari va dasturlari ijrosida munosib ishtiroki sezilib turibdi.

Jamiyatda insonga yaratib berilayotgan shart-sharoitlarni kuzatish va uni takomillashtirish maqsadida ijtimoiy nazorat tashkil etiladi. Ijtimoiy nazorat olib borilishdan asosiy maqsad inson hayotiy manfaatlarining amaliy ro‘yobini ta’minlash, hududlarda yuz beradigan ba’zi muammoviy vaziyatlarning olidini olish va bartaraf etishda ishtiroki bo‘lib, xalq farovonligini oshirish va turmush tarzini yaxshilab borishga ko‘mak berishdir. Bu jarayonda jamoatchilik nazorati tegishli subyektlar tomonidan aholi o‘rtasida ish bilan bandlik darajasini belgilash, minimal ish haqi, nafaqa, pensiya, ijtimoiy himoya me’yorlarini aniqlashdir. Mazkur aniqlashlarning natijasi o‘laroq ijtimoiy nazorat subyektlari jamiyatda qonunchilikni takomillashtirishga muhim va aniq takliflar beradilar. Bu jarayon esa, mazkur institutning davlat tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy siyosat borasidagi dasturlarini amaliy ta’minlashda ham ko‘makchi bo‘lishidir.

Jamoatchilik nazoratining kuchi har qaysi davr va zamonda turli ko‘rinishlarda va darajalarda bo‘lsa ham, uning tarixiy jarayonlarda turli xil subyektlar faoliyatiga ta’siri doimo namoyon bo‘lib kelgan. Bu fenomenni ilk bora turli davrlarda yashagan G‘arb va Sharqning yetuk siyosatchilari, faylasuflari asarlarida u yoki bu ko‘rinishlarda uchratishimiz mumkin. Umuman olganda, insoniyat tarixining turli davrlarida jamoatchilik nazorati insonlar o‘rtasidagi munosabatlarning yo‘naltiruvchisi rolini o‘ynab kelgan.

Professor H.Odilqoriyev fikricha, “jamoat nazoratini amalga oshirish mexanizmi deganda, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan nazorat subyekti sanalgan tashkilotlar hamda muassasalar tizimi va ularning davlat, shuningdek, ijroiya hokimiyati idoralarining davlat boshqaruvini amalga oshirish, qonunlar ijrosini ta’minlash, inson huquq va erkinliklariga rioya etilishiga oid faoliyati ustidan nazoratning shakllari, usullari va vositalari tushuniladi”[3].

Amal qilayotgan sotsiumda kishilar turmushining prinsiplarining liberallashuvi demokratik taraqqiyot borasidagi vazifalarni ado etish, aholi va boshqa tuzilmalar munosabatlari tizimida barqarorlikni hal etadi. Mazkur vazifalarni demokratik mexanizmlarda hal etish yordamida legitim munosabatlarda amalga oshiriladigan jamoatchilik nazoratining real zarurati shu bilan izohlanadiki, uning natijasida, ba’zi konfliktli vaziyatlarning o‘z vaqtida oldi olinadi. Shuningdek, noqonuniy holatlarga to‘la-to‘kis barham berish uchun samarali ishlaydigan izchil nazorat tizimi va mexanizmlari shakllantiriladi.

Mamlakatimizning birinchi Prezidenti I.Karimov ta’biri bilan aytganda, “bu tizim shunday ishlashi kerakki, bordi-yu biror-bir mansabdor shaxs davlat siyosatidan chekinib, qonunga xilof ishlar bilan shug‘ullanadigan, o‘z manfaatini davlat, xalq manfaatidan ustun qo‘yadigan bo‘lsa, u kimligi, kimning qarindoshi, qaysi rahbarning og‘aynisi ekanidan qat’iy nazar, muqarrar ravishda jazosini olishi shart. Ya’ni, bunday jazoning muqarrarligini shu odamdan yuqori lavozimda o‘tirganlar emas, balki tizimning o‘zi talab etishi zarur” [4].

Shu munosabatlardan kelib chiqib, inson va jamiyat manfaatlarining doimiy ravishda vujudga keladigan uyg‘unligini ta’minlashda bugungi davr uchun zaruriy bo‘lgan amalga oshiriladigan jamoatchilik nazorati quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

− boshqaruv tomonidan jamiyatda mavjud me'yorlarga mos kelmaydigan turli qarorlar va hujjatlarning ishlab chiqilishi va uning qabul qilinishining oldini olib, bu borada turli yo‘nalishlar va takliflarni berib boradilar;

− ma'lum hududlarda boshqaruv tizimlari va ularning xodimlari tomonidan doimiy bartaraf etish kerak bo‘lgan muammolar va qonunbuzarliklar yuz berayotganligi haqida obyektiv tarzdagi axborotlar olish borasida imkoniyatlar yaratiladi;

− modernizatsiya va liberallashuv sharoitida jamoatchilik nazorati legitim asoslarda faoliyat olib borishi demokratik normalar asosida aholining manfaatlarini ta'minlash, boshqaruv organlariga o‘ziga xos tarzda ta'sir etadigan sharoitda tegishli nazoratni olib boradi;

− ba`zi kishilarda fuqarolik va hududlarga xizmat qilish mas'uliyatining yetishmasligi, turli xildagi permanent muammolar, vujudga keladigan turli tahdidiy jarayonlarni oldini olish hamda ularni o‘z vaqtida tugatish ishlarida konstruktiv asoslsngan tashabbusli harakatlar qilinadi.

Qonunda jamoatchilik nazoratining shakllari quyidagi asoslarda belgilab berilgan:

-"davlat organlariga murojaatlar va so‘rovlar;

-davlat organlarining ochiq hay'at majlislarida ishtirok etish;

-jamoatchilik muhokamasi;

-jamoatchilik eshituvi;

-jamoatchilik monitoringi;

-jamoatchilik ekspertizasi;

-jamoatchilik fikrini o‘rganish;

-fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan davlat organlari mansabdor shaxslarining hisobotlari va axborotini eshitish" [5].

Amalga oshiriladigan jamoatchilik nazorati jamiyatda amaldagi barcha subyektlar tomonidan o‘ziga xos tarzda, o‘zining yo‘nalishiga va qiladigan ishiga mos tarzda tashkil etiladi. Mazkur bajariladigan ishlar turli vaziyatlarda o‘zining har xil ko‘rinishlariga va amaliyotiga ega bo‘ladi. Demokratik tendensiyalar sotsiumning amal qilish sharoitida jamoat nazoratini kuchaytirish orqali ham o‘zining yuqori bosqichiga chiqib boradi. Bu jarayonda har xil tuzilmalar tomonidan amalga oshiriladigan jamoat nazorati aholining yashashi va istiqomat qilishi uchun na'munali shart-sharoitlar yaratib berilishiga ko‘maklashadi. Mazkur jarayon o‘z navbatida jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Ijtimoiy nazoratning komponent tarkibi o‘zaro determinant bo‘lgan turli xususiyatlarni o‘z ichiga oladi va bular o‘z navbatida subyektlarning faoliyatiga regulyativ ta'sir ko‘rsatadi. Turli elementlarning o‘zaro uyg‘unligi hamda ma'lum normalar asosida ta'sir qiladigan nazorat mexanizmlari kishilarning yashash prinsiplarini yaxshilashga xizmat qiladi. Jamoat nazorati ham o‘zining evolyutsion yo‘lini, ma'lum tushunmovchiliklar mavjud bo‘lgan amaliyotda bosib o‘tdi. Endilikda nazoratning mukammal tizimi ishlab chiqilib, qonunlar va boshqa normalar bilan takomil bosqichiga yetkazildi. Bu ham bo‘lsa, sotsiumda rivojlanishning maqbul segmentlarini hosil qilmoqda.

Shunday ekan, jamoatchilik nazorati obyektlari turli tizimlarning kishilar farovonligiga qaratilgan umummanfaatli chora-tadbirlarga qaratilgan masalalar bo‘yicha mavjud normalarda belgilangan va tegishli tartibda o‘ziga yuklatilgan majburiyatlarni ijro etishi bilan bog‘liq faoliyat hisoblanadi. Amalga oshiriladigan jamoatchilik nazorati predmetini belgilashda bir qator talablar bajarilishiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Bunday talablar quyidagi ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin:

1. Jamoatchilik nazorati predmeti har qanday nazorat faoliyati hisoblanmaydi, u o‘zining mental postulatlariga ega bo‘lgan ilg‘or demokratik fenomen hisoblanadi.

2. Jamoat nazorati amal qiladigan har qanday tuzilma va tizimning vakolatiga kiruvchi masalalar mazkur fenomen bilan bog‘liq normalarga oid bo‘lishi lozim.

3. O‘zining tarkibiy komponentlariga ega bo‘lib, har bir komponent muayyan geografik hududda yashovchi aholining o‘ziga xos manfaatlaridan kelib chiqishi muhimdir.

4. Tegishli hududda mavjud normalar va yo‘riqlarning ijro etilishi yuzasidan vujudga keladigan lokal xarakterga ega bo‘lgan vaziyat va holatni monitoring qilish va chuqur o‘rganish evaziga tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

5. Monitoring natijalari bo‘yicha tegishli real va profilaktik choralar ko‘rilishi uchun davlat organlariga konseptual miqyosga ega bo‘lgan taqdimnomalar kiritishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu borada birinchi Prezident I.Karimovning quyidagi fikrlarini keltirib o‘tish joiz: “Demokratiya – inson, jamiyat, davlat degan uch subyekt o‘zaro bir-birini to‘ldiradigan, bir-birini boyitib, kerak bo‘lsa, nazorat qilib turadigan tizim demakdir. Bu har qaysi insonning jamiyat bilan, jamiyatning esa davlat bilan munosabatini, ular o‘rtasidagi muvozanatni anglatadi” [6].

Yuqorida ko‘rsatilganlardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarni berish mumkin:

1. Har qanday jamiyatda insonning ulug‘vor qadriyatlar bilan bog‘liq holatdagi o‘rnini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etib kelgan bo‘lib, bugungi zamonaviy sharoitda, ijtimoiy yo‘nalish kasb etadigan hayotimizda ham bu voqelik ustivorligi yuqori darajaga ko‘tarilgandir. Bu esa jamiyatning nafaqat buguni, balki uning istiqboldagi gurkirab rivojlanishini ta’minlashga ham munosib xizmat qiladi.

2. Jamiyat va inson o‘rtasidagi determinantlik asosidagi chuqur aloqadorlik kasb etuvchi munosabatlar kishilar turmushida turli-tuman plyuralistik ko‘rinishdagi ijobiy hodisalarni namoyon etmoqda. Inson bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarda uning ustuvor qadriyat ekanligi doimiy hisobga olinadi.

3. Mavjud sotsiumning turli sohalaridagi tashkil etilayotgan islohotlar kishilarning integrativ faoliyatini tashkil etilishi bilan birgalikda to‘laqonli hayot kechirishga qaratilganligi mamlakatimizning xalqaro imijini ham mustahkamlanishida o‘ziga xos o‘rin tutadi, chuqur e’tirof etilishiga olib keladi.

4. Jamoatchilikning boshqaruv idoralari olib borayotgan ishlarni ma’lum konstruktiv me’yorlar darajasida nazorat qilib borishi yuzasidan bugungi kunda real jarayonlar takomillashmoqda. Bu masala kishilarning faoliyatiga ham ijobiy ta’sir qiladi, chunki, jamoat nazorati ularning turmushini yaxshilash borasidagi ratsional voqeliklarga qaratilgan bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. Ma’rifat, 2017-yil, 23-dekabr.

2. I.Karimov. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. T., “O‘zbekiston”, 2010-y.

3. Odilqoriyev H. O‘zbekistonda jamoatchilik nazoratining huquqiy mexanizmi va shakllari// Jamoatchilik nazorati va uning shakllari: ilmiy-nazariy jihatlari. Ilmiy-amaliy seminar materiallari. – T.,TDYUI, 2012. – B.10.

4. Karimov I. A. O‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi. T.13. – T., “O‘zbekiston”, 2005. – B.237.

5. O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-474. 12.04.2018. https://lex.uz/docs/3679092.

6. Karimov I. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. Toshkent – “O‘zbekiston”, 2015. 17-bet.

VIRTUAL MADANIYAT SHAROITIDAN ESTETIK UYG‘UNLIK MEZONLARINIING O‘ZGARISHI

Sherova Dilorom Abdullayevna,
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi v.b. dotsenti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada virtual madaniyat sharoitida estetik uyg‘unlik mezonlarining transformatsiyasi ijtimoiy-falsafiy va estetik-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi an’anaviy estetik uyg‘unlik mezonlari raqamli kommunikatsiya, algoritmik media, sun’iy intellekt, VR/AR texnologiyalari va ijtimoiy platformalar ta’sirida qanday o‘zgarayotganini ochib berishdan iborat.*

Kalit so‘zlar: *virtual madaniyat, estetik uyg‘unlik, raqamli estetika, algoritmik estetika, virtual identiklik, immersiv tajriba, sun’iy intellekt, media-falsafa, simulakr, estetik reprezentatsiya.*

Аннотация. *В данной статье трансформация эстетической гармонии в условиях виртуальной культуры анализируется с социально-философской и эстетико-философской точек зрения. Основная цель исследования заключается в выявлении того, каким образом традиционные критерии эстетической гармонии изменяются под воздействием цифровой коммуникации, алгоритмических медиа, искусственного интеллекта, VR/AR-технологий и социальных платформ.*

Ключевые слова: *виртуальная культура, эстетическая гармония, цифровая эстетика, алгоритмическая эстетика, виртуальная идентичность, иммерсивный опыт, искусственный интеллект, медиафилософия, симулякр, эстетическая репрезентация.*

Abstract. *This article analyzes the transformation of aesthetic harmony in the context of virtual culture from socio-philosophical and aesthetic-philosophical perspectives. The main aim of the study is to reveal how traditional criteria of aesthetic harmony are changing under the influence of digital communication, algorithmic media, artificial intelligence, VR/AR technologies, and social platforms.*

Keywords: *virtual culture, aesthetic harmony, digital aesthetics, algorithmic aesthetics, virtual identity, immersive experience, artificial intelligence, media philosophy, simulacrum, aesthetic representation.*

Kirish. XXI asrda raqamli texnologiyalar, global internet tarmoqlari, ijtimoiy media, sun’iy intellekt va virtual reallik insoniyatning madaniy tajribasini tubdan o‘zgartirmoqda. Bugungi kunda madaniyat faqat real makondagi institutlar, muzeylar, teatrlar yoki an’anaviy san’at shakllari orqali emas, balki raqamli platformalar, vizual interfeyslar, virtual muhitlar va algoritmik tizimlar orqali ham shakllanmoqda. Shu sababli “virtual madaniyat” tushunchasi zamonaviy ijtimoiy-falsafiy diskursning muhim kategoriyalaridan biriga aylandi. Virtual madaniyat insonning nafaqat kommunikativ xatti-harakatlarini, balki estetik didi, go‘zallik haqidagi qarashlari, san’atni idrok etish shakllari va uyg‘unlik mezonlarini ham o‘zgartirmoqda.

Nazariy-metodologik asos. Mazkur tadqiqotda ijtimoiy-falsafiy tahlil, germenevtik yondashuv, komparativ metod, aksiologik tahlil va konseptual interpretatsiya usullaridan foydalanildi. Germenevtik yondashuv estetik uyg‘unlik tushunchasining tarixiy-falsafiy mazmunini sharhlash imkonini berdi. Komparativ metod yordamida an’anaviy san’atdagi uyg‘unlik mezonlari bilan virtual madaniyatdagi algoritmik va immersiv uyg‘unlik shakllari qiyoslandi. Aksiologik yondashuv esa virtual madaniyatning estetik qadriyatlar tizimiga ta’sirini aniqlashda qo‘llanildi.

Tadqiqot metodologiyasi shundan kelib chiqadiki, virtual madaniyatni faqat texnologik hodisa sifatida tushunish yetarli emas. U estetik ong, madaniy identiklik, ijtimoiy reprezentatsiya va kommunikativ ta’sir bilan bog‘liq murakkab fenomen hisoblanadi. Shu sababli maqolada

virtual madaniyat raqamli texnologiyalar yig‘indisi sifatida emas, balki insonning estetik borliq bilan munosabatini o‘zgartiruvchi ijtimoiy-falsafiy muhit sifatida tahlil qilinadi.

Mazkur tadqiqotda “estetik uyg‘unlik” tushunchasi uch darajada talqin qilinadi. Birinchi darajada u klassik san’atdagi shakl, mazmun, mutanosiblik va muvozanat uyg‘unligi sifatida tushuniladi. Ikkinchi darajada u raqamli media sharoitida vizual standartlar, algoritmik tavsiyalar va kommunikativ ta’sir bilan bog‘liq hodisa sifatida qaraladi. Uchinchi darajada esa estetik uyg‘unlik inson, texnologiya va madaniy muhit o‘rtasidagi dinamik munosabat sifatida talqin qilinadi. Aynan uchinchi yondashuv virtual madaniyatning mohiyatini chuqurroq ochib beradi.

Tahlil va natijalar. Virtual madaniyat sharoitida estetik uyg‘unlik tushunchasi mazmunan kengaymoqda. Agar an’anaviy san’atda uyg‘unlik kompozitsion yaxlitlik, simmetriya va muvozanat orqali ifodalangan bo‘lsa, raqamli muhitda u foydalanuvchi tajribasi, interaktivlik va algoritmik moslashuv orqali shakllanmoqda. Bu jarayon estetik idrokning obyektga qaratilgan shaklidan tajribaga qaratilgan shakliga o‘tishini bildiradi.

Virtual makonda foydalanuvchi san’at asari qarshisidagi passiv kuzatuvchi emas, balki estetik jarayonning faol ishtirokchisidir. U tasvirni ko‘radi, baholaydi, ulashadi, remiks qiladi, sharhlaydi va o‘z estetik qiyofasini shu jarayon ichida shakllantiradi. Shu sababli virtual uyg‘unlik obyektning ichki tartibi bilangina emas, balki foydalanuvchining harakati, algoritmik tavsiya va platforma qoidalari bilan ham belgilanadi.

Algoritmik estetika virtual madaniyatning eng muhim fenomenlaridan biridir. Instagram, TikTok, YouTube va Pinterest kabi platformalarda foydalanuvchi ko‘radigan vizual kontent tasodifiy emas; u algoritmik tanlov orqali shakllanadi. Natijada foydalanuvchi o‘z didini erkin shakllantiryapman deb hisoblagan holda, aslida ko‘rinmas texnologik filtrlar orqali yo‘naltirilgan estetik muhitda harakat qiladi. Bimo va Bhandari algoritmik tavsiyalar onlayn estetik mikrotendensiyalarni shakllantirishini ko‘rsatadi. Biroq bu jarayonni faqat texnik hodisa deb emas, balki estetik erkinlik va estetik boshqaruv o‘rtasidagi ziddiyat sifatida talqin qilish lozim.

Umuman olganda, algoritmik estetika zamonaviy insonning estetik mustaqilligini paradoksal holatga olib keladi. Bir tomondan, foydalanuvchi ilgari mavjud bo‘lmagan darajada ko‘p vizual tanlov imkoniyatiga ega. Ikkinchi tomondan, bu tanlovlar algoritmik tavsiya tizimlari tomonidan tartibga solinadi. Demak, virtual madaniyat inson estetik erkinligini kengaytirish bilan birga, uni yangi boshqaruv mexanizmlariga ham bog‘laydi.

Sun’iy intellekt asosidagi generativ san’at estetik uyg‘unlik tushunchasiga yana bir murakkab qatlam qo‘shadi. AI tizimlari rang, shakl, kompozitsiya va uslubni tezkor ravishda sintez qilishi mumkin. Biroq bu yerda asosiy falsafiy savol paydo bo‘ladi: agar estetik obyekt inson ruhiy tajribasidan emas, balki algoritmik hisoblashdan hosil bo‘lsa, uning uyg‘unliksi qanday baholanadi? Bunday san’atda uyg‘unlik inson qalbidagi ichki muvozanat ifodasi emas, balki ma’lumotlar bazasi, model parametrlari va vizual kombinatsiyalar natijasi sifatida shakllanadi.

Bu holat mualliflik, original asar va ijodkorlik tushunchalarini qayta ko‘rib chiqishga majbur qiladi. San’at tarixida ijodkorlik insonning individual tajribasi, tasavvuri va estetik sezgisi bilan bog‘langan bo‘lsa, AI-art sharoitida bu jarayon inson va mashina o‘rtasidagi hamkorlikka aylanadi. Shu sababli virtual madaniyatda estetik uyg‘unlik endi faqat “go‘zal shakl” emas, balki “inson va texnologiya o‘rtasidagi ijodiy muvozanat” sifatida ham talqin qilinishi mumkin.

VR/AR texnologiyalari esa estetik tajribani immersiv shaklga olib chiqmoqda. An’anaviy san’atda tomoshabin asarni tashqaridan kuzatsa, virtual reallikda u asar ichiga kiradi. Bu yerda uyg‘unlik ko‘riladigan obyekt emas, balki boshdan kechiriladigan muhitdir. Foydalanuvchi virtual makonda harakat qiladi, tovush, tasvir, masofa, harakat va interaktiv elementlar orqali estetik tajribaga jalb etiladi. Natijada uyg‘unlik statik kompozitsiya emas, balki vaqt, makon va subyektiv ishtirok orqali shakllanadigan ko‘p o‘lchovli hodisaga aylanadi.

Virtual muzeylar va onlayn ekspozitsiyalar bu jarayonni yaqqol ko‘rsatadi. Raqamli ko‘rgazmada san’at asari faqat eksponat emas, balki navigatsiya qilinadigan estetik makon

sifatida namoyon bo‘ladi. Foydalanuvchi asarni qaysi nuqtadan, qanday ketma-ketlikda va qanday tezlikda ko‘rishini o‘zi belgilaydi. Bu esa estetik idrokda subyektivlik va interaktivlik rolini kuchaytiradi. Oliver Grau va Ryan tadqiqotlari virtual tajribaning immersiv va interaktiv mohiyatini tahlil qilishda muhim konseptual asos beradi.

Virtual madaniyatdagi yana bir muhim jihat estetik identiklik muammosidir. Ijtimoiy media foydalanuvchisi o‘zini matn orqali emas, balki ko‘pincha vizual obraz orqali namoyon etadi. Profil rasmi, rang tanlovi, postlar estetikasi, filtrlar, hikoyalar va videolar orqali inson o‘zining raqamli qiyofasini yaratadi. Bu jarayonda estetika shaxsiy did ifodasigina emas, balki ijtimoiy tan olinishi, status va kommunikativ ta’sir vositasiga aylanadi.

Shu ma’noda virtual estetikada uyg‘unlik ichki ruhiy muvozanatdan tashqi vizual reprezentatsiyaga siljimoqda. Inson qandayligini emas, qanday ko‘rinishini boshqarishga ko‘proq e’tibor qaratadi. Bu holat estetik qadriyatlarning performativlashuviga olib keladi. Uyg‘unlik esa endi shunchaki go‘zallik emas, balki ko‘rinuvchanlik, auditoriya reaksiyasi va raqamli kapital bilan bog‘liq hodisa sifatida shakllanadi.

Estetik uyg‘unlik mezonlarining tarixiy transformatsiyasi Uyg‘unlik tushunchasining tarixiy o‘zgarishi virtual madaniyatning yangiligini chuqurroq tushunish imkonini beradi. Klassik estetikada uyg‘unlik borliqdagi tartibning san’atdagi aks etishi sifatida talqin qilingan. Renessans san’atida u inson tanasi, tabiat va me’moriy shakllar o‘rtasidagi mutanosiblik orqali ifodalangan. Modernizm davrida esa uyg‘unlik buzilish, tajriba, fragmentatsiya va yangi ifoda shakllari orqali qayta talqin qilindi.

Virtual madaniyat ushbu tarixiy jarayonning navbatdagi bosqichi hisoblanadi. Biroq uning farqi shundaki, bu bosqichda estetik uyg‘unlik faqat badiiy uslubning o‘zgarishi emas, balki idrok mexanizmining o‘zgarishi bilan bog‘liq. Raqamli makonda inson ko‘proq tasvirlar oqimi ichida yashaydi. Estetik tajriba chuqur kontemplatsiyadan ko‘ra tezkor ko‘rish, baholash va reaksiyaga asoslanadi. Shu sababli virtual madaniyatda uyg‘unlik ko‘pincha tez idrok qilinadigan, vizual jihatdan jozibador va algoritmik jihatdan ko‘rinuvchan shakllar orqali namoyon bo‘ladi.

Bu o‘zgarishning ijobiy va salbiy tomonlari mavjud. Ijobiy jihatdan, virtual madaniyat estetik tajribani demokratlashtiradi: san’atga kirish imkoniyatlari kengayadi, ijod vositalari ko‘payadi, foydalanuvchi passiv auditoriyadan faol ishtirokchiga aylanadi. Salbiy jihatdan esa estetik idrok yuzakilashishi, standartlashishi va algoritmik boshqaruvga bo‘ysunishi mumkin. Shu bois virtual uyg‘unlik masalasi faqat estetik emas, balki axloqiy va madaniy masala hamdir.

Muhokama. Virtual madaniyat sharoitida estetik uyg‘unlik an’anaviy paradigmalardan sezilarli darajada farq qiladi. Birinchidan, u obyekt markazli emas, tajriba markazlidir. Ikkinchidan, u yakunlangan shakl emas, doimiy o‘zgaruvchi jarayondir. Uchinchidan, u faqat san’atkor tomonidan yaratilmaydi, balki foydalanuvchi, platforma, algoritm va auditoriya o‘rtasidagi munosabatda shakllanadi.

Virtual uyg‘unlik zamonaviy madaniyatning “ko‘rinish orqali mavjud bo‘lish” tamoyilini aks ettiradi. Raqamli makonda inson va san’at bir xil mantiqqa bo‘ysunadi: ular ko‘rinishi, ulanishi, baholanishi va tarqalishi kerak. Shu sababli virtual madaniyatda estetik qiymat ko‘pincha ichki mazmun bilan emas, balki kommunikativ samaradorlik bilan belgilanadi.

Biroq virtual madaniyatni faqat inqiroz sifatida baholash ham biryoqlama bo‘ladi. U inson estetik tajribasiga yangi imkoniyatlar ham yaratmoqda. Raqamli texnologiyalar orqali ilgari mavjud bo‘lmagan san’at shakllari, virtual muzeylar, interaktiv ko‘rgazmalar, generativ dizayn va ko‘p o‘lchovli estetik muhitlar paydo bo‘lmoqda. Bu esa estetik tafakkurni yangi bosqichga olib chiqadi. Muammo texnologiyaning o‘zida emas, balki uning estetik ongni qanday shakllantirishi va inson erkinligini qanday yo‘naltirishidadir.

Shu nuqtai nazardan virtual madaniyatdagi estetik uyg‘unlik ikki yoqlama xarakterga ega. Bir tomondan, u standartlashuv, yuzakilik va algoritmik boshqaruv xavfini kuchaytiradi. Ikkinchi tomondan, u ijodiy erkinlik, interaktivlik va estetik tajribaning demokratlashuvi uchun yangi

imkoniyatlar yaratadi. Demak, virtual uyg‘unlik inqiroz va imkoniyat birligida namoyon bo‘ladigan murakkab estetik-falsafiy hodisadir.

Xulosa. Tadqiqot natijalari virtual madaniyat sharoitida estetik uyg‘unlik mezonlari tubdan transformatsiyaga uchrayotganini ko‘rsatdi. An’anaviy estetikadagi statik, universal va shakliy mezonlar o‘rnini dinamik, interaktiv, algoritmik va immersiv mezonlar egallamoqda. Bu jarayon estetik idrokning obyektga yo‘naltirilgan shaklidan tajribaga yo‘naltirilgan shakliga o‘tishini bildiradi.

Maqolada asoslanganidek, virtual madaniyatda uyg‘unlik endi faqat shakl va mazmun uyg‘unligi emas, balki inson, texnologiya va madaniy muhit o‘rtasidagi murakkab munosabatdir. Algoritmik media foydalanuvchi didini shakllantiradi, sun’iy intellekt mualliflik tushunchasini qayta belgilaydi, VR/AR texnologiyalari esa estetik tajribani immersiv va ko‘p o‘lchovli jarayonga aylantiradi.

Shuningdek, virtual estetika inson identikligi va ijtimoiy reprezentatsiyasi bilan chambarchas bog‘liq ekani aniqlandi. Raqamli muhitda estetik obraz shaxsiy did ifodasigina emas, balki kommunikativ ta’sir, tan olinishi va ijtimoiy maqom vositasiga ham aylanmoqda. Shu bois virtual uyg‘unlik zamonaviy jamiyatda estetik, axloqiy va kommunikativ muammolar kesishgan nuqtada joylashadi.

Virtual madaniyat sharoitida estetik uyg‘unlikni o‘rganish nafaqat san’at nazariyasi, balki media-falsafa, madaniyatshunoslik, axloqiy tafakkur va raqamli sivilizatsiya tadqiqotlari uchun ham dolzarb ilmiy yo‘nalish bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Heidegger M. The Origin of the Work of Art. – New York: Harper & Row, 1971.
2. Eco U. Art and Beauty in the Middle Ages. – New Haven: Yale University Press, 1986.
3. Adorno T., Horkheimer M. Dialectic of Enlightenment. – Stanford: Stanford University Press, 2002.
4. Benjamin W. The Work of Art in the Age of Mechanical Reproduction. Illuminations. – New York: Schocken Books, 1968.
5. Baudrillard J. Simulacra and Simulation. – Michigan: University of Michigan Press, 1994.

QORAQALPOQ MILLIY YOG‘OCH O‘YMAKORLIGI VA UNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ismetov Raxman Allambergenovich,
Innovatsion texnologiyalar universiteti
“Tarix va ijtimoiy fanlar” kafedrasi v.v.b dotsenti

Satenov Alisher,
Qoraqalpog‘iston Respublikasi tarixi va madaniyati
davlat muzeyi bosh mutaxassisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qoraqalpoq milliy yog‘och o‘ymakorligi san’atining shakllanish tarixi, o‘ziga xos xususiyatlari va xalq hayotidagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, qoraqalpoq ustalarining yog‘ochga ishlov berish sirlari, xomashyo turlari (gujum, tol, jiyda), o‘tov jihozlari va ro‘zg‘or buyumlaridagi naqshlar simvolikasi tahlil qilingan. Maqolada ushbu milliy hunarmandchilik merosini asrab-avaylash va madaniy yodgorlik sifatida o‘rganishning ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Qoraqalpoq madaniyati, yog‘och o‘ymakorligi, milliy hunarmandchilik, gujum, o‘tov (qora uy), ergenek, qoshqarmuyiz naqshi, xalq amaliy san’ati.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются история формирования, уникальные особенности и роль в жизни народа каракалпакского национального искусства резьбы по дереву. Анализируются секреты обработки дерева каракалпакскими мастерами, виды используемого сырья (карагач, ива, джида), а также символика орнаментов на деталях юрты и предметах быта. В статье подчеркивается важность сохранения и изучения этого национального ремесленного наследия как культурного достояния.*

Ключевые слова: *Каракалпакская культура, резьба по дереву, национальное ремесло, карагач, юрта (кара уй), эргенéк (дверь юрты), орнамент кошкармуиз, народно-прикладное искусство.*

Abstract. *This article examines the history of formation, unique characteristics, and the role of Karakalpak national woodcarving art in the life of the people. It analyzes the wood processing secrets of Karakalpak craftsmen, the types of raw materials used (elm, willow, oleaster), and the symbolism of ornaments on yurt fixtures and household items. The article emphasizes the importance of preserving and studying this national craft heritage as a cultural asset.*

Keywords: *Karakalpak culture, woodcarving, national craft, elm tree, yurt (qara uy), ergenek (yurt door), koshkarmuiz ornament, folk applied art.*

Xalq amaliy san’ati har bir millatning o‘tmishi, turmush tarzi, estetik qarashlari va ma’naviy olamini aks ettiruvchi ko‘zgudir. O‘zbekistonning uzviy qismi bo‘lgan Qoraqalpog‘iston zaminida asrlar davomida shakllangan o‘ziga xos madaniy meros turlari orasida milliy yog‘och o‘ymakorligi alohida o‘rin tutadi. Orol va Amudaryo bo‘ylarida, murakkab tabiiy-iqlim sharoitida umrguzaronlik qilgan qoraqalpoq xalqi o‘z kundalik ehtiyojlari, uy-joy va ro‘zg‘or buyumlarini badiiy bezashda yog‘ochga ishlov berish san’atidan keng foydalangan.

Qoraqalpoq milliy yog‘och o‘ymakorligi o‘zining texnik bajarilishi, xomashyo tanlash usullari va eng muhimi, chuqur falsafiy ma’noga ega bo‘lgan naqshlar simvolikasi bilan qo‘shni mintaqalar (Xiva, Buxoro yoki Qo‘qon) hunarmandchilik maktablaridan yaqqol ajralib turadi. Ayniqsa, xalqning ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi hayot tarzi ramzi bo‘lgan qora uy (o‘tov) jihozlari — ergenek (eshik), baqan, shonshix hamda turli ro‘zg‘or buyumlaridagi o‘ymakorlik namunalari millatning o‘ziga xos dunyoqarashini namoyon etadi.

Bugungi globallashuv davrida milliy o‘zlikni anglash, unutilayotgan an’anaviy hunarlarni qayta tiklash va ularni kelajak avlodga bezavol yetkazish davlat siyosatining ustuvor

yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Shu nuqtai nazardan, qoraqalpoq milliy yog‘och o‘ymakorligi san’atining tarixiy ildizlarini, o‘ziga xos xususiyatlarini va hududiy original jihatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish hamda muzey fondlaridagi eksponatlar asosida ularni tahlil qilish ushbu mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Qoraqalpog‘istonda shu vaqtgacha Qora uy boshqa xalqlarda bo‘lgani kabi faqatgina yangi turmush boshlaganlarning yashash maskani emas, balki ko‘plab urf-odatlar, bayramlar, urf-odatlar makoni bo‘lgan. Qoraqalpog‘istonda yirik mulk egalari, boylar 1920-yillargacha farzandlari turmushga chiqqandan so‘ng, yangi uy (o‘tov) qurgan. Yoshlarga oppoq uy sovg‘a qilinib, ota-onalari, bobolari birgalikda baxtli turmush tilab, keyinchalik yangi turmush qurgan er-xotinlar qora uyda yangi turmush boshlagan. Ko‘pincha, uyning yog‘och qismlarini kuyov (er) uyga olib kelgan, kelin esa o‘z navbatida uy uchun zarur bo‘lgan latta turlarini "qalin mol" sifatida olib kelgan (Yangi turmush qurgan kelinga ota-onasi tomonidan beriladigan sovg‘ani anglatadi). Agar kuyovning ahvoli nochor bo‘lsa (agar u kambag‘al oiladan bo‘lsa), u holda asosiy xarajatlarni kelinning ota-onasi o‘z zimmasiga olgan, va bu ularning (kelinning ota-onasi) Qora uyni qurish uchun mas’ul bo‘lganligini anglatadi. Lekin yangi uy qurish kuyovning ota-onasini tomonidan sovg‘a qilingan "qalin mol" bilan ta’minlangan. Qadimdan qoraqalpoq milliy uyi "Qora uy" ko‘plab an’ana va urf-odatlar bilan bog‘lanib kelgan. Ularning ko‘pchiligi yog‘ochdan yasalgan qismlarni tayyorlashda, shu bilan birga, uy qurishda uchraydi. Amudaryoning quyi oqimida to‘qqiz avloddan beri qora uy qismlarini yasash bilan shug‘ullangan qadimiy hunarmandlar oilasi bor. Bu qobiliyat shogirdlik orqali avloddan-avlodga o‘tadi. Shogirdlik 3-4 yil davom etadi, keyin usta ruxsati bilan o‘zi ishlay boshlaydi. O‘qish tugashi bilan ustoz yoki shogird ba’zan vatandoshlariga, qariyalariga ovqat berib turadi. Shundan keyin mehmonlar shogirdga sovg‘a-salomlar berib, o‘z tilaklarini, hikmatlarini bildirdi. Ustoz shogirdiga asboblaridan birini berishi kerak edi. Ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra, Ibrohim Xalil (Ali) qora uy quruvchi ustalarning "piri" (xudosi) bo‘lgan deyiladi. Usta qora uy qismlarini tayyorlashdan oldin "qo‘llanma"si (turk tilidagi arab tilida yozilgan qoida) bilan tanishib chiqishi kerak. Qo‘llanmada (qoidada) ustozning rostgo‘y bo‘lishi, o‘z ishini halol bajarishi, ustaxonani toza tutishi, Allohga, Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallamga va Alloh taologa iymon keltirishi kabi qoidalar berilgan. Ustozlardan avliyo Ibrohim Xalil (Ali) ga va o‘z manfaati yo‘lida xayr-sadaqa qilish, usta (uychi) uy (qora uy) qurishdan oldin tahorat olib, Qur’on o‘qishi, xotini esa non (qoraqalpoq tilida "shelpak," "baursak" deb ataladi) pishirishi va qo‘shnilarga tarqatishi kerak deyilgan[1]. Keyin ustozi Ibrohim Xalil (Ali) dan ruxsat so‘rab, ishga kirishadi. Yupqa, egri-bugri, pishiq majnuntoldan (janov’it) uy qurilgan. Qoraqalpoqlar qora uyni tayyorlashda hech qachon qayin daraxtidan foydalanmagan. Sababi, ular qayin baxtsizlik keltiradi, deb ishongan. Qozoqlar qayin daraxtini qattiq va mustahkam deb hisoblab, undan uyning ustki aylanasini (changak) yasagan. Tarixiy davrlardan shakllangan qoidaga ko‘ra, to‘rlar tuya yoki yirik qora molning xom terisidan (qoramol) tikilgan kamarlarga bog‘lanadi, ular bog‘lanadi, ular ko‘k ("ko‘k" qoraqalpoq tilida "xom" degan ma’noni anglatadi."). Agar ular amalda bo‘lmasa, boshqa uy hayvonlarining terisidan foydalaniladi (chunki uy hayvonlari halol hisoblanadi va faqat halol teridan foydalaniladi). Qoraqalpoqlarning tushunchasiga ko‘ra, uyning tomidan yoyilgan yuqori qismidan tutun chiqishi kerak (xonadon). O‘z uyi quriladigan joy oqsoqollar yoki urug‘ boshlig‘i tomonidan belgilab qo‘yilib, vahima yoki xayollardan toza joy deb ataladi va bir kun oldin qo‘shnilariga xabar qilinadi. Bunday odatlar qo‘shni turkman xalqlari orasida ham keng tarqalgan. Ayniqsa, turkman taka-yovmitlarida qora uy qurilishi xalqning "ro‘mol olish" (ro‘molni qo‘lga kiritish), "qora uyga sakrash" kabi urf-odati bilan bog‘langan[2. 45-48 b].

Sariqlarning uy qurishi shunday edi; ostonani gumbazsimon gumbazsiz, eshiksiz qora uyning oldiga o‘rnatdilar. Qora uyning gumbazi chiroyli jun sharflar va qimmatbaho latta parchalari bilan o‘ralgan. O‘g‘il bolalar sakrash orqali ro‘mol va latta bo‘laklarini oladigan musobaqalarda qatnashdi. Qora uyning qurilishi katta bayram bo‘lib, bayram sifatida o‘tkazilib, mehmon kutib oluvchilar chorbog‘ solib, xalqqa dasturxon sovg‘a sifatida bergan. Har bir

mehmon uyning yangi egalariga pul, qimmatbaho latta bo‘laklari va sovg‘alar olib kelib, unda baxtli yashashlarini tiladi. Mehmonlar ham an’anadan keyin to‘ydan sovg‘alar bilan qaytishni. Agar uy egalari tez-tez kasal bo‘lsa, uzoq vaqt davomida farzand ko‘rmasa, o‘lim darajasi yuqori bo‘lsa, u yashash uchun yomon va baxtsiz joy hisoblanadi. Ehtimol, bu yerda qadimgi turklarning baxt (baraka) bilan bog‘liq bo‘lgan yodgorligini ko‘rish mumkin bo‘lib hisoblanadi. Joyida qut-baraka bo‘lsa, oilada ahillik bo‘ladi, ko‘p farzandlar dunyoga keladi [2. 32-36 bb]. To‘kinlik bor joyda farovonlik bo‘ladi. Qoraqalpoqlarning e’tiqodiga ko‘ra, og‘il-tegilchilikning aniq ko‘rinishi, ko‘lami va paydo bo‘ladigan joyi yo‘q. U faqat odamlarda, ko‘lda va uy hayvonlarida topilgan. Odamlar uy hayvonlarini sotganda ham, egasi undan kichikroq bir jun olib ketgan. Ular uyning bezaklari hayvonlar bilan birga ketishiga ishonishni. Umr yo‘ldoshidan farzand ko‘rmagan qoraqalpoqlar buni uyning taqir yerga qurilgani yoki uy yonidagi qayinlarning o‘sishi bilan bog‘lagan. Bunday hollarda ularni boshqa joyga ko‘chirish va qayin daraxtini kesish kerak. Shunga o‘xshash urf-odat va an’analar Yoqutlar, Alekseev va Oltoyda bor edi. Ular bolaning hamjihatlik bilan bog‘liqligiga ishonishadi. Oltoyda yaqin vaqtgacha, 20-yillarning oxirigacha, er-xotin uzoq vaqt davomida farzand ko‘rmagan, ular boshqa uyni tintib, eski uyni vayron qilgan. Bunday qora uy bilan bog‘liq uylar qoraqalpoqlarning boshqa turkiy xalqlar bilan etnik va moddiy aloqalari borligini ko‘rsatadi. N. A. Baskakovning fikriga ko‘ra, qut (mo‘l-ko‘lchilik, baraka) so‘zining etimologiyasi "qut" bo‘lib, butun oltoy tillari, masalan, mo‘g‘ul, tungus-manchjur tillari bilan tenglashtirish mumkin. Ota-bobolar sig‘inishlaridan biri yangi tug‘ilgan chaqaloqning kindigini eshik oldiga ko‘mish edi. Oilaning keyingi farzandlari eson-omon ulg‘ayishiga umid qilingan. Yangi tug‘ilgan chaqaloqning kindik ichagida ular o‘ynab yurgan "osiq o‘yini" (yoki ingliz tilida "Hinge bone" deb ataladi) suyaklari ko‘milgan. Shunday qilib, uylarda, uni qurishning ayrim elementlarida, bezash jarayonida, qoraqalpoqlarning urf-odat va an’analarida eski (qadimgi) qarashlar, irim va e’tiqodlarning ayrim yodgorliklarini uchratamiz. Bu urf-odat va an’analarni o‘rganish, ko‘plab etnografik, etnik-tarixiy va etnik-moddiy asarlar natijalarini to‘plash jarayonida aniq materiallar berdi. [3].

Xulosa qilib aytganda, qoraqalpoq milliy yog‘och o‘ymakorligi shunchaki amaliy hunar turi emas, balki xalqning asriy tarixi, tabiati va ruhiyati bilan chambarchas bog‘langan yirik madaniy fenomendir. Ustalar mahalliy iqlimga chidamli bo‘lgan gujum, tol, jiyda kabi daraxt turlaridan foydalanib, nafaqat mustahkam, balki yuksak badiiy qiymatga ega bo‘lgan asarlar yaratishgan. Bugungi kunda Qoraqalpog‘iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyi fondlarida saqlanayotgan noyob o‘ymakorlik namunalari o‘tmish ajdodlarimizning yuksak didi va mahoratidan dalolat beradi. Ushbu milliy merosni asrab-avaylash, zamonaviy dizayn va arxitekturaga integratsiya qilish hamda yosh avlod hunarmandlariga o‘rgatish qoraqalpoq xalqining madaniy o‘ziga xosligini dunyo miqyosida namoyish etishda beqiyos ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Есбергенов Х. Дала материаллары 1967-жыл № 30
2. Allamuratov A. Qoraqalpoq xalq amaliy san’ati turlari va ularning rivojlanish tarixi. – Nurofshon: Toshkent, 2019. – B. 45-48.
3. https://kaa.wikipedia.org/wiki/Qara_%C3%BAy

FAN VA TA’LIM INTEGRATSIYASIDA AKADEMIK ERKINLIK VA AKADEMIK JAMOA SUB’EKTLARINING ROLI

Kudratova Umida Raxmatovna,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Falsafa” kafedrasi dotsenti
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. *Maqolada fan va ta’lim integratsiyasi, universitet ta’limining o‘ziga xos jihatlari hamda unda akademik erkinlikka doir muammolar tahlil etilgan. Akademik jamoa sub’ektlari olim va tadqiqotchilar, professor o‘qituvchi va talabalarning faoliyati, ularga yaratilgan imkoniyat va to‘siqlar, ularni bartaraf etish omillari yoritib berilgan.*
Kalit so‘zlar: *fan va ta’lim integratsiyasi, akademik erkinlik, universitet ta’limi, o‘rganish erkinligi, fikr bildirish erkinligi, akademik jamoa sub’ektlari.*

Аннотация. *В статье анализируется интеграция науки и образования, специфика университетского образования и проблемы, связанные с академической свободой в нем. Освещены деятельность субъектов академического сообщества – ученых и исследователей, профессоров, преподавателей и студентов, создаваемые для них возможности и препятствия, а также факторы их преодоления.*
Ключевые слова: *интеграция науки и образования, академическая свобода, университетское образование, свобода обучения, свобода выражения мнений, субъекты академического сообщества.*

Annotation. *The article analyzes the integration of science and education, the specific aspects of university education, and the problems related to academic freedom in it. The activities of academic community subjects - scientists and researchers, professors, teachers and students, the opportunities and obstacles created for them, and the factors for overcoming them are highlighted.*
Keywords: *integration of science and education, academic freedom, university education, freedom of study, freedom of expression, academic community subjects.*

Zamonaviy taraqqiyot bosqichida universitet ta’limi modellarini XX asr oxiri va XXI asr ijtimoiy voqeliklariga moslashtirish, oliy ta’limning transformatsiyalashgan yangi tizimini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bugungi jamiyatda oliy ta’lim nafaqat inson kapitalini rivojlantirish, balki barqaror iqtisodiy o‘sish hamda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta’minlovchi strategik resursga aylanib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, ta’lim tizimini boshqarish jamiyatni modernizatsiya qilish va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning eng samarali vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Akademik faoliyat insoniyat taraqqiyotida ziyolilarning o‘ziga xos madaniy-ma’rifiy hatti-harakatlari natijasida namoyon bo‘ladi. Bu nafaqat bilim va ko‘nikmalarni egallash, balki ularni amaliyotda samarali qo‘llay olish, kasb-mahoratini egallash, shuningdek, iqtisodiy-ijtimoiy manfaatdorlikka erishishga imkon yaratadi. XX asrda pragmatizm falsafasi vakili Jon Dyui o‘zining “Demokratiya va ta’lim” asarida fan va ta’lim integratsiyasi muammosini tadqiq etadi va mavjud muammolarni tahlil etadi, echimlar taklif etiladi [2]. Natijada, maktab ta’limning o‘ziga xos kamchiliklari, oliy ta’limning imkoniyatlari aniq metodlar yordamida hal etila boshlandi. Bu imkoniyat zamonaviy oliy ta’lim muassasalarining dunyo miqyosida obro‘sini yanada oshishiga, talabalarning real imkoniyatlarini maqsadli yo‘naltirishga, olimlarning ixtirolarini real voqelikka tatbiq etilishiga, ularni manfaatdorligini ortishiga imkon yaratdi. O`zbekistonda ham ochiq va liberal siyosat yurita boshlagach, davlatning fan va ta’lim ustidan nazorat funksiyasi kamayib, bu sohalar liberallashtirildi, dunyoning ilg`or ilm-fan markazlari va ta’lim muassasalari bilan hamkorlik yo`lga qo`yildi.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda oliy ta’lim qamrovini kengaytirish, ta’lim sifatini oshirish, ilmiy salohiyatni mustahkamlash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha keng

ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Qolaversa, tizimdagi mavjud salohiyatdan samarali foydalanish, ilm-fanni iqtisodiyot bilan uzviy bog‘lash, ta’lim va tadqiqot integratsiyasini chuqurlashtirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda 207 ta davlat, xususiy va qo‘sha ta’lim bo‘yicha oliy ta’lim muassasalari faoliyat yuritmoqda. Bu jarayonda universitetning missiyasi, tadqiqot, o‘qitish va jamiyatga xizmat qilish, bir vaqtning o‘zida bardoshli va moslashuvchan ekanligi isbotlangan. Universitetlar bir vaqtning o‘zida o‘zgarishlarning harakatlantiruvchi kuchi, vositachisi va tanqidiy kuzatuvchisi ekanligi ko‘rsatilgan [6].

Fan va ta’lim integratsiyasi – bu ta’lim dasturlari va tadqiqotlarni amaliyotdagi muammolar va ijtimoiy ehtiyojlar bilan mosligini ta’minlash maqsadida ta’lim va fan sohalari o‘rtasidagi o‘zaro foydali hamkorlik va aloqalarni rivojlantirish jarayonidir. Axborotlashuvning o`sishi bilishning, tadqiqotlarning yangi metodlarini taqozo etmoqda. Avvallari fan va ta’limning integratsiyasida kognitiv yondashuv, ya’ni fan va ta’limda muvaffaqiyat o`lchovi qo`yilgan maqsadga natijaning muvofiq kelishi bo`lgan bo`lsa, bugungi kunda bu sohalarni integratsiyalashtirishda muvaffaqiyatning asosiy ko`rsatgichi iqtisodiy yondashuv bilan belgilanmoqda, boshqachacha qilib aytganda samaradorlik, real foyda ko`rish asosiy o`rin egallaydi [3].

Fan va ta’limning integratsiyasi:

-tadqiqotlarning samaradorligi va natijaviyligini oshiradi;

-ta’lim va ilmiy-texnik kadrlar tayyorlash sifati ortishiga olib keladi;

-byudjet resurslaridan samarali foydalanishga olib keladi;

-amaliy ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarning tijoratlashuvi jarayonini va tadbirkorlikning o`zaro aloqasini faollashtiradi;

-ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarga yoshlarning kirib kelishi ortadi.[4]

Demak, fan va ta’lim integratsiyasi akademik faoliyat sub’ektlarining tizimli faoliyati natijasidir. Agar ularga akademik erkinlik va akademik mustaqillik berilmas ekan, biz hech qanday natijaga erisha olmaymiz.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda oliy ta’lim qamrovini kengaytirish, ta’lim sifatini oshirish, ilmiy salohiyatni mustahkamlash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Qolaversa, tizimdagi mavjud salohiyatdan samarali foydalanish, ilm-fanni iqtisodiyot bilan uzviy bog‘lash, ta’lim va tadqiqot integratsiyasini chuqurlashtirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

2026-yil 3-aprelda davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoev, “U10 – O‘zbekistonning global darajadagi ilg‘or universitetlari” dasturi amalga oshirilishi bo‘yicha taqdimotni tahlil qildilar [1]. Dastur doirasida tanlov asosida 10 ta oliy ta’lim tashkilotiga milliy tadqiqot universiteti maqomi berilib, ularda ilmiy klasterlar tashkil etiladi.

Mazkur tanlov professor-o‘qituvchi va olimlar salohiyati, ishtirokchi tashkilotlarning milliy va xalqaro reytinglardagi o‘rni, ilmiy infratuzilmasi hamda moliyalashtirishdagi ulushi kabi ko‘rsatkichlar asosida o‘tkaziladi.Tashkil etiladigan ilmiy klasterlar mahalliy va xorijiy oliy ta’lim tashkilotlari, ilmiy muassasalar hamda sanoat korxonalari hamkorligidagi konsorsium sifatida faoliyat yuritadi. Milliy tadqiqot universiteti maqomi berilgan universitetga ilmiy klaster tashkil etish uchun Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hisobidan 150 milliard so‘mgacha mablag‘ ajratiladi[1].

Akademik erkinlikning mazmunan ro‘yobga chiqishi universitetning institutsional tuzilmasigina emas, balki akademik jamoani tashkil etuvchi sub’ektlarning mavqei, huquqlari va mas’uliyatiga bevosita bog‘liqdir. Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, akademik jamoa sub’ektlari professor-o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar, talabalar hamda akademik boshqaruvda ishtirok etuvchi mutaxassislar majmuasidan iborat bo‘lib, ular akademik erkinlikning tashuvchilari va amalga oshiruvchilari sifatida namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda akademik erkinlik abstrakt tamoyil emas, balki mazkur sub’ektlar faoliyati orqali ijtimoiy voqelikka singadigan amaliy hodisadir.

Professor-o‘qituvchilar akademik jamoaning etakchi sub’ektlari sifatida akademik erkinlikning asosiy mazmunini belgilaydi. Ularning ilmiy izlanish mavzularini tanlash, metodologik yondashuvlarni qo‘llash, ta’lim jarayonida didaktik usullarni mustaqil belgilash va ilmiy natijalarni erkin e’lon qilish huquqi akademik erkinlikning fundamental jihatini tashkil etadi. Falsafiy jihatdan, aynan professor-o‘qituvchining erkinligi bilimning dogmatik yoki ma’muriy talqinlardan xoli holda rivojlanishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, ushbu erkinlik professional mas’uliyat va akademik etikaga rioya etish bilan uyg‘un bo‘lgandagina ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy xodimlar va tadqiqotchilar akademik jamoaning muhim sub’ektlari sifatida akademik erkinlikning innovatsion qirrasini namoyon etadi. Ularning mustaqil ilmiy izlanish olib borish, fanlararo tadqiqotlarni amalga oshirish va yangi ilmiy maktablar shakllantirish imkoniyatlari universitetning ilmiy salohiyatini belgilaydi. Ijtimoiy-falsafiy talqinda tadqiqotchining akademik erkinligi jamiyatning yangilanishga bo‘lgan ehtiyoji bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ilm-fanni ijtimoiy taraqqiyot omiliga aylantiradi.

Talabalar akademik jamoaning faol va istiqbolli sub’ektlari bo‘lib, akademik erkinlik ularning mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va ilmiy izlanishlarga jalb etilish darajasi orqali namoyon bo‘ladi. Ta’lim jarayonida fikr bildirish erkinligi, tanlov fanlari va ilmiy to‘garaklarda ishtirok etish imkoniyati talabalarda akademik madaniyat va fuqarolik mas’uliyatini shakllantiradi [7]. Falsafiy nuqtai nazardan, talabalar erkinligi universitetni bilimni passiv qabul qiluvchi muhitdan erkin tafakkur makoniga aylantiradi.

Akademik boshqaruvda ishtirok etuvchi sub’ektlar, jumladan ilmiy kengashlar, ekspert komissiyalari va akademik qo‘mitalar ham akademik erkinlikning institutsional kafolati hisoblanadi. Ular orqali akademik jamoa universitet siyosatini shakllantirishda ishtirok etadi, qarorlar jamoaviy muhokama asosida qabul qilinadi. Bu jarayon akademik erkinlikni individual huquq darajasidan jamoaviy va institutsional qadriyat darajasiga ko‘taradi.

Ilm-fan nufuziga zarar etkazayotgan “salohiyat illyuziyasi” haqida Komil Jalilovga Britaniyadagi G‘arbiy Angliya universiteti dotsenti Kobil Ruziev so‘zlab berdi [5]. O‘zbekiston va Britaniya doktarantura ta’lm tizimi haqida fikr bildirdi. Britaniya tizimining asosiy ustuni — ishonch va qo‘llab-quvvatlash muhiti. U erda ikki turdagi salohiyat rivojlantiriladi: “Yumshoq salohiyat” — tanqidiy fikrlash, tadqiqot metodlari, tahlil qilish ko‘nikmalari; “Qattiq salohiyat” — ishlash uchun joy, kompyuter, internet, ilmiy bazalarga kirish imkoniyati. Uning aytishicha, Britaniyada doktorantdan birinchi yilda katta hajmda “mahsulot” talab qilinmaydi. Asosiy e’tibor — o‘qish, fikr yuritish va tadqiqotchi sifatida shakllanishga qaratiladi.

“Ilm-fanga munosib bo‘lmagan insonlarga ilmiy daraja berish” butun meritokratiya tizimini zaharlashini ta’kidlaydi. Natijada: haqiqiy olimlar ruhan tushkunlikka tushadi; ilmiy darajaning qadri pasayadi; PhD va DSc signal sifatida ishlamay qo‘yadi.U bu holatni iqtisoddagi “limonlar va shaftolilar bozori” nazariyasi bilan qiyoslaydi: past sifatli “mahsulot” ko‘paysa, yuqori sifatlilari ham qadrsizlanadi. Bu holatning vujudga kelishi o‘z o‘zdan fan va ta’lim integratsiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Keling uning namoyon bo‘lishi va oqibatlarini tahlil qilishga harakat qilamiz. Bunda akademik jamoa sub’ektlarining akademik madaniyati muhim omil hisoblanadi [5].

Akademik jamoa sub’ektlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar akademik erkinlikning real darajasini belgilovchi muhim omildir. Agar ushbu sub’ektlar o‘rtasida ishonch, muloqot va hamkorlik mavjud bo‘lsa, akademik erkinlik barqaror va samarali bo‘ladi. Aksincha, sub’ektlar o‘rtasidagi ierarxik bosim yoki byurokratik to‘siqlar akademik erkinlikni cheklovchi omilga aylanadi. Shu bois ijtimoiy-falsafiy yondashuv akademik erkinlikni sub’ektlararo munosabatlar tizimi sifatida tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, akademik jamoa sub’ektlari akademik erkinlikning nafaqat foydalanuvchilari, balki uni shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi asosiy ijtimoiy kuchdir. Professor-o‘qituvchi, tadqiqotchi, talaba va akademik boshqaruv sub’ektlari o‘rtasidagi mas’uliyatli hamkorlik sharoitida akademik erkinlik universitetning ichki madaniyatiga singib,

uni mustaqil, innovatsion va jamiyat ehtiyojlariga mos ijtimoiy institutga aylantiradi. Shu sababli akademik erkinlikni ta’minlash masalasi, eng avvalo, akademik jamoa sub’ektlarining huquqiy maqomi, madaniy saviyasi va ijtimoiy mas’uliyatini yuksaltirish bilan bog‘liqdir [8].

Tadqiqotlarimiz natijasida, akademik erkinlikni amalga oshirishdagi institutsional cheklovlar boshqaruv, normativ muhit, moliyalashtirish, baholash tizimi va akademik madaniyatning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi degan xulosaga keldik. Bizning fikrimizcha, ushbu cheklovlarni bartaraf etish biryo‘la radikal o‘zgarishlar orqali emas, balki institutsional islohotlar, ichki akademik madaniyatni rivojlantirish va bosqichma-bosqich avtonomiyani kengaytirish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Akademik erkinlikni amalda ro‘yobga chiqarish jarayoni ko‘plab institutsional cheklovlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ushbu cheklovlar oliy ta’lim tizimining tashkiliy tuzilmasi, boshqaruv madaniyati va normativ muhitidan kelib chiqadi. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida akademik erkinlik huquqiy jihatdan e’tirof etilgan bo‘lsa-da, uning real amaliyoti ko‘pincha mavjud institutlar va boshqaruv mexanizmlarining xususiyatlari bilan chegaralanmoqda. Bizning fikrimizcha, mazkur cheklovlarni faqat salbiy hodisa sifatida emas, balki o‘tish davriga xos tizimli muammolar sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Akademik jamoada erkin fikr muhitining shakllanish darajasi akademik erkinlikning real holatini belgilovchi eng muhim sifat ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Erkin fikr muhiti faqat normativ hujjatlar yoki tashqi ruxsatlar bilan emas, balki akademik jamoaning ichki madaniyati, o‘zaro munosabatlari va intellektual odatlari orqali qaror topadi. Bizning fikrimizcha, aynan shu ichki muhit akademik erkinlikning qog‘ozdagi tamoyildan amaliy institutga aylanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Hozirgi bosqichda akademik jamoada erkin fikr muhitining shakllanish darajasi notekis xarakterga ega. Ayrim oliy ta’lim muassasalarida ilmiy munozaralar, ochiq seminarlar va tanqidiy muhokamalar nisbatan faol rivojlanayotgan bo‘lsa, boshqa muassasalarda ehtiyotkorlik va o‘z-o‘zini senzura qilish tendensiyasi ustunlik qilmoqda. O‘ylashimizcha, bu holat akademik erkinlikning huquqiy darajada tan olingani bilan uning ijtimoiy-psixologik jihatdan to‘liq ichkilashtirilmaganini ko‘rsatadi.

Akademik jamoada erkin fikr muhitining shakllanishiga ta’sir etuvchi muhim omillardan biri - ierarxik munosabatlarning ustunligidir. Katta tajribaga ega professor-o‘qituvchilar va yosh tadqiqotchilar o‘rtasidagi masofa, ko‘pincha, erkin ilmiy bahs-munozaralarni cheklaydi. Bizning fikrimizcha, akademik ierarxiyaning qat’iyligi ilmiy avtoritetga hurmat bilan bir qatorda, tanqidiy savollar berish va muqobil yondashuvlarni ilgari surishni murakkablashtiradi. Natijada erkin fikr muhitining shakllanishi sekinlashadi.

Akademik jamoada erkin fikr muhitining rivojlanishiga ta’lim jarayonidagi muloqot madaniyati ham ta’sir ko‘rsatadi. Talabalarning ochiq savol berish, bahslashish va o‘z fikrini himoya qilish imkoniyatlari cheklangan sharoitda, kelajakdagi ilmiy kadrlar ham erkin fikrlash madaniyatini to‘liq egallay olmaydi. Bizning fikrimizcha, auditoriyadagi muloqot shakllari akademik erkinlikning eng dastlabki ijtimoiy makoni bo‘lib, aynan shu erda erkin fikr muhitining poydevori qo‘yiladi.

Shu bilan birga, erkin fikr muhitining shakllanishida ijobiy tendensiyalar ham kuzatilmoqda. Xalqaro hamkorlik dasturlari, qo‘shma tadqiqotlar va akademik mobillik orqali xorijiy ilmiy an’analar bilan tanishish akademik jamoada ochiqlik va pluralizmni kuchaytirmoqda. Bizning fikrimizcha, ushbu tajribalar ichki akademik muhitga singib borar ekan, erkin fikr madaniyatining institutlashuviga xizmat qiladi. Jamoada erkin fikr muhitining shakllanish darajasi hozircha o‘tish bosqichida bo‘lib, unda rivojlanish imkoniyatlari bilan bir qatorda, ichki va tashqi to‘siqlar ham saqlanib qolmoqda. Bizning fikrimizcha, erkin fikr muhitini shakllantirish uchun normativ islohotlar etarli emas, balki akademik madaniyatni rivojlantirish, ochiq muloqot va tanqidiy fikrlashni rag‘batlantiruvchi institutlarni mustahkamlash zarur.

Kobil Ro‘zievning fikricha, asosiy masala — akademik madaniyat va ishonch muhitining yo‘qligi. U quyidagilarni taklif qiladi: universitetlarga ko‘proq mustaqillik berish; tadqiqotchilar o‘rtasida sog‘lom ilmiy muhit yaratish; akademik halollikni “qog‘ozda emas, amalda” shakllantirish. “Doktorlik ta’limining asosiy mahsuloti — dissertatsiya yoki maqola emas, balki kelajakda bilim yarata oladigan tadqiqotchining o‘zi.” Uning markaziy g‘oyasi — ilm-fanni ma’muriy buyruqlar bilan emas, balki: ishonch, akademik erkinlik, tadqiqot madaniyati, meritokratiya, tanqidiy fikrlash orqali rivojlantirish mumkinligidadir[5].

XX asr boshlarida jadid ma’rifatparvarlarining sa’yi harakatlari bilan universitet ta’limining zamonaviy an’anlari mamlakatimizga joriy etildi. Jumladan, Behbudiy to umrining oxirigacha o‘zining sevimli ishi — ma’rifatga sodiq qoldi, hatto, halok bo‘la turib, ma’naviy vasiyat yozishga va uni erkka chiqarib yuborishga muvaffaq bo‘ldi. O‘z vasiyatida do‘stlarini ma’rifat, madaniyat, fanni rivojlantirishga, taraqqiyotga xizmat qilishga da’vat etdi. Behbudiy o‘zining so‘nggi maktubida: “Sizlarga vasiyatim shu: Turkiston farzandlari nodon bo‘lib qolishlari mumkin emas. Hamma-hammaga Ozodlik yo‘lini ko‘rsating!” deb yozgan edi [9].

Shu sababdan, kelgusida tashkil etiladigan universitet klastrlarida imkoniyatlar kengayishi ta’minlanadi. Oliy ta’lim va ilmiy tashkilotlar faoliyatida ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishni kengaytirishga qaratilgan yangi tizim taklif etildi. Jumladan, oliygohlarning “spin-off” korxonalarini tashkil etish orqali “tarmoq – korxona – oliy ta’lim tashkiloti – ilmiy tashkilot” zanjiri asosida innovatsion mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish nazarda tutilmoqda.

Bu orqali ilm-fan natijalarini amaliyotga joriy etish, texnologik transferni kuchaytirish va universitetlarning tadbirkorlik faolligini oshirish maqsad qilingan. O‘zbekistonni mintaqaviy ta’lim xabiga aylantirish maqsadida xorijiy talabalarni jalb etish bo‘yicha yangi mexanizmlar taklif qilindi. Jumladan, har yili respublika davlat oliy ta’lim tashkilotlarida 500 nafargacha iqtidorli chet el fuqarolariga oliy ta’lim olish uchun grant ajratishni nazarda tutuvchi “Yangi O‘zbekiston stipendiyasi” dasturini amalga oshirish belgilanmoqda [1].

Xulosa qilib aytganda, fan va ta’lim integratsiyasi jarayonida akademik jamoa sub’ektlarining akademik erkinligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda akademik jamoaning faol va istiqbolli sub’ektlari – olimlar, tadqiqotchilar ayniqsa talabalarning mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va ilmiy izlanishlarga jalb etilish darajasi orqali namoyon bo‘ladi. Bu ularning akademik madaniyatida, erkin fikr yuritish muhitining mavjudligida, mavjud normativ hujjatlar va boshqaruv tizimining samarali faoliyati natijasida amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirish masalalari muhokama qilindi. Murojaat sanasi: 3.04.2026.
2. Бадин В. А. Концептуализацсия университетского образования (социально-философский аспект): дис. ... канд. филос. наук : 09.00.11 Кемерово, 2007. - 146 с.
3. Юркина, Л. В. (2014). Интеграция науки и образования: тенденции и возможности. Теория и практика общественного развития, (2), 147-149.
4. Егорова, Ю. А. (2008). Проблема интеграции науки и образования. Современные наукоемкие технологии, (1), 30-30.
5. Shaxsga ishonchsizlik va byurokratiya. O‘zbekistonda doktorantura rivojlanishiga nima to‘sqinlik qilmoqda? Kobil Ruziev bilan intervyu.

GEOSIYOSIY INQIROZLAR SHAROITIDA TOLERANTLIK OMILI: SIYOSIY-HUQUQIY YONDASHUV

Rajabova Maftuna Ikrom qizi,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Siyosiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi, s.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. *ushbu maqolada tolerantlik omilini mustahkamlashga qaratilgan xalqaro huquqiy hujjatlar tahlil etilgan. Shuningdek, “tolerantlik” kategoriyasini siyosiy konteksda shakllantirish masalasi tizimli asosda ko‘rib chiqilgan. Bundan tashqari, xalqaro munosabatlar tizimida tolerantlik omilini rivojlantirish zarurati ortib borayotganligiga alohida urg‘u beriladi.*
Kalit so‘zlar: *tolerantlik, axloqiy tamoyil, inson huquqlari, deklaratsiya, BMT, YUNESKO, konferensiya.*

Аннотация. *В данной статье представлен научный анализ международно-правовых документов, направленный на усиление фактора толерантности. Также на системной основе были рассмотрены вопросы формирования категории «толерантность» в политическом контексте. Кроме того, особый акцент делается на растущую необходимость развития фактора толерантности в системе международных отношений.*
Ключевые слова: *толерантность, моральный принцип, права человека, декларация, ООН, ЮНЕСКО, конференция.*

Abstract: *This article presents a scientific analysis of international legal documents aimed at strengthening the factor of tolerance. Also, the issues of forming the category of "tolerance" in the political context were considered on a systematic basis. In addition, special emphasis is placed on the growing need to develop the factor of tolerance in the system of international relations.*
Keywords: *tolerance, moral principle, human rights, declaration, UN, UNESCO, conference.*

Zamonaviy davrning yorqin belgilaridan biri – migratsiya, globallashuv va insoniyat integratsiyasi natijasida yuzaga kelgan madaniy, konfessional, etnik an’analarning aralashib ketishi bo‘ldi. Jahon miqyosida xalqaro aloqalar kengayib, murakkablashib borayotgan davrda, xalqaro munosabatlar tizimida bag‘rikenglik omilini rivojlantirish zarurati ortib bormoqda. Bag‘rikenglik tamoyili bugungi zamonaviy jamiyatning muhim omillaridan biridir. Tolerantlik nafaqat shaxslararo munosabatlarni barqarorlashtirish, balki, siyosiy va huquqiy tizimlarning samarali yo‘lga qo‘yilishida ham muhim omil hisoblanadi. Siyosiy va huquqiy asoslar tolerantlik tamoyilining amalga oshirilishi va rivojlanishida alohida ahamiyatga ega. Mazkur ilmiy maqolada tolerantlik tamoyilining siyosiy-huquqiy asoslarini tahlil qilish va uning amaliy ahamiyatini kuchaytirish asosiy maqsad qilib belgilangan.

Keng ma’noda tolerantlik – bu boshqa shaxsga ham, boshqa madaniy an’anaga ham hurmat bilan munosabatda bo‘lishdir. Bundan tashqari, tolerantlik o‘zgani o‘ziga teng qadriyat sifatida e’tirof etishni, boshqasining mavjudligiga xayrixoh munosabatda bo‘lishni va uning fikrini hurmat qilishni, muloqotga tayyorlikni, haqiqatga olib boradigan turli yo‘llar mavjudligini tushunishni anglatadi. Tolerantlik insonning boshqa individlar va tizimlar bilan muloqot qilish hamda o‘zaro munosabatda bo‘lishga ochiqligi sifatida namoyon bo‘ladi[1].

Tolerantlik jamiyat va davlat hayotining ajralmas bir qismi bo‘lib, inson va uning taraqqiyoti tarixida muhim rol o‘ynaydi. Tolerantlik o‘z navbatida dunyoqarashning o‘ziga xos xususiyati va xulq-atvor strategiyasi ham hisoblanadi. Tolerantlik kategoriyasiga oid ilmiy-falsafiy konsepsiyalarni tahlil qilganda siyosiy omilni yetakchi o‘ringa chiqishini e’tirof etish lozim. Chunki tolerantlik tasodifiy kechadigan to‘da yoki olomonning xohish-irodasi, his-tuyg‘ularining ifodasi emas, balki u etnoslarning, millatlarning tub manfaatlarini ifoda etadigan ijtimoiy-siyosiy hodisadir. Har qanday ijtimoiy hodisa pirovard natijada siyosiy tizim, davlat hayotiga borib taqaladi va siyosiy boshqaruvning strategik maqsadlariga ta’sir etadi. Biroq,

tolerantlikka faqat siyosiy voqelik sifatida yondashish yetarli emas. Tolerantlik ijtimoiy munosabatlarning tarkibiy qismi sifatida keng yondashishni taqozo etadi.

“Tolerantlik” atamasi ilmiy muomalaga XX asr o‘rtalarida ingliz immunolog olimi Piter Brayan Medavar tomonidan kiritilgan bo‘lib, mazkur tushuncha organizm immun tizimining unga ko‘chirib o‘tkazilgan boshqacha hujayralarga nisbatan toqatliligini ifodalash uchun qo‘llanilgan[2,87]. Keyinchalik, ushbu tushuncha boshka fanlarda ham faol ishlatila boshlandi.

Tolerantlikning birinchi tarixiy-siyosiy shakli diniy bag‘rikenglik bo‘lib, uning tamoyili Vestfaliya shartnomasida (1648 yil) o‘rnatilgan. Bu shartnoma butun Germaniya bo‘ylab lyuteranlar, kalvinistlar va katoliklarning huquqlarini tenglashtirish ma’nosida dinlarning tengligi uchun asos yaratdi[3,11].

Birlashgan Millatlar Tashkiloti dunyoda tinchlik, dinlar va konfessiyalararo muloqotni o‘rnatish, millatlar va elatlar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish borasida bir qator ishlarni amalga oshirib, hozirda bag‘rikenglikka oid 70 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo‘lib ularning ichida eng asosiylari: BMT Bosh Assambleyasining 1948-yil 10-dekabrdagi “Inson huquqlari bo‘yicha Vena deklaratsiyasi va harakatlar dasturi”, YUNESCOning 1995-yil 16-noyabrdagi “Tolerantlik tamoyillari to‘g‘risidagi deklaratsiya”, BMT Bosh Assambleyasining 1996-yil 4-noyabrdagi “Xalqaro madaniy hamkorlik to‘g‘risidagi deklaratsiya” va BMT Bosh Assambleyasining 1963-yil 20-noyabrdagi “BMTning Irqiy diskriminatsiyaning har qanday shakllariga barham berish to‘g‘risidagi deklaratsiyasi” hisoblanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 217 A (III) ko‘rsatmasi orqali “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” qabul qilindi. Mazkur deklaratsiya tolerantlik omilini mustahkamlash va ta’minlash bo‘yicha dastlabki xalqaro huquqiy hujjatlardan biri bo‘ldi. O‘z navbatida, ushbu deklaratsiya inson huquqlari va tolerantlikning qonuniy kafolati sifatida butun dunyoda e’tirof etildi.

1960-yil dekabr oyida dunyoning bir qancha joylarida ro‘y bergan antisemitizm voqealaridan so‘ng, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi “irqiy, diniy va milliy adovatning barcha ko‘rinishlari va amaliyotlari”ni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomi va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini buzish sifatida qoralagan rezolyutsiyani qabul qildi. Barcha davlatlar hukumatlarini “irqiy, diniy va milliy adovatning barcha ko‘rinishlarining oldini olish uchun barcha zarur choralarni ko‘rishga”chaqiradi[4].

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 1963-yil

20-noyabrda “Irqiy diskriminatsiyasining har qanday shakllariga barham berish to‘g‘risida”gi[6] deklaratsiya qabul qilindi. Mazkur deklaratsiya o‘n bir moddadan iborat bo‘lib, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining tuzilishiga mos keladi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 1965-yil 21-dekabrda “Irqiy kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida”gi xalqaro konvensiya qabul qilindi va 1969-yil 4-yanvarda kuchga kirdi. Mazkur konvensiya inson huquqlari bo‘yicha uchinchi avlod hujjati bo‘lib, konvensiyani qabul qilgan davlatlar irqiy kamsitishni bartaraf etish va barcha irqlar o‘rtasida o‘zaro tushunishni rivojlantirish majburiyatini oladi. 2020-yil iyul holatiga ko‘ra, ushbu konvensiya 88ta imzolovchi va 182ta partiyaga ega. Konvensiya Irqiy kamsitishlarga barham berish qo‘mitasi tomonidan nazorat qilinadi[5].

Tolerantlikni mustahkamlashga qaratilgan xalqaro huquqiy hujjatlardan eng asosiysi – 1995-yil 16-noyabrda Parijda YUNESKO Bosh Konferensiyasining 28-sessiyasida e’lon qilingan “Tolerantlik tamoyillari deklaratsiyasi” hisoblanib, unda maktab va universitetlarda, uyda va ishda bag‘rikenglik ruhini tarbiyalash, ochiqlik, o‘zaro tushunish va hamjihatlik munosabatlarini shakllantirish zarurligi ta’kidlangan. Mazkur deklaratsiya inson huquqlari, madaniyatlararo muloqot va ijtimoiy birlashuvni rivojlantirish maqsadida qabul qilingan. Deklaratsiyaning e’lon qilinishi jahon bo‘ylab bag‘rikenglikni kuchaytirish, turli xil kamsitish va diskriminatsiyaga qarshi kurashish, shuningdek, turli madaniyatlar va dinlar o‘rtasida o‘zaro hurmatni mustahkamlash hamda nizolarni tinch yo‘l bilan bartaraf qilish maqsadida amalga oshirilgan.

Ushbu hujjatda tolerantlik tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan:

Tolerantlik – bizning dunyomizdagi turli boy madaniyatlarni, o‘zini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish, qabul qilish va to‘g‘ri tushunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, ochiq muloqot hamda hur fikr, vijdon va e’tiqod vujudga keltiradi.

Tolerantlik – turli-tumanlikdagi birlikdir. Bu faqat ma’naviy burchgina emas, balki, siyosiy va huquqiy ehtiyoj hamdir. Tolerantlik – tinchlikka erishishni musharraf qilguvchi va urush madaniyatsizligidan tinchlik madaniyatiga elituvchidir.

Tolerantlik – yon berish, andisha yoki xushomad emas. Tolerantlik – eng avvalo insonning universal huquqlari va asosiy erkinliklarini tan olish asosida shakllangan faol munosabatdir. Har qanday vaziyatda ham tolerantlik ana shu asosiy qadriyatlarga tajovuzlarning bahonasi bo‘lib xizmat qilmaydi. Tolerantlikni alohida shaxslar, guruhlar va davlatlar namoyon qilishi lozim.

Tolerantlik – inson huquqlarini qaror topdirish, plyuralizm (shu jumladan, madaniy plyuralizm), demokratiya va huquqning tantanasi uchun ko‘maklashish majburiyatidir. Tolerantlik aqidabozlikdan, haqiqatni mutlaqlashtirishdan voz kechishni anglatuvchi va inson huquqlari sohasidagi xalqaro-huquqiy hujjatlarda o‘rnatilgan qoidalarni tasdiqlovchi tushunchadir.

Tolerantlik tamoyillari asosiy huquq va erkinliklar sifatida huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan va xalqaro deklaratsiyalarda e’lon qilingan. Bu yerda asosiy hujjat – Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, shuningdek, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt hisoblanadi. Yevropa Kengashi doirasida Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish bo‘yicha Yevropa konvensiyasi amal qilmoqda. Konvensiyaning 12-Protokoli kuchga kirdi, uni ratifikatsiya qilgan davlatlarga hech qanday kamsitilishlarsiz har qanday huquqlarni kafolatlash majburiyati yuklandi va majburiyatlarni bajarmagan taqdirda jazo mexanizmi nazarda tutiladi. “Tolerantlik tamoyillari Deklaratsiyasi” tolerantlik sohasidagi eng muhim xalqaro hujjat bo‘lib, u barcha xalqlarning tinchligi va ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy rivojlanishi uchun zarurdir.

XXI asrning boshida BMTning Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti (YUNESKO) tashabbusi bilan tinchlik va zo‘ravonliksiz madaniyatga global o‘tish zarurligiga e’tibor qaratildi. U “Manifest 2000” deb nomlandi (2000-yil Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan Xalqaro Tinchlik Madaniyati yili deb e’lon qilingan) va imkon qadar ko‘proq tinchlik va zo‘ravonlik urug‘larini ekishning o‘n yillik ishning boshlanishini belgiladi. Manifest 6 ta banddan iborat bo‘lib, ular yuqori organga murojaat qilmagan, lekin individual majburiyat va mas’uliyatni ifodalagan – Beshta ongni rivojlantirish treningining o‘ziga xos o‘zgarishi. Manifestni millionlab odamlar, jumladan, prezidentlar va bosh vazirlar imzoladilar. Imzolovchilar ushbu hujjatdagi 6 bandni amalda qo‘llash majburiyatini oldilar[8].

2018-yilning 12-dekabrida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi o‘zining yalpi majlisida “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” nomli maxsus rezolyutsiyani qabul qildi[9]. Loyihasi O‘zbekiston tomonidan ishlab chiqilgan mazkur hujjat BMTga a’zo davlatlarning barchasi tomonidan bir ovozdan qo‘llab-quvvatlandi. Rezolyutsiyaning qabul qilinishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 19-sentabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ilgari surgan tashabbusning amaliy ijrosi hisoblanadi.

Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik to‘g‘risidagi rezolyutsiyaning BMTga a’zo davlatlar tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi shuni anglatadiki, 51 ta davlat O‘zbekiston tomonidan ilgari surilgan konstruktiv taklif, ya’ni dunyodagi mavjud barcha dinlarga nisbatan ma’naviy bag‘rikenglik madaniyatini kuchaytirishga doir g‘oyani qo‘llab-quvvatladilar. Chunki ushbu rezolyutsiya bag‘rikenglik bilan birga madaniy va diniy bilimlarni kuchaytirish tamoyilini ham olg‘a surgan holda, global tinchlik va farovonlik uchun muhim ustuvor yo‘nalish sifatida xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Mazkur rezolyutsiya nafaqat BMTga a’zo davlatlar tomonidan bir ovozdan qo‘llab-quvvatlangani, balki Shimoliy Amerika va Lotin Amerikasi, Osiyo, Afrika va

boshqa qit’alarning 50 dan ziyod mamlakatlari bilan hammualliflikda qabul qilingani e’tiborga molik. Bu xalqaro hamjamiyat tomonidan O‘zbekiston Prezidenti tashabbusining dolzarbligi va o‘z vaqtida ilgari surilgan taklif ekanining yuksak e’tirofidan dalolatdir.

Davlat va jamiyat darajalarida namoyon bo‘ladigan tolerantlik o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Xususan, demokratik davlatda irqi, millati, dini, tili, iqtisodiy ahvoli, jismoniy holati, ijtimoiy kelib chiqishi va boshqa farqlovchi belgilaridan qat’iy nazar barcha fuqarolar uchun qonun asosida teng huquq, erkinlik, majburiyat va imkoniyatlar huquqiy kafolatlanadi. Bundan tashqari, davlatning tolerant munosabati har bir inson va ijtimoiy guruhning iqtisodiy farovonligi va ijtimoiy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek, turli millat va din vakillariga nisbatan toqatsizlik, hurmatsizlik va murosasizliklarning oldini olishga qaratilgan tizimli ishlarni muntazam ravishda olib borishda yaqqol namoyon bo‘ladi. Tolerantlikni ta’minlashda siyosiy-huquqiy asoslar muhim rol o‘ynaydi. Chunki mazkur huquqiy asoslar shaxslararo va davlatlar o‘rtasida tenglik, adolat, o‘zaro hurmat va hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda xalqaro maydonda yuz berayotgan turli xil geosiyosiy va etnik nizolarning asl sabablaridan biri sifatida tolerantlik omilining yemirilib borayotganligini ko‘rsatish mumkin. Turli mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatlar ham huddi turli insonlar o‘rtasidagi munosabatlarga o‘xshaydi. Zero, insonlar o‘zgalarning umuminsoniy huquqlarini tan olib, hurmat qila olsa, ularga nisbatan kechirimli va sabrli bo‘la olsagina ular o‘rtasida tinchlik, do‘stlik, o‘zaro ishonch va hamkorlik, bag‘rikenglik kabi ahamiyatga molik fazilatlar shakllanadi. Odamlar o‘rtasida o‘zaro ishonch va murosaning mavjud emasligi ular orasida turli xil konfilektlarning yuzaga kelishiga olib keladi. Insonlarning “ishonch”, “murosa”, “bag‘rikenglik”, va “sabr” tushunchalariga bo‘lgan munosabati vaziyatlarning ijobiy yoki aksincha salbiy jihatlar bilan yakunlanishini belgilab berishi mumkin.

Jamiyatda tolerantlik tamoyilini rivojlantirish uchun turli xil davlat va nodavlat tashkilotlar, fuqarolik jamiyati vakillari hamda xalqaro siyosiy institutlar o‘rtasida hamkorlikni takomillashtirish zarur. Shuningdek, tolerantlikni mustahkamlash uchun mavjud siyosiy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish va uning ijrosini ta’minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish lozim. Ushbu siyosiy-huquqiy baza inson huquqlarini himoya qilishi va diskriminatsiyani to‘liq bartaraf qilishi zarur. Bundan tashqari, millatlararo muloqotni rivojlantirish va OAVlari orqali bag‘rikenglikni targ‘ib qilish ham samarali natijalarga erishishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Баева Л.В. Толерантност: идея, образы, персоналии.: Доктор философских наук. монография. –Астрахань: Издательский дом “Астраханский университет”. 2009. – С. 5-6.

2. Меньшикова Н.С. Феномен “толерантность”, сущностная характеристика и правовье основы формирования культуры толерантности в эпоху мультукультурализма. // Вестник Санк-Петербургского универстета МВД России № 3 (67) 2015. – С. 87.

3. Муллагалиева Л.К. Язык толерантности.: Доктор педагогических наук. Монографии. – Уфа. 2012. – С. 11.

4. International Convention on the Elimination of All Forms of Racial Discrimination. United Nations General Assembly.21 december 1965.

5. Declaration on the Elimination of All Forms of Racial Discrimination.United Nations General Assembly.20 november, 1963.

INNOVATSION-RAQAMLI MUHITDA MAGISTRLARNING IJODIY SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNING TARKIBIY KOMPONENTLARI VA DIDAKTIK ASOSLARI

Turmatov Jaloliddin Raxmatullayevich,
A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat
pedagogika universiteti dotsenti,
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada innovatsion-raqamli muhitda magistrlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishning nazariy-didaktik asoslari tahlilqilingan. Ijodiy salohiyatni rivojlantirishning motivatsion, kognitiv, faoliyatli (amaliy) hamda refleksiv baholash komponentlarining mazmuni ochib berilgan va ularning o‘zaro bog‘liqligi asoslangan. Shuningdek, J.M.Kellerning ARCS-V modeli, J.Dewey, D.Kolb, S.Papert, D.A.Schön, va J.Mezirovlarning ilmiy qarashlari asosida magistrlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish mexanizmlari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *innovatsion-raqamli muhit, magistr, ijodiy salohiyat, motivatsion komponent, kognitiv komponent, faoliyatli (amaliy) komponent, refleksiv-baholash komponenti, kreativlik, raqamli kompetensiya, interaktiv metodlar.*

Аннотация. *В данной статье анализируются теоретико-дидактические основы развития творческого потенциала магистров в инновационно-цифровой среде. Раскрыто содержание мотивационного, когнитивного, деятельностного (практического) и рефлексивного компонентов оценки развития творческого потенциала и обоснована их взаимосвязь. Также освещены механизмы развития творческого потенциала магистров на основе модели ARCS-V Дж.М.Келлера, научных взглядов Дж.Дьюи, Д.Колба, С.Паперта, Д.А.Шона и Дж.Мезирова.*

Ключевые слова: *инновационно-цифровая среда, магистр, творческий потенциал, мотивационный компонент, когнитивный компонент, деятельностный (практический) компонент, рефлексивно-оценочный компонент, креативность, цифровая компетенция, интерактивные методы.*

Abstract. *This article analyzes the theoretical and didactic foundations for developing the creative potential of masters in an innovative digital environment. The content of the motivational, cognitive, activity-based (practical), and reflexive assessment komponents for the development of creative potential is revealed, and their interconnection is substantiated. Additionally, J.M. Keller’s ARCS-V model and the mechanisms for developing master’s students’ creative potential based on the scientific views of J. Dewey, D. Kolb, S.Papert, D.A.Schön, and J.Mezirov are highlighted.*

Keywords: *innovative digital environment, master's degree, creative potential, motivational komponent, cognitive komponent, active (practical) komponent, reflexive-evaluative komponent, creativity, digital competence, interactive methods.*

Kirish. Jahon miqyosida raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi ta’lim tizimiga ham yangi talablarni qo‘ymoqda. Zamonaviy mehnat bozori sharoitida mutaxassisdan nafaqat chuqur nazariy bilim, balki kreativ fikrlash, innovatsion yondashuv, murakkab muammolarni hal etish, raqamli texnologiyalar bilan ishlash va tez o‘zgarayotgan sharoitlarga moslasha olish kabi kompetensiyalar talab etilmoqda. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida, ayniqsa magistratura bosqichida ta’lim olayotgan talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlash, ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirish hamda ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

Tadqiqotning asosiy natijalari. Bugungi kunda raqamli muhit ta’lim mazmuni tashkil etish jarayonlarini modernizatsiya qilishning muhim omili hisoblanadi. Texnologik taraqqiyot va intellektuallashuv sharoitida innovatsion-raqamli ta’lim muhiti bo‘lajak mutaxassis-larning ijodiy salohiyatini rivojlantiish, innovatsion texnologiyalarni amaliy qo‘llash hamda individual

va jamoaviy ijodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Innovatsion-raqamli muhitda magistrlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda tarkibiy komponentlar va didaktik asoslarni to‘g‘ri tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda asosan quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish kerak:

1. Motivatsion komponent - magistrlarning ijodiy faoliyatga bo‘lgan ichki ehtiyoji, qiziqish va innovatsion faoliyatga ijobiy munosabatini ifodalaydi. Ushbu komponent mustaqil izlanishga rag‘batlantirish, innovatsion g‘oyalarni qo‘llab quvvatlash, raqamli texnologiyalar asosida ijodiy topshiriqlar berish hamda ilmiy loyihalar va startap faoliyatga jalb etish orqali rivojlantiriladi. Natijada magistrlarda ijodiy o‘sishga intilish, raqmli texnologiyalardan samarali foydalanish motivatsi-yasi, kasbiy va shaxsiy rivojlanishni muhim maqsad sifatida anglash, o‘z ustida ishlash va yangilik yaratishga bo‘lgan intilish kuchayadi.

J.M.Kellerning fikricha **motivatsion komponent** - magistrlarning innovatsion-raqamli muhitda ijodiy faoliyatga bo‘lgan qiziqishi, yangi g‘oyalarni yaratishga intilishi, raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirishga tayyorligi, kasbiy o‘zini rivojlantirish ehtiyoji hamda maqsadga erishishdagi qat’iyatni ifodalovchi ichki motivlar va ehtiyojlar tizimdir. ARCS-V (diqqat, ahamoyatlilik, ishonch, qoniqish, irodaviy barqarorlik) modeliga ko‘ra motivatsion komponentning asosiy tarkibi diqqat va qiziqishni uyg‘otish, faoliyatning shaxsiy va kasbiy ahamiyatini anglash, muvaffaqiyatga erishish imkoniyatiga ishonch, erishilgan natijalardan qoniqish hosil qilish, maqsad sari izchil va qat’iyatli harakat qilish kabilar kiradi.

2. Kognitiv (bilimga oid) komponent - shaxsning bilimlarni egallash, axboortni qabul qilish, qayta ishlash, tahlil etish va amaliy faoliyatda qo‘llashga doir intellektual salohiyatni ifodalaydi. Mazkur komponent magistrlarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini samaralitashkil etishi, innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqishi va raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan oqilona foydalanishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kognitiv kompenetning mazmuni magistrlarning zamonaviy raqamli texnolo-giyalar, innovatsion pedagogik yondashuvlar hamda ilmiy tadqiqot metodologiyasi bo‘yicha tizimli bilimlarni egallashini nazarda tutadi. Shu bilan birga u raqamli platformalar va sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish, katta hajmdagi axborotlarni izlash, saralash va tahlil qilish, kreativ fikrlash strategiyalarini qo‘llash hamda fanlararo integratsiyasini ta’minlash kabi kompetensiyalarni qamrab oladi.

Mazkur komponentning muhim jihatlaridan biri tanqidiy va tahliliy (analitik) tafakkurning rivojlanganligidir. Tanqidiy fikrlash magistrlarda mavjud ma’lumot-larni, muamolarni aniqlash va asoslangan xulosalar chiqarish imkonini bersa, tahliliy (analitik) tafakkur murakkab vaziyatlarni tahlil qilish va innovatsion yechimlar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Shuningdek, verbal intellektning rivojlanganligi ilmiy g‘oyalarni aniq ifodalash, akademik muloqotni tashkil etish va tadqiqot natijalarini samarali taqdim etishga yordam beradi.

Shunday qilib, innovatsion-raqamli muhitda magistrlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishning kognitiv komponenti ilmiy bilimlar tizimi, axborot bilan ishlash kompetensiyasi, tanqidiy va anlitik fikrlash, verbal intellekt hamda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish ko‘nikmalarining integratsiyalashgan majmuasi bo‘lib, ularning ijodiy faoliyat, ilmiy izlanish va innovatsion mahsulotlar yaratishdagi muvaffaqiyatini ta’minlaydi [5].

3. Faoliyatli (amaliy) komponent - nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash alohida ahamiyatga ega, bunda, loyiha asosida o‘qitish, muammoli vaziyatlarni yechish, case-study metodlari, virtual laboratoriyalar, online hamkorlik platformalaridan foydalanish samarali hisoblanadi. Magistr innovatsion-raqamli muhitda real muammolar ustida ishlash orqali ijodiy tajriba orttiradi.

John Deweyning tajriba va ta’lim haqidagi qarashlarga ko‘ra, ta’limning samaradorligi o‘qituvchining faol amaliy ishtiroki va tajribalarni uzluksiz qayta qurish bilan belgilanadi. Shu bois faoliyatli komponent magistrlarning ijodiy salohiyatni namoyon etish va rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi.

David Kolbning ishlarini o‘rganish natijasida faoliyatli (amaliy) komponent - magistrlarning innovatsion-raqamli muhitda bilimlarni amaliyotga tatbiq etish, muammolarni hal etish, loyiha va tadqiqot faoliyatini amalga oshirib, raqamli vositalardan foudalanish hamda yangi g‘oyalarni sinovdan o‘tkazish ko‘nikmalarini ifodalaydi. Mazkur komponent tajriba asosida o‘qitish va faol eksperimentlar orqali rivojlanadi [6].

Seymour Papertning ilmiy asarlari asosan faoliyatli (amaliy) komponent - magistrlarning innovatsion-raqamli muhitda loyiha, modellashtirish, dasturlash va tasqiqotchilik faoliyatlarini amalga oshirish, raqamli vositalar yordamida muammolarni hal etish hamda yangi g‘oyalarni amaliyotga sinovdan o‘tkazish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Seymour Papert konsepsiyasiga ko‘ra ijodiy salohiyat faol amaliy faoliyat va bilimlarni mustaqil mazmunan shakllantirish (konstruksiya qilish) jarayonida samarali rivojlanadi.

Faoliyatli (amaliy) komponent magistrlarning innovatsion-raqamli muhitda ijodiy faoliyatni amalga oshirish, muammolarni aniqlash va hal etish, raqamli texnologiyalar vositasida yangi g‘oyalarni ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish ko‘kmalarini qamrab oladi. Mazkur komponent tajriba asosida o‘qitish, loyiha faoliyati, tadqiqotchilik yondashuvi, hamkorlikdagi ishlar va refleksiv tahlil orqali rivojlantiriladi.

4. Refleksiv-baholash komponenti (aks ettirish va baholash). Ijodiy faoliyat natijalarini tahlil qilish va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmasini rivojlantirish zarur. Bu komponnentning muhim jihatlari, ekeltron portfolio yuritish, o‘z faoliyatini monitoring qilish, o‘zaro baholash (peer-review), raqamli analitika vositalari orqali natijalarni kuzatishlar hisoblanadi. Bu magistrning o‘z ustida ishlash strategiyasini shakllantiradi.

Magistrlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda refleksiv-baholash komponenti magistrlarni shunchaki ilmiy yoki boshqa manbalardan olingan tayyor ma’lumotlarni qo‘llovchi ijrochi emas, balki noaniqlik vaziyatlarida ijodiy qaror qabul qila oladigan, o‘z faoliyatini doimiy tahlil va monitoring qilib boruvchi “mulohazakor mutaxassis” (reflective practitioner) sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu komponentni ahamiyatli tomonlari harakatdagi aks ettirish, ya’ni faoliyat jarayoninig o‘zida refleksiyani yuritish, intiutiv bilimlarni tahlilqilish, muammoni qo‘ya bilish, tajriba va xatolardan o‘rganish, bir xil qolipga tushib qolishga qarshi kurashishlarda namoyon bo‘ladi.

Refleksiv-baholash jarayoni magistrga o‘z faoliyatining mazmuni va natijalarini tanqidiy ko‘rib chiqish, mavjud yondashuvlarning samaradorligini baholash hamda zarurat tug‘ilganda ularni takomillashtirish imkonini beradi. Natijada magistrning o‘z-o‘zini baholash, mustaqil xulosa chiqarish, muammolarga yangicha yondashish va innovatsion yechimlar ishlab chiqish qobiliyatirivojlanadi. Bu esa uning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish va kasbiy faoliyatga yuqori natijalarga erishishiga xizmat qiladi.

Jack Mezirovning transformativ ta’lim nazariyasiga ko‘ra refleksiv-baholash komponenti magistrning o‘z tajribasi, bilimlari va faoliyati natijalarini tanqidiy tahlil qilish, mavjud qarashlarini qayta ko‘rib chiqish hamda o‘zining kasbiy va ijodiy faoliyatni takomillashtirish va yangi innovatsion g‘oyalarni shakllantirish uchun zarur shart hisoblanadi.

Innovatsion-raqamli muhitda magistrlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish-ning didaktik asoslari shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, interaktiv va innovatsion metodlar, zamonaviy platformalardan foydalanish va bir qancha kompetensiyalarning shakllanishiga asoslanadi. Ushbu asoslar magistrantlarni an’anaviy yodlashdan tashqariga chiqishga, ularni faol, mustaqil original bilim ijodkorlariga aylantirishga imkon beradi.

Innovatsion-raqamli muhitda magistrlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish-ning didaktik asoslarida e’tibor qaratiladigan jihatlar:

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim. Har bir magistrning individual qobiliyati, ilmiy qiziqishi va ijodiy imkoniyatlarini hisobga olish zarur. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning asosiy tamoyillari va uslublari ta’lim jarayonini yanada samarali, har bir o‘quvchining ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etishga imkon yaratadi. Ushbu ta’lim tizimida o‘quvchi o‘zining shaxsiy qobiliyatlari va qiziqishlariga qarab ta’lim oladi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning tamoyillari

o‘quvchilarni markazga qo‘yish va ularga individual yondashish asosida quriladi. Bunda har bir o‘quvchi o‘zining o‘rganish usulini, tezligini va qiziqishlarini hisobga olgan holda ta’lim oladi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning asosiy tamoyillaridan biri - individual yondashuvdir. Bu tamoyil ta’lim jarayonida har bir o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlarini, qobiliyatlarini va ehtiyojlarini inobatga olishni nazarda tutadi. Ikkinchi tamoyil - ta’limda o‘quvchining faol ishtiroki. O‘quvchi ta’lim jarayonida faol ishtirok etishi, o‘rgatishdan ko‘ra o‘rganish jarayoniga ko‘proq e’tibor qaratish kerak. Bundan tashqari, shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda differensatsiya prinsipi ham muhim rol o‘ynaydi. Bu prinsipi ta’lim jarayonida o‘quvchilarning turli ehtiyojlari, qobiliyatlari va qiziqishlari hisobga olinadi [1,2,3,4].

Innovatsion-raqamli muhitda magistrlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish-da LMS tizimlari, sun’iy intellekt asosidagi ta’lim vositalari, bulutli texnologiyalar, virtual va augmendet reality elementlari, hamkorlik va kommunikativlik kabi zamonaviy platformalardan foydalanish; jamoada ishlashi, ilmiy hamkorlik olib borishi, xalqaro akademik platformalarda ishtirok etish, raqmli kommunikatsiya madaniyatini rivojlantirish, kompetensiyaviy yondashuv muhim hisoblanadi. Ta’limning natijasi sifatida kreativlik, tanqidiy fikrlash, muammolarni yechish, raqamli savodxonlik, innovatsion faoliyat kompetensiyalari shakllanishi kerak.

Xulosa. Innovatsion-raqamli muhit magistrlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun keng pedagogik va texnologik imkoniyatlarni yaratadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ijodiy salohiyatning samarali rivojlanishi motivatsion, kognitiv, faoliyatli hamda refleksiv-baholash komponentlarining o‘zaro integratsiyasi asosida amalga oshadi. Motivatsion komponent magistrlarning innovatsion faoliyatga qiziqishi va ichki ehtiyojlarini shakllantirsa, kognitiv komponent zamonaviy bilimlar, tanqidiy va analitik fikrlashni rivojlantiradi. Faoliyatli komponent nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish va innovatsion mahsulotlar yaratish imkonini bersa, refleksiv-baholash komponenti esa o‘z faoliyatini tahlil qilish, baholash va takomillashtirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, brainstorming, project-based learning, problem-based learning, case study, design thinking, STEAM, gamifikatsiya, blended learning, flipped classroom, hackathon va kollaborativ ta’lim kabi metodlardan foydalanish magistrlarning ijodiy faolligini oshirishga yordam beradi. LMS tizimlari, sun’iy intellekt vositalari, bulutli texnologiyalar, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari esa ushbu jarayonning samaradorligini yanada kuchaytiradi.

Demak, innovatsion-raqamli muhitda magistrlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishning didaktik asoslarini takomillashtirish ularning kreativ fikrlash, muammolarni hal etish, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati va innovatsion kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdurahmonov S. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda individual yondashuv va uning samaradorligi. Tashkent: O‘zbekiston oliy ta’lim akademiyasi nashriyoti. 2021 y.

2. Aminov A. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning nazariy asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi. 2020 y.

3. Boshbekov F. (2021). O‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim usullari. Toshkent: “Science and Education” nashriyoti.

4. Gulomov B., Mirzayev A.Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim: Asosiy tamoyillar va amaliyot. Toshkent: Fan va texnologiya. 2019 y.

5. Бусыгина А.Л., Макеев Д.К. Формирование когнитивного компонента готовности будущих учителей к исследовательской деятельности. 2025 г.

6. David A. Kolb. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development, 2nd edition Published by Pearson FT Press (December 12, 2014). 2015.

BIRINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA TURKISTONDA QOCHOQLAR SOG‘LIG‘I VA SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK NAZORAT TIZIMI

Jaxongir Tojiboyev,
Namangan davlat universiteti doktoranti
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),

Annotatsiya. *Maqolada Birinchi jahon urushi yillarida Turkiston o‘lkasiga kelgan qochoqlar orasida tarqalgan kasalliklar, ularni davolash, izolyatsiya qilish, emlash va sanitariya-epidemiologik nazoratga olish amaliyoti tadqiq etiladi. O‘zbekiston Milliy arxivi hujjatlari asosida chechak, tif, qizamiq, dizenteriya, bezgak, bronxit kabi kasalliklarning tarqalishi, bemorlarni shahar va zemstvo davolash muassasalariga joylashtirish, bepul tibbiy yordam hamda dori-darmon bilan ta’minlash jarayonlari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *qochoqlar, Turkiston, Birinchi jahon urushi, chechak, tif, karantin, emlash, sanitariya nazorati*

Аннотация. *В статье исследуются заболевания, распространявшиеся среди беженцев, прибывших в Туркестанский край в годы Первой мировой войны, а также практики лечения, изоляции, вакцинации и санитарно-эпидемиологического контроля. На основе документов Национального архива Узбекистана анализируются распространение оспы, тифа, кори, дизентерии, малярии и бронхита, размещение больных в городских и земских лечебных учреждениях, оказание бесплатной медицинской помощи и обеспечение лекарствами.*

Ключевые слова: *беженцы, Туркестан, Первая мировая война, оспа, тиф, карантин, вакцинация, санитарный контроль.*

Abstract. *The article examines diseases that spread among refugees who arrived in Turkestan during the First World War, as well as the practices of treatment, isolation, vaccination, and sanitary-epidemiological control. Drawing on documents from the National Archive of Uzbekistan, the study analyzes the spread of smallpox, typhus, measles, dysentery, malaria, and bronchitis; the placement of patients in municipal and zemstvo medical institutions; and the provision of free medical assistance and medicines.*

Keywords: *refugees, Turkestan, First World War, smallpox, typhus, quarantine, vaccination, sanitary control.*

Kirish. Birinchi jahon urushi yillarida Rossiya imperiyasi hududlarida yuzaga kelgan majburiy migratsiya jarayonlari Turkiston o‘lkasining ijtimoiy va tibbiy infratuzilmasiga sezilarli bosim o‘tkazdi. Front hududlaridan ko‘chirilgan qochoqlarni qabul qilish va joylashtirish bilan bir qatorda, ularning sog‘lig‘ini muhofaza qilish, yuqumli kasalliklarning mahalliy aholi orasida tarqalib ketishining oldini olish ham o‘lka ma’muriyati oldidagi muhim vazifalardan biriga aylandi.

Maqolaning maqsadi Turkistonda Birinchi jahon urushi davrida qochoqlar orasida yuzaga kelgan kasalliklar, tibbiy yordam ko‘rsatish tizimi, karantin va sanitariya-epidemiologik nazorat amaliyotini arxiv hujjatlari asosida tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda qochoqlar sog‘lig‘i masalasi faqat tibbiy muammo sifatida emas, balki urush davri ijtimoiy boshqaruvi, sanitariya xavfsizligi va insonparvarlik yordami bilan bog‘liq kompleks tarixiy hodisa sifatida ko‘rib chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili. Mavzuning asosiy manbaviy bazasini O‘zbekiston Milliy arxivining I-17-fondi, 1-ro‘yxati, 29708-yig‘ma jildi hamda I-1-fondi, 27-ro‘yxati, 1781-yig‘ma jildida saqlanayotgan hujjatlar tashkil etadi. Ushbu materiallarda qochoqlar orasida chechak, tif, qizamiq, dizenteriya va boshqa yuqumli kasalliklar tarqalishi, bemorlarni shifoxonalarga joylashtirish, emlash, dezinfeksiya va karantin muddatlari bilan bog‘liq ma’muriy-tibbiy ko‘rsatmalar aks etgan.

Arxiv hujjatlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, qochoqlar sog‘lig‘i masalasi Turkiston general-gubernatorligi, shahar boshqarmalari, zemstvo davolash muassasalari va xayriya tashkilotlari faoliyati kesishgan boshqaruv maydonida hal etilgan. Shu sababli mavzuni o‘rganishda tibbiy-statistik ma’lumotlar, ma’muriy buyruqlar va sanitariya tartiblarini o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tarixiy-tahliliy, manbashunoslik, qiyosiy-tarixiy va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Arxiv hujjatlaridagi ma’lumotlar kasallik turlari, tibbiy yordam shakllari, karantin muddatlari va sanitariya choralarining mazmuni bo‘yicha guruhlashtirildi. Jadval materiallari yuqumli kasalliklar bo‘yicha karantin siyosatining differensial xususiyatlarini aniqlash uchun tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Qochoqlar orasida turli xil kasalliklar tarqalgan. Bular ichida keng uchraydigani chechak kasalligidir[2]. Chechak kasalligining ommaviy tus olishi qochoqlar yashash sharoitlarining sanitariya-gigiyena talablariga to‘liq javob bermaganini, aholi zichligi yuqori bo‘lgan kazarma va lagerlarda kasalliklarning tez tarqalishiga qulay muhit mavjud bo‘lganini anglatadi. Chechakning keng uchrashi, bu kasallikning yuqori yuqumliligi va og‘ir kechishi bilan birga, urush davrida tibbiy nazorat va profilaktika choralarining yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganini ham ko‘rsatadi. Shu bilan birga, chechak kasalligining keng tarqalishi qochoqlar masalasida epidemiologik xavf omili mavjud bo‘lganini, bu esa nafaqat qochoqlar, balki mahalliy aholi salomatligi uchun ham jiddiy tahdid tug‘dirganini ilmiy jihatdan asoslaydi. Mazkur holat hukumat va mahalliy ma’muriyat tomonidan sanitariya nazoratini kuchaytirish, kasallanganlarni izolyatsiya qilish va emlash kabi profilaktik choralarni ko‘rish zaruratini yuzaga keltirgan. 1915-yil kuziga kelib Toshkent shahrida qochoqlar orasida sog‘liqni saqlash va epidemiologik xavfsizlik masalalariga tizimli va maqsadli yondashuv shakllangan. 1915-yil oktabr oyida Toshkent shahridagi qochoqlar yoppasiga chechakka qarshi emlangan[3]. Bu holat chechak kasalligining keng tarqalish xavfi davlat va mahalliy ma’muriyat tomonidan jiddiy epidemiologik tahdid sifatida baholanganini anglatadi. Yoppasiga emlash amaliyotining joriy etilishi, qochoqlar orasida kasallikni individual davolash bilan cheklanib qolmasdan, profilaktik tibbiyot choralariga ustuvor ahamiyat berilganini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi. Bu kabi chora-tadbirlar nafaqat qochoqlar salomatligini himoya qilishga, balki yirik shahar markazi bo‘lgan Toshkentda epidemiyaning mahalliy aholi orasida tarqalib ketishining oldini olishga qaratilgan muhim sanitariya chorasi sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, emlash tadbirining aynan Toshkent shahrida amalga oshirilgani, poytaxt maqomidagi shahar tibbiy infratuzilmasining nisbatan rivojlanganligi va tibbiy xodimlar hamda vaksina resurslarini safarbar etish imkoniyatlari yuqori bo‘lganini ko‘rsatadi. Bu esa urush davri sharoitida sog‘liqni saqlash siyosati hududiy imkoniyatlardan kelib chiqib differensial tarzda amalga oshirilganini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Turkistonda qochoqlar bilan bog‘liq sog‘liqni saqlash siyosati davlat va nodavlat institutlari hamkorligiga tayangan, bepul va ijtimoiy yo‘naltirilgan tizim sifatida shakllangan hamda cheklangan resurslarga qaramay, epidemiologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan aniq va maqsadli choralarni o‘z ichiga olgan. Barcha vaksinalar hukumat mablag‘lari va Tatyanin qo‘mitasi hayriyalari hisobidan amalga oshirilgan. Qochoqlarga bepul tibbiy yordam ko‘rsatilgan. Dori-darmon ham bepul tarqatilgan[4]. Bu kabi dalillar ularning sog‘liqni saqlash tizimiga kirish imkoniyati ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar ta’minlanganini ko‘rsatadi. Bu esa qochoqlarni jamiyatning chekka yoki e’tibordan chetda qolgan qatlami sifatida emas, balki davlat himoyasiga muhtoj ijtimoiy guruh sifatida ko‘rishga intilish mavjud bo‘lganini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi. Shuningdek, bepul tibbiy xizmat va dori-darmon ta’minoti epidemiologik xavflarni kamaytirish, kasalliklarning ommaviy tarqalishining oldini olish hamda umumiy jamoat salomatligini saqlashga qaratilgan profilaktik strategiyaning muhim tarkibiy qismi bo‘lib xizmat qilgan. Bu holat urush davri ijtimoiy boshqaruvida sog‘liqni saqlash masalasi strategik ahamiyatga ega bo‘lganini o‘zida aks ettiradi.

Urush holatida bo‘lib turgan xalqning qochoqlarga bunchalik saxovat va muruvvat ko‘rsatishi nafaqat Turkiston o‘lkasi mas’ullari, balki o‘lkada istiqomat qiluvchi barchada mehr-oqibat, insonparvarlik va bag‘rikenglik kabi ezgu xislatlar yuksak darajada bo‘lganligidan dalolatdir. Hattoki, kasal bo‘lib vafot etgan qochoqlar shahar shifoxonasiga olib borilmasdan shahar qabristoniga ko‘milishiga ruxsat berilgan[5]. Bu bir tomondan, tibbiy muassasalarning yuklamasi haddan tashqari oshganini, ikkinchi tomondan esa, epidemiyalar tarqalishining oldini olish maqsadida tezkor va sanitariya jihatdan xavfsiz choralar ko‘rilganini anglatadi. Bu amaliyot o‘lim holatlarini shifoxona muhitida to‘plash orqali kasallik tarqalish xavfini kuchaytirmaslikka qaratilgan profilaktik yondashuv sifatida baholanishi mumkin. Shu bilan birga, qochoqlarni shahar qabristonlarida dafn etishga ruxsat berilishi, ularning vafotidan keyin ham ma’muriy-huquqiy jihatdan inkor etilmaganini, ya’ni qochoqlar mahalliy jamiyat doirasida muayyan huquqiy maqomga ega bo‘lganini talqin etadi.

Shahar shifoxonalarida bir necha turdagi kasalliklar bilan tashxis qo‘yilgan bemor qochoqlar bor edi. Chunonchi, 1915-yilning 25-noyabrida Kazalinskda 530 nafar qochoq qayd etilgan bo‘lsa, ularning 10 foizga yaqini quyidagi kasalliklar bilan davolash muassasalarida ekanligi ta’kidlanadi. Bu paytda Kazalinsk shahar shifoxonasida 6 nafar qizamiqqa chalingan, 4 nafar diareyaga yo‘liqqan, 1 nafar dizenteriya bo‘lib, qon ketayotgan, 3 nafar ich terlama bo‘lgan, 3 nafar chechakning og‘ir kechadigan ko‘rinishi bilan xastalangan, 2 nafar sog‘aygan bo‘lsa-da, to‘liq tiklanmagan, 2 nafar aniq tashxis qo‘yilmasdan, kasali aniqlanmagan, 2 nafar bemor bolalariga qarayotgan, 1 nafar yuqumli bo‘lmagan kasallik bilan og‘rigan bemor qochoqlar davolanayotgan edi[6]. Kasalliklar tarkibining xilma-xilligi — qizamiq, diareya, dizenteriya, ich terlama, chechakning og‘ir shakllari — qochoqlar orasida nafaqat yuqumli, balki og‘ir kechuvchi va asoratli kasalliklar ham keng tarqalganini anglatadi. Ayniqsa, dizenteriya bilan og‘rigan bemorda qon ketishi qayd etilgani va chechakning og‘ir shakllari bilan xastalangan qochoqlarning mavjudligi, tibbiy yordamga bo‘lgan ehtiyoj nihoyatda yuqori bo‘lganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, sog‘aygan bo‘lsa-da to‘liq tiklanmagan bemorlar hamda tashxisi aniqlanmagan qochoqlarning mavjudligi, shifoxonalarda diagnostika imkoniyatlari cheklangan bo‘lganini yoki kasalliklar murakkab kechganini ilmiy jihatdan taxmin qilish imkonini beradi. E’tiborlisi, ayrim qochoqlarning bemor bolalariga qarayotgan holda shifoxonada qolayotgani, kasallik va parvarish masalalari bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lganini, shifoxonalar nafaqat davolash, balki ijtimoiy himoya vazifasini ham bajarganini ko‘rsatadi. Kasallikni o‘ta og‘ir darajasiga chalinmagan qochoqlarga uyda davolanishlariga ruxsat etilgan. Kazalinskda 1915-yil noyabrida uyda muolaja olayotgan va tiklanish jarayonlarini davom ettirayotgan qochoqlardan bronxit bo‘lganlar 5 nafarni, yengil diareyaga chalingan 2 nafarni, revmatizm bilan og‘rigan 1 nafarni, bezgakka yo‘liqqan 2 nafarni, boshi og‘riyotgan 1 nafarni tashkil qilgan. Bu dalillar tibbiy resurslardan oqilona foydalanish hamda shifoxonalar yuklamasini kamaytirishga qaratilgan amaliy choralar mavjud bo‘lganini anglatadi. Bu holat urush davri sharoitida sog‘liqni saqlash tizimi imkoniyatlari cheklangan bo‘lsa-da, bemorlarni kasallik og‘irlik darajasiga qarab saralash amaliyoti joriy etilganini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi. Bezgak va bronxit kabi kasalliklarning mavjudligi iqlimiy sharoitlar, yashash joylarining sovuq va namligi hamda oziqlanish yetishmovchiligi bilan bog‘liq omillar muhim rol o‘ynaganini taxmin qilish imkonini beradi. Uy sharoitida davolanayotgan bemorlarning statistik jihatdan qayd etilishi, sog‘liqni saqlash idoralari tomonidan qochoqlar holati faqat shifoxona doirasida emas, balki uy davolanishi bosqichida ham nazorat qilinganini ko‘rsatadi. Bu holat tibbiy nazoratning nisbatan tizimli olib borilganini hamda sog‘liqni saqlash tizimi qochoqlar masalasida faqat favqulodda holatlarga javob berish bilan cheklanmaganini bildiradi.

Evakuatsiya gospitallarida qochoq bemorlarni davolash jarayonida tibbiy xavfsizlik va insoniy omillar o‘rtasida muvozanatni saqlashga qaratilgan boshqaruv mexanizmi mavjud bo‘lgan. Shifokorlar tomonidan qo‘yilgan tashxisda kasalligi yuqumli emasligi aniqlangan bemor qochoqlarni oila a’zolari, qarindoshlari va tanishlari haftada ikki marta, chorshanba va yakshanba kunlari soat 13:00 dan 15:00 gacha bo‘lgan ikki soatlik muddat oralig‘ida ko‘rgani

kelishlari mumkin bo‘gan. Bu kabi tadbirlar evakuatsiya gospitallarida tashriflar qat’iy reglamentlashtirilgan va nazorat ostida amalga oshirilganini ko‘rsatadi. Bu choralar bir tomondan kasalliklarning tarqalish xavfini kamaytirishga, ikkinchi tomondan esa bemorlarning ruhiy holatini yaxshilash, ijtimoiy aloqalarni uzil-kesil to‘xtatmaslikka xizmat qilgan. Bemorlarning yaqinlari bilan muloqot qilishiga imkon berilishi davolanish jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan insonparvar yondashuv sifatida baholanishi mumkin. Evakuatsiya gospitallarida joriy etilgan ushbu tashrif tartibi Turkistonda qochoqlar bilan bog‘liq sog‘liqni saqlash siyosati tibbiy xavfsizlik, ma’muriy nazorat va insoniylik tamoyillarini uyg‘unlashtirishga intilganini o‘zida namoyon qiladi.

Turkiston o‘lkasiga kelib tushgan qochoqlar bilan bog‘liq sog‘liqni saqlash va sanitariya siyosatida oldindan ogohlantiruvchi (profilaktik) mexanizmlar joriy etilgan. Qochoqlar Turkiston o‘lkasiga kelganlaridan so‘ng har ehtimolga qarshi 7 kunlik izolyatsiya holatiga olingan. Bundan ko‘zlangan maqsad kasalliklarning inkubatsiya davri va ommaviy tarqalish xavfi hisobga olingan holda tibbiy jihatdan asoslangan ehtiyot chorasi bo‘lgan. Bu izolyatsiya chorasi qochoqlarni jazolash yoki cheklashga qaratilgan bo‘lmay, aksincha, ularning o‘zlari hamda mahalliy aholi salomatligini muhofaza qilishga yo‘naltirilgan profilaktik tadbir sifatida namoyon bo‘ladi. 7 kunlik muddat davomida qochoqlar sog‘lig‘i kuzatuv ostida bo‘lib, kasallik alomatlari aniqlangan taqdirda ularni tezkor izolyatsiya va davolash choralarini ko‘rish imkoniyati yaratilgan.

Qochoqlarni izolyatsiya qilish jarayonida sanitariya-gigiyena masalalariga nihoyatda qat’iy va tizimli yondashuv qo‘llanilgan. Qochoqlar izolyatsiya davrida kazarmaga olingunlariga qadar kunora hammom qabul qilganlar. Bu shaxsiy gigiyenani ta’minlash orqali yuqumli va parazitar kasalliklarning tarqalish xavfini kamaytirishga qaratilgan profilaktik choralar majmuasi mavjud bo‘lganini anglatadi. Qochoqlar har kuni teri kasalliklarini oldini olish maqsadida kulrang simobli surtmadan foydalanishgan. Qochoqlar o‘zlari bilan olib kelgan har qanday shaxsiy buyumlar dezinfeksiya qilingan. Kiyim-kechak va maishiy buyumlar orqali kasalliklar tarqalishi ehtimoli yuqori deb baholangan. Bu esa izolyatsiya siyosatining faqat shaxsga emas, balki atrof-muhit va moddiy omillarga ham qaratilgan kompleks sanitariya yondashuviga asoslanganini anglatadi. Ilk izolyatsiya davrida sog‘lomligi tasdiqlangan qochoqlar kichik kazarmalarga o‘tkazilgan. Bu bosqich kasalliklarning yashirin davrini aniqlashga qaratilgan muhim profilaktik chora bo‘lib xizmat qilgan. Qochoqlar u yerda 10 kun saqlanib, yana bir bor sog‘-salomat ekanliklari tashxisi qo‘yilsa, katta kazarmalarga yo‘naltirilgan. U yerda ham ularni 7 kunlik karantin holati kutib turgan. Bunda ham shifokorlar ijobiy xulosa beradigan bo‘lsa, qochoqlar shahar kazarmalari va qaysi shaharga borishni xohlasalar, o‘sha hududlarga imkon qadar jo‘natilgan. Bu kabi chora-tadbirlar epidemiologik xavflarni minimallashtirishga qaratilgan qat’iy va ehtiyotkor yondashuv mavjud bo‘lganini ko‘rsatad. Yuqorida ta’kidlangan 3 bo‘g‘inli karantin tizimining joriy qilinishi mahalliy aholi orasida turli xil kasalliklarni tarqab ketishini oldini olish va hukumatning sog‘liqni saqlash tizimini bir maromda ushlab turish uchun moliyaviy jihatdan barqaror emasligi bilan xarakterlanadi.

Yuqumli kasalliklarga chalinganlikda gumonlanganlar kasallik turiga qarab turlicha muddatga karantinga olingan[1]:

1-jadval. Yuqumli kasalliklar bo‘yicha karantin muddatlari

Kasallik turi	Karantin muddati
Xolera (Vabo)	5 kun
Dezinteriya	8 kun
Qorin tifi	21 kun
Epidemik tif	14 kun
Qaytalama tif	8 kun
Chechak	14 kun
Vabo	10 kun
Difteriya	14 kun

Skarlitana	14 kun
Qizamiq	15 kun
Qizilcha	16 kun
Suvchechak	17 kun
Epidemik parotit	22 kun
Ko‘kyo‘tal	20 kun
Meningit	5 kun

Mazkur jadval Turkistonda yuqumli kasalliklarga chalinganlikda gumon qilingan qochoqlar bilan bog‘liq sanitariya-epidemiologik siyosat aniq tibbiy me’yorlar va differensial yondashuv asosida tashkil etilganini yaqqol ko‘rsatadi. Karantin muddatlarining kasallik turiga qarab farqlanishi, sog‘liqni saqlash organlari tomonidan kasalliklarning inkubatsiya davri, yuqumlilik darajasi va epidemik xavfi ilmiy asosda hisobga olinganini anglatadi. Bu holat karantin choralarining tasodifiy yoki umumiy emas, balki kasallikning biologik xususiyatlariga moslashtirilgan tizim asosida belgilanganini tasdiqlaydi.

Xususan, qorin tifi (21 kun), epidemik parotit (22 kun), ko‘kyo‘tal (20 kun) va qizilcha (16 kun) kabi kasalliklar uchun uzoq muddatli karantin belgilanishi, ushbu kasalliklarning yashirin davri uzoq va tarqalish xavfi yuqori bo‘lganini inobatga olgan holda maksimal ehtiyot choralarini ko‘rishga intilish mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Aksincha, xolera (5 kun), meningit (5 kun) va dezinteriya (8 kun) kabi kasalliklar uchun nisbatan qisqaroq karantin muddatlari belgilangani, kasallik kechishi va nazorat mexanizmlariga mos ravishda qarorlar qabul qilinganini bildiradi.

Chechak, difteriya, skarlatina va epidemik tif kabi yuqori yuqumlilikka ega kasalliklar uchun 14 kunlik karantin joriy etilishi ushbu kasalliklar qochoqlar orasida keng tarqalgan real epidemiologik xavf sifatida baholanganini o‘zida namoyon qiladi. Shu bilan birga, suvchechak (17 kun) va qizamiq (15 kun) uchun belgilangan muddatlar, bolalar va o‘smirlar orasida tez tarqaluvchi kasalliklar ustidan alohida nazorat o‘rnatilganini anglashga imkon beradi.

Xulosa. Tahlil qilingan materiallar Birinchi jahon urushi yillarida Turkistonda qochoqlar sog‘lig‘i masalasi keng ko‘lamli sanitariya-epidemiologik muammo sifatida namoyon bo‘lganini ko‘rsatadi. Chechak, tif, qizamiq, dizenteriya va boshqa kasalliklarning tarqalishi qochoqlar yashash sharoitining og‘irligi, kazarmalardagi aholi zichligi, oziq-ovqat va gigiyena imkoniyatlarining cheklanganligi bilan bevosita bog‘liq edi.

Turkiston ma’muriyati bu muammoga faqat davolash yo‘li bilan emas, balki emlash, dezinfeksiya, karantin, izolyatsiya, tashriflarni reglamentlashtirish va favqulodda aloqa tizimlarini joriy etish orqali javob bergan. Bepul tibbiy yordam va dori-darmon bilan ta’minlash davlat hamda xayriya institutlari hamkorligiga tayangan ijtimoiy yo‘naltirilgan siyosat mavjud bo‘lganini tasdiqlaydi.

Qochoqlar uchun belgilangan ko‘p bosqichli karantin tartibi va kasallik turiga qarab farqlangan izolyatsiya muddatlari Turkistonda urush davri sharoitida ham epidemiologik xavflarni boshqarishga qaratilgan reglamentlashtirilgan tibbiy-ma’muriy tizim shakllanganini ko‘rsatadi. Shu jihatdan mazkur mavzu Turkiston tarixida urush, migratsiya, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy boshqaruv jarayonlarini o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘z MA, I-1-fond, 27-ro‘yxat, 1781-yig‘ma jild, 65-varaq.
2. O‘z MA, I-17-fond, 1-ro‘yxat, 29708-yig‘ma jild, 18-varaq.
3. O‘z MA, I-17-fond, 1-ro‘yxat, 29708-yig‘ma jild, 20-varaq.
4. O‘z MA, I-17-fond, 1-ro‘yxat, 29708-yig‘ma jild, 23-24-varaqlar.
5. O‘z MA, I-17-fond, 1-ro‘yxat, 29708-yig‘ma jild, 28-varaq.
6. O‘z MA, I-17-fond, 1-ro‘yxat, 29708-yig‘ma jild, 76-77-varaqlar.

EKOLOGIK TA’LIM SAMARADORLIGINI MONITORING QILISH TIZIMI: BAHOLASH MEZONLARI VA O‘QUVCHILARNING EKOLOGIK XULQ-ATVORIDAGI O‘ZGARISHLAR

Sodiqov Jaxongir Toshpulat o‘g‘li,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
Orcid: 0009-0002-5912-0050

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ekologik ta’lim monitoringining obyektiv mezonlari va ta’lim oluvchilarning kundalik hayotdagi subyektiv amaliy o‘zgarishlari o‘rtasidagi nomutanosiblik tadqiq qilinadi. Muammoning markazida “o‘lchov illyuziyasi” yotadi: hisobotlar uchun qulay statistik ko‘rsatkichlar (test natijalari, tadbirlar soni) ekologik ong va xulq-atvor darajasidagi nozik siljishlarni aks ettirmaydi.*

Kalit so‘zlar: *ekologik monitoring, ekologik xulq-atvor, ta’lim samaradorligi, indikatorlar tafovuti, pro-ekologik xatti-harakat, bilim va amaliyot orasidagi uzilish.*

Аннотация: *В данной статье исследуется несоответствие между объективными критериями мониторинга экологического образования и субъективными практическими изменениями в повседневном поведении обучающихся. В центре проблемы находится «иллюзия измерения»: статистические показатели, удобные для отчетности (результаты тестов, количество мероприятий), не отражают тонкие изменения уровня экологического сознания и поведения.*

Ключевые слова: *экологический мониторинг, экологическое поведение, эффективность образования, расхождение индикаторов, проэкологическое поведение, разрыв между знанием и практикой.*

Abstract: *This article examines the mismatch between objective criteria of environmental education monitoring and the subjective practical changes in learners’ everyday behavior. At the core of the problem lies the “illusion of measurement,” where report-friendly statistical indicators (test results, number of activities) fail to capture subtle shifts in environmental awareness and behavior.*

Keywords: *environmental monitoring, ecological behavior, educational effectiveness, indicator discrepancy, pro-environmental behavior, knowledge-practice gap.*

Globallashuv jarayoni ekologik ta’lim oldiga nafaqat ekologik savodxonlikni oshirish, balki barqaror turmush tarziga o‘tishni ta’minlovchi xulq-atvor modellarini shakllantirish vazifasini qo‘ymoqda. Ushbu maqsadga erishishni o‘lchash uchun yaratilgan monitoring tizimlari, xususan, YUNESKO va Yevropa Ittifoqining barqaror rivojlanish ta’limi indikatorlari, ko‘pincha miqdoriy ko‘rsatkichlarga tayanadi. Biroq “ekologik ta’lim olgan shaxs” va “ekologik mas’uliyatli fuqaro” tushunchalari orasida jiddiy tafovut kuzatilmoqda. Ushbu tadqiqotning dolzarbligi aynan shu tafovutning sabablarini “obyektiv” (tashqi mezonlar, standartlar) va “subyektiv” (shaxs ichki pozitsiyasi, xatti-harakati) omillar kesishmasida izohlash bilan belgilanadi[2].

Hozirgi globallashuv davrida ekologik muammolar transchegaraviy tus olib, ularni hal etishda ta’lim tizimiga hal qiluvchi rol yuklanmoqda. Xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM 4.7 va 13.3) ekologik bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishni ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilagan. O‘zbekiston Respublikasida ham ekologik ta’limni rivojlantirish bo‘yicha qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, ta’lim muassasalarida ekologik fanlarning o‘qitilishi yo‘lga qo‘yilgan. Biroq, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning haqiqiy samaradorligini baholash masalasi ochiqligicha qolmoqda. Aynan shu nuqtada mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligi bir necha o‘zaro bog‘liq omillar bilan belgilanadi.

Birinchidan, ekologik ta’lim monitoringining amaldagi tizimida obyektiv mezonlar va subyektiv natijalar o‘rtasida jiddiy nomutanosiblik kuzatilmoqda. Ta’lim sifatini baholashda asosan miqdoriy ko‘rsatkichlarga – o‘quv rejadagi ekologik mavzular soni, o‘tkazilgan tadbirlar statistikasi va test sinovlaridagi bilim ko‘rsatkichlariga tayaniladi. Mazkur indikatorlar ta’lim jarayonining tashqi, institutsional tomonini aks ettirsa-da, ular ta’lim oluvchilarning real hayotdagi ekologik xulq-atvori, qaror qabul qilish mexanizmlari va kundalik odatlaridagi o‘zgarishlarni o‘lchashga qodir emas. Natijada “yashil hisobot” va “yashil amaliyot” o‘rtasida uzilish yuzaga keladi, bu esa davlat va jamiyat resurslarining samarasiz sarflanishiga olib kelishi mumkin[3].

Ikkinchidan, zamonaviy ekologik ta’lim oldiga qo‘yilayotgan global talablar monitoring tizimini tubdan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Xalqaro ekologik standartlar va barqaror rivojlanish ta’limi konsepsiyalari faqat bilim berishdan ko‘ra, “pro-ekologik xulq-atvor” (pro-environmental behavior) shakllantirishni bosh maqsad qilib qo‘ymoqda. Shu bois, ta’lim samaradorligini baholashning an’anaviy bilim sinovlariga asoslangan modeli eskiradi va yangi avlod baholash vositalariga ehtiyoj paydo bo‘ladi. Ushbu ehtiyojning qondirilmaganligi ilmiy-tadqiqot ishlarining dolzarbligini oshiradi.

Uchinchidan, psixologik va ijtimoiy omillarning monitoring tizimida hisobga olinmasligi jiddiy muammo hisoblanadi. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, yuqori darajadagi ekologik bilim har doim ham ekologik mas’uliyatli xatti-harakatga olib kelmaydi. “Normativ yashil shaxs” fenomeni – ya’ni so‘rovnomalarda o‘zini ekologik jihatdan ongliroq ko‘rsatishga intilish – baholash natijalarining ishonchliligiga putur yetkazadi. Shuningdek, ta’lim oluvchining ichki motivatsiyasi, qadriyatlar tizimi va emotsional daxldorlik darajasi kabi subyektiv omillar ko‘p hollarda monitoring doirasidan chetda qoladi. Aynan shu omillarni aniqlash va ularni baholash mezonlariga integratsiya qilish bugungi kunda ekologik ta’lim sohasidagi eng muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biridir[4].

To‘rtinchidan, mavzuning dolzarbligi milliy kontekstdagi amaliy ehtiyojlar bilan ham chambarchas bog‘liq. O‘zbekistonda ekologik ta’lim tizimini isloh qilish, “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish va aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida e’tirof etilgan. Biroq, ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlarning natijadorligini xolisona va kompleks tarzda baholash imkonini beruvchi metodologiya hali yetarlicha ishlab chiqilmagan. Mavjud statistik hisobotlar ko‘pincha “o‘lchov illyuziyasi”ni yuzaga keltirib, real holatni yashirishi mumkin. Shu sababli, obyektiv shart-sharoitlarni va ta’lim oluvchilarning subyektiv o‘zgarishlarini birgalikda qamrab oluvchi yangi monitoring modelini ishlab chiqish nafaqat ilmiy, balki ijtimoiy buyurtma hamdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, ekologik ta’lim samaradorligini monitoring qilish tizimini tanqidiy tahlil qilish, uning obyektiv mezonlari va subyektiv natijalari o‘rtasidagi nomutanosiblikni aniqlash hamda ularni uyg‘unlashtirish yo‘llarini taklif etish bugungi ekologik globallashuv sharoitida nihoyatda dolzarb ilmiy-amaliy muammo hisoblanadi. Ushbu muammoning yechimi ta’lim oluvchilarning bilim darajasini oshirish bilangina cheklanmay, balki ularda barqaror ekologik xulq-atvorni shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik strategiyalarni ishlab chiqishga zamin yaratadi[5].

Amaldagi aksariyat baholash tizimlari quyidagi komponentlarga asoslanadi: o‘quv rejadagi ekologik mavzular ulushi, o‘tkazilgan aksiyalar soni hamda test sinovlarida qayd etilgan bilim darajasi. Bu ko‘rsatkichlar ta’lim muassasasi hisobotini shakllantirish uchun qulay, lekin ularning ortida chuqur kognitiv va xulqiy jarayonlar yashirin qoladi. Muallif nuqtayi nazaridan, bu holat “o‘lchov illyuziyasi”ni yuzaga keltiradi: statistik ma’lumotlar ijobiy dinamikani ko‘rsatsa-da, o‘quvchining resurslarni tejash, chiqindilarni saralash yoki ekologik faollik kabi murakkab ko‘nikmalari shakllanmay qoladi. Binobarin, mavjud mezonlarning yetarliligi shubha ostiga olinadi.

Ta’lim oluvchining ichki dunyosi tahlil qilinganda, ikkita psixologik hodisa yaqqol namoyon bo‘ladi. Birinchisi, “normativ yashil shaxs” fenomeni: o‘quvchi jamiyat tomonidan

ma’qullanuvchi javoblarni berishga, ya’ni o‘zini real hayotdagidan ko‘ra ekologik mas’uliyatliroq ko‘rsatishga moyil bo‘ladi. Natijada so‘rovnoma va intervyular real xulq-atvorni aks ettirmaydi. Ikkinchisi, bilim va amaliyot o‘rtasidagi kognitiv dissonansdir: suv tanqisligi haqida mukammal nazariy ma’lumotga ega shaxs kundalik hayotda suvni isrof qilishda davom etadi. Bu uzilishning ildizi qiymat-neytral ta’lim yondashuvida, ya’ni axborot berishga urg‘u berilib, emotsional daxldorlik va shaxsiy mas’uliyat hissi rivojlantirilmasligida ko‘rinadi[6].

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ekologik bilim darajasini baholovchi testlarda yuqori natija qayd etgan respondentlarning qariyb 40 foizi kundalik ekologik odatlar indeksi pastligicha qolmoqda. Ushbu tafovut, ayniqsa, ekologik infratuzilma (masalan, chiqindi saralash konteynerlari) obyektiv ravishda mavjud bo‘lgan, ammo ichki motivatsiya yetishmovchiligi tufayli ishlatilmayotgan hududlarda yaqqol seziladi. Bu esa monitoring tizimining faqat bilimni emas, balki “xulq-atvor amalga oshishi uchun sharoit yaratilganligi”ni ham baholashi zarurligini anglatadi.

Tadqiqot aralash metodologiyaga asoslanadi. Birinchi bosqichda davlat ta’lim standartlari va xalqaro ekologik ta’lim dasturlarining kontent-tahlili o‘tkazilib, obyektiv indikatorlar tizimi xaritalashtirildi. Ikkinchi bosqichda ta’lim oluvchilar o‘rtasida yopiq va proyektiv savollardan iborat anonim so‘rovnoma o‘tkazildi. Uchinchi bosqichda esa ishtirokchilarning real xulq-atvorini kuzatish (chiqindilarni saralash auditi, suv va energiya iste’moli kundaligi) yo‘li bilan deklarativ ma’lumotlar solishtirildi. Ushbu uchburchak yondashuv o‘lchov illyuziyasini miqdoriy asoslash imkonini berdi[3].

Olingan natijalar monitoring tizimida jiddiy konseptual yangilanish zarurligini ko‘rsatadi. An’anaviy “bilim – munosabat – amaliyot” chiziqli modeli o‘rniga “kontekstual ekologik o‘zlik” modelini taklif qilamiz. Ushbu modelga ko‘ra, monitoring faqat “talaba nimani biladi?” degan savolga emas, balki “talaba ekologik muammoni o‘zining shaxsiy muammosi sifatida his qiladimi?” va “muassasa unga ekologik harakat qilish uchun qanday imkoniyat yaratgan?” degan savollarga javob izlashi kerak. Global indikatorlarni milliy kontekstga moslashtirishda shaxsning madaniy kodlari va mahalliy ekologik muammolarga daxldorlik darajasini hisobga olish muhimligi asoslanadi.

Ekologik ta’lim monitoringining mavjud tizimidagi obyektiv mezonlar va subyektiv o‘zgarishlar o‘rtasidagi uzilishni faqat yangi baholash madaniyati yordamida bartaraf etish mumkin. Ushbu madaniyat statistik hisobotlardan voz kechishni emas, balki ularni “yashirin xulq-atvor” indikatorlari bilan to‘ldirishni taqozo etadi. Maqolada taklif etilgan yondashuv ekologik ta’limni tashqi baholashdan shaxsiy rivojlanish monitoringiga aylantirish orqali “yashil bilim” va “yashil harakat” o‘rtasidagi tafovutni qisqartirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 sonli “Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. BMTning 2024-yil Barqaror rivojlanish maqsadlari hisoboti. – Nyu-York, 2024.

3. Зверев И.Д. Экологическое образование и воспитание: узловые вопросы. – М.: Просвещение, 2019.

4. UNESCO. Education for Sustainable Development: A Roadmap. – Paris, 2020. – URL: https://unesdoc.unesco.org

5. Sodiqov J. Globallashuv sharoitida ekologik ta’limning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ahamiyati // Acta NUUz. – 2025. – №1(11). – B. 159–161.

6. Sodiqov J.T. Yuqori sinflarda ekologik ta’limni rivojlantirish istiqbollari va imkoniyatlari // Ekonomika i sotsium. – 2025. – №6-1(133). – B. 722-726.

IJTIMOIY ADOLAT TRANSFORMATSIYASINING FALSAFIY ASOSLARI: ONTOLOGIK, AKSIOLOGIK VA NORMATIV TAHLIL

Isroilov Davronbek Dilshodbek o‘g‘li,
Andijon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ijtimoiy adolat transformatsiyasi ijtimoiy falsafaning ontologik, aksiologik va normativ o‘lchamlari orqali tahlil qilinadi. Maqolada adolatni faqat empirik hodisa sifatida emas, balki insonning ijtimoiy mavjudlik sharti, axloqiy kategoriya va barkamol jamiyat g‘oyasining falsafiy asosi sifatida ko‘rish zarurati asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy adolat, ijtimoiy falsafa, ontologiya, aksiologiya, normativ nazariya, Rawls, Sen, Nussbaum, imkoniyatlar yondashuvi, transformatsiya falsafasi.*

Аннотация. *В данной статье трансформация социальной справедливости рассматривается через призму онтологического, аксиологического и нормативного измерений социальной философии. В ней утверждается, что справедливость следует понимать не просто как эмпирическое явление, а как философскую основу социального бытия человека, как нравственную категорию и как фундамент хорошо устроенного общества.*

Ключевые слова: *социальная справедливость, социальная философия, онтология, аксиология, нормативная теория, Роулз, Сен, Нуссбаум, подход к возможностям, философия трансформации.*

Abstract. *This article examines the transformation of social justice through the ontological, axiological, and normative dimensions of social philosophy. It argues for understanding justice not merely as an empirical phenomenon, but as a philosophical foundation of human social existence, a moral category, and the basis of a well-ordered society.*

Keywords: *social justice, social philosophy, ontology, axiology, normative theory, Rawls, Sen, Nussbaum, capability approach, philosophy of transformation.*

Kirish. Ijtimoiy adolat tushunchasi zamonaviy falsafaning markaziy muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Biroq bu tushunchaga ko‘pincha sotsiologik yoki siyosiy-iqtisodiy nuqtai nazardan yondashiladi - ya’ni u o‘lchanadigan, empirik hodisa sifatida ko‘rib chiqiladi. Ijtimoiy falsafa esa bu masalaga ancha chuqurroq - ontologik va aksiologik darajada yondashadi: adolat nima? U insonning ijtimoiy tabiatida yotadimi yoki ijtimoiy shartnoma natijasida yuzaga keladimi? Adolat mutlaq tamoyilmi yoki tarixiy-madaniy konstruktmi?

Rawls’ning bu so‘zlari ijtimoiy falsafaning asosiy imperativini ifodalaydi: adolat - ijtimoiy tartibning shunchaki bir jihati emas, balki uning butun me’morchiligi quriladigan asosiy tamoyildir. Ushbu maqolada biz ijtimoiy adolat transformatsiyasini aynan shu falsafiy asos - ontologik, aksiologik va normativ o‘lchamlar - nuqtai nazaridan ko‘rib chiqamiz.

O‘zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar ham bu falsafiy muammolardan chetda emas. 2017 yildan boshlab boshlangan o‘zgarishlar sirtdan siyosiy-iqtisodiy ko‘rinishga ega bo‘lsada, ularning chuqur falsafiy mazmuni bor: «insonga xizmat qiluvchi davlat» tamoyili Kantning insonni maqsad sifatida ko‘rish prinsipi bilan uyg‘unlashadi; «Yangi O‘zbekiston» strategiyasi esa jamiyatning aksiologik asoslarini qayta shakllantirishga urinishdir.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi: ijtimoiy adolat transformatsiyasini ijtimoiy falsafaning ontologik, aksiologik va normativ kategoriyalari orqali tahlil qilish hamda bu tahlil asosida O‘zbekiston ijtimoiy islohotlarining falsafiy ma’nosini ochib berish.

Tadqiqot quyidagi falsafiy savollarga javob beradi:

- Ijtimoiy adolat - tabiiy (ontologik) mavjudotmi yoki ijtimoiy konstruktmi?.
- Adolatni qanday aksiologik asosda - erkinlik, tenglik yoki imkoniyatlar nuqtai nazaridan - belgilash kerak?.

➢ Normativ falsafiy nazariyalar ijtimoiy transformatsiya uchun amaliy yo‘l-yo‘riq bera oladimi?.

➢ O‘zbekiston ijtimoiy islohotlari qaysi falsafiy paradigmaga yaqin turadi?.

Metodologik asos. Ijtimoiy falsafadagi tadqiqot empirik fanlardan metodologik jihatdan keskin farqlanadi. Agar sotsiologiya faktlar to‘playdi va umumlashtiradi, falsafa esa faktlarning imkoniyati shartlarini o‘rganadi - ya’ni nima uchun bu faktlar adolatli yoki adolatsiz deb baholanishi mumkin ekanligini tahlil qiladi. Shu sababli ushbu tadqiqot quyidagi falsafiy metodlarga tayanadi:

Birinchidan, **kontseptual tahlil metodi**: «adolat», «transformatsiya», «imkoniyat», «erkinlik» kabi asosiy tushunchalarning semantik va strukturasini ochib berish. Bu metod analitik falsafada Frege va Ryle tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, tushunchalarning yashirin taxminlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, **tarixiy-dialektik metod**: adolat tushunchasining Aristoteldan zamonaviy davrgacha falsafiy tarixdagi o‘zgarish mantiqini kuzatish. Hegel'ning dialektik metodiga ko‘ra, har bir falsafiy kategoriya o‘zining inkorini ichida yashiradi va bu ziddiyat yangi, yuksakroq sintezga olib keladi.

Uchinchidan, **normativ taqqoslama tahlil**: Rawls, Sen va Nussbaum'ning adolat nazariyalarini falsafiy asoslar, aksiologik taxminlar va amaliy xulosalar nuqtai nazaridan taqqoslash. Bu tahlil uch nazariyaning nafaqat farqlarini, balki ularning o‘zaro to‘ldirishini ham ochib beradi.

To‘rtinchidan, **fenomenologik tahlil**: adolatsizlik tajribasini sub'ektiv idrok qilish nuqtai nazaridan ko‘rish - ya'ni adolatsizlik qanday "boshdan kechiriladi" va bu tajriba ijtimoiy transformatsiyaga qanday turtki beradi. Bu metod Gusserl va Merlo-Ponti'ning fenomenologiya an'anasiga tayanadi.

Nazariy tahlil: adolatning falsafiy ontologiyasi:

Adolat tushunchasi g‘arb falsafasida Platon'ning «Davlat» asaridan boshlanadi, unda adolat (dikaiosyne) insonning va davlatning asosiy fazilati sifatida ta'riflanadi. Platon uchun adolat ruhning uch qismining - aql, g‘ayrat va istak - mutanosibligi edi. Bu garmonik kontseptsiya ijtimoiy adolatni ham shu yerga o‘xshatib tushintirar: har bir kishining jamiyatda o‘z o‘rniga mos vazifani bajarishi.

Yangi davr falsafasida, ayniqsa Kant'da, adolat deontologik asos oldi. Kant uchun adolat ratsional sub'ektlarning bir-birining erkinligini tan olishiga asoslanadi. Uning huquq falsafasida adolat tashqi erkinliklarning uyg‘un birligidir: «Kimning harakati boshqalarning erkinligi bilan umumiy qonun asosida birga mavjud bo‘la olsa, u harakatning xuddi shu erkinligi bilan mos keladi» (Kant, Metafizika asoslari, 1797).

Kant'ning bu formulasi liberal huquq falsafasining poydevorini qo‘ydi: adolat tashqi erkinliklarni muvofiqlashtiradigan institutlar tizimi sifatida ko‘riladi. Biroq bu ta'rif taqsimlovchi adolatni e'tiborsiz qoldiradi - ya'ni, kim qanday resurslarga ega bo‘lishi kerakligi haqidagi savolni.

Marks esa adolatni butunlay boshqa ontologik asosda ko‘rdi: u adolat va adolatsizlikni ishlab chiqarish munosabatlaridan kelib chiqaradigan mafkuraviy kategoriyalar deb hisobladi. Marks uchun kapitalizmning o‘zi tarkibiy jihatdan adolatsiz, chunki mehnat mahsulotining bir qismi ishchilardan begonalashtiriladi. Adolatli jamiyat - kommunizm - bu begonalashuvni bartaraf etadigan ijtimoiy tartibdir. Bu yondashuv normativ nazariyadan ontologik tahlilga o‘tishni bildiradi: adolat nafaqat qanday bo‘lishi kerakligini, balki mavjud tizimning qanday ishlashini ham tushuntiradi.

Jon Rawls'ning «Adolat nazariyasi» (1971) XX asrning eng ta'sirli siyosiy-falsafiy asarlaridan biri bo‘lib, unda adolat distributiv xususiyatga ega ekanligini va uni belgilashda protsessual adollilik (fair procedure) hal qiluvchi rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Rawls'ning asosiy metodologik qurilmasi - «bexabarlik pardasi» (veil of ignorance) - original pozitsiya (original position) tushunchasi bilan bog‘liq.

Original pozitsiyada odamlar o‘zlarining jamiyatdagi o‘rnini, iqtidorini, ijtimoiy sinfini bilmagan holda adolatli tamoyillarni tanlaydilar. Bu epistemik cheklov adolatli tanlovni kafolatlaydi, chunki hech kim o‘z manfaati yo‘lida printsiplarni buzishga urinmaydi. Rawls'ga ko‘ra, bunday sharoitda odamlar ikki tamoyilni tanlaydi: birinchi tamoyil - har bir kishiga asosiy erkinliklarning teng tizimi; ikkinchi tamoyil - farq tamoyili, ya'ni tengsizlik faqat eng zaif qatlam foydasiga bo‘lgandagina qabul qilinadi.

Falsafiy nuqtai nazardan Rawls'ning yondashuvi deontologik xarakter kasb etadi: adolat foyda (utility) maksimallashuviga emas, balki ratsional sub'ektlarning o‘z-o‘zini anglash huquqiga asoslanadi. Shu bilan birga, Rawls «adolat sifatidagi adollilik» (justice as fairness) tushunchasida protsedura va natijani uyg‘unlashtiradi.

Rawls nazariyasiga asosiy tanqidlar uchta yo‘nalishda keldi: communitarianlar (Sandel, MacIntyre) uning mavhum individualizmini tanqid qildi; libertarianlar (Nozick) farq tamoyilini mulkiy huquqlarni buzish deb hisobladi; feministlar (Okin) esa gender tengsizligini e'tiborsiz qoldirganligi uchun unga qarshi chiqdi. Bu tanqidlar Rawls nazariyasining qamrovini kengaytirish zaruratini ko‘rsatdi.

Sen: Imkoniyatlar Yondashuvi va Adolat Epistemologiyasi

Amartya Sen Rawls'ning protsessual adolat kontseptsiyasini muhim jihatdan to‘ldirdi va tanqid qildi. Sen uchun adolatni baholashda nafaqat protseduralar, balki haqiqiy natijalar ham muhimdir - ya'ni, kishilar qanday hayot kechira olishadi? Sen bu masalani imkoniyatlar (capabilities) tushunchasi orqali o‘rgandi.

Sen'ning asosiy epistemologik hissasi shundaki, resurslar taqsimoti adolatni to‘liq ta'riflay olmaydi. Ikki kishi bir xil resursga ega bo‘lsa ham, ularning hayot sifati tubdan farqlanishi mumkin - kasallik, nogironlik, diskriminatsiya yoki coğrafik izolatsiya tufayli. Shuning uchun adolatni resurslarning taqsimoti bilan emas, balki kishilarning.

Bu yondashuv Rawls'dan tubdan farq qiladi: Rawls «asosiy ne'matlar» (primary goods) to‘plamiga e'tibor qaratsa, Sen «real erkinliklar» - ya'ni kishilarning bu ne'matlardan qanchalik foydalana olishiga - diqqat qiladi. Bu farq nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim: sog‘liqqa sarmoya kiritish resurslar taqsimotini emas, imkoniyatlarni tenglashtirishga qaratilgandir.

Marta Nussbaum Sen'ning imkoniyatlar yondashuvini yanada rivojlantirib, «markaziy insoniy imkoniyatlar» (central human capabilities) ro‘yxatini tuzdi. Bu ro‘yxat universal normativ talablar sifatida belgilangan: hayot, sog‘liq, jismoniy daxlsizlik, his va tasavvur erkinligi, emotsional rivojlanish, amaliy aql, hamjihatlik, boshqa turlar bilan munosabat, o‘yin va siyosiy hamda moddiy muhit ustidan nazorat (Nussbaum, 2011).

Nussbaum'ning falsafiy hissasi shundaki, u imkoniyatlar yondashuvini universal normativ asos bilan ta'minladi. Agar Sen bu yondashuvni asosan instrumental - ya'ni adolatni o‘lchash vositasi - sifatida ko‘rgan bo‘lsa, Nussbaum uni Aristotelning eudaimonia (farovon hayot) konseptsiyasi bilan bog‘lab, to‘laqonli insoniy rivojlanish uchun zaruriy shartlar ro‘yxatiga aylantirdi.

Bu yondashuv bir qator muhim falsafiy muammolarni tug‘diradi:

1. Imkoniyatlar ro‘yxatini kim va qanday asosda belgilaydi?
2. Bu ro‘yxat madaniy universalizm talabini qondira oladimi, yoki u o‘zida g‘arb liberal vertikalini o‘zida yashiradimi?
3. Imkoniyatlar hajmini oshirish va erkinlikni saqlab qolish o‘rtasidagi ziddiyat qanday hal etiladi?

Bu savollar Nussbaum'ni «yumshoq essentializm» (moderate essentialism) pozitsiyasiga olib keldi - ya'ni, insoniy tabiatning barcha madaniyatlarda umumiy yadrosini tan olish bilan birga, uning madaniy xilma-xilligiga hurmat.

Rawls, Sen va Nussbaum'ning yondashuvlarini falsafiy jihatdan taqqoslasak, quyidagi manzarani ko‘ramiz:

Ontologik asosda: Rawls liberal individ ontologiyasiga tayanadi - ya'ni, ijtimoiy kelishuvdan oldin mavjud bo‘lgan ratsional sub'ekt; Sen esa intersubyektiv ontologiyaga moyil - uning uchun imkoniyatlar real ijtimoiy kontekstda shakllanadi; Nussbaum esa Aristotelcha essentsialist ontologiyaga qaytadi - insonning «ichki tabiatida» yotgan imkoniyatlarni aniqlash.

Aksiologik asosda: Rawls birlamchi qadriyat sifatida erkinlik va tenglikni qo‘yadi; Sen uchun birlamchi qadriyat - haqiqiy erkinlik (substantive freedom); Nussbaum esa eudaimonia, ya'ni farovon va to‘laqonli insoniy hayotni oliy qadriyat sifatida ko‘radi.

Normativ strategiyada: Rawls protsessual adolatlilikka (fair procedure) tayanadi; Sen natijali adolatni (outcome-based justice) himoya qiladi; Nussbaum esa minimum chegaralar (threshold) kontseptsiyasini taklif qiladi - har bir inson minimal darajada barcha markaziy imkoniyatlarga ega bo‘lishi kerak.

Muhokama. O‘zbekistondagi 2017 yildan boshlangan islohotlarni ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan ko‘rib chiqqanda, ular bir nechta muhim falsafiy xususiyatga ega ekanligi ayon bo‘ladi.

Birinchidan, «insonga xizmat qiluvchi davlat» tamoyili Kantning insonni doimo maqsad sifatida ko‘rish imperativiga (Formula of Humanity) yaqin turadi. Kant'ga ko‘ra, inson faqat vosita sifatida emas, doimo va ham maqsad sifatida ko‘rilishi kerak. Ushbu tamoyilning O‘zbekiston siyosatida markaziy o‘rinni egallashi adolatni qadriyat sifatida davlat ideologiyasiga integratsiya qilishning muhim belgisidir.

Ikkinchidan, «Yangi O‘zbekiston» strategiyasida aksiologik o‘zgarish kuzatiladi: faqat iqtisodiy o‘sishdan insoniy rivojlanishga (human development) ustuvorliklarning siljishi Sen'ning imkoniyatlar yondashuvi bilan hamohangdir. UNDP insoniy rivojlanish indeksi (HDI) bo‘yicha 0.727 ball (2023) ko‘rsatkichi iqtisodiy o‘sishning insoniy rivojlanishga qanday tarjima qilinayotganini o‘lchashga urinishdir.

Uchinchidan, O‘zbekiston tajribasi ijtimoiy adolat transformatsiyasining ketma-ket va tizimli xarakteri muhimligini ko‘rsatadi. Huquqiy islohotlar (sudlov mustaqilligi, jinoyat kodeksi islohotlari), iqtisodiy erkinlashtirish va ijtimoiy himoyani kuchaytirishning paralel amalga oshirilishi Rawls'ning asosiy erkinliklar va farq tamoyilini bir-biriga bog‘lagan tizimli yondashuvga o‘xshaydi.

Biroq o‘tish davrining falsafiy cheklovlari ham bor. Acemoglu va Robinson (2012) ko‘rsatganidek, inklyuziv institutlarning shakllanishi faqat yuqoridan pastga qarab amalga oshirilsa, u ko‘pincha yuzaki bo‘lib qoladi. Habermas'ning kommunikativ aql talabi bo‘yicha, chinakam institutlashuvchi adolat fuqarolik jamiyatining erkin va teng muhokamasiga asoslanishi kerak. Bu O‘zbekistonda hali to‘liq shakllanmagan siyosiy madaniyat va fuqarolik jamiyatining rivojlanishini jiddiy falsafiy muammo sifatida ko‘rsatadi.

Falsafiy jihatdan, adolat transformatsiyasining chuqurligi qonunlar va dasturlarda emas, balki fuqarolarning o‘z huquqlarini, burchlarini va bir-birlariga bo‘lgan munosabatlarini qanday anglashlarida namoyon bo‘ladi. Bu aksiologik o‘zgarish uzoqroq va ko‘proq effort talab qiluvchi jarayondir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Acemoglu, D., & Robinson, J. A. (2012). Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty. Crown Publishers.

2. Acemoglu, D., & Restrepo, P. (2022). Tasks, Automation, and the Rise in US Wage Inequality. Econometrica, 90(5), 1973–2016. https://doi.org/10.3982/ECTA19815

3. Aristotel. (350 BC). Nikomaxova etika (N. Karimov tarj., 2012). Toshkent: Fan.

4. Bourdieu, P. (1986). The Forms of Capital. In J. Richardson (Ed.), Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education (pp. 241–258). Greenwood Press.

POSTMODERN JAMIYATDA NIYAT VA AXLOQIY AUTENTLIK MUAMMOSI

Xodjabekova Nazokat Abdulxoshimovna,
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. *mazkur maqolada postmodern jamiyat sharoitida niyat fenomenining transformatsiyasi hamda axloqiy autentiklik muammolari ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi zamonaviy kommunikativ makonda insonning ichki niyati bilan uning ijtimoiy reprezentatsiyasi o‘rtasidagi ziddiyat qanday shakllanayotganini ochib berishdan iborat.*

Kalit so‘zlar: *postmodernizm, niyat, autentiklik, performativ axloq, samimiyat, virtual identiklik, posthaqiqat, kommunikativ makon, reprezentatsiya, reputatsion kapital.*

Abstract. *this article analyzes the transformation of the phenomenon of intention and the problem of moral authenticity in postmodern society from a socio-philosophical perspective. The main aim of the study is to reveal how the contradiction between an individual’s inner intention and their social representation is formed within the contemporary communicative environment.*

Keywords: *postmodernism, intention, authenticity, performative morality, sincerity, virtual identity, post-truth, communicative space, representation, reputational capital.*

Аннотация. *В данной статье трансформация феномена намерения и проблема нравственной аутентичности в условиях постмодернистского общества анализируются с социально-философской точки зрения. Основная цель исследования заключается в выявлении того, каким образом в современном коммуникативном пространстве формируется противоречие между внутренним намерением личности и её социальной репрезентацией.*

Ключевые слова: *постмодернизм, намерение, аутентичность, перформативная мораль, искренность, виртуальная идентичность, постправда, коммуникативное пространство, репрезентация, репутационный капитал.*

Kirish. Zamonaviy global transformatsiyalar davrida texnologik, kommunikativ va madaniy o‘zgarishlar insoniyat tarixidagi eng murakkab ijtimoiy jarayonlardan birini shakllantirdi. Axborot texnologiyalari, global media tizimi, ijtimoiy tarmoqlar va algoritmik kommunikatsiya makoni insonning nafaqat kundalik turmush tarziga, balki uning ma’naviy dunyosi, axloqiy ongi va o‘zini anglash shakliga ham chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, postmodern jamiyat sharoitida insonning ichki niyati, samimiyligi va autentikligi bilan bog‘liq masalalar tobora murakkablashib bormoqda. Chunki zamonaviy kommunikativ muhit subyektni doimiy ravishda o‘zini namoyon qilishga, muayyan obraz yaratishga va ijtimoiy tasdiq (legitimlik) olishga undaydi.

Adabiyotlar sharhi. Postmodern jamiyatdagi axloqiy transformatsiyalarni tushuntirishda Jean Baudrillardning simulyatsiya nazariyasi muhim metodologik asoslardan biri hisoblanadi. Baudrillardga ko‘ra, postmodern jamiyatda belgilar va obrazlar (simulyakrlar) real voqelikning o‘rnini egallaydi. Mazkur g‘oya axloqiylik fenomeniga tatbiq qilinganda, insonning ichki samimiyligi emas, balki uning kommunikativ obrazi birlamchi ahamiyat kasb eta boshlashi kuzatiladi. Shu jihatdan zamonaviy kommunikativ makonda “haqiqiy axloq” bilan “namoyish qilinayotgan axloq” o‘rtasidagi tafovut tobora chuqurlashmoqda.

Byung-Chul Han zamonaviy jamiyatni “ekspozitsiya jamiyati” sifatida talqin qilib, insonning doimiy ravishda o‘zini namoyon qilishga majbur bo‘layotganini ta’kidlaydi. Uning fikricha, zamonaviy inson shaffoflik va ko‘rinuvchanlik bosimi ostida yashaydi. Natijada ichki dunyo ham ommaviy performans obyektiga aylanadi, bu esa samimiyatning zaiflashuvi va ma’naviy alienatsiyaning (yotlashuvning) kuchayishiga olib keladi.

Erving Goffmanning dramaturgik konsepsiyasi postmodern kommunikativ makondagi identiklik transformatsiyasini tushuntirishda muhim nazariy asos beradi. Goffmanga ko‘ra, inson ijtimoiy hayotda turli auditoriyalar uchun turli rollarni ijro etadi. Raqamli kommunikatsiya sharoitida foydalanuvchi o‘zining ideal kommunikativ obrazini yaratishga intilishi natijasida “haqiqiy men” bilan “ijtimoiy men” o‘rtasidagi tafovut yanada kuchayadi.

Charles Taylor autentiklikni zamonaviy axloqiy tafakkurning markaziy kategoriyalaridan biri sifatida talqin qiladi. Unga ko‘ra, autentiklik insonning o‘z ichki mohiyatiga sodiq qolish ehtiyoji bilan bog‘liqdir. Biroq postmodern kommunikativ makonda mazkur autentiklik ham ko‘pincha performativ xarakter kasb etib, o‘ziga xos kommunikativ strategiyaga aylanib bormoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda ijtimoiy-falsafiy tahlil, germenevtik yondashuv, aksiologik metod, komparativ tahlil va konseptual interpretatsiya usullaridan foydalanildi. Germenevtik yondashuv niyat va autentiklik tushunchalarining tarixiy-falsafiy mazmunini sharhlash imkonini berdi. Komparativ metod yordamida Sharq va G‘arb etik tafakkurida niyat fenomenining talqinlari qiyosiy tahlil qilindi. Aksiologik yondashuv esa zamonaviy kommunikativ makonda axloqiy qadriyatlarning transformatsiyasini aniqlashda qo‘llanildi.

Mazkur metodologik yondashuvning asosiy maqsadi postmodern kommunikativ jamiyatdagi axloqiy o‘zgarishlarni faqat texnologik yoki sotsiologik hodisa sifatida emas, balki insonning ichki ma’naviy mavjudligiga ta’sir qiluvchi fundamental falsafiy fenomen sifatida tahlil qilishdan iboratdir.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, postmodern kommunikativ jamiyatda axloqiylik tobora tashqi reprezentatsiya va ommaviy performans bilan bog‘lanmoqda. Klassik etik paradigmada insonning ichki ma’naviy motivi axloqiylikning asosiy mezoni sifatida qaralgan bo‘lsa, zamonaviy kommunikativ makonda axloqiylikning tashqi ko‘rinishi va ijtimoiy qabul qilinishi ustuvorlik kasb etmoqda.

Mazkur transformatsiya ijtimoiy tarmoqlarda ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi. Kommunikativ makonda insonning real ma’naviy holati emas, balki uning qanday kommunikativ obraz yaratgani muhimroq ahamiyat kasb etadi. Shu sababli zamonaviy media muhitida axloqiylikning ontologik mohiyati bilan uning vizual reprezentatsiyasi o‘rtasidagi tafovut tobora chuqurlashmoqda. Postmodern madaniyatda “ezgulik”ning o‘zi emas, balki “ezgulik obrazi” ommaviy kommunikatsiyaning markaziy elementiga aylanmoqda. Zamonaviy foydalanuvchi o‘zining axloqiy pozitsiyasini ko‘rsatishga, ijtimoiy masalalar bo‘yicha ommaviy munosabat bildirishga va kommunikativ jihatdan “to‘g‘ri” ko‘rinishga intiladi. Natijada axloqiylik ichki vijdon ehtiyojidan ko‘ra ko‘proq ommaviy reaksiyaga bog‘lanib qolmoqda. Layk, repost, trend va auditoriya reaksiyasi insonning o‘zini qadrlash tizimini qayta shakllantirmoqda.

Ushbu talqin doirasida yondashilsa, performativ axloq zamonaviy insonning ma’naviy mavjudligini paradoksal holatga olib kelmoqda. Bir tomondan, inson hech qachon bugungidek ko‘p axloqiy mavzular haqida gapirmagan. Ikkinchi tomondan esa axloqiy diskursning ommaviylashuvi samimiyatning zaiflashuviga olib kelmoqda. Chunki ko‘plab hollarda axloqiy pozitsiya ichki e’tiqod emas, balki kommunikativ strategiya sifatida namoyon bo‘ladi.

Posthaqiqat fenomeni ushbu jarayonni yanada murakkablashtiradi. Mazkur holatning falsafiy mohiyati shundaki, postmodern kommunikativ jamiyatda haqiqat va reprezentatsiya o‘rtasidagi chegara tobora mavhumlashmoqda. Inson ko‘pincha voqelikning o‘zi bilan emas, balki uning media orqali yaratilgan obrazlari bilan yashaydi. Shu sababli axloqiy hukmlar ham obyektiv etik mezonlardan ko‘ra kommunikativ ta’sir va hissiy rezonans asosida shakllanmoqda. Bu esa axloqiy tafakkurning ratsional va refleksiv mohiyatini zaiflashtirib, uni tezkor emotsional iste’mol obyektiga aylantiradi. Ayniqsa, algoritmik media tizimlari insonning hissiy reaksiyalarini kuchaytiruvchi kontentlarni faol targ‘ib qilishi natijasida axloqiy diskurs yanada emotsionallashib bormoqda.

Raqamli kommunikatsiya makonida niyatning transformatsiyasi reputatsion kapital fenomeni bilan ham bog‘liq. Zamonaviy inson uchun ijtimoiy maqom va kommunikativ qabul qilinish ko‘pincha ma’naviy mohiyatdan ustun qo‘yilmoqda. Mazkur transformatsiya ayniqsa yoshlar ongida kuchli namoyon bo‘ladi. Bugungi yosh avlod uchun ijtimoiy media identiklikni shakllantiruvchi asosiy makonlardan biriga aylanib ulgurdi. Virtual makonda inson ko‘pincha o‘zining haqiqiy mavjudligini emas, balki idealizatsiyalashgan kommunikativ versiyasini namoyish etishi natijasida real mavjudlik va virtual identiklik o‘rtasidagi tafovut chuqurlashadi. Yoshlarning o‘zini identifikatsiya qilish jarayoni ham tobora algoritmik kommunikatsiya va ommaviy vizual madaniyat bilan bog‘lanmoqda.

Postmodern kommunikativ jamiyatning eng muhim xususiyatlaridan biri axloqiylikning estetizatsiyasidir. Zamonaviy media makonida insonning axloqiy pozitsiyasi uning ichki ma’naviy mazmuni orqali emas, balki vizual va kommunikativ jozibadorligi orqali baholanadi. Inson qanday qadriyatlarga ega ekanidan ko‘ra, ushbu qadriyatlarni qanday taqdim (reprezentatsiya) qilayotgani muhimroq bo‘lib qolmoqda.

Ushbu konsepsiya prizmasidan qaraganda, reputatsion kapitalning kuchayishi axloqiy ongning ichki mohiyatiga sezilarli salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunki inson o‘z harakatlarini vijdon va ichki e’tiqod asosida emas, balki auditoriyaning ehtimoliy reaksiyasi asosida baholay boshlaydi. Natijada axloqiy qarorlar ham tobora kommunikativ strategiyaga aylanib boradi va axloqiylikning ichki ontologik mohiyatini zaiflashtiradi.

Mazkur jarayon ayniqsa ijtimoiy tarmoqlardagi “cancel culture” fenomenida yaqqol namoyon bo‘ladi. Virtual makonda insonning birgina xatosi yoki noto‘g‘ri talqin qilingan fikri ommaviy qoralash obyektiga aylanishi mumkin. Bunday sharoitda insonning haqiqiy niyati emas, balki uning kommunikativ obrazi va ommaviy talqini hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Samimiyat inqirozining ontologik mohiyati. Postmodern kommunikativ jamiyatdagi eng murakkab falsafiy muammolardan biri samimiyat inqirozi bilan bog‘liqdir. Inson doimiy ravishda o‘z obrazini boshqarish va kommunikativ jihatdan jozibador ko‘rinishga majbur bo‘layotgani sababli samimiyatning o‘zi ham performativ xarakter kasb etmoqda.

Klassik ma’naviy tafakkurda samimiyat insonning ichki yaxlitligi, vijdoniy pokligi va o‘z mohiyatiga sodiqligi bilan bog‘langan bo‘lsa, postmodern makonda u vizual va kommunikativ formatga moslashtirilmoqda. Inson samimiy bo‘lishdan ko‘ra samimiy ko‘rinishni o‘rganmoqda. Shu sababli zamonaviy kommunikativ makonda “autentiklik obrazi” ko‘pincha real autentiklikning o‘rnini egallaydi. Inson o‘zini boshqalarning nigohi orqali idrok etishga odatlanishi natijasida “men kimman?” degan ekzistensial savol asta-sekin “men qanday ko‘rinyapman?” degan kommunikativ savol bilan almashinmoqda. Bu esa zamonaviy subyektning fragmentatsiyasini kuchaytiradi.

Byung-Chul Han ta’kidlaganidek, zamonaviy shaffoflik jamiyatida insonning yashirin ichki hududi tobora qisqarib bormoqda. Bunday sharoitda insonning ichki sukuti, refleksiyasi va ma’naviy yolg‘izligi ham kommunikativ bosim ostida qoladi.

Sharqona niyat konsepsiyasi va postmodern kommunikativ ong. Sharq diniy-falsafiy va Islom axloqiy tafakkurida niyat inson amalining ichki ma’naviy mohiyatini belgilovchi markaziy kategoriya bo‘lib, insonning ichki vijdoniy holatini axloqiylikning asosiy mezoni sifatida talqin qiladi. Postmodern kommunikativ jamiyatda esa mazkur paradigma sezilarli transformatsiyaga uchramoqda. Chunki bugungi raqamli makonda insonning ichki niyati emas, balki uning ommaviy reprezentatsiyasi ko‘proq ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli sharqona niyat konsepsiyasi bilan postmodern kommunikativ axloq o‘rtasida jiddiy ziddiyat yuzaga keladi.

Tahliliy nuqtai nazardan yondashilsa, mazkur ziddiyat zamonaviy insonning ma’naviy inqirozini chuqurroq tushunish imkonini berdi. Chunki sharqona etik tafakkur insonning ichki samimiyligini markazga qo‘ysa, postmodern kommunikativ madaniyat tashqi performativlikni ustuvorlashtiradi. Natijada insonning ichki ma’naviy dunyosi bilan uning kommunikativ obrazi o‘rtasidagi masofa tobora kengayadi. Mazkur holat zamonaviy axloqiy tafakkur oldiga muhim savol qo‘yadi: texnologik kommunikatsiya hukmron bo‘lgan sharoitda inson o‘zining ichki

ma’naviy yaxlitligini qanday saqlab qolishi mumkin? Aynan shu savol XXI asr axloq falsafasining eng dolzarb masalalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Muhokama. Postmodern kommunikativ jamiyatda niyat fenomenining transformatsiyasi insonning ma’naviy mavjudligi bilan bog‘liq chuqur falsafiy muammolarni yuzaga chiqarmoqda. Ushbu tizimli tahlildan kelib chiqib aytish mumkinki**,** postmodern jamiyatda axloqiylikning performativlashuvi insonni o‘zining ichki mohiyatidan uzoqlashtiradi. Chunki zamonaviy kommunikativ makonda subyekt yashashdan ko‘ra ko‘rinishga, his qilishdan ko‘ra namoyish qilishga ko‘proq e’tibor qaratmoqda. Natijada axloqiylikning ichki mohiyati kommunikativ samaradorlik bilan almashinib bormoqda va bu postmodern axloqiy ongning eng vaon va eng muhim paradokslaridan biridir.

Biroq postmodern kommunikativ jamiyatni faqat ma’naviy inqiroz sifatida talqin qilish ham biryoqlama bo‘ladi. Mazkur makon ikki tomonlama (ambivalent) xarakterga ega. Bir tomondan, u samimiyatning zaiflashuvi va reputatsion bosimni kuchaytirsa, ikkinchi tomondan, insoniyat tarixida ilgari mavjud bo‘lmagan global kommunikativ birdamlik imkoniyatlarini ham yaratadi. Masalan, inson huquqlari, ekologik inqiroz, ijtimoiy adolat va diskriminatsiya bilan bog‘liq global axloqiy diskurslar aynan raqamli kommunikatsiya makonida keng ommalashmoqda. Raqamli tizimlar insonning o‘z fikrini erkin ifodalashi va ijtimoiy birdamlikning yangi shakllari paydo bo‘lishi uchun xizmat qilmoqda. Muammo texnologiyaning o‘zida emas, balki uning inson ma’naviyati va axloqiy ongini qanday shakllantirishidadir.

Shu jihatdan postmodern jamiyatdagi niyat muammosi inson va kommunikativ texnologiyalar o‘rtasidagi murakkab munosabatni ifodalaydi. Zamonaviy inson bir vaqtning o‘zida ham samimiyatni izlaydi, ham ommaviy tasdiqqa ehtiyoj sezadi. Shu sababli postmodern axloqiy ong ichki ma’naviy ehtiyoj bilan tashqi kommunikativ bosim o‘rtasidagi doimiy ziddiyatda shakllanmoqda.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, postmodern kommunikativ jamiyatda niyat fenomeni insonning ichki ma’naviy tajribasi bilan bog‘liq klassik mazmunidan asta-sekin uzoqlashib, kommunikativ reprezentatsiya va reputatsion tasdiq bilan chambarchas bog‘lanib bormoqda. Mazkur transformatsiya axloqiylikni tobora performativ va vizual xarakterga ega hodisaga aylantirmoqda. Algoritmik media tizimlari, posthaqiqat fenomeni va reputatsion kapitalning kuchayishi insonning axloqiy qarorlariga hamda ma’naviy identikligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shu bilan birga, raqamli kommunikatsiya tizimlari global axloqiy birdamlik va ijtimoiy refleksiyaning yangi shakllarini ham yuzaga keltirmoqda. Demak, zamonaviy axloqiy tafakkur oldidagi asosiy vazifa texnologik kommunikatsiya hukmron bo‘lgan sharoitda insonning ichki samimiyligi, vijdoniy refleksiyasi va ma’naviy autentikligini saqlab qolishning yangi falsafiy mezonlarini ishlab chiqishdan iboratdir. Kelgusida mazkur muammoni algoritmik kommunikatsiya, sun’iy intellekt etikasi, virtual identiklik va media-antropologiya bilan bog‘liq empirik hamda konseptual tadqiqotlar asosida yanada chuqurlashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Lyotard J.-F. The Postmodern Condition. – Minneapolis: University of Minnesota Press, 1984.

2. Ал-Бухорий. Ал-жомеъ ас-саҳиҳ. – Тошкент: Hilol Nashr, 2019.

3. Ғаззолий А. Иҳё улум ад-дин. – Байрут: Dor al-Ma’rifa, 2005.

4. Kant I. Groundwork of the Metaphysics of Morals. – Cambridge: Cambridge University Press, 2012.

GENDER QADRIYATLARI TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA OILAVIY MUNOSABATLARNING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI

Rustamova Odina Shavkat qizi,
Samarqand davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oiladagi gender tengligining ijtimoiy-falsafiy asoslari hamda gender qadriyatlari transformatsiyasining oilaviy munosabatlarga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotda gender tengligi tushunchasining tarixiy taraqqiyoti, uning falsafiy, diniy va madaniy manbalardagi talqini o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: Gender tengligi, gender qadriyatlari, qadriyatlar transformatsiyasi, oila instituti, oilaviy munosabatlar, oilaviy barqarorlik, ijtimoiy-falsafiy tahlil, ijtimoiy taraqqiyot.

Аннотация. *В данной статье проанализированы социально-философские основы гендерного равенства в семье, а также влияние трансформации гендерных ценностей на семейные отношения. В исследовании изучено историческое развитие понятия гендерного равенства, его интерпретация в философских, религиозных и культурных источниках..*

Ключевые слова: *Гендерное равенство, гендерные ценности, трансформация ценностей, институт семьи, семейные отношения, семейная стабильность, социально-философский анализ, социальный прогресс.*

Abstract. *This article analyzes the socio-philosophical foundations of gender equality in the family and the impact of the transformation of gender values on family relationships. The study examines the historical development of the concept of gender equality and its interpretation in philosophical, religious, and cultural sources.*

Keywords: *Gender equality, gender values, transformation of values, family institution, family relationships, family stability, socio-philosophical analysis, social progress.*

Bugungi postmodern taraqqiyot sharoitida insoniyat tafakkuri va ijtimoiy hayotida kechayotgan transformatsion jarayonlar oila institutiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada oilaning ijtimoiy funksiyalari va qadriyatlar tizimi o'zgarib, oilalar mustahkamligiga ta'sir etuvchi yangi tendensiyalar shakllanmoqda. Shu bois qadriyatlar transformatsiyasi va oila o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganish, uning salbiy oqibatlarini kamaytirish hamda oilalarni mustahkamlash masalasi dolzarb ijtimoiy-falsafiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Jahonning ko'plab ilmiy markazlarida oila institutining barqarorligi, oilaviy qadriyatlarning o'zgarishi, yosh oilalar aksiologik qiyofasiga zamonaviy ijtimoiy jarayonlarning ta'siri hamda oilaviy inqiroz omillarini tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning yosh oilalar mustahkamligidagi o'rni, davlat va jamiyat tomonidan oilalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari hamda an'anaviy va zamonaviy qadriyatlarning uyg'unlashuvi masalalari muhim ilmiy ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda ham oila institutini mustahkamlash, oilalarda sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Global transformatsiyalar sharoitida oilaviy qadriyatlarni asrab-avaylash, yoshlar ongida oilaga nisbatan mas'uliyat va hurmat tuyg'ularini shakllantirish muhim vazifa sifatida qaralmoqda.

Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston–2030" strategiyasi, oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash hamda oila institutini mustahkamlashga qaratilgan farmon va qarorlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Oiladagi gender tengligi masalalari qadim davrlardan buyon falsafiy, huquqiy, diniy, sotsiologik va pedagogik tafakkur markazida bo'lib kelgan. Qadimgi diniy-falsafiy manbalar hamda Sharq va G'arb mutafakkirlarining asarlarida erkak va ayolning jamiyat va oiladagi o'rni, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar, adolat va mas'uliyat tamoyillari turli jihatlarda yoritilgan.

Mazkur ilmiy-nazariy qarashlar oilaviy munosabatlarda tenglik, o‘zaro hurmat va hamkorlik g‘oyalarining shakllanishida muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

MDH mamlakatlari olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda oiladagi ijtimoiy munosabatlar, gender rollari, oilaviy qadriyatlar va ularning shaxs kamolotiga ta’siri masalalari keng o‘rganilgan. Ushbu izlanishlarda oiladagi gender munosabatlarining madaniy, ijtimoiy va ma’naviy omillari tahlil qilinib, gender tengligining oilaviy barqarorlik va farzand tarbiyasidagi ahamiyati ochib berilgan.

O‘zbek mutafakkirlari va ma’rifatparvarlari asarlarida ham erkak va ayolning oiladagi o‘rni, o‘zaro hurmat, mas’uliyat va hamjihatlik masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, Forobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Abdulla Avloniy va Fitrat kabi allomalarning qarashlarida oiladagi ma’naviy muhit, ayol va erkakning o‘zaro hamkorligi hamda farzand tarbiyasidagi mas’uliyati yoritilgan. [1, 2].

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz olimlari tomonidan oila va gender masalalarining falsafiy, huquqiy, pedagogik hamda psixologik jihatlari keng tadqiq etildi. Mazkur tadqiqotlar oilada gender tengligini ta’minlash, xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, erkak va ayollarning oilaviy mas’uliyatlarini uyg‘unlashtirish masalalarining dolzarbligini ko‘rsatadi. Biroq oiladagi gender tengligining zamonaviy transformatsion jarayonlar, global qadriyatlar o‘zgarishi va raqamli muhit ta’siri ostida shakllanish xususiyatlari hamda ularning oilaviy barqarorlikka ta’siri yetarli darajada kompleks o‘rganilmagan.

Oiladagi gender tengligini ta’minlashning muhim omillaridan biri oilaviy qadriyatlar, urf-odatlar va ijtimoiy tajribalarni avloddan-avlodga yetkazishdir. Oila nafaqat biologik va iqtisodiy ehtiyojlarni qondiruvchi muhit, balki jamiyatning madaniy va ma’naviy davomiyligini ta’minlovchi ijtimoiy institut hisoblanadi. Shu ma’noda oila o‘tmish, bugun va kelajakni bog‘lovchi ko‘prik vazifasini bajaradi. Oilada shakllangan o‘zaro hurmat, hamkorlik, mas’uliyat va tenglik tamoyillari keyingi avlodlarga uzatilishi orqali gender madaniyati rivojlanadi.

Xalqaro miqyosda ham oilaning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va gender tengligini ta’minlashdagi ahamiyatiga alohida e’tibor qaratiladi. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 15-may sanasining “Xalqaro oila kuni” deb e’lon qilinishi hamda “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”da erkak va ayollarning nikohga kirish, oila qurish va oilaviy munosabatlarda teng huquqlarga egaligi belgilab qo‘yilgani oilaning xalqaro miqyosdagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Mazkur hujjatlarda gender tengligi oilaviy barqarorlik va inson huquqlarining muhim tarkibiy qismi sifatida e’tirof etiladi.

Diniy manbalarda ham oilaviy munosabatlarda adolat, o‘zaro hurmat va mas’uliyat masalalariga katta e’tibor qaratilgan. Xususan, islom ta’limotida er va xotinning oiladagi huquq va majburiyatlari, farzand tarbiyasidagi mas’uliyati hamda oilaviy muhitning barqarorligini ta’minlash zarurligi ta’kidlanadi. Oilaviy munosabatlarda halollik, poklik, mehr-oqibat va o‘zaro hurmat tamoyillari gender tengligining ma’naviy asoslari sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, oilaviy an’analar va etnomadaniy qadriyatlar gender munosabatlarining shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Xalqning turmush tarzi, madaniyati va ma’naviy merosi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan oilaviy an’analar oilada erkak va ayol o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda muhim ijtimoiy mexanizm vazifasini bajaradi. Avlodlar davomida saqlanib kelayotgan ijobiy an’analar oilada o‘zaro hurmat, mas’uliyat va hamkorlik madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. [3].

Umuman olganda, oiladagi gender tengligi huquqiy me’yorlar bilan bir qatorda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, diniy qarashlar hamda oilaviy an’analar asosida shakllanadigan murakkab ijtimoiy hodisa bo‘lib, uning ta’minlanishi oilaviy barqarorlik va jamiyat taraqqiyotining muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy jamiyatda gender munosabatlarining o‘zgarishi va oiladagi gender tengligini ta’minlash masalasi dolzarb ijtimoiy-falsafiy muammolardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy taraqqiyot, globallashuv, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi hamda demokratik qadriyatlarning keng tarqalishi natijasida oiladagi an’anaviy gender rollari va

munosabatlari transformatsiyaga uchramoqda. Ushbu jarayon oilaning inqirozi emas, balki uning yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashuvi va rivojlanishining tabiiy bosqichi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Maqolada yosh oilalarda gender tengligining o‘ziga xos jihatlariga ham alohida e’tibor qaratiladi. Yosh oila, odatda, er va xotinning yoshi 30 yoshdan oshmagan, yangi oilaviy munosabatlar va turmush tarzini shakllantirish bosqichida bo‘lgan oila sifatida tavsiflanadi. Aynan ushbu davrda oilada gender tengligi tamoyillarining qaror topishi keyingi oilaviy barqarorlik uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Yosh oilalarda gender tengligini ta’minlashga quyidagi omillar ijobiy ta’sir ko‘rsatadi:

– er va xotinning oilaviy hayotga ma’naviy, psixologik va iqtisodiy jihatdan tayyorligi;

– nikohning o‘zaro rozilik va teng huquqlilik tamoyillari asosida qurilishi;

– oilada qarorlar qabul qilish jarayonida er va xotinning teng ishtiroki;

– uy-ro‘zg‘or ishlari va farzand tarbiyasi mas’uliyatining adolatli taqsimlanishi;

– oila a’zolarining o‘zaro hurmat va hamkorlikka asoslangan munosabatlari;

– davlat va jamiyat tomonidan oilalarni, ayniqsa yosh oilalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining mavjudligi.

Bugungi kunda gender munosabatlaridagi o‘zgarishlar oilaning demografik va ijtimoiy ko‘rsatkichlariga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Jumladan, oilalarda ayollarning ta’lim va mehnat bozoridagi faolligining ortishi, ota-onalik mas’uliyatining teng taqsimlanishi, oilaviy qarorlar qabul qilishda hamkorlik tamoyillarining kuchayishi zamonaviy oilaning muhim xususiyatlariga aylanib bormoqda.

Umuman olganda, oiladagi gender tengligi zamonaviy demokratik jamiyatning muhim qadriyati bo‘lib, uning ta’minlanishi oilaviy barqarorlikni mustahkamlash, sog‘lom ma’naviy muhitni shakllantirish va jamiyat taraqqiyotini ta’minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Gender tengligi bilan bog‘liq qadriyatlar transformatsiyasi nafaqat aksiologik, balki gnoseologik va ijtimoiy-falsafiy mazmunga ham ega. Chunki gender munosabatlariga oid qarashlar va qadriyatlar individual hamda ijtimoiy ongda shakllanadi va rivojlanadi. Shu sababli gender tengligining qaror topishini faqat huquqiy yoki ijtimoiy o‘zgarishlar bilan emas, balki insonlarning erkak va ayolning jamiyat hamda oiladagi o‘rniga nisbatan qarashlari transformatsiyasi bilan ham izohlash mumkin.

Gender qadriyatlarining o‘zgarishi jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlari, iqtisodiy taraqqiyoti, madaniy rivojlanishi va demokratik tamoyillarning kengayishi bilan chambarchas bog‘liq. Tarixiy taraqqiyot jarayonida erkak va ayolning huquq hamda imkoniyatlari haqidagi tasavvurlar takomillashib, gender tengligi zamonaviy jamiyatning muhim qadriyatlaridan biriga aylandi. Shu bois gender munosabatlaridagi o‘zgarishlarni muayyan tarixiy va ijtimoiy sharoitlar bilan bog‘liq holda baholash maqsadga muvofiqdir.

Gender qadriyatlarining transformatsiyasi yosh oilalarning ijtimoiy-ma’naviy muhitiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bir tomondan, ushbu jarayon oilada o‘zaro hurmat, teng huquqlilik, mas’uliyatni adolatli taqsimlash va hamkorlik madaniyatining rivojlanishiga xizmat qiladi. Ikkinchi tomondan, an’anaviy va zamonaviy gender qarashlari o‘rtasidagi tafovut ayrim hollarda oilaviy munosabatlarda tushunmovchiliklar va qarama-qarshiliklarni yuzaga keltirishi mumkin.

Zamonaviy jamiyatda gender tengligi bilan bog‘liq transformatsion jarayonlar oilaviy munosabatlarning yangi shakllarini vujudga keltirmoqda. Xususan, oilada qarorlar qabul qilish, iqtisodiy faoliyat, farzand tarbiyasi va uy-ro‘zg‘or vazifalarini bajarishda erkak va ayolning teng ishtiroki tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa oilaning ma’naviy muhitini demokratlashtirish va oilaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, gender tengligining shakllanishiga milliy qadriyatlar, diniy qarashlar va globallashuv jarayonlari ham ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, an’anaviy va zamonaviy qadriyatlarning o‘zaro ta’siri natijasida gender madaniyatining yangi shakllari yuzaga kelmoqda. Bu jarayonda

jamiyatning ma’naviy merosi, oilaviy an’analari hamda umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasidagi muvozanatni saqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, gender tengligi bilan bog‘liq qadriyatlar transformatsiyasi zamonaviy oilaning rivojlanishiga ta’sir etuvchi muhim omillardan biri bo‘lib, u oilaviy munosabatlarda o‘zaro hurmat, adolat va hamkorlik tamoyillarining qaror topishiga xizmat qiladi. Natijada gender tengligiga asoslangan oilaviy muhit nafaqat oila barqarorligini, balki jamiyatning ijtimoiy va ma’naviy taraqqiyotini ham ta’minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Oiladagi gender tengligi va gender qadriyatlari transformatsiyasining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini tahlil qilish asosida quyidagi umumiy xulosalarga kelish mumkin:

1. Oiladagi gender tengligining mohiyatini chuqur anglash uchun unga tarixiy va ijtimoiy kategoriya sifatida yondashish zarur. Turli davrlarda erkak va ayolning oiladagi o‘rni hamda vazifalari jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish darajasiga qarab o‘zgarib borgan. Zamonaviy yondashuvlarga ko‘ra, oila erkak va ayolning teng huquqli hamkorligiga asoslangan ijtimoiy institut bo‘lib, uning barqarorligi o‘zaro hurmat, mas’uliyat va adolat tamoyillariga tayanadi.
2. Oila gender madaniyati va gender qadriyatlarini avloddan-avlodga yetkazuvchi muhim ijtimoiy institut hisoblanadi. Oilada shakllangan tenglik, hamkorlik, o‘zaro hurmat va mas’uliyat tamoyillari keyingi avlodlarning ijtimoiylashuviga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli oiladagi gender tengligi jamiyatda demokratik qadriyatlar va inson huquqlari madaniyatining rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.
3. Gender qadriyatlarining transformatsiyasi jamiyat va oiladagi erkak hamda ayolning mavqei, huquq va majburiyatlari haqidagi tasavvurlarning tizimli ravishda o‘zgarishini anglatadi. Mazkur jarayon uzoq muddat davomida shakllanib, globallashuv, urbanizatsiya, ta’lim tizimining rivojlanishi, axborot texnologiyalari va iqtisodiy omillar ta’sirida kechadi. Gender qadriyatlaridagi o‘zgarishlar oilaviy munosabatlarning mazmunini yangilash va zamonaviy ehtiyojlarga moslashtirishga xizmat qiladi.
4. Hozirgi davrda gender munosabatlaridagi transformatsiyalar oilaviy hayotning turli jabhalarida namoyon bo‘lmoqda. Xususan, ayollarning ta’lim olish va mehnat faoliyatidagi ishtirokining ortishi, oilaviy qarorlar qabul qilishda er va xotinning teng ishtiroki, uy-ro‘zg‘or ishlari hamda farzand tarbiyasida mas’uliyatning adolatli taqsimlanishi gender tengligining muhim ko‘rinishlari hisoblanadi. Ushbu o‘zgarishlar oiladagi o‘zaro ishonch, hurmat, hamjihatlik va ijtimoiy adolat qadriyatlarining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.
5. Gender tengligiga asoslangan oilaviy munosabatlar nafaqat oila barqarorligini ta’minlaydi, balki jamiyatning ijtimoiy va ma’naviy taraqqiyotiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Oilada erkak va ayolning teng huquq hamda imkoniyatlarga ega bo‘lishi shaxsning erkin rivojlanishi, sog‘lom psixologik muhitning shakllanishi va farzandlarning gender madaniyatiga asoslangan tarbiyasini ta’minlaydi. Shu bois gender tengligini qo‘llab-quvvatlash va uni oilaviy qadriyatlar tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida rivojlantirish zamonaviy jamiyatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Harman H. A Woman's Work. – Penguin UK, 2017. – P. 416
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. – Toshkent: Hilol nashr, 2021. – B. 5. 6 Universal Declaration of Human Rights. United Nations General Assembly. – Paris, 10 December
3. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi O‘RQ-406-sonli “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi // https://lex.uz/docs/- 3026246

YOSHLARNI MUSTAQILLIK G‘OYASI RUHIDA TARBIYALASHDA BADIIY IJODNING AHAMIYATI

Jumanov Hasan Nasriddin o‘g‘li,
Samarqand davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yoshlarni mustaqillik g‘oyasi ruhida tarbiyalashda badiiy ijodning o‘rni va ahamiyati ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslari, yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar hamda milliy tiklanish va milliy yuksalish jarayonlarida yoshlarning tutgan o‘rni tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *yoshlar, mustaqillik g‘oyasi, badiiy ijod, ma’naviy tarbiya, vatanparvarlik, milliy qadriyatlar, mafkuraviy immunitet, yoshlar siyosati, milliy yuksalish, ijtimoiylashuv, ijodiy tafakkur, Yangi O‘zbekiston.*

Аннотация. *В данной статье с социально-философской точки зрения анализируется роль и значение художественного творчества в воспитании молодежи в духе идеи независимости. Также анализируются правовые основы государственной молодежной политики в Узбекистане, реформы, направленные на всестороннюю поддержку молодежи, а также роль молодежи в процессах национального возрождения и национального прогресса.*

Ключевые слова: *молодежь, идея независимости, художественное творчество, духовно-нравственное воспитание, патриотизм, национальные ценности, идеологический иммунитет, молодежная политика, национальный прогресс, социализация, творческое мышление, Новый Узбекистан.*

Abstract. *This article analyzes the role and significance of artistic creativity in educating the youth in the spirit of the idea of independence from a socio-philosophical perspective. Furthermore, the article examines the legal foundations of state youth policy in Uzbekistan, reforms aimed at comprehensive support for the youth, and the role of the youth in the processes of national revival and national progress.*

Keywords: *youth, idea of independence, artistic creativity, spiritual education, patriotism, national values, ideological immunity, youth policy, national progress, socialization, creative thinking, New Uzbekistan.*

O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayoni mamlakat hayotining iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hamda ma’naviy sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar bilan uzviy bog‘liqdir. Mazkur jarayonning muvaffaqiyati, avvalo, yosh avlodni milliy istiqlol g‘oyalari asosida tarbiyalash, ularni yuksak ma’naviyatli, keng dunyoqarashli, mustaqil va kreativ fikrlay oladigan shaxs sifatida voyaga yetkazishga bog‘liq hisoblanadi. Shuningdek, yoshlarda vatanparvarlik, insonparvarlik, milliy g‘urur va fuqarolik mas’uliyati kabi fazilatlarni shakllantirish muhim vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mamlakat taraqqiyoti va uning kelajak istiqboli bevosita yoshlar tarbiyasi bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, yoshlarni jismonan baquvvat, ma’nan yetuk, mustaqil fikrlaydigan va tashabbuskor insonlar qilib tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ularda mehnatsevarlik, tadbirkorlik, fidoyilik va ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirish bilan bir qatorda, milliy tarix, madaniy meros, urf-odat va qadriyatlarga hurmat ruhini mustahkamlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarning xalqimiz tarixida munosib o‘rin egallagan buyuk mutafakkirlar, davlat va jamoat arboblarining hayoti hamda faoliyati bilan yaqindan tanishishi ularda milliy iftixor tuyg‘usini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Barkamol avlod tarbiyasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, yoshlarni zamonaviy ilm-fan va texnologiyalar yutuqlari bilan tanishtirish ham muhim omillardan biri hisoblanadi. Chunki mamlakatning taraqqiy etgan davlatlar qatoridan munosib o‘rin egallashi yoshlarning

bilim saviyasi, ijodiy salohiyati va faol fuqarolik pozitsiyasiga bevosita bog‘liqdir. Bu jarayonda badiiy ijod alohida o‘rin tutadi. Badiiy ijod orqali yoshlar ongida Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi yo‘lida xizmat qilishni o‘zining hayotiy maqsadi deb biluvchi zamonaviy inson obrazi shakllanadi. Shu bilan birga, ularda milliy istiqlol g‘oyalariga sodiqlik va ijtimoiy mas’uliyat hissi mustahkamlanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarning intellektual va ijodiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, ularning iqtidor va qobiliyatlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Davlat siyosatida yoshlarni har tomonlama rivojlangan, raqobatbardosh va tashabbuskor shaxslar etib tarbiyalash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Yangi O‘zbekiston sharoitida inson salomatligi, jismoniy kamolot, ma’naviy tarbiya va ijodiy tafakkurni rivojlantirish masalalari davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Millat salomatligi va xalq genofondini muhofaza qilish, avvalo, aholining ma’naviy-axloqiy salohiyatini yuksaltirish hamda ijodiy faolligini qo‘llab-quvvatlash bilan chambarchas bog‘liqdir.

Mazkur tadqiqotda yoshlarni mustaqillik g‘oyasi ruhida tarbiyalashda badiiy ijodning o‘rni va ahamiyatini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish maqsad qilindi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini O‘zbekiston Respublikasining ta’lim va yoshlar siyosatiga oid normativ-huquqiy hujjatlari, milliy taraqqiyot strategiyalari, ma’naviyat va tarbiya sohasidagi davlat dasturlari, shuningdek, mahalliy va xorijiy olimlarning mazkur masalaga bag‘ishlangan ilmiy ishlari tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida tarixiylik va mantiqiylik, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya kabi umumilmiy usullardan foydalanildi. Yoshlar tarbiyasida badiiy ijodning ta’sirini o‘rganishda pedagogik va ijtimoiy-falsafiy yondashuvlar asos qilib olindi. Shuningdek, badiiy ijodning shaxs ma’naviy kamoloti, ijtimoiy faolligi va milliy qadriyatlarga munosabatini shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilindi.

Tadqiqot materiallari sifatida ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, maqolalar, statistik ma’lumotlar, ta’lim muassasalarida amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar bo‘yicha ma’lumotlar hamda yoshlar siyosati sohasida qabul qilingan me’yoriy hujjatlardan foydalanildi. Olingan ma’lumotlar mazmunan tahlil qilinib, ularning o‘zaro bog‘liqligi va yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga ta’siri ilmiy jihatdan baholandi.

Tadqiqotda badiiy ijodni rivojlantirish orqali yoshlarda mustaqil fikrlash, milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirish imkoniyatlari aniqlandi hamda ularning samaradorligi ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil etildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni barpo etish, milliy taraqqiyotning yangi bosqichiga ko‘tarilish hamda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish yo‘lida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda yosh avlodning o‘rni va ahamiyati beqiyos hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, mamlakat taraqqiyotini ta’minlash va ulkan maqsadlarga erishishda yoshlar davlat va jamiyatning eng muhim tayanchi hamda kelajak bunyodkorlari hisoblanadi. Shu bois yoshlarda ezgu maqsadlar sari intilish, tashabbuskorlik, fidoyilik va mas’uliyat tuyg‘ularini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot, demokratik huquqiy davlat hamda kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” tamoyili asosida yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi, g‘oyaviy immunitetini mustahkamlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Jamiyatning eng faol qatlamini tashkil etuvchi yoshlar mamlakat taraqqiyotining muhim omili, strategik resursi va yangilanish jarayonlarining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida e’tirof etilmoqda.

Davlat taraqqiyoti va xalq farovonligining muhim mezonlaridan biri yosh avlodga yaratilayotgan imkoniyatlar, ta’lim-tarbiya tizimining samaradorligi hamda ularning intellektual

salohiyatini rivojlantirishga qaratilayotgan e’tibor darajasi bilan belgilanadi. Zamonaviy sharoitda bilimli, ma’naviy yetuk va tashabbuskor yoshlar barqaror taraqqiyotning asosiy drayverlariga aylanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, Yangi O‘zbekiston yoshlari mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni isloh etish va jamiyat hayotini demokratlashtirish jarayonlarining faol ishtirokchilari sifatida maydonga chiqmoqda.

O‘zbekiston aholisining katta qismini yoshlar tashkil etishi ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda munosib hayot sharoitlarini yaratishni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirdi. Keyingi yillarda yoshlarning intellektual, ijodiy, ma’naviy va jismoniy rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan ko‘plab qonunlar, Prezident farmonlari va qarorlari hamda hukumat hujjatlari qabul qilindi. Bu hujjatlar yoshlarning jamiyat hayotidagi faolligini oshirish, ularning iqtidorini qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslari mamlakat Konstitutsiyasida ham o‘z ifodasini topgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV bobi oila, bolalar va yoshlarga bag‘ishlangan bo‘lib, mazkur sohada davlatning asosiy majburiyat va vazifalari belgilab berilgan. Konstitutsiyaning 79-moddasida davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlarini muhofaza qilish, ularning davlat va jamiyat hayotida faol ishtirokini rag‘batlantirish vazifasini o‘z zimmasiga olishi belgilangan. Shuningdek, davlat yoshlarning intellektual salohiyatini yuksaltirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, jismoniy va axloqiy kamolotini ta’minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi konstitutsiyaviy norma sifatida mustahkamlangan.

Mazkur huquqiy va institutsional asoslar yoshlarning har tomonlama rivojlanishi, ularning ijtimoiy faolligini oshirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash hamda mamlakat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘sha oladigan barkamol avlodni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida 2016 yil 14 sentyabrda “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Mazkur qonunning 3-moddasida yoshlarga oid davlat siyosati va yoshlar tushunchalarining huquqiy mazmuni belgilab berilgan. Unga ko‘ra, yoshlarga oid davlat siyosati yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish, ularning intellektual, ijodiy va boshqa salohiyatlarini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar majmuasidan iboratdir. Shuningdek, qonunda yoshlar deb o‘n to‘rt yoshga to‘lgan va o‘ttiz yoshdan oshmagan fuqarolar tushunilishi belgilangan.

Mamlakat barqarorligi, iqtisodiy qudrati va ijtimoiy taraqqiyoti yuksak ma’naviyatli, jismonan sog‘lom, har tomonlama rivojlangan hamda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan yoshlarning faol ishtiroki bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu nuqtayi nazardan, yoshlar nafaqat demografik guruh, balki jamiyatning innovatsion va taraqqiyparvar kuchini tashkil etuvchi muhim ijtimoiy resurs sifatida qaraladi.

Ijtimoiy-falsafiy adabiyotlarda yoshlar ijtimoiy-demografik guruh sifatida tavsiflanib, ularning asosiy xususiyati shaxsning ijtimoiylashuvi, dunyoqarashi va hayotiy pozitsiyasi shakllanishining faol bosqichida ekanligi bilan izohlanadi. Bu davr inson hayotida ta’lim olish, kasb tanlash, mehnat faoliyatini boshlash, oila qurish, mustaqil hayot kechirish hamda ijtimoiy va siyosiy munosabatlarda faol ishtirok etish kabi muhim jarayonlarni qamrab oladi. Shuning uchun ham yoshlik davri shaxsning ijtimoiy kamolotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarning ijtimoiylashuvi jamiyatda qaror topgan milliy va umuminsoniy qadriyatlar, axloqiy me’yorlar, huquqiy tamoyillar va madaniy an’analarni o‘zlashtirish orqali kechadi. Bu jarayon bir tomondan yoshlarning ijtimoiy muhitga moslashuvini ta’minlasa, ikkinchi tomondan ularning jamiyat taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatuvchi faol subyekt sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Natijada yoshlar ijtimoiy munosabatlarning ishtirokchisi sifatida nafaqat ular ta’sirida shakllanadi, balki mazkur munosabatlarning rivojlanishiga ham o‘z hissasini qo‘shadi.

Bugungi kunda yoshlarning jismoniy va ma’naviy kamolotini ta’minlash, ularning sifatli ta’lim olishi, madaniyat, san’at, sport va axborot texnologiyalari sohalariga qiziqishini qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish va ularning ijodiy qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish mustaqillik g‘oyalari asosida tarbiyalashning muhim omillaridan sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, yosh avlodni Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat va mustaqillik g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning iqtidori va ijodiy salohiyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda yoshlar tushunchasiga turli yondashuvlar mavjud. Ulardan biriga ko‘ra, yoshlar bolalik va o‘smirlik bosqichidan ijtimoiy mas’uliyat va mustaqil faoliyat bosqichiga o‘tayotgan, jamiyat hayotining turli sohalarida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘lgan maxsus ijtimoiy guruh hisoblanadi. Turli mamlakatlarda yoshlarning yosh chegarasi demografik, ijtimoiy va huquqiy xususiyatlarga ko‘ra farq qilishi mumkin. Odatda, mazkur chegaraning quyi qismi 14–16 yoshni, yuqori qismi esa 25–35 yoshni tashkil etadi. Bu holat yoshlar tushunchasining nafaqat biologik, balki ijtimoiy va huquqiy mazmunga ham ega ekanligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarni mustaqillik g‘oyasi ruhida tarbiyalash Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Jamiyatning kelajak taraqqiyoti, uning iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy salohiyati ko‘p jihatdan yosh avlodning bilim darajasi, dunyoqarashi, fuqarolik pozitsiyasi hamda ma’naviy kamolotiga bog‘liqdir. Shu bois yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, fidoyilik va mas’uliyat ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, badiiy ijod yoshlarning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlash, ularda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, milliy o‘zlikni anglash va mafkuraviy immunitetni mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi. Badiiy asarlar orqali yoshlar ongida vatanparvarlik, insonparvarlik, milliy g‘urur va fuqarolik mas’uliyati kabi yuksak fazilatlar shakllanadi. Bu esa ularning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi va mamlakat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy va institutsional asoslari yoshlarning har tomonlama rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. Ta’lim, madaniyat, san’at, sport va axborot texnologiyalari sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga xizmat qilmoqda.

Demak, yoshlarni mustaqillik g‘oyasi ruhida tarbiyalashda badiiy ijodni rivojlantirish, ularning ma’naviy dunyosini boyitish va ijodiy tafakkurini qo‘llab-quvvatlash barkamol avlodni shakllantirishning muhim omili hisoblanadi. Bu esa Yangi O‘zbekistonning barqaror taraqqiyoti, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish yo‘lidagi ustuvor vazifalardan biri sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд, Тошкент, Ўзбекистон, 2020 йил, 444 бет.

2. Ўзбекистон Республикасининг “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги Қонуни. (14.09.2016 йилдаги ЎРҚ-406-сон). https://lex.uz/docs/3026246

3. Арипов Алишер Абдумаликович. Ёшлар маънавий хавфсизлигини таъминлашда бағрикенглик феноменини юксалтиришнинг ижтимоий-фалсафий хусусиятлари. 09.00.04-Ижтимоий фалсафа. Фалсафа ф.б.ф.д.(PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Жиззах 2023 йил, 16-17 бетлар.

IBN XALDUN TA'LIMOTIDA ASABIYYANING EVOLYUTSIYASI VA TANAZZUL JARAYONI

Ochilov Baxtiyor Shuhrat og'li,
Navoiy innovatsiyalar universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Ibn Xaldun ta'limotida muhim nazariy kategoriya hisoblangan asabiyyaning transformatsiyasi va yemirilish omillari tahlil qilinadi. Asabiyyaning qabilaviy birdamlik va siyosiy hokimiyatning shakllanishidagi o'rni yoritilib, uning badaviy hayot tarzidan umroniy taraqqiyot bosqichiga o'tish jarayonida qanday o'zgarishlarga uchrashi tadqiq etiladi.*

Kalit so'zlar: *Ibn Xaldun, asabiyya, umron, qabilaviy birdamlik, siyosiy hokimiyat, davlat, shaharlashuv, nasabiy aralashuv, sivilizatsiya, ijtimoiy taraqqiyot.*

Аннотация. *В данной статье анализируются трансформация асабийи и факторы её ослабления, которая рассматривается как важная теоретическая категория в учении Ибн Халдуна. Раскрывается роль асабийи в формировании племенной солидарности и политической власти, а также исследуются изменения, происходящие с ней в процессе перехода от кочевого образа жизни к этапу цивилизационного развития.*

Ключевые слова: *Ибн Халдун, асабийя, умран, племенная солидарность, политическая власть, государство, урбанизация, родовое смешение, цивилизация, социальное развитие.*

Abstract. *This article analyzes the transformation of asabiyyah and the factors of its decline, which is considered an important theoretical category in Ibn Khaldun's doctrine. It highlights the role of asabiyyah in the formation of tribal solidarity and political authority, and examines the changes it undergoes in the transition from a nomadic way of life to the stage of civilizational development.*

Keywords: *Ibn Khaldun, asabiyyah, umran, tribal solidarity, political authority, state, urbanization, lineage mixing, civilization, social development.*

Kirish. Ibn Xaldun Sharq ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixida jamiyat va davlat taraqqiyotining qonuniyatlarini ilmiy asosda tahlil qilgan mutafakkirlardan biri hisoblanadi. Uning «Muqaddima» asarida ilgari surilgan asabiyya nazariyasi ijtimoiy birlik, siyosiy hokimiyat va sivilizatsion taraqqiyot o'rtasidagi munosabatlarni tushuntirishda muhim nazariy ahamiyat kasb etadi. Mutafakkir asabiyyani qabila, urug' va boshqa ijtimoiy guruhlarni birlashtiruvchi, ularning siyosiy faolligi hamda davlat barpo etish salohiyatini ta'minlovchi asosiy omil sifatida talqin qiladi. Ibn Xaldun qarashlarida asabiyya nafaqat davlatning vujudga kelishi va mustahkamlanishiga xizmat qiluvchi kuch, balki uning keyingi taraqqiyot bosqichlarini tushuntirish imkonini beruvchi nazariy kategoriya sifatida ham namoyon bo'ladi. Ayniqsa, mutafakkir tomonidan asabiyyaning zaiflashuvi va yemirilish jarayonining tahlil qilinishi jamiyatning badaviy hayot tarzidan umroniy taraqqiyot bosqichiga o'tishi bilan bog'liq ijtimoiy o'zgarishlarning mohiyatini ochib berishda alohida ahamiyatga ega. Ushbu jarayonda tabiiy-geografik muhit, nasabiy munosabatlar, siyosiy hokimiyatning markazlashuvi hamda madaniy taraqqiyot kabi omillarning o'rni muhim hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada Ibn Xaldun ta'limotidagi asabiyya tushunchasining evolyutsiyasi va tanazzul jarayonini yoritishda tarixiy-falsafiy tahlil, tizimli yondashuv va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Adabiyotlar tahlili. Ibn Xaldun ta'limotiga oid ilmiy manbalarda asabiyya jamiyatni birlashtiruvchi, siyosiy hokimiyatni shakllantiruvchi va davlat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi muhim ijtimoiy kuch sifatida talqin qilinadi. Xususan, "Muqaddima" asarida asabiyyaning qabilaviy birdamlik, nasabiy aloqalar, badaviy hayot tarzi va siyosiy hokimiyat bilan bog'liq nazariy asoslari keng yoritilgan. Mavzuga doir adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, asabiyya

dastlab davlat barpo etuvchi kuch sifatida namoyon bo‘lsa, umron taraqqiyoti, shaharlashuv, farovonlik, hashamat va markazlashgan boshqaruv kuchaygani sari uning ijtimoiy-siyosiy ta’siri asta-sekin zaiflashib boradi.

Natija va muhokama. Ibn Xaldun ta’limotida asabiyya jamiyat va davlat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi omillaridan biri sifatida talqin etiladi. Mutafakkir uni nafaqat ijtimoiy birlikni ta’minlovchi, balki siyosiy hokimiyatning shakllanishi va mustahkamlanishiga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy kuch sifatida baholaydi. Shu bilan birga, Ibn Xaldun asabiyyani o‘zgarmas hodisa sifatida emas, balki jamiyat rivojlanishi bilan birga transformatsiyaga uchraydigan va muayyan tarixiy bosqichlarda zaiflashib boradigan murakkab ijtimoiy hodisa sifatida ko‘rsatadi. Uning nazariyasiga ko‘ra, asabiyyaning shakllanishi umumiy nasab, qarindoshlik aloqalari, ajdodlarga mansublik hissi hamda qiyin tabiiy sharoitlarda yashash zarurati bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa, sahro hududlarida yashovchi arab qabilalarining yakkalangan turmush tarzi, ko‘chmanchi hayot kechirishi va boshqa etnik guruhlar bilan aloqalarning cheklanganligi qabilaviy birdamlikning mustahkamlanishiga xizmat qilgan. Bunday sharoitda asabiyya qabila a’zolarini yagona maqsad atrofida birlashtiruvchi, o‘zaro ishonch va sadoqatni mustahkamlovchi hamda siyosiy safarbarlikni ta’minlovchi ijtimoiy institut sifatida namoyon bo‘lgan[1,b-307–309.]. Biroq jamiyatning badaviy hayot tarzidan umroniy taraqqiyot bosqichiga o‘tishi natijasida asabiyyaning ijtimoiy asoslari asta-sekin o‘zgarib boradi.

Shaharlashuv jarayonlarining kuchayishi, iqtisodiy faoliyat turlarining murakkablashuvi, dehqonchilik va hunarmandchilikning rivojlanishi, shuningdek, turli etnik va ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi aloqalarning kengayishi nasabiy chegaralarning zaiflashishiga olib keladi. Natijada qabilaviy birdamlikning asosini tashkil etgan umumiy kelib chiqish haqidagi tasavvurlar va tarixiy xotira asta-sekin o‘z ahamiyatini yo‘qota boshlaydi[2,b-67]. Ibn Xaldun ushbu jarayonni asabiyyaning tabiiy negizlarini yemiruvchi muhim omillardan biri sifatida baholaydi. Mutafakkirning fikricha, davlat hokimiyatining markazlashuvi ham asabiyyaning zaiflashishiga ta’sir ko‘rsatadi, chunki hokimiyat mustahkamlangan sari qabilaviy birlikka tayanuvchi mustaqil kuch markazlarining siyosiy ahamiyati kamayib boradi. Shu bilan birga, umron taraqqiyoti natijasida jamiyatda farovonlik, hashamat va moddiy ne’matlarga intilishning kuchayishi jamoaviy manfaatlardan ko‘ra individual manfaatlarning ustuvorlik kasb etishiga olib keladi. Bunday sharoitda o‘zaro sadoqat, fidoyilik va qabilaviy birdamlik kabi qadriyatlar zaiflashib, asabiyya o‘zining dastlabki ijtimoiy funksiyalarini yo‘qota boshlaydi[3,b-354-360]. Shunday qilib, Ibn Xaldun konsepsiyasida asabiyyaning yemirilishi tabiiy-geografik muhitning o‘zgarishi, nasabiy aralashuvning kuchayishi, siyosiy hokimiyatning markazlashuvi hamda madaniy taraqqiyotning chuqurlashuvi bilan bog‘liq bo‘lgan qonuniy tarixiy jarayon sifatida talqin qilinadi.

Mazkur yondashuv mutafakkirning jamiyat va davlat rivojlanishiga doir qarashlarida ijtimoiy birlikning shakllanishi, transformatsiyasi va zaiflashish mexanizmlarini izohlashga xizmat qiluvchi muhim nazariy asoslardan biri hisoblanadi.

Ibn Xaldun asabiyyaning zaiflashishini davlat hokimiyatining shakllanishi va umron taraqqiyotining chuqurlashuvi bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qiladi. Uning fikricha, asabiyya dastlab siyosiy hokimiyatni qo‘lga kiritish va davlatni barpo etishda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘lsa, davlat institutlarining mustahkamlanishi bilan uning siyosiy ahamiyati asta-sekin cheklana boshlaydi[4,b-92-95]. Chunki markazlashgan hokimiyat qabilaviy birdamlikka tayanuvchi mustaqil kuch markazlarining mavjudligini o‘z hukmronligi uchun potensial xavf sifatida baholaydi. Shu bois boshqaruv tizimining rivojlanishi jarayonida siyosiy munosabatlar qarindoshlik va nasabiy aloqalarga emas, balki ma’muriy tuzilmalar, huquqiy me’yorlar va davlat institutlariga tayanadigan tizim bilan almashadi. Natijada asabiyya hokimiyatni vujudga keltiruvchi asosiy omil maqomidan uzoqlashib, davlat nazorati ostidagi ijtimoiy hodisaga aylanadi. Uning ta’kidlashicha, umron rivojlangan sari jamiyatda farovonlik darajasi ortadi, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar murakkablashadi, insonlarning ehtiyoj va manfaatlari kengayadi. Bunday sharoitda jamoaviy manfaatlarni himoya qilishga asoslangan qabilaviy

birdamlik o‘rnini individual manfaatlar va shaxsiy farovonlikka intilish egallay boshlaydi. Hashamatli turmush tarzi, moddiy ne’matlarning ko‘payishi va qulay yashash muhiti kishilarning umumiy maqsad yo‘lidagi fidoyiligi hamda safarbarlik salohiyatini susaytiradi[5, b-191-195].

Shu tariqa asabiyya jamiyatni birlashtiruvchi va siyosiy faollikni ta’minlovchi kuch sifatidagi mavqeini yo‘qotib boradi. Ibn Xaldun konsepsiyasida asabiyyaning yemirilishi tasodifiy hodisa emas, balki umron taraqqiyotining ichki qonuniyatlaridan biri sifatida talqin qilinadi. Tabiiy-geografik muhitning o‘zgarishi, nasabiy aloqalarning zaiflashuvi, siyosiy hokimiyatning markazlashuvi hamda madaniy taraqqiyotning chuqurlashuvi asabiyyaning ijtimoiy asoslarini bosqichma-bosqich yemiradi. Mazkur yondashuv mutafakkirning jamiyat va davlat rivojlanishiga doir qarashlarida ijtimoiy birlikning shakllanishi, rivojlanishi va tanazzul mexanizmlarini izohlovchi muhim nazariy asoslardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Ibn Xaldun ta’limotida asabiyya jamiyat va davlat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi muhim ijtimoiy-siyosiy kuch sifatida namoyon bo‘ladi. U dastlab qabilaviy birdamlik, umumiy nasab, o‘zaro sadoqat va siyosiy safarbarlik asosida shakllanib, davlat hokimiyatining vujudga kelishi va mustahkamlanishida hal qiluvchi omil vazifasini bajaradi. Biroq jamiyat badaviy hayot tarzidan umroniy taraqqiyot bosqichiga o‘tgan sari asabiyyaning dastlabki ijtimoiy asoslari o‘zgaradi. Shaharlashuv, iqtisodiy munosabatlarning murakkablashuvi, nasabiy aralashuv, markazlashgan davlat boshqaruvi va madaniy taraqqiyot qabilaviy birdamlikning zaiflashishiga olib keladi.

Ibn Xaldun qarashlarida asabiyyaning tanazzuli tasodifiy jarayon sifatida emas, balki jamiyat rivojlanishining ichki qonuniyatlari bilan bog‘liq tarixiy hodisa sifatida talqin qilinadi. Farovonlik, hashamat, individual manfaatlarning kuchayishi va siyosiy hokimiyatning institutsionallashuvi natijasida asabiyya avvalgi safarbarlik va birlashtiruvchilik kuchini asta-sekin yo‘qotadi. Shu jihatdan mutafakkirning asabiyya haqidagi ta’limoti bugungi kunda ham ijtimoiy birlik, siyosiy hokimiyat, davlat barqarorligi va sivilizatsion taraqqiyot o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni anglashda muhim nazariy-metodologik ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ибн Хальдун. Введение (Мукаддима). Пер. с араб. Н. А. Машкур. Москва: Наука, 2004. С. 307–309.

2. Фомина Дарья Владимировна. Власть и государство в философии Ибн Хальдуна: диссертация на соискание ученой степени кандидата философских наук. Специальность 09.00.03 – история философии. — Москва: Российский государственный гуманитарный университет, 2003. — 67 с.

3. Bayrut: Dār al-Fikr, 1978. pp. 354–360.

4. Ibn Khaldun. The Muqaddimah: An Introduction to History. Translated by Franz Rosenthal. Princeton: Princeton University Press, 1958. Vol. I, pp. 92–95

5. Ибн Хальдун. Мукаддима. Пер. с араб. Н. А. Машкур. Москва: Наука, 2004. С. 191–194

SHAMS TABRIZIYNING TASAVVUFIY HAYOT YO‘LI

Odinayev Mahmud Ahmadovich,
Samarqand davlat chet tillar instituti
tayanch doktoranti
Orcid: 0009-0008-8710-0288

Annotatsiya. *Ushbu maqola Shams Tabriziyning tasavvufiy hayot yo‘lini o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqola Shams Tabriziyning shaxsiyati, ilmiy va falsafiy faoliyati, Mavlono Jaloliddin Rumiy bilan uchrashuvi hamda uning tasavvufiy tafakkurining rivojlanishiga bo‘lgan ta’sirini yoritadi. Shuningdek, maqolada XIII–XIV asrlarda Islom olamida tarqalgan tariqatlar va falsafiy ta’limotlarning Shams falsafiy va tasavvufiy rivojlanishiga qanday ta’sir qilgani haqida ma’lumotlar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Shams Tabriziy, tasavvuf, Jaloliddin Rumiy, tariqat, ruhiy tarbiya, falsafa.*

Аннотация. *Данная статья посвящена изучению суфийского жизненного пути Шамса Табризи. В статье рассматриваются личность Шамса Табризи, его научная и философская деятельность, встреча с Мавланой Джалаладдином Руми и влияние этой встречи на развитие суфийского мировоззрения Руми. Также анализируется влияние суфийских тарикатов и философских учений, распространённых в исламском мире XIII–XIV веков, на формирование философских и мистических взглядов Шамса Табризи.*

Ключевые слова: *Шамс Табризи, суфизм, Джалаладдин Руми, тарикат, духовное воспитание, философия.*

Abstract. *This article is devoted to the study of the Sufi life and spiritual path of Shams Tabrizi. It examines the personality of Shams Tabrizi, his scholarly and philosophical activities, his encounter with Mawlana Jalal al-Din Rumi, and the influence of this meeting on the development of Rumi’s Sufi thought. The article also discusses the impact of the Sufi orders and philosophical doctrines that spread throughout the Islamic world during the thirteenth and fourteenth centuries on the philosophical and mystical development of Shams Tabrizi.*

Keywords: *Shams Tabrizi, Sufism, Jalal al-Din Rumi, Sufi order (tariqa), spiritual education, philosophy.*

Tasavvuf Islomning yoyilishi bilan bir vaqtda shakllana boshlagan bo‘lsa-da, manbalarga ko‘ra, XIII asrlardan boshlab tasavvuf yanada keng tarqala boshladi va bu davrda bir qator buyuk mutasavviflar yetishib chiqdi. XIII–XIV asrlarda tasavvufning keng tarqalishining asosiy ikki sababi bo‘lgan. Birinchisi – mo‘g‘ul bosqinlari natijasida madaniyatning bir qator sohalarining rivojlanishi past darajada bo‘lishi edi. Ma’lumki, mo‘g‘ullar islom o‘lkalariga bir necha yurishlar qilgan paytda arxitektura, san’at va boshqa madaniyat sohalari talafotga uchragan va inqirozga yuz tutgan. Moddiy madaniyatning inqirozda bo‘lishi esa ma’naviy madaniyatning rivojlanishiga turtki bo‘lgan va natijada ma’naviy madaniyat, shuningdek, tasavvufning rivojlanishi uchun sharoit yaratilgan [1].

Tasavvufiy tariqatlar rivojlanishining ikkinchi sababi esa mo‘g‘ullar diniy siyosati bilan bog‘liq edi. Mo‘g‘ullar o‘zlari zabt etgan hududlarda islomni ta’qib qilganlar. Bu davrda masjid va madrasalar vayron qilingan, din xodimlari ta’qib qilingan. Bu davrda ta’qibga uchragan tasavvuf tariqatlari bu hududlardagi diniy bo‘shliqni to‘ldirishda muhim rol o‘ynagan.

Tasavvuf tariqatining eng mashhur vakillaridan biri Shamsiddin Muhammad Tabriziy bo‘lgan. Mashhur so‘fiy shoir, Mavlono Jaloliddin Rumiyning ustozi hisoblangan Shamsiddin Muhammad Tabriziy shu bilan birga mashhur faylasuf ham edi. Shams Tabriziyning hayoti haqida ko‘p ma’lumot yo‘q, uning falsafiy qarashlarini faqat bir guruh odamlar tushunishi mumkin edi. Manbalarda Shams Tabriziy 1244-1247-yillarda, taxminan 60 yoshida Konyada bo‘lganligi haqida ishonchli ma’lumotlar keltirilgan. Ushbu ma’lumotlarga asoslanib, Shams Tabriziy 1186-yilda Tabrizda tug‘ilgan degan xulosaga kelish mumkin. Bizgacha yetib kelgan

«Maqolot» deb nomlangan suhbatlar to‘plamidan ma’lumki, u Tabrizdan bo‘lganidan faxrlangan va bilim jihatidan Tabriz aholisi orasida eng past darajali odam ekanligini aytgan. Shamsning otasi Ali bin Malikdod savdo maqsadida Xurosondan Tabrizga kelgan va Shams shu yerda tug‘ilgan. Shams Tabriziyning millati haqida xorijiy tadqiqotchilarining asarlarida turli xil qarama-qarshi ma’lumotlar mavjud. Ko‘pgina ingliz tilida so‘zlashuvchi tarixchilar Shams Tabriziyning millatiga to‘xtalmaydi va uni eronlik deb ataydi. Bu yo‘nalishdagi eng jiddiy tadqiqot ishlari muallifi Uilyam Chittik o‘z kitobida bu masalaga umuman to‘xtalmaydi. Bu masala bugungi kunda ham noaniqligicha qolmoqda [2].

Shams boshlang‘ich ta’limni Tabrizda olgan va uning ustozi Bobo Kamoliddin bo‘lgan. Ba’zi manbalarga ko‘ra, u turli joylarga sayohat qilib, qamishdan to‘qilgan savatlarni sotish orqali tirikchilik qilgan. Ba’zi manbalarda otasi uni ayollar uyiga olib borib, unga zargarlik hunarini o‘rgatganligi va Tabrizda «Zardo‘z» laqabi bilan tanilganligi aytiladi. Biroq, bu davrning dastlabki manbalarida bu haqda hech qanday ma’lumot yo‘q. Qo‘shimcha ma’lumotlar Shams Tabriziyning yoshligi bilan bog‘liq. U 22 yoshida Sahih Ahmad ismli shayx bilan uchrashgan va unga 14 yil xizmat qilgan. Faridun Sipohsolor taqdim etgan ma’lumotlarga ko‘ra, u hammadan yashirish uchun qora kigiz kiyadigan, tunni madrasa va turargohlarda emas, balki karvonsaroylarda o‘tkazadigan, tunni o‘tkazadigan xonasida hech narsa bo‘lmasa ham, eshikni mahkam qulflaydigan va savdo maqsadida sayohat qiladigan sirlarga to‘la inson bo‘lgan [3].

Shams Tabriziy Tabrizni tark etganidan so‘ng, Bag‘dod, Damashq, Halab, Sivas, Kayseri, Erzinjon kabi shaharlarga sayohat qildi va turli so‘fiylar yig‘ilishlarida qatnashdi. Darhaqiqat, u 1240-yilda Damashqda bo‘lganida mashhur so‘fiy olimi Shayx Muhyiddin Ibn al-Arabiyning darslarida qatnashdi. So‘fiylik ilmi bilan bir qatorda u bir qator dunyoviy fanlarni - matematika, kimyo, mantiq va boshqa fanlarni ham o‘rgandi. Shams Tabriziy «Maqolot» to‘plamida to‘plangan suhbatlarida buyuk olim Ibn al-Arabiyni Shayx Muhammad deb ataydi.

Mavlono Jaloliddin Rumiy va Shams Tabriziyning uchrashuvi haqida ham qiziqarli ma’lumotlar mavjud. Aflokiyning so‘zlariga ko‘ra, ular birinchi marta Damashqda uchrashishgan. Damashqqa borgan Mavlono Jaloliddin Rumiy odamlar orasida qora kiyim kiygan bir kishini ko‘rgan. Qancha qidirmasin, u odamni topa olmagan [4].

Shams Tabriziy va Mavlono Jaloliddin Rumiy 1244-yil 15-noyabrda Konyada uchrashishgan. Rivoyatlarga ko‘ra, Mavlono shogirdlari bilan juma namozidan qaytayotganida, qora kiyimdagi Shams uni to‘xtatib, unga savol bergan. «Ayting-chi, Hazrati Muhammad buyukroqmi yoki Boyazid-i Bistomiymi?» Mavlono javoban: «Muhammad Mustafo (s.a.v.) barcha payg‘ambarlar va avliyolarning rahbari», - deydi. Shams esa e’tiroz bildirib: “U holda Hazrati Muhammad (s.a.v.): “Ey Allohim, biz Seni loyiqligingcha bilmadik”, dedi, Bistomiy esa: “Mening shon-sharafim juda yuksak va men sultonlarning sultoniman”, dedi”. Mavlono unga quyidagi javobni berdi: “Boyazid-i Bistomiyning chanqog‘i oz bo‘lgani uchun, u bir tomchi suvga aldandi va shu paytda uning aql-idrok kosasi to‘ldi. Hazrati Muhammad (s.a.v.)ning chanqog‘i ortib borgan sari kuchaydi. U chanqog‘i uchun doimo ibodat qilardi va Allohga qanchalik yaqinlashsa, shuncha yaqin bo‘lishni xohlardi”. Shams Tabriziyga bu javob juda yoqdi va u Mavlono yillar davomida izlagan insoni, izlagan do‘sti degan xulosaga keldi [5].

Ba’zi manbalarga ko‘ra, bu voqeadan so‘ng Shams Tabriziy va Mavlono Jaloliddin Rumiy qirq kun davomida maxsus xonada tushunarsiz suhbatlar va ibodatlar bilan band bo‘lishdi. Qanday bo‘lmasin, Mavlono va Shams o‘rtasida hech kim tushuna olmaydigan suhbatlar bo‘lgan va bu yolg‘izliklarning ham so‘zma-so‘z, ham majoziy ma’nolari bor.

Shams Tabriziyning falsafiy qarashlarini tushunish juda qiyin. Buni u haqida aytilgan boshqa bir afsonadan yaqqol ko‘rish mumkin. Mavlono Jaloliddin Rumiy o‘z kitoblarini juda yaxshi ko‘rar va hatto rafiqasining ham ularga tegishiga yo‘l qo‘ymasdi. Bir kuni u kitob o‘qiyotganida, Shams unga yaqinlashib, nima qilayotganini so‘radi. Mavlono ilm o‘rganayotganini aytdi. Buni eshitgan Shams Mavlononing kitoblarini yig‘ib, hovlidagi hovuzga otib yubordi. Biroq, Mavlono Shamsga hech narsa demadi va nima bo‘layotganini xotirjamlik

bilan kuzatdi. Mavlononing hech narsa demaganini ko‘rib, Shams kitoblarni hovuzdan oldi. G‘alati holat shundaki, kitoblarga hech narsa bo‘lmagan edi [3].

Mavlononing Shams bilan ko‘proq vaqt o‘tkazishi uning shogirdlari va Konya aholisi orasida hasadga sabab bo‘ladi va natijada Shamsiddin Tabriziy Konyani tark etib, Damashqqa qaytadi. Bu borada bir qator qarama-qarshi fikrlar mavjud. Ba’zi tadqiqotchilar Shams Damashqqa borganidan keyin Mavlonoga xat yozganini xabar qilishadi. Biroq, ba’zi tadqiqotchilar Mavlono unga ko‘p xat yozganini va uning ketishi unga yomon ta’sir qilganini yozadilar. Biroq, ikkinchi versiya yanada ishonchliroq va bu haqda ma’lumot ko‘proq manbalarda uchraydi. Ammo barcha manbalar tomonidan berilgan bitta umumiy ma’lumot bor, bu Mavlono o‘g‘li Sulton Valadni Shamsni chaqirish uchun Damashqqa yuborganligidir [2].

Keyinchalik Shams Tabriziy Mavlono Jaloliddin Rumiyning maslahati bilan Kimyo Xotunga uylandi, ammo bir muncha vaqt o‘tgach, u yana Konyani tark etdi. Mavlono Jaloliddin Rumiy Shams Tabriziyni ko‘p qidirdi, ammo uni topa olmadi. Ba’zi birlamchi manbalarda Shams g‘oyib bo‘lgani, boshqalari esa Konyada o‘ldirilgani haqida yozadilar. Konyada uni unchalik sevmaganliklari inkor etib bo‘lmaydigan haqiqat. Chunki, Konyaga kelganidan keyin odamlar Mavlononing o‘zgarishini qabul qila olmadilar.

Shams Tabriziyning vafotidan so‘ng, uning suhbatlarini o‘z ichiga olgan «Maqolot» deb nomlangan kitob tayyorlandi, ushbu kitobdan allomaning falsafiy g‘oyalari haqida taassurotlar olish mumkin. Uning falsafiy ta’limotining asosiy mavzularidan biri shahvoniy istaklardan butunlay voz kechish, tanani tarbiyalash, ruhni birlashtirish va Allohga taslim bo‘lishdir. Shu bilan birga, ruhni o‘lmas deb hisoblagan Shams tanani hayotning o‘zi kabi o‘lik deb biladi va uning fikriga ko‘ra, inson tanaga emas, balki ruhga, ya’ni Allohga oshiq bo‘lishi kerak. Chunki tana parchalanib, yer bilan aralashadi, lekin ruh abadiy qoladi. Uning vafotidan keyin Mavlono Jaloliddin Rumiy dunyoga mashhur «Masnaviy-Manaviy» asarini yozdi [4].

Shams Tabriziy tasavvufiy tafakkur va ma’naviy rivojlanishning yorqin namoyandasi bo‘lgan. U Mavlono Jaloliddin Rumiyga nafaqat ustoz, balki ruhiy yo‘l-yo‘riq ko‘rsatgan so‘fiy shoir sifatida ham ta’sir qilgan. XIII–XIV asrlarda islom mamlakatlarida tasavvufning keng tarqalishi va ijtimoiy-siyosiy sharoitlar Shamsning falsafiy va tasavvufiy qarashlarining shakllanishiga yordam bergan. Shu bilan birga, uning ijodi orqali keyingi avlodlar, xususan Rumiy ma’naviy kamolot va tasavvufiy tafakkurni yanada rivojlantirish imkoniga ega bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. William C. Chittick. Me & Rumi: The Autobiography of Shams-i Tabrizi. Louisville, Kentucky, Fons Vitae, 2004. – 409 p.
2. Faridun Sipohsolor. Risola: Mavlono va uning atrofidagilar (Tahsin Yazichi tarjimasi). – Istanbul: 1977. – B. 121-134.
3. Fuad Köprülü. Türk Edebiyatında İlk Mutasavvıflar (haz. Orhan F. Köprülü), Ankara 1991. – S. 219-224.
4. Sahih Ahmad Dada. Mavlaviylar tarixi. – Istanbul: 2003. – B. 164-171.
5. Shams Tabriziy. Maqolot. Ali Muvahhid tahriri ostida. – Tehron: 1949.
6. Shamsiddin Aflokiy. Oriflar manoqiblari. (Tahsin Yazichi tarjimasi). – Istanbul: 1995. – B. 189-286.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ОММАВИЙ СПОРТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДА

Зоиржон Ёдгоров,
ЖизПИ “Ижтимоий фанлар”
кафедраси катта ўқитувчиси

Аннотация. *Мамлакатимизда жисмоний тарбия ва спортни ривожлантириш, аҳолининг барча кенг қатламларини, айниқса ёшларни жимоний тарбия ва оммавий спорт билан мунтазам шуғулланишга жалб қилиш, жамиятда соғлом турмуш тарзининг фойдаси ва устунлигини кенг тарғиб қилиш, юртимизда яратилган жисмоний тарбия-соғломлаштириш ва спорт инфратузилмасидан тўлақонли ва самарали фойдаланишини таъминлаш масалалари чуқур ёритиб берилган.*

Калит сўзлар: *“Янги Ўзбекистон”, оммавий спорт, жисмоний тарбия ва спорт, соғлом авлод, соғлом турмуш тарзи, спорт селекцияси, “саломатлик баланси”, маҳалла, мактаб, спорт муассасаси, федерация.*

Аннотация. *В статье подробно рассматриваются вопросы развития физического воспитания и спорта в нашей стране, вовлечения всех широких слоев населения, особенно молодежи, в регулярные занятия физической культурой и массовый спорт, широкого распространения пользы и преимуществ здорового образа жизни в обществе, а также обеспечения полного и эффективного использования созданной в нашей стране инфраструктуры физического воспитания, здравоохранения и спорта.*

Ключевые слова: *“Новый Узбекистан”, массовый спорт, физическое воспитание и спорт, здоровое поколение, здоровый образ жизни, выбор вида спорта, “баланс здоровья”, район, школа, спортивное учреждение, федерация.*

Annatation. *The article examines in detail the development of physical education and sports in our country, the involvement of all broad sections of the population, especially young people, in regular physical education and mass sports, the widespread dissemination of the benefits and advantages of a healthy lifestyle in society, as well as ensuring the full and effective use of the physical education, healthcare and sports infrastructure created in our country.*

Key words: *“New Uzbekistan”, mass sports, physical education and sports, healthy generation, healthy lifestyle, choice of sport, “health balance”, district, school, sports facility, federation.*

Бутун дунёда глобал таҳликали ҳозирги замонда ривожланишнинг барча жиҳатларида глобал рақобат кучайиши шароитларида жаҳондаги ҳар бир мамлакат олдида бугунги кунда инсон капитали сифатини ошириш зарурлиги юзага келади. Бу миллатнинг саломатлигини — барча ёшдаги аҳолининг соғлом дунёқарашини, жисмоний, маънавий-интеллектуал саломатлигини асраш, жисмоний саломатлигини мустаҳкамлаш тўғрисида доимий ғамхўрлик қилиш масалаларига ёндашувларни тубдан қайта кўриб чиқишни талаб этади. Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбиянинг юқори даражасига ва аҳолининг ҳаёти сифатига эришиш стратегик вазифани — мамлакатни барқарор ривожлантиришни амалда рўёбга чиқариш доирасида муҳим шарти ҳисобланади. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича “Ҳаракатлар стратегияси” ни амалга ошириш доирасида мамлакат аҳолисининг барча қатламлари бутун ҳаёти давомида жисмоний тарбия ва оммавий спорт билан мунтазам шуғулланиши учун зарур шарт-шароитларни таъминлаш ушбу вазифани ҳал этишнинг асосий омилларидан бири бўлади.Шу мақсадда, 2019 йил 13 февраль куни “2019-2023 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва оммавий спортни ривожлантириш концепцияси” ни тасдиқлаш тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 118-сонли Қарори қабул қилинди [1].

Жамият олдида турган ўртача ва узоқ муддатли стратегик вазифаларни самарали амалга ошириш учун инсоннинг бутун ҳаёти давомида соғлом турмуш тарзини ҳамда

жисмоний тарбия ва оммавий спорт билан узлуксиз шуғулланишнинг фойдасини тарғиб қилишга барча саъй-ҳаракатлар ва ресурсларни биргаликда йўналтириш, ушбу жараёнга барча давлат муассасалари, нодавлат муассасалар ва хўжалик юритувчи субъектларни жалб этишни таъминлаш талаб этилади.Шу билан бирга, жисмоний тарбия ва оммавий спорт соҳасини тўлиқ кўламда ривожлантириш йўлидан бориб ҳозирги пайтда мамлакатда бунга тўсқинлик қилувчи бир қатор жиддий камчиликлар мавжудлигини англаш муҳимдир. Жумладан:

- аҳолини, айниқса, ёшларни жисмоний тарбия ва оммавий спорт билан шуғулланишга кенг жалб этиш, ўсиб келаётган авлодни уйғун равишда маънавий ва жисмоний камол топтиришни таъминлаш учун шарт-шароитларни шакллантириш ишларини ташкил этишнинг паст даражаси, натижада - жисмоний тарбия ва оммавий спорт билан шуғулланишни истовчиларнинг етарлича қамраб олинмаслиги;

- жисмоний тарбия ва оммавий спортни ривожлантириш тизимининг қизиқишни қўллаб-қувватлашга, шахснинг профессионал ва амалий кўникмаларига суст йўналтирилганлиги;

- соҳада методик таъминлашнинг даражаси етарли эмаслиги, бу аҳолида жисмоний тарбия ва оммавий спорт билан шуғулланишга кучли ва амалий ижобий қизиқишни шакллантириш ва ривожлантиришни давом эттиришда тўсиққа айланмоқда;

- олий маълумотли мутахассислар тақчиллиги жисмоний тарбия ва оммавий спорт соҳасида кўрсатилаётган хизматлар сифатини пасайтирибгина қолмасдан, балки уларнинг доирасини торайтиради;

- кам комплектли спорт муассасаларининг машғулотлар ва машқлар сифатининг зарур даражасини таъминлаш имконини бермайдиган кадрлар таркиби ва моддий-техник жиҳозланиши салоҳияти паст, спортнинг айрим турлари бўйича спорт кадрлари, тренерлар ва педагог кадрлар етишмайди, бир қатор энг малакали кадрлар, яъни олий ва биринчи тоифали спорт кадрлари, тренерлар ва педагог кадрлар қисқариши тенденцияси кузатилмоқда, ходимларнинг умумий касбий савияси пасаймоқда;

- спорт факультетлари талабалари контингентининг сифати ва тузилмаси талаб даражасида эмас. Спорт мутахассислигига кириш учун уларда салоҳият мавжудлигини ва танланган касбда ишлашдан манфаатдорлигини, болалар ва катта ёшдагилар билан умумий тил топиш қобилиятини, руҳий барқарорлик ва муомала қила билишнинг етарли даражасини аниқлаш юзасидан кирувчиларнинг умумий жисмоний тайёргарлигини, руҳий-ҳиссий маълумотларини баҳолашнинг аниқ тартиботлари ва холисона механизмлари мавжуд эмас;

- спорт муассасалари тренерлари ва ходимлари учун улар салоҳияти ўсишига нималар тўсқинлик қилаётганлигини билиши керак бўлган мезонлар ва талабларнинг аниқ тавсифи мавжуд бўлган миллий стандартларнинг йўқлиги, бунинг натижасида спорт муассасалари раҳбарларини танлаш ва тайинлашнинг мавжуд тартиботи самарасиз бўлиб қолмоқда;

- спорт муассасаларини бошқариш жараёнига ишни режалаштириш ва ташкил этишнинг замонавий инновацион усулларини, илғор ахборот-коммуникация технологияларини жорий этишнинг мавжуд даражаси қабул қилинаётган қарорлар амалга оширилиши ташкил этилишини тезкор таъминлаш ва бир вақтнинг ўзида уларнинг самарадорлигини кузатиш имконини бермайди;

- спорт муассасалари айрим раҳбарларида зарур масъулият ва ташаббускорликнинг йўқлиги олдинга қўйилган вазифалар ва мақсадли кўрсаткичлар ўз вақтида ва сифатли бажарилишига салбий таъсир кўрсатмоқда;

- спорт муассасалари фаолиятига бевосита раҳбарлик қилувчи ижро этувчи ҳокимият органлари ишининг очиқлиги ва шаффофлигининг даражаси етарли эмаслиги, жамоатчилик назоратининг заифлиги, баъзан эса мутлақо мавжуд эмаслиги ҳаддан

ташқари бюрократияга ва коррупциянинг ҳар хил шаклларда намоён бўлишига олиб келмоқда;

- спортчиларни ва жисмоний тарбия билан шуғулланувчи шахсларни тиббий хизматдан тўлиқ фойдаланиши ва тиббий хизматнинг зарур сифати амалда таъминланмаган, аҳолини соғломлаштириш учун жисмоний тарбиянинг мавжуд имкониятларидан самарасиз фойдаланилмоқда;

- жисмоний тарбия ва оммавий спортни ривожлантириш соҳасига замонавий ахборот технологияларини ва мультимедиа маҳсулотларини жорий этишга зарур даражада эътибор берилмаяпти;

- спорт муассасалари бир қисмининг моддий-техника базаси ҳолати, уларнинг ортиқча юкламага эга эканлиги, айрим ҳолларда фаолиятни ташкил этиш учун зарур бўлган тегишли ускуналар, кўргазмали қўлланмалар билан етарлича таъминланмаганлиги уларга юкланган функциялар етарлича самарали бажарилмаслигига олиб келмоқда;

- жисмоний тарбия ва оммавий спортни оммалаштириш, шунингдек, соғлом турмуш тарзини тарғиб қилиш соҳасига инновацион технологияларнинг пассив қўлланилиши;

Юқорида санаб ўтилган ва ушбу соҳада йиллар давомида тўпланиб қолган бошқа муаммолар, айрим раҳбарлар тафаккурининг заифлиги ва ташаббус кўрсатмаслиги республикада жисмоний тарбия ва оммавий спорт тизимини замонавий талабларга мувофиқ янада такомиллаштириш йўлида тўсиқ бўлувчи омиллар ҳисобланади.

Муҳтарам Президентимиз Шавкат Мирзиёев 2026 йил 7 апрель куни жисмоний тарбия ва спортни ривожлантириш масалаларига бағишланган видеоселектор йиғилишини ўтказди. Унда Республикамизда оммавий спортни оммалаштириш, аҳоли саломатлигини яхшилаш ва тайёргарлик тизимини ислоҳ қилиш бўйича чора-тадбирлар тақдим этилди. Ўзбекистонда оммавий спортни баҳолашнинг янги тизими жорий этилади: энди аҳоли саломатлиги асосий мезон бўлади. Янги ёндашувларга кўра, маҳаллаларда оммавий спортнинг самарадорлиги нафақат жалб этилган аҳоли сони, балки уларнинг саломатлик кўрсаткичлари билан ҳам баҳоланади. Ҳар бир ҳудудда биттадан туман танлаб олиниб, у ерда “саломатлик баланси” шакллантирилади. Шунингдек, спорт билан фаол шуғулланувчи аҳоли орасидан “соғлом ҳаёт волонтёрлари” корпуси ташкил қилинади. Улар маҳаллаларда спорт ва соғлом турмуш тамойилларини тарғиб қилади.Йиғилиш аввалида давлатимиз раҳбари спорт нафақат мусобақа, балки соғлом турмуш тарзи, интизом, ватанпарварлик ва мамлакат нуфузини намоён этадиган катта куч эканини таъкидлади [2].

Жорий йилдан бошлаб давлат органлари ва ташкилотларида ҳам спортни оммалаштириш бўйича янги тартиб белгиланди. Энди ҳар бир вазир, тармоқ ва банк раҳбари, вилоят ва туман ҳокими ўз ходимларининг спорт билан шуғулланиши учун намуна бўлиши ва шароитларни кенгайтириши шартлиги қатъий белгилаб қўйилди.Шу мақсадда ҳафтанинг бир куни спорт куни сифатида белгиланади. Бу кунда вазирлик, идора ва ташкилотларда спорт машғулотлари ўтказилади. Жорий йилдан бошлаб ҳар йили вазирликлар, тармоқлар, банклар ва ҳокимликлар ўртасида республика биринчиликлари ўтказилади.Хусусий сектор меҳнат жамоаларида ҳам оммавий спортни ривожлантириш учун қўшимча имкониятлар яратилади. Жумладан, тадбиркорлар ўз ишчи-хизматчилари учун спорт зали ва майдонча қуриш ҳамда жиҳозлашга қилган харажатларини фойда солиғи базасидан чегира олади. Жалб қилинган мураббийлар учун даромад солиғи ва ижтимоий солиқ 1 фоиз миқдорида белгиланади. Аҳолини спортга жалб қилиш ва селекция ишларида “маҳалла – мактаб – спорт муассасаси – федерация” занжири асосида мутлақо янги ёндашув жорий этилиши маълум қилинди. Эндиликда ҳар бир олийгоҳ ректори, федерация раҳбари ва ҳоким ўртасида уч томонлама шартнома тузилади. Унга кўра, ҳокимлар ҳудуддаги мактаб, техникум ва бошқа спорт объектларида дарсдан ташқари вақтда спорт тўгараклари ташкил этиш учун шарт-шароит яратади.Шунингдек, спорт йўналишидаги олийгоҳлар талабаларини дуал таълим билан қамраб олиб, уларни

мураббийлик қилиш учун тўгаракларга юбориш муҳимлиги қайд этилди. Бундай талабаларга автоматик тарзда мураббийлик сертификати берилади. Тўгараклардан тушган даромаднинг 50 фоизи мураббий талаба ихтиёрида қолади. Дуал таълим битирувчиларига диплом билан бирга ҳакамлик сертификати ҳам берилади. Жорий йилдан бошлаб янги тизим орқали доимий оммавий спорт билан шуғулланувчилар сонини 2 карра ошириб, 1 миллион нафарга етказилади.

Янги Ўзбекистонда оммавий спортни янада ривожлантиришнинг асосий йўналишлари этиб қуйидагилар белгиланди:

- жисмоний тарбия ва спорт соҳасини ташкил этиш ва бошқариш тизимини ривожлантиришга йўналтирилган қонунчиликни янада такомиллаштириш;
- жисмоний тарбия ва спорт соҳасининг моддий-техник базасини мустаҳкамлаш, замонавий спорт комплексларини қуриш, уларни замонавий спорт ускуналари ва анжомлари билан жиҳозлаш, мазкур соҳада хусусий секторни ривожлантириш;
- жисмоний тарбия ва спорт соҳасида кадрлар тайёрлаш, уларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш муассасаларини илмий-услубий жиҳатдан қўллаб-қувватлаш ҳамда спорт мактабларини юқори малакали мураббийлар ва тиббиёт ходимлари билан таъминлаш;
- таълим муассасалари ўқувчи ва талабалари, аҳолининг кенг қатламлари ўртасида соғломлаштириш, жисмоний тарбия, оммавий спорт ишларини ташкил этиш, комплекс спорт мусобақаларини ўтказиш, ёшлар орасидан иқтидорли спортчиларни саралаб олиш ва уларни мақсадли тайёрлаш;

- Республикада аҳоли ўртасида оммавий спортни ривожлантириш ва соғлом турмуш тарзини тарғиб қилишда – юриш, югуриш, мини-футбол, велоспорт, бадминтон, стритбол, “Workout” (маҳалла ва кўча фитнеси) спортнинг устувор турлари этиб белгиланди[3].

- ҳар бир оила, маҳалла ва туман (шаҳар)да, мактабгача, умумий ўрта, ўрта махсус, профессионал ва олий таълим муассасаларида ҳамда бошқа ташкилотларда жисмоний тарбия ва оммавий спорт билан шуғулланишга шарт-шароитлар яратиш;

- оммавий спортни ривожлантириш бўйича оилалар, синфлар, меҳнат жамоалари ва ҳудудлар ўртасида спорт мусобақаларини мунтазам равишда ўтказиш.

Хулоса ўрнида таъкидлаш жоизки, мамлакатимизда жисмоний тарбия ва оммавий спортни ривожлантириш орқали инсонларнинг онги ва руҳиятида янгича тафаккур сифатларини шакллантириш ва уларни руҳан, маънан, жисмонан бақувват, маънавий жиҳатдан етук, баркамол соғлом миллат генофондининг яратилишига хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарори “2019-2023 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва оммавий спортни ривожлантириш концепцияси” ни тасдиқлаш тўғрисида, 2019 йил 13 февраль, 118-сон.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Мирзиёев Шавкат Миромонович раислигида жисмоний тарбия ва спорт соҳасини янги босқичга олиб чиқиш, аҳолини оммавий спортга кенг жалб этиш, селекция ва тайёргарлик тизимини такомиллаштириш масалалари юзасидан бағишланган видеоселектор йиғилишидаги нутқи // “Халқ сўзи”, 2026 йил, 8 апрель. № 68 (9239).

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 30 октябрдаги “Соғлом турмуш тарзини кенг татбиқ этиш ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-6099 сонли Фармони.

O‘ZBEKISTONDA YANGILANISH JARAYONIDA XOTIN-QIZLAR INNOVATSION SALOXIYATINI YUKSALTIRISHNING IJTIMOIY FALSAFIY JIHATLARI

To‘yeva Muhayyo Shuxrat qizi,
O‘zMPU “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan yangilanish jarayonlari sharoitida xotin-qizlarning innovatsion salohiyatini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari tahlil etilgan. Jamiyatning innovatsion rivojlanishida ayollarning o‘rni, ularning intellektual va ijodiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish masalalari yoritilgan. Shuningdek, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati, ta’lim tizimi va ijtimoiy muhitning ahamiyati ochib berilgan. Maqolada ayollar innovatsion faolligini oshirish orqali iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotni ta’minlash yo‘llari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.*
Kalit so‘zlar: *xotin-qizlar, innovatsion salohiyat, yangilanish jarayoni, innovatsion rivojlanish, ijtimoiy taraqqiyot, ta’lim, gender tengligi, intellektual salohiyat, davlat siyosati.*

Аннотация. *В данной статье анализируются социально-философские аспекты повышения инновационного потенциала женщин в условиях процессов обновления, происходящих в Узбекистане. Освещается роль женщин в обеспечении инновационного развития общэства, раскрываются вопросы реализатсии их интеллектуалных и творческих возможностей. Также рассматриваются государственная политика, направленная на поддержку женщин, роль системы образования и социалной среды. В статье научно обоснованы пути достижения социально-экономического развития посредством повышения инновационной активности женщин.*
Ключевыэ слова: *женщины, инновационный потенциал, процесс обновления, инновационное развитие, социалное развитие, образование, гендерное равенство, интеллектуалный потенциал, государственная политика.*

Annotation. *This article analyzes the socio-philosophical aspects of enhancing women’s innovative potential in the context of ongoing renewal processes in Uzbekistan. It highlights the role of women in ensuring the innovative development of society and examines issues related to the realization of their intellectual and creative capacities. The study also explores state policy aimed at supporting women, as well as the role of the education system and social environment. The article scientifically substantiates ways to achieve socio-economic development through increasing women’s innovative activity.*
Keywords: *women, innovative potential, renewal process, innovative development, social development, education, gender equality, intellectual potential, state policy.*

Kirish. Muhtaram Prezidentimiz Osiyo xotin-qizlarining ikkinchi forumi ishtirokchilariga yo‘llagan murojaatlarida: “Bugun Osiyo qit’asida istiqomat qilayotgan 5 milliardga yaqin aholining qariyb yarmini ayollar tashkil etadi. Biz ularning timsolida nafaqat nafosat sohibalarini, balki mamlakatlarimiz taraqqiyotini jadallashtirish, xalqlar farovonligini yuksaltirish va adolatli dunyoni barpo etish yo‘lidagi ulkan bunyodkor kuchni ko‘ramiz”, deb ta’kidlaganlar [1]. Mazkur fikr xotin-qizlarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va ijtimoiy faolligini yuksaltirish masalasi bugungi kunda strategik ahamiyat kasb etayotganini ko‘rsatadi.

Jahonda modernizatsiya va innovatsiyalar jadallashib borayotgan bir sharoitda inson omili, ayniqsa xotin-qizlarning innovatsion salohiyatini rivojlantirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Jamiyat taraqqiyotining muhim subyekti sifatida ayollarning intellektual imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, ularning ijtimoiy faolligi va innovatsion tafakkurini qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda gender tengligini ta’minlash, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida mustahkam huquqiy hamda institutsional asoslar yaratildi. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ayollar huquqlarini himoya qilish, ularning jamiyat va davlat boshqaruvidagi

ishtirokini kengaytirish, ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi faolligini qo‘llab-quvvatlash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Ayniqsa, yurtimizda xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlash taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. 2025-yilda 2,6 million nafar xotin-qizning daromadli mehnat bilan band bo‘lishiga ko‘maklashildi. O‘zbekiston joriy yilda “Ayol, biznes va qonun” xalqaro indeksida o‘z pozitsiyasini 43 pog‘onaga yaxshilab, 190 ta davlat o‘rtasida 48-o‘rinni egallaganini mamnuniyat bilan qayd etmoqchiman.

Bugungi transformatsion jarayonlar sharoitida xotin-qizlarning innovatsion salohiyatini rivojlantirish nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili, balki jamiyatning ma’naviy va madaniy yuksalishini ta’minlovchi vosita sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Shu bois mazkur masalani ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etish muhim nazariy va amaliy ahamiyatiga ega.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Inson salohiyati, tafakkuri hamda ayollarning jamiyatdagi o‘rni masalalari qadimdan falsafiy tafakkur markazida bo‘lib kelgan. Xususan, “Avesto”da ayol inson hayoti va sog‘lom avlodning muhim omili sifatida baholangan. Qadimgi Hind falsafasida ayol oilaning tayanchi va jamiyat barqarorligining asosiy omillaridan biri sifatida talqin etilgan. Konfutsiy ta’limotida esa ayollarning jamiyatdagi mavqei asosan oilaviy munosabatlar doirasida ko‘rib chiqilgan.

Sharq mutafakkirlari – Kaykovus, Mahmud Qoshg‘ariy, Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Ibn Rushd va Ibn Xaldun kabi allomalar insonning aqliy salohiyati, bilimi va ma’naviy kamolotiga katta e’tibor qaratganlar [2]. Ularning qarashlarida insonning ijtimoiy faolligi va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi.Zamonaviy tadqiqotlarda inson kapitali va innovatsion salohiyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ilmiy jihatdan asoslab berilgan. M.A. Axunov inson kapitalini shaxsning kelajak taraqqiyotini belgilovchi asosiy omil sifatida talqin qilsa, X. Xolmirzayev inson salohiyatini bilim, tajriba, sog‘liq va ko‘nikmalar tizimi sifatida izohlaydi [3].

Bilimli bo‘lishning afzalliklari va muhimligi to‘g‘risida Yusuf Xos Hojib aloxida ta’kidlagan. Mutafakkir “Qutadg‘u bilig” asarining qaxramonlaridan biri-Oyto‘ldi aql va bilimning ramzi sifatida, ya’ni Oyto‘ldi bilim egallab borgani sari to‘lin oy singari to‘lib, yuksalib borishi e’tirof etiladi. Bu yerda yuksalib borish hozirgi davr ta’biri bilan aytganda, intellektual yuksalish ma’nosida aytilgan bo‘lsa kerak, deb hisoblash mumkin. Aziziddin Nasafiy inson tanasining uch xil - xayvon ruxi, inson ruxi va farishta ruxi to‘g‘risida fikr bildirib, eng yuksak farishta ruxi uning bilimi ortgani sari kuchayib borishini e’tirof etilmoqda. Maxmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarida bilim bebaho boylik, inson ongi, axloqi, go‘zal fazilatlarining,hatti-harakatlarining belgilovchi asosi, sifatida tavsiflangan.

Tarixiy taraqqiyotga nazar solsak, uning yuksak rivojlanish bosqichlarini, avlodlarning o‘zaro bog‘liqligini, ijtimoiy-madaniy tajribaning avlodlarga o‘tib borishini va natijada insonning taraqqiyotini ta’minlab beruvchi muhim omillardan biri inson saloxiyati ekanligini anglaymiz. Inson taraqqiyoti o‘z-o‘zidan uning salohiyatining ham rivojlanishiga ta’sir etadi. Inson shunchaki rivojlanish vositasi sifatida emas, u o‘z salohiyati asosida yangilik yaratuvchi, innovatsiya taraqqiyotining subyekti va asoschisi hisoblanadi. Aslida inson saloxiyati muntazam o‘zgarib, yangilanib boradi. Bu obyektiv jarayon inson taraqqiyotining mantig‘ini ifoda etadi.

Inson salohiyati haqida so‘z yuritilganda, yurtboshimizning quyidagi fikrlarini tadqiqotimiz uchun nazariy va amaliy metodologik asos sifatida keltirish joiz: “Bizning ustuvor vazifamiz – inson salohiyatini ro‘yobga chiqarishga har tomonlama ko‘maklashish, uning asosiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Bu jamiyatda tinchlik va barqarorlik, farovon hayotni ta’minlashning asosiy shartidir”. Ko‘rinib turibdiki, inson saloxiyati jamiyatni taraqqiy ettiruvchi hamda barqarorlikni ta’minlovchi muhim subyektiv omil ekan. MDH davlatlari olimlari — Ye. Zdravomislova, N. Pushkareva, O.A. Voronina, O.A. Xasbulatova va boshqalar tomonidan xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi, gender tengligi, ta’lim va mehnat sohasidagi ishtiroki keng tadqiq etilgan. Biroq xotin-qizlarning innovatsion salohiyati va uning jamiyatning barqaror taraqqiyotiga ta’siri yetarli darajada kompleks tadqiq

etilmagan.Mazkur maqolada tarixiylik, tizimlilik, qiyosiy tahlil, ijtimoiy-falsafiy yondashuv va statistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Muhokama va natijalar. Rossiyalik olima Ye.A.Kitayseva kishilarning jamiyatda amalga oshiradigan faoliyati ularning ehtiyojlari va manfaatlaridan kelib chiqadi, deb hisoblaydi: “Ijtimoiy faoliyatlar jamiyat a’zolarining shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, ular manfaatlariga xizmat qilish maqsadida amalga oshiriladi. Ehtiyojlar va manfaatlar bunda ijtimoiy faoliyatlarni harakatga keltiruvchi kuch, jamiyatning moddiy va ma’naviy hayotining tayanchi bo‘lib xizmat qiladi. Ularda jamiyat a’zolarining qiziqishlari, maqsadlari, rag‘batlari, xohish va irodalari o‘z ifodasini topadi. Bu ehtiyojlar va manfaatlar, o‘z tabiatlariga ko‘ra, moddiy yoki ma’naviy bo‘lib, doimo jamiyat a’zolarining niyatlarida aks etib, ular anglanib olingach, kishilar ijtimoiy faoliyatlarining qonuniyatlari sifatida namoyon bo‘ladi”. Olimaning bu fikrlarini xotin-qizlarning faoliyati va innovatsion faoliyatiga nisbatan qo‘llasak, bizningcha, jamiyatda innovatsion faoliyatning yuzaga kelishi va rivojlanishi mamlakatning yangilanishi hamda modernizatsiya bo‘lishining muhim shartlaridan biri sifatida qaralishi zarur.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan modernizatsiya va innovatsion islohotlar sharoitida inson salohiyatini rivojlantirish, ayniqsa xotin-qizlarning innovatsion tafakkuri va ijtimoiy faolligini yuksaltirish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda.Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil 1-yanvar holatida mamlakatimizda tadbirkor ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar soni 43 ming 860 tani tashkil etgan. Ularning asosiy qismi xizmat ko‘rsatish, savdo va sanoat sohalarida faoliyat yuritmoqda [4]. Mazkur ko‘rsatkich xotin-qizlarning iqtisodiy faolligi va innovatsion tashabbuslari ortib borayotganidan dalolat beradi.

Shuningdek, so‘nggi yillarda ayollarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ulushi ham sezilarli darajada oshdi. Xususan, rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar ulushi 35 foizga yaqinlashgani gender tengligi va ijtimoiy faollikning yangi bosqichga ko‘tarilganini ko‘rsatadi. Keng ko‘lamli islohotlar natijasida xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 35 foizga, tadbirkorlik sohasida 37 foizga, siyosiy partiyalar tarkibida esa 49 foizga yetib, O‘zbekiston bu ko‘rsatkich bo‘yicha xalqaro reytinglarda yetakchi mamlakatlar qatoridan joy oldi. Xususan, Parlamentlararo Ittifoq tomonidan yuritiladigan “Parlamentdagi ayollar” reytingida respublikamiz 193 ta mamlakat orasida 35 - o‘ringa ko‘tarildi. Ijro hokimiyati tizimida rahbar ayollar safining kengayishi va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlaridagi ishtirokining ortishi davlat tomonidan qarorlar qabul qilishda inkluzivlik taminlanmoqda. Oliy ta’lim muassasalari talabalari orasida ayollar ulushi keskin ortgani, jumladan, magistraturada tahsil olayotgan xotin-qizlarning soni oxirgi besh yilda 11 karraga ko‘payganini islohotlarimizning muhim strategik natijasi deb bilamiz [5].

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, xotin-qizlarning innovatsion salohiyatini rivojlantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Innovatsion tafakkur va kreativ yondashuv iqtisodiy rivojlanish, ilm-fan va texnologiyalar taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning ilm-fan, tadbirkorlik va boshqaruv sohalaridagi ishtirokini kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Prezidentimiz tomonidan “Davlat va jamiyat boshqaruvida ayollarning o‘rni va mavqeini yanada mustahkamlash – islohotlarimizning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolaveradi”, deya ta’kidlanishi ham ushbu masalaning dolzarbligini tasdiqlaydi.Innovatsion salohiyatni rivojlantirishda ta’lim tizimi muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, xotin-qizlarning zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashi, raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirishi hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatidagi ishtiroki innovatsion taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi. Shu bilan birga, jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlovchi muhitni shakllantirish ularning innovatsion faolligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, mamlakatlarimiz ishbilarmon ayollari imkoniyatlarini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida hayotimizga shiddat bilan kirib kelayotgan sun’iy intellekt va

raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini o‘rgatuvchi, yangi startap loyihalarini qo‘llab-quvvatlovchi platforma tashkil etish taklifini ilgari suramiz

Xulosa. Xotin-qizlarning innovatsion salohiyatini yuksaltirish jamiyat taraqqiyoti va modernizatsiya jarayonlarining muhim omillaridan biridir. Innovatsion tafakkur, kreativlik va tashabbuskorlik ayollarning ijtimoiy faolligini oshirib, iqtisodiy va ma’naviy taraqqiyotga xizmat qiladi.Bugungi kunda xotin-qizlar iqtisodiyot, siyosat, ta’lim, sog‘liqni saqlash, ilm-fan, madaniyat va boshqa ko‘plab sohalarda faol ishtirok etib, innovatsion rivojlanishga munosib hissa qo‘shmoqda. Ularning intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash, zamonaviy bilim va texnologiyalarni egallashiga sharoit yaratish Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Shu bois xotin-qizlarning innovatsion salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatini yanada takomillashtirish, ta’lim va ilm-fan sohasida imkoniyatlarni kengaytirish hamda ularning ijtimoiy faolligini qo‘llab-quvvatlash jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta’minlashga xizmat qiladi.

Anglashilgan umumiy yondashuv xotin-qizlarning bilimini, saloxiyatini oshirish bilan bog‘liqligini ifodalashi, ularning jamiyat hayotidagi rolini oshirish va ularning mehnatidan foydalanish muammolari ko‘pgina yetakchi olimlarning tadqiqot obyekti sifatida xotin-qizlarning huquq va erkinliklari, gender tengligi, bandlik muammolari doirasida ilmiy ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ammo, tadkikotda xotin - qizlarning innavatsion saloxiyati va davlat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi ishtirokining barqaror taraqqiyotga ta’siri va axamiyati muammolari ilmiy tadqiqot predmeti sifatida o‘rganilmaganligi aniklangan.

O‘zbekistonda xotin-qizlarning jamiyatdagi roli va faoliyatiga katta e’tibor qaratilib, buning uchun keng imkoniyatlar yaratilishi zamirida xotin-qizlarning saloxiyati muammosi dolzarb muammolardan biriga aylandi. Bunda xotin-qizlarning milliy ma’naviy va axloqiy xislatlari bilan birga innovatsiyalarga munosabati, ularni o‘z faoliyatida qo‘llashi kabilar jamiyatda milliy qadriyatlar bilan bir qatorda innovatsiyaon va ilg‘or qadriyatlarning tarqalishiga, ular asosida shakllanadigan faoliyatining ta’sirchanligini oshirishga va pirovardida jamiyat innovatsion taraqqiyotining dinamikasini ham tezlashuviga olib keladi. Dissertantning fikricha, praksiologik nuqtayi nazardan xotin-qizlarning innovatsion saloxiyati va unga asoslangan faoliyati yangilanayotgan jamiyatning taraqqiyotida muhim subyektiv omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Osiyo xotin-qizlarining ikkinchi forumi ishtirokchilariga murojaati. 14.05.2026.

2. Xolmirzayev X.N. Inson salohiyatining tuzilishi va ijtimoiy mohiyati. 09.00.04 – Ijtimoiy falsafa bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Andijon, 2023. – B. 76.

3. Axunov M.A. Inson kapitali va uning taraqqiyotdagi o‘rni haqidagi ilmiy qarashlar. – Toshkent, 2013. – 123 b.

4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. 07.05.2026.

5. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Osiyo xotin-qizlarining ikkinchi forumi ishtirokchilariga murojaati. 14.05.2026.

6. To‘yeva M.Sh. Xotin-qizlar innovatsion tafakkurini yuksaltirishning milliy-aksiologik va zamonaviy asoslari. – Toshkent, 2026. – B. 205.

BUGUNGI JAMIYATDA AXLOQIY ME'YORLAR INQIROZINING DETERMINISTIK OMILLARI TAHLILI

Xoliddinov Nuriddin Oromiddin o'g'li,
Samarqand davlat pedagogika instituti
tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada global ma'naviy-ma'rifiy transformatsiya sharoitida axloqiy me'yorlar inqirozining deterministik omillari kompleks tahlil qilingan. Tadqiqotda axloqiy me'yorlar eroziyasi va g'ayriaxloqiylik fenomeni ijtimoiy-psixologik va falsafiy jihatdan yoritilgan. Axloqiy me'yor va fazilatlarning zamonaviy jamiyatdagi transformatsiyasi hamda ularning ijtimoiy barqarorlikka ta'siri asoslangan. Shuningdek, globallashuv, axborot texnologiyalari va ijtimoiy institutlar o'zgarishining axloqiy tizimga ta'siri ilmiy tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *axloq, jamiyat, axloqiy me'yorlar, globallashuv, axloqiy madaniyat, axloqiy ong, g'ayriaxloqiylik, qadryatlar, axloqiy tarbiya.*

Аннотация. *В данной статье проводится комплексный анализ детерминистических факторов кризиса нравственных норм в условиях глобальной духовно-просветительской трансформации.В исследовании рассматриваются явления эрозии нравственных норм и аморальности с социально-психологической и философской точек зрения. Также обосновывается трансформация нравственных норм и добродетелей в современном обществе и их влияние на социальную стабильность. Кроме того, в статье научно анализируется влияние глобализации, информационных технологий и изменений социальных институтов на систему нравственности.*

Ключевые слова: *этика, общество, нравственные нормы, глобализация, нравственная культура, нравственное сознание, аморальность, ценности, нравственное воспитание*

Abstract. *This article provides a comprehensive analysis of the deterministic factors of the crisis of moral norms under conditions of global spiritual and educational transformation. The study explores the phenomena of the erosion of moral norms and immorality from socio-psychological and philosophical perspectives. It also substantiates the transformation of moral norms and virtues in modern society and their impact on social stability. Furthermore, the article scientifically analyzes the influence of globalization, information technologies, and changes in social institutions on the moral system.*

Keywords: *ethics, society, moral norms, globalization, moral culture, moral consciousness, immorality, values, moral education.*

Hozirgi kunda global ma'naviy-ma'rifiy transformatsiya jarayonlari shaxsning axloqiy me'yorlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Axloqiy me'yorlarning eroziyasi, ya'ni shaxsning barqaror axloqiy qadriyatlaridan asta-sekin voz kechishi, ijtimoiy institutlar, madaniy qadriyatlar va axborot maydonining o'zgarishiga bog'liq murakkab jarayon sifatida yuzaga kelmoqda. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning bugungi kunda zamonaviy ilm-fan va yuqori texnologiyalarni mukammal egallash har qanday davlat va jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi shartiga aylanib borayotganligini chuqur anglagan holda, navqiron avlodning ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan barkamol bo'lib voyaga yetishi uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etish zarurligi to'g'risidagi fikrlari shaxsning axloqiy ongini shakllantirish va ma'naviy barqarorlikni mustahkamlash bilan bevosita bog'liqligini ochib beradi[1]. Zotan, zamonaviy jamiyatda axloqiy me'yorlar inqirozining deterministik omillarini aniqlash va ularning shaxs ma'naviyati hamda ijtimoiy barqarorlikka ta'sirini o'rganish ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega.

Axloqiy me'yorlar ijtimoiy ongning muhim tarkibiy elementi bo'lib, ular inson xatti-harakatlarini tartibga soluvchi sodda, konkret va amaliy qoidalar tizimini tashkil etadi. Ular axloqiy tamoyillarga nisbatan torroq va umumlashmagan bo'lsa-da, aynan kundalik hayotda axloqiy qadriyatlarning ro'yobga chiqish mexanizmi sifatida amal qiladi. Shu bois axloqiy me'yorlarni ma'lum ma'noda axloqiy tamoyillarning amaliy ifodasi sifatida talqin etish mumkin.

Jamiyat hayotida halollik, rostgo‘ylik, insoflilik, xushmuomalalik, kamtarlik kabi me’yorlar muhim ahamiyat kasb etadi. Halollik va rostgo‘ylik, avvalo, vijdon tushunchasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, insonning o‘zgalarga bo‘lgan munosabatida ichki poklik va adolatni ta’minlashni anglatadi. Halollikni faqat diniy mazmundagi “halol-harom” mezonlari bilan cheklab bo‘lmaydi. Chunki, u bugungi kunda umuminsoniy axloqiy kategoriya sifatida shakllangan bo‘lib, mazkur me’yor shaxsdan o‘z manfaatlarini boshqalarning huquq va manfaatlariga zid qo‘ymaslikni talab etadi[2].

Rostgo‘ylik yoki to‘g‘ri so‘zlilik insonning haqiqatga intilishi bilan bog‘liq, haqiqat esa doimo sinfiylik-tabaqaviylik, partiyaviylik-mafkuraviylik va tarixiylik-davriylikdan yuqori turadi. Shu bois rostgo‘ylik shaxsning subyektiv manfaatlari yoki ijtimoiy bosimlardan holi holda ob’ektiv borliqni adekvat aks ettirishga intilishini ifodalaydi. U axloqiy ongning muhim mezoni sifatida ijtimoiy munosabatlarda ishonch, adolat va barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Rostgo‘ylikning susayib borishi esa haqiqatning buzib talqin qilinishiga, natijada ijtimoiy ongda noto‘g‘ri tasavvurlar shakllanishiga va axloqiy me’yorlar izdan chiqishiga olib keladi.

Insoflilik esa halollikka nisbatan yanada yuqori axloqiy bosqichni ifodalaydi. Agar halollik shaxsning o‘z haqqini adolat doirasida saqlashini bildirsa, insoflilik zarur hollarda o‘z manfaatlaridan voz kechib, boshqalarga muruvvat ko‘rsatishni nazarda tutadi. Bu esa jamiyatda ijtimoiy hamjihatlik va o‘zaro ishonch muhitini mustahkamlovchi muhim omildir[3].

Ma’lumki, yoshlar jamiyatning ertangi kunga ishonchi, umidi hamda poydevoridir. Mamlakat kelajagi qiyofasining qay yo‘sinda o‘zgarib borishi bevosita ularga bog‘liq. Bugun bizni o‘ylantirishga majbur qiladigan yoshlar axloqidagi muammoli holatlardan yana biri muomala madaniyatidagi milliy qadryatlarimizga befarqlikdir. Muomala madaniyatiga oid me’yorlar, xususan, xushfe’llik, shirinsuxanlik, bosiqlik va kamtarlik — jamiyatning madaniy darajasini belgilovchi muhim indikator hisoblanadi. Xushmuomala inson atrofdagilarga ijobiy ruhiy ta’sir ko‘rsatadi, ijtimoiy muhitni sog‘lomlashtiradi va ziddiyatlarning oldini oladi. Bunday shaxslar o‘z muvaffaqiyatsizliklarini fojia sifatida qabul qilmaydi, balki ularni hayotiy tajriba sifatida baholaydi va boshqalarga salbiy kayfiyatini yuqtirmaydi.

Bosiqlik va kamtarlik esa ko‘proq iroda bilan bog‘liq axloqiy sifatlar bo‘lib, insonning o‘z hissiyotlarini nazorat qila bilish qobiliyatini namoyon etadi. O‘z g‘azabini jilovlash, shoshma-shosharlikdan tiyilish, har bir qarorni puxta o‘ylab qabul qilish kabi harakatlar shaxsning nafaqat individual kamoloti, balki ijtimoiy barqarorlik uchun ham muhimdir. Shu bois “yetti o‘lchab, bir kesish” tamoyiliga amal qiluvchi shaxslar jamiyatda oqil va namunali insonlar sifatida e’tirof etiladi. Biroq bugungi kunda ushbu axloqiy me’yorlarning amaliy ahamiyati tobora murakkablashib bormoqda. Globallashuv jarayonlari, ommaviy madaniyatning kengayishi, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va individualizmning kuchayishi natijasida an’anaviy axloqiy qadriyatlar transformatsiyaga uchramoqda. Natijada axloqiy me’yorlar barqarorlikdan nisbiylikka o‘tib, vaziyatga bog‘liq holda talqin etila boshlaydi. Shuningdek, ijtimoiy institutlarning, xususan oila va ta’lim tizimining tarbiyaviy rolining susayishi ham axloqiy me’yorlar inqirozining muhim deterministik omillaridan biri hisoblanadi. Axborot makonining kengayishi va nazorat mexanizmlarining zaiflashuvi esa yosh avlod ongida qarama-qarshi qadriyatlar shakllanishiga olib kelmoqda[4].

Bugungi globallashgan jamiyatda axloqiy me’yorlar inqirozini chuqurroq anglash uchun g‘ayriaxloqiylik fenomenini ilmiy jihatdan tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. G‘ayriaxloqiylikni nafaqat mavjud axloqiy me’yorlarning buzilishi, balki ularning qadriyat sifatidagi ahamiyatining inkor etilishi yoki nisbiylashtirilishi bilan tavsiflanadigan murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida talqin qilish mimkin. G‘ayriaxloqiylik — ma’naviy buzilish oqibatida shakllanadigan, rasman tan olinagan yoki amalda mavjud bo‘lgan axloqiy me’yorlari, baholar, an’analar, xulq-atvor namunalari mos kelmaydigan kishilarning xatti-harakati, xulqini anglatuvchi tushuncha hisoblanadi. Mazkur fenomen axloqiy ong deformatsiyasi natijasida yuzaga kelib, shaxsning ijtimoiy xulq-atvorida destruktiv tendensiyalarni shakllantiradi[5].

G‘ayriaxloqiylikning asosiy belgilaridan biri shundaki, unda shaxs o‘z xatti-harakatlarini umumqabul qilingan axloqiy me’yorlar bilan emas, balki individual manfaatlar, utilitar yondashuv yoki situativ ehtiyojlar asosida baholaydi. Natijada halollik, rostgo‘ylik, insoflilik kabi fundamental axloqiy qadriyatlar ikkilamchi darajaga tushib qoladi yoki butunlay e’tibordan chetda qoladi. Bu esa jamiyatda ishonch inqirozi, ijtimoiy aloqalarning zaiflashuvi va ma’naviy muhitning degradatsiyasiga olib keladi. G‘ayriaxloqiylikning shakllanishida bir qator deterministik omillar muhim rol o‘ynaydi. Avvalo, globallashuv va ommaviy madaniyat ta’sirida iste’molchilik psixologiyasining kuchayishi shaxs ongida “foyda – asosiy mezon” degan qarashni mustahkamlamoqda. Bunday sharoitda maqsadga erishish vositalarining axloqiyligi emas, balki natijaning samaradorligi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu esa vosita va maqsad o‘rtasidagi axloqiy muvozanatning buzilishiga sabab bo‘ladi.

Xudbinlik g‘ayriaxloqiylik fenomenining muhim psixologik va ijtimoiy asoslaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. U shaxsiy yoki individual xususiyat va qadryatlarni mutlaqlashtirish, boshqalarni mensimaslik natijasida namoyon bo‘ladigan hayotiy prinsip va axloqiy sifat, individualism ko‘rinishlaridan biri sifatida tavsiflanadi. Bunday yondashuv natijasida axloqiy me’yorlarning universalligi buziladi va ular individual ehtiyojlar darajasiga tushib qoladi.

G‘ayriaxloqiylik aynan shunday xudbinlik asosida shakllanadi, chunki unda shaxs o‘z xatti-harakatlarini umumqabul qilingan axloqiy mezonlar bilan emas, balki shaxsiy foyda va manfaatlar nuqtai nazaridan baholaydi. Natijada halollik, rostgo‘ylik, insoflilik kabi qadriyatlar ikkilamchi ahamiyat kasb etadi yoki butunlay inkor etiladi. Bu esa ijtimoiy munosabatlarda ishonchning susayishi, adolat tamoyillarining buzilishi va ma’naviy muhitning degradatsiyasiga olib keladi. Shuning uchun xudbinlikni g‘ayriaxloqiylikning individual darajadagi manbai, g‘ayriaxloqiylikni esa uning ijtimoiylashgan, tizimli ko‘rinishi sifatida talqin etish mumkin. Ularning o‘zaro uyg‘unlashuvi jamiyatda axloqiy me’yorlar inqirozini chuqurlashtiruvchi deterministik omil sifatida namoyon bo‘ladi[3].

Ijtimoiy institutlarning, xususan oila va ta’lim tizimining tarbiyaviy funksiyasi yetarli darajada samarali ishlamasligi ham g‘ayriaxloqiylikning kengayishiga olib kelmoqda. Axloqiy tarbiyaning izchilligi buzilganda, shaxsda barqaror qadriyatlar tizimi shakllanmaydi va u tashqi ta’sirlarga oson beriluvchan bo‘lib qoladi. Shuningdek, g‘ayriaxloqiylikning kuchayishi ijtimoiy adolatsizlik, tengsizlik va korrupsiya kabi tizimli muammolar bilan ham uzviy bog‘liqdir. Agar jamiyatda adolat tamoyillari amalda to‘liq ta’minlanmasa, shaxslar axloqiy me’yorlarga amal qilishdan manfaat ko‘rmasliklari mumkin. Natijada g‘ayriaxloqiylik nafaqat individual xulq-atvor muammosi, balki jamiyatning umumiy ma’naviy inqirozini ifodalovchi tizimli hodisaga aylanadi. Shu bois uni bartaraf etish faqatgina axloqiy targ‘ibot bilan cheklanib qolmasdan, balki ijtimoiy institutlarni mustahkamlash, adolat tamoyillarini ta’minlash va ma’naviy tarbiyani tizimli ravishda rivojlantirishni talab etadi[5].

Hozirgi vaqtda axloqiy me’yorlar inqiroziga olib kelayotgan jarayonlar ko‘p qirrali bo‘lib, ular o‘zaro bog‘liq ijtimoiy, madaniy va individual determinantlar orqali namoyon bo‘ladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, axloqiy me’yorlarning barqarorligi nafaqat shaxs ichki qadriyatlariga, balki jamiyatning struktura va madaniy muhitiga bevosita bog‘liq sanaladi.

Axloqiy fazilatlar tizimi jamiyat ma’naviy hayotining asosiy tayanchi bo‘lib, ular shaxs kamoloti va ijtimoiy munosabatlar barqarorligini ta’minlovchi muhim normativ-me’yoriy asosni tashkil etadi. Adolatlilik, bag‘rikenglik, bosiqlik, vijdonlilik, vatanparvarlik, halollik, rostgo‘ylik, mehr-oqibatlilik, sabr-bardoshlilik, kamtarlik kabi fazilatlar insonni nafaqat axloqiy jihatdan yuksaltiradi, balki jamiyatda sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu fazilatlar o‘zaro uyg‘un holda amal qilganda, ijtimoiy ishonch, hamjihatlik va barqaror taraqqiyot uchun zarur bo‘lgan ma’naviy poydevor yuzaga keladi[2].

Xalqning tarixiy-madaniy taraqqiyoti jarayonida shakllangan mazkur axloqiy fazilatlar milliy ma’naviyatning o‘ziga xos qiyofasini belgilab beradi. Ular avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan qadriyatlar tizimi sifatida shaxsning axloqiy ongini shakllantiradi va uning xulq-atvorini tartibga soladi. Biroq zamonaviy globallashuv sharoitida ushbu axloqiy fazilatlarning

amaliy ahamiyati va barqarorligi ma’lum darajada sinovdan o‘tmoqda. Axloqiy me’yorlar inqirozi jarayonida aynan shu fazilatlarning qadrsizlanishi yoki formal xarakter kasb etishi kuzatiladi. Natijada ular shaxs xulq-atvorining ichki regulyatori sifatidagi funksiyasini qisman yo‘qotib, deklarativ darajada qolib ketish xavfi yuzaga keladi.

Shu nuqtai nazardan, axloqiy fazilatlar tizimini saqlab qolish va rivojlantirish bugungi jamiyatda axloqiy me’yorlar inqirozining oldini olishning muhim sharti hisoblanadi. Mazkur fazilatlarning real ijtimoiy amaliyotda namoyon bo‘lishini ta’minlash orqali g‘ayriaxloqiylik, xudbinlik va axloqiy relativizm kabi salbiy tendensiyalarning oldini olish mumkin. Demak, axloqiy fazilatlar nafaqat individual kamolot mezoni, balki jamiyatning ma’naviy barqarorligini ta’minlovchi deterministik omil sifatida ham namoyon bo‘ladi[4].

Ijtimoiy institutlar, jumladan oilaviy muhit, ta’lim tizimi va davlat normativlari, shaxs axloqiy ongini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, zamonaviy jamiyatda ijtimoiy strukturadagi tezkor o‘zgarishlar, urbanizatsiya va mehnat migratsiyasi kabi jarayonlar oilaviy tarbiya va an’anaviy ijtimoiy nazorat mexanizmlarining samaradorligini pasaytiradi. Natijada, shaxsning axloqiy barqarorligi susayadi va me’yorlar inqiroziga zamin yaratiladi

Global madaniy oqimlar, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqaluvchi turli qadriyatlar shaxsning axloqiy qarorlarini shakllantirish jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Madaniy globalizatsiya mahalliy axloqiy tizimlar va qadriyatlar bilan to‘qnashadi, bu esa axloqiy me’yorlarning zaiflashishiga olib keladi.

Zamonaviy texnologiyalar va axborot vositalari axloqiy me’yorlar tizimiga bevosita ta’sir qiluvchi deterministik omil hisoblanadi. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda tarqaluvchi ma’lumotlar shaxsning axloqiy ongini qayta shakllantiradi, ba’zan esa noto‘g‘ri, qarama-qarshi yoki manipulyatsion axborot orqali qadriyatlarning eroziyasiga olib keladi Shu nuqtai nazardan, texnologik rivojlanish nafaqat iqtisodiy, balki ma’naviy barqarorlik nuqtai nazaridan ham sinov bo‘lib qolmoqda[3].

Xulosa qilib aytganda, global ma’naviy-ma’rifiy transformatsiya sharoitida axloqiy me’yorlar inqirozining deterministik omillarining asosiy sabablari sifatida globallashuv, axborot texnologiyalari rivoji, ijtimoiy institutlar transformatsiyasi hamda individualizm kabi jamiyat hayoti jabhalarini ko‘rsatish mukin. Shuningdek, axloqiy me’yorlar eroziyasi va g‘ayriaxloqiylik fenomeni shaxs va jamiyat o‘rtasidagi ma’naviy muvozanatga bevosita ta’sir ko‘rsatishini, halollik, rostgo‘ylik va insoflilik kabi fundamental qadriyatlarning zaiflashuvi esa ijtimoiy ishonch va barqarorlikka salbiy ta’sir etishini alohida qayd etish joiz. Shu bois ham axloqiy fazilatlarni mustahkamlash va ma’naviy tarbiya tizimini rivojlantirish jamiyat barqaror taraqqiyotining muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – 442 b.
2. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. – Toshkent, 2010. – 285 b.
3. Usmonov K. Yoshlar axloqiy tarbiyasi yuksalishida mahallaning o‘rni. Ijtimoiy fikr jurnali. 2012-y, №3. – 131 b.
4. Muhammadjonova L.A. Jamiyat, axloq va qadryatlar falsafasi. Darslik. – Toshkent, 2023. – 94 b.
5. Falsafa. Qomusiy lug‘at. – Toshkent, 2004. – 444 b.

AXLOQIY IDEAL-INSON MA'NAVIY KAMOLOTINING MUHIM MEZONI

Raxmatova Yulduz Irgashevna,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada axloqiy ideal tushunchasining ijtimoiy-falsafiy mohiyati, uning inson ma'naviy kamoloti, jamiyat taraqqiyoti va yoshlar dunyoqarashini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Axloqiy ideal insonning ezgulik, adolat, vijdon, burch, mas'uliyat, halollik va insonparvarlik kabi yuksak qadriyatlarga intilishida asosiy ma'naviy mezon sifatida namoyon bo'ladi. Maqolada axloqiy idealning tarixiy-falsafiy talqinlari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liqligi hamda zamonaviy jamiyat sharoitida uning tarbiyaviy ahamiyati yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *axloq, axloqiy ideal, ma'naviyat, komil inson, qadriyat, vijdon, ezgulik, adolat, tarbiya, jamiyat.*

Аннотация. *В данной статье анализируется социально-философская сущность понятия морального идеала, его роль в духовном развитии человека, развитии общества и формировании мировоззрения молодежи. Моральный идеал проявляется как главный духовный критерий в стремлении человека к таким высоким ценностям, как доброта, справедливость, совесть, долг, ответственность, честность и гуманность. В статье освещаются историко-философские интерпретации морального идеала, его связь с национальными и универсальными ценностями, а также его воспитательное значение в условиях современного общества.*

Ключевые слова: *нравственность, моральный идеал, духовность, совершенный человек, ценность, совесть, доброта, справедливость, воспитание, общество.*

Annotation. *This article analyzes the socio-philosophical essence of the concept of moral ideal, its role in the spiritual development of man, the development of society and the formation of the worldview of youth. The moral ideal is manifested as the main spiritual criterion in a person's striving for such high values as goodness, justice, conscience, duty, responsibility, honesty and humanity. The article highlights the historical and philosophical interpretations of the moral ideal, its connection with national and universal values, and its educational significance in the conditions of modern society.*

Keywords*: morality, moral ideal, spirituality, perfect man, value, conscience, goodness, justice, education, society.*

Kirish. Insoniyat tarixida axloqiy qadriyatlar jamiyat hayotini tartibga soluvchi, insonlar o'rtasidagi munosabatlarni ma'naviy asosda boshqaruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'lib kelgan. Axloqshunos olima L.Muhammedova ta'biri bilan aytganda, [har qanday axloqiy qadriyat insonning shunchaki bilib bilmay qilgan xatti-harakati emas, balki, har tomonlama o'ylab ongli ravishda sodir etadigan va sodir etgan ijobiy xatti-harakatidir]1. Har bir davr, har bir jamiyat o'zining ma'naviy ehtiyojlari, ijtimoiy taraqqiyot darajasi va madaniy tajribasidan kelib chiqib muayyan axloqiy ideallarni shakllantirgan. Axloqiy ideal insonning qanday bo'lishi, qanday yashashi, qanday maqsadlarga intilishi va jamiyat oldidagi burchini qanday anglashini belgilab beruvchi yuksak ma'naviy mezondir.

Globallashuv davrida, raqamli axborot va madaniy almashinuv jarayonlari kuchaygan bir sharoitda axloqiy ideal masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki zamonaviy jamiyatda inson turli axborot oqimlari, manfaatlar to'qnashuvi, iste'molchilik kayfiyati va individualizm ta'sirida o'zining ma'naviy yo'nalishini yo'qotishi mumkin. Shu bois axloqiy ideal insonni ezgulikka, mas'uliyatga, halollikka va ijtimoiy foydali faoliyatga yo'naltiruvchi muhim ma'naviy omil hisoblanadi.

Asosiy qism. Axloqiy ideal - bu inson va jamiyat tomonidan eng yuksak axloqiy namuna sifatida e'tirof etiladigan ma'naviy obraz, qadriyatlar tizimi va komillikka intilish mezonidir. Chunki yuksak axloq egasida axloqiy ideal mavjud bo'lib [u inson hayotidagi eng oliy axloqiy

talabki, uning bajarilishi shaxsni komillikka yetkazadi]2. U insonning real hayotdagi xatti-harakatlarini baholash, o‘zini tarbiyalash va ma’naviy jihatdan rivojlantirishda yo‘l ko‘rsatuvchi ichki mezon vazifasini bajaradi. Boshqacha aytganda, axloqiy ideal insonning “qanday bo‘lish kerak?” degan savolga bergan ma’naviy javobidir. [Axloq tizimida axloqiy ideal muhim o‘rin tutadi]3. Axloqiy idealning asosida ezgulik g‘oyasi yotadi. Ezgulik insonni boshqalarga yaxshilik qilishga, adolatli bo‘lishga, vijdon bilan yashashga undaydi. Axloqiy idealga ega bo‘lgan shaxs o‘z manfaatini jamiyat manfaatidan mutlaqo ustun qo‘ymaydi, balki shaxsiy intilishlarini ijtimoiy mas’uliyat bilan uyg‘unlashtirishga harakat qiladi. Shu jihatdan axloqiy ideal faqat nazariy tushuncha emas, balki amaliy hayotda inson xulq-atvorini yo‘naltiruvchi kuchdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tarixiy-falsafiy manbalarda axloqiy ideal turlicha talqin qilingan. Qadimgi yunon falsafasida Suqrot axloqiy kamolotni bilim va ezgulik bilan bog‘lagan. Uning fikricha, inson yaxshilikni bilsa, yomonlikdan tiyiladi. Aflotun esa ideal jamiyat va ideal inson haqidagi qarashlarida adolatni asosiy axloqiy mezon sifatida ko‘rsatadi. Aristotel axloqiy fazilatlarni insonning o‘rtacha me’yorni saqlay olishi, aql va iroda asosida harakat qilishi bilan izohlaydi.

Sharq falsafasida esa axloqiy ideal ko‘proq komil inson g‘oyasi bilan bog‘liq holda talqin etilgan. Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida fozil inson va fozil jamiyat haqidagi qarashlarini ilgari suradi. [Odamlar o‘rtasidagi bog‘lanish robitalari shu odamlarning xulq-atvori, tabiati, fe’li va tilining umumiyligiga asoslanadi]4,-deyiladi mazkur asarda. Uning nazarida jamiyatning yuksalishi avvalo ma’rifatli, axloqli, adolatli va mas’uliyatli insonlar faoliyatiga bog‘liq. Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar ham insonning ma’naviy kamoloti, adolat, saxovat, halollik va vijdon masalalarini axloqiy ideal darajasida talqin qilganlar.

Ayniqsa, Alisher Navoiy ijodida axloqiy ideal insonparvarlik, adolat, kamtarlik, saxovat va ma’rifatparvarlik bilan bog‘lanadi. Navoiy uchun haqiqiy inson-bu nafaqat bilimli, balki qalban pok, boshqalarga manfaat yetkazuvchi, jamiyat dardini his qiluvchi shaxsdir. Bu qarashlar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada qiyosiy tahlil, tarixiylik va mantiqiylik,tahlil va sintez, tizimli yondashuv hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Bu metodlar orqali axloqiy ideal tushunchasining mazmun-mohiyati, uning ma’naviy kamolot va shaxs tarbiyasidagi o‘rni tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Axloqiy idealning muhim jihatlaridan biri uning milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liqligidir. Har bir xalq o‘z tarixiy tajribasi, urf-odatlari, diniy-ma’naviy qarashlari asosida axloqiy ideallarni shakllantiradi. O‘zbek xalqining axloqiy idealida ota-onaga hurmat, kattalarga ehtirom, kichiklarga mehr, mehmondo‘stlik, or-nomus, hayo, sabr-toqat, halollik va jamoaviylik kabi qadriyatlar muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, adolat, tinchlik, insonparvarlik, erkinlik, vijdon, mas’uliyat kabi qadriyatlar umuminsoniy mohiyatga ega.

Zamonaviy jamiyatda axloqiy idealning tarbiyaviy ahamiyati ayniqsa yoshlar hayotida yaqqol ko‘rinadi. Yosh avlodning ma’naviy qiyofasi, hayotiy maqsadlari va fuqarolik pozitsiyasi ko‘p jihatdan ular qanday axloqiy ideallarga tayanishiga bog‘liq. Agar yoshlar uchun ideal faqat moddiy boylik, shaxsiy manfaat yoki tashqi muvaffaqiyat bilan cheklanib qolsa, jamiyatda ma’naviy bo‘shliq, befarqlik va mas’uliyatsizlik kuchayadi. Aksincha, bilim, mehnat, halollik, vatanparvarlik, insonparvarlik va adolat axloqiy idealga aylansa, jamiyatning ma’naviy taraqqiyoti mustahkamlanadi. Ayniqsa bilim va axloq bir-birini to‘ldirib, insonni ma’naviy yuksalishi uchun xizmat qiladi. Zero ma’rifat, ya’ni bilim ongsizlikni yengish bilan uzviy bog‘liqdir. [Ma’rifat xalqning axloqiy-ma’naviy sifatlarini shakllantiradi]5.

Axloqiy ideal insonni o‘zini nazorat qilishga, o‘z xatti-harakatlarini vijdon mezoni bilan baholashga o‘rgatadi. Chunki yuksak axloq egasida axloqiy ideal mavjud bo‘lib: vijdon axloqiy idealning ichki nazoratchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Inson tashqi nazorat bo‘lmagan holatda

ham yomonlikdan tiyilsa, bu uning ichki axloqiy ideali shakllanganidan dalolat beradi. Shu sababli axloqiy tarbiya faqat tashqi qoidalarni o‘rgatish emas, balki insonning ichki e’tiqodi, mas’uliyati va ma’naviy pozitsiyasini shakllantirish jarayonidir. [Ma’naviyatni shakllantirishga bevosita ta’sir qiladigan muhim hayotiy omil-bu ta’lim-tarbiya tizimi bilan chambarchas bog‘liqdir]6

Bugungi axborotlashgan jamiyatda axloqiy idealning zaiflashishiga olib keluvchi omillar ham mavjud. Bular orasida iste’molchilik madaniyati, ijtimoiy tarmoqlardagi soxta obro‘ orttirish tendensiyasi, ma’naviy qadriyatlardan ko‘ra moddiy muvaffaqiyatni ustun qo‘yish, zo‘ravonlik va befarqlikni oddiy hol sifatida ko‘rsatish kabi jarayonlarni ko‘rsatish mumkin. Bunday sharoitda ta’lim, oila, mahalla, ommaviy axborot vositalari va madaniy muhit axloqiy idealni shakllantirishda birgalikda harakat qilishi zarur.

Axloqiy ideal jamiyat taraqqiyotining ham muhim shartidir. Chunki har qanday huquqiy, iqtisodiy yoki siyosiy islohot inson omiliga tayanadi. Agar insonda vijdon, mas’uliyat, halollik va adolat tuyg‘usi kuchli bo‘lmasa, eng mukammal qonunlar ham kutilgan natijani bermasligi mumkin. Shu bois axloqiy ideal jamiyatda ijtimoiy ishonch, hamjihatlik va barqarorlikni ta’minlovchi ma’naviy asoslardan biridir.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, axloqiy ideal inson ma’naviy kamolotining yuksak mezoni bo‘lib, u shaxs va jamiyat hayotida muhim tarbiyaviy, boshqaruvchan va yo‘naltiruvchi vazifani bajaradi. Axloqiy ideal insonni ezgulik, adolat, halollik, vijdon, mas’uliyat va insonparvarlik sari yetaklaydi. U faqat nazariy tushuncha emas, balki insonning kundalik hayoti, xulq-atvori va ijtimoiy faoliyatida namoyon bo‘ladigan amaliy qadriyatdir.

Zamonaviy jamiyatda axloqiy idealni shakllantirish oila, ta’lim, mahalla, madaniyat va axborot muhitining hamkorligiga bog‘liq. Ayniqsa, yoshlar ongida sog‘lom axloqiy idealni qaror toptirish jamiyatning ma’naviy barqarorligi va kelajak taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Shu sababli axloqiy idealni chuqur o‘rganish, uni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Muhammedjanova L.A. Jamiyat, axloq va qadriyatlar falsafasi. Darslik.-Toshkent.: Olam nashriyoti, 2018. B 310

2. Sher Abdulla. Oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari uchun darslik/-T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.B 257

3. https://files01.core.ac.uk/download/pdf/76000391.pdf

4. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. Nodir va dono fikrlar. -Toshkent; “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. 56-b

5. Namazova Y.M. Tarbiya va ta'lim falsafasi. O'quv qo'llanma T.:"PUBLISHING HIGH FUTURE" OK nash. 2024 B 39

6. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. – Toshkent.: Ma’naviyat, 2008. 60-b

MA’RIFATLI JAMIYAT G‘OYASINI O‘RGANISHGA DOIR AYRIM YONDASHUVLAR

Bobomurod Hamroyev,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ma’rifatli jamiyat g‘oyasini o‘rganishning tarixiy, qiyosiy, tanqidiy va fanlararo yondashuvlari ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Ma’rifatli jamiyat konsepsiyasining Sharq va G‘arb tafakkuridagi evolyusiyasi, uning inson kamoloti, ma’naviy yuksalish va ijtimoiy taraqqiyot bilan bog‘liq jihatlari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *ma’rifatli jamiyat, ma’naviy yuksalish, tarixiy yondashuv, qiyosiy tahlil, tanqidiy nazariya, fanlararo yondashuv, ijtimoiy falsafa, inson kapitali, ma’rifat konsepsiyasi, sivilizatsion taraqqiyot.*

Аннотация. *В данной статье с социально-философской точки зрения анализируются исторический, сравнительный, критический и междисциплинарный подходы к изучению идеи просвещённого общества. Освещаются эволюция концепции просвещённого общества в восточной и западной мысли, а также её взаимосвязь с совершенствованием личности, духовным возвышением и общественным прогрессом.*

Ключевые слова: *просвещённое общество, духовное возвышение, исторический подход, сравнительный анализ, критическая теория, междисциплинарный подход, социальная философия, человеческий капитал, концепция просвещения, цивилизационное развитие.*

Abstract. *This article analyzes historical, comparative, critical, and interdisciplinary approaches to the study of the idea of an enlightened society from a socio-philosophical perspective. It examines the evolution of the concept of an enlightened society in Eastern and Western thought, as well as its relationship with human development, spiritual advancement, and social progress.*

Keywords: *enlightened society, spiritual advancement, historical approach, comparative analysis, critical theory, interdisciplinary approach, social philosophy, human capital, concept of enlightenment, civilizational development.*

Ma’rifatli jamiyat g‘oyasini o‘rganishning dolzarbligi zamonaviy dunyoda inson kapitali, bilimlar iqtisodiyoti va intellektual resurslar davlatlar taraqqiyotining asosiy omiliga aylanib borayotgani bilan izohlanadi. Bugungi globallashuv va raqamlashtirish sharoitida jamiyatlarning raqobatbardoshligi tabiiy boyliklar yoki iqtisodiy imkoniyatlar bilan emas, balki aholining bilim darajasi, ma’naviy madaniyati va ijtimoiy mas’uliyati bilan belgilanmoqda. Falsafiy nuqtai nazardan ma’rifatli jamiyat insonning aqliy va ma’naviy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiluvchi ijtimoiy muhitni anglatadi. Shu sababli mazkur g‘oyani o‘rganish inson, jamiyat va taraqqiyot o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik qonuniyatlarini anglashda muhim nazariy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, axborot xurujlari, mafkuraviy ta’sirlar va qadriyatlar transformatsiyasi kuchayib borayotgan sharoitda ma’rifatli jamiyat konsepsiyasi ma’naviy barqarorlikni ta’minlashning muhim vositasi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti nuqtai nazaridan ham ma’rifatli jamiyat g‘oyasini o‘rganish alohida ahamiyatga ega. Chunki mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning muvaffaqiyati avvalo inson ongi, ma’naviy madaniyati va fuqarolik mas’uliyatining qay darajada rivojlanganligiga bog‘liq. Real voqelikda ta’lim sifatini oshirish, yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish, ijtimoiy loqaydlikni bartaraf etish va ma’naviy immunitetni mustahkamlash kabi vazifalar dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ma’rifatli jamiyat g‘oyasi mazkur muammolarning ilmiy-falsafiy yechimlarini izlashga xizmat qiladi. Shuningdek, u Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish, inson qadrini yuksaltirish va barqaror taraqqiyotga

erishishning konseptual asoslarini ishlab chiqish uchun muhim metodologik manba vazifasini bajaradi.

Ma’rifatli jamiyat g‘oyasining falsafiy talqini jamiyatning ta’lim, madaniyat, ilmiy rivojlanish va ijtimoiy adolatning yuqori darajasi bilan ajralib turadigan ma’rifat darajasiga qanday erishishi mumkinligini tushunish va o‘rganish uchun muhim jihatlardir. Ushbu paragrafda ushbu g‘oyani o‘rganishning asosiy uslubiy yondashuvlari, shuningdek, ma’rifatli jamiyatning mohiyati va ahamiyatini ochib berishga yordam beradigan turli xil falsafiy talqinlar ko‘rib chiqiladi.

Ma’rifatli jamiyat g‘oyasining metodologiyasi ushbu konsepsiyani tahlil qilish va tadqiq qilish uchun ishlatiladigan bir qator yondashuvlar va usullarni o‘z ichiga oladi. Ma’rifatli jamiyat g‘oyasi chuqur tarixiy ildizlarga va ko‘p qatlamli falsafiy talqinlarga ega. Ushbu konsepsiya nafaqat turli tarixiy davrlarda jamiyatlarning rivojlanish yo’nalishlarini belgilab berdi, balki zamonaviy ijtimoiy-madaniy va siyosiy jarayonlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatishda davom etmoqda. Ushbu paragrafda ma’rifatli jamiyat g‘oyasiga tarixiy yondashuv metodologiyasi va uning falsafiy talqini ko‘rib chiqiladi va manbalar tahlil qilinadi.

Tarixiy yondashuv usuli ma’rifatli jamiyat g‘oyasining qadim zamonlardan to hozirgi kungacha evolyutsiyasini kuzatishga imkon beradi. Tarixiy tahlil ma’rifat g‘oyalari qanday o‘zgarganini va ularning rivojlanishiga qanday omillar ta’sir qilganini tushunishga yordam beradi[1.23]. Ma’rifatli jamiyatni o‘rganishga tarixiy yondashuv asrlar davomida ushbu g‘oyaning rivojlanishining turli bosqichlarini tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Bu tushunchani o‘rganishda eng muhim davrlar quyidagilar:

Antik davr: Aflotun va Aristotelning asarlarida ma’rifatli jamiyat g‘oyasi ideal davlat va adolat tushunchalarida aks etgan. Aflotun o‘zining "Davlat"[2.446] risolasida (miloddan avvalgi IV asrda nashr etilgan) adolatli jamiyatga erishish uchun ta’lim va falsafiy boshqaruvning ahamiyatiga e’tibor qaratdi. Aristotel "Siyosat"da[3.] (miloddan avvalgi IV asr) davlatni umumiy manfaatlarga erishish mexanizmi deb hisoblagan;

O‘rta asrlar: o‘rta asrlarda Yevropada va Islom dunyosida ma’rifat g‘oyalari diniy fikr ta’sirida rivojlandi. Masalan, Al-Farobiy "Fozil odamlar shahri"[4.45] asaridada (X asrda nashr etilgan) axloqiy va intellektual fazilatlarga asoslangan ideal jamiyatni tasvirlab bergan;

Ma’rifatchilik davri: 18-asrda G‘arbiy Yevropada ma’rifat ratsionallik, fan va individual huquqlarga e’tibor qaratadigan muhim falsafiy harakatga aylandi. Volter, Russo va Kant ma’rifatli jamiyat haqida erkinlik va taraqqiyotga erishish vositasi sifatida yozishgan;

Yangi davr: XX va XXI asrlarda ma’rifatli jamiyat g‘oyalari globallashuv va axborot texnologiyalari kontekstida rivojlanmoqda. Yurgen Xabermas kabi faylasuflar demokratik jamiyat rivojida aloqa va jamoat sohasining rolini o‘rganadilar.

“Ma’rifatli jamiyat” tushunchasi ko‘p qirrali bo‘lib, asrlar davomida rivojlanib kelmoqda. Tarixiy yondashuv ushbu g‘oyaning evolyutsiyasini antik davrdan to hozirgi kungacha kuzatib borishga imkon beradi va falsafiy talqin uning ratsionallik, axloq, ijtimoiy adolat va siyosiy erkinlik kabi asosiy elementlarini ochib beradi. Ishlatilgan manbalar ushbu mavzuning turli madaniyatlar va davrlar kontekstida ahamiyatini ta’kidlab, uning hozirgi zamonda ham dolzarbligini tasdiqlaydi.

Qiyosiy tahlil usuli turli madaniy va tarixiy kontekstlarda ma’rifatli jamiyatning turli modellarini taqqoslash uchun ishlatiladi. Bu umumiy xususiyatlar va farqlarni aniqlashga, shuningdek, ma’rifatli jamiyatni shakllantirish uchun qaysi elementlar muhimligini tushunishga imkon beradi. Qiyosiy tahlil G‘arb va Sharqda ushbu g‘oyani talqin qilishda umumiy xususiyatlar va farqlarni aniqlashga imkon beradi. Ushbu paragrafda ma’rifatli jamiyat g‘oyasini qiyosiy tahlil qilish metodologiyasi, shuningdek uning falsafiy talqini ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda foydalanilgan manbalar ushbu kontseptsiyani tushunish uchun kerakli sharh va kontekstni taqdim etadi. Qiyosiy tahlil metodologik yondashuv sifatida bir nechta asosiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- o‘rganilayotgan obektlarning ta’rifi: bu holda, bu g‘arb va sharqdagi ma’rifatli jamiyat g‘oyasining talqinlari;

- ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish: bunga faylasuflar, tarixchilar va sotsiologlarning ma’rifatli jamiyat tushunchasini tavsiflovchi asarlari kiradi;

- taqqoslash mezonlarini aniqlash: asosiy mezonlarga ratsionallik, axloq, ijtimoiy adolat va siyosiy erkinlik kiradi;

- qiyosiy tahlil asosida tanlangan mezonlar orqali G‘arb va Sharqdagi talqinlarning qiyosiy tahlili o‘tkaziladi.

Ma’rifatli jamiyat g‘oyasini qiyosiy tahlil qilish G‘arb va Sharqda ushbu konsepsiyani talqin qilishda o‘xshashlik va farqlarni aniqlashga imkon beradi. Ushbu talqinlarni shakllantirishda tarixiy va madaniy kontekstlar muhim rol o‘ynaydi, ammo ratsionallik, axloq, ijtimoiy adolat va siyosiy erkinlikning umumiy mavzulari turli yondashuvlarni birlashtiradi. Manbalarni tahlil qilish ushbu mavzuning zamonaviy dunyoda dolzarbligi va ahamiyatini tasdiqlaydi, ma’rifatli jamiyatni tushunish va rivojlantirish uchun yangi istiqbollarni taklif etadi.

Tanqidiy yondashuv asosida tahlil ma’rifatli jamiyatning mavjud nazariyalaridagi kamchiliklar va qarama-qarshiliklarni aniqlashga qaratilgan. Ushbu usul muammoni tushunishni yaxshilashga va uni hal qilishning yangi usullarini taklif qilishga imkon beradi. Ma’rifatli jamiyat konsepsiya sifatida oqilona boshqariladigan, adolatli va erkin jamiyat yaratishga intiladigan idealdir. Falsafiy va sotsiologik ta’limotlar doirasida bu g‘oya ko‘plab tanqidiy munosabatlarga duch keldi. Tanqidiy yondashuv metodologiyasi ma’rifatli jamiyat g‘oyasini chuqurroq tushunish va baholashga imkon beradi, uning kuchli va zaif tomonlarini ochib beradi.

Bu g‘oyani o‘rganishga tanqidiy yondashuv quyidagi asosiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- tarixiy kontekst: ma’rifatli jamiyat g‘oyasining paydo bo‘lishi va rivojlanishining tarixiy kontekstini, shu jumladan madaniy, ijtimoiy va siyosiy omillarni tahlil qilish;

- matnni dekonstruksiya qilish: asosiy matnlar va manbalarni o‘rganish, ularda keltirilgan g‘oyalarni tanqidiy tushunish;

- mafkuraviy tahlil: ma’rifatli jamiyat konsepsiyasining asosini tashkil etuvchi mafkuraviy binolarni aniqlash va tahlil qilish;

- ijtimoiy tanqid: ma’rifatli jamiyat g‘oyasining ijtimoiy tuzilmalar va institutlarga ta’sirini baholash, uning qo‘llanilishi va realizmini tahlil qilish.

Ma’rifatli jamiyat g‘oyasiga tanqidiy yondashuv metodologiyasi uning falsafiy va ijtimoiy jihatlarini chuqurroq tushunishga imkon beradi. Tanqidiy tushunish shuni ko‘rsatadiki, o‘z ideallariga qaramay, ma’rifatli jamiyat ko‘plab qarama-qarshiliklar va dilemmalarga duch keladi. Ushbu kontseptsiyaning falsafiy talqini tarixiy kontekstni, ijtimoiy sharoitlarni va madaniy qadriyatlarning xilma-xilligini hisobga olishni talab qiladi. Ushbu maqolada ishlatilgan manbalar ushbu muhim mavzuni yanada tadqiq qilish va tushunish uchun keng ma’lumot beradi.

Fanlararo yondashuv ma’rifatli jamiyat metodologiyasidagi falsafa, sotsiologiya, siyosatshunoslik, iqtisodiyot va madaniyatshunoslik kabi turli fanlardan bilimlarni birlashtirishni o‘z ichiga oladi. Bu ma’rifatli jamiyat tushunchasini har tomonlama tushunishga yordam beradi.

Ma’rifatli jamiyat konsepsiya sifatida oqilona boshqariladigan, adolatli va erkin jamiyat yaratishga intiladigan idealdir. Ushbu g‘oyani o‘rganishga fanlararo yondashuv falsafa, sotsiologiya, tarix, iqtisodiyot va siyosatshunoslik kabi turli fanlardan bilim va usullardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Ushbu yondashuv ma’rifatli jamiyat kontseptsiyasini yanada to‘liq va chuqur tushunishga, uning murakkab munosabatlarini va inson hayotining turli jihatlariga ta’sirini ochib berishga imkon beradi. Ushbu maqolada biz ma’rifatli jamiyat g‘oyasini fanlararo tahlil qilishning asosiy jihatlarini va uning falsafiy talqinini ko‘rib chiqamiz.

Fanlararo yondashuv metodologiyasi quyidagi yo‘nalishlarda olib borilmoqda:

falsafa va axloq qoidalari: ma’rifatli jamiyatning falsafiy tadqiqotlari uning asosidagi axloqiy va axloqiy tamoyillarga qaratilgan. ratsionallik, erkinlik, adolat va avtonomiya kabi tushunchalar asosida o‘rganilmoqda;

sotsiologiya: sotsiologik tadqiqotlar ma’rifatli jamiyatni tashkil etuvchi tuzilmalar va jarayonlarni, shu jumladan ijtimoiy institutlarni, sinf tuzilmalarini va hokimiyat munosabatlarini tahlil qiladi;

tarix: tarixiy tahlil ma’rifatli jamiyat g‘oyasining evolyutsiyasini tushunishga, uning ildizlari va turli tarixiy davrlardagi o‘zgarishlarini ochib berishga imkon beradi;

iqtisodiyot: iqtisodiy tadqiqotlar iqtisodiy tizimlar va ma’rifatli jamiyat g‘oyalari o‘rtasidagi munosabatlarga e’tibor qaratadi, resurslarni taqsimlash, iqtisodiy tengsizlik va bozor mexanizmlarining roli kabi masalalarni tahlil qiladi;

siyosatshunoslik: siyosiy tadqiqotlar ma’rifatli jamiyat shakllanishini qo‘llab-quvvatlovchi yoki to‘sqinlik qiladigan siyosiy tuzilmalar va jarayonlarni, shu jumladan demokratiya, inson huquqlari va fuqarolik jamiyati masalalarini o‘rganadi.

Ma’rifatli jamiyat g‘oyasini o‘rganishga fanlararo yondashuv uni turli nuqtai nazardan chuqurroq va to‘liqroq tushunishga imkon beradi. Ushbu g‘oyaning falsafiy talqini ratsionallik, axloq, ijtimoiy adolat, kuch va muloqotni tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Turli fanlarning usullari va bilimlaridan foydalangan holda, ushbu kontseptsiyaning jamiyat rivojiga kompleks munosabatlari va ta’sirini aniqlash mumkin. Ushbu maqolada ishlatilgan manbalar ushbu muhim mavzuni yanada tadqiq qilish va tushunish uchun keng ma’lumot beradi.

Umuman olganda, tarixiy yondashuv nuqtai nazaridan ma’rifatli jamiyat g‘oyasi insoniyat tafakkurining turli bosqichlarida turlicha shakllarda namoyon bo‘lgan bo‘lsa-da, uning mazmuniy yadrosi insonni bilim va ma’naviyat orqali kamolotga yetkazish g‘oyasi bilan bog‘liq bo‘lib qolgan. Avestodagi ezgu fikr va ezgu amal tamoyillaridan tortib, Forobiyning fozil jamiyati, jadidlarning milliy uyg‘onish konsepsiyasi hamda Suqrot, Platon, Kant va Xabermas kabi G‘arb mutafakkirlarining qarashlarigacha bo‘lgan evolyusiya shuni ko‘rsatadiki, ma’rifatli jamiyat har bir davrda taraqqiyotning ma’naviy-axloqiy mezoni sifatida talqin qilingan. Qiyosiy tahlil esa Sharq va G‘arb an’analarida ayrim tafovutlar mavjud bo‘lishiga qaramay, ularning umumiy maqsadi bilimli, axloqiy mas’uliyatli va ijtimoiy faol insonni shakllantirishdan iborat ekanligini ko‘rsatadi. Demak, ma’rifatli jamiyat g‘oyasi muayyan xalq yoki sivilizatsiyaga xos emas, balki insoniyatning umumiy madaniy va falsafiy merosi sifatida namoyon bo‘ladi.

Tanqidiy yondashuv ma’rifatli jamiyatni faqat ta’lim darajasi yoki axborot texnologiyalarining rivojlanganligi bilan baholash yetarli emasligini ko‘rsatadi. Chunki bilimning o‘sishi har doim ham ma’naviy yuksalishga olib kelavermaydi; agar bilim axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy mas’uliyat bilan uyg‘unlashmasa, u hatto ijtimoiy ziddiyatlarni kuchaytirishi mumkin. Fanlararo yondashuv esa mazkur g‘oyaning falsafa, sotsiologiya, pedagogika, psixologiya, siyosatshunoslik va madaniyatshunoslik kabi sohalar bilan uzviy bog‘liq ekanligini isbotlaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ma’rifatli jamiyat bilim, ma’naviyat, axloq, fuqarolik madaniyati va ijtimoiy faollikning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadigan murakkab ijtimoiy tizimdir. Uning asosiy maqsadi faqat bilimli insonni emas, balki mustaqil fikrlaydigan, ma’naviy yetuk va ijtimoiy mas’uliyatli shaxsni tarbiyalash orqali barqaror taraqqiyotni ta’minlashdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Arthur O. Lovejoy. The Great Chain of Being: A Study of the History of an Idea. Cambridge, Massachusetts: Harvard University Press, 1936. – pp. 3–23.
2. Aflotun (Platon) “Davlat” A.N. Egunov tarjimasi Izdatelstvo AST, 446 b
3. https://www.civisbook.ru/files/File/Aristotel_Politika.pdf.
4. Al-Farobiy, "Fozil odamlar shahri":. Nashriyotchi: Toshkent, 1993 yil 45 b

MAKON VA ZAMON

Ilmiy-falsafiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-sotsiologik, ma’naviy-ma’rifiy jurnal

2026/4

ISSN tartib raqami 3030–3974

Bosh muharrir – tahririyat rahbari:
Q.N.Nazarov – *f.f.d., professor*

Nashrga tayyorlovchilar:
M.Tursunova, M.Turdiyeva, Q.Kdirbayev

Tahririyat manzili:
Qori Niyoziy ko‘chasi, 39,
Toshkent shahri, 100000, O‘zbekiston
tiiame.uz
Bichimi 60x84 Ofset qog‘ozi. “Times” garniturasi.
Hajmi 20 b.t. Nashriyot hisob tabog‘i 30 b.t. Adadi 100 nusxa